International Scientific Conference

NEW RESEARCH ON THE WORKS OF ALISHER NAVOI AND ZAHIRUDDIN MUHAMMAD BABUR

25 FEBRUARY
2022 YEAR

UZBEKISTAN, TASHKENT

“RESEARCH AND EDUCATION”
Scientific Research Center



“NEW RESEARCH ON THE WORKS OF ALISHER NAVOI AND ZAHIRUDDIN MUHAMMAD BABUR”

www.researchedu.uz

Languages of publication: o’zbek, english, русский

TASHKENT, UZBEKISTAN
2022/ FEBRUARY 25

TABLE OF CONTENTS

Sr. No. Paper/ Author
1
ЎЗБЕК ЖУРНАЛИСТИКАСИДА ТАҲРИР АМАЛИЁТИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИДА ТАҲРИР МАСАЛАСИ **Абдюжанова Вазира Хусан қизи** **Page No.: 24-32**
2
ТАСАВВУФИЙ "МАЖОЗ ИШҚИ" АЛИШЕР НАВОИЙ НАЗДИДА **Қамбаров Мусохон Мухторжанович** **Page No.: 33-38**
3
ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ADABIYOTIMIZ VAKILLARI NIGOHIDA HAMISHA BARHAYOT **Jurakulov Jamol Komilovich** **Page No.: 39-47**
4
ALISHER NAVOIY MUSIQASHUNOS OLIM SIFATIDA **Tugalov Boburjon Baxodir o'g'li** **Page No.: 48-54**
5
ASARLARIDA ALISHER NAVOIY TA'LIM-TARBIYA MASALALARI **Sardor Nurmurof o'g'li Kenjayev** **Page No.: 55-59**
6
"MAHBUB UL –QULUB" –FALSAFIY, AXLOQIY-DIDAKTIK ASAR **Gulhayoxon Haydarova** **Page No.: 60-64**
7
ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЎЗБЕК ВА БОШҚА ТИЛЛАРДА АЛИШЕР НАВОИЙ АФОРИЗМЛАРИНИНГ (ХИКМАТЛИ СЎЗЛАРИ) ИШЛАТИЛИШИ ВА ТАРБИЯВИЙ АҲАМИЯТИ. **Ташпулатова Дилноза Холмирза** **Page No.: 65-72**

8
АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИ ТИЛИДАГИ ФИТОНИМЛАРНИНГ ЎРГАНИЛИШИ **Усманова Махфуза Садиковна** **Page No.: 73-80**
9
М.Т.ОЙБЕК АЛИШЕР НАВОИЙНИНГ ТАСАВВУФИЙ ҚАРАШЛАРИ ҲАҚИДА **Худойбердиева Гулнора Хурсандовна** **Page No.: 81-85**
10
ТВОРЧЕСТВО АЛИШЕРА НАВАИ И ЗАХИРИДДИН МУХАММАДА, БОБУРА-ВЕЛИКОЕ НАСЛЕДИЕ ДЛЯ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА **Убайдова Д. А.** **Page No.: 86-90**
11
ТВОРЧЕСТВО А. НАВОИ И А.С. ПУШКИНА: ТОЧКИ СОПРИКОСНОВЕНИЯ **Суханов Виктор Алексеевич** **Page No.: 91-97**
12
АЛИШЕР НАВОИ – ГОРДОСТЬ УЗБЕКСКОГО НАРОДА **Эргашева Дилфуза Камиловна** **Page No.: 98-102**
13
ALISHER NAVOIY LIRIK MEROSINING BUGUNGI KUNGACHA O`RGANILISHI** **Safarov Husniddin Sirojiddin o`g`li, **Page No.: 103-109**
14
ВОСПИТАНИЕ И ОБУЧЕНИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ ИДЕЯМ АЛИШЕРА НАВОИ **Нигматуллина Дилнора Мухторовна** **Page No.: 110-115**

15
ALISHER NAVOIYNING "SADDI ISKANDARIY" ASARIDAGI HIKOYATLARNING QIYOSIY TAHLILI **Asliddin Tohirov Baxrom o'g'li** **Page No.: 116-124**
16
ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TIL VA NUTQ MASALASI **Arabboyeva M.M** **Page No.: 125-128**
17
ALISHER NAVOIYNING "LISON UT-TAYR" DOSTONIDAGI BIR HIKOYAT SHARHI **Yorbulova Dildora Shokir qizi** **Page No.: 129-133**
18
ALISHER NAVOIYNOING "FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDA SHIRIN OBRAZINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI. **Ho'jamberdiyeva Dildora Rustam qizi** **Page No.: 134-137**
19
NAVOIY ASARLARINING QORAQALPOQCHA TARJIMALARI TILINING MA'NO-STILISTIK XUSUSIYATLARI **Jangabaev Azizbek Turdibek o'g'li** **Page No.: 138-146**
20
FAMILY AND CHILD EDUCATION ISSUES IN ALISHER NAVOI SPIRITUAL HERITAGE **Tagoyeva Dilnavoz Narzikulovna** **Page No.: 147-151**
21
SO'Z MULKINING SULTONI NIZOMIDDIN MIR ALISHERNING DAVLATCHILIK TARIXIGA OID QARASHLARINING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI. **Ibragimova Diyora Islomjon qizi** **Page No.: 152-156**

22
SHARQ MUMTOZ ADABIYOTI VA NAVOIY IJODIDA QUR’ON OYATLARINING O‘RNI **Karimov Diyorbek Toshtemir o`g`li** **Page No.: 157-162**
23
HIMMAT VA SAXOVATDA BENAZIR ZOT. **SH.U.Jamolova** **Page No.: 163-165**
24
ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ISHLARI BO‘YICHA YANGI TADQIQOT **Muyassarova Dilorom Baxtiyorovna** **Page No.: 166-170**
25
NAVOIY NAZMIDA KOMILLIK AKSI **Rayimova Shahnoza Sodiqovna** **Page No.: 171-181**
26
NAVOI AND UZBEK LITERARY LANGUAGE **Abdulboqiyeva Moxichehra Hamidulla qizi** **Page No.: 182-191**
27
DUNYONI MA’NAVIY TANAZZULDAN QUTQARA OLADIGAN MUTAFAKKIR. **Diyorbek Jo`ramirzayev** **Page No.: 192-197**
28
NAVOIY ASARLARIDA SHE’RIYAT VA ISLOM TA’LIMOTLARI UYG’UNLIGI **Nazimjonova Dilzoda Nizomiddin qizi** **Page No.: 198-204**
29
ALISHER NAVOIYNING TABARRUK SIYMOSI **Ravshanova Sevinch** **Page No.: 205-210**

30
"LISON UT-TAYR" IS A FIGURATIVE IDENTITY **Bahronova Dilnora Alisher qizi** **Page No.: 211-214**
31
ALISHER NAVOI QARASHLARIDA TA'LIM VA TARBIYAGA E'TIBOR **Pulatova Xurshidaxon** **Page No.: 215-220**
32
ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDA ISLOMIY TUSHUNCHALAR TALQINI **Barotova Nodira Azimovna** **Page No.: 221-224**
33
ESKI O'ZBEK TILIDA YARATILGAN SHE'RIY MATNLARNI O'RGANISHDA LUG'ATLARNING O'RNI **Usmanova Ziyodaxon Ilxomjon qizi** **Page No.: 225-232**
34
FARZAND TARBIYASIDA OILA VA MAKTABNING O'RNI TO'G'RISIDA NAVOIY QARASHLARI **Hamroyeva Sanobar Bozorovna** **Page No.: 233-239**
35
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TAYYORLOV GURUHLARIDA A.NAVOIYNING "SHE'R BILAN DURROJ" HIKOYASINI O'RGATISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI **Mirazimova Muxabbat Normatovna** **Page No.: 240-243**
36
THE GLORIFICATION OF HUMAN QUALITES IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI **Bakhronova Matluba Akhmedovna** **Page No.: 244-247**
37
TARIX FANINI O'QITISHDA ALISHER NAVOIY SHAXSIYATINING O'RNI VA AHAMIYATI **Norova Dildora Radjabovna** **Page No.: 248-251**

38
АЛИШЕР НАВОИЙ ҲИКМАТЛАРИДА ИНСОНИЙ ФАЗИЛАТЛАР ТАРАННУМИ **Ҳусанова Машҳура Аҳмаджоновна** **Page No.: 252-255**
39
АЛИШЕР НАВОИЙНИНГ “ОЙИМ УЛ-МУҲАББАТ” АСАРИДА ШАЙХ ШИҲОБУДДУН СУҲРАВАРДИЙ ВА СУҲРАВАРДИЯ ТАРИҚАТИ ҲАҚИДА Ш.Б.Муртозаев **Page No.: 256-261**
40
АЛИШЕР НАВОИЙНИ АНГЛАШ ФАЛСАФАСИ **Узоков Ботир** **Page No.: 262-269**
41
ALISHER NAVOIY KOMIL INSON TAVSIFI HAQIDA **Nizamova Muyassarxon Nuritdinovna** **Page No.: 270-277**
42
АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДА АЁЛЛАР МАДҲИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ **Гулнора Ниязова** **Page No.: 278-282**
43
НАВОИЙГА БАҒИШЛАНГАН МУВАШШАҲ **Арофатой Муйдинова** **Page No.: 283-288**
44
ERISHILGAN BOYLIKNI ELGA SOCHISH BAXTI **Rasulova Rayxon Bahritdinovna** **Page No.: 289-295**
45
АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДА КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ МАСАЛАСИ **Хидиров Хошим Ибодуллаевич** **Page No.: 296-301**

46
НАВОИЙНИНГ "НЕ ПЎЯ УРДИМ ЙЎЛИДА..." ҒАЗАЛИ ҲАҚИДА **Шарофат Исмоилова** **Page No.: 302-305**
47
АЛИШЕР НАВОИ – ПОЭТ, МЫСЛИТЕЛЬ, ГУМАНИСТ **Салихова Замира Аминовна** **Page No.: 306-310**
48
ALISHER NAVOIY "TURKIYLAR CHOSERI"MI? **Avezova Aziza Mavlonjonovna** **Page No.: 311-317**
49
ALISHER NAVOIYNING "LISON UT-TAYR" ASARIDAGI MILLIY VA TARIXIY KIYIM NOMLARINI-XOS SO'ZLARNI INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI **Berkinova Gulshan** **Page No.: 318-323**
50
ALISHER NAVOIY IJODIDA NAFS TARBIYASI. **Jo`rayeva Muhabbat Amonovna** **Page No.: 324-329**
51
ВОСПИТАНИЕ И ОБУЧЕНИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ ИДЕЯМ АЛИШЕРА НАВОИ **Нигматуллина Дилнора Мухторовна** **Page No.: 330-335**
52
ALISHER NAVOIYNING "SADDI ISKANDARIY" ASARIDAGI HIKOYATLARNING QIYOSIY TAHLILI **Asliddin Tohirov Baxrom o'g'li** **Page No.: 336-344**
53
"MIFTOH UL-ADL" ASARIDA ALISHER NAVOIY AN'ANALARI **Ibroximova Sevaraxon Sodiqjon qizi** **Page No.: 345-349**

54
KO'NGILLARNING SEVGANI.... **Bozorova Dilnur Ravub qizi** **Page No.: 350-355**
55
ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TASAVVUF TIMSOLLARINING VOQELANISHI **Boboxo'jayeva Laziza Axtamovna** **Page No.: 356-360**
56
ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODI. **Kaipova Sholpan** **Page No.: 361-362**
57
TAKRORLANMAS SHAXSIYAT SOHIBI. **(A.NAVOIY IJODI ASOSIDA)** **Ochilova Gulshoda Yoqub qizi.** **Page No.: 363-367**
58
ALISHER NAVOIY ASARLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI **Hayitmirzayeva Muazzam Valijon qizi** **Page No.: 368-372**
59
"MIFTOH UL-ADL" ASARIDA ALISHER NAVOIY AN'ANALARI **Ibroximova Sevaraxon Sodiqjon qizi** **Page No.: 373-377**
60
"LAYLI VA MAJNUN" – AFSONA VA HAQIQAT **Matyoqubova Zuxra O`rinbayevna** **Page No.: 378-384**
61
"MAHBUB UL QULUB" ASARIDA TARIXIY SHAXS NOMLARINING QO`LLANILISHI **Raxshona Muslixiddinova** **Page No.: 385-389**
62
ALISHER NAVOIY – SO'Z MULKINING SULTONI **Mutalova Buvray Abduraxmon qizi** **Page No.: 390-395**

63
NAVOIY POETIKASIGA BIR NAZAR **Sevaraxon Sharipova** **Page No.: 396-401**
64
ALISHER NAVOIYNING QARDOSH XALQLAR ADABIYOTIDA TUTGAN O'RNI **Алимкулов Абдуалим** **Page No.: 402-406**
65
ALISHER NAVOI LITERARY HERITAGE IN THE VIEW OF TEXT STUDENTS **Otakulova Dildora Khakimbek kizi** **Page No.: 407-412**
66
НАВОИЙ ЎГИТЛАРИДА БАРКАМОЛ АВЛОД ТАРБИЯСИ МАСАЛАЛАРИ **Қурбонова Ширин Ҳикматовна** **Page No.: 413-417**
67
ESKI O'ZBEK TILIDAGI RAVISHDOSH SHAKLLARINING BA'ZI XUSUSIYATLARI (ALISHER NAVOIYNING "XAZOYIN UL-MAONIY" KULLIYOTI ASOSIDA) **Sobirova Muxlisaxon Mashrabxon qizi** **Page No.: 418-421**
68
DIN-U DAVLAT HOMIYSI, MILLATNING PUSHTI PANOHI- MIR ALISHER NAVOIY. **Sobirova Sayyora Tolibjon Qizi** **Page No.: 422-427**
69
MUMTOZ ADIBLAR IJODIDA TA'LIM-TARBIYA MASALASI **Toshpulatova Dilshoda Sirojiddin qizi** **Page No.: 428-433**
70
THE LIFE OF ALISHER NAVOI, WHO MADE A GREAT CONTRIBUTION TO THE SPIRITUAL HERITAGE OF UZBEK LITERATURE **Munavvarkhonova Mahliyokhon Muzaffarkhon kizi** **Page No.: 434-438**

71
ALISHER NAVOIY “XAMSA” SIDA SAHOVAT VA MURUVVAT MAVZUSI **Jovliyeva Yulduz Abdivasi qizi** **Page No.: 439-444**
72
ALISHER NAVOIY VA BOBUR **Elonova Sitorabonu** **Page No.: 445-448**
73
АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИ ТИЛИДАГИ ФИТОНИМЛАРНИНГ ЎРГАНИЛИШИ **Усманова Махфуза Садиковна** **Page No.: 449-456**
74
HAZRATI NAVOIY DAVRIDA MUSIQA SAN`ATI** **To`xtayeva Mohigul **Page No.: 457-460**
75
АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ИРСОЛИ МАСАЛ САНЪАТИНИНГ ҚЎЛЛАНИШИ **Турғунпўлатов Диёрбек Рўзмамат ўғли** **Page No.: 461-465**
76
АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИДА ИНСОН ВА АХЛОҚ МАСАЛАСИ **Тиллаева Шахло Мақсудовна** **Page No.: 466-471**
77
NAVOIY IJODIYOTI YEVROPA TARJIMONLARI NIGOHIDA **Hojiyeva Gulchehra Salimovna** **Page No.: 472-477**
78
ALISHER NAVOIYNING OILAVIY MUNOSABATLAR BORASIDAGI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QARASHLARI **Badritdinova Madina Baxromovna** **Page No.: 478-480**
79
ALISHER NAVOIYNING FORSIY QASIDACHILIK MEROSIGA QO’SHGAN HISSSASI **Norova Oydin Homitovna** **Page No.: 481-484**

80
ALISHER NAVOIY ASARLARIDA KOMIL INSON TARANNUMI **O`rmonova Dilfuzaxon Mamasaliyevna** **Page No.: 485-493**
81
BARKAMOL SHAXS TA'LIM –TARBIYASIDA ALISHER NAVOIY ASARLARINING O'RNI. **Sultonova Dilobar Axmedovna** **Page No.: 494-497**
82
"FARHOD VA SHIRIN" DOSTONI USTOZ OYBEK CHIZGILARIDA **Mavlonova Mohigul Uralovna** **Page No.: 498-503**
83
ALISHER NAVOIY ASARLARINING YUKSAK MA`NAVIYATLI AVLOD TARBIYASIDAGI MUHIM AHAMIYATI** **Xojiboyev Ahmadjon Abdulhoshim o`g`li **Page No.: 504-510**
84
THE IMPACT OF ALISHER NAVOI AND ZAHIRRIDDIN MUHAMMAD BOBUR'S MASTERPIECES ON RENAISSANCE IN XV-CENTURY AS WELL AS THEIR ROLE IN SOCEITY'. **Atoboyeva Aziza** **Page No.: 511-514**
85
USE OF AUXILIARY WORDS IN ALISHER NAVOI'S WORKS **Rasbergenova Bibinazayim** **Page No.: 515-518**
86
ALISHER NAVOIYNING TO'LIQ INSON TUSHUNCHASI **Numonov Fayzulla Nurmuhammadjon o'g'li** **Page No.: 519-526**
87
ALISHER NAVOIYNING O'ZBEK ADABIYOTIDAGI O'RNI **Kalbaeva Gulchexra Polat qizi** **Page No.: 527-529**

88
ALISHER NAVOIY ASARLARINING BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI **Hamrayev Og'abek Ziyodullo o'g'li** **Page No.: 530-532**
89
ALISHER NAVOIYNING "NAZM UL-JAVOHIR" ASARIDA NUTQ MADANIYATI VA SO'Z HAQIDA QARASHLAR **Bekmuradova Iroda Zokir qizi** **Page No.: 533-537**
90
ALISHER NAVOIYNING INSON KAMOLOTIGA TA'SIR ETUVCHI TA'LIMIY-AXLOQIY QARASHLARI **Nuriddinova Azizaxon Bahromjon qizi** **Page No.: 538-547**
91
ALISHER NAVOIYNING TASAVVUFIY ASARLARI **Shomurodova Diloromxon Bobomurod qizi** **Page No.: 548-550**
92
BUYUK MUTAFAKKIR ALISHER NAVOIY ASARLARIDA RANGLAR JILOSI **Xo'jamova Gulsevar Abdullajon qizi** **Page No.: 551-555**
93
ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODI-HAMISHA BARHAYOT **Ergashev Baxtiyor Abloqulovich** **Page No.: 556-561**
94
O'ZBEK ADABIYOTINING ENG YIRIK NAMOYONDASI- ALISHER NAVOIY ASARLARINING ILMIY SALOHIYATI **Ibrohimova Marhabo Ulug'bek qizi** **Page No.: 562-567**
95
ALISHER NAVOIYNING "FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDA KOMIL INSON TUSHUNCHASI **Mirzaabdullayeva Feruzaxon Muxtorjon qizi** **Page No.: 568-570**

96
NAZMIY SAROY SULTONI **Axrorov Abror** **Page No.: 571-575**
97
TURKIYNI TANITGAN NAVOIY **Nosirova Shahlo Nodirjon qizi** **Page No.: 576-583**
98
ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TIL MASALALARINING YORITILISHI ("MUHOKAMAT UL-LUG'ATAYN" ASARI MISOLIDA) **Odambayeva Umida Baxtiyor qizi** **Page No.: 584-587**
99
ALISHER NAVOIY VA FURQAT IJODIDA USTOZ-SHOGIRDLIK AN'ANASI **Rozumova Svetlana Viktorovna** **Page No.: 588-593**
100
ALISHER NAVOIY NURBOY JABBOROV TALQINIDA **Abduqodirova Sarvinoz Qobuljon qizi** **Page No.: 594-599**
101
"MUHOKAMAT – UL LUG'ATAYN" ASARI HAQIDA **Primov Sunnatillo Elmurod O'g'li** **Page No.: 600-604**
103
ALISHER NAVOIYNING TURKIY TIL RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI **Xamdamov Temur Doniyor o'g'li** **Page No.: 605-608**
104
ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУРНИНГ МАЪРИФИЙ-АХЛОҚИЙ ҚАРАШЛАРИ **Қамбаров Мусохон Мухторжанович** **Page No.: 608-616**

105
ЁШЛАРДА ВАТАНПАРВАРЛИК ҲИССИНИ ТАРБИЯЛАШДА “БОБУРНОМА” АСАРИГА ИШЛАНГАН МИНИАТЮРАЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ **Ҳайдаров Сулаймон Амиркулович** **Page No.: 617-624**
106
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ASARLARINING TARIXIY AHAMIYATI **Tojixon Sabitova** **Page No.: 625-632**
107
БОБУР ИЖОДИДА МУАЛЛИФ ШАХСИЯТИ ТАСВИРИ **Холиқулова Гулсанам Ёркуловна** **Page No.: 633-639**
108
АНДИЖОННИНГ “БОБУРНОМА”ДАГИ ТАЪРИФИ **Мамажонов Алишер** **Page No.: 640-646**
109
O’TKIR QILICH VA QALAM SOHIBI: BOBUR MEROSI JAHON OLIMLARI NIGOHIDA **Rajabov Alisher Shavkatovich** **Page No.: 647-653**
110
BOBUR VA XOJA KALON DO’STLIGI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR **Raxmanova Nafisa Azatbekovna** **Page No.: 654-660**
111
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ASARLARIDA PEDAGOGIK QARASHLAR **Bobomurotova Zamira Ahmadovna** **Page No.: 661-665**
112
ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР – ЖАҲОНИЙ СИЙМО **Кенжаева Саодат Нурмуродовна** **Page No.: 666-670**

113
ЗАҲАРИДДИН МУҲАММАД БОБУР СИЙМОСИГА БИР НАЗАР **Садоқат Нурмуродовна Кенжаева** **Page No.: 671-675**
114
“BOBURNOMA”NING TARIXIY MANBA SIFATIDAGI O’RNI **Olimov Kozimjon Komiljon o’g’li** **Page No.: 676-681**
115
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR IS ONE OF THE GREAT SONS OF HUMANITY **Boltayeva Mahbuba Sharipovna** **Page No.: 682-687**
116
NEW RESEARCH ON THE WORKS OF ALISHER NAVOI AND ZAHIRUDDIN MUHAMMAD BABUR **Ahmadova Durdona Faxriddin qizi** **Page No.: 688-690**
117
„BOBURNOMA“ O‘ZBEK VA JAHON ADABIY MEROSINING YETUK XAZINASI **Saydazzamova Chamangul Olimjon qizi** **Page No.: 691-695**
118
BOBUR IJODI VA SHAXSIYATINING YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN O‘RNI **Shahzod Nishonov** **Page No.: 696-701**
119
BOBUR HAYOTI VA FAOLIYATI ADABIYOTSHUNOS VA TARIXCHILAR NIGOHIDA , BOBURSHUNOSLIK **Sattarova Dildora Sunnatullo qizi** **Page No.: 702-707**
120
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA UNING BADIIY MEROSINING O’RTA ASR MADANIYATIDAGI O’RNI **Usanboyev Javlonbek Farxod ugli** **Page No.: 708-712**

121
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR G‘AZALLARIDA METAFORA **Soyibjonova Mo‘tabaroy** **Page No.: 713-716**
122
"BOBURNOMA" IS A WORK OF LITERARY AND HISTORICAL HERITAGE **Khoshimova Mukhtaramkhon** **Page No.: 717-722**
123
ЗАХРИДДИН МУХАММАД БАБУР : ИНТЕРЕСНЫЕ ФАКТЫ ИЗ ЖИЗНИ ВЕЛИКОГО ПОЭТА И ПОЛКОВОДЦА **Абулова М.А.** **Page No.: 723-727**
124
ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР ЛИРИКАСИНИНГ ҒОЯЛАР ОЛАМИ **Дилноза Шароф қизи Шарипова** **Page No.: 728-732**
125
ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР — ДАВЛАТ БОШҚАРУВ СОҲАСИНИНГ ЁРҚИН НАМОЁНДАСИ **Мингбоева Сакинабону Шуҳрат қизи** **Page No.: 733-738**
126
BOBUR – DILBAR SHAXS **Ravshanov Qaxramon Baxodirovich** **Page No.: 739-744**
127
АКАДЕМИК САБОҲАТ АЗИМЖОНОВА-БОБУРШУНОС ОЛИМА **З.А.Шамсиева** **Page No.: 745-750**
128
BOBUR ASARLARIDA VATAN SOG`INCHI. **Axmedova Ruxsora Ibragimovna.** **Page No.: 751-754**

129
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR – BUYUK SHOH VA SHOIR. **Sulaymonova Shoxsanam Absamatovna** **Page No.: 755-758**
130
ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР ШАХСИ ХУСУСИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР **Бекзод Нуралиевич Мирзаев** **Page No.: 759-766**
131
БОБУРНИНГ ФОРС-ТОЖИК ТИЛИДАГИ ИЖОДИГА НУҚТАЙИ НАЗАРЛАР **Ҳикматов Ҳикмат Султонович.** **Page No.: 767-773**
132
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING IJODKORLIK MAHORATI **Nasrilloyeva Yulduz Zikrillo qizi** **Page No.: 774-778**
133
“BOBURNOMA”DA HINDISTON XRONOLOGIYASI VA METROLOGIYASIGA OID MA’LUMOTLAR TASNIFI **Ashrafova Zebiniso Olimovna** **Page No.: 779-783**
134
THE ROLE OF ZAKHIRIDDIN MUKHAMMED BABUR’S OEUVRE IN THE UPBRINGING OF THE YOUNG GENERATION **Sayitova Komila Hasanboyevna** **Page No.: 784-787**
135
BABURIYLAR SULOLASINI JAHON TARIXIDAGI O'RNI **Abdupattayev Abduqaxxor Abduvoxid o`g`li** **Page No.: 788-793**
136
BOBUR- ADOLATLI QALAM SOHIBI. **Buxoro davlat univetsiteti talabasi Shokirova Gulhayo** **Page No.: 794-796**

137
BOBUR LIRIKASI MOHIYATI. SHOIRNING RUHIYATI VA IJODI ORASIDAGI UYG‘UNLIK MASALASI. **Xolmatova Barno Azizjon qizi** **Page No.: 797-801**
138
BOBUR RUBOIYLARIDA POKLANISH MOTIVI **Sheraliyeva Zarnigor Dilshod qizi,** **Page No.: 802-808**
139
BOBURIY SHAHZODALARGA NASIHAT YOXUD „ MUBAYYIN’’ ASARIGA NAZAR **Ne’matov Mirshod Dilshod o’g’li** **Page No.: 809-812**
140
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDA MILLIY-MADANIY FRAZEOLOGIZMLARNING QO‘LLANISHI **Oqmamatova Muqaddas Farxodovna** **Page No.: 813-817**
141
Z.M.BOBUR G'AZALLARIDA VAZNLARNING VARIATSIYAVIYLIGI **Qo'shmamatova Saida Mamatkarim** **Page No.: 818-820**
142
BOBURIYLAR SULOLASINING MA’NAVIY-MA’RIFIY TAFAKKURIGA QO’SHGAN XISSASI. **Muxtorov Rashidjon Ravshanjon o’g’ili** **Page No.: 821-823**
143
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR IS GREAT COMMANDER AND POET **Davlatova Sevara** **Page No.: 824-828**
144
З.М.БОБУР ДАВРИДА ШАРҚ МЕЪМОРЧИЛИК АНЪАНАСИ **Абдувоситова Дилнавоз Алишеровна** **Page No.: 829-835**

145
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI SIYOSATCHILARI NIGOHIDA **Rustamaliyev Mirjalol Hayrullo o‘g‘li** **Page No.: 836-841**
146
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “BOBURNOMA” ASARI VATANIMIZ TARIXIGA OID MUHIM TARIXIY MANBA SIFATIDA **Sunnat Shavkat o‘g‘li Nasilloyev** **Page No.: 842-846**
147
BOBUR SHAXSIYATINING YORQIN JIHATLARIGA NAZAR **Mehruz Mahmudov Bahodir o’g’li** **Page No.: 847-853**
148
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR **Kimsanova Zilolaxon O‘ktamjon qizi** **Page No.: 854-856**
149
“BOBURNOMA” ASARIDA SAN`AT VA SAN`ATKORLAR TALQINI. **Usmonova Dilafruz Madaminjon qizi.** **Page No.: 857-860**
150
BOBUR VA BOBURIYLAR SULOLASINING JAHON SIVILIZATSIYASINING YANGILANISHIGA QO‘SHGAN HISSASI **Abdullayev Axrorjon Axadjon o‘g‘li** **Page No.: 861-866**
151
ALISHER NAVOIY IJODIDA PEDAGOGIK MAHORATNING O’RNI. **Tursunboyeva Jamila Erkinovna** **Page No.: 867-871**
152
НРАВСТВЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ ВЕЛИКОГО ПОЭТА И МЫСЛИТЕЛЯ УЗБЕКСКОГО НАРОДА АЛИШЕРА НАВОИ **Буранова Шохноза Абдуразаковна** **Page No.: 872-877**

153
ВОСПИТАНИЕ И ОБУЧЕНИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ ИДЕЯМ АЛИШЕРА НАВОИ. **Нигматуллина Дилнора Мухторовна** **Page No.: 878-882**
154
ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР ЛИРИКАСИНИНГ ҒОЯЛАР ОЛАМИ **Дилноза Шароф қизи Шарипова** **Page No.: 883-887**
155
BOBUR VA FURQAT IJODIDA VATAN VA G'URBAT KUYLARI **Alimqulova Ma'rifat Baxtiyorovna** **Page No.: 888-893**
156
THE USE OF POETIC IMAGERY IN THE INTRODUCTION TO ALISHER NAVOI'S EPIC "HAYRAT-UL ABROR" **Siddikova Umidahon Sohibjon qizi** **Page No.: 894-901**
157
"HAYRAT UL-ABROR" DOSTONIDAGI HIKOYATLARNING DIDAKTIK TAHLILI **Jumanazarova Umidaxon Rustambek qizi** **Page No.: 902-909**
158
ALISHER NAVOIY BUYUK MUTAFAKKIR, DAVLAT ARBOBI **Ibraimova Jayna Kumisbek qizi** **Page No.: 910-914**
159
NAVOIY G'AZALLARIDA QIYOSLASH USULI **To'rayeva Ferangiz** **Page No.: 915-918**
160
ADOLATLI SHOH VA SHOIR **ABDULLAYEVA GO'ZAL AMRULLO QIZI** **Page No.: 919-923**
161
MILLAT QUYOSHI-ALISHER NAVOIYNING BIZ-YOSHLARGA QOLDIRGAN BUYUK MA`NAVIY MEROSI. **Muhammadqodirova Feruzabonu Otabek qizi** **Page No.: 924-928**

162
THE GLORIFICATION OF HUMAN QUALITIES IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI **Bakhronova Matluba Akhmedovna** **Page No.: 929-932**
163
TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY SIYMOSINI YARATGAN BENAZIR DAHO - ALISHER NAVOIY **Nilufarxon Yaxyopo'latova** **Page No.: 933-936**
164
KOMIL SHAXS TARBIYASI : ALISHER NAVOIYNING "NAZM UL – JAVOHIR" ASARI MISOLIDA. **Sharopov Abdunazar Murod o'g'li** **Page No.: 937-939**
165
BOBURNING HAYOT YO'LLARI **Sayfiddinov Osimxon Obiddin o'g'li** **Page No.: 940-948**
166
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR— LIRIK QAHRAMON **Muxammadsodiq Lapasov Akramjon o'g'li** **Page No.: 949-952**
167
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR IS GREAT COMMANDER AND POET **Davlatova Sevara** **Page No.: 953-956**
168
АЛИШЕР НАВОИЙ ВА ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУРНИНГ АСАРЛАРИДА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯГА ОИД ҚАРАШЛАР **Рахматуллаева Гавҳар Илҳомовна** **Page No.: 957-967**
169
АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИ "КАРРА ЖАДВАЛИ ЭМАС..." **Долиева Дилнура Алишер қизи** **Page No.: 968-971**

ЎЗБЕК ЖУРНАЛИСТИКАСИДА ТАҲРИР АМАЛИЁТИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИДА ТАҲРИР МАСАЛАСИ

Абдюжанова Вазира Хусан қизи
Таянч докторант, Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университети

Аннотация

Мақолада таҳрир тушунчаси, унинг назарий-тарихий ҳамда илмий аспектларда ўрганилиши, ўзбек журналистикасида таҳрир амалиётининг вужудга келиши, мумтоз адабиётда, хусусан, Алишер Навоий ижодида таҳрир масаласи тадқиқ этилган.

Таянч сўзлар: *таҳрир, қўлёзма, шакл ва мазмун, Алишер Навоий, Хусайн Бойқаро, ижодий ҳамкорлик.*

Статья посвящена понятию и работе редактирования, изучению стукруты редактирования в теоретическом, историческом и научном плане, возникновению практики редактирования в узбекской журналистике, в частности, также изучен вопрос редактирования в произведениях Алишера Навои.

Ключевые слова: *редактирование, рукопись, форма и содержание, Алишер Навои, Хусейн Бойкаро, творческое сотрудничество.*

The according article dedicated to the main concept and work of editing, to the studing of the structure of editing in theoretical, historical and scientific terms, especially to the occurrence of the practice of editing in Uzbek journalism. In the article also studies the issues of editing in the works of Alisher Navoi.

Key words: *editing, manuscript, form and content, Alisher Navoi, Hussein Boykaro, creative collaboration.*

Жамиятни ахборот билан таъминлаш функциясини бажараётган оммавий ахборот воситалари материаллари аҳолининг барча қатламларига мўлжалланган сабаб тушунарли, оммабоп усулда тақдим этилиши керак. Шу сабабдан ҳам материал изчил, мантиқий баён қилиниши, келтирилган фактлар аниқ ва ишонарли, текширилган ҳолда тақдим этилиши зарур. Таҳрир айни шу жараёнда материални тушунишни ва барча кераксиз элементларни олиб ташлашни осонлаштиради.

Бугунги ўзбек журналистикасида таҳрир масаласига алоҳида эҳтиёж бор. Нафақат, босма ва электрон кўринишдаги оммавий ахборот воситалари, балки китоб нашри билан шуғулланувчи ноширлик ва матбаа соҳасида ҳам таҳрир иши аҳамиятга молик фаолият саналади. Айниқса, “бугунги матбуотимизнинг оғриқли нуқталаридан бири – таҳрирнинг сифатсизлиги. Тажриба шуни кўрсатадики, таҳрир санъатини эгаллаш осон иш эмас. Бундай малакага йиллар давомидаги узлуксиз иш мобайнида эга бўлиш мумкин. Бирор бир мақолани нашрга тайёрлаётганда муаллифнинг ҳафсаласизлиги, матн кўчирувчининг эътиборсизлиги туфайли ўтиб кетган орфографик хатолар, нотўғри олинган иқтибослар, рақам ва кўрсатгичлар, жой, ташкилот номларидан ташқари фикрлашдаги мантиқ бузилишларини ҳам тўғрилаш зарур бўлади” [5;95].

Журналистика соҳасига кириб келган ўқувчида биринчи навбатда таҳрир нима, бу жараён нимадан бошланади, деган савол туғилиши табиий. Ўзбекистон миллий энциклопедиясида таҳрир тушунчасига шундай таъриф берилади: “Таҳрир — матбуотда босиш, радио, телевидениедан ўқиш, кўрсатиш ва б. мақсадлар учун мўлжалланган матннинг таҳририят ходими (муҳаррир, адабий ходим ва б.) томонидан ишлаш жараёни” [21;317]. Яъни журналистик материални аудитория эътиборига тақдим этишдан олдин уни мазмун ва шакл жиҳатдан мукаммал ҳолатга келтириш ҳамда нашрга тайёрлаш жараёни таҳрир деб аталади. “Таҳрир” атамасининг келиб чиқиш тарихи ҳақидаги назариялар турлича эканини рус олимларининг адабий таҳрирга доир қўлланмаларида кўриш мумкин. Жумладан, К.М.Накарякова адабий таҳрир атамаси XX аср ўрталаригача қатъий мазмунга эга бўлмагани, бу атама “матнга ишлов бериш” [11;7] деган тушунчани ифодалаш учун қўлланилгани, ўтган асрнинг 40-йилларидан сўнг К.И.Былинскийнинг “Адабий таҳрир ва газета материалларини таҳрир қилиш асослари” китоби нашрдан чиққандан сўнг бу терминнинг маъноси янада аниқ маънога эга бўлганини ёзади. Негаки, К.И.Былинский биринчи бўлиб таҳрир жараёнининг моҳиятини матндаги хатоларни оддий тузатиш сифатида эмас, балки амалий жиҳатдан асослаб

берган. Олим таҳрирни мазмунан таҳлил қилишни ўз ичига олган ягона жараён сифатида кўриб чиққан. Кейинчалик К.И.Былинский ва Д.Э.Розенталнинг «Литературное редактирование» («Адабий таҳрир») дарслигида ушбу нуқтаи назарлар янада ривожлантирилган.

Таҳрирнинг фан сифатида ривожланишига Москва полиграфия институти профессори Н.М.Сикорский [15], А.Э.Мильчин [6]нинг дарсликлари, М.П.Сенкевич [16], К.М.Накарякова [11]нинг китоблари катта ҳисса қўшган. Уларда таҳрир иши бўйича умумий назарий база ишлаб чиқилган.

Бу мавзуда ғарблик S.Norton, R.Browne, D.King, S.Bell, P.Ginna, S.Brian Brooks, L. James Pinson, W.Jean Gaddy [22] ва бошқа кўплаб тадқиқотчилар ҳам изланиш олиб борган.

А.Э.Мильчин таҳрир атамасига муаллифнинг фактик, мантиқий, лингвистик ва стилистик хатоларини тузатиш [7;320], деган қисқа ва аниқ таърифни келтиради. Муаллиф ўз ўрнида ушбу фикрини уч жилдлик «Энциклопедик луғат»да келтирилган «Таҳрир — муаллиф қўлёзмасини нашрга тайёрлаш, муҳаррир томонидан амалга ошириладиган, асар мазмуни, қурилиши ва услубидаги камчиликларни бартараф этишдан иборат» деган изоҳ билан асослайди. Бироқ олим таҳрир иши фақат нуқсон ва хатоларни бартараф этишдан иборат эмаслигини, таҳрирда мазмун ва моҳият биринчи ўринда туриши лозимлиги таъкидлайди. Филология фанлари номзоди, профессор И.Б.Голуб таҳрирлаш атамасини лотинча “redactus” — тартибга солиш сўзидан келиб чиққанини ёзиб, таҳрир ишига матнни ижодий ва техник жиҳатдан хато-камчиликлардан бартараф этиш дея изоҳ берса [2;14], А.А.Сбитнева ҳам таҳрир сўзи лотинча тартибга солиш деган маънони англатишини таъкидлаб, матнни текшириш ва тузатиш билан боғлиқ илмий ва амалий фаолият, ҳар қандай фикр, тушунчанинг аниқ шакллантирилиши дея таъриф беради [14;3]. Олима таҳрирни энг ёш филологик фанлардан бири деб ҳисоблайди. Рус олимларининг ушбу фикрлари таҳрир жараёнининг умумий характеристикасини очиб беради.

Таҳрир муаллифнинг фикрини қайчилаш эмас, таҳрир – муаллиф айтмоқчи бўлган, лекин ўхшатиб ифодалай олмаган фикрларига йўл очиш демакдир. Сўзга, жумлага сайқал бериш, сўз сеҳри ва жозибасини ҳис қилиш, мулоҳазаларни изчил равишда баён этиш, ортиқча ва ўқувчи эътиборини муҳимдан чалғитадиган номуҳимлардан воз кечиш деганидир. Рақамларни, исм-шарифларни, истилоҳларни тўғри, хатосиз ёзиш демакдир! [23].

Академик фан сифатида адабий таҳрир биринчи марта 1940 йилларнинг охири ва 1950 йилларнинг бошларида Москва полиграфия институти (ҳозирги Москва давлат матбаа санъати университети)да ўқитила бошланган [3].

Ўзбек журналистикасида ҳам таҳрирни илмий асосларда ўрганиш ишлари бошланган бўлса-да, таҳрир назарияси ва амалиётига доир кенг қамровли тадқиқотлар олиб борилганича йўқ.

Адабий таҳрирнинг илмий асослари баён этилган З.Т.Тоҳировнинг “Таҳрир мантиқи” китобида: “Таҳрир — (арабча — ҳаррара: қутқармоқ, озод қилмоқ маъно ифодасини беради) — фаолият тури, маданий-ижтимоий ишлар ва адабий-ижодий амалиёт соҳаси сифатида ҳозирги замон ноширлик иши ва публицистикада кенг қўлланилади” [17;3], дейилади. Олим таҳрир ишини турли ҳужжатларни тайёрлаш деб ёзади. Бу атаманинг маъносини ҳам араб тилидан олинган дейди. Муаллифнинг “Адабий таҳрир” [18] дарслигида ҳам айнан шу фикрлар такрор келтирилади. З.Т.Тоҳировнинг таҳрир қутқармоқ, озод қилмоқ маъноларини англатиши ҳақидаги фикрлари бироз баҳсталаб бўлгани сабаб бошқа манбаларда бу сўзга қандай таъриф берилгани билан қизиқдик. “Таҳрир” сўзи “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да ҳам араб тилидан кириб келганлиги, “озод қилиш; тузатиш, муҳаррирлик қилиш; асар ёзиш” [20;42] маъноларини ифода этиши, кенг маънода ёзма ишни, асарни тузатишлар киритиб яхшилаш, тузатиш дея изоҳланган.

Бу ўринда рус олимларининг таҳрирга берган таърифлари бу сўзнинг моҳиятини кенгроқ очиб беришга хизмат қилади, назаримизда. З.Т.Тоҳировнинг ҳар икки китобида ҳам таҳрир сўзининг маъно-мазмунига

кенг тўхталиб ўтилмаган. Таҳрир ишига ижтимоий-адабий ва мафкуравий фаолият тури сифатида умумий таъриф берилган [17;3].

З.Т.Тоҳировнинг айни шу фикрларини “Журналистика. Медиалингвистика ва таҳрир. III жилд”ида ҳам кўриш мумкин. Ушбу нашрда ҳам таҳрир сўзи “қутқармоқ”, “озод қилмоқ” маъноларини бериши, адабий таҳрир қисқача ғоялар, тушунчалар, муаллиф фикрларини асословчи ишонарли далилларни янада аниқроқ сўзлар, ифодалар орқали етказиш учун олиб бориладиган изланиш жараёни экани келтирилади [19;445].

Журналистикамизда ўзига хос таҳрир мактабига асос солган Маҳмуд Саъдий таҳрир иши нималардан иборат эканига унинг умумий моҳиятидан келиб чиқиб «таҳрир санъати адабиётнинг гуллаб-яшнаши учун, матбуот фикрининг халқ қалбидан жой олиши учун ғоятда зарур санъатдир» [13], дейди. Олим таҳрирда муаллифнинг куртак фикрларини ривожлантиришга эътибор бериш кераклигини, матн билан ишлашда журналист ўзи фаолият олиб бораётган таҳририят йўналишидан келиб чиқиши лозимлигини, таҳрирга тортилган ҳар қандай матнда мавзу эски бўлса-да, янгилик бўлиши шартлигини таъкидлайди. Айниқса, қадимда ўзбек классик шоирлари бир-бирининг асарларини ўқиб таҳрир қилгани, айниқса, Алишер Навоий билан Абдураҳмон Жомийнинг, улуғ мутафаккир билан Ҳусайн Бойқаронинг ўзлари ёзган асарларни ўзаро ўқиб, таҳрирга тортганликлари, ўзбек маданиятида таҳрир санъати қадимги даврлардан ривож топгани ҳақидаги фикрлари таҳрирни тарихий аспектларда ўрганиш учун асос беради.

Маҳмуд Саъдий таъкидлаганидек, таҳрир масаласига Алишер Навоий яшаган даврларданоқ катта эътибор қаратилган. Улуғ шоирнинг айрим асарларида бу масала қаламга олиниб, шоир билан ҳамнафас яшаган устозлари, дўстлари, замондошлари ўзаро ижодий ҳамкорликни йўлга қўйгани, асарларини бир-бирларига тақдим қилиб фикр алмашгани, айрим сўзларни таҳрир этгани баён этилган. Хусусан, «Хазойин ул-маоний»нинг биринчи девони «Ғаройиб ус-сиғар»нинг кириш қисми, яъни дебочасида шоир мазкур китобига Ҳусайн Бойқаро муҳаррирлик қилганини келтириб ўтади: «*Ва ул ҳазрат иноят кўзи*

била ул раъноларни кўруб ва илтифот назарин ҳар бирига еткуруб, қайси бирининг ҳариру ҳулласида қусуре кўрунса ё ул ҳуллаву ҳарирни мурасса қилған жавоҳирда адами муносабат сабабидин футуре зоҳир бўлса, ул либосларни чиқариб, хизонайи хосдин муносиб ранглиг хазу деб либослар барча қийматий гавҳарлар била тарси қилғон келтуруб ул шўхларға кийдурур эрди ва ҳар қайсини ўз муносабатиға кўра тартиб била ўз олий мажлисида ўлтуртур эди..., ҳар ғазални тартиб юзидин ўз ўрниға рақам қилур эрди...» [8;16-17].

Яна мутафаккир шоир «Бадойиъ ул-бидоя»га ёзган «Дебоча»сида ҳам *«Баъзи байтимдин бирор номуносиб лафзни чиқориб, бир даста субҳа ичра бир қасри зарнигор ясағондек, бирор байтқа хат уруб, бир бузуғ дашт ичра бир қасри зарнигор ясағондек, бирор байтға дахл берур эрди [9;17]»* дея таъкидлаб ўтган. Шоир наздида, Султон Хусайн Бойқаро таҳриридан сўнг «*чун бу байтлар айвони ул ислоҳлар нақшу нигоридин рашки нигорхонайи Чин ва бу ғазаллар бўстони ул ихтимомлар баҳоридин ғайрати хулди барин бўла бўлади» [9;18].*

Хусайн Бойқаро «Хазойин ул-маоний»даги шеърларни ҳам шоҳ сифатида, ҳам шоир сифатида кўздан кечириб, уларнинг айримларига ислоҳлар киритган, яъни ғазалларнинг маъно томонидан ёки бадиий санъатларнинг қўлланишида шоир ўзи ёзганидек «бетакаллуфлуқ» ва «номуносиблиғ» кўрса, уларни бартараф этган [4]. Алишер Навоий «Муншаот» асарининг айрим мактубларида ҳам Хусайн Бойқарога ғазалларини юбориб, уларнинг ислоҳи устида ишлаганини келтирган [10].

Демак, Хусайн Бойқаро улуғ шоир девонларининг яратилишида, уларнинг таркибига кирган ғазалларни ўқибгина қолмасдан, уларни мунтазам тарзда таҳрир ҳам қилиб борган. Навоийдек буюк шоирнинг шеърларига жузъий бўлса-да, тузатишлар киритиш, ислоҳ қилиш учун катта иқтидорга эга бўлиш ва шеъриятнинг энг нозик томонларини чуқур билиш зарур эди. Хусайн Бойқарода ана шу сифатлар мавжуд эди... [10;577]. Шоҳнинг шеър илми борасидаги юксак салоҳиятини Алишер Навоий ўз ғазалларида ҳам эътироф этгани бу фикрларни асослайди.

Шунингдек, ўзбек мумтоз адабиётининг атоқли намояндаларидан Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг «Бобурнома» асарида ўғли Ҳумоюнга ёзган мактубидаги танбеҳи ҳам шоҳ ва шоирнинг ёзувга, матндаги хатоликларга эътиборли бўлганидан далолат беради: *«Бундин нари бетакалуф ва равшан ва пок алфоз била бити: ҳам санга ташвиш озроқ бўлур ва ҳам ўқуғучиға»* [1;321]. Бобур ўғлига ўз ёзган хатини қайта ўқиб кўрганида ҳеч нарсани тушунмаслигини, хатни қийинчилик билан ўқиш мумкинлигини, ундаги хатоликларни кўрсатиб, равшан ва пок алфозда хат ёзса, ўзига ҳам, уни ўқиганга ҳам ташвиш оз бўлишини ёзади.

Юқоридаги маълумотлардан кўринадики, Алишер Навоий яшаган давр ва ижодий муҳитда ҳам ўзаро фикр алмашиш, асарларидаги сўзларни ислоҳ этиш, ғализликларни бартараф қилиш мақсадида ижодий ҳамкорлик анъаналари йўлга қўйилгани, ёзув ва имлога эътиборлилик Заҳириддин Муҳаммад Бобур яшаб ижод этган XV-XVI асрларданоқ аҳамиятга эга жиҳатлардан саналгани ўзбек мумтоз адабий муҳитида таҳрир амалиётининг қадимдан йўлга қўйилганидан далолат беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Бобур З.М. Бобурнома. Т.: Юлдузча, 1989. 368 б.
2. Голуб И.Б. Литературное редактирование: учебник и практикум для академического бакалавриата. М.: Издательство Юрайт, 2017. 432 с.
3. Голуб И.Б. Литературное редактирование: учеб. Пособие. – Москва: Логос, 2010. Электрон манба. Мурожаат вақти: 15.01.2022
4. Каримова Ф. Алишер Навоий ҳамда Ҳусайн Бойқаронинг дўстона ва ижодий ҳамкорлиги. // Тил ва адабиёт таълими. 2016. 1-сон. Б. 40.
5. Мелибоев А. Қирқ бешинчи бекат. Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. Б.95. 208 б.
6. Мильчин А.Э. Методика редактирования текста. М.: Логос, 2005. - 524 с.
7. Мильчин А.Э. Методика и техника редактирования текста. М.: Книга, 1972. – 320 с.

8. Навоий А. Хазойин ул-маоний. Ғаройиб ус-сиғар. Биринчи жилд. Т.: Ғафур Ғулом, 2012.
9. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами: 20 томлик. 1-том. Т.: Фан, 1987. Б. 17.
10. Навоий А. Тўла асарлар тўплами: 10 жилдлик. 9-жилд. Муншаот. 32-мактуб. Т.: Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012.
11. Накарякова К.М. Справочник по литературному редактированию для работников средств массовой информации. М.: Флинта: Наука, 2010. 200 с.
12. Накарякова К.М. Литературное редактирование материалов массовой информации. М.: Изд-во МГУ, 1994. - 189 с.
13. Саъдий М. Фикр қудрати. Т.: Таълим-медиа, 2020. Б. 21. 240 б.
14. Сбитнева А.А. Основы литературного редактирования: история, теория, практика. Учебное пособие. М.-Берлин: Директ-Медиа, 2015. С.3. 268 с.
15. Сикорский Н.М. Теория и практика редактирования. М.: МПИ, 1990. - 384 с.
16. Сенкевич М.П. Стилистика научной речи и литературное редактирование научных произведений. М.: Высшая школа, 1976. — 263 с.
17. Тоҳиров З.Т. Таҳрир мантиқи. Т.: Ўзбекистон, 2016. 240 б.
18. Тохиров З.Т. Адабий таҳрир. Дарслик. Т.: Тафаккур бўстони, 2012.
19. Тешабоева Д.М. ва бошқ. Журналистика. Медиалингвистика ва таҳрир. III жилд. Т.: Ўзбекистон, 2019. Б. 445. 552 б.
20. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80 000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж.IV.Тартибот – Шукр/Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ.; ЎзР ФА Тил ва адабиёт ин-ти. – Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2008. – 608 б.
21. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 8-том. Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2004. Б.317.

22. Norton S. Developmental editing: A Handbook for Freelancers, Authors and Publishe’rs. Published by the University of Chicago Press, 2009.
23. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/mahmud-sadi-haqida.html. Мурожаат вақти: 20.01.2022.

ТАСАВВУФИЙ “МАЖОЗ ИШҚИ” АЛИШЕР НАВОИЙ НАЗДИДА

Қамбаров Мусохон Мухторжанович

НамДУ Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD)

Аннотация: мақолада Тасаввуфий “*Мажоз ишқи*” инсоннинг инсонга бўлган ҳақ йўлидаги ҳар қандай ғараздан холи, пок меҳр ва комил инсонни тарбиялаш тасаввуфнинг негизини эканлиги очиб берилган. Бунинг асоси сифатида ширинсуханлик саҳоват, камтарлик, маънавий қиёфаси, ахлоқий сифатлари, ундан элга қанчалик наф тегиши билан белгиланиши зикр этилган.

Калит сўзлар: Тасаввуф, “*Мажоз ишқи*”, “Хамса”, ширинсуханлик, муҳрдорлик, “*ишқ*”, “Ихлосия”, “Халосия”, комиллик, хузуъ-нафс

Аннотация: в статье суфи раскрыто, что воспитание человека является основый мистицизма. Говорят,что в основе этого лежит милость, щедрость, смирение, духовность, нравственные качество и то, насколько это приносить, пользу людям.

Ключевые слова: мистицизм, “Хамса”, “Величественная любовь”, сладость, запечатывание, любовь, “Искренность”, искупление, совершенство, эгоизм, Sufi “Majoz ishqi” under Alisher Novoi

Annotation: in the article Sufi it has been revealed that educating a person is the basis of mysticism. It is said that basis for this is sweetness, generocity, humility, spirituality, moral qualities, and how much it benefits the people.

Key words: mysticism, “KXamsa”, “Majestic love”, sweetness, sealing, “love”, “Sinserity”, redemption, perfection, selfishness.

Алишер Навоий инсониятнинг бахт-саодати, халқнинг тинчлиги, осойишталиги, юрт ободончилиги, илм-фан равнақи учун ҳаёти ва ижодиётини бахш этган. Саройда дастлаб муҳрдорлик, сўнгра вазирлик вазифаларини адо этади, шаҳарнинг фаровонлигига алоҳида эътибор беради ва ижодий ишини

ҳам давом эттиради: “Хамса” (“Ҳайрат ул-аброр”, “Фарҳод ва Ширин”, “Лайли ва Мажнун”, “Сабъаи сайёр”, “Садди Искандарий”) достонида инсон маънавий камолоти даражасини мукаммал бадиий тасвири ва талқинини яратди. Ишқни Алишер Навоий инсон учун ўзликни англаш йўли, “Ҳақиқат асрори” ганжинасининг калити деб билади ва “*ишқ*” тушунчасига, биринчи навбатда, ижитмоий-ахлоқий муносабатлар нуқтаи назаридан қарайди, шу асосда “*мажозий ишқ*”ни воқеъ ҳаётдаги инсонлараро муомалада биринчи ўринга чиқаради.

Ҳақиқатдан ҳам ширинсуханлик шахслараро муносабатларнинг заурий шарти ҳисобланади.

Тасаввуфий “*Мажоз ишқи*” Алишер Навоий наздида инсоннинг инсонга бўлган Ҳақ йўлидаги (“*холисаниллоҳ*”, яъни холис Аллоҳ йўлидаги) ҳар қандай ғараздан холи, пок меҳридир. Ишқни ижтимоий-ахлоқий муносабатлар асосида орзу қилган шоир инсон камолотини ва одамийликни ўзгалар ғамини ўзиникидек билишда деб тушунади:

Одаме эрсанг демагил одаме –

Ониким йўқ ҳалқ ғамидин ғами.[1]

Алишер Навоийнинг тасаввуфий фикр-мулоҳазалари – бутун олам, яъни табиат ва жамият Аллоҳнинг зуҳурот этилишидир. Тангри ўз имкониятлари ила бутун оламни, коинот ва мавжудотни яратган. Худо оламдан ташқарида эмас, балки шу оламнинг ўзида, унинг ҳар бир заррасида мавжуддир. Дунё гўё бир ойна-миръотдир, унда кўринувчи бутун борлиқ Худодан, Аллоҳнинг инъикосидан иборатдир.[2]

Алишер Навоийнинг бу мулоҳазалари тасаввуф таълимотидаги оламнинг эгаси ва яратувчиси Аллоҳнинг ўзидир, деган қоидаларига тўла асосланган.

[1] Алишер Навоий. Хамса. – Т.: 1960, 104-бет.
[2] В.Зоҳидов. Улуғ шоир ижодининг қалби. – Т.: “Ўзбекистон”, 1970, 152-153-бетлар.

Алишер Навоий тасаввуфий таълимотича, Аллоҳнинг зуҳуроти сифатида вужудга келган борлиқнинг кўрки, гўзал ва ободлиги инсон туфайлидир. Инсон бутун борлиқнинг кўрки ва шарафидир: “Бутун оламни яратишдан мақсад, инсон бўлиб, у ҳамма мавжудот ичида тенги йўқдир. Инсон кўнглини турли билимлар хазинаси қилди ва бу тилсим ичида тангри ўзини яширди. Учинчидан, тасаввуф хузуъ, яъни нафсни жиловлаш, хокисорлик ва камтарлик намунасини кўрсатишдир, дейдилар. Тўртинчидан, тасаввуф даъвони тарк этиш ва маъноларни халқдан яшириш, дегувчилар бор. Яъни киши то даъводан воз кечмаса, маънога етмас ва то ўз маъноларини яширин тутмаса, тасаввуфдан (яна) ибодат ҳуснига ишорат, деб таърифлайдилар. Олтинчидан, тасаввуф нафсни хор тутиш ва амрни азиз тутишдир, дейдилар. Еттинчидан, тасаввуф барча адабдир ва кимки фақир (дарвешлик) одобидан бирига ўзини вабаста этмаса, тасаввуфдан фақат номигагина билади, холос” дейди.[3]

Ушбу изоҳдан кўриниб турибдики, тасаввуф ахлоқий қарашлар билан суғорилган ҳаётий илмдир. Яъни ўз даврида тасаввуф ахлоқида инсон идеали ифодаланган, зиёли киши тасаввуф ахлоқини ўзида мужассамлашга харакат қилади.

Навоий бутун молу-мулки, ерларидан тушган даромадларни мамлакат ободонлиги, шоирлар, олимларнинг тарбиясига сарф этди.

Навоий ўз жамғармасига Ҳирот ва бутун Хуросон мамлакатида қуйидаги бинолар, мадраса, шифохона, карвонсарой, ариқ, йўллар барпо этди:

“Ихлосия” мадрасаси (Ҳирот).

“Халосия” ҳонақоҳи (Ҳирот).

“Масжиди жоме” (Ҳирот. Инжил ариғи бўйида).

“Шифоия” мадрасаси. Тиббиёт илми ўқитиладиган. (Ҳирот).

[3] М.Иноятова. Тасаввуф тариқатида баркамол инсон тарбияси.// Uzluksiz ta’lim, 2007 йил 4-сон. 66-бет.

“Низомия” мадраса. (Ҳирот).

“Ҳисравия” мадрасаси. (Марв).

“Работи ишқ”, “Работи санг” (Ҳиротдан ташқарида шоир Фаридиддин Аттор қабридаги мақбара).

“Работи яздбод” (Нишопур атрофида).

“Гуласт булоғидан Машҳадгача ортилган ариқ” (узунлиги 70-80ли).

Тарихчи Хондамир шулардан 52 работ (истеҳком, қўрғон), 20 ҳовуз, 16 кўприк, 9 та ҳаммом тўғон ва масжидларни номма-ном келтиради. Бундай иншоотларнинг сони 300 дан ортиқроқдир. Навоий яна подшоҳ саройига, кўп илм ва фазл аҳилларига эҳсон, совғалар юбориб турар эди.

Юқорида айтилган фикрларга хулоса қилиб айтганда, ислом таълимотидаги каби комил инсонни тарбиялаш тасаввуфнинг негизини ташкил қилади. Тасаввуфнинг комил инсон ҳақидаги ахлоқий қарашлари умуминсоний ахлоқий ғояларга яқин тутади. Саховат, камтарлик, мардлик, хақиқатгўйлик, мағрурлик, ширинсуханлик, бойликка ружу қўймаслик, нафсни жиловлаш ва унинг измига бўйсунмалик, жисмоний лаззатдан, руҳий осойишталик ва фароғатни устун қўйиш, руҳий асойишталикка илму маърифат орқали эришиш каби ижобий ахлоқий сифатлар ушбу тариқат кишисига хос хусусиятларлар ҳисобланади. Тасаввуфий таълимотидаги энг гўзал ахлоқий сифатлардан бири эркинлик, хурфикрлиликдир. Ҳур шу ганж тилсимини сақлайди. Бу тилсим жон бўлиб, у ўша хазинада туради ва унга посбонлик қилади… Шунинг туфайли инсон бошқа барча нарсалардан мумтоз қилиб яратилди…. Унинг бошига тўғри йўлдан бориш тожи қўйилди, шароф меърожига чиқиш эса унинг қисмати бўлиб қолди”.[4]

Демак, яхши хулқ асоси – одоб, Алишер Навоий наздида барча инсоний ҳислатларнинг бошланиши саналади. Комил инсонга хос хислатлар ана шунга

[4] Алишер Навоий. Лисонут тайр. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1991, 269-бет

боғлиқ равишда таъриф берилади. Зеро хақиқий ишқ инсонга хос хислатлар – вафо, саховат, ҳиммат, карам, мурувват, ҳилм (юмшоқ кўнгиллилик) худди шу одобли кишида таркиб топади.

Алишер Навоий инсон Аллоҳнинг зуҳуротидан иборатлигини англамаслик бахтсизликка, ҳалокатга олиб борадиган нодонлик, дейди. Ана шунинг ўзи ҳам мутафаккир тасаввуфий ғояси асосини ташкил этади.

Навоий инсон қадр-қиммати унинг мол-мулки, зеб-зийнати, мансаби ёки ижтимоий келиб чиқиши билан эмас, балки унинг маънавий қиёфаси, ахлоқий сифатлари, ундан элга қанчалик наф тегиши билан белгиланишини кўп марта такрорлаган. Шоир шеърларидан бирида:

Тут баргичалик қимматинг йўқми?

Ипак қуртичалик ҳимматинг йўқми?

— дея инсонни ўйлашга, ўйлаганда ҳам ўз ҳаётидан келиб чиқиб хулоса қилишга чорлайди. Шу икки сатрда инсоннинг дунёга келишидан тортиб, бу ёруғ оламда яшашнинг туб моҳият очиб берилган.

Шоирнинг қуйидаги сўзлари ҳам таҳсинга сазовор: «Кишиларнинг сўз билан наф етказиш қўлидан келмаса, лоақал кўнглидаги андишаси яхши бўлиши керак. Кўнгли одамларнинг хурсандлигидан хурсанд бўлиши лозим. Кимнинг халқ ғамидан ғами бўлмаса, ҳақиқий одам бўлсанг, уни одам дема».

Алишер Навоийнинг фикрича, одобли одам иззатга энг кўп лойиқ зот, “у мансабдор кишилардан гўзалроқ ва бадавлат одамлардан хурматлироқдир”.[5]

Юқоридагиларни мухтасар қилиб айтганда, тасаввуф мутафаккирлари инсонни комиллик даражасига эришмоғи учун шариат амалларидан ташқари яна ахлоқий, руҳан – маънавий жиҳатдан ҳам покланмоғи зарурий шарт, деб ҳисоблайдилар.

[5] М.Иноятова. Тасаввуф тариқатида баркамол инсон тарбияси. //Uzluksiz ta’lim, 2007 йил 4-сон. 66-бет.

Тасаввуф ғоялари шу кундаларда ҳам баркамол авлод тарбиясида ўз аҳамиятни сақлаб келяпти. Бу илғор инсонпарварлик ғояси мамлакатимиз тинчлиги ва осойишталигига раҳна солишга уринаётган, дини, миллати, ватани бетайин бўлган, дин ниқоби остидаги қабиҳ, ғайриинсоний ишларни амалга ошираётган, ақидапарастларга қарши курашда ишончли ғоявий қуролдир

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Хасанбоев Ж. XIV асрнинг иккинчи ярми ва XYI асрларда Мовароуннахрда мактаб-мадраса ва педагогик фикрлар (ўқув қўлланма). Т., 1997 йил

2. Иноятова М. Тасаввуф тариқатида баркамол инсон тарбияси. //Uzluksiz ta’lim, 2007 йил 4-сон. 66-бет.

3. Зоҳидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. – Т.: “Ўзбекистон”, 1970

4. Умарова М. Теория и история педагогики. Учебное пособие. – Т.: “Издательско полиграфичкский дом имени Чулпана”, 2018 г

5.Қамбаров М.М. Умумий педагогика. Ўқув услубий мажмуа. Наманган.2021 йил

ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ADABIYOTIMIZ VAKILLARI NIGOHIDA HAMISHA BARHAYOT

JURAKULOV JAMOL KOMILOVICH

Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi (PhD)

Annotatsiya: *Maqolada* Alisher Navoiy she’riyati Bobur she’riyati bilan bog‘liq jihatlari, komil inson namunasi sifatida, bu ikki buyuk shaxslarning adabiyotdagi asarlardagi chizmalari, adabiyotimizdagi o‘rni haqida fikir mulohaza yuritamiz.

Аннотация: В статье мы размышляем об аспектах поэзии Алишера Навои, связанных с поэзией Бабура, как образцом совершенного человека, о рисунках этих двух великих личностей в произведениях литературы, о их месте в нашей литературе.

Annotation: in the article, we reflect on the aspects of Alisher Navoi's poetry related to Babur's poetry, as an ehample of a perfect person, the drawings of these two great personalities in the works of literature, their role in literature.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, g‘azallari, islohatlarda adiblar hayoti va ijodi.

Ключевые слова: Алишер Навои, Захириддин Мухаммад Бабур, Газели, жизнь и творчество писателей в реформах.

Key words: Alisher Navoi, Zahiriddin Muhammad Babur, Gazals, life and work of writers in reforms.

Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o‘rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz. Shavkat Mirziyoyev.[6]

[6] www.pezident.uz Toshkent shahrida Adiblar xiyoboni ochilishidagi nutqidan 20.05.2020

Navoiy va Bobur ijodida o‘xshlik taraflari bilan va zamondoshligi bilan bizning yodimizga tushadi. Navoiy deganda ko‘z o‘ngimizda ajib bir taassurotlar Navoiyni ulug‘vor bir siymo sifatida gavdalantiradi. Navoiy shoirlar sultoni, olim, din peshvosi, adolatli davlat arbobi, faylasuf, viqorli bir shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Bobur deganda esa yurtning odil podshohi, jasur sarkarda, shoir, mehribon ota, vatan hajrida to‘lg‘ongan shaxs sifatida bizga ma’lum bo‘ladi. Ikki buyuk shaxsiyati bir biriga shoirlik va davlat ishlarida xarakter jihatidan juda yaqin bo‘lib ikkisi ham go‘yo bir maqsad va bir g‘oyani ilgari surgandek bizning nazarimizda. Navoiy va Bobur doimo bir biriga ijodiy tarafdan yaqindir. Avvalo, Navoiy hayoti va ijodiga qisqa to‘xtalib o‘tsak.

Alisher Navoiyning muhabbatni tarannum etuvchi otashin tug‘yonlari bilan bog‘liq g‘azallari uning yigitlik davrida yozilgan. “Bunga uning «Ilk devoni»ga kiritilgan, xalq orasida «Qaro ko‘zum», «Kelmadi» («Munojot») nomlari bilan mashhur bo‘lgan va kuylanadigan g‘azallari yaxshi misol bo‘la oladi. Bu kabi she’rlarida shoir pok va yuksak ishqiy kechinmalarni baland ehtiros va falsafiylik bilan ifodalab bera olgan. Uning «Topmadim» radifli g‘azali ham shu davrda, aniqrog‘i, Mashhaddan Hirotga qaytib, shaxsiy turmushini izga solish taraddudida yurganda, lekin uning moddiy jihatdan nochor ahvoldaligi tufayli oila qurishi qiyinlashgan, Sulton Abu Said esa uni ta’qib qilgan paytda yozilgan bo‘lib, uning har bayti yurakni tirnaydi. Alisher Navoiyning ishqiy she’rlarini faqat bir sub’ektga qaratilgan, deyish qiyin. U hayotga keng nigoh bilan qarab, barcha go‘zalliklarni nazokatli tuyg‘ularni qadrlagan, noyob so‘z va iboralar bilan qalbdan ifodalay bilgan. Lekin hayot qiyinchiliklari va ziddiyatlari orqasida o‘z orzu-umidlariga yetisha olmagan shoir o‘zining insoniy norozilik tuyg‘ularini olovli she’riy satrlarda bayon etadi. Alisher Navoiyning ishq bilan bog‘liq tasvirlari rang-barang va boy bo‘lib, biz unda inson hayoti va holatining cheksiz ko‘p qirralarini-shodlikni ham, xafachilikni ham, takrorlanmaydigan lahzalarni ham, har kun, har soatda yuz beruvchi ko‘ngilsizliklarni ham ko‘ramiz. Zotan o‘zbek she’riyatida inson dardi va hasratlarini, o‘z sevgilisiga talpinishlarini Navoiydan o‘tkazib ifodalagan shoirni topish qiyin. Alisher Navoiyning ishqiy mavzuda yozgan she’rlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan

yana biri shundaki, ulardagi ko‘p g‘oya va timsollar, tasviriy detallar an’anaviy xarakterga ega. Shu bilan birga ishq va ishqiy obrazlar talqinida ham boshqa mumtoz ijodkorlar kabi Alisher Navoiy ramziylikka ko‘p o‘rin beradi.”[7]

Alisher Navoiy ramziylikka ko‘p o‘rin berganligini g‘azallarida qo‘llanilgan “Yor”-bu dunyo go‘zaligina emas, uningcha, bu-butun borliqni yaratgan va hamma narsani harakatga keltirib turgan Alloh haqida ekanligini ham anglash mumkin. Alisher Navoiy islom olamidagi shoir sifatida ham o‘zining tasavvufiy she’rlarida yorning qoshi, ko‘zi, zulfi, sochi (va h.k.) deganda bizni yaratgan Allohning kuch-qudrati, mehri, oliy darajadagi go‘zalliklarini ham falsafiy talqin bilan mantiqiy bog‘lanish tarizda o‘quvchiga yetkazgandir. Alisher Navoiyning barcha lirik janrlarga oid g‘azallari va ruboiylari yuksak mahorat bilan yozilgan bo‘lib, inson manfaatlariga, uning e’tiqodini mustahkamlashga, ruhini sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi. Uning falsafiy, axloqiy mazmundagi hayot nafasi ufurib turgan har bir g‘azallari va ruboiylari bu janrning o‘lmas namunalaridir.

Lutfiy bilan bo‘lgan uchrashuvda Alisher Navoiyning quydagi g‘azali ustozini mamnun qilgan:

“Orazin yopg‘och ko‘zumdin sochilur har lahza yosh,
Bo‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz nihon bo‘lg‘och quyosh”[8],

deb boshlanadigan g‘azaliga yosh Alisherga qarata Lutfiy agar iloji bo‘lsa, o‘zining o‘n-o‘n ikki ming turkiy va forsiyda yozgan she’rlarini almashtirmoq istagini aytganligi bizga tarix kitoblardan ma’lumdir. Shu o‘rinda Navoiyga hamnafas zamondosh Bobur ijodiga ham nazar solsak.

Boburning she’riy merosi ko‘p qirrali jihatlari bilan ajralib turuvchi beqiyos darajada. Boburning nasriy asarlari 1519-yil “Qobul devoni”ga, so‘ngra 1529-1530-yillarda “Hind devoni”ga jamlangan. Bobur sharq nasriy janrlariga oid 10 dan ortiq she’rlar yozgan shoir sifatida mazmun va mohiyati beqiyos darajada o‘z zamonasining she’riyatida o‘rinni egallagan. Bobur she’riyatida o‘zining shaxsiy hayotida duch kelgan mashaqqatlari va ichki kechinmalarini qalamga olib mohirona

[7] Manba https://tafakkur.net/alishe’r-navoiy.haqida
[8] Manba https://tafakkur.net/alishe’r-navoiy.haqida

tarizda qalam tebratgan shoir sifatida hamda atrof-muhitida yuz bergan tarixiy hodisalarni o‘z she’riyatida aks etirgan shoir. Barcha shoirlar kabi Bobur she’riyatida ishqiy-nasriy mazmundagi she’rlar ham mavjud. Boburning shoir sifatidagi san’ati o‘ziga xos adabiy uslub va mahorat bilan o‘z davri she’riyayidan alohidaligi bilan turkiy tilning ifodaliroq vositalari orqali tasvirlangan.

Boburning she’rlarida o‘z davrining tarixiy hodisalari, shoirning shaxsiy hayoti, atrof-muhit, insonga bo‘lgan munosabat, din, davr an’analari va axloqlari voqe’lik ila aks etgan. “Boburning she’rlari shoirning tarjimai holi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. U orqali ijodkor shoirona til orqali teran tuyg‘ularni bayon qiladi, hayotiy hodisalar to‘qnashuvi natijasida hosil bo‘lgan tashvishlarni mohirona so‘zlaydi. Bobur she’riyatining asosini ishqiy-nasriy she’rlar tashkil etadi. Ijodining asosiy qirralaridan biri, chinakam insoniy, dunyoviy, haqiqiy sevgini kuylaganligidir. Shoir lirikasi Alisher Navoiy she’riyatidan ilhomlanish bilan to‘yingan. O‘zining g‘azal va ruboiylarida u sevgi, do‘stlik, go‘zallikka intilish kabi insoniy muammolarni ko‘targan. Dunyoviy sevgini shoir insonning eng porloq unvoni sifatida tarannum etadi. Bobur oshig‘i bilan uchrashuv uchun sevgining istalgan qiyinchiliklarini yengib o‘tishga tayyorligini ta’kidlaydi. Katta samimiyat ila shoir sevgi uchun o‘zini borlig‘i bilan qurbon qilishga ham tayyorligini ifodalaydi.”[9]

Bobur o‘zining she’rlarida samimiy sevgi tuyg‘ularini madh etib, dunyoviy inson muhabbatini ta’kidlagan, Bobur mukkasidan ketgan dinniy olamning shayxlarning riyokor tanqidiga uchraydi, g‘ofil va johil din aqidaparast shaxslariga qarshi chiqadi. Jahannam olovi ayriliq alangasi oldida uchqunday tuyuladi:

“Hajringda bu tun ko‘ngulda qayg‘u erdi,
Vaslingg‘a yetishmadim-jihat bu erdi:
Ohim tutuni birla ko‘zumning yoshidin
Yo‘l balchiq edi, kecha qarong‘u erdi!

[9] https://arboblar.uz Bobur tarjimai holidan 2022 Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha Yagona integrator UZINFOCOM.

Bobur she’riyatida boshqa shoirlardan farqli o‘laroq ona vatan mavzusi alohida o‘rin egallaydi. Uning she’rlarida, ayniqsa to‘rtliklari vataniga bo‘lgan sog‘inch va cheksiz muhabbati ta’sirchan ifodalangan.

G‘urbat tug‘i yopqon ruhi zardimnimu dey?

Yo hajr chiqargon ohi sardimnimu dey?

Holing nedurur? Bilurmusen dardimni?

Holingai so‘raymu, yo‘qsa dardimnimu dey?!

Bobur she’riyatida, shuningdek, insonning axloqi va diniy mukammalligi masalalari ko‘tarilgan. Shoir insonni yuqorilarga ko‘tarib, unga ulkan hurmat ila munosabatda bo‘ladi, inson qadr-qimmatini baland qo‘yadi. Bu g‘oyalarga zid bo‘lga barcha narsaga qarshi chiqadi. Boburning fikricha, xudbinlik, hurmattalablik, qizg‘anchiqlik, manmanlik - noqobil sifatlardir. Shoir odamlarga samimiy maslahatlar beradi. O‘zining ruboiylarida inson qanday qilib o‘zini ma’nan tarbiyalashi kerakligi haqida gapiradi. Mazkur mavzuga yuzlanar ekan, insonning hayotdagi eng asosiy vazifasini shoir yaxshilik, bag‘rikenglik va haqiqatda ko‘radi. Do‘stlik - insonning eng asosiy jihati va dushman bilan kurashda ulkan kuch deb hisoblaydi.”[10] Mana yuqorida Alisher Navoiyning ijodi va Boburning ijodi haqida qisqacha xabardor bo‘ldik. Bu ikki zabardast shoirlarning o‘xshashlik taraflarini solishtradigan bo‘lsak ikkisi ham Allohni madh etish, odamiylik, vatanparvarlik, sevgiga sadoqat, yurt sog‘inchi kabi tuyg‘ularni she’riyatda misli ko‘rilmagan darajada qalm bilan qog‘ozga sola olgan buyuk shoirdir. Ikkisida ham adllik bilan yurt boshqarish, davlat mezonlarini yuritishda tenglik prinsplari, shoirlar ijodida namoyon bo‘lib bir g‘oyada birlashgandek go‘yo. Navoiy va Bobur ijodini o‘rgangan adabiyotshunos olimlar biz bu ikki buyuk shoirlarni turlicha tarif bergan bo‘lsalarda ammo bir mazmun chiqadi ikkisi ham insonparvarlik, vatanparvarlikni qog‘ozga qalam bilan qoralagan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Keling bu ikki shaxs haqida yaratilgan asarlarni bitgan adiblarning shoirlarni qay darajada tasavvur etib asarda gavdalantirganligini ham bir o‘rgansak.

[10] https://arboblar.uz Bobur tarjimai holidan 2022 Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha Yagona integrator UZINFOCOM.

Shoir va tarjimon A.Naumovning yozishicha, Oybek u bilan suhbatida “Navoiy” romanining yaratilish tarixi haiqda so‘zlab, unga: “Yozishdan avval men qahramonlarimni aniq tayin ko‘rganman, ular, mening xayolimda, bir paytlar tarix shudgoriga tashlangan urug‘dan o‘sib chiqqandek edilar. Mening stolim ustida o‘rta asrlardagi Hirotning o‘zim chizgan xaritasi yotardi. Men Hirotda uyqu og‘ushiga ketib, Hirotda uyg‘onar edim, faqat kechalarigina men yashayotgan Toshkent tushimga kirardi”, - degan ekan.[11]

Yuqorida berilgan fikirlarga qaraganda bu fikri nafaqat tarixiy shaxslar bilan balki to‘qima obrazlarga ham taalluqli ekanligini ham ko‘rsatadi. Navoiyning quydagi so‘zlari orqali naqadar oliy maqsadlar yo‘lida jonbozlik ko‘rsatganini anglashimiz mumkin: “Inson barcha maxluqotlarning tojidir. U sharafli, sof, go‘zal yashamog‘i kerak” deya bergan fikirlari - Navoiyning shoir va davlat arbobi sifatida butun faoliyati shu maqsadni amalga oshirishga qaratilganligi u zotning buyukligidan, insonparvarvarlikni nechog‘liq ulug‘laganini guvohi bo‘ladi shoir ijodini o‘rgangan kishida.

Bobur va Boburiylar shajarasini zamonaviy talqinda ochib bergan shaxs bu Pirimqul Qodirovning munosib o‘rni bor. Boburning hayotini badiiy adabiyotda asar shaklida qiziqarli tarzda “Yulduzli tunlar” deya nomlangan Bobur hayotiga bag‘ishlangan asrada Boburning biz bilmagan qirralarini ochib bergan adib bu Pirimqul Qodirov bo‘lib uning bu asarida haqiqiy ijodkor, odil va adolatli sarkarda, shoirlikda benazir inson sifatida gavdalantirilgan Bobur shaxsiga asarni o‘qigan shaxsning mexri oshadi Bobur shaxsini yaqindan bilib oladi. Ijodkor o‘zi sevgan shaxs sifatida Boburning hayoti va uning avlodlari tarixiga ham nazar solgan ushbu asar haqida muallifga bir qator maktublar keti uzilmay kelgan.

Shu xatlar orasida Hindistonning Indour shahrida yashovchi Surjamal Garch degan advokatdan kelgan maktubda shunday satrlar bor: “Yozuvchi boy faktik materiallar asosida badiiy jihatdan go’zal roman yaratgan, men ko’pdan beri bunday ajoyib asar o’qimagan edim”[12]. Ushbu kelgan xatdan ma’lumkiy ijodkor Boburni

[11] www.talaba.su
[12] www.ziyo.uz

to‘laqonli shoir va adolatli odil podsho sifatida namoyon qilib o‘quvchini Bobur bilan bir zamonda uning hayotida birga yashashga olib kiradi va uni o‘sha zamonning zayli bilan birga podshohlikda saltanat ishlari bilan birga ijod qilgan damlari ham asarni o‘qigan shaxsda to‘laqonli Bobur shaxsiga xurmat extirom paydo bo‘ladi. Adib Pirimqul Qodirov Boburni madh etuvchi asari Yulduzli tunlarni yozganda quydagicha fikirlarni aytib o‘tgan: “Xilma-xil fikr va mulohazalar changalzoridan tikanlarga tirnalib o‘tdim, yo‘limdan adashib ketmaslik uchun doim tarix haqiqatiga, xususan –“Boburnoma”day asl manbalarga tayandim. Olti yil davomida romanga kiritgan yangi tahrirlarim ko‘proq uning badiiy nuqsonlarini tuzatishga, tarix haqiqatini chuqurroq ochishga qaratildi”[13].

Navoiy va Bobur ijodi zamonlar osha biz kabi kelgusi avlodlar qalbidan chuqur joy olib mangu barhayot bo‘lishda bardavom bo‘ladi. Bu ikki shaxs dunyo hamjamiyatida katta qiziqishlarga sabab bo‘lib qolaverishda davomiy ekan biz kabi Navoiy va Boburni ham buyuklida tengsiz insoniylikni ulug‘lagan, vatanparvarlik timsolida qadr topishda davom etuvchi shoirlardan bo‘lib qoladi. Bu ikki shaxs bir biriga o‘xshashlik taraflarini ko‘plab keltirish mumkin va bu siymolar hayoti va ijodi haqqida ko‘plab she’rlar va dostonlar asarlar hali dunyoga kelishdan charchamaydi, also to‘xtamaydi.

Navoiy va Bobur kabi ijodkor ajdodlarimizni yanada ko‘proq bilishimiz uchun bugun davlatimiz tomonidan sharoitlar yaratilmoqda. Shu jumladan poytaxtimizda ham bir qator ishlar amalga oshrilib buyuk shoirlarimiz adiblarimiz nomini abadiylashtirish uchun Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 20-may kuni Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘ida barpo etilgan Adiblar xiyoboniga tashrifi fikrimiz tasdig‘i sifatida keltirsak-da bu boradagi reja 2017-yil 3-fevral kuni mazkur bog’ga tashrif chog‘ida shoirlarimiz hamda adiblarimizni nomini abadiylashtrish begilangan edi. Shu yili 18-aprelda davlatimiz rahbari tomonidan tegishli qarori qabul qilinib, xiyobonning me’moriy-g‘oyaviy loyihasi ishlab chiqilgan edi.

[13] www. Yulduzli tunlar -Vikipediya.

O‘tgan yillar mobaynida qurilish va obodonlashtirish ishlari yakunlanib, 8 gektardan ziyod maydonda Adiblar xiyobonining yaxlit me’moriy ansambli yaratilib bu ansanbilda barcha shoirlar, adib ajdodlarimiz haykallari barpo etildi. Adiblar xiyobonini g‘oyaviy-badiiy jihatdan yanada boydi. Xiyobonda Bobur, Ogahiy, Berdaq, Muqimiy, Furqat, Behbudiy, Avloniy, Cho‘lpon, Qodiriy, To‘lepbergen Qayipbergenov, Ibroyim Yusupov, Aleksandr Faynberg singari atoqli shir va yozuvchi adiblar xotirasiga bag‘ishlangan yangi yodgorlik majmualari barpo etildi.

Buyuk iste’dod sohibi turkiy til asoschisi hazrat Navoiy bobomizning muhtasham haykali atrofida 20 dan ziyod atoqli shoir va adiblarning haykallari yaxlit me’moriy va badiiy kompozitsiyada, mantiqiy yechim asosida joylashtirilgan. Ushbu xiyobonda Yozuvchilar uyushmasi uchun bino ham barpo etilgani o‘zgacha bir kayfiyatimizni ko‘taradi. Buyuklikda o‘zgacha bo‘lgan shaxslar ijodini o‘rganish bizning davlatimizda o‘zgacha bir yangi yo‘l ochgani Navoiy hamda Bobur ijod ahliga o‘z zamonasida e’tibor qaratgani kabi bizlar ham bobolarimiz orzusidagi kabi ushbu xayrli ishlarni davomchisi tarizda ta’riflasak menimcha mubolag’a bo’lmaydi.

Ajdodlarimiz hayoti biz kabi barcha yoshlarga bugungi ko‘zga ko‘rinmas g‘oyaviy urush davrida yo‘limizni yo‘lchi yulduz kabi porlab yoritishi shak shubhasiz aniqdir. Axborotlashgan davrda yashar ekanmiz biz avvalo inson qalbiga yo‘lni adabiyot orqali she’riyat orqali topishimizni ayni zamonning o‘zi isbot qilmoqda.

IYOTLAR

1. “Ma’naviyat yulduzlari” Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999 yil.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi - O‘zbekiston Respublikasida chiqarilgan 14 jildli universal milliy ensiklopediya.
3. Pirimqul Qodirov „Yulduzli tunlar“ romani haqida“. Ziyo.uz. Qaraldi: 13-iyul 2016-yil.
4. www.pezident.uz Shavkat Mirziyoyevning Toshkent shahrida Adiblar xiyoboni ochilishidagi nutqidan. 20.05.2020
5. Manba https://tafakkur.net/Alisher-navoiy.haqida

6. https://arboblar.uz Bobur tarjimai holidan 2022 Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha Yagona integrator UZINFOCOM.
7. www.talaba.su
8. www.ziyo.uz
9. www. Yulduzli tunlar -Vikipediya.

ALISHER NAVOIY MUSIQASHUNOS OLIM SIFATIDA

Tugalov Boburjon Baxodir o’g’li
Jizzax Davlat Pedagogika instituti
Tarix fakulteti o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir temur va temuriylar davrida musiqa san’atining rivoji va Alisher Navoiyning musiqashunos olim sifatidagi faoliyati to’g’risida ma’lumotga ega bo’lishimiz mumkun.

Kalit so’zlar: Amir Temur,temuriylar, musiqa,Alisher Navoiy,”Majolis un-nfois”.

Аннотация: В данной статье мы можем узнать о развитии музыки во времена Амира Темура и Темуридов и деятельности Алишера Навои как музыковеда.

Ключевые слова: Амир Темур, Темуриды, музыка, Алишер Навои, «Меджлис ун-нфойс»

Annotation: In this article we can learn about the development of music in the time of Amir Temur and the Temurids and the work of Alisher Navoi as a musicologist

Keywords: Amir Temur, Temurids, music, Alisher Navoi, "Majlis un-nfois".

O`rta Osiyo xalqlari shuningdek, Yaqin va O’rta Sharq mamlakatlarining musiqa san’ati uchun jadal ravnaq topgan davri sifatida Amir Temur va temuriylar davrini ko`rsatish mumkin. Zero, bu xalqlar yagona davlat bo`lib, o’zaro samarali madaniy aloqalar o’rnatibgina qolmay, ayni vaqtda Osiyo va Yevropaning eng yirik mamlakatlari bilan ham ma’naviy bog’lanish imkoniyatlariga ega bo’lganlar.

Temuriylar sulolasining deyarli besh asrlik (Amir Temurdan – boburiylargacha) hukmronligi mobaynida xonan

da va sozandalar rasmiy-diplomatik, harbiy va boshqa tantanalarning doimiy qatnashchilariga aylanib, xalq tomoshalari, ommaviy bayramlar ularsiz o’tmas edi. Bu esa, o’z navbatida, musiqaning boshqa san’atlar qatorida muhim o’rin egallashini ta’minlaydi. Manbaalarda keltirilishicha, mintaqaning turkiy, arab, forsiy xalqlarining rasmiy musiqa turlari, mumtoz maqom san’ati, fol’klori rivoj topdi. Eng muhimi, Musiqiy asboblar madaniy merosimiz timsoliga aylandi. Jumladan, manbada qayd etilishicha, “Amir qildimki,-deb yozadi Amir Temur o’z “Tuzuklar’’ida, - qaysi bir Amir biror mamlakatni fath etsa, yo g’anim lashkarlarini yengsa, uni 3 narsa bilan mumtoz qilsinlar: (Birinchisi) faxri xitob, tug’ va nog’ora berib, uni bahodir deb atasinlar’’. [Rahmonov, Toshkent, 1996. 34 bet].

Mazkur manbaning yana bir bo’limida, Amir Temurning xalq cholg’u asboblariga bo’lgan munosabatini quyidagicha keltiradi: “Amir qildimki, o’n ikki kata amirlarinig har biriga bitta bayroq (alam) va bir nog’ora berilsin Amir-ul Umaroga bayroq va nog’ora: tuman tug’i va chortug’ taqdim etsinlar. Mingboshiga esa bir tug’ va karnay (nafar) bersinlar. Yuzboshi va O’nboshiga bittadan kata nog’ora (tabal) bersinlar. Aymoqlarning Amirlariga bo’lsa, bittadan burg’u taqdim etsinlar.. To’rt beklarbegining har biriga bittadan bayrog’, nog’ora, chortug’, burg’u bersinlar’’[2]. [“Temur Tuzuklari”, Toshkent,1991. 80 bet].

Qizig’i shndaki, Sohibqiron fikriga binoan oddiy xalq orasida keng taralgan milliy cholg’u asboblarimiz qonuniy ravishda hokim va lashkarboshilarning ijtimoy va harbiy mavqeini belgilab beruvchi timsolga aylandi. Temur davriga xos bo’lgan ma’naviy ko’tarinkilik musiqa san’atining deyarli barcha jabhalari uchun keng imkoniyat tug’dirib berdi : sozandalik va xonandalik,musiqa ta’limi,bastakorlik ijodi ; musiqa ilmi bularning barchasi kamol topdi . Asrlar qarida shakillangan an’anaviy ,,ustoz- shogird’’ ta’lim tizimi keng quloch yozadi.Oz mohiyatiga ko’ra , tom ma’nodagi Uyg’onish harakatini bu jarayon nafaqat Temur saltanatining poytaxti Samarqandda,balki uning avlodlari SHohrux,Ulug’bek,Husayin Boyqaro, Bobur va boshqalar davridagi Buxoro,Xiva,Kitob,Balx,Qobul shaharlarida ham qizg’in kechdi.[O’zbekiston milliy ensiklopediyasi,Toshkent,200.321 bet]

O’rta asrlar an’anasi shahar aholisining kasb-koriga ko’ra alohida jamoa (mahalla) bo’lib yashashni taqazo etar edi. Xalq ichida tanilgan san’atkorlar hokimlar farmoniga ko’ra yoki o’ziga qulaylik yaratish maqsadida kasbdoshlari bilan jamoa bo’lib yashashni afzal ko’rar edilar . Shunga ko’ra ,,Xonandalar mavzesi”, ,, Sozandalar mahallasi”, ,,Bastakorlar ko’chasi” kabi ko’cha , mahallalar joriy etildi. Bu kasb sohiblarining alohida obro’ va nufuzga sazovor bo’lganlari atrofida , maxsus ijod,ijro va ilmiy mavqega ega ijodiy maktablar shakllandi.

Musiqa ustozini hammadan ustun qo’yib, ,,ustozlar ustozi’’, deb ulug’langan Alisher Navoiy (o’zi ham musiqiy ilmga ega bo’lib, bu borada muayyan asarlar yaratgani ma’lum) o’zining ,,sabbayi-Sayyor’’ asarida quyidagilarini takidlaydi:

San’atim anda soz chalmoq ishi

Bilmayin men kibi ishimni kishi

Ilmi advoru fanni musiqiy,

Mendin ul ilm ahli tahqiqiy

Elga ta’lim etmoq erdim,

Kimki ustodi qavm shogirdim.

Shu bois Alisher Navoiyning hayoti va ijodida musiqaning o’ziga xos o’rin egallaganligi,tasodif emas albatta . Qolaversa, Navoiy taxallusining o’zi ham nufuzli musiqiy atama ,,Navo’’ – so’zidan o’zak olgandir.[“ Alisher Navoiy ,, Majolisun – nafois” , “ Xamsa”, “ Xazoyinul-Maoniy”.O’zbekiston.2009.34 bet]

Alloma musiqa asoslarini bolaligidan , alifbo saboqlari bilan birga o’rgana bordi. Uning ustozi Yusuf Burhon o’z davrining yirik musiqashunosiva bastakori edi. Bu haqda ,,Majolisun- Nafois’’ asarida quyidagi ma’lumotlar bor;,, Faqr va fano tariqida suluk qilur erdi. Va tajarruk va inqito rasmin ko’p masluk tutar erdi. Va

jomei ahli tariqi erdi va musiqiy ilmini ham yaxshi bilur erdi va faqir musiqiy fanida aning shogirdimen. Ko’proq o’z she’riga musiqiy bog’lar erdi,,Isfaxon amalin bu baytig’a bog’labdurkim,,.[“Alisher Navoiy” to’plami.SHarq.1998.342 bet]

Navoiy ustozini she’rlaridan na’muna keltirar ekan, ,, Isfaxon’’ kuyining yaratilish tarixiga aloxida to’xtalib o’tadi. Bu ma’lumotlar Xoja Yusuf Burhon ijodining maqomlar shakllanishiga bevosita aloqasi bo’lganligidan dalolat beradi. Zero, zikr etilgan kuy, aniqrog’i , maqom (parda tizimi), Amir Temur va Temuriylar Davridagi ,,Duvozdahmaqom’’ turkumi tarkibida o’ninchi edi.[1]

Navoiyning o’z davri musiqiy ijodini , kengroq olganda, umuman musiqa madaniyatini izchil e’tirof etishga unig Hoja Yusuf Burhon qo’lida ta’lim olgani , umri davomida musiqa san’ati namoyondalari bilan doimiy muloqotda bo’lganligi ijobiy ta’sir etgan. SHoirning tog’asi Muhammad Ali G’aribiy shular jumlasidan . Navoiy ta’birida ; ,, Qatoz sozlarda yaxshi cholur erdi…[14]

Bastakorlar Abdulla Marvarid, Hofiz Sharbatiy, Pahlavon Muhammad, honandalardan Mavlono Ayniy, Ali Karmal, Xo’ja abdulloh Sadr, musiqiy risolalar mualliflari Jomiy, Binoiy, Mavlono Salimiy, Mavlono Riyoziylar Alisher Navoiyning eng uaqin do’stlari bo’lganlar. Bularning har biri va boshqa qator musiqa san’ati namoyondalari hususida batafsil ma’lumotlar , ijodlariga tavsif yaratgan asarlariga munosabat, yuqorida zikr etilgan ,,Majolisun–Nafois ‘’

Sakkiz majlisning yettitasidan o’rin egallaydi. Alloma yettinchi majlisda temur , Shohruh va Temuriylar shajarasinig qariyib yigirma avlodiga aniq tavsif berar ekan, o’z e’tiborini mazkur shaxslarning san’atga, ilmga bo’lgan munosabatini aniqlashga qaratdi.Hususan, SHohruhning uchinchi o’g’li Boysunqur Mirzo haqida quyidagilarni o’qish mumkin; ,, Hushtab,saxiy va ayosh va hunarparvar shodshoh erdi. Hattot va naqqosh va sozanda va guyandadin Benazir kishikim, anin tarbiyatinda orag’a kirdi, ma’lum emaskim hech podshoh zamonida paydo bo’lmish bo’lg’ay’’.

14

Shaxsning aqliy hofizasi, idrok etish qobilyati, ijodiy imkoniyatlariga bo’lgan izchil qiziqish Alisher Navoiyning nazmiy va ba’zi nasriy asarlariga xosdir.

Allomaning qomusiy ,, Xamsa’’sini , besh qo’shiq deb atash mumkin . Ya’ni: ,,Hayratul Abror’’- falsafiy – ahloqiy mazmunga ega bo’lgan qo’shiq, ,,Farhod va shirin- jasorat va vatanparvarlik qo’shig’i, ,,Layli va Majnun’’- betakror sevgi qo’shig’i, ,,Sabbai Sayyor’’ vafodorlik qo’shig’i, ,,Saddi iskandariy’’ – axloqiy qo’shiq deb atalishi mumkin.

Umuman olganda , Alisher Navoiyning ulkan yilnomasi ,, xazoyinul-maoniy’’ni ham qo’shiq, she’riy matnlarning majmuasi deb faraz qilish mumkin, chunki uch mingdan ortiq she’rlarning aksariyatlariga shoir zamondoshlaridan tortib, bugungi kun ijodkorlariga qadar musiqa yaratgan, ya’ni ularni musiqalashtirishgan. Bu she’rlarning ayrimlarini, masalan, ,,yordin ayru..’’ni tuzilish jihatidan o’zbek mumtoz musiqasiga qiyoslash mumkin. Bu g’azal tadrij shaklida yozilgan bo’lib, bir fikr ikkinchisiga zanjirband etiladi. Bunday usul maqomlarga ham xos bo’lib, jumladan, saraxbor yoki talqin shubalarida bir ohang(intonatsiya) ning ikkinchisiga ulanishini kuzatish mumkin. Bugungi mushtaraklik asosiy fikrning chuqur falsafiy ma’nosini tadrijiy tushuntirish maqsadida qo’llangan.

Alisher Navoiyning musiqa ijodiyotiga bevosita aloqadorligini Zahiriddin Muhammad Bobur ham e’tirof etgan. Alisher Navoiy naqshlar (amula- cholg’u asarlari) hamda peshravlar (cholg’u asarlari) muallifi bo’lganligi ,, Bobournoma’’da keltirilgan. Shoirning tuzilish jihatdan muakkab bo’lgan bunday asarlarga imkoniy yeta olishi nafaqar Sharq , balki G’arb madaniyati tarixida ham kamdan-kam uchraydi. Qolaversa, yarim asrdan keyin , ya’ni XVI-XVII asrlar bo’sag’sida yashab ijod qilgan olim Darvish Ali Chang’iy , shu davrdagi ommabop 24 usuldan – bir qanchasi Ulug’bek , 12 tasi Husayin Boyqaro , 7 tasi esa Alisher Navoiy qalamlariga mansub ekanligiga guvohlik beradi.

Shu boisdan XIV asr oxirlari- XV asr boshlarida yaratilgan miniatyuralarda , ayniqsa Navoiyning ,,Xamsa’’ hamda ,, devon’’ asarlarining suratlarida ,,amal-i

tarona’’ , „ Amal-i Bo’ston’’ , „ Amal-i Guliston’’, „Amal-I Hariston’’- kabi asrlarni aytib o’tish mumkin.

Ming afsuski , bizga qadar ularning faqat nomlargina yitib keldi.

Shuni aytib o’tish lozimki, Alisher Navoiyning bu darajaga yetishishida ustozlari kata ro’l o’ynagan,ulardan biri Abdurahmon Jomiydir(1414-1492). Jomiy musiqiy asarlar hamda „Risolai musiqi’’ning muallifidir.

Xullas, Alisher Navoiy yashab o’tgan Temuriyar davrida musiqa san’atining barcha (bastakorlik,ijrochilik,ilm va maxsus ta’lim kabi) jabhalari-o’z tarixi dagi eng yuksak pallalariga erishdi.[Internet ma’lumotlari-vikipediya,2019.1bet]

Bugub biz yosh avlod bunday „boylik’’larni ko’z qorachig’imizdek asrab avaylashimiz, kelajak avlodaga yetkazishimiz lozim. Sobiq ittifoq davrida bu meroslar ancha qadrsizlandi ,yo’q qilindi-bu tariximizning qora dog’laridan biridir, endi biz qolganlarini asrab qolishimiz lozim.

Bugungi kunda Sharq musiqasini rivojlantirish uchun juda katta ishlar amalga oshirilmoqda.Jumladan, har ikki yilda bir Samarqand shahri , Registon maydonida o’tkaziladigan „ Sharq taronalari’’ xalqaro festivali bu borada ancha katta tajribaga ega hisoblanadi. Bu yutuqlarimizning boshlanishidir.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1 Mamajon Rahmonov “Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san’at” Toshkent.1996

2 ,,Temur Tuzuklari’’ . Toshkent , 1991

3 Alisher Navoiy ,, Majolisun –nafois’’ , ,, Xamsa’’, ,, Xazoyinul-Maoniy’’.2009.

4 O’zbekiston milliy ensiklopediyasi.2000

5,, Alisher Navoiy’’ to’plami.Sharq.1998.

6 Internet ma’lumotlari-vikipediya.2019.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TA’LIM-TARBIYA MASALALARI

Sardor Nurmurof o‘g‘li Kenjayev
Buxoro davlat universitetining Pedagogika Instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Alisher Navoiyning asosan didaktik janrda yozilgan ruboiy va g‘azallari tahlilga tortilgan. Ularning zamonaviy ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ahamiyati misollar yordamida yoritilgan. Navoiy asarlarining bugungi kundagi ahamiyati tahlil etilgan.*

Tayanch so‘z va iboralar: *didaktika, obraz, ruboiy, g‘azal, nazm, navo, nasr, janr.*

Аннотация. *В статье анализируются рубай и газели Алишера Навои, написанные преимущественно в дидактическом жанре. Их значение в современной общественно-политической жизни иллюстрируется примерами. Проанализировано значение произведений Навои сегодня.*

Опорные слова и выражения: *дидактика, образ, рубаий, газель, назм, наво, проза, жанр.*

Abstract. *The article analyzes the rubai and gazelles of Alisher Navoi, written mainly in the didactic genre. Their importance in modern social and political life is illustrated by ehamples. The significance of Navoi's works today is analyzed.*

Key words and expressions: *didactics, image, rubaiy, gazelle, nazm, navo, prose, genre.*

Zamonaviy texnologiyalar asri bo‘lgan bugungi kunda ta’lim-tarbiya masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Lekin tarbiya masalasi sharq xalqlarida doimo yetakchilik qilgan va o‘z qiymatini hech yo‘qotmagan. Sharqona ta’lim va tarbiya dunyo miqyosida ham alohida o‘ringa ega. Sharq madaniyatida ta’lim-tarbiya masalalari yoritilgan didaktik ruhdagi asarlar Mir Alisher Navoiy nomi bilan bog‘liqdir. Navoiy o‘z asarlarida axloqiy qarashlarini yaxshi fazilatlar bilan birga yomon illatlarni ham ko‘rsatish orqali ifoda etadi. Uning nazdida insoniylik yaxshi

g‘oyalarga amal qilish va uni targ‘ib etish bilan bog‘liqdir, turli illatlar esa odamni insoniylikdan uzoqlashtiradi.

Mazkur maqolani tadqiq etish jarayonida Alisher Navoiyning asarlari metodologik jihatdan olindi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Alisher Navoiy asarlarida ustoz-shogirdlik masalasi obyektiv ochib berildi. Muxtorov A., Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixi kitobi mantiqiy izchillik sifatida olindi.

Nokasu nojins avlodin kishi bo‘lsin debon
CHekma mehnatkim, latif o‘lmas kasofat olami –
Kim kuchuk birla xo‘tukka necha qilsang tarbiyat,
It bo‘lur, dog‘i eshak, bo‘lmas aslo odami1.

Haqiqatdan ham jonzotlar orasida faqat insongina ta’lim-tarbiyasi tufayli barcha maxluqotlardan ajralib turadi. Biroq unda yoshlik davridanoq yovuzlik, adovat, hasad, tuhmatchilik va yolg‘onchilik kabi illatlar shakllansa, uni har qancha tarbiya etilgani bilan bartaraf etib bo‘lmaydi. Zero, tarbiya insondagi o‘zgarmas hislatlardandir. Tarbiyani inson dunyoga kelishi bilanoq, balki ona qornidaligidanoq boshlamoq zarur ekanligini g‘azal mulkining sultoni Alisher Navoiy mahorat bilan yuqoridagi misralarda ifoda etgan. Shuningdek, Navoiy faqat ta’limotlar orqali insonga ta’sir etib bo‘lmasligini yaxshi biladi. Ba’zan insonga yomon xulqli va badfe’llar davrasida bo‘lmoqlik ham yaxshi ta’sir ko‘rsatishi aytib o‘tiladi. Negaki inson faqat yaxshi muhitda yashasa, yaxshilar qadriga yetmasligi mumkin. Navoiy asarlaridan yaxshilarga alohida hurmat e’tibor ko‘rsatish, shu bilan birga badfe’l odamlar bilan ham murosaga kelishlik insonga xos fazilat ekanligini tushunish mumkin.

Ma’lumki, Alisher Navoiy mutafakkir shoirlardan biridir. Mutafakkir so‘zining ma’nosi tafakkur sohibi, keng va chuqur falsafiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo‘lgan kishi, demakdir2. Uning asarlarini kuzatar ekanmiz, ularda hayotiy falsafa, insonga xos qadriyat va tuyg‘ular, fazilat va illatlar, ezgulik va yovuzlik, do‘st va dushmanlik, diyonat va xiyonat kabi qarama-qarshiliklarni mahorat bilan aks ettirilgani e’tiborga molikdir.

Nafsing etsa shuxlug‘, charx emgagidin qil adab,
Tiflni andoqki, zajr aylar falak birla adib.

Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” asaridan olingan mazkur misrada bolaga yoshligidanoq yetarli va to‘g‘ri ta’lim-tarbiya berish kerakligi, bu nechog‘lik mashaqqat va vaqt talab etsa-da, unga jiddiy yondoshish zarurligi uqtiriladi.

SHuningdek, “Devoni foniy” da shunday misralar keltiriladi:

Ba piri, ey javon, gar davlati ayn ul-yaqin hoqi,
G‘ubori rohi piron to‘tiyo kun dar javoniho.

Ya’ni, ey yigit, qariganda asl haqiqat gavharini topishni istasang, yoshlikda ulug‘lar izi tuprog‘ini ko‘zingga to‘tiyo qil. Darhaqiqat, yaxshi xulqlilar bilan birga bo‘lish, ular suhbatidan o‘rganish insonni komillikka erishtiradi.

Navoiy asarlari orqali hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan ijtimoiy masalalarga mohirona yondoshgan tarbiya, ta’lim masalasidagi etakchi muammolardan biri bu millatlararo hamjihatlik masalasi ekanligini yaxshi bilgan. O‘rta asrlarda mahorat va odillik bilan qayd etib o‘tilgan mazkur muammo, bugungi kunda etakchilik qilmoqda. Alisher Navoiy turli xalq va millat vakillarini samimiyat bilan sevadi, ularni hurmat qiladi. Uning qaysi bir asarini olmang, turli xalq vakillari obraziga duch kelasiz, unda ularning do‘stlik, birodarlik g‘oyalari jo‘shqin ifoda etilganligini ko‘rasiz:

Ko‘ngulni olsa malohat bila tafovut yo‘q,
Xitoiy o‘lsinu yo armani va yo hindu...
Men tilab husn, vale shoh tilab aslu nasab
Menga lo‘li bila hindu, anga qo‘ng‘irotu qiyot

kabi misralarda u xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, tengma-teng qo‘yuvchi belgilarga e’tiborni jalb etadi hamda insonni irqi, elati, etiqodiga qarab, unga turlicha munosabatda bo‘lish kabi yomon illatlarga qarshi kurashadi. Bugun dunyoda ba’zi xalqlar, davlatlar va millatlar orasida bo‘layotgan turli mojarolar, birodarkushlik urushlarining oldini olish, xalqlarni do‘stlikka chorlash g‘oyalarini shoir oldindan bashorat qilgandek tuyuladi.

Alisher Navoiyning ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya masalalariga fikrlarida insonparvarlik g‘oyalari bosh o‘rinda turadi. Alisher Navoiyning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrlidir. Alisher Navoiy o‘z davridagi barcha sof vijdonli insonlarning manfaatini himoya qildi. U inson uchun zarur bo‘lgan umuminsoniylik axloq qoidalarini o‘rgandi, asar qahramonlari obrazida o‘z qarashlarini aks ettirdi. “Xamsa” dagi Farhod, SHirin, Shopur, Qays, Layli, Dilorom kabi obrazi fikrimizning yorqin dalilidir. Buyuk alloma umri davomida ilm-ma’rifatni yuksak qadrlagan va homiylik qilgan. Shoir insonning ma’naviy kamolotini, eng avvalo, uning ilm va hunar sohibi bo‘la olganligida, deb biladi. U ilmga o‘zidan o‘zi erishib bo‘lmaydi, kishi faqat havas va ishtiyoq bilangina ilmga ega bo‘la oladi, deb hisoblaydi.

Alisher Navoiy hikmatlarida olam-olam ma’no mujassamdir. Ularda ta’lim-tarbiya, ilm-ma’rifat, mehr-oqibat, insoniylik kabi masalalar markaziy o‘rinni egallaydi. Masalan,

Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur,
Qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur.

Alloma kishi bilimga ega bo‘lishi uchun oz-ozdan o‘rganib borishi lozimligini, bilimlari yig‘ilib insonni komillikka erishishini ta’minlashini uqtiradi. Buni tomchi-tomchi suvlar yig‘ilib, daryoga aylanishiga o‘xshatadi.

Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado aning haqin yuz ganj ila.

Navoiy ushbu misralarida birinchi ustoz tolibiga savod chiqarishda ko‘maklashadi, bu bilan uning hayot yo‘lini belgilab beradi. Ustozning bu xizmatini yuzlab xazinalar bilan ham to‘lay olmaslikni bayon qiladi.

Umuman olganda, Navoiy ijodiyoti zamon va makon tanlamaydi. Uning asarlaridagi ta’lim-tarbiya, ahloqqa oid fikrlar hozirda ham nazariy va amaliy jihatdan

e’tiborlidir. Necha asr avval yozilgan bo‘lishiga qaramay, yuqoridagi ruboiy va misralarida keltirilgan odamiylik, samimiylik, oqillik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, do‘stlik, hamjihatlik masalalari sharqona tarbiyada hanuzgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Aksincha, kundan kunga zamonaviy hayotda Navoiyning asarlarini o‘rganish, ular asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish dolzarblik kasb etmoqda. Bugungi ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotda, davlatlararo do‘stona munosabatlarni rivojlantirishda ham asosiy omillardan biri hisoblanmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Alisher Navoiy “Hikmatlar”. O‘zbekiston. – T. 2011.

2. Ibrohim Haqqul Navoiyga qaytish. Fan. – T. 2007.

3. Muxtorov A., Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixi. O‘qituvchi. – T. 1995.

4. Inoyatov S. Do‘stlik va adolat kuychisi // Adolat gazetasi // 2020 yil, 18-son.

“MAHBUB UL-QULUB” - FALSAFIY, AXLOQIY-DIDAKTIK ASAR

Gulhayoxon Haydarova

Qo’qon DPI O’zbek tili va adabiyoti fakulteti o’qituvchisi

Dilzodaxon Abdullayeva

Qo’qon DPI O’zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiy bobomiz, ularga berilgan qisqa ta’riflar, falsafiy, axloqiy-ta’limiy yo’sinda, umrlarining oxirgi onlarida yozilgan mashhur “Mahbub ul qulub” asarlari borasida va undagi ma’no qirralar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: Alisher Navoiy, “Mahbub ul-qulub”, adabiyot, hikmat, axloqiy, ijod, umuminsoniy g’oyalari, siyosiy-iqtisodiy, harbiy, tabobat ilmi, tinchlik, saxovat

Annotation

This article discusses the great works of our ancestor Alisher Navoi, the brief descriptions given to them, the famous "Mahbub ul Qulub" written in a philosophical, moral and educational way, in the last moments of his life, and the aspects of its meaning.

Key words: Alisher Navoi, “Mahbub ul-qulub”, literature, wisdom, ethics, creativity, universal ideas, political-economic, military, medical science, peace, generosity

Аннотация

В данной статье рассматриваются великие произведения нашего предка Алишера Навои, даны краткие описания к ним, знаменитый «Махбуб уль Гулуб», написанный в философско-нравственном и просветительском ключе, в последние минуты его жизни, и аспекты его значения .

Ключевые слова: Алишер Навои, «Махбуб ул-гулуб», литература, мудрость, этика, творчество, общечеловеческие идеи, политическая экономия, военное дело, медицина, мир, великодушие

Alisher Navoiy turk dunyosi adabiyotining eng mashhur vakilidir. Chunki hech kim bu til va adabiyotning shakllanishi, rivojlanib ravnaq topishi uchun uningdek ulkan xizmat qila olmagan. Navoiy bobomiz turkiy adabiyotning gultoji, eng yuksak cho’qqisidir. Negaki, hech qaysi ijod ahli unga qadar bu tilda bunchalik “ko’b va xo’b” (Bobur)yozmagan, nazm durlarini takrorlanmas tarzda(Qazviniy) sochmagan, umuman olganda, shoirlarning sultoni(Islom Karimov) bo’lgan emas edi. Shu o’rinda, Navoiy o’zini ham ,,Xitoydan to Xuroson’’gacha yoyilgan turkiy xalqlarning o’z shoiri deb bildi, ularni lozim bo’lsa, bir adabiy til doirasida birlashtirdi, “yakqalam” qildi. Bu bilan, butun bir millatning har tomonlama yuksalishiga buyuk ta’sir ko’rsatdi. Navoiy asarlarining umuminsoniy g’oyalari – insonparvarlik, xalqparvarlik, adolatpeshalik, do’stlik, tinchlik, mehr va sadoqat, pok sevgi va vafo, ma’rifatparvarlik kabi go’zal tuyg’ularning yuksak badiiy shaklda ifodalanishi orqali o’zbek adabiyoti naqadar xalqchil ekanligini va uning betakror ma’no qirralarini ochib berdi.

Binobarin, falsafiy, axloqiy-ta’limiy yo’sinda, umrining oxirgi onlarida yozilgan mashhur “Mahbub ul qulub” (“Ko’ngillarning sevgani”) asari ham o’zida olam-olam ma’noni mujassamlaydi. Asar muqaddima, uch qism va xotimadan iborat. Muqaddimani Navoiy an'anaga ko'ra, Alloh hamdi bilan boshlaydi. Asarning birinchi qismi “Xaloyiq ahvoli va af’oli va aqvolining kayfiyati” – xaloyiqning ahvoli va fe’l-atvori hamda so‘zlarining kayfiyatiga bag‘ishlangan, ikkinchi qismda – “Hamida af’ol va zamima xisol xosiyatida” – ya’ni, yaxshi qiliqlar va yomon xislatlar xususiyati tahlil qilingan. Uchinchi qismi esa, “Mutafarriqa favoyid va amsol surati” -– turli foydali maslahatlar, maqollar va pand-nasihatlarni qamrab olgan bo‘lib, tanbeh shaklida yozilgan. Asarning har bir qismida ulug‘ mutafakkirning yuksak ma’naviy qiyofasi, buyuk ma’rifati porloq quyoshdek balqib turadi va o‘quvchi qalbiga o‘zining so‘nmas ziyosini ulashadi.Chunki, asar hayoti davomida undan kerakli saboq olgan va insoniylik bobida ko'p tajriba orttirgan muallif tomonidan balog'at bo'sag'asida turgan yoshlarni to'g'ri yo'ldan adashmaslik uchun dasturulamal tariqasida yozganini qayd qiladi.

Gahe toptim falakda notavonlig',

Gahe ko'rdum zamondin komronlig'.

Base issig'-sovug' ko'rdim zamonda

Base achchig'-chuchuk tottim jahonda[15]

“Mahbub ul-qulub”ning birinchi qismi jamiyatning siyosiy-iqtisodiy, harbiy hayotiga mas'ul bo'lgan shaxslarga tavsif berish bilan boshlanadi. Navoiyning uzoq yillar davomida hosil qilgan xulosasiga ko'ra, mamlakatning siyosiy barqarorligi, osoyishtaligi hamda rivoji, eng avvalo, odil podshoh, sadoqatli bek va vazirlar, o'z ishiga xolislik va diyonat bilan qarovchi fidoiy bahodir va yasovullar, sadoqatli va vatanparvar sipohiylarning foniy va boqiy dunyo saodatini ko'zlab ish yuritishlariga bog'liqdir. “Odil podshohlar zikri” fasli zaminida adolatni targ‘ib qilish, shohning mamlakat tinchligi, xalqning farovon, ozod hayotini ta’minlashdagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatish g‘oyasi turadi. Keyingi qismlar hamda fasllarda inson hayotining ma’naviy taraflariga, kasb-koriga, axloqiy-ta’limiy qirralariga ko’proq e’tibor beriladi.

Hoziq tabibi xushxo'y tan ranjig'a shifodur,

Omiyyu tund-u badxo'y el jonig'a balodur[16]

Navoiy aqidasiga ko'ra, tabobat ilmi bilan shug'ullanuvchi kishilar uchta qurolga – chuqur bilim va zakovat, jarrohlik tig'i bilan ishlash malakasi hamda bemorlar bilan muloqotda yumshoq muomala madaniyatiga ega bo'lishi kerak. Begunoh bemorlarning umrini erta xazon qiluvchi, muomalasi yomon, besavod va uquvsiz davolovchidan ko'ra, podshoh hukmi bilan jon oluvchi jallod yaxshiroqdir

Bu asar mutafakkir shoirning umri davomida hosil qilgan tajribalari, kuzatuv va xulosalari asosida yaratilgandir. Shu boisdan ham asardagi ko‘plab ibratli fikrlar, pandnoma baytlar va hikmatlar xalqimiz ongidan chuqur joy olgan. Ularning ayrimlari maqol va matallar qatorida keng qo‘llanilib kelinmoqda:

Kimki xalqqa ko‘rsatib ehson bersa, u pastkash, saxiy emas.[17]

Xalqimizda o’ng qo’ling berganini chap qo’ling bilmasin degan naql bor. Ya’ni, birorta-bir insonga ozgina bo’lsa-da yaxshilik qildikmi uni hech kimga

[15] Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик. Ж.9. – Т.: Ғ.Ғулом нашриёти, 2011.
[16] Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик. Ж.9. – Т.: Ғ.Ғулом нашриёти, 2011.89-bet
[17]https://fayllar.org/alishe’r-navoiyning-mahbub-ul-qulub-asarida-yoshlarni-tarbiyala.html

aytmasligimiz, qilgan ehsonimizni aytib yoxud ayttirib maqtanmasligimiz (pastkashlik qilmaslik) lozimligi aytilgan. Yolg’iz Ollohning o’zi ko’rib turibdi demak shunga monand ajr ham albatta bordir.

Ko‘p degan ko‘p yangilur va ko‘p yegan ko‘p yiqilur[18].

Og’ziga kelganni demak nodon ishi

Oldiga kelganni yemak hayvon ishi[19].

Ushbu keltirilgan hikmatlar ham oz so‘zlash va oz yeyish bilan bog‘liq o‘gitlarning badiiy ifodasidir. Shoir nazarida so‘z o‘likni tiriltirish kuchiga ega: Ham so’z ila elga o’limdin najot

Ham so‘z ila topub o‘luk tan hayot.

Ba’zan bir so‘z bilan tirik vujud, salomat inson ham jonsiz o‘lukka aylanishi mumkin. Yolg‘on so‘z ham shunday qudratga ega:

O‘luk gar andin erur joni pok,

Valekin tirikni ham aylar halok.[20]

Navoiy ta’kidlashicha, shirin so‘z bilan ko‘p ishlar amalga oshadi. Achchiq may, boda ham chuchuk til bilan uzatiladi. Asarning uchinchi qismidagi ta’riflar biri-biridan qimmatbaho ma’naviy dur-u gavharlardir. Xususan, saxovat va himmat to‘g‘risidagi ta’rifda ko‘ngil mulkini zabt etuvchi quyidagi mushohadalar mavjud: “Himmat ahlining ixtisosi – saxovatdir; bu ulug‘ sifat – pokiza kishilarga xosdir. Odam – bir badan bo‘lsa, himmat uning jonidir; himmatlilardan olam ahli uchun yuz ming sharaf va shukuh yetishadi… Himmatsiz odam – xazina topsa ham buyuklarga teng bo‘lmas, Saxovat - hosildor daraxtga, foydali mevaga, mavj urib turgan dengizga, bebaho gavharga, Saxovatsizlik esa yog‘insiz bahor buluti, hidi yo‘q mushk-anbar, o‘tin va tutun, mevasiz daraxt va dursiz sadafga qiyoslanadi. Ya’nikim, inson umri davomida saxovatga oshno bo’lishi, barchaga nafi tegishi go’zal

[18] Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик. Ж.9. – Т.: Ғ.Ғулом нашриёти, 2011.502 -bet

[19] https://fayllar.org/alishe’r-navoiyning-mahbub-ul-qulub-asarida-yoshlarni-tarbiyala.html

[20] Masharipova Z. “Mahbub ul-qulub hikmatlarida xalq maqollari”. Navoiyga armug’on. 5-kitob. Toshkent. 2006. 26-bet

o’xshatishlar orqali inson onggiga chiroyli tarzda yetkazishga harakat qilingan. Quyida yana bir chiroyli misra ila shu narsa singdirilgan.

Tuxm yerga kirib, chechak bo‘ldi,
Qurt jondin kechib, ipak bo‘ldi.
Lola tuxmicha g‘ayrating yo‘qmi,
Ipak qurticha himmating yo‘qmi?[21]

Tuxum, ya’ni lola urug‘i – yorug‘ dunyoni tark etib, yer bag‘riga kirdi, g‘ayrat-shijoat ko‘rsatib tomir otdi, tuproqni yorib chiqib o‘sdi, lola guli bo‘lib ochilib, olamga go‘zallik bag‘ishladi. Qurt o‘z jonidan kechib, o‘z vujudini qurbon qilib, pilla o‘radi. Shu yo‘l bilan insoniyat olamini kiyintirgulik ipak hadya etdi. Arzimas bir urug‘ va jonzot g‘ayrat va himmat bilan bunyodkorlik ko‘rsatdi. Ey odamzot, sen koinotning gultojisan, sengagina ravo ko‘rilgan tafakkur va amal koinotdagi boshqa biror jonzot-u jonsiz unsurda yo‘q. Nahotki, oddiygina lola urug‘ichalik g‘ayrating, ipak qurtchalik himmating bo‘lmasa, deya nido chekmoqda Navoiy. Bunday ta’sirchan nido har qanday dangasa, insonlik g‘ayrati, g‘ururi, himmati mudragan o‘smirni ma’naviy-ruhiy uyg‘oqlikka da’vat etsa, ajab emas. Darvoqe, har bir fuqaro insonlik g‘ururi, nodir iste’dodi, g‘ayrat-shijoati bilan mehnat qilib, halol rizq-ro‘z undirsa, shuning o‘zi oliyhimmatlik, ma’naviy barkamollikdir

Biz haqli ravishda, Navoiyning o’lmas shoh asarlarini ong va shuurimiz charog’boni va ilhom manbasi deya olamiz. Zero, Navoiyning umr boqiy merosi xalqlarni ezgulik, adolat, poklik, tinchlik, haqiqat atrofida birlashtirishga qodir bo’lgan bebaho javohirdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. MAT XIV. Toshkent. 1998y

2. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик. Ж.9. – Т.: Ғ.Ғулом нашриёти, 2011

3. Izzat Sulton .“Navoiyning qalb daftari”.Toshkent,2010.

4. Masharipova Z. “Mahbub ul-qulub hikmatlarida xalq maqollari”. Navoiyga armug’on. 5-kitob. Toshkent. 2006.26-30 -bet.

[21]Masharipova Z. “Mahbub ul-qulub hikmatlarida xalq maqollari”. Navoiyga armug’on. 5-kitob. Toshkent. 2006.30-bet

ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЎЗБЕК ВА БОШҚА ТИЛЛАРДА АЛИШЕР НАВОИЙ АФОРИЗМЛАРИНИНГ (ХИКМАТЛИ СЎЗЛАРИ) ИШЛАТИЛИШИ ВА ТАРБИЯВИЙ АҲАМИЯТИ.

Ташпулатова Дилноза Холмирза қизи
ТТА Ўзбек ва хорижий тиллар кафедраси
инглиз тили ўқитувчиси

Аннотация: мақолада олий таълим тизимида ўзбек ва бошқа тилларда Алишер Навоий афоризмларининг ўқув топшириқларида фойдаланишнинг мавжуд ҳолати, ўзбек ва бошқа тилларни қиёслаб ўрганиш машғулотларида савол, машқ ва топшириқларнинг берилиши таҳлилий ўрганилди, шунингдек, ўқув топшириқларини қиёсий-чоғиштирма жиҳатдан такомиллаштириш бўйича олиб борилган тадқиқотлар таҳлил қилинди.

Калит сўзлар: фалсафий мушоҳада, афоризмлар, олий таълим, қиёсий-чоғиштирма усуллар, тарбияий аҳамият, замонавий таҳлил талаблари, ўқув топшириқлари.

“Биз Алишер Навоийни мутафаккир шоир сифатида биламиз. Мутафаккир сўзининг маъноси тафаккур соҳиби, кенг ва чуқур фалсафий мушоҳада юритиш қобилиятига эга киши демакдир”[22]. Бу қобилият ҳаммага ҳам насиб этмайди. Бинобарин, дунёда жуда оз ёзувчи ва шоир бу номга лойиқ кўрилган.

Навоий қолдирган меросни ҳикмат маржонлари тўла денгизга ўхшатиш мумкин.

Афоризм - бу тушунча узоқ вақтдан бери маълум. Милоддан аввалги V асрда Қадимги Юнон олими Гиппократ, тиббиётда афоризмлар ҳақида рисола ёзган. Бирор бир ҳодисанинг айнан ўзини эмас, балки бирор бир адабий йўл орқали, чиройли шеърий ифодаланиши бу афоризмдир.

[22] *Эргаш Очилов. Алишер Навоий. Ҳикматлар. Тошкент. 2006, 3-бет*

Буюк мутафаккир ва шоир Алишер Навоийнинг афоризмлари (ҳикматли сўзлари) фақат ўзбек халқининггина эмас, балки бир неча халқлар ва культураларнинг донишмандлигини ўзига йиққан бўлиб, бизнинг замонимиз учун дам жуда зўр тарбиявий аҳамиятга эгадир. Шунинг учун Навоий афоризмларининг ққўрганилиши ҳозирги замон талаби бўлмоқда. Шу ўринда Навоий афоризмларини бошқа тиллар билан қиёслаб ўрганиш муҳим масала ҳисобланади.

Қиёсий-чоғиштирма усуллар - қиёслаш орқали адабий ҳодисаларнинг умумий ва хос томонларини аниқлаш, поэтика, адабий алоқалар ва адабий таъсир масалаларини таҳлил қила олиши; Тил тарихи ва назарияси тўғрисида кенг билимни эгаллай олиш, дунё тилларининг умумий ва хусусий қонуниятлари ҳақида тасаввурга эга бўлиши, тилшунослик тарихи, тилшунослик мактаблари, замонавий тилшунослик масалаларини ва тилшунослик методларини билиши.

Навоий асарларининг ҳали ҳозирча тўла-тўкис таҳлил этиб чиқилмагани сабабли, улардаги афоризмларнинг ҳаммасини бу тўпламга йиғиш имкони бўлмади. Шу сабабли ҳозирги кунда Навоий афоризмларининг тўла тўпламини чиқаришни яқин келажакнинг вазифаси қилиб қўйиш билан, ҳозиргача аниқланган афоризмларни тўхтатмасдан, кичикроқ бўлса ҳам бир тўплам қилиб чиқариш асосий вазифа бўлиб турибди. Шундай бўлса ҳам айтиш мумкинки, бу тақдим этилаётган „Афоризмлар“ га Навоий ҳикматли сўзларининг катта бир қисми киргандир. Навоийнинг деярлик ҳамма энг муҳим асарлари -Хамса“, „Маҳбубул-қулуб“, „Чор девон“, „Назмул-жавоҳир“, „Лисонут-тайр“ ва бошқалар қараб чиқилиб, уларда учраган ҳикматли сўзлар терилиб олингандир.

“Лайли ва Мажнун” достонида шоир шундай ёзади:

Инсонға эрур камол матлуб,
Андин дағи дарду ҳол матлуб.
Ҳар кимгаки улум бўлса восил,
Гар дардию ҳоли йўқ, не ҳосил?

Комилликни истаган инсон дард ва ҳолни ҳам талаб этмоғи, ўрганмоғи лозим. Агар инсон бир неча илмларга эга бўлсаю, унда дард ва ҳол бўлмаса, бу илм эгасига қандай фойда бериши мумкин?

Хўш, бу ўринда дард ва ҳолдан мурод не?

Профессор Нажмиддин Комилов бу икки сўзнинг ўндан ортиқ маъноларини берадилар.[23] Ишқ, завқ, шафқат, тўғрилик кабилар бу маънолар ичидадир.

Бизнингча, Алишер Навоий бу ўринда ихлосни ҳам назарда тутмоқдалар. Муборак манбаларда ихлоснинг аҳамияти аниқ ва ўта таъсирли тарзда баён этилган. Яъни, дунёда илмига ихлос билан амал қилганларнинг нажотга эришмоқлари марҳамат қилинган.

Алишер Навоийга кўра инсон учун умидни йўқотиш катта йўқотишдир. Инчунун, ҳикматларининг бирида “Эй дўстлар, менга ҳамма нарсадан умидингни уз, воз кеч дейишингиз мумкин, аммо зинҳор Яратгувчидан умидингни уз демангиз” мазмунида бундай дейди:

Аҳбоб, денгизки, хону мондан тамаъ уз,
Не хону мон, кавну макондан тамаъ уз.
Не кавну макон, жону жаҳондан тамаъ уз,
Лекин демангиз, меники, Ондин тамаъ уз.

Ушбу ҳикматда “Оллоҳнинг раҳматидан умид узманг” ояти каримасининг мазмуни сингдирилган.

Навоий асарларини нашрга тайёрлашда асосий масалалардан бири—текстни тўғри аниқлаш ва юригиналга ҳечқанча ўзгариш киритмаслик масаласидир. Афоризмларни биз янги орфография блан берганимиз ҳолда шу принципни тўла сақладик. Лекин айрим ўринлардагина ба’зи чекланишлар бўлди. Масалан: кўнгул сўзи орфография қоидасига кўра, кўнгил равишида

[23] *Нажмиддин Комилов.Тасаввуф.Тошкент, 2009, 52-бет.*

ёзилиши керак бўлгани ҳолда бу сўз гул сўзи билан ҳам қофия бўлиб келган ўринда қофия талабига мувофиқ „кўнгул“ равишида берилди. Ёки луғатларимизда аниқ шоҳ, аччиқ, каттиқ, гоҳ равишларида ёзилиши қат’ий бўлгач сўзлар вазн талаб қилган ўринларда шаҳ, ачиғ, қагиғ, гаҳ равишларида ҳам берилди. Сув сўзи вазн талаб қилган жойда су равишида ишлатилди. Ҳозирги жонли тилимизда ўлдирмоқ равишида ишлатилиши қат’ийлашган сўзлар Навоий асарларида ўлтирмоқ. равишида ҳам учратиладики, бу хусусиятларни ҳам оригиналнинг ўзича беришга диққат қилинди.

Машҳур тарихнавис Шарафиддин Али Яздийнинг “Зафарнома” асарида, Амур Темур вафот этишидан олдин юқоридаги оятни айтиб жон таслим қилганлиги қайд этилади.[24]

Шоирнинг замондоши муаррих Хондамир “Макорим-ул-аҳлоқ” китобида қуйидаги воқеани баён этади:

Алишер Навоий бандалик вазифасини адо этгач, жамоат билан суҳбатлашар, ҳол-аҳвол сўрар, бемор ва эҳтиёжмандларнинг кўнглини кўтарар эди. Нимагадир бир куни тарки одат қилиб, қаергадир шошилиб бориб келдилар. Бу ҳолга одатланмаган жамоа қизиқиб сўраганларида ҳазрат Навоий шундай изоҳ бердилар:

“Икки елкамга салом берганда кўрдимки устимда бир чумоли турибди. Бу чумоли таҳорат олганим жойдан чиққанини билдим ва бир жонзотни ошиёнидан жудо қилмоқнинг гуноҳини, юкини ўйлаб уни ўз жойига қўйиб келдим”.

Нафақат инсонга, бир чумолига озор етказишга жасорат қилолмаган Навоийнинг ушбу сатрларини битмоғи табиийдир:

Кимки бир кўнгли бузуқнинг хотирин шод айлагай,
Онча борким, Каъба вайрон бўлса обод айлагай.

[24] *Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Тошкент, 1997.*

Яъни, ким кўнгли ўксик бир инсонни хурсанд қилса, йиқилган Каъбани қайтадан қурган, таъмирлаган каби савобга ноил бўлади, демоқда шоиримиз.

Ота-онага ҳурмат мавзуси ҳар шоирда бўлгани каби, Навоий ҳикматларининг асосий мавзуларидандир. Шоир, фарзанд отаси учун керак бўлса бошини, онаси учун жисмини фидо этмоғи, кундузи нур сочганлари туфайли уларнинг бирини ой, бирини қуёш деб билмоғи лозимлигини таъкидлайди:

Бошни фидо айла ато қошиға,
Жисмни қил садқа ано бошиға.
Тун-кунингға айлагали нур фош,
Бирисин ой англа, бирисин қуёш.

Қуйидаги тўртлик эса шоирнинг “Арбаин” асаридан:

Оналарнинг оёғи остидадир,
Равзаи жаннату жинон боғи.
Равза боғин висолин истар эрсанг,
Бўл онанинг оёғи тупроғи.

Ҳаётнинг жуда қисқалигига доир бир неча ҳикматлар бор. Бу ҳақиқатни Навоий шундай гўзал ифодалайдики, буни ўқиган ўқувчи мутлақо таъсирланади ва тезроқ хайрли ишлар қилмоққа ғайрат этади:

Хазон сипоҳиға эй боғбон, эмас моне,
Бу боғ томида гар игнадин тикан қилғил.

Яъни, эй боғбон, сен боғингда етиштирганинг дарахтларни нақадар кўрисанг, ҳатто деворлари устини тикан билан ўрасанг ҳамки, хазон отлиғ лашкарга монелик қилолмайсан.

Мавзуга оид яна бир неча ҳикмат:
Умрга ҳеч эътимод йўқдур, эй кўнгул,

Ой ва йилни неча маст кечирурсан, ҳамон ойил.

“Вақт жафо ханжари ила умр толаларини кесади. Шундай экан, унга кўнгил боғламоқ мумкин эмаслигини фаҳмла”.

“Қачонгача умрингни айш-ишрат ва уйқу билан ўтказасан. Ғурурга маст бўлиб кўзингни зулмат пардаси ила ўрайсан? Энг яхшиси қоронғу кечаларни ихлосли тоат билан, унинг нури ила борадиган жойингни ёритсанг-чи”.

Ушбу байт эса “Ҳар нарсанинг қазоси бор аммо фурсатларнинг қазоси бўлмас” ёхуд “ҳозирги вақтингнинг қадрини бил” сўзларини эслатади:

Мозийу мустақбал аҳволин такаллум айла кам,
Не учунким, дам бу дамдир, дам бу дамдир, дам бу дам.

Мустақиллик бизга кўплаб имкониятлар қатори Алишер Навоийни англаш, рисоладагидек тушуниш бахтини берди, дея оламиз.

Эй Навоий, бода бирла хуррам эт кўнглунг уйин,
Не учунким, бода келган уйга қайғу келмади.

Ушбу сатрлар мустақилликдан аввалги пайтлари, таассуфки, ҳаётдаги бода тарзида шарҳланган ва ўқувчиларга тақдим этилган эди.

Бу ўринда бодадан мурод ишқ экани сир эмас. Зеро Навоийга кўра Ишқ инсоннинг жавҳаридир ва бу неъматдан маҳрум инсон энг бахтсиз инсондир:

Бўлмаса ишқ икки жаҳон бўлмасин,
Икки жаҳон демаким, жон бўлмасин.
Ишқсиз ул танки онинг жони йўқ,
Ҳуснни нетсун кишиким, они йўқ.

“Ишқ толе қуёшидир, қайғули диллар тиканзори у туфайли гулшан бўлур. Ишқ порлаган тўлин ойдир, зулмат кўнгиллар кечаси у туфайли нурафшондир”.

Ал ҳосил, Навоий ҳикматлари инсон қалбини маънан бойитувчи ҳаёт аталмиш саёҳатида унга йўл кўрсатувчи содиқ, самимий йўлдошдир.

Кимки кўнгилни қаттиқ сўз билан жароҳатлар экан, унга аччиқ тил заҳарли найзадек санчилади. Кўнгиида тил найзасининг жароҳати битмас; у жароҳатга ҳеч нарса малҳамлик қилмас. Агар бир кўнгилда тил найзасининг жароҳати бордир, фақат яхши сўз ва ширин тил унга малҳам ва роҳатдир. Мулойим сўз — ваҳшийларни улфатга айлантиради; сеҳргар — оҳанг билан афсун ўқиб, илонни инидан чиқаради.

Тилга ихтиёрсиз — элга эътиборсиз. Кўп, бемаза сўзлайдиган эзма — кечалари тонг отгунча тинмай ҳурадиган итга ўхшайди. Тили ёмон одам — халқ кўнглини жароҳатлайди, ўз бошига ҳам офат етказади. Нодоннинг ваҳшийларча бақирмоғи — эшакнинг бемаҳал ҳанграмоғи. Хушсухан одам юмшоқлик билан дўстона сўз айтади; кўнгилга тушиши мумкин бўлган юз ғам — унинг сўзи билан даф бўлади. Сўзда ҳар қандай яхшиликнинг имкони бор, шунинг учун ҳам айтадиларки; «нафаснинг жони бор…»

Ўзи хунук, гапи бемаъни, овози ёқимсиз одам қурбақага ўхшайди. Бахт бағишловчи тоза руҳ манбайи ҳам тил; ёмонликлар келтирувчи наҳс юлдузининг чиқар жойи ҳам тил. Тилини тиёлган одам — донишманд оқил; сўзга эрк берган одам — беандиша ва пасткаш. Тил ширин ва ёқимли бўлса яхши; тил билан дил бир бўлса яна яхши. Тил билан дил — инсондаги энг яхши аъзолардир. Бўстонда — гулсафсар, гулғунча ва райҳонлар энг ёқимли гуллардир.

Одам — тили билан бошқа ҳайвонлардан имтиёзлидир. Унинг тили орқали бошқа одамлардан афзаллиги билинади. Тил — шунча шарафи билан нутқнинг қуролидир. Агар нутқ номаъқул бўлиб чиқса — тилнинг офатидир.

Хулоса қилиб айтганда, хорижий тиллар бўйича етук мутахассисларни тайёрлашда талабаларни тилнинг назарий масалалари билан таништириш муҳим аҳамият касб этади, зеро филолог-мутахассис ва тил таълими

ўқитувчиси тилшунослик фанининг назарий асослари билан таниш бўлиши, тил илмининг қонун-қоидаларини умумлаштира олиши керак бўлади. Навоий афоризмларини қиёслаб ўрганишда замонавий таҳлил талабларига эътибор қаратиш лозим. Албатта Навоий афоризмларининг бошқа тиллардаги маъносини кўрсата олишда қийинчиликлар туғдириши мумкин. Лекин буларни ўрганишда талабаларга босқичма босқич ўқув топшириқларининг бериб борилиши орқали уларда афоризмлар ҳақида тушунча пайдо бўлишига ёрдам беради ҳамда уларнинг аҳлоқий аҳамиятига эътибор қаратиб, уларга амал қилишга интиладилар.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. *Эргаш Очилов. Алишер Навоий. Ҳикматлар. Тошкент. 2006, 3-бет*

2. Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. Тошкент, 2009, 52-бет.

3. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Тошкент, 1997.

4. Ирисқулов М.Т. Тилшуносликка кириш. – Тошкент, 2009.

5. Andrew Radford, Martin Atkinson, David Britain, Harald Clahsen, Andrew Spencer. Linguistics. An introduction. – New York, Cambridge University Press, 2009. – 430 p.

АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИ ТИЛИДАГИ ФИТОНИМЛАРНИНГ ЎРГАНИЛИШИ

Усманова Махфуза Садиковна

А.Қодирий номидаги Жиззах давлат педагогика институти

Аннотация: Алишер Навоий асарлари тили лексикасини кенг кўламда тадқиқ қилиш, шоир асарлари тилидаги сўзларни мавзуий гуруҳларга ажратиб кўрсатиш жиҳатидан навоийшунос олимларнинг олиб борган тадқиқотлари таҳлили берилди.

Калит сўзлар: фитонимлар, лексика, мавзуий гуруҳлар, мева, дарахт номлари, ўсимлик номлари.

Аннотация: Анализ исследований, проведенных навоийскими учеными в плане обширного исследования лексики языка произведений Алишера Навои, разделения слов в языке произведений поэта на тематические группы.

Ключевые слова: фитонимы, лексика, тематические группы, плоды, названия деревьев, названия растений.

Annotation: An analysis of the research conducted by Navoi scholars in terms of extensive research of the lexicon of the language of Alisher Navoi's works, the division of words in the language of the poet's works into thematic groups.

Keywords: phytonims, vocabulary, thematic groups, fruit, tree names, plant names.

Алишер Навоий асарлари тили лексикасини кенг кўламда тадқиқ қилиш, шоир асарлари тилидаги сўзларни мавзуий гуруҳларга ажратиб кўрсатиш жиҳатидан навоийшунос олим Баҳром Бафоевнинг тадқиқотлари диққатга сазовордир. Унинг 1989 йилда ҳимоя қилинган докторлик диссертациясида бошқа соҳа сўзлари қатори ўсимликлар оламига оид сўзлар гуруҳи ҳам кўрсатилган.[25] Диссертациянинг «Слова, обозначающие растительный мир» деб

[25] Бафоев Б. Лексика произведений Алишера Навоий (лексико-семантические, статические и тематические исследования). Дисс... докт. филол наук. –Т.,1989.

номланган бўлимида ҳаммаси бўлиб 243та сўз борлиги, улардан 33таси ўсимликлар номи, 12таси дон номлари ва 93таси деҳқончилик атамалари эканлиги ҳақида маълумот берилади. Ишда муаллиф ўсимликлар оламига оид сўзларнинг ёзилиши, шакллари ва уларнинг қайси асарларда учрашини ҳам қайд этган. Б.Бафоев Навоий асарлари лексикаси тадқиқига бағишланган китобида ҳам маълум ўринларда ўсимликларга алоқадор фикрларни билдирган[26]:

1. «Навоий асарлари лексикаси» монографиясининг «Алишер Навоий асарларидаги форс-тожикча ва арабча сўзларнинг тематик группалари» номли сарлавҳаси остида (146-153-бетлар) шоир қўллаган сўзлар яна 26та мавзуий гуруҳларга бўлинган. Аммо улардан ўн бештасининг илмий таҳлили монографияда акс этган, холос. Китобда мавзуий гуруҳларнинг ўн иккитаси кўрсатилиб, қолган ўн тўрт гуруҳ сўзлари берилмаган ва кўп нуқта қўйилган (152-бет). Аммо китоб «хотима»сида 26та мавзуий уяларга умумлашма хулосалар берилади. Шулар орасида йигирма бешинчи мавзуий гуруҳ хулосаси қуйидагича: «251 та ўсимликларга доир сўзлардан 243 таси учраб, улар турли тил материалларидир» (157-бет). Шундай қилиб, ушбу китобга ўсимликлар оламига мансуб сўзларнинг шарҳи кирмай қолган.

2. Олимнинг «Кўҳна сўзлар тарихи» китобида «Ўсимликларга мансуб сўзлар» алоҳида боб қилиниб, бешта мавзуий гуруҳ номларининг кенг ва чуқур тадқиқлари (9-90-бетларда) берилган. Дастлаб «мева номлари» тадқиқи бошланиб (9-31-бетлар), **шафтолу** сўзининг тарихий таркиби, келиб чиқиши турли тиллардаги ва ёзма манбалардаги шакллари ёритилган.

Китобдаги **шафтолу** сўзининг этимони ва лексик-семантик хусусиятлари ҳақидаги шарҳлар китобхонда шубҳа туғдирмайди. Шунингдек, **зардолу** («ўрик») сўзи морфем тузилишининг, маъноси, туркий, форсий тиллар ва айрим шевалардаги қўлланишларининг, луғатлардаги шакли ва семаларининг аниқ таҳлиллари бор. **Зардолу** сўзининг морфем тузилиши, этимони аниқ кўриниб турган бўлса-да, муаллиф бунинг **олу** морфемаси билан ясалган бошқа ясама

[26] Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. –Т.: Фан, 1983.

номларнинг илмий таҳлилида ишончли восита бўлишлигини эътиборга олган. Форс-тожик тилида **олу** қадимдан «мева», «дарахт» маъносида келингани, унинг эски ўзбек тилига ҳам ўзлашгани таҳлил этилади

«Мева», «дарахт» маъноларини ифодаловчи **олма** сўзининг тарихи ва ясалиш шаклининг мураккаблиги баён қилинади, «беҳи»га ўхшаш мева бўлган **амруд** ва **мурудл**арнинг ҳам маъно ва морфем тузилиши, тарихий қўлланиши шарҳланган.

Китобда шоир асарларида учрайдиган **анор, нор, руммон** ўсимлик номларининг туркий ва форсий ёзма ёдгорликларида учраш ўринлари ҳам кўрсатилган (19-20-бетлар), лекин бир тушунчани билдирган ушбу уч сўзнинг Навоий асарларида услубий вазифа бажарганлиги ҳақида фикр билдирилмаган. Муаллиф ***анор*** сўзининг морфем таҳлилида ***кўкнор*** ва ***анжил//анжир*** сўзларининг келиб чиқиши тарихан бир асосдан эмасмикан, деган тахмин билдиради. Алишер Навоий қўллаган данакли мевалар номи ҳам «дарахт» ва ҳам унинг «меваси» маъносини англатади, дейилиб, *ёнғоқ, бодом, писта* каби номларнинг фонетик шакли, қўлланиш ўринлари ҳақида ҳам фикр юритилган. Муаллиф *бодом* номи таҳлилида унинг *бодринг* сўзи билан бир асосли эмасмикан, деган тахмин билдиради (22-бет). Бизнингча, бу тахминнинг илмий асоси йўқ, чунки бодом ва бодринг сўзларининг фонетик структурасида ўхшашлик бор, холос. Иккинчидан, улар бир-бирига бутунлай алоқаси бўлмаган ўсимликлар турини ифодалайди. Муаллифнинг «бодом» сўзи таркибидаги «дом» билан «хурмо» сўзидаги «мо» қисмлари тарихан бир лисоний асосдан келиб чиққанлиги ҳақидаги фикри қўшимча этимологик далилларни талаб қилади. Китоб муаллифининг узум номини қадимги туркий тилда мавжуд бўлган «узу» («тепалик», «баландлик») сўзи билан боғлангани ҳақидаги қараши ҳам ишончли эмас. Сўзлардаги шаклий ўхшашлик тасодифий бўлиши мумкин. Китобда **«узум»** ва **«ток»** маъносида «раз» сўзи ҳам мавжудлиги қайд этилган, баъзи ҳолларда «раз» ва «ток»нинг услубан фарқланганлиги ҳам кўрсатилган.

Тадқиқотда арабча **унноб** («жилонжийда») сўзининг тўғри ва кўчма маъноларда қўлланиши ва айрим арабча мева номларининг ўзлашган тилда фақат грамматик кўплик шаклида услубан қўлланганлиги (масалан, «фавокиҳ»нинг бирлик шакли «фокиҳ» каби) мисоллар орқали шарҳлаб берилган. «Олма» тушунчаси Навоий тилида услубан форс-тожикча «себ» билан мос келмаслиги мисоллар орқали кўрсатилган . Б.Бафоевнинг ушбу китобида Алишер Навоий асарларидаги туркий, арабий ва форс-тожикча мева (ва унинг дарахти) номларининг баъзиларига тарихий-генеологик жиҳатдан шарҳлар берилган.

Китобнинг алоҳида бир бўлимида сабзавот номлари эски ўзбек адабий тили сўз бойлигининг муайян қисмини ташкил этиши кўрсатиб ўтилади. Дастлаб **зардак** («сабзи») сўзининг қўлланиши ҳақида фикр юритилади. «Хамса»нинг “Ҳайрат ул-аброр» достонидан *зардак*нинг қўлланилишига мисол келтирилиб, бу сўзнинг туркий тилга форс-тожик тилидан ўтгани, бу тилда қадим даврлардан (XI асрдан) қўлланиб келинаётганлиги айтилади. Сўзнинг морфем таркиби (**зард+ак** – «сариғча») тўғри кўрсатиб берилган.

Палакли ўсимликлардан бири форс-тожикча «**каду**»нинг эски туркий ёзма ёдгорликларда (Навоий ижодигача) ишлатилмагани кўрсатилиб, эски ўзбек адабий тилида «қовоқ», «ошқовоқ» маъноларида анча фаол қўлланган қайд этилади (33-бет). Ҳозирги ўзбек адабий тили нуқтаи назаридан *каду* шеваларга хос сўздир. Китобда **сабза** сўзининг туркий тиллардаги ва туркча-форсча луғатлардаги шакллари, маъноси ва қўлланиши ҳақидаги маълумотлар асосида тарихий-этимологик кўриниши таҳлили берилган. Бунда муаллиф *сабза* билан *полиз* сўзларида қандайдир умумийлик борлигини таъкидлаган. Форс-тожикча **чағандар** («лавлаги»)нинг Навоий ғазалларида қайд этилмаслиги, бу ўсимлик номининг «Ҳайрат ул-аброр» асарида учраши мисоллар орқали асосланади (37-бет). Ҳозирги ўзбек тилидаги *лавлаги* сўзининг Алишер Навоий асарлари тилида учрамаслиги ҳам айтилган.

Китобда форс-тожикча **шалғам** сўзининг Маҳмуд Кошғарий луғатида унинг маънодоши бўлган туркийча *чағнур*//*чамғур* шаклларда мавжудлиги

эътироф этилади. Муаллиф шу ўринда *шалғам* ва *чағандар* сўзларининг морфем тузилишида ўзаро умумийлик борлигини таъкидлайди. Аммо бу фикр чуқурроқ илмий таҳлилга муҳтож кўринади.

Ўсимликлар оламининг дон туркум турлари аталишида ўзбекча, форс-тожикча ва арабча сўзлар мавжудлиги эътироф қилиниб, қуйидагилар маъно ва қўлланиш ўрни жиҳатидан таҳлил қилинган: *буғдой, жав, кунжут, мош, нахуд, хаш-хаш, шоли* .

Китобда ўзбекча (туркий) **ажриғ** сўзининг фақат «Сабъаи сайёр»да учраши ва унинг этимони ўзбекча *ажратмоқ, айирмоқ* ҳаракат номи шакллари билан боғлиқлиги тахмин қилинган, яъни *азриғ* ® *айриғ* ® *ажриғ//ажриғ* бўлиши мумкинлиги айтилган (47-бет). Бу тахминнинг тўғри эканлиги 1997 йилда яратилган «Ўзбек тилининг қисқача этимологик луғати»да ўз исботини топди: «Бу от асли *айир-* феълидан *-иқ* қўшимчаси билан ясалган: *айир+иқ*: шундан кейин бу сўз таркибидаги *й* ундоши *ж* ундошига алмашган: *айириқ* > *ажириқ*; иккинчи бўғиндаги *и* унлиси талаффуз этилмай қўйган: **ажирик** > **ажрик**».[27]

Тадқиқотда Навоий асарлари тилида **вусма** шаклида ифодаланган кўкат тури ўша давр турмуш тарзида анча фаол бўлгани, араб ва форс-тожик тиллари луғатларида ҳам *васма//вусма* вариантларида мавжудлиги, ҳозирги ўзбек тилида *ўсма* шаклида қўлланиши кўрсатилади. Форс-тожикча **гул** сўзининг келиб чиқиши аниқланмаган бўлса-да, китобда унинг *гиёҳ* сўзи билан умумийлиги айтиб ўтилган (49-50-бетлар).

Б.Бафоевнинг ушбу тадқиқотида арабча *зайтун, занбах, бақам, заъфарон, муасфар* ; форс-тожикча *зарир, испанд, ишқпечон, кашнез, лола, мушкбийд, муғайлон, най, наргис, насрин;* ҳиндча *нилуфар, норанж* ва туркий (ўзбек)ча *момуқ, конба, пахта, сўксўк, терак, чечак* каби ўсимлик номларининг қўлланиши, шаклий нусхалари таҳлиллар орқали кўрсатиб берилган.

Баҳром Бафоевнинг «Алишер Навоий асарларида мева номлари» мақоласида муаллифнинг асосий эътибори Навоий асарлари тилида учровчи,

[27] Раҳматуллаев Ш., Миртожиев М., Қодиров М. Ўзбек тилининг қисқа этимологик луғати. –Т.: Университет, 1997, 18-б.

асосан, **-олу** элементи иштирокида ясалган бир неча мева номларининг ўзбек тили тарихида босиб ўтган маъно йўли ва ҳозирги туркий тиллар лексикасидаги ўрнини кўрсатиб беришга қаратилган. Унда, асосан, *шафтолу, зардолу, олу* мева номларининг қўлланиш тарихи, Алишер Навоий асарлари тилидаги шаклий ва маъно хусусиятлари, бадиийлик яратишдаги ўрни масалалари чуқур тадқиқ қилинган.

Муаллифнинг кўрсатишича, **шафтолу** эроний тилларга мансуб сўз бўлиб, бу ном Ўрхун-Енисей ёзма ёдгорликлари, «Девону луғатит турк» (XI аср), «Қутадғу билиг» (XI аср), «Ҳибатул ҳақойиқ» (XIII аср) асарлари тилида учрамайди, бу сўз дастлаб XIV асрда яратилган Қутбнинг «Хусрав ва Ширин» достони тилида қайд қилинади, Алишер Навоий асарлари тилида эса фаол қўлланган.

Мақолада **зардолу** мева номи ҳам юқорида кўрсатиб ўтилган ёдгорликлар тилида, ҳатто Навоийнинг улкан асари «Хазойин ул-маоний» тилида ҳам учрамаслиги, фақат шоир «Хамса»сининг биринчи достони «Хайрат ул-аброр»да учраши:

«Ширада зардолу этиб қанд ҳал,
Йўқ каду, амруд кадуий асал» мисоли воситасида кўрсатилади.[28]

Шунингдек, **олу** сўзининг Ўрхун-Енисей ёзма ёдгорликлари тилида учрамаслиги, Маҳмуд Кошғарий луғатида *алуч*, Замахшарий луғатида *а:ли* шаклларида учраши, Алишер Навоий асарлари тилида эса кўпгина қўшма сўзлар таркибида қатнашгани қайд қилинади.

Умуман, эски ўзбек адабий тилидаги ўсимлик ва мева номларига оид турли даражадаги илмий қарашлар ва фаразлар, Алишер Навоий асарлари тили лексикаси, ундаги ўсимликлар оламига мансуб сўзлар ҳақидаги олимларнинг фикрлари, мавзу тадқиқот объекти сифатида махсус ўрганилмаганлиги сабабли фитонимларнинг лексик-семантик, услубий хусусиятлари илк бор илмий тадқиқ этилди. Ўсимликларни ифодаловчи сўзларга тилшуносликда

[28] Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. –Т.: Фан, 1983, 12-бет.

ўсимликликлар, фитонимлар, флоралар, мева номлари, полиз ва сабзавот номлари, дарахтлар каби терминлар қўлланилади. Бу сўзлар ўзининг маъноси ва ишлатилишига кўра фарқланади. Фитоним термини ономастикада ўсимликларга қўйилган махсус атоқли номларни англатиши, ономасиологияда эса ўсимлик номлари маъносида қўлланилиб, ўсимликларнинг туркум, нав, хил, кўринишларини атаб келувчи апеллятивларни, яъни оддий сўзлар мажмуини билдириши, кенг маънода ўсимликларни, тор маънода атоқли отларни англатиши, яъни оддий аппелтив сўз ва онимларни фарқлаш зарурлиги Н.Пазлитдинованинг номшуносликка оид тадқиқотида илмий тадқиқ этилган.[29]

Тадқиқотчининг фикрича, оддий сўзлар билан атоқли отларни фарқлаш шарт. Жумладан, *арча, терак, мажнунтол, қовун, тарвуз, ток, гул, ялпиз, майса, беда* кабилар оддий ўсимликлар тушунчасинии ифодаловчи пеллятивлардир. Бундан ташқари, тил луғат таркибида ўсимликларга қўйилган махсус атоқли номлар ҳам мавжуд. Ана шундай номларга нисбатан фитонимлар (гр. phuton – ўсимлик+onoma – атоқли от) терминини қўллаш мақсадга мувофиқ. Бизнинг бу борадаги фикримиз шуки, *фитоним* сўзини икки маънода: кенг маънода аппелятив лексикага, тор маънода номинатив-ономастик бирликларга нисбатан ишлатиш зарур. Шу кунгача Навоий асарлари лексикаси бўйича олиб борилган тадқиқотларда ўсимликлар алоҳида мавзуий гуруҳ сифатида санаб ўтилганлиги, аммо улар махсус илмий тадқиқ этилмаганлиги сабабли диссертацияда Навоий асарларидаги ўсимликшунослик, гулчилик, боғдорчилик, узумчилик, сабзавотчилик, полизчилик соҳаларига оид сўзлар фитоним термини доирасида илмий тадқиқ этилди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Бафоев Б. Лексика произведений Алишера Навоий (лексико-семантические, статические и тематические исследования). Дисс... докт. филол наук. –Т.,1989.

2. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. –Т.: Фан, 1983.

[29] Пазлитдинова Н.З Узбек тили фитонимларининг лексик – семантик хусусиятлари. Фил.фан. …дисс. –Ф., 2018.

3. Раҳматуллаев Ш., Миртожиев М., Қодиров М. Ўзбек тилининг қисқа этимологик луғати. –Т.: Университет, 1997, 18-б.

4. Пазлитдинова Н.З Узбек тили фитонимларининг лексик – семантик хусусиятлари. Фил.фан. …дисс. –Ф., 2018.

5. Усманова M.Alisher Navoiy asarlarida o’simlik nomlarining umumiy tavsifi. DİL VE EDEBİYAT ARAŞTIRMALARI(8) Turkiya 2013 yil

6. Усманова M. Application of phytonyms in the works of Alisher Navoi. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 7 Number 12, 2019. ISSN 2056-5852.

7. Усмонова M. Lexical and semantic properties of phytonyms in properties of phytonyms in the works of Alisher Navoi. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. 2021

М.Т.ОЙБЕК АЛИШЕР НАВОИЙНИНГ ТАСАВВУФИЙ ҚАРАШЛАРИ ҲАҚИДА

Худойбердиева Гулнора Хурсандовна

ТерДУ Юридик факультети. Фукаролик жамияти кафедраси ўкитувчиси

Аннотатция: Ушбу маколада асосан улуг ёзувчимиз М.Т.Ойбек узбек адабиётига кушган улкан ютуклари, муваффакиятлари билан биргаликда ислом динига, урф-одатлар хакида фикр юритилади. Тасаввуф вакилларидан бири булмиш А.Навоий хакида алохида этироф этилади.

Калит суз: Тассаввуф, суфизм, исломшунос, хакимийлик, фалсафа.

М.Т.Ойбек XX аср ўзбек адабиётига катта ҳисса қўшибгина қолмасдан, у ижодида дин, хусусан, ислом дини ва унинг йўналишлари, урф одатлари масалаларига ҳам алоҳида эътибор берган. Айниқса, Ойбекнинг тасаввуф, унинг моҳияти ҳақидаги билдирган фикрлари ота–боболаримизнинг муқаддас дини исломнинг моҳиятини билишда катта ёрдам беради.

Тасаввуф Шарқд, суфизм Ғарбда шундай номланган бўлиб, ислом фалсафасининг муҳим бир жиҳатини ташкил қилади. Исломшунос Адам Мецнинг далолат беришича, тасаввуф VIII–IX асрларда ислом дини билан деярли бир вақтда шакллана бошлаган. Дастлаб Бағдод, Дамашқ, Басра, Нишопурда, кейинроқ Марказий Осиёда тасаввуф тариқатлари шаклланган. Жаҳоннинг ислом дини тарқалган мамлакатларида 70 дан ортиқ тариқатлари тарқалган бўлса, шулардан Ўзбекистон ҳудудида 4 таси вужудга келган. Марказий Осиёдаги тариқатларининг биринчиси ал–Ҳаким ат–Термизий асослаган ҳакимийлик тариқатидир. Ҳакимийлик тариқатининг таъсирида яссавийлик, кубровийлик, нақшбандийлик тариқатлари кейинроқ вужудга келган.

Марказий Осиё тасаввуфнинг шаклланиши ва ривожланишида ал–Ҳаким ат–Термизи,Юсуф Ҳамадоний, Аҳмад Яссавий, Абдуҳолиқ Ғиждувоний,

Али Рометаний, Баҳовиддин Нақшбандий, Хожа Аҳрор Вали, Сўфи Оллоёр ва бошқалар катта ҳисса қўшдилар. Ислом фалсафаси, хусусан тасаввуф таълимоти Низомий, Навоий, Ҳофиз, Жомий каби буюк шоирларнинг ижодига ҳам катта таъсир кўрсатган.

М.Т.Ойбек ўз фаолиятида Алишер Навоийнинг образи, дунёқараши, адабий, ижтимоий-сиёсий фаолиятига катта эътибор берганлиги учун, жумладан А.Навоий қарашларидаги тасаввуф элементларини очиш орқали бу фалсафий–исломий таълимотнинг моҳиятини асослаб беришга ҳаракат қилган. М.Т.Ойбек “...сўфийлик диний – фикрий ... хурофий бир таълимот”деб ёзган эди.

Адиб таъкидлашича сўфизм дастлаб, “асл” ва “тоза” шаклида расми исломга, унинг ақидаларига, расми шариатга қарши бир реаксия сифатида шаклланади. У ислом ақидаларини

емирмоқчи бўлади. Тасаввуф вакиллари, гўё, ҳақиқат қидирадилар. Оламшумул ҳақиқат деб Оллоҳни таниш, идрок этиш зарур. Улар исломнинг фарз, суннат ва бошқа йўл йўриқларини бажариш билан ҳақиқатга, Оллоҳга етиб бўлмайди, деб тушунадилар.

М.Т.Ойбекнинг қайд қилишича тасаввуф тарафдорлари “ ҳақиқатга бош билан эмас, ҳис-сезгиларнинг манбаи ҳисобланган кўнгил – қалб ила етишуви даъво қиладилар ”

Тасаввуфчилар бутун олам моддий борлиқ ҳақиқий бир нарса эмас, бу дунё зоҳирийдир. Инсоний талаб ва эхтиёжларни хоҳлаш Оллоҳдан узоқлашиш. Худога етишмоқ, у вужудимутлоққа қўшилмоқ истаб сўфийлар йўлига кирган кишига айланиши ҳақидаги ғояларни кескин қоралаган эди.

Чунки бундай шахс бутун дунёвий ишлардан, мол – мулкидан, оиладан, баданга лаззат, завқ берувчи ҳоллардан воз кечиши, аксинча зуҳдга, диёзатга аҳамият бериши лозим. “ Бунинг учун қўпол кийимлар кийиб, оз ва ёмон овқат еб, қийнайдиган турли воситаларга мурожат қилиб, ҳатто баданни қамчилаб бўлса ҳам секин – секин ўз руҳини бадан нафсининг кишанидан халос қилиш сўфийга буюрилади,” деб ёзган эди.

Тасаввуф таълимотига кўрага бу иш бажарилганидан кейин солиҳ “фано” га айланиб, вужуди мутлоққа айланар экан.

Тасаввуфчилар нафақат бу дунё лаззатларидан, балки диний таъбирдаги нариги дунёдаги жаннат, дўзах, савоб, гуноҳ кабилардан ҳам қўл узишни тарғиб қилади.

Тасаввуф вакиллари, жумладан А.Навоий ҳам камолотга эришишнинг асосий тўрт босқичини эътироф этади. Шулардан биринчи босқич Шариат деб аталган. Бунга кўра, тасаввуф аҳли аввало шариатнинг барча талабларига бўйсуниши керак. Фақат шундан кейингина иккинчи босқич Тариқатга кўтарилиши мумкин. Бунда муридлар ўз пирларига итоат этиши, ўз шахсий

истакларидан воз кечиши шарт ҳисобланган. Бу босқичдан ўтганлар юқорироқ, учинчи босқичга. Маърифатга кўтариладилар, бунда сўфийлар коинотнинг бирлиги худога мужассам бўлишини (олам худонинг эманацияси эканлигини), яхшилик ва ёмонликнинг нисбийлигини ақл билан эмас, қалб билан англашлари керак, деб талқин этилган.

Тўртинчи босқич: Ҳақиқат дейилади. “Ҳақиқатга эришув” солиқнинг “шахс сифатида тугаб” худога етишини, унга сингиб кетиши ва натижада абадийликка эришиши, деб қайд этилган.

Бунга сўфийлар махсус руҳий ва жисмоний (психофизик) ҳаракатлар – сиғиниш ва ибодатлар орқали интиладилар

Аслида бундай хусусият буддавийлик, насронийлик, иудавийлик каби бошқа динларда ҳам ўзига хос кўринишда мавжуддир.

Шунинг учун Ойбек А.Навоий тасаввуфи тўғрисида тўхталиб, умуман бутун тасаввуфга ўз эътиборини қаратиб “сўфизм ишланган тайёр бир система ҳолида юзага чиққан эмас. У тараққий этди, турли даврда, турли сиёсий – ижтимоий шароитда, турли фикрий таъсирлар остида ўзгаришларга учради. Унда буддизм, зардўштийлик ва грек фалсафаси – неоплатонизм

таъсирлари борлиги маълум,” деб ёзган эди. Неоплатоним грек файласуфи Платон фалсафий таълимотинининг Шарқдаги диний–фалсафий қарашлар билан қўшилишидан ибратдир.

Чунки, Платон сезгилар объектив борлиқнинг инъикоси эмас, балки у абадий мавжуд ва ҳақиқий ғоялар дунёсининг инъикоси, ғоялар дунёдан олдин мавжуд деб ўргатар эди. Бундай неоплатоним қарашлари ислом мафкурасига, хусусан, тасаввуфга катта таъсир қилган.

Маълумки, ислом дини тарихида баъзи тасаввуф вакиллари ислом, шариат дастурларининг баъзи томонларини инкор этиб, уламо– шариатпарастлар томонидан ўлдирилган, юртдан–юртга қувғин қилинган. Лекин тасаввуфчиларнинг аксарият кўпчилиги ислом асосларини бузишга ботинмаганлар. Ҳақиқатда эса “тарки дунё” тарки дунё қилиш кераклиги, дунёнинг “пучак пулга арзимаслиги,” ҳаёт завқидан қўл силташ лозимлиги ва ҳаказолар халқ оммасининг ижодий ташаббускорлигини сусайтирган.

М.Т.Ойбек тасаввуф нафақат А.Навоий, балки Эрон, Марказий Осиё тарихида оғир қийинчиликлар бўлган даврларда қатор шоирлар ижодига ҳам таъсир қилганлиги қайд қилиб,

жумладан, Саноий, Фаридиддин Аттор, Жалолиддин Румий, Абдураҳмон Жомий асарларида

тасаввур тараннум этганини кўрсатиб ўтади.

Ойбек А.Навоий шеъриятига ҳам тасаввуф таъсири мавжудлигини анализ қилиб шундай

деган эди: “Шоир ўз фалсафий қарашларини очиқ ифодалашга имкон топган эмас. У жоҳил

уламолар, хурофотчилар томонидан, динга ва худога дахл кўрсатишда айбланишни истамаган.

Шунинг учун ўз фикрларини парда остига олишга, сўфий терминларига ўрашга мажбур бўлган. Шоир ислом қарашларига қарши борадиган идеяларни сўзлар экан, кўпинча, тезгина орқага чекинади, авф сўрайди, ўзини “мажнунлик”да айблайди. Навоий дунёдага тўғри нуқтаи назар

топишни истайди, қидиради ва бу қидиришда, кўпинча зиддиятларга учрайди, ҳатто ҳақиқатни таниш масаласида ақлни “кўр” деб эълон қилишга қадар бориб етади. Лекин бу ора-чора чекинишлар фикрнинг ва жаҳон поэзиясининг чиндан ҳам гиганти бўлган шоирнинг буюк сиймосини хеч бир пасайтирмайди, аксинча яна юксалтиради.”

Адабиётлар:

1. Ойбек М.Т.Мукаммал асарлар туплами. XIII Том. Т. 1979. 50-б.
2. Ислам справчник-Т. 1989 г 217-218 стр.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон XX1 аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёти кафолатлари.- Т.: Ўзбекистон, 1997, 326б.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч.-Т.: “Маънавият”, 2008,176б.
5. Жураев Н. Янгиланишлар концепцияси: яратилиши, эволюцияси ва амалиёти.-Т “ Маънавият”, 2002, 80-б.
6. Khursandovna K.G. Nationality: Views, Problems And Solutions //Tne American Jornal of Social Science and Education Innovations. –2020. –Т. 2. - №. 08. –С. 297-300.

ТВОРЧЕСТВО АЛИШЕРА НАВАИ И ЗАХРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА - ВЕЛИКОЕ НАСЛЕДИЕ ДЛЯ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА

Убайдова Д. А.
Преподаватель кафедры узбекского и русского языков
Педагогического института Бухарского государственного университета

Аннотация : В статье дается информация о творчестве Алишера Наваи и Захриддина Мухаммада Бабура. Также здесь говорится о роли произведений двух поэтов в воспитании молодежи.

Annotatsiya: Maqolada Alisher ijodi haqida ma’lumotlar berilgan Navoiy va Zahriddin Muhammad Bobur. Ikki shoir ijodining yoshlar tarbiyasida tutgan o‘rni haqida ham so‘z boradi.

Annotation: The article provides information about the work of Alisher Navai and Zahriddin Muhammad Babur. It also talks about the role of the works of two poets in the education of young people.

Ключевые слова: наследие, гуманизм, подрастающее поколение, патриотизм, произведение.

Kalit so'zlar: meros, insonparvarlik, yosh avlod, vatanparvarlik, mehnat.

Key words: heritage, humanism, the younger generation, patriotism, work.

В истории мировой литературы и культуры наследие Алишера Навои и Захириддина Бабура, проникновенно выразивших гуманизм и сущность жизни, является бесценным. Любовь к родному языку, к Родине, чувство осознания его безмерного богатства и величия формируются в нас, прежде всего, благодаря произведениям предков. Чем больше наш народ, молодежь будут приобщаться к этому бесценному наследию, тем успешнее будет процесс формирования добрых гуманистических качеств в обществе. Это играет важную роль в воспитании подрастающего поколения в духе патриотизм. Одним из великих

людей, оказавших сильное воздействие на формирование духовности народа, был Алишер Навои. Как говорил Президент Узбекистана, если назвать этого великого человека святым, то он - самый святой среди святых, если назвать мыслителем, то лучший среди *них, если* назвать поэтом, то он - султан среди поэтов. 9 февраля - день рождения славного сына узбекского народа Алишера Навои. Эта дата ежегодно широко отмечается во всех городах и регионах страны. Биография этого талантливейшего поэта и выдающегося мыслителя издавна привлекала внимание многих историков-востоковедов и литературоведов. Ее исследованию посвящены целые труды, даже созданы школы навоиведения. Но актуальность изучения данной темы с течением времени не уменьшается, поскольку каждое произведение Навои заслуживает томов анализа. Родившись в 1441 году в Герате, одном из главных культурных центров Востока того времени, и с детства впитав в себя красоту и изысканность литературного языка фарси, Алишер очень рано осознал свою миссию - стать родоначальником узбекской литературы. Обучаясь в школе, он увлекался чтением стихов, особенно восхищаясь строками "Гулистана" и "Бустана" Саади, а также поэмой Фаридуддина Аттара "Разговор птиц"Алишер Навои оставил богатейшее литературное наследие. Великий узбекский поэт, философ, мыслитель, творец является автором уникальных произведений, более тридцати сборников стихотворений, прозаических сочинений, крупных поэм и научных трактатов. Каждое его произведение позволяет глубже понять уклад Одно из самых известных литературных наследий поэта – сборник стихотворений «Сокровищница мыслей». Сборник был собран самим Алишером Навои с 1498 по 1499 гг. по хронологическому порядку. «Сокровищница мыслей» включает четыре дивана (собрание небольших стихотворений), которые отражают четыре периода жизни поэта: «Причуды детства», «Редкие дары юности», «Диковины средних лет», «Поучительные заветы старости». Каждое стихотворение поэта удивляет художественными средствами и приёмами. Чтобы образнее и глубже передать читателю тему и идею произведения, поэт использует метафоры, образы и аллегории,

обращается к сюжетам о Лейли и Меджнуне, а также о Хосрове и Ширин. Четыре дивана – это четыре метафоры, скрытое сравнение четырех этапов от влюбленности к настоящей неистовой любви. Ниже представлены отрывки из каждого дивана сборника. Одно из самых известных литературных наследий поэта – сборник стихотворений «Сокровищница мыслей». Сборник был собран самим Алишером Навои с 1498 по 1499 гг. по хронологическому порядку. «Сокровищница мыслей» включает четыре дивана (собрание небольших стихотворений), которые отражают четыре периода жизни поэта: «Причуды детства», «Редкие дары юности», «Диковины средних лет», «Поучительные заветы старости». Каждое стихотворение поэта удивляет художественными средствами и приёмами. Чтобы образнее и глубже передать читателю тему и идею произведения, поэт использует метафоры, образы и аллегории, обращается к сюжетам о Лейли и Меджнуне, а также о Хосрове и Ширин. Четыре дивана – это четыре метафоры, скрытое сравнение четырех этапов от влюбленности к настоящей неистовой любви. Творчество Алишера Навои и по сегодняшний день вызывает интерес во всем мире, о чем свидетельствуют переводы произведений великого поэта на английский, французский, немецкий и многие другие языки. Поклонников литературы привлекают глубокая философия его творчества, богатые метафоры, разнообразие поэтических образов. Иными словами, секрет немеркнущей славы произведений Навои заключается именно в их высоком художественном уровне. Захриддин Мухаммад Бабур – великий тюркоязычный поэт, среднеазиатский и индийский правитель и полководец. Праправнук Тимура, основатель династии Великих Моголов. Известен также как поэт и писатель. Писал стихи на персидском и мемуарную прозу на чагатайском (староузбекском) языке. Его автобиографические записки «Бабур- Наме» служат важным источником по истории Азии, Афганистана и Индии. Автор поэтического «Дивана», состоящего из газелей, рубаи и туюги. Любовную лирику Бобура отличают яркая образность, меткость и афористичность, близость поэтического языка к разговорному. Как и произведения многих наших великих предков, творчество

Бабура поучительно для нашей молодежи. Его высокие качества — любовь к Родине, уважение к родителям, воспитание детей, верность другу и продукту творчества — дают человеку высокий духовный урок. Один из великих представителей узбекской классической литературы, талантливый ученый и интеллектуал, внесший неоценимый вклад в развитие узбекского литературного языка и литературы, известный государственный деятель Захириддин Мухаммад Бабур жил и творил в сложный социально-исторический период. В области мировой литературы гениальные художники, великие творцы не только обогатили национальную литературу своими шедеврами, но и внесли достойный вклад в развитие общечеловеческого художественного мышления. Захириддин Мухаммад Бабур до сих пор признается рядом мировых литературных критиков как одна из великих фигур, внесших большой вклад в сокровищницу мировой культуры своим богатым и плодотворным трудом. Словом, в заключение можно сказать, что свет уникальных произведений нашего великого предка Захриддина Мухаммада Бабура, который считается сияющей звездой в духовном небе нашего народа, навсегда будет озарять сердца не только узбекского народа, но и более сотни читателей. Мы также надеемся, что многие объективные мнения о великой фигуре, сияющей в небе истории, будут с уважением высказаны будущими историками, литературоведами и исследователями. Анализируя творчество, Наваи, следует заключить, что мыслитель в своих произведениях призывал родителей, учителей и общественность воспитывать у молодого поколения такие нравственные качества, как трудолюбие, гуманизм, патриотизм, милосердие, доброту, правдивость, справедливость, честность, уважение к родителям. Его творчество необычайно полно и ярко воплотило целую литературную эпоху во всем своеобразии ее классических канонов, многовековых эстетических традиций, господствующих социальных и нравственных идеалов. Бесценными являются творения великих Мир Алишера Навои и Бабура. Они были не только поэтами, но и мудрыми политическими деятелями, крупнейшими учеными, великими мыслителями, Основа творчества лирики Навои и Бабура —

размышления о человеке. Но человек не абстрактное существо, а носитель порока или добродетели. Пороки бичевали почти все поэты восточного средневековья. Нетерпимость к человеческим недостаткам исходила из глубокого гуманизма служителей музы, стремления их помочь людям. Таким образом, необходимо заключить, поэтическое, писательское творчество и общественная деятельность двух великих классиков, Бабура и Мир Алишера Навои еще раз показывают, что они в своих произведениях считали в воспитании личности на первое место необходимо ставить формирование нравственных качеств. Основную задачу воспитания и обучения они видели в нравственной подготовке человека. С их точки зрения, человека нужно воспитывать в духе гуманизма, патриотизма, бескорыстия, порядочности

В конце статьи хотелось бы сказать что произведения двух великих поэтов и сегодня очень актуальны. Своими произведениями они учат молодежь быть справедливыми и трудолюбивыми, патриотами и честными, воспитанными и доброжелательными.

Использованная литература

1. Кор-глы Х. Узбекская литература Изд. 2-е, перераб. и доп. Учеб. пособие

2. Низамаддин Мир Алишер Навои Валитова Моршин — Никиш. — М. 1974. — (Большая советская энциклопедия : [в 30 т.] / гл. ред. А. М. Прохоров ; 1969—1978, т. 17).

3. Азимджанова С. А. Государство Бабура в Кабуле и в Индии. — М.: Наука (ГРВЛ), 1977. — 176 с. — 4000 экз. (обл.)

4.Захидов В. Мир идей и образов А. Навои.- Ташкент 1961 .

ТВОРЧЕСТВО А. НАВОИ И А.С. ПУШКИНА: ТОЧКИ СОПРИКОСНОВЕНИЯ

Суханов Виктор Алексеевич

Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Аннотация: В статье выявляются творческие параллели двух великих поэтов: Алишера Навои и Александра Сергеевича Пушкина. Рассматриваются основные духовные гуманистические ориентиры, отразившиеся в их произведениях на уровне тематики и идейного содержания.

Ключевые слова: творческие параллели, духовность, общечеловеческие ценности, тема, идея.

Annotatsiya: Maqolada ikki buyuk shoir: Alisher Navoiy va Aleksandr Sergeyevich Pushkinning ijodiy o‘xshashliklari ochib berilgan. Ularning asarlarida mavzu va g‘oyaviy mazmun darajasida aks etgan asosiy ma’naviy insonparvarlik yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ijodiy parallellar, ma’naviyat, umuminsoniy qadriyatlar, mavzu, g‘oya.

Abstract: The article reveals the creative parallels of two great poets: Alisher Navoi and Alexander Sergeevich Pushkin. The main spiritual humanistic guidelines, reflected in their works at the level of themes and ideological content, are considered.

Key words: creative parallels, spirituality, universal values, theme, idea.

Алишер Навои по праву считается великим предком народа Узбекистана, поскольку именно его творческая деятельность лежит в основе узбекского литературного языка. Для русского народа таким предком считается Александр Сергеевич Пушкин – основоположник русского литературного языка.

Общепризнано, что поэзия А.С. Пушкина имеет схожие черты с философской трактовкой, с лиризмом и гуманизмом поэзии Навои, имя которого широко известно русскому читателю в переводах В. Рождественского, С. Липкина, Н. Лебедева, С. Иванова.

В данной работе мы попытаемся рассмотреть творческие параллели А. Навои и А.С. Пушкина – двух гениев мировой культуры. Что роднит их, несмотря на века, разделяющие их жизни. В чем сходятся их мысли, какие идентичные темы и идеи поднимают в своем творчестве эти великие люди.

Как было сказано ранее, А. Навои – создатель староузбекского языка и классической узбекской литературы. А.С. Пушкин – основоположник современной русской словесности. Они работали в разных литературных жанрах, характерных для своей эпохи. А. Навои писал газели, рубаи, касыда, туюг, мухаммас, поэмы. А.С. Пушкин – стихи, поэмы, романы, повести, рассказы, сказки, путевые заметки, исторические сочинения, трагедии. Но каждый отразил свою эпоху и проблемы времени. В первую очередь это отражено в их произведениях, посвященных теме Родины, народа, патриотизма.

Так, А. Навои выступает против зла и насилия, клеймит междоусобные войны, жестокость и косность правителей. Он обращается к каждому человеку, говоря ему о том, что служение своей стране есть благо, но предупреждает его об опасности властолюбия и вмешательства во дворцовые интриги:

«Когда по воле неба, может быть,
Царю ты удосужишься служить,
На службе не жалей трудов,
Но только царских избегай пиров,
Они души твоей не утолят,
В напитке царственном – змеиный яд».
(«Полезные советы старости»)[1]

У А.С. Пушкина тема Родины представлена иным, но, в то же время, схожим образом. В оде «Вольность» поэт изложил свои взгляды на самодержавие и тяжелое положение простого народа:

«Питомцы ветреной судьбы,
Тираны мира! Трепещите!
А вы, мужайтесь и внемлите,
Восстаньте, падшие рабы!»[2]

Можно сказать, что для Навои патриотизм есть служение своей Родине, управляемой разумным, справедливым и достойным правителем, который получил власть законным путем. Для Пушкина патриотизм это сопричастность к жизни народа, борьба за его человеческое достоинство.

И Навои, и Пушкин в своем творчестве обращались к истории. Пушкин написал несколько произведений на историческую тематику: повесть «Капитанская дочка» (о восстании Е. Пугачева), трагедию «Борис Годунов», поэму «Полтава» и другие. Навои создал исторические трактаты «История иранских царей» («Тарихи мулуки Аджам») и «История пророков и мудрецов» («Тарихи анбия ва хукама»). Но, на наш взгляд, особый интерес представляют тематические параллели «Песни о вещем Олеге» Пушкина с произведением Навои «Рассказ о двух влюбленных». В этих поэтических легендах действующими лицами являются исторические личности: князь Олег и великий полководец Амир Темур соответственно. Оба этих героя предстают как могущественные правители и военначальники, решающие участь целых народов. У Пушкина:

«Как ныне сбирается вещий Олег
Отмстить неразумным хозарам:
Их села и нивы за буйный набег
Обрек он мечам и пожарам;
С дружиной своей, в цареградской броне,
Князь по полю едет на верном коне».[2]

У Навои:

«Слыхал я: четырех улусов хан,
Эмир Тимур, великий Гураган,
Повел войска железною рукой,

И, в Хинд войдя, жестокий принял бой…

Там не было пощады никому,

Настала смерть живущему всему».[1]

Закономерно, что в обоих из этих произведений ведущей является тема судьбы и рока. И в той, и в другой легенде предназначение торжествует над человеком, но, если рок, несмотря ни на что, настигает князя Олега, то к влюбленным из рассказа судьба благоволит – любовь оттягивает момент смерти до приказа о помиловании:

«Угрюмый воин медлил. Между тем

В толпе раздался крик: «Пощада всем!»

Спешил глашатай войску возвестить,

Что царь велел убийства прекратить.

За жертвенность, быть может, тех двоих

Рок пощадил оставшихся в живых».[1]

Тема любви – одна из наиболее значительных в творчестве поэтов. Всем известны стихи Пушкина, посвященные прекрасным женщинам: Анне Олениной, Адели Давыдовой, Елене и Екатерине Раевским, Марии Волконской, Елизавете Воронцовой и, конечно, Наталье Гончаровой. Одним из наиболее известных любовных стихотворений Пушкина можно назвать стихотворение «К***»:

«Я помню чудное мгновенье:

Передо мной явилась ты,

Как мимолетное виденье,

Как гений чистой красоты»[2].

Мы видим, что образ возлюбленной приравнен Пушкиным к чему-то высокому, внеземному. Если разбирать каждое слово, то получится следующая формула: гений – наивысшая точка; чистая красота – истинное, эстетическое наслаждение. И автору достаточно лицезреть объект своей любви, чтобы ощутить вдохновение.

У Алишера Навои тема любви решается в таком же духе, хотя и иначе – в лучших восточных традициях, но опять-таки речь идет о созерцании красоты любимой девушки. Здесь поэт говорит о возлюбленной, как о пери – прекрасной фее, околдовавшей автора своей красотой:

«Если пери лик закроет, сколько слез в моих глазах,

Сколько звезд с закатом солнца выступает в небесах».[1]

Еще одной очень интересной и очень важной параллелью в любовной лирике двух поэтов является, на наш взгляд, мотив письма. Так, например, в поэме Алишера Навои «Фархад и Ширин» есть два письма влюбленных, так же как и в романе Александра Сергеевича Пушкина «Евгений Онегин». Особенно примечательно то, что первыми в обоих произведениях пишут женщины – Ширин и Татьяна. Эти произведения не похожи по сюжету, по форме, но ясно одно: оба поэта воспевали сильную взаимную любовь, раскрывали всю глубину и разнообразие чувств между мужчиной и женщиной.

Перекликается творчество поэтов и в темах природы и людской дружбы:

«Нет, не дело вражда,

В добром мире живите народы,

Дружба – дело людей,

Славить дружбу строкой – мое дело».[1]

И всем известны строки А.С. Пушкина:

«Друзья мои, прекрасен наш союз!

Он, как душа, неразделим и вечен –

Неколебим, свободен и беспечен,

Срастался он под сенью дружных муз».

(«19 октября»)[2]

На наш взгляд, в обоих этих стихотворениях заложена та самая вневременная гуманистическая идея, которая особенно актуальна в наше время: это не только взаимопонимание между ближними людьми, но также и межнациональное согласие, основанное на дружбе народов. На мысль об этом

наталкивают нас слова Навои «в добром мире живите народы» и ключевое слово стихотворения Пушкина «наш союз».

Поэты обращались к своему гражданскому долгу перед народом, к честному служению музе. Александр Сергеевич подвел итог своего творчества в стихотворении «Памятник», строки которого прямо перекликаются с рубаи Алишера Навои:

«Когда тебя народ виной корит,
Ты на людей не затаи обид:
Укор правдив – исправиться не стыд,
И лживая хула не уязвит»[1].

И слова Пушкина:

«Веленью божию, о муза, будь послушна,
Обиды не страшась, не требуя венца,
Хвалу и клевету приемли равнодушно
И не оспаривай глупца»[2].

В словах обоих поэтов заложена идея особого предназначения поэта, который живет не ради внешних похвал, а ради служения искусству. Примечательно и то, что оба произведения это своего рода наставления будущему поэту, чтобы он был чужд укорам и клевете.

Творчеству обоих авторов присущи вечные общечеловеческие ценности. Алишер Навои верил в победу справедливости, разума, добра. Человека он считает средоточием божественного света. А.С. Пушкин также создал своеобразный гуманистический гимн разуму, любви, мудрости, человеку, солнцу – символам жизни на земле:

«Да здравствуют музы,
Да здравствует разум!
Ты, солнце святое, гори!
Как эта ламбада бледнеет
Пред ясным восходом зари,
Так ложная мудрость мерцает и тлеет

Пред солнцем бессмертным ума,

Да здравствует Солнце, да скроется тьма!»

(«Вакхическая песня»)[2]

Таковы творческие параллели двух великих поэтов, выразителей мыслей, чувств и настроений своих народов. Несмотря на века, разделяющие их жизни, их творчество имеет множество точек соприкосновения благодаря размышлениям о морально-нравственных качествах человека, о любви и дружбе, о гражданском долге поэта, об исторических перипетиях в жизни народа, а также общечеловеческим гуманистическим ценностям, заложенным в их произведениях.

Список использованной литературы

1. Навои А. Собрание сочинений в 10 томах. – Т.: «Фан», 1968-1970.

2. Пушкин А.С. Полное собрание сочинений в 10 томах. Том 2. – Л.: Наука, 1977.

АЛИШЕР НАВОИ – ГОРДОСТЬ УЗБЕКСКОГО НАРОДА

Эргашева Дилфуза Камиловна
Преподаватель Педагогического института Бухарского государственного университета

Аннотация: *Алишер Навои – достояние всего человечества. В статье представлен вклад Алишера Навои в развитие мировой науки и культуры. Его поэзия – это поэзия вечности, поэзия мудрости, любви и верности. Глубокие философские трактаты, поэтические произведения Алишера Навои сыграли огромную роль в истории восточной цивилизации, оставаясь и в XXI веке великим наследием народов, определяя ориентиры духовной жизни.*

Ключевые слова: третий Ренессанс, литературное наследие, лирический герой, искусные каллиграфы, историк Хондамир

Annotatsiya*: Alisher Navoiy-butun insoniyatning boyligi. Maqola Alisher Navoiyning jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi namoyish etildi. Uning she'riyati abadiylik she'riyati, donolik, sevgi va sadoqat she'ridir. Alisher Navoiyning chuqur falsafiy risolalari, she'riy asarlari XXI asrda ham xalqlarning buyuk merosi bo'lib, ma'naviy hayot yo'nalishini belgilab, Sharq sivilizatsiyasi tarixida ulkan rol o'ynadi*

Kalit so'zlar*: uchinchi Renessans, adabiy meros, lirik qahramon, mohir xattot, tarixchi Xondamir*

Abstract*: Alisher Navoi is the heritage of all mankind. The article*

presents the contribution of Alisher Navoi to the development of world science and culture. His poetry is the poetry of eternity, the poetry of wisdom, love and fidelity. Deep philosophical treatises, poetic works of Alisher Navoi have played a huge role in the history of Eastern civilization, remaining in the XXI century a great heritage of peoples, defining the guidelines of spiritual life

***Keywords**: the Third Renaissance, literary heritage, lyrical hero, skilled calligraphers, historian Khondamir*

Сегодня, когда наша страна вступила в новый этап своего развития на основе главного принципа «От национального возрождения к национальному прогрессу», формируется фундамент новой эпохи Возрождения — третьего Ренессанса, как никогда важное значение приобретает бесценное литературное наследие Алишера Навои.

Шавкат Мирзиёев

Известно, что основоположником узбекского языка и родоначальником узбекской классической литературы по праву считается Алишер Навои, он оставил потомкам богатое литературное наследие.

Великий узбекский поэт, философ, мыслитель, творец является автором уникальных произведений, более тридцати сборников стихотворений, прозаических сочинений, крупных поэм и научных трактатов. Каждое его произведение позволяет глубже понять уклад жизни людей Средней Азии XV века.

Низамеддин Мир Алишер - уникальная личность в истории мировой литературы. Аналогов мало ни по величию и глубине таланта поэта и мыслителя, ни по занимаемому общественному положению в стране как государственного деятеля, бескорыстного мецената, покровителя науки, литературы и искусства, поддерживавшего многих поэтов, историков, ученых, ремесленников.

А какой он был созидатель! По сведениям историка Хондамира, в Герате и других городах страны поэтом на свои сбережения воздвигнуто свыше ста объектов, в том числе медресе, мечети, бани, мосты, ханаки, больницы, базары, обустроены многие улицы.

Всю свою жизнь великий поэт и мыслитель Алишер Навои посвятил творчеству, созиданию, служению народу и Отечеству в истинном смысле этого слова. Жил его мечтами и заботами. Общественная деятельность была для него важнее личной жизни:

Народ - поэт, а я при нем – писец и вот за то

К народу я приближен так и взыскан, как никто!

Для Алишера Навои земное благо, счастье - светлый бескрайний мир благородных героев его великих поэм, с которыми он шагает вольно и свободно, излучающие свет и богатые мыслями страницы мудрых книг, беззаветное служение Родине, народу, которым он посвятил все свои "прекрасные порывы" души без остатка! Земное благо, счастье он видел в процветании родной литературы, богатого родного языка, в поддержке народного духа, который был возрожден великим Сахибкираном Амиром Темуром после стопятидесятилетнего иноземного ига. И если Амир Темур претворил в жизнь эту национальную идею в политическом смысле, то Алишеру Навои суждено было реализовать ее в духовной сфере. Всю свою жизнь он посвятил этой великой цели, сделал своим жизненным кредо.

Творческое наследие Алишера Навои огромно и глубоко, это своеобразная энциклопедия жизни: море изречений, мудрых мыслей, бесчисленное множество газелей, ежедневно исполняемых известнейшими певцами по радио, на концертах, огромное количество афоризмов, многие из которых стали пословицами, так что уже и не различишь, кому они принадлежат - поэту или народу.

В общей сложности Алишер Навои создал шесть крупных философско-дидактических и любовных романтических поэм, четыре дивана газелей на родном языке, мухаммасов, од, рубаи, а в "Дивани Фани" собраны исключительно газели, созданные на персидском языке. Обширно и его прозаическое наследие. Такие книги, как "Возлюбленный сердец" ("Махбуб ул-

кулуб"), "Ветры любви" ("Насоим ул-мухаббат"), "История царей и пророков" ("Тарихи хукамо ва анбиё"), "История иранских стран" ("Тарихи мулуки Аджам"), "Мерило ритмов" ("Мезон ул-авзон"), "Спор двух языков" ("Мухокамат ул-лугатайн"), "Вакуфная книга" ("Вакфия") хорошо известны читателям.

Произведения поэта веками переписывались искусными каллиграфами и распространялись по всему миру. Сочинения великого поэта и мыслителя сегодня переведены на многие языки мира. Во многих городах мира - Ташкенте, Москве, Токио и Баку установлены памятники поэту. И это не случайно, ведь поэзия Алишера Навои, пропитанная пронзительной любовью к человеку, светлой стороне жизни, процветающему миру, принадлежит всему человечеству. В своих творениях он улавливает тончайшие нюансы души, острых любовных терзаний. Его лирический герой - человек со всеми радостями и невзгодами, успехами и ошибками, взлетами и падениями, потому его поэзия востребована сегодня и, несомненно, будет востребована в будущем, покоряя своей добротой, величием, широтой мысли.

Поэзия Навои — это сборник об образе жизни человека. Практически во всех его поэтических произведениях воспеваются благородство, щедрость, справедливость, терпеливость, умение противостоять трудностям. Он осуждает вражду, зависть, ненависть, зло, скупость, жадность, ложь и другие отрицательные человеческие качества. Призывает стремиться к совершенству, жить благими делами, отмечает, что человека нужно оценивать не по национальной, половой или религиозной принадлежности, а по его человеческим качествам. Потому и в произведениях его воспеты герои разных наций и вероисповеданий, представители многих народов.

Прошло более пяти веков, а занявшие достойное место в сокровищнице мировой культуры произведения великого мыслителя, в которых сконцентрированы энциклопедические знания, служат новым и новым поколениям. Так и будет впредь, ведь в творениях поэта воспеты светлые идеи,

близкие человечеству во все времена. Имя, творения, дела великого предка нашего народа, без сомнения, будут жить в веках! Его мысли, идеи, надежды о построении гармоничного общества, в котором человек будет счастлив, воплощаются в жизнь, служат источником духовной силы.

Список использованной литературы:

1) Родоначальник узбекской литературы / Сборник статей об Алишере Навои. Ташкент: УзФАН, 1940.

2) Хондамир Ғиёсиддин. Макорим ул-ахлоқ. Тошкент: Ғафур Ғулом, 2015.

3) Бартольд В.В. Мир Али-Шир и политическая жизнь. Сочинения, т. 2, ч. 2. М., 1964.

ALISHER NAVOIY LIRIK MEROSINING BUGUNGI KUNGACHA O`RGANILISHI

Safarov Husniddin Sirojiddin o`g`li,

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

ANNOTATSIYA

O’zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo’shgan, uni vorisiylikka tayangan holda yangi taraqqiyot pog’onasiga ko’targan, madaniyatimiz, tariximizda chuqur iz qoldirgan ijodkorlardan biri, shubhasiz, Alisher Navoiydir. Navoiy lirikasiga mutafakkir shoir, ramz va timsollar ta’sir etganini o’rganish, ularni qiyosiy tadqiq etish – shoir ijodining yangi qirralarini yoritish, shoirning individual uslubi, tili va badiiy-estetik mahoratini belgilashda muhim ahamiyatga ega eganligi va bu boradagi qilingan ishlar to’g’risida maqolada keltirib o’tilgan.

Tayanch so’zlar: “Xamsa”, mutafakkir shoir, sharqshunos olimlar, badiiy-estetik mahorat, ijodiy metod, navoiyshunoslik, adabiy an’analar, ilmiy-ommabop asarlar, nasriy tavsif, ruboiy.

АННОТАЦИЯ

Внес большой вклад в развитие узбекской классической литературы. поднят на новый уровень развития на основе преемственности, один из художников, оставивших, без сомнения, глубокий след в нашей культуре, в нашей истории, Алишер Навои. Традиционные образы, символы и эмблемы в лирике Навои изучать их влияние, сравнивать их - новая часть творчества поэта свещая грани, индивидуальный стиль поэта, язык и художественно-эстетическое мастерство и работа, проделанная в этом направлении.

Ключевые слова: *«Хамса», поэт, мыслитель, востоковед, художественно-эстетическое мастерство, творческий метод, навоиведение,*

литературные традиции, научно-популярные произведения, прозаическое описание, рубаи.

ANNOTATION

He made a great contribution to the development of Uzbek classical literature raised to a new level of development based on succession, one of the artists who has left a deep mark on our culture, our history, without a doubt, Alisher Navoi. Traditional images, symbols and emblems in Navoi's lyrics to study their influence, to compare them is a new part of the poet's work illuminating the edges, the poet's individual style, language and artistic-aesthetic skills and the work done in this regard.

Keywords: *"KXamsa", poet, thinker, orientalist, artistic and aesthetic skills, creative method, Navoi studies, literary traditions, popular science works, prose description, rubai.*

Alisher Navoiy hayoti va ijodini chinakam ilmiy tamoyillar asosida o’rganish XX asrning 20-yillaridan boshlandi. Ulug’ shoirning “Xamsa”sini ilmiy, ilmiy-ommabop yo’sinda o’rganish sohasidagi dastlabki dadil qadamni o’zbek xalqining serqirra adibi va birinchi professori Abdurauf Fitrat qo’ydi. Uning “Farhod va Shirin” dostoniga doir qiyosiy tahlil asosida yaratilgan “Farhod va Shirin” dostoni to’g’risida” nomli salmoqli maqolasi shu yo’nalishdagi jiddiy tadqiqotlardan biridir. Sobiq ittifoq hukumatining 1938-yilda Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligini 1941-yilda nishonlash to’g’risida qaror qabul qilishi navoiyshunoslik borasidagi ishlarning yanada jonlanishiga sabab bo’ldi. Sadriddin Ayniy Alisher Navoiy “Xamsa”sining nazmu-nasrdan iborat qisqartirilgan nusxasini yaratdi va mazkur ish lotin yozuvida 1939-yilda nashr bo’ldi. Besh asrlik yosh to’yi munosabati bilan ulug’ shoirning “Chor Devon”, “Muhokamat ul-lug’atayn”, “Mahbub ul-qulub” va yana bir qator asarlari ham chop etildi. Taniqli adib va olim M.Shayxzoda “Genial shoir”

nomli asarini yozdi. V.Abdullayev esa Navoiyning Samarqanddagi hayoti va faoliyati haqidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

1941-yilda sobiq ittifoq hududining II jahon urushi janggohlariga aylanishi tufayli Alisher Navoiy yubileyini keng miqyosida tantana qilish kechiktirildi. Shunday bo’lsa-da, nafaqat O’zbekistonda, balki Moskva va hatto qamalda qolgan Sankt-Peterburgda ham I.A.Orbeli, I.Y.Krachkovskiy, E.E.Bertels, A.A.Boldirev, A.N.Kononov, B.B.Piotrovskiy, B.T.Rudenko singari olimlar tomonidan Alisher Navoiy merosini o’rganish ishlari qizg’in davom ettirildi. Ulug’ mutafakkir shoir tavalludining 500 yilligi 1948-yil may oyida tantanali suratda o’tkazildi. Shu yili taniqli yozuvchi Oybek tahriri ostida “Ulug’ o’zbek shoiri” nomli ikkita maqolalar to’plami E.E.Bertels, Sadriddin Ayniylarning ilmiy risolalari chop qilindi.

Turkiy adabiyotni jahoniy mavqega ko’targan Alisher Navoiy ijodiy merosini o’rganish turli millat va tilga mansub sharqshunos olimlarning diqqatini ham o’ziga jalb etdi. Navoiyshunoslik fan sifatida shakllana boshladi va uning oldida shoir asarlarini to’plash, Navoiy merosining mukammal bibliografiyasini tuzish, asarlarining nodir nusxalarini aniqlash va ilmiy tekshirish, adib ijodini keng kitobxonlar o’rtasida ommalashtirish hamda undagi dolzarb muammolar yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishdek g’oyatda muhim vazifalar turardi. Shunday qilib, ulug’ shoir tavalludining besh asrlik to’yi soha ravnaqi uchun tub burilish pog’onasi vazifasini o’tadi. XX asrning 40-yillarida ibtido topgan ko’lamdor ilmiy yo’nalishlar 500 yillik umr to’yi tantanalari shaxdam ilgarilayotgan navoiyshunoslikni yanada yangi taraqqiyot pillapoyalariga olib chiqdi. Taniqli adabiyotshunos Porso Shamsiyev tomonidan amalga oshirilgan “Xamsa”ning mukammal nashri, Hamid Sulaymon sa’y-harakati bilan “Xazoyin ul-maoniy” akademik nashri hamda Alisher Navoiy asarlarining o’zbek tilidagi o’n besh tomligining nashr etilishi o’zbek xalqining madaniy hayoti tarixida juda katta ijtimoiy-ma’naviy voqea bo’ldi. Adabiyotshunos olimlardan Yo.Is’hoqovning “Alisher Navoiyning ilk lirikasi” (1965), M.Shayxzodaning “Ustodning san’atxonasida” maqolalar turkumi (1965-66), A.Hayitmetovning “Navoiyning ijodiy

metodi masalalari” (1963), “Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan” (1970), Navoiy adabiy an’analarining davomi va takomili xususida V.Abdullayev, B.Valixo’jayev, H.Yoqubov, A.Qayumov, H.Rasulov, E.Ibrohimova, R.Majidiy singari o’nlab salohiyatli o’zbek olimlarining katta-kichik ijodiga doir turfa ilmiy, ilmiy-ommabop asarlar yaratildi va kichik tadqiqotlari vujudga keldi. Shuningdek, Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga doir turfa ilmiy, ilmiy-ommabop asarlar yaratildi va keng maqolalar to’plami (1967), uning ukrain adibi A.Deych bilan birga yozilgan ‘Alisher Navoiy” ilmiy-ommabop ocherki, T. Jalolovning “Xamsa” talqinlari” (1962), S.G’aniyevaning “Alisher Navoiy” (1969), S.Narzullayevaning ‘Alisher Navoiy” (1965), N.Mallayevning “Genial shoir va mutafakkir” (1968), M.Qodirovning “Alisher Navoiy va san’at” (1968) kabi o’nlab mazmundor kitoblari shular jumlasidandir. Alisher Navoiy va adabiy ta’sir muammolari mavzui ham davr navoiyshunoslarining diqqat markazidan o’rin olgan edi. 1968-yilda Alisher Navoiy tavalludining 525 yilligi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasi FA Til va adabiyot instituti bilan hamkorlikda nashr qilingan “Navoiy va adabiy ta’sir masalalari” to’plami ana o’sha keng qamrovli mavzu ishlanishining kichik bir samarasidir.

O’zbekiston Respublikasi mustaqilligi e’lon qilingunga qadar V.Zohidovning “Ulug’ shoir ijodining qalbi”(1970), A.Hayitmetovning “Tabarruk izlar izidan”, “Navoiy daxosi”, “Meros va ixlos” kabi tadqiqotlari hamda “Hayrat ul-abror” dostonining nasriy tavsifi” (1974), A.Abdug’afurovning “Navoiy ijodining xalqchil negizi” (1973) hamda “Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti” (1974), A. Rustamovning “Navoiyning badiiy mahorati” (1979) singari yirik ilmiy tadqiqotlari vujudga keldi.

Avvalo, Navoiyning lirik merosi shoir ijodining bir qator nazariy masalalariga bag’ishlangan asarlar tarkibida u yoki bu masala bilan bog’liq holda tadqiq etilgan. Navoiyning falsafiy-ijtimoiy qarashlari, uning satirasi, ijodiy metodi hamda mahorati masalalariga bag’ishlangan monografik tadqiqotlar ana shular jumlasidandir.

Bir qator tadqiqotlar bevosita shoir lirik merosini turli aspektlarda tekshirishga bag’ishlangan. Shuningdek, M.Yunusov, E.Rustamov, O.Nosirov, I.Haqqulov, R. Orzibekovlarning o’zbek klassik poeziyasining ba’zi janrlariga bag’ishlangan maqola va risolalarida ham Navoiy lirikasiga katta o’rin berilgan.

H.T.Zarifov “Ruboiy” nomli maqolasida Navoiy ruboiylarining g’oyaviy-badiiy mohiyatini tahlil etibgina qolmay, ayni zamonda ruboiy janrining spetsifik xususiyatlari, uning o’zbek adabiyotida vujudga kelishi va rivojlanishi uchun zamin bo’lgan milliy adabiy faktorlar haqida ham original mulohazalar yuritadi. “Lutfiy va Navoiy” deb atalgan katta hajmli maqolasida esa o’zbek poeziyasi an’analrining Navoiy she’riyati taraqqiyotida tutgan o’rni, xususan, Navoiygacha bo’lgan o’zbek lirik poeziyasining yuqori cho’qqisi bo’lmish Lutfiy g’azaliyotining Navoiy ijodiga ta’siri xususida jiddiy fikrlar bayon qiladi, bu ta’sirning muhim ko’rinishlarini muayyan tarzda belgilashga harakat qiladi.

Uyg’unning “Xazoyin ul-maoniy” haqidagi maqolasi obzor xarakterida bo’lib, keng o’quvchilar ommasida Navoiyning ulkan lirik merosi va uning mohiyati haqida ma’lum tasavvur paydo qiladi. Maqola muallifi Navoiy g’azallari, ruboiylari, shuningdek, shoir she’riyatining gumanistik mohiyati, uning axloqiy-ijtimoiy qit’alarga murojaat qiladi.

Mazkur ishlarning barchasi uchun xos umumiy xususiyat shundan iboratki, ularda Navoiy lirikasining yetuk davri tekshirilgan. So’nggi davrlarda esa ulug’ shoir ijodiy yo’lining ayrim bosqichlari haqida ham ilmiy-tadqiqot ishlari yuzaga chiqa boshladi. Yoqubjon Is’hoqovning “Alisher Navoiyning ilk lirikasi” nomli monografiyasi ana shu tipdagi asar bo’lib, Navoiy ilk she’rlarining g’oyaviy-badiiy darajasini belgilash hamda bu she’rlarining shoir ijodining keyingi bosqichlari bilan aloqasini ko’rsatish uning asosiy mohiyatini tashkil etadi. A.Abdug’afurovning buyuk adib asarlaridagi satira va yumor tahliliga bag’ishlangan “Navoiy ijodida satira” nomli monografiyasida shoir she’riyati, xususan, g’azal va qit’alari tadqiqot doirasiga keng jalb etilgan. Hech qaysi bir ijod o‘zidan oldingi an’analarga aylangan

asarlarni o‘rganmasdan, undan oziqlanmasdan turib takomilga yeta olmaydi. Ayniqsa, so‘z – buyuk mumtoz shoiri hazrat Navoiy xususida ketganda, bu fikrga yana bir bor amin bo‘lish mumkin bo‘ladi. Uning asarlariga bo‘lgan munosabat esa bir necha asrlardan buyon izdoshlik hamda hamnafaslik darajasidadir. Ijodkor qaysi bir davrda yashamasin, albatta qayta-qayta Alisher Navoiy asarlariga murojaat etaveradi.Alisher Navoiy ijodi shunday bir musaffo buloqki, undan ijodkorlar nafaqat huzur, rohat topishadi, balki o‘z nomini o‘chmaslikka, abadiylikka ham muxrlashiga sabab bo‘ladi. Fikrimizga birgina ozar shoiri Fuzuliyning ijodi ham misol bo‘la oladi. XX asr adabiyoti xususida so‘z ketganda ham mana shu kayfiyat, mana shu hamohanglik ko‘zga yaqqol tashlanadi. Erkin Vohidov o‘zining “Shoir-u she’r-u shuur” asarida quyidagi fikrlarni ta’kidlaydi: “Biz bugun Alisher Navoiy nomisiz o‘zbek madaniyatini tasavvur qilolmaymiz. Uning nurli she’riyati, yorug‘ siymosi ruhimizga singib ketgan. Shoirning yuksak badiiyat bilan muzayyan bo‘lgan, chuqur insonparvar g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan ijodi asrlar osha bizni hanuz o‘ziga rom qiladi, ko‘ngillarimizni zavq-u shafq hamda iftixor tuyg‘ulari bilan, ongimizni ezgulik fikrati bilan boyitadi, bizni adolat uchun, inson qalbining mangu erki uchun kurashmoqqa chorlaydi”. Erkin Vohidov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, Alisher Navoiy she’riyatida buyuk qudrat, qandaydir ilohiy mo‘jiza yashiringan. Shu bois har doim ijodkorlar uning asarlariga murojaat etar ekan, bu ilohiy qudratni his etib turishadi. Uning so‘z ganjasi oldida esa, so‘z, fikr aytmoqlikka kuch topa olish zarur bo‘ladi.

Alisher Navoiy mumtoz adabiyotimizning markaziy siymosi. Turkiy adabiyotning eng ilg’or va bezavol yutuqlari shoir she’riyatida mujassamlashgan. Buni Ozarboyjonning Benazir shoiri Muhammad Fuzuliy, turkman klassigi Mahdum quli, qozoq oqini Abay, qoraqalpoq yozma adabiyotining asoschilaridan bo’lmish Berdaqning e’tiroflaridan ham anglash mumkin. Demak, Navoiy ijodi qardosh xalqlar bilan bo’lgan asriy aloqalar, do’stlik munosabatlarini yanada mustahkamlash va yangi pog’onalarga ko’tarishdagi o’ziga xos muhtasham asosdir. Navoiy va Jomiy o’rtasidagi ustozu shogirdlikni esa har qancha ibrat qilib ko’rsatsa, o’shancha kam. Chunki bunday hodisalar ko’hna tarix uchun ham kamyobdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Is`hoqov Y. Navoiy poetikasi. Toshkent, 1983. 5-bet.
2. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. Toshkent, 1961.
3. Mallayev N. O’zbek adabiyotida g’azal va uning rivojida Navoiyning roli haqida. O’zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 2019 58-65 betlar.
4. Hayitmetov A. Alisher Navoiy ijodini o’rganishning metodologik asoslari haqida // O’zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 2001. 2-son. 2-10 betlar.
5. Hayitmetov A. Alisher Navoiy ijodini o’rganishning metodologik asoslari haqida // O’zbek tili va adabiyoti. Tosheknt, 2001. 2-son. 2-10 betlar.

ВОСПИТАНИЕ И ОБУЧЕНИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ ИДЕЯМ АЛИШЕРА НАВОИ

Нигматуллина Дилнора Мухторовна, магистр 1 курса, ДГПИ

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогические идеи из жизни и творчества великого узбекского деятеля, выдающегося поэта, мыслителя Алишера Навои. В его созданных более шести веков назад произведениях подчёркиваются ценнейшие идеи и мысли для воспитания детей дошкольного возраста, молодёжи и нашего будущего поколения. Его педагогические идеи, взгляды и произведения служат основной методикой в воспитании для всех воспитателей и учителей, а также родителей.

Ключевые слова: разум, развитие, семья, воспитание, знания, учитель, мыслитель, духовность, гуманизм, нравственность.

Annotation: This article ehamines pedagogical ideas from the life and work of the great Uzbek figure, outstanding poet, thinker Alisher Navoi. It is emphasized that the works created by him more than six centuries ago have very valuable ideas for educating today's youth and the next generation. His creations serve as the main methodology in education for all educators and teachers, as well as parents.

Key words: mind, development, family, training, education, teacher, knowledge, thinker, spirituality.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ulug‘ o‘zbek arbobi, buyuk shoir, mutafakkir Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid pedagogik g‘oyalar muhokama qilinadi. Uning olti asrdan ko‘proq vaqt muqaddam yaratilgan asarlarida maktabgacha yoshdagi bolalar, yoshlar va kelajagimiz avlodini tarbiyalash borasidagi bebaho g‘oya va fikrlar alohida ta’kidlangan. Uning pedagogik g‘oyalari, qarashlari va asarlari barcha

pedagog va o‘qituvchilar, shuningdek, ota-onalar uchun ta’lim-tarbiyada asosiy metodika bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: aql, taraqqiyot, oila, ta'lim, bilim, o'qituvchi, mutafakkir, ma'naviyat, insonparvarlik, axloq.

В современной педагогике и в воспитании детей предполагается постоянный пересмотр и коррекция воспитательного процесса в изменяющемся потоке знания о человеке. Если обратиться к восточной и западной истории, в ней можно увидеть различные течения и направления, имеющие важнейшие задачи воспитания личности. Одним из способов воспитания и передачи знания является метод разрешения ситуации – обучение через легенды и притчи, в которых содержится мудрость веков, учат находить решения проблем, развивают мышление. Одни легенды и притчи несут мотивацию, воодушевление и вдохновение, другие – побуждают смеяться или плакать, а третьи – задуматься. Педагогика на Востоке предполагает самые различные способы постижения знания и воспитания детей. Она содержит объёмный материал по нравственному и умственному воспитанию человека.

Рассмотрим идеи и взгляды воспитания детей дошкольного возраста, нашего будущего одного из великого узбекского поэта и мыслителя узбекского народа Алишера Навои.

Алишер Навои родился 9 февраля 1441 г., в афганском городе Герат. Он был сыном крупного чиновника, из монгольского племени Барлас. Юноша получил хорошее всестороннее образование не только в Герате, но и в Самарканде. Стихи Навои начал писать уже в 15 лет, причём одинаково как на фарси, так и на тюркском языках. Когда к власти пришёл поэт и приверженец искусств Хусейн Байкара, Навои стал мулазимом (с араб. «дружинник»,приближённым правителя). В дальнейшем в 1472 г. поэт стал визирем. На своём посту Навои оказывал большую помощь музыкантам, поэтам, каллиграфам, за что

пользовался огромной популярностью среди народа. Являясь приверженцем суфийского ордена Накшбанди, Алишер Навои вёл аскетический образ жизни, никогда не был женат и не имел наложниц.

Литературное наследие Алишера Навои составляет около 30 сборников стихов, поэм и, научных работ и поэтических трактатов. Они полностью раскрывают духовную жизнь в Средней Азии, переживавшей расцвет искусств и наук в конце XV века. Объём шести его поэм составляет около 60 000 строк (мисра). Он писал на персидском, тюркском, а также на староузбекском языках. Среди его произведений, которое много раз переписывалось является «Хамса», состоящее из пяти поэм: «Хайрат ул -абрар» («Смятение праведных»), «Фархад ва Ширин» («Фархад и Ширин»), «Лайли ва Мажнун» («Лайли и Мажнун»), «Сабъаи сайёр» («Семь планет»), «Садди Искандари» («Стена Искандара»). Они были созданы на основе традиции хамса – создания пятерицы (пяти поэм). Его последним произведением Навои является «Махбуб ал-кулуб». Именно в этом произведении Навои выражены его самые последние взгляды на общество, воспитание молодого поколения и политику. Как ни странно, Навои живший 6 веков назад написал такие произведения и выражал такие мысли, что его произведения являлись и являются объектом для подражания и воодушевления в современном мире и обществе.

Навои считается одним из наиболее заметных узбекских писателей. «Чудеса детства», «Редкости юности», «Диковины средних лет», «Назидания старости» — это лирические произведения Навои на тюркском языке, которые он объединил в Диван. Туда он включил свои лучшие касыда, газели, кытъа и рубаи. Большое внимание он уделял вопросам формирования и воспитания ребенка, которого считал светилом в доме, приносящим в семью радость и счастье. Навои осуждал принуждающие методы воспитания как в школе, так и дома, выступал против телесных наказаний. По словам Алишера Навои ребёнок — это Божий дар каждой семье, в котором заключается смысл жизни любой семьи. Ребёнок в семье — это стимул жизни, который заставляет жить и

радоваться всех — без исключения, брата, сестру и родителей. Алишер Навои считал человека самым высшим и благородным существом в мире, а ребёнка — светилом, которое озаряет дом и приносит в семью радость и счастье. Поэт писал, что дети не могут отличать хорошее от плохого, поэтому с ранних лет должны находиться под благотворным влиянием воспитателей. А также Навои считал, что дети это отражение нашего будущего и поэтому мы должны дать всестороннее воспитание будущему поколению. Кроме этого он высоко ценил человеческий разум и науку: «знание и мудрость – украшение человека». Алишер Навои подчёркивает, что старание получения знаний является самым необходимым достоинством при воспитании всесторонне развитого человека. По его мнению, является фактором спасения человечества и народа от невежества и гнева. В своих произведениях мыслитель призывает людей быть умными, образованными и всегда стремиться получать знания. К примеру, в произведении «Махбуб ул -кулуб» («Возлюбленный сердец») посвящается наилучшему устройству общества. Поэт в произведении разделяет людей на достойных и недостойных, призывая хороших людей к осторожностью при общении с плохими. Это показывает о том, что поэт опираясь на свои жизненные опыты, призывает молодое поколение к всесторонней развитости и образованности.

Поймите, люди всей земли: вражда – плохое дело,

Живите в дружбе меж собой – нет лучшего удела...

Навои был против принуждающих методов воспитания как в школе, так и дома и телесных наказаний: Невежественные учителя – большой бич для школы. Учитель должен не только в совершенстве знать свой предмет и обладать глубокими знаниями, но и понимать нужды народа, показывать во всем пример. Навои призывал прививать детям любовь к родине, уважение к человеку. Огромное место в произведениях Навои занимают вопросы нравственного и

трудового воспитания. По его мнению, что воспитанность является самым главным фактором нравственности. Воспитанность помогает человеку найти свое место в обществе, стать уважаемым и иметь более высокий чин среди других. Он писал: «Самым лучшим человеком признай того, от кого будет наибольшая польза для народа». Именно столь гуманистическое мировоззрение Навои и духовно высокие достоинства его произведений обеспечили их большую популярность не только на своей Родине, но и во всем мире. Этот светлый образ гуманиста, мыслителя, просветителя, патриота Алишера Навои будет вечно жить в памяти многих поколений.

«И честь семьи, во первых честь,
Коль у тебя семья и дети есть.
Ты породил детей, но должен знать,
Как с малых лет им воспитанье дать,
Ты должен хорошо детей наречь,
Чтоб их потом насмешками не обречь.
Вторая цель твоя на пути –
Достойного учителя найти.
Все выше те, кто доброе творят,
Но за дела добра не ждут наград…
Всем жертвуют для страждущих людей,
Не думая о выгоде свое».

Мир образов и чувств Алишера Навои одухотворил поэзию народов Среднего Востока, прежде всего узбекскую литературу, первым великим представителем которой он был. Темы и сюжеты его произведений, воспринятые из поэтической традиции и из народного творчества, скоро вновь получили хождение в народной среде и были затем, в свою очередь, не раз обработаны народными певцами и сказителями. Заслуга Навои не только в том,

что он с блеском доказал неограниченные возможности узбекского поэтического творчества и создал «на языке тюрки» гениальные произведения, но и в том, что он выразил передовые, гуманистические идеи своего времени во всей их сложности, противоречивости, во всем переплетении великих прозрений и заблуждений, безудержного прославления жизни во всех ее проявлениях и печального скепсиса, прекраснодушных мечтаний и трезвого взгляда на жизнь.

Литература:

1. М.Усмонова. Слова, обозначающие дерево, в языке произведений Алишера Навои и их лексико-семантические особенности. POLISH SCIENCE JOURNAL ISSUE 1 (34) Part 1 INTERNATIONAL SCIENCE JOURNAL WARSAW, POLAND Wydawnictwo Naukowe "iScience" 2021

2. М.Усмонова . Lexical and semantic properties of phytonyms in properties of phytonyms in the works of Alisher Navoi. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. 2021

3. М.Усмонова Общая характеристика названий растений в произведениях Алишера Навои. DİL VE EDEBİYAT ARAŞTIRMALARI (8) 2013 yil Turkiya

ALISHER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” ASARIDAGI HIKOYATLARNING QIYOSIY TAHLILI

Asliddin Tohirov Baxrom o’g’li

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti

Annotatsiya: Alisher Navoiyning ijodiy merosi o’z davri, qolaversa, so’nggi besh asr mobaynidagi ko’plab ilm ahllari tomonidan o’rganilgan. Xususan, istiqlol sharofati va Prezidentimiz sa’y-harakatlari tufayli ma’naviy merosimiz, jumladan Navoiyning faoliyati va ijodini qayta talqin qilish hamda ommalashtirish imkoniyati tug’ildi.

Аннотация: Творческое наследие Алишера Навои изучалось многими учеными как его времени, так и на протяжении последних пяти веков. В частности, благодаря самостоятельности и усилиям нашего Президента у нас есть возможность переосмыслить и популяризировать наше духовное наследие, в том числе деятельность и творчество Навои.

Abstract: Alisher Navoi's creative legacy has been studied by many scholars of his time, as well as over the last five centuries. In particular, thanks to the independence and the efforts of our President, we have the opportunity to reinterpret and popularize our spiritual heritage, including the activities and creativity of Navoi.

Kalit so’zlar: Nizomiddin Mir Alisher Navoiy, Xamsanavis, Iskandar Zulqarnayn, Nizomiy, Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Iskandarnoma, Hayrat ul-abror, Faridun, Doro, Chingizxon, Tarixi mulki ajam, Xiradnomayi Iskandariy, kayoniylar, ashkoniylar, Rumu Rusda Faylaqus, Naqumohis.

Ключевые слова: Низамиддин Мир Алишер Навои, хамсанавис, Искандар Зулкарнайн, Низами, Дехлави, Абдурахман Джами, Искандарнома, Хайрат уль-аброр, Фаридун, Доро, Чингисхан, Тарихи мулки аджам, Хирадномайи Искандари, кайониылар, ашконийлар, Руму Русда Файлакус.

Key words: Nizamiddin Mir Alisher Navoi, Xamsanavis, Iskandar Zulqarnayn, Nizami, Dehlavi, Abdurahman Jami, Iskandarnoma, Hayrat ul-abror, Faridun, Doro, Genghis Khan, Tarihi mulki ajam, Hiradnomayi Iskandari, kayoniylar, ashkoniylar, Rumu Rusda Faylaqus.

Ko’pgina salaflari singari Alisher Navoiy ham Xamsachilik an’anasini davom ettirdi. Hazrat Navoiyning boshqa Xamsanavislardan farqli jihati shundaki, u o’z “Xamsa” sini turkiy tilda yaratdi.

Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning Iskandar Zulqarnayn tarixiga bag’ishlangan “Saddi Iskandariy” dostoni “Xamsa” ning yakunlovchi beshinchi dostoni sifatida yaratilgan. U ham o’z salaflari Nizomiy, Dehlaviy va ustozi Jomiy kabi oldiga tarixiy doston yaratishni vazifa qilib qo’ymagan edi. Shoir uchun Iskandar tarixiy lashkarboshi emas, balki ideal hokim, sarkarda, haqiqat izlovchi olim, tabiat, jahondagi bahru bar (ho’llik va quruqlik) tadqiqotchisi. Dostonni kitobxon qo’llanma sifatida qabul qilishi ham lozim bo’lgan o’gitlar to’plami ham deyish mumkin. Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy va Navoiylar o’z “Iskandarnoma” larini yozar ekanlar, davr talabi va o’z dunyoqarashlaridan kelib chiqqan holda u yoki bu masalani hal qiladilar. Shuning uchun Makedoniya lashkarboshisining nomi Navoiy asarlarida Iskandar, Skandar shaklida yuzlab marotaba tilga olinadi.

Alisher Navoiy ham birinchi dostonidayoq Iskandar haqida to‟xtalgan. “Xamsa” ning birinchi dostoni “Hayrat ul-abror” ning (1483) qirq sakkizinchi bobi sarlavhasi “Aflok hay’ati shikoyatidakim…” so’zlari bilan boshlanib, taqdir qanchalik o‟zgaruvchi, bu dunyo, saltanat, hokimyat o’tkinchi, Faridun, Jamshid, Doro, Iskandar, Chingizxon, Temur kabilar qachalik qudratli bo’lishlariga qaramay, olamdan o’tdilar, bu dunyoda insonning faqat yaxshi ishlari qoladi, degan pand-nasihat so’zlari bilan tugallanadi. 25 baytdan iborat bo’lgan qirq to’qqizinchi bobda Iskandar tarixi qisqa bayon etilib, shohning qo’lini tobutdan chiqarib qo’yishlari , jahonni zabt etgan shahanshoh ham bu dunyodan hech nima olib ketmayotgani hammaga ibrat bo’lsin, degan maqsadda keltiriladi:

To kishikim qilsa nazar ul sori,

Ibrat ila boqqay o’shal qo’l sori,

Bilgay anikim, yeti kishvar shahi,

Yetti falak mushkilining ogahi,

Jismida jon yo’q bu makondin borur,

Xoli ilik birla jahondin borur.

Alisher Navoiy “Tarixi mulki ajam” (1488) asarini yozar ekan, Iskandar yurishlari mavzusiga to’xtamay o’tishi mumkin emas edi. Ushbu asardagi boblarning birida Iskandarga maxsus joy ajratilib, uni Banokatiyning “Devon un nasab” , Amir Xisrav Dehlaviyning “Oyinayi Iskandariy” va Nizomiy Ganjaviyning “Iskandarnoma” asarlariga suyanib yozgani haqida ma‟lumot beradi.

“Saddi Iskandariy” Navoiy dostonlari ichida eng yirigi hisoblanadi. Doston 89 bobdan iborat bo’lib, 7215 baytni tashkil etadi. “Xiradnomayi Iskandariy” esa 2315 bayt, demak, Navoiyning dostoni Jomiynikiga qaraganda 3 baravar kattadir. “Saddi Iskandariy” “Xiradnomayi Iskandariy”dan bir necha oy oldin yozib tugallangan.

Doston muqaddimasi 14 bobni o’z ichiga oladi. Asar muqaddimasida “Xiradnomayi Iskandariy” singari nazariy qism va hikoyatlar mavjud emas.

“Saddi Iskandariy”ning muqaddimaviy qismiga xudo hamdi, munojot, pamg’ambarga na’t, me’roj va madh, shuningdek, an’anaviy parchalar sirasiga faxriya, so’z ta’rifi, kitob nazmining sababi, farzandga nasihat va shoirning muayyan maqsadga yo’naltirilgan ta’limiy, axloqiy- falsafiy boblar ham kiradi. Hamd – bu Ollohning va unga xos xususiyatlarning ta’rifi bo’lib, shu bilan

birga Parvardigorning biru borligiga iymon keltirishning yoqin namunasi. Bunaqangi tuzilma mumtoz davri adabiyotida barcha asarlarga xosdir.

Dostonning 1-bobini hamd qismi tashkil etadi. Hamd- Ollohning sifatlariga bag’ishlangan. Navoiy ushbu bobda tasavvuf ta’limoti asosida olamning yaratilish tarixiga to’xtalib o’tadi. Yaratganning buyukligiga hamd-u sano aytadi. Bularning barchasidan maqsad eng oily zot-Odamni yaratish ekanini ta’kidlaydi.

Karam birla xalq aylagay olame,

Bu olamda maqsud anga odame.

G’araz odame anga olam tufayl,

Nekim g’ayri olamdur , ul ham tufayl.

Ikkinchi bobi munojotni o’z ichiga oladi va bunda Navoiy Ollohga murojaat qilib, qilgan gunohlariga afv hamda asarni yozishga najot so’raydi.

Dostonning uchinchi bobi Muhammad payg’ambar (s. a. v.) madhiga Bag’ishlanadi. An’anaga muvofiq, na’tdan so’ng me’roj tuni ta’rifi keladi.

Falak ahli ichra alolo tushub,

Malak xayliga sho’ru g’avg’o tushub.

Maloik tutub yo’l boshin javq- javq,

Tamosxosida borcha ko’nglida shavq.

Beshinchi bobida “Xamsa”ning takmili xususida bo’lib, Navoiy bu bobda unda “Xamsa” yozish havasi ancha oldin , Nizomiy va Dehlaviy “Xamsa” larini O’qib yurgan chog’laridayoq uyg’onganini bayon qilib, ulug’ ustozlari ruhidan madad so’raydi:

Bu vodiy aro Xizr rohim bo’ling,

Qayon yuz ketursam, panohim bo’ling.

Burundun chu ko’rguzdunguz yorliq,

Base yetti sizdan madadkorliq.

Kichik erkanimdan bo’lib qoshima,

Ulug’ muddao soldingiz boshima.

Dostonning oltinchi bobi so’z ta’rifi, Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy madhini o’z ichiga oladi. Yettinchi bobi Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhiga bag’ishlanadi. Shu tariqa har bir bob ma’lum mavzuga bag’ishlangan.

Dostonning asosiy qismi 15- bobdan boshlanadi. Asosiy qism o’ziga xos kompozitsiyaga ega. Uni shartli ravishda quyidagi to’rt qismga bo’lish mumkin:

1. Iskandar voqeasi- Iskandar hayoti bilan bog‘‘liq biror voqea yoki hodisa bayoni

2. Nazariy masala- muayyan axloqiy muammoning ta‘‘rifi

3. Hikoyat- shu axloqiy masala doir hikoyat

4. Hikmat- Arastu va Iskandarning suhbati

Dostonning 15- bobida Iskandar tarixiga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Eronda to’rta sulola: peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniylar, sosoniylarning podsholari hukmronlik qilgan. Bu muddat ichida kim taxt surgan bo’lsa, ular ko’p mamlakatlarni zabt etgan, jahonga hukmronlik qilganlar. Qanchadan qancha xalqlarni mustamlaka qilgan bo’lsalar-da, ulaning qilgan ishlari shoh Iskandarning o’z vaqt ichida dunyoda qilgan ishiga baravar kelmas edi.

Yuqorida to'rt sulolaning ikkinchisidan so'ng, ya'ni, kayoniylardan so'ng Iskandar maydonga chiqdi. Kayoniylarning so’nggi vakili shoh Doro edi. Bu paytda Rumu Rusda Faylaqus degan odam hukmdor edi. Nizomiy Faylaqus tarixini yaxshi bilar va u haqda tubandagicha bayon qiladi:

Faylaqusning zurriyoti yo’qligi sababli u Ollohdan tun-u kun farzand so’rardi. U kunlarning birida ovdan qaytayotganida vayronaga aylangan bir koshonani ko’rdi. Shohni beixtiyor chopqir oyi vayyrona tomon boshladi. Vayronaga kirar ekan, bir homilador xotinning tug’ib yotganini ko’rdi. Lekin ayolning jismida jon yo’q edi. Uning oldida zor va zabun bo’lib yotgan chaqaloq yig’lab yotardi (u o’g’il edi). Faylaqus mahramlariga buyurib o’likni dafn ettirdi-da, chaqaloqni izzat- ehtirom

bilan olib, unga mehribonchiliklar qilib parvarish qildi. Unga Iskandar deb nom qo’yib, o’ziga o’g’il qilib oldi. O’limi oldidan esa o’rniga valiahd qilib tayinladi.

Ba’zi tarixchilar bu haqda boshqa so’z ham yozganlar, Iskandarni Doroga nisbat berganlar ham bo’lgan. Go’yo Rum shohi , asalari o’z uyasini yasatganday, qizini zeb- ziynat bilan bezab, Doroga bergan emish. Ammo orada o‟tgan bir ish sababli, bularning murosalari buzilib, Doro u qizni otasinikiga uzatgan emish. Lekin to’y bo’lgan kechasi qizning bo’yida bo’lib qolgan emish.

Yana, bundan boshqa, “Fors tarixida” tubandagicha so’zlar bor:

Go’yo, dunyoda ikki Iskandar o’tgan bo’lib, ikkalasi ham o’z davrida jahon hukmroni bo’lgan ekan. Ulardan biri Doro bilan urushganu, ikkinchisi, ya’jujlarga qarshi sad- devor qurgan emish. Lekin dunyoning donosi bo’lmish Jomiy Iskandar qissasidan elni bahramand qilish niyatida , “Iskandar” dostonini yozdi. Elga haqiqiy ahvolni Jomiygina bayon qildi. Darhaqiqat, unga Iskandar ishi manzum, barcha holati yashirin emasdi.

Navoiy ham doston yozish uchun barcha tarix kitoblarini o’qib oxiri Jomiydan maslahat so’raydi.

Jomiy hazratlari : ” 2 ta Iskandar bo’lgan‟‟‟, degan gapni aniq hujjatlar bilan rad etib: Iskandarning asl nasabini Nizomiy qanday ta’riflagan bo’lsa, donishmand Jomiy ham shunday tasdiqlaydi.U haqiqatdan ham Faylaqusning O’g’li bo’lib tarixchilarning bu haqdagi ixtiloflari to’g’ri emas.

Iskandar topdi malik Faylaqus,

Yasab mulkin andoqki zebo arus.

Demak , Navoiy vayronada topilgan bola haqidagi afsona tarafdori bo’lgan.

Navoiyning masalaga bunday yondashishning sababi oldingi aqidalarga ko’ra faqat shoh, oliy tabaqadan shaxslargina yuksak insoniy xususiyatlariga ega bo’ladilar degan tushunchaga barham berish bo’lgan.

Navoiy ongli ravishda ,ataylab ana shu fikrga zid o’laroq ,eng oliy janob inson, odil insonparvar, xalqparvar shoh ,buyuk tadbirkor lashkarboshi, olim – faylasuf hakim va nabiylik darajasiga ko’tarilgan Iskandar tarbiyasining tasvirini berib, Naqumohis (Arastuning otasi)ustoz sifatida uni tarbiyalaganini aytadi. Faylaqus vafot etish oldidan o’g’lini valiahd etib qoldiradi:

Anga toj ila taxt tushmay qabul

Bu andeshadin behad erdi malul.

U xalqni yig’b o’z qarorini izhor qiladi. Navoiy ijodining bilimdoni A. P. Qayumovning fikricha shoir “Saddi Iskandariy “dostoniga bosh qahramon qilib rumlik fotih timsolini olgan. Asar yirik falsafiy- didaktik umumlashmadan iborat. Shoir bayon qilmoqchi bo’lgan barcha fikrlar ana shu markaziy obraz orqali bayon etiladi. Navoiy Iskandarning shohlik va donishmandlik faoliyatini tutashtirgan holda tasvirlaydi. Navoiy har bobning xotima qismida soqiy, mug’anniy va o’ziga murojaat qilib, axloqiy xulosalar chiqaradi. Shuning uchun “Saddi Iskandariy ” ni “Iskandarnoma” lar orasidagi eng xarakterli nasihatnoma deyishga haqlimiz.

Nizomiy Iskandar timsolining izchil ravishda avval lashkarboshilik, keyin donishmand- faylasuf va payg’ambarlik faoliyatini tavsirlasa, Navoiyda lashkarboshilik va olim- donishmandlik faoliyati birgalikda beriladi. Navoiy o’z qahramoni xarakterini tarbiya va ijtimoiy sharoit shakllantirganini ko’rsatadi. Bu o’rinda , ayniqsa, ustoz Naqumohis, buyuk olim Arastuning roli katta.

Navoiy dostonida qahramon asar boshidanoq o’zini Nizomiy va Xusrav Dehlaviy qahramonlaridan o’zgacha tutadi. Agar avvalgi Iskandarlar Flipp vafotidan so’ng ikkilanmay ota taxtini egallasalar, Navoiy qahramoni katta majlis to’plab qo’yadi. U xalqdan kimning arz- dodi bo’lsa, shohni o’zi bilan teng ko’rib ahvolini aytishini so’raydi:

Ki, berdi manga dodgarlik Iloh,

Bor ersa xaloyiq aro dodxoh,

Kelib ollima arzi hol aylasun,

O’z ahvolini qiylu qol aylasun!

Iskandarning fikrlari xalqning orzusi bilan hamohang edi, shuning uchun ham uni podshoh etib ko’taradilar.

Iskandar taxtga o’tirgach adolat mamlakatni boshqaradi. Xalqni 2 yillik xirojdan ozod etadi.

Navoiyning asosiy vazifasi mamlakat, xalqni idora etuvchi, uning mas’uliyatini ustiga olgan odam qanday bo’lishi kerakligini ko’rsatish edi. Shoir Iskandar timsoli orqali bosqinchilik siyosati, jahongirlikning be’mani ish ekanini ko’rsatmoqchi bo’ldi. Navoiy asarining o’ziga xosligi va qimmati ana shundadir. Navoiy urushni yovuzlik deb hisoblab rad etadi, ammo Arastu tilidan zolimlikni, xalqni ezuvchilarga qarshi urushni oqlaydi. Shoir o’z qahramonini faqat mazlumlarni ozod etuvchi, ezilganlarning himoyachisi sifatida tasvirlaydi, behuda qon to’kishlarni va o’lim jazosini qoralaydi.

Nekin o’z qoshingda erur noravo,

Ulusqa ana ko’rma also ravo.

Navoiy o’z qahramonining, aksincha, boshqa podsholarga o’xshamasligi, adolatparvar ekanligini alohida ta’kidlaydi. Ayniqsa, hind yurishini tasvirlar ekan, Navoiy o’z qahramonini hind xalqiga nisbatan rahmdil, mehribon, hatto Dehli aholisiga malol kelmasin deb, riy taklifini rad etuvchi etib tasvirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Navoiy Alisher. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G’. G’ulom, 2006

2. Jomiy Abdurahmon. Xiradnomai Iskandariy - Toshkent, 1978

3. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy (nasriy bayoni bilan) - Toshkent: adabiyot va san’at, 1991

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TIL VA NUTQ MASALASI

Arabboyeva M.M

Andijon Davlat universiteti

Chet tillari fakulteti

Annotatsiya: Ushbu maqola Alisher Navoiy asarlaridagi til va nutq ,uning ahamiyati, odobi, inson hayotidagi o’rni haqidagi ma’lumotlar bilan tanishib chiqish imkoniyatini beradi. Shoirning “Mahbub ul qulub”,”Xamsa”,”Nazm ul-javohir” kabi asarlardan o’rin olgan til va nutqqa berilgan ta’riflari,ularni to’g’ri shakllantirish hamda foydalanish to’g’risida bir qator bilim va ko’nikmalarni bilib olishimiz mumkin.

Annotation: In this article, we have an opportunity to get acquainted with the information about the language and speech in the works of Alisher Navoi,its importance,etiquette,its place in human life. From the works of the poet “Xamsa”,”Mahbub ul qulub”,”Nazm ul-javohir” we can get knowledge and skills on the descriptions for language and speech,their correct formation and use.

Аннотация: В этой статье у нас есть возможность ознокомиться с информацией о язика и речи в произведениях Алишера Навои, их значения, этикете ,месте в жизни человека. Мы можем усвоить ряд знаний и умений о тарифах языка и речи,их правильном формировании и использовании в произведениях поета,таких как “Хамса”,”Махбуб уль Гулуб”.

Kalit so’z: Til, Nutq, Xamsa,Mahbubulqulub , Nazmul-javohir,Muhokamatul-lug’atayin,lisoniy

Key words: Language,Speech,Xamsa,Makhbub ul qulub,Nazm ul-javokhir,Muhokamat ul-lugatayin,linguistic

Ключевые слова: язык ,речь,Хамса Махбуб уль –Гулуб,Назм уль-Джавохир,Мухокамат уль Лугатайин,лингвистический.

Til- shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq nomaqul bolib chiqsa,tilning ofatidir.

Ma’lumki, inson o’z aqli, ongi, tafakkuri va dunyoni bilishi bilan boshqa mavjudotlardan farq qiladi. Qalbni uyg’otadigan, kishini fikrlashga undaydigan eng yaxshi vositalardan biri adabiyot ekanligi ko’pchilikka ma’lum albatta. Shu bois qo’liga qalam olib nimanidur yozishga oshiqayotgan har bir inson, ne chog’lik buyuk

ishga qo’l urayotganini o’ylab kormog’i joiz. Shu mulohazalardan kelib chiqib mumtoz adabiyotimizning muazzaam siymolaridan biri Xazrat Alisher Navoiyga yuzlanamiz. Xazrat Navoiy shunday shoirki, u adabiyotga shunchaki kirib kelmagan.Har bir so’zida olam olam ma’noni mujassamlashtirgan ul zot tilni nutqning quroli deya ta’riflagan. Ul zot o’zining “Mahbub ul qulub” asarida”Til-shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir.Agar nutq nomaqul bo’lib chiqsa tilning ofatidir” deya bejiz ta’kidlamagan.

Navoiy lisoniy qarashlaridan eng muhimlari tilning kelib chiqishi,ijtimoiy mohiyati va til tafakkuri hamda shakllari masalalaridur.Navoiy oz asarlarida nutqning inson hayotining bebaho vositasi ekanini takidlaydi”Mahbub ul qulub” asarida til odobi tog’risida fikr yuritilsa,”Muhokamat ul lugatayin”asarida tilning boyligi xususida so’z yuritiladi. “Nazm ul-javohir”asarida esa insonga umr davomiyligida hayotiy zarurat ekanligi haqida fikr boradi.Navoiy bu asarida tilni insonni hayvondan ajratib turadigan vosita ekanini alohida ta’kidlaydi.

So’zdurki ,nishon berur o’lukka jondin,
So’zdurki,berur jonga xabar jonondin.
Insonni so’z ayladi judo hayvondin,
Bilkim,guhari sharifroq yo’q ondin.

Navoiyning “Muhokamat ul lug’atayin” asarida so’zni bir durga o’xshatadi, durning makoni dengiz tubi bo’lganidek so’zning makonini ko’ngil deya ta’riflaydi.

Alisher Razzoqovning Navoiyga atab yozgan maqolasida Alisher Navoiy so’zlardan to’g’ri foydalangani haqida ularga nisbatan nozik munosabatda bo’lganligi to’g’risida ham tushunishimiz mumkin. Razzoqov Navoiyni so’z sa’nati borasida tug’ma daho ekanligini, buni Sayid Xasan Ardashga yozgan she’riy maktubidan bilib olishimiz mumkinligini aytib o’tgan.

Falak ko’rmadi men kibi nodire,
Nizomiy kibi nazm aro kodire,

Ne nazm der ersam meni dardnok,
Ki har harfi bolg’ay ani durri pok.
Etar Tengridin oncha quvvat manga,
Ki bolmas bitiriga fursat manga.

Qarang, shoir nima demoqda:

Alisher Navoiy asarlarida nutq odobining talablari haqida ham fikrlar bor:

1.*Dono dur so’zini afsona bil,So’zni jahon bahrida durdona bil*. [1,34]

2.Odam yaxshilig’i so’z bilan [2;72]

3.So’z zohir etar zamir ishi ko’pragidin, Til muxbir erur ko’ngul nihon emgagidin, Fahm ayla kishi holini so’z demagidin,Kim berdi xabar hadisi ko’ngildagidin. [3;41]

Darhaqiqat,Odam yaxshiligi so’z bilan.Ushbu misrani oladigan bo’lsak, shu oddiygina jumladan biz olam olam ma’noni tushunsak bo’ladi.Ya’ni,inson qachonki shirin so’z so’zlasa o’shandagina oqil va dono insonga aylanadi. Aksincha, tilidan yomon so’z chiqadigan insondan esa hamma qochishga harakat qiladi.Ana shunday hammaga ibrat bo’la oladigan fazilatlarni maromida ta’riflab yoza olgan zot ham albatta Navoiy bobomizdir. Zero,xalqimizda ham ana shunday ibratli maqollar ham bejiz aytilmagan.

1.Aytilgan gap,otilgan o’q.

2.Til-dil kaliti.

3.Shirin so’z bilan ilon inidan chiqar,yomon so’z bilan pichoq qinidan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, xulosa qilishimiz mumkinki,So’z bu inson ko’rkidur. Insonni inson qilib turadigan eng muhim omillardan biri ham aynan shu so’z hisoblanadi. Biz Navoiy asarlari bilan tanishib chiqish davomida shuni anglashimiz mumkinki, har bir narsani o’z qolipi ,o’z yo’nalishi bo’lganidek, tilimiz va nutqimizdan chiqayotgan har bir so’zimizni ham o’z qoidalari hamda tartiblari bor va bizni shu qoidalarga qanchalar to’g’ri va mos tarzda amal qilayotganimiz bizni qanday inson ekanligimizni tushunib yetish imkoniyatini yaratib berishini anglay oldik albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Alisher Navoiy “Xamsa” asari Ahmad Qurbonov 2017.T.

2.Alisher Navoiy “Mahbub ul qulub” Gofur Gulom 1983 .T.

3.Alisher Navoiy “Nazm ul-javohir” Ozbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.

ALISHER NAVOIYNING “LISON UT-TAYR” DOSTONIDAGI BIR HIKOYAT SHARHI

Yorbulova Dildora Shokir qizi

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti 2- kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Nodira Xoliqova Djurayeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning epik, falsafiy asari “Lison ut-tayr”, shuningdek undagi mazmuniy fikrni amalga oshiruvchi hikoyatlar haqida so‘z boradi va tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, ilohiy ishq, majoziy ishq, turkiy adabiyot, mumtoz adabiyot, XV asr, epik asar, doston, illyustrativ, hikoyat, komil inson.

O‘z vujudingga tafakkur aylagil,

Har ne istasang, o‘zingdin istagil.

Maoniy ahlining sultoni, chin ma’nodagi o‘zbek tilining asoschisi, ulug‘lar darchasiga yo‘l ochuvchi mavlono G‘iyosiddin o‘g‘li Mir Alisher Navoiydir. Mutafakkir din yulduzi, ulug‘ tasavvufshunos, buyuk shoir shu bilan birga, davlat va jamoat arbobi hamdir. Turkiy adabiyotni misli koinotga qiyos etsak, undagi to‘lin oy Alisher Navoiy demakdir! Fransuz shoiri M.Belen Navoiyga “ Alisher Navoiy zamonasining eng ulug‘ va eng mahsuldor shoirlaridandir” deya ta’rif beradi. Mutafakkirga o‘z samarali va misli ko‘rilmagan ijodiy faoliyati orqali jahon adabiyotida chuqur o‘rin egallaydi. Berilgan barcha ta’rif-u tasannolar hozirgi kungacha barchamizni lol qoldirmoqda. Alisher Navoiy o‘zbek mumtoz adabiyotini XV asrgacha bo‘lgan tarixiy taraqqiyotiga yakun yasab, uni yuksak pog‘onaga ko‘tardi.

Barchamizga ma’lum bo‘lganidek, Navoiyning epik asarlari shoir ijodiyotida o‘zgacha o‘rin egallaydi. Uning mashhur “Xamsa”si va “Lison ut-tayr” dostonini muayyan badiiy kashfiyotdir. “Navoiy dostonlarining yaratilishi adabiyotimiz tarixida butun bir davr – o‘zbek klassik epik poeziyaning kamolot davrini tashkil etadi. Chunki mazkur asarlarning maydonga kelishi tasodifiy bir hol bo‘lmay, balki qadimiy tarixga ega bo‘lgan o‘zbek dostonchiligi taraqqiyotining qonuniy hodisasi sifatida o‘zida o‘zbek epic poetikasining hamma muvaffaqiyatlarni mujassamlashtiradi”. Haqiqatan ham, Navoiy asarlarining ildizini qadimiy

dostonchilik bilan bog‘lash bejiz emas. Dostonlardagi majoziy ishq tasviri Navoiy asarlaridagi ilohiy ishqqa ko‘chgan(deyarli barcha mumtoz adabiyot vakillarida seziladi).

Dostonning jami hajmi 3598 bayt, 65ta hikoyatdan tashkil topgan. Hikoyatlar hajmi esa dostonning teng yarmini tashkil etadi (1800 bayt). Falsafiy-tasavvufiy dostonlar sarasiga kiruvchi “Lison ut-tayr” hikoyat ichida hikoyat usulida yozilgan. Doston muqaddimasi 13bobni tashkil etgan holda, hamd(Olloh madhi) va na’t(payg‘ambarlar madhi) bilan boshlanadi:

Kim haq ollinda toat qilmog‘an.

Kasbi oyini saodat qilmog‘an.

Bu saodatlarg‘a topqon dastras,

Urmag‘on Haq yodidin ayru nafas.

Doston voqealarni dalillash, ularga uslubiy yuk berish, shuningdek voqeyaviy xulosalashni kuchhaytirish maqsadida hikoyatlar keltirilgan. Ular hodisalarni mazmun ko‘lamini oshiradi. Ular mustaqil kompozitsiya va syujetga ega asarlar hisoblanadi. Sh.Sharipov dostondagi hikoyatlarni tematika jihatdan tasniflaydi:

1. Ijtimoiy-siyosiy va falsafiy mazmundagi hikoyatlar

2. Din va tasavvuf vakilari, ularning bazi muhim qarashlariga oid hikoyatlar.

3. Axloqiy-ta’limiy hikoyatlar.

4. Ishq-muhabbat mavzusidagi hikoyatlar.

Bun tasniflashga zid fikrlar ha yuzaga kelishu mumkin. Negaki, ma’lum bir hikoyat guruhlashning aynan bir turiga kirishi ham mushkullik kasb etadi. Misol uchun: “Podshohga ishqi tushgan gado” hikoyati.

Hikoyatda aytilishicha bir elning podshohi bo‘ladi. Shu elning fuqarosi bu podshohga ko‘ngli tushadi, uning ishqida kul bo‘adi. Podshoh visolini ko‘rishni, uning ishqida mubtalo bo‘lyotganini ta’kidlaydi. Bu holat barchaga ayon bo‘ladi, podshohning qulog‘iga ham yetib boradi. Buni eshitgan podshoh uni dargohiga chorlaydi va qatl etilishini ma’lum qiladi. Xabardan voqif bo‘lgan gadoning ichiga g‘ulg‘ula tushib, qochib qoladi. Podshoh esa uning ishqi haqiqiy emasligiga, agar haqiqiy bo‘lganda o‘limga ham tik borishligiga amin bo‘ladi. Podshohning maqsadi: agar gado chindan oshiq bo‘lib, o‘z ishqida qat’iy tursa, uni mukofatlab o‘ziga ulfat qilib olmoqchi edi.

Ammo gadoni ishqi soxta edi, shuning uchun ham uni holi rasvo bo‘ldi. Agarda u ishq yo‘lidagi aziyatlardan qo‘rqmasdann dadil harakat qilsa edi, uning yo‘li zafarli bo‘lar edi.

“ Qatl hukmi chun yetar qilsa qabul,
Shoh otdin ollida qilg‘ay nuzul
Uzr ila dilxohlig‘lar aylagay,
Holidin ogohlig‘lar aylagay.

Shahg‘a qilg‘ay sidq ila aro erdi dag‘al,
Ham musohib, ham nadimi xos oni.

Ul gado chunishq aro erdi dag‘al,
Bo‘ldi rasvoliqqa ahvoli masal.

Gar sanga ham yetsa gulda bir tikan,
Gulxan o‘lg‘ay maskaning, yo‘qkim chaman”

Rumiy aytganidek: “ Ishq azobi tortmagan yurak yo telbaning, yo murdaning yuragidir”.

Hikoyat so‘zlab turganidek ish-muhabbat mavzusidagi hikoyatlar sarasiga kiradi. Ishq – nafsni yengish quroli. Nafsini yenggan inson esa, komil inson

darajasiga erishadi. Komillik tasavvufga xos tushunchadir. Hikoyat to‘laligicha sufiylik, tasavvuf ustida qurilgan. “Tasavvuf favqulodda yuksak darajadagi yo‘l bo‘lib, kishini komil inson darajasiga kutaradi”. Hikoyatdagi podshoh – Olloh, gado esa borliqdagi bandalar ramzidir. Ular o‘rtasidagi ishq, ilohiy darajaga kutarilgan ishq emas.Haqiqiy ishq o‘zini unutib, o‘limga ham tik boqishdir. Demak, hikoyatlarning badiiy ko‘lami kuchli, shuning uchun ham ular birdan ortiq tasnifga mos keladi.

Hikoyatlar borliq, tarixiy jarayon, diniy muhit va falsafiylikka yug‘rilgan tarzda namoyon bo‘lgan.”Hikoyatlar dostondagi ayrim epizod, mulohaza yoki nazariy tezislarga illyustritiv sifatida, ularda ilgari surilgan mazmun va g‘oyani chuqurroq ochish uchu misol tariqasida keltirilgan”. Darhaqiqat, hikoyatlar doston g‘oyaviy maqsadi yana soddaroq anglatadi. Bertel’sning fikricha esa:” Tasavvufiy dostondagi kiritma hikoyatlar bu kabi bu kabi poetic dostonlarda Sanoiy davridan qo‘llanib kelinayotgan ramzli hikoyatlar, g‘oyat kata ahamiyatga ega. Ularning 12tasi forschada, qolgani esa yangilik Navoiyning original ijodidir”.

Xulosa qilib aytganda Navoiy o‘z ustoziga ergashgan holda badiiy kashfiyot sanalgan, falsafiy dostonini yaratadi. Bu esa o‘zbek adabiyotshunosligida o‘chmas iz qoldirdi. Dostondagi hikoyatlar, uning mazmun samaradorligini yuksak pog‘onaga olib chiqqan. Dostonning ilohiylik, falsafiylik kabi g‘oyalarini yetarli darajada ochib bergan.Ushbu hikoyatlar doston ichidagi xulosaviy voqeaband asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Rajabova .X “Lison ut- tayr” dostonida hikoyat va masallar. Nukus. 2014

2.Mamadaliyeva .Z “Lison ut-tayr” obrazlari: ramz va majoz olami.Toshkent.2021

3. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. T.: G‘afur G‘ulom, 2012

4.Djumayeva .E Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonidagi hikoyatlar. Nukus. 2015

5. E. Bertel’s Navoiy va Attor. T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2005

6. M.A. Jushon Tasavvuf va nafs tarbiyasi. T.:O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi, 2001

ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA SHIRIN OBRAZINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Ho’jamberdiyeva Dildora Rustam qizi

Chirchiq davlat pedagogika insituti

Gumanitar fanlar fakulteti o’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi 1-bosqish talabasi

Ilmiy rahbar:Qodirjon Abdurasulovich Mo’ydinov

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning ,,Xamsa”dostonlari tarkibiga kiruvchi ,,Farhod va Shirin”dostonidagi Shirin obrazining lingvokulturologik xususiyati ochib beriladi.Ayollar nutq madaniyligining alohida jihatlari Shirin obrazi orqali yoritib beriladi.Shirin obrazidagi mukammallik,qat’iyat uning nutqi yordamida ifodalanadi.

Kalit so’zlar:Alisher Navoiy, ,,Farhod va Shirin”dostoni,Shirin obrazi,lingvokulturologik xususiyat,nutq madaniyligi.

Аннотатция.В данной статье раскрываются лингвокультурологические оссобенности образа Ширин в эпосе Алишер Навои ,,Фарход и Ширин” входящем в состав в эпоса ,,Хамса”.Совершенство в образе сладострастия выражается через его речь.

Ключевые слово:Алишер Навои,эпос ,,Фарход и Ширин”,образ Ширина,лингвокультурологическая особенность,култура речи.

Annotation. This article reveals the lingvocultural features of the image of Shirin in Alisher Navoi’s epic ,,Farhod and Shirin”,which is part of the epic ,,KXamsa”.Special aspects of women’s speech culture are illuminated through the image of Shirin. The perfection in the image of Shirin is expressed through the determination of her speech.

Key words:Alisher Navoi, ,,Farhod and Shirin”epic,Shirin image,lingvoculturogical feature,speech culture.

Inson tamadduni boshlangandan to shu kungacha har bir xalq,millat,elatning nomini dunyoga tanitguvchi buyuk alloma zotlar yetishib chiqqan.Har bir buyuk zotlar nafaqat o’z xalqining balki butun jahon taraqqiyotining ustuniga aylangan desak mubolag’a bo’lmaydi.Shunday buyuk allomalardan biri,insoniyat tamaddunining ustunlaridan bo’lgan donishmand valiy zot Alisher Navoiydir.Alisher Navoiy insonparvarlik g’oyalarining targ’ibotchisi,madaniyat sarhadlarining

sarbonidir.Navoiyning hayot yo’li haqida ma’lumotlar olimlar tomonidan hozirgi kunga qadar o’rganilib tadqiq etilib kelinmoqda.Ijodiyotiga nazar tashlaydigan bo’lsak yozilgan asarlar soni mislsizdir.Navoiyning ham shoir.ham mutafakkir hamda podshoh maslahatchisi sifatidagi xizmatlari beqarordir.Navoiy yozgan asarlarga nazar tashlar ekanmiz,har bir asardagi har bir so’z chuqur ma’naviy mohiyatga ega ekanligiga guvohi bo’lamiz.Birgina ,,Xamsa” dostonlari to’plami tarkibiga kiruvchi ,,Farhod va Shirin” dostoni alohida ahamiyatga egadir.Ushbu maqolada ,,Farhod va Shirin” dostonidagi Shirin obrazi nutqining lingvokulturologik jihati ochib beriladi.

Asosiy qism.Dostondagi bosh obrazlardan biri bo’lgan Shirin obrazi o’zining har tomonlama mukammaligi bilan alohida e’tiborga molikdir.Ayollar lingvokulturologiyasining ba’zi xususiyatlari Shirin obrazi orqali ochib beriladi.Farhod bilan ilk uchrashuvlaridagi suhbatda Shirin Farhodga qarata:

,,Ki:Ey nodir yigit ofoq ichinda,

Yagona charxi nili toq ichinda!

Ayon holingdan ko’p-ko’p bul’ajabliq

Ajabdin ham ajab ranj-u taabliq.”-deyishida ayollarga xos murojaat shakllarining nozik qirralari namoyon etadi.Notanish bir yigitga qarata ey nodir yigit deb murojaat qilmoqlik Shirin obrazining so’z tanlash mahoratini ham namoyon etadi.Shirin Farhodga bo’lgan iltifotini ushbu so’zlari orqali ifodalaydi:

,,Bo’lur erduk husuli ichra ojiz,

Hunar emas,ko’lung ko’rguzdi mo’jiz’’.

Erkak jinsi vakillari bilan muomala qilishda nutq madaniyligiga alohida e’tibor qaratishlik joizdir.Zero ayol kishining iltifoti,mamnuniyati erkakni katta yutuqlarga yetaklashi mumkin.Ushbu xususiyat ham ayollar nutq madaniyligining mislsiz bir jihati bo’la oladi.Ayolning erkak jinsi vakillariga nisbatan qilgan murojaati va muomalasi har qaysi zamonlarda ham erkak kishining ruhiy holatiga katta ta’sir o’tkazib kelgan.Agar Farhod Shirinni ko’zguda ko’rib unga muhabbat qo’ygan bo’lsa u bilan suhbatda axloqiga ham oshiq bo’lib qolgani shubhasizdir.Zero ayol kishining tashqi go’zalligi ichki qalb go’zalligi bilan hamohang bo’lmas ekan,uning suratigina go’zal bo’lib qolaveradi.Suhbat jarayonida ayolning go’zallik xususiyatlarini go’zal muomalasi yanada ko’rkam qilishi tabiiydir.Muhtaram tilshunos olimimiz Siddiq

Mo’min,,So’zlashish san’ati” kitoblarida ayollar zukkoligi ham ularning nutqini beovchi xususiyat ekanligini ta’kidlab o’tganlar.

Xusravdan Shiringa sovchi kelgan paytda Mehinbonu bilan Shirinning suhbati fikrimizga yorqin dalildir.Mehinbonuga qarata Shirin:

,,Ki:Ey na’laying o’rni qiblagohim!

Harimi nazhating g’amdin panohim!

Necha yetgay senga malolmat,

Necha kelgay manga ondin hijolat’’

deya Mehinbonuga norozilik bildirishi ayol ko’ngliga og’ir botgan hislarni so’zlagan paytida ham fikrini to’g’ridan-to’g’ri aytmay turli so’zlar orqali yetkazishiga misol bo’la oladi.

,,Boshimg’a g’am tig’i sursang ne bo’lg’ay

Bu so’zni deguncha o’ltirsang ne bo’lg’ay-’’

degan so’zlarida bu xabarni eshitganidan o’limni afzal ko’rishligi anglashiladi.Ayollar nutq madaniyligida shunday bir holat mavjudki,noxush xabar yoki voqeani eshitgan zahotlari ko’gillariga yetgan ozor tufayli o’limga ham rozilik bildirib gapirishlaridir.Ayollar lingvokulturologiyasining muhim xususiyatlaridan yana biri o’z qat’iyatlarini nutqlarida namoyon eta bilishlaridir.Birgina Shirinning:

Manga ne yor-u ne oshiq havasdur,

Agar men odam bo’lsam ushbu basdur”

-deyishing o’ziyoq undagi qat’iyat ,mardlik sifatlarining namunasi bo’la oladi.Bu so’zlar Shirinning hayotdagi shiori, ayollik matlabining oliy namunasidir.

Xulosa.Shirin obrazi iyomon ko’zgusi sifatida dostonda gavdalantiriladi.Shirin vasf qilingan baytlar ham o’zgacha jozibaga ega.Shirin obrazini lingvokulturologik tahlil qilar ekanmiz,alohida e’tiborga molik jihatlaridan biri uning qat’iyati,jasurligi,ayollik sifatlari nutqida ham bevosita namoyon bo’layotganligidir.Xulosa sifatida Alisher Navoiy ijodidagi ayol obrazlar nutq madaniyligi o’rganilishi zarur bo’lgan manbalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.Sh.Usmonova ,,Lingvokulturologiya”darslik,Toshkent 2019.

2.Alisher Navoiy ,,Xamsa”dostoni www.ziyouz.com

3.S.Mo’minning ,,So’zlashish san’ati Farg’ona nashriyoti 1997.

4.Q.Mo’ydinov ,,O’zbek tili sud nutqi leksikasi” , ,,Nodirabegim”.Toshkent 2020

5.Q.Mo’ydinov (2021)Hukm so’zining til va nutqda ifodalanishi.Academic research in educational sciences,2(11),1253-1258.

NAVOIY ASARLARINING QORAQALPOQCHA TARJIMALARI TILINING MA’NO-STILISTIK XUSUSIYATLARI

Jangabaev Azizbek Turdibek o‘g‘li
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute

Annotatsiya: XV asrda yashagan o‘zbek xalqining sevimli farzandi, o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandasi, donishmand shoir Mir Alisher Navoiyning dunyo adabiyotida tutgan o‘rni buyukdir. Shoir asarlari bo‘yicha qoraqalpoq adabiyotshunoslari tarafidan bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Sharqda «Yetti yulduzning biri» deya ta’riflangan badiiy so‘z ustasining asarlari hali hanuz qoraqalpoq adabiyotshunoslari tarafidan o‘rganilmoqda. Mazkur maqolada biz shoirning qoraqalpoq tiliga tarjimalangan asarlarining tilini o‘rganib, sizning nazaringizga taqdim etayapmiz.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, qoraqalpoq adabiyoti, antonimlar, sinonimlar, metafora, sinekdoxa.

Аннотация: Любимый сын узбекского народа живший в XV веке, яркий представитель узбекской литературы, великий поэт, Мир Алишер Навои занимает огромное место в мировой литературе. Каракалпакскими литературоведами проведен ряд научных исследований над творчеством поэта. Описанный на Востоке как «Одна из семи звезд», до сих пор изучаются работы мастера художественной словесности. В этой статье представлено исследование языка произведений поэта, переведенных на каракалпакский язык.

Ключевые слова: Алишер Навои, каракалпакская литература, антонимы, синонимы, метафора, синекдоха.

Annotation: A beloved son of the Uzbek people that lived in the XV th century, a brilliant representative of the Uzbek literature, and a wise poet, Mir Alisher Navoi owns a great place in the world literature. A number of scientific studies have been conducted by Karakalpak literary scholars on the poet's works. In the East described

as "One of the Seven Stars", the works of the master of artistic expression are still being studied. This article presents the language study of the poet's works translated into Karakalpak.

Keywords: Alisher Navoi, Karakalpak literature, antonyms, synonyms, metaphor, synecdoche.

Asarlarini va o‘zining donishmandligi oldida butun dunyo ta’zim qilgan shoir Alisher Navoiydir. Uning asarlari dunyoning ko‘pchilik tillarga tarjima qilingan va ko‘pchilik mamlakat adabiyotshunoslari tarafidan chuqur o‘rganilgan.

Alisher Navoiy o‘zidan keyingi avlodlarga yigirma jilddan ortiq meros qoldirgan. U yigirma jilddan ortiq meros qoldirar ekan, shunga yarasha bir necha mamlakatlarda uning asarlarini o‘rganish keng turda qo‘lga olingan.

Alisher Navoiy haqida hozir Amerikada, G‘arbiy Yevropada, Turkiya va Afg‘onistonda bir qancha ilmiy asarlar yaratilgan [Мамбетов, 1991: 7]. Qoraqalpog‘istonda ham qoraqalpoq adabiyotida ham Alisher Navoiy va uning asarlari bo‘yicha bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va olib borilmoqda.

Qoraqalpoq adabiyotida shoir asarlari uning 500 yillik yubileyidan boshlab o‘rganila boshladi [Мамбетов, 1991: 34]. Nutq mexanizmi, biror leksema denotatining tashqi, zohiriy o‘xshashligi asosida boshqa ma’noni ifodalash uchun ishlatilishi orqali metafora hosil bo‘ladi. Bu badiiy tasvir vositasi orqali shoirning obrazlilikni kuchaytkanligini ko‘ramiz:

Kóńlim ishre ǵumsha–sadaq oǵı, gúl–tiken,

Dúnya baǵı ishinde bunday gúlistan tappadım [Nawayı, 2020: 16].

Hijran otı bir emes mıń márte órtedi meni–

Álem órtenedi qılsam bayan mıńnan birin [Nawayı, 2020: 17].

Íshqıń otına qurǵaq jismim otın,

Kewil juldız oǵan, ahım–tútin [Nawayı, 2020: 17].

Áy kóńil, tuwrı joldıń azabında quwırılma,

Júz bále keler bolsa–men hám bir bále boldım saǵan [Nawayı, 2020: 20].

Ashıqlıq–hásiret eken pitpes ómiriń boyıńa,

Nawayıday esigińde matawsız qul boldım saǵan [Nawayı, 2020: 20].

Kóńlime júz mánet jetkerdi hijran,

Janıma dárt oǵın qadadı hijran [Nawayı, 2020: 22].

Ayralıq sáhári ǵamǵa shattı meni,

Hijran kúni basıma júz bále saldı meniń [Nawayı, 2020: 23].

Shiyrin sóziń menen jawlap al eldi,

Kim pákize bolsa–sol elge jaqsı [Nawayı, 2020: 24].

Bu misollardagi «ǵumsha–sadaq oǵı, gúl–tiken», «hijran otı», «ahım–tútin», «bále boldım», «ashıqlıq–hásiret eken», «dárt oǵın», «ayralıq sáhári», «shiyrin sóziń» so‘zlari metaforaga yaqqol misol bo‘la oladi. Bu metaforalar bilan, birinchidan, shoirning metaforalardan yaxshi foydalanganligini isbotlasa, ikkinchidan, tarjimonning o‘ziga xos mohiyatini ko‘rsatadi.

Alisher Navoiyning asarlarida butun haqidagi tushuncha bo‘lak tushunchasi orqali va, aksincha, bo‘lak tushunchasi butun tushunchasi orqali ifoda etilgan so‘zlar [Пинхасов, 1969: 15], yani sinekdoxalar ham uchrashadi.

Iyegiń-meńiń kórkem, buǵaǵıń kórkem,

Ayta bersem bastan-ayaǵıń kórkem [Nawayı, 2020: 21].

Bu misoldagi «bastan-ayaǵıń» so‘zi orqali shoir umuman insonni nazarda tutgan.

Azap qasqırı qıynar. Oǵan qan kerek ıssı,

Sen áne usı qusaǵan sıyıńdı et ol nigarǵa [Nawayı, 2020: 35].

Bu yerda «qan» so‘zi orqali bo‘rining o‘ljasini ifodalagan.

Shuningdek, sinekdoxalar ko‘plik son birlik son orqali, birlik son esa ko‘plik son bilan bildiriladi [Пинхасов, 1969: 15]. Masalan:

Áy Nawayı, xabarlı bol xalıqtan, meniń bolsa,

Keshti ómirim gáplet penen nadanlıqta, wah [Nawayı, 2020: 20].

Kúndiz jurttan jaqsı sózdi esitpes,

Túnde oǵan pana tabılmaydı oǵan hesh [Nawayı, 2020: 73].

Keltirilgan misollardagi «xalıq», «jurt» so‘zlari orqali mamlakatta yashaydigan odamlarni, aholini birlik ma’noda ifodalagan.

Navoiy asarlari tilining leksika-semantik jihatlari uning sinonimlardan ko‘p foydalanganligida ko‘rinadi. Navoiy va uning asarlarini tarjimalagan tarjimon sinonimlardan foydalanar ekan, fikrni bir so‘z bilan qaytalay bermasdan, uning boshqa ma’nodosh so‘zlar bilan berishi, asarni badiiy jihatdan yaxshi yoritib beradi. Masalan:

Jarlı–kámbaǵal:

Jarlınıń balası kiyatır jolda,

Bilim alsam eken degen maqset bar onda [Nawayı, 2020: 71].

Shadban biraq usıǵan-aq. Kámbaǵalda jetpey me sol,

Mezgilinde bos qaldırmay tamaq ber berman, neterseń [Nawayı, 2020: 28].

Watan–el:

Dógerektiń bári oǵan jat: «Sende–

Watan, el bar ma?» dep qızıqpas bende [Nawayı, 2020: 72].

Ǵárip–biyshara:

Ǵárip shadlı bolmas ǵayrı ellerde–

Jat el óz elińdey mehir bermeydi [Nawayı, 2020: 22].

Dúnyada joq jáne bir biyshara mendey,

Bunshelli óz halına sergizdan mendey [Nawayı, 2020: 22].

Pálek–dúnya:

Pálek maǵan hijran qanjarın tarttı bul tún,

Qoymadı bir zárre bawırımdı pútin [Nawayı, 2020: 24].

Dúnya uyatsızǵa dáreje berer,

Xalıqta jılay-sıqlay kún keshe berer [Nawayı, 2020: 70].

Bunday leksik sinonimlar shoir asarlarida ko‘plab uchrashadi. Shoir leksik sinonimlar bilan bir qatorda kontekstlik sinonimlardan ham foydalangan. Masalan, uning:

Ǵıybatı sırtıńnan bolǵan doslardan,

Aldıńnan oq atqan biytanıs artıq.

Eki júzli satqın biradarlardan,

Basıńdı alaman degen jaw artıq [Nawayı, 2020: 21], degan qit’asining birinchi qatori bilan uchinchi qatori, ikkinchi qatori bilan to‘rtinchi qatori kontekstlik jihatdan sinonimlardir.

Alisher Navoiy asarlarini yozar ekan, muhabbat mavzusi uning asarlarining asosiy bir bo‘lagi bo‘ldi. U o‘zining suyikli yoriga bag‘ishlab ko‘plab satrlar yozadi.

Asarlarida o‘z yorini, jamiki qiz obrazini yasashda quyidagi sinonimlardan foydalangan:

1. Gúl iysi baǵ ishinde, ol sahibjamal keldi me [Nawayı, 2020: 13].

2. Rawshan turqlı dilbar meniń janımdı aldı. Kórdim [Nawayı, 2020: 27].

3. Qalay sánem meni erteń kóredi [Nawayı, 2020: 18].

4. Qay periniń zulımınan delbe bolǵanda ne–

Áy periyzat, jismi-janım tayar qıldım saǵan [Nawayı, 2020: 20].

5. Bir gúldiń dártinde ahıw-zar edim [Nawayı, 2020: 22].

6. Sózsiz jan almaq ushın jaralǵan nigar, kózleriń [Nawayı, 2020: 62].

7. Nawayı yardan ráhim kúter. Onıń ya aqılı joq [Nawayı, 2020: 64].

8. Ótti názálim qasımnan bir sóz benen bende qılıp [Nawayı, 2020: 70].

9. Aytpa gózzal gúlge jaqın tur dep. Qáddi-boyıń [Nawayı, 2020: 65].

10. Jetker dep ay júzlige, qushaq jayıp [Nawayı, 2020: 68].

11. Áy tań samalı, halımdı dilaramıma ayt,

Zulpı súmbil, júzi gúl, sáwri gúlandamıma ayt [Nawayı, 2020: 10].

12. Aytıń, meni áwere-sarsań qılǵan janan keldi me [Nawayı, 2020: 13].

Bu misollar shoirni sinonimlardan mohirlik bilan foydalanganini ko‘rsatadi. Boshqa tarafdan shoir orqali o‘zbek tilining boyligini, tarjimon tarafdan qoraqalpoq tilida so‘zlarning boyligini dalillaydi.

Navoiyning tilida ma’nolari biri-biriga zit bo‘lgan antonim so‘zlar uchrashadi:

Jaqsılıq qolıńnan kelmese–jamanlıq ta qılma [Nawayı, 2020: 26].

Onıń usı adamlarǵa jamanlıq etpey júrgenin,

Jaqsılıqtan kem kórmeń, sonıń ózi úlken nárse [Nawayı, 2020: 77].

Aqıllıq penen sóyle, óz maqsetińe jeterseń,

Sonda ata dushpanıńdı da ózińe dos eterseń [Nawayı, 2020: 77].

Bunday leksik jihatdan antonim bo‘ladigan so‘zlar bilan bir qatorda sinonimlar kabi kontekstlik antonimlar ham uchrashadi:

Kimniń atı shıqsa jumsaq sózinen–

Dushpanı dos bolıp janına keler,

Qattı sóz batadı eldiń kóńline,

Jıllı sózge qurban bolar kóńiller [Nawayı, 2020: 24].

Bu yerdagi «qattı» va «jıllı» so‘zlari yakka o‘zi turganda antonim bo‘lmagani bilan ham, ushbu qatorlarda kontekstlik jihatdan antonim bo‘lib turibdi.

Shoirning qoraqalpoq tiliga tarjimalangan asarlari tilida xalqning tarixiy rivojlanishining ayrim bosqichlarida keng qo‘llanilgandan so‘ng qo‘llanilishi pasaygan so‘zlar ham belgili mug‘dorda uchrashadi [Абдиназимов, 2006: 214]. Qoraqalpoq va o‘zbek tillarida bunday so‘zlar arxaizmlar va istorizmlar (tarixiy so‘zlar) bo‘lib ajraladi. Navoiy asarlari tilidagi bunday so‘zlarni ushbu ikki guruhga ajratgan holda o‘rgansak ma’qul bo‘ladi:

a) Arxaizmlar. Ayrim vaqtlarda narsalar muomalada bo‘lgani holda, ular yangi nom oladi. Arxaik so‘zlar orqali ifodalangan predmetlar mavjud bo‘ladi, biroq u predmetlar avvalgi nomlari (eskirgan so‘zlari) bilan emas, balki yangi so‘zlar, ya’ni ekvivalentlari bilan ifodalandi [Пинхасов, 1969: 42]. Shoir asarlaridagi ayrim arxaizmlar:

Qansırap tursada qanjarday mısal,

Patsha oǵan altın kámar buwǵızar [Nawayı, 2020: 76].

Men qızıl gúl ústine jawarman kúni-tún bult bolıp,

Seniń kárińeki kózden kóz jas tógiw bárhá. Umıt [Nawayı, 2020: 69].

Arzıwlım meni tárk etti, barlıǵı árman, neterseń,

Janım ushın mende tán qazıwlı zindan, neterseń [Nawayı, 2020: 27].

Bu misollardagi «kámar», «kár», «zindan» so‘zlari qoraqalpoq tilida arxaizmlardir. Bu so‘zlarning o‘rniga hozirgi qoraqalpoq adabiy tilida «qayıs, belbew», «kásip», «qamaqxana» so‘zlari ishlatiladi.

b) Tarixiy so‘zlar. Bu toifadagi so‘zlar asosan asar yozilgan zamon kaloritini ko‘rsatadi.

«Taxtqa mindim, patshaman, men shıqtım deme joqarı»,

Báribir arı ketpeydi bende qudaydan. Bolǵanı [Nawayı, 2020: 63].

Ádil patsha áwele oylaydı xalqınıń ǵamın,

Xalıqtıń sen padashısısań sonday mal jayǵan. Bolǵan [Nawayı, 2020: 63].

Qúdiretli Hafız sestiniń, máyli, qulı bol, Nawayı,

Xalıq ushın qul bolıwdan bas tartpaǵan edi Hafız [Nawayı, 2020: 29].

Qasıń - káman, kóziń - qara ekenin aytıw kerek pe,

Hárbiriniń kóńlime bále ekenin aytıw kerek pe [Nawayı, 2020: 11].

Sebep lalı hásiretinen qan jutarman dembe-dem,

Áysh-bázimde áline gúlgin sharap tutqanıma ayt [Nawayı, 2020: 10].

Butxanamda hirqamdı girewge almaydı, áy shayx,

Máy uzatpas, eger ózimdi girewge qoymasam [Nawayı, 2020: 12].

Bu misollardagi «patsha» so‘zi mamalakat boschisi, «taxt» so‘zi mamlakat boschisining saltanatli mahalda o‘tiradigan o‘rindig‘i, hokimlikka egalik belgisi, «qul» so‘zi barcha huhuqlaridan ayrilgan, qul egalarining mulki, «káman» so‘zi o‘q etish quroli, «sharap» va «máy» so‘zlari ichimlik ma’nolarini bildiradi. Bu so‘zlarning barchasi kundalikli hayotda qo‘llanilishdan chiqib qolgan.

Shoirning asarlarida ishlatilgan bunday eskirgan so‘zlar davr kartinasini, shu davrlardagi xalqning ijtimoiy iqtisodiy turmushi, kun ko‘rishi, diniy e’tiqodi, mehnat qurollari haqida katta ma’lumot beruvchi leksik qatlam bo‘lib hisoblanadi [Абдиназимов, 2006: 218].

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning qoraqalpoq tiliga tarjimalangan asarlarida qo‘llanilgan so‘zlarning ma’no-stilistik xususiyatlari qoraqalpoq tilida ham o‘zbek tilida ham ahamiyatga ega mavzulardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдиназимов Ш. Бердақ шығармаларының тили. -Тошкент, «Фан», 2006.

2. Мамбетов К. Наўайы ҳәм қарақалпақ әдебияты. -Нөкис, «Қарақалпақстан», 1991.

3. Пинхасов Я. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва фразеология. -Тошкент, «Ўқитувчи», 1969.

4. Áliyshe’r Nawayı. Ǵázzeller. -Nókis, «Qaraqalpaqstan», 2020.

FAMILY AND CHILD EDUCATION ISSUES IN ALISHER NAVOI SPIRITUAL HERITAGE

Tagoyeva Dilnavoz Narzikulovna
Lecturer at the Pedagogical Institute of Bukhara State University

Annotation: This article philosophically explains Alisher Navoi's views on family and child rearing in his didactic works.
Keywords: Alisher Navoi, Farhod and Shirin, Bahrom, Mehinbonu, manners, ethics, upbringing, enlightenment.
Annotatsiya: Bu maqolada Alisher Navoiyning didaktik asarlarida oila va bola tarbiyasi haqidagi qarashlari falsafiy jihatdan tahlil qilingan.
Kalit so’zlar: Alisher Navoiy, Farhod va Shirin, Shoh Bahrom, Mehinbonu, oila, odob, axloq, ma’rifat.
Аннотатция: Данная статья представляет собой философский анализ взглядов Алишера Навои на семью и воспитание детей в его дидактических произведениях.
Ключевые слова: Алишер Навои, Фарход и Ширин, Шах Бахром, Мехинбону, семья, этикет, нравственность, просвещение.

There is a wise saying among our people: "Education begins with the cradle." Only enlightenment can lead a person to perfection and society to progress. For this reason, the state policy in the field of education in our country is based on the principle of a system of continuous education, which fully supports the child from birth to the age of 30, helps him to find a worthy place in life, integrated and it is not in vain that efforts are being made to create a continuous system.

We have set as our main goal the creation of a new period of revival in Uzbekistan, the Third Renaissance, through large-scale democratic changes, including educational reforms.

Mirziyoyev said, "It is a great honor for all of us that our wise people were among the most advanced and developed nations in the world during both Renaissances."

Didactic works dedicated to human perfection and rich in teachings have been created by Eastern thinkers. Akhlaqi Muhsiniy is one of them. In the work "Mahbub-ul Qulub", created in accordance with this tradition, Navoi reflected the qualities of a harmoniously developed man of his time. Every rebuke, verse, or continent in Mahbub ul-Qulub rises to the level of the wisdom of life, which is based on the content of proverbs and sayings that the people have accumulated over the centuries of life.

He reveals the essence of the volitional qualities that depend on a person's state of mind, such as contentment, patience, decency and love. He spoke about the morals of people from 39 different social groups: the book who devoted their entire lives to the mysteries of theology, the astrologers who devoted their energies to discovering the mysteries of heaven, the people who sacrificed their lives for love. described reputable individuals and scholars. But he did not consider one group superior to another.

From an early age, he was a man of science, poetry and poetry. Navoi's childhood can also be an ehample for today's youth. He was distinguished among his contemporaries by the predominance of the ability to express himself very fluently in Turkish and Persian and understandable to all. When the historian Mirkhand began to write his work "Ravzat us safo", Navoi advised him to "make your work understandable to both the king and the beggar." justified. Part II of the book, "

Satisfied, I can't seem to get enough water.

A contented person is open-minded, clear-eyed, and respectable. Everyone has a ratio of contentment, All people have the honor of humility, The great greed has a sense of lust, The good and the bad have a sense of humor. The highest human virtue that gives strength to contentment is patience. Patience leads a person to the goal.

Part III of the book "The image of Mutafarrika favoyid and amsol" is based on the essence of the moral qualities of happiness, selfishness, arrogance, benevolence,

mercy, eloquence, ignorance and other qualities found in human nature. - The reprimand reads:

Step and mercy are father and mother, fidelity and modesty are two noble children. Although the light of the two is bright. By ikovga ittisol bila grafting is in every heart, fidelity, modesty, and in every dwelling, it is found, it is also found. There is no shame in unfaithfulness, there is no fidelity in shamelessness. No one has faith without these two, and no one has faith without faith. believed that a person who has faith should have all the higher qualities.

In his philosophy, Navoi did not limit himself to showing the ideal, but further developed his ideas, expressing the formation of personality traits and moral qualities through education. He explained that human behavior is not formed by itself, but is formed on the basis of certain moral rules in a community of certain people in society.

Navoi's worldview is based on genuine humanitarian ideas. Although Navoi was not a schoolteacher or teacher, he did a great deal of work in education and upbringing. He raised a lot of good people. Well-known historian Khandamir Navoi wrote about the opportunities created for the education and upbringing of young people: He not only appointed teachers, but also built madrassas so that students could study only.

Navoi helped the creators of various branches of science, including literature, history, linguistics: music, painting, calligraphy, architecture, etc., in various fields of art.Gave valuable advice and encouraged them. Navoi was an ehample to scientists, writers and students of his time in the creation of scientific and literary works. Almost all of his works have an educational value. The poet's five-epic masterpiece "KXamsa" covers all aspects of human perfection.

His first epic, Hayratul Abror, is a philosophical work that glorifies truth, trust, kindness, love and friendship. It contains relevant moral, educational, and social philosophical ideas for the period described. Justice, kindness, generosity, decency, humility, contentment, honesty, love, honesty, friendship, mutual assistance and other wonderful qualities, the role of the ordinary worker in society. There are separate stories in the description of these noble qualities. In the epic "Faxod and Shirin", the

artist not only describes the main theme of love, but also pays special attention to the exemplary expression of human qualities.

The protagonist of the work, Farhod, is a well-rounded man, intelligent, intelligent, invincible hero, loyal friend, hardworking, knowledgeable and humble young man who deserves the respect of the people. In the image of Navoi Shopur, he shows the great power of friendship. Having studied more than four years of science and professions, several languages, Farhod used his knowledge and profession for the benefit of the country.

The people are trying to use it for their own benefit, opening a canal under the sun the suffering people extend a helping hand.

Mexinbonu and Shirin are the epitome of highly cultured, moral, pure-hearted, chaste, patriotic and intelligent women. In general, all the positive characters in the epic are honest, pure-minded, real people. In the epic, Navoi also depicts the moral ugliness, injustice and cruelty of the wicked, and hates oppression and injustice, deception and fraud. "Layli and Majnun" is praised for sincere love, intelligence, loyalty and perseverance. Qays-Majnun is a poet, a philosopher, a person with positive qualities. Lily is a loyal, intelligent and pure-hearted girl. The story depicts the sorrows of the adventures of two young people who truly loved each other, and the injustices of that time.

The ninth epic included in "KXamsa" "Sab'ai Sayyar" is based on the legend of King Bahrom, popular among the peoples of the East. From the above ehamples, it is clear that Navoi's work of educating the younger generation is a coincidence

condemned the handing over to the man. He set the highest standards for the teacher. (Bringing up and educating a child is great for developing his abilities

who must be an educated and skilled educator who educates children

teachers have taught young people that they need to have the skills to teach science and etiquette, to know the ways of teaching well.

In the current period of independence, we need to deeply teach the younger generation the heritage of our great ancestor Navoi. In his works, he promoted the ideas of national pride, love for the people, the mother tongue and the motherland.

With great perseverance and perseverance, young thinkers grow up to be loyal to their country, their parents, and human beings.

Encouraged them to acquire knowledge, to learn a profession, to be able to apply their knowledge and profession in life for the benefit of the country and the people.

In the works of Navoi praised friendship of peoples, struggle for peace, humility, kindness, generosity, sweetness, generosity, helping the widow, always being a teacher gives our people a refreshing spirit and strength.

Apparently, this play tells how a person reaches the level of perfection and what qualities a person should be free of in this way and what good qualities he should have instead. The play contains a lot of advice on science and its acquisition. As discussed below, there are many ehamples of what an official should look like. enriched

References

[1] Sh.Mirziyoev. New Uzbekistan strategy.Tashkent.Uzbekistan.B.-225.

[2] Masharipova Z. "Folk proverbs in the wisdom of Mahbub ul-qulub". // A gift to Navoi. Book 5. Tashkent. 2006.78-bet.

SO’Z MULKINING SULTONI NIZOMIDDIN MIR ALISHERNING DAVLATCHILIK TARIXIGA OID QARASHLARINING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI

Ibragimova Diyora Islomjon qizi,
Toshkent Pediatriya tibbiyot institute

Annotatsiya: Buyuk shoir Alisher Navoiy milliy davlatchilikni shakllanishida davlat rahbarining vazifalari haqida o‘ta aniq tasavvurga ega bo‘lgan yetuk siyosat arbobi edi.Bugungi kunda rivojlangan ilg’or davlatlar qatoriga kirish uchun harakat qilayotgan davlatimiz o’z taraqqiyot yo’lini tanlab olishda ulug’ bobokalonimiz tomonidan yaratilgan boy tarixiy merosni o’rganib amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zero, ulug’ mutafakkir tomonidan yaratilgan asarlardagi falsafiy qarashlar bugungi kunda ham o’z ahamiuyatini yo’qotgani yo’q.

Abstract: The great poet Alisher Navoi was a leading politician who had a very clear idea of the role of the head of state in the development of national statehood. It is advisable to study and implement the rich historical heritage created by our ancestors. After all, philosophical views in the work of the great thinker have not lost their relevance today.

Аннотация: Великий поэт Алишер Навои был ведущим политиком, имевшим очень четкое представление о роли главы государства в становлении национальной государственности.Целесообразно изучать и претворять в жизнь богатое историческое наследие, созданное нашим предки. Ведь философские воззрения в творчестве великого мыслителя не утратили своей актуальности и сегодня.

Kalit so’zlar: Davlatchillikning shakillanishi, komil inson, odillik, adolatli shoh, bunyodkorlik ishlari, siyosiy qarashlar;

Key words: Formation of statehood, perfect man, justice, just king, creativity, political views;

Ключевые слова: Становление государственности, совершенный человек, справедливость, справедливый царь, творчество, политические взгляды;

> «Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir».
>
> (Islom Karimov)

G’azal mulkining sultoni Mir Alisher Navoiyning buyukligi nafaqat adabiyot rivojidagi ulkan xizmatlari bilangina belgilanib qolmay balki uning davlat ishlarini amalga oshirishdagi ijtimoiy-siyosiy amallari bilan tarixida o’chmas iz qoldirgan. Buyuk adib va mutafakkirlarimizning nodir merosi, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini har tomonlama chuqur o’rganish va targ’ib etish, yoshlarimizni o’zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash lozim.[30] Navoiy uzoq yillar Husayn Boyqaro saltanatida yuqori lavozimlarda ishlab, o‘zi ham siyosat va boshqaruv ishlarida chuqur tajriba orttirdi, ko‘p hollarda zulm va bedodliklarning oldini olishga muyassar bo‘ldi va bu bilan davlat rivojiga o’zining beqiyos hissasini qo’shdi. Navoiyning amaliy harakatlari natijasida Husayn Boyqaro podsholigida barqarorlik hukm surib, ilm-fan, madaniyat va adabiyot rivojlandi, obodonchilik yuzaga keldi. U idealidagi har tomonlama mukammal davlatni Husayn Boyqaro timsolida ko’radi va sultonga davlatni boshqarishda qo’lidan kelgunicha yordam berishga harakat qiladi. U o‘z davridagi nohaqlikka, adolatsizlikka qarshi kurashdi, amaldorlarning o‘z vazifalarini suiiste’mol qilishlarini va ta’magirliklarini fosh etdi. Ojiz va muhtoj kishilarni o‘z himoyasiga oldi. Lekin Alisher Navoiyni odil

[30] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.”Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlar ijodiy merosini keng o’rganish va targ’ib qilish maqsadida yoshlar o’rtasida kitobxonlik tanlovini tashkil etish to’g’risida”gi qarori, Toshkent2018-yil 12-may.

shoh haqidagi qarashlari nazariya ko’rinishida qolib ketdi.

Navoiyning «Xamsa», «Mahbub ul qulub» va boshqa asarlarida adolat va adolatsizlik o`rtasidagi jiddiy kurash sabablari va oqibatlari tahlil etiladi. Iskandar obrazi Navoiyni orzusi uning ijtimoiy idealidir. Bu g’oyalarni amalga oshirmoq uchun eng muhim podsho bilan xalq o`rtasida adolatli munosabatlarni o`rnatilishidir. Navoiy bunday adolatli davlatni real hayotda uchrata olmaganligi natijasida o’z qarashlarini asarlarida ko’rsatib berishga harakat qiladi. Misol uchun, Aleksandr Makedonskiy tarixda adolatli shoh sifatida o’rin egallanmagan. Lekin asrdagi shoh Iskandar adolatli shoh sifatida ko’rsatib o’tilgan. Navoiy zolim, adolatsizlik shohlarga qarshi kurashning ma‘rifatli shoh Iskandar orqali amalga oshirilishini istaydi. Davlat va qonun asosiy rahbar kuch deb biladi. Navoiy davlat tarixiga oid asarlar yozgan mutafakkir uning "Tarixi mulki Ajam", "Tarixi anbiyo va hukamo" asarlari Ajam (arablar Turon va Erondagi davlatni ya`ni arabdan tashqaridagi davlatni "Ajam" deganlar) davlatni to`rtta sulolaga (tabaqaga) bo`ladi va uni bundan to`rt ming yil avval tashkil topgani to`g`risidagi ma`lumotlarni bergan. U davlat so`zini "mulk" atamasi bilan almashtiradi. Asarda qadimgi Ajamda 65 tadan ortiq shohlarning nomlari keltirilgan. Ularning ishlariga baho beriladi. eng birinchi shoh Kayumars edi deya yozgan.

Alisher Navoiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari kishilarda vatanparvarlik, o’zlikni anglash, odamiylik, nafsni tiyish, sabr-bardoshli va yetuk inson bo’lib yetishish kabi fazilatlarni o’zida mujassamlashgan. O’sha davrda din davlat boshqaruvining ajralmas qismi sifatida din ulamolarining davlatni boshqarishda o’rni juda katta edi. Ayrim hollarda dindan o’z manfaati yo’lida foydalanuvchi din peshvolariga qarshi chiqdi. Alisher Navoiy soxta dindorlik , botiniy olamga qaramay, zohiriy rasm–rusumlarni bajarish bilan kerilish , riyokorlik, shafqatsizlikni qoralaydi. Shu zaminda Navoiyning butun ijodi aqidaparastlik va jaholatni rad etadi. Dinning faqat ezgulik yo’lida xizmat qilishi lozimligini alohida ta’kidlagan va shunga chaqirgan. Shuning barobarida bu masala g’oyaviy tarbiyaviy ahamiyatga ega

bo’lgan eng muhim jihatlardan biridir. Alisher Navoiy “Xamsa”ga kirgan dostonlarida, ayniqsa, “Saddi Iskandariy”, “Sab’ai Sayyor”, “Farhod va Shirin”da insonlarni baxt-saodatga eltuvchi, mamlakatni ravnaq toptiruvchi, xalqi farovon yashovchi, jabr-zulm, adolatsizlik, zo’ravonlik, haqsizlikdan xoli bo’lgan mukammal jamiyat va adolatli, har tomonlama komil podshoh timsolini tasvirlaydi. Barkamol insonga xos fazilatlar Alisher Navoiyning mashhur qahramoni Farhod timsolida komil inson obrazini yaratishga harakat qiladi. Farhodning fe’l-atvori, yurish-turishida, faoliyatida, fozil insonga xos fazilatlarning barchasi mujassam edi. Ayniqsa ilm-u hunar o’rganishga chanqoqlik, halol mehnat qilish, axloqiy poklik Farhod shaxsini yanada ulug’laydi, shuning uchun ham el-yurt Farhodni e’zozlaydi. Ulug’ mutafakkir odil podshohni komil insonlar sirasiga kiritar ekan agar u odil yo’lidan borsa mamlakat obod bo’lishini, xalqning turmushi yaxshilanishini, farovonlik, mo’l-ko’lchilik bo’lishini ta’kidlaydi.[31] Adolat g‘oyasi Alisher Navoiyning har bir asarlarida o’z tasdiqini topgan. Misol uchun uning ko’pgina asarlarida podsho uchun “bir soatlik adolatli bo‘lish oltmish soatlik ibodatdan ustun” degan Payg‘ambar hadisi tez-tez takrorlanib keladi. Adolat qilish, birinchi galda, o‘rtada turib, haq va nohaqni ajratish, gunohkor, zolimni jazolash, mazlum odamni himoya qilishdir. Shoh agar yaxshi-yomonga birdek munosabatda bo‘lsa, bu odillik emas, balki zolimning tarafini olishdir.[32] Demak, adolat mamlakat osoyishtaligi, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, davlat rivojining garovidir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, birinchidan, Alisher Navoiy har tomonlama yetuk odil podshoh va komil inson tushunchalarining o’zaro uyg’unligini asarlari orqali targ’ib qildi. Ikkinchidan, Alisher Navoiy kuchli markazlashgan davlatni, fuqarolik jamiyatni tasvirlashga harakat qildi. Bunday davlat tuzumini qo’llashga harakat qiladi. Bu yo’lda ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirdi. Uchinchidan, Navoiy o’z qarashlarida mukammal davlat va odil shohning xayoliy obrazini “Hiloliya”, “Hayratul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Sab’ai Sayyor”, “Saddi

[31] Alishe’r Navoiy. Mukammal asarlar to’plami. 11 -tom. Xamsa. Saddi Iskandariy. T.:“Fan”, 2002

[32] Qayumov A. Alishe’r Navoiy (Mashhur siymolar hayoti). –T.:Kamalak,1991.

Iskandariy” kabi dostonlarida yaratibgina qolmasdan, o’sha davrdagi hukmdorlarni tinchlikni saqlashga xalq dardi bilan yashashga da’vat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 Karimov I.A.Yuksak ma’naviyat ─ yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat,2008.
2 Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami. 11 -tom. Xamsa. Saddi Iskandariy. T.:“Fan”, 2002
3 Qayumov A. Alisher Navoiy (Mashhur siymolar hayoti). –T.:Kamalak,1991.

SHARQ MUMTOZ ADABIYOTI VA NAVOIY IJODIDA QUR’ON OYATLARINING O‘RNI

Karimov Diyorbek Toshtemir o`g`li
Buxoro davlat universitetining pedagogika institute

ANNOTATSIYA: Hazrat Navoiy sharq mumtoz adabiyoti va Navoiy ijodida qur’on oyatlarining o’rni, undagi ma’naviy san’atlarning qo‘llanishi, ulardan ayrimlarini o‘rganish, misollar yordamida ochib berish, ularni bevosita tahlil etish, badiiy san’atlarda shoir mahoratini yoritish.

Kalit so’zlar: Qur’on Karim, Islom dini, Noarab, Turkiy, Fors, Arab, Mir Nizomiddin, Oyat, Tarixi anbiyo va hukamo, Alouddin Mansur.

АННОТАЦИЯ: Роль коранических стихов в классической литературе Восточного Навои и произведения Навои, использование в них духовных искусств, изучение некоторых из них, их использование на примерах, их непосредственный анализ, освещение мастерства поэта в искусстве.

Ключевые слова: Коран, Ислам, Ноараб, Турецкий, Персидский, Арабский, Мир Низамиддин, Аят, Исторический пророк и правитель, Алауддин Мансур.

ABSTRACT: The role of Quranic verses in the classical literature of Eastern Navoi and the works of Navoi, the use of spiritual arts in them, the study of some of them, their use by ehamples, their direct analysis, the coverage of the poet's skill in art.

Key words: Quran, Islam, Noarab, Turkish, Persian, Arabic, Mir Nizamiddin, Ayat, Historical prophet and ruler, Alauddin Mansur.

Islom madaniyatining Makkasi va barcha mustaslam xalqlarning nurafshon ramzi Qur’oni Karim o‘zining 14 asrlik tarixi davomida qanchadan qancha mamalakatlar va allomalar taqdirida tutgan o‘rni, badiiy ta’sir sarchashmalari va nufuzi tufayli chuqur ilmiy diniy taxhil va tadqiqotlarga sazovordir. Qur’on mavzulari Islom dinini qabul etgan xalqlar adabiyotiga singib, mahalliy diniy va

adabiy aqida-yu an’analar bilan uzviy ravishda bog‘lanadi. Islom dini va mahalliy urfodatlar to‘qimasi asosida o‘zbek adabiyoti ilmining shoh asarlari yaratildi.

Qur’oniy mavzularning jahon va alalxusus o‘zbek adabiyotiga singib o‘tishi faqat diniy nuqtai nazardangina ibratli bo‘lib qolmay, balki, Sharq adabiyotining biz uchun mavhum qirralarini biz uchun oydinlashtirib, turli adabiy mavzularning sarchashmalarini ochgan va hozirgi zamon o‘zbek adabiyotining islom adabiyoti shajaraviy, moziydan uzilmas aloqalarini tiklashga ham madad bergan bo‘lardi. Natijada Qur’on ko‘zgusining nurida o‘zbek adabiyotiga xos tarixiyadabiy qatlamlarning vujudga kelishi va rivoji to‘g‘ri tushunilgan bo‘lardi.

Sharq milliy an’analarining rivoji o‘ziga xosligi islom adabiyotining avval arab, keyin fors va nihoyat turk jumaladan o‘zbek tilidagi rivojida namoyon bo‘ladi.

Arab va noarab (asosan forsiy va turkiyzabon) adabiy oqimlarining to‘qnashuvi, o‘zaro singib borishi va o‘zaro ta’siri jarayonida musulmon adabiyotlar aro mushtaraklik vujudga keladi va jahon adabiyoti matnida o‘ziga xos va G‘arb adabiyotiga ham tasir o‘tkazuvchi mavqe’ini shakllantiradi.

Arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan islom adabiyotida qay biri ustun degan savol noo‘rindir. Har bir tilda yaratilgan milliy adabiyot o‘ziga xos qirralarga molik bo‘lib, muayyan davrda yuksalishi davlat tili maqomiga ko‘tarilishiga ham bog‘liq bo‘lgan. Ammo bu adabiyotlar uchun umumislom bo‘lmish Qur’oni Karim tilida ijod etish va Qur’on mavzularidan keng foydalanish xosdir .

Musulmon adiblari qay millat vakili bo‘lishidan qat’iy nazar, avvalambor yagona ummat a’zolari edi. Shu nuqtai nazardan ularning ijodida milliy xususiyatlar Qur’onda o‘z ifodasini topgan umumislom va umuminsoniy bashoratalar bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

X asrda arab xalifaligi hududularida barpo etilgan turli tildagi adabiyotlarda milliy ohanglar kuchayishi tabiiy hol edi. Ammo mazkur davlatlar islom bayrog‘ini tuban tutmaganligi va diniy e’tiqod xalq orasiga singib bo‘lgani tufayli islom

yo‘nalishi sayozlashmadi, aksincha to‘siqlarni yengib, kuchayib bordi. Hozirgi kun intilishlari bunga yorqin misol. Shu sabab arab xalifaligi yemirila boshlagandan keyin ham yagona islom madaniyati va adabiyoti nihoyasiga yetmadi, balki yangi tarmoqlar sari rivojlanib, Qur’oniy ohanglar kuchayib bordi. Alohida olingan milliy adabiyotlar ravnaqi islom adabiyotining hayotbaxshligini ta’minladi. Sharq va keng ko‘lamda jahon adabiyoti tarkibida o‘zbek adabiyoti ham Qur’onni asrlar davomida turlicha o‘zlashtirgan va uning mavzulari asosida turfa asarlar yaratilgan. Qur’onning matni 14 asr davomida o‘zgargani yo‘q, o‘zgarmaydi ham. Aksincha undagi iboralar turli tillarga singib o‘tib, o‘ziga xos Qur’oniy iboralar sifatida turli xalqlarning maqol va matallariga asos soldi. Bir so‘z bilangina olam-olam ma’noni ifodalovchi iboralar jilolanib tarix nafasi jonlandi . Qur’on matni o‘zgarmagan, islom dinini qabul etgan xalqlar tarixi zamon zayli bilan o‘zgarib borgan. Qur’on matni zamon va makonda mahalliy tarixiy muhit bilan muttasir bo‘lib, har bir xalq taraqqiyotining muayyan davrida o‘ziga tegishli xulosalar chiqargan, Qur’oniy mavzularni adabiy asarlarga kiritgan. Mazkur jarayon natijasida milliy adabiyotining Qur’on matni bilan sintezi asosida badiiy va diniydidaktik asarlar yaratilgan. Diniy, falasafiy va umuminsoniy haqiqatlarni ifodalagan Qur’oniy mavzular va diniy mafkura ramzlarining Alisher Navoiy ijodidan muhim o‘rin olgani bunga yorqin dalildir. Alisher Navoiy o‘zbek mumtoz adabiyotining deyarli barcha janrlari va mavzularida samarali ijod qilgan. Navoiyning irfoniy adib sifatida mumtoz adabiyotimimizga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. Davlatshoh Samarqandiy Navoiyni “Mir Nizomiddin”, ya’ni “dinning nizomi - qonuni” deb bejiz ulug‘lamagan. Navoiy Qur’onni juda yaxshi bilgan shaxs bo‘lgan. Navoiy Qur’onni shu qadar yaxshi o‘zlashtirgan ediki, Qur’on uning borlig‘iga va ijodiga singib ketgan edi. U yaratgan har bir asarda bevosita va bilvosita Qur’onning ta’siri bilinib turadi. Ba’zi o‘rinlarda Qur’on oyatlari aynan berilgan bo‘lsa, bazi o‘rinlarda ularga ishora bilan, yani oyatlarining ma’nolarini nazarda tutuvchi gaplar bilan beriladi. Birgina “Tarixi anbiyo va hukamo” asarini tahrir qiladigan bo‘lsak, asarda yetmish olti o‘rinda Qur’on oyatlari berilganini ko‘rishimiz mumkin.

Ahamiyatli jihati shundaki Navoiy Qur’on oyatlaridan shu qadar mohirlik bilan foydalanganki, asarning ma’nosi va tasir kuchi oshgan.

Quyidagi misollar orqali Qur’on oyatlarini qay darajada mohirlik bilan ishlatilganini ko‘rishimiz mumkin:

1.Chun inson kisvatin odamg‘a kiydurdilar haq subhonahu va taolo asmoi husnini anga o‘rgattikim «va allama odamaal asmoa kullaho» va maloyikayi muqarrab aning ilmig‘a mu’tarif bo‘ldilar va tangri taolo hukmi bila anga sajda qildilar

Ma’nosi: Va u zot Odamga barcha narsalarning ismlarnni o‘rgatdi... («Baqara» surasi, 31-oyat).

2. Va aning zamonida olam xaloyiqi butparast bo‘lub erdilar. To‘quz yuz ellik yil elni o‘z dinig‘a da’vat qildi. Sekson kishidin ortuq qabul qilmadilar. Kuffordin anga izolar tegar erdi. Ul so‘z aytsa, eshitmoli deb qulog‘larin tutar erdilar. Haddin o‘tkondin so‘ng, Nuh duo qildi: «Rabbi lotazarni alal arzi minal kafirina dayyoro» duosi mustajob bo‘ldi.

Ma’nosi: Parvardigorim, yer yuzida kofirlardan biron hovli-joy egasini qoldirmagin («Nuh» – 26).

3. “Yusuf a. s. bani odam jinsining jamilrog‘idur. Bir kun o‘z yuzin ko‘zguda ko‘rub, andoqki husn istig‘noyu g‘ururg‘a muqtazodur, ko‘ngliga kechtikim, oyo agar men qul bo‘lsam erdi, mening bahomni kim bera olg‘ay erdi. Chun bu xiyol dalolat bemislikka qilur, ulkim «laysa kamislihi shay’un va huvas-sami’ul-basir», aning sha’nidadur. Haq taolo g‘ayrat ko‘rguzub, andoq qildikim, og‘olari Yusufni o‘n yeti qalb diramg‘a sottilar.

Ma’nosi: Biron narsa U zotga o‘xshash emasdur. U eshitguvchi va ko‘rib turguvchidir («Sho‘ro» – 11).

4. Muso a. s. qavmidin ranja bo‘lub, sajda qilib ayttikim, «Rabbi inni lo amliku illo nafsi va axi, fafruq baynano va baynal qavmil fosiqin».

Ma’nosi: «... Parvardigorim, men faqat o‘zimga va birodarim (Horun)ga egaman, xolos. Bas, o‘zing biz bilan bu itoatsiz qavmning orasini ajratgin...» («Moida» – 25).

5. Va chun Yahyo a. s. mutavallid bo‘ldi, oz vaqtdin so‘ngra Tengri taolo muborak ko‘nglin vahiy nuzulidin munavvar qildikim. «Yo Yahyo huzil kitoba biquvvaten va otaynohul-hukma sabiyyan».

Ma’nosi: (Biz unga): «E Yahyo, Kitobni (ya’ni Tavrotni) mahkam ushlagin, (dedik) va unga go‘daklik chog‘idayoq hikmat – ma’rifat ato etdik».

6.Bani Isroil havoriyung‘a dedilarkim, agar Iso a. s. duo qilsakim, Tengri taolo osmondin moida yiborsakim, taomg‘a muhtoj xaloyiq andin bahra topsalar va Tengri taolo vujudi va Iso a. s. nubuvvatig‘a tainlari bo‘lsa, deb havoriyun arz qilg‘och, Iso a. s. tazarru’ qilib dedikim, «rabbano anzil aylayna moidatan minas-samoi takunu lano i’ydan li avvalina va oxirina va oyatan minka varzuqno va anta xay-rur-roziqin».

Ma’nosi: «... Ey tangrim, Parvardigor, bizga osmondan bir dasturxon nozil qilgilki, u avvalu oxirimiz uchun bayram va sening oyat – mo‘’jizang bo‘lib qoladi. Bizni (shu ne’matdan) bahramand qilgil. O‘zing eng yaxshi rizq berguvchisan...» («Moida» – 114).

Qur’oni Karim oyatlarining ma’nolari Alouddin Mansur tarjimasidan olindi.

Yuqorida keltirilgan misollardan shuni anglash mumkinki, Navoiy Qur’on oyatlaridan har safar juda samarali foydalangan. Ma’lumki, «Tarixi anbiyo va hukamo» asari payg‘ambarlar va hakim zotlar tarixini bayon qiladigan asar bo‘lib, ixtilof bo‘lmasligi uchun undagi har bir ma’lumot ayniqsa payg‘ambarlar haqidagi ma’lumotlar asosli va ishonchli bo‘lishi kerak. Navoiy ushbu asosni Qur’on oyatlariga murojat qilgan holda mustahkamladi va shu bilan birga asarnining ma’no

va ta’sir kuchini oshirdi. Umuman olganda Navoiy deyarli har bir asarida Qur’on oyatlariga, Payg‘ambarimiz hadislariga va turli duolarga murojaat qiladi va samarali foydalanadi.

Bundan Navoiyning diniy ilmimlarni va shu bilan birga arab tilini ham mukammal bilgani namoyon bo‘ladi. Chunki har bir asarda Qur’on oyatlari, hadislar va duolardan foydalanish uchun adib ushbu ilmlarni va arab tilini mukammal bilishi kerak.

Ma’lumki Navoiyni ikki tilda, ya’ni turkiy va forsiy tillarda ijod qilgan adib sifatida bilamiz. Tadqiqotlarimiz natijasida ma’lum bo‘ldiki, Navoiyni qisman uch tilda, ya’ni turkiy, fors va arab tillarida ijod qilgan desak ham bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳамидулла Кароматов. «Қуръон ва ўзбек адабиёти», Т.: ЎзР ФА Фан, 1993.

2. Алишер Навоий. «Мукаммал асарлар тўплами», Йигирма жилдлик, 16-жилд, Тошкент: ЎзР ФА Фан, 2000.

3. Кароматов Ҳ. Ўзбек адабиётида Қуръон мавзулари (адабий-тарихий таҳлил): филол.фан.д-ри дис. автореф. -Тошкент, 1993

Qo’shimcha adabiyotlar:

4. www.kutubxona.uz – http: // kutubxona.uz/

5. www.literature.uz – http: // literature.uz/

6. www.ziyo-net.uz – http: // ziyonet.uz/

HIMMAT VA SAXOVATDA BENAZIR ZOT

SH.U.Jamolova
BuxDU talabasi

Annotatsiya. Adabiyot yashasa millat yashaydi. Millat ko’zgusi, qalblarga ziyo baxsh etuvchi adabiyot esa buyuk mutafakkir, shoir, g’azal mulkining sultoni Mir Alisher Navoiydan boshlanur.Ushbu maqolada hazrat Alisher Navoiyning hayoti va she’riyat dunyosida qalam tebratishi haqidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so’zlar: Alisher Navoiy, g’azal, millat, she’riyat,lug’at,millat ko’zgusi, komil inson.

Аннотатция. Когда живет литература,живет нация.Зеркало нации,литература,просвещающая серца,начинается с великого мыслителся,поэта султана газельского царя Мир Алишера Навои.

Ключевые слова. Алишер Наваи,газал,люди,поэзия, словарь,прекрасный человек.

Annotation. When literature lives, the nation lives. The mirror of the nation and the literature that enlightens the hearts begins with the great thinker, poet,sultan of the ghazal king Mir Alisher Navoi.

Key words: Alisher Navoi, gazal,nation, poetry,dictionary,nation mirror, perfect man.

O’zbek xalqining buyuk farzandi,yirik mutafakkir shoir, olim va davlat arbobi Alisher Navoiy o’n yettinchi ramazon oyi sanasi 844-tovuq yilida Xuroson davlatining yirik shahri Hirotning Bog’i Davlatxona mavzeyida xizmatchi oilasida dunyoga kelgan. Bolaligidan o’tkir zehn va ziyrakligi tufayli tengdoshlari orasida ajralib turgan. Buyuk zotlar dunyoga kelishlaridan ilgariroq ishq dardiga mubtalo bo’lar ekanlar. Ayniqsa shoir-u hofizlar bu darddan ko’p aziyat chekisharkan. Bobomiz Alisher Navoiy ham shunday ishq mastonalaridan edilar. Bu dunyoga

kelgach,ularning amallari,xulqlari,deganlari-yu bitganlari ishq bilan yo’g’rilar,vafo va sadoqat bilan ziynatlanar ekan. Buni Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidan ham yaqqol ko’rishimiz mumkin. Xalq hayotini yaxshilash,mamlakatni obod etish,odamlarning mehnatlrinini yengillashtirishda Navoiy ilmga juda katta e’tibor qaratgan. Din,reaksiya,zulm to’la bir davrda Navoiy”ilm-kuch va saodat manbaidir”,degan fikrni ilgari surgan. Odamlar uchraydigan har qanday qiyinchilik va zulmni ilm va ma’rifat bilan yengib o’tishlari mumkinligini qayta-qayta takrorlagan. Shoir o’zining asarlaridagi qahramonlarning ishlarida mehnat, fan,aql va ajoyib mo’jizalar yarata olishini ko’rsatib bergan. Navoiy o’z davrida ya’ni feodalizm jamiyatida eng katta ,eng jiddiy va eng muhum masalalardan biri bo’lgan ayollar hayoti,taqdiri va fojeasini ifodalashga qaratilgan obrazlarni asarlarining markaziga olib kirgan. Navoiy ijodi haqida,uning amallari haqida qancha tilga olsak shuncha kam. Navoiyni nafaqat o’zbek xalqi balki, butun jahon adabiyoti tan olgan. Xususan,nemis olimi Alfred Kurella “Buyuk shoirning qayta kashf etilishi”maqolasida quyidagicha fikr bildirgan:”Biz Navoiyni qayta kashf etishni boshlagan paytimizda,u allaqachon favqulotda ulkan siymo sifatida tan olingan edi.” Mir Alisher yevropa ilm ahliga o’tgan asrning o’rtalarida yaxshi tanish bo’lgan, uning asarlarini barcha yevropa kutubxonalaridan o’qishgan,ayniqsa Parij,Vena,Londonda uning she’riy va nasriy asarlarining qo’lyozmalari saqlangan. Navoiyning dunyoga tanilishida uning do’sti va shahanshohi “Boburnoma”asarining muallifi Boburiylar saltanati asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur bilan beixtiyor bog’liqdir. Mirzo Boburning “Boburnoma”memuar asarining ingliz, fransuz,nemis tillarida jamlangan nashrlarini paydo bo’lishi Navoiyni butun jahonga tanitdi. Shoirning ijodi bilan batafsil shug’ullangan professor oritentalistlar uni faqat tor doirada turkiy tillar bilan shug’ullanuvchi filolog sifatida tan oldilar xolos. Ammo izlanishlar natijasida Navoiyning fors tilida shu paytgacha so’zsiz madaniyat va adabiy til darajasini egallagan saroyda xizmat qilishi, shu madaniy doiraning ichida turib,g’oyat boy nazm va nasrdagi asarlarning ulkan bir qismini turkiy tilda aniqrog’i “chig’atoy”tilida yozadi. Navoiygacha bu til mavjud bo’lgan va bu tilda Lutfiy, Sakkokiylar ijod qilishgan. Shunday bo’lsada ular Navoiydek bu turkiy tilni to’liq

egallamaganlar. Ilgari “chig’atoy”tili deb yuritilgan va bugunda o’zbek tilining oldingi shakli deb tan olingan turkiy tilni Alisher Navoiy madaniy-adabiy poetik til darajasiga ko’targan va shu bilan birga bir zarb bilan bu tilni hayratomuz darajadagi mukammal qilish darajasiga erishgan deya ta’kitladi yozuvchimiz. Yana bir kanadalik tadqiqotchi Geri Dikning ta’kidlashicha,hozirgi kunda G’arbda Alisher Navoiy asarlarini o’qishga bo’lgan ehtiyoj katta. Davlatshoh Samarqandiy “Tazirak ush –shuaro” asarida Navoiyga “Siniq nafs va ulug’ tavozu egasi” deya ta’rif beradi. Xayru ehson,latofat va ko’ngil zarofati bobida Alisherning tengi yoqligidan jahongir podshohning xotiri hamma vaqt unga moyil bo’lib, ulug’lik, vazirlik va amirlik martabasini unga in’om etdi.Avval unga muhrdorlik lavozimini so’ng esa xizmatkorlik poyasini yuqori cho’qqisiga chiqdi deya fikrini yakunlaydi Davlatshoh Samarqandiy.

Buyuk mutafakkir shoir davlat arbobi bo’lmish hazrat Navoiyga mashhur “Ravzat us-safo” asarining muallifi Mirxond shunday ta’rif beradi:” Ul zot himmat va saxovatda Benazir edi”. Buni shahzoda Muhammad Muhsin mirzo mamlakatining ba’zi ehtiyojlari uchun Sabzavor qal’asiga ma’lum miqdorda g’alla yig’moqchi bo’lgani va shahzodaga murojat qilganida ko’rishimiz mumkin. Navoiy nafaqat himmatli shaxs balki yoshlar homiysi hamdir.navoiyni biz qanchalik e’zozlasak unga hurmat bajo keltirsak uning ijodidan namunalarni o’qishga ishtiyoq ollohga muhabbatimiz yanada ortadi .

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki: Navoiy navodir. U erk kuychisi, madaniyat va sevgi ramzi. Odob va axloqni biz Navoiyning noyob durdonalaridan olamiz. Uning turkiy tilni madaniy-adabiy poetik nuqtaga keltirishi biz uchun ona tilimizning kashf qilinishidir. Navoiy dunyoni ma’naviy tanazzuldan qutqara oladigan mutafakkirdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Hamidov Sulaymon.” Alisher Navoiy o’n besh tomlik”.O’zabadiy nashr 1963
2. www.Saviya.uz
3. www.Hozir.org.uz.
4. www.chrome.uz.
5. www.navoiarxiv.uz

ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ISHLARI BO‘YICHA YANGI TADQIQOT

Muyassarova Dilorom Baxtiyorovna
“Xorijiy tillar” fakulteti 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Rabiyeva Mohidil G’ayratovna

ANNOTATSIYA

Maqolada buyuk bobokalonlarimizning adabiy me’rosi bugungi yoshlarimizni komil inson qilib tarbiyalash uchun muhim ekanligi haqida.

Kalit so’zlar: komillik, badiiy me’ros, buyuklik, ma’naviy xazina, kelajak avlod.

ANNOTATION

The article discusses the importance of the literary heritage of our great ancestors in educating today's youth to become perfect human beings.

Keywords: perfection, artistic heritage, greatness, spiritual treasure, future generation.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается значение литературного наследия наших великих предков для воспитания современной молодежи.

Ключевые слова: совершенство, художественное наследие, величие, духовное сокровище, будущее поколение.

Oliy Majlis Senatining yangi tarkibdagi ilk majlisida so‘zga chiqqan prezident Shavkat Mirziyoyev milliy tarixni anglashning ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tdi.«Yaqinda Xavfsizlik kengashi yig‘ilishida Zahiriddin Muhammad Bobur bobomiz haqida gapirdim. Bobur 12 ming askar bilan 100 ming askarni yenggan. O‘sha paytda shunday qilish mumkinmidi? Yo‘q. Bobomizga nima yordam berdi?

Vatanparvarlik, g‘urur, iftixor, aql-zakovat. Men Boburni bugun ko‘p gapiryapman. Quyi palata yig‘ilishida ham gapirdim. Umuman, shu kunlarda men tariximizni ko‘p o‘qishga harakat qilyapman. Ming afsuski, bizga sovet davrida Pushkin, Lermontovning bobolari xoki qayerda to‘kilganini o‘qitgan xolos. Alisher Navoiy yoki Boburlarni o‘qitmagan. Rus tilida o‘qigan odamlar Pushkin, Lermontovni o‘qigan. Biz hech kimga Boburni o‘qitmaganmiz. Uning ekologiya haqida yozganlarini o‘qisangiz, hozirgi davrda yashaydi, deb o‘ylaysiz. **SH.M.Mirziyoyev**[33]

Barchamizga ma'lumki, so‘nggi yillarda Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur bobokalonlarimizni boy va serqirra ijodiy me’roslarini har tomonlama chuqur o‘rganish, ularning o‘lmas asarlarini yurtimizda va xorijiy mamlakatlarda keng targ‘ib qilish hamda xotiralarini abadiylashtirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 oktyabrdagi “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi 4865-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash hamda buyuk ajdodlarimizning hayoti va faoliyati, boy ilmiy-ijodiy merosini yoshlarimizga yanada chuqurroq singdirish maqsadida, joriy yilning 12 fevral' kuni Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasida buyuk shoir va mutafakkir, dunyo tan olgan davlat arboblari Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud kuniga bag‘ishlab “Alisher Navoiy va Bobur merosi – beqiyos ma'naviy xazina” mavzusidagi ma'naviy-ma'rifiy tadbir o‘tkazildi.[34]

Har yili davlatimiz rahbari tashabuslari bilan mir Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur bobokalonlarimizni xotiralarini abadiylashtirish va bu buyuk shaxslarni biz avlodlar uchun qoldirgan bebaho me’roslarini asrab avaylash uchun qator ishlar amalga oshiriladi. Bu orqali biz kelajak avlod komil inson darajasiga bir davrning ikki daxosi qoldirgan adabiy me’roslarini o’qib-o’rganish orqali erisha olamiz. Bu buyuk shaxslarning me’roslari butun dunyoda mashhur

[33] https://kun.uz/uz/news/2020/01/20/bizga-navoiy-yoki-boburni-oqitishmagan-shavkat-mirziyoyev-milliy-tarix-haqida-gapirdi
[34] https://fvv.uz/uz/news/alishe’r-navoiy-va-bobur-merosi-beqiyos-manaviy-xazina

ko’plab davlatlarda ilmiy amaliy kanfirensiyalar jarayonida tan olinib ta’kidlanadiki Alisher Navoiyning ijodiy me’rosini to’liq o’rganib asl ma’nosiga yetishish uchun yana shuncha mudat kamlik qiladi. Zahiriddin Muhammad Boburning g’azallari takror o’qigansari o’quvchini yangi bir nasriy gulzor sari sayrga boshlaydi. Zahiriddin Muhammad Bobur ijod bilan birga davlat boshqaruvida o’zining o’rnak bo’la oladigan yo’liga ega.

Hozirgi glaballashuv, reaktiv rivojlanish, texnalogiyalar asrida ko’plab zamondoshlarimiz o’z qo’l telefonlari, gadjitlari ya’ni virtual olamningning majoziy manoda aytganda qullari bo’lishmoqda. Shuningdek atrofimizdagi yaqinlarimizga bo’lgan e’tibor, hurmat juda yomon tomonga o’zgarib bormoqda Alisher Navoiy o’zining “Lison ut-tayir” dostonida “Ko’rlar va fil” hikoyasini keltirgan.[35] Hikoyada taqdir taqozosi bilan bir guruh basir (ko’r)lar hindistonga borishadi. O’z yurtlariga qaytgach ulardan filni ko’rdinggizmi deb so’rashadi. Filning oyog’ini ushlagan basir ustun, xartumini ushlagan - ajdarho, boshini ushlagan – tepalik, qulog’ini ushlagan – katta yelpig’ich, dumini ushlagan basir – ilonga o’xshaydi deb javob beradi. Shunda bir filbon elga qarab: bu insonlar filni o’z ko’zlari bilan ko’rmaganlar hamma dalillarni birlashtirasa bir fil hosil bo’ladi deb javob beradi. Bundan ko’rinib turibdiki filbon basirlarni jamoa oldida xijolatga qo’ymaydi Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek komil odam o’zgani mulzam qilmaydi.

Navoiyning ideal hukmdor haqidagi orzulari Bobur faoliyatida muayyan darajada aks etgan. Bobur o‘zi tuzgan “Buyuk imperiya”da islohotlar o‘tkazgan va mafkurasini mustahkamlagan. Buning nazariy asoslarini yaratish maqsadida diniy-falsafiy asarlar, harb ishiga oid kitoblar yozgan. “Mubayyin” va qator risolalari bunga dalildir.[36] Bobur haqida yozilgan asarlarda ma’lumot berilganki Z.M.Bobur Alisher Navoiy ijodining haqiqiy ixlosmandi va sehrli qalam egasing ijod mahsullarini yodlagan o’zing ustozi deb bilgan. Hayoti davomida turli xildagi

[35] https://kh-davron.uz/kutubxona/alishe’r-navoiy/navoiy-bobur-haqida.html
[36] https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/navoiy-va-bobur/

qiyinchiliklarga uchraydi, ko’p marotoba o’lim bilan yuzlashadi hattoki inson zoti uchun juda ayanchli holat bo’lgan o’z vatanini tark etishga majbur bo’ldi.

Tole yo’qi jonimga balolig’ bo’ldi,
Har ishnikim ayladim, xatolig’ bo’ldi.
O’z yerni qo’yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig’ bo’ldi.[37]

Zahiriddin Muhammad Boburning oliy darajadagi ilm egasi bo’lganligi va ajdotlariga mos voris bo’lish masuliyati uning qiyinchiliklar oldida bo’yin egmaganligiga sabab bo’ldi. Zahiriddin Muhammad Bobur inson bolasi har qanday vaziyatda agar o’zi xoxlasa yashab keta olishi o’zligin, e’tiqodini tark etmagan holda yangi jamiyat lideri, buyuk imperiya asoschisi ekanligin isbotladi. Bundan xulosa qilish mumkinki Zahiriddin Muhammad Bobur kuchli mativator[38] bo’gan. Bugungi kunda, ayniqsa yoshlar orasida arzimagan muamolar sabab tushkunlikga tushish holatlari, dangasalik, o’zida bor imkoniyatdan yetarlicha foydalana olmaslik holatlarini ko’plab kuzatish mumkin. So‘nggi vaqtlarda nafaqat xorij o‘lkalarida, balki O‘zbekistonda ham o‘zini osib qo‘ygani, yoqib yuborgani xususida xabarlar elas-elas qulog‘imizga chalinmoqda. Xususan, Xorazm viloyatida, Qoraqalpog‘iston Respublikasida, Farg‘ona vodiysida shunday holatlar qayd etildi. O‘zjoniga qasd qilganlarning ayrimlari tirik qolgan bo‘lsa, boshqalari Alloh bergan ulug‘ ne'matlardan biri tiriklikdan o‘z qo‘llari bilan mahrum bo‘lishdi.[39] Bunga sabab: tushkunlik, dinsizlik, ma'rifatsizlik, to‘qchilik, yo‘qchilik, shahvoniy, nafsoniy sevgi; o‘z joniga qasd qilishni muammoning yechimi sifatida ko‘rish; o‘limning haqiqati, qabr azobi, oxirat, qayta tirilish, qiyomat va do‘zaxdagi azob-uqubatlardan bexabarlik ruhiy xastalik. Agarda bola ona qornidan Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur manaviy me’rosi bilan oziqlanib ulg’aysa shak-

[37] https://uzbaza.uz/zahiriddin-muhammad-bobur-ruboiylari/
[38] O'z atrof-muhit a'zolarining ongi va hissiyotlariga ta'sir o'tkaza oladigan odam. https://uz.drunkentengu.com/kto-i-chto-takoe-motivator-eto-chelovek-kartinka-ili-pobujdayuschiy-k-deystviyu-faktor-6c240
[39] https://kun.uz/uz/news/2017/12/17/uz-zoniga-kasd-kilis-sabablar-va-ecimlar

shubxasiz komil inson darajasiga erishadi va bu jamiyat rivojlanada atrofdan keladigan turli xil yod, buzg’unchi g’oyalar qurboni bo’lmaydi, va bu jamiyat hech qachon tanazzulga yuz tutmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://kun.uz/uz/news/2020/01/20/bizga-navoiy-yoki-boburni-oqitishmagan-shavkat-mirziyoyev-milliy-tarix-haqida-gapirdi
2.https://fvv.uz/uz/news/Alisher-navoiy-va-bobur-merosi-beqiyos-manaviy-xazina
3.https://kh-davron.uz/kutubxona/Alisher-navoiy/navoiy-bobur-haqida.html
4.https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/navoiy-va-bobur/
5.https://uzbaza.uz/zahiriddin-muhammad-bobur-ruboiylari/

6. https://uz.drunkentengu.com/kto-i-chto-takoe-motivator-eto-chelovek-kartinka-ili-pobujdayuschiy-k-deystviyu-faktor-6c240
7. https://kun.uz/uz/news/2017/12/17/uz-zoniga-kasd-kilis-sabablar-va-ecimlar

NAVOIY NAZMIDA KOMILLIK AKSI

Rayimova Shahnoza Sodiqovna
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi
3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning mumtoz she’riyat, komil inson orzusi borasidagi qarashlarining ijodiy talqiniga oid mulohazalar “Farhod va Shirin” dostoni misolida keltirilgan. Dostonning yetakchi qahramonlari xarakteriga singdirilgan ijobiy sifatlarning komillikka aloqadorligi, xos va majoziy ishq, unga sodiqlik, nafsni yengish, insonning ma’naviy qiyofasini yaratish bilan bog‘liq xulosalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Mumtoz adabiyot, shaxs, sodiqlik, komillik, umr, ishq, nafs, mehnatsevarlik, vatanparvarlik.

Аннотация: В статьи выражено комментарии к творческой интерпретации взглядов Низамиддина Алишера Навои на классическую поэзию, мечту об идеальном мужчине даны на примере эпоса «Фарход и Ширин». Положительные качества, заложенные в образах главных героев эпоса, связаны с совершенством, присущей и образной любовью, верностью ей, преодолением похоти, созданием духовного образа человека.

Ключевые слова: Классическая литература, лицо, верность, жизнь, любовь, алчность, трудолюбие, патриотизм.

Annotation: Comments on the creative interpretation of Nizamiddin Mir Alisher Navois views on classical poetry, the dream of the perfect man are given in the ehample of the epic Farhod and Shirin. The positive qualities embedded in the character of the leading heroes of the epic are related to perfection, specific and figurative love, loyalty to it, overcoming lust, creating a spirtual image of man.

Key words: classical literature, person, loyalty, life, love, passion, industrious, patriotism.

XV asr mumtoz adabiyotining so‘nmas mash’ali bo‘lgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy daxosini anglash, anglashga intilish kishidan ulkan sabr-u toqat, chuqur bilim, aqliy salohiyat talab etadi. Binobarin, Navoiy o‘quvchiga shunchaki “murojaat” qilmaydi, insonni o‘z-o‘zini tushunishiga imkon beradi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Axloqiy-ta’limiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy jihatlarni o‘zida mujassamlashtirgan baytlarga jo bo‘lgan, aniqrog‘i, “yashirilgan” sirlar o‘quvchi zehnini qayta va qayta imtihon etadi, aql, vijdon, iymon, insofi bilan yuzma-yuz, yakkama-yakka qolishiga keng maydon yaratadi.

Navoiy ishq deydi, yor deydi, azal va oxir deydi. Bu nodir to‘rtlik shoirning har baytidan to muazzam shoh asarlarigacha bor bo‘y-basti bilan mukammal ma’no-mazmun ila davom etadi. Navoiy nafaqat o‘z davri, balki bugun, ertangi zamon, avlodlar tarbiyasi yo‘lidagi jarayonlarga ham birdek taalluqli shaxs. Ijtimoiy hayotning turfa qirralarini anglash, hayot murakkabliklari va sinovlariga chidamli, bardoshli va albatta, shukrli bo‘lish ikki dunyo saodatini berishidan bashorat qiladi. O‘z davrida Davlatshoh Samarqandiy Navoiy shaxsi va ijodini shunday baholagan edi: **“…Bu ulug‘ amir dinu davlat homiysi, shariat hamda millatning pushti panohidir”.**[1]

Ma’lumki, Hazrat Navoiy butun umrini ijodga, xalqiga, zamonasiga baxshida etgan yetuk shaxs. QALAMni muqaddas deb bilgan millatparvar, xalqparvar shoir, shuningdek, o‘y-kechinmalarini, orzu-niyatlarini, tilak va istaklarini, maqsad va muddaolarini komil shaxsda ko‘rishni orzulagan otashqalb inson. Butun umri davomida komillikka intilgan va bu yo‘lda ilmiy-ijodiy izlanishlardan bir lahza bo‘lsin tinmagan millat qahramoni. Shoirning ta’lim-tarbiya, axloq-odob, insoniylik, islomiylik, umuman, turli xildagi ijobiy fazilat hamda salbiy hislatlarning qahramonlar timsolidagi bayonini esa “Xamsa” asaridan o‘rin olgan “Farhod va Shirin” dostonida yanada to‘liq va mukammal tarzda ko‘rishimiz mumkin. Hazrat Navoiyning yuksak adabiy merosi qatoridan salmoqli o‘rin olgan mazkur dostonning muallif tomonidan “shavq dostoni” deya atalishi ham bejiz emas. Boisi shoir o‘zi orzulagan komil shaxs Farhod obrazi bilan birlashgan insondir. Vatanparvarlik, mehnatsevarlik, g‘ayrat-u shijoat, vafodorlik va sodaqat sifatlari

ulug‘langan mazkur doston Navoiyning sermazmun asarlaridan biridir. Xo‘sh, shoir nima sababdan “Xamsa” dostonlari qahramonlari ichida aynan Farhodni tanlaydi, ixlos qo‘yadi, o‘z orzularini, istak va niyatlarini nega aynan mazkur qahramon surati va siyratiga jo etadi?

Ma’lumki, Nizomiy Ganjaviy Sharq adabiyotida birinchi bo‘lib, “Xamsa” yozgan. U yozma adabiyotda birinchi bo‘lib “Mehinbonu va Farhod” obrazlarini yaratgan. Nizomiy asarlari boshqa shoirlar ijodiga ta’sir qilgan. Barcha shoirlar Nizomiyni ustoz deb bilishgan.[2] Jumladan, Navoiy ham. Navoiy o‘z “Xamsa”sini yaratar ekan, ikkinchi dostonni yaratishdan avval voqealar rivojini ta’minlovchi qahramonlar shaxsiga alohida e’tibor qaratadi. Bu o‘rinda shohlik va taxtdan o‘z ixtiyori bilan voz kechgan, ishqni jamiki boyliklardan, (hatto?!) toj-u taxtdan-da ustun qo‘ygan shahzoda Farhod siymosi shoirni to‘la-to‘kis “rom etgan”i tabiiy.

Tili va dili to‘g‘ri bo‘lgan, yagona maqsad: vafodorlik va sadoqat yo‘lini tanlagan qahramonning bilimga chanqoqligi, ustozlarga munosib shogird bo‘lgani, kasb-kori bilan butun bir davlat, xalq oldidagi mehnatlari ma’lum shiddat va izchillikda qahramonliklar bilan uyg‘unlashib, ulug‘vorlik kasb etib borishi Navoiy ko‘zlagan maqsadning yorqin ifodasi, dalilidir. Navoiy Farhod obrazini ideal shaxs sifatida tanlar, tan olar ekan, bu o‘rinda mazkur obrazga uch tomonlama yondashishini maqsad etadi:

- yigit (Farhod) ning toliblik sabri, “ustoz-shogirdlik”dagi o‘rni, mehnat bilan sharaflanishi, jismonan va aqlan yetukligi, ruhiy kamolotga erishganligi;

- Yigit (Farhod) ning ishq yo‘lida sobitligi, har ne sinov va sitamlarda ham YORdan voz kechmasligi, o‘z sevgisi, ahdidan qaytmasligi;

- yigit (Farhod) da axloqiy, ta’lim-tarbiyaviy, insoniy sifatlarning, aqliy va ma’naviy quvvatning jismoniy kuch, mehnatsevarlik hamda vatanparvarlik bilan uyg‘unligi.

Ko‘rinadiki, Alisher Navoiy bir yigitda (bir insonda) mazkur uch yo‘nalishga oid sifatlarning bo‘lishi lozimligini ilgari suradi. Yigitlik fasli aynan ilm-u mehnat, mehr-u muhabbat bilan kechmog‘i zarurligini o‘quvchiga yetkazishga bel bog‘laydi.

Tug‘ma ishq bilan dunyoga kelgan, chin oshiqlik bois hushsiz holga tushgan Farhodning butun hayoti ham ishq yo‘lida yorga oshuftalik, parishonlik, cheksiz sadoqat, firoq va judolik bilan kechadi. Firib va yolg‘onlardan ozorlangan, suyukli yoridan ayro tushgan esa-da, dushmani Xusrav qoshida g‘amga botmaydi, o‘zini abgor, aybdor, kuchsiz va zaif sezmaydi. Qalb qo‘rida uchqunlangan, bora-bora olovlangan ishq mash’ali har onini yoritib, tan-u ruhiyatiga beqiyos qudrat, shijoat, g‘urur va surur baxsh etaveradi. Farhod dostonda komil shaxsning asl qiyofasi o‘laroq bor bo‘y-basti bilan namoyon bo‘ladi. Bolalikdanoq Qur’onni, ilm-u hunar sirlarini o‘rgangan Farhod favqulotda go‘zal xulqli, Yusuf chehrali, Rustamdek pahlavon bo‘lib voyaga yetadi. Jismidagi quvvat, ruhidagi qudrat uni o‘z sevgisi, o‘z qahramonligi, chin do‘stlik yo‘li tomon eltadi, baxtdan masrur, ishqdan mag‘rur etadi.

“Demonkim, ko‘ngli pok-u ham ko‘zi pok,
Tili pok-u, so‘zi pok-u, o‘zi pok” [3]

bo‘lgan Farhod komillikni ko‘zlagan yo‘lovchi, komillik manziliga yetmoqni sharaf deb bilgan yuksak ma’naviyatli shaxs, chinakam oshiq, ISHQ yo‘lida qurbon Alloh qulidir. Xos va majoziy ishq sifatlarining teran uyg‘unlikda yuksalib borishi Farhodning ko‘nglini obod, ishq uyini muhtasham, sevgisini muazzam etaveradi.

Komillik inson umrini, xulqini bezovchi bebaho ziynat, yuksak manaviyatning yorqin namunasi, ifodasidir. Dostonda komillik masalasiga birgina bosh qahramonlar misolida yondashilmaydi, bu o‘rinda Farhodning sodiq hamrohi, chin do‘sti Shopurning ham vafodorligi, do‘stiga hamisha madadkorligi, ikki yosh o‘rtasidagi maktub almashuvidagi ko‘magi uning oshiq (Farhod) qalbi dardini behad tushunishi, yelkadosh, maslakdoshligida namoyon bo‘ladi. Qolaversa, o‘z mamlakati Chindagi Bahromning ham Farhod bilan kechgan do‘stlik munosabatlari Navoiy qalamidan to‘kilgan otashin misralarda badiiy san’at misollari bilan to‘kis ifodalangan. Dostondagi komillik sifatlari qatorida buzilmas do‘stlik rishtasining borligi, bu sifatning voqealar yakunida ham yaqqol namoyon bo‘lishi Shopur va

Bahromning Farhod qabriga mujovir (mujovir – ar. mozorda yashovchi; hamroh) bo‘lib qolishida tugal nuqtasiga yetadi. **“Salaflar tasviridagi toshkesar Farhodni chinakam xalq qahramoniga, sadoqatli oshiq, insonparvar, mard va qahramon yigit sifatida tasvirlanishi ham adabiyotimiz uchun yangi badiiy usul ifodasi edi. Asarda tasvirlangan barcha voqealarning yangicha mazmun kasb etishi ham doston g‘oyaviy-badiiy qimmatini g‘oyatda oshirib yuborgan”.** [4]

Ishqiy-sarguzasht, qahramonlik ruhidagi dostonda ulug‘langan komillik masalasi, komillikning avj nuqtasi Farhodning o‘z inon-ixtiyori bilan toj-u taxtdan, podsholik maqomidan voz kechishida ifodalangandek go‘yo. Parishon, ishqi ilohiydan sarmast shahzodaning ko‘nglini yozish, shodliklar baxsh etish uchun qurilgan qasrlar, hozirlangan go‘zallik va muhtashamliklar, otasi tomonidan in’om etilgan behisob boyliklar qatoridagi sirli sandiq va u bilan bog‘liq tilsimga eltuvchi sinov, sarguzasht va mashaqqatlarni yengib o‘tgan Farhod donishmand Suqrot aytganidek, majoziy ishqqa erishadi. Garchi u aldov, firib sabab yor hajrida qurbon bo‘lsa-da, qalbidagi YOR – Alloh qoshiga, jamoliga yetishadi.

Dostonda Farhod, Shirin, Mehinbonu kabi yetakchi ijobiy qahramonlar qatorida keltirilgan Shopur, Bahrom, Mulkoro, Qoran, Boniy, Moniy obrazlari bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda dostonning yaxlit syujeti mukammalligini ta’minlashga xizmat qilgan. Xusrav, She’ruya, Buzurg Ummid, afsungar, hiylagar obrazlari esa garduni-dundagi ezgulik va yovuzlik bahsi mudom bardavom ekanidan dalolatdir. Inson ishqda, ilm-u hunarda, odob-axloqda, mehnat va do‘stlikda, qolaversa, insoniylik, vafodorlik, vatanparvarlik, millatparvarlik yo‘lida xolis, g‘ayratli, shijoatli, diyonatli bo‘lsagina komillik ko‘shkiga da’vo qilmog‘i mumkinligi, lozimligi va shartligini aynan mazkur doston orqali bilish, his qilish mumkin.

Doston qahramonlari o‘z xarakter sifatlariga ko‘ra ikki: ijobiy va salbiy toifaga ajratilgandir. Nazariy jihatdan qaraganda, deyarli barcha asarlarda bo‘lgani kabi, bu toifalarning voqealardagi o‘rni, harakati, ko‘targan “yuk”i ila asarning o‘qimishliligi, qiziqarliligini ta’minlashga xizmat qiladi. Yer yuzida hayot zohir ekanidan beri ma’lum-u mavjudlikda bo‘lgan ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurashlarning badiiy-kompozitsion ifodasi dostonda yorqinlik, izchillik bilan

berilgan. Bu yorqinlik va izchillik esa qahramonlar o‘rtasidagi ishqiy, ijtimoiy, axloqiy to‘qnashuvlarda namoyon bo‘lib boraveradi.

Shoir dostonni yaratar ekan, yetakchi qahramon Farhod shaxsini go‘zal sifatlar, yuksak insoniy fazilatlar bilan boyitadi, ziynatlaydi. Yigit ta’lim-tarbiyasidagi uyg‘unlikning asosini kamtarlik hamda mehnatsevarlik bilan belgilab oladi. Nozik hunar, mukammal kasb-kor, sermazmun mehnat ishtiyoqiga ega bo‘lgan Farhod havolanib ketmaydi, aksincha, bilim va hunarning har qancha ortiqligini tabiiydek, er kishining hayotidagi odatiy, davomiy jarayondek qabul etadi. Yaratgandan in’om taqdir yo‘lidan borgani, o‘zga yurt, o‘zga mamlakatda o‘zining yuksak axloqiy sifatlarini namoyon etgani holda xalq mehriga, el ardog‘iga sazovor bo‘ladi. Navoiy bu o‘rinda Farhodni xalq kutgan QAHRAMON, mard pahlavon sifatida oldingi planga olib chiqadi. Yigitning mo‘jizakor quvvati, mo‘jizakor qudrati, mo‘jizakor tabiatini yorqin va ayni damda shoirona kamtarlik, vazminlik, nafislik bilan tasvir etadi: **“Farhod ilm va harbiy sohada erishgan yutuqlariga qaramay, o‘zini barchadan kamtar tutar, uning uchun podsholik bilan gadolikning farqi yo‘q, hatto gadolikni podsholikdan yuqoriroq qo‘yardi. Yigitchaning ko‘ngli bilan ko‘zigina emas, balki tili ham, so‘zi ham, o‘zi ham pok edi. Ana shu xislatlari uchun fuqarolar ham uni doim duo qilishar, u tomonga nogoh bir sovuq shamol essa, Chin mamlakatining barcha xalqi sovuq oh chekishardi”.** [5]

“Farhod va Shirin” dostoni vatanparvarlik dostoni hamdir. Asar bosh qahramonlari Farhodning o‘z mamlakati Chinga, Shirinning esa Arman yurtiga bo‘lgan mehri, muhabbati, xalq og‘irini yengil, mushkulini oson qilishga tayyorligi va bu yo‘lda azm-u shijoatda bo‘lishi tasvirlari o‘quvchi qalbida vatanparvarlik, millatparvarlik shijotini tarbiyalaydi. Mehnatsevarlik, zavq-shavq, chin do‘stlik, ishqqa sodiqlik tarannum etilgan ushbu dostonning ta’limiy, ma’naviy, badiiy quvvatini oshirishda shoir nasriy hamda nazmiy ifodadan zargarona mohirlik bilan foydalanganini ko‘ramiz. Shoirning mazkur dostoni orqali esa quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

- rostlik, haqqoniylik, adolat, burchga sodiq, ishqda sadoqatli bo‘lish;

- do‘stlik, o‘z manfaatidan o‘zgalar manfaatini ustun qo‘yish, ahdga vafoli bo‘lish;

- mehnatda kamtar, vatanparvarlikda jo‘shqin bo‘lish.

Navoiy dostonning badiiy mukammalligini oshirishda turli badiiy san’atlar: tashbeh, tanosub, qiyoslash, ruju’, mubolag‘adan foydalangan va ular har satr, har baytning husniga “xol”dek yarashgan. Shoirning “Xamsa”sidagi barcha dostonlar o‘zaro qofiyadosh ikki misrali, keyinchalik usulga aylangan masnaviy (ikkilik, juft misra) shaklida yozilgan. Navoiy ta’biri bilan aytganda “vas’e (keng) maydon” bo‘lgan ushbu she’riy shaklning qofiyalanishi ham o‘ziga xos: a-a, b-b, d-d, … shaklda. Misralar qofiyalarining ohangdorlik, jozibadorligiga, radiflarning tabiiy, ravonligini ta’minlashga hissa qo‘shgan bu usul o‘quvchini o‘ziga bog‘lab, doston voqealari rivojining har bir burilishiga birdek taalluqli tarzda kengayib boradi.

Ma’lumki, mumtoz adabiyotning masnaviy shakli orqali qalam sohibi o‘z iqtidorini, quvvayi hofizasini o‘zi istagancha ifodalashi, rag‘bat va e’tirozini, shodlik va qayg‘usini boricha, erkin ifodalay olishi mumkin edi. Shu bois ham Dehlaviy boshlab bergan “Xamsa”chilik dostonlari mazkur she’riy shaklda bitilgan. O‘z davrida Navoiy ham dostonni masnaviyda nihoyalar ekan, qahramonlarning suhbati, bir-biriga yo‘llagan maktublari, hatto Xusrav bilan Farhod o‘rtasida kechgan to‘qnashuv, savol-javobni ham “o‘z holiga” qo‘yib beradi. Qahramonlarning qay holatda o‘zini qanday tutishi, suhbatga qanday kirishishi, o‘zini-o‘zi boshqarishi go‘yo to‘qima yaratilmagandek, go‘yo shoir tomonidan kuzatilgandek. Farhodning o‘z raqibi – Xusrav qarshisidagi irodasi, aql-u zakosi, ta’lim-tarbiyasi, ichki “men”ining barqarorligi shohning savollariga qilgan javobida yanada yaqqol namoyon bo‘ladiki, go‘yo kun va tunning bir nuqtada oshkora qarama-qarshiligi akslanganidek, o‘quvchini hayratga soladi. Farhodning qaltis vaziyat qarshisida turganda ham o‘z viqorini, o‘zligini yo‘qotmaganligini, shohning savollariga osonlik, vazminlik bilan bergan javoblaridagi odobni quyidagi misralarda ko‘rishimiz mumkin:

“...Dedi: Ol ganju qo‘y mehrin nihoni!
Dedi: Tufroqqa bermon kimiyoni.

Dedikim: Shohga bo‘lma shirkatandesh*,
Dedi: Ishq ichra tengdur shohu darvesh.

Dedi: Ishq ichra qatlig‘ hukm etgum!
Dedi: Ishqida maqsudimg‘a yetgum”.[6]

*bu yerda – o‘zini teng qo‘ymoq.

Ko‘rinadiki, shohning do‘q-po‘pisalariga qat’iy ishonch, bukilmas iroda bilan javob berayotgan yigitning ishq yo‘lida qat’iyligi, mardonavorligi shu tahlit davom etadi. Farhodning ko‘ngil dardi, yurak otashini tushunmagan, tushunishni ham istaman Xusravning harakatlaridagi qasos, shiddat ham yigitni zarracha bo‘lsin qo‘rquvga, tahlikaga solmaydi, aksincha, Farhodning g‘anim qarshisida o‘zini muzaffar tutishi o‘quvchiga yigitning podshohga yo‘llagan javoblari nisbatida yetkaziladi. Bu o‘rinda Hazrat Navoiyning bir muhim ishorasi bor: ishq ahlining hamisha, har qanday holatda ham g‘olibligi, bu g‘oliblik uning pok qalb, pok ruh, pok tani ila vobastaligi. Nafs (Xusrav)ning esa alal-oqibat o‘z girdobiga o‘zi g‘arq bo‘lishi muqarrarligidir.

Dostonda badiiy mukammal ifodalangan yigit obraziga bevosita aloqador qahramon – Shirin obrazi ham Farhod shaxsiga mos, mutanosib shaklda tasvir etilgan. Tarixchi Tabariyning ta’biricha, o‘z davrining go‘zali bo‘lgan Shirinning husn-u malohati, lutf-u nazokati zoxiriy chiroyi aksi bo‘libgina qolmay, botiniy olamining charog‘on, ilmdan, aql-u xushdan, ta’lim-tarbiyadan farovonligidan ham darakdir. Xalqi uchun g‘amxo‘r, adolatpesha, mehr-shavqatli, izzat-e’tiborli, rahmdil va olijanob qiz – malika Shirinning asar voqeliklariga aloqadorligi, ayniqsa, shoh Xusravning kutilmagan, boylikni ko‘zlagan, ishqning asl mohiyatidan bexabar yo‘llagan “muhabbatnoma”sini keskin rad etishi, shoh nomasidagi soxtalikdan, qo‘rslik va qo‘pollikdan, andishasizlarcha bildirilgan so‘zlardan g‘amga to‘lgan,

“uni ko‘rishdan menga o‘lim yaxshiroqdir” degan fikrda, Xusrav lutfiga javob qaytarishi, qaytarganda ham chuqur idrok, faxm-u farosat ila dil bayonini yo‘llashida ham ayol zakosining namoyon aksi bor. Bu o‘rinda Shirinning (qizning) ham ahdiga vafodorligi, muhabbatiga sodiqligi, Yaratgan qudrati ila qalbida naqshlangan ishqning o‘ziga oshkor, o‘zgalarga pinhon bo‘lgani holda latiflik kasb etishi olamda ayol sadoqati ustun, so‘nmas ekanidan dalolat beradi. Shoh Xusravning boyligi, martabasi-yu shohona hayotini emas, g‘arib va favqulotda ko‘nglining shohona egasi, mardona pahlavon Farhodidan bir lahza bo‘lsin voz kechmasligi dostonda g‘oyat ta’sirli kuylangan. Ishqqa boylik, mansab-u nafs bilan sazovor bo‘lish mumkin emasligini anglamagan, anglashni-da istamagan Xusravning taqdiri esa doston so‘ngida adolatli hukm topadi.

Navoiy mazkur dostoni orqali mehrga, muhabbatga, hunarga ochko‘zlik va g‘arazlik bilan emas, balki kamtarlik, to‘g‘rilik, insof, diyonat, sabr, mehnat-u mashaqqat bilan erishish mumkinligini oshkor etadi, o‘quvchini ogohlikka, botiniy go‘zallikka, ichki mukammallikka undaydi, da’vat etadi. **“Farhod va Shirin” asarini durga o‘xshatgan Navoiy uni sindirganlarning qo‘lini sindir, yaxshi qabul qilganlarga yaxshilik qil, deb tangridan so‘rab: “Ani sindurg‘an elni qil shikasta, Xujasta ko‘rgan elga tut xujasta” – deya birinchi bobni tugatgan.** [7]

Aslida yaratilajak har bir asarning, xoh u to‘rtlik bo‘lsin, xoh u yirik hajmli doston – so‘zlarning ma’naviy quvvati, nasriy bayoni, nazmiy ifodasini badiiy kompozitsion tarzda ifodalash qalam sohibidan ichki ta’limiy, ijodiy kuch, so‘nmas iroda, tolmas sabr talab etadi. Reallikni badiiy to‘qima, qizg‘in syujet, o‘tkir ifoda bilan muvofiqlashtira olish ijodiy mehnatning mashaqqatli yo‘lidir. Bu yo‘l ijodkorni ilhom bilan qolishga, qahramonlar bilan yuzma-yuz bo‘lishga, ular bilan suhbatlashishga olib boradi. Alisher Navoiy o‘z davrining piri komili, shoirlar ulamosi, rahnamosi sifatida ana shu sharafli yo‘lni mardonavor, umrining so‘nggi daqiqalari qadar sabr ila bosib o‘tgan shaxs, chin manodagi INSONdir. Navoiy “Xamsa” asarini boshlar ekan, Xamsachilik an’anasiga tamal toshini qo‘ygan Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiylarni ustoz darajasida bilib, dostonlarni yaratish avvalida ularga g‘oyibona murojaat qilgani holda,

yaratilajak buyuk asari uchun kamtarona izn so‘raydi, ustozlarini misralar yog‘dusida ulug‘laydi, sharaflaydi. “Xamsa” dostonlaridagi syujet yaxlitligini o‘zgartirmagan holda ularni yangi personajlar, yangi voqeliklar bilan boyitish, kiritilajak yangiliklarni asar ruhiga g‘oyat puxtalik, mohirlik bilan singdirish maqsadi, ahdining ustidan chiqadi.

Navoiy o‘zidan avvalgi davrlar ruhida yaratilgan “Xamsa” dostonlari va shu dostonlarda ahamiyati jihatdan barobar bo‘lgan yetakchi qahramonlarni ilk bor turkiy tilda qalamga olar ekan, Xamsachilik tarixiga kutilmagan yangilikni olib kiradi. Bu yangilik “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhodning boshqa qahramonlardan bo‘lak yuksak, alohida etib tanlab olinishidir. Yigitning vujudi, aqli, ruhi, qalbidagi ko‘p qirrali xislatlar Navoiyning bir er kishida ko‘rishni orzulagan niyatlarining yorqin ifodasi o‘laroq badiiy bo‘yoqdorlikda tasvir etiladi.

Umuman olganda, Alisher Navoiyning pok orzulari, istak va niyatlari, komillik yo‘lida sodiqlik, sobitligi nafaqat “Xamsa”, balki “Lison ut-tayr”, “Me’zon ul-afzon”, “Majolis un-nafois”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarida ham o‘z ifodasini topgan. Navoiy lirikasining murakkabligi, mukammalligi shundaki, shoir insonni bir vaqtning o‘zida zohiriy va botiniy qiyofasi bilan “yolg‘iz qolishi”ga, o‘zi bilan o‘zi sirlashishiga undaydi. Asarlaridagi qahramonlar obrazini o‘quvchiga namuna qilib qo‘rsatadi. Maqsad – o‘quvchining asarlarda keltirilgan qahramonlarda o‘z qiyofasini, o‘z “men”ini topishi. Oshiqlik maqsadi, ma’shuqalik mazmuni, nafsning ko‘yi, ishqning kuyi, hijron va diydor orasidagi masofa, barcha-barchasi tadrijiy izchillikda namoyon bo‘lib boraveradi.

Navoiy shaxsini, she’riyatini anglash davomiy jarayon. Shoirning bitmas-tuganmas xazina, ma’naviy meros sanalgan asarlari ma’no-mazmunini tushunishda, avvalo, har bir so‘zga ilmiy-ijodiy yondashmoq lozim. Ishqi ilohiy dardi ila yo‘g‘rilgan misralar ohangrabosini sezish uchun kishining quvvayi hofizasi to‘kis bo‘lmog‘i zarur. Yuksak ijod mahsuli bo‘lgan nazmiy, nasriy asarlarda nihon “sir”larning “oshkor bo‘lmog‘i” esa bir o‘qish yoki tarjima orqali tushunish bilan kifoyalanmaydi. Ilohiy dard bilan yaralgan baytlar sof ko‘ngil ko‘shkida sado bergandagina o‘z “sir”ini oshkor etmoqqa qodir.

Iqtiboslar/Snoski/References

[1, 2, 3, 7] B.To‘xliyev, M.Qo‘shmoqov. Adabiyot. ”Abituriyent-2012” loyihasi turkumidan. – T.: 2012. – 158, 165, 171 bet (B.Tuxliev, M.Kushmokov. Literature. From the series “Applicant-2012”. – T.: 2012. – Page 158, 165)

[4, 5, 6] V.Rahmonov, A.Hojiahmedov. Xamsa. Alisher Navoiy. – T.: Yangi asr avlodi, 2010. – 5, 79, 120 bet (V.Rakhmonov, A.Khojiakhmedov. Xamsa. Alisher Navoi. – T.: “New Age Generation”. – T.: 2010. – Page 5, 79)

NAVOI AND UZBEK LITERARY LANGUAGE

Abdulboqiyeva Moxichehra Hamidulla qizi

Namangan state university

Faculty of music education

Annotation: Alisher Navoi is one of the great figures in the history of the Turkic people's literature, culture and science. Nobody in the history of these peoples has written so much and did not write as a Navoi. At that time, in which genre and style were created in the Persian language, all of them had high literary, immortal works in Uzbek. He has even created genres in the Persian literature. The poet includes more than 30 poetical and prose works, such as "Khazoyin ul-maaniy", "Devoni Foniy", "KXamsa", "Majolis un-nafois", "Mezon ul-avzon", "Lisan ut-tayr", "Muhokamat ul-lug'atayn". He wrote not only Turkic literature, but also became one of the great figures of world literature.

Keywords: ancient Uzbek literary language, common Turkic language, classical literature, Chagatay literature, official language.

Аннотация: Алишер Навои – одна из великих фигур в истории литературы тюркских народов,культура и наука. Никто в истории этих народов столько не писал и не писал
как Навои. В то время, в котором жанр и стиль были созданы в персидском языке, все они
имел высокие литературные, бессмертные произведения на узбекском языке. Он даже создал жанры в персидской литературе.В состав поэта входит более 30 поэтических и прозаических произведений, таких как «Хазойын ул-маани», «ДевониФоний», «Хамса», «Мажолис ун-нафойс», «Мезон ул-авзон», «Лисан ут-тайр», «Мухокамат ул-лугатайн». Он написал не только тюркскую литературу, но и стал одним из великих деятелей мировой

литература.

Ключевые слова: древнеузбекский литературный язык, общетюркский язык, классическая литература, чагатайская литература, государственный язык.

Annotatsiya: Alisher Navoiy turkiy xalqlar adabiyoti tarixidagi buyuk siymolardan biri,

madaniyat va fan. Bu xalqlar tarixida hech kim bunchalik ko‘p yozmagan va yozmagan Navoiy sifatida. O‘sha davrda fors tilida qaysi janr va uslubda yaratilgan bo‘lsa, hammasi o‘zbek tilida yuksak adabiy, o‘lmas asarlar bor edi. U hatto fors adabiyotida janrlar yaratgan. Shoirning “Xazoyin ul-maoniy”, “Devoni” kabi 30 dan ortiq she’riy va nasriy asarlari bor. Foniy», «Xamsa», «Majolis un-nafois», «Mezon ul-avzon», «Lisan ut-tayr», «Muhokamat ul-lug‘atayn” nomli asarini yozdi. U nafaqat turkiy adabiyotni yaratdi, balki dunyoning buyuk siymolaridan biriga aylandi.

Kalit so‘zlar: qadimgi o‘zbek adabiy tili, umumiy turkiy til, mumtoz adabiyot, chag‘atoy adabiyoti, davlat tili.

"Because of the richness and richness of its own language treasury, Navoi is among the Shakespeare, Pushkin, and Firdavs, none of whom has written the works of the treasury".The Turkish (Uzbek) language was humiliated in that language the writing of this work was defended by the same language. He also proved that he can write works of art in Uzbek language too. He encouraged poets from the Uzbek nation to write in Uzbek language. In Turkology, there are different opinions about the language of Navoi, its name, which language or dialect it is based on. His ideas about the Soviet literature and the role of the Uzbek literary language in the Soviet era are quite remarkable. It is known that in 1970 – 1980 years, Navoi is the founder of Uzbek literature and the Uzbek literary language. In 1940 there was published a collection of articles about Navoi and his work “Founder of Uzbek literature”. In 1946 in the book “Alisher Navoi” dedicated to the great poet‟s creativity and his article was published an article by A.Borovkov. “Alisher Navoiy as a founder Uzbek literary language”. In this article A.Borovkov attempts to

prove that Navoi is the founder of the Uzbek literary language. At the beginning of his article, he wrote: Alisher Navoi proudly speaks about the episode in the “Lison ut-Tayr” He is a founder Uzbek literature, saying like that. Navoi‟s struggle for its literature also meant fighting for the creation of a literary language”.

Obviously, the word “founder” does not appear in the Russian text in the transcript of this beit in the translation of A.K.Borovkov. The great connoisseur of the epic of the “Mantiq ut-Tayyor” and the poet of the Navoi language "Lison ut-Tayr" by Attor, the E.Bertels translates the beit as following into Russian: “Kogda podnyal znamya v turetskix stihah, Ya vse eto tsarstvo podchinil moemu prikazu”. Here again, there is no word "founder". A.Borovkov says there is something incompatible with his idea. A.Usmanov also quoted his poem called "Lison al-Tayr" from Navoi's poem (The translation of this beite into Russian is the same as that of A.K.Borovkov), as Navoi himself proudly proclaimed in "Lisan ut-Tayr" as the founder of Uzbek language and literature, the fighter and the flagman". As you can see, A.Usmanov also said that under the influence of A.Borovkov, the Navoi did not saying opinion, but say "the founder of Uzbek language and literature".

It should be noted that this bay of Navoi is not understood to be the founder of Uzbek literature and, consequently, the Uzbek literary language. It is a mistake to make a serious conclusion like the one above, based on such an artistic text that has been written in a high-tech, fundamentalist word or one of its synonyms. If Navoi wanted to say that he was the founder of Uzbek literature, he would have used the word “vozi”. This word clearly expresses the word "founder". It can be found in the following passage from his Mezon ul-Avzon: "Bu ilmni nechun “aruz” dedilar, muxtalif aqvol bor. Ul jumladin, biri bila iktifo qilulur. Va ul budurkim, Xalil ibni Ahmad rahmatullohki, bu fanning voziudur". Interestingly, A.Borovkov seeks to prove that Navoi is the founder of the Uzbek literary language and interpret some of the beites according to his idea. For ehample, from the poet's"G’aroyib us-sig’ar" the following two beites are added:

Men ulmenki to turk bedodidur,

Bu til birla to nazm bunyodidur,

Falaĸ kōrmadi men ĸibi nodire

Nizomiy ĸibi nazm aro qodire.

In general, the word "ul" in the works of Navoi has never been found. The Word “ul” is written in the basics of the XII-XIII centuries. A.K.Borovkov intends to prove his thesis in Navoi himself and try to convince people. But as it can be seen, he can not achieve it. In the "Explanatory Dictionary of the Uzbek Language", the word "founder" refers to the

words "the one who laid the foundation, the one who laid the foundations; a person who has built, establishes or initiated a thing; creator. If it is based on these sources, it would be wrong to say that Navoi is the founder of Uzbek literature and the Uzbek literary language. It is well-known that before Navoi there were also Uzbek literature and Uzbek literary language. It is based on the foundations of the Uzbek literature and the Uzbek literary language.

Navoi's predecessors, Lutfi, Sakkaki, Atai, Hafiz Khorezmiy, Amiri and others, who lived in the first half of the XV century, wrote remarkable works in ancient Uzbek literary language. Even Navoi is highly appreciative of Lutfi. Why, then, A.Borovkov, A.Usmanov, in general, do not call almost all Lutfi or Sakkoki in the Soviet era but the founder of Uzbek literature and Uzbek literary language? A.Usmanov explains why: "We know that Uzbek literature was to Navoi. But only Navoi raised it to a great level of development. Even though some of the poets in Navoi had created some of the oldest Uzbek literary texts, he did not bring the Uzbek literature to the Persian literature” (he confirm this in poem “Muhokamat ul-lugatayn”).

Kh.Daniyarov also commented:

"No one has ever served Alisher Navoi before the rise of the ancient Uzbek literary language. In this sense, we consider Alisher Navoi as the founder of ancient Uzbek literary language".

N.Mallayev emphasized that Navoi's works have been widely used in the works of Navoi, from the lexical wealth of the Uzbek language, synonyms and their legends, folk tales, articles and fables, phraseological, ideological combinations. That is why Navoi was the founder of ancient Uzbek literary language.

Firstly, the title of the founder does not give rise to a great degree of development in literature, or because of the abundance of service or the use of the lexical wealth of the Uzbek language. It is known from the statement made by the founding member.

Secondly, Uzbek poets have long passed to Navoi. Some of them, for instance, have been able to compete with Lutfi's mature Persian poets, such as the "Owned Word of His Own Time" (Navoi). Navoi him self writes: "And in the medieval part of the Persian, there was no one who did not appear, but a Mavlana Lutfiy's altercation ...".

A.Usmanov for some reason does not pay attention to Navoi's statement and says, "He confirms that he was not a poet until recently, so he continued to dominate the Persian language to Navoi as a literary and official language".

First of all, A.Usmonov's opinion contradicts Navoi's opinion. In addition, the Persian language remained a dominant language both in and around Navoi. Thirdly, "the old Uzbek literary language was mostly formed in XIII century", and in some sources “the old Uzbek language is writing language, which I formed in XIV century and until end of XIX century". [13. p.266]. That is, Navoi was built as long as there is an old Uzbek literary language ... Some linguists have said that. For ehample, he wrote about Navoi: "Though it is not the founder of East Turkic literature, everyone accepts it, but with the

numerous works in Turkish, and also against the Turkish national elements, in the lives of Iran's oppressive and negative attitude and after his death he gained a profound respect for his fellow citizens".

"The old Uzbek literary language, as well as Alisher Navoi, is based on a certain level", says Kh.Daniyarov. It seems that he is afraid of the idea that he is elsewhere in this book "We fully agree with the idea that Alisher Navoi is the founder of ancient Uzbek literary language".

Almost nobody has opposed the idea that the center of attention was "the founder of Uzbek literature and the Uzbek literary language". Scientists, writers, and generally most people had to accept this view. It is worth noting that Kh.Daniyarov's

"We are Uzbek philologists, and we all agree that Alisher Navoi is the founder of ancient Uzbek literary language".

It should be noted that Navoi did not fully accept the idea that the founder of Uzbek literature and the Uzbek literary language. For ehample, Gafur Gulam said: "One of the great figures of the XV century, a prominent statesman, one of the founders of our language, is Alisher Navoi, the great poet of Uzbeks, wxose fathers and patriarchs, with their dignity and creativity, with their creative and vital activity", said as a Navoi is a founder”.

So, why do all the Soviet scientists and writers say that Navoi is the founder of Uzbek literature and Uzbek literary language? To find out why it is important to pay attention to the political situation in the 1920-1930 years, the events taking place in the country, and the attitude to Navoi in the literature.

It is known, since the early days of the Soviet Union, there were conflicting views on the issue of cultural heritage. Some have argued that some have to abandon cultural heritage altogether, while others claim that it is critical to use it. The same is true of past writings. In Uzbekistan, too, there was a time of intense debate. For ehample, J.Boybulatov tells about Chigatay literature, that is,

the classic Uzbek literature: “The artists who are fleeing the real world are, of course, the only monuments of their time. From this fanciful, mystical and symbolic one we can get something for the modern Uzbek proletariat literature”. He continued on this subject: "Can we build the literature of Chagatay in the proletariat? We told the poets of Chewing that they are not mystic. For ehample, we can show Navoi, the "father" of the Chigatat poets. It is widely known that Fitrat's "Uzbek Literature samples" were widely criticized for Navoi's creativity in it.

In general, the policy of the Soviet at that time was to separate small nations from their history. Therefore, they were trying to deprive the Uzbeks of the classic literature and its brilliant representative Navoi. A lot has been done to achieve this goal. However, as their intentions failed, they began applying different tactics. Now they seized Navoi from nationalists and used them for their own political purposes.

It is well known that in the 1920-1930 years, the Turkic movement was even more widespread in Uzbekistan. Their purpose was to create an overall Turkish language for all Turkic peoples. The founder of this stream is Ismail Gaspirali. Under the influence of Turkish and Tatar Turks, Turkic ideas have also spread in Uzbekistan. The Turkic people did not recognize that Uzbeks, Kyrgyzs, Kazakhs, Turkmens and others were independent peoples, they were called "tribes of the great Turkic nation" and they worked to create a common civilized culture with these "great, unique Turkic language". The Turkic people declared Navoi the father of all Turkic peoples. Aybek said:

"Pan-Turkic writers and critics have tried to portray Navoi as the first poet to raise the first Turkic national flag in history".

Thus, the movements that were xostile to each other, Turks, nationalists, and Bolsheviks tried to use Navoi for their own purposes. It is worthwhile to recall that Hamid Alimjan was a

quarrel in Navoi. And Aybek also wrote: "The bourgeois ideologists, the Pan-Turkist in various forms ... sought to serve him (the Navoi –Berdakj Yusufʻs opinion) ideologies".

Hamid Alimjan and Aybek's ideas reflect the difficult, complicated situation at that time. The Soviets, who had previously ignored Chigatay's literature – txose who did not recognize the Uzbek classic literature, and therefore Navoi – and who had promoted them, would now make it their own.

The language of Navoi's works was not well-studied in the 1920 years and 1930 years. So, what language the poet wrote in his own language, his language is closer to one of the languages of today's Turkic languages, in general the Navoi language is either the general or the Uzbek language? There was a lot of excitement over questions like this.

It is well known that the Soviet policy was based on the principle of " be and manage". They divided all Turkestan and set up a nation for each nation. Then the Soviets invented it for every nation the founder of his language and literature. For ehample, Abai, the founder of the Kyrgyz literature Toktogul, the founder of the Tukmen literature Mahtumquli, founder of the Tajik literature Rudaki, the founder of the Tajik Soviet literature S.Ayni, the founder of the Uzbek literature and literary language Navoi, the founder of the Uzbek Soviet literature Hamza and others.

Such a rule does not happen in other nations. For ehample, he is the founder of British literature and literary language, the founder of Turkic literature and literary language. If Navoi is the founder of Uzbek literature and the literary language, then in the first half of XIV and XV centuries, “Nahjul-farodis” (1357-1358), created in Khorezm and Golden Orda, and “Khusrav and Shirin” by Kutb (1341), Khorezmiʻs "Muhabbatname" (1353), "Gulistan bit-turkiy" by Sayfi Sarayi (1390-1391) and other works will be under the doubt.

As you know, the language is created by the people. Literary language is not created by one person. "Literary language is always a product of collective creative activity", said V.V.Vinogradov. In his opinion, Alexander Pushkin is the organizer and creator of the Russian national literary language. Other Russian scholars say Pushkin is the founder of Russian literature. The English Language lecturer R.Oti writes: "The change in literary language can be the result of the activities of individuals or institutions (grammarians, writers, academics,
and even political figures). But here the role of the whole community plays a decisive role".

If we call Navoi is a founder of ancient Uzbek literary language, then who is the founder of modern Uzbek literary language? Naturally, there is no founder of modern Uzbek literary language. The great role was played by Fitrat, A.Kadiriy, Chulpan, G.Gulam, Aybek, H.Alimjon and other scholars in its formation and development. Similarly, there are great services of Navoi, Bobur, Lutfi, Atayi, Sakkaki and others in the formation and development of the ancient Uzbek literary language. In conclusion, it can be said that Navoi remains the genius of the Uzbek people, although Navoi is not the founder of Uzbek literature and the Uzbek literary language (he does not need it).

References

1. Alishe’r Navoiy. Mukammal asarlar toplami. XVI-tom. T.: 2000.

2. Baybulatov. Dj. Chagataizm-panturkizm v uzbekskoy literature. M-T.: 1932.

3. Bertels. E.E. Navoi i Attar. V sb. Mir- Ali- Shir. L.1982.

4. Borovkov. A.K. Alisher Navoi kak osnovopolojnik uzbekskogo literaturnogo yazika //
Alisher Navoi. M.L. 1946.

5. Vamberi. Istoriya Buxari. 1873.

6. Vinogradov. V.V. Istoriya russkogo literaturnogo yazika. M.: 1978.

7. Дониёров. Х. Эски ўзбек адабий тили ва қипчоқ диалектлари. Т.: 1976.

8. Mallaev. N. Ōzbek adabiyoti tarixi. T.: 1976.

9. Oybek. Mukammal asarlar toplami. XII tom, T.: 1979.

10. Slovar russkogo yazika. IIm, M.:1982.

11. Usmonov. A. Muhokamat al-luğatayn Alishe’r Navoiy. T.: 1948.

12. Hamid Olimjon. Mukammal asarlar toplami. V tom. T.: 1982.

13. Ōzbekiston Milliy ensiklopediyasi. 10-jild. T.: 2005.

14. G,,afur G,,ulom. Mukammal asarlar to,,plami. 12 tomlik. 11-tom. T.: 1989.

15. Hozirgi ozbek adabiy tili. T.: 1980.

16. Odilovna, R. M. (2018). The Role and Status of Linguistic Markers in the System of Symbols.

ANGLISTICUM. Journal of the Association for Anglo-American Studies, 7(7), 29-34.

17. Khursand, T. (2018). Synharmonism of Inter-Components of the Literary Style Evolution in

the Uzbek Literature. ANGLISTICUM. Journal of the Association for Anglo-American

Studies, 7(6), 66-72.

18. Alijon, A. (2018). The Relations of Turkic Lexical Units in the Bukhara Oghuz Dialects to

Other Turkic Languages and Heritage. ANGLISTICUM. Journal of the Association for Anglo-

American Studies, 7(6), 95-100.

19. Kurbanmuratovna, G. O. (2018). About The Composite Features Of The Trilateral Art Forms

In Modern Uzbek, Turkmen And Karakalpak Poetry. ANGLISTICUM. Journal of the

DUNYONI MA’NAVIY TANAZZULDAN QUTQARA OLADIGAN MUTAFAKKIR

Diyorbek Jo`ramirzayev
O`zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Mediamarketing yo`nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola g`azal mulkining sultoni, davlat va jamoat arbobi, mutafakkir, balki buyuk tilshunos olim Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug`atayn” (Ikki til muhokamasi) asari o`zbek tilining naqadar boyligi va u orqali xalqimiz ma`naviyatining nechog`lik buyukligini anglashga, tushunishga ko`mak beruvchi nodir qo`llanma haqida so`z yuritilgan.

Kalit so`zlar: XV asr, Xuroson, turk, fors, folklor, Husayn Boyqaro, masnaviy, ilm-fan, sivilizatsiya

Аннотатсия: В этой статье "Мухокамат ул-лугатаин"(Дисскусия двух язиков) говорится о том, насколько велика духовность нашего народа, и о том, насколько великого творчество великого учено-лингвиста, государственного и общественного деятеля, мыслителя Алишера Навои

Ключевые слова: XV век, Хорасан, турецкий, персидский, фольклор, Хусейн Бойкаро, маснави, наука,цивилизация.

We have set ourselves the great goal of building the foundations of the Third Renaissance in our country, for which we must create an environment and conditions that will educate new Khorezmians, Beruni, Ibn Sina, Ulugbeks, Babur and Navoi. At the same time, first of all, the development of education and upbringing, healthy lifestyle decisions, the development of science and innovation should serve as the main pillars of our national idea.

Shavkat Mirziyoyev

President of Uzbekistan Republic

Annotation: This article is about the richness of the Uzbek language and the spirituality of our people. There is a rare guide to help you understand how great it is.

Key words: XV century, Khorasan, Turkish, Persian, folklore, Khusain Boyqaro, masnavi, science, civilization.

Great representatives of a people or a nation consider their language and literature to be, first of all, the pride of that people or nation, as well as a means of communication, and fight for their development. We know that the land of Uzbekistan, which has long been a crossroads of world civilization and culture of different people, is the cradle of science and enlightenment. This is evidenced by the large number of thinkers and scholars who grew up in our country, the fact that their scientific and literary heritage is being studied in depth by the people of the world, and on this basis, new discoveries are being made. One of such great scholars, poet, thinker, as well as the great linguist Mir Alisher Navoi, the development of the literature of his people and the development of language has always been in the center of attention of the writer. Therefore, in order to solve this problem facing his people, he decided to write "Muhokamat ul-lug'atayn" based on the socio-political and cultural requirements of his time. Through this work, Navoi, both theoretically and practically, revealed the great potential of the Uzbek language for rich, artistic creation, along with other languages, and thus successfully fulfilled its duty to his people. It is known that the prestige and level of a nation's literature are determined by the literary geniuses of that nation. Khusain Boykaro from the land of Khorasan, who has become an appreciater of literature and art, mentions only two names. Abdurakhmon Jomi and Alisher Navoi. Khusain Boykaro was also an intelligent politician and literary figure who was proud of the fact that Khorasan, the ruler of the time, had become a country of poets, writers and scholars.

The creation of Alisher Navoi's work "Muhokamat ul-lug`atayn" was in a sense inspired by the "Risola" of Sultan Khusain Mirza, mainly dedicated to Alisher Navoi. Enlightened king, the last great Temurid Khusain Boykaro and Navoi shared a

passion for the future of the Uzbek language and literature. Even the fact that Khusain Boykaro issued a state decree urging poets from the Turkish dynasty to write more in the Uzbek language shows that this issue is relevant in the country. An important basis for the development of the Turkish language and literature of the XV century was laid. In linking Turkish literature with Persian literature, Navoi alone played a literary role, performed by dozens of poets. His works, both in terms of artistic power and universal significance, rightly brought Alisher Navoi, Nizami Ganjavi, Sadi She’rozi, Hafiz She’rozi, Amir Khusrav Dehlavi to the ranks. In the time of Alisher Navoi, the main reason for Uzbek poets to write more in Persian was their ignorance of the possibilities of Uzbek language expression. This led the Persians to believe that Uzbek was an imperfect language for creativity. In fact, the reason is that the laws of the Uzbek language are not fully developed, the theoretical foundations of the Uzbek language, which are not specific to the Persian language, but are important for creativity, are not created. With this in mind, Navoi revealed the features of the Uzbek language that are not specific to the Persian language, but are important for the creator in the work "Muhokamat ul-lug'atayn". One of them is the fact that in Uzbek, in addition to words that mean general concepts in relation to Persian, there are a lot of words that express partial concepts, and some of them are translated into Persian, and the other is the abundance of formal words. The word same in a formation is necessary for the arts of tajnis, and thirdly, the presence of grammatical forms and elements in Uzbek that are not in Persian, but necessary for speech, for ehample, in Uzbek there is a case category and in Persian there is not. Fourth, the phonetic feature of the Uzbek language is that it is more convenient for rhyme than the Persian language. So, what aspects of the Uzbek language and literature does Navoi pay attention to in order to raise the status of the language?

Academic Alibek Rustamov, who studied the book "Muhokamat ul-lug'atayn", noted that one of the invaluable services of Navoi to the Uzbek people was the effective use of words from unused Turkish dialects, enriching the literary language with new words. In his second work, he created subtle and brilliant ways to create

lexical units that meet the artistic requirements of creating new words based on existing words and affixes.

Third, he effectively studied Turkish dialects and folklore, created a literary language, enriched it with new meanings of words. Thus, the use of the Uzbek literary language has expanded, its aesthetic value has increased and its scientific and artistic power has increased. The socio-political, literary and cultural life that prevailed in Khorasan and Movarounnahr also played a special role in the creation of this work. With the restoration of the reign of Navoi Sohibkiran Amir Temur, the Uzbek language was opened as a state and literary language, but there were no well-known Turkish poets. He noted that good Turkic poets had grown up, and that this opportunity had risen to the level of state policy during the reign of Khusain Boykaro. Descriptive and analytical interpretations of the life, personality, image and work of Alisher Navoi are manifested in Giyosiddin Muhammad Khandamir's "Makorim ul-axloq" ("Noble Behaviors"), in more than a dozen works of Abdurahman Jomi, in the memoirs of Zayniddin Mahmud Vasifi "Badoe` ul-vakoya" , Mirza Mukhammad Haydar’s "Tarixi Rashidiy", Zahiriddin Muhammad Babur's "Vaqoe" (Boburnoma) and many other historical works and epics. However, the analytical-theoretical connection that all but “Boburnoma” were works in the Persian language was very correct. It is natural that the enlightenment of the genius Navoi's work was not fully understood by the intellectuals of the XV century, especially the Uzbek writers and poets. Most importantly, he had the opportunity to prove that his language is a great vocabulary in the work of any other word artist than Navoi. Accordingly, Navoi was well aware that his work is a supreme ehample of the native language and literature. Therefore, the author of the work was obliged to discover himself and his own creativity in order to encourage and motivate Uzbek writers and poets to write in their native language.

Information about the epics "KXamsa" of "Muhokamat ul-lughatayn" is very important for the research of our modern Navoi scholars in the sense of novelty. In particular, it is noted in the play that "KXamsa", "KXamsatain" was not the only

answer to the five of Nizami Ganjavi and Amir Khusrav. If in "Hayrat ul-abror" Alisher Navoi followed Nizami Ganjavi, in "Farhod and Shirin" Amir Khusrav, in the writing of the epic "Layli and Majnun" to the epic "Gavharnoma" by Haji Kirmani, in the writing of "Sabai Sayyar" Mavlono Ashraf's epic "Haft Paykar" and Abdurahman Jami's epic "Hiradnomayi Iskandari" (Alexander's wisdom) were written at the end of the epic "Saddi Iskandariy". Mukhammad Haydar Mirzo in his book "Tarixi Rashidiy" gave a lot of information about Alisher Navoi. In particular, he noted that Alisher Navoi's poem "Tuhfat ul-afkor" is unique among poets in the competition for the title of "Daryoi abror". No one has responded as well as Mir Alisher Navoi to Khoja Khusrav Dehlavi's poem "Daryoi abror" (River of Goodness). Indeed, Navoi's series of poems "Fusuli arba" (Four Seasons) and other poems were recognized as the best ehamples of this genre in the literary environment of the 15th century Herat.

First of all, Navoi remembers his famous poets (Amir Khusrav Dehlavi, Khakani, She’rvani, Khoja Kalimiddin Salmon, Abdurahmon Jami) among the Persians. " Qasidai masnu "(Poems rich in arts)," Lujjat ul-asror "(depth of mysteries) "Tuhfatul-afkar ”(Gift of Thoughts),“ Nasim ul-Huld ”(Scene of Paradise),“ Qut ul-Qulub ”(Food of Hearts) determines the essence and significance of each of them.

Alisher Navoi also mentioned his services to the Uzbek literary language and literature in "Muhokamat ul-lug'atayn" in the epics "KXamsa" and "Lison ut-tayr". In short, Alisher Navoi expressed in his works ("KXamsa", "Khazoin ul-maoniy ”, “ Nazm ul-javohir ”), moral-educational (“ Mahbub ul-qulub ”), political and historical (“ Tarihi mulki-ajam ”,“ Tarihi anbiyo va hukamo ”,“ Haloti Sayyid Hasan Ardashe’r ”,“ KXamsat ul-mutahayyirin ”, “ Haloti Pahlavon Muhammad ”,“ Nasayim ul-muhabbat ”), and literature (“ Mezon ul-avzon ”,“ Majlis un-nafois ”) that the Uzbek literary language is an inexhaustible treasure, its source for the expression of any scientific and theoretical ideas, as well as for the celebration of the power of artistic expression. In "Muhokamat ul-Lugatayn" he summarizes all these achievements from the point of view, supports the views of friends on the rights of the Turkish language, and dispels the claims of unjust envy put a full stop.

He solved this great problem not on the basis of fake claims, but on the basis of deep-based evidence, enlightened ideas, in-depth scientific considerations, reasonable comparisons, and assessments of Navoi's work by Turks and Persians. As our first president said: - “Alisher Navoi is a great person who has formed an entire epoch in the history of consciousness and thinking of our people, artistic culture, an incomparable representative of our national literature, an immortal word artist who sang the pride and glory of our nation to the world. In other words, there is no person in the world who speaks Turkish and Persian, if he does not know Navoi, if he does not love Navoi, if he does not look at Navoi with devotion and faith, because to know Navoi is to know himself, to know Navoi. To love is to love the nation, to be loyal to Navoi is to be loyal to the noblest human values. ”

REFERENCES

1.Alisher Navoi “Muhokamat ul-lugatayn.” Tashkent, “Tafakkur” 2014 .
2.Mukhammad Khaydar Mirzo “Tarixi Rashidiy”. Tashkent, “Sharq” 2010
3.King and poet Khusain Boyqaro" Risola". Devon. Tashkent, “Sharq” 1995
4. Islom Karimov “Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch”, “Ma`naviyat” 2008

NAVOIY ASARLARIDA SHE’RIYAT VA ISLOM TA’LIMOTLARI UYG’UNLIGI

Nazimjonova Dilzoda Nizomiddin qizi,
O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi islomshunoslik yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hazrat Navoiy shaxsiyati, uning zabardast islom dini bilimdoni ekanligi, asarlaridagi islom dini ta’limotlari va buyuk she’riyat uyg’unligi haqida ma’lumotlar berilgan. Bu ma’lumotlar Navoiy asarlaridan olingan parchalar orqali sharhlangan.

Kalit so’zlar: Nizomiddin, “Xamsa”, “Hayrat ul-abror”, “Nazm ul-javohir”, Fuzuliy, Jomiy, tasavvuf, islom dini ta’limotlari, Qur’on, hadis, sharh, diniy-falsafiy qarashlar, she’riyat

Аннотация: В данной статье представлена информация о личности Хазрата Навои, о его великом учении в исламе, гармонии исламского учения и великой поэзии в его произведениях. Эта информация интерпретируется через отрывки из произведений Навои.

Ключевые слова: Низамиддин, “Хамса”, “Хайрат уль аброр”, “ Назмуль джавохир”, Физули, Джами, мистицизм, исламское учение, Коран, хадисы, комментарий, религиозно-философские воззрения, поэзия

Annotation: This article provides information about the personality of Hazrat Navoi, his great Islamic scholarship, and the harmony of Islamic teachings and great poetry in his works. This information is interpreted through excerpts from Navoi's works.

Keywords: Nizamiddin, “KXamsa”, “Hayrat ul abror”, “Nazmul javohir”, Fuzuli, Jami, mysticism, Islamic teachings, Qur'an, hadith, commentary, religious and philosophical views, poetry

Buyuk o’zbek shoiri, mutafakkiri Alisher Navoiy asarlari barcha zamon va makonlar uchun mos tushuvchi mukkammal asarlardandir. Qay zamonning istalgan sohasi va mavzusidagi muammo bo’lmasin Navoiy asarlarini sinchiklab o’rganish bunga albatta yechim topadi. Shu sababli ham Navoiyning o’chmas me’rosi xalqimizning ma’naviy ehtiyojini necha asrlardan buyon qondirib kelmoqda. Shuningdek, bu asarlarni o’rganish asnosida har bir oqil inson bu risolalarni o’z davrining diniy-falsafiy asarlaridan ekanini ham anglab yetadi. Sobiq Sovet davrida bobo-kalonlarimizning ilmiy me’rosini noto’g’ri talqin qilish oqibatida Navoiydek ulug’ olimni shahvoniy ishq va aysh-u ishrat kuychisi deb o’zlari istagandek, haqiqatdan qochib talqin qilishdi. Vaholangki, Navoiyning iymonli inson, din va ma’rifat peshvosi ekani, iymon inson uchun naqadar zarurligini o’z asarida shunday bayon qilishidan ham ma’lum:

“Naqdi jon chiqqanda iymon gavharin ko’nglimga sol,
Aylagil jondin judo lek etma iymondin judo”.

Sho’ro davrida ushbu asarlardagi diniy va tasavvufiy qarashlar chiqarib tashlanib, uzuq-yuluq targ’ib qilindi. Mustaqillik yillariga kelib bir qator tadqiqotlar natijasi o’laroq haqiqat suv yuziga balqib chiqdi va bunda o’zbek navoiyshunos olimlarining hissasi beqiyos bo’ldi.

Navoiy asarlarida buyuk she’riy san’at va diniy-axloqiy ta’limotlarning uyg’unlikda qo’llanishi uni zamonlar-u makonlarda eng yetuk olimlardan ekanini isbotlaydi. O’z davrining buyuk islom olimlari Qur’on oyatlari va hadislarni sharhlashda bevosita Navoiy va Fuzuliy asarlariga to’xtalganlari tarixdan ma’lumdir. Agar e’tibor bilan qaralsa, hazrat Navoiyning deyarli barcha ijod namunalarida oyat-hadislar, islom tasavvufi, diniy-axloqiy ta’limotlar yaqqol ko’zga tashlanadi. U “Nazm ul-javohir” asarida yozadi:

Olam eli ichra gar gado, gar shoh erur,
Ne dardki ul ko’ngli aro hamroh erur ,

Qur’onni tilovat etsun ar ogoh erur,

El ko’ngliga chun davo kalomulloh erur.

Xususan, Navoiyning “Xamsa” asarini chuqur o’rganilsa, bu devonda asosan tasavvufiy falsafa va dunyo qarash yoritilgani ko’rinadi. Bunda bandaning Allohga muhabbati va bu sharafli yo’lda uchraydigan to’siqlar hikoyalar orqali tasvirlab, sharhlangan. Navoiy “Xamsa”ning tarkibidagi har bir dostonni Allohga hamd-u sano va tasbehdan iborat ibtido bilan boshlab, qolgan boblarda rasulullоh (s.a.v)ga salovatlar aytadi va qiyomat daxshatlarini esga olib, Allohdan bu kunda panoh tilaydi. Xususan, “Hayrat ul-abror” dostonining birinchi bobini “Bismillahir Rohmanir Rohim” kalimasining fazilati va mazmunini shoirona uslubda bayon qiladi. “Saddi Iskandariy”ning beshinchi bobining sarlavhasida ushbu besh dostonni besh mahal namozga qiyoslaydi va ularni oyatlar bilan sharhlaydi:

“Bu “Xamsa” takmilidakim, salavoti Xamsa adosidek avval fajr sajadotidin “Siymohum fi vujuhihim min asarissujud” zumrasig‘a kirildi va zuhr rakaotidin “Varkau maarrokiin” xaylig‘a qo‘shululdi va asr qiyomidin “Va iqomas-salovot” jamoatig‘a yuz qo‘yuldi va mag‘rib qiroatidin “Iqra’ bismi rabbikallazi xolaq” xalqig‘a bosh induruldi va emdi isho niyatidin otil tab’ni g‘aflat uyqusig‘a borg‘oli qo‘ymayin.”

Navoiy “Layli va Majnun” dostoni xotimasida bu asarlardan murodi qandaydir afsona aytib berish emas balki, u orqali ruhning mazmuniga yashirin ma’nolarni tushuntirish ekanini ushbu bayt bilan izohlaydi:

Yozmoqda bu ishqi jovidona,

Maqsudim emas edi fasona.

Mazmuniga bo’ldi ruh mayli,

Afsona edi aning tufayli.

Lekin chu raqamga keldi mazmun,

Afsona anga libosi mavzun.

Alisher Navoiy asarlarida asosan tasavvufiy ta’limotlarni aks ettiradi va buni tushunish shu sohaning yetuk vakillariga xos bo’lgani tufayli ham u omma uchun shar’iy ko’rsatmalarga bag’ishlangan asralarga ham qo’l uradi. U tasavvufiy asarlarini noto’g’ri talqin qiladigan kishilarga tanbeh sifatida “Xazoin ul-maoniyda “ shunday bayt keltiradi:

Sen gumon qilg’ondin o’zga jomi may mavjud erur,

Bilmayin nafiy etma ba mayxona ahlin zohido.

Navoiyning tasavvufga qiziqishlari to’qqiz yoshida Qur’onni to’liq yod olgandan so’ng boshlandi va u shu asnoda Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” ini yod oldi. Alisher Navoiy 1465-1469 yillari Samarqand madrasasida bo‘ldi. U bu yerda tafsir, hadis, fiqh, kalom va boshqa ilmlarda bilimini chuqurlashtirdi. Taniqli olim Vadud Mahmud «Alisher Navoiy» degan maqolasida jumladan, bunday deydi: «Alisher 17 yoshda ekan. (Abulqosim) Bobur o‘lganidan so‘ng diniy va ilohiy ilmlar o‘rganmak istadi... Movarounnahrning markazi Samarqandga kelib, Xoja Jaloliddin Fazlulloh Abullaysning madrasasiga qo‘ndi».

Navoiy ustozi Jomiydan naqshbandiy tariqati bo’yicha irshod oladi va uning huzurida ko’plab tasavvufiy kitoblarni “Lavoeh” va “Lavome”, “Nafahot ul-uns”, Xoja Muhammad Porsoning “Qudsiya” kabi asarlarni o’qib o’rganadi. Alisher Navoiyni zamondoshlari ko‘pincha Nizomiddin Mir Alisher, deb tilga olishar edi. Akademik Aliybek Rustamov bu haqda quyidagilarni yozadi:

“ “Nizomiddin”- dinning nizomi, “Mir” esa amir deganidir. Navoiyning diyonati hamma zamon, hamma makonning hamma xalqlari, ayniqsa musulmonlar uchun o‘rnakdir. U Islom ibodati-yu muomalasi, axloq-u odobiga a’lo darajada amal qildi, o‘zini butunlay mamlakat taraqqiyoti va el xizmatiga bag‘ishladi. Shuning uchun unga “Nizomiddin” laqabi berildi”.

Professor Ismatulla Abdullayev esa ushbu fikrni quvvatlab, shunday yozadi: “Alisher Navoiy 28 yoshida Qur’on, hadis va boshqa diniy bilimlarni puxta o‘rganib, arab, fors tillari va adabiyotini, Islom davlatlari tarixini mukammal egallagan”.

Taniqli navoiyshunos olim Ibrohim Haqqul o‘zining “Tasavvuf va Navoiy she’riyati munosabatiga doir” nomli maqolasida jumladan shunday deydi:

“Navoiy ijodiyotining tasavvuf bilan bog‘lanishlarini isbotlashga tashqaridan “dalil” axtarishga ehtiyoj yo‘q: ular shoir ijodiyotining o‘zida mavjud”.

Hamidulloh Lutfullayev Husayn Voiz Koshifiyning “Mavohibi Aliya” asari Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviy hayotiga doir muhim manba” mavzusidagi dissertasiyasiga yozgan avtoreferatida Alisher Navoiyning faoliyatida Qur’on ilmlari o’rni haqida so‘z yuritib, Alisher Navoiyning Qur’on va hadislardan unumli foydalangani uning boshqa asarlarida ham kuzatilishini va “Nazm ul-javohir”, “Majolis an-nafois”, “Hayrat ul-abror”, “Sittai zaruriya” , “Nasoim ul-muhabbat”, “ Tarixi anbiyo va hukamo”, “Siroj ul-muslimin”, “ Xamsat ul-mutaxayyirin” asasrlarini misol qilib keltiradi.

Navoiy asarlarida Qur’on ilmlariga ham alohida ahamiyat qaratadi. U “Nazm al-javohir”da Qur’on o’qish foydasini shunday bayon qiladi:

Qur’onki erur mujdai joniy o’qimoq,

Yo’q-yo’qki, hayoti jovidoniy o’qimoq,

Bil, ko’ngulga istasang shifoni o’qimoq,

Kim keldi ko’ngil shifosi oni o’qimoq.

Yuqoridagi satrlar Isro surasining 82-oyati “Qur’ondan mo’minlar uchun shifo va rahmat bo’lganlarni nozil qilurmiz” oyatiga tayanib yozilgani yaqqol ko’rinadi.

Navoiy Voiz Koshifiyning Qur’on ilmlariga oid “Javohir at-tafsir” , “Mavohibi Aliya” asarlarining tashabbuskori va homiysi bo’lib xizmat qilgan. U “Xayrat ul-

abror”ning XIII bobda, Qur’onda zikri kelgan ashobi Kahfning hikoyasiga ishora qilib shunday yozadi:

It kibi chun pastlig’i chog’ladim,

O’zni biyiklar ipiga bog’ladim.

Bo’lsa alar ozimi dashti adam,

Man ham o’lay soya kibi ham qadam.

Kahfi baqo ichra alar bo’lsa gum,

Man ham o’lay robi’uhum kalbuhum.

Bunda Navoiy g’orda qolib ketgan to’rt yigitga Xamsanavis ustozlarini va ular orasidagi bir itga o’zini qiyoslaydi va ushbu oyatdan “ robi’uhum kalbuhum” so’zini o’z baytida mohirona qo’llaydi.

U davlat ishlarida ham Allohning oldidagi bandalik mas’uliyatini, adolatparvarlik tuyg’usini tuyib o’z ishlarida sobit bo’lgan va buni “Vaqfiya” asaridagi quyidagi ruboiyda ifodalagan:

Shah adli uyini aylayin deb ma’mur,

Sa’y ayladim ul qadarki, erdi maqdur,

Har nechaki Tangridin etar shamg’a nur,

Parvona erur joni kuyardin ma’zur.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, Navoiy nafaqat zakiy va so’zamol shoir, turkiy tili asoschisi balki, buyuk mutasavvif, islom ilmlari sohibi ham edi. Shu tufayli ham uning shaxsiyatini, asarlarini to’liq o’rganish uchun kishi nafaqat adabiyotni , so’z san’atini bunga qo’shimcha ravishda islom ilmlarini, tasavvufni o’rganishi, Navoiydek bu ilmlarni o’z hayotiga singdirishi lozim bo’ladi. Chunki, hazrat Navoiyning o’z asarlarini bitishdan maqsadi faqat she’riy san’atlarni , turkiy va

forsiy tillar jozibasini ko’rsatish emas balki, “Sirojul muslimin “da o’zi ta’kidlagandek xalqqa diniy-ma’rifiy ziyo ulashish, manfaat yetkazish va ularning duolariga musharraf bo’lish edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Hasanxon Yahyo Abdulmajid, Husaynxon Yahyo Abdulmajid “Navoiydan chu topqaylar navoe” Toshkent- “Hilol Nashr”2014.
2. Vadud Mahmud, «Tanlangan asarlar», Toshkent, «Ma’naviyat», 2007
3. I.Abdullayev, «Markaziy Osiyoda Islom madaniyati», Toshkent, «Sharq», 2005
4. Aliybek Rustamiy, «Hazrati Navoiyning e’tiqodi», Toshkent, 2010
5. https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/40-Alisher-navoiy-asarlari

ALISHER NAVOIYNING TABARRUK SIYMOSI

Ravshanova Sevinch
O’zbekiston davlat jahon tillari 2-bosqich ingliz filolgiya talabasi
Talabasi

Annotatsiya: Jahon madaniyatiga bebaho hissa qo’shgan Alisher Navoiy buyuk siymolar orasida alohisda o’rin tutadi. Uni olqishlashga sazovor iste’dodi va daxosi o’zbek adabiyoti tarixida yangi davr ochdi.

Buyuk Alisher Navoiy o’zbek tilini boyligini qudratini qudratli kuch va keng imkoniyatga molik ekanligini ham nazariy, ham amaliy jihatdan isbotlab berdi. Sa’diy, Xayyom, Hofiz she’rlari, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy dostonlari bilan bir qatorda turadigan g’azallar, qasidalar, ruboiylar, muhammaslar, dostonlar yaratdi.

Epik she’riyatning namunalaridan bo’lgan “Xamsa” jahon adabiyotining qimmatbaho durdonalaridan bo’lib qoldi.

Navoiy o’zidan keyingi shoirlarga go’zal an’ananlar qoldirdi. Uning adabiy maktabini mumtoz shoirlar davom ettirib, g’azallariga munosib muhammas va naziralar, o’xshatmalar bog’lab boyitdilar.

Kalit so’zlar: she’riyat, g’azallar, nazariy, amaliy, an’analar, ruboiylar, qasidalar, dostonlar, muhammaslar.

Аннотация: Алишер Навои, внесший неоценимый вклад в мировую культуру, является одним из великих деятелей. Его замечательный талант и гениальность открыли новую эру в истории узбекской литературы.

Великий Алишер Навои теоретически и практически доказал, что богатство узбекского языка – это мощная сила и большие возможности. Наряду со стихами Саади, Хайяма, Хафиза, Низами, Хусрава Дехлеви, Джами он создал газели, поэмы, рубаи, мухаммы, эпосы.

Один из эпосов эпической поэзии, Хамса стал одним из ценнейших шедевров мировой литературы.

Навои оставил добрую традицию поэтам, пришедшим после него. Его литературную школу продолжили поэты-классики, обогатившие его стихи соответствующими мухаммасами, назирами, притчами.

Ключевые слова: поэзия, поэмы, теоретические, практические, традиции, рубаи, поэмы, былины, мухаммасы

Annotation: Alisher Navoi, who made an invaluable contribution to world culture, is one of the great figures. His admirable talent and genius opened a new era in the history of Uzbek literature.

The great Alisher Navoi proved both theoretically and practically that the richness of the Uzbek language is a powerful force and a great opportunity. Along with the poems of Saadi, Khayyam, Hafiz, Nizami, Khusrav Dehlavi, and Jami, he created ghazals, poems, rubais, muhammas, and epics.

One of the epics of epic poetry, Xamsa has become one of the most valuable masterpieces of world literature.

Navoi left a good tradition for the poets who came after him. His literary school was continued by classical poets, who enriched his poems with appropriate muhammads, nazirs, and parables.

Keywords: poetry, poems, theoretical, practical, traditions, rubais, poems, epics, muhammas.

Nido tingla, bu kun, yurting tarafdan,

Ey, yiroq Hirotda maskan topgan er!

Ogoh bo’l, Alisher, sen ushbu gapdan:

Har ikki nabirang – biri Alisher.

(Abdulla Oripov)

Bu yil o’zbek adabiyotining quyoshi, ulug’ mutafakkir, shoir Alisher Navoiyning 581 yilligi nishonlanmoqda.

Jahon madaniyatiga qimmatbaho durdonalar qo’shgan, milliy iftixori bo’lgan Alisher Navoiy buyuk siymolar orasida alohida o’rin tutadi. Shoir A. Oripov aytganidek:

... Jahon mehrobida paydo Alisher...

Shodmon qasida ayt sen ham, ey quyosh!

Besh yuz yil unga ham nima gap ahir,

Mingga qadam qo’ydi yigirma besh yosh

Uning buyuk olqishlariga sazovor bo’lgan iste’dodi va porloq daxosi o’zbek madaniyati, adabiyoti va san’ati tarixida yana bir davr ochdi, o’zbek adabiyotini, g’oyaviy va badiiy jihatdan yuksak darajaga ko’tarib, ishtimoiy ideallar, chuqur insoniy ehtiroslar bilan boyitdi. U o’z xalqining dunyo qarashi, falsafiy, ahloqiy tushunchasi, zavq-shavq, tasavvur, orzu va umidlarini keng va yuksak ifodalarda buyuk mutafakkir sifatida tasvirladi va yangi badiiy ijodning qudratli namunasini namoyish etdi.

Buyuk Alisher Navoiy o’zbek tilini benihoya boyligini, turli fikr mushohadalarni ifoda etishda qudratli kuchga va keng imkoniyatga molik ekanligini ham nazariy, ham amaliy jihatdan isbotlab berdi. U o’zbek adabiy tilini o’z zamoniga qadar misli ko’rilmagan yuksak bir darajaga ko’tardi,

o’zbek tilida xilma-xil chuqur ma’nolarni rango-rang badiiy tasvirlarda san’atkorona ifoda qilib, o’zbek tilining go’zalligini jushqinligini, qudratini, jozibasini, inson aqlini yuksaltiruvchi keng fazolarga ega ekanligini ko’rsatdi. Mutafakkir shoir fikrlari olamni badiiy bo’yoqlarda tasvirlash jihatidan Sa’diy, Xayyom, Xofiz she’rlari, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy dostonlari bilan bir qatorda turadigan g’azallar, qasidalar, ruboiylar, muhammaslar, dostonlar yaratdi. Nihoyat uning devonlari, epik she’riyatning na’munalaridan bo’lgan “Xamsa”si jahon adabiyotining qimmatbaho injularidan bo’lib qoldi. Xamsanavis salaflarning ijodini e’tirof qilgan holda shunday deydi:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,

Nizomiy panjasiga panja urmoq...

Kerak she’r oldida ham she’ri jangi,

Agar she’r o’lmasa, bori palangi, -

Demak, Nizomiy – she’riyatning she’ri. U bilan bahslashish uchun she’r, juda bo’lmasa yo’lbars bo’lish lozim edi. Navoiy she’r bilan teglashib she’r bo’ldi. U og’ir va ma’suliyatli vazifani muvaffaqiyat va sharaf bilan bajardi.

O’zbek adabiyotining bundan besh yuzi sakson bir yil ilgari yaratgan go’zal obidasi – Navoiy asarlari shu vaqtga qadar faqat o’zbek xalqi orasidagina emas, balki O’rta Osiyo va Yaqin Sharqda qo’ldan-qo’lga, eldan-elga o’tib, qo’shiqlar kabi jaranglab keldi, o’z muallifiga buyuk shuhrat, hurmat va olqishlar bag’ishladi. Shoir A.Oripov aytganidek:

... Boyqaro irg’ishlab istak otida,

Jahonga sapchiganda misli bola she’r.

Hirot darvozasin bir tomonida,

She’riy lashkarini tizga Alisher...

yoki:

... Besh asirkim nazmiy saroyni

Titratadi zanjirband bir she’r,

Temur tig’i yetmagan joyni

Qalam bilan oldi Alisher.

XVI-asrdan boshlab o’zbek shoirlari Navoiy adabiy maktabini davom ettirdilar va uning eng yaxshi go’zal an’analarini yaratdilar. Boburdan boshlab XVII-asr shoirlari Turdi, Mashrab, Vafoiy; XVIII-asr shoirlari G’oziy, Ravnaq, Nishotiy, Shavqiy, Munis, Mujrum, Obid; XIX-asrning birinchi yarimida yashab ijod etgan Gulxaniy, Ma’dan, Nodira, Mahmur, Uvaysi, Ogahiy; XIX-asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan demokratik adabiyotning yirik namoyondalari Muqumiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O’tar kabi iste’dodli shoirlar Navoiy an’analarini sharaf bilan davom ettirdilar. Navoiy g’azallariga munosib muhammas bog’lash bilan birga uning xalqchinlik bilan sug’orilgan hayotiy fikr, his-tuyg’ularini targ’ib qildilar va o’z davrilarining ilg’or qarashlari bilan boyitdilar.

Inson qalbining umid-orzularini buyuk qudrat va otashin ehtiroz bilan kuylagan Navoiy asarlari g’azallari, sahnada va efirda xilma-xil kuy va ohanglarda jaranglaydi. Eng iste’dodli bastakorlar shoirning asarlariga musiqa yaratmoqdalar, shoirlar, rassomlar, haykaltaroshlar, naqqoshlar uning xotirasini abadiylashtirish uchun zo’r havas va ishtiyoq bilan mehnat qilmoqdalar. Navoiy haqidagi hikoyalar, qissalar, romanlar vujudga keldi. Davlat mukofotining laureati ulkan adibimiz Oybekning “Navoiy” asari ulug’ shoirga qo’yilgan munosib haykal bo’ldi. Bunday asarlar bir qatorda Navoiyga bag’ishlangan bir qancha lirik she’rlar, dostonlar, balladalar maydonga keldi va kelaveradi. So’zimning yakunida benazir shoirlaridan biri bo’lgan G’ofur G’ulomning shu misralarini keltiraman:

Yursak tog’ oralab o’kirgan she’rning

Na’rasiga tengdir aksi sadosi.

Besh yuz yil yangradi tog’day Vatanda

Buyuk Alisherning asriy nidosi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. M. Mallayev. “O’zbek adabiyoti tarixi”. O’qituvchi nashriyoti. Toshkent – 1965-yil.
2. O’zbekiston LKSM Markaziy Komiteti. “Navoiyni kuylaymiz”. “Yosh gvardiya” nashriyoti. Toshkent – 1968-yil.
3. A. Oripov. “Yillar armoni”. G’.G’ulom nashriyoti. Toshkent – 1987-yil.
4. V. Shohidov. “O’zbek adabiyoti tarixidan”. Toshkent – 1960-yil.
5. Oybek. “Navoiy g’azaliyoti”. “O’zbek tili va adabiyoti masalalari” 1962-yil.

"LISON UT-TAYR" IS A FIGURATIVE IDENTITY

Bahronova Dilnora Alisher qizi
BuxDU Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asariga javob tariqasida yozilgan, Alisher Navoiyning shoh asarlaridan biri bõlmish "Lison ut-tayr" otliq dostoni xususida fikr-mulohaza yuritilgan. Undagi tasavvufiy ramzlar va istilohlar ma'nosini hamda asardagi bosh mazmun baholiqudrat ochib berilgan.

Abstract: This article discusses the equestrian epic "Lison ut-tayr", one of Alisher Navoi's masterpieces, written in response to Farididdin Attor's "Mantiq ut-tayr". It reveals the meaning of mystical symbols and terms, as well as the main content of the work.

Аннотация : В данной статье рассматривается конный эпос «Лисон ут-тайр», один из шедевров Алишера Навои, написанный по мотивам произведения Фаридиддина Аттора «Мантик ут-тайр». В ней раскрывается смысл мистических символов и терминов, а также основное содержание произведения.

Kalit so'z : Alisher Navoiy, "Lison ut-tayr", Hudhud, Simurg', Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat, Faqru fano

Keywords : Alisher Navoi, "Lison ut-tayr", Hudhud, Simurg, Talab, Ishq, Ma'rifat, Istiqno, Tawhid, Hayrat, Faqru fano

Ключевые слова : Алишер Навои, «Лисон ут-тайр», Худхуд, Симург, Талаб, Ишк, Марифат, Истикно, Таухид, Хайрат, Факру фано

Al

isher Navoiy butun boshli ijodi ila tasavvuf ilmining qonun-qoidalarini to`liq va mukammal darajada tushuntirib bergan adibdir. Navoiyshunos olim Akrom Malik ta’kidlab o`tganidek, “Hayrat ul-abror” asarida tasavvuf ilmi bo`yicha nimadir tushunarsiz tuyulsa, uni “Lison ut-tayr”dan topishimiz mumkin. Agar

“Lison ut-tayr”dagi qaysi bir nuqta tushunarsiz qolsa, buning javobi “Nasoyim ul-muhabbat”dan topiladi. Ularda Navoiy nafni yengish bosqichlari, shaytoniy hiylalardan xalos bo`lish, maqomotrni sabr va shijoat ila bosib o`tish hamda mohiyatga yetish yo`llarining “xaritasi” chizib berilgan.

Jumladan, Navoiy “Lison ut-tayr” asarining mohiyatini ramziy obrazlar, ya’ni qushlar misolida ochib bergan. U o`zining o`rni va darajasini bilmaydigan insonlarga Hudhud timsoli orqali tanbeh beradi va bir hikoyat bilan ularning yuziga ko`zgu tutadi. Masalan, xudparastlik, xudbinlik illati To`tida gavdalantiriladi va unga ko`zgu sifatida Hudhud Hizrnikiga o`xshash yashil chakmon tashlab, bozorga chiqqan nafsi buzuq kishi haqidagi hikoyatni keltirib o`tadi. Tovus esa o`z suratiga mahliyolik, o`zidan boshqani tan olmaslik illati bilan qoralanadi hamda unga tillarang toj va kiyim kiyib, bozorda masxara qilgan va muxtasiblarning qo`liga tushgan hindu qismati haqidagi hikoyat ibrat qilib ko`rsatiladi. Bulbul – soxta oshiq timsoli, unga nisbatan Navoiy shohga oshiq bo`lib, o`zini olovga otgan johil gado haqidagi hikoyatni asarda keltiradi. Qumri esa o`zini nozik va safarga chiqa olmaydigan darajada bechora holga soladigan qush timsolida gavdalantirilgan hamda Hudhud unga ibrat bo`lishi uchun asli xashakchi bo`lgan bir uquvsiz, g`ofil bog`bon qismati haqidagi hikoyatni aytib beradi. Kabutar esa insonlar e’zozida yurgani uchun Simurg`ga ehtiyoj sezmagan, majoziy ma’noda tamagir, tambal va beg`ayrat qush timsolida tasvirlanadi. Navoiy bu qushga kaltaklanilishi natijasida birovlar qo`lidan ovqatlanadigan tilanchi haqidagi hikoyatni so`zlab beradi. Xullas, Alisher Navoiy har bir illatga xos va mos ravishda tub mohiyatni ochib beruvchi hikoyatlarni so`zlab beradi. Insondagi har bir illatga ularga aynan o`xshash bo`lgan bir qismatni keltirib, yuziga ko`zgu tutgandek bo`ladi. Ya’nikim bu hikoyatlar orqali Mir Alisher Navoiy insonlarga o`zidagi illatlarni yo`qotmay turib, mohiyatga va o`zlikka yetib bo`lmasligini uqtirmoqchi bo`ladi. Ya’nikim ularni o`lmasdan burun o`lishlikka, nafsni yengishga chaqiradi.

“Lison ut-tayr”da qushlar Hudhud boshchiligidagi safarga otlanishadi. Bu yo`l juda uzun va mashaqqatli bo`ladi. Ular birma-bir sinovdan o`tishadi. Faqat sabrli va taqvoli o`ttizta qushlargina bu sinovdan o`ta olishadi va oliy maqsadlariga erishadilar. Bu uzoq safarda ular Talab, Ishq (Alloh ishqida bandlik), Ma’rifat (Alloh haqidagi bilim va Allohni izlash yo`lida ilm egallash), Istig`no (ehtiyojsizlik), Tavhid (Alloh yagonaligini idrok etish), Hayrat (Allohning yagonaligi va doim mavjudligi), Faqru fano (Alloh uchun faqirlikni tan olib, fano bo`lish) kabi xatarli va sinovli yo`llarni birma-bir bosib o`tishadi. Demakki, Haqqa yetishmoq bu illatlardan poklanmoq, nafs va shaytoniy istaklardan xalos bo`lmoq, qalb pokligi, ruh osoyishtaligi va har tomonlama barkamollik orqali erishiladi. Bu yo`l o`lmasdan burun o`lganlarning yo`lidir. Bu yo`l Haq vasli ila yongan, bir soniya ham undan ayro yodda yurolmaydigan chin oshiqlarning yo`lidir.

"Lison ut-tayr" dostoni Navoiy ijodidagi turkiy tilda yozilgan, ammo forsiy taxallus qo‘llagan asaridir. Chunki Navoiyning bu asarni Foniy taxallusi bilan yozishida ham majoziylik bor. Endi quyidagi savolga javob bersak. Nima uchun Navoiy yoshlik yillarida shuncha mashhur asarlar yozgan holda ushbu falsafiy asarni umrining oxirgi yillarida yozdi ? Chunki bolalik yillarida "Mantiq ut-tayr" asarining ilhomi, bu asar o‘y hayoli uni butun umr tark etmadi. Buni "Lison ut-tayr" dunyoga kelishining ilk sababiyati deb qarashimiz ham mumkin. Yetti vodiy va Hudhud obrazi inson ruhiyati tarbiyasining ustozdir. Komillik sari qadam bosgan inson, albatta, bu yo‘llarni bosib o‘tadi. Qushlarning oxirida Simurg‘ni (ko‘zgu) topgani va Simurg‘ qushlarning o‘zi ekanligi Navoiyning tasavvufdagi Alloh qalbda, Inson qalbi Alloh nurining bir zarrasidan iborat ekanligiga ishorat etadi. Safarga chiqqan qushlar zohiriy olamdagi bandalarni va ular orasida yetti vodiyni kezib, Simurg‘ (o‘zlik)ni topgan qushlar esa botiniy olamni topgan bandalar tasviridir. Bu ikki olam insonning o‘z ichida ikki menidir, shakl va mazmun munosabatidir. Zohiriy olamdagi shaklni va botiniy olamdagi mazmunni ko‘ra olgan insongina komillik sari qadam bosishi mumkin. Menimcha, Navoiy asarlariga nisbatan oddiy ko‘z bilan qarash asardan ko‘zlangan maqsadning amalga oshmasligining sabablaridandir. Mashhur nemis faylasufi Gyote

"Agar Navoini butun xalq o‘qisa turmushimiz naqadar go‘zal bo‘lgan bo‘lar edi... Agar men Navoiy zamonida tug‘ilganimda Navoiyning eng yaxshi shogirdi bo‘lar edim", degan gaplarida ham aynan yuqoridagi fikrlarni nazarga tutgan bo‘lsa ne ajab.

Qush obrazi mumtoz adabiyotda keng qo'llaniluvchi "ruh" ning ramziy obrazi. Insonlarning tabiatini ko'rsatib beruvchi timsol. Kimdir burgut kabi kuchli, kimdir tovus kabi go'zal, kimningdir òrni shunqor kabi shohning bilagida. Ammo uni shu darajaga yetkazgan kim. Hikoyatlar bu haqida yetarlicha ma'lumot bera oladi. Nafaqat asar, balki asarning muallifi ham bebaho xazina. Ijodkorning o'zi kitobxonning komillika intilishi uchun o'rnak bo'luvchi pir misol ulug̑dir.

Zohidiy ishq – ramziylikdir. Allohga intilish xuddiki Simurg'ga intilishdek ta’riflangan. Qushlarning jahd-u qarorda mustahkam bo`la olmaganliklari iymoni sustkashlikka uchragan bandalar qiyofasida tasvirlangan.

Makon va zamonlar ta’sir qilmaydigan o`tkir tafakkur va idrok sohibi Mir Alisher Navoiy o`zining umr bo`yi yozgan deyarli barcha asarlari orqali komil inson konsepsiyasini yaratib bera olgan. Biz yuqorida ta’kidlab va alohida urg`u berib o`tgan “Lison ut-tayr” dostoni ham, “Hayrat ul-abror” va “Nasoyim ul-muhabbat” ham ana shunday komil shaxsni shakllantiruvchi, Haq vasliga yetishtiruvchi, o`zlikni anglash va nafsni yengishga qaratilgan buyuk va bebaho asarlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Birinchi kitob. – T. : G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti , 1996, 272 b.

2. Komilov N. Tasavvuf . Ikkinchi kitob. Tavhid asrori. – T. : G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1999, 207 b.

ALISHER NAVOI QARASHLARIDA TA’LIM VA TARBIYAGA E’TIBOR

Pulatova Xurshidaxon

Jizzax Davlat Pedagogika Instituti 2 kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk mutafakkir, so’z mulkining sultoni Alisher Navoi asarlarida yoshlarning ta'lim va tarbiyasiga e'tibori, qo’shgan hissalari, g’oyalari, pedagogik qarashlarida insonparvarlik g’oyasi aks ettirilgan.

Kalit so’zlar: ta'lim, tarbiya, axloq, odob, xulq, mudarris, falsafiy masala

Аннотация: В данной статье осуществляется внимание великого мыслителя Алишера Навои к образованию и воспитанию молодёжи, а также вклад в педагогическую деятельность и идеи гуманизма

Ключевые слова: образование, воспитание, поведение, этика, образцовый, поведение, педагог, философская задача

Annotation: In this article, the attention of the great thinker Alisher Navoi to the education and upbringing of youth is carried out, as well as the contribution to pedagogical activity and the ideas of humanism

Keywords: education, upbringing, behavior, ethics, exemplary, behavior, teacher, philosophical task

Bizning o'zbek xalqimiz bolajon xalqligi hech kimga sir emas. Moziyga nazar solgan insonga yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Mustaqilligimizdan so'ng bolajon xalqimiz yurtni obod qilish orqali bizni yosh avlodlarimiz bo'lmish bolajonlardi chetda qoldirmadi. Bolalar bog'chalari, maktablar, bolalar o'yingohlari qurildi. Ta'lim sohasiga ulug' allomlarimiz o'zlarini buyuk hissalarini qo'shganlar. Mutafakkir, ta'lim- tarbiya, axloq, odob, xulq, mudarris, falsafiy masala,axloqiy-ta'limiy, buyuk mutafakkir A.Navoiy til bilimlari, tarbiyani takomillashishiga katta e'tibor beradi. "Xamsa" "Mahbub ul qulub" kabi ta'limiy axloqiy asarlarida

"Munojat", "Vaqfiya", "Majolis un nafois", "Muhokamatul ul-lug'atayn", " Qirq hadis" asarlarida tarbiyaga oid qarashlarini ifoda etadi. Uning pedagogik qarashlari insonparvarlik g'oyasi bilan sug'orilgandir. U xalq baxtini orzu qiladi, xalq manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'ydi:

Yuz jafo qilsa menga bir qatla faryod aylamam.

Elga qilsa bir jafo yuz qatla faryod aylaram.

Navoiy ilm-fanni yuksaltirish uchun "Ixlosiya" madrasasini tashkil etdi.Uning yonidan maktab ochib,o'z vaqfidan mablag' ajratdi.Madrasada qattiq intizomga amal qilinishini nazorat qildi.Ilm olishni insoniy burch deb biladi.

Kim olim esa nuqtada barhaq de oni,

Gar bazm tuzar bihishti mutloq de oni.

Har kimsaki,yo'q ilmga anga ahmoq de oni,

“Majlisdaki ilm bo'lsa uchmaq de oni ” , - ya'ni ilmli, oqil odam o'z maqsadiga erishish uchun har qanday qiyinchilikni yengib o'tadi.Navoiy orzu qilgan inson faqat ilmli bo'lish bilan qanoatlanib qolmasligi, balki u yana sabr-toqat, tavoze', adab, ishq va vafo hamda shu singari fazilatlarga ham ega bo'lishi lozimligini bir necha bor ta'kidlagan edi. Shoirning "Xamsa" siga kirgan "Xayrat ul abror" dostoni va "Mahbubul qulub" asarlari axloqiy didaktik asarlaridan hisoblanadi. "Hayratul abror "asarining 6- maqolat tarbiyaga bag'ishlanadi. Bolaga dastlab yaxshi ism qo'yish, so'ngra yaxshi muallimga berish,yaxshi tarbiya berishni maslahat beradi. Bolalarni esa ota-onani hurmat etishga chaqiradi:

Boshni fido ayla ato qoshiga

Jismni qil sadqa ano boshiga

Ikki jahoningga tilarsen fazo

Hosil et ushbu ikkisidan rizo

Tun-kuningga aylagali nur fosh

Birisin oy ayla,birisin quyosh.

Navoiy "Mahbub ul qulub" asari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga insonparvarlik, xalqparvarlik g'oyasi yotadi. Asar uch qismdan iborat:

2-qismda odob va axloqqa oid masalalar yoritiladi. Odobli insonlar ulug'lanishi,hurmatli bo'lishi ko'rsatiladi.

3-qismda saxiylik, oliyjanoblik,muruvvat karam,vafo,muloyimlik kabi insoniy xislatlar tahlil etiladi.Qator maqollar keltiriladi:

"Tilga ixtiyotsiz-elga e'tiborsiz ",

"Bilmaganni so'rab o'rgangan olim,orlanib so'ramagan o'ziga zolim",

"Oz-oz o'rganib dono bo'lur,qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur".

Alisher Navoiy bilim olishda barcha fanlarni o'rganishni targ'ib etadi. Bundan u olimu fozillarni yig'ib,ular orqali ilm-fanni taraqqiy ettirishga e'tibor beradi..U bilimlarni tinmay uzluksiz o'rganish zarur,deydi. Har qanday bo'lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko'pdir deya:

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Navoiy har bir yoshning aqliy kamolotga yetishida ilmu fanning ahamiyatini ko'rsatib o'tish bilan birga jamiyat taraqqiyotining asosi sanalgan ilm ahli, ilmni tarqatuvchi olimu fozillarni hurmat qilishga va ularning turmush darajasini yaxshilash masalalariga ham e'tiborni qaratdi.Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u duo barokati bilan umrbod baxramand bo'ladi. Adab kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi.Adabdan muhabbatga bezak va pardoz yetadi.U yaxshi fe'llarga qanoat,sabr,tavoze' va ishq

haqida o'z fikrini to'ldiradi.O'quvchilarga falsafiy ma'noda bolalar qiziqishlarini oshirish maqsadida ilohiy ishq haqida tushunchalar qoldirgan...

Ilohiy ishq sohibi Alisher Navoiy

Navoiyning aksariyat she’larida va asarlarida tasavvufning yo ziyosi, yo safosi, yo ma’nosi o’rin egallagan. Faqat ishq emas balki, axloq-odob, rux, tasavvuf Navoiy dunyo qarashini ma’shalday yoritib turgan. Ishq-muhabbat mavzusida ham irfoniy adabiyotning yetakchi mavzulardan biri bo’lgan. Navoiyning har bir asarlarini mutolaa qilsak unda ishq-muhabbat mavzusi yaqqol ko’rinib turadi. Benazir inson,buyuk allomamiz A.Navoiy ijodiga yana bir nazar solsak. Uning asarlarida ishqiy, falsafiy, qahramonlik dostonlari mavjud. Navoiy yoqiutdek porlovchi, bejiri, nozik did bilan Xamsani yaratdi. Xamsani yaratdiyu o’zgacha bir nigoh bilan aks etdi. Xamsani boshqalardan farqli ravishda ona-tilisi turkiy tilda yozdi. O’zbek adabiyotida quyoshdek balx urdi.Navoiy oldingi Xamsa navislarni ishlarini takrorlamagan xolda o’zgacha bir “Xamsa” yaratadi. Navoiy Xamsaning o’zgachaligini ochiq-oydin takidlaydi.Jumladan,u “Farxod va Shirin “dostoni muqaddimasini shunday yozadi.

Ani nazm etki, tarhi toza bo’lg’ay,

Ulusga mayli beandaza bo’lg’ay

Yo’q ersa nazm qilg’onni xaloyiq

Mukarrar aylamak sendin ne loyiq?

Bu misralari orqali Navoiy “Xamsa” yozishdagi belgilab olgan o’z yo’riqlarini bayon etdi.

Shunday asar (nazm)

-doston yozginki,o’ziga xos (tarhi toza) bo’lsin,o’qigan odamlarga (ulusga) yangi, boshqa asarlarga o’xshamas (beandoza)ligi sezilibtursin.Aks holda (yo’q ersa)asari

o’zgalar (xaloyiq) yozgandek bo’lsa,bunday takrorlash (mukarrar)senga loyiq emas.Yaxshisi, bunday asar yozmagan ma’quldir.

Besh dostonni o’z ichiga olgan Hamsni mahoratli shoirimiz tomonidan ikki yil davomida 51 ming misradan tashkil topgan bejirim, duru-marjondek tizilgan dostonlardi yozib tugalladi Birinchi doston “Hayrat ul abror “falsafiy-ta’limiy doston, naqd uch asarni “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” ishq qissalari, “Sab’ai sayyor ishqiy-sarguzasht dostoni, so’ngisi esa “Saddiy Iskandariy” qahramonlik dostoni yaraldi. Bejizga naqd uch asar deb takidlamadim,chunki ilohiy ishq sohibi deb tarif berdim.Xamsa dostonlari ichidagi eng ishqiy asar “Layli va Majnun”dir deya olaman. Qays o’z ishq tufayli Layli visoliga yetishmoq uchun,bir telba Majnun nomini oldi.Ishq har kimga ham berilavermaydi. Olloh tomonidan berilgan in’omdir.Majnunni Otasi ishq biyobonida keltirib Ka’ba ziyoratiga olib borib Layliga bo’lgan ishqini ozroq bo’lsada so’ndirish niyati bilan yo’lga otlandi. Afsus aksi bo’ldi,Majnun yaratgan egamdan yanada ishqqa giriftor qilishini so’radi. Qalbiga muhirlangan bu ishq ota-onasining faryodiyu hatto, o’limi ham Layliga bo’lgan ishqini zarracha so’ndira olmadi.Majnunni kundan kunga zayif tanasi majruhdek so’ndira bordi,lekin Majnunga bu holat ahamiyatsiz edi.Yor visoliga yetishmoq shunchalar kuchlik ediki u uchun jonidan kechiga tayyor.Bir biriga bo’lgan muhabbati bu dunyoga sig’madi.Layli bu hayotni tark etdi.Bu holatni bilgan Majnun,Layli huzuriga yetib borganida, Laylini jonsiz tanasini ko’rdi.Bu holatni ko’rgan Majnun bu istirobga dosh bera olmay bu hayotni Layli bilan tark etdi.Sof muhabbat egalari bo’lmish Majnun va Laylini bir qabrga qo’ydilar.Navoiy bu asar haqida motamnomani qanchalik cho’zgan bo’lsam,shuncha motamzada bo’ldim, nihoyat, yig’lab-yig’lab tugatdim....

Shunday qilib, so’z mulkining sultoni, buyuk mutafakkir Alisher Navoining talim-tarbiyaga oid asarlari, pedagogik qarashlari, goyalari biz uchun ibrat maktabi bo’lib qoladi.

Adabiyotlar:

1. М.Усмонова. Алишер Навоий асарлари тилида қўлланилган дарахт маъносидаги сўзлар ва уларнинг лексик-семантик хусусиятлари. POLISH SCIENCE JOURNAL ISSUE 1 (34) Part 1 INTERNATIONAL SCIENCE JOURNAL WARSAW, POLAND Wydawnictwo Naukowe "iScience" 2021

2. М.Усмонова . Lexical and semantic properties of phytonyms in properties of phytonyms in the works of Alisher Navoi. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. 2021

3. М.Усмонова Alisher Navoiy asarlarida o’simlik nomlarining umumiy tavsifi. DİL VE EDEBİYAT ARAŞTIRMALARI (8) 2013 yil Turkiya

ALISHER NAVOIY G‘AZALLARIDA ISLOMIY TUSHUNCHALAR TALQINI

Barotova Nodira Azimovna

Toshkent shahar Bektemir tumani 290-maktabning oliy toifali ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi, O‘zbekiston Respublikasi O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi a’lochisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher Navoiy g‘azallarida islomiy tushunchalarning o‘ta nozik tasvirlar orqali berilishi tahlil etilgan.*

Annotation: *This article analyzes the transmission of Islamic concepts in Alisher Navoi’s ghazals through very delicate images.*

Аннотация: *В данной статье анализируется передача исламских понятий в газелях Алишер Навои через очень деликатные образы.*

Kalit so‘zlar: *badiiyat, istiloh, talmeh, timsol, sura, oyat, nabiy, tasvir vositalari, obraz.*

Key words: *art, logo, sura, verse, image tools, image.*

Ключевые слова: *изображения, инструменты для работы с изображениями, стих, сура, логотип, изобразительное искусство.*

Hazrat Alisher Navoiy she’riyatini-ijodini tom ma’noda anglash, bilish, idrok etish uchun faqat shoirning badiiyatini tushuninishning o‘zi yetarli emas.

Shoir she’rini tushunish uchun, eng avvalo, tasavvuf ilmidan, Islom dinidan ham yaxshi xabardor bo‘lishi kerak. Balki yaratgan ilk bora qalamni yaratganida ham o‘ziga xos hikmat bordir.

“Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollalohu alayhi vasallam: “Hikmatli kalima xuddi mo‘minning yo‘qotgan narsasidek. Mo‘min uni qayerda topsa ham haqliroqdir,”-deganlar.”[40]

Ana shu hikmatli kalima she’rdagi ilohiy bir qudrat bilan yaraladi.

Alisher Navoiyday ulkan daho yaratgan asarlar orasida “Munojot”,

[40] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur’on va sunnatdagi ilmiy mo‘jizalar. Toshkent: 2019. Bet:2.

“Tarixi anbiyo va hukamo”, “Sirojul-muslimin”, “Nasoyim ul-muhabbat” singari ko‘plab asarlarda islom asoslari va Ollohga muhabbat g‘oyalari borasida nodir fikrlar ifodalangan. Shoirning deyarli barcha g‘azallari tasavvufiy istilohlar bilan chambarchas bog‘liq.

Shoirning quyidagi baytidagi tasvir ifodasiga e’tiboringizni qaratamiz:

To xayoling ko‘zdadur, ko‘z uyi go‘yo Ka’badur,

Kim turib atrofidin kipriklarim aylar namoz.[41]

Oshiq xayoli mashuqada, mashuqa oshiqning ko‘zida. Ko‘z esa Ka’baga qiyoslanyapti. Kipriklar ko‘z atrofida turib, Ka’baga sajda qilayotgandek tizilib turarlar. Bunday betakror tasvirlarni faqat Alisher Navoiyday dahogina yarata oladi.

Insonning ko‘zi uning qalbining ko‘zgusidir. Qalb esa Ollohning uyi. Ha, har bir inson Ollohni o‘z qalbida asraydi. Ko‘zning yumilishi qator turgan holda qorachiqqa, ya’ni Ka’baga-Ollohning uyiga qilingan ibodatdir. Bu sajdaning sururini yaratganni tanigan qalbgina aniq ilg‘ay oladi. Bu ta’vof insonni ruhan poklaydi.

Alisher Navoiy g‘azallarida payg‘ambarlar timsoli ham talmeh san’ati orqali o‘ta noziklik bilan ifodalanadi.

Masalan:

Husnidin to‘ymog‘ emas mumkinki, behad xo‘b erur,

Qo‘yg‘oy erdim, bo‘lsa erdi. Yusufi Kan’oncha xo‘b.[42]

Ma’lumki, Yusuf payg‘ambar Ya’qub payg‘ambarning o‘g‘illaridan biridir. Yusuf adabiyotda tush ta’birini aniq ayta oluvchi hamda go‘zallik ramzi sifatida tilga olinadi.

Yuqoridagi baytda ham go‘zallik Yusufchalik bo‘lganda ham bu ishqdan voz kechardim, ammo latofat shu darajadaki, undan voz kechish qiyin, deyiladi.

“Qachonki Yusuf voyaga yetgach, unga hikmat va bilim berdik. Biz chiroyli amal qiluvchi zotlarni ana shunday mukofotlaymiz. U (Yusuf) uyida bo‘lgan ayol (ya’ni Zulayho, uning husn-u malohatiga oshiqu baqaror bo‘lib) uni yo‘ldan

[41] Alishe’r Navoiy. Qaro ko‘zim. Toshkent:1988, Bet:64.
[42] Alishe’r Navoiy. Qaro ko‘zim. Toshkent:1988, Bet:65.

urmoqchi bo‘ldi.”[43]

Shuningdek, Alisher Navoiy ijodida Nuh va Sulaymon payg‘ambarlarimizning nomlari ham ko‘p bora tilga olingan.

Nuh umri-yu Sulaymon mulkiga yo‘qdur baqo,
Ich, Navoiy, bodakim, olam g‘ami behudadur.[44]

“Qur’oni karim”da “Nuh surasi” bo‘lib, unda Nuh payg‘ambar qissalari beriladi. Bu sura Makkada nozil bo‘lgan yigirma sakkiz oyatdan iborat. Sura Nuh alayhis-salom o‘z qavmlari orasida to‘qqiz yuz ellik yil turib, ularni Ollohning diniga da’vat qilganlari hamda ma’lumotlar bor. Shunchalik uzoq muddatda Haq yo‘liga chorlov ham insonlarni to‘g‘ri yo‘lni tanlay olishlariga sabab bo‘la olmadi. To‘qqiz yuz ellik yil, ba’zi manbalarda ming yil umr ko‘rgan Nuh alayhis-salom uchun ham umr vafo qila olmadi?!

Yoki Sulaymon payg‘ambarimiz yer yuzidagi jamiki jonzotlarning hukmdori bo‘lganlari holda, qo‘llarida devlardan tortib chumolilargacha itoat qilgan esa-da, taxtlarini shamollar olib yursa-da, baribir umr ularga vafo qilmadi.

Shunday Ollohning sevgan nabiylariki umri-yu mulkiga baqo yo‘q ekan, faqat yaratganning ishqigina boqiydir.

Damingni asra, ey Isoki, ranjim daf’ig‘a har kun,
G‘izo ul oy qilichi zaxmining bir qatra qoni bas.[45]

“Iso Masih” nomi bilan mashhur Qur’onda nomi keltirilgan payg‘ambar Bibi Maryamning o‘g‘li bo‘lib (“Qur’on”da “Maryam” surasi bor), uning nafasi bilan tirilganlar. Shu bois Alisher Navoiy yor zaxmidan har kuni o‘lsam, Iso nafasi bilan tirilurman, deya g‘o‘zal ifodani yaratgan.

Muborak suralardan biri “Baqara” (sigir) surasida shunday deyilgan: “Alloh taolo hech bir jonni toqatidan tashqari narsaga taklif qilmaydi.”[46]

Alisher Navoiy ham insonni Ollohning eng go‘zal mavjudodi deb ta’riflaydi. Olloh barcha jonzodlarni “latif yaratib, insonni barchasidan sharif” qilib yaratganini

[43] Qur’oni Karim. A Mansur tarjimasi. Toshkent:1992. Bet: 155.
[44] Alishe’r Navoiy. Qaro ko‘zim. Toshkent:1988, Bet:150.
[45] Alishe’r Navoiy. Qaro ko‘zim. Toshkent:1988, Bet:250.
[46] Qur’oni Karim. A Mansur tarjimasi. Baqara surasi. Toshkent:1992. Bet: 285.

aytadi.

Alisher Navoiy asarlarining tub mohiyatida ana shunday zalvorli mavzularning yotishi, balki, bu asarning asrlar davomida o‘z ta’sirini yo‘qotmayotganligining belgilaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qur’oni Karim. A Mansur tarjimasi. Baqara surasi. Toshkent:1992.
2. Alisher Navoiy. Qaro ko‘zim. Toshkent:1988.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur’on va sunnatdagi ilmiy mo‘jizalar. Toshkent: 2019.

ESKI O‘ZBEK TILIDA YARATILGAN SHE’RIY MATNLARNI O‘RGANISHDA LUG‘ATLARNING O‘RNI

Usmanova Ziyodaxon Ilxomjon qizi
Chirchiq davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada 8-sinf ona tili darsligida berilgan Navoiy asarlarini o‘rganishda lug‘atlar bilan ishlash texnikasi yoritilgan. Darslikdagi ayrim chalkashliklar yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: eski o‘zbek tili, Alisher Navoiy asarlari, “Lison ut-tayr” dostoni, matn va lug‘atlar bilan ishlash.

Аннотация: В статье описана методика работы со словарями при изучении произведений Навои, приведенных в учебнике родного языка для 8 класса. Предложения и рекомендации даны для некоторой путаницы в учебнике.

Ключевые слова: староузбекский язык, произведения Алишера Навои, эпос “Лисон ут-Таир”, работа с текстами и словарями.

Annotation: The article describes the methodology for working with dictionaries when studying the works of Navoi, given in the textbook of the native language for the 8th grade. Suggestions and recommendations are given for some confusion in the textbook.

Key words: Old Uzbek language, Alisher Navoi's works, “Lison ut-Tair” epic, work with texts and dictionaries.

O‘zbek adabiy tilining asoschisi hisoblangan Hazrat Alisher Navoiyning asarlari nafaqat adabiyot darslarida, balki ona tili darslarida ham o‘quvchilarning ma’naviy dunyoqarashini o‘stirish, dunyo haqida keng fikrlash va mushohadaga chorlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ma’lumki, Navoiy ijod etgan davr tilimizning eski o‘zbek tili davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda yana ko‘plab buyuk

daholarning yuzlab nodir asarlari dunyo yuzini ko‘rdi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Hazrat Navoiyning asarlari o‘zi hayot bo‘lgan paytlardan boshlab juda ko‘p olimlarning tadqiqot obyektiga aylangan. Bu an’ana haligacha o‘z ahamiyati va ko‘lamini yo‘qotgan emas. O‘quvchilar ilk maktab davrlaridan boshlab Navoiyning asarlari, Navoiy shaxsi bilan bog‘liq hikoya va matnlar bilan tanishadilar. Asar qahramonlaridan ijobiy xislatlarni o‘rganadilar, salbiy qahramonlar taqdiridan tegishli xulosalar chiqaradilar. Lekin masalaning ikkinchi – muhim jihatini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Navoiy daxosi qanchalik yuksak, asarlari qanchalar purma’no hikmatlarga yo‘g‘rilganiga qaramay, ularni eski o‘zbek tilida o‘qish va anglash, hikmatlar zamiriga singdirilgan nozik ma’nolarni ilg‘ay olish barcha o‘quvchilar uchun ham birday tegishli emas.

8-sinf ona tili darsligida buyuk dahoning shoh asarlari hisoblangan “Lison ut-tayr”, “Mahbub ul-qulub”, “Hayrat ul-abror”, “Muhakamat ul-lug‘atayn” va “Majolis un-nafois” asarlaridan namunalar berilgan. Parchalarning aksari eski o‘zbek tilida berilgani sababli o‘quvchi uchun uni tushunish ancha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Darslikning 38, 39, 42 va 100-sahifalarida “Lison ut-tayr” asaridan parchalar keltirilgan. Har bir parchaning ilk mashq yoki topshirig‘i o‘quvchidan matnni aruz vazni qoidalariga mos tarzda ifodali o‘qishni talab etadi. Buning uchun o‘quvchiga yordam tariqasida misralarda yotiq chiziqlar berilgan. Mualliflar tomonidan bu yotiq chiziqlar qisqa pauza (to‘xtam)ni bildirishi ta’kidlab o‘tilgan. Keyingi mashq va topshiriqlarda esa matndagi tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarning izohlari aralash tarzda ilova qilinadi. O‘quvchi izohlar orasidan so‘zning ma’nosini topishi kerak. Darslikda ushbu asar yuzasidan berilgan parcha uchun quyidagi 32 ta so‘zning izohi berilgan:

Malolat – malol kelish, og‘rinish

Sa’b – qiyin, og‘ir

Afgor – xor bo‘lish, ezg‘in holatga tushish

Mi’odi – muddat, ijro vaqti

Ko‘shish – sa’y-harakat

Nesh – nish, tig‘

Resh – yara, jarohat

Solik – komillik sari harakat qilayotgan kishi

Takbiri fano - o‘tkinchi dunyo uchun haqni ulug‘lash

G‘avvosliq – suv tagida harakat qilish, suzish

Soyi – sayin, sari

Ranj – mashaqqat, mushkullik

Shavq – zavqli harakat

Raxsh – ot, ulov

Ganj – davlat, boylik

Sabukxez – yengil, chaqqon

Pili damon – mast, quturgan fil

Palang - yo‘lbars

Mo‘ri lang - cho‘loq chumoli

Mash’uf – afzal, tuzuk

Kufr – kofirlik, dindan qaytganlik

Tama’ – istak, xohish

Rohravg‘a - yo‘lovchi, maqsadga intilgan kishi

Kesh – maqsad, mo‘ljal

Bandi rohe/ besh - yo‘ldagi band, to‘siq, monelik

Shajar – daraxt

Parkov - o‘yish quroli

Farah – saodat

Anborkashlig‘ – xas-xashak tashuvchilik

Ahbob - do‘st

Mujtanib – hazar qiluvchi

Murtakib – egallangan, kirishgan

Yuqoridagi so‘zlarning ma’nolarini bilish orqali o‘quvchilarning misralar mazmunini anglab olishlari oson kechadi. Darslikda, asosan, har bir band mazmunini nasriy bayon etishga ahamiyat beriladi. Bu jarayonda o‘quvchilar uchun “Lison ut-tayr” asarining nasriy bayonini o‘qib chiqish va, eng muhimi, 4 jilddan iborat “Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” bilan tanishish yaxshi samara beradi.

Ma’lumki, Navoiyda “Lison ut-tayr” asarini yozish fikri juda yosh vaqtlarida uyg‘ongan. Umrining so‘nggi davrlarida esa bu asarni yozishga muvaffaq bo‘ladi. Mazkur asar yuksak falsafiy fikrlar bilan boyitilgan bo‘lib, unda muallif majoziy obrazlar vositasida tasavvufiy g‘oyalarni ilgari suradi.

Darslikda berilgan parchada ham bu kabi fikrlar yuksak did va nazokat bilan ifoda etilgan:

Har nekim g‘ayri talabdur tashlamoq,

O‘zni maqsad manzilig‘a boshlamoq.

Bu yo‘lda unga bo‘lgan ishq – talabdan boshqa barcha narsalarni tashla, o‘zingni faqat maqsading manzili tomon boshla. Inson uchun bu dunyo ne’matlariga aldanib qolmaslik va qalbni doimo pok tutish, faqat Alloh ishqi bilangina yashash, unga eltuvchi yo‘ldan aslo chalg‘imaslik lozimligi go‘zal badiiy ifodalarda o‘z aksini topgan.

Qolmasa olam mato‘idin jihot,

O‘zga nav’ o‘lg‘ay sanga ul dam sifot.

Agar dunyo matosidan kechsang, shu damdan o‘zingda ayricha sifatlar paydo bo‘lganini anglaysan. Navoiy o‘quvchilar nigohini bugungi kunda, ayniqsa, dolzarb mavzu sanalgan o‘tkinchi dunyo havaslariga berilib, yaxshilik, poklik, saxovat kabi o‘nlab sifatlarning yo‘qolib borayotganiga qaratadi.

Ollingga kelsa agar pili damon,

Ko‘rgosen pashsha hamon-u pil hamon.

Bu yo‘lda oldingdan quturgan mast fil chiqsa ham, sen uni xuddi pashsha singari ezib tashlaysan. Maqsading yo‘lida uchragan har qanday ulkan to‘siqlar (pili damon) sen uchun o‘z ahamiyatini yo‘qotadi.

Gar yo‘lungni tutsa yuz she’r-u palang,

Bo‘lg‘ay ollingda nechukkim mo‘ri lang.

Agar yo‘lingni yuzlab she’r va yo‘lbarslar to‘ssa ham, ular oldingda cho‘loq chumoliday ojiz qoladilar. Qolgan bandlar ham xuddi shu tarzda nasriy bayon etiladi. O‘quvchilarga yangi so‘zlar mazmunini anglatib borish orqali ularni mumtoz adabiyotimiz namunalarini tabdilsiz, aynan shoir yozganiday o‘qish va uqishga bo‘lgan layoqatlarini shakllantirib boriladi. O‘quvchi yil davomida darslik asosida 266 ta so‘zning izohi bilan tanishadi. Darslikda keltirilgan lug‘atlardan tashqari quyidagi so‘zlarning izohini keltirish ham matn mazmunini anglashda o‘quvchiga yordam beradi:

Alam – ranj, g‘am, qayg‘u, dard, azob, iztirob, xasrat

Ajdaho – ajdar, qasd qiluvchi, halok etuvchi; balo, ofat, dushman

Anda – unda

Tariqat - yo‘l, maslak, so‘fiylik yo‘li

Talab – izlash, qidirish, so‘rash; istak, orzu, xohish, ehtiyoj

Talab vodiysi - so‘fiylik maslagidagi yetti vodiyning biri; Haqqa yetishish yo‘lidagi birinchi qadam

Taab – charchash, xorish; qiyinchilik, mashaqqat

Jihot – borliq

Jon – ruh, tiriklik, hayot

Ilik - qo‘l

Raxsh – yugurik ot, tulpor

Ranj – mashaqqat, qiyinchilik, mehnat, zahmat

O‘zga nav’ – boshqa, boshqacha, boshqa xil

Yuqorida keltirilgan so‘zlarning ma’nolarini bilmay turib Navoiy asarlari zamiriga yashiringan ma’nolarni uqish mushkul. Shuning uchun ham darslikda berilgan so‘zlar lug‘ati bilan cheklanmay, o‘quvchiga qo‘shimcha lug‘atlarni ham yozdirib borish lozim. Har bir matn va lug‘at bilan ishlash darsida o‘qituvchi tomonidan kamida 4 ta so‘z izohi darslikdagi lug‘atga qo‘shimcha tarzida o‘rgatib borilsa, o‘quvchining leksik boyligi yil davomida 100 ga yaqin (92 ta) so‘zga ortadi. Darslikda jami 23 ta dars davomida Matn va lug‘atlar bilan ishlash zarur. Yuqorida ta’kidlanganidek, matn va lug‘atlar bilan ishlash Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonidan olingan parcha bilan boshlanadi. O‘quvchini birdaniga XV asrga taaluqli manba bilan tanishtirish o‘qitishda biroz qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Oxirgi matn va lug‘atlar bilan ishlash rukni esa “Beruniyning dam olish kunlari” mavzusidagi matn bilan o‘z nihoyasiga yetadi. Bu matn esa, aksincha, hozirgi o‘zbek adabiy tilida yozilgan bo‘lib, uni o‘qish va tushunish, ma’nosini anglash o‘quvchidan hech qanday tayyorgarlikni talab etmaydi. Xuddi shunday darslikda berilgan birinchi lug‘at tarkibi ham oxirgi lug‘at miqdoriga ham son, ham sifat jihatdan muvofiq emas.

1-mashqda berilgan lug‘atda 11 ta so‘zning izohini aniqlash[47], lug‘at daftariga ko‘chirib yozish va eslab qolish talab etilsa, oxirgi lug‘at bilan bog‘liq 202-topshiriqda esa atigi 3 ta so‘zning izohini aniqlash[48] so‘raladi.

Bizningcha, matn va lug‘atlar bilan ishlash darslarida avval o‘quvchi uchun tushunarli bo‘lgan hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi yoki mumtoz adabiyot namunalarining tabdilini berib, o‘quvchini asta-sekinlik bilan mumtoz adabiyot gulshaniga yetaklab kirish zarur. O‘quvchining lug‘at boyligi oshib borgani sari mumtoz matnlarni tushunish ham osonlashadi. Quyi sinflardan boshlab, o‘quvchilarni Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Rumiy kabi o‘nlab daho ijodkorlar hayotiga oid ibratli hikoyatlar bilan tanishtirib borish lozim. O‘rta sinflarda esa, asosan, mumtoz badiiyat namunalarining tabdili bilan ishlashga e’tibor qaratish lozim. Yuqori sinflarga o‘tgach, o‘quvchilarning aqliy salohiyatining ortishi, so‘z mohiyatini anglash ko‘nikmasining to‘la shakllanishi va shaxs sifatida mas’uliyatni his eta olish malakasining rivojlanishi o‘quvchilarni mumtoz adabiyotga hurmat va e’tibor bilan yondashishga undaydi. Oliy o‘quv yurtiga kirish imtihonlarida ham lug‘atlarga oid testlar hajmining ortishi mumtoz matnlar bilan ishlash samaradorligini ortishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.Qodirov, H.Ne’matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev. 8-sinf ona tili darsligi. – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2019
2. Usmanova Z.I. (2021) Ona tili darsliklari takomillashmoqda. "Экономика и социум" №4 (83) ч.2, 521-527. https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_5e934c57ec2a4f1aa924fcae62fe722d.pdf?index=true
3. 39. Usmanova, Z. I. (2021). YANGI DAVR DARSLIKLARI. Academic Research in Educational Sciences, 2(11), 282-287. doi:10.24412/2181-1385-2021-11-282-287 ARES.UZ | Jurnallar sahifasi
4. Усманова З.И., Менглиев Б.Р. “Она тили таълимида грамматик тушунча, машк, савол ва топшириклариинг берилишига оид ўқув

[47] M.Qodirov, H.Ne’matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev. 8-sinf ona tili darsligi. – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2019. 3-bet
[48] O‘sha manba. 134-bet

материалларини такомиллаштириш педагогик муаммо сифатида” Central Asian academic journal scientific research volume 2 I issue 1 I 2022 (pp. 251-259) https://caajsr.uz/storage/app/media/volume-2-issue-1.pdf

5. Usmanova Z.I., Mengliyev B.R. “Ona tili darslarida o‘quvchilarga grammatik tushunchalarni o‘rgatib borishning ahamiyati” Central Asian academic journal scientific research volume 2 I issue 1 I 2022 (pp. 296-300) https://caajsr.uz/storage/app/media/volume-2-issue-1.pdf

FARZAND TARBIYASIDA OILA VA MAKTABNING O’RNI TO’G’RISIDA NAVOIY QARASHLARI

Hamroyeva Sanobar Bozorovna
Buxoro viloyati Vobkent tumani 21-umumiy o’rta ta’lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Bola tarbiyasida oila muhim rol o’ynashi , maktab va oila tarbiya o’chog’i sifatidagi Navoiyning qarashlari aks etadi.

Kalit so’zlar: farzand tarbiyasida ota-ona va maktabdagi ustozning o’rni , ilm bilan birga hunarli bo’lishning ahamiyati.

Qomusiy bilimlar sohibi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy fan va san’atning turli sohalari: adabiyot, tarix, musiqa, xattotlik, tasviriy-san’at, me’morchilik va boshqalarni rivojlantirish bilan birga ta’lim-tarbiyaga ham katta e’tibor bergan. U o‘zining “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub” kabi yirik ta’limiy, axloqiy asarlarida, shuningdek , “Munojot”, “Vaqfiya”, “Muhokamat ul -lug‘atayn” asarlarida oila, ta’lim-tarbiyaga oid o‘z qarashlarini ifoda etgan. Alisher Navoiy o‘zining badiiy asarlarida komil inson obrazini yaratib, ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlar bergan bo‘lsa, ta’limiy –axloqiy asarlarida komil insonni shakllantirishning mazmuni, usullarini bayon etadi.

Navoiy nazdida bola oiladan tarbiya oladi, uni yetuk inson bo‘lishiga oila va jamiyatning o‘rni beqiyosdir. Hayotda komil inson bo‘lib yetishish uchun Navoiy tasavvurida ijodkorlik, qobiliyat, ilm-fanning ahamiyati katta. Chunki baxtli hayotga intilgan oqil, qobiliyatli, dono inson o‘zining kuch-quvvatiga, aql-u zakovatiga ishonadi. Navoiy ta’lim-tarbiyada ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni qorong‘ulikni yoritadigan chiroq, hayot yo‘lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko‘rsatadigan vosita sifatida ta’riflaydi.

Alisher Navoiy “Hayrat ul- abror” dostonining o‘n birinchi maqolotida ta’limni shunday sharhlaydi: ilm insonni baxt-saodatga eltuvchi quyosh, oy va kunduz, ya’ni bu maqolotda ilm osmonining yulduzlardek baland martabaligi haqidakim, bilimsizlik tunini yoritish uchun arab alifbosidagi “ayn”i quyosh, “lom”i oy, “mim”i kunduz deb ko‘rsatadi. Ilm inson kamoloti uchun eng zarur fazilat hisoblanadi. Shunga ko‘ra Alisher Navoiy o‘z asarlarida kishilarni ilm-u ma’rifatli bo‘lishga undaydi. Chunki ilm egallashdan maqsad jamiyat, yurt, oila, mamlakatda baxtli va farovon hayot kechirishdir.Alisher Navoiy hayotda o‘z ilmiga amal qilish, o‘rganganlarini hayotga tadbiq etish masalasiga alohida e’tibor beradi. Uning “Mahbub ul - qulub” asarida shunday satrlar mavjud:

Ilm o‘qub qilmag‘on amal maqbul,
Dona sochib ko‘tarmadi mahsul...

ya’ni: ilm o‘qib uni ishlatmagan kishi, shudgor qilib yoki urug‘ sochib, hosildan bahra olmaganga o‘xshaydi, deb ta’riflaydi.

Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarida insonga xos bo’lgan yuksak fazilatlarning maqsad va mohiyatini asoslab bergan. . Asar uch qismdan iborat bo‘lib, Navoiyning o‘zi ta’kidlaganidek, birinchi qismda jamiyatning turli tabaqalari to‘g‘risida, ikkinchi qismda axloq va olijanob fazilatlar to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Uchinchi qismda esa tarbiyaviy va ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘lgan hikmatli so‘zlar va maqollar berilgan.

Kitobning ikkinchi qismi haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, ya’ni «Hamida af’ol va zamima xisol xosiyati»da qanoat, sabr, odob, ishq kabi insonni ruhiy holatiga bog‘liq bo‘lgan irodaviy sifatlarning mohiyatini ochgan. Ushbu asarda jamiki insoniy fazilatlarni yoritib beradi Uning fikricha, haqiqiy inson pok, mehnatsevar, sof, vijdonli, insofli, to‘g‘ri, saxovatli, odobli, kamtarin, hayoli, muruvvatli shaxsdir. Yoshlarni ham jamiyatda, oilada ana shunday inson qilib tarbiyalash kerakligini uqtiradi. Insoniy fazilatlaridan biri - qanoat Navoiy tasavvurida buloqdir - suvi olingan bilan qurimaydi, xazinadur - naqdinasi sochgan bilan kamaymaydi, ekinzordir - urug‘i izzat va shavkat mevasini beradi, daraxtdir - shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasini yetkazadi.

O‘z davri tarbiya an’analariga binoan Alisher Navoiy asarlarida insonning har tomonlama barkamol bo‘lib etishishida, kishilarning jismonan sog‘lom va baquvvat bo‘lishiga ham jiddiy e’tibor berilgan. Navoiy asarlarida bola tarbiyasi bilan oilada va maktabda shug‘ullanib, namuna uslubidan foydalanish tavsiya etiladi. Ta’lim va tarbiya ota-ona, o‘qituvchi va jamiyat tomonidan olib borilishi lozim deb ta’kidlanadi. Alisher Navoiy bolalarga jismoniy jazo berishni qoralaydi , lekin ularni erka-tantiq bo‘lib ketishlariga ham yo‘l qo‘ymaslik zarurligini uqtiradi.Bunda ota-ona ham, o‘qituvchi-murabbiy ham me’yordan chiqmasliklari. qobiliyatlini tarbiya qilmaslik zulm, qobiliyatsizga tarbiya hayf ekanligini nazarda tutishlari kerak. Alisher Navoiy asarlarining bosh g‘oyasi komil insonni tarbiyalash. U bola tarbiyasiga va uni shaxs sifatida shakllantirishga katta ahamiyat berib, bolani uyning “chirog‘i”, bola oilaga baxt va saodat keltiruvchi deb baholaydi. Alisher Navoiy bolalarga yoshlikdanoq bilim, ma’lumot, tarbiya berishni aytib, o‘g‘il-qizlarni kichik yoshdan boshlab muallimga berish lozimligini aytadi. U ta’limda ilmiylikka asoslanish, tarixiylik kabi talablarni asos qilib olishni targ‘ib etadi. O‘z davridagi maktablarning yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi. Navoiy farzandlar ota-onalarini, oilalarini, vatanni hurmat qilishlari, e’zozlashlari lozimlini takror va takror uqtiradi.

Ijtimoiy hayotning asosi, shaxs shakllanadigan ibtidoiy beshik esa oila, bola oladigan ilk o‘rnak ota va onasi-yu , oilasi a’zolari va yaqinlaridir. Shu bois oila va undagi muhit, oilada farzandning o‘rni, ota va onaning mas’uliyati buyuk adibning juda ko‘p asarlarida bahs mavzui bo‘lgan. Olamshumul «Xamsa»ning ikkinchi dostoni bo‘lgan «Farhod va Shirin» ulardan biridir. Ma’lumki, bu dostonning butun mohiyati va bayonu voqealar markazini oilada bir farzandning - Farhodning - tug‘ilishi, tarbiyasi , ta’limi, olgan bilimi asosida ijtimoiy faoliyati va komil inson darajasiga ko‘tarilishining badiiy tavsifi tashkil etadi. Shuning uchun yangi oila qurgan va qurayotgan yoshlarimizga bir ibrat sifatida Farhodning tarbiyasiga ota-onaning tutgan yo‘lini kuzatish va ochib berish, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol topshirishda qudratli ma’rifiy qurol vazifasini o‘taydi. Zeroki, Farhodning doston davomida sharhlangan barcha ezgu ishlari, mislsiz qahramonliklari asosini buyuk adib uning oilada olgan

ta’lim va tarbiyasida ko‘radi va hamisha buni ta’kidlab turadi. Chunonchi, Farhod Arman o‘lkasiga kelib, ko‘hkanlarning og‘ir va deyarli samarasiz mehnatini ko‘rib, tafakkurga botadi:

Hunarni asrabon netkumdur oxir,
Olib tufroqqamu ketkumdur oxir (B.237)[49]

Farhod ishga kirishga tayyorlanar va o‘ziga ish quroli yasar ekan, buyuk adib uning bu ishda bolalikda Qorandan o‘rgangan bilimiga tayanganligini shunday ifoda etadi:

Nihoniy borchag‘a andoq su berdi,
Ki Qorandin nihon o‘rganmish erdi (B.239)

Adib Farhodning bolalikda olgan ta’limining samarasini g‘uluv bilan shunday ifoda etadi:

Hamul kun-o‘q daliri xorabur gov
Muhayyo qildi xoro ichra bir nov,
Ki uch yil ikki yuz xorobur ustod
Ola olmay ham oncha xorodin dod (B.238)

va bir kunda ikki yuz toshkesar uch yil davomida qilgan ishdan qo‘proq samara olishi ilohiy ne’mat, yordam yoki g‘ayritabiiy kuch ta’sirida emas, yoshlikda o‘rgangan HUNAR, ya’ni ta’limi mahsuli ekanligini «Hunar mundog‘ chu zohir ayladm qo‘p» deb yakunlaydi.

Xuddi shunday Farhod Salosil qo‘rg‘onida kuchli nazorat ostida band etilganda, poyloqchilar o‘lim dahshati bilan qo‘rqitilgan bo‘lishlariga qarmay, Suqrotdan olgan «ulumi xufya» (maxfiy ilm, sirli bilim) uni istagan band va poyloqchidan ozod qilishini tasvirlab, shabob (yigitlik) davri yutuqlarini sag‘irlik (bolalik) ayyomi ta’limu tarbiyasi samarasi sifatida talqin qiladi:

Ulumi xufyakim Suqroti komil,
Aning holig‘a qilmish erdi shomil…
Ki yuz ming band aro gar bo‘lsa qoyil,

[49] Navoiy Alishe’r “Xamsa” Toshkent O’z FAN 1960

Qayon borsa, bo‘lolmay band hoyil.
Yo‘lida bo‘lsa yuz mahbus darband,
Chu ul yetgach ochilg‘ay sarbasar band (B.581)

Bu bilan buyuk mutafakkir yoshlikda olgan ta’lim-tarbiyaning yetuklik yillari muvaffaqiyatlari zamini ekanligi g‘oyasini ilgari suradi va Farhodning tavalludidan boshlab ismi va ta’lim-tarbiyasi masalasiga otasi - Xoqonning katta e’tibor berganini ta’kidlaydi. Otaning farzand oldidagi birinchi mas’uliyati unga yaxshi ism berishdir. Xoqon **far** (*shon, shukuh, shavkat: nur*) so‘ziga **himmat, iqbol, davlat** so‘zlarining bosh harfidan **Farhod** so‘zini hosil qilib, bolaga shu ismni berganligini bayon qiladi . O‘g‘il aqlga kirgach,

Ato bu nav ko‘rgach ish hisobin
Munosib angladi ilm iqtisobin
Keturdilar hakimi nuktadone
Bilik ichra jahon ichra jahone

Mana shu hakim ustozligida o‘g‘il savod chiqaradi, fikrat (mantiq), hikmat (fizika), hay’at (kosmogoniya), «tabiyu riyoziyu ilohiy» fanlar bo‘yicha bilim hosil qiladi.

Ta’lim tarbiyaning navbatdari bosqichini – jismoniy-harbiy tayyorgarlik (dilovarlik)ni Navoiy shunday tasvirlay:

Ulum avroqi chun bir-bir yopildi,
Dilovarliq silohi mayli qildi (B.175).

Bunda Farhod o‘q otish, kamon tortish, qilichbozlik, gurzi va nayza urish, shashpar va xanjar ishlatish, qalqon yopinish mashqlarida chiniqadi va suvoriylik san’atida mumtoz bo‘ladi. Bularning barchasi ota nazoratida va himoya-yu sarfasida (sadqasida) bo‘ladi:

Ato yuzlanmasun deb dard-u ranje,
Etib har kun boshiga sadqa ganje (B.175)

Shu bilan adib o‘g‘ilning bevosita ota rahbarligidagi ta’limini yakunlaydi. Navbatdagi bosqichda o‘g‘il otasi qurdirayotgan binolar qurilishida ishtirok etib, Qoran sangtaroshdan sangburlik san’atini o‘rganadi, unda kamolga etadi:

Aningdek qildi xoro yo‘nmog‘in vird
Ki yuz Qoran qoshida erdi shogird (B.182) :

naqqosh va musavvir Moniydan mo‘yqalam san’ati sirlarini o‘zlashtiradi:

Bu ishni dog‘i oz fursatda qildi,
Aningdekkim, kerak alqissa bildi (B.183)

Yuqorida berilgan bayondan qo‘rinib turibdiki ,farzand (Farhod) ning savod, ilm, jismoniy va kasbiy ta’lim-tarbiyasi bevosita ota rahbarligi, nazorati va mas’uliyatida amalga oshadi. Bu tasviri bilan buyuk adib otalarga o‘z farzandlari oldida mas’uliyatu burchlari haqida katta foydali dars beradi va bu dars hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qoladi.

Insonning fe’l-atvori o‘zicha hosil bo‘lmasligini, balki jamiyatdagi ma’lum kishilar jamoasida muayyan axloqiy qoidalar asosida shakllanishini bayon qilgan.

Navoiyning dunyoqarashida insonparvarlik g‘oyalari asosiy o‘rin olgan. Navoiy maktabdorlik yoki mudarrislik qilmagan bo‘lsa ham, ta’lim va tarbiya borasida juda katta ishlarni amalga oshirgan. U juda ko‘p fozil kishilarni tarbiyalab etishtirgan. Mashhur tarixchi Xondamir Navoiyning yoshlarga bilim va tarbiya berish uchun imkoniyatlar yaratgani haqida, jumladan , shunday yozgan: «Atoqli olimlar va hurmatga loyiq san’at ahlining darajalarini ko‘tarishda va martabalarini oshirishda qo‘lidan kelgan qadar harakat qilib, bunday ishlarga katta ahamiyat berdi. O‘quvchilar faqat o‘qish bilan mashg‘ul bo‘lishlari uchun ularga nafaqalar tayin etib, madrasalar bino qildi».

Navoiy fanning turli tarmoklarini—adabiyot, tarix, til bilimlarini: san’atning har xil sohalarini musiqa, rasm, xattotlik, me’morchilikni rivojlantirishga harakat qilish bilan birga ana shu sohalarning ijodkorlariga yordamlashgan, qimmatli maslahatlar bergan ularni rag‘batlantirgan.

Navoiy ilmiy va adabiy asarlarni yaratishda o‘z davridagi olimlar, adiblar va shogirdlariga namuna bo’lgan. Uning deyarli barcha asarlari tarbiyaviy-ma’rifiy ahamiyatga ega. Shoirning besh dostondan iborat shoh asari «Xamsa»da inson kamolotining barcha masalalari qamrab olingan. Undagi birinchi doston—«Hayrat ul -abror» haqiqat, ishonch, ezgulik, sevgi va do’stlikni ulug’lovchi falsafiy asardir.

Unda o’sha davr uchun dolzarb axloqiy, tarbiyaviy, ijtimoiy-falsafiy fikrlar bayon qilingan. Adolat, muruvvat, saxiylik, odob, kamtarlik, qanoat, insof, ishq-vafo, rostgo’ylik, do’stlik, o’zaro yordam va boshqa ajoyib fazilatlar, oddiy mehnatkashning jamiyatdagi o’rni ifodalangan. Ana shu oliyjanob fazilatlar ta’rifida alohida-alohida hikoyalar berilgan.

Navoiy yosh avlodning ilm-hunar o’rgangan va eng yaxshi fazilatlarga ega kishilar bo’lishini orzu qiladi va dostonning tarbiyaviy qimmati ham ana shundadir.«Xamsa» dagi so‘nggi doston — «Saddi Iskandariy»da Navoiyning ijtimoiy-falsafiy fikrlari, ta’lim-tarbiyaviy qarashlari ifodalangan. Iskandarning tarbiyasi, o’qituvchilari, olimlar haqidagi mushohadalar, faylasuflarning mashvarati, Iskandarning olimlarga savoli va ularning javoblarn bayon qilingan.

Navoiy xalq bolalarini o’qitish va tarbiyalash uchun maktablar ochish to’g’risida g‘amxo’rlik qilgan. Uning fikricha, maktab xalqqa nur keltiradi, to’g‘ri yo’l ko’rsatadi, insonparvarlik g‘oyalarini bola ongiga singdirishda asosiy kuch bo‘lib xizmat qiladi. Mamlakat, xalq uchun maktab g‘oyat katta ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Navoiy Alisher. “Xamsa” .Toshkent O’z FAN -1960

2.A.Navoiy .“Xamsa” .Toshkent -2016

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TAYYORLOV GURUHLARIDA A.NAVOIYNING “SHE’R BILAN DURROJ” HIKOYASINI O’RGATISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Mirazimova Muxabbat Normatovna,
A.Qodiriy nomli Jizzax davlat pedagogika instituti, o’qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari tayyorlov guruhlari tarbiyalanuvchilariga “She’r bilan Durroj” hikoyasini aytib berish orqali bolalarga yolg’onchilikning oqibatlari, hikoyani o’rgatishning tarbiyaviy ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: intellektual, hikoya, yolg’onchilik, tafakkur, insonparvarlik, She’r va Durroj, adolatparvarlik, rivojlantirish, donishmandlik.

Mamlakatimiz kelajagi va davomchilari bo’lgan yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri bo’lib, ta’lim jarayonini maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan boshlanishi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.10.2020 yildagi PQ-4865-son “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil etilgani, Toshkent shahrida Alisher Navoiy nomidagi ijod maktabini tashkil etilishi, mamlakatimiz hamda bir qator xorijiy davlatlarda haykallari o‘rnatilgani, asarlar to‘plami to‘liq nashrdan chiqarilgani, poytaxtimiz markazidagi ulug‘ bobomizning muazzam me’moriy yodgorligiga mutanosib ravishda Adiblar xiyoboni barpo etilgani, Alisher Navoiy ordenini ta'sis etilishi hamda har yili an'anaviy ravishda 9-fevral shoirning tug'ilgan sanasi munosabati bilan adabiy tadbirlar, she'rxonlik va badiiy kechalar tashkil etilishi madaniy hayotimizdagi ulkan voqealarga aylandi.

Prezidentimizning Farmon va Qarorlarini ijrosini ta’minlash maqsadida uzluksiz ta’lim tizimining boshlang’ich bo’g’ini hisoblanadigan maktabgacha ta’lim sohasida ham A.Navoiy hayoti va ijodini o’rganish takomillashtirildi. Chunki, maktabgacha ta’limda rivojlangan, sog’lom, barkamol bolani shakllantiradi, qobiliyatlarini ro’yobga chiqaradi, unda bilim olishga intilishni paydo qiladi, ularni intellektual, hamda bolalarni tizimli umumiy o’rta ta’limga tayyorlash kabi maqsadlar yo’lida ish olib boriladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning tafakkurini, ma’naviyatini shakllantirish bu doimiy tizimlilik, davomiylik va uzviylikni talab etadi. Bu vazifalarni amalga oshirishda buyuk shoir va mutafakkir, davlat arbobi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy taxallusi ostida ijod qilgan o'zbek adabiyotining eng yirik namoyondasi merosidan foydalanish, Navoiyning boy va serqirra ijodiy merosini har tomonlama chuqur o‘rgatish, o‘sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy asarlarining umuminsoniy g‘oyasi - insonparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik, do‘stlik, tinchlik, mehr va sadoqat, pok sevgi va vafo, ma’rifatlilik kabi go‘zal tuyg‘ularning yuksak badiiy shaklda ifodalashi orqali o‘zbek adabiyoti shuhratini dunyo miqyosiga olib chiqdi. Alisher Navoiy inson tafakkuri, aqli, bilimini va ilmiy bilimlarini yuksak qadrlagan. U “Bilim va donishmandlik – insonning bezagidir” – deb yozadi. Alisher Navoiy bola tarbiyasiga va uni shaxs sifatida shakllantirishga katta ahamiyat berib, bolani hayot “chirog’i” deb ta’riflaydi. Bola oilaga baxt va saodat keltiruvchi ziyodir.

Alisher Navoiy bolalarga kichik yoshligidanoq bilim, ma’lumot va tarbiya berishni ko’rsatib, o’g’il va qizlarni juda yoshligidan tarbiyachiga, muallimga berish lozimligini aytadi.

Alisher Navoiy merosi osib kelayotgan yosh avlodga, ya’ni maktabgacha yoshdagi bolalarning bilimini, tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishda muhim vositalardan sanaladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Til va nutq” markazi bilan mashg’ulot faoliyatlarida Navoiy merosidan foydalanishning imkoniyati mavjud ekan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining dasturi hisoblangan “Ilk qadam” o‘quv dasturida yuqorida zikr etilgan mashg’ulotlar rejasiga Navoiyning “She’r bilan Durroj”, “Himmatli bo’lsang”, “Ikki vafoli yor”, “Bir kabutar” kabi hikoyatlari kiritilgan. Keltirilgan hikoyatlar “Hikoya qilib berish” rukni ostida. Demak, pedagog bu hikoyatlarni bolalarga so’zlab beradi. Hikoya qilish chog’ida bolalar gap nima haqida ketayotganligiga e’tibor berishlarini nazorat qilib turishi shart. Kerakli o’rinlarda savollar bilan murojaat qilib, bolalarni bahsga tortishi lozim. Bunda bola erkin fikrlashga, o’z fikrini bemalol bayon qilishga, boshqalar fikrini eshitishga va hurmat qilishga o’rganib boradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tayyorlov guruhlari tarbiyalanuvchilariga “She’r bilan Durroj” hikoyasini aytib berish orqali bolalarga yolg’onchilikning oqibatlari xususida Durrojning yolg’on gapirishlarini tushuntirib berish lozim. Pedagog bu o’rinda qahramonlarni alohida ta’riflab o’tishi kerak. She’r – bu o’rmonlar shohi. U hech narsadan qo’rqmaydi. Lekin u o’z bolalarini o’ylaydi. Durrojning u yoqdan – bu yoqqa qilgan tinimsiz harakatlari bolalari tinchligini buzadi. Shuning uchun she’r katta bo’lishiga qaramasdan Durroj oldida bosh egib, u bilan do’stlashdi. Mana shu o’rinda pedagog bolalarga o’z onalarining ular uchun hamma narsaga tayyorligini ta’kidlab, shuning uchun onalarining qadriga yetishi, hurmat qilishi, ularni har doim yaxshi ko’rishi, ardoqlashi, aytganlarini so’zsiz bajarishi kerakliligini aytib o’tishi lozim. Pedagog mashg’ulot davomida bolalardan onalariga qanday munosabatda bo’lishlari haqida so’rab borsa ham o’rinli bo’ladi.

Durrojning mahmadonaligi, o’zbilarmonchiligi, yolg’onchiligi o’z boshiga kulfat olib kelganligini pedagog obrazli qilib bolalarga sahnalashtirish orqali yetkazishi ularda katta taassurot qoldiradi. Shunda bolaning yolg’on va yolg’onchilikka bo’lgan munosabati oshadi, oqibati yomon bo’lishini sezib yolg’on gapirmaslik lozim degan fikrni miyasida mustahkamlaydi. Boladagi rostgo’ylik xususiyatining shakllanishi uning ma’naviyati yuksalayotganligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, bola maktabgacha ta’im tashkilotida ta’lim olish davrida ertak, hikoya, rivoyat kabilarni eshitishga qiziqishi yuqori bo’lganligi sababli ularni jon qulog’i bilan eshitadi. Bu jarayonda eshitayotganlarning bolaga qay darajada ta’sir o’tkazishi tarbiyachining hikoya qilib berish mahoratiga ham bog’liq. Maktabgacha ta’im tashkiloti tayyorlov guruhlarida bolalarga aytib beriladigan A.Navoiyning “She’r bilan Durroj” hikoyasi har bir bola dunyoqarashini kengaytirib, undagi insoniy fazilatlarni o’stirishda ko’maklashadi. Bola eshitganlari va mana shu hikoyaning multfilmni ko’rib, fikrlab o’ziga yarasha xulosa chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.06.2017 yildagi PQ-3080-son O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.10.2020 yildagi PQ-4865-son “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori.

3. https://tafakkur.net/she’r-va-durroj/Alisher-navoiy.uz

THE GLORIFICATION OF HUMAN QUALITIES IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI

Bakhronova Matluba Akhmedovna,
teacher of Pedagogical institute of Bukhara state university
Bakhshullayeva Shakhnoza, student

Abstract: This article describes and analysis of the glorification of human qualities in the works of the great turkish poet and philosopher Alisher Navoiy.

Keywords: humanity, proverb, moral, narration, generosity, character, epic, image, sipiritual, Turkic language, qualities.

Linguist,literary critic and statesman Mir Alisher Navoi was born on February 9,1441 in Hirat which capital of Khurasan province.From an early age, he loved literature and never tired of reading poetry.During his lifetime, he wrote a work of 20 volumes.From a young age, Navoi loved to read Farididdin Attar's "Mantiq ut-tayr"and in response to it he wrote "Lison ut-tayr" (bird's tongue).Navoi arranged two devons:"Badoe ul-bidoya” and "Navodir un-nihoya”."Xamsa” is the flower of Navoi`s works.It contains five epics such as "Hayrat ul-abror”, "Farhod and Shirin”, "Layli and Majnun”, "Sab`ai Sayyor” and "Saddi Iskandariy”.Navoi's "Xamsa" is the first work written in Turkish in this genre.Navoi reveals the peculiarities of the Turkic language and proves that it is possible to write a large-scale work in this language as well.Describing the four seasons of his life,in 1990 he wrote a work consisting of four devons.They are "G`aroyib us-sig`ar”,’’Navodir ush-shabob”, “Badoye ul-vasat” and “Favoyid ul-kibar”.All of Navoi`s works contain exemplary stories,wise sayings,comparisons and interesting adventures related to the spiritual upbringing of man.Navoi continued the tradition of oriental literature and raised the literature of the Turkic peoples to a new height.In addition to shaking the pen, Navoi is actively involved in public affairs.King Hussein Boykaro always consulted with Navoi before making a decision.Hussein Boykaro appoints Navoi as sealer and minister.Navoi wrote all his literary works in combination with politics.Navoi made a significant contribution to the socio-economic development of the country.He

sponsored the development of science, art and culture, as well as peace and harmony in the country.

If we analyze the work of “Mahbub ul-Qulub”created by Alisher Navoi at the end of his life , moral views and admonition became the main topic.The word “Mahbub ul-Qulub” means love of hearts.The play explores the poet's latest social and political views.This work is highly regarded as it provides the most effective solutions to the problems of life that everyone will inevitably face throughout their lives.In the introductory part of the work,the following masnavi describes the difficulties he faced in life,serving the good and the bad and enjoying the conservation of the elder and the younger.

“Gahi topdim falakdin notavonlig`,

Gahi ko`rdum zamondin komronlig`,

Base issig`,sovug` ko`rdum zamonda,

Base achchig`,chuchuk totdim jahonda.”

Indeed,Navoi`s works are a great spiritual treasure left to future generations ,as they detail generosity,kindness,greed,suffering and hardship,humility and decency,good and evil,the benefits of travel and the consequences of lying.

Folk proverbs were widely used in this play, and also Navoi's wise sayings became proverbs."Tilga ixtiyorsiz- elga e`tiborsiz” especially in this wise word there is a deep and profound meaning.No matter where a person is respected for his sweet words and kindness.A person with a bad language always hurts the hearts of his interlocutors.”Alisher Navoi likens an ugly person with a nonsense,an ugly voice like a frog and a sweet person with a sweet tongue as a wise and intelligent person". Man is distinguished from other living beings by language.Therefore, one must know where to say which word.

,,Saxiy bulutdir ,xirmon-xirmon don hosili,balki xazina beradi;baxil chumolidir,don-dun ,mashoq teradi.Oliyhimmat odam-balandparvoz lochindir;behimmat- sichqon ovlovchi kalxatdir”.In his views on generosity ,Navoi sought to reveal the characteristics of greedy and generous people.Generous person is also kind , compassionate who has the highest qualities of helping others.He wants to share everything with the people.A greedy person does not want to share his wealth with anyone,but tries to take it from others.

"Mahbub ul - Qulub"'s work is divided into three parts.

Part 1. The state and character of the people and the mood of their words;

Part 2. Character of good deeds and bad qualities;

Part 3. The result of good and the consequence of bad qualities.

In short,in the poet`s gazals, rubai,muhammas,qita and epics, human qualities always prevail.His writings about his 60 years of life serve as an ehample for us and light our way like a torch.As we read Navoi`s works, we learn useful advice on how to be humble,not to lie,not to be honest and encourages us to be generous to people,to be scientific and to be quick to respond to every action.Navoi`s works are loved and read not only by Uzbeks,but also by people all over the world and receive spiritual nourishment.These works take place in their hearts and ingrained in their mind.Probably for this reason ,statues are erected in Moscow,Baku and Tokyo in honor of this great man.

As the first President of the Republic of Uzbekistan I.A.Karimov said, not only in our country, but also in foreign countries, there is no one who does not know Navoi and has not read his works.

CONCLUSION

The great poet made a great contribution to the upbringing of a harmoniously developed generation with his views on education, and his views on universal

qualities are important for our time.The universal idea of Navoi's works is to recognize the fame of Uzbek literature to the world through the high artistic expression of such beautiful feelings as humanity, nationalism, justice, friendship, peace, kindness and loyalty, pure love and fidelity, enlightenment.In his works, Alisher Navoi expresses his views on universal education by creating the image of a harmonious human being.

REFERENCES

1.Textbook set for secondary schools. S.Ahmedov, R.Kochkarov, Shu.Rizayev. 2013, p.38, p.41, p.45.

2."High spirituality is an invincible force". Islam Karimov.2008. Page 47.

3. Bakhronova, M. A. (2020). Representation of disease names in the literature. ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (86), 141-144.

4.https://arboblar.uz/uz/people/Alisher-navoi.

5. Depiction of diseases in literature BM Akhmedovna, TN Nosirovna - International Journal of Psycxosocial Rehabilitation, 2020

TARIX FANINI O’QITISHDA ALISHER NAVOIY SHAXSIYATINING O’RNI VA AHAMIYATI

Norova Dildora Radjabovna

19-IDUM тarix fani o’qituvchisi, Buxoro shahar

Annotatsiya: maqolada o’rta umumta’lim maktablarida tarix fanini o’qitish jarayonida xususan 5-sinf Tarixdan hikoyalar va O’zbekiston tarixi darsliklarida Alisher Navoiy shaxsiyatining o’ziga xos jihatlari ochib beriladi va dars jarayonida o’quvchilar ongiga tarixiy bilimlarni singdirish orqali vatanparvarlik, milliy g’urur, iftixor tuyg’ulari shakllantiriladi.

Kalit so’zlar: jahon adabiyoti, iste’dod, turkey til, forsiy til, Movarounnahr, Xuroson, Hirot, shohasar,buyuk shaxs, millatg’ururi.

Аннотация: В данной статьи освещаются своеобразные особенности личности Алишера Наваи в обучении истории в средних школах, в частности, по предметам Рассказы по истории для 5-х классов и История Узбекистана. В процессе преподавания в сознании учащихся формируются чувства патриотизма, национальной гордости по историческим знаниям.

Ключевые слова: мировая литература, талант, тюркский язык, персидский язык (фарси), Мавераннахр, Хорасан, Герат, шедевр, великий человек, гордость нации.

Annotation: The articles reveals the peculiarities of AlisherNavoi’s personality in the process of teaching history in secondary schools, in particular, in the textbooks of the 5th grade, and instills patriotism, national pride in the minds of students through the lessons.

Key words: world literature, talent, Turkish, Persian, Movarounnahr, Khorasan, Herat, royal work, great person, national pride**.**

Inson qalbining quvonch-u qayg‘usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga

muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma’rifiy qurolga ega bo‘lamiz.

O’rta umumta’lim maktablarining 5-sinf o’quvchilariga Tarixdan hikoyalar fanini o’qitish jarayonida “Adabiyot va san’at ravnaqi” mavzusida (76-78 betlar) Temuriylar davridagi mamlakat obodonchiligi, o’sha davr adabiyoti va san’ati masalalarini tarix fani o’qituvchisi batafsil yoritadi. Xuddi shu mavzuda Alisher Navoiyning xalqimiz buyuk mutafakkir shoiri, davlat arbobi, ilm-fan va madaniyat homiysi, o‘zbek adabiy tilining asoschisi ekanligi, uning tug’ilgan sanasi, mamlakati, uning oilasi haqida o’quvchilarga ma’lumot beriladi. Alisherning otasi G’iyosiddin Bahodir saroyda temuriylar xizmatida bo’lganligi uchun Alisher temuriyzoda, keyinchalik hukmdor bo‘lib yetishgan Husayn Boyqaro bilan birga tarbiyalanadi. Alisher Navoiy 4 yoshidan maktabda ilm o‘rganishi, turkey va forsiy tillardagi she’rlarni yod olishi, 10 – 12 yoshidan boshlab esa o‘zi ham she’r yoza boshlashi bilan uning she’riyatga bo‘lgan ixlosi va iste’dodi hatto o‘z davrining mashhur shoiri Lutfiyni ham hayratga solgan- ligi qayd etiladi. Bundan tashqari dars jarayonida Alisher Navoiyning 15 yoshida shoir sifatida elga tanilishi turkiy (o‘zbek) tilidagi she’rlarini «Navoiy» va forsiy tilidagi she’rlarini «Foniy» taxallusi bilan yozilishi haqida ma’lumot bilan ham o’quvchilar tanishadilar.[i]

7-sinf O’zbekiston tarixi fanini o’qitish jarayonida ham Alisher Navoiy shaxsiyatining o’ziga xos jihatlari o’rganiladi. Xususan,Temuriylar davri adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo’shgan buyuk allomalar qatorida Alisher Navoiy uchun ham alohida o’rin ajratilgan (150-152 betlar). Mazkur mavzuda Alisher Navoiy butun faoliyati va ijodiyotini insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, o’zaro urushlarning oldini olishga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san’at va adabiyot taraqqiyotiga baxshida etgani qayd etilgan. Bundan tashqari o’zbek adabiy tili, o’zbek mumtoz adabiyotini yangi pog’onaga ko’tarib, 30 dan ortiq yirik badiiy asar yozgani, xususan “Xamsa”, “Xazoyinul-maoniy”, “Mahbubul-

qulub”, “Lison ut-tayr” asarlari bebaho xazina ekanligi ta’kidlangan (151-bet).[ii] O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan Alisher Navoiyga quyidagi bebaho ta’rif ushbu darslikning 152-betida keltiriladi: “Agar bu ulug’ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak shoirlarning sultonidir”.[iii]

Dars jarayonida tarix fani o’qituvchisi tomonidan shoirning turkiy tilda birinchi beshta katta kitob – shoh asari «Xamsa»ning yaratilishi, bu asar o‘zbek adabiyotining shuhratini olamga yoyganligi, jahon adabiyotining durdonalaridan biri ekanligiga oid masalalar o’quvchilar ongiga singdirilishi ularni vatanparvar, xalqparvar, ilm tolibi qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

8-sinf O’zbekiston tarixi darsligida Movarounnahr va Xurosondagi temuriylarning o’zaro siyosiy kurashlarini yoritish jarayonida Alisher Navoiyning o’ziga xos o’rni ochib beriladi (9-10 betlar).[iv] 1469-yilda Hirot taxtiga Husayn Boyqaro chiqdi va Samarqandga xat yo’llab, maktabdosh dosti Alisher Navoiyni o’z yoniga chaqirib oladi. Davlat ishlariga jalb etadi, muhrdor qilib tayinlaydi. Shu tariqa, buyuk shoir Husayn Boyqaro saroyida 1469-1472-yillarda muhrdor, 1472-1476-yillarda vazir bo’lib ishladi.1487-1488-yillarda Astrobodga hokimlik qildi. Husayn Boyqaro hokimiyat ishlarida Navoiyning aql va sadoqatiga tayanib ishko’rdi. Uni, qarshiligiga qaramasdan, yuqori martabalarga tayaniladi. Buyukshoir “amrikabir” (ulug’ amir), “amirul muqarrab” (podishohga eng yaqin amir) unvonlariga musharraf bo’ldi.Uning vazirlik yillari Hirotda obodonlikishlari avj olgan, madaniyat gullab yashnagan davr bo’ldi. Ulug’ amir o’zi bosh bo’lib suvsiz erlarga suv chiqardi, eski ariqlarni tozalattirdi, yangi kanallar qazdirdi. Eski binolarni ta’mir qildirib, yangilarini qurdirdi.Qanchadan-qancha madrasalar, xonaqolar soldirdi. Uning, ayniqsa, Husayn Boyqaro hokimiyatini mustahkamlash, yurt osoyishtaligini ta’minlash, temuriyzodalar toju - taxt uchun olib borayotgan kurashlarning oldini olish borasidagi xizmatlari katta bo’ldi. Aql-u zakovati, donishmandligi, el-yurt orasidagi yuksak mavqei bilan Husayn Boyqaro va o’g’illari-shahzodalar o’rtasidagi ko’plab nizo va janjalarni yarashga aylantirib, ota va bolalarning bir-birlariga mehr-muhabbatlarini tiklashga muvaffaq bo’ldi. Qanchadan-qancha g’alayonlarni tinchitdi.

U jangda jasur, she’rda iste’dodli,do’stlikda sadoqatli bo’lgan. Sulton Husayn Boyqaroga qattiq ishonadi. Alisher Navoiy she’rini, shoirlikni hamma narsadan baland tutdi.Vazirlik martabasida turib ham ijod qilishni to’xtatmadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 29-yanvarda qabul qilingan PF-139-son farmoniga binoan Toshkent shahrida 28-sentabr kuni Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi katta tantana bilan nishonlandi.Shu munosabat bilan Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog’ tashkil etildi va shoirga salobatli haykal o’rnatildi.[v] Respublikadagi eng yirik viloyatlardan biri va uning markazi, O’zbekiston Davlat mukofoti, O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot instituti, opera va balet akademik teatri, O’zbekiston Davlat kutubxonasi, Samarqand Davlat universiteti va boshqa yuzlab madaniy-ma’rifiy muassasalar shoir nomi bilan ataladi. Mustaqil O’zbekistonda Navoiyni anglash davlat siyosati darajasiga ko’tarildi.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi, sha’n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san’atkoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Jo’rayev U., Usmonov Q., Norqulov A., Jo’rayeva G. Tarixdan hikoyalar. Umumta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. 3- nashri. T.:Cho’lpon. 2020,-B.76-78.
2. Muhammadjonov A. O’zbekiston tarixi. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik.3-nashri. T.: 2017
3. Ислом Каримов. Юксак маънавият-енгилмас куч. T.: “Маънавият”, 2008. -Б.47
4. O’zbekiston tarixi. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. 4-nashri. T.: 2019
5. http://mustaqillik.uz.events.view.

АЛИШЕР НАВОИЙ ҲИКМАТЛАРИДА ИНСОНИЙ ФАЗИЛАТЛАР ТАРАННУМИ

Ҳусанова Машҳура Аҳмаджоновна

ПИИМА тасарруфидаги Эркин Воҳидов номли ижод мактаби она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси

Калит сўз ва иборалар: инсонпарварлик ғояси, ахлоқий-таълимий қарашлар, текстологик план, комил инсон, одил шоҳ.

Ўзбек халқининг улуғ мутафаккир шоири Алишер Навоийдан Шарқ мумтоз адабиётининг барча жанрларига оид жуда катта ва бой маънавий-маърифий мерос етиб келган. Ўз даврида инсонпарварлик ғояларини юксак бадиий маҳорат билан ифодалаб берган адиб асарлари асрлардан асрларга, насллардан наслларга ўтиб ардоқланиб келинмоқда. Бу асарлар бугунги авлодларнинг ҳам эзгу умидлари, ажойиб орзулари зуҳури йўлида илҳомбахш кучга айланди. Шоир асарларини бугунги кунда матншунослик нуқтаи назаридан янада кенгроқ ўрганишга киришилди. Айримларига ҳозирги адабий тил меъёрлари асосидаги шарҳлари, табдиллари билан нашр этилди.

Жорий йилда Алишер Навоий таваллудининг 580 йиллигини кенг нишонлаймиз. Бу қутлуғ санани муносиб нишонлаш бўйича давлат дастури ҳам ишлаб чиқилди. Бугунги кунда бу борада амалга оширилаётган ишлар буюк мутафаккир олимга бўлган юксак эҳтиромдан далолат беради.

Маълумки, Навоий ижоди асрлар давомида инсоният турмуш тарзи, маданияти, орзу-истаклари, одоб-ахлоқ мезони сифатида кенг ўрганилган. Уларда акс этган умуминсоний ғоялар, комил инсон тушунчаси кишилик жамияти йўриқномаси сифатида кенг тарғиб этилади.

Алишер Навоий жаҳон туркий адабиётининг энг машҳур вакилидир. Шоир ўз асарларида умумбашарий ғоялар: инсонпарварлик, халқпарварлик, адолатпарварлик, дўстлик, тинчлик, меҳр ва садоқат, пок севги ва вафо,

маърифатлилик каби гўзал фазилатларни юксак бадиий шаклда ифодалаш орқали ўзбек адабиёти шуҳратини дунёга ёйди.

У турли илмий ва адабий асарларида ўзининг ахлоқий-маърифий қарашларини ифода этди. Бу борада мутафаккир қаламига мансуб ҳикматлар алоҳида ва муҳим ўрин тутади. Навоий фикрича, инсон учун тож, давлат ва моддий бойликлар эмас, балки эзгу фазилат ва амаллар заруррокдир. Зеро, улар ҳар қандай бойликдан афзалдир. Инсон халққа ҳам меҳнати, ҳам сўзи билан фойда келтириши кераклигини таъкидлайди, халқ учун ишлайдиган, халқнинг бахт-саодати йўлида хизмат қиладиган кишиларни ҳақиқий одам деб билади:

Одами эрсанг, демагил одами,

Ониким йўқ, халқ ғамидин ғами. (...)

Дарҳақиқат, халқни ўйлаш, унинг манфаатини ўз манфаати деб билиш инсон мартабасини улуғ қилади. Шу боис донишманд бобомиз кишиларни ҳамиша халққа нафъ келтиришга чорлайди:

Нафъинг агар халққа бешак дурур,

Билки, бу нафъ ўзингга кўпрак дурур.(...)

Навоий умри давомида илм-маърифатни ўта қадрлаган ва бу йўлда изланган кишиларга ҳамиша беминнат ҳомийлик қилган. Инсон маънавий камолотини, аввало, унинг илму маърифат соҳиби бўлганлигида деб билади. Кучли билимга эга бўлиш учун эса оз-оздан ўрганиб бориш кераклигини таъкидлайди:

Оз-оз ўрганиб, доно бўлур,

Қатра-қатра йиғилиб, дарё бўлур. (...)

Маълумки, инсон Аллоҳнинг бошқа яратиқларидан ўз тафаккури билан мукаррам ҳисобланади. Шоир ўз асарларида “оз ва соз” сўзламоқ, “кам еб, кўп фикрламоқ” кишининг зийнати эканлиги, кўп сўзлаган нодон, кўп еган ҳайвон сингари сифатланиши таъкидлайди ва бу ҳақда шундай ёзади:

Кўп демак бирла бўлмагил нодон,

Кўп емак бирла бўлмагин ҳайвон. (2,44)

Ростгўйлик-жамият равнақи ва шахслар ўртасидаги ишончнинг бардавом бўлишига кафил бўладиган сифатлардан бири. Бадиий адабиётда сўзнинг мартабаси тўғрилик ва ростлик билан ўлчанади. Ростгўйлик юксак инсоний фазилат сифатида бағоят улуғланади, ёлғончилик эса қаттиқ қораланади. Алишер Навоий қийин вазиятга тушиб қолганда агар рост сўзламаса ҳам, ёлғон ҳам гапирмаслик лозимлигини алоҳида таъкидлайди:

Неча зарурат аро қолган чоғи
Чин демас эрсанг, дема ёлғон доғи. .(2,51)

Шунингдек, шоир айтишича, ёлғон ақл ўғрисидир, киши ёлғончилик оқибатида ҳалокатга дучор бўлади. Бу борада шоирнинг дуррож ҳақидаги ҳикоятини билмайдиган китобхон бўлмаса керак. Дарҳақиқат, кимки ёлғон сўзласа, унинг чин сўзига ҳам ишонмайдилар:

Кимки, ўзи айлади ёлғон сўзин,
Кизб дер ел, чин деса, қолғон сўзин. (2,42)

Инсон – инсонга кўзгу. Кимки бировнинг камчилигини ўзига айтса, ундан хафа бўлмаслик керак, аксинча, шу камчиликларни бартараф этиш чораларини кўриш ақллилик белгисидир. Навоий шундай ёзади:

Киши айбинг деса, дам урмоғилким ул эрур кўзгу,
Чу кўзгу тира бўлди ўзга айбинг зоҳир айларму? (2,43)

Лекин биргина сўз билан киши кўнглини обод қилмоқ ва биргина сўз билан киши кўнглини вайрон қилмоқ ҳам мумкин. Адабиётларда “киши кўнглини оғритмоқ – Каъбани вайрон қилмоқ”қа баробор эканлиги қайд этилган. Алишер Навоий кўнгил оғриғи жон оғриғи каби эканлиги ҳақида шундай дейди:

Чун синса кўнгил заҳм забон оғриғидин,
Кам эрмас анинг оғриғи жон оғриғидин. (2,70)

Давлат арбоби сифатида Алишер Навоийнинг одил ҳукмдор ҳақидаги қарашлари ҳаётийлиги билан ҳамон қадрлидир. Навоий “Ҳайрат ул-аброр”, “Садди Искандарий” достонларида ўз орзусидаги одил подшоҳ образини

яратади ва шундай подшоҳнинг сиёсати туфайли вужудга келган кучли давлатчилик ғояларини тараннум этади. Унинг назаридаги ҳукмдор мамлакатни адолат билан бошқариши, қатъиятли бўлиши, сиёсат юритиш ҳамда ҳукм чиқаришда ҳиссиётга берилмай, ақл овозига қулоқ тутиши, зарур ўринларда кечиришни билиши, ҳеч қачон қалбида кин, адоват сақламаслиги, фуқаролари аҳволидан бохабар бўлиши, неки амалга оширса, эл манфаатини кўзлаши лозим деб ҳисоблайди. Шоҳнинг адолати туфайли вайрон юртнинг обод бўлиши қуйидаги ҳикматда ўз ифодасини топган:

Шоҳки иш адл ила бунёд этар,
Адли бузуқ мулкни обод этар. (2,72)

Буюк ва қудратли давлат асосчиси Амир Темур тажрибали ҳукмдор ва ўйчил файласуф сифатида давлатни ушлаб турувчи таянчларни: “Мўл хазина, ягона шоҳ, енгилмас лашкар”, – дея белгилайди. Навоий эса шоҳлик истаган киши сипоҳидан айрилмаслиги керак деб ёзади:

Шаҳ тилар бўлса гар шоҳлик қилмоқ,
Сипоҳидин керакмас айрилмоқ. (2,72)

Умуман, буюк мутафаккир Алишер Навоий таълим-тарбия, одоб-ахлоқ, адолат ҳақида сўз юритар экан, улардан ўз мухлислари ибрат ва ўрнак олиши лозимлигини назарда тутади, бу орқали барча инсонларни огоҳлик ва ҳушёрликка чақиради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. А. Орипов. Соҳибқирон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. –

2. Алишер Навоий. Ҳикматлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968. – 100 б.

3. Vadud Mahmud. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Нашр 2007

4. Izzat Sulton. Ustoz saboqlari.//“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 2009, 11-son.

АЛИШЕР НАВОИЙНИНГ «НАСОЙИМ УЛ-МУҲАББАТ» АСАРИДА ШАЙХ ШИҲОБУДДИН СУҲРАВАРДИЙ ВА СУҲРАВАРДИЯ ТАРИҚАТИ ҲАҚИДА

Ш.Б.Муртозаев
БухДУПИ Ижтимоий фанлар кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада Алишер Навоийнинг «Насойим ул-муҳаббат» асаридаги Шайх Шиҳобуддин Суҳравардий ва Суҳравардия тариқати ҳақида қарашлари таҳлил этилган бўлиб, ушбу таълимотнинг вужудга келиш тарихи ҳамда унинг инсон камолотидаги ўрнига бағишланган.

Аннотация: В данной статье анализируются взгляды Алишера Навои о шейхе Шихобуддина Сухраварди и о секте Сухравардия в «Насаим уль-мухаббат», история возникновения этого учения и его роль в совершенствовании человека.

Annotation: This article analyzes the views of Alisher Navoi about Sheikh Shikhobuddin Suhrawardi and his Suhrawardi sect in "Nasaim ul-Muhabbat", the history of the emergence of this teaching and its role in the perfection of human.

Калит сўзлар: Сухравардийлик, “Авориф ал-маориф”, “Насойим ул-муҳаббат”, маърифат, илм, фикр, тафаккур, ҳиссиёт, суръат, маъно, устоз, амал, ишқ, қалб, нафс.

Ключевые слова: Сухравардия, “Авориф ул маариф”,”Насаим уль-мухаббат”, просветление, знание, мысль, мышление, чувство, темп, смысл, наставник, действие, любовь, душа, алчность.

Keywords: Sukhravardiyya, “Avarif ul-maarif”, “Nasaim ul-Muhabbat”, enlightenment, knowledge, thought, thinking, feeling, pace, meaning, mentor, action, love, soul, greed.

Бугунги кунда халқимиз маърифатини янада ошириш, юксак маънавият тамойиллари асосида ёш авлодни маърифатли қилиб тарбиялаш бу соҳадаги энг

устувор вазифага айланди. Илм-фан, маориф, таълим-тарбия тизимини янада такомиллаштириш, уларнинг моддий техник базасини мукаммаллаштиришга қаратилган Қонунлар, қарор ва Фармонлар ижросини таъминлаш юртимизни мазкур йўналишда жаҳоннинг илғор мамлакатлари сафига қўшилишига хизмат қилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 28 июлдаги “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни янги босқичга кўтариш тўғрисида”ги қарорига биноан бугунги кунда Республика Маънавият ва маърифат маркази фаолият кўрсатиб келмоқда. Бу ташкилотнинг асосий мақсади – миллий маънавиятимизнинг маъно-моҳияти, илдизлари, ноёб ва бетакрор намуналари, унинг бугунги кундаги ривожланиш тамойиллари ҳақида аниқ мақсадга қаратилган изчил, таъсирли ва замонавий усул ҳамда воситалардан фойдаланган ҳолда тарғибот ишларини олиб боришдан иборат.

Турон заминда ислом динини сақлаб қолишга жуда катта роль ўйнаган тасаввуф аҳлининг таълимотларини яратганлар ва уларнинг асосчилари кимлар ҳамда бу таълимотлар қаердан пайдо бўлган деган масала бугунги куннинг энг долзарб муаммоларидан биридир.

Шу ва шунга оид масалалар Алишер Навоийнинг “Насойим ул-муҳаббат” асарида атрофлича таҳлил қилинганлигини кўришимиз мумкин. Жумладан, ушбу асарда Алишер Навоий ислом дини вужудга келган вақтдан ўзи яшаб ижод этган давригача мавжуд бўган тассаввуф тариқати вакиллари ҳақида қимматли маълумотлар ёзиб қолдирган. Ушбу асарда 770 та шайх (35 таси авлиё аёллар)иинг ҳаёти ва фаолиятига бағишланган.

“Насойим ул-муҳаббат” Абдурраҳмон Жомийнинг “Нафаҳот ул-унс мин ҳазарот ил-қудс” (дўстлик боғидан эсган шаббода) тазкирасининг таржимаси, лекин Навоий Жомий асарига эркин, ижодий муносабатда бўлади ва унинг асаридаги маълумотларни тўлдириб ёхуд қисқартириб боради ва 618 та шайхлар сонини 770 тага етказади. Тарих ва маданий меросимизни кенг

ўрганаётган ҳамда нақшбандийлик таълимотига рағбат кўрсатаётган эканмиз, бу асарни ўрганишимиз илмий, маърифий ва ахлоқий аҳамиятга эга. Айниқса, Имом Аъзам, Имом Мотуридий, Аҳмад Яссавий, Ҳаким Термизий, Баҳоуддин Нақшбандий **[2; 27],** Абу Ҳафс Умр Суҳравардийнинг ақида ва қарашлари билан халқимизни, хусусан ёшларимизни яқиндан таништириш жойиздир.

Ана шундай шахслардан бири Суҳравардия тариқати асосчиси, Шиҳобуддин Абу Ҳафс Умр Суҳравардий. Шарқ маънавий меросида ўзига хос ўрин эгаллаган Шаҳобиддин Умар Суҳравардий 1145 йилда Эроннинг “Суҳравард” қишлоғида дунёга келган. 1160-1161 йилларда 16 ёшида илм излаб, ўша даврда илм- маърифат маркази ҳисобланган Боғдод шаҳрига келган. Мутасаввиф узоқ умр кўрган, ҳаёти давомида олтита Аббосий халифалар қўл остида хизмат қилган. У Абу Ҳафс, Абу Абдуллоҳ номлари билан ҳам машҳур бўлган. Шунингдек, “Шиҳобиддин” ёки “Шайхул ислом”, “Шайхул орифин” номлари билан ҳам у кишига нисбат берилади. Суҳравардийнинг шажаравий силсиласи халифа Абу Бакр Сиддиққа бориб тақалади. Шу сабабли баъзи манбаларда у киши “Ал-Бақрий”, “Ат-Таймий” ва “Ал-Қурайший” тарзида ҳам келтирилади. Афлокий Умар Суҳравардийнинг Абу Бакр Сиддиққа боғлиқлигига муносабат билдириб, унинг мавлоно Жалолиддин Румий билан қариндош бўлганлигига этибор қаратади **[3, 45].** Суҳравардий Боғдодда калом, фиқҳ, тафсир, ҳадис ва тасаввуф илмларидан таҳсил олган. Манбаларда Суҳравардийнинг ҳадис илмида камолга етганлиги қайд этилган. Суҳравардийнинг маънавий мероси жуда бой бўлиб, ундан кўпгина асарлар қолган. Мутасаввифнинг энг машҳур ва бизгача етиб келган асарларидан бири “Авориф ул-маъориф” (“Маърифат туҳфалари”) асари.

Суҳравардия —Боғдодда 12—13-асрлар охирида шаклланган сўфийлар биродарлиги (тариқат) бўлиб, унинг ҳақиқий асосчиси мўътадил сўфийлик қарашларини тарғиб қилган ва сиёсий ҳаётда фаол иштирок этган сунний илоҳиёт олими Умар ас-Суҳравардий (1234-йилда вафот этган) эди. Унинг асарлари Ғаззолий асарлари билан бир қаторда “Суҳравардия”нинг ғоявий

асоси бўлди. Суҳравардия Ҳиндистонда кенг тарқалган бўлиб, у ерда катта ер эгалари ва катта сиёсий таъсирга эга бўлиб, ҳинд ва буддистларни исломга қабул қилишда фаол иштирок этган. Улардан Суҳравардия издошлари йога психотехникасининг баъзи мафкуравий позитсиялари ва элементларини ўзлаштирган. 16—17-асрларда Суҳравардия бир қанча мустақил бўлимларга: Шаттария, Баҳоия, Жалолияга бўлиниб кетди **[4].**

Алишер Навоий “Насойим ул-муҳаббат “ асарида Шайх Шиҳобуддин Суҳравардий қ. с. (“қуддиса сирруҳу-унинг сирри муқаддас қилинди” **[1; 89]**) ҳақида қуйидагиларни ёзиб қолдирган.

Навоий асарда: “Ҳазрат Махдум н. м. н. (“нуввира марқадуху нуран-унинг қабри нурга тўлсин” **[1-89]**) Имом Ёфиъийдин алар алқобиға мундоқ нақл қилибдурларки, “ўз замонасининг устози, даврининг ягонаси, нурлар матлаи, сирлар манбаи, тариқат раҳбари, ҳақиқат таржимони, зоҳир ва ботин илмларда барча улуғ шайхларнинг устози, орифлар йўлбошчиси, соликлар таянчи, раббоний олим Шиҳобуддин Абу Ҳафс Умар бин Муҳаммад Бакрий Суҳравардий, Аллоҳ унинг сиррини муқаддас қилсин”, - дея таъкидлайди. Шоир фикрини давоми сифатида Абубакр Сиддиқ р. а. (“разиёллоҳу анҳ(у)-Аллоҳ ундан рози бўлсин” **[1; 89]**) фарзандларидиндур. Навоий ёзишича Шиҳобуддин Суҳравардий, Тасаввуфда интисоби ўзининг амми Шайх Абуннажиб Суҳравардийға. Ва Шайх Абдулқодир Гилоний р. (раҳимаҳуллоҳу-Аллоҳ унга раҳм қилсин) суҳбатиға етибдурлар ва алардин ўзга ҳам машойихдин кўпнинг суҳбатиға мушарраф бўлубдурлар. Ва дебдурларки, баъзи абдол била муддате Аббодон жазирасида бўлур эрмишлар. Ва Хизр а. с. (“алайҳис-салом-унга (Аллоҳнинг) саломи бўлсин” **[1; 89]**) била суҳбат тутубдурлар. Мутафаккирнинг таъкидлашича Шиҳобуддин Суҳравардийга Шайх Абдулқодир алар васфида дебдур: “Сен Ироқдаги машҳур кишиларнинг охиргисисан”. Кўп таснифлари бор. «Авориф»дек ва «Рашф ун-насойиҳ» ва «Аълом ут-туқо»дек. «Авориф»ни Маккада тасниф қилибдурлар. Шу туфайди ўз вақтларида шайх уш-шуюх эрмишлар. Бағдодда тариқат арбоби йироқ –

яқиндан бу қавм масойили истифосини алардин қилур эрдилар: Навоий “Насойим ул-муҳаббат “ асарида ёзиб қолдиришича “Улардан баъзиси унга ёзди: Эй Хожам, агар амални тарк этсам, танбаллик қилган бўламан. Агар амал қилсам, менда манманлик пайдо бўлаяпти. Жавобида ёзди: Амал қил ва манманликка қарши Аллоҳдан паноҳ тила!”. Шоирнинг таъкидлашича «Иқболия» рисоласида мазкурдурки, Шайх Рукнуддин Алоуддавла қ. с. (“қуддиса сирруҳу - унинг сирри муқаддас қилинди” **[1; 89]**.) дебдурларки, Шайх Саъдуддин Ҳуммуйийдин сўрубдурларки, Шайх Муҳйиддин Арабийни нечук топтинг? Дебдурки, “Соҳилсиз, шиддатли тўлқинланувчи дарё”. Ва дебдурки, Шайх Шиҳобуддин Суҳравардийни нечук топтинг? Дебдурки, “Суҳравардий пешонасидаги пайғамбар с. а. в. (“саллаллоҳу алайҳи васаллам-унга Аллоҳнинг салавати ва саломи бўлсин”**[1; 89]**) ға тобелик нури бу бошқа нарсадир”. Алишер Навоий ёзиб қолдиришича Валодати беш юз ўттуз тўққузда Ражаб ойида эрмиш, вафотлари олти юз ўттуз иккида эрмиш, валлоҳу таоло аълам” **[1; 367, 368]**.

Юқорида Алишер Навоий асарлари келтирилган аллома борасидаги фикрларига асосланиб қуйидаги хулосаларга келдик.

1 Шиҳобуддин Суҳравардий илмнинг амал билан бирга бўлиши; мудом илм ўрганиш, таълим олишда сабр ва талабли бўлиш; тафаккур этиш, ақлни тоблаш; илмга эришиш, узоқ ва мушкул бўлса ҳам уни эгаллаш; жонга қувват бўлувчи илму-дониш, кўнгилга хуш ёқувчи, малҳам бўлувчи панд-у насиҳат, ҳикмат бериш; маърифат йўлида жаҳд билан хизмат қилиш; кўнгилни симу зарга эмас маърифатга боғлаш; маърифат йўлидан камоли борича, қурби етгунча ва ҳоли борича бориш; ўзликни таниш, маърифат йўлида сидқу вафо билан қалб кўзини очиш; пирини ҳамиша йўлбошчи билиш; маърифатни ўз қадрича кўриш, ҳақиқат бобида ўз ўрнини англашни ўргатади.

Демак, улуғ Умар Суҳравардий асарлари инсонпарварлик (антропологик) парадигмаси сифатида бутун дунё маърифатига хизмат қилади.

Аллома қарашлари шахсни тарбиялашда гносологик (билиш) таълимоти бўла олади.

Суҳравардий ижодида маърифат ва маънавият уйғунлиги комил инсонни тарбиялашнинг юксак даражаси сифатида намоён бўлади.

Фойдаланган адабиётлар.

1. Алишер Навоий.Тўла асарлар тўплами 6-жилд. Т.: Ғ.Ғулом, 2013-йил 89, 367, 368 - бет

2. Г.Н.Наврўзова. Баҳоуддин Нақшбанд. Бухоро, 2009-йил, 27-бет

3. Corbin, Henry, Alone with the Alone: Creatve Imaginaton in the Sûfsm of Ibn ‘Arabi, Princeton Universty Press, New Jersey 1998, s.71

4.http://ponjatija.ru/node/6316

АЛИШЕР НАВОИЙНИ АНГЛАШ ФАЛСАФАСИ

Узоков Ботир

Жиззах политехника институти

“Ижтимоий фанлар” кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада Марказий Осиё мутафаккирларининг, жумладан, А.Навоийнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари, хусусан, одил жамият, комил инсон ҳақидаги таълимотларининг бугунги кун учун аҳамияти, шунингдек, ёш авлодни комил инсонлар қилиб тарбиялашдаги ўрни ва роли очиб берилган.

Калит сўзлар: мустақиллик, “Ҳаракатлар стратегияси”, “Тараққиёт стратегияси”, фозил жамият, комил инсон, “вағдат-ул вужуд”, эманация назарияси, ҳуқуқий давлат, фуқаролик жамияти, фалсафий мерос.

Аннотация: В статье раскрыто значение для сегоднещного дня социально-философских взглядов и учений мыслителей Центральной Азии, в частности А.Навои о справедливом обществе, гармонично развитой личности в воспитании молодого поколения.

Ключевые слова: независимость, “Стратегии действий”, “Стратегии развитий”, справедливое общество, гармонично развитой личности, “вагдат-ул-вужуд”, теории эманации, правовое государство, ражданское общество, философские наследия.

Annotation: There are shown the main importance of philosophical views and teachings of heritage of aer ancestors of Central Asia, in particular A. Navoi about equitable societu, all-round developed persons in this article.

Key words: independencbense, “strategy action”, “development strategy”, equitable society, all-round, developed person, “vagdat –ul vujud, theory of emanation, legal state, civil society, philosophical heritage.

Ўзбекистон мустақилликни қўлга киритгач, ўз олдига демократик тамойилларга асосланган ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамияти қуришни мақсад қилиб қўйди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича қабул қилинган “Ҳаракатлар стратегияси”нинг амалга оширилиши Ўзбекистон Республикасининг мамлакатни ислоҳ қилиш ва модернизациялаш, ривожланган бозор иқтисодиётига асосланган ҳуқуқий демократик давлат, кучли фуқаролик жамияти барпо этиш, қонун устуворлигини, хавфсизлик ва ҳуқуқ-тартиботни, давлат чегараларининг дахлсизлигини, жамиятда миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенгликни таъминлаш йўлидаги шахдам ҳаракатларига янги куч бағишлади.

Фуқаролик жамияти бўлган – одил жамиятни қуришда мустақиллик мафкурасининг бош ғояси билан бирга, унинг асосий ғояларидан ҳисобланган комил инсон ғоясига ҳам эътиборни қаратиш лозим. Бу ғоя Марказий Осиёдаги “Биринчи Ренессанс” даврида буюк аждодларимиз – Абу Наср Форобий, Абу Али ибн Синолар томонидан илгари сурилган эди. Ана шундай ғоялар кейинги даврларда, яъни, “Иккинчи Ренессанс” даврида буюк мутафаккир, сўз ва ғазал мулкининг султони, ўзбек адабий тилининг асосчиси Мир Алишер Навоий ҳазратлари томонидан ҳам кўтариб чиқилган.

А.Навоий нафақат улуғ шоир ва ўзбек адабий тилининг асосчиси, балки, ўз замонасининг буюк файласуфи ҳамдир. Ҳазрат Мир Алишер Навоий дунёқарашининг асосини “вағдат-ул вужуд” (пантеизм) таълимотига қўшган

ҳиссаси, калом, шариатга, тасаввуфга бўлган муносабатининг фавқулодда жиҳатлари, орифлик дунёқараши ва ахлоқий дидактик позицияси, сиёсат, давлат, фозил жамият, комил инсон ва шахс тўғрисидаги бир бутун назарияси ташкил этади.

Ул зот ўзининг одил подшоҳ, фозил жамият, комил инсон тўғрисидаги қарашларида пири комил Абдураҳмон Жомий кўмагида тасаввуф фалсафасининг Нақшбандия тариқатига кирди ва тасаввуф илмини ўрганишда мусулмон маданияти, фалсафасининг тамал тошини қўйган Абу Наср Форобий, Абу Али ибн Синоларнинг илгари сурган “Фозил одамлар шаҳри” (ал-Мадинат-ул фозила), фозил раис, комил инсон таълимотларига асосланди. Шу жиҳатдан, ҳазратнинг фалсафий таълимоти, ижтимоий – фалсафий қарашлари алоҳида аҳамият касб этади.

А.Навоий ўзининг асарларида, ҳамиша инсонни, инсонпарварликни мадҳ этган мутафаккирдир. Шунинг учун ҳам улуғ алломани ўз даврининг буюк гуманист шоири ҳам, деб таърифлайдилар.

У ўзининг “Ҳайрат –ул аброр” асарида, шарқ фалсафасидаги эманация назариясидан келиб чиқиб, барча нарса – ҳодисалар, бутун тирик мавжудот, хусусан, инсон ҳам худо томонидан яратилган, буларнинг барчаси ичида инсон энг азизи ва мўътабаридир, дейди:

“Жилваи ҳуснига чу йўқ эрди ҳад,
Кўзгу керак бўлди анга беадад.
Очти гулшанники рангин эрур
Ҳар гул анга ойинаи чин эрур.
... Шунча ғаройибки мисол айладинг,
Барчани мироти жамол айладинг.
Ганжинг аро нақд фаровон эди,
Лек боридан азиз инсон эди”.

Яъни, Аллоҳ ўзининг ҳадсиз улуғлиги, қудрати, гўзаллигини намойиш этиш, муайян бир кўзгу воситасида томоша қилиш, ҳузурланиш мақсадида инсонни яратди, деб таъкидлайди А.Навоий. Бу билан А.Навоий, инсон тириклик оламининг гултожидир, шунинг учун ҳам у ҳар қандай мақтовга, олқишга лойиқдир, дейди.

Унинг таъкидлашича, инсон ҳамиша комилликка интилиши, маърифатли бўлиши, яхши фазилат ва хусусиятларга эгалиги, ахлоқ – одоб ва нафосатда ибрат кўрсатгани учун давлат ва жамият равнақ топади.

У ўзининг “Маҳбуб-ул қулуб” асарида ўз замонаси билан ҳамнафас бўла оладиган ва доимо комилликка интилиб яшайдиган инсонни ахлоқий намуна деб билади. Чунки ҳар бир инсон фақат ўз замонасидагина мавжуд ва шу мавжудлик доирасидагина бирор иш қилишга қодирдир.

Яъни, *“Ўтган рўзғор адамдир, келажакдан сўз айтган аҳли надамдир ва ушбу ҳол муғтанамдир”*. Бир турк бу маънида дебдирким: *“Дам бу дамдир”*. Бошқача айтганда, инсон ўз замонаси имкониятларидан фойдаланиб, ҳам ўзини, ҳам замонасини гўзал қилишга интилмоғи лозим.

Мустақилликкача бўлган сўнгги юз йилдан ортиқроқ давр мобайнида, айниқса, шўролар даврида жамият манфаатларини шахс, алоҳида олинган инсон манфаатларидан устун қўйиш яққол намоён бўлди.

Шахс манфаатларини, унинг дунёқараши, ҳаётий позицияси, орзу – умидларини ҳисобга олмасдан туриб, унинг шаънини менсимасдан ёки бутунлай оёқ ости қилиб, ерга уриб, ҳеч нарсага эришиб бўлмайди. Мустақилликка эришган ҳозирги кунларда шахс, инсоннинг шаъни, миллий қадриятлари, яъни, кенг кўламдаги инсон омилининг ролини фаоллаштириш зарурлигини тушуниб ета бошладик. Фуқаролик жамиятини шакллантиришда инсон (комил) омили муҳимлигини англаб етдик ва ҳақли равишда бундан минг йиллар олдин кўтарилган фозил жамият ва комил инсон ғоялари

ҳаётимизга янгидан кириб келди. Негаки, ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятини шакллантиришда, миллат ва халқнинг менталитетидан келиб чиққан миллий ғояни комил инсонсиз англаш мумкин эмас.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев ўз лавозимига киришиш тантанали маросимидаги нутқида алоҳида таъкидлаганидек, эндиликда мамлакатимиздаги барча даражадаги ҳокимият идоралари фаолиятида “Инсон қадри учун” деган устувор тамойил бош мезон бўлиб қолади. Давлатимиз раҳбари урғу бериб айтганидек, “биз бундан буён фаолиятимизни “инсон – жамият – давлат” деган янги тамойил асосида ташкил этамиз”. Шу жиҳатдан А.Навоийнинг комил инсон ҳақидаги фикрлари бугунги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган. Унинг таъкидлашича, “комил инсон бир идеал, барча дунёвий ва илоҳий билимларни эгаллаган, руҳи мутлақ руҳга туташ, файзу кароматдан сероб, сурату сийрати саранжом, қалби эзгу туйғуларга лиммо – лим покиза зотдир”.

Бошқача айтганда:

“Фонийвашеки, ҳам сўзидир пок, ҳам ўзи,

Хуш давлат ул кишигаки, тушгай анинг кўзи”.

А.Навоийнинг комил инсон ҳақидаги қарашларининг аҳамияти шундаки, комил инсон – билимлилиги, яхши ахлоқ – одоб ва маънавий етуклиги билан бирга, фуқаролик жамиятида яшаш талаблари, озодлик, мустақилликни англаш ва бу қадриятларни ҳимоя қилиш қобилиятини ҳам эгаллаган бўлиши лозим. Чунки комил инсон тарбияси бугунги кунда давлат сиёсатининг устувор соҳасига айланган ва комил инсон деганда, аввало, онги юксак, мустақил фикрлай оладиган, хулқ – атвори билан ўзгаларга ибрат бўла оладиган, билимли, маърифатли кишини тушунамиз.

Бу ҳақда тўхталиб, давлатимиз раҳбари Ш.Мирзиёев шундай таъкидлайдилар: “Халқимизнинг орзу-интилишлари Мирзо Улуғбек, Қозизода

Румий, Али Қушчи, Давлатшоҳ Самарқандий, Алишер Навоий, Заҳириддин Муҳаммад Бобур каби иккинчи уйғониш даврининг буюк сиймоларини уйғотди, уларнинг асарлари ва фаолиятида ўз талқинини топган одил подшо, адолатли жамият, комил инсон ғояларида намоён бўлди”.

(Мирзиёев Ш.М. “Янги Ўзбекистон стратегияси” .Тошкент. “O‘zbekiston” нашриёти, 2021. 18-бет)

Комил инсон ўз тарихи, ўз халқи, ўтмиши ҳақида ҳақиқатларни билиб олган, иймони бутун, хулқ – атвори намунали шахсдир. Комил инсонлар муайян тарбия асосида юзага чиқадилар.

Ана шундан келиб чиқиб, айтиш мумкинки, давлатимиз олдида ўта муҳим, келажагимизни ҳал қилувчи вазифа турибди. Бу вазифа – эркин фуқаролик жамиятининг маънавиятини шакллантириш, бошқача айтганда, озод, ўз ҳақ – ҳуқуқини яхши танийдиган, боқимандаликнинг ҳар қандай кўринишларини ўзи учун ор деб биладиган, ўз кучи ва ақлига ишониб яшайдиган, айни замонда ўз шахсий манфаатларини халқ, Ватан манфаатлари билан уйғун ҳолда кўрадиган комил инсонларни тарбиялашдан иборатдир.

Муҳтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев бу ҳақда тўхталиб шундай дейдилар: “Бугунги кунда мамлакатимизда олиб борилаётган ислоҳотлар самараси аввалом бор юксак маънавиятли, мустақил фикрлайдиган, Ватанимиз тақдири ва истиқболи учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир ёш кадрлар сафини кенгайтиришга бевосита боғлиқ”. (Мирзиёев Ш.М. “Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир.” //“Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил, 8 декабрь, № 247 (6941).

Шу жиҳатдан олганда, комил инсонларни тарбиялашда буюк аждодларимизнинг, жумладан, А.Навоийнинг фалсафий таълимотидан

унумли фойдаланиш зарур. Улуғ мутафаккирнинг фикрига кўра, ҳар бир инсон худо унга неъмат сифатида яратган фазилатлар эгаси бўлмоғи, комилликка интилмоғи зарур, ана ўшандагина у ўз инсонлик бурчини бажарган, инсон деган номни оқлаган бўлади.

“Камол эт касбким, олам уйидин,

Сенга фарз ўлмағай ғамноқ чиқмоқ,

Жаҳондин нотамом ўтмак биайниҳ,

Эрур ҳаммомдин нопок чиқмоқ”.

Яъни, Аллоҳ инсон учун яратган барча фазилатлар ва эзгуликларни ўзига касб қилиб олмаган, юқтирмаган киши тириклик оламидан боши қуйи солинганича чиқиб кетади, чунки дунёдан нотамом, яъни комилликка эришмай ўтиш худди ҳаммомга кириб, ювинмай чиқиб кетиш билан баробар, дейди.

А.Навоийнинг давлат, жамият ва инсон ҳақидаги фалсафий қарашлари ўз долзарблиги, мустақил янги Ўзбекистонни энг ривожланган мамлакатлар қаторига чиқаришга, Учинчи Ренессанснинг тамал тошини қўйишга шайланган баркамол авлодни тарбиялашдаги аҳамияти билан алоҳида ўрин тутади. Шу жиҳатдан олганда, А.Навоийни англаш, мир А.Навоий ҳазратларига қайтиш бугунги кунда ҳар қачонгиданда долзарбдир.

Зеро, А.Навоийга қайтиш, уни ўқиб-ўрганиш орқали, ҳазратнинг ижтимоий – фалсафий таълимотини англаш орқали фуқаролик жамияти бўлган - одил жамиятни барпо этувчи бугунги кун ёшларини комил инсонлар қилиб тарбиялашда ибрат намунасидир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1.Мирзиёев Ш.М. “Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир.” //“Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил, 8 декабрь, № 247 (6941).

2.Мирзиёев Ш.М. “Янги Ўзбекистон стратегияси” .Тошкент. “O‘zbekiston” нашриёти, 2021.

3.А.Навоий. Маҳбуб-ул қулуб.Тўла асарлар тўплами, 9-жилд.

4.A.Navoiy. Hayrat ul-Abror.Toshkent-2006.

5.B.Qosimov.O‘zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi.Toshkent-2008.

ALISHER NAVOIY KOMIL INSON TAVSIFI HAQIDA

Nizamova Muyassarxon Nuritdinovna
NamDU o’qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiyning asarlarida komil inson tarbiyasi tarbiyaviy- axloqiy qarashlari va komil inson tushunchasini ifodalaydi. Ilm-ma’rifat, axloq-odob masalalariga doir fikrlarini esa ilmiy-falsafiy va didaktik asarlarida bayon qiladi.

Kalit so’zlar: “Hayrat ul-abror” ,“She’r bilan Durroj” masalida, barkamol avlod, axloq-odob, tarbiya, komil inson.

Об описании Алишера Навои идиальный мужчина

Низамова Муяссархон преподаватель НамГУ

Аннотация: В произведениях Алишера Навои воспитание совершенного человека выражает воспитательно-акслокийские взгляды и концепцию совершенного человека. Свои взгляды на науку, образование и этику он выражает в своих научных, философских и дидактических работах.

Ключевые слова: На примере «Хайрат ул-аброр», «Шер билан Дуррой» гармонично развитое поколение, нравственность, воспитание, совершенный человек.

Annotation: In this article, Alisher Navoi's works reflect the educational and moral views of the education of the perfect man and the concept of the perfect man. He expresses his views on science, education and ethics in his scientific, philosophical and didactic works.

Key words: On the premiere of "Khayrat ul-abror", "She’r bilan Durroy" harmoniously developed generation, morality, education, sovershennyy man.

Alisher Navoiy ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini ko‘proq barkamol insonni ifodalovchi ijobiy obrazlar yaratish orqali bayon qiladi. Ilm-ma’rifat, axloq-odob masalalariga doir fikrlarini esa ilmiy-falsafiy va didaktik asarlarida bayon qiladi.

Navoiy aql kuchiga cheksiz ishonadi, komil ishonch bilan ilm-fanning fazilati juda katta, deb hisoblaydi.

Buyuk so‘z san’atkori va mutafakkiri o‘zining bir qancha asarlarida bolalar tarbiyasiga oid fikrlarini aytish bilangina kifoyalanib qolmasdan, balki “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” kabi dostonlarining ayrim boblarini shu masalaga bag‘ishlaydi. “Hayrat ul-abror” (Yaxshi kishilarning hayratlanishi) falsafiy-ta’limiy dostondir. Navoiy bu asarida o‘zining falsafiy, ijtimoiy-siyosiy hamda kishilarga ta’lim va o‘git berish masalalariga katta e’tibor beradi. Dostonda zolim hukmdorlarni qoralab, ikkiyuzlamachi, riyokor ruhoniylarning sir-asrorlarini keskin fosh etadi. Xususan, shoir saxiylik, odob va kamtarinlik, ota-onaga hurmat, rostgo‘ylik va to‘g‘rilik, ilmning foydasi va kambag‘al o‘quvchilarning bu yo‘lda chekkan azoblari haqida batafsil to‘xtalib o‘tadi.

“Hayrat ul-abror” asarining bir necha boblari odob-axloq va ta’lim-tarbiya masalasiga bag‘ishlangan. Navoiy bu dostonning oltinchi maqolotida odob va kamtarlikni ulug‘lab, ta’lim-tarbiyaga doir qimmatli fikr-mulohazalarini bayon qilish bilan birga, takabbur va odobsiz kishilarni qattiq qoralaydi. Shoir dostonning bu maqolotida bola tarbiyasi, uni o‘stirish, o‘qitish va balog‘atga yetkazish hamda bu borada ota-onalarning vazifalari haqida batafsil fikr yuritadi. Shoir yoshlarni ota-onaning xizmatini bajarishga, ularni hurmat qilishga, ularga nisbatan hamisha mehr-muhabbatli bo‘lishga chaqiradi, ota-onani oy va quyosh deb ta’riflaydi:

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a…
Tun-kunungga aylagali nurposh,
Birisin oy angla, birisin quyosh…

Dostonning sakkizinchi maqolotida Navoiy yolg‘izlikka nisbatan ko‘pchilik – jamoatni ulug‘lab, kishilarning bir-birlari bilan ahil, do‘st bo‘lishlarini istaydi:

…Yo‘q hunari yolg‘uz esa, o‘z ishi,
Qayda kishi sonida yolg‘uz kishi?
Fard[1] kishi davrda topmas navo,

Yolg‘uz ovuchdin[2] kim etmish sado?...

“Hayrat ul-abror”ning o‘ninchi maqoloti rostgo‘ylik, halollik va to‘g‘rilikka bag‘ishlangan. Navoiy unda kishilarni rostgo‘y va to‘g‘ri bo‘lishga chaqiradi, yolg‘onchilik va egrilikning zararli oqibatlarini keskin fosh etadi. Shoir yolg‘on so‘zlashning yomon oqibatini “She’r bilan Durroj” masalida ovchining tuzog‘iga tushgan Durroj timsolida hikoya qiladi.

Dostonning o‘n birinchi maqolotida Navoiy ilm-fanga, ilm ahliga yuksak baho beradi. Kishilarni ilm olishga, olimlarni izzathurmat qilishga chaqiradi. Shu bilan birga, shoir o‘sha davrda mehnatkash va musofir talabalarning ilm olish yo‘lida chekkan mashaqqatlaridan, ilm-fan egalarining muhtojlikda yashaganlaridan afsus-nadomatlar chekadi.

Navoiy ilmdan amalda foydalanish zarurligini ta’kidlaydi:

Ilm, Navoiy, senga maqsud bil,

Endiki ilm o‘ldi amal aylagil.

Navoiy yaramas odat va xulq-atvorlarni shafqatsiz qoralashi, oliyjanob insoniy fazilatlarni qadrlashi, bolalarni o‘qish, o‘rganish va yuksak odobli, a’lo xulqli bo‘lishga chaqirishi katta ahamiyatga ega bo‘lib, bolalar adabiyotining shakllanishida juda muhimdir. Uning bir qator axloqiy-ta’limiy qarashlari hozirgi kunda ham o‘z qadr-qimmatini saqlab kelmoqda.

“Farhod va Shirin” dostonida shoir chin sevgi va vafo, do‘stlik va sadoqat, mehnat va ijodkorlik, vatanparvarlik hamda qahramonlik g‘oyalarini tarannum etadi. Doston yoshlar va bolalarga atab yozilmagan, lekin asarning ko‘pgina boblari bolalar va yoshlar hayotiga, ularning tarbiyasiga bag‘ishlangandir. Shoir dostonda Farhodning bolalik chog‘laridanoq ilm-hunarga, mehnatga bo‘lgan muhabbatini zo‘r mahorat va chuqur samimiyat bilan tasvirlagan. Bu Navoiyning bola tarbiyasiga va uning bilim olishiga katta e’tibor bilan qaraganligini ko‘rsatadi. Farhod yoshlik chog‘idanoq juda aqlli, zehnli bola bo‘lib o‘sadi. U maktabda zo‘r havas va qunt bilan o‘qiydi. Tabiiyot, matematika, mantiq kabi fanlarni tez orada o‘rganib oladi. Yosh Farhodning ilmga bo‘lgan havas va muhabbatini sezgan ota-onasi unga bilim

berishni munosib ko‘rdi. Jahonning mashhur olimlari Farhodga turfa fanlardan saboq o‘qitardi. Natijada eng murakkab va pinhoniy ilmlar unga o‘z sir-asrorini to‘liq namoyon etadi. U qunt va chidam bilan o‘qib, bilimdon va zukko inson bo‘lib yetishadi. Shoir Farhod hayotini bunday jonli lavhalarda tasvirlash orqali bolalar tarbiyasiga alohida e’tibor berishga chaqiradi, ularni yoshligidan boshlab o‘qitish zarurligini, bunda ota-onaning vazifasi nihoyatda katta ekanligini, bolalarga ilm o‘rgatish muhimligini ta’kidlaydi.

Farhod qaysi fanni o‘qimasin, uni darrov tushunib oluvchi qobiliyat egasi sifatida tasvirlanadi:

Agar bir qatla ko‘rdi bir saboqni,
Yana ochmoq yo‘q erdi ul varaqni.
Ne so‘znikim, o‘qib ko‘ngliga yozib,
Dema ko‘ngliki, jahon lavhiga qozib.

U davrda bolalar chuqur, yodaki o‘qitilar edi. Bolalar o‘zlari yodlagan narsalarining ma’nosiga tushunmas ham edilar. Shunday bir vaqtda Navoiy bolalarni ilm-fanga qunt qilish, o‘qilgan narsaning ma’no-mazmunini tushunib olishga undar edi:

O‘qib o‘tmak, uqib o‘tmak shiori,
Qolib yonida, safha-safha bori…

Farhodning qunt qilib, ma’nosini tushunib o‘qishi natijasida ko‘p ilmlarni egallaganligi ta’kidlanadi:

Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,
Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm.

Shu tariqa Navoiy bolalarni ilmni puxta egallashga chaqirib, buyuk pedagog hamda murabbiy sifatida ularni tarbiyalash va o‘stirish yo‘llarini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, dostonda Farhod jismoniy tomondan chiniqqan yigit sifatida tasvirlanadi. U suvda suzish, chavandozlik va qilichbozlik sirlarini mehr bilan o‘rganadi. Alisher Navoiy yoshligidan boshlab ilmga berilgan, jismoniy jihatdan chiniqqan Farhodni har tomonlama mukammal, ma’naviy, jismoniy go‘zal, yetuk

yigit timsolida beradi. Shuningdek, Navoiy Farhodni mehnat va hunarga katta havasli, sartaroshlik, rassomlik va naqqoshlik hunarlarini ham mukammal egallab olgan yigit sifatida ulug‘laydi.

Ilm va hunarni egallagan, jismoniy jihatdan chiniqqan, mehnatsevar Farhod kamtarin, mazlumlarga g‘amxo‘r, sofdil, mard va oliyjanob, jasur inson bo‘lib yetishadi.

Farhod boshchiligida va uning bevosita fidokorona mehnati natijasida katta kanal (“Hayot daryosi”) va hovuz (“Najot dengizi”) qaziladi. Navoiy Farhodni suvsiz yerlarga suv chiqargan qahramon, mehnat sohasida mo‘jizalar ko‘rsatgan bahodir yigit sifatida ta’riflaydi. U ilm va hunarni omma manfaati uchun xizmat ettirish lozim deb hisoblaydi. Farhod Shirinni qidirib, Armanistonga borganda, arman yurtida tog‘da kanal qazish uchun qiynalib ishlayotgan kishilarni ko‘radi va:

Hunarni asrabon netkumdir oxir,
Olib tufroqqamu ketkumdir oxir! –

deya, o‘z bilimi, hunar va g‘ayratini ishga soladi, kanal qazuvchilar mashaqqatini yengillashtiradi va xalq o‘rtasida katta shuhrat qozonadi.

Bu qahramonning muhim xislatlari undagi qahramonlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik va do‘stlik tuyg‘ularidir. Farhod elyurtining obodonligi uchun kurashadi hamda insonlarga ofat keltiruvchi dushmanlarga qarshi jang qilib, ularni mardona yengadi. Bundan tashqari, Navoiy Farhod, Shirin va Shopur misolari orqali xalqlar do‘stligi g‘oyasini ilgari suradi. Farhodning arman qizi Shirinni sevishi va eronlik Shopur bilan do‘stlashuvi xalqlar do‘stligi g‘oyasining yorqin namunasidir.

Navoiy Farhodning jasoratini badiiy tasvir etar ekan, uning mamlakat obodonligi va tinchligi, xalqlar farovonligi va ilm bobida qilgan xizmatlarini chuqur mazmunli misralarda uyg‘unlashtiradi:

Ki to olam, binosi bo‘ldi bunyod,
Bu yanglig‘ qilmadi ish odamizod.

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida ilgari surilgan yuksak insoniy xislatlar, insonparvarlik g‘oyalari yosh kitobxonlar ma’naviyatiga ham

chuqur ta’sir etadi, ularni xalq, vatan uchun kerakli inson bo‘lib yetishishlariga xizmat qiladi.

Buyuk shoir bolalarning o‘qishi va tarbiyasiga doir fikrlarini “Layli va Majnun” dostonida ham ilgari surgan. Yangi maktablar bino qilish g‘oyalarini targ‘ib qilgan Navoiy maktablarda o‘g‘il bolalar bilan bir qatorda qizlarning ham o‘qishlarini orzu qiladi.

Alisher Navoiy o‘zining Farhod, Qays, Iskandar va boshqa ijobiy obrazlarida tarbiyalanish, ta’lim olish borasida bosib o‘tgan yo‘lini, kamolotga yetish bosqichlarini tasvirlab, bolaning voyaga yetishida tarbiyaning katta kuch-qudratga ega ekanligini alohida uqtiradi.

Shoirning 1500-yilda yaratgan “Mahbub ul-qulub” (Ko‘ngillarning sevgani) asari ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta’limiy qarashlari bayon etilgani bilan qiziqarlidir.

Navoiy bu asarida sabr, qanoat, kamtarinlik (Muqbil va Mudbir), vafo, hayo, karam (muruvvat), saxovat, himmat, oliyjanoblik, mardlik, hilm (muloyim tabiatlilik), do‘stlik, ilmga amal qilish, shirinso‘zlik, rostgo‘ylik kabi fazilatlarni ulug‘laydi, aksincha, baxillik, badfe’llik, hasadgo‘ylik, chaqimchilik, xasislik, yolg‘onchilik, tamagirlik, nodonlik (bilimsizlik), takabburlik, mayxo‘rlik (badmastlik), badnafslik (ochko‘zlik) kabi yomon illatlarni qattiq qoralaydi: “Chin so ‘z – mo ‘tabar, yaxshi so ‘z – muxtasar. Ko ‘p so ‘zlovchi – zeriktiruvchi. Kishi aybini gapiruvchi – o ‘ziga yomonlik sog‘inuvchi (birovlarning aybini izlashdan ko‘ra, odam o‘z ayblarini topib, ulardan qutulishi oqillikdir, demoqchi bo‘ladi shoir). Agar so ‘z go ‘zallik ziynati bilan bezalmasa ham, unga chinlik bezagi yetarlidir! Yolg‘onchining gapi qanchalik chiroyli bo‘lsa, shunchalik qabihdir. Aqlli odam yolg‘on gapirmas, ammo barcha rost gaplarni aytaverish ham to‘g‘ri emas”.

Navoiy xushmuomala, ochiq yuzli odamlarni maqtaydi: “Ochiq yuzidan xaloyiqqa xursandlik, chuchuk so ‘zidan el-yurtga xurramlik. Tilini tiyolgan odam – donishmand, oqil. So ‘ziga erk bergan (ko‘p vaysagan) odam – beandisha va pastkash. Yolg‘onchi Haq oldida gunohkor, xalq oldida sharmanda. Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz”.

“Mahbub ul-qulub” 3 qismdan iborat. Kitobning 1qismi “Halollik ahvoli va afoli va ahvolining kayfiyatida”, ya’ni kishilarning fe’l-atvori va gap-so‘zlarining ahamiyati haqida bo‘lib, bunda Navoiy donishmand va murabbiy, ulkan madaniyat arbobi sifatida ilm-fan, san’at va adabiyotning ahamiyatini targ‘ib qiladi, malakali, iqtidorli o‘qituvchilarni, olimlarni, shoirlarni, san’atkorlarni maqtaydi, ularni hurmat qilishga va qadrlashga chaqiradi. O‘qish ham, o‘qitish ham og‘ir va mas’uliyatli ish, u qunt, havas va mehnat talab qiladi, deb uqtiradi Navoiy. Bu o‘rinda u murabbiylarning halol xizmatlarini alohida ta’kidlaydi.

Haq yo‘linda kim senga bir harf o‘qutmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Kitobning 2-qismi, asosan, axloqiy masalalarga bag‘ishlangan. Bu bobda yaxshi fazilat va yomon xislatlar tahlil qilinadi. To‘g‘rirog‘i, insonda bo‘lishi kerak bo‘lgan odob-axloq haqida gap boradi. Masalan, qanoatni olaylik. Navoiy qanoatli odamlarni sevadi, ularga havasi keladi. Kimki qanoatli bo‘lsa, unday odamni el sevishini, e’zozlashini ta’kidlaydi. Mutafakkir qanoatni bir buloqqa – chashmaga o‘xshatadi. Negaki buloq suvini qancha olgan bilan qurimaydi, u bir xazinadirki, undagi boylik sochilgan bilan kamaymaydi. U bir ekinzorki, urug‘i izzat va shavkat hosilini beradi. U bir daraxtki, unda qaram bo‘lmaslik va hurmat mevasi bordir. Bu bobda sabr, tavoze haqida ham ko‘p ibratli gaplar aytiladi.

“Turli foydali maslahatlar va maqollar”, deb nomlagan 3qismida turli tashbehlar berilgan. Bu qismda ko‘proq o‘qish, ilm olish, kasb-kor egasi bo‘lish va boshqa masalalar o‘rtaga tashlanadi.

“Bolalar adabiyoti” (O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2013) darsligidan

[1] Fard — yakka, yolg‘iz.

[2] Ovuch — hovuch, qo‘l kafti

Alisher Navoiy «Maxbubul- ul qulub» asarida tarbiyaning kuchi va sharofatini quyidagicha ta’riflaydi:

Itka taallumda chu buldi kamol,

Sayd aning ogzidin uldi xalol,

Olim ul itkim najasul ayn erur,

Ug‘ling jaxl o‘lca, ajab shayn erur.

(It o’rganish bilan komil bo’lgach, uning og‘zi bilan tutgan ovini yeyish mumkin buladi. Eng iflos maxluq hisoblangan it olim bo’lganida (ovlashni o’rganganida) o’g‘lingning johil qolishi juda xunuk ishdir.)

Yuqorida aytilgan fikrlarga xulosa qilib aytganda, islom ta’limotidagi kabi komil insonni tarbiyalash hayotning negizini tashkil qiladi. Komil inson haqidagi axloqiy qarashlarini umuminsoniy axloqiy g’oyalarga yaqin tutadi. umuman kattalarga xurmat xissini singdirishdan iboratligini uqtiradi. Alisher Navoiy o’z asari qahramonlarining ma’naviy qiyofasi, xulqi va insoniy sifatlarini ham bayon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xondamir G‘iyosiddin. Makorim ul-axloq. – T.: G‘afur G‘ulom, 2015.
2. Alisher Navoiy. Xamsat ul-mutahayyirin. Holoti Sayyid Hasan Ardashe’r. Holoti Pahlavon Muhammad. MAT. 20-jildlik. – T.: Fan, 1999.
3. Sirojiddinov Sh., Alisher Navoiy. T.: 2011.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma.T.: 1989.
5. Мирзоев А. Бинои. Тожикистон наіриёти. 1957 (Тожик тилида). Қаралсин: История Афганистана. М., —Мысл‖ 1982
6. Садриддин Айни. Собр.соч. в 6 томах. Том-6. М., —Худ. литература‖.
7. Mir G‘ulom Muhammad G‘ubor. Afg‘onistonning tarixiy yo‘li. Dari tilida.
8. Qodirov P., Til va el. T.: 2010 9. Tursunov Yu., —Munshaot‖ asarining matni tadqiqi. – T.: Mumtoz so`z, 2016.
9. Эргашев К., Некоторые аспекты государственной деятелности Алишера Наваи. – Т.: «Фан», 2009.
10. *“Bolalar adabiyoti” (O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2013) darsligidan.*

Internet saytlari:

1.www.ziyonet.uz

2. www.gov.uz

АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДА АЁЛЛАР МАДҲИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Гулнора Ниязова
А.Навоий номидаги ўзбек тили ва адабиёти университети
“Инглиз тили” кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация

Мақолада Алишер Навоий асарларидаги аёллар таърифи ҳақида сўз боради. Алишер Навоий эпик асарларининг қаҳрамонлари бўлган аёллар – Ширин, Дилором, Меҳр тимсоллари қанчалик усталик билан ифодаланганлиги таҳлил қилинган. Бу портретлар бобокалон шоиримизнинг улкан маҳоратидан далолат беради.

Калит сўзлар: “Хамса”, таъриф, ўхшатиш, ташбеҳ, портрет, аёл қаҳрамон, тимсол, тавсиф

Аннотация

В статье рассматривается описание женщины в произведениях Алишера Навои. Анализируются женщины-герои эпических произведений Алишера Навои - Ширин, Дилором, Мехр. Эти портреты свидетельствуют о большом мастерстве поэта – нашего предка.

Ключевые слова: «Хамса», описание, аналогия, аллегория, портрет, героиня, образ, характеристика.

Abstract

The article deals with the depiction of women in Alisher Navoi's works. It is analyzed how skillfully the images of women who are the heroes of Alisher Navoi's epic works - Shirin, Dilorom, Mehr - are described. These portraits reveals the great skill of our ancestral poet.

Keywords: "KXamsa", depiction, analogy, simile, portrait, female heroine, image, description

Миллатимиз қуёши ҳисобланган Алишер Навоийнинг асарлари салкам олти асрдан бери дунёни ўзига маҳлиё қилиб келмоқда. Ғазалларининг жозибаси туфайли “Ғазал мулкининг султони”(Мақсуд Шайхзода) эътирофини олган бобокалонимизни қанча таърифласак ҳам оз. Алишер Навоий асарларида инсон ҳаётининг барча жабҳалари акс этган десак, адашмаймиз. Улуғ шоиримиз ижодида аёллар таърифига ҳам алоҳида эътибор берилган. Алишер Навоий аёлни, аввало, она деб ҳисоблайди ва унинг ҳурмати чексизлигини ифода этади:

Оналарнинг оёғи остидадир
Равзаи жаннату жинон боғи.
Жаннат боғин висолин истар эрсанг,
Бўл оналар оёғин тупроғи.

Қандай бетакрор таъриф! Алишер Навоий оналар мавқеини жаннатдан ҳам юқори қўймоқдалар. “Оналар оёғининг тупроғи” бўлиш эса, аёлларни қадрлаш, эъзозлаш, авайлаш демакдир. Юқоридаги тўртликда шоирнинг фикрлари содда ва тушунарли тарзда баён қилинган, ҳикматли сўз сифатида тартибга чақириш ва танбеҳ бериш мақсадида ишлатиш учун ёдлаб олиш ортиқча қийинчилик туғдирмайди.

Алишер Навоийнинг буюк бешлиги – “Хамса”га кирган достонлар таркибида аёллар тимсоллари бор. Адиб аёл қаҳрамонларни ўзгача ташбеҳлар билан тавсиф қилади. “Фарҳод ва Ширин” достонидаги Ширин портретига бир назар ташлайлик:

Юзи атрофида дурри лаоли,
Қуёш даврида ахтарлар мисоли.
Ики қоши ҳилоли фитна ангез,
Ёзилғон кўп ул ой бошида хунрез.
Не икки анбар осо зулф, ваҳ-ваҳ,
Не икки жонфизо лаб, оллаҳ-оллаҳ.
Оғиз устида бурни турфа тимсол,
Тутуб ёнида манзил ҳиндуйи хол.

Қади авзода жаннат савсанидек,
Юзи гул, лек юз гул хирманидек.
Қаду ораз била шамшоду гулфом,
Не шамшоду, не гул, сарви гуландом.
Лабидин жон томиб бисёр-бисёр,
Сўзидин шаҳд оқиб хирвор-хирвор.[v]

Шириннинг гўзаллиги бор бўйи билан кўз олдимизга келади: унинг юзи қуёшдек, атрофида марваридлар юлдузларга ўхшайди, қошлари ойга монанд. Бежирим бурни ёнида қора холи макон тутган, қадди шамшодга ўхшайди. “Юзи гул, лек юз гул хирманидек” мисрасида эса “юз” сўзини чеҳра ва сон маъноларида қўллаб, тажнис санъати яратилган. Севги ва садоқат рамзи саналган Ширин қиёфаси кўз ўнгимизда бор гўзаллиги билан намоён бўлади.

“Хамса”нинг яна бир гўзал қаҳрамони - “Сабъаи сайёр”даги қолипловчи ҳикоя қатнашчиси Дилором. Унинг ҳусни ва созандалик маҳорати таърифи шунчалик ёйилганки, қиммати Хитойнинг бир йиллик хирожи билан тенглаштирилган. Достондаги Дилором таърифидан парча келтириб ўтамиз:

Доми остида лолау насрин,
Тушуб анда ики ғазолаи Чин.
Кўзи жайран, қароси мушки Хўтан,
Томизиб холи мушкин ул жайран.
Нуқтаи холи ранги шоми висол,
Юзининг субҳи нуқтаси ул хол.
Юзи гулзору ики лаб анда,
Икки гулбарги булъажаб анда.
...Тишлари лаъл ичинда риштаи дур,
Ёки ҳайвон суйи аро мўлдур.
Қошлари дайр тоқидек пайваст,
Тоқлар ичра икки кофири маст.[v]

Дилором тавсифи дунёга овоза бўладиган даражада бетакрор келтирилган: кўзлари жайрон, тишлари дур, қаро қошли, сузук кўзли... Шоирнинг таърифида қизнинг гўзал томонларининг ҳар бирига алоҳида урғу берилган.

“Хамса” достонларида чиройи мақтовга сазовор бўлган яна бир аёл – Меҳр тимсоли. Сувда ҳам қуруқликда барчани талайдиган қароқчи Жобирнинг муҳаббати туфайли дугоналари асирликдан қутулиб қолган, зиндондаги йигитни парвариш қилиб, ватанига қайтмоқчи бўлган нозик хилқат. Исмининг маъноси “қуёш” бўлгани сабабли, қуёш каби таърифланган қаҳрамон. Шу сабабли ҳам Меҳр портретида “шуъла”, “нур”, “машъал” сўзлари учрайди.

Қадиким нахли сарфароз келиб,
Ҳусн боғида сарви ноз келиб,
Зулфидин сумбул айлабон юз печ,
Оғзидин ғунча айтмай сўз ҳеч!
Орази машъали жаҳон афрўз,
Партави шуъласи келиб жонсўз.
Сочи айлаб каманд бўлмоқ фан,
Меҳр бўйнига тортар эрди расан.
Юзига меҳр бандаву оти Меҳр,
Уйрулуб меҳридек бошиға сипеҳр.
Баҳрға ноз ила чу кўз солибон,
Дема кўлок, баҳр қўзғолибон.
Бу сифат меҳри олам афрўзе,
Меҳр йўқ, шуълайи жаҳонсўзе.[v]

Алишер Навоийнинг бошқа кўплаб асарларини ҳам кўриб чиқадиган бўлсак, аёлларни нафақат нозик ва гўзал хилқат, балки кучли шахс ҳам эканликларини жуда чиройли тарзда тасвирлаб берилганини кўришимиз мумкин. Бу ҳолатдан буюк бобокалонимизнинг аёлларга бўлган чексиз ҳурматларини ҳис этишимиз мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами, 8-том. “Фарҳод ва Ширин”// Т.: “Фан”, 1991
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами, 10-том. “Сабъаи сайёр”// Т.: “Фан”, 1992
3. Алишер Навоий. “Хамса”//Т.: “Янги аср авлоди”, 2013
4. Алишер Навоий. Ҳикматлар//Т.: “Ўзбекистон”, 2013
5. Анвар Ҳожиаҳмедов. “Шеър санъатларини биласизми?”//Т.: “Шарқ”, 2001

НАВОИЙГА БАҒИШЛАНГАН МУВАШШАҲ

Арофатой Муйдинова

Тошкент вилояти

Чирчиқ давлат педагогика институти ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Мақолада шеърий санъатлар, ўзбек адабиётидаги мувашшаҳ асарлар, шунингдек, Алишер Навоийга бағишланган форс-тожик тилидаги мувашшаҳ ҳақида сўз боради. Мувашшаҳ ўзбек мумтоз шеъриятида кенг тарқалган шеърий санъатлардандир. Ижоди ўрганилаётган шоирнинг адабий давраси, яқин дўстлари ким бўлганини ўрганишда мувашшаҳлар муҳим манба бўлиши мумкин.

Калит сўзлар: шеърий санъат, мувашшаҳ, тавшиҳ, ғазал, қитъа, мухаммас, тазмин.

АННОТАЦИЯ

В статье рассказывается о поэтическом искусстве, произведениях мувашша в узбекской литературе, а также о мувашше на персидско-таджикском языке, посвященном Алишеру Навои. Мувашшах - одно из наиболее распространенных поэтических искусств в узбекской классической поэзии. Литературный круг поэта, чье творчество изучается, мувашшахи могут быть важным ресурсом в изучении того, кто их близкие друзья.

ANNOTATION

The article talks about poetic arts, muwashshah works in Uzbek literature, as well as muwashshah in Persian-Tajik language dedicated to Alisher Navoi. Muwashshah is one of the most common poetic arts in Uzbek classical poetry. The literary circle of the poet whose creativity is being studied, the muwashshahs can be an important resource in studying who their close friends are.

Keywords: poetic art, muvashshah, rabbit, gazelle, continent, muhammas, tasmin.

Маълумки, мумтоз шеъриятда нутққа безак берувчи санъатларга алоҳида эътибор берилган. Чунки шеър бадиий ҳодиса бўлиши учун шакл ҳам, мазмун ҳам гўзал бўлмоғи талаб этилади. Шунинг учун адабиётшуносликда шеърий санъатлар махсус ўрганилган ва бир қанча рисолалар яратилган. Шундай шеърий санъатлардан мувашшаҳ санъати ҳақида тўхталмоқчимиз.

Мувашшаҳ арабча “зийнатламоқ” маъносини ифодалайди. Мувашшаҳ жанр эмас, шеърий санъатлардан бири, шунинг учун мумтоз шеъриятда ғазал, мухаммас, мураббаъ, мусамман, мустаҳзод, маснавий, қитъа, рубоий, фард каби жанрларда яратилган. Мувашшаҳ-шеърнинг ҳар бир мисра, байт ёхуд бандининг бошланиш ҳарфларидан бирор нарса ёки кишининг номи келиб чиқади. Айрим мувашшаҳларда исм мисралар таркибидаги сўзлар орасига яширинган бўлади. Бундай ҳолда мувашшаҳ муаммо усулида ечилади.

Мувашшаҳ хусусида академик Азиз Қаюмов қуйидагича фикр билдирган: “Мувашшаҳ-ғазалда келтирилган сифатлашлар, шоирона тасвирлар кўпроқ шарқ адабиётига хос анъанавий характерга эга. Мувашшаҳ шоир маҳоратининг бир намойиши”[v]. Ҳақиқатан ҳам мувашшаҳ шоирдан жуда катта маҳорат талаб қиладиган нозик санъат, чунки келтириб чиқариш кўзда тутилган исм мисра ёки байтни маълум бир ҳарф билан бошлашни талаб этади. Бу эса мисра ёки байтни мазмун ифодаси учун энг мақбул сўз билан эмас, чиқариладиган исмга мос сўз билан бошлашни тақозо қилади. Шундай экан, мувашшаҳ юксак маҳорат ва дид билан қўллансагина, шеърга зеб бўлади, акс ҳолда, у шеърнинг бадиий савиясини тушириб юбориши ҳам мумкин[v].

Мувашшаҳнинг келиб чиқиши ҳақида турли фикрлар мавжуд. Рус шарқшуноси И.Ю.Крачковскийнинг ёзишича, мувашшаҳ, унинг шакли ва муайян тартибда тузилиши борасидаги фикрлар X асрда Арабистонда яшаб ижод этган шоир Муқаддам ибн Муъафа ал-Кабрий қаламига мансуб.

Мувашшаҳ адабиётларда *тавшиҳ санъати* деб ҳам аталади. XV асрда яшаб ижод этган олим Атоуллоҳ Ҳусайний ўзининг “Баъдойиъ – ус санойиъ” асарида шундай ёзади: “Тавшиҳ ажам шуароси наздида андин ибораттурким, шоир мисра ёки байтларнинг бошида ё аларнинг ўртасида бир неча ҳарф ёки бир неча сўз келтирурким, ул ҳарф ёки сўзларни жамъ қилинса, бир исм ё бир лақаб ё бир мисра ё бир байт бўлур ёки анга ўхшаш бир нима ҳосил бўлур ва бу санъатни ўз ичига олган шеърни мувашшаҳ дерлар...[v]” Олим бунга мисол қилиб Алишер Навоийга бағишланган форс-тожик тилидаги қуйидаги қитъани келтиради:

Иззату давлат, *илоҳий*, бод бо фатҳу зафар,

Шаҳриёр-и мулк-и донишро *ҳамеша* бешумор!

(Илоҳим, илм мулкининг шаҳриёрига ҳамиша ҳисобсиз фатҳу зафар билан иззату давлат келсин.)

Лутф кун дар зилл-и шаҳ, ё раб, *бидораш* то магар

Ёбад оромиш *ба иззу* адл-и эшон рўзгор.

(Ё раб, лутф қил, уни шоҳ соясида сақла, токи уларнинг қудрату адлидан замона тинч бўлсин!)

Ё раб, эҳсон кун *ба фазилат* давлат-и уқбо, ки ў

Расм-и эҳсон кард дар дунё *ба давлат* ошкор.

(Ё раб, фазлинг билан унга охират давлатини эҳсон қил, чунки у давлатга бу дунёда эзгулик расмини бунёд қилди.)

Мазкур қитъанинг биринчи мисраларнинг бошидаги ҳарфларни жамъ қилинса, Али ҳосил бўлур, иккинчи мисраларнинг олдидаги ҳарфларни жамъ қилинса, шер ҳосил бўлур. Биринчи мисраларнинг ҳашвидаги сўзларни жамъ қилинса, қуйидаги мисра ҳосил бўлур:

Илоҳий бидораш ба фазилат.

(Илоҳий, уни фазлингда тут.)

Иккинчи мисраларнинг ҳашвидаги сўзларни жамъ қилинса, қуйидаги иккинчи мисра ҳосил бўлур:

Ҳамеша ба иззу ба давлат

(Ҳамиша қудрату давлатда.)

Агар сўзларни мисра ва байтларнинг тартиби била жамъ қилсалар, ушбу байт ҳосил бўлур:

Илоҳий ҳамеша бидораш

Ба иззу ба фазилат ба давлат[v].

(Илоҳий, ҳамиша тут ани

Қудрату фазлингда, давлатда[v]*).*

Шоир тавшиҳ санъатига батафсил тўхталиб, унинг барча турларига қатор мисоллар келтиради ва тавшиҳни кўпинча қасидада қитъа шаклида қўлланишини таъкидлайди. Шунингдек, *тавшиҳ* сўзининг луғавий маъносини ҳам изоҳлайди: “Тавшиҳ луғатта вишоҳ, яъни бўюнбоғни бировнинг бўйниға илмактур. Шеърға ҳарф ёки сўзларни киритмак анга ўхшағани учун бу маънода анга тавшиҳ деб ном қўюптурлар”[v].

XV асрда Хожа Савожий, Мавлоно Котиб, Мавлоно Али Шерозий каби Ҳирот адабий муҳитининг етакчи шоирларининг яратган катта-кичик қасидалари ҳам мувашшаҳ шаклида ёзилган.

XV аср адабиётининг яна бир улкан шоири ва алломаси Шайх Аҳмад Тарозий ҳам ўзининг “Фунуну-л-балоға” асарида мувашшаҳни махсус санъат сифатида тилга олади ва шундай таърифлайди: “…шеърнинг аввалғи ҳарфларини териб олсалар ё ўртадаги ҳарфларини олиб жам қилсалар... (исм пайдо) бўлур. Шеърнинг бир мисраси ҳарфларида ҳам исм музайян бўлиши мумкин”[v]. Худди шундай бир мисра таркибидаги сўзларнинг биринчи ҳарфлари жамланса, исм ҳосил бўладиган турини Алишер Навоийнинг “Фарҳод ва Ширин” достонида Фарҳодга исм берилишида ҳам учратишимиз мумкин:

Бу навъ эрмас, ато қўймоди отин
Ки, кўргач ишқ анинг рокиза зотин,
Анга фарзона Фарҳод исм қўйди,
Ҳуруфи маъхазин беш қисм қўйди:

Фироқу **р**ашку **ҳ**ажру **о**ҳ ила **д**ард,

Бирор ҳарф ибтидодин айлабон фард.

Борин устоди ишқ этгач мураккаб,

Тараккубдин бу исм ўлди мураттаб”[v].

Кўринадики, Алишер Навоий ҳам бу санъатга беэътибор бўлмаган, аксинча, унинг бетакрор намуналарини яратган.

XV аср шеъриятида мувашшаҳнинг мисралар ичида қизил сиёҳ билан ажратиб ёзилган сўзларни жамланганда бир ёки бир неча байт шеър пайдо бўладиган туридан кенг фойдаланилган бўлса, XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари адабиётида эса кўпроқ ҳар бир мисра, байт ёхуд бандининг бошланиш ҳарфларидан ном келиб чиқадиган туридан фойдаланилган. Бу даврда мувашшаҳчилик анъанаси жуда кенг оммалашган. Феруз, Камий, Мискин, Ҳазиний, Муқимий, Фурқат каби улуғ шоирлар мувашшаҳчиликда шуҳрат қозонишган.

Мувашшаҳларни илмий асосда ўрганиш адабиёт тарихининг қоронғи жиҳатларини ёритишда муайян даражада хизмат қилади. Мақсуд Шайхзода, Азиз Қаюмов, Шариф Юсупов, Қўлдош Пардаев сингари олимларнинг бу мавзуга оид тадқиқотлари мувашшаҳнинг ўзига хос хусусиятларини ёритгани, унга доир мунозараларга ойдинлик киритгани жиҳатидан аҳамиятлидир.

Хуллас, мувашшаҳларни ўрганиш шоирлар адабий-эстетик оламини ўрганишда муҳим аҳамиятга эга. Зеро, уларни илмий асосда ўрганиш адабиёт тарихининг қоронғи жиҳатларини ёритишда муайян даражада хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 8-том, Хамса, Фарҳод ва Ширин. –Тошкент, Фан, 1991.

2.Атоуллоҳ Ҳусаиний. Бадойиъу-с-санойиъ. – Тошкент, “Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти”, 1981.

3. Жўрабоев О. Ҳазиний тўра. – Тошкент,“Фан”,2007.

4.Пардаев Қ. Муқимий шеърияти: матн тарихи, таҳрири ва талқини. – Тошкент, “Муҳаррир” нашриёти, 2019.

5. Қаюмов А. Шеърият жилолари. – Тошкент, “Ўқитувчи”, 1997.

6. Юсупов Ш. Тарих ва адаб бўстони. – Тошкент, “Маънавият”, 2003.

7. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 11 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-11-1219-1224

ERISHILGAN BOYLIKNI ELGA SOCHISH BAXTI

Rasulova Rayxon Bahritdinovna
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
“O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada insonlar orasida ulug‘lanib borishi zarur bo‘lgan xislatlar, yoshlar tarbiyasida uchrab turadigan nuqsonlar xususida Alisher Navoiyning “Lisonut-tayr”, “Hayrat ul-abror” asarlariga murojaat qilinib, misollar yordamida tahlil qilingan.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются качества, которые необходимо оттачивать в людях, недостатки воспитания современной молодежи, используя произведения Алишера Навои «Лисонут-тайр», «Хайрат уль-аброр» и примеры

ANNOTATION

This was written about important values and defects in relationships among today's youngsters based on ehamples from "Hayrat-ul abror" and "lisonut-tayr" by A. Navoiy.

Калит сўз ва иборалар: комил инсон, ҳис-туйғу, ҳиммат, ҳикмат, пок севги, садаф, шарқ адабиёти, бадиий-эстетик мақсад, манавият, тўғрилик .

Ключевые слова: и фразы: совершенный мужчина, эмоция, щедрость, мудрость, чистая любовь, жемчуг, восточная литература, художественно-эстетическая цель, духовность, правильность.

Keywords: and phrases: perfect man, emotion, generosity, wisdom, pure love, pearl, oriental literature, artistic-aesthetic purpose, spirituality, correctness.

KIRISH

Millatning shunday farzandlari bo‘ladiki, ular zamonlar osha haqiqiy chin insonlar timsolida namoyon bo‘ladilar. Buyuk xizmatlari, teran aql- idroki, ezgu

amallari bilan shu millat boyligiga aylanadilar. Insoniyat paydo bo‘libdiki, o‘zidan keyingi avlodni tarbiyalab borish va buning natijasida hayotiga mazmun-ma’no olib kirish haqida o‘ylaydi. Hayot doimo tinimsiz harakatni talab etadi va bir tekis kechmaydi. Turmush yo‘llarida turli-tuman dovonlarga duch keladi va ulardan oshib o‘tish yo‘llarini o‘ylaydi. Bu jarayonda halol va pokiza tuyg‘uli insonlargina hayotdan zavq ola bilishi va o‘zgalarga ham go‘zallik iforlarini taratishi mumkin. Zavqlanib yashash omillarini o‘zgalar hayotiga mazmun-ma’no olib kirishda deb bilguvchilar esa abadiy barhayotdir. Buyuk siymolarimiz Yusuf Xos Hojib, Hofiz Xorazmiy, Sayfi Saroiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Bobur, Nishotiy, Munis, Ogahiy, Nodira, Gulxaniy, Uvaysiy, Muqimiy, Furqat, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Oybeklar mumtoz so ‘z san’atkorlari sifatida millatimiz uchun aziz.

O‘zbek mumtoz adabiyotimiz shohsupasidan uch iqtidor: Navoiy, Bobur, Ogahiy siymolari bebaho o‘rin egallagan. Birinchi o‘rinda istisnosiz Alisher Navoiy o‘z hayot yo‘li bilan namuna bo‘libgina qolmay, adabiyot atalmish sirli-sehrli vosita bilan kishilik tarixida juda bebaho iz qoldirgan. Navoiy dahosining eng muhim nuqtasini, uning o‘zi qayd etkan “dard va so‘z (kuyish)”ga keng o‘rin berganidan bilinadi. Navoiy ijodi abadiyatining bosh siri – uning umumbashariy o‘lmas va qarimas g‘oyalari, hissiy komillikdir. Insonparvarlik insonni hurmat qilish: uning baxt – saodatini ta’minlashga harakat qilish, o‘zgalar baxtidan o‘z baxtini topishdir. Bu inson mazkur bebaho vositani doimo yangilab va, shuning barobarida, o‘zining ko‘ngil ko‘ylariga mos yangi ohanglar olib kirib sayqallab bordi. Badiiy asarlarida narsa- hodisalarni jonli tasvirlash, his-tuyg‘u va kechinmalarni yorqin ifodalashda turkiy til imkoniyatlaridan keng foydalanib chin insoniylik burchini bot-bot isbotlab berdi. Sharq adabiyotida Alisher Navoiy asarlari hikmatga boyligi, tafakkur mevalarining bisyorligi va bebaholigi bilan ajralib turadi. Bugungi kunimiz uchun, zamondoshlarimiz uchun, yosh avlod uchun zarur durdonalar deyishimiz o‘rinlidir. Tasavvufning ramziy-adabiy talqini bo‘lmish “Lisonut-tayr”asari mazmunida, “Xazoyin ul-maoniy” devonida, “Xamsa” dostonida buning yorqin isbotini topish mumkin.

Alisher Navoiyning falsafiy, axloqiy, ma’naviy olamidan xabardor bo‘lish, bugungi o‘quvchi uchun beqiyos hikmatdir. Kishilik qismatidan, hayotdan shunday mazmunli hikmatlar, ma’naviy kashfiyotlar yaratadiki u barcha zamonlar kitobxoni uchun ohorli fikrlar bo‘lib mangu yashaydi.

Navoiy o‘z shaxsidagi tama’ degan axloqiy saraton kasalligi ustidan g‘alaba qozongan va undan tom ma’noda qutulgan inson deb bemalol ayta olamiz. Uning shiori quyidagi misralarda yaqqol aks etgan:

Ey Navoiy, olam ahlida tama’siz yo‘q kishi,
Har kishida bu sifat yo‘qtur – anga bo‘lg‘ay sharaf!
Sen agar tarki tama’ qilsang, ulug‘ ishdur bukim:
Olam ahli barcha bo‘lg‘ay bir taraf, sen – bir taraf.

Navoiy ixtirosi erishilgan boylikni elga sochish baxti edi. U shu fazilatlari bilan jahon xalqlari ehtiromiga abadiy loyiq deb topilgan buyuk shaxs. Nafaqat ijodda balki hayotning barcha jabhalarida faol turmush tarzini kechirganlar. Daromadining 98 foizini elga ehson etar, ilm yo‘lida sarflar, shulardan ikki foizini o‘z ehtiyojlariga olib qolardi.

Joh ahli, faqr ichra Navoiyga iqtido-
Aylangki, bu tariqa anga keldi muxtara’.

(Ey amaldorlar, davlatmandlar! Faqirlikda siz Navoiyga ergashihg. Chunki bu yo‘sin uning ixtirosidir.)

Izzat tama’ kim aylasa tark etmayin tama’,
Ul xorliqqa mujib erur: “Azza man qana’”.
Tuxmi tama’ki xor tuxmin ekub, qilma gul tama’,
Sen bo‘yla xor tuxmin ekib, qilma gul tama’

Mazmuni:

Izzat istagan odam tama’dan voz kechmog‘i kerak.
Tama’ – xorlik boisidir. Azizlik – qanoatidadir.
Tama’ urug‘ining hosili xorlikdir.
Sen xorlik urug‘ini ekib gul unadi deb xomxayol qilayapsanmi?

Alisher Navoiy hayotida umrbod amaliyotda sinagan ixtirosidan nega davlatmandlar foydalanmayaptilar, deb kuyunardi, vijdoni ularga nisbatan qiynalardi… shu bois unda jizzakilik sezilardi. Butun yig‘ilgan boyligini muttasil xayriya uchun sarflagan, demak u biz uchun adabiy daho, axloqiy namuna, komillik timsoli, ezgulik ramzigina emas, vijdonimizning ogohlantiruvchisi hamdir.

Gar Navoiy to‘kti ul oy furqatida bahri ashk,
Har qachon boqsang quyosh aksi aning yoshindadur.

Navoiy she’riyatida ramzan quyosh timsolida Alloh talqin etiladi, Allohni yod etib yig‘lab to‘kkan ko‘z yoshlarining har tomchisida Alloh quyosh sifatida aks etadi. Shu sababli boylikni xalqqa sochgani, ehsoni – Alloh yo‘lida chin dildan qilgan hadyasidir.

Hozirgi odamlar ,ayniqsa, yosh avlod orasida tashqi go‘zallikka qarab baho berib va bunga mukkasidan ketganlar ko‘plab topiladi. Navoiy fikricha, shaxs uchun axloq masalasi hayot- mamot masalasidir. Buyuk axloq otasi Alisher Navoiy yoshlarga qarata,

Odam o‘lg‘on zebi zohirdin demas,
Kimki ondin faxr etar,odam emas.
Zebi zohir juz tamasxur kelmadi,
Kimsaga ondin tafoxur kelmadi.

“Har bir o‘zini odam hisoblaydigan inson tashqi go‘zallikka intilmasligi kerak. Tashqi go‘zallik bilan faxrlanadigan kishi odam emasdir. Odamlar bunday kishilarni masxara qiladilar. Tashqi go‘zallik kishilarga shon-sharaf keltirgan emas”,- degan murojaati barcha zamonlarda o‘z kuchiga ega.

Husnlariga, aqliga yuksak baho beruvchilar uchun:

Xudparastesen, o‘zungning oshiqi,
Xudpisandesen- mazammat loyiqi.

Har bir o‘ziga oshiq bo‘lgan kimsa, o‘ziga sig‘inadigan zot, o‘zini o‘ylaydigan xudbindir. Bu bilan u o‘zini tubanlikka tortadur, deb xulosalaydi va insoniy baxtni

shaxs vafodorligida deb biladi. Agar insonda vafo bo‘lmasa bu shaxs fojiasidir deb biladi.

Odami bo‘lsa vafo andin yiroq,
It vafo bobida andin yaxshiroq.

Xalqimizning it sadoqati- vafosi haqidagi qarashlaridan o‘rinli foydalangan muallif vafosiz kishilarga qarata zarba bergan.

Alisher Navoiy inson o‘ziga to‘g‘rilikni odat qilmog‘i haqida so‘z yuritarkan, turli narsa va hodisalarning, kundalik turmushda juda ko‘p buyum va jihozlarning to‘g‘ri va egri xususiyatlarini solishtiradi. “Hayrat ul-abror” dostonidan bunga ko‘plab misollar keltirish mumkin.

Har kishikim, tuzluk erur peshasi,
Kajrav esa charx ne andeshasi.

Yo‘l necha tuz, yo‘lchig‘a maqsad qarib,
Xamlig‘idin tushsa yiroq yo‘q ajib.

Nay tuz uchun istar ani ahli hol,
Chun tuz emas, egri ko‘rar go‘shamol.

Nayza bo‘lib tuzligidin sarbaland,
Chirmosh uchun bandg‘a qolib kamand.

Har kim o‘ziga to‘g‘rilikni odat qilgandan keyin charxning teskari aylangani bilan uning nima ishi bor?! Yerning egriligi o‘q to‘g‘ri uchganligi uchun zarar qilolmaydi. Yo‘l qancha to‘g‘ri bo‘lsa, maqsad shuncha yaqin, yo‘l egri bo‘lsa maqsad uzoqlashganidan ajablanish o‘rinsiz. Nay to‘g‘ri bo‘lgani uchun so‘fiylar uni yaxshi ko‘rishadi, egri bo‘lsa qulog‘idan buraladi. Nayza to‘g‘ri bo‘lganidan doim boshi yuqori, arqon esa chirmosh bo‘lgani uchun bog‘lashga ishlatiladi. To‘g‘ri yo‘ldan yurish bugungi kunda ham zarur masala bo‘lib bormoqda. Himmati baland

insonlar haqida esa, fe’lida ham shunga yarasha izzat-martaba topishini uqtiradi. “Agar himmat bir gavhar bo‘lsa, insonni sadaf deb hisobla, bu sadafga asl sharaf o‘sha gavhar tufaylidir. Agar kishida himmat bor bo‘lsa, unga taxt va amalning keragi yo‘qdir, mol-mulk ham uning ko‘ngliga yoqmaydi. Himmati uning katta davlatidir. Chunki himmatli kishi barcha ishlarni bajara oladi. Himmati er kishini e’tiborli qiladi, mansab, mulk va xazinaning daxli yo‘qdir. Himmati yo‘q kishi aqlli kishilar orasida obro‘- e’tibor topa olmaydi. Kimki himmat egasi bo‘lsa, bu xislat unga iqbol keltiradi. Agar shohga past himmat berilgan bo‘lsa, bunday shoh himmatli gadodan mag‘lubdir. Insonlardagi go‘zallik himmat tufaylidir, yomon nafsning jazosi ham himmatdandir”. El baxti uchun umrini fido qilgan bashariyatning chin farzandi uchun komil inson (ayniqsa, amaldor kishi)da uch fzilat: tavoze’(kamtarlik), ato (minnatsiz ehson- hadya) va avf (o‘zganing gunohini kechirish) bo‘ladi.

Har kishi komil erur, bas anga Haq bandalig‘i,

Mundin o‘zga tama’i kasbi kamol aylamangiz.

Bu kabi misollarda Alisher Navoiy misralari insoniyat uchun bebaholigi yana bir karra isbotlangan. Odamiylik mulkining cho‘qqisiga aylanib boraverishi ko‘rsatib berilgan. Buyuk mutafakkir ijodi rang-barangligi bilan barchani hayratga solib kelmoqda. So‘zlar ummonidan saralangan dur-u marjonlari bilan ,nafaqat, she’riyat chamanini, balki hikmatlar shodasini ham taqdim etib qoldirdi. Bularga:

Kishining odobi uning boyligidan yaxshidir.

Oxirat savobi dunyo rohatidan yaxshidir.

Til zarbasi-tish og‘rig‘idan kuchliroq.

Ko‘p toatdan-oz ma’rifat yaxshi, aqlli dushman axmoq do‘stdan yaxshiroqdir.

Yomon do‘st- shaytondir.

Seni yomonlikka boshlagan kishi dushmaningdir.

Til sukuti- inson salomatligi.

Kimki ko‘nglini qattiq so‘z jarohatlar ekan, uning achchiq tili zaharli nayzadek sanchiladi. Muloyim so‘z- vahshiylarni ulfatga aylantiradi, sehrgar- ohang bilan afsun o‘qib ilonni inidan chiqaradi.

Ko‘p bemaza so‘zlaydigan ezma- kechalari tong otguncha tinmay huradigan itga o‘xshaydi.

Tili yomon odam- xalq ko‘nglini jarohatlaydi, o‘z boshiga ham yetkazadi.

Bu kabi turfa va purma’no ijod tom ma’nodagi ma’naviy xazinamiz sarchashmasidir. Biz undan qanchalik ko‘p foydalanmaylik, ma’naviy ozuqamiz qaynab chiqaveradi va ko‘ngillar o‘zanini boyitib, barhayot yashayveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. (2010). Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr.
2. Sirojiddinov Sh. O‘zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari. – T.: Yangi asr avlodi, 2011.
3. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua. (1-2–jildlar) Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: N.Rahmonov. – T.: Fan, 2005, 2007.
4. Rahmonov N. O‘zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari. Monografiya. – T.: “Mumtoz so‘z”, 2016.
5. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: SHarq, 1990.
6. Is’hoqov Yo. So‘z san’ati so‘zligi. – T.: O‘zbekiston, 2014.
7. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Darslik – T.: Ma’naviyat, 2014.
8. Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. –T.:2006.
9. S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo‘chqorov, Sh.Rizayev.
Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 5-sinf darsligi.
10. Р. Расулова, Инсонлар садафи ҳимматидандур
Academic Research in Educational Sciences volume 2 | issue 1 | 2021 issn: 2181-1385 scientific journal impact factor (sjif) 2021: 5.723

АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДА КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ МАСАЛАСИ

Хидиров Хошим Ибодуллаевич
Жиззах политехника институти “Ижтимоий фанлар” кафедраси ўқитувчиси
xoshim2021@mail.ru

Калит сўзлар: А.Навоий, адолат, вазир, коррупция, “Маҳбуб ул-қулуб”, золим, жоҳил, фосиқ подшоҳлар, хулқи бузуқ, жаҳлдор, қайсар, кек сақлайдиган, диёнатсиз мансабдор ва ҳ.к.

Аннотация: Ушбу мақолада сўз мулкининг султони, буюк мутафаккир Алишер Навоийининг асарларида коррупцияга қарши курашиш масаласининг ёритилганилигига алоҳидла эътибор қаратилади.

Ключевые слова: А.Навои, правосудие, министр, коррупция, «Махбуб ул-гулуб», тиран, невежественный, нечестивые цари, продажный, злой, упрямый, лепешка, нерелигиозный чиновник и др.

Аннотация: В данной статье особое внимание уделяется проблеме борьбы с коррупцией в творчестве великого мыслителя Алишера Навои, султана царства слова.

Keywords: A.Navoi, justice, minister, corruption, "Mahbub ul-qulub", tyrant, ignorant, wicked kings, corrupt, angry, stubborn, cake-keeping, irreligious official, etc.

Annotation: This article pays special attention to the issue of combating corruption in the works of the great thinker Alisher Navoi, the sultan of the realm of words.

Буюк мутафаккир ва улуғ шоир Алишер Навоийнинг ҳаёт йўли ва у қолдирган маънавий мерос шунчалик кўп қирралики, ундан одамзот жамият ҳаётининг барча соҳаларини фалсафий жиҳатдан англаб олиши, маънавий жиҳатдан эса уни барқарор ривожлантиришнинг йўналишларини белгилаб олишида йўриқнома бўлиб хизмат қилиши, шубҳасиздир.

Алишер Навоийнинг жамият ривожига ўзининг ижобий таъсир ўтказувчи нарса, воқеа, ҳодисалардан ташқари, оддий меҳнаткаш халқнинг қаҳр-ғаззабини келтирувчи, унинг нафратига сазовор бўлувчи иллатлар, ҳозирги кун тили билан айтганда коррупцион ҳолатларнинг пайдо бўлиши, унинг жамият тараққиётига зиён етказувчи томонлари ҳақида ҳам жуда кўплаб фалсафий аҳамиятга молик бўлган мушоҳадалар ёзиб қолдирилган. Шулар орасида Алишер Навоийнинг 1500-1501 йилларда ёзган йирик насрий асарларидан бири “Маҳбуб ул-қулуб” (Қалблар севгилиси) китоби ҳисобланади.

Алишер Навоий мазкур китобда жамиятни пораҳандаликка олиб келувчи иллатлардан иборат бўлган коррупцион ҳолатни юзага келтирувчи қуйидаги шахсларни аҳлоқий-фалсафий жиҳатдан қуйидагича таснифлаган ва тавсифлаган.

1. Золим, жоҳил, фосиқ подшоҳлар – бу халққа зулм ўтказувчи, обод жойларни вайрон қилувчи, хулқи бузуқ, жаҳлдор ва қайсар, кек сақлайдиган, ўзини ҳақиқат тимсоли деб биладиган бир кимса бўлиб, атрофига ўзига садоқатли одамларини тўплаб доимо халқни норози қилади ва охир оқибатда халқнинг қарғишига дучор бўлиб ўзи ҳам ҳалок бўлади[v]. Демак, золим подшоҳ қанчалик фосиқ ва жоҳил бўлса, унинг атрофида шунчалик даражада қонунбузарликлар кўп содир бўлади, бирон-бир мансаб олиш учун порахўрлик авж олади, лаганбардорлар ёмғирдан кейин чиққан “қўзиқорин”дек кўпайиб кетади.

2. Вазир - сўзи “визр” (гуноҳ) сўзидан келиб чиққандир. Бу ҳол унинг табиатига жуда мос ва лойиқдир. Бу золимлар (инсофсиз вазирлар) мамлакатни барбод қилувчи, халқнинг йиғган-терганини йўқотгувчилардир. Энг яхшиси,

бирор кимса булар ҳақида қалам тебратмагай ва бу қаламдек юзи қоралар номини қалам тилига келтирмагай. Дори ўрнига заҳар бериб, беморларни ўлдирувчи табиблар буларга жуда ўхшаш ва яқиндир. Бу икки тоифадан ҳар бири илондир, шоҳ бундайларни ер билан яксон қилиши зарур. Буларнинг ҳаммаси чаён; ҳалойиққа етказади кўп зиён. Улар қаламининг учи – чаён найзаси; аҳоли жонига у найзадан ўлим даҳшати. Бу найза мазлумларга қанчайин санчилса, у золим вазирларнинг боши ҳам ажал тоши билан шунча янчилади, деб умид қиламиз[v]. Демак, вазирлар подшоларга ёлғон хабарларни етказиб, ўзларининг манфур мақсадларини амалга ошириш йўлида, одамларга у ёки бу амал-мансабни беришни ваъда қилиб оладиган поралари эвазига таъмагирлик билан шуғулланиш эвазига бойиб кетишини, яъни, коррупция ботқоғига ботиб катта “гуноҳ” ишларга қўл урганликларини кўрсатиб беради.

3. Диёнатсиз мансабдорлар – бу виждонсиз, харом-харишдан тортинмовчи, бедиёнат – ҳеч зарурати бўлмаган бидъатдек нарсадир. Агар бу нокас илмсиз бўлса, бутун қилмиши-бузуқилик, фисқу фужурдир[v]. Демак, диёнатсиз мансабдорлар энг аввало, эгаллаб турган мансабидан фойдаланиб, қўл остидагиларга азоб беради. Азобга чидай олмаганлар унга пора беришга ёки ишдан кетишга мажбур бўлади.

4. Қози (Судья) - мусулмонлик биносинииг таянчидир ва мусулмонларнинг яхши ва ёмон ишлари юзасидан ҳукм чиқарувчидир. Қозининг кўнгли дин илми билан тўла, дунёвий билимлардан хотири хабардор бўлиши керак. Хамирида шахсий манфаатга майл бўлмаслиги, соф кўнгли иккиюзламачилик иллатидан ҳоли бўлиши лозим. Агар илмсиз қози ичкиликхўр бўлса, уни ўлдирмоқ керак ва дўзах ўтига етмасданоқ куйдирмоқ керак. Агар қози порахўр бўлса, ислом дини қўрғонига рахна солувчи бўлади; агар у ўзи пора бериб, қозилик мансабига ўтирган бўлса, пора эвазига шариат қонунини буза олади. Қозининг оёғи тўғрилик кўпригидан четга тояр экан, жони жаҳаннам тубида бўлади. Қозилик ишини қандай хоҳласам, шундай қиламан дейиш ҳаёсизлик ва ёлғончиликдир[v]. Демак, қозининг пора олиши энг оғир гуноҳ ҳисобланади.

Қозининг қароридан норози бўлиш – бу халқнинг мавжуд ҳукумат ва унинг чиқарган қонунларидан норози бўлиш демакдир. Бу билан жамиятда қозилар томонидан етказилган маънавий зарарнинг ўрнини кўрсатиб беради.

5. Табиб – ўз фанининг моҳир билимдони бўлиши; беморларга раҳм-шафқат билан муомала қилиши; асли тиб илмига табиати келишмоғи, донишмандлар сўзига риоя қилиб, уларга эргашмоғи; мулойим сўз ва бемор кўнглини кўтарувчи, андишали, ҳушфеъл бўлмоғи керак. Бироқ, табобат фанидан саводсиз табиб ҳудди жаллоднинг шогирди кабидир. У тиғ билан ўлдирса, бу заҳар билан азоблайди. Шубҳасиз, жаллод бундай табибдан яхшироқдир: зеро, у гуноҳкорларни ўлдиради, бу эса бегуноҳларни ҳалок қилади[v]. Демак, Аллоҳнинг ердаги ҳалифаси бўлган инсоннинг соғлигини сақлаш борасида табибнинг пора олиши, “оқ халатга туширилган қора доғ” ҳисобланади.

Буюк мутафаккир Алишер Навоийнинг юқорида билдирган фикрларидан қуйидаги хулосага келиш мумкин.

1. Алишер Навоий мазкур асарида халқ ҳисобига бойлик орттиришни қаттиқ қоралайди. Бунинг устига халққа қарши турган, халқ ва мамлакат манфаатлари хизматига қўйилмаган, мамлакат ободончилигига сарф қилинмаган ва муҳтожлар талабини қондиришга қаратилмаган бойликни рад этиб, унинг ҳаромлигини таъкидлайди.

2. Алишер Навоий бундай бойлик эгаларининг кимлар эканлигини ва қандай йўллар ва воситалар билан бойлик орттиришларини ҳам конкрет кўрсатишга ҳаракат қилади. Булар-золим шоҳлар ва уларнинг амалдорларидирларки, улар халқ мол-мулкини очиқдан-очиқ ва зўравонлик йўли билан талайдилар. Шу йўл билан қаср қурадилар, базм қиладилар, зарбоф тўн киядилар, олтин косалардан май ичадилар деган ҳолда, уларнинг коррупционерлар “шайка” си эканлигини кўрсатиб беради.

3. Риёкор руҳоний, қози ва шунга ўхшаш шариат пешволаридир, улар дин ва дарвешлик ва тасаввуф ниқоби остида ва шуларни қурол қилиб олиб халқни алдайдилар ва шу йўл билан уни талайдилар, деб бор ҳақиқатни очиб беради.

4. Савдогарлар, олиб-сотувчилар, чайқовчилар, даллолу қаллоблар, улар турли найранг ишлатиб бўзни шойи деб ўтказишни, арзон олиб қимматга сотиб, шу йўл билан халқни хонавайрон қилишни касб қилиб олган сурбетлар эканлигини исботлайди.

Ўрта асрларда юз берган Уйғониш, яъни, Ренессанс даврида яшаб ўтган буюк аждодларимизнинг коррупцияга қарши кураш олиб борган буюк сиймоларимизнинг хизматларини юксак баҳолаган Ўзбекистон Республикасининг Президенти Ш.М.Мирзиёев: “Темур тузуклари”да Соҳибқирон Амир Темур ва темурийлар давридаги мулкни, хусусан, давлат мулкини ўзлаштирганлик учун жавобгарликни белгилашда ўзига хос ёндашув бўлганлигини таъкидлаб ўтган. Ўша даврда амалдорлар ишини тартибга солиш мақсадида вақти-вақти билан сўроқ, текшириш, тафтиш, тергов ўтказиб турилган. Ўз амалини суиистеъмол қилиш оғир гуноҳ ҳисобланган ва қаттиқ жазоланган. Амир Темурнинг ўғли Мироншоҳ, неваралари Пирмуҳаммад ва Халил Султон ушбу меъёрларни бузганликлари учун халқ олдида жазога тортилган.

Алишер Навоий “Маҳбуб ул-қулуб” асарида “қозининг адолат асосида иш кўриши, ҳаётида шахсий манфаатга майл бўлмаслиги, ҳукм вақтида ошнога ҳам, бегонага ҳам бир савияда қарамоғи, ҳукмлари ҳадисларга асосланган, порахўр муфтилар унинг қошида тубан ва хор, ҳийлакор вакиллар унинг қаршисида айбдор бўлмоғи зарурлигини таъкидлаган.

Шу билан бирга, азалдан минтақамизда ушбу иллатга қарши кураш нафақат қонунлар ва муайян жазолар орқали, балки маънавий-аҳлоқий чоралар кўриш, жамиятда порахўрлик ва коррупцияга қарши ўзига хос “маънавий иммунитет”ни шакллантириш масалаларига алоҳида эътибор қаратиб келинган. Имом Бухорий, Имом Термизий, Имом Ғаззолий, Баҳоуддин Нақшбанд, Абу

Наср Форобий, Жалолиддин Румий, Абдураҳмон Жомий, Аҳмад Яссавий каби алломаларнинг нафс тарбияси, аҳлоқ комиллиги ҳақидаги фикрлари асрлар мобайнида миллий шуур ва онгни шакллантиришда яқиндан ёрдам берган”[v],- деган эди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ

1. Навоий Алишер. Маҳбаб ул-қулуб (Қалблар севгилиси). – Т.:Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.

2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.- Тошкент: Ўзбекистон, 2021.

3. Ibodullaevich, K. K., & Bahromovna, T. D. (2020). CORRUPTION: CONCEPT, GENESIS, EVOLUTION AND SURVIVAL TRENDS. INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION, 1(5), 409-413.

4. Ibodullaevich, K. K., & Kizi, U. G. K. (2021). Types, forms of corruption, causes and consequences. Scientific progress, 1(4).

5. Khidirov, K. I., Ortikov, O. K., Yodgorov, Z. S., & Ernazarov, A. A. (2015). Military management and army structure of Sheybanids. In The Fourth International conference on development of historical and political sciences in Eurasia (pp. 8-11).

6. Khidirov, K. I., Ortikov, O. K., Yodgorov, Z. S., & Ernazarov, A. A. (2015). Military management and army structure of Sheybanids. In The Fourth International conference on development of historical and political sciences in Eurasia (pp. 8-11).

НАВОИЙНИНГ “НЕ ПЎЯ УРДИМ ЙЎЛИДА...” ҒАЗАЛИ ҲАҚИДА

Шарофат Исмоилова

Эркин Воҳидов ижод мактаби ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада Алишер Навоийнинг “Фавойид-ул кибар” девонига киритилган 583 ғазал таҳлили ва Навоий ҳаётига доир жиҳатлари ҳақида сўз боради. Шунингдек, ғазал таҳлилида Навоийнинг “Вақфия” асари ҳақида ҳам гап боради.

Калит сўзлар: “Хазойин ул-маоний”, “Фавойид-ул кибар”, ғазал, бадиий санъантлар, ички қофия санъати, саж, китобат санъати, “Вақфия” асари.

Аннотация: Статья посвящена анализу 583 газелей, вошедших в «Фавойид-ул Кибар» Алишера Навои, и аспектам жизни Навои. При анализе газелей упоминается и произведение Навои «Вакфия».

Ключевые слова: «Хазайн ул-маони», «Фавойид-ул кибар», газель, художественное искусство, искусство внутренней рифмы, садж, искусство книги, произведение «Вакфия».

Annotation: The article deals with the analysis of 583 ghazals included in Alisher Navoi's "Favoyid-ul Kibar" and aspects of Navoi's life. The analysis of ghazals also mentions Navoi's work "Vaqfiya".

Keywords: “Khazayn ul-maoniy”, “Favoyid-ul kibar”, ghazal, artistic arts, inner rhyming art, saj, book art, “Vaqfiya” work.

“Навоий Ҳазратнинг асарлари сизга завқ-шавқ бермаган, қалбингизга ўт солмаган бўлса, яхшиси гапирманг” деб ёзади, Ўзбекистон халқ шоири Эркин Воҳидов. Алишер Навоий лирикасини суйган, уларнинг завқни туйган киши ўз кашфиётларини улашишга шошилади.

Алишер Навоийнинг барча асарлари қатори лирикасида ҳам ўзликни англаш ва комилликка интилиш ғояси пешқадам. Хусусан, “Хазойин ул-маоний”дан жой олган “Фавойид-ул кибар” девонига кексалик, камолот ёшида ёзилган асарлари жамланган. Шунга асосланиб девондаги асарларни Навоий даҳосининг умрий хулосалари дейиш мумкин.

Девондан ўрин олган 523- ғазал мисолида Алишер Навоий сиймосига, фитратига назар ташласак.

Ғазал шундай бошланади:

Не пўя урдум йўлида, не бошим ўлди хоки раҳ,
Ул шўх ишқи саъйида боштин аёғимдур гунаҳ.

Байтнинг насрий баёни қуйидагича: Васли йўлида қанча елиб югурдим, бошим юрар йўлининг тупроғи ҳам бўлмади, аксинча, унинг ишқи йўлидаги ҳаракатларим сабаб бошдан оёқ гуноҳга ботдим.

Байтда саъж - ички қофия шеърий санъати қўлланилган. Умр Ҳақ васлига етиш учун сафар ва уни бегуноҳ кечиб ўтадиган банда бўлмаслигини инобатга олиб машуқани Оллоҳ таолога нисбат берсак ҳам хато эмас.

Ғазалнинг кейинги байтида саъж ва мутаносиб санъати наъмуналари бўй кўрсатади:

То бода ичти ул санам, то майға чўмди лаъли ҳам,
Жонимда ўтдур дам-бадам, бағримда қондур таҳ-батаҳ.

Байтнинг таҳлили қуйидагича: Машуқа ичган май ошиқнинг жону танида ўт ёқади, бағри ҳам ёрнинг қизил лабларидек қон. Маълумки, май мумтоз адабиётда илоҳий ишқ тимсоли ҳисобланади. Ушбу ўринда ҳам лирик қаҳрамон жисми ва сийратидаги ўзгаришларнинг сабабчиси ишқи илоҳийдир. Худди шундай фикр ғазалнинг кейинги байтида ҳам давом этади:

Чун жилва бўлди ёрға, айш ўлди жони зорға
Ким, ул қаду рафторға жон гулшанидур жилвагаҳ.

Бу ўринда китобат санъатининг гўзал наъмунаси учрайди. Мумтоз адабиётда ёрнинг қадди араб алифбосининг илк ҳарфи алифга (ا) қиёсланади

ва шоир бир томондан алифнинг жон сўзида жим (ج) ва нун (ن) ҳарфлари орасида келишига, яна бир томондан Аллоҳ сўзининг ҳам алиф билан бошланишига ишора қилади. Шунингдек, байтдан гўзал қадди-қоматли ёрнинг ўрни жонимнинг ўртасидан жой олган, деган мазмун ҳам келиб чиқади.

Энди ғазалнинг қуйма оҳангдор бешинчи байтига назар ташласак:

Юз ишва бирла боқибон, жонимға ўтлар ёқибон,

Лаб тишлабон, кўз қоқибон, тиргиздию ўлтурди, ваҳ.

Мисралар оҳанги мазмунга уйғунлашиб кетган. Бу ўринда ҳам ички қофиянинг гўзал намунаси бадиий оҳангдорликни оширишга хизмат қилган. Шу ўринда бир фикр. Навоий ҳазратнинг асарлари кўплаб жаҳон тилларига таржима қилинган ва қилинмоқда. Бугун дунё аҳли Навоий даҳосини баланд пардаларда эътироф этмоқда. Лекин юқоридаги каби дилбар мисраларнинг чинакам завқини туйиш, ўйноқи сатрларнинг жозибасидан тўлиқ баҳраманд бўлиш учун фақат ва фақат туркий тил соҳиби бўлиш керак. Навоийнинг сўз маҳоратини англай олиш учун ҳам дунё аҳли ўзбек тилини ўрганса арзийди!

Биз амир Алишер Навоийнинг диний меъзонларга асосланган тартибли ҳаёт тарзидан “Вақфия” асари ва шоирнинг замондошлари томонидан битилган кўплаб асарлар орқали бохабармиз. Қуйидаги байт ана шу ҳаёт тарзини назмий либосида кўринади:

Умр ўтмакин андиша қил, давронға йўқтур меҳр— бил,

Эй шаҳ, гадони кўзга илким, не гадо қолур, не шаҳ.

Бу байт улуғ Навоийгача бўлган давр вакили Шарқ устози Жалолиддин Румий ҳазратларининг “Эй, кўнгил, беҳуда ғам чекма, на бу дардлар қолгуси на бу умр” деган ҳикматларини ёдга солса, Навоийдан кейинги даврда ҳазратни ўзига ғойибона устоз деб билган Муҳаммад Ризо Огаҳийнинг машҳур “Устина” радифли ғазалидаги “Эй шаҳ, карам айлар чоғи тенг тут ямону яхшини, Ким меҳр нури тенг тушар вайрону обод устина” байтига пойдевор бўлган бўлса ажаб эмас.

Алишер Навоий “Вақфия” асарида икки армони: Бири шоҳ Ҳусайн Бойқаро ҳақида муфассал асар битиш яна бири эса муборак Ҳаж сафарини адо этиш эканлигини ёзадилар. Минг афсуски, катта бир мамлакат вазири, мудом халқ фаровонлиги, тинчлиги учун курашган, умри, топган бор молу мулки ҳожатбарорлик ва илм маърифат равнақи йўлида сарф бўлган беназир инсонни азал қисмат аямади. Не ажабки, бу ҳикматни Навоий аллақачон англаган, ғазалнинг мақтаъсида айтилганидек, ўзи учун ҳукм чиқариб қўйган эди:

Ҳар ён, Навоий, сунма қўл, не келса ҳақдин — рози ўл,

Сен ожизу ҳокимдур ул, ал фажру лак ал ҳукму лаҳ.

Байтнинг насрий баёни қуйидагича: Эй, Навоий ҳар тарафга қўл чўзиб сарсон бўлма, нимаики келса, Аллоҳдан рози бўлгин. Чунки сен ожиз У от эса ҳокимдир. Бай сўнггида келтирилган мақол араб халқ мақолларидан бўлиб, одатда араблар уйқу олдидан шу жумлаларни айтиб уйқуга кетишади. Фажр – тонг саҳарда қушлар сайрайдиган маҳал маъносини англатади. Бу ўринда, “Тонгнинг отиши Аллоҳнинг ҳукмидадир” деган мазмунда келади.

Ғазал Навоий умрининг якунида ёзилганлигини ҳисобга олсак, ушбу асарни даҳо ижодкорнинг умрий хулосалари берилган ғазаллардан бири дейиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 6-том. Фавойид ул-кибар. 523 - ғазал Тошкент:Фан, 1990
2. Абулхайр Манзар. Навоий асарларининг изоҳли луғати. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, Тошкент – 2018.
3. Воҳидов Эркин. Асарлар. 4-жилд. «Sharq» нашриёти, Тошкент – 2016. 375-бет
4. Ҳожиаҳмедов А. Шерий санъатлар ва мумтоз қофия. «Sharq» нашриёти, Тошкент – 1998.
5. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. «O‘zbekiston» НМИУ, Тошкент – 2015.

АЛИШЕР НАВОИ – ПОЭТ, МЫСЛИТЕЛЬ, ГУМАНИСТ

Салихова Замира Аминовна

Педагогический институт Бухарского государственного университета

Annotatsiya: Maqola turkiy tili mutafakkiri, tilshunoslik arbobi, o'rta asrlarning buyuk shoiri Alisher Navoiy ijodiga bag'shlangan. Alisher Navoiy o'z faoliyati davomida turkiy va fors tillarini qiyoslab, ona tilining mukammalligini isbotlashga harakat qilgan.

**Tayanch so`zlar**: shoir-pedagog, merosxo`r, mutafakkir, saxovat, oliyjanoblik, tinchlik, vatanga muhabbat.

Аннотация: Статья посвящена труду мыслителя тюркского мира, мастера языкознания, великого поэта средневековья Алишера Навои.Работа Алишера Навои заключалась в том, чтобы доказать совершенство родного языка, противопоставляя тюркский и персидский языки.

Ключевые слова: поэт-просветитель, достояние, мыслитель, великодушие благородство, мир, любовь к Родине.

Annotation: The article is devoted to the work of the thinker of the Turkic world, the master of linguistics, the great poet of the Middle Ages Alisher Navoi. The work of Alisher Navoi was to prove the perfection of the native language, opposing the Turkic and Persian languages.

Key words: poet-educator, wealth, thinker, generosity, nobility, peace, love for the motherland.

Вся мировая общественность широко отмечает 581- летие со дня рождения великого поэта-просветителя Алишера Навои.Трудно найти в нашей стране человека, который бы не знал и не любил замечательных

произведений великого узбекского поэта. Еще при жизни он был прозван «Хазрат», что в переводе с тюркского означает «Святейший».

Жизнь и творчество государственного деятеля, основоположника узбекского литературного языка, его богатое литературное наследие являются сегодня достоянием всего человечества, прекрасным образцом служения народу и Родине, прогрессу. Более пяти веков гениальные творения Навои, воспевая идеи гуманизма, мира, высокие человеческие чувства, прочно занимают достойное место в сокровищнице мировой литературы.

Неповторимый мир гениального поэта и мыслителя — это синтез общечеловеческих идей, думы и чаяния о счастье, поэтому не удивительно, что его произведения до сих пор волнуют умы и сердца наших современников. Они стали источником духовной силы, служат нравственным уроком подрастающим поколениям.

Мир Алишер Навои (1441-1501) - великий поэт и мыслитель, государственный деятель. Писал стихи под псевдонимами Навои (в произведениях на чагатайском языке (староузбекском языке) и Фарси (в персидских произведениях). Является самой крупной фигурой узбекской литературы, которая на Западе именуется как чагатайская литература, да и во всех литературах тюркских народов нет крупнее него фигуры.

В трудах наших великих предков говорится о милосердии, великодушии, благородстве, мире, любви к Родине, толерантности. Проведение подобных месячников напоминают каждому, а особенно молодому поколению, что в век глобализации важно ощущать сопричастность к построению светлого будущего государства. На сегодняшний день на молодёжь возлагаются большие надежды и ответственность. К высокой духовности и неустанной работе над собой призывают и произведения великих предков, актуальные и по сей день.

Известно творчество поэта на двух языках – тюркском под псевдонимом Навои (что в переводе означает «мелодичный», от слова наво – «музыка») и

персидском под именем Фани (что значит «бренный»). За свою жизнь Навои написал свыше 3000 газелей (лирические стихотворения), которые потом были объединены в специальные сборники – диваны.

Самым известным произведением Навои является «Хамса», или «Пятерица» - собрание из 5 поэм, написанное автором как дань уважения творчеству классику персидской поэзии Низами Гянджеви, создавшему свою «Пятерицу» в XII веке.

В «Хамсу» Навои входят поэмы «Смятение праведных», «Лейли и Меджнун», «Фархад и Ширин», «Семь планет», «Стена Искандера», написанные в разное время. Первое произведение цикла поэт написал в 1483 году, его можно назвать социально-философским. Навои описывает события, происходящие в государстве: произвол знати, феодальные войны, угнетение бедных, а также дает этому моральную оценку.

В 1484 году автор пишет романтические поэмы «Лейли и Меджнун» и «Фархад и Ширин», используя мотивы народных сказаний. В этих произведениях поэт воспевает не только чувства влюбленных, но и проблемы религии, социального неравенства, бедноты. Также в этот период написана поэма «Семь планет», в которой в иносказательной форме автор критикует отдельных представителей правящего клана Тимуридов.

И, наконец, пятой поэмой стала «Стена Искандера» о жизни знаменитого полководца и завоевателя Средней Азии Александра Македонского, известного на Востоке как Искандер Зулькарнайн. Конец 80-х – начало 90-х годов отмечены работой над историческими трудами. Навои пишет «Историю правителей Аджама», «Историю иранских царей» и «Историю пророков и мудрецов» о прославленных деятелях Востока. Также поэт создает биографию своего учителя Джами - «Пятерица смятенных» (1492).

Как итог своего жизнеописания Навои составляет диван «Сокровищница мысли», в котором собраны четыре цикла: «Чудеса детства», «Редкость юности», «Диковины средних лет» и «Назидания старости». Это

произведение, собравшее свыше 2600 газелей, считается ярким образцом лирики Навои, которое породило множество крылатых выражений, цитат и афоризмов. Высказывания Навои поражают красотой, поэтичностью и образностью.

Не менее емко творчество Навои на фарси. Известны 3 сборника стихов на персидском языке: «Шесть необходимостей», «Четыре сезона года» и «Диван Фани». Последними произведениями Навои стали поэмы «Язык птиц» (1499), философско-аллегорическое произведение, и трактат «Возлюбленный сердец» (1500), воспевающий идеального, с точки зрения поэта, правителя.

Алишер Навои принадлежал к суфийскому ордену Накшбандия, был благочестивым человеком и добровольно принял на себя аскетизм – он не был женат, не знал удовольствия от рождения детей. Как говорил о нем поэт и правитель Темуридов Захириддин Мухаммад Бабур в своей эпической поэме “Бабурнаме”:

“Без сына, без дочери, без жены, он прошел свой путь в мир, красивый, одинокий и легкий”.

Однако есть легенда о личной жизни поэта, которая гласит, что Алишер Навои и Хусайна Бойкаро влюбились в одну и ту же девушку – Гули – в юности. Благородный Навои не мог обидеть своего друга и убедил красавицу стать женой Хусайна. Говорят, что поэт носил свою любовь к Гули на протяжении всей своей жизни.

В своих стихах поэт осуждает одиночество и даже пишет замечательные строки:

“Тот, кто выбрал одиночество в качестве своей судьбы.
Не человек: он украл свою судьбу.
Он одинок с людьми, его дни горькие:
Кто-нибудь слышал хлопок одной рукой?”

Алишер Навои был описан современниками как человек с беспокойным характером, недолговечный и даже высокомерный.

“Он был человеком высокого, тонкого ума и отличного образования, – характеризует Алишера Навои Захириддин Мухаммад Бабур, – и требовал, чтобы все люди вели себя одинаково, поэтому ему было трудно с ними ужиться”.

Алишер Навои умер в Герате 3 января 1501 года, ослабленный длительной болезнью. Перед смертью он оставил мирские дела и жил как одинокий человек в келье рядом с мавзолеем своего суфийского учителя.

Человек оставил богатое литературное наследие: около 30 произведений – стихи, поэзия, сочинения. Его работы переведены на десятки языков, его книги и рукописи хранятся в крупнейших библиотеках мира.

Используемая литература:

1.Абдуллаев В. Навои в Самарканде. — Самарканд, 1941.

2.Бертельс Е. Э. Навои. Опыт творческой биографии. — М.;Л., 1948.

3.Бертельс Е. Э. Избр. труды. Навои и Джами. — М., 1965.

4.Бертельс, Е. Э. Навои и Аттор // Суфизм и суфийская литература. М.: Наука 1965, с. 377-420.

5.Болдырев А. Н. Персидские переводы «Маджалис ан-Нафаис» Навои // Учёные записки ЛГУ. — Л., 1952. — Сер. 128. — Вып. 3.

6.Боровков, А. К. Алишер Навои как основоположник узбекского литературного языка // Алишер Навои. М., 1946, с. 92-120.

7.Навои / Х. Балтабаев // Монголы — Наноматериалы. — М. : Большая российская энциклопедия, 2013. — (Большая российская энциклопедия : [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов ; 2004—2017, т. 21). — ISBN 978-5-85270-355-2.

ALISHER NAVOIY “TURKIYLAR CHOSERI” MI?

Avezova Aziza Mavlonjonovna
Chirchiq davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz adabiyoti namoyandasi, o‘rta asr ingliz adabiyotining so‘nggi yirik vakili Jefri Choser va uning ingliz adabiy tili va ingliz adabiyotining kamol topishida qo‘shgan hissasi haqida so‘z boradi.
Kalit so‘zlar: alliteratsiya, janr, satira, uyg‘onish davri, dramaturgiya, qofiya, novella, kompozitsiya.

Аннотация: В данной статье речь пойдет о творчесте Джефри Чосер, представителя английской литературы, внесшего большой вклад в развитие английского литературного языка.

Ключевые слова: Аллитерация, жанр, сатира, период пробуждения, драматургия, рифма, навелла, композиция.

Abstract: This article deals with the works of Jeffrey Choser, a representative of english literature, who made a great contribution to the existence of the english literary language

Keywords: Alliteration, genre, satire, Renaissance, dramaturgy, rhyme, novel , composition.

Faxr bilan aytish mumkinki, o‘zbekning ma’naviy dunyosini boy qiluvchi buyuk adabiy merosi bor. Ba’zan hayot tashvishlarini chetga suraman-da, qo‘limga Navoiyni olaman. Navoiydan najot istab o‘qiyman-u, kitobdan taralayotgan nurdan ko‘zim qamashadi. Har gal bosh ko‘tarsam, dunyo ko‘zimga boshqacha ko‘rinadi, atrof yorishib, hamma tashvishlar o‘z-o‘zidan qayergadir yo‘qoladi. O‘ylasam, men Navoiy va baxt so‘zini yonma - yon, birgalikda, o‘zimcha kashf etib borayotgan

yo‘lda ekanman. Toki sinovlarga boy bu hayotda atrofga pok nazar ila qarashga undaydigan Navoiyning “Xamsa”si bor ekan, kelajak sari baxtli va dadil qadam tashlashdan baxtiyor bo‘lmog‘imiz kerak.

Yaqinda internet tarmog‘ida AQShlik islomshunos olim Barri Xobermanning “Saudi Aramco World” jurnalida chop etilgan maqolasi e’tiborimni jalb qildi. Maqola Navoiy haqida edi va unda butun dunyo hazrat Navoiyni tan olishi juda chiroyli dalillar bilan asoslangan. Navoiyni “Chauser of Turks” ya’ni “Turkiylar Choseri” deya e’tirof etishibdi. Aslida, Choser kim? Bugungi kun o‘zbek o‘quvchisiga Choser shaxsi tanishmi? Nima uchun taqqoslangan? Keling, bugungi maqolamizni Choser shaxsiyati bilan tanishishdan boshlasak.

Jefri Choser o‘rta asr ingliz adabiyotining so‘nggi yirik vakili bo‘lib, uning ijodi ingliz adabiy tili va adabiyotining kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, uni ingliz tili va ingliz realistik adabiyotining asoschisi, deb ham atashadi. Choserning ijodi ingliz adabiyoti tarixida o'rta asrlardan Uyg'onish davriga o'tishda hayotni tasvirlashning yangi tamoyillarini belgilab, inson xarakterini ochib beradi hamda ko'p jihatdan o'rta asrlar madaniyati an'analari bilan bog'liq holda, uning eng yaxshi yutuqlari va xususiyatlarini aks ettiradi. Choserning ijodi yaqinlashib kelayotgan Uyg'onish davriga xos bo'lgan insonparvarlik va erkin fikrlash g'oyalarini o'zida mujassam etgan.

O'rta asrlar san'ati an'analarini idrok etgan holda, Choser ularni dunyo va inson haqidagi o'ziga xos keng ko'rinishga muvofiq qayta ko'rib chiqdi va o'zgartirdi. O'rta asr an’analaridan voz kechgan holda u insonning yer yuzidagi baxtga bo'lgan huquqini da’vo qiladi, uning aqli va kuchiga qoyil qoladi, uning topqirligi va hayotga muhabbatini ulug'laydi. Choser o'zini namoyon etishning barcha shakllarida hayotni sezishni,uni sevishni, hayotdan zavqlanish hissini, hayot haqiqatining barcha shakllarini qadrlaydi. Choserning ijodiy evolyutsiyasi bilan ingliz realizmining shakllanish jarayoni o`rtasida bog`liqlik bor, deyishimiz asoslidir.

Choser uchun o'rta asr she'riyatining qonunlari chegaralangan, tordek tuyuladi va u zamonaviy italyan, fransuz yozuvchilari tajribasidan foydalangan holda

ingliz adabiyotini yangi, mukammal janrlar bilan boyitadi. (psixologik she'riy roman, she'riy novella, qasida).

Choser ingliz adabiyotining satirik an’analariga asos soldi. Uning kulgi darajasi turli xil bo`lib: zararsiz, yengil hazil va ayyor, masxaradan tortib, beadab hujumlar va dadil qoralashlarga, hazil tanbehdan qo'pol komediyaga qadar ko`rinishlarga ega. Choser qanday qilib ajoyib, dadil va ochiqchasiga gapirish usullarini ishlab chiqadi va o`zi ham shunday qila oldi. Hayotni bilishi va uni to`laqonli sezishi unga odamlar haqida to'liq haqiqatni gapirishga, ularning yomonliklari va fazilatlarini, yuqori kayfiyat va past fikrlarini tasvirlashga imkon beradi. Choser ijodi butun ildizlari bilan Angliya milliy hayotiga bog'liq edi. Lotin, fransuz va italyan tillarini mukammal bilishiga qaramay, u faqat ingliz tilida, London dialekti asosida, asarlar yozdi va bu bilan ingliz adabiy tilining shakllanishiga katta hissa qo'shdi.

Shoirning tarjimayi holi uning ijodi haqida ko'p narsani tushunishga yordam beradi. Choser 1340- yilda Londonda badavlat vino sotuvchisi oilasida tug'ilgan. Otasi podshoh saroyiga vino yetkazib beruvchi edi. Choser bolaligidan shahzoda Layonelaning (Angliya qiroli Eduard III ning o‘g‘li) xotini Yelizavetaning mahrami bo‘lib xizmat qilgan. . U fransuz tili va fransuz madaniyati muhitida shakllandi. Yoshlik yillaridayoq bi necha bor Fransiyaga qarshi harbiy yurishlardaishtirok etdi. Ulardan birinchisida, 1359-yilda fransuzlar tomonidan asirga olingan. So‘ng Londonga qaytgach, qirol qasrida nufuzli mansabdorlar xizmatkori va qurolbardor sifatida xizmat qilishni davom ettiradi.

Choser adabiyotga kuchli mehr qo‘ydi. U Virgiliy, Goratsiy, Yuvenal va Ovidiylar asarlarini juda yaxshi ko'rgan va sevib o`qigan. U o'rta asr mualliflarining lotin yozuvlari bilan tanish bo'lgan va zamonaviy fransuz shoirlari asarlarini ko`p o'qigan. 1370- yildan boshlab Fransiya va Italiyada diplomatik topshiriqlarni bajarish bilan mashg`ul bo`ladi. U o'sha davrning eng rivojlangan Yevropa mamlakatlari hayoti va madaniyati muhitiga sho'ng'idi. Choser Italiyaga ikki marta tashrif

buyuradi. Dante, Bokkachcho va Petrarka asarlari bilan yaqindan tanishish bo‘lajak ingliz shoiri ijodiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

O'z vataniga qaytgach, London portida bojxona nazoratchisi lavozimida ishlaydi. 1374-1386 yillar - ijodining eng muhim va gullagan davri bo`ldi. U bojxona nazoratchisi ishini adabiyotshunoslik bilan birgalikda olib bordi. Choser hayotidagi vaqtinchalik farovonlik davrlari muvaffaqiyatsizliklar va moddiy tartibsizliklar bilan almashdi. U boylik va qashshoqlik nima ekanligini yaxshi bilardi; u nafaqat qirol saroyi hayotidan, balki kambag'al aholi turmush tarzi bilan ham tanish edi. Choser yuqori lavozimlarni egallagan, ammo saroydagi fitna-yu ig‘volar va nufuzli homiyning kutilmagan o'limi uni o'z joyidan ham, maoshidan ham mahrum qildi. U sudya va parlament a`zosi, qirollik mulklari nazoratchisi va Temza bo'ylab devorlar, ariqlar va ko'priklar ustidan nazoratchi kabi lavozimlarda ishladi.

Jefri Choser 1400- yilda Londonda vafot etdi. U “Vestminster abbatligi”da dafn etilgan. Uning qabri keyinchalik tashkil etilgan “shoirlar burchagi”da birinchi bo‘ldi.

Choser she’riy merosining mavzu ko‘lami keng va xilma-xildir. U o‘rta asrlar adabiy an’analari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan asarlarni o`z ichiga oladi. Choser tarjima sohasida ham faoliyat yuritdi: Guillaume de Lorrisning "Atirgul haqidagi roman" nomli fransuz asarini ingliz tiliga o‘girdi. O'rta asrlarda keng tarqalgan “qarashlar”ga munosabat, uning "Gersoglik kitobi" da (The Book of the Duchesse, 1369), "Shon-sharaf uyi" (The House of Fame, 1379-1384), "Qushlar parlamenti” (The Parlament of Foules, 1377-1382) asarlarida atroflicha yoritib berilgan. Bu she’rlarning mazmuni saroy hayoti bilan bog‘liq. "Ulug`vor ayollar afsonasi" asari ham (The Legend of Good Women, 1385) antik davrning mashhur ayollari - Kleopatra, Dido, Ariadna va boshqalarning baxtsiz sevgisi haqidagi hikoyalarni o`z ichiga oladi .Bu asarlarning o'ziga xosligi shundaki, Allegoriya (majoz)–ramzning bir ko‘rinishi sifatida, voqea-hodisa yoki narsa-buyumning mavhum tushunchasi o‘rnida aniq tasvirni ifodalovchi ramziy so‘z (obraz)ni qo‘llash orqali adabiy asarda o‘quvchiga noaniq bo‘lgan tushunchani

ko‘pchilikka ma‘lum bo‘lgan narsalarga xos belgilar bilan ifodalash usulining qo`llanishidir.

Choserning “Troil va Xrizeida” (Troilus and Criseyde, 1372-1384) poemasining yaratilishiga Bokkachchoning "Filostrato" poemasi asos bo`lgan. Bu asarni yaratishda shoir she’riy roman shakliga murojaat qilgan. Asar Priamning o'g'li Troilning Xrizeidaga bo'lgan muhabbati va Xrizeidaning xiyonati haqida hikoya qiladi. Choserning qahramonlari to‘qima obrazlar emas, balki real shaxslardir. Ular Choserning zamondoshlari - XIV asr inglizlariga xos tarzda o‘ylaydi, fikrlaydi va his qiladi. Bu poemada Choserning xarakter yaratishdagi mahorati yaqqol namoyon bo‘ladi, u inson yuragini,dil izhorlarini ifoda eta oldi.

Choser Bokkachcho ijodiga qayta-qayta murojaat qildi. Bokkachcho ("Dekameron", "Tezeida" poema) asarlaridan "Kenterberi hikoyalari" uchun syujet va obrazlarni oladi. Biroq, Choser va Bokkachcho asarlarini solishtirganda sezilarli farq kuzatiladi: Bokkachchoning hikoyalarida asosiy e’tibor fabula (adabiy asardagi voqealarning mazmuni), harakatiga qaratilsa, Choserda qahramonlar xarakterining ochib berilishi asosiy planga chiqadi. Bokkachcho Uyg'onish davri hikoya san'ati uchun asos soladi, Choser ijodi esa dramatik san’atning asoslarini vujudga keltiradi.

Choserning “Kenterberiya hikoyalari” (The Canterbury Tales, 1387-1400) asari ingliz adabiyoti tarixida butun bir davrni tashkil etgan va uning rivojida tub burilish yasagan asardir. Choser asar ustida taxminan 80-yillarning o'rtalarida ishlashni boshladi, lekin o'z rejasini to`liq amalga oshirishga ulgurmadi. Biroq, hozirgi ko'rinishida ham kitob ichki yaxlitlikni tashkil etadi. Choser zamonaviy Angliyaning keng va yorqin tasvirini yaratdi va uni to'laqonli obrazlar va tasvirlar galereyasida taqdim etdi. [1]

Jefri Choser o‘zining yaratgan asarlari va sinchkov kuzatuvchi sifatida tasvirga olgan qahramonlari orqali ingliz tili va adabiyoti rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi. O‘sha davrlarda fransuz va italyan tillari nisbatan yaxshi rivojlangan va mana shunday sharoitda maydonga kelgan Choser ingliz tili imkoniyatlari ham hech

kam emasligini amalda isbotlab bera oldi va Dante kabi yakka o‘zi kurashib o‘z tilini dunyo tillari ro‘yxatiga kirita oldi.

Navoiy ham Choserning xalqi oldidagi amalga oshirgan buyuk xizmati kabi o‘z zamonasida forsiy va arab tillarining dovrug‘i baland bo‘lishiga qaramay, turkiy tilda ijod qilgani va turkiy tilning boyligi, aniqligi, jozibasi, har qanday qoliplarga moslashuvchanligini isbotlab bergani, til nuqtayi nazaridangina “Turkiylar Choseri” deya e’tirof etilgan ekan. Navoiy ijodining mavzu va hajm ko‘lami shu qadar kengki, u insonni komillikka, yetuklikka undaydi. Zero, chex olimi Yan Ripka aytganidek, “Alisher Navoiy jamiki go‘zalliklarning buyuk homiysidir”.[2]

O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,

Oltin boshning kalla bo‘lgani shudir.

Bedil qolib Demyan Bedniyni suysa,

Qora sochning malla bo‘lgani shudir.

1. Джеффри Чосер // Аникин Г.В., Михальская Н.П. История английской литературы: - М.: Высш/ школа, 1982, с 21 -26.

2. “Til va adabiyot” jurnali 2021-yil 1-son

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Omonulla Madayev “Navoiy suhbatlari” 2018-y.

2. Barri Xoberman “Tarixda to‘rtta Navoiyni ko‘raman” maqolasi 1-2 bet

3. Джеффри Чосер // Аникин Г.В., Михальская Н.П. История английской литературы: - М.: Высш/ школа, 1982, с 21 -26.

4. Jefri Choser gaqida: Howard D.R. Geoffrey Chaucer. London: Macmillan, 1976. - 219 p* Norton-Smith I. Geoffrey Chaucer.-London, 1974 - XII. 274 p.

5. Английская литература среднего века, М., Наука, 1983.

6. "J.Chauser ". Encyclopædia Britannica (12th ed.). 1922



ALISHER NAVOIYNING “LISON UT- TAYR” ASARIDAGI MILLIY VA TARIXIY KIYIM NOMLARINI - XOS SO’ZLARNI INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

Berkinova Gulshan

Namangan Davlat Universiteti, Jahon tillari fakulteti, Adabiyotshunoslik(ingliz adabiyoti) yo’nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Lison ut- tayr” asarining inglizcha tarjimasidagi o’zbek milliy, tarixiy liboslarining ingliz tilida ifodalanishining o’ziga xos xususiyatlari va muammolari haqida fikr yuritilgan

Kalit so’zlar

Tarjima turlari-transkriptsiya, transliteratsiya, izohlash, tushuntirish, sharhlash, muqobil variantlaridan foydalanish;

Аннотация

В данной статье показаны отдельное лексические единицы из произведения Алишера Навоий “Лисонут-таур” в переводе на английский язык их методическое своеобразие подачи и проблемы.

Ключевые слово

Лексическая единица,словосочетание,фраза,альтернативный вариант,смыслово сходство

Annotation

The article deals with problems and special features of words related to the national and historical costumes of the Uzbek nation ,which are used in the translation variant of “ Lisonut-tayr” by A.Nava’i.

Key words

The types of translation;transcription,transliteration,feedbacking,explaining,

using alternative variants.

Bugungi kundagi jahon adabiy jarayonini kuzatar ekanmiz,buyuk mutafakkir bobomiz,Alisher Navoiy ijodiga bo’lgan qiziqishning yanada ortayotganligini ko’rishimiz mumkin.Hozirga qadar, Alisher Navoiyning nasriy asarlari,g’azallari,ruboiylari,tuyuqlari va boshqa lirik me’rosining namunalari ham dunyoning turli tillariga, o’zbek va xorij tarjimonlari tamonidan o’girilmoqda. Alisher Navoiy asarlarini o’rganish, tadqiq etish, ularda mujassamlashgan ma`naviy imkoniyatlardan bugungi ma`naviy-ma`rifiy jarayonlarda foydalanish jamiyatimiz a`zolarini, ayniqsa, yoshlarni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi

O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarining ingliz tiliga qilingan ilk tarjimalari ham, tabiiyki,Alisher Navoiy nomi bilan bog‘liq.

Alisher Navoiy ijodini o‘rgangan va uning “Lison-ut-tayr” asarini ingliz tiliga tarjima qilgan kanadalik Geri Dik Navoiyga “Dunyoni ma'naviy tanazzuldan qutqara oladigan ko‘ngil bog‘ining bog‘boni” deya ta'rif beradi.“Lison-ut-tayr” asari o‘zbekchadan inglizchaga, Sharofiddin Sharipovning 1991- yili nashr etilgan nasriy bayoni asosida, kanadalik tarjimon Gerri Dik hamda o’zbek tarjimonlari Nosir Qambarov va Tursunxo’ja Mahmudxo’jayevlar tomonidan tarjima qilingan. Asar 2003- yilning kitob holida nashr ettirildi.

Alisher Navoiy bu asarini umrining oxirgi yllarida 1499- yilda yozgan.Vaholanki, bunday asar yozish Navoiyning 8-9 yoshligida Faririddin Attorning “Mantiq ut- tayr” asarini o’qib, ilhomlangani va albatta unga javoban bir asar yozishga niyat qilganini, biz Navoiyning tarjimai holidan yaxshi bilamiz.Va Alisher Navoiy butun umri davomida chiqargan hayotiy mushohadalarini shu asarida ifoda etgan.

Hozirgi kungacha, inglizzabon olimlar Navoiy asarlarini ingliz tilga o‘girishga kirishmagan edilar, lekin vaqt o‘tishi bilan bunday kamchiliklar bartaraf etildi. Va nihoyat, o‘zbek mumtoz adabiyotining asoschisi Alisher Navoiyning o‘lmas asari “Lison ut-tayr” birinchi bor o‘zbek tilidan, ingliz tiliga bevosita tarjima qilindi. “Lison ut-tayr”da Alisher Navoiy xayolini band etgan diniy va dunyoviy masalalar bilan oshno bo‘lasiz. Dunyoga kelgan har bir inson hamisha talab yo‘liga kirishi, izlanishi o‘z yoriga, kasb-u koriga chin muhabbat bilan yondashuvi lozim, ma`rifatga, kamolotga intilish zarur. Bu kabi hamisha dolzarb, mangu mavzular teran

ifodalangan adabiy asarni, hammaga tushunarli, ravon qilib, ingliz tilida mahorat bilan ifodalash bir sa`natdir.

O‘zbek xos so’zlarini ingliz tiliga tarjima qilishda transkriptsiya, transliteratsiya, izohlash, tushuntirish, sharhlash, muqobil variantlardan foydalanish kabi tarjima usullari samarali usullardan hisoblanadi.

Vaqt zamon o‘zgarishi bilan odamlar ham, ularning yashash tarzi, qiziqishlari va xatto kiyinishlari o‘zgaradi. Qadimda o‘zbek ayollari uzun beqasam choponlar, englari juda keng atlas ko‘ylaklar, boshlariga tillaqosh va zeb-ziynatlar taqishgan, oyoqlariga kavushlar kiyishgan. Hozir esa, bunday kiyimlar kiyish kundalik hayotda foydalanilmaydi. Yoki erkaklar salla, chopon, yaxtak, oyoqlarida maxsi-kalish bo‘lgan.Hozirda bu kiyimlar kostyum shim, yoqali ko‘ylaklar, tuflilar bilan almashtirilgan. Bu liboslar umuman iste`moldan chiqib ketmagan, faqat ularning o‘rnini zamonaviylari egallagan.

Faqatgina biron bir xalqning rivojlanish tarixi,madaniyati bilan bog’liq bo’lgan so’z va iboralarni boshqa bir tilga o’girishda,tarjimon turli qiyinchiliklarga duch keladi. Chunki, har bir xalqning o‘ziga xos urf-odatlar va udumlarni milliy turmush tarziga xos bo‘lgan so‘zlarni tarjimada berish anchagina qiyin masaladir. Va tarjimondan etarli mahorat talab qiladi. Tarjimon bo‘lsa, o‘sha odatlaru, rasm-rusmlarni ham, o‘zga xalqlarning diniy udumlari, atamalari, kiyim nomlari (salla, do‘ppi, chopon, kavush, mahsi)ni bilishi shart. Chunki, har bir xalqning urf-odatlari, milliy o‘ziga xos xatti-harakat va qiliqlari, yumor xususiyatlaridan habarsizlik tarjimonga pand berib qo‘yadi.

Asarda xos so‘zlar ingliz tarjimoni tomonidan mohirlik bilan o‘girilgan. Tarjima jarayonida tarjimon milliy koloritni to‘laligicha saqlab qolishga xarakat qilgan, chet til kitobxoniga tushunarli bo‘lishi uchun ko‘plab ta`riflar (snoska)lardan, izohdardan foydalangan. Ism realiyalar, familiyalarni iloji boricha asl tilga yaqin holda tarjima qilishni, ya`ni transkriptsiya usuli orqali amalga oshirgan.

Demak, tarjimon oldida XV asrda yashagan o‘zbek xalqining (odamlarning) kiygan kiyimlari ingliz kitobxoniga etkazish va ularda o‘zbeklar haqida, tasavvur hosil qilish muammosi paydo bo‘lgan.

Misol uchun, quyidagi tarixiy va tasavvuf tariqatiga oid kiyim nomlarini tarjimonlar kitobda shunday ifodalashgan:

Xirqa - an`anaviy musulmonlar kiyimi - Customary Muslim clothes;

Janda - xalat (chopon)- Robe

Zunnor - xristiyanlik belbog‘i - Christian's belt

Yashil chakmon - Green jacket -yashil jaket-kamzul

Bo‘yra to‘n - o‘tdan(maysadan tikilgan) chopon - Grass robe;

Xirqa - shayxning kiyimi - The clothes of a sheik

Kovush - Islamic footwear -musulmonlarning oyoq kiyimi.

Turban - Salla

Xassa - Staff- hassa(uzun tiranadigan)

Rido - Religious garb - diniy libos

Notched crown - o‘yma toj

Golden helmet - oltin qalpoq

Zunnor - Christians cord - xristyanlik belbog‘i

Pirlik xirqa - Old robe - eski chopon

Ko‘ylak - Dress- ko‘ylak

Xirqa - Sheiks robe - shayxning to‘ni

To’n - Robe - to‘n, chopon

Rags of a dervish - Darveshning laxtak kiyimi

Tattered clothes - yirtiq, juldur kiyim

Brocaded robe - zar to‘n

Endi bu so’zlarning asardagi qo’llanishiga qaraydigan bo’lsak,inglizzabon tarjimonlar xorij kitobxonlariga tushunarliroq bo’lishi uchun bir kiyim nominini izohlovchi so’z bilan birga berganliklarini guvohi bo’lamiz.

U hiyla bilan egniga xizrnikiga o‘xshash yashil chakmon tashlab olgan bo‘lib, o‘z nafsini ana shu yashil rang bilan xursand qilib yuradi. He had a **green robe** on like the one Hizr used to wear and his lust was satisfied by that green color . Bu masxaraboz o‘z boshiga kungurali toj qo‘ydi.

Finally the clown put a **notched crown** on top of his head.

Bir kuni u aysh jomidan nush etayotib ko‘chadan o‘tib borayotgan **janda** kiygan ikki darveshni ko‘rdi.

One day when he was in his visual state of inebriation he saw two dervishes clothed in **robes** pass him on the street.

Shayx yuvinib xirqa kiydi .(34 b)

The Shaik washed himself and put on the **customary Muslim clothes**. (73 p)

This dervish was wearing the **clothes of a Sheikh**, the material was new and his robes were decorated with green and yellow ornaments. (40 p) Bu darvish,yashil va sariq bezakli,yangi, shayxlarning choponini kiyib olgandi .(85

Yuqoridagi gaplarda tarjimonlar kiyim-bosh nomlarini ayniqsa, “chopon” so’zini “robe” bilan berishgan,aslida “chopon” deb qo’llab,tagida izoh berib ketilsa ham bo’lardi,chunki “chopon” biz o’zbek xalqining milliy kiyimimizning nomi hisoblanadi.

Misollardan ko‘rinib turibdiki o‘zbek milliy kiyimlarning nomlarini boshqa tilga o‘girish ancha mas`uliyat, bilim, mahorat talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, «Lison ut-tayr» asaridagi xos so‘zlarning inglizcha tarjimalari go‘zal, tushunarli, asliyatga yaqin ifodalangan.Xos so’zlarni o‘zbekcha inglizcha tarjimalari qiyosiy jihatdan o‘rganib chiqilgan. Har bir tarjimon uchun biror millatga xos so‘zlarni, tushuncha va iboralarni o‘z tilida tushunarli qilib etkazish bir oz qiyinchilik tug‘diradi. Lekin, Gerri Dik uchun tarjima jarayoni katta qiyinchilik tug‘dirmagan bo‘lsa kerak, chunki u o‘zbek xalqi bilan yaqindan tanish bo’lgan. Umuman olganda «Lison ut-tayr» ingliz tilida sodda, go‘zal, tushunarli va ommabop kitob sifatida nashr ettirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy . “Lisonut –tayr” (nasriy bayoni bilan).Toshkent.Adabiyot va san’at nashriyoti

2. Alishir Nava‘i. “The language of birds”. Presented by Gary Dyck and Nasir Kambarov. Printed in Tashkent, 2003.

3. www.lingvo-plus.ru/perevod-realiya/

4. https://ru.wikipedia.org/wiki/Реалия

5.study-english.info/article075.php

ALISHER NAVOIY IJODIDA NAFS TARBIYASI

Jo`rayeva Muhabbat Amonovna
Buxoro davlat universiteti o`zbek adabiyoti yo`nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada muntoz adabiyotda nafs talqini va uni Alisher Navoiy ijodida tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Nafsni zulmatga qiyoslagan shoir o`z lirik qahramoniga ibodatni chora qilib ko`rsatadi. Navoiy asarlaridagi nafs obrazi, ko`pincha, insonni malomatga qo`yuvchi vijdon azobi ma’nosida qo`llaniladi va nafsni eng katta dushman sanaydi;

В данной статье рассматривается трактовка похоти в обычной литературе и его воспитательное значение в творчестве Алишера Навои. Сравнивая нафс с тьмой, поэт показывает своему лирическому герою молитву. Образ похоти в творчестве Навои часто используется в смысле угрызений совести и считает похоть величайшим врагом;

It discusses the interpretation of lust in the literature and its educational significance in the works of Alisher Navoi. Comparing the "lust" to the darkness, the poet showed his lyrical hero a worship as a way of loosing sorrows. The image of lust in the works of Navai is mostly in the sense of a guilty conscience and considers lust as the biggest enemy.

Kalit so’zlar: tasavvuf, nafs, Qur’oni karim, shayton, fano, oshiq;
мистицизм, похоть, Коран, сатана, преходящее, возлюбленный;
mysticism, lust, Qur'an, satan, transient, lover.

Tasavvuf va diniy ta’limotga ko`ra, har narsani bilguvchi, bildirguvchi, yo`lga soluvchi, yo`ldan ozdirguvchi ham, foydaga ham, zararga ham yetishtirguvchi, beruvchi va oluvchi ham Ollohdir. Inson bu dunyoda ko`ngilni Ollohga bag`ishlab to`g`ri yo`ldan yursa kifoya. Komillik amallariniga roya qilsa, komillik amallariga yo`l ochguvchi ham Ollohning o`zidir. Ammo bu amallarni bajarish insondan

bo`lgani bois ham qaysi yo`ldan yurmoqlik uning ixtiyoridadir. Har bir yomon amalning boshida nafs turadi. Mumtoz adabiyotda nafs mavzusi inson bilan bog`liq muhim hayotiylik bo`lgani sababli ham buyuk ijodkorlar, so`fiylar asarlarida, tasavvuf g`oyalarida buy o`ldan insonni qaytarishga harakat qilinadi. Barcha yaratilgan narsalarning eng yomoni nafsdir. Najmiddin Kubroning “Ko`nglim ko`zi bilan ko`rganlarim” asarida shunday deyiladi:

“Dunyo va uning bezaklari, havas va shayton, hamda ularga bog’liq bo’lgan narsalardan uning ko’p yordamchilari bo’lib, har bir yordamchisining dunyoviy hayotni bezatuvchi narsalardan lashkarlari va xizmatchilari bor. Misol suratda ko’p yemoq, ko’p uxlamoq, ko’p kulmoq, oshiqlik qissalarini tinglamoq, dunyoni sevmoq, boylikni tanlamoq, takabburlik, hasad, g’iybat, yomonlik bilan shug’ullanmoq, ichimliklar ichib gunohga qo’l urish, turli o’yinlarga berilib, foydasiz ishlarga urinish, mol-mulk yig’ib istaklar va orzular ipini cho’zish, yomonlikka buyurib, yaxshiliqdan voz kechtirish, istak-havas va surur (xursandchilik), imorat va tijorat (uy-joy qurish va savdo)ga ko’ngil bog’lab yomonni yaxshilash; boshqalar sir-asrorlarini fosh etish, chegaradan (axloq va odob chegarasidan) chiqish, botildan yordam so’rab haqni inkor etish, dunyoparastlarga hurmat bildirib, oxirat ahdini haqorat qilish, shular jumlasidandir”.

Inson o`z nafsini butun umr tarbiya qilishi lozim. Alisher Navoiy asarlarida ham bu g`oya asosiy o`rinda turadi.

Gadoi maykadai ishq boshu shohi kun,
Maxoh xostai nafsu harchi xohi kun.
(Ishq mayxonasining gadosi bo’lu, podshohlik qil!
Nima istasang qilu, nafsingning so’ziga kirma!)

Bu misralarda davat ruhi yetakchilik qiladi. “Quroni karim” manbasidagi yoki mumtoz adabiyot na’munalari Yassaviy ijodiga, Kubro, Rumiy asarlariga murojaat qilsak ham xuddi shunday uslubning yetakchilik qilishini sezamiz. Misralarda “Ishq” Olloh timsolidir. Olloh dargohiga yetish –ishq mayxonasining gadosi bo`lish va shu gadolik –barcha istaklardan voz kecha olgan toza iymon insonni podsholik

darajasiga, yani Ollohga yetishga , o`zini anglashga olib boradi. Bu yo`lda esa eng asosiy ish faqatgina nafsning yo`liga kirmaslik. Xolos. Biz yuqorida takidlagan barcha narsalarning eng yomon nafs ekanligini Navoiy tilidagi “nima qilsang ham nafsning yo`liga kirma”! undovi orqali yana bir bor anglaymiz. Nafs va aql bir-biriga dushmandir. Aql ibodatga yetaklagan payt ko`z-u ko`ngil unga ergashadi. Agar ko`z-u ko`ngil nafsning domida qolsa zulmatda yo`lsiz qoladi. Uni poklashning birdan-bir yo`li esa chin ibodatdir. Navoiy quyidagi misralarida aynan shu ma’noni nazarda tutgan:

Zn nafsi tira, ilohi, chu nest roh ba tu,

Juz in chi chora, ki oram az o` panoh ba tu?

(Tangrim, zulmat nafs jihatidan senga borishga yo’l topolmagach,

u badnafsdan panohingga sig’inishdan boshqa nima choram bor?)

Nafsni zulmatga qiyoslagan shoir o`z lirik qahramoniga ibodatni chora qilib ko`rsatadi. Navoiy asarlaridagi nafs obrazi, ko`pincha, insonni malomatga qo`yuvchi vijdon azobi ma’nosida qo`llaniladi va nafsni eng katta dushman sanaydi:

Bo’lub nafsingg’a tobi’, band etarsen tushsa dushmanni,

Sanga yo’q nafsdek dushman, qila olsang ani qil band.

Ishq yo`lida nafs yo`ldan ozdirguvchidir. Uni tarbiya qilmaguncha ko`ngil poklanmaydi:

Desang, bu yo’lda o’lay, nafsni burun o’ltur,

Ki ishq shar’ida go’yo bu nav’ keldi qisos.

“Lison ut-tayr” g`oyalarida ham Fano vodiysiga yetish bosqichlari, aslida o`z nafsini yengish kurashlaridir.

Asarning ikkinchi bobida tavba zikri bayon etiladi:

Yuz havo boshimg`a solib nafsi shum

Xayli shayton aylabon har yon hujum

Bunda foniy inson holati tasvirini ko`rishimiz mumkin. Shum nafs boshga har baloni soladi va nafs bor joyda shayton to`dalari har yondan hujum qiladi.

Nafsni yengish yo`lidagi riyozatga Hudhud tomonidan yetaklanadi.Hudhudning barcha qushlarni yo`lga da’vat qilishdan maqsadi ham quyidagicha bayon qilingan:

Bo`lg`osiz sirru riyozat voqifi,

Shoh birla nafsingizning orifi.

Yo`l davomida har bir qush uzriga aytgan sabablari ham barchasining havoyi nafsga berilib yashaganligini isbot qiladi. Masalan, bulbul uzriga berilgan Hudhud javobi:

Sen kibi olamda nodon bo`lmag`ay,

Nafsqa ma’muri farmon bo`lmag`ay.

Kabutar uzriga Hudhud javobi:

Tog` aro dersenki tuttum inzivo,

Inzivo ermas ul nafsu havo

Bu misralarda tog`da o`z tinchligi, xurramligi, ayshi ila yashagn kabutarning qanoat va taqvo uchun emas, atrofidagi tayyor ne’matlardan kecholmaganini nafsga berilishligini anglaymiz.

Bir qushga aytilgan hikoyatda esa:

Tolibi solikka illatlar bo`lur,

Nafs xaylidin mazallatlar bo`lur.

Ko`rib turganimizdek, inson vujudidagi nafsi havoni yengmasa Ollohga tomon borolmaydi. Nafs har vujudda voqifdir, ammo undan keladigan zalolatlarga yo`l qo`ymaslik lozim. Havoyi nafsdan poklangan ishqda oshiqqa bu dunyo ne’matlarining qizig`i qolmaydi. Buni quyidagi g`azal misralari isbotida ham ko`rishimiz mumkin:

Ishq agar bo`lsa havoyi nafsdin pok, ey ko`ngul,

Yo`q tafovut dilbaring gar beka bo`lsin gar mirak.

Yoki Navoiyning quyidagi misralariga e’tibor bersak:

“To hirsu havas xirmani barbod o’lmas,

To nafsu havo qasri baraftod o’lmas.

Toki nafsni tarbiya qilmaguncha komillik maqomiga erishib bo`lmasligining guvohi bo`lamiz. Nafs shunday gunohdirki, u mudom o`ziga tortadi va ishrat mayini quygani quygan.

“Nafskim, ul ayshini mudom istagay,

Sanga gunoh o’ziga kom istagay.

Navoiy nafsni ilonga tashbeh qiladi va u chaqib ziyon yetkazmasligi uchun inson o`zini ehtiyot qilmog`i lozimligini uqtiradi. Navoiyning “Nazm ul-javoxir” asarida ham nafsni yengish, nafs hiylalari oqibatlari, komillikka erishshish g`oyalari bayon qilingan tarjima bitiklar ko`p uchraydi. Bu bitmishlar tufayli Navoiyning tasavvufona qarashlarini bilib olishimiz mumkin.

U nafsini yenga olgan, Ollohga itoatgo`y “faqr-u fano”lardan (“Toki Foniy bu o`tkinchi dunyog`a mansub ekan, uning siyratini faqru fano tariqida tutgil”) bo`lmoqni istar edi. shu sababli ham qanday insonga rahmat va la’nat yog`ilishini aytdilar, nafsning ko`rinishlaridan biri “dahr dinori-yu gavhar”ga qul bo`lgan yoki ko`nglini hamisha ulardan ozoda tutolgan insonni vasf etdilar :

(9. Lu’ina abdud-dinari va lu’ina abd ul-dirhami) hikmati

Rahmat ozodag`aki, ul olmas,

Dahr dinori-yu gavharin g`amga.

Lek la’nat angaki, qul bo`lgay:

Xoh dinoru xoh dirhamg`a.

Haq yo`liga kirgan inson birinchi navbatda nafsiga o`lim sharobini tutadi. Hazrati Ali hikmatlari asosidagi Navoiy ruboiyotida ham xuddi shu fikr ilgari tutiladi. Bu fikrlarning Yassaviy ijodi bilan mushtarakligini ham sezishimiz mumkin:

(95.Ro’il-haqqa inda g`alabotin-nafsi)hikmati

O`rmoqta mal zar’I fano dosini tut,

Iblis buy o`lda, aql vasvosini tut,

Haq yo`lida nafsingga o`lum kosini tut,

Nafsing g`alaboti vaqti haq posini tut.

Nafsdan kechgan insonda saxiylik paydo bo`ladi. Agar nafs baxillik qilsa komil unga qarshi turmog`i lozim. Ishq yo`lida jon chekuvchi nafaqat bu dunyo nematlaridan balki, ruh vasvasalaridan ham ozod bo`lgan holda Haq qoshiga yetib boradi, bunday axiylikning shartini esa Navoiy shunday izohlaydi:

(40. Jud bimo tajidu sadaq al-amri)hikmati

Maydoni saxo ichra jalolat ko`rguz,

Topqonni berur amriga odat ko`rguz,

Buxl aylasa, nafsingga adovat ko`rguz,

Har nimaiki topilsa, adovat ko`rguz.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, Navoiy komil inson qiyofasini yaratish uchun insonga eng birinchi nafsini yengishi kerakligini o`z asarlari g`oyasiga singdirgan va badiiy adabiyotning tarbiyaviylik funksiyasini ijodining eng oldingi shartlaridan biri deb bilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Abdulhakim Shariy Jo`zjoniy. Tasavvuf va inson. – T.: “Adolat”, 2001, 88-b
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami(19-tom). Devoni Foniy.T.: Fan, 2002, 237-b
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami(1-tom). Badoye ul-bidoya.T.: Fan, 1987, 112-b
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami(12-tom). .T.: Fan, 1996, 72-b
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami(2-tom). Navodir un-nihoya. T.: Fan, 1987,
6. А.Навоий. МАТ. 20 томлик, 14-том. – Тошкент: Фан. 1998. – Б. 259
7. А.Навоий. МАТ. 20 томлик, 7-том. – Тошкент: Фан. 1991. –Б. 323
8. Alisher Navoiy . Sittai zaruriya. Muqaddas ruh qasidasi. N. Bekova , Sayfiddin Sayfulloh tarjimasida. “Fan”. Toshkent . 2008, 19-b
9. Alisher Navoiy. To`la asarla to`plami. 10- jildlik. Nazm ul-javohir. Toshkent – 2013, 584-b

ВОСПИТАНИЕ И ОБУЧЕНИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ ИДЕЯМ АЛИШЕРА НАВОИ

Нигматуллина Дилнора Мухторовна,

магистр 1 курса, ДГПИ

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогические идеи из жизни и творчества великого узбекского деятеля, выдающегося поэта, мыслителя Алишера Навои. В его созданных более шести веков назад произведениях подчёркиваются ценнейшие идеи и мысли для воспитания детей дошкольного возраста, молодёжи и нашего будущего поколения. Его педагогические идеи, взгляды и произведения служат основной методикой в воспитании для всех воспитателей и учителей, а также родителей.

Ключевые слова: разум, развитие, семья, воспитание, знания, учитель, мыслитель, духовность, гуманизм, нравственность.

Annotation: This article ehamines pedagogical ideas from the life and work of the great Uzbek figure, outstanding poet, thinker Alisher Navoi. It is emphasized that the works created by him more than six centuries ago have very valuable ideas for educating today's youth and the next generation. His creations serve as the main methodology in education for all educators and teachers, as well as parents.

Key words: mind, development, family, training, education, teacher, knowledge, thinker, spirituality.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ulug‘ o‘zbek arbobi, buyuk shoir, mutafakkir Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid pedagogik g‘oyalar muhokama qilinadi. Uning olti asrdan ko‘proq vaqt muqaddam yaratilgan asarlarida maktabgacha yoshdagi bolalar, yoshlar va kelajagimiz avlodini tarbiyalash borasidagi bebaho g‘oya va fikrlar

alohida ta’kidlangan. Uning pedagogik g‘oyalari, qarashlari va asarlari barcha pedagog va o‘qituvchilar, shuningdek, ota-onalar uchun ta’lim-tarbiyada asosiy metodika bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: aql, taraqqiyot, oila, ta'lim, bilim, o'qituvchi, mutafakkir, ma'naviyat, insonparvarlik, axloq.

В современной педагогике и в воспитании детей предполагается постоянный пересмотр и коррекция воспитательного процесса в изменяющемся потоке знания о человеке. Если обратиться к восточной и западной истории, в ней можно увидеть различные течения и направления, имеющие важнейшие задачи воспитания личности. Одним из способов воспитания и передачи знания является метод разрешения ситуации – обучение через легенды и притчи, в которых содержится мудрость веков, учат находить решения проблем, развивают мышление. Одни легенды и притчи несут мотивацию, воодушевление и вдохновение, другие – побуждают смеяться или плакать, а третьи – задуматься. Педагогика на Востоке предполагает самые различные способы постижения знания и воспитания детей. Она содержит объёмный материал по нравственному и умственному воспитанию человека.

Рассмотрим идеи и взгляды воспитания детей дошкольного возраста, нашего будущего одного из великого узбекского поэта и мыслителя узбекского народа Алишера Навои.

Алишер Навои родился 9 февраля 1441 г., в афганском городе Герат. Он был сыном крупного чиновника, из монгольского племени Барлас. Юноша получил хорошее всестороннее образование не только в Герате, но и в Самарканде. Стихи Навои начал писать уже в 15 лет, причём одинаково как на фарси, так и на тюркском языках. Когда к власти пришёл поэт и приверженец искусств Хусейн Байкара, Навои стал мулазимом (с араб. «дружинник»,приближённым правителя). В дальнейшем в 1472 г. поэт стал визирем. На своём посту Навои

оказывал большую помощь музыкантам, поэтам, каллиграфам, за что пользовался огромной популярностью среди народа. Являясь приверженцем суфийского ордена Накшбанди, Алишер Навои вёл аскетический образ жизни, никогда не был женат и не имел наложниц.

Литературное наследие Алишера Навои составляет около 30 сборников стихов, поэм и, научных работ и поэтических трактатов. Они полностью раскрывают духовную жизнь в Средней Азии, переживавшей расцвет искусств и наук в конце XV века. Объём шести его поэм составляет около 60 000 строк (мисра). Он писал на персидском, тюркском, а также на староузбекском языках. Среди его произведений, которое много раз переписывалось является «Хамса», состоящее из пяти поэм: «Хайрат ул -абрар» («Смятение праведных»), «Фархад ва Ширин» («Фархад и Ширин»), «Лайли ва Мажнун» («Лайли и Мажнун»), «Сабъаи сайёр» («Семь планет»), «Садди Искандари» («Стена Искандара»). Они были созданы на основе традиции хамса – создания пятерицы (пяти поэм). Его последним произведением Навои является «Махбуб ал-кулуб». Именно в этом произведении Навои выражены его самые последние взгляды на общество, воспитание молодого поколения и политику. Как ни странно, Навои живший 6 веков назад написал такие произведения и выражал такие мысли, что его произведения являлись и являются объектом для подражания и воодушевления в современном мире и обществе.

Навои считается одним из наиболее заметных узбекских писателей. «Чудеса детства», «Редкости юности», «Диковины средних лет», «Назидания старости» — это лирические произведения Навои на тюркском языке, которые он объединил в Диван. Туда он включил свои лучшие касыда, газели, кытъа и рубаи. Большое внимание он уделял вопросам формирования и воспитания ребенка, которого считал светилом в доме, приносящим в семью радость и счастье. Навои осуждал принуждающие методы воспитания как в школе, так и дома, выступал против телесных наказаний. По словам Алишера Навои ребёнок

— это Божий дар каждой семье, в котором заключается смысл жизни любой семьи. Ребёнок в семье — это стимул жизни, который заставляет жить и радоваться всех — без исключения, брата, сестру и родителей. Алишер Навои считал человека самым высшим и благородным существом в мире, а ребёнка — светилом, которое озаряет дом и приносит в семью радость и счастье. Поэт писал, что дети не могут отличать хорошее от плохого, поэтому с ранних лет должны находиться под благотворным влиянием воспитателей. А также Навои считал, что дети это отражение нашего будущего и поэтому мы должны дать всестороннее воспитание будущему поколению. Кроме этого он высоко ценил человеческий разум и науку: «знание и мудрость – украшение человека». Алишер Навои подчёркивает, что старание получения знаний является самым необходимым достоинством при воспитании всесторонне развитого человека. По его мнению, является фактором спасения человечества и народа от невежества и гнева. В своих произведениях мыслитель призывает людей быть умными, образованными и всегда стремиться получать знания. К примеру, в произведении «Махбуб ул -кулуб» («Возлюбленный сердец») посвящается наилучшему устройству общества. Поэт в произведении разделяет людей на достойных и недостойных, призывая хороших людей к осторожностью при общении с плохими. Это показывает о том, что поэт опираясь на свои жизненные опыты, призывает молодое поколение к всесторонней развитости и образованности.

Поймите, люди всей земли: вражда – плохое дело,

Живите в дружбе меж собой – нет лучшего удела...

Навои был против принуждающих методов воспитания как в школе, так и дома и телесных наказаний: Невежественные учителя – большой бич для школы. Учитель должен не только в совершенстве знать свой предмет и обладать

глубокими знаниями, но и понимать нужды народа, показывать во всем пример. Навои призывал прививать детям любовь к родине, уважение к человеку. Огромное место в произведениях Навои занимают вопросы нравственного и трудового воспитания. По его мнению, что воспитанность является самым главным фактором нравственности. Воспитанность помогает человеку найти свое место в обществе, стать уважаемым и иметь более высокий чин среди других. Он писал: «Самым лучшим человеком признай того, от кого будет наибольшая польза для народа». Именно столь гуманистическое мировоззрение Навои и духовно высокие достоинства его произведений обеспечили их большую популярность не только на своей Родине, но и во всем мире. Этот светлый образ гуманиста, мыслителя, просветителя, патриота Алишера Навои будет вечно жить в памяти многих поколений.

«И честь семьи, во первых честь,
Коль у тебя семья и дети есть.
Ты породил детей, но должен знать,
Как с малых лет им воспитанье дать,
Ты должен хорошо детей наречь,
Чтоб их потом насмешками не обречь.
Вторая цель твоя на пути –
Достойного учителя найти.
Все выше те, кто доброе творят,
Но за дела добра не ждут наград…
Всем жертвуют для страждущих людей,
Не думая о выгоде свое».

Мир образов и чувств Алишера Навои одухотворил поэзию народов Среднего Востока, прежде всего узбекскую литературу, первым великим представителем которой он был. Темы и сюжеты его произведений, воспринятые из поэтической традиции и из народного творчества, скоро вновь получили хождение в народной среде и были затем, в свою очередь, не раз обработаны народными певцами и сказителями. Заслуга Навои не только в том,

что он с блеском доказал неограниченные возможности узбекского поэтического творчества и создал «на языке тюрки» гениальные произведения, но и в том, что он выразил передовые, гуманистические идеи своего времени во всей их сложности, противоречивости, во всем переплетении великих прозрений и заблуждений, безудержного прославления жизни во всех ее проявлениях и печального скепсиса, прекраснодушных мечтаний и трезвого взгляда на жизнь.

Литература:

1. М.Усмонова. Слова, обозначающие дерево, в языке произведений Алишера Навои и их лексико-семантические особенности. POLISH SCIENCE JOURNAL ISSUE 1 (34) Part 1 INTERNATIONAL SCIENCE JOURNAL WARSAW, POLAND Wydawnictwo Naukowe "iScience" 2021

2. М.Усмонова . Lexical and semantic properties of phytonyms in properties of phytonyms in the works of Alisher Navoi. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. 2021

3. М.Усмонова Общая характеристика названий растений в произведениях Алишера Навои. DİL VE EDEBİYAT ARAŞTIRMALARI (8) 2013 yil Turkiya

ALISHER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” ASARIDAGI HIKOYATLARNING QIYOSIY TAHLILI

Asliddin Tohirov Baxrom o’g’li

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti

Annotatsiya: Alisher Navoiyning ijodiy merosi o’z davri, qolaversa, so’nggi besh asr mobaynidagi ko’plab ilm ahllari tomonidan o’rganilgan. Xususan, istiqlol sharofati va Prezidentimiz sa’y-harakatlari tufayli ma’naviy merosimiz, jumladan Navoiyning faoliyati va ijodini qayta talqin qilish hamda ommalashtirish imkoniyati tug’ildi.

Аннотация: Творческое наследие Алишера Навои изучалось многими учеными как его времени, так и на протяжении последних пяти веков. В частности, благодаря самостоятельности и усилиям нашего Президента у нас есть возможность переосмыслить и популяризировать наше духовное наследие, в том числе деятельность и творчество Навои.

Abstract: Alisher Navoi's creative legacy has been studied by many scholars of his time, as well as over the last five centuries. In particular, thanks to the independence and the efforts of our President, we have the opportunity to reinterpret and popularize our spiritual heritage, including the activities and creativity of Navoi.

Kalit so’zlar: Nizomiddin Mir Alisher Navoiy, Xamsanavis, Iskandar Zulqarnayn, Nizomiy, Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Iskandarnoma, Hayrat ul-abror, Faridun, Doro, Chingizxon, Tarixi mulki ajam, Xiradnomayi Iskandariy, kayoniylar, ashkoniylar, Rumu Rusda Faylaqus, Naqumohis.

Ключевые слова: Низамиддин Мир Алишер Навои, хамсанавис, Искандар Зулкарнайн, Низами, Дехлави, Абдурахман Джами, Искандарнома, Хайрат уль-аброр, Фаридун, Доро, Чингисхан, Тарихи мулки аджам, Хирадномайи Искандари, кайониылар, ашконийлар, Руму Русда Файлакус.

Key words: Nizamiddin Mir Alisher Navoi, Xamsanavis, Iskandar Zulqarnayn, Nizami, Dehlavi, Abdurahman Jami, Iskandarnoma, Hayrat ul-abror, Faridun, Doro, Genghis Khan, Tarihi mulki ajam, Hiradnomayi Iskandari, kayoniylar, ashkoniylar, Rumu Rusda Faylaqus.

Ko’pgina salaflari singari Alisher Navoiy ham Xamsachilik an’anasini davom ettirdi. Hazrat Navoiyning boshqa Xamsanavislardan farqli jihati shundaki, u o’z “Xamsa” sini turkiy tilda yaratdi.

Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning Iskandar Zulqarnayn tarixiga bag’ishlangan “Saddi Iskandariy” dostoni “Xamsa” ning yakunlovchi beshinchi dostoni sifatida yaratilgan. U ham o’z salaflari Nizomiy, Dehlaviy va ustozi Jomiy kabi oldiga tarixiy doston yaratishni vazifa qilib qo’ymagan edi. Shoir uchun Iskandar tarixiy lashkarboshi emas, balki ideal hokim, sarkarda, haqiqat izlovchi olim, tabiat, jahondagi bahru bar (ho’llik va quruqlik) tadqiqotchisi. Dostonni kitobxon qo’llanma sifatida qabul qilishi ham lozim bo’lgan o’gitlar to’plami ham deyish mumkin. Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy va Navoiylar o’z “Iskandarnoma” larini yozar ekanlar, davr talabi va o’z dunyoqarashlaridan kelib chiqqan holda u yoki bu masalani hal qiladilar. Shuning uchun Makedoniya lashkarboshisining nomi Navoiy asarlarida Iskandar, Skandar shaklida yuzlab marotaba tilga olinadi.

Alisher Navoiy ham birinchi dostonidayoq Iskandar haqida to‟xtalgan. “Xamsa” ning birinchi dostoni “Hayrat ul-abror” ning (1483) qirq sakkizinchi bobi sarlavhasi “Aflok hay’ati shikoyatidakim…” so’zlari bilan boshlanib, taqdir qanchalik o‟zgaruvchi, bu dunyo, saltanat, hokimyat o’tkinchi, Faridun, Jamshid, Doro, Iskandar, Chingizxon, Temur kabilar qachalik qudratli bo’lishlariga qaramay, olamdan o’tdilar, bu dunyoda insonning faqat yaxshi ishlari qoladi, degan pand-nasihat so’zlari bilan tugallanadi. 25 baytdan iborat bo’lgan qirq to’qqizinchi bobda Iskandar tarixi qisqa bayon etilib, shohning qo’lini tobutdan chiqarib qo’yishlari , jahonni zabt etgan shahanshoh ham bu dunyodan hech nima olib ketmayotgani hammaga ibrat bo’lsin, degan maqsadda keltiriladi:

To kishikim qilsa nazar ul sori,

Ibrat ila boqqay o’shal qo’l sori,

Bilgay anikim, yeti kishvar shahi,

Yetti falak mushkilining ogahi,

Jismida jon yo’q bu makondin borur,

Xoli ilik birla jahondin borur.

Alisher Navoiy “Tarixi mulki ajam” (1488) asarini yozar ekan, Iskandar yurishlari mavzusiga to’xtamay o’tishi mumkin emas edi. Ushbu asardagi boblarning birida Iskandarga maxsus joy ajratilib, uni Banokatiyning “Devon un nasab” , Amir Xisrav Dehlaviyning “Oyinayi Iskandariy” va Nizomiy Ganjaviyning “Iskandarnoma” asarlariga suyanib yozgani haqida ma‟lumot beradi.

“Saddi Iskandariy” Navoiy dostonlari ichida eng yirigi hisoblanadi. Doston 89 bobdan iborat bo’lib, 7215 baytni tashkil etadi. “Xiradnomayi Iskandariy” esa 2315 bayt, demak, Navoiyning dostoni Jomiynikiga qaraganda 3 baravar kattadir. “Saddi Iskandariy” “Xiradnomayi Iskandariy”dan bir necha oy oldin yozib tugallangan.

Doston muqaddimasi 14 bobni o’z ichiga oladi. Asar muqaddimasida “Xiradnomayi Iskandariy” singari nazariy qism va hikoyatlar mavjud emas.

“Saddi Iskandariy”ning muqaddimaviy qismiga xudo hamdi, munojot, pamg’ambarga na’t, me’roj va madh, shuningdek, an’anaviy parchalar sirasiga faxriya, so’z ta’rifi, kitob nazmining sababi, farzandga nasihat va shoirning muayyan maqsadga yo’naltirilgan ta’limiy, axloqiy- falsafiy boblar ham kiradi. Hamd – bu Ollohning va unga xos xususiyatlarning ta’rifi bo’lib, shu bilan

birga Parvardigorning biru borligiga iymon keltirishning yoqin namunasi. Bunaqangi tuzilma mumtoz davri adabiyotida barcha asarlarga xosdir.

Dostonning 1-bobini hamd qismi tashkil etadi. Hamd- Ollohning sifatlariga bag’ishlangan. Navoiy ushbu bobda tasavvuf ta’limoti asosida olamning yaratilish tarixiga to’xtalib o’tadi. Yaratganning buyukligiga hamd-u sano aytadi. Bularning barchasidan maqsad eng oily zot-Odamni yaratish ekanini ta’kidlaydi.

Karam birla xalq aylagay olame,

Bu olamda maqsud anga odame.

G’araz odame anga olam tufayl,

Nekim g’ayri olamdur , ul ham tufayl.

Ikkinchi bobi munojotni o’z ichiga oladi va bunda Navoiy Ollohga murojaat qilib, qilgan gunohlariga afv hamda asarni yozishga najot so’raydi.

Dostonning uchinchi bobi Muhammad payg’ambar (s. a. v.) madhiga Bag’ishlanadi. An’anaga muvofiq, na’tdan so’ng me’roj tuni ta’rifi keladi.

Falak ahli ichra alolo tushub,

Malak xayliga sho’ru g’avg’o tushub.

Maloik tutub yo’l boshin javq- javq,

Tamoshosida borcha ko’nglida shavq.

Beshinchi bobida “Xamsa”ning takmili xususida bo’lib, Navoiy bu bobda unda “Xamsa” yozish havasi ancha oldin , Nizomiy va Dehlaviy “Xamsa” larini O’qib yurgan chog’laridayoq uyg’onganini bayon qilib, ulug’ ustozlari ruhidan madad so’raydi:

Bu vodiy aro Xizr rohim bo’ling,

Qayon yuz ketursam, panohim bo’ling.

Burundun chu ko’rguzdunguz yorliq,

Base yetti sizdan madadkorliq.

Kichik erkanimdan bo’lib qoshima,

Ulug’ muddao soldingiz boshima.

Dostonning oltinchi bobi so’z ta’rifi, Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy madhini o’z ichiga oladi. Yettinchi bobi Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhiga bag’ishlanadi. Shu tariqa har bir bob ma’lum mavzuga bag’ishlangan.

Dostonning asosiy qismi 15- bobdan boshlanadi. Asosiy qism o’ziga xos kompozitsiyaga ega. Uni shartli ravishda quyidagi to’rt qismga bo’lish mumkin:

1. Iskandar voqeasi- Iskandar hayoti bilan bog‟liq biror voqea yoki hodisa bayoni

2. Nazariy masala- muayyan axloqiy muammoning ta‟rifi

3. Hikoyat- shu axloqiy masala doir hikoyat

4. Hikmat- Arastu va Iskandarning suhbati

Dostonning 15- bobida Iskandar tarixiga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Eronda to’rta sulola: peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniylar, sosoniylarning podsholari hukmronlik qilgan. Bu muddat ichida kim taxt surgan bo’lsa, ular ko’p mamlakatlarni zabt etgan, jahonga hukmronlik qilganlar. Qanchadan qancha xalqlarni mustamlaka qilgan bo’lsalar-da, ulaning qilgan ishlari shoh Iskandarning o’z vaqt ichida dunyoda qilgan ishiga baravar kelmas edi.

Yuqorida to'rt sulolaning ikkinchisidan so'ng, ya'ni, kayoniylardan so'ng Iskandar maydonga chiqdi. Kayoniylarning so’nggi vakili shoh Doro edi. Bu paytda Rumu Rusda Faylaqus degan odam hukmdor edi. Nizomiy Faylaqus tarixini yaxshi bilar va u haqda tubandagicha bayon qiladi:

Faylaqusning zurriyoti yo’qligi sababli u Ollohdan tun-u kun farzand so’rardi. U kunlarning birida ovdan qaytayotganida vayronaga aylangan bir koshonani ko’rdi. Shohni beixtiyor chopqir oyi vayyrona tomon boshladi. Vayronaga kirar ekan, bir homilador xotinning tug’ib yotganini ko’rdi. Lekin ayolning jismida jon yo’q edi. Uning oldida zor va zabun bo’lib yotgan chaqaloq yig’lab yotardi (u o’g’il edi).

Faylaqus mahramlariga buyurib o’likni dafn ettirdi-da, chaqaloqni izzat- ehtirom bilan olib, unga mehribonchiliklar qilib parvarish qildi. Unga Iskandar deb nom qo’yib, o’ziga o’g’il qilib oldi. O’limi oldidan esa o’rniga valiahd qilib tayinladi.

Ba’zi tarixchilar bu haqda boshqa so’z ham yozganlar, Iskandarni Doroga nisbat berganlar ham bo’lgan. Go’yo Rum shohi , asalari o’z uyasini yasatganday, qizini zeb- ziynat bilan bezab, Doroga bergan emish. Ammo orada o‘tgan bir ish sababli, bularning murosalari buzilib, Doro u qizni otasinikiga uzatgan emish. Lekin to’y bo’lgan kechasi qizning bo’yida bo’lib qolgan emish.

Yana, bundan boshqa, “Fors tarixida” tubandagicha so’zlar bor:

Go’yo, dunyoda ikki Iskandar o’tgan bo’lib, ikkalasi ham o’z davrida jahon hukmroni bo’lgan ekan. Ulardan biri Doro bilan urushganu, ikkinchisi, ya’jujlarga qarshi sad- devor qurgan emish. Lekin dunyoning donosi bo’lmish Jomiy Iskandar qissasidan elni bahramand qilish niyatida , “Iskandar” dostonini yozdi. Elga haqiqiy ahvolni Jomiygina bayon qildi. Darhaqiqat, unga Iskandar ishi manzum, barcha holati yashirin emasdi.

Navoiy ham doston yozish uchun barcha tarix kitoblarini o’qib oxiri Jomiydan maslahat so’raydi.

Jomiy hazratlari : ” 2 ta Iskandar bo’lgan“”, degan gapni aniq hujjatlar bilan rad etib: Iskandarning asl nasabini Nizomiy qanday ta’riflagan bo’lsa, donishmand Jomiy ham shunday tasdiqlaydi.U haqiqatdan ham Faylaqusning O’g’li bo’lib tarixchilarning bu haqdagi ixtiloflari to’g’ri emas.

Iskandar topdi malik Faylaqus,

Yasab mulkin andoqki zebo arus.

Demak , Navoiy vayronada topilgan bola haqidagi afsona tarafdori bo’lgan.

Navoiyning masalaga bunday yondashishning sababi oldingi aqidalarga ko’ra faqat shoh, oliy tabaqadan shaxslargina yuksak insoniy xususiyatlariga ega bo’ladilar degan tushunchaga barham berish bo’lgan.

Navoiy ongli ravishda ,ataylab ana shu fikrga zid o’laroq ,eng oliy janob inson, odil insonparvar, xalqparvar shoh ,buyuk tadbirkor lashkarboshi, olim – faylasuf hakim va nabiylik darajasiga ko’tarilgan Iskandar tarbiyasining tasvirini berib, Naqumohis (Arastuning otasi)ustoz sifatida uni tarbiyalaganini aytadi. Faylaqus vafot etish oldidan o’g’lini valiahd etib qoldiradi:

Anga toj ila taxt tushmay qabul

Bu andeshadin behad erdi malul.

U xalqni yig’b o’z qarorini izhor qiladi. Navoiy ijodining bilimdoni A. P. Qayumovning fikricha shoir “Saddi Iskandariy “dostoniga bosh qahramon qilib rumlik fotih timsolini olgan. Asar yirik falsafiy- didaktik umumlashmadan iborat. Shoir bayon qilmoqchi bo’lgan barcha fikrlar ana shu markaziy obraz orqali bayon etiladi. Navoiy Iskandarning shohlik va donishmandlik faoliyatini tutashtirgan holda tasvirlaydi. Navoiy har bobning xotima qismida soqiy, mug’anniy va o’ziga murojaat qilib, axloqiy xulosalar chiqaradi. Shuning uchun “Saddi Iskandariy ” ni “Iskandarnoma” lar orasidagi eng xarakterli nasihatnoma deyishga haqlimiz.

Nizomiy Iskandar timsolining izchil ravishda avval lashkarboshilik, keyin donishmand- faylasuf va payg’ambarlik faoliyatini tavsirlasa, Navoiyda lashkarboshilik va olim- donishmandlik faoliyati birgalikda beriladi. Navoiy o’z qahramoni xarakterini tarbiya va ijtimoiy sharoit shakllantirganini ko’rsatadi. Bu o’rinda , ayniqsa, ustoz Naqumohis, buyuk olim Arastuning roli katta.

Navoiy dostonida qahramon asar boshidanoq o’zini Nizomiy va Xusrav Dehlaviy qahramonlaridan o’zgacha tutadi. Agar avvalgi Iskandarlar Flipp vafotidan so’ng ikkilanmay ota taxtini egallasalar, Navoiy qahramoni katta majlis to’plab

qo’yadi. U xalqdan kimning arz- dodi bo’lsa, shohni o’zi bilan teng ko’rib ahvolini aytishini so’raydi:

Ki, berdi manga dodgarlik Iloh,

Bor ersa xaloyiq aro dodxoh,

Kelib ollima arzi hol aylasun,

O’z ahvolini qiylu qol aylasun!

Iskandarning fikrlari xalqning orzusi bilan hamohang edi, shuning uchun ham uni podshoh etib ko’taradilar.

Iskandar taxtga o’tirgach adolat mamlakatni boshqaradi. Xalqni 2 yillik xirojdan ozod etadi.

Navoiyning asosiy vazifasi mamlakat, xalqni idora etuvchi, uning mas’uliyatini ustiga olgan odam qanday bo’lishi kerakligini ko’rsatish edi. Shoir Iskandar timsoli orqali bosqinchilik siyosati, jahongirlikning be’mani ish ekanini ko’rsatmoqchi bo’ldi. Navoiy asarining o’ziga xosligi va qimmati ana shundadir. Navoiy urushni yovuzlik deb hisoblab rad etadi, ammo Arastu tilidan zolimlikni, xalqni ezuvchilarga qarshi urushni oqlaydi. Shoir o’z qahramonini faqat mazlumlarni ozod etuvchi, ezilganlarning himoyachisi sifatida tasvirlaydi, behuda qon to’kishlarni va o’lim jazosini qoralaydi.

Nekin o’z qoshingda erur noravo,

Ulusqa ana ko’rma also ravo.

Navoiy o’z qahramonining, aksincha, boshqa podsholarga o’xshamasligi, adolatparvar ekanligini alohida ta’kidlaydi. Ayniqsa, hind yurishini tasvirlar ekan, Navoiy o’z qahramonini hind xalqiga nisbatan rahmdil, mehribon, hatto Dehli aholisiga malol kelmasin deb, riy taklifini rad etuvchi etib tasvirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Navoiy Alisher. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G’. G’ulom, 2006

2. Jomiy Abdurahmon. Xiradnomai Iskandariy - Toshkent, 1978

3. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy (nasriy bayoni bilan) - Toshkent: adabiyot va san’at, 1991

“MIFTOH UL-ADL” ASARIDA ALISHER NAVOIY AN’ANALARI

Ibroximova Sevaraxon Sodiqjon qizi

Qo'qon davlat pedagogika instituti

O’zbek tili va adabiyoti fakulteti

Annotatsiya

Maqolada Xoja taxallusi bilan ijod qilgan ulug’ mutafakkir adib va shoir Ibodulla Sayyid Podshxoja ibn Abdulvahobxo’janing pand-nasihat , axloqiy-ta’limiy mazmunda bitilgan “Miftoh ul-adl”dagi kichik hikoyalar tahlili bayon etiladi.

Kalit so’zlar: "Hayrat ul-abror", "Sulaymon va obi hayot ", Muhammad Temur Sulton, Iskandar, Sulton Mahmud, Sulaymon alayhissalom.

Annotation

In this article, analysis of short stories taken from "Miftoh ul-adl "written by Ibodulla Sayyid Podshxoja ibn Abdulvahobxo’ja who is famous intellectual and poetb is provided.

Key words: "Hayrat ul-abror ", "Sulaymon va obi hayot ", Muhammad Temur Sulton, Iskandar, Sulton Mahmud, Sulaymon alayhissalom.

Аннотация

В статье анализируются рассказы великого мыслителя, писателя и поэта Ибадуллы Саййида Подшоходжи ибн Абдулвахобходжи, писавшего под псевдонимом Ходжа, в "Мифтох ул -адл", написанные в нравственно-просветительском контакте.

Ключевые слова: "Хайрат ул -аброр", "Сулейман и аби хаят", Мухаммад Темур Султан, Искандар, Султан Махмуд, Сулейман алайхиссалам.

“Miftoh ul-adl” (Odillik kaliti) asari nafaqat qadimiy o’zbek adabiyoti tarixida, balki bugungi zamonaviy o'zbek adabiyotida ham yuksak ahamiyatga molik adabiyot va til yodgorligi bo’lgan durdona asardir. XVI asrda yaratilgan badiiyat namunasi hisoblangan mazkur asar “Gulzor” asarining muallifi Sayyid Podshoxoja ibn Abdulvahobxo'ja o’g’li qalamiga mansub. Asar muqaddimasidan ma’lum bo’lishicha, Shayboniyxonning o’g’li shahzoda Muhammad Temur Sultonga bag’ishlab bitilgan mazkur asar o’ziga xos an’ana tusini olgan pand-nasihat ruhida yozilgan asarlar

turkumiga kiradi. Nazm yo'li bilan pandnoma asarlar yaratish silsilasi ilk bor Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” dostonida qahramonlar obrazi orqali suhbatlari davomida, bir-birlari bilan munosabatlarida pand-nasihatga tayanish uslubida o’z ifodasini topgan.

Alisher Navoiyning Xamsa dostonini ochib beruvchi “Hayrat ul-abror” asarida komillik sari yetaklovchi pand-nasihatlarni berish maqolat va she’riy hikoyalar orqali yoritib beriladi.Bir yuzi yetmish olti bobdan iborat "Lison ut-tayr” asarida esa ramziy obrazlar sifatida olingan Hudhud hamda masnaviyda ishtirok etadigan boshqa qushlar tilidan so’zlangan hikoya va masallar orqali amalga oshiriladi.Navoiy hikoyalardan namunalarni tadbiq etar ekan qissadan hissa tarzida bayon etmaydi,balki mutolaa qilayotgan insonning o'ziga havola etadi hamda doimo adolatga chorlab,bu yo'lda pand-nasihatlar beradi.Xojaning kichik bo'lsa-da keng ma'no kasb etuvchi nasriy hikoyalardan tarkib topgan “Miftoh ul-adl” asari fors-tojik adabiyoti yorqin vakillarining nasr namunalariga ham o’xshab ketadi. Ixcham tarzda hikoyalar ijod etish an’anasi Xoja davriga qadar Nosiruddin Rabg’uziyning “Qissasi Rabg'uziy" asarida ham ko'zga tashlanadi.Xoja o’ziga qadar yaratilgan diqqatga sazovor asarlardan ilhomlanib kichik hikoyalarini ijod etishga kirishadi. Shu boisdan adib hikoyalarining qahramonlari sifatida tanlangan Iskandar, No’shiravon, Sulton Mahmud kabi podshohlar obrazlari XVI asrgacha adabiyotda badiiy timsol ko'rinishiga aylanib ulgurgan edi.

"Miftoh ul-adl " o’n besh bobdan iborat bo’lib, asarda oqil sultonlar bilan birgalikda zulmkor podshohlar, iymonsiz beklar, ular tomonidan chiqarilgan farmonlar, adibning ularga bo'lgan fikrlari voqealarga tayanilgan holda aks ettiriladi. Shuning barobarida, fikrlar tasdig'i uchun turli hikoyalarga o’rin beriladi. “Sulton Mahmud, vazir va ikki boyqush”, "Sulaymon va obi hayot", "Iskandar , "Sulaymon alayhissalom" singari asar tadqiqotchilari tomonidan shartli nomlangan ko'plab hikoyalar mavjud. Asar hikoyalaridagi bosh qahramonlarning ko'pi deyarli hukmdorlarning, zulm ostida qiynalgan xalq vakillarining obrazidan iborat.

O'z davrining peshqadam din sohibi sifatida diniy qadriyatlardan nur olgan Xoja kichik nasriy durdonalari bilan zamona hukmdorlari, shayboniy shahzodalarga pand-nasihat qilishni nazarda tutadi.

“Miftoh-ul adl“ asarida zolim podshohlarni to’g’ri yo’lga soluvchi donishmand vazirlar obrazlari ham tez-tez uchrab turadi. Ularning donoligi ba’zan taklif etgan tadbirlarida namoyon bo’lsa, ba’zan voqea-hodisalardan ibratli xulosa chiqarishlarida ko’zga tashlanadi. Shunday hikoyalaridan birida Sulton Mahmudning vaziri boyqushlar suhbatini hukmdoriga to’g’ri talqin qilib yetkazishi orqali uni adolat yo’liga chorlashi aks ettiriladi.

Sulton Mahmud G’aznaviy zolim, uning vaziri Xoja Hasan dono va odil ekan. Ular kunlardan bir kun ovga chiqishibdi. Vazir shaharning chetida sayrayotgan ikki boyqushni ko’rib chuqur oh tortib yig’labdi. Bundan taajjublangan sultonga qarata vaziri debdi: “Ul bir boyqushga ayturkim, ikkimiz quda bo’laylik, qizingni maning o’g’limga bergil, taqi keyin ne tilasang berayin, der. Ul ayturur:"Maning qizimning qaliniga o’n ming buzug’ uy kerakdur". Boyqush aytadur: "Agar Sulton Mahmud tirik bo’lsa, bir yildan so’ng yuz ming buzug’ uy desang ham berayin" – dedi. Men shul so’zga yig'ladim deya qayg'uga cho'madi. Sulton men shu qadar zolimdurmanmi, mening zulmimdan bir yilda yuz ming uy xarob bo’lsa deb vaziriga boqdi, vaziri shundoq ayturlar deb tasdiqlaydi. Shunda sulton vaziridan endi qanday yo'l tutish borasida maslahat so'raydi. Vazir: “Adl qilmoq kerak va taqi ul zulm qilmoqdin tavba qilmoq kerak…”, - deb podshohni adolat sari chorlaydi, pand-nasihat beradi. Sulton Mahmud qilgan ishlariga tavba qiladi, adolat bilan davlat ishlarini boshqarishga ahd qiladi. Tunda darveshlarning libosini kiyib, qayerda bir tul xotin yoki bir miskin bo’lsa, unga ehson qilishni odat qiladi. Hikoyada zulmga adolat bilan barham berish, har qanday hukmdor va zulmkor insonni ham pand–nasihat bilan to’g’ri yo’lga solish mumkinligi talqin etilgan. Oqilona yo'l tutgan vazir Xo’ja Hasan podshohning zulmkorligini majoziy ma'no tashuvchi tamsilni sharhlash yo’li bilan bayon qiladi. Bu kichik nasr namunasi o’ziga xos uslubda vujudga kelgan.

Avvalo, ijodkor boyqushlar xalq nazdida, baxtsizlik va xarobalik ramzi ekanligidan mahorat bilan foydalanganligini ta’kidlash lozim.

Xojaning hikoyalarida adolat bosh mezon qilib olingan. Quyidagi hikoyada ham Sulaymon alayhissalomning adolat borasida tengsizligi ifoda etilgan. Hikoyada aytilishicha, Sulaymon alayhissalom huzurlariga pashsha kelib yeldan shikoyat qiladi. Pashsha: “Yelning dastidan bu olamda erkin ucholmaganimiz bois bisyor rizqimizdan tashvishda qoldik. Yel sening farmoningda, hukm qilgin bizga zahmat yetmasin”, dedi. Sulaymon alayhissalom aytdiki: “Sen o'zing arz qilding, endi yelning ham arzini tinglaylik nima deb javob aytarkan".Yelni chaqirdilar,biroq kelgach pashsha qochib ketdi, qaradilar pashshani qidirib topolmadilar. Bu holdan ajablangan Sulaymon alayhissalom aytdi, adolat qoidasi shundayki:Arzni tinglaguvchi inson da'vo qiluvchi va da'vo qilinuvchi ikkisini barobar turgizib so'rashi lozim, bir -birlarining so'zlarini tinglovchi oldida bayon qilishgandan so'ng tinglovchi hukm chiqarmog'i darkor.

G'azal

Bo'l adolat masnadi uzra Sulaymoni zamon,

Toki sandin mustafid o'lg'ay bari ahli jahon.

Gar Sulaymondek bo'lub xalqi ichida qilsang maosh,

Bilki,farmoningda bo'lur olam ichra ins-u jon.

Hikoyada ravshan ko'rinib turganidek: "Har kimning aytayotgan har xil so'zlariga ishonib adolat qasrini vayron etma,balki adolat qasrining ustuni bo'lmoqlikni o'zingga shior ayla".

Xulosa qilib aytish mumkinki, adabiyotimizning yorqin vakili Xoja hikoyalari o’ziga xos nasr namunasi bo’lib, unda adibning janr talablaridan chekinganligi kuzatilmaydi.

Ortiqcha timsolning uchramasligi, o’zaro muloqot usulidan mahorat bilan foydalanganligi o’sha “mitti” asar ijodkori badiiy salohiyatining yuksakligidan dalolat beradi. Xoja hikoyalarining qay birini tahlil etmaylik, hikoyalarining barchasidan ibrat olamiz adolat yo’li sari qadam bosmoqlikni o'zimizga maqsad etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mallayev.N “O’zbek adabiyoti tarixi” Toshkent “O’qituvchi”,1976 y.

2. Vohidov.R, Eshonqulov.H “O’zbek mumtoz adabiyot tarixi”,Toshkent 2006y.

KO‘NGILLARNING SEVGANI

Bozorova Dilnur Ravub qizi
Chirchiq davlat pedagogika instituti 20/3-guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada insonlar orasida ulug‘lanib borishi zarur bo‘lgan xislatlar, yoshlar tarbiyasida uchrab turadigan nuqsonlar xususida Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarlariga murojaat qilinib, misollar yordamida tahlil qilingan.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются качества, которые необходимо оттачивать в людях, недостатки воспитания современной молодежи, используя произведения Алишера Навои “Махбуб ул-кулуб” и примеры

ANNOTATION

This was written about important values and defects in relationships among today's youngsters based on ehamples from “Mahbub ul-qulub” by A. Navoiy.

Калит сўз ва иборалар: комил инсон, ҳис-туйғу, ҳиммат, ҳикмат, пок севги, садаф, шарқ адабиёти, бадиий-эстетик мақсад, манавият, тўғрилик .

Ключевые слова: и фразы: совершенный мужчина, эмоция, щедрость, мудрость, чистая любовь, жемчуг, восточная литература, художественно-эстетическая цель, духовность, правильность.

Keywords: and phrases: perfect man, emotion, generosity, wisdom, pure love, pearl, oriental literature, artistic-aesthetic purpose, spirituality, correctness.

Alisher Navoiy ijodini qancha ko‘p o‘rgansak, shunchalik ko‘p ibrat, hayotiy saboq olamiz. Bular, o‘z navbatida, hayotimiz davomida juda asqatadigan, bizni to‘g‘ri yo‘ldan borib, yaxshi inson bo‘lib yetishishimiz, obro‘-e’tibor qozonishimizga ko‘maklashadigan saboqlardir.

Ulug‘ mutafakkir bobomizning qay bir asarini olmaylik, unda insonning ma’naviy tarbiyasi bilan bog‘liq biron fikr, hikmat uchramasdan qolmaydi.

Hikmatli so‘z, pand-u o‘git Sharq adabiyotining qon-qoniga singib ketgan.

Asli adabiyot so‘zidagi «adab» o‘zagining ma’no-mazmuni odob ekanini yodga olsak, Sharqda badiiy ijod insonlarga pand-u o‘git, nasihat berishning ta’sirli usuli bo‘lganini anglaymiz. Sharq adabiyoti ibratli voqealar, hikmatli so‘zlar vositasida kishilarni yuksak axloqli, ma’naviy boy, komil inson etib tarbiyalashni o‘zining bosh maqsadi deb belgilagan. Alisher Navoiy ham Sharq adabiyotining ana shu mohiyat mazmuni, an’analariga ko‘ra ijod etdi va turkiy xalqlar adabiyotini yuksak cho‘qqiga ko‘tardi. Shoirning g‘azal-u ruboiylari, muhammas-u qit’alari hamda dostonlarida pand-u o‘git, hikmatlar badiiy obrazlar, qiyosiy o‘xshatishlar, qiziqarli sarguzashtlar bayoni orqali anglashiladi. «Mahbub ul-qulub» nomli asarida esa pand-nasihat, axloqiy qarashlar bosh mavzuga aylanib, bevosita – to‘g‘ridan to‘g‘ri ifoda etiladi, ularga har tomonlama ta’rif berilib, falsafiy, axloqiy xulosalar chiqariladi. ***Mana shu mulohazalardan kelib chiqib «Mahbub ul-qulub» kabi asarlarni axloqiy-falsafiy yo‘sindagi pandnoma yoki nasihatnoma deb ataymiz.*** Turkiy va fors-tojik adabiyotida Alisher Navoiygacha xuddi shu janr va ko‘rinishdagi asarlar mavjud edi. Bunga Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Sa’diy She’roziyning «Guliston» va «Bo‘ston», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston» asarlarini misol keltirish mumkin. Alisher Navoiy ham mazkur asarlarni chuqur o‘rganib, o‘sha an’analar ruhida ijod etdi. Shoir bu asarni umrining oxirida – 1500-yilda yaratdi va uni «Mahbub ul-qulub», ya’ni «Ko‘ngillarning sevgani» deb atadi. Bu nom bilan mazkur kitobda insonga xos eng ezgu fazilatlar, uni ma’naviy barkamol etadigan, o‘zgalar qarshisida go‘zal, oliyjanob ko‘rsatadigan xislatlar jamlanganini anglatmoqchi bo‘ldi. Darhaqiqat, Alisher Navoiy ko‘zlagan maqsad nafaqat asar nomida, ayni chog‘da uning butun ma’no-mazmunida, ta’rif-u tafsilotlarida to‘la mujassamdir. «Mahbub ul-qulub»ning birinchi qismida Navoiyning siyosiy, ijtimoiy-axloqiy va ma’rifiy qarashlari aks etgan bo‘lsa, bu asarning ikkinchi qismi asosan axloqiy masalalarga bag’ishlanadi. U 10 bobdan iborat bu qismda yaxshi fazilat va yomon xislatlar tahlil etib beriladi. Aytish mumkinki, Navoiy o‘z o‘quvchilariga mana bu yaxshi fazilatlar senga o‘rnak bo’lsin, mana bu yomon xislatlardan esa

o‘zingni ehtiyot tut” ,- demoqchi bo‘ladi. «Mahbub ul-qulub»ning uchinchi qismi «Turli foydali maslahatlar va maqolalar» deb nomlanadi va har xil foydali pandlar hamda hikmatlarni o‘z ichiga oladi. Bu qismi g‘oyat boy mazmunli va rang-barangdir. Unda ham odam va odamiylik haqida, chin insoniy fazilatlar to‘g‘risida asrlar mobaynida hali tajribasi va bilimining asosi sifatida yig‘ilgan fikrlar, shuningdek, Navoiyning uzoq hamda murakkab hayot tajribasining natijalari, xulosalar keltirilgandir. Navoiy asarning kirish qismida quyidagilarni alohida ta’kidlaydi: «Bu xoksor va parishonro‘zg‘or kamina bolalikdan to qarilikka qadar ko‘hna davron voqealaridan, aylanuvchi osmon hodisalaridan, fitna qo‘zg‘ovchi dunyo buqalamunligidan – tovlamachiligidan, zamonaning rang singari gunogunligidan ko‘p vaqt va uzoq muddat har xil xayol va taraddudlar bilan daydib yurdim, har tovur va ravishda bo‘ldim va turli yo‘llarga kirdim, yaxshi-yomonning xizmatini qildim, katta-kichikning suhbatida bo‘ldim, goh xorlik va qiyinchilik vayronasida nola qildim, goho izzat va ma’murlik bo‘stonida majlis qurdim.

Masnaviy:

Gahi topdim falakdin notavonlig‘,
Gahi ko‘rdum zamondin komronlig‘,
Base issig‘, sovug‘ ko‘rdum zamonda,
Base achchig‘, chuchuk totdim jahonda».

Darhaqiqat, «Mahbub ul-qulub» asari oltmish yillik umri davomida hayotda ko‘rgan-kuzatganlarini teran tahlildan o‘tkazib, muayyan xulosalar chiqargan donishmand adibning kelgusi avlodlarga qoldirgan buyuk ma’naviy merosidir.

Bu asar har bir odam umri davomida duch kelishi muqarrar bo‘lgan hayotiy savollarga eng to‘g‘ri javoblarni ta’sirli usulda berishi bilan yuksak qimmat kasb etadi. Mutafakkir adib saxovat va himmatni insoniyat bog‘ining hosildor daraxti, u daraxtning foydali mevasi deb atar ekan, bunda mutlaqo mubolag‘a qilmaydi. Darhaqiqat, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda saxovatlilik, himmatlilik singari oliyjanob xislatlar yo‘qolgan kuni bu hayot daraxti qaqrab qurimog‘i turgan gap. Asarda oliyhimmat kishilar balandparvoz lochinga, behimmat kimsalar esa sichqon

ovlovchi kalxatga o‘xshatilishi bejiz emas. Bunga qo‘shimcha, chinakam saxovatli va himmatli kishilarga minnat degan qusur mutlaqo yotdir. Navoiyning bundan besh asr avval ilgari surgan g‘oyalari bugun ham o‘z dolzarbligi va ahamiyatini yo‘qotmay kelayotgani kishini hayratga soladi. Bu jihatdan shoirning isrof to‘g‘risidagi mulohazalari, ayniqsa, ibratli. «Isrof qilish saxiylik emas; o‘rinsiz sovurishni aqlli odamlar saxiylik demas. Halol molni kuydirganni devona deydilar; yorug‘ joyda sham yoqqanni aqldan begona deydilar. Maqtanish uchun mol bermoq – o‘zini ko‘z-ko‘z qilmoq va shunday qilib o‘zini «saxiy» demoq – behayolik bilan nom chiqarmoq. Kimki xalqqa ko‘rsatib ehson bersa, u pastkash, saxiy emas». Bugungi kunda o‘tkazilayotgan ayrim to‘y va boshqa marosimlarda inson peshona teri bilan yaratilgan noz-ne’matlarning behisob uvol qilinayotganini, ularning egalari bu illatdan ko‘ra o‘z nomini chiqarmoqni ko‘proq o‘ylayotganlarini ko‘rganda Navoiyning bu iztiroblari beixtiyor yodga kelmaydimi?! Xuddi shunga o‘xshash mulohazalarni uning muloyim tabiatlik, tilga e’tibor, safar fazilatlari to‘g‘risidagi fikrlari borasida ham bemalol aytmoq mumkin.

Alisher Navoiy insonlardagi yomon illatlarning o‘rnini qanday qilib yaxshi xislatlarga aylantirishni aniq ko‘rsatib berganlar va bu yozganlariga ham o‘zlari doimo amal qilganlar.

Alisher Navoiy ilm haqida quyidagicha ta’riflaydi.

El aybini ayturg‘a birovkim, uzatur til,
O‘z aybini fosh aylagali til uzotur, bil.

Ya’ni ilm olib amal qilmagan kishi, misoli yerni xaydab urug‘ sepmaganga yoki urug‘ sepib, urug‘idan hosil olmaganga o‘xshaydi. Navoiy ilm ahlini g‘oyat yuksak baholaydi, mamlakat obodonligini ta’minlashda, xalq ahvolini yengillashtirishda ularga juda katta umid bog‘laydi. Bu xususda «Mahbub ulqulub» dagi:

Kishiga necha kelsa mushkul hol,
Hikmatu aql anga erur, halol,

kabi bayt va ilm hamda olimlar haqidagi fikrlari g‘oyat ahamiyatlidir. Shuningdek, o‘rganib undan amalda foydalanmagan, ya’ni ilmini xalq, mamlakat xizmatiga qo‘ymagan olimlarni Navoiy hajv ostiga oladi. Navoiyning ilm-fan haqidagi o‘gitlari uning ma’rifatparvarlik g‘oyalarining uzviy qismini tashkil qiladi. U butun hayoti davomida ilm-ma’rifatni targ‘ib etdi. Mehnat aziyatini chekib ilm o‘rganganlarni olqishladi va avlodlarni ilm-ma’rifatni egallashga da’vat etdi. Uning «Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim va orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim. Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur» kabi dono o‘gitlari xalqning hikmatli so‘zlariga aylanib ketdi. «Mahbub ul-qulub» dagi materiallar zaminida nutqning juda ko’p fazilat va xislatlari ochiladi. Jumladan, Navoiy «nodon pandida g‘alat muqarrar va dushman nasihatida firib mutasavvar» ekanligini, ular bilan muloqatda bo‘lganda aql va tadbir bilan ish ko‘rishni maslahat ko‘radi. Navoiy ushbu asarida «Zamon kishilari bevafoligidan bag‘rimda tikonlar bor va davr xalqi behayoligidan ko‘ksimda yaralar bor. Bular haqida yozay desam, katta chidam menga vafo qilmaydi va barchasini qalamga olay desam, uzoq umr davomida ham tugatib bo‘lmaydi» deya bevafolarining jabridan fig‘on chekadi va ushbu baytni keltiradi:

Kimga qildim bir vafokim-yuz jafosin ko‘rmadim?
Ko‘rguzub yuz mehr, ming dardu balosin ko‘rmadim?

Shunday qilib, Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarida o‘z zamonasiga va undagi ijtimoiy tabaqalar, guruhlar, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy hodisalarga faol munosabat bildiradi va o‘zining yuksak optimistik tilagini, kelajak avlodlariga qaratilgan eng pokiza tuyg‘ularini, gumanistik niyatlarini, dono o‘gitlarini asarga g’oyat katta dadillar va o’ziga xos qat’iylik bilan teran mazmunda bayon etadi. Biz yosh avlod, Hazrati Navoiydek buyuk insoniylikni, eliga, yurtiga fidoiy bo‘lishning oliy namunasini, ezgulikka, soflikka, sevgi va sadoqatga chorlashning mumtoz hissiyotlarini o‘rganishimiz lozim va bu bebaho merosni kelajak avlodlarga hech qanday xiyonat qilmay yetkazish bizning muqaddas vazifamizdir. Ana shu

muqaddas vazifaga va burchga sodiq qolishda bizga e’tiqod, imon, g‘urur va o‘zlikni anglash muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Navoiy – “Mahbub ul-qulub”. Toshkent, 2018

2. Sh. Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov – “Navoiyshunoslik”. Tamaddun. 2018

3. R. Rasulova, Insonlar sadafi himmatidandur

Academic Research in Educational Sciences volume 2 | issue 1 | 2021 issn: 2181- 1385 scientific journal impact factor (sjif) 2021: 5.723

4. www.Wikipedia.org, www.fayllar.org

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TASAVVUF TIMSOLLARINING VOQELANISHI

Boboxo'jayeva Laziza Axtamovna
Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti

Annotatsiya: Tasavvuf, so'fiylik — islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo‘llovchi ta’limot. Tasavvuf — qalbni sof tutmoq, tug‘ma zaiflik va noxush axloqlardan forig‘ bo‘lib, hayvoniy va nafsoniy tuyg‘ular ustidan g‘alaba qilmoq, tasavvuf bir uy bo‘lsa, shariat unga kiradigan eshikdir. Alisher Navoiy asarlari ham bevosita tasavvuf ilmi zamirida yaratilgandir. Chunki o'sha zamonlar adabiyoti diniy dunyoqarashning mahsulidir. Maqsad - komil shaxsni asarlari orqali tanitish va xalqni tarbiyalash. Alisher Navoiy asarlarida tasavvufning ko'plab timsollari uchraydi va bugungi kunga qadar o'rganilib kelinmoqda.

Kalit so'zlar: tasavvuf, komil inson, ko'z, Xizr suyi, Jomi jam, abadiylik, yuz, may, ko'ngil, soch, ter.

Annotation: Sufism is a doctrine in Islam that guides man to spiritual and moral perfection. Sufism is the purification of the heart, the liberation from innate weakness and immorality, and the conquest of animal and sensual feelings. Alisher Navoi's works are also based on mysticism. Because the literature of that time is a product of the religious worldview. The goal is to introduce the perfect person through his works and educate the people. There are many symbols of mysticism in the works of Alisher Navoi and they are still being studied.

Keywords: mysticism, perfect man, eye, Hizr water, Jami jam, eternity, face, may, heart, hair, sweat.

Sharq xalqlari tafakkuri tarixida chuqur ildiz otgan tasavvuf ta’limotini yaxshi bilmay turib, Alisher Navoiy dunyoqarashi va adabiy merosini barcha murakkabliklari, falsafiy teranlig‘i bilan to‘liq holda to‘g‘ri, haqqoiiy yoritib berish

mushkul. O‘ttizinchi yillardayoq Oybek bunga e’tiborini qaratgan edi. Ammo, bu masala hamon hal bo‘lmasdan dolzarbligini saqlab qolmoqda. Chunki hozir ham ulug‘ shoir asarlarini “kerakli” va “keraksiz” qismlarga ajratish, orifona mazmundagi she’rlarini nashrlardan soqit qilib, el ko‘zidan yashirish, “payqamasdan” tadqiqotlarga kiritmaslikka moyillik davom etmoqda. Ba’zan esa, so‘fiyona ma’nolarni anglab yetmaganimiz sababli, Navoiyning ramziy ibora-istioralarini haminqadar talqin etib, chalg‘ib kelmoqdamiz. Bu hol Navoiy dahosini, olamining bepoyonligi va ulug‘vorligini muazzam salohiyati ham ko‘rkamligi bilan idrok etishga xalaqit beradi. Vaholanki, Navoiy merosi — yaxlit bir adabiy borliq, bebaho ma’naviy xazina.

Navoiy falsafiy qarashlari vahdati-vujud va tasavvuf ta’limotiga asoslangan. Mutafakkir o‘zining dunyoqarashida Olloh, tabiat va inson birligidan kelib chiqadi. Uning e’tiqodiga ko‘ra, inson baxt-saodatiga bu dunyoda erishishi mumkin. Buning uchun u tinmay mehnat qilishi, kasb-hunar egallashi, tabiatning siru asrorini idrok qilishi, uning noz-ne’matlaridan foydalanishi darkor. Xudo, allomaning fikricha, borliqning, shu jumladan insonning yaratuvchisidir. Mavjudotlarning eng yaxshisi, a’losi va gultojisi insondir.

Tasavvuf, shu tariqa, falsafiy dunyoqarash sifatida diniy aqida, mutaassiblikka zid edi va Alisher Navoiy undan kuch-quvvat olib, komil jur’at bilan: *"Zohid, senga huru menga jonona kerak, Jannat senga bo‘lsin, menga mayxona kerak. Mayxona aro soqiyu paymona kerak, Paymona necha bo‘lsa to‘la, yona kerak",* —deya olar edi. Tasavvuf, ayniqsa, Jomiy va Navoiy mansub bo‘lgan naqshbandiya ta’limoti qanoat va tiyinishni talab etsada, biroq dunyo go‘zalligidan huzurlanishni inkor etmagan. Negaki, modomiki real dunyo Mutlaq ruh in’ikosi ekan, demak uni sevish va undan bahra olish mumkin. Shu asosda insonning iisonga muhabbati, ya’ni majoziy ishq orqali ilohiy ishqqa qarab borish ham tabiiy va zaruriy deb topilgan. Navoiy o‘zini ana shu «ishqi majoziy» kuychilari sirasiga kiritadi. Darhaqiqat, biz tahlil etgan g‘azalga o‘xshagan sof tasavvufiy ma’noli va «ishqi haqiqiy»ni vasf etuvchi asarlar Navoiy ijodida asosiy o‘rinni egallamaydi. Ammo

shunisi borki, iboralarning timsoliyligi, ramziy yo‘nalishi «dunyoviy g‘azallar»da ham saqlangan.

Qaro ko'zum, kel-u, mardumliq emdi fan qilg'il,

Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il.

Navoiyning ushbu "Qilg'il" radifli g'azalining ilk misralarida ham tasavvufiy timsollarni uchratish mumkin. Tasavvuf adabiyotida uchraydigan timsol-istilohlar lug'atlarida "ko'z" komil inson timsoli sifatida tushuntiriladi. Xuddi komillikka erishgan inson o'zidan kechib, boshqacha aytganda, o'zidagi barcha illatlarni bartaraf etib, faqat Yaratganni ko'rgani, uni o'ylagani kabi, ko'z ham o'zini ko'rmaydi, o'zgalarni ko'radi. Ko'z insondagi barcha go'zallik jamlangan asosiy manba. Chunki yuzning bor jozibasi - ko'zda mujassam. Ko'zni sevish orqali ilohiy jamolni yaxshi ko'rish ifodalanadi. G'azal orqali anglashilgan lirik qahramon ana shu ko'zda nazarda tutilgan komil insonni o'z ko'zining gavhariga aylantirmoqchi.

“Hayrat ul-abror”ning “Avvalgi munojot”ida aytilishicha, azal chog‘ida beqiyos go‘zallik, kuch-qudrat va fazilatlar koni Parvardigorning yolg‘iz o‘zidan boshqa hech narsa bo‘lgan emas. U paytlarda na Uning tengsiz husnu jamoli, na go‘zal ismlari, na yashirin sirlaridan xabardor bir zot va na Uning ishqida bag‘rini o‘rtaguvchi bir oshiq bor edi. Iloh husni o‘z-o‘zida jilva qilar, Uning zoti o‘z husniga mazhar bo‘lib, husn ham, bu husnni mushohada qiluvchi ham, shoir so‘zlari bilan aytganda, nozir ham, manzur ham Uning o‘zi edi.

Yoki Navoiyning "Bo'ldum sanga" radifli g'azalida shunday misralar keltirilgan: *"Jomi Jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom, Soqiyo, yo tarki jon aylab gado bo'ldum sanga".* Ushbu baytda talmeh san'ati qo'llangan. "Jomi Jam"- afsonaviy Jamshid podshoh yasattirgan qadah. Tasavvufiy adabiyotda vasl sarxushligini, ya'ni mastligini anglatadi. Bu timsolda ramzan ko'ngilda yor aks etishiga ishora ham mavjud. Sharqda, Xizr payg'ambar abadiylik suvini ichgani uchun hamisha tirik yashaydi, degan qarash hukmron. Shoir bu yerda shundan foydalangan. Jomi Jamda ham, Xizr suyida ham ramzan piri komil qalbiga ishora bor. Aytilmoqchiki, Alloh

ishqidan mast bo'lgan, abadiy, boqiy zot vasliga intilgan oshiq uchun mansab-lavozimlarning zarracha ahamiyati yo'q.

Navoiy aql-u zakovati hayratlanarli, qilni qirq yoruvchi kishilar ichida nafs domiga tushgan, zulm va badkirdorligi bilan mashhur bo‘lganlarni ko‘p ko‘rgan edi. Shuning uchun ulug' insonparvar shoir axloqiy fazilatlar tarbiyasini birinchi o‘ringa qo‘yadikim, bu ham tasavvufona murojaat etishga olib kelardi. Zero, tasavvuf butun e’tiborni aynan inson axloqini poklashga qaratib, shu maqsadda turli yo‘l-yo‘riqlar, amaliy tadbirlar ishlab chiqqan edi. Tasavvuf odamni vijdoni bilan yuzma-yuz qo‘yib, o‘zi haqida o‘ylashga majbur etar, haqiqat va e’tiqod pokligi ruhida tarbiyalardi. Falsafiy ta’limot sifatida olamni yagona deb e’tirof etish bilan tasavvuf jannat-do‘zax to‘g‘risidagi diniy afsonalarni mantiqan inkor qilar, natijada zohid, muhtasib, a’lam kabi shariat namoyandalari haqiqatni bilmaydigan nodon kishilar bo‘lib chiqardi. Navoiy ularni muqallidlar, ya’ni yuzaki narsalar, quruq aqidalarga ko‘r-ko‘rona taqlid qiluvchi, mustaqil fikrlashdan mahrum odamlar deb ataydi.

Navoiy g'azallarining ayrimlarida uchraydigan tasavvufiy iboralarga e'tibor qarataylik:

• yuz timsoli - tasavvufda ilohiy go'zallik ko'rinadigan makon (mazhar);

• soch - she'riyatda mavjud dunyo ramzi. Jingalak soch - solik ruhi ovora va band bo'ladigan dunyo tashvishlari timsoli;

• ter - pokizalik, fayz-tarovat, yor jamolining porlashi, vafo timsoli;

• may - oshiq, zohid, dunyo alamlaridan kuygan oshiqning doimiy hamrohi

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Mirziyoev SH. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent.: O‘zbekiston, 2017.

2. Mirziyoev SH. M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent.: O‘zbekiston, 2017.

3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami. 20 jildlik. J.13. – T.: Fan, 1997.

4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami. 20 jildlik. J.14. – T.: Fan, 1998.

5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami. 20 jildlik. J.15. – T.: Fan, 1999.
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami. 20 jildlik. J.16. – T.: Fan, 2000.
7. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami. 20 jildlik. J.17. – T.: Fan, 2001.
8. Mallayev N.M. O’zbek adabiyoti tarixi. Birinchikitob. – T.: O’qituvchi, 1976.
9. O’zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. J. 2. – T.: Fan, 1977.
10. Hayitmetov A. Ilk Navoiyshunoslar // Navoiyga armug’on. K.2. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2000. – B. 7-15

ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODI

Kaipova Sholpan
Nukus DPI 3-bosqich talabasi

Annotatsiya : Bu maqolada buyuk allomalar, mutaffakir va shoir, tarixda nom qoldirgan buyuk bobolarimizning ijodi va buyuk ishlari, o'lmas va mashxur asarlari haqida ma‘lumot berilgan.

Kalit so'zlar : Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Hirot, Temuriylar, G'iyosiddin Bahodir, Samarqand, Xamsa, Devoni Foniy, Sittai zaruriya, Fusuli Arbain, Munadjat, Mezon ul - avzan, Tarixi anbiya va Xukama, Munshaat, Andijon, Boburnoma,

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy 1441 - yil 9- fevralda Hirotning Bog'i Davlatxona mavzeyida, temuriylar xonadoniga yaqin bo'lgan davlat xizmatchisi G'iyosiddin Bahodir oilasida dunyoga kelgan. "Nizomiddin" - din, diyonat nizomi bo'lib, "mir " - amir ma'nosini anglatadi. Uning ilmga bo'lgan ishtiyoqi erta uyg'onib, 4 yoshida maktabda ta'lim ola boshlagan. Alisher Navoiy o'z davrining buyuk asarlarini yod olgan shu jumladan, buyuk muhaddisimiz Buxoriy hazratlarining 6000 dan ziyod hadisi shariflarini yodtan bilgan. Uning o'zi ham 7-8 yoshlaridan boshlab g'azallar yoza boshlagan. U she’riyatga, adabiyotga yoshligidan mehr qo'yib butun hayoti davomida adabiyotni siyosat bilan birlashtirgan. Uning 23 yoshida Samarqand shahriga kelib madrasada taxsil olishi uning hayoti va ijodiga katta o'zgarish bo'lgan. Bu yerda u ilm - fan, adabiyot va san'at bilan chuqur tanishgan. Alisher Navoiyning " Xamsa ", "Devoni Foniy", " Sittai zaruriya ", " Fusuli arbaa ", " Munadjat ", "Nasam al - muhabbat", " Mezon al - avzan ", " Mufradat ", "Munshaat", " Tarixi anbiya va Xukama ", " Mahbub - ul - qulub " va boshqa ko'plab asarlarni o'zidan meros qilib qoldirgan.

Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo 1483 - yil 14 - fevral oyida Andijon shahrida dunyoga kelgan. U yoshligdan oq jasur va dovyurak bo'lganligi uchun " Bobur " yani " she’r " laqabini olgan. Bobur o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, davlat arbobi va sarkarda, shoh va shoir, tarixchi va geograf, boburiylar sulolasining asoschisi o'z davrining buyuk shaxslaridan biri bo'lib tarixda o'chmas iz qoldirgan. Bobur 18 - 19 yoshlarida she’riyatga boshqacha mehr berib o'zi ham qog'oz qoralay boshlagan. Uning eng mashhur asarlaridan biri " Boburnoma " bo'lib unda tarixiy voqealar to'g'risida so'z boradi. Bu asarda 1551 kishining ism - sharifi tilga olingan. Ular ichida tarixiy shaxslar, temuriylar hukmdorlari, harbiy amaldorlar, ilm fan va san'at namoyondalarining tarjimaiy hollari qisqa satrlarda faoliyoti bayonida zikr etilgan.

Barchamizga ma'lumki Mir Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur 42 yil farqi bilan bir biriga zamondosh bo'lgan. Ular garchi bir birlari bilan uchrashmagan bo'lsa da " Boburnoma" asarida Alisher Navoiyning ismi 16 marta tilga olingan. Jumladan : " Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytubturlar , hyech kim oncha ko'p va xo'p aytgon emas ",- deb o'z fikrlaridan birida so'z etgan. Menimcha shu kichkina jumlaning o'zida ham katta mazmun ma'no mujassamlashgan. Alisher Navoiyning kuchli tafakkur va ilm egasi ekanligini, ko'pgina she'rlarni yodtan bilishini u kabi hali hech kim bu darajaga erishmaganini mahorat bilan aks ettirgan.

O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov so’zlari bilan aytganda, “Olamda turkiy va forsiy tilda so’zlovchi biron bir inson yoq’ki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e’tiqod bilan qaramasa” ,-degan fikrlari ulug’ bobomiz shaxsiga yuksak hurmat va e'tirof belgisidir. Xulosa qilib aytganda bu ikki shoir ham o'zbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shishgan. O'zbek mumtoz adabiyotidagi bu ikki tog' ikki cho'qqi bo'lgan Navoiy va Bobur ijodi go'zallik va nafosat cho'qqisi deya e'tirof etiladi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A Yuksak manaviyat - yengilmas kuch Toshkent 2008

TAKRORLANMAS SHAXSIYAT SOHIBI
(A.NAVOIY IJODI ASOSIDA)

Ochilova Gulshoda Yoqub qizi
Nizomiy nomidagi TDPUning
O’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi 4- bosqich talabasi

Annotatsiya: Navoiy shaxsining poydevori, hech shubhasizki, iste’dod harakat quvvati esa e’tiqod vijdon, maslak va ma’naviyat jabhasi: ishq, irfon, haqiqat va rostlikdir. Bularsiz ulug` shoir shaxsidan so`z yuritishni xayolga ham keltirmaslik kerak. Navoiy shaxsida ham umuminsoniy joziba, o`zgalarnikiga o`xshamaydigan ruhoniy bir kuch mavjud.

Kalit so’zlar: Maslak, shaxsiyat ,ma’naviyat, hayotiy ehtiyoj, vijdon . mazmun, komillik, ma’rifat, ezgulik.

Moddiy dunyoda hamma narsa va barcha mavjudlikning o’z asosi , botiniy tayanchi bo’lganidek, inson va insoniylikning ham tamali bor. Ko’zga ko’rinmas bu asos esa jismoniy kuch – quvvat, ma’naviy xislat va fazilatlarni o’zida mujassamlashtirgan shaxsiyatdir.

Mumtoz adabiyotimizda shaxsiyat ko’rinishi qanday tasvirlangan? Zohidningshaxsiyati zuhdga, obidniki toat–ibodatga, oshiqniki ishq – muhabbatga yoki orifniki ma’rifatga tayangani bois ulardan har birining ichki hayoti va dunyoqarashi o’ziga xos tarzda shakllanadi va shaxsiyatning tamali bo’lmish iroda – kuch- quvvati ham bir- birinikidan farqlanadi. Adabiy shaxsiyat, eng avvalo, Alloh in’om qiladigan iste’dod, shu iste’dodning yaratuvchanlik ilhomi .Mukammal adabiy shaxsiyatgina ijodkorni kosiblikdan taqlid va turli o’zlashtirmachilikdan saqlaydi. Adabiyotdagi shaxsiyatsizlik hayotdagi, ya’ni inson qavmiga xos shaxsiyatsizlikdan ming karra yomon va zararlidir. Shuning uchun shaxsiyat va adabiyotni bir – biridan

aslo ayri tasavvur qilish mumkin emas, nazarimda. Navoiy shaxsiga kelsak, u tarixiy, ma’rifiy, hatto afsonaviy bir shaxs edi. Turkiy xalqlar ilm-fani, madaniyati va adabiyoti tarixida bunday maqom Navoiydan o’zga hech birovga nasb etmagan, desa mubolag`a bo`lmas. Badiiy va ilmiy ijodda asriy orzularini ro`yobga chiqargan, qanchadan qancha urug`, qabila elatlar birlashgan turkiy xalqlarga Navoiy mohiyat e’tibori bilan yangi asarlarni in’om qilgan benazir san’atkordir. Uning barcha nodir xislatlari va noyob fazilatlari, ijodiyotida kamyob tuyg`u va kechinmalarning sirli manbaasi betakror shaxsiyatidir. Navoiy shaxsining poydevori, hech shubhasizki, iste’dod harakat quvvati esa e’tiqod vijdon, maslak va ma’naviyat jabhasi: ishq, irfon, haqiqat va rostlikdir. Bularsiz ulug` shoir shaxsidan so`z yuritishni xayolga ham keltirmaslik kerak. Navoiy shaxsida ham umuminsoniy joziba, o`zgalarnikiga o`xshamaydigan ruhoniy bir kuch mavjud. Shoir shaxsiyati, ya’ni “men”ligiga kimki dildan bog`lanib, unga ergasha bilsa, hech vaqt fikrdan to`xtab qolmaydi, zavq-shavq bilan holdan holga yuzlanib, “ ko`nglum ichra dardu g`am avvalgilarga o`xshamas,”-deganday oshiqona e’tirof va sururni yurakdan his qiladi. Oriflik e’tiqodi esa shoir shaxsiyatining ma’rifatda yanada sobitlashuvini ko`rsatadi:

Ey Navoiy, charxi zolining firibin topmag`um,
Yor agar bo`lsa mening birla eranlar himmati.

Navoiyning shaxsiyati ibrat va tahsinga loyiq necha o`nlab xislat-u fazilatlarning maxzanidir. Navoiyning serqirra ijodiyoti sir-sinoatga to`la shaxsiga muhtasham ko`zgu bo`lganidek, shaxsiyati ijodiga ma’naviyat e’tiqod va vijdon manbaidir. Shuning uchun shoir ijod na’munalarini uning “Men”ligidan ajratib, ruh va ruhoniy hayot ehtiyojlarini e’tiborga olmay tahlil va talqin qilish niholni zaminidan sug`urishday bir ishdir. Bir fardida u yozadi:

Men sinuq, ko`nglum sinuq, sabrim uyi xut yerga past,
Bilmagay holim shikastin ko`rmagan muncha shikast.

Navoiyning shaxsiyati ibrat va tahsinga loyiq necha o`nlab xislat-u fazilatlarning maxzanidir. Navoiyning serqirra ijodiyoti sir-sinoatga to`la shaxsiga muhta ko`zgu bo`lganidek, shaxsiyati ijodiga ma’naviyat e’tiqod va vijdon

manbaidir. Shuning uchun shoir ijod na’munalarini uning “Men”ligidan ajratib, ruh va ruhoniy hayot ehtiyojlarini e’tiborga olmay tahlil va talqin qilish niholni zaminidan sug`urishday bir ishdir. Bir fardida u yozadi:

Men sinuq, ko`nglum sinuq, sabrim uyi xut yerga past,
Bilmagay holim shikastin ko`rmagan muncha shikast.

Bu baytda faqir, darvesh, g`arib, miskin Navoiyning his va holati birlashib ketgan. Buning siriga yetmay fard mazmunini qayta so`zlashdan nima foyda? Shikastalik, benavolikdan tug`ilajak butunlikni unda tasavvur aylab bo`ladimi?

Navoiyni bilish tadqiq etish sobiq sovet zamonida qoliplashtirilib, qariyb bir andozaga moslashtirilgan. Natijada shoir asarlarining ijtimoiy, siyosiy, axloqiy mazmuni moddiy olamga tegishli g`oyalarini izohlash yetakchi o`ringa chiqarilgan. Tuyg`u, ruh, hol, dard, xayol manzaralari, tasviri unutilgan. Navoiy yozadi:

Yo`q daxrda bir besar-u somon mendek,
O`z holig`a sargashtav-u hayron mendek.
G`am ko`yida xonumoni vayron mendek,
Ya’niki, aloxonu alomon mendek.

Sharq mumtoz she’riyatida aqlga emas, ruhga tayanilib, duyo va inson sirlari ruhdagi o`zgarish va evrilishlar orqali aks ettirilgan. To`rtlikda siyratda yuz ochgan go`yo to`rt suratga e’tibor jalb qilingan: Besaru somonlik,o`z holiga sargashta-yu hayronlik, xonumoni vayronlik, aloxonu alomonlik, ya’ni hammasida mosuvolik. Bu hollarning har biri galma-gal dahrda hech nimaga bog`lanmaslik, boshqacha aytganda fano zavqini aks ettiradi. “Men”ga urg`u berilishi esa “o`zluk imorat”ining buzilganidan dalolatdir. Shaxsiyat – yaxshi va yomon, yaroqli va yaroqsiz, yuksak va tuban, insoniy va shaytoniy, ezgu va yovuz, sobit va o`tkinchi mayl, istak, xususiyat va ko`nikmalarning yig`indisidir. Bularning kerakligini keraksizidan, go`zalini chirkinidan ajratish mohiyat ishi bo`lib, bu shaxsning shakllanish yo`lidagi dadil odimidir

Komillik ideali Navoiyda axloqiy turg`unlik, fikriy nochorlik, ma’naviy ojizlikning tamoman teskarisiga xizmat qiladi. Yig`laganni kuldirish,kulganni

yig`lata bilish, g`am-g`ussani shodlikka, quvonchni qadarga evriltirish salohiyati Navoiyda juda kuchli. She’rxonni u hasrat, noumidlik, badbinlik, maxdudlik ofatlaridan muhofaza etish bilan birga, soxta ko`tarinkilik, makruh shodlik, fayzsiz-salohiyatsiz, mamnuniyatbozlikdan ham qutqaradi. Yurakdan din va irfon chirog`ini yoqmay, tariqat va ilohiy ishq chashmasidan suv ichmay oliy san’at sehrini idrok qilmay Navoiy shaxsiyati bilan botiniy munosabatga kirishib bo`lmaydi. Navoiyning iqrori bo`yicha iste’dodsiz davr, o`rtamiyona zamon, ma’rifati past jamiyat va zolim saltanat hech vaqt talantlarni qo`llab-quvvatlab ularga erkinlik va ilhom berolmaydi. Mutafakkir shoirning quyidagi kabi so’zlari hayot va jamiyat haqida o`ylashga ham undaydi:

Ishq aro dardu balodin o`zga yo`q,

Zulmu bedodu jafodin o`zga yo`q.

Maslak va shaxsiyat e’tibori bilan Navoiy so`nngi nafasigacha sevgan, sidq-u sadoqatini sira susaytirmagan shaxs, hech shubhasizki, sarvari koinot Muhammad (s.a.v.) bo`lgan. Bunday mehr-u muhabbat esa Navoiy dunyoqarashi va shaxsiyatiga olamshumul ochiqlik va so`nmas ko`rk bag`ishlagan. Shoirdagi kamtarlik, xokisorlik, jafokashlik va hikmat-u himmatning daxlsiz bir asosi ham ana shu. Uning:

Sening madoyixiy na’tingda, yo Rosulullоh,

Tamom bo`ldi Navoiy takallumi poki, –

deyishi ham shundan. Navoiy tarjimai holidan xabardor kishi biladiki, beshavqat dahr, g`addor zamon, subutsiz jamiyat umr shomida shoirni yana ketma-ket og`ir sinov, nisbatan boshqacha iroda imtihonlaridan o`tkazgan. Umri ilgarilagani sayin shoir boshiga yog’ilgan jafo, kulfat, hasrat toshlari ortib borgandi. Mehribon jiyani Haydarning hayotida jiddiy xavf-xatar tug’ilishi, ukasi Darveshalining hibsga olinishi, mehr qo’yib umid bog’lagan shahzoda Mo’min Mirzoning vahshiyona o’ldirilishi, mayxo’rlik va maishatparatlikka mukkasidan ketgan Husayn Boyqaroning o’g’illari bilan nizolari, davlat va hokimiyatning tanazzuli, el-yurt hayotidagi iqtisodiy, axloqiy, madaniy buhronlar Navoiyning shaxsiyatiga ham, sog’lig’iga ham halokatli ta’sir qilgandi. Biroq bularning barini donishmand Navoiy

hayotda yuz ko’rsatishi muqarrar g’am-g’ussa, afsus-nadomat chekish bilan bir ijobiy natija chiqmaydigan voqea-hodisalar o’laroq qabul qilgandi.

Kim ko’rdi ekin jahonda oyo xushluq,
To bir kishi aylagay tamanno xushluq.
Yuz yilda agar bir o’lsa paydo xushluq,
Omodadurur yonida yuz noxushluq.

Ko’rgan-bilganlari qachonlardir bitilgan mazkur fikrlarning davomiy isboti edi. El-ulus, mamlakat va ma’rifat dardida jism-u joni yongan jafokash shoir oldingiga nisbatan ham o’zini yolg’iz, g’amzada his etardi:

Ollimda tabibi chorasozim ham yo’q,
Yonimda rafiqi dilnavozim ham yo’q.
Tegramda anisi jongudozim ham yo’q,
Boshimda shahi bandanavozim ham yo’q.

Bunda ta’kidlangan ayriliq va hijronning hammasi ham qiynoqli. Va cho’ng qayg’u. Lekin insonparvar mehribon bir podshohning yo’qligi – bu endi aytgan bilan ado bo’lmas musibat. Adabiyot, san’at, ilm-fan, siyosat, iqtisod, ma’naviyat maydonlarida ot surgan, kurashgan, biroq yengilmagan.

Bu misralarni bitgan shoirga, albatta, juda og’ir bo’lgan. O’qiganga ham yengil emas… Darvoqe, bir g’arb faylasufi, “Mening maqsadim yig’lash yoki kulish emas, anglashdir”,- degan ekan. Biz esa buyuk Navoiyning ham ahvoli ham she’rining mohiyatini anglashga jahd etar ekanmiz. Navoiydan bizgacha tarixiy masofa olti asrga yaqin… Ezgulik va yovuzlik, zulm va adolat, haqiqat va haqsizlik, ma’rifat va jaholat kurashi esa to’xtagani yo’q – hamon jadal davom etayotir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Karimov.I. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Haqqulov. I. Shaxsiyat va shijoat. O`zbek tili va adabiyoti.2004.4-son.
3. Rasulov A. “Tanqid, talqin, baholash”. – T.: Fan, 2006.
4. Hasanov Sh. Ijodkor shaxsiyati va voqelik talqini. O`zbek tili va adabiyoti. 2018. 4-son.
5. Do`stmuhammad X. Muallif tiynati o`zgarmaguncha.O`zbekiston adabiyoti va san`ati. 2018. 5-oktabr.

ALISHER NAVOIY ASARLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Hayitmirzayeva Muazzam Valijon qizi
Namangan davlat universiteti boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Bu maqola Alisher Navoiy asarlarining barkamol avlod uchun kerakli bo‘lgan tarbiyaviy jihatlari haqida, yomon illatlarni qoralash, shu bilan birga yaxshi hislatlarini ulug‘lab yoshlar ongiga singdirish maqsadi haqida yozilgan.*

Kalit so‘zlar: *Islohot, meros, yoshlar tarbiyasi, ilm-hunar, ahloq.*

Annotation: *This article is written about the educational aspects of Alisher Navoi's works, which are necessary for a harmoniously developed generation, with the aim of condemning the bad, as well as glorifying the good in the minds of young people.*
Keywords: Reform, heritage, youth education, science, ethics.

ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АЛИШЕРА НАВОИ

Хайитмирзаева Муаззам Валиджон кызы.
Наманганский государственный университет, студентка 2 курса начального образования

Аннотация: В данной статье речь идет о воспитательных аспектах творчества Алишера Навои для гармонично развитого поколения, цели осуждения плохого, а также прославления хорошего в сознании молодежи.
Ключевые слова: реформа, наследие, воспитание молодежи, наука, этика.

Mamlakatimizda olib borilayotgan bugungi kundagi islohotlar zamirida tariximizni eslash, qadrlash, o‘tganlarni yod etish turadi, desak adashmaymiz. O‘zbek tarixini ajdodlarimizdan: Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Husayn Boyqaro va boshqa sarkardalar, Mavlono Lutfiy, Zahiriddin Muhammad Bobur,

Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Usmon Nosir kabi tarixda o‘z o‘rnini topgan, buyuk yozuvchilarimiz yaratgan. Endilikda bu tariximizni davom ettirish uchun, bu sharafli tariximizni unut bo‘lib ketmasligi uchun shoirlar yozgan asarlar-u, usta me'morlarimiz yaratgan binolarning qad rostlashini ta'minlanmoqda. Yozuvchilarining bizga juda katta unutilmas meros qoldirdi. Yuqorida aytib o‘tilgan yozuvchilar qatorida so‘z mulkining sultoni, Alisher Navoiyni ham sanab o‘tishimiz lozim. Chunki, u bizga faqatgina adabiy meros emas, balki, tarbiyaviy meros ham qolgan, albatta. Yaratgan asarlarining ko'p qismi yoshlarni tarbiyaviy jihatdan kamol topishiga hizmat qiladi. Har bir to‘rtlik, har bir nasriy asarlarida chuqur tag ma'no mavjud va barchasi insonni ezgulik tomon chorlaydi. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov Alisher Navoiy haqida shunday degan edilar: “Agar bu ulug‘zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir”. Haqiqatan ham, bu so‘zlar o‘z maromida aytilgan, bir vaqtning o‘zida ham avliyo, ham mutafakkir, ham shoir bo‘la olgan ul zotga qancha ta'rif bersak shuncha kam.

Alisher Navoiy asarlarining asosiy g‘oyasi poklik, mehr-muhabbat, do‘stlik, g‘amxo‘rlik, sof sevgi, mardlik, ilohiy ishq, odob-ahloq va boshqa tuyg‘ular orqali tarbiyaviy jihatlarni uyg‘unlashtirish bo‘lgan. U tarbiya jarayoni uchun asar yaratmagan bo‘lsada, barcha asarlarining tub mohiyati tarbiyaga borib taqaladi. Umuminsoniy tarbiyani asarlarida barkamol inson obrazida talqin etadi. Uning ilm-fan, ma'rifat, ta'lim va tarbiya masalalarida insonparvarlik g‘oyalari yetakchi o‘rinda turadi. "Inson dunyodagi hamma narsadan yuksak, aziz va qadrlidir" -degan so‘zlari bilan o‘z davridagi sof vijdonli insonlarning manfaatlarini himoya qiladi. Insonga zarur bo‘lgan axloq-odob qoidalarini o‘rganib chiqadi va o‘z qarashlarini badiiy asar qahramonlari obrazida shakllantiradi.U odamlarni axloqli va odobli bo’lishini istaydi va axloqni shunday ta’riflaydi: “ Ahloq shaxsning og’ir baqolig’ libosidir va libos jismning sangin debosi. Shuning bilan birga odamni bezaydigan ham axloqdir”. Hulqi go‘zalning o‘zi ham, so‘zi ham go‘zal bo‘ladi degan gap bejizga aytilmagan,

axloq insonning qanday ekanligini koʻrsatuvchi hislatdir. Navoiyning fikricha, ilm oʻzidan oʻzi boʻlmaydi, kishi unga faqat ishtiyoq hamda havas bilan erisha oladi.

Birovkim qilsa olimlarga ta’zim,

Qilur goʻyoki paygʻambarga ta’zim.

Shoir olimlarni ya'ni, ilmli kishilarni qadrlaydi, e'zozlaydi, ularga ta'zim qilishni paygʻambarlarga ta'zim qilishdek hisoblaydi.

Oz oz oʻrganib dono boʻlur,

Qatra qatra yigʻilib daryo boʻlur.

Navoiy oz-ozdan oʻrganib yigʻilgan bilimni, ma'lum bir miqdorda egallangan koʻnikmani tomchi suvni tinmay oqishidan hosil boʻlgan daryoga qiyoslaydi.

Haq yoʻlinda kim senga bir harf oʻqitmish ranj ila,

Aylamak boʻlmas ado aning haqin yuz ganj ila.

Bu misralarda birinchi oʻqituvchi nazarda tutilgan. Birinchi ustozi oʻquvchilariga qancha mashaqqatlar bilan harf yozishni, oʻqishni oʻrgatadi va hayot yoʻlida qoqilmasliklari uchun bor mehrini berib saboq beradi. Ustozning bu xizmatini yuzlab xazinalar bilan ham toʻlay olmaslikni Navoiy shu ikki misrada bayon qiladi.

Alisher Navoiyning asarlaridagi Layli, Majnun, Farhod, Shirin, Shopur, Dilorom, Qays, kabi ijobiy qahramonlar umuminsoniy tarbiya asosida tarbiyalanganlar hamda ular kamtarin, odobli, or-nomusli, insonlardir. Navoiy bu qahramonlar obrazi orqali yoshlarni yaxshi tarflama tarbiya topishiga harakat qiladi. Uning asarlaridagi tarbiya haqida aytgan fikrlari biz uchun xazina hisoblanadi. Ayniqsa, umuminsoniy fikrlari hozirgi barkamol avlodni tarbiyalashda muhim oʻrin

tutadi. U yoshlarni ilm va hunarli bo‘lishga da'vat etadi va o‘zlashtirgan ilm-u hunarlari Vatan uchun sarflashni uqtiradi.

Navoiyning fikricha, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan boshlab astoydil o‘qish-o‘rganish kerak: “Yoshligingda yig‘gil bilimni, qarigach sarf qilg‘il ani”, - degan jumlalarni keltirgan shoirning o‘zi ham juda yoshligidan ta’lim oladi, o‘qishga beriladi. Bunga misol qilib bolalik davridayoq yodlab olgan Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asarini keltirishimiz mumkin.

Buyuk so‘z san’atkori o‘zining bir nechta asarlarida shaxs tarbiyasiga bo‘lgan qarashlarini ifodalabgina qolmay, " Hayrat ul-abror " (Yaxshi kishilarning hayratlanishi) falsafiy-ta'limiy dostonining ayrim boblarni shu masalaga qaratgan. Bu asarda ma'lum bir obrazlar orqali riyokorlik, ikkiyuzlamachilik, xiyonat kabi yomon illatlarni fosh etadi, shu bilan birga rostgo‘ylik, saxiylik, mehribonlik, to‘g‘rilik, ilm va hunarlarning foydasi haqida iliq munosabatini kamtarinona bayon etadi. Shoir ota-ona qadri haqida so‘z yuritadi ekan ularni oy va quyosh deya ta'riflaydi:

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a…
Tun-kunungga aylagali nurposh,
Birisin oy angla, birisin quyosh…

Alisher Navoiy asarlarini qisman tahlil qilgan bo‘lsak ham shuning o‘zidan yetarlicha xulosalar chiqarishimiz mumkin. Shoir har bir kamol topayotgan avlodni yomon qusurlardan saqlanishi, yaxshi fazilat, yaxshi xulq egasi bo‘lishini istaydi. Navoiy yaramas odat va xulq-atvorlarni shafqatsiz qoralashi, oliyjanob insoniy fazilatlarni qadrlashi, bolalarni o‘qish, o‘rganish va yuksak odobli, a’lo xulqli bo‘lishga chaqirishi katta ahamiyatga ega bo‘lib, bolalar adabiyotining shakllanishida juda muhimdir. Uning bir qator axloqiy-ta’limiy qarashlari hozirgi kunda ham o‘z qadr-qimmatini saqlab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Karimov I.A.Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. -T.: “Ma’naviyat”,2008.

2. Karimov I.A. Adabiyotga e’tibor — ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. .-T.: “O’zbekiston”, 2009.

3. Qayumov A. Alisher Navoiy (Mashhur siymolar hayoti). -T.: “Kamalak”,1991.

4. Navoiy, Alisher. Xamsa: Hayratul-Abror, Farhod va SHirin, Layli va Majnun, Sab’ai sayyor, Saddi Iskandariy. --T.: “G’.G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti”, 1986.

5. Navoiy,Alisher. Hikmatlar: Bolalar uchun. -T.: “A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti”,1999.

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz

“MIFTOH UL-ADL” ASARIDA ALISHER NAVOIY AN’ANALARI

Ibroximova Sevaraxon Sodiqjon qizi
Qo'qon davlat pedagogika instituti
O’zbek tili va adabiyoti fakulteti

Annotatsiya

Maqolada Xoja taxallusi bilan ijod qilgan ulug’ mutafakkir adib va shoir Ibodulla Sayyid Podshxoja ibn Abdulvahobxo’janing pand-nasihat , axloqiy-ta’limiy mazmunda bitilgan “Miftoh ul-adl”dagi kichik hikoyalar tahlili bayon etiladi.

Kalit so’zlar: "Hayrat ul-abror", "Sulaymon va obi hayot ", Muhammad Temur Sulton, Iskandar, Sulton Mahmud, Sulaymon alayhissalom.

Annotation

In this article, analysis of short stories taken from "Miftoh ul-adl "written by Ibodulla Sayyid Podshxoja ibn Abdulvahobxo’ja who is famous intellectual and poetb is provided.

Key words: "Hayrat ul-abror ", "Sulaymon va obi hayot ", Muhammad Temur Sulton, Iskandar, Sulton Mahmud, Sulaymon alayhissalom.

Аннотация

В статье анализируются рассказы великого мыслителя, писателя и поэта Ибадуллы Саййида Подшоходжи ибн Абдулвахобходжи, писавшего под псевдонимом Ходжа, в "Мифтох ул -адл", написанные в нравственно-просветительском контакте.

Ключевые слова: "Хайрат ул -аброр", "Сулейман и аби хаят", Мухаммад Темур Султан, Искандар, Султан Махмуд, Сулейман алайхиссалам.

“Miftoh ul-adl” (Odillik kaliti) asari nafaqat qadimiy o’zbek adabiyoti tarixida, balki bugungi zamonaviy o'zbek adabiyotida ham yuksak ahamiyatga molik adabiyot

va til yodgorligi bo’lgan durdona asardir. XVI asrda yaratilgan badiiyat namunasi hisoblangan mazkur asar “Gulzor” asarining muallifi Sayyid Podshoxoja ibn Abdulvahobxo'ja o’g’li qalamiga mansub. Asar muqaddimasidan ma’lum bo’lishicha, Shayboniyxonning o’g’li shahzoda Muhammad Temur Sultonga bag’ishlab bitilgan mazkur asar o’ziga xos an’ana tusini olgan pand-nasihat ruhida yozilgan asarlar turkumiga kiradi. Nazm yo'li bilan pandnoma asarlar yaratish silsilasi ilk bor Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” dostonida qahramonlar obrazi orqali suhbatlari davomida, bir-birlari bilan munosabatlarida pand-nasihatga tayanish uslubida o’z ifodasini topgan.

Alisher Navoiyning Xamsa dostonini ochib beruvchi “Hayrat ul-abror” asarida komillik sari yetaklovchi pand-nasihatlarni berish maqolat va she’riy hikoyalar orqali yoritib beriladi.Bir yuzi yetmish olti bobdan iborat "Lison ut-tayr” asarida esa ramziy obrazlar sifatida olingan Hudhud hamda masnaviyda ishtirok etadigan boshqa qushlar tilidan so’zlangan hikoya va masallar orqali amalga oshiriladi.Navoiy hikoyalardan namunalarni tadbiq etar ekan qissadan hissa tarzida bayon etmaydi,balki mutolaa qilayotgan insonning o'ziga havola etadi hamda doimo adolatga chorlab,bu yo'lda pand-nasihatlar beradi.Xojaning kichik bo'lsa-da keng ma'no kasb etuvchi nasriy hikoyalardan tarkib topgan “Miftoh ul-adl” asari fors-tojik adabiyoti yorqin vakillarining nasr namunalariga ham o’xshab ketadi. Ixcham tarzda hikoyalar ijod etish an’anasi Xoja davriga qadar Nosiruddin Rabg’uziyning “Qissasi Rabg'uziy" asarida ham ko'zga tashlanadi.Xoja o’ziga qadar yaratilgan diqqatga sazovor asarlardan ilhomlanib kichik hikoyalarini ijod etishga kirishadi. Shu boisdan adib hikoyalarining qahramonlari sifatida tanlangan Iskandar, No’shiravon, Sulton Mahmud kabi podshohlar obrazlari XVI asrgacha adabiyotda badiiy timsol ko'rinishiga aylanib ulgurgan edi.

"Miftoh ul-adl " o’n besh bobdan iborat bo’lib, asarda oqil sultonlar bilan birgalikda zulmkor podshohlar, iymonsiz beklar, ular tomonidan chiqarilgan farmonlar, adibning ularga bo'lgan fikrlari voqealarga tayanilgan holda aks ettiriladi. Shuning barobarida, fikrlar tasdig'i uchun turli hikoyalarga o’rin beriladi. “Sulton Mahmud,

vazir va ikki boyqush”, "Sulaymon va obi hayot", "Iskandar , "Sulaymon alayhissalom" singari asar tadqiqotchilari tomonidan shartli nomlangan ko'plab hikoyalar mavjud. Asar hikoyalaridagi bosh qahramonlarning ko'pi deyarli hukmdorlarning, zulm ostida qiynalgan xalq vakillarining obrazidan iborat.

O'z davrining peshqadam din sohibi sifatida diniy qadriyatlardan nur olgan Xoja kichik nasriy durdonalari bilan zamona hukmdorlari, shayboniy shahzodalarga pand-nasihat qilishni nazarda tutadi.

“Miftoh-ul adl“ asarida zolim podshohlarni to’g’ri yo’lga soluvchi donishmand vazirlar obrazlari ham tez-tez uchrab turadi. Ularning donoligi ba’zan taklif etgan tadbirlarida namoyon bo’lsa, ba’zan voqea-hodisalardan ibratli xulosa chiqarishlarida ko’zga tashlanadi. Shunday hikoyalaridan birida Sulton Mahmudning vaziri boyqushlar suhbatini hukmdoriga to’g’ri talqin qilib yetkazishi orqali uni adolat yo’liga chorlashi aks ettiriladi.

Sulton Mahmud G’aznaviy zolim, uning vaziri Xoja Hasan dono va odil ekan. Ular kunlardan bir kun ovga chiqishibdi. Vazir shaharning chetida sayrayotgan ikki boyqushni ko’rib chuqur oh tortib yig’labdi. Bundan taajjublangan sultonga qarata vaziri debdi: “Ul bir boyqushga ayturkim, ikkimiz quda bo’laylik, qizingni maning o’g’limga bergil, taqi keyin ne tilasang berayin, der. Ul ayturur:"Maning qizimning qaliniga o’n ming buzug’ uy kerakdur". Boyqush aytadur: "Agar Sulton Mahmud tirik bo’lsa, bir yildan so’ng yuz ming buzug’ uy desang ham berayin" – dedi. Men shul so’zga yig'ladim deya qayg'uga cho'madi. Sulton men shu qadar zolimdurmanmi, mening zulmimdan bir yilda yuz ming uy xarob bo’lsa deb vaziriga boqdi, vaziri shundoq ayturlar deb tasdiqlaydi. Shunda sulton vaziridan endi qanday yo'l tutish borasida maslahat so'raydi. Vazir: “Adl qilmoq kerak va taqi ul zulm qilmoqdin tavba qilmoq kerak…”, - deb podshohni adolat sari chorlaydi, pand-nasihat beradi. Sulton Mahmud qilgan ishlariga tavba qiladi, adolat bilan davlat ishlarini boshqarishga ahd qiladi. Tunda darveshlarning libosini kiyib, qayerda bir tul xotin yoki bir miskin bo’lsa, unga ehson qilishni odat qiladi. Hikoyada zulmga adolat

bilan barham berish, har qanday hukmdor va zulmkor insonni ham pand–nasihat bilan to’g’ri yo’lga solish mumkinligi talqin etilgan. Oqilona yo'l tutgan vazir Xo’ja Hasan podshohning zulmkorligini majoziy ma'no tashuvchi tamsilni sharhlash yo’li bilan bayon qiladi. Bu kichik nasr namunasi o’ziga xos uslubda vujudga kelgan. Avvalo, ijodkor boyqushlar xalq nazdida, baxtsizlik va xarobalik ramzi ekanligidan mahorat bilan foydalanganligini ta’kidlash lozim.

Xojaning hikoyalarida adolat bosh mezon qilib olingan. Quyidagi hikoyada ham Sulaymon alayhissalomning adolat borasida tengsizligi ifoda etilgan. Hikoyada aytilishicha, Sulaymon alayhissalom huzurlariga pashsha kelib yeldan shikoyat qiladi. Pashsha: “Yelning dastidan bu olamda erkin ucholmaganimiz bois bisyor rizqimizdan tashvishda qoldik. Yel sening farmoningda, hukm qilgin bizga zahmat yetmasin”, dedi. Sulaymon alayhissalom aytdiki: “Sen o'zing arz qilding, endi yelning ham arzini tinglaylik nima deb javob aytarkan".Yelni chaqirdilar,biroq kelgach pashsha qochib ketdi, qaradilar pashshani qidirib topolmadilar. Bu holdan ajablangan Sulaymon alayhissalom aytdi, adolat qoidasi shundayki:Arzni tinglaguvchi inson da'vo qiluvchi va da'vo qilinuvchi ikkisini barobar turgizib so'rashi lozim, bir -birlarining so'zlarini tinglovchi oldida bayon qilishgandan so'ng tinglovchi hukm chiqarmog'i darkor.

G'azal

Bo'l adolat masnadi uzra Sulaymoni zamon,

Toki sandin mustafid o'lg'ay bari ahli jahon.

Gar Sulaymondek bo'lub xalqi ichida qilsang maosh,

Bilki,farmoningda bo'lur olam ichra ins-u jon.

Hikoyada ravshan ko'rinib turganidek: "Har kimning aytayotgan har xil so'zlariga ishonib adolat qasrini vayron etma,balki adolat qasrining ustuni bo'lmoqlikni o'zingga shior ayla".

Xulosa qilib aytish mumkinki, adabiyotimizning yorqin vakili Xoja hikoyalari o’ziga xos nasr namunasi bo’lib, unda adibning janr talablaridan chekinganligi kuzatilmaydi. Ortiqcha timsolning uchramasligi, o’zaro muloqot usulidan mahorat bilan foydalanganligi o’sha “mitti” asar ijodkori badiiy salohiyatining yuksakligidan dalolat beradi. Xoja hikoyalarining qay birini tahlil etmaylik, hikoyalarining barchasidan ibrat olamiz adolat yo’li sari qadam bosmoqlikni o'zimizga maqsad etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mallayev.N “O’zbek adabiyoti tarixi” Toshkent “O’qituvchi”,1976 y.

2. Vohidov.R, Eshonqulov.H “O’zbek mumtoz adabiyot tarixi”,Toshkent 2006y.

“LAYLI VA MAJNUN” – AFSONA VA HAQIQAT

Matyoqubova Zuxra O`rinbayevna
Urganch davlat universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola Layli va Majnun haqida rivoyatlar, ulardagi qahramon va voqealar tarixiyligi haqidagi ayrim qarashlar yoritiladi. Qissalar syujetining badiiy adabiyot namunalarida aks ettirilishi va ayrim ijodkorlar manbalaridagi namunalar keltirib otiladi.
Kalit so`zlar: Layli, Majnun, Bertels, xalq qissalari.

Аннотация: В данной статье будут освещены повествования о Лейли и Меджнуне, некоторые взгляды на историчность героев и событий в них. Приводятся примеры отражения сюжета повествования на примерах художественной литературы и в источниках отдельных творцов.
Ключевые слова: Лейли, Меджнун, Бертельс, народные сказки.

Annotation: This article covers legends about Layla and Majnun, some views on the hero and the history of events in them. The plot of the stories is reflected in the samples of artistic literature, and the samples from the sources of some creators come.
Keywords: Layla, Majnun, Bertels, folk tales.

Yaqin va O’rta Sharq xalqlari adabiyotida Layli va Majnun mavzusiday keng tarqalgan boshqa bir ishq qissasini topish qiyin. Mana 13 asrdirki, ushbu mavzuda adabiyot olamida she`r va dostonlar bitilib keladi. Ushbu Layli va Majnun haqidagi qissa arab xalqlari orasida keng tarqalgani va g’oyat mashhur bo’lgani haqida I.Yu. Krachkovskiy shunday fikr bildirgan: “Sharqdagi “Layli va Majnun” g’arbdagi

“Romeo va Juletta”ga nisbatan mashhurroqdir”. “Layli va majnun” ko’p asrlik tarixga ega. Uning ildizlari mashhur adabiyotshunos-matnshunos, akademik I.Yu. Krachkovskiy takidlaganidek VII - asrga borib taqaldi. Mazkur davrda arab qabilalarida otashin muhabbat xaqidagi she`rlar tarqala boshladi. Ularda go’zal bir qizga oshiq bo’lib, mahbubasi visoliga yetolmay iztIrob chekayotgan yigitning kuchli dard-u armonlari, sevgilisinig husnu jamoli ta’rifi, unga bo’lgan samimiy muhabbati, ehtiroslari bir biridan nafis baytlar zamiriga jo bo’lgan edi. Bazi manbaalarda kelishicha, Majnun tarixiy shaxs bo’lib, uning asl ismi manbaalarda Qays ibn Mulavvah, Mahdiy ibn Muod, Al Aqra va bazan Al Buxtariy ibn Al-Ja’d tarzida keltiriladi. Arab olimi ibn Qutaybaning “Kitob ush-she’r va -shuaro” asarida kelishicha Majnun o’z qabilasidagi Layli ismli qizni sevib unga bag’ishlab she`rlar to’qigan. Bundan tashqari Al Johiz Abu Bakr Al Volibiy va boshqa arab olimlarining kitoblarida Layli va Majnun haqida turli tuman rivoyatlar keltiriladi. Ammo yuqoridagi fikrni rad etuvchi qarshilar ham bor. Jumladan, arab olimi Avon ibn Hoshim Al Qalbiy

(764 yil vafot etgan), arab tarixchisi Hishom al Qalbiy (819 yil vafot etgan)lar Majnun tarixiy shaxs emas, uning nomi majoziy, sevgi hijron she`rlari esa Umoviy honadoniga mansub bir oshiq yigit tomonidan bitilgan va nomini oshkor etmaslik uchun Majnun tahallusini qo’llagan deyishadi. Shu tariqa VII asirning 2-yarimidan boshlab arab poeziyasida Majnun tahallusli mungli she’rlar ko’payib keng tarqalib boradi. Vaqt o`tishi bilan ko`plab afsonalar, rivoyatlar to`qiladi va turli manbalardan joy ola boradi. Endi Majnun nomi arabistondagina emas, balki Yaqin va O`rta Sharq o`lkalarida ham keng shuhrat topadi. Mana shunday manbalar bora -bora yozma adabiyotga ham ko`chadi. Badiiy adabiyotda dastlab Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Ashrab Jomiy, Amir shayhim Suhayliy qalamiga mansub dostonlar yaratildi. Turkiy tilda esa Gulshahriy, Oshiq Posho, Shohidiy kabi shoirlar Layli va Majnun o`rtasidagi isgq sarguzashtlari haqida o`z dostonlarida ayrim parchalar berdilarki, ”bu parchalarLayli va Majnun afsonasining turkey tildagi dastlabki kurtaklari sifatida ahamiyatlidir”. Xususan, fizika matematika fanlari doktori, professor Mansurxon

Toirov bir maqolasida sharqshunos olim Bertels bayon qilmagan hamda Nizomiy, Navoiy, Fuzuliy, Jomiy, Dehlaviy va boshqa asarlarda bayon etilmagan holatlar aks etgan ikki asarga duch kelganini yozadi. Ulardan biri boshqa asarlarda ko`rinmagan, kishini hayron qoldiruvchi sifatlar bilan boyitilgan Hazrat Inoyatxon bo`lsa, ikkinchisi 1976-yil Kievda B.Shidfar tahriri va so`zboshisi asosida yetib kelgan “Bani amir qabilasilik Majnun haqida rivoyat” asarlaridir. Quyida hazrat Inoyatxon bergan «Layli va Majnun» rivoyatidan parcha keltiriladi:

...Majnunning ota-onasi Majnunning Layliga bo‘lgan telbalarcha ehtirosini davolash uchun barcha chora-tadbirlarni ko‘rib bo‘lishgach, eng yaxshisi Laylining ota-onasiga murojaat qilish fikriga kelishadi va bu Majnunning jonini qutqarish uchun ularning eng oxirgi umidlari bo‘ladi. Ular Laylining ota-onalariga maktub yo‘llaydilar (ular boshqa dinga mansub edilar), unda bunday deyilgan edi: «Bizlar Majnunning xayolidan Laylini ko‘tarish uchun imkoniyatimiz darajasidagi barcha choralarni ko‘rdik, lekin biror-bir natijaga hali-beri erishmadik. Va bizlarda tanho bir umiddan boshqa umid qolmadi – mabodo sizlar ularning nikohiga rizolik bersangizlar». Ular bularga javoban «Bu bizlarni mazax bo‘lishga olib kelsa-da, harqalay Layli nazarimizda bir onga bo‘lsada, Majnun haqida o‘ylamay tura olmaydi chamamda. Bizlar uni maktabdan olib ketganimizdan buyon u kundan-kun so‘nib borayotir. Shuning uchun bizlar Laylini Majnunga uzatishga qarshi emasmiz, lekin shu shart bilanki, uning aqli raso ekanligiga imonimiz komil bo‘lsa». Buni eshitgan Majnunning ota-onasi juda ham quvonib ketishdi va Laylining ota-onasida aqldan ozibdi, degan shubha uyg‘otmaslik uchun Majnunga o‘zini aqlli tutib yurishlikni maslahat berishadi. Majnun Layli bilan ko‘rishish nasib bo‘lishi uchun ota-onasi nimaniki xohlagan bo‘lishsa, barisini bajarishga rozi bo‘ladi. Ular Sharq udumlariga binoan qalliq uyi tomon tantanavor yo‘l oladilar. Tasodifan Majnun tuyada xat tashuvchini uchratib qoladi va undan Layli haqida so‘rasa, u: «Uning ota-onalari bu yurtni tashlab yuz chaqirim nariga ko‘chib ketishgan», deya javob beradi. Majnun undan Layliga o‘zining salomini yetkazishni iltimos qiladi. Xat tashuvchi «Jonim bilan», deya uning iltimosini qabul qiladi. Lekin Majnun so‘zlay boshlaganida uning

gapi uzoq, juda ham uzoq vaqtga cho‘zilib ketadi. «Sevgi maktubini tugallash mumkin emas». Uning sofdilligi xat tashuvchining ko‘nglini ochadi va hayajonga soladi. Majnun tuyaning yonida yurib ketayotgan bo‘lsa-da va o‘zining uzoq yo‘lida yaxshi hamroh bo‘lsa-da, tuyakash unga rahmi kelib, «Sen o‘z maktubingni menga bayon qila borib 10 mil masofani o‘tib qo‘yding. Men uni Layliga yetkazishim uchun qancha vaqt sarflashim kerak bo‘ladi bilasanmi? Bor yo‘lingdan qolma, men naiki kerak bo‘lsa, barini bajo keltiraman», deya murojaat qiladi. Shunda Majnun orqaga buriladi, lekin yuz odim ham yurmasdan qaytadan xat tashuvchiga yetib olib «Ey mening mehribon va marhamatli do‘stim, Layliga yetkazishing uchun senga yana bir necha og‘iz so‘zlarimni aytish yodimdan ko‘tarilibdi», deya o‘zining sevgi maktubini so‘zlari bilan davom etirib yana o‘n mil masofa o‘tib ketganiniyam sezmay qolibdi. Shunda xat tashuvchi «Baraka topkur, o‘zingga rahming kelsin, bor yo‘lingdan qolma. Sen juda ham uzoq masofaga ketib qolding. Qandoq qilib sen menga aytgan gaplaringni yodimda saqlay olaman. Harцalay yodimda qoldirishga harakat qilaman, sen esa hoziroq orqangga qayt. Sen shundog‘am uyingdan juda olislab ketib qolding», deya Majnunga rahmi kelib murojaat qilibdi. Shundan so‘ng Majnun uyi tomon keta boshlab bir necha qadam qo‘ygach, yana xat tashuvchidan aytib yuborishi zarur bo‘lgan nimalardir xayoliga kelib, tag‘in xat tashuvchiga yetib olib, qalbidagini bayon qilib, tuyaning yonida keta boshlabdi. Shunday asnoda ikki hamrohning safari yakuniga yetib, Majnunning o‘zi Layli yashayotgan yurtga kirib boribdi. Xat tashuvchi bunday sof muhabbatdan hayronlikka tushibdi va «Sen Layli yashayotgan yurtga yetib kelding. Hozircha ushbu nuray boshlagan masjidda o‘tira tur. Hozir sen men bilan shahar bo‘ylab yursang, ular seni Layliga yetguningcha xiyla azoblashadi. Senga eng yaxshisi hozir bir oz bo‘lsa-da, hordiq chiqarishdir, chunki sen juda uzoq masofani nafas rostlamasdan, dam olmasdan bosib o‘tding. Men esa sening maktubingni Layliga yetkazaman» debdi. «Muhabbatdan sarxush bo‘lganlar na vaqtni va na fazoni ko‘radilar». Majnun uning maslahatiga ko‘nib o‘sha joyda qoladi. Uning dam olgisi keladi, lekin Layli yashayotgan shaharda ekanligi oyog‘ini qaysi yo‘nalishda uzatish muammosini keltirib chiqaradi.

Shimoldamikan, balki janubda, balki sharqda yoki g‘arb tomondadir Layli, deya fikri bir to‘xtamga kela bermagach, o‘zicha «Mabodo bu shaharda Layli bo‘lsa-yu, u tomonga oyog‘imni uzatsam, men tomonimdan o‘ta yuzsizlik bo‘ladi, yaxshisi oyoqlarimni arqon bilan osib qo‘ygan ma’quldir» degan xulosaga keladi. Jahonda biror-bir kimsaning senga bo‘lgan muhabbati muhabbatiga teng kela olmaydigan Majnun mendan senga maktub yubordi va u yo‘l-yo‘lakay maktubini bayon qilib borar ekan, sening shahringga mening tuyam bilan barobariga yetib keldi» debdi. Shunda Layli: « Ey, Osmonu falak! Bechora Majnun! Unga nima bo‘ldi?!» deya nido qilibdi. Layli o‘zining qari enagasidan: «Nafas rostlamay yuz mildan oshiq yo‘lni o‘tgan odamga nima bo‘ladi?» deb so‘raganida, u darrov javob berib, «Bunday odam o‘ladi» debdi. Shunda Layli «Bundan biror-bir chora bormi?» deya so‘raganida, enaga «U bulturdan beri yig‘ilib qolgan yomg‘ir suvidan ichishi kerak va u suvdan ilon ham ichgan bo‘lishi kerak bo‘ladi. So‘ngra uning ikki oyog‘ini arqon bilan bog‘lab kallasini yerga qaratib osib qo‘yish kerak bo‘ladi va u shunday holda uzoq vaqt osilib turishi kerak. Shu uning hayotini saqlab qolishi mumkin» deb javob beribdi. Shunda Layli qichqirib, «Bularning barchasini topish qanchalar qiyin-a!» deb oh chekibdi. Lekin, Xudo Majnunni yo‘lga solibdi va shuning uchun barcha holatlar uning uchun yaxshilik bilan yakun topibdi». Keyingi kuni Layli yeguliklar to‘pladi-da, o‘zining siridan voqif bo‘lgan kanizagidan ularni Majnunga yubordi. Layli kanizakdan Majnunga maktub ham yo‘llab, u ham Majnun kabi uni ko‘rishga intizor va oshiqayotganini, lekin bunga qulflangan xonadaligi monelik qilayotganini va birinchi imkoniyat paydo bo‘lishi bilanoq uni ko‘rishga borishini bildiradi. Kanizak nuray boshlagan masjidga borib, u yerda ikki kishi borligini ko‘radi. Unga ulardan biri o‘z xayoli bilan band bo‘lib, atrofida ro‘y berayotgan voqealarga befarqday ko‘rinadi, ikkinchisi esa to‘ladan kelgan bo‘lib, baquvvat ko‘rinadi. Kanizak Layli bunday xayolparastni sevishi mumkin emas va hattoki, o‘zim ham u xayolparastni seva olmagan bo‘lar edim, degan o‘yda bo‘ladi va har ehtimolga qarshi ulardan, qay biringni isming Majnun, deya so‘raydi. O‘z xayoli bilan band bo‘lgan Majnun kanizakning savolini eshitmaydi hisob. Lekin bekorchilikdan o‘tirgan ikkinchi odam

kanizak qo‘lidagi yeguliklarni ko‘rib juda ham xursand bo‘lib ketadi va «sen kimni qidirayotirsan», deb so‘raydi. Shunda kanizak «Mendan bularni Majnunga yetkazishni so‘rashgan edi. Bu senmisan?» deya so‘raydi. Shunda u odam qo‘llarini savatga uzatib, «Men sen bu yemaklarni keltirgan odamman», deya javob beradi hamda kanizakka bir necha og‘iz hazilomuz so‘zlarni aytadi. Kanizak qaytgach, Layli «Sen unga savatni berdingmi?» deya so‘raydi. – «Ha» deya javob beradi kanizak. Layli har kuni o‘z taomlarining katta qismini Majnunga jo‘natib turadi va u taomlarni har safar Majnun bilan bir masjidda bekorchilikdan to‘xtagan begona odam qabul qilib oladi. So‘ngra, «U yerda yana biror bir kimsa bormi?» deya so‘raydi. Kanizak «Ha, u yerda yana bir odam bor, lekin u menimcha telbaroqqa o‘xshaydi. U kim kelayotir va kim ketayotir – payqamaydi ham. U biror bir so‘zni eshitmaydi ham va biror og‘iz gapirmaydi ham. U sen sevgan odam bo‘lishi mumkin emas», deya javob beradi. Shunda Layli, «Menimcha, hech shubhasiz o‘sha odam Majnun bo‘lishi kerak. Shu kungacha taomlarni u odamga yetkazmaganing uchun ming afsuslar qilaman. Kanizakdan Laylining shifo topishi uchun uning bir necha tomchi qoni zarur bo‘lib qolganini eshitgach esa, «Yo‘q, yo‘q. Men aniq Majnun emasman. Ana u Majnun. Undan so‘ra», deya o‘zini undan olib qochadi. Gangib qolgan kanizak Majnunning oldiga borib baland tovush bilan «Layli shifo topishi uchun sening bir necha tomchi qoning lozim bo‘lib qoldi», deyishi bilan Majnun hech bir ikkilanmasdan xanjarni qo‘liga oladi-da, «Laylining kori-holiga mening qonim kerak bo‘lib qolganidan qanchalar baxtiyorman. Mabodo Layli shifo topishi uchun jonimni berish lozim bo‘lgan taqdirda, u ham men tomonimdan arzimas bir tortiq bo‘lar edi.

Har qanday afsona va riviyatlar asosida haqiqat bo`lganidek, Layli va Majnun qissasi ham tarixiy xaqiqatga egadir. Agarda uning tarixiy ildizlari bo`lmaganda edi, asrlar davomida bizgacha yetib kelgan, sof, go`zal muhabbatni tarannum etgan nodir asarlar yaratilmagan bo`lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Jurayev, K. (2020). NOSIRXOJA VALADI MANSURXO'JANNING" LAYLI VA MAJNUN" DOSTONI. Архив Научных Публикаций JSPI.

[2] Kahhorova, S. A. (2020). POETIC INTERPRETATION OF NONEXISTANCE (FANA) IN THE EPIC “LAILI AND MAJNUN” OF FUZULI. Scientific reports of Bukhara State University, 3(3), 176-179.

[3] Ergasheva, M. O. (2020). ALISHER NAVOIY IJODIGA BIR NAZAR. Интернаука, (11-2), 65-66.

[4] Sabitova, T. (2021). ALISHER NAVOIY" XAMSA" SINING YARATILISHIDA BOSHQA XAMSANAVISLARNING ROLI. Academic research in educational sciences, 2(1).

[5] BERDİQULOV, H. ALISHER NAVOIY VA ABDURAHMON JOMIY O’RTASIDAGI BUYUK DO ‘STLIK NAMUNASI. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi (TÜRKLAD), 3(2), 268-272.

“MAHBUB UL QULUB” ASARIDA TARIXIY SHAXS NOMLARINING QO`LLANILISHI

Raxshona MUSLIXIDDINOVA,

NavDPI O`zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) **N.J.Yarashova**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Navoiyning “Mahbub ul qulub” asaridagi tarixiy shaxs nomlari sanab izohlab o’tilgan. Boshqa tarixiy manbalardan na’munalar keltirilgan.
Kalit so`zlar: Vazirlar,Xomon, Osaf,shoirlar,Dehlaviy, She’roziy, Jomiy, Andijoniy, Ansoriy,payg’ambarlar.

Аннотация: В данной статье перечислены имена исторических деятелей в «Махбуб ал кулуб» Навои. Приводятся примеры из других исторических источников.

Ключевые слова: министры, Хаман, Асаф, поэты, Дехлеви, Шерази, Джами, Андижан, Ансари, пророки.

Annotation: This article lists the names of historical figures in Navoi's Mahbub ul Qulub. Ehamples are given from other historical sources.

Keywords: Ministers, Haman, Asaf, poets, Dehlavi, She’razi, Jami, Andijan, Ansari, prophets.

Alisher Navoiyning olam bilgan “Mahbub ul-qulub” asarida hayoti davomida undan kerakli saboq olgan va insoniylik bobida ko`p tajriba orttirgan mutafakkir ushbu kitobni balog`at bo`sag`asida turgan yoshlarni to`g`ri yo`ldan adashmaslik uchun dasturulamal tariqasida yozganini qayd qiladi[v].

Asarning o`z g`oyaviy xususiyati o`laroq fasllarga bo`lingan. Mutolaa jarayonida qiyoslashlar, tanqidlar, maqtov o`rinlarida, albatta, tarixiy shaxslar misol tariqasida kelganini ko`rishimiz mumkin. Alisher Navoiy ijodini o`rganishda “Mahbub ul-qulub” ham o`zi yozgan va davri, shuningdek, Navoiyning o`zi haqida ma`lumot

beradigan asarlar safiga kiradi. Shuningdek, unda o`zidan oldingi davr kishilari, afsonaviy nomlar ham tilga olinadi. Bu yomon podshohning vaziri ham Firavnning Xomon degan vaziriga o`xshash yomondir. Xomon vazir katta bir savatga o`limtik yeydigan, uzoq umr ko`radigan kargas qushlarini solib, ustiga go`sht parchasi tashlab qo`ygan. Fir`avn go`yo ularga minib, Muso tangrisini mahv etajagini bildirgan. Asarda katta bir hikoyatni misol qilib keltirish barobarida vazirlikning ahamiyati ko`rsatilib, quyidagi misol bilan yomon-Xomon va yaxshi-Osaf vazir ikkisi muqoyasa qilinadi:

•Vazirlikni g`oyatda o`rniga qo`yib bajargan Sulaymon payg`ambarning vaziri Osaf bo`lib, u o`z uzugiga “Insonfli odamni Xudo rahmat qilsin” deb yozib qo`ygan ekan. (30-bet)

Adabiyotda Osaf «sohibi tadbir», donishmand vazir timsoliga aylanib ketgan. Vazir Osaf bilan doim uning uzugi adabiyotda yonma-yon qo`llaniladi.

Bulardan birining oti jahongashta Mudbir, ikkinchisining oti yigitlar mardi Muqbil edi. “Lison ut-tayr” va “Sabbai sayyor” asarlarida kelgan hikoyatlarga tayanadigan misolda sabr, qanoat, kamtarlikka urg`u beriladi.

Ishq to`gi zulmining g`amnoklaridan bir Farhoddir va devonalik sahrosining bechoralaridan bir – Majnundir. (74-bet)

Ishqqa to`lgan Majnun va Farhod mumtoz adabiyotimizning asosiy qahramonlari o`laroq “Mahbub ul-qulub”da yana ularga haqiqiy ishq mavzusida murojaat qilingan.

Navoiy she`r ilmi kishisi. Shu sabab ham pandnoma asarda zamondosh va o`zidan oldingi she`riyat ahllarining nomlari eng ko`p uchraydi. So`z bilan har qanday chuqur ma`nolarni ifoda qilgan Xo`ja Shamsiddin Muhammad Hofiz. Va, bulardan keyin, ikki dunyoni bir dov bilan o`yinga tikkan qimorboz taxlit pokboz va ishqning foniylik mayxonasida haqiqat mayidan mast bo`lgan rindlar sirdoshi, millat va dinning quyoshi Xoja Hofiz She’roziydir. (77-bet)

Yana haqiqat, insoniy sevgini madh etish yo`lida kamolga erishgan , ilmi har ikki yo`lda ham mukammmal va bekamu ko`st bo`lgan, nazm ahlining peshvosi va

rahbari ustozi Shayx ul-islom,millat va dining nuri Mavlono Abdurahmon Jomiydirlarkim,…

Yuragi yaxshilik o`ti bilan yonuvchilardan birining nomi Xisrav va ishq mayhonasi dardmanlarining namoyondalaridan biri – Jomiy bo`lib, bularning qabrlari nurli bo`lgay. (74-bet)

Ishq ahlining pokbozlari va shavq-zavq ahlining nazm bituvchi va afsonaga pardoz beruvchilari- qadimda o`tgan nazm she’riyat o`rmoning arsloni va ishq otashxonasining samandari va zavqu-his vodiysining yo`lovchisi Amir Xisrav Dehlaviydirlarkim, uning nafasi ham pok, gap-so`zi ham pol, har bir lafzi-yu, undagi ma`nolar ham pok. (77-bet)

Tuturiqsiz so`zlari bilan kulgi ko`tarishga sababchi shoir o`zini Sa`diy va Xisravdan ortiq deb o`ylaydi .

Yuqorida Navoiy ularni bot-bot eslaganini guvohi bo`lamiz. She`riyat, ilohiy ish va uni ulug`lash, har tomonlama birdek o`rnak bo`ladigan hayotiy timsollar sifatida Jomiy, Dehlaviy, She’roziylarning muborak ismlarini takror o`qiymiz. Shu jumladan bir o`rinda Jomiyga nisbatan dinning nuri deb izoh berilsa, bir o`rinda haqiqiy ishqning ulug` namoyondasi sifatida ta`rif beriladi. Shuningdek, o`t ichida tug`iladigan va o`tda yashaydigan[v] ishq otashxonasining Samandari – Dehlaviyni ishq bilan tug`ilgan va mana shu ishq aro butun umr yonib yashovchi deb ulug`lanadi.

Demakki, Navoiy o`ziga ustoz deb bilganlarni alohida sha`raflab o`tadi. U jumladan, forsiy ibora bilan sirlar javharini tuzuvchi Shayx Farrididdin Attor; Chunonchi, ma`no ahli so`z pardozchisi Shayx Muslixiddin Sa`diy She’roziy; Ishq ahlining chin va sadoqatli oshig`i Amir Xusrav Dehlaviy; “Masnaviy”ni yozuvchi, yaqinlik dengizining suvchisi Mavloni Jaloliddin, ya`ni Mavlaviy Rumiylardir.

Navoiy hikoyatlarda, tanbehlarda quruqdan-quruq nasihat qilmaydi, albatta, barchaga tanish bir obraz o`rtaga tashlanadi. Bizningcha, “Mahbub ul-qulub”da ko`plab tarixiy shaxs nomlari keltirishining ham asosiy sababi shudir, ya`nikim umuman notanish insonlardan ko`ra xalq bilgan olim-u fuzalolar xalqning qalbiga tezda kirib boradi. U

o`zining eng yoqimsiz ovozini – Yusuf Andijoniydek katta hofiz ovozidan ustun qo`yadi. (XV asrda yashagan andijonlik shoir va xonanda)

Badxat kotib qarg`aning iflos oyog`idan xunukroq qilib yozgan o`z xatini – Ja`far va Asxar kabi mashhur kotiblarning xatidan go`zal deb biladi.

Solgan suratidan odam qo`rqadigan yomon suratkash o`zini mashhur Abdulhay va Moniydan san`atkor deb hisoblaydi. Xudbin o`zining mazmunsiz baytlarini shoir Salmonnning go`zal qasidalaridan yaxshiroq deb biladi.(Jamoliddin Salmon Sojaviy – XIV asrda yashab ijod etgan fors shoiri.) Salmonning “Qasidai Masnu” asari bo`lib, adabiyotda badiiy jihatdan g`oyat barkamol asar unga o`xshatilishi aytiladi.

- Yana bulardan boshqa bir guruh bo`lib, ularning ko`pchilik asarlari majoziy ma`nodadir. Ulardan Kamol Isfahoniy, Hoqoniy She’rvoniy, Hojiyu Kirmoniy, Mavlono Jamoliddin, Xoja Kamol, Anvariy, Zohir, Abdulvosi, Asir, Salmon Sovajiy, Nosir Burhoniy, Kotibiy Nishipuriy va Shoshiy Sabzavoriydirlar.

“Mahbub ul-qulub” mumtoz adabiyot an`anasiga ko`ra dastlab hamd va na`t qismlaridan tuzilganini va pand-nasihat yo`nalishda ekanligini inobatga oladigan bo`lsak, unda payg`ambarlar va diniy jihatdan o`rnak bo`ladigan shaxslar, shuningdek tasavvuf namoyondalari keltirishi tabiiy holdir.

Mundin o`ldi muqarrabi Boriy,

Shayx-ul islom nuri Ansoriy.

Manbalarda Xo`ja Abdulloh Ansoriy “Piri Hirot”, “Shayx ul-mashoyix”, “Shayx ul-islom” nomlari bilan mashhur bo`lganligi qayd etiladi. Uning tasavvufiy “Munojotnoma”si juda mashurdir.

Tasavvufda noziklik va mushkullik chigalini yechuvchi Shayx Zahiriddin Sanoiy; Haqiqat ahlining yagonasi Shayx Avhadiddin; Avhaddiddin Anvariyni «qasida payg`ambar” deb atashgan.

Be`mani va bexuda gap-so`zlarini buyuk olim Zamaxsariyning “Kashshof” nomli mashhur kitobidan ortiq gumon qiladi.(Mahmud Zamaxshariy (1074-1144) Xorazmlik mashhur o`zbek tilshunos olimi, shoir va adib. Uning “Al-Kashshof” (“Oshkor qiluvchi”)asari Makkada yozilgan. (84-bet)

U har bir may quyuvchidan qadah olsa, o`zini Jamshiddan ham shavkatli va baxtliroq sezadi. (63-bet)

Shibliy va Nuriy… samoda ketdilar va bu yo`l tariqat birla maqsad manziliga yetdilar. (45-bet)

Abubakr Shibliy- to`rtinchi tabaqadindir[v]. Nuriy- ikkinchi tabaqa avliyolardan. Manbalarda ularning avliyo ekanli aytilganini eslasak, “..samoda ketdilar” jumlasi tushunarli bo`ladi.

Yana ishq hali orasida kam uchraydigan, Benazir va yagona, millat va dining faxri bo`lmish Shayx Irodiydirkim, so`zlarida ma`nolar, jumlalarida fiklar porlab turgan asarlar egasidir.

Bu xunuk bashara o`zini dunyoda mashhur husn egasi bo`lmish Yusuf Kan`oniyga tenglashtiradi. (Go`zallikda mislsiz Yusuf payg`ambar nazarda tutiladi.)

Mo`minlarning amiri Hazrat Alidirlarkim, Haq u kishidan rozi bo`lsin va yuzlarini yorug` qilsin.

Bunday dehqon Odam Ato farzandi, balki undan rizq yeganlar- shu dehqoning farzandi-yu , uning o`zi Odam Atodir. (56-bet)

Don sochuvchi dehqon – yerni haydash bilan rizq yo`lini ochadi. Agar u halol va ishchan bo`lsa, uning ho`kizi Solih tuyasidek nomdor bo`ladi. Qamar surasi 27-28-oyatlarda keltirilgan Solih payg`ambar bilan bo`gliq qissadan maqsad dehqonga poklik, ishchanlik talabi qo`yilyapti va shu orqali ham mehnatda, ham din-diyonatda ilgarilashiga urg`u berilyapti.

Yusuf, Odam Ato, Solih payg`ambarlarning eslatilishi pandnoma asar g`oyaviy mazmunini yanada ochiqlashtiradi. Navoiy asarlarida badiiy maqsad komil inson ekanligini inobatga olsak, payg`ambarlar eng a`lo dalil bo`la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Alisher Navoiy.Mahbub ul qulub.Toshkent. Yangi asr avlodi. 2019.
2. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova,Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik(I kitob).Tamaddun. Toshkent.2018.
3. O`zbek tilining izohli lug`ati.O`zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.Toshkent. S harfi.2006-2008.
4. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. http://library.navoiyuni.uz/files/navoiy_nasoyimul-muhabbat_lotin_ziyouz_com.pdf.

ALISHER NAVOIY – SO'Z MULKINING SULTONI

Mutalova Buvray Abduraxmon qizi
Jizzax Politexnika instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolamda buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy qoldirgan ulkan adabiy-ilmiy meros - bir-biridan rang-barang g‘azallar, pand-nasihatga yo‘g‘rilgan ruboiy va qit’alarning kitobxon ma’naviyatining shakllanishidagi o‘rni hamda bu ulug‘ zotning adabiy-badiiy merosining bugungi kundagi ahamiyati yoritilgan, shuningdek ba’zi misralarida qo‘llanilgan badiiy san’at turlari tahliliy tarzda bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *mutafakkir, she’riy san’at, g‘azal, ruboiy, badiiy obraz, Xamsa.*

Annotation: *In this article, the great literary and scientific heritage of the great poet and thinker Alisher Navoi is the role of colorful gazelles, instructive ruby and continents in shaping the spirituality of the reader and the literary and artistic heritage of this great man. meaning today, as well as an analysis of the art forms used in some of his poems.*

Keywords: *thinker, poetic art, ghazal, rubaiyat, artistic image, Xamsa.*

Аннотация: *В данной статье большое литературно-научное наследие великого поэта и мыслителя Алишера Навои - роль красочных газелей, поучительных рубаев и континентов в формировании духовности читателя и литературно-художественное наследие этого великого человека. значение сегодня, а также анализ видов искусства, использованных в некоторых его стихах.*

Ключевые слова: *мыслитель, поэтическое искусство, газель, рубаи, художественный образ, Хамса.*

Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak shoirlarning sultonidir.

Islom Karimov.

9-fevral ulug‘ insonparvar, donishmand, davlat arbobi, o‘zbek adabiy tiliga asos solgan va o‘zbek mumtoz adabiyotini yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘targan buyuk iste’dod egasi, shoh asarlari, nodir devonlari, betakror g‘azal va dostonlari bilan bashariyat tamadduni va adabiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan mashhur siymo, buyuk shoir va mutafakkir bobokalonimiz Alisher Navoiy tavallud topgan kun. Har yili ushbu sana alohida e’tirof etiladi. Shoir ruhiga chuqur hurmat va ehtirom bajo keltiriladi. Mana bu yil ham shoir tavalludining 581 yilligi mamlakatimiz miqyosida keng nishonlanmoqda.

Alisher Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat o‘zbek, balki jahon adabiyoti taraqqiyoti tarixida alohida ahamiyatga egadir. Alisher Navoiy qoldirgan ulkan adabiy-ilmiy meros - bir-biridan rang-barang g‘azallar, pand-nasihatga yo‘g‘rilgan ruboiy va qit’alar, diniy-ma’rifiy mazmundagi risola-yu dostonlar hali hamon dunyo hamjamiyati tomonidan yuksak qadrlanib kelingan va kelinmoqda. Sharq adabiyotini, jumladan, sharq ma’naviyati va madaniyatini ulug‘ mutafakkir hamda buyuk shoir Alisher Navoiysiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Alisher Navoiyning asarlari nafaqat, sharq adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham o‘zining munosib kitobsevar muhlislari tomonidan sevib o‘qiladi. Sababi, Navoiy qalamiga mansub, ulkan ma’naviy meros va tarixiy-ma’rifiy, shu bilan birga, juda katta ijtimoiy-tarbiyaviy va estetik ruhga yo‘g‘irilgan, yuksak mahorat ila yaratilgan beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan betakror va bebaho ijod namunalari asrlar oshsa hamki o‘z mazmun va mohiyatini yo‘qotmagan va yo‘qotmaydi ham. Navoiy asarlari kitobxonlar qo‘lidan tushmay mutolaa qilinadigan darajada sevimli bo‘lib, u kirib bormagan xonadon bo‘lmasa kerak. Navoiy g‘azallari va ruboiylarini qayta - qayta

o‘qisangiz ham joningizga tegmaydi, aksincha yangidan yangi ma’nolarni kashf etasiz. Chunki Navoiy so‘z san’atini ruboiylari-yu g‘azallarida shunday mohirona uslubda qo‘llaganki, uni o‘qigan o‘quvchi Navoiyning ijodidan hech qachon zerikmaydi.

Alisher Navoiy ijodi jahon miqyosida juda keng tarqalgan, bo‘lib, Uning asarlari fors, italyan, nemis, fransuz, hind, turk, ingliz, rus, ozarbayjon, turkman va boshqa tillarga tarjima qilinib, qayta-qayta nashr etilmoqda. Navoiyning boy adabiy merosi nazm va nasrda yaratildi. Navoiy lirik merosining asosini g‘azallar tashkil etadi. Navoiy g‘azallari faqat son jihatdan emas, balki g‘oyaviy-badiiy salmog‘i jihatidan ham o‘rta asr g‘azalchiligining yuksak namunalaridan hisoblanadi. Darhaqiqat, Navoiy o‘zbek g‘azaliyotini eng yuqori bosqichga olib chiqqan buyuk iste’dod sohibidir. Navoiyning badiiy mahorati ayniqsa uning g‘azallarida namoyon bo‘ladi. Navoiy g‘azaliyotida juda ko‘p masalalar tilga olingan. Ishq-muhabbat, ijtimoiy - siyosiy muammolar, insonlararo munosabatlar hamda diniy-tasavvufiy kabi masalalar shular jumlasidandir.

Alisher Navoiyning ishqiy g‘azallari tom ma’noda insoniy go‘zallik, pok tuyg‘ular madhidan iborat bo‘lib, "Xamsa" asarining birinchi dostoni hisoblanmish“Hayrat ul-abror” dostonida ishqni nafaqat insonning, balki butun borliqning mohiyatini belgilovchi muhim omil sifatida e’tirof etadi:

Bo‘lmasa ishq, ikki jahon bo‘lmasin,

Ikki jahon demaki, jon bo‘lmasin.

Ishqsiz ul tanki, aning tani yo‘q,

Husnni netsun kishikim, oni yo‘q.

Navoiy ijodining gultoji bo‘lmish g‘azallarining g‘oyaviy-badiiy xususyatlari shu qadar rang - barangki, she’riyatning jilosi bo‘lgan badiiy san’atlar o‘rni - o‘rnida qo‘llanilgani buning yaqqol tasdig‘idir.

Men qachon dedim, vafo qilg‘il manga - zulm aylading,

Sen qachon deding, fido bo‘lg‘il manga - bo‘ldim sanga.

Ma'lumki, she'riy san'atlar badiiy asarda ifodalangan g`oyalarning hayotiy hamda ta'sirchan ifodalanishiga, timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misra-yu baytlarning jilodorligini ta'minlashga xizmat qiladi. She'riy san'atning qimmati baytda yaratilgan badiiy lavhalar, timsollarning yangiligi, betakrorligi bilan belgilanadi. Alisher Navoiy yuqorida keltirilgan g‘azalida she’riy san’atlardan biri - tazod san’atini mohirona uslubda qo‘llaganki, buni baytdagi ma’no jihatidan o‘zaro zid, qarama - qarshi bo‘lgan ya’ni antonim so‘zlarni qo‘llaganidan, shuningdek ta’sirchan badiiy timsollar, lavhalar yaratganidan anglashimiz mumkin.

Tuzilish jihatidan g‘azallar mustaqil baytlardan tuzilgan g‘azal, musalsal g‘azal, yakpora g‘azal hamda voqeaband g‘azal turlariga bo‘linadi. Shulardan biri musalsal g‘azal bo‘lib, g‘azal tarkibida lirik voqea, manzara, fikr va kechinma satrlar silsilasida darajama - daraja ya’ni tadrijiy rivojlanish xususiyatlariga ega bo‘ladi hamda g‘azallarining eng oliysi hisoblanadi. Quyida Alisher Navoiyning musalsal g‘azallaridan birining tahlilini ko‘ramiz:

Do‘stlar, mahram deb elga roz ifsho qilmangiz,

Boshingizga yuz balo kuch birla paydo qilmangiz.

Fosh qilmang roz, chunkim asray olmay qildingiz,

O‘zgalardin asramoq bore tamanno qilmangiz.

Alisher Navoiyning yuqoridagi g‘azalida lirik qahramonning o‘z shaxsiy fojiasidan jamiyatga berayotgan sabog‘i ifodalangan bo‘lib, ochiqko‘ngilligi tufayli kishilarga ishonaverib ko‘p pand yegani va umuman, elga ishonchi yo‘qolganidan guvohlik beradi. Ikkinchi baytda fikrni yanada kuchaytirib, inson tabiatiga xos bo‘lgan umuminsoniy zaiflikdan ogohlantiradi. Insonning o‘z sirini asrashga o‘z irodasi ojizlik qilsa, o‘zining og‘ziga kuchi yetmasa, sirini pinhon tutishni

boshqalardan umid qilishi aqlga sig‘masligini, chunki boshqalar ham uningdek bir bandayi ojiz ekanligi, shuning uchun odam, avvalo, o‘ziga o‘zi pishiq bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi.

Insonlararo mehr-oqibat, totuvlik va birdamlik haqida so‘z ochsak Hazrat Mir Alisher Navoiyning baytlarini eslab ulardan ibrat olamiz. Insonga xos bo‘lgan ezgu fazilatlar hamda ularning kamol topishi xususida so‘z borganda, albatta, bu zotning asarlariga murojaat qilamiz. Jumladan, "Kamol et kasbkim,.." deb nomlangan ushbu qit’asini olaylik:

Kamol et kasbkim, olam uyidin —

Sanga farz o‘lmag'ay g'amnok chiqmoq.

Jahondin notamom o‘tmak biaynih,

Erur hammomdin nopok chiqmoq.

Buyuk mutafakkir ushbu keltirilgan qit’asi orqali kelajak avlodga - yoshlarga samimiy istak bildirgan. Pand-u nasihatga yo‘g‘irilgan ushbu qit’a "G‘aroyib us - sig‘ar" devonidan o‘rin olgan bo‘lib, bu qit’ada Alisher Navoiy kishi o‘zini kamolga yetkazishni kasb qilib olishini g‘oya sifatida ilgari surgan. Qit’ada dunyoga kelib, o‘zini rivojlantirmagan kishi xuddi hammomga kirib, chala yuvinib, nopok holda chiqqan odamga qiyoslangan.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning falsafiy mushohadasi shu qadar keng qamrovliki, bu ulug‘ zotning adabiy merosining barcha murakkabliklari, falsafiy teranlig‘i bilan to‘liq holda to‘g‘ri, haqqoniy yoritib berish anchayin mushkuldir. Alisher Navoiy o‘zbek mumtoz adabiyotining barcha taraqqiyot bosqichlarida ustoz shoir va xalqning benihoya katta hurmat - e’tiboriga va muhabbatiga sazovor bo‘lgan so‘z san’atkori hisoblanadi. Shuning uchun ham bu ulug‘ siymoga "so‘z mulkining sultoni" deya ta’rif berilgan bo‘lsa ne ajab.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. -T.: "Ma’naviyat", 2008.

2. Mirzieyov SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild T.: “O’zbekiston”, 2017

3. A.Hojiahmedov. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. -T.:1998.

4. N.Karimov, S.Mamajonov, B.Nazarov, U.Normatov, O.Sharafiddinov. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. - T.: "O‘qituvchi", 1999.

5. Aziz Qayumov. Alisher Navoiy. G‘azallar. Sharhlar.-T.: "Kamalak", 1991.

6. http://library.ziyonet.uz/uzc

NAVOIY POETIKASIGA BIR NAZAR

Sevaraxon Sharipova

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek lirik poeziyasi, Navoiy lirik ijodiyotining eng muhim jihatlari, Navoiyning devon poetikasi sohasidagi mavjud an’analarga tanqidiy munosabati hamda uning turli lirik janrlar taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi haqida hikoya qilinadi.

Annotation: This article tells about Uzbek lyric poetry, the most important aspects of Navoi's lyrical work, Navoi's critical approach to existing traditions in the field of Devonian poetics and his contribution to the development of various lyrical genres.

Аннотация: В данной статье рассматривается узбекская лирика, важнейшие аспекты лирического творчества Навои, критический подход Навои к существующим традициям в области девонской поэтики, его вклад в развитие различных лирических жанров.

Kalit so‘zlar: Poeziya, poetik mahorat, lirika, devon, g‘azal, mahorat, qo‘lyozma.

Keywords: Poetry, poetic skill, lyric, devon, ghazal, skill, manuscript.

Ключевые слова: Поэзия, поэтическое мастерство, лирика, девон, газель, мастерство, рукопись.

Ma’lumki, o‘zbek lirik poeziyasining janr jihatidan boyib, mukammal holga kelishi bevosita Navoiy nomi bilan bog‘langan. Navoiy devonida biz, bir to- mondan, o‘zbek poeziyasida o‘zining ma’lum an’analariga ega bo‘lgan lirik janrlarning moxiyat e’tibori bilan yangicha rivojini ko‘rsak, ikkinchi tomondan, adabiyotda o‘zining qat’iy qonuniyatlariga ega bo‘lgan, ammo o‘zbek adabiyotida (yoki umuman turkiy ,adabiyotda) paydo bo‘lmagan yoki u kadar rivoj topmagan ba’zi bir janrlarning yangi zamindagi hayotini kuzatish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Binobarin,

asosiy lirik janrlarni, adabiy ko‘nikma an’analar bilan munosabati nuqtai nazaridan sistemali tahlil etish asosida, ularning ichki dinamikasi va adabiy jarayondagi mavqeini belgilash hamda shu asosda Navoiyning lirik janrlarning taraqqiyotdagi rolini ko‘rsatish bizning zimmamizdagi muhim vazifa hisoblanadi. Navbatdagi vazifa esa, lirik she’rlardagi badiiylik vositalari hamda usullarni sharq poetikasining tradision qoida va qonuniyatlari nuktai nazarida tahlil etish asosida Navoiy badiiy tasvir poetikasi uchun xos bo‘lgan etakchi tendensiyalarini ochib berish, buyuk shoir poetik mahoratining ayrim qirralarini namoyish etishdan iborat.

Navoiyning poetika sohasidagi novatorligini uning devon tuzish an’anasiga bo‘lgan ijodiy munosabatidanoq yaqqol sezish mumkii. Alisher Navoiyning o‘zi tomonidan tuzilgan birinchi devon «Badoeul-bidoya» deb ataladi. 1469 yildan keyin tuzilgan bu devon 842 ta she’rdan tashkil topgan. Alisher Navoiyning o‘zi tuzgan ikkinchi devon «Navodirun-nihoya» deb ataladi. Bu devon 1480— 1487 yillar orasida tuzilgan. Alisher Navoiy 1492— 1498 yillar orasida o‘zining avvalgi ikki devoniga kiritgan, Shuningdek, keyingi davrlarda yaratilgan hamda turli sabablarga ko‘ra: avvalgi devonlariga kirmay qolgan barcha janrdagi she’rlarini to‘plab, XV asr lirikasining buyuk qomusi bo‘lmish «Xazoyinul-maoniy» devonini tuzdi. Bu devon ulug‘ shoirning butun hayoti davomida yaratgan va 16 xil lirik janrga mansub bo‘lgan deyarli barcha o‘zbekcha she’rlarini o‘z ichiga olgan. «Xazoyinul-maoniy» faqat o‘z mundarijasi bilangina emas, balki strukturasi, nomlanishi jihatidan ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Alisher Navoiy «Xazoyinul-maoniy» uchun debocha ham yozgan. Bu debocha har jihatdan puxta bir ilmiy risola bo‘lib, Navoiy lirik ijodiyotining eng muhim jihatlarini tug‘ri tushunishga yordam beradi. Unda muallif, o‘z zamondoshlarining uning she’rlariga bo‘lgan munosabati, mavjud devonlari va ularning yuzaga kelish sabablari hamda o‘ziga xos xususiyatlari, o‘zining turli lirik janrlar taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi, xullas, butun poetik ijodining muxtasar va yorqin kartinasini chizadi. Navoiy mazkur devon debochasida to‘rtala devonning nomlanishi masalasida shunday yozadi: «...Avvalgi devonnikim, tufuliyat bahori g‘unchasining ajib gullari va sig‘ar gulzori bog‘chasining g‘arib chechaklari bila

orosta bo‘lub erdi, «G‘aroyibus-sig‘ar» deyildi. Ikkinchi devonnikim, yigitlik oshuftalig‘ va shabob oluftalig‘ yozi va dashtida yuzlangan nodir vaqoe’ bila piyrosta bo‘lub erdi, «Navodirush-shabob» ataldi. Va uchnnchi devonnikim, vasatul-hayot mayxonasida ishq bila shavq paymonasidin yuzlangan bade’ nishotlar kayfiyatin yozilib erdi, «Badoeul-vasat» ot quyuldi. Va to‘rtinchi devonnikim, umrning oxirlarida yuzlangan ishk dardu ranji foydalarikim, jonso‘z oh urmoq va jon topshurmoqdurkim, onda sabt bo‘lubtur, «Favoyidul-kibar» laqab berildi». Navoiyning mazkur so‘zlarini, ya’ni devonlarning nomlanishini shartli deb qabul qilish kerak. Chunki u she’rlarni devonlarga taqsimlagan paytda, ularning haqiqiy xronologiyasini nazarda tutmagan, balki har bir she’rning ruxi, uslubiga ko‘proq e’tibor qilgan. Natijada yoshlik chog‘ida yozgan ko‘pgina g‘azallari keyingi uchta devoniga kirib qolganidek, qarilik chog‘ida yozgan g‘azallarining bir qismi ham avvalgi devonlarida uchraydi. Shuning uchun ham, Navoiy hayotining turli davrlarida yozilgan g‘azallar soni bir-biridan tafovut qilishig‘a qaramay, «Xazoyinul-maoniy» devonlaridagi g‘azallar soni teng (650 tadan). Bu manzara ilk devondagi 434 ta she’rning «Xazoyinul-maoniy» devonlariga bo‘linishi misolida yaqqol ko‘zga tashlanadi: Xullas, «Xazoyinul-maoniy»da she’rlarning devonlarga taqsimlanishi va ularning nomlanishi shartli bo‘lib, simvolik xarakterga ega. Alisher Navoiyning o‘zbek tilidagi lirik she’rlari «Xazoyinul-maoniy»da mujassam bo‘lgan. Lekin bu devonning oxirgi redaksiyasi 1498 yilga to‘g‘ri keladi. Demak, Navoiy xayotining so‘nggi ikki yili davomida yaratilgan lirik she’rlar bu majmuag‘a kirmay qolgan. Shuningdek, «Navodirun-nixoya»ning debochasi bor haki- qiy varianti aniqlanganicha yo‘q (mavjud ikkita qulyozmada ham debocha yo‘q va she’rlar soni turlicha). Binobarin, Navoiy devonlarining hozirgacha noma’lum bo‘lgan qadimiy nusxalarining topilishp shoir lnrik merosining (o‘zbek tilidagi) umumiy hajmi hamda asosiy davrlari haqidagi mavjud ma’lumotlarga ba’zi bir o‘zgartishlar kiritishi mumkin. Lekin «Xazoyinul- maoniy» asosiy e’tibori bilan Alisher Navoiy lirik merosining (o‘zbek tilidagi) mukammal majmuasi bo‘lib qoladi. Navoiynnng devon poetikasi sohasidagi mavjud an’analarga tanqidiy munosabati yigitlik davridayoq

shakllangan bo‘lib, u o‘zining bu boradagi mulohazalarini birinchi tuzgan devoni «Badoeul-bidoya» debochasida ochiq bayon qilgan. Alisher Navoiy mazkur debochada: «Necha nav’ ishqim munda mar’i bo‘lubturur, o‘zga davovinda ko‘rulmaydur. Ul budurkim»,—deb, o‘z devoniga xos to‘rtta original xususiyatni sanab ko‘rsatadi. Bu xususiyatlar devonning strukturasn hamda uning mohiyati, she’rlarning tematik-g‘oyaviy asoslari hamda uslubi uchun taalluqli. Avvalo, mavjud devonlar 28 ta maxsus arab harflari asosida tuzilgan bo‘lib, shoirlar fors va turk tillari uchun xos bo‘lgan «to‘rt harfga taarro‘z qilmaydururlar». «Bu jihatdan ul to‘rt harf javharidin dog‘i o‘zga huruf javhari silkiga tortnb, g‘azaliyotni o‘ttuz ikki harf tartibi bila murattab qilindi». Ikkinchidan, «xar harf g‘azaliyotining avval bitilgan g‘azal bila o‘zga g‘azallar orasida uslub xaysiyatidin tafovut rioya kilmaydururlar. Muqarrardurkim, xar amrda bir lahza xaq subhonahu va taolo hamdidin yo rasul alayxissalom na’tidin, yo bu ikki ishga dalolat qilurdek bir amrdin g‘ofil bo‘lmog‘liq noqisdur... Bu nav’ xayol xotirg‘a kelgan uchun har harf g‘azaliyotining azvalg‘i g‘azalni yo tengri taolo hamdi bila muvashshah, yo rasul alayxissalom na’ti bila mufattak, yo bir mav’iza bilakim, bu ikki ishtin biriga dol bo‘lg‘ay, muvazzah qilindi». Demak, Navoiy devonida har bir xarf hamd yoki na’t xarakteridagi g‘azallar bilan boshlanadi va bu hol devon tarkibidagi har bir gurux g‘azallarga o‘ziga xos mustakillik ruhini bag‘ishlaydi. Navoiy devoniga xos uchinchi xususiyat bevosita uning tematik doirasi va g‘oyaviy asoslari bilan aloqador. «...Bu devonda hamd va na’t va mav’izadin boshqa har shurangez g‘azaldinkim, istimoi mahvashlarg‘a mujnon sarkashlik va g‘amkashlarga mujibi mushavvashliq bo‘lg‘ay, biror-ikkiror nasihatoro va mav’izatoso bayt irtikob qilindi...». Bu erda gap devoidagi she’rlarning tematik-g‘oyaviy jihatdan kenglngi, falsafiy, didaktik va ijtimony jihatning kuchli ekanlngi ustida bormokda. Shoir ta’kidlarining to‘rtinchisi esa bevosita g‘azalga taalluqli bo‘lib, uning g‘azalchilik tradisiyasiga bo‘lgan tanqidiy qarashlari hamda novatorligini aniqlashga imkon beradi (biz janrlar munosabati bilan bu haqda maxsus to‘xtalamiz). Navoiyning mazkur mulohazalari uning birinchi devoni «Badoeul-bidoya» munosabati bilan bayon qilingan. «Xazoyinul-maoniy» esa undan qariyb

o‘gtiz yilcha keyin tuzilgan. Binobarin, Navoiy lirik merosining mukammal majmuasi hisoblangan bu asarda uning devon poetikasi borasidagi barcha rejalari to‘liq ifodasini topgan bo‘lishi, shubhasiz. Shuning uchun ham biz bu yig‘ma devonda Navoiyning oldingi devonlarida bo‘lmagan bir qator xususiyatlarni ko‘ramiz. Jumladan «Xazoyinul-maoniy»da barcha harflarning boshlanish qismiga maxsus sarlavhalar qo‘yilgan. Shuningdek, qit’alar ham ularning mohiyatini yaxshiroq idrok etish uchun yordam beradigan, san’atkorona yozilgan maxsus sarlavhalar bilan ta’minlangan. Bu devon poetikasi uchun xos fazilatlardan yana biri uning butun strukturasi qat’iy simmmetriya qonuni asosiga qurilganligidadir: devonning asosini tashkil eggan g‘azallar ((2600 ta) to‘rtala devonga bir xilda (650 tadan) taqsimlangan; har bir qofiya yoki radifga barcha devonlarda she’r berilgan (iloji boricha teng miqdorda va bir xil o‘rinda). Shuningdek, radif sifatida kelgan so‘zlar (xususan, arabcha so‘zlar) bir o‘zakka mansub bo‘lsa, ularning grammatik jihatdan yasalgan gartibi ham nazarda tutilgan (masalan: taxsis — maxsus). Xullas, devon tuzish tarixida o‘ziga xos hodisa xisoblangan «Xazoyinul-maoniy» Navoiy lirik merosining haqiqiy ko‘zgusigina emas, balki o‘zbek klassik she’riyatining barcha fazilatlarini o‘zida mujassam etgan poetik ensiklopediya bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vosifiy Zayniddin. Badoe’ul vaqoe’ - Nodir voqealar / Forsiydan N.Norqulov tarjimasi. - Toshkent: Adabiyot va san’at, 1979.-216 b.
2. Jomiy Abdurahmon. Layli va Majnun. Salomon va Absol / Mas’ul muharrir va so‘zboshi muallifi A.Qayumov. - Toshkent: Adabiyot va san’at, 1989. - 224 b.
3. Navoiy Apishe’r. Ayyomi visol o‘ldi yana: YAngi topilgan g‘azallar / Nashrga tayyorlovchi F.Sulaymonova. -Toshkent: Adabiyot va san’at. 1995.
4. Navoiy Alisher. Xazoyinul maoniy / Ilmiy-tanqidiy tekst asosida nashrgatayyorlovchiH.Sulaymonov.4-jildlik. 1 -4-jildlar. - Toshkent: Fan, 1959 - 1960.
5. Navoiy Alisher. Badoe’ ul-bidoya. MAT. 20 jildlik. - Toshkent: Fan, 1987. T. 1. - 723 b.

6. Navoiy Alisher. Navodir un-nihoya. MAT. 20 jildlik. - Toshkent: Fan, 1987. T.1. -6 2 0 b.
7. Navoiy Alisher. Xazoyin ul-maoniy. G‘aroyib us-sig‘ar. MAT. 20 jildlik. - Toshkent: Fan, 1988. T.Z. - 616 b.
8. Navoiy Alisher. Xazoyin ul-maoniy. Navodir ush-shabob. MAT. 20 jildlik. - Toshkent: Fan, 1989. T.4. - 557 b.
9. Navoiy Alisher. Xazoyin ul-maoniy. Badoe’ ul-vasat. MAT. 20 jildlik. - Toshkent: Fan, 1990. T.5. - 541 b.



ALISHER NAVOIYNING QARDOSH XALQLAR ADABIYOTIDA TUTGAN O'RNI

Алимкулов Абдуалим

Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти қозоқ тили ва адабиёти йўналиши 2-босқич талабаси

Anatatsiya: Alisher Navoiy ijodining mukammaligi va o'zidan qoldirgan noyob asarlari. Qardosh xalqlar adabiyotida topgan xurmati. Navoiy ijodini xayotga tatbiq etish.

Kalit so'zlar: Donishmandlik, g'azal, she’riyat, turkiy til.

РОЛЬ АЛИШЕРА НАВОИ В ЛИТЕРАТУРЕ БРАТСКИХ НАРОДОВ

Аннотация: Совершенство творчества Алишера Навои и уникальные произведения, которые он оставил после себя. Уважение находит в литературе братских народов. Воплощение творчества Навои в жизнь.

Ключи слова: Мудрость, газель, шариат, турецкий язык.

ALISHER NAVOI'S PLACE IN THE LITERATURE OF FRATERNAL PEOPLES

Anatation: The perfection of Alisher Navoi's work and his unique works. Respect found in the literature of fraternal peoples. Bringing Navoi's creativity to life.

Keywords: Wisdom, ghazal, sharia, Turkish language.

Hazrat Alisher Navoiyni teran anglash uchun avvalo uning hayot yo‘li va ijodi bilan yaqindan tanishib chiqish joiz. Shundagina shoirning falsafasini qisman anglab yetsa bo‘ladi. Boisi Navoiy ijodi mazmunga juda boydir. Uni anglash uchun katta bilim, keng dunyoqarashga ega bo‘lish lozim bo'ladi.

Buyuk shoyir Alisher Navoiy 1441-yil 9- fevralda Amir Temurning o‘gli Shohruh Mirzo shohligi davrida Hirotda tug‘ildi. Zamondoshlari buyuk shoyir Alisher Navoiy haqida ko‘pincha „Nizomiddin Mir Alisher“ deb yozganlar. 'Nizomiddin"-din--diyonat nizomi degani bo‘lib, donishmand mansab egalariga beriladigan sifatdur, „mir“ — amir demakdir. Uning otasi G‘iyosiddin Muhammad temuriylar saroyining amaldorlaridan, xonadonning ishonchli kishilaridan edi. Onasi amirzoda Shayh Abusaid Changning qizi bo‘lgan.

Yosh Alisher bolaligidanoq ozining otkir zehni, ziyrakligi va xushxulqi bilan barchani hayratga sola olgan. Navoiy uch-tort yoshidayoq she’riyatga mehr qoyadi, tort-besh yoshida Qosim Anvor gazallarini yod biladi va maktab yoshida Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» asarini toliq yodlaydi.

Alisher Navoiyda ozbek tilida «Xamsa»-besh dostonini yaratish maqsadi yoshligidan bolgan. Ushbu maqsadini 1483 — 1485 yillarda amalga oshirishga erishadi. Asar o`zbek adabiyoti shuhratini olamga yoyib, jahon adabiyotining durdona- laridan biriga aylangan desak mubolag'a bo'lmaydi

Alisherning iste’dodidan mamnun bolgan mavlono Lutfiy uning:

Orazin yopqoch kozimdan sochilur har lahza yosh,

Boylakim, paydo bolur yulduz, nihon bolgoch quyosh…

degan matla’li gazalini tinglab, «Agar mumkin bolsa edi, men ozimning forsiy va turkiy tillarda aytgan on-on ikki ming she’rimni shu bir gazalga almashar edim»,- degan ekanlar. Demak shundan ma'lumki Alisher Novoiy buyuk shoyir so'z mulkining sultoni ekanligi.

Alisher Navoiy insonparvarlik, tinch-totuv muhabbat, ma’rifatli insonparvarlik g‘oyalarini amalga oshirgan holda turkiy xalqlar tili va adabiyotini jahon sahnasiga olib chiqqa olgan shaxsdir. U o‘zining betakror asarlari bilan dunyo adiblari Gomer va Dante, Rudakiy va Firdavsiy, Nizomiy va Sag‘diy, Shota va Pushkin, Shekspir va Balzak kabi buyuk yozuvchilari qatoridan munosib o‘rin egalladi. Uning boy merosi insoniyat tarixining barcha davrlarida aks sado berib kelmoqda. Uning ijodida bag‘rikenglik va shaxsiyat, millatlararo totuvlik, tinchlik va mehr-oqibat g‘oyalari o‘z ifodasini topgan bo‘lib, u dono shoir sifatida dunyoda e’tirof va hurmatga sazovordir. Shu bois uning ijodiy merosi butun insoniyat qadriga aylangan, uning fikr va g‘oyalari hali ham ko‘plab xalqlar xotirasida saqlanib, barchaga ilhom baxsh etadi.

O‘zidan o‘chmas madaniy meros qoldirgan Alisher Navoiy nafaqat o‘zbek adabiyotini, balki Sharqning ko‘plab mamlakatlari adabiyotini ham rivojlantirdi.

Misol qilsak: Ozorbayjon, turkman, tatar bundan tashqari qozoq adabiyotiga ham tasiri ulkan bo'lgan.

Qozoq millatining daxo shoyiri Abay Qunanbayev ham Alisher Navoiyning she’rlari, g'azallaridan ilhom olganligi aytiladi. Alisher Navoiy 10yashidan boshlab she’r yozishni boshlagan bo'lsa, Sabit Muqanovning aytishiga qaraganda Abay ham o'n yoshida she’r yozishni boshlagan. Alisher Navoiy she’rlarida:

Xush durur bir tiraiy nomi xajir ikki er uchrashib,

Tanishib, bir – birlarini maxkam quchishib yog'lashib.

desa, Abay Qunanbayev ham:

Екі асық құмарлы,

Бір жолдан қайта алмай.

Жолықса ол зарлы

Сөз жөндеп айта алмай.

dep, ilxom olib yozilgan she’rlari bizga ma'lum.

Har ikkala shoyir ham yoshligidan boshlab she’r yozib o'z millatida «Bosh shoyir» degan unvonga ega bo'lishgan Alisherning «Layli- Majnun", «Farhod - Shirin" kabi asarlari qozaq tiliga tarjima qilinib. Muhlislar tomonidan munosib baxolanib kelmoqda. Hozirgi kunda ham Alisher Navoiyning sara durdonalari yozuvchi Qaldibek Sidanov tomonidan qozoq tiliga tarjima qilinib muxlislarga taqdim etilmoqda.

Undan tashqari Sho'rtanbay, Aqan Seri, Mayliqojalar ham Alisher Navoiyning ijodini munosib baholagan va qadirlagan, ijodlaridan o'z ishlarida namuna olishgan.

Alisher Navoiy og'ir va mashaqqatli zamonlarda yashashga to'g'ri keldadi. O'zaro tushunish, nizolarni to'xtatish va oldini olish, ishchilarning farovonligini oshirish. Mamlakatda ma’rifatparvarlikni yoyish uchun mardonavor kurasha oldi. Shuning uchun ham dunyoga “Taraqqiyot me’mori”, “Sharq Uyg‘onish davri asoschisi” nomi bilan tanilgan.

Alisher Navoiy o‘zining muhim axloq falsafasi bilan katta qiziqish uyg‘otadi va bu borada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning “Odam bo‘lsang, o‘zingni xalqining taqdiriga achinmaydigan odam deb bilma” degan hikmatli so'zlari bugungi kunda ham barchamiz uchun o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. . Ya’ni, mehr-oqibat

insoniylikning eng muhim mezonlaridan biri ekanligini buyuk bobomiz o‘z vaqtida aytib ketgan.

Alisher Navoiyning turkiy tilda yetuk ijod qilganini mana bu misralar orqali misol qilsak bo'ladi:

Dilbar erur tengsiz jahonda

Erur anga xushdor-u banda

Tengsiz xushdor-u, shaydosi men man

Jahonda bandaman men anga..

To‘rt qatorgina jumla deyarli barchasi turkiy tilda yozilgan. Endi bir ahamiyat qaratib shu to‘rtlikni faqat to‘rtta qator boshidagi ilk birinchi so‘zlarini qo‘shib ketma ketlikda o‘qib ko‘raylik… endi esa faqat qatorlardagi ikkinchi so‘zlarni ketma ketlikda o‘qib ko‘ring..... keyn uchinchi va to‘rtinchi qatorlarni... ya’ni gorizontal va vertikalga qarab ham bir xil o‘qiladi. Bu Navoiy bobomizning qobiliyatidir. Turk tili arab tili bilan ham va boshqa tillar bilan ham badiiy adabiyotda bellasha olishligini isbotlab bergan. Aynan Navoiy lirikasi tufayli forsiy til yagona adabiy til maqomini yo‘qotgan. Navoiy bobomiz o‘z davrlarida turkiy tilning bugunga qadar yetib kelishligiga va uning rivojlanishiga katta hissa qo‘shganlar.

So‘nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida Alisher Navoiyning betakror, ko‘p qirrali ijodiy merosini chuqur o‘rganish, shoir asarlarini O‘zbekiston va chet ellarda keng ommalashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganligiga guvoh bo‘layapmiz. Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan beshta muhim tashabbus dasturini amalga oshirishda qardosh tillarimizni hamkorlikda rivojlantirish uchun qulay sharoit mavjud.

Xulosa qilib aytganda xalqimizda “Olimning maktubi, yaxshining nomi o‘lmas” degan gap bor, bundan qariyb olti asr avval yashab o‘tgan buyuk bobomiz Alisher Navoiyga talab katta. Uning qomusiy bilimlari, tanlab olingan asarlari esa yangi avlodga naf keltirishda davom etadi. Garchan Alisher Navoiyning o'zi biz bilan birga bo'lmasada hamon ijodi va she’rlari, g'azallari biz bilan birga yashab kelmoqda…

ADABIYOTLAR (REFERENCES) :

1.PQ-4865-son 19.10.2020 // O‘zR PQ “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”.

2.Qaldibek Sidanov. "Tuisqandar" Tashken 2008.

3. A.Hayitmetov. “Navoiy lirikasi”.Toshkent,1961.

4. Y. Is’hoqov. “Navoiy poetikasi”. Toshkent.1983.

ALISHER NAVOI LITERARY HERITAGE IN THE VIEW OF TEXT STUDENTS

Otakulova Dildora Khakimbek kizi
Pedagogical University named after Nizami

Abstract: The article discusses the different interpretations of the literary heritage of Hazrat Alisher Navoi in the eyes of textual scholars. The study of the works of Alisher Navoi, the interpretation of his work has always been a topical issue.

Аннотация: В статье рассматриваются различные трактовки литературного наследия Хазрата Алишера Навои глазами текстологов. Изучение творчества Алишера Навои, интерпретация его творчества всегда были актуальным вопросом.

Annotatsiya: Maqolada Hazrat Alisher Navoiy adabiy merosining matnshunoslar nazarida turlicha talqin etilishi haqida so‘z boradi. Alisher Navoiy ijodini o‘rganish, uning ijodini talqin etish doimo dolzarb masala bo‘lib kelgan.

Keywords: Tazkira, treasure of meanings, "Chor devon", "Mantiq ut-tayr", "Lison ut-tayr", Shams ul-millat, Xamsa,
"Navodir un-nihoya", " Badoye ul-bidoya ”, four devons.

Kalit so‘zlar: Tazkira, ma’nolar xazinasi, “Chor devon”, “Mantiq ut-tayr”, “Lison ut-tayr”, Shams ul-millat, Xamsa,
“Navodir un-nihoya”, “Badoye ul-bidoya”, to‘rt devon.

Ключевые слова: Тазкира, сокровищница смыслов, «Чор девон», «Мантик ут-тайр», «Лисон ут-тайр», Шамс ул-миллат, Хамса,
«Наводир ун-нихоя», «Бадое ул-бидоя», четыре девона.

Alisher Navoi's work is based on the rich literary traditions of Eastern literature and, in turn, has had a significant impact on the development of later literature. The history of Oriental art cannot be imagined without the works of Alisher Navoi. His lyrical legacy is a continuation of Persian-Tajik and Turkish poetry, as well as the pinnacle of Uzbek poetry of all time. The sensitive poet, who was able to create high-quality works of art in two languages, made a great contribution to the development of poetry of that time with his forty-five thousand lines of poetry in Turkish and more than twelve thousand lines of Persian-Tajik poetry. 'shdi [1.34]. Alisher Navoi memorized the poems of the Tajik poet Qasim Anvar as a child, memorized the philosophical epic "Mantiq ut-tayr" by Fariddin Attor at school age, the end of ghazals at the age of seven or eight, twelve-o From the age of thirteen, his fame spread throughout the country, gaining the attention of the rulers, proving that he was a great creator of all time.

Nizami Aruziy Samarkandi writes in Majma un-navodir that a person who wants to become a poet must memorize twenty thousand bytes of poetry from his predecessors and ten thousand bytes from the works of contemporary poets. When Navoi returned to Muhokamat ul-lughatayn, he knew more than fifty thousand verses from the "sweet poetry and colorful poetry" of the poets he loved in his youth. Alisher Navoi was the first poet in 1472-1476. In 1486, he created the second divan, Navodir un-nihoya, Badoye ul-bidoya. [2,192-194]. It is clear that Navoi's development as a great thinker was known from his youth.

Navoi was able to unite the Turkic peoples living and creating in different countries. We can see this in the following verses: ,, In Turkish poetry I draw, I turned the country into one pen, ,, Four devons ,, together with poetry

,, Panj Ganj ", dast berd ichekmayin andixu ranj ", (Lison ut -ready).

Therefore, the language of the XV century, especially Navoi, has a special place in the study of the history of the Uzbek literary language [3,8-9].

Hussein Bayqara relied on Navoi's wisdom and loyalty in governing the country. Despite his opposition, the poet was promoted to higher ranks. The great poet was awarded the titles of "Amir Kabir" and "Amir ul-Muqarrab". During his ministry, Herat was a time of prosperity, culture, justice, and truth. As far as I know, - writes Navoi in "Waqfiya", - I broke the knife of oppression and put an ointment of revenge on the oppressed. And I brought what I did not want to know to Hazrat (Husayn Bayqara).

In addition to government work, he did not stop his favorite hobby - art. [5, 170]

Alisher Navoi created the first collection of poems "Badoye ui-bidoya" in 1472-1476, and the second collectionin 1486 "Navodir un-nihoya". During the years 1483-1485 he created the work "KXamsa". In 1491-1492, he began to compile a single collection of all his poems written in Uzbek. Devonian writing dates back to 1498-1499. It consistedof four parts, each of which was a complete divan. The poet calls it "Khazayn ul-Maoniy" (Treasure of Meanings). Thisdevon is popularly known as the "Chor devon" [2,194].

Alisher Navoi begins his work with praise to Allah, following the criteria set by him. Observations show thatthe first five ghazals in the devons are in the direction of praise: four of them are on the subject of monotheism and the fifth is on the subject of supplication.

The first ghazal in the "Wonderful Cow" department Ashraqat min aksi shamsil kasi anwar ul-hudo,

On the contrary, it was said that he was a little blind

It starts with Matla. This ghazal was considered by Alibek Rustamov as a blessing (opening) ghazal. Because the content of the poem is not only "Strange", but the whole college. In other words, we can call this ghazal the way to Khazayn ul-Maani.

The ghazal reflects the main direction of the great poet's worldview, and it is continued in his later poems. In

this sense, this ghazal helps to understand other ghazals in Navoi devons. [5,44]. The poet composes four largedivans to summarize his thoughts.

1. "The Strange Cow" (Childhood Strange)
2. "Navodir ush-shabab" (Rare of youth)
3. "Badoyi ul-vasat" (Middle age beauties)
4. Fawaid ul-Kibar (Benefits of Old Age)

Hasankhoja Nisari's "Muzakkiri ahbob" is based on Navoi's "Majlis ul-nafois" tazkira. the total volume of his ghazals quotes excerpts from his poems in Persian. Hasankhoja Nisari had the privilege of seeing Hazrat Navoi in a dream, saying, “Do you remember anything from our poetry? He said that he had read the following praise. O Navoi, who are you to want that altar - that mosque

Put your head where your feet are!

Among the poems included in the collection of Khazayn ul-Maani, there is no poem that ends with this praise.

[1,8]

Navoi also proved to be a brilliant scientist in several fields of science. On the subject of the past, he wrote

"Historical Property of Alam" ("History of the Kings of Non-Arab Countries"), "History of Prophets and Rulers" ("Historyof Prophets and Wise Men"). It also has a special place in Turkish literature. He wrote works on Aruz, such as Mezon ul-Awzon (The Measurement of Weights) and Majilis un-nafois (Exquisite Meetings). These were the first works in these fields in Uzbek (Turkish) language. The great poet was also interested in linguistics. He authored a book on lexicography, Sab'at-u abhor (The Seven Seas). In particular, in Muhokamat ul-lug'atayn (The Discussion of Two Languages), he compared Turkish (Uzbek) and Sart (Persian) languages and scientifically substantiated the endless possibilities of his native language. Towards the end of his life, the great writer was engaged in science and creativity. Famous

sheikhs of the East have completed the book Nasayim ul-Muhabbat (Blows of Love), which provides information about the life of Sufis. He then wrote the Lison ut-tayr (Bird's Tongue), which had occupied his mind all his life. Correspondence with others - collected letters and composed "Munshaot" (Letters). In 1500, the great thinker Mahbub ul-Qulub (The Beloved of the Souls) appeared, expressing his views on good and evil. It was the last work of a great writer. [5,171-172]

Alisher Navoi is a great person who has formed an entire epoch in the history of our people's consciousness, artistic culture, an unparalleled representative of our national literature, an immortal artist who glorified the pride and glory of our nation to the world. In other words, there is no one in the world who speaks Turkish and Persian, if he does not know Navoi, if he does not love Navoi, if he does not look at Navoi with devotion and faith [6, 47]

While giving a perfect definition and classification of each concept, Navoi wraps the idea in a beautiful and elegant piece of art and presents it to the reader. As you read it, you are captivated by the beauty of the expression, and you read the words of praise to the writer.

"KXamsa" is a product of Navoi's genius, but also a symbol of the scale and spiritual power of our nation. Many Uzbek scientists O.Sharafiddinov, V.Mahmud, Oybek, Ya. Gulyamov, I.Sultan, A.Zohidov, V.Abdullayev, A.Kayumov, S.Ganiev and others created works about the life of Navoi.

The works of the great thinker inherited from us have not lost their relevance to this day. It is no coincidence that our first President Islam Karimov described this great man, who played an important role in the history of consciousness and thinking, artistic spirituality of our people, as "the saint of saints, the thinker of thinkers, the sultan of poets." Navoi is the founder of our classical literature. He is a figure who made a worthy contribution to the development of classical literature of the XV century. Navoi is known throughout the Turkic world as "Shams ul- millat", meaning "the sun of the nation". All the information about his life is an ehample for everyone. Navoi's works still shine like the sun in world literature. After gaining independence,

great works have been done to analyze the life and work of Alisher Navoi, to pay attention to the poet's religious and secular worldview, to publish his works in book form. appeared.

In his Address to the Oliy Majlis, President Shavkat Mirziyoyev said: “We have set ourselves the great goal of building the foundation of the third Renaissance in our country. we need to create. At the same time, the development of education and upbringing, healthy lifestyles, the development of science and innovation should serve as the main pillars of our national idea, ”he said. Because today there are many problems and challenges that need tobe addressed in the development of science and innovation.

LIST OF USED LITERATURE:

1. Sirojiddinov Sh. Navoi studies.-Tashkent, 2018
2. Rafiyev A Mother tongue and literature- Tashkent, 2015
3. Shamsiyev P. Dictionary of Navoi works.- Tashkent, 1972
4. Mirzayev A. Foniy and Hafiz // Issues of Navoi and literary influence.- Tashkent, 1968
5. K. Yuldashev B. Kasimov, V. Kadyrov, J. Yuldoshbekov Literature (textbook for 7th grade) - Tashkent-2017
6. Islam Karimov "High spirituality is an invincible force." Tashkent: Manaviyat, 2008.

НАВОИЙ ЎГИТЛАРИДА БАРКАМОЛ АВЛОД ТАРБИЯСИ МАСАЛАЛАРИ

Қурбонова Ширин Ҳикматовна
Бухоро муҳандислик- технология институти

Аннотация: Маколада Алишер Навоий бебаҳо ижодий-илмий меросининг баркамол авлод тарбиясида тутган урни хамда шеърий ва насрий асарларида юксак умуминсоний ғояларни, она тилимизнинг беқиёс сўз бойлиги ва чексиз ифода имкониятлари ифодаланган .

Калит сўзлар: адабий-эстетик тафаккур, шеърий ва насрий асар, одоб- ахлок, баркамол авлод тарбияси, аҳлоқий-маънавий фазилатлар

Аннотация: В статье отражена роль бесценного творческого и научного наследия Алишера Навои в воспитании гармонично развитого поколения, а также высокие общечеловеческие идеи в поэзии и прозе, несравненное богатство слова и безграничные возможности выражения нашего родного языка.

Ключевые слова: литературно-эстетическое мышление, поэтическое и прозаическое творчество, этикет, воспитание гармонично развитого поколения, нравственно-духовные качества.

Annotation: The article reflects the role of the invaluable creative and scientific heritage of Alisher Navoi in the upbringing of a harmoniously developed generation, as well as high universal ideas in poetry and prose, the incomparable wealth of words and the unlimited possibilities of expressing our native language.

Key words: literary and aesthetic thinking, poetic and prose creativity, etiquette, education of a harmoniously developed generation, moral and spiritual qualities.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев Олий Мажлисга килган Мурожаатномасида:

” Биз уз олдимизга мамлакатимиздаУчинчи Ренесанс ройдеворини барпо этишдек улуг максадни қўйган эканмиз , бунинг учун янги Хоразмийлар, Берунийлар, Ибн Синолар ,Улугбеклар , Навоий ва Бобирларни тарбиялаб берадиган мухит ва шароитларни яратишимиз керак” деб таькидлагандилар. Баркамол авлоднинг ҳар томонлама тарбиясида ҳам энг муҳим манбалардан бири Ҳазрат Навоий меросидир. Зеро, давлат тили ҳақидаги қонуннинг талаби ҳам шу – ўзбек тилининг мавқеини янада кўтариш билан унинг ҳам юртимизда, ҳам дунё миқёсидаги обрў-эътиборини янада юксакликка олиб чиқиш, аждодлар анъанасига содиқ қолиб, унинг гўзаллигини кенг намойиш қилиш, бойитиб бориш, юқори нутқ маданияти ва маҳоратига эришишдир.Буюк шоир ва мутафаккир, атоқли давлат ва жамоат арбоби Алишер Навоийнинг бебаҳо ижодий-илмий мероси нафақат халқимиз, балки жаҳон адабиёти тарихида, миллий маданиятимиз ва адабий-эстетик тафаккуримиз ривожида алоҳида ўрин тутади. Улуғ шоир ўзининг шеърий ва насрий асарларида юксак умуминсоний ғояларни, она тилимизнинг беқиёс сўз бойлиги ва чексиз ифода имкониятларини бутун жозибаси ва латофати билан намоён этиб, ер юзидаги миллионлаб китобхонлар қалбидан муносиб ва мустаҳкам ўрин эгаллади.

Сўнгги йилларда Алишер Навоийнинг бой ва серқирра ижодий меросини ҳар томонлама чуқур ўрганиш, унинг ўлмас асарларини юртимизда ва хорижий мамлакатларда кенг тарғиб қилиш ҳамда хотирасини абадийлаштириш борасида қатор ишлар амалга оширилмоқда.

Дарвоқе, бизнинг қадимий ва гўзал диёримиз нафақат Шарқ, балки жаҳон цивилизацияси бешикларидан бири бўлган. Бу табаррук заминдан буюк зотлар, олиму-уламолар, сиёсатчи ва саркардалар етишиб чиққан, дунёвий ва диний илмларнинг, айниқса, ислом дини билан боғлиқ билимларнинг тарихан энг

юқори босқичга кўтарилишида она юртимизда туғилиб камолга етган улуғ алломаларнинг хизматлари беқиёс бўлган. Жумладан, шеърият мулкининг султони Алишер Навоий асарларига назар ташлайдиган бўлсак, унинг барча асарларида, шеър, рубоий ва ғазалларида ёшларни ҳаллоликка, покликка, ростгўйликка, иймон-эътиқодлиликка етакловчи инсонга яраширли бўлган аҳлоқий-маънавий фазилатлар эъзозланади. У ёш авлод тарбиясига жуда катта эътиборни қаратади. Одоб, аҳлоқ, таълим-тарбияни биринчи ўринга қўяди. Одоб-дейди мутафаккир, —Кичик ёшларни катталар дуосига сазовор этади; ёшлар у дуо баракасидан умрбод баҳраманд бўладилар. Одоб – улуғлар кўнглида ѐшларга меҳр уйғотади ва у одобли ёшга бўлган муҳаббат кўнглида абадий қолади. Ёшларни кўзга улуғ қилиб кўрсатадиган феъл-атвори одобдир, одоблиларнинг юриш-туришларида халқ улуғворлик кўради. Одоб – кишилар тарафидан қилиниши мумкин бўлган ҳурматсизлик эшигини бекитади... Одоб уруғини эккан одамнинг ҳосили жавоҳирдир.

Алишер Навоийнинг маънавият ва маърифат ҳақидаги таълимотининг умуминсоний аҳамиятга эга бўлган муҳим жиҳатларидан бири – фарзандлар томонидан ота-оналарни ҳурмат қилишлари ҳақидаги ўгитларидир. У ота-она хизматини бажо келтириш, улардан бирини иккинчисидан ортиқ-кам билмаслик фарзандлар учун саодат келтиришини алоҳида таъкидлаб, шундай эътироф этади: —Тарбиянинг яна бири ота-онани ҳурмат қилиш; буни бажариш унинг учун мажбурийдир. Бу иккисига хизматни бирдек қил, хизматинг қанча ортиқ бўлса ҳам, кам деб бил. Отанг олдида бошингни фидо қилиб, онанг боши учун жисмингни садақа қилсанг арзийди! Икки дунёинг обод бўлишини истасанг, шу икки одамнинг розилигини ол! ...Бирисин ой деб бил, иккинчисини – қуёш.

Алишер Навоийнингота-она олдида жонингни садақа қилсанг арзийди, уларнинг айтган сўзларидан, чизган чизиқларидан чиқма, деган ўгитлари ўзининг таълим-тарбиявий аҳамиятини ҳеч қачон йўқотмайди. Шу ўринда Мустақил давлатимиз Конституциясида берилган 66-моддани келтиришни

лозим деб топдик. **66-модда:** —Вояга етган, меҳнатга лаёқатли фарзандлар ўз ота-оналари ҳақида ғамхўрлик қилишга мажбурдирлар . Бундан кўриниб турибдики, фарзандларнинг ота-оналари тўғрисида ғамхўрлик қилиш мажбуриятлари илгари, уларнингаҳлоқий мажбурияти бўлиб ҳисобланган. Мустақил республикамиз Конституцияси қабул қилиниши билан фарзандларнинг бу мажбурияти қонуний конституциявий мажбуриятга айланди. Демак, аждодлар ўгити бугунги кунда ҳам ўз қадр-қимматини йўқотган эмас, аксинча бу ўгитлар бизнинг ёшларимиз учун жуда ката тарбиявий аҳамиятга эга.

Мен Алишер Навоийнинг —Маҳбубул-қулуб асарида кишиларни, айниқса вояга етиб келаётган баркамол авлодни тарбиялашда даъват этадиган панду насиҳатлар, ўгитлар ва ҳикматли сўзларидан айримларини келтирмоқчиман:

—Саодатман одам агар олим бўлса, нодонларнинг сўзлари ҳам унинг учун аҳамиятли бўлади, бахтсиз агар жоҳил бўлса, олим сўзини эшитишдан ор қилади. Ҳақиқатан ҳам жоҳилликдан бадбахтроқ нима бор дунёда?.

—Ўзига бино қўйган одам – ақлсиздир; ўзига зеб берган – беор – сатангдир... Шаҳвоний навсга берилган – нафснинг қурбони бўлади. Бу балолардан навсни тийиш, ҳаётий иш ҳалокатлардан нажот топиш демакдир.

—Кўп гапирган кўп янглишади. Кўп еган, кўп йиқилади. Тан касалининг асоси кўп емакдир, қалб касалинингсабаби кўп демакдир. —Вафо – шундай асл гавҳарки, у инсоният тожига зийнатдир.

—Илм ўрганмоқ – эътиқодни мустаҳкамлаш учундир, аммо бойлик ортирмоқ учун эмас.

—Тилга ихтиёрсиз – элга эътиборсиз.

—Чин сўз – мўътабар, яхши сўз – мухтасар.

—Тама – хорликка сабаб, таъмагир бой – хор ва тубан. Илм ўқиб, унга амал қимаган – ерни ҳайдаб уруғ сепмаганга ёки уруғ сепиб, ҳосилдан баҳра олмаганга ўхшайди.

Фикримиз сўнгида ёшларни ҳар томонлама етук, одобли , ахлоқли баркамол авлод булиб етишишларида Алишер Навоий асарларининг ўрни беқиёсдир. Биз бундай ўткир ҳақиқатни ҳеч қачон унутмаслигимиз керак .

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1.Машриқ замин ҳикмат бўстони. Т. 1997.

2.А.Навоий. Хайратул-аброр.Насрий баѐн қилувчи А.Ҳайитметов.Т.1974.

3.Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т. 2008.

4.Алишер Навоий. Маҳбубул-қулуб.

ESKI O‘ZBEK TILIDAGI RAVISHDOSH SHAKLLARINING BA’ZI XUSUSIYATLARI (ALISHER NAVOIYNING “XAZOYIN UL-MAONIY” KULLIYOTI ASOSIDA)

Sobirova Muxlisaxon Mashrabxon qizi
SamDU filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada eski o‘zbek tilida qo‘llanilgan fe’lning vazifaviy shakllaridan biri ravishdosh shaklining Alisher Navoiyning “Xazoyin ul – maoniy” asarida ifodalanlish xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *fe’lning o‘zgalovchi kategoriyasi, ravishdosh, ravishdosh affikslari, grammatika, fe’l.*

Аннотация: В данной статье анализируются особенности выражения одной из функциональных форм глагола, употребленного в староузбекском языке, в произведении Алишера Навои «Хазоин ул - маоний».

Ключевые слова: *вариативная категория глагола, наречие, наречные аффиксы, грамматика, глагол.*

Annotation: This article analyzes the features of the expressive form of one of the functional forms of the verb used in the old Uzbek language in Alisher Navoi’s work “Khazoin ul – maoniy”.

Keywords: *a variable category of a verb, similar, relative affixes, grammar, verb.*

Barchamizga ma’lumki, tilimiz grammatikasi, aniqrog‘i morfologiyasi haqida fikr yuritilgan darslik, qo‘llanma, monografiya va akademik grammatikalarda fe’lning funksional shakllari kabi atamalar bilan yuritilib, ularga xos grammatik xususiyatlar nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Mustaqillik yillarida tilshunoslarning bir qismi “Fe’lning o‘zgalovchi kategoriyasi” nomi ostida tadqiq

etishib, uni alohida grammatik kategoriya ekanligini isbotlashgan. Fe’lning o‘zgalovchi kategoriyasi yoki ma’lum bir vazifa uchun xoslangan shakli ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shakllaridan iborat, ular fe’lning ravish, sifat, otga xos vazifalarda qo‘llanish uchun xoslangan shakllardan hisoblanadi. Mana shu shakllardan biri bo‘lmish ravishdoshning barcha turkiy tillarda mavjudligi haqida bir qancha manbalarda aytib o‘tilgan.[1.3] Ravishdoshning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, unga quyidagicha ta’rif berish mumkin: ravishdosh fe’lning tugallanmagan, mustaqil bo‘lmagan maxsus grammatik-funksional shakli bo‘lib, u o‘zidan keyin morfologik kategoriyalarning formal ko‘rsatkichlarini qabul qilmaydi va gapda boshqa bir fe’lning bo‘lishini taqozo etadi.

Eski o‘zbek tilida esa fe’l o‘zagiga u yoki bu qo‘shimchaning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan ravishdosh shakllarini Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” asari asosida ko‘rib o‘tsak.

Fe’l o‘zagiga u yoki bu qo‘shimchaning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan ravishdosh shakllaridan biri – a (undoshdan keyin) va **–y** (unlidan keyin) ravishdosh shakli asrada boshqa bir qator ravishdosh shakllari kabi gapni tugallash uchun ishlatilmaydi, balki **boshlamoq** ko‘makchi fe’lining bo‘lishli shakli bilan birikib, tarkibli fe’l hosil qilgan holda gapning kesimi funksiyasini bajaradi. **–a/-y boshla** qolipiga ega bo‘lgan tarkibli fe’l tarkibidagi **boshla** ko‘makchi fe’li **–a/-y** formantli ravishdoshda ifodalangan harakatning endigina sodir bo‘la boshlaganligini ifodalab kelgan.

Masalan: ***Oqara boshladi*** boshu ***to‘kula boshladi*** tish,

Safar yarog‘ini qilg‘ilki, tushti boshingga ish (2. 172).

O‘g‘uz lahjasiga xos yozma obidalar tilida **–a** shaklli ravishdosh **bilmoq** ko‘makchi fe’li bilan ham birikib, tarkibli fe’l hosil qiladi va gapda kesim funksiyasini bajarib keladi. **–a bil** qolipiga ega bo‘lgan sintetik fe’l hech qachon fonetik jihatdan o‘zgarmaydi, ikkala komponenti bir-biri bilan qo‘shilib ketmaydi. Bundan farqli o‘laroq **–a ol** qolipli sintetik fe’l esa fonetik o‘zgarishiga uchrab, uning komponentlari birlashib, qo‘shma fe’lga aylanish holatlari ham kuzatiladi.

Alisher Navoiy kulliyotida esa **–a** formantli ravishdoshning **bilmoq** ko‘makchi fe’lining bo‘lishli shakli bilan birikish hodisasi uchramaydi. Mazkur ravishdosh formasi faqat **olmoq** ko‘makchi fe’lining bo‘lishli shakli bilan birikib, yetakchi fe’ldagi harakatni bajarishga qodirlik, qo‘lidan kelishlik ma’nosini ifodalaydi.

Masalan: Rahm ozu javr ko‘p qilmoq sanamlar da’bidur,

Gar **qila olsang** ani ko‘prak, bu birni oz qil (2. 26).

Ne kabutar **yeta olur** ul quyoshqa, ne nasim,

Ey,ko‘ngul, holingni e’lom ayla afg’ondin anga (2. 31).

Yuz eshiging tufrog’iga **surta olg’aymenmu** deb

Charx kasridin quyosh har kun tushar olam aro (2. 27).

O‘z ma’nosi va uslubiy ishlatilishiga ko‘ra **–a** formantli ravishdoshga yaqin turadigan, hatto unga grammatik sinonim bo‘la oladigan ravishdosh shakli fe’l o‘zagiga **qadimgi –u** qo‘shimsanining qo‘shilishidan hosil bo‘luvchi ravishdoshdir. –a formantli ravishdosh kabi **-u** formantli ravishdosh ham gapni tugallash uchun ishlatilmaydi, ko‘makchi fe’llar bilan birikib, sintektik fe’l hosil qiladi, ikki sodda gapni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladi, o‘rni **- (u/y)** b formantli ravishdoshning o‘rnida ham ishlatiladi.

Asar tilida **–(i, u)b** shaklli ravishdosh ko‘p hollarda tobe kesim vazifasida kelib, ravishdosh shaklini yuzaga keltiradi.

Masalan: Vasl shomi ul qadu yuz davrida parvonavor,

Chevrulub qo‘ysam ne tong, sha’mi shabistonimdur ul (2. 271).

-a, -(i,u)b shaklli ravishdoshlarning bo‘lishsiz shakli bo‘lishli shaklidan farqli o‘laroq ko‘pincha tobe ish-harakatni ifodalash uchun ishlatiladi. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida ana shunday ravishdoshning bo‘lishsiz shakli sifatida **–madin** formantli ravishdosh qo‘llaniladi.

Masalan: Ey Navoiy, vusma birla **kesmadin** topqan fireb,

Gar malakdurkim, bo‘lur shaytonsifatlar mahzali (2. 473).

Eski o‘zbek tilida **-gach** formantli ravishdosh har doim asosiy fe’l –kesimdan anglashilgan ish-harakatdan avval sodir bo‘lgan tobe ish – harkatni ifodalash uchun

ishlatiladi. Xarakterli jihati shundaki, yuqoridagi ma’noni anglatish uchun **-gach** formantli ravishdoshdan tashqari uning o‘rnida **–di / -ti ersa** birikuvidan yoki uning qisqargan **–disa/ -tisa** variantidan foydalaniladi.

Masalan : Zamon elida vafo yo‘q, agarchi jon bersang,

Bas **o‘ldi ersa** vafosiz, ne ayb, jononim (2. 285).

Xonaqahni bog‘lading, ey shayxu, qilding azmu dayr,

Yuz eshik ochildi, gar **bog’landi ersa** bir eshik (2. 234).

Eski o‘zbek tilida –guncha va uning –g‘uncha, -quncha, -kuncha, -g‘incha, -gincha, -qincha ,-kincha kabi variantlaridan birini fe’l o‘zagiga qo‘shish yo‘li bilan yasaluvchi ravishdosh shakli **-gach** formantli ravishdosh singari asosan payt munosabatni ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, **-guncha** formantli ravishdosh asosiy (shaxsli) fe’ldan anglashilgan harakatning qay paytda bajarilganini ko‘rsatadi. Asarda ham asosan **–gincha** shaklli ravishdosh ham shunday funksiyani bajarib keladi.

Masalan : Urdu **so‘ngincha** it kebi sargashtmenki,bor

Yorim sipoh ofati xirgahnishin yigit (2. 59).

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, eski o‘zbek tilida ham hozirgi o‘zbek tilidagi singari ravishdoshning so‘zlovchi ifodalayotgan fikr ma’nosini ochib berishdagi roli muhim sanalgan. Xususan, Navoiy ijodining noyob durdonalaridan biri bo‘lgan “Xazoyin ul-maoniy” asarida qo‘llanilgan ravishdosh shakllari ham til tarixida o‘sha davr ruhini anglashimizga yordam beradi desak yanglishmaymiz. Eski o‘zbek tilidagi ba’zi ravishdosh affikslari bugungi kun tilida uchramasa-da, fonetik farqlanuvchi variantlari ravishdosh ifodalaydigan barcha ma’nolarda ishlatilishi mumkin. Aynan shu jihatdan ham mazkur asar biz uchun noyob manba vazifasini o‘taydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurahmonov G‘. va boshqalar. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1973.-B. 312.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. – Toshkent, 1990.
3. Hamdamov J. O‘zbek tilida ravishdosh. – Samarqand, 2000. - B. 142.

DIN-U DAVLAT HOMIYSI, MILLATNING PUSHTI PANOHI- MIR ALISHER NAVOIY

Sobirova Sayyora Tolibjon Qizi

Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti 2- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali siz aziz mushtariylarga buyuk bobokalonimiz Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning barchamiz uchun ma’lum bo’lgan va bo’lmagan ko’plab insoniy fazilatlarini ochib berishga harakat qilinadi. Navoiyning faqatgina adabiy me’rosi haqida fikr yuritishdan biroz chetga chiqqan holda, uning davlat va jamiyat arbobi, ilm va mehnat ahlining saxovatpesha homiysi sifatidagi cheksiz qilgan mehnatlari haqida ko’plab qimmatli ma’lumotlar keltiriladi. O’ylaymanki, bu sizni befarq qoldirmaydi.

Kalit so’zlar: Alisher Navoiy, davlat arbobi, Xondamir, Husayn Boyqaro, Hirot, Xuroson, inshootlar, xalqparvarlik siyosati, homiylik, saxovatpesha, yodgorliklar.

Аннотация: Дорогие читатели, в этой статье раскрывается для вас многие человеческие качества нашего великого писателя Низамиддина Мир Алишера Навои. Немного отступая от размышлений только о литературном мировоззрении Навои ценных сведений о его бескорыстных трудах в качестве государственного и общественного деятеля, щедрого покровителя науки и труда. Думаю, это не оставит вас равнодушным.

Ключевые слова: Алишер Навои, государственный деятель, Хандамир, Хусейн Бойкаро, Херат, Хорасан, сооружения, народная политика, щедрость, покровительство, памятники.

Abstrakt: This article encloses known and unknown humanistic qualities of our great ancestor Nizamiddin Mir Alisher Navoi. A little beyond thinking only of Navoi’s literary heritage, there is a wealth of valuable information about his tireless

work as a statesman and public figure, as agenerous patron of science and labor. We think it won’t leave you indifferent.

Keywords: Alisher Navoi, statesman, Khandamir, Hussein Boykaro, Herat, Khorasan, buildings, national policy, sponsorship, generosity, monuments.

Buyuk mutafakkir, olim, musiqachi, rassom va davlat arbobi, o’zbek adabiy tilining asoschisi, Bobur ta’biri bilan aytganda, “tili Andijon shevasi bilan rost’’ bo’lgan shoir Nizomiddin Mir Alisher Navoiydir. Butun turk dunyosi Navoiyni “shamsul millat’’ – millat quyoshi deb ulug’laydi.[v] Zamondoshlari u haqida ko’pincha “Nizomiddin Mir Alisher” deb yozadilar. “Nizomiddin” – din-diyonat nizomi degani bo’lib, donishmand mansab egalariga beriladigan sifat, “mir’’ – amir demakdir.

Navoiy 1441-yil 9- fevralda Hirotning Bog’i Davlatxona atalmish joyida dunyoga kelgan. Otasi G’iyosiddin Muhammad (G’iyosiddin Kichkina) temuriylar saroyidagi amaldorlardan, onasi Shayx Abu Said Changning qizi, tog’alari Mir Said Kobuliy va Muhammad Ali G’aribiylar esa shoir bo’lganlar. Alisherning Bahlulbek ismli akasi, Darveshali ismli ukasi bo’lgan.

Alisher 4-5 yoshlaridanoq Qosim Anvarning g’azallarini, Shayx Sa’diyning “Guliston’’ va “Bo’ston’’ asarlarini (bu ikki asarni sevib o’qiganligini shoir o’zining “Lison ut-tayr’’ asarida alohida ta’kidlab o’tgan), Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr’’ (“Qush nutqi’’) asarini berilib o’qiydi.

Xondamirning “Makorim ul-axloq’’ asarida yosh Alisherning Lutfiy huzurida “Orazin yopqoch ko’zimdin, sochilur har lahza yosh…’’ misralari bilan boshlanuvchi g’azalni o’qib, buyuk shoirning olqishiga sazovor bo’lganligi haqida ma’lumot keltirilgan.

Navoiy 1460-yillarning ikkinchi yarmida Samarqand madrasalarida ta’lim olgan. Samarqandda olim-u fozillardan Ulug’bek madrasasi mudarrisi Xoja Xurd, shoirlar- Uloyi Shoshiy, Yusufshoh Badiiy, Safoyi Andijoniy, Riyoziy, Javhariy, Xavofiy kabilar Alisherning hayotida o’chmas iz qoldirganlar.

Hech kimga sir emaski Navoiy hayot yo’llarining bir uchi uning bolalikdan do’sti va davlat panohi bo’lmish Husayn Boyqaro hayot yo’llari bilan tutash keladi. Alalhusus, 1469- yilda Hirot taxtini Husayn Boyqaro egallagach Navoiyni maxsus noma bilan Hirotga chaqirib oladi. Shundan so’ng Navoiyning davlat arbobi sifatidagi ish faoliyati boshlanadi. Hususan, 1469-1472-yillarda muhrdor, 1472-1476-yillarda vazir, 1487-1488-yillarda Astrobodga hokimlik qiladi.

Navoiy Husayn Boyqaro va uning o’g’illari o’rtasiga tushadi, Badiuzzamonga maslahatlar berib, uni yo’lga soladi. 1499-yilda Marvda Husayn Boyqaroning yana bir o’g’li Abulmuhsin otasiga bosh ko’targanda, otasi bilan sulh tuzish uchun Alisherning podshoh nomidan vakil bo’lib kelishini shart qilib qo’yadi. Hajga otlangan Alisherni Mashhaddan qaytarishadi. U ota-o’g’ilni yarashtirib, Hirotga qaytadi. Navoiy o’z iltimosiga ko’ra, Hirotdagi mashhur Xoja Abdulla Ansoriy xonaqohiga jorubkash (supuruvchi, xizmatkor) qilib tayin etiladi. Bundan Navoiy faqirlik hayotida yashagan degan yanglish xulosaga kelish kerak emas. Aksincha, u butun hayoti davomida nafaqat ilm-fan va ijod yo’lida, balki jamoatchilik ishlarida ham faol bo’lgan va bu uchun o’zining ko’plab shaxsiy sarmoyalarini kiritgan. O’z jamg’armasi hisobidan Hirotda va Xuroson mamlakatida 300 dan ortiq inshootlar qurdirgan.

Navoiy ko’pgina xalqparvarlik siyosatini amalga oshirishga uringan: shaharlarni obod qildirgan, ariqlar qazdirgan, shifoxonalar, kutubxonalar qurdirgan. Xondamir o’zining “Makorim ul-axloq”ida bularning batafsil ro’yxatini keltirgan. Shuningdek, shoirning “Vaqfiya” asarida ham bu haqda qiziqarli ma’lumotlar bor. Ma’lum bo’lishicha, otameros katta mol-mulk (Abusaid uni musodara qilgandan so’ng Husayn Boyqaro tiklab bergan) , vazir sifatida ko’plab yer va sarmoya sohibi bo’lgan Alisher Navoiy, Boburning qayd etishicha, Husayn Boyqaroga har yili mamlakatning obodonchik ishlari uchun “peshkash”(tortiq)lar qilib turgan.

Xondamir bunday deb yozadi: “Hirotning eng go’zal joylaridan birida, Injil arig’i yoqasida Navoiy tashabbusi bilan “Ixlosiya” madrasasi qad ko’tardi. Uning yonidan “Xalosiya” xonaqosi joy oldi. Ro’parasida nozik did va teran xayolni o’zida

jam etgan “Dorushshifo” (shifoxona) bir tomonida “Dorul Huffoz” (qorixona), “Masjidi jome”… O’rtada suvi sharbatdek totli Injil arig’i. “Dorushshifo” qoshida kavsarmisol bir hovuz. Unda xizr sifat hakimlar, isonafas tabiblar kasallarni muolaja qilish bilan mashg’ullar. Bu yerda talabalar oqimi, mudarrislar suhbati tinmaydi. “Xalosiya” xonaqosida har kuni Qur’on tilovat qilinadi, faqir va bechoralarga taom tarqatiladi. Har yili 2000 ga yaqin po’stin, bosma chakmon, ko’ylak-ishton, do’ppi va kovush ulashiladi…”

Davlatshoh Samarqandiy o’zining “Tazkirat ush-shuaro” sida Navoiy mutasaddi qilgan kishilarning harakati bilan Xurosonning mashhur buloqlaridan – Tus viloyatining yuqori qismida bo’lgan Chashmayi gil suvidan ariq qazilib, muqaddas Mashhad shahriga olib kelinganini, bu bilan mazkur shaharning muqim xalqi suvsizlik azobidan xalos qilinganini yozadi. Bu ariqning uzunligi qariyb 80 km bo’lgan.

Navoiy 1476 yilda vazirlikdan bo’shagandan so’ng ham obodonchilik ishlariga sodiq qoldi. Podshohning eng yaqin kishisi sifatida unga barcha ishlarida yordam berib turdi. Bu borada shoirning Hirotdagi mashhur Masjidi jome’ni ta’mir etishdagi xizmatlari e’tiborga sazovor. Xondamirning yozishicha, shoirning sa’y-harakati bilan 90-yillarning oxirida zilzila bo’lib, butkul vayron bo’lgan ushbu bino qayta tiklangan, 1500-yil 16-martda ishlar tugagan, Alisher elni to’plab osh bergan va imoratni bitirishda ishtirok etgan 100 ga yaqin ustaga in’omlar ulashgan.

Navoiy navaqat din-u davlat ishlarida, balki ilm va sa’nat dunyosida ham ko’plab hayirli ishlarni amalga oshirgan, ularning chin ma’nodagi homiysi, madadkoriga aylangan edi. Navoiy o’zi barpo etgan madrasalarning mudarrislari, talabalari, hatto oshpaz va farroshiga ham sersaxovatlik bilan maosh to’lab yurgan. Eng ilmli talabalarga shaxsan Navoiyning o’zi oyiga 24 oltin pul va yiliga besh qop oshlik bergan. O’sha vaqtda talabaning bir oylik nafaqasiga 5ta semiz qo’y olish mumkin bo’lgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur shunday deb yozadi: “Ahli fazl va ahli hunarg’a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy (madadkor) ma’lum emaskim, hargiz paydo

bo’lmish bo’lg’ay. Ustoz Qulmuhammad va Shayx Noyi va Husayn Udiykim, sozda saromad (mashhur) edilar, bekning tarbiyat va taqviyat (madad)i bila muncha taraqqiy va shuhrat qildilar. Ustoz Behzod va Shoh Muzaffar tasvirda bekning sa’y (g’ayrat) va ehtimom (himmat)i bilan mundoq mashhur va ma’ruf (ma’lum) bo’ldilar..”

Darhaqiqat, Navoiy tarixchi Mirxond, she’r ilmining bilimdoni Atoulloh Husayniy, ko’p fanlarni egallagan Husayn Voiz Koshifiy, xattot Sulton Ali kabi ko’plab adiblarni tarbiyalagan, o’z homiyligiga olgan. O’zining bunday hayirli ishlarini to umrining so’ngi kunlari 1501-yil 3-yanvarda sakta (tananing harakatdan qolishi) kasalligidan vafot etguniga qadar davom ettirgan.

Chin ma’noda buyuk bobokalonimiz Navoiy umrini sarhisob qilar ekanmiz, uning naqadar sermazmun va serhosil umr kechirganining guvohi bo’lamiz. Uning biz avlodlarga qoldirgan ko’plab adabiy, ilmiy yodgorliklaridan shuurimiz ozuqa olib, iftihor tuysa, go’zal odobi, saxovatpeshaligi va jamiyat ishlarida faolligi har birimizga o’rnak bo’la oladi. Buyuk mutafakkirning turkiy tilni qayta tiriltirgani ma’naviyatimiz uchun ulkan jasorati bo’lganini Zahiriddin Muhammad Bobur “Turkiy til bila to she’r aytibdurlar, hech kim oncha ko’p va xo’b aytqon emas”,-deb yozsa, Husayn Boyqaro “Mir Alisher turk tilining o’lik jasadig’a Masih nafasi ila jon ato etdi’,-deb takidlagan bo’lsa, uning hayrli ishlarini hali-hanuz tarix madh etmoqda. Bunga dunyoda Alisher Navoiyga qo’yilgan bir nechta yodgorliklar mavjudligi: Moskva, Navoiy, O’sh, Toshkent, Samarqand, Boku, Tokio, Shanxay. Vashingtonda ham Navoiyga yodgorlik o’rnatish rejalashtirilgani yaqqol dalildir. Hattoki, 2009-yilda Merkuriydagi krater Alisher Navoiy sharafiga nomlangani buyuk ajdodimizning o’chmas xotirasi sayyoralararo vasf etilganiga dalolatdir.

Buyuk mutafakkir, tengsiz zakovat sohibi, ulug’ adib va davlat arbobi bo’lmish Alisher Navoiy biz va kelajak avlod uchun tengsiz hayot maktabi bo’la olishi, hamda uningdek sermazmun umr kechirish har bir inson uchun sharaf bo’lmog’i shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Qosimov.B, Jumaxo’ja.N. O’zbek adabiyoti: 10-sinf uchun darslik// Maxsus muharrir: H.Homidov/.-3 -nashri.-T.:G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2001. 464 bet.
2. Adabiyot (oliy o’quv yurtlariga kiruvchilar uchun qo’llanma). S. Matchonov, Sh. Sariyev – Toshkent, 2011-yil. – 384 bet.
3. Q.Yo’ldoshev va boshqalar. Adabiyot (Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua). – T.:Sharq, 2009.-166-bet.
4. UzBaza.uz internet sayti.

MUMTOZ ADIBLAR IJODIDA TA’LIM-TARBIYA MASALASI

Toshpulatova Dilshoda Sirojiddin qizi
Qar DUning Pedagogika instituti
Tillar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi ikkinchi bosqich talabasi
Email: dilshodatoshpulatova8@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada mumtoz adabiyotning bosh masalaridan biri ta’lim va tarbiya mavzusi Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy asarlari misolida asosli o’rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *Mumtoz adabiyot,ta’lim-tarbiya, odob-axloq, to’g’rilik, haqiqat, globallashuv, ma’naviyat, ilm, falsafiy qarashlar, komil inson…*

Аннотация: *В статье подробно исследуется один из основных вопросов классической литературы, тема образования и воспитания в творчестве Юсуфа Хос Хаджиба и Алишера Навои.*

Ключевые слова: *Классическая литература, образование, нравственность, правильность, истина, глобализация, духовность, наука, философские взгляды, совершенный человек…*

Annotation: *One of the main issues of classical literature in the article is the study of the subject of education and upbringing on the ehample of the works of Yusuf Khos Hajib and Alisher Navoi.*

Key words: *Classical literature, education, morality, correctness, truth, globalization, spirituality, science, philosophical views, perfect man…*

O‘zbekiston aholisining ko‘p qismini yoshlar tashkil etadi. Yoshlarni barkamol va yetuk shaxs sifatida tarbiyalash esa, bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu vazifani bajarishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid islohotlar salmog‘i kundan-kunga oshmoqda.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, yurtimizdan barcha sohalarda faxrlanishga arziydigan yuksak bilim sohiblari va dunyoga mashhur allomalar yetishib chiqqan. Hozirgi kunda butun dunyo kutubxonalarida saqlanayotgan qo‘lyozmalardagi barcha sohalarga oid bilimlar bizning milliy boyligimizdir. Barkamol avlodni tarbiyalash va ularning intellektual salohiyatini oshirishda, avvalo, milliy merosimizdan foydalanish zarur.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ham yoshlarga qarata shunday deganlar: “Sizlar ko‘p kitob o‘qigan, bilimli avlod sifatida yurtimiz o‘tmishda jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini yaxshi bilasiz. Siz Xorazmiylar, Farg‘oniylar, Beruniy va Ibn Sino, Ulug‘bek, Navoiy va Boburlar, Buxoriylar, Termiziylar avlodisiz. Ana shunday buyuk vatandoshlarimiz yaratgan bebaho bilim va kashfiyotlar bugun ham butun insoniyatga xizmat qilmoqda”.

Ta’lim-tarbiya jarayoni haqida so‘z borganda shuni aytish kerakki, ular bir-biri bilan o‘zaro uzviy bog‘liq tushunchalardir. Bundan kelib chiqadiki, yoshlarga ta’lim berish bilan birga tarbiyani ham bir xil olib borish lozim. Tarbiyaning asosiy vositalaridan biri bu – badiiy adabiyotdir.

Yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda adabiyotning o‘rni beqiyos. Adabiyot bolalarda vatanga muhabbat, ona yurtga sadoqat, kattalarga hurmat, odob-axloq kabi tuyg‘ularni kamol toptirishda yordam beradi. Adabiyotimizning buyuk namoyondalari bo‘lgan Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy, Nosiruddin Rabg‘uziy, Komil Xorazmiy, Sa’diy She’roziy, Hofiz She’roziy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Munis, Ogahiy, Furqat kabi mumtoz shoir va yozuvchilarimizning asarlarini yoshlarga o‘qitish ularning ruhiy dunyosini boyitishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim-tarbiyadagi muhim omillar haqida qarashlarni ko‘p adiblar ijodida uchraydi. Buni Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy ijodlarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Ularning asarlari turli davrlarda yozilgan bo‘lsa ham ta’lim-tarbiya, axloqiy fazilatlar borasida qarashlari mushtarak.

Buyuk mutafakkirlardan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari turkiy adabiyotning nodir namunasi hisoblanadi. Asarda to‘rt masala asos qilib olinib, ular to‘rt obraz orqali: adolat - Kuntug‘di, davlat- Oyto‘ldi, aql -O‘gdulmish, qanoat - O‘zgurmish timsolida yoritib berilgan. Mavjud masalalar esa, qahramonlarning suhbati, bahs-munozarasi, savol-javoblari, pand-nasihatlari orqali hal qilinadi. Muammo va masalalarni bartaraf qilishda, adib odob-axloq, ilm, insoniylik va adolat doirasida fikr yuritadi. Asardagi har bir bayt alohida hikmatli so‘z tarzida namoyon bo‘ladi va u bilim o‘rganish haqida shunday fikr yuritadi:

“Uqush ul yulateg qaranqu tuni
Biling ul yakug‘lug‘, yarutti sani.
O‘qushqa turur bu ag‘irliq etik,
O‘qushsiz kishi bir avuncha yenik.
Biligni bedug bil, o‘qushni ulug‘,
Bu ikki bedutur udurmish kulug‘”. [5.18-b]

Mazmuni:

“Uquvdir chirog‘dek qorong‘u tuni,
Bilimdir yorig‘lik, yoritgay seni.
Uquv qadri qimmat uchundir kafil,
Uquvsiz kishi bir hovuchcha yengil.
Bilimni buyuk bil, uquvni chuqur,
Bu ikkisi birla g‘ofil uyg‘onur”. [5.19-b]

Bu yerda insonning kamoloti uchun zarur bo‘lgan bilimlarni o‘rganish haqida so‘z yuritilgan.

Navoiyning deyarli barcha asarlarida ham ta’lim-tarbiyaga oid qarashlar mavjud. Uning “Mahbub ul-qulub” asarida ilm-ma’rifat, odob-axloq masalariga alohida e’tibor berilgan. Ilm borasida shunday fikr bildiradi:

“Ilmdin oriy ulusning johili xudkomasi
O‘rganurg‘a jiddi jahd etgan jahon allomasi”. [3.532-b]

Ma’nosi: Ilmdan uzoq inson xalq ichida qaysar nodoni, ilm o‘rganishga jahd etgan jahon allomasidir. Ilmdan uzoq inson nodonlikka, o‘zini ilmga bag‘ishlagan inson esa, dunyo bilimdoni darajasiga erishishi ko‘rsatilgan.

“Mahbub ul-qulub”dan olingan ilmga oid quyidagi ibratli so‘zlar xalq orasida maqol darajasiga aylanishga ulgurgan:

“Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur,
Qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur”. [3.532-b]

Har doim ilm olishdan to‘xtamaslik va unga amal qilish masalasi ikki adib ijodida ham uchraydi. Shuningdek, insonni jamiyat orasida obro‘yini oshiruvchi odob-axloq meyorlaridan to‘g‘rilik, adolat, rostgo‘ylik, karam, muruvvat atroflicha yondashilgan. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida to‘g‘rilik shunday ta’riflangan:

“Qayu nang tuz ersa qamug‘i uz-ul,
Qamug‘ uz ko‘ru barsa qilqi tuz-ul.
Qayu nang emitsa, ko‘r, egri bo‘lur,
Qamug‘ egrilar esiz urgi bo‘lur.
Qayu tuz emitsa turumas, tushar,
Qayu tuz ko‘ni bo‘lsa tushmas, serar”. [8.174-b]

Ma’nosi shunday:

“Qay narsa gar tog‘ri umridir daroz,
Umri uzun har ne bo‘lu to‘g‘ri, soz.
U og‘ar gar egri bo‘lsa, har nima,
Egri bo‘lsa, aslin hech to‘g‘ri dema.
To‘g‘ri og‘sa turmas, yiqilmog‘i bor,
To‘g‘ri to‘g‘ri bo‘lsa, turar barqaror”. [7.80-b]

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni o‘ninchi maqolatida to‘g‘rilik va egrilik haqida so‘z yuritiladi. Adib ko‘plab misollar orqali to‘g‘rilikning yaxshi tomoni, hamda yomonlikning salbiy oqibatlarini o‘quvchiga yaqqol ko‘rsatib beradi:

“Egri-yu tuz vasfi muhaqqaq durur,

Botil erur egri-yu tuz haq durur”. [2.180-b]

Egrilik va ta’g‘rilikning ta’rifi shunday sharhlanadi: yolg‘on- egrilikdan, to‘g‘rilik haqiqatdan iborat. Ushbu bayt egrilik va to‘g‘rilik o‘rtasidagi farq taqqosining xulosasidir. Asarlarda to‘g‘rilik va egrilikning birga kelishi inson o‘z yo‘lini tanlashida ko‘maklashadi.

Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy asarlarining badiiy qimmatini oshirishda yaxshi va yomon xislatlarning yonma-yon tasvirlanishi ham alohida ahamiyat kasb etgan. Odob-axloq, rostgo‘ylik, saxovat, sabr, qanoat kabi xislatlar ulug‘lanadi va bular yetuk, komil insonlarga xos ekani ta’kidlanadi. Shoshqaloqlik, yengiltaklik, tezfe’llik, suqlik, ochko‘zlik, gapdonlik kabi qusurlar esa, keskin qoralanadi va bu belgilar nodon, bilimsiz kishilarga xosligini aytadi. “Qutadg‘u bilig” asarida tilni tiyib yurishning naqadar muhimligi haqida shunday yozadi:

“Til arslon misoli yotar qafasda,

Bexabar boshini yer u nafasda”. [6.16-b]

Ushbu baytda til arslonga o‘xshatilgan va nomaqul aytilgan so‘z insonni balolarga olib kelishi mumkin. Shu tog‘rida Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida ham ayrim fikrlar berib o‘tiladi: “Tilingni ixtiyoringda asrag‘il, so‘zungni ehtiyot bila degil. Mahallida aytar so‘zni asrama, aytmas so‘zni tegrasida yo‘lama. So‘z borkim, eshituvchi eshituvchi tanig‘a jon kiyirur va so‘z borkim, aytg‘uchi boshin yelga berur. Tiling birla ko‘nglungni bir tut, ko‘ngli va tili bir kishi aytg‘on so‘zga but. So‘zni ko‘ngulda pishirmag‘uncha tilga kelturma, harnakim ko‘ngulda bo‘lsa, tilga surma. Agarchi tilni asramoq ko‘ngulga mehnatdur, ammo so‘zni sipamoq boshqa ofatdur”. [3.543-b]

Ma’nosi: “Tilingni hamisha ixtiyoringda saqla, so‘zlaganda ehtiyotkorlik bilan so‘zla. Vaqtida aytiladigan so‘zni asrama, aytish lozim bo‘lmagan so‘zni aytma. Shunday so‘zlar borki eshituvchiga jon bag‘ishlaydi va yana shunday so‘zlar borki aytguchining boshiga kulfat keltiradi. Tiling bilan ko‘ngling bir bo‘lsin, ko‘ngli va tili bir bo‘lgan kishining hamma narsasi to‘liq bo‘ladi. So‘zni ko‘ngilda tayyor

qilmaguncha tilingga chiqarma, ko‘ngilda bo‘lsa ham tilga chiqarma. Tilni asramoq ko‘gilga mehnat, ammo sozni noto‘g‘ri sarflamoq boshga ofatdir”.

Til insonning ongidagi fikrini yuzga chiqaruvchi vositadir. Insonning qay darajada bilimli ekani uning so‘zlari orqali namoyon bo‘ladi. Tilini tiyib yurolmaslik esa, nodon va bilimsiz kishilarga xos xususiyatdir. Til vositasida inson ma’naviyati va madaniyatini namoyon qiladi.

Mazkur adiblarimizning barcha asarlarida tarbiyaviylik jihati yuqori bo‘lgani sababli ham hali-hamon jamiyat barcha a’zolarining ko‘nglidan joy olib kelmoqda.

Xulosa shuki, Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy asarlarini ta’lim jarayonida keng doirada o‘qitilishi yoshlarning ongi va ma’naviyatining o‘sishiga katta ta’sir qiladi. Ibrat olsa arzigulik ajdodlarmizning ma’naviy xazinalaridan foydalanish o‘zligimizni anglash hamda ayni globallashuv zamonida yoshlar ma’naviyatini mustahkamlash uchun samarali xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy “Mukammal asarlar to‘plami”. 7-jild, T: “Fan”, 1991.
2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. Oltinchi jild. T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU”, 2012. [180-bet]
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. - To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. To‘qqizinchi jild. - T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU”, 2012. [489-bet], [532-bet], [543-bet]
4. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. - Toshkent. “G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti”, 1971. [18-bet], [19-bet].
5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. - Toshkent. “Cho‘lpon NMIU”, 2007. [16-bet]
6. Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig”. Toshkent. “Akademnashr”, 2016. [80-bet]
7. Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig”. Toshkent. “Fan”, 1871. [174-bet]
8. www.Saviya.uz sayti
9. www.yuz.uz sayti

THE LIFE OF ALISHER NAVOI, WHO MADE A GREAT CONTRIBUTION TO THE SPIRITUAL HERITAGE OF UZBEK LITERATURE

Munavvarkhonova Mahliyokhon Muzaffarkhon kizi
Student of Namangan State University

Annotation: This article provides information about the life of our great ancestor Mir Alisher Navoi and his inexhaustible spiritual heritage.

Annotatsiya: ushbu maqolada buyuk bobo kalomimiz mir Alisher Navoiyning bosib o’tgan hayot yo’li hamda bitmas va tuganmas ma’naviy merosi haqida ma’lumotlar keltirilgan

Аннотация: В данной статье представлена информация о жизни и нескончаемом духовном наследии нашего великого предка Мир Алишера Навои.

Kalit so’zlar: saroy, qobiliyatli, mutafakkir, xattot, progressiv, muhrdor, obodonchilik, badiiy durdona

Keywords: palace, talented, thinker, calligrapher, progressive, seal, beautification, artistic masterpiece

Ключевые слова: дворец, талантливый, мыслитель, каллиграф, прогрессивный, печать, благоустройство, художественный шедевр.

Alisher Navoi was born on February 9, 1441, in the city of Herat. He started studying at the age of four. Intelligent and talented, Alisher stood out from the rest of the children at school and attracted the attention of adults.

Navoi stayed in Herat and continued his studies. He began to read literary works diligently. Father and mother created all the conditions for Alisher's comprehensive education. He began to study music from Hodja Yusuf Burhan, a famous musicologist of Alisher's time, and became seriously interested in history, literature, calligraphy and others. Alisher especially loved literature. As a child, he had a strong family interest in literature. Alisher's father was an enlightened man and a reporter for art and literature. Alisher was not content to read and study works of art. He also began to write poetry. We do not know how old Navoi was when he wrote poetry.

However, it is known that at the age of 10-12 he was known for his artistic pleasure and his first poems, which attracted the attention of great artists and scholars. Alisher was left a young orphan by his father. He was brought up under the care of the enlightened ruler Abul-Qasim Babur, and at the age of 15 he began to serve with Sultan Hussein Bayqara in the palace of Abul-Qasim Babur. Abul-Qasim Babur left for Mashhad in 1456. Navoi and Hussein Bayqara also went to Mashhad with Abulqasim Babur to continue their studies there. In 1457, Abulqasim Babur died. Navoi will stay in Mashhad and continue his studies.

Dreaming of a career and a state, Hussein went to Mirza Marv and began to gather strength to seize the throne. In Mashhad, Navoi will meet famous poets of the time, such as Sayyid Hassan Ardashe’r and Kamal Turbati. Navoi met Abdurahman Jami at the age of 18-19. Satisfied with Navoi's level of knowledge and literary ability, Jami considered him both a student and a child. The student-teacher relationship soon became a friendship and collaboration between two great poets and thinkers. He confiscated the property left by Navoi's father. Navoi faced severe financial difficulties. Navoi arrived in Samarkand in this condition. He also lived in Samarkand at first in financial difficulties, but nevertheless attended Samarkand madrassas, became close to the people of science, art and literature, and soon gained

a reputation for his level of knowledge, talent and ability. In Samarkand, Navoi got acquainted with the artistic heritage of Sakkoki and other poets.

Cultural monuments in Samarkand, especially the Ulugbek Observatory and the Ulugbek Madrasah, made a great impression on him. Navoi later expressed these impressions in his works, including Xamsa.

Navoi lived in Samarkand until 1469. It was at this time that a favorable event took place for Hussein Bayqara, who dreamed of the throne, to take the throne of Herat. In late 1468, Abu Sa'id fought to conquer Western Iran. In the battle, Abu Sa'id's army was defeated and he was killed. At this time, Hussein Bayqara, who was approaching the thresholds of Herat, took the opportunity to enter Herat in 1469 and ascend the throne. In April of the same year, Navoi returned to Herat. Hussein Bayqara, who was in need of dignitaries and businessmen like Alisher Navoi, was pleased with Navoi's return to Herat, invited him to the palace and gave him the task of sealing. This position was one of the largest, and any government document was formalized, stamped, and signed by a seal. The task of sealing did not allow Navoi to be more involved in creative work. That's why he resigned. However, Hussein Bayqara considered it necessary to have a prudent and wise man like Navoi in his state apparatus, and soon appointed Navoi to the post of Emirate, that is, a minister. Hussein was trying to resolve the dispute between Bayqara and his sons. In particular, he made great contributions to the field of beautification and cultural life. Alisher Navoi attracted scientists, writers and people from various fields of art.

Famous painter Behzod and calligrapher Sultan Ali also grew up under the direct patronage of Navoi. Navoi demanded that scientists, artists and writers work productively and use their abilities and potential properly. He disliked people who were indifferent to creative work, hasty and superficial, and severely reprimanded them. He was both a benevolent and demanding teacher.

Navoi attached great importance to landscaping both during and after his ministry. In the early years of the monarchy, Hussein Baykaro supported Navoi's

work in the field of landscaping, allocating funds from the state treasury. At the same time, Navoi has invested heavily in landscaping. Navoi, who lived in need in Samarkand, returned to Herat and inherited his father's property. Hussein Bayqara gave him a large estate from Herat, Sabzavar and other places. Navoi wrote most of his works in Uzbek, showing that the language had great potential for creating artistic masterpieces, and set Uzbek writers the task of writing in their native language. He helped them along the way. At the same time, he loved Persian-Tajik as his mother tongue, created wonderful works in this language, and had great respect for Persian-Tajik poets, collaborated with them creatively, studied the Arabic language and its lexicon.

Navoi first became famous for his lyrical poems. As early as 1465-66, Navoi's readers collected his poems and composed a devon. In the early 1470s, Navoi himself composed the first divan, Badoyul Bidoya. Later, between 1476 and 1483, he created the second divan, Navodir-un Nihoya.

Having gained a great deal of experience in the lyrical tour, Navoi has now set himself the task of creating major epics in the Uzbek language. After resigning from the ministry, Xamsa began preparing to write. In a short time, he collected all the necessary materials for Xamsa. Nizami, Khusrav Dehlavi and other poets studied the individual epics, folklore and historical works created on the basis of “KXamsa” or “KXamsa” cycle and told Abdurahman Jami about the idea of writing “KXamsa”. Jami approved his goals and plans and gave advice. In 1448, Navoi began to write “KXamsa”. It took him a very short time to write Xamsa – a little over two years. In 1483 he wrote the first epic of “KXamsa” “Hayrat-ul abror”, in 1484 “Farhod and Shirin”, “Layli and Majnun”, “Sabbai Sayyar”, in 1485 “Saddi Iskandariy”. In these epics he posed the most important problems of the time, advancing his progressive ideas as a leading thinker of the Middle Ages.

On January 3, 1501, Alisher Navoi died. The whole of Herat mourned. The tragic news quickly spread to all of Khorasan, Movarounnahr and other places.

References:

1. Alisher Navoi. Hikmatlar (For children) –T .: A.Qodiriy National Heritage Publishing House, 1999.
2. Qayumov A. Alisher Navoi (Life of famous figures). –T .: Kamalak, 1991.
3. Alisher Navoi. Xamsa: Hayratul-Abror, Farhod and Shirin, Layli and Majnun, Sabai Sayyar, Saddi Iskandari. –T .: G. Gulom Publishing House of Literature and Art, 1986.

ALISHER NAVOIY “XAMSA” SIDA SAHOVAT VA MURUVVAT MAVZUSI

Jovliyeva Yulduz Abdivasi qizi

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada so`z mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy “Xamsa” sidagi sahovat va muruvvat to`g`risidagi hikoyatlar haqida so`z boradi. “Hayrat ul-abror” dostonining beshinchi maqolatidagi Hotami Toy hikoyasi va “Sab'ayi sayyor”dostonidagi birinchi iqlim yo`lidan kelgan musofirning Axiy haqidagi hikoyati tahlil qilinadi.

Kalit so`zlar: Xamsa, axiy, futuva, futuvvat, Hotami Toy, Shifoiya, Xalosiya, Ixlosiya.

Аннотация

Эта статья о рассказах султана миров Мир Алишера Навои, о щедрости и мелосердии в “Хамсе”. Анализируются история Хотами Той в пятой статье эпоса “Хайрат ул аброр” и история Ахи, путешественника из первого климата в эпосе “Сабайи Сайяр”.

Ключевые слова: Хамса, ахи, футува, футувват, Хотами Той, Ихласия, Халосия, Шифаия.

Annotation

This article deals with the stories of generosity and mercy in Mir Alisher Navoi’s “KXamsa”. The story of Hotami Toy in the fifth article of the epic “Hayrat ul abror” and the story of Ahi, a traveler from the first climate in the epic “Sabayi Sayyar”, are analyzed.

Keywords: Xamsa, ahiy, futuva, Hotami Toy, futuvvat, Ixlosiya, Xalosiya, Shifoiya.

KIRISH

O‘zbek xalqining o‘tmishi va qadriyatlari uzoq tarixga ega. Ayniqsa, mehr-muruvvat, xayr-sahovat kabi ezgu fazilatlar xalqimizning qon-qoniga, jon-joniga singib ketgan. Qadimdan xalqimiz boshiga tushgan sinovli, zahmatli va mashaqqatli

kunlarni o‘zining aql-zakovati, ishbilarmonligi, mehr-oqibati, sahovati, ma'naviy qadriyatlari bilan yengib o‘tgan. Bunday qadriyat va an’analarimiz milliy adabiy merosimizdan ham chuqur o‘rin olgan.Asarlardagi sahovat va muruvvat mavzulari o'sha davr uchun ham ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan.

Karam va muruvvat ato va anodurlar,

Vafo-yu xayo ikki hamzod farzand.

ASOSIY QISM

Jumladan, Alisher Navoiy ham o`z asarlarida bu kabi fazilatlarga ega shaxslarni tasvirlaydi. Uning ayni vaqtda o'zbek adabiyotining boyligi, mukammalligi va rang-barangligini namoyish etuvchi shoh asari bo'lmish “Xamsa” asarida ham bu mavzuga alohida e’tibor qaratilgan. Navoiy “Xamsa” sida qayd etilgan mavzular ko‘lami keng bo‘lib, inson hayoti, ichki kechinmalari bilan bog‘liq barcha jihatlar qalamga olingan. “Xamsa” tarkibiga kiruvchi “Sab'ayi sayyor” dostonidagi Axiy hikoyati bu fazilatlarning yorqin namunasi sanaladi. Birinchi iqlim mamlakatidan kelgan sayyoh Farrux va Axiy haqidagi hikoyani so‘zlaydi. Unga ko‘ra Farrux Hind shohining o‘g‘li, ya'ni shahzoda bo‘lib, bir kecha ibodat paytida sajdadan so‘ng ko‘ziga uyqu kelib, bir parivash go‘zalni tushida ko‘radi va unga oshiq-u beqaror bo‘ladi. O‘sha parivashni topish maqsadida Quddusga yo‘l oladi. Yo‘lda ko‘plab mashaqqatlarga uchrab manzilga yetadi, biroq go‘zal mahbubasini bu yerdan topa olmaydi va Halab sari yo‘l oladi. Sipohlaridan ajralgan, shohlikdan gado holiga tushgan Farrux sevgilisini axtaradi, ammo undan darak topolmaydi. O‘lar holatga kelib, bir vayronada yotib qoladi. Uni bu vayronadan Axiy ismli halablik rahmdil va sahiy xoja qutqaradi. Axiy Farruxni aziz mehmonidek ehtirom ko‘rsatadi. U mehmonning nasl-nasabi, davlati, tushida bir parivashni ko‘rib oshiq bo‘lgani va Halabda yashashini va bilib oladi. Axiy mehmon maftun bo‘lgan go‘zalning ko‘rinishi qandayligi haqida savol berib, Farrux javoblarini eshitib, jismiga harorat, ko‘ngliga iztirob tushadi. Bunga sabab mehmon aytgan belgilar uning ayoliga xos edi.

Qilmasam, o‘lsa ul muruvvat emas,

Oni yaxshi muruvvat ahli demas.

Kishi bu ishga chora qilmasmu,

Manga ahli haram topilmasmu?

deya, ayolini taloq qilib, uni Farruxga nikohlab beradi. Axiy ko‘plab qimmatbaho sovg‘alar bilan ularni kuzatadi va esdalik sifatida Farruxning eski palosini so‘rab oladi.

Farrux yurtiga qaytganda otasi vafot etib, uni o‘ziga valiahd deb e'lon qilgan bo‘ladi. Bor haqiqatni gul yuzli mahbubasidan eshitgan Farrux:

Dardimg‘a har davo ko‘rmon,

Bular zulmi sanga ravo ko‘rmon.

Aylabon lutf behisob asru,

Qildi bizni Axiy xarob asru.

...Gar anga bu qadar muruvvat bor,

Bizda ham shammayi futuvvat bor.

Sen ham endi shukufta dil bo‘lg‘il,

Manga ikki jahon singil bo‘lg‘il.

deya marhamat ko‘rsatadi. Bu vaqtda Axiyni ishlari ortga ketib, bor boyligidan ayrilib, yurtidan ham quvg‘in bo‘ladi. Darvesh holiga tushib, Farruxning qora palosini kiyib yuradi. Kunlarning birida Sahovatpeshalikni odat qilgan Farrux vayronalardan birida qora palos yopinib yotgan Axiyni ko`radi. Farrux Axiyga izzat-ikrom ko‘rsatadi, uni o‘z saroyiga taklif etadi, katta to‘y qilib, o‘z singlisi qatorida ko‘ruvchi Axiyning ayolini unga nikohlab beradi. Hikoya baxtli yakun topadi.

Barcha buyuk so‘z san'atining namoyondalarida bo‘lganidek Navoiy hazratlari ham qahramon ismida jismini aks ettirish, ya’ni qalb va qiyofani, ot va zotni, suvrat va siyratni, jon va jasadni, bir so‘z bilan aytganda shakl va mazmunni o‘zaro uyg‘un ifodalash usulidan barcha asarlarida foydalanganlar. Bunga yorqin misol biz yuqorida tanishgan Axiy hikoyati. Asar bosh qahramonlari nomlarining lug‘aviy ma’nosiga e'tibor qaratsak, shu obrazning asardagi badiiy qiyofasiga to‘la mos kelishini ko‘ramiz. XII asr arab sayyohi Ibn Batutta axiylar nomi bilan bog‘liq bo‘lgan bir guruh haqida shunday ma’lumot beradi: “Rum turklari bilan maskun bo‘lgan butun o‘lkalarda, har viloyatda, har shaharda, har qishloqda bor. Butun dunyoda g‘arib va yurtsizlarga bulardek g‘amxo‘r bo‘lgan, och odamni to‘ydiradigan, ehtiyojiga yordam beradigan , jabrning qarshisini oladigan, zolim sarkardalarni, ularning ko‘makchilarini o‘ldirishga tayyor bo‘lgan odamni topish mumkin emas. Ular o‘zlariga boshliq saylaydilarki, u axiy yoki futuva deyiladi. Demak, Axiy obrazi to‘qima ya'nikim faqatgina xayol mahsuli bo‘lmasdan, unda tarixiy haqiqat va ijtimoiy ma'no ham bor ekan. Bu Navoiy bobomizning yuksak ilm va mahoratga ega bo‘lganliklaridan darak.

Ushbu hikoyada fazilatlar gultoji bo‘lmish sahovat madh etiladi. Aynan shu fazilat qahramonlarni xuddi qondoshlardek qadrdonlarga aylantiradi. Axiyning muruvvat va sahiyligiga Farrux oliyjanoblik bilan javob qaytaradi. Hikoya nihoyatda ta'sirchan va go‘zal bo‘lib, barcha davr kishilari uchun ibrat bo‘la oladi. Undagi boy ma'no-mazmun betakror tasvir va badiiy ifoda inson qalbining nozik torlarini chertadi.

" Hayrat ul-abror" dostonida ham sahovat to‘g‘risida alohida maqolat va shu maqolatning mantiqiy davomi sifatida Hotami Toy hikoyati berilgan.

Bir pok tabiatli odam Hotami Toyidan so‘radi: “ Kaftlaring ishi saxovat bo‘lganidan beri o‘zingga o‘xshagan biron kishini ko‘rdingmi? ”. U javob berib aytdiki: “Bir kuni katta bir bazm qurib, shu cho‘lda yashayotgan barcha odamlarni mehmon qildim. Ziyofat uchun yuzta tuya, son-sanoqsiz qo‘y-u qo‘zi so‘yilgan edi. Bir vaqt mehmonlar oldidan biroz dam olish uchun ochiqqa, sahroga chiqdim. Shu payt ko‘z oldimda mashaqqat chekib, orqasiga tikanli shox-shabbalarni ortib, yuk ostida jismi

uyi egilib, unga hassadan sutun tirkab olgan, har qadam yurganida to‘xtab, har nafas olguncha damini rostlab borayotgan bir keksa namoyon bo‘ldi. Uning chekayotgan iztiroblari mening ko‘nglimga o‘t solgandek bo‘ldi-yu, unga boqib, lutf-u rahmdillik bilan shunday xitob qildim: “ Ey, qaddini mashaqqat yuki past aylagan, jismida ham tikani azob berayotgan inson! Bugun Hotam uyida chaqiriq bo‘layotganligidan xabar topmadingmi, uning dargohidagi ziyofatga bormadingmi? Hotam hammani mehmonga chorlab, barcha yaxshi-yomonning ko‘nglini oliyapti-ku! Tikaningni tashlagin-da, izzat gulshaniga yet, ko‘p mashaqqat chekmay, o‘rningdan turib, chaqirilgan manzil tomon yo‘l olgin”,— dedim.

Mening u haqida tashvish chekayotganimni anglagan kishi boshini ko‘tarib kuldi-yu, shunday javob qildi: “ Ey,oyog‘ini hirsu ochko‘zlik zanjirband etgan, boynini esa tama-yu tilanchilik arqonni mahkam bog‘lagan, hayrat vodiysiga qadam urmagan va himmat panjarasini kelib chiqmagan inson! Sen ham bu tikan azobini tortib ko‘r, shunda Hotami Toyi minnatini eshitmaysan! ”

Uning bu so‘zlari asosli bo‘lib, mendan uning himmati yuksak edi".

“Hayrat ul-abror” dostonida shoir lutf, muruvvat, sahiylik to‘g‘risida qalam tebratar ekan, har qanday sahovatning ham chegarasi borligiga e’tiborini qaratadi. Chegaradan chiqqan sahiylik istofgarchilikka olib kelishini ta'kidlaydi.

O‘yla, bulutdekki quruq bog‘ uza,

Tomay o‘tib, suvni to‘kar bog‘ uza.

Shoir ularni qaqrab yotgan suvtalab bog‘larga, ekinzor dalalarga yomg‘irini qo‘ymay, keraksiz tog‘larga suv to‘kadigan bulutga o‘xshatadi.

Navoiy hazratlari ham o‘z asarlarining qahramonlari bo‘lmish Axiy va Hotami Toy kabi sahovapesha, muruvvatli va el-yurt manfaatini barcha narsadan ustun qo‘yuvchi oliyjanob inson ekanliklari barchamizga ma'lum. Alisher Navoiy Hirotda “Ixlosiya” madrasasi, “Xalosiya” xonaqohi, masjidi jome, “Shifoiya”, “Nizomiya” madrasalarini barpo etgan, Attor qabriga maqbara, Gulist bulog‘idan Mashhad tomon sakson chaqirim uzunlikdagi ariq qazdirib, shu va boshqa ariqlarga 16 ta ko‘prik barpo

etgan. Hotamtoy shoir faqat ana shu inshootlarlarni bunyod qilibgina qolmay, madrasa, masjid, xonaqohlarda yashovchi talabalar, beva-bechoralar, yetim-yesirlarning ham moddiy ehtiyojlarini ta'minlab turganlar. Shu tariqa, Mir Alisher qilayotgan daromadlarini, bor mol-mulklarini ilm-u fan, ma'rifat ishlariga, el obodligi-yu, ravnaqiga sarflar edilar.

Xulosa

Alisher Navoiy “Xamsa” si insoniylik, ma'naviy yetuklikdan saboq beruvchi, komillik sari yetaklovchi o‘ziga xos qomus bo‘lib, unda barcha uchun o‘git bo‘ladigan, hayoti davomida amal qilishi lozim bo‘lgan ko‘plab saboqlar o‘z ifodasini topgan. “Xamsa” boqiyligining boisi nafaqat uning har bir zamon uchun umumbashariy mavzularni qalamga olganida, balki , har bir misra zamirida olam-olam ma’no mavjudligi va buni o‘ziga xos go‘zal tarzda kitobxonga yetkazib berishidadir. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy asarlaridan, nafaqat asarlaridan balki, ul zotning barchaga ibrat bo‘larli hayot yo‘li, muruvvat-u karamidan o‘rnak olishimiz, hayotimizda dasturulamal qilishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Alisher Navoiy “Xamsa” si “Yangi asr avlodi” Toshkent -2018

2.“Abadiyat gulshani” “Sharq” nashriyoti, Toshkent-2013

3. O.Madayev. Navoiy suhbatlari.—T.: “O‘qituvchi”, 2018

4. Р. Расулова, Инсонлар садафи ҳимматидандур Academic Research in Educational Sciences volume 2 | issue 1 | 2021 issn: 2181-1385 scientific journal impact factor (sjif) 2021: 5.723

5.www.ziyouz.com kutubxonasi

6.notiq.uz

ALISHER NAVOIY VA BOBUR

Elonova Sitorabonu

Buxoro davlat universiteti pedagogika instituti o`zbek tili va adabiyoti talabasi

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy va Bobur hayoti qisqacha e’tirof etiladi. Ular ijodi alohida ta’kidlanadi. Shuningdek, ular ijodidagi o`xshashliklar taqqoslanadi. Maqolada bir davrda ikki uslubning qo`llanishi yorqin asoslab beriladi.

Kalit so’zlar: risola, devon, oliy uslub, turkona uslub, nasr, nazm, mafkura.

Har bir shoir o`z his hayajoni va kechinmalarini jonli hamda yorqin tarzda aks ettirish uchun ranglardan ham foydalanadi. Talantli shoir ta’bir joiz bo`lsa, ranglarni gapirtiradi. Buni tinglovchini to`lqinlantiradigan darajada aks ettiradi. Bu ta’riflarning bari buyuk ajdodlarimiz Alisher Navoiy va Bobur ijodida to`laqonli aks etgan. Ularning barcha asarlari, ruboiy-u g`azallari kitobxonning yuragiga ta’sir eta oladi.

Alisher Navoiyning ideal hukmdor haqidagi orzu-o`ylari Boburning faoliyatida muayyan darajada aks etgan.Bobur Temuriylar saltanatini qayta birlashtirish uchun bor kuch-qudrati bilan harakat qiladi. Ammo toj-u taxt uchun kurashda muxolifatdagi kuchlar bunga yo`l qo`ymaydi. Keyinchalik o`zi tuzgan ,,Buyuk imperiya’’ da islohotlar o`tkazgan va mafkurasini mustahkamlagan. Buning nazariy asoslarini yaratish maqsadida diniy-falsafiy asarlar , harb ishiga oid kitoblar yozgan. ,,Mubayyin” va qator risolalari bunga dalil bo`la oladi.

Alisher Navoiygacha ham o`zbek yozma adabiy tili muayyan darajada shakllangan, she’riyatda ham muayyan an’analar mavjud edi. G`azal mulkining sultoni Alisher Navoiy turli mavzudagi asarlari, g`azal va ruboiylari orqali o`zbek adabiy tilini rivojlantirdi. U buning uchun o`zbek shevalaridan keng foydalandi, mavjud adabiy maktablar an’analarini o`zlashtirib yagona o`zanga soldi. ,,Navoiyning o`zbek tilida yozish haqidagi tashviqot va targ`ibotlari o`z davrida u kutgan darajada muvaffaqiyat qozonmagan bo`lsa-da, ammo o`zbek adabiyotining bundan keying taraqqiyotida juda kata ijobiy rol o`ynadi’’ < 1>

Zahriddin Muhammad Bobur Navoiyning ,,oliy uslubi’’ ga taqlid qilmadan, u barcha asarlarini oddiy turkona ruhda yozgan. G`azal va ruboiylaridagi uslub ham

juda soda, kitobxonning yurak-yuragiga singa oladi, o`z ta’sirini namoyon qila oladi. Buning sababi Bobur qalbidagi g`am-anduhni, dardni to`laqonli ochib, aniq va ravshan ifodalay olgan. Uning quvonchli kunlaridan-da, alamli kunlari ko`proq bo`ladi. Shuning uchun ham Bobur she’riyatida iztirob motivi yetakchilik qiladi.

Tole yo`qki jonimga balolig` bo`ldi,

Har ishniki ayladim, xatolig` bo`ldi,

O`z yerni qo`yib, Hind sori yuzlandim,

Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig` bo`ldi.

Ushbu ruboiyda Bobur o`z yurtini tashlab ketganligi xato bo`lganini ta’kidlaydi, diyori sog`inchi har lahzada qiynayotganini e’tirof etadi. Quyidagi g`azali ham kitobxonga ilk daf’ada ta’sir ko`rsata oladi:

G`urbat tug`i yopqon ruxi zardimnimu dey?

Yo hajr chiqarg`on ohi sardimnimu dey?

Holing ne durur? Bilurmusen, dardimni?!

Holingni so`raymu, yo`qsa dardimnimu dey!

Bobur o`ziga ustoz deb bilgan Navoiy ijodini chuqur ixlos bilan o`rgangan, ko`pgina g`azallarini yod olgan. Bobur Navoiyga maktub yozib, unga o`z ijod mahsulini qo`shib jo`natadi. Intiq kutishlardan so`ng Navoiydan javob maktubi keladi. Ammo Boburga Navoiy bilan yuzma-yuz ko`rishish nasib etmaydi. Bobur va Navoiy ijodi bir davrda turli usullar mavjud bo`lishining yorqin namunasidir.

Navoiy g`azallari mavzu va mazmun e`tibori, voqeabandlik darajasiga ko`ra har xil. Bobur g`azallari xususida ham shunday deyish mumkin.

Navoiy nimaga e`tabor qaratmoqchi bo`lsa, asar davomida o`quvchi diqqatini bot-bot o`sha nuqtaga jalb qiladi, ana shu maqsadga yetkazadigan so`zlardan qayta-qayta foydalanadi. Shunday holat Bobur g`azallarida ham mavjud. Bunga quyidagi g`azal misol:

Quyoshim har sorig`a azm qilsa, zarraye qolmon,

Ne uchunkim, agar ayrilsam ondin, kun ko`ra olmon.

Oningdek bo`lmisham hayron quyosh yanglig` yuzungakim,

Quyoshdek nayzalar tegsa ko`zumga ko`z ola olmon.

Agarchi yor ishqi notavon ko`nglimga o`t soldi,

Vale, men notavon ul yor ishqida ko`ngul solmon.

Ibodat vaqti bo`lsa, har necha mehrob o`trumda,

Qoshin naqshin tasavvur qilmag`uncha, yerga bosh cholmon.

G`azalda shoir quyosh, yor ishqi kabi so`zlarni qayta-qayta ishlatadi. G`azal misralari bir-biri bilan mazmunan mustahkam bog`langan. G`azaldan shunday ma’no anglashiladi:

Quyoshim (ya’ni yorim) qay tomon yurar bo`lsa, men undan zarra ham ortta qolmayman, nega desangiz, agar undan ayrilar bo`lsam, kun ko`rolmayman.

Quyosh yuzingga shunchalar hayron bo`lamanki, quyosh nurlari go`yo nayza bo`lib ko`zimga sanchilsa ham undan ko`z uzolmayman.

Yor ishqi notavon ko`nglimga garchi o`t soldi, ammo men notavon yor ishqida ko`nglimni xotirjam qila olmayman.

Ibodat vaqti bo`lsa-yu mehrob qarshisida tursam yor qoshining naqshini tasavvur qilmaguncha, sajda uchun bosh qo`ya olmayman.

Ey Bobur, agar bu she’ring Iroq va Eronga yetib borsa, Hofiz uni yod olib, Salmon e’zozlaydi.

Navoiyning ijodida nasr va nazm aralash tarzda bitilgan ruboiyi mavjud:

Gardun gah manga jafo-u dunliq qildi,

Baxtim kibi, har ishda zabunluq qildi,

Gah kon sari rahlamunluq qildi,

Alqissa, base buqalamunluq qildi.

Bu ruboiyda hasbi hol xususiyati mavjud. Bobur va Navoiy ijodida hasbi hol janri ustunlik qiladi. She’r bu janrning taronayi ruboiy turiga kiradi. Ruboiyni tahlil qiladigan bo`lsak, birinchi misrada gardun deyilganda shoir nazdida taqdir nazarda

tutilgan. Taqdir har ishda unga shikast yetkazgani aytilgan. Boburning bir ruboiysiga hamohang, ya’ni:

Har ishniki o`yladim xatolig` bo`ldi.

Ushbu ruboiyning tub mag`zida hayotga muhabbat bor. Shoir bu ruboiy orqali inson taqdirining buqalamunligidan ustun kela olishi lozimligi g`oyasini ilgari surgan.

Boburning „ Koshki” radifli g`azali bor. Lutfiy ham, Navoiy ham xuddi shnday radifli g`azal yozgan.

Navoiy g`azalida:

Ochmag`ay erdijamoling olam aro koshki,

Solmag`ay erdi bari olamg`a g`avg`o koshki

deyilgan bo`lsa, bobur g`azalida yangi fikr-mulohaza, o`zgacha hissiyot- armon-pushaymonlik hissi ifodalanadi:

Ko`rmagay erdi jamoli olam aro koshki,

Bo`lmag`ay erdim bari olamg`a rasvo koshki.

Ixtiyor et o`zga ish, Boburki, hosil bo`lmag`ay

Ishqu vaslu aysh ila ishrattin illo, koshki.

Bulardan kelib chiqib Bobur ijodi Navoiy ijodiga o`xshaydi, deb ayta olamiz. Lekin adabiy ta’sir masalalari doirasida Navoiy va Bobur ijodi o`rganilsa, adabiyotshunoslikda yangilik bo`ladigan bir qator to`xtamlarga kelish mumkin.

Foydalanilgan adabiyot:

1: HAYITMETOV A. NAVOIYNING ADABIY- TANQIDIY QARASHLARI

АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИ ТИЛИДАГИ ФИТОНИМЛАРНИНГ ЎРГАНИЛИШИ

Усманова Махфуза Садиковна
А.Қодирий номидаги Жиззах давлат педагогика институти

Аннотация: Алишер Навоий асарлари тили лексикасини кенг кўламда тадқиқ қилиш, шоир асарлари тилидаги сўзларни мавзуий гуруҳларга ажратиб кўрсатиш жиҳатидан навоийшунос олимларнинг олиб борган тадқиқотлари таҳлили берилди.

Калит сўзлар: фитонимлар, лексика, мавзуий гуруҳлар, мева, дарахт номлари, ўсимлик номлари.

Аннотация: Анализ исследований, проведенных навоийскими учеными в плане обширного исследования лексики языка произведений Алишера Навои, разделения слов в языке произведений поэта на тематические группы.

Ключевые слова: фитонимы, лексика, тематические группы, плоды, названия деревьев, названия растений.

Annotation: An analysis of the research conducted by Navoi scholars in terms of extensive research of the lexicon of the language of Alisher Navoi's works, the division of words in the language of the poet's works into thematic groups.

Keywords: phytonims, vocabulary, thematic groups, fruit, tree names, plant names.

Алишер Навоий асарлари тили лексикасини кенг кўламда тадқиқ қилиш, шоир асарлари тилидаги сўзларни мавзуий гуруҳларга ажратиб кўрсатиш жиҳатидан навоийшунос олим Баҳром Бафоевнинг тадқиқотлари диққатга сазовордир. Унинг 1989 йилда ҳимоя қилинган докторлик диссертациясида бошқа соҳа сўзлари қатори ўсимликлар оламига оид сўзлар гуруҳи ҳам

кўрсатилган.[v] Диссертациянинг «Слова, обозначающие растительный мир» деб номланган бўлимида ҳаммаси бўлиб 243та сўз борлиги, улардан 33таси ўсимликлар номи, 12таси дон номлари ва 93таси деҳқончилик атамалари эканлиги ҳақида маълумот берилади. Ишда муаллиф ўсимликлар оламига оид сўзларнинг ёзилиши, шакллари ва уларнинг қайси асарларда учрашини ҳам қайд этган. Б.Бафоев Навоий асарлари лексикаси тадқиқига бағишланган китобида ҳам маълум ўринларда ўсимликларга алоқадор фикрларни билдирган[v]:

1. «Навоий асарлари лексикаси» монографиясининг «Алишер Навоий асарларидаги форс-тожикча ва арабча сўзларнинг тематик группалари» номли сарлавҳаси остида (146-153-бетлар) шоир қўллаган сўзлар яна 26та мавзуий гуруҳларга бўлинган. Аммо улардан ўн бештасининг илмий таҳлили монографияда акс этган, холос. Китобда мавзуий гуруҳларнинг ўн иккитаси кўрсатилиб, қолган ўн тўрт гуруҳ сўзлари берилмаган ва кўп нуқта қўйилган (152-бет). Аммо китоб «хотима»сида 26та мавзуий уяларга умумлашма хулосалар берилади. Шулар орасида йигирма бешинчи мавзуий гуруҳ хулосаси қуйидагича: «251 та ўсимликларга доир сўзлардан 243 таси учраб, улар турли тил материалларидир» (157-бет). Шундай қилиб, ушбу китобга ўсимликлар оламига мансуб сўзларнинг шарҳи кирмай қолган.

2. Олимнинг «Кўҳна сўзлар тарихи» китобида «Ўсимликларга мансуб сўзлар» алоҳида боб қилиниб, бешта мавзуий гуруҳ номларининг кенг ва чуқур тадқиқлари (9-90-бетларда) берилган. Дастлаб «мева номлари» тадқиқи бошланиб (9-31-бетлар), **шафтолу** сўзининг тарихий таркиби, келиб чиқиши турли тиллардаги ва ёзма манбалардаги шакллари ёритилган.

Китобдаги **шафтолу** сўзининг этимони ва лексик-семантик хусусиятлари ҳақидаги шарҳлар китобхонда шубҳа туғдирмайди. Шунингдек, **зардолу** («ўрик») сўзи морфем тузилишининг, маъноси, туркий, форсий тиллар ва айрим шевалардаги қўлланишларининг, луғатлардаги шакли ва семаларининг аниқ таҳлиллари бор. **Зардолу** сўзининг морфем тузилиши, этимони аниқ кўриниб

турган бўлса-да, муаллиф бунинг **олу** морфемаси билан ясалган бошқа ясама номларнинг илмий таҳлилида ишончли восита бўлишлигини эътиборга олган. Форс-тожик тилида **олу** қадимдан «мева», «дарахт» маъносида келингани, унинг эски ўзбек тилига ҳам ўзлашгани таҳлил этилади

«Мева», «дарахт» маъноларини ифодаловчи **олма** сўзининг тарихи ва ясалиш шаклининг мураккаблиги баён қилинади, «беҳи»га ўхшаш мева бўлган **амруд** ва **мурудл**арнинг ҳам маъно ва морфем тузилиши, тарихий қўлланиши шарҳланган.

Китобда шоир асарларида учрайдиган **анор, нор, руммон** ўсимлик номларининг туркий ва форсий ёзма ёдгорликларида учраш ўринлари ҳам кўрсатилган (19-20-бетлар), лекин бир тушунчани билдирган ушбу уч сўзнинг Навоий асарларида услубий вазифа бажарганлиги ҳақида фикр билдирилмаган. Муаллиф ***анор*** сўзининг морфем таҳлилида ***кўкнор*** ва ***анжил//анжир*** сўзларининг келиб чиқиши тарихан бир асосдан эмасмикан, деган тахмин билдиради. Алишер Навоий қўллаган данакли мевалар номи ҳам «дарахт» ва ҳам унинг «меваси» маъносини англатади, дейилиб, *ёнғоқ, бодом, писта* каби номларнинг фонетик шакли, қўлланиш ўринлари ҳақида ҳам фикр юритилган. Муаллиф *бодом* номи таҳлилида унинг *бодринг* сўзи билан бир асосли эмасмикан, деган тахмин билдиради (22-бет). Бизнингча, бу тахминнинг илмий асоси йўқ, чунки бодом ва бодринг сўзларининг фонетик структурасида ўхшашлик бор, холос. Иккинчидан, улар бир-бирига бутунлай алоқаси бўлмаган ўсимликлар турини ифодалайди. Муаллифнинг «бодом» сўзи таркибидаги «дом» билан «хурмо» сўзидаги «мо» қисмлари тарихан бир лисоний асосдан келиб чиққанлиги ҳақидаги фикри қўшимча этимологик далилларни талаб қилади. Китоб муаллифининг узум номини қадимги туркий тилда мавжуд бўлган «узу» («тепалик», «баландлик») сўзи билан боғлангани ҳақидаги қараши ҳам ишончли эмас. Сўзлардаги шаклий ўхшашлик тасодифий бўлиши мумкин. Китобда **«узум»** ва **«ток»** маъносида «раз» сўзи ҳам

мавжудлиги қайд этилган, баъзи ҳолларда «раз» ва «ток»нинг услубан фарқланганлиги ҳам кўрсатилган.

Тадқиқотда арабча **унноб** («жилонжийда») сўзининг тўғри ва кўчма маъноларда қўлланиши ва айрим арабча мева номларининг ўзлашган тилда фақат грамматик кўплик шаклида услубан қўлланганлиги (масалан, «фавокиҳ»нинг бирлик шакли «фокиҳ» каби) мисоллар орқали шарҳлаб берилган. «Олма» тушунчаси Навоий тилида услубан форс-тожикча «себ» билан мос келмаслиги мисоллар орқали кўрсатилган . Б.Бафоевнинг ушбу китобида Алишер Навоий асарларидаги туркий, арабий ва форс-тожикча мева (ва унинг дарахти) номларининг баъзиларига тарихий-генеологик жиҳатдан шарҳлар берилган.

Китобнинг алоҳида бир бўлимида сабзавот номлари эски ўзбек адабий тили сўз бойлигининг муайян қисмини ташкил этиши кўрсатиб ўтилади. Дастлаб **зардак** («сабзи») сўзининг қўлланиши ҳақида фикр юритилади. «Хамса»нинг “Ҳайрат ул-аброр» достонидан *зардак*нинг қўлланилишига мисол келтирилиб, бу сўзнинг туркий тилга форс-тожик тилидан ўтгани, бу тилда қадим даврлардан (XI асрдан) қўлланиб келинаётганлиги айтилади. Сўзнинг морфем таркиби (**зард+ак** – «сариғча») тўғри кўрсатиб берилган.

Палакли ўсимликлардан бири форс-тожикча «**каду**»нинг эски туркий ёзма ёдгорликларда (Навоий ижодигача) ишлатилмагани кўрсатилиб, эски ўзбек адабий тилида «қовоқ», «ошқовоқ» маъноларида анча фаол қўлланган қайд этилади (33-бет). Ҳозирги ўзбек адабий тили нуқтаи назаридан *каду* шеваларга хос сўздир. Китобда **сабза** сўзининг туркий тиллардаги ва туркча-форсча луғатлардаги шакллари, маъноси ва қўлланиши ҳақидаги маълумотлар асосида тарихий-этимологик кўриниши таҳлили берилган. Бунда муаллиф *сабза* билан *полиз* сўзларида қандайдир умумийлик борлигини таъкидлаган. Форс-тожикча **чағандар** («лавлаги»)нинг Навоий ғазалларида қайд этилмаслиги, бу ўсимлик номининг «Ҳайрат ул-аброр» асарида учраши мисоллар орқали асосланади (37-

бет). Ҳозирги ўзбек тилидаги *лавлаги* сўзининг Алишер Навоий асарлари тилида учрамаслиги ҳам айтилган.

Китобда форс-тожикча **шалғам** сўзининг Маҳмуд Кошғарий луғатида унинг маънодоши бўлган туркийча *чағнур//чамғур* шаклларда мавжудлиги эътироф этилади. Муаллиф шу ўринда *шалғам* ва *чағандар* сўзларининг морфем тузилишида ўзаро умумийлик борлигини таъкидлайди. Аммо бу фикр чуқурроқ илмий таҳлилга муҳтож кўринади.

Ўсимликлар оламининг дон туркум турлари аталишида ўзбекча, форс-тожикча ва арабча сўзлар мавжудлиги эътироф қилиниб, қуйидагилар маъно ва қўлланиш ўрни жиҳатидан таҳлил қилинган: *буғдой, жав, кунжут, мош, нахуд, хаш-хаш, шоли* .

Китобда ўзбекча (туркий) **ажриғ** сўзининг фақат «Сабъаи сайёр»да учраши ва унинг этимони ўзбекча *ажратмоқ, айирмоқ* ҳаракат номи шакллари билан боғлиқлиги тахмин қилинган, яъни *азриғ ® айриғ ® ажриғ//ажриғ* бўлиши мумкинлиги айтилган (47-бет). Бу тахминнинг тўғри эканлиги 1997 йилда яратилган «Ўзбек тилининг қисқача этимологик луғати»да ўз исботини топди: «Бу от асли *айир-* феълидан *-иқ* қўшимчаси билан ясалган: *айир+иқ*: шундан кейин бу сўз таркибидаги *й* ундоши *ж* ундошига алмашган: *айириқ* > *ажириқ*; иккинчи бўғиндаги *и* унлиси талаффуз этилмай қўйган: **ажириқ** > **ажриқ**».[v]

Тадқиқотда Навоий асарлари тилида **вусма** шаклида ифодаланган кўкат тури ўша давр турмуш тарзида анча фаол бўлгани, араб ва форс-тожик тиллари луғатларида ҳам *васма//вусма* вариантларида мавжудлиги, ҳозирги ўзбек тилида *ўсма* шаклида қўлланиши кўрсатилади. Форс-тожикча **гул** сўзининг келиб чиқиши аниқланмаган бўлса-да, китобда унинг *гиёҳ* сўзи билан умумийлиги айтиб ўтилган (49-50-бетлар).

Б.Бафоевнинг ушбу тадқиқотида арабча *зайтун, занбах, бақам, заъфарон, муасфар* ; форс-тожикча *зарир, испанд, ишқпечон, кашнез, лола, мушкбийд, муғайлон, най, наргис, насрин;* ҳиндча *нилуфар, норанж* ва туркий (ўзбек)ча

момуқ, конба, пахта, сўксўк, терак, чечак каби ўсимлик номларининг қўлланиши, шаклий нусхалари таҳлиллар орқали кўрсатиб берилган.

Баҳром Бафоевнинг «Алишер Навоий асарларида мева номлари» мақоласида муаллифнинг асосий эътибори Навоий асарлари тилида учровчи, асосан, **-олу** элементи иштирокида ясалган бир неча мева номларининг ўзбек тили тарихида босиб ўтган маъно йўли ва ҳозирги туркий тиллар лексикасидаги ўрнини кўрсатиб беришга қаратилган. Унда, асосан, *шафтолу, зардолу, олу* мева номларининг қўлланиш тарихи, Алишер Навоий асарлари тилидаги шаклий ва маъно хусусиятлари, бадиийлик яратишдаги ўрни масалалари чуқур тадқиқ қилинган.

Муаллифнинг кўрсатишича, **шафтолу** эроний тилларга мансуб сўз бўлиб, бу ном Ўрхун-Енисей ёзма ёдгорликлари, «Девону луғатит турк» (XI аср), «Қутадғу билиг» (XI аср), «Ҳибатул ҳақойиқ» (XIII аср) асарлари тилида учрамайди, бу сўз дастлаб XIV асрда яратилган Қутбнинг «Хусрав ва Ширин» достони тилида қайд қилинади, Алишер Навоий асарлари тилида эса фаол қўлланган.

Мақолада **зардолу** мева номи ҳам юқорида кўрсатиб ўтилган ёдгорликлар тилида, ҳатто Навоийнинг улкан асари «Хазойин ул-маоний» тилида ҳам учрамаслиги, фақат шоир «Хамса»сининг биринчи достони «Хайрат ул-аброр»да учраши:

«Ширада зардолу этиб қанд ҳал,
Йўқ каду, амруд кадуий асал» мисоли воситасида кўрсатилади.[v]

Шунингдек, **олу** сўзининг Ўрхун-Енисей ёзма ёдгорликлари тилида учрамаслиги, Маҳмуд Кошғарий луғатида *алуч*, Замахшарий луғатида *а:ли* шаклларида учраши, Алишер Навоий асарлари тилида эса кўпгина қўшма сўзлар таркибида қатнашгани қайд қилинади.

Умуман, эски ўзбек адабий тилидаги ўсимлик ва мева номларига оид турли даражадаги илмий қарашлар ва фаразлар, Алишер Навоий асарлари тили лексикаси, ундаги ўсимликлар оламига мансуб сўзлар ҳақидаги олимларнинг

фикрлари, мавзу тадқиқот объекти сифатида махсус ўрганилмаганлиги сабабли фитонимларнинг лексик-семантик, услубий хусусиятлари илк бор илмий тадқиқ этилди. Ўсимликларни ифодаловчи сўзларга тилшуносликда ўсимликликлар, фитонимлар, флоралар, мева номлари, полиз ва сабзавот номлари, дарахтлар каби терминлар қўлланилади. Бу сўзлар ўзининг маъноси ва ишлатилишига кўра фарқланади. Фитоним термини ономастикада ўсимликларга қўйилган махсус атоқли номларни англатиши, ономасиологияда эса ўсимлик номлари маъносида қўлланилиб, ўсимликларнинг туркум, нав, хил, кўринишларини атаб келувчи апеллятивларни, яъни оддий сўзлар мажмуини билдириши, кенг маънода ўсимликларни, тор маънода атоқли отларни англатиши, яъни оддий аппелтив сўз ва онимларни фарқлаш зарурлиги Н.Пазлитдинованинг номшуносликка оид тадқиқотида илмий тадқиқ этилган.[v]

Тадқиқотчининг фикрича, оддий сўзлар билан атоқли отларни фарқлаш шарт. Жумладан, *арча, терак, мажнунтол, қовун, тарвуз, ток, гул, ялпиз, майса, беда* кабилар оддий ўсимликлар тушунчасинии ифодаловчи пеллятивлардир. Бундан ташқари, тил луғат таркибида ўсимликларга қўйилган махсус атоқли номлар ҳам мавжуд. Ана шундай номларга нисбатан фитонимлар (гр. phuton – ўсимлик+onoma – атоқли от) терминини қўллаш мақсадга мувофиқ. Бизнинг бу борадаги фикримиз шуки, *фитоним* сўзини икки маънода: кенг маънода аппелятив лексикага, тор маънода номинатив-ономастик бирликларга нисбатан ишлатиш зарур. Шу кунгача Навоий асарлари лексикаси бўйича олиб борилган тадқиқотларда ўсимликлар алоҳида мавзуий гуруҳ сифатида санаб ўтилганлиги, аммо улар махсус илмий тадқиқ этилмаганлиги сабабли диссертацияда Навоий асарларидаги ўсимликшунослик, гулчилик, боғдорчилик, узумчилик, сабзавотчилик, полизчилик соҳаларига оид сўзлар фитоним термини доирасида илмий тадқиқ этилди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Бафоев Б. Лексика произведений Алишера Навоий (лексико-семантические, статические и тематические исследования). Дисс... докт. филол наук. –Т.,1989.

2. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. –Т.: Фан, 1983.

3. Раҳматуллаев Ш., Миртожиев М., Қодиров М. Ўзбек тилининг қисқа этимологик луғати. –Т.: Университет, 1997, 18-б.

4. Пазлитдинова Н.З Узбек тили фитонимларининг лексик – семантик хусусиятлари. Фил.фан. …дисс. –Ф., 2018.

5. Усманова M.Alisher Navoiy asarlarida o’simlik nomlarining umumiy tavsifi. DİL VE EDEBİYAT ARAŞTIRMALARI(8) Turkiya 2013 yil

6. Усманова M. Application of phytonyms in the works of Alisher Navoi. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 7 Number 12, 2019. ISSN 2056-5852.

7. Усмонова M. Lexical and semantic properties of phytonyms in properties of phytonyms in the works of Alisher Navoi. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. 2021

HAZRATI NAVOIY DAVRIDA MUSIQA SAN’ATI

To`xtayeva Mohigul

Buxoro davlat universitetining pedagogika

Instituti musiqa ta`lim yo`nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolani yozishdan maqsad, yoshlarni ajdodlarimiz davrida musiqa san`atiga qaratilgan hurmat – e`tibor va uni bugungi kunda davom ettirish, insonni ma`naviyat olamiga boshlovchi musiqa san`atini rivojlantirishga qaratilgan.

Аннотация: Цель написания данной статьи-научить молодежь уважению к музыкальному искусству во времена наших предков и его продолжению сегодня, развивать музыкальное искусство, ведущее человека в духовный мир.

Annotation: The purpose of writing this article is to help young people pay attention to the art of music in the time of our ancestors and continue it today, to develop the art of music that leads a person to the spiritual word.

**Kalit so`zlar:** Ma`naviyat, bastakor, jamiyat, musiqashunos, g`azal, sozanda.

Ключевые слова: Духовность, композитор, общество, музыковед, газель, музыкант.

Key words: Spirituality, composer, society, musicologist, ghazal, musician.

Buyuk mutafakkir, so`z mulkining sultoni , Turkiy tillar asoschisi - Hazrati Mir Alisher Navoiy bobomiz juda ko`plab serjilo, jozibador purmano g`azallar muallifidir. Ushbu asarlar yozilganiga mana necha asrlar bo`libdiki, hali hanuz o`z jozibasini yo`qotmay boyib, go`zallashib bormoqda.

G`azal so`zi arabcha so`zdan olingan bo`lib, ‘’ Ayolni sevish, unga oshiqona munosabatda bo`lish ‘’ degan ma`noni anglatadi. Navoiy bobomiz o`z g`azallarida doimo ikkita ishqni , ya`ni haq taologa va yorga bo`lgan ishqni o`z g`azallarida tarannum etgan. Shu sababdan ham ushbu g`azallar o`zining serjiloligi va katta ma`no-mazmunga ega ekanligi bilan o`z ahamiyatini

sevimli bo`lib kelmoqda. Bunga yana bir sabab, ularga bastakorlar tomonidan kuy bastalanib, nota yo`liga tushirilib qo`shiq shakliga keltirilganidadir.

Aynan tariximizni o`zining behisob dur-u javohir asarlari bilan boyitgan Nizomiddin Mir Alisher va Bobur bobomiz tomonlaridan yozilgan asarlar bugungi kunda milliy mumtoz asarlarimiz, maqomlarimiz serjiloligi va betakrorligiga katta hissa qo`shib kelgan. Ulardan : ‘’ Ne navo’’ g`azali taniqli shakliga keltirilgan. Eng sevimli g`azallarimizdan bo`lgan biri bo`lgan ‘’ Ko`rmadim ‘’ g`azali esa Doni Zokirov tomonidan kuy bastalanib qo`shiq shakliga keltirilgan. Ular bilan birga ‘’ Ey Sabo ‘’, Mubtalo bo`ldim sanga ‘’ va boshqa ko`pgina deyarli barcha g`azallari bastakorlar tomonidan kuy qismi shakllantirilib nota yo`liga tushirilgan. Va ular bugungi yosh xonandalar tomonidan ham kuylanib kelinmoqda. Navoiy g`azallariga va ular orqali yozilgan mumtoz qo`shiqlarimizga yoshlarnining qiziqishlarini oshirish maqsadida maktab darsligida ushbu g`azallar orqali yaralgan milliy mumtoz navolar o`rganilib borilmoqda. Va yana o`zbek xalq artisti, sozanda va bastakor Imomjon Ikromov bobomizning ‘’Sarvi gulro` kelmadi ‘’ g`azaliga ‘’Munojot’’ kuyini bog`lab qo`shiq qismini ijod etgan.

Nafaqat bugungi rivojlangan bir davrda, balki, bobolarimiz yashab o`tgan bir davrda ham san`at, milliy mumtoz musiqalar sohasida e`tibor va o`zgarishlar juda katta edi. Aynan o`sha davrda san`at va adabiyotga qadam qo`ygan har bir kishi kotiblik, notiqlik, tasviriy san`at bilan bir qatorda musiqa nazariyasi sirlarini ham puxta egallagan bo`lishi, bir yoki bir necha musiqiy asboblarda kuy chalib ko`rsata olishi talab etilgan.

She`riyatda vazn, turoq va she`rlarning aruz vaznida yozilishi qanday ahamiyatga ega bo`lsa, musiqa ohanglarining musiqiy asboblar yordamida nozik jihatlarni idrok etishi ham shunchalik muhim bo`lgan. Navoiy bobomiz o`zining badiiy qarashlarida ,‘’ Inson faqatgina aynan bir yo`nalish bilan emas, masalan, she`riyat bilan bog`lansa, faqatgina she`riyat bilan chegaralanib qolmasdan musiqaning cholg`u ijrochiligi yoki ashula qismi bilan shug`ullansin, va shu yo`l bilan u ruhiyatini, dunyoqarashini ,

His –tug`ularini ijobiy tarafga o`zgartira oladi.’’ deb aytib o`tganlar. O`sha davrdagi yig`inlar, bayram va tantanalar musiqasiz o`tmagan. Taniqli shoirlarning g`azallari, sozanda va bastakorlar tomonidan kuyga solinib hirgoya qilingan. O`sha davrda iqtidorli sozanda va bastakorlar ko`p bo`lgan va ular o`rtasida o`ziga xos musobaqalar doimiy tashkil etilib kelingan.

XIV XVI asrlar - bastakorlik san`atining yuksalgan davri bo`ldi. Bu davrda ko`plab xonanda va sozandalar bilan bir qatorda bastakorlar ham yetishib chiqqan. Bastakor so`zi ‘’ Basta -bog`langan,’’ ‘’kor -ish ‘’ ya`ni kuy unsurlarini bir - biriga bog`lovchi degan ma`noni anglatadi. O`sha davrdagi bastakorlar juda ko`p vazifalarni bajarishlari kerak bo`lgan. Jumladan, yangi kuylar yaratish va ularni bir-biriga bog`lash , biror kuyning ritmi va xarakteri ustida ish olib borish ham bastakorning vazifasi bo`lgan.

Navoiy sozanda va bastakorlar va musiqashunoslar uchun o`z asarlarida juda qimmatli fikrlar berib borish bilan bir qatorda, ularni baholab ham borgan.

Bobomiz o`z asarlaridan aynan ‘’ Majolis un- nafois’’ asarida san`at vakillari haqida alohida fikr bildirib o`tgan. Mavlono Sohib Balxiy, Xo`ja Yusuf Burxon, Mavlono Binoiy, Mavlono Solimiy, Pahlavon Muhammad, Ustod Qulmuhammad, Xo`ja Kamoliddin Husayn, Mavlono Qadimiylar o`z zamonasining eng oldi bastakor va musiqashunoslaridan bo`lishgan. Navoiyning ta`kidlashicha, yuqorida nomlari tilga olingan bastakorlar, maqomlarga naqshlar va peshravlar ya`ni qo`shiqning kuy qismi va matn qismini yozib amallar bog`lagan, ular orqali musiqiy namunalar tuzib maqom janri rivojlanishi va takomillashuvida katta ahamiyatga ega bo`lganlar.

O`z zamonasining eng oldi va ilg`or bastakorlaridan Pahlavon Muhammad kuy bastalashda ustunroq bo`lgan. U maqom yo`llarining Chorgoh, segohlarini bastalash bilan birga musiqiy yo`llarning boshqa janrlarida ham ijod qilgan. Bu haqda hazrati Boburmirzo ham shunday fikrlar bildirib o`tgan: ‘’ Yana benazir eldin biri Pahlavon Mahmud Busaid edi. Kushtigirliqda xud salomat erdi. She`r ham aytur edi, savt va naqshlar bog`lar edi. Chorgohda bir naqshi bor, xushsuhbat kishi erdi’’.

Navoiy o`z atrofidagi musiqashunos va va bastakorlarning bilimi va saviyasini baholab borish bilan birga ular bilan birgalikda ijod qilgan. Bobomiz o`zi ham musiqa amaliyotida ijod etgani ba`zi manbalarda yozilgan. Masalan, Zahiriddin Muhammad Bobur ‘’ Boburnoma’’ da ‘’Alisherbek yana musiqiyda yaxshi nimalar bog`labdur, yaxshi naqshlari , peshravlari bordur. Ham vokal musiqa, ya`ni naqsh va ham cholg`u ya`ni peshrav bo`yicha kuylar yaratgan ‘’ deb ta`kidlagan. Yana ud va qonun asboblarining mohir ijrochisi bo`lgan. O`zi yozgan g`azallariga kuy bastalay olgan. Bundan tashqari musiqashunoslarning fikricha bobomizning musiqiy asarlaridan ba`zilari bizning davrgacha yetib kelgan. Abdurauf Fitrat o`zining

‘’ O`zbek klassik musiqasi va uning tarixi’’ nomli kitobda mashhur kuy ‘’Qari Navo ‘’ va Qari Navoiy ‘’ haqida gapirib o`tgan. ‘’Qari navo’’ bugungi kunda bugungi kunda o`zbek xalq kuyi deb yuritiladi. Lekin bu kuyni eski qo`shiq ekanligi va uning asl nomi ‘’ Qari Navoiy ‘’ ekanligi uning asl muallifi Hazrati Mir Alisher Navoiy ekanligi o`z tasdig`ini topgan. Farg`onada bu kuy ‘’Qari Navoiy deb yuritiladi. Toshkent musiqachilari esa uni ‘’ Qaro navo’’ nomi bilan atab , nomlanishini buzib kelganlar. Buxoro musiqashunoslari bu kuyni ‘’ Qari navoiy’’ kuyi bo`lib u Hazrati Navoiy qalamiga mansub deb aytganlar. Va bu kuyning asl nomi ‘’Qari Navoiy’’ kuyning muallifi Alisher Navoiy ekanligi o`z tasdig`ini topgan. Vaqtlar o`tib bu kuygan sho`xshan, quvnoq va o`ynoqi xarakterga ega bo`lgan ‘’ Shoda- Shoda marvarid’’ qo`shig`I bilan birgalikda xalq kuyi nomi bilan mashhur bo`lib kelgan.

O`sha davrda Hoji Abdulloh Marvarid degan bastakor bir kuy yaratgan. U paytlarda san`atni shu darajada sevishgan va hurmat bilan qarashganki, har bir xonadonda milliy cholg`u asbobi bo`lgan, xonadon egalaridan hech bo`lmaganda bir kishi cholg`u asbobini ijro eta olgan.

Har kechada do`stlar davrasi tashkil etilib, g`azalxonlik , aytishuv, qo`shiqxonlik bellashuvlari tashkil etilgan. Navoiy bobomiz qalamiga mansub g`azalga Hoji Abdulloh kuy bastalab qo`shiq shakliga keltirgan. Ushbu qo`shiq shu darajada ta`sirli bo`lgangi, shu kabi do`stlar davrasida shu qo`shiq ijro etilganida tinglovchilar shu qo`shiqdan ta`sirlanib, beixtiyor yoqalarini yirtib yuborganlar. Bundan shuni anglash mumkinki, o`sha davrdagi san`at turlari va ayniqsa musiqa san`ati g`oyatda purma`no va jozibali bo`lgan.

Biz yoshlar ham buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boyligimiz bo`lgan ma`naviy me`rosimizni asrab- avaylashimiz va butun dunyoga tanitishimiz shart va zarur albatta!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bastakorlar ijodi . Soibjon Begmatov Toshkent – 2017
2. O`zbek xalq musiqa ijodi. H.Nurmatov N. Yo`ldosheva
3. Alisher Navoiy g`azallariga sharhlar. Erkin Vohidov

АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ИРСОЛИ МАСАЛ САНЪАТИНИНГ ҚЎЛЛАНИШИ

Турғунпўлатов Диёрбек Рўзмамат ўғли
Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти талабаси

Аннотация: Мақолада буюк мутафаккир шоиримиз Алишер Навоий ўз асарларида бадиий санъатлардан ниҳоятда унумли фойдаланганликларини очиб берилади. Ирсоли масал санъатининг ғояларини юксак бадиий савияда ифода қилиш Навоий ижодига хос хусусият эканлиги ёритилган.

Калит сўзлар: Ирсоли масал, бадиий ижод, лирик шеър, мумтоз адабиёт анъаналари.

Аннотация: В статье раскрывается, что наш великий мыслитель и поэт Алишер Навои очень эффективно использовал искусство в своих произведениях. Подчеркивается, что выражение идей притчевого искусства ирсоли на высоком художественном уровне является характерной чертой творчества Навои.

Ключевые слова: притча ирсоли, художественное творчество, лирика, традиции классической литературы.

Annotation: The article reveals that our great thinker and poet Alisher Navoi used the arts in his works very effectively. It is emphasized that the expression of the ideas of Irsoli's parable art at a high artistic level is a characteristic feature of Navoi's work.

Keywords: Irsoli parable, artistic creation, lyrical poetry, traditions of classical literature.

XV аср ўзбек лирикасида янги давр ва янги адабий муҳит пайдо бўлди. Бу даврда Алишер Навоий ўзининг сермаҳсул ижоди билан адабиётшунослик соҳасини ривожлантирди ва туркий тил нуфузини оширди. Шоир ўз даврида

мавжуд бўлган поэтик санъатларни бойитди ва янгиларини кашф қилди. Навоий учун ҳеч қачон шеърий санъатлар шунчаки бир санъаткорликни намойиш қилувчи воситалар бўлган эмас. У ҳақиқий новатор, ижодкор сифатида, ўзининг бутун санъаткорлик маҳоратини, муҳим ижтимоий-сиёсий фикрлари, олижаноб ғояларини юксак бадиий савияда ифода қилиш учун дадиллик билан ишга солган. Унинг лирик шеърлари, даҳо санъаткорларнинг тилга, сўзга бўлган ижодий муносабати юксак эҳтиром ва талабчанликнинг ҳақиқий намунаси бўла олади.

Минг йилдан ортиқ тарихга эга бўлган мумтоз адабиётимизда бадиият масаласи ҳар доим шеър аҳлининг диққат марказида бўлиб келган. Ижодкорларни шеърий санъатлардан қандай маҳорат билан фойдаланганликлари бўйича баҳо беришган. Бу масалада буюк мутафаккир шоиримиз Алишер Навоий ўз асарларида бадиий санъатлардан ниҳоятда унумли фойдаланганликларини гувоҳи бўлганмиз.

Навоий шеъриятида ирсоли масал жанрининг қўлланиши ҳақида гапириб ўтишдан олдин бу жанр хусусида қисқача тўхталиб ўтиш лозим:

Ирсоли масал - жанрнинг луғавий маъноси мақол келтириш бўлиб, бирор муҳокама ва мулоҳазани мақол билан тасдиқлаш усулидир[v]

Шоир лирикасининг асосий фазилатларидан бири шеърнинг туб моҳиятини ташкил этган мазмун-ғоянинг ўзига хос шаклда намоён бўлишида кўринади. Масалан, “Хазойинул маоний” девонида халқ мақоллари ва ҳикматлари алоҳида байтлардагина эмас, балки айрим ғазаллар ҳам бошдан-оёқ ирсоли масал усулида ёзилганига дуч келамиз[v]

“Ғаройиб ус–сиғар” девонига кирган мана шундай ғазаллардан бирини намуна сифатида ўрганиб чиқайлик:

Кўнгуллар ноласи зулфунг камандин ногаҳон кўргач,
Эрур андоққи, қушлар қичқиришқайлар йилон кўргач.

“Кўнгуллар ноласи зулфунг камандин ногаҳон кўргач” деб бошланувчи ғазалда шоир лирик қаҳрамоннинг руҳий ҳолатларини ҳаётий ҳодисалар билан ёнма-ён

қўйиб тасвирлаганки, бу нарса тасвирнинг ниҳоятда жонли ва ёрқин чиқишига сабаб бўлган. Ёрнинг соч ўримларини кўриб, ошиқнинг нола чекиши деярли кўпчилик мумтоз шоирлар ижодида учрайди. Лекин ушбу байтнинг ўзига хослиги шундаки, Навоий тасвирида ошиқнинг фарёд ва нолалари кучли, тоқат қилиб бўлмас даражада. Бу фарёд илон инига бош суқа бошлаганда жон талвасасида қичқира бошлаган қушларнинг нола ва фарёдига ўхшаб кетади. Ошиқ кўнглидан кўтарилган нолани бу хилда ҳаётий манзара орқали гавдалантириш натижасида Навоий лирик тасвири ички руҳий характер касб этган. Бу ҳолат ошиқнинг бутун дунёсини чизиб беради. Шарқ шеъриятида ёрнинг қадди ҳақида гап борганда, албатта, сарв дарахти эслатиб ўтилганидек, унинг сочи таърифланганда илон билан боғлиқ бир фикр айтилади. Навоий ушбу анъанани сақлаган ҳолда мазкур байтда бутун бир жонли лавҳа яратган. Маъшуқанинг зулфи тузоққа, айни пайтда илонга ҳам ташбиҳ қилинган. Бу ўринда шаклий ўхшашликдан ташқари, вазифа жиҳатидан ҳам ўхшашлик мавжуд. Илон қушларни овласа, маъшуқа зулфи ошиқ кўнглини банд этиш учун қўйилган тузоқдир. Шундай экан, кўнгиллар ноласи ҳам, қушларнинг фарёди ҳам табиий. Битта байтда бутун бир ҳаётий лавҳа яратилганки, бу лавҳа ошиқнинг руҳий ҳолатини образли шаклда акс эттиришга хизмат қилган.

Навоий поэтик санъатлар учун “материал” танлар экан, борлиқдаги энг характерли воқеа ва ҳодисаларни, биринчи навбатда, тасвир объектининг моҳиятини тўла ва ёрқин ифодалашга имкон берадиган реалистик деталларни олишга интилган[v]

Алишер Навоий ижоди халқ оғзаки ижодидан озиқланган. Шоир ижоди мислсиз денгиз тубига ўхшайди. Шеърнинг инсон ҳаётидаги оний лаҳзаларнинг ҳассос кўнгилларга етказадиган беадо зарблари, ҳаяжон ва изтиробларининг ўзига хос ифодалари, акс-садолари эканлиги бор ҳақиқат. Шоир яшаган ижтимоий муҳит шеъриятда ўз аксини топади. Алишер Навоий лирикасида ҳам давр руҳияти, ижтимоий муносабатлар ва халқ дарди акс этган. Ўзбек тилининг бой ва кенг имкониятларидан унумли фойдаланган Навоий маҳорати, ирсоли

масал санъатини жозибасини тушунтириб қўллаш туфайли тилимиздаги бу санъатнинг аҳамиятини янада оширди. Ўзбек халқ оғзаки ижодининг қадимий ва навқирон бу санъатини ёзма адабиётимизнинг ўзига хос кўркига айлантирди. Ҳаммамизга маълумки, ўзбек шоирлари ўз ижодий маҳсулларини фольклорнинг энг қимматбаҳо хазинаси - мақоллари билан безаш, ўз фикрларини халқ донолиги билан тасдиқлашни маъқул кўрганлар.

Навоий лирикаси мавзу жиҳатидан ниҳоятда ранг-барангдир. Севги-муҳаббатни улуғлаш – шоир ғазалиётининг асосий мавзуидир. Шоир мана шу умрбоқий мавзу атрофида ҳаёт гўзаллигидан завқланиш, табиатнинг фусункор манзараларидан баҳраманд бўлиш, одамийлик, юксак инсоний фазилатлар: меҳр-муҳаббат, вафо ва садоқат кабилар ҳақида кенг мушоҳада юритади, Олам ва одам хусусидаги теран мулоҳазаларини бадиийлаштиради. Навоий мумтоз адабиёт анъаналари, халқ оғзаки ижодининг бебаҳо дурдоналаридан баҳраманд бўлиб ғазалдаги марказий образни оҳори тўкилмаган байтларда тавсиф этади. Шеър қаҳрамонининг турли ҳолат ва кайфияти, руҳий кечинмаларини ҳаётий мисоллар асосида ёркин тасвирлайди.

Шоир ғазал, шеърларида тазод, ташбеҳ, ҳусни таълил, муболаға, лутф, талмеҳ, каби ўнлаб бадиий санъатлардан санъаткорона тарзда фойдаланганлигини алоҳида таъкидлаб ўтиш лозим. Хусусан, шоир халқ мақоллари, ҳикматли сўзларини ғазалнинг жанрий хусусияти, мазмун ва тасвир табиатидан келиб чиққан ҳолда ё айнан ёки қисман ўзгартирилган шаклда моҳирлик билан қўллайди.

Навоий шеърияти, айниқса, ғазаллари кейинги асрларда яшаб ижод этган шоирлар учун илҳом манбаи бўлиб қолди. Юзлаб ва ҳатто минглаб шоирлар Навоий асарларини ўз асарларининг фундаменти сифатида қарашди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. “Илм-заковатимиз – сенга, она-Ватан!” анжумани материллари. –Фарғона: 2022, 62-б.
2. Ишоқов Й. Навоий поэтикаси. — Т.:1984; 94-бет.
3. Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. Шарқ: -Тошкент, 1998.
4. Турғунпўлатов, Д. Р. (2021) “Тамсил” адабий жанрнинг бадиий хусусиятлари. Образование и наука в XXI веке 2(19), (пп. 1374-1377).
5. Турғунпўлатов, Д. Р. (2021). Муболаға – кенг оммалашган адабий жанр. Academic research in educational sciens *(ARES*2(8), 186-188.
6. Турғунпўлатов Д.Р. (2022). Алишер Навоийнинг Хуросон маданий ҳаётида тутган ўрни. Алишер Навоий адабий ва илмий меросини ўрганиш масалалари *(халқаро конференция)* (пп. 171-174).
7. Алишер Навоий. Ғаройибус-сиғар. 89-226-бетлар.

АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИДА ИНСОН ВА АХЛОҚ МАСАЛАСИ

Тиллаева Шахло Мақсудовна

Бухоро муханддислик технология институти

Annotatsiya: Инсонни тавсифлашда Навоий бир ёқлама муболағага йўл қўймайди, у одамнинг ожиз томонлари борлигини ҳам тан олади. Аммо инсон ўз фазилатларини ҳимоя қила ва сақлай олса, унинг ҳаёт учун курашида фазилатлари устун чиқишига чуқур ишонч изҳор этади: Шунинг учун ахлок Навоий ижодида турли норма, коидалар ва принципларнинг бир бутун системаси сифатида эмас, балки кишиларнинг хатти – харакатларини тартибга солувчи амалий хикмат сифатида юзага чикади.

Kalit so‘zlar: пантеистик ,илохиёт, коинот, ахлокий, фалсафий ,мажозий, комил инсон, санъаткор, идеал, абад, азал, густохлик, ботиний.

Аннотация: Навои не допускает одностороннего преувеличения в описании человека, он также признает наличие у человека слабостей. Однако если человек сумеет защитить и сохранить свои качества, он убежден, что в его борьбе за жизнь возьмут верх его качества.

Ключевые слова: пантеистическое, богословие, мироздание, нравственное, философское, образное, совершенный человек, художник, идеальный, вечный, непреходящий, вкус, внутренний.

Annotation: Navoi does not allow one-sided exaggeration in describing a person, he also admits that a person has weaknesses. However, if a person is able to protect and preserve his qualities, he expresses a deep conviction that his qualities will prevail in his struggle for life.

Key words: pantheistic, theology, universe, moral, philosophical, figurative, perfect man, artist, ideal, eternal, everlasting, gusto, inner.

Бутун турк дунёси Алишер Навоийни «шамс ул-миллат» — миллат қуёши деб ҳамма даврларда эъзоз билан тилга олади.Алишер Навоийнинг инсон хакидаги карашлари унинг илохиёт ва коинот, улар уртасидаги богланиш сингари масалаларга алокадордир. Шоирнинг таълимотига кура, атрофдаги борликнинг пайдо булиши Худонинг уз хуснини коинотда намоён килишга мухтожлиги ифодасидир, деб тасаввур килинади. Шунга кура, дунёнинг яратилиши бир конуний-табиий жараён хисобланади.Шоирнинг бундай фалсафий карашлари «Лисон ут-тайр» достонида изчил ва хар томонлама баён этилган. Унда Худхуд кушларнинг Симург (худо) тугрисида берган саволига жавобан унинг намоён булишини куйидагича тавсифлайди,

Истади хуснига ошикликни фош,
Кузгу пайдо килди андокким куёш.
Токи онда жилвае ноз айлагай,
Хуснига ошиклик огоз айлагай.
Булди у кузгу кунгул, эй ахли дил,
Ким хак анда жилва айлар муттасил.
Ул килибон жилваи хусн шокор,
Сен кунгул бирла анга ойнадор[1].

Навоийнинг илохиёт ва коинот хакидаги мулохазаларида худо бирликдан иборатдир. Бошка мавжуд ходисаларнинг хаммаси эса анна шу бирликларнинг зохирий сифатлари булиб, унинг коинотдаги жилосидир. Худонинг зот сифатлари бирлик, абад, азал тушунчаларида ифодаланади. Бу хакда Навоий куйидагича фикр килади:

Бирлик ойинида зотидири онинг,
Лекин мингдин куп сифотидир онинг.
Ул сифат офок оро шоеъ булуб,
Барча онинг зотига рожеъ булуб[2].

Бу хил пантеистик карашдан илохиёт ва коинот аро маълум бир табиий богланиш мавжудлиги назарга олинади. Илохиёт, Коинот ва инсон бир бутунлиги гояси мажозий тарзда «Лисон ут-тайр» достонида уз ифодасини топган. Достоннинг ботиний мазмуни-инсон рухининг худога интилиши гояси кушларнинг уз подшоси булмиш симургни кидириш сафарида ифодаланади. Бу жараёнда кушлар томонидан Худхудга шариатнинг у ёки бу акидаларига доир саволлар берилади. Худхуднинг жавобларида бу саволларнинг мазмуни тасаввуфий мазмунда талкин этилиб, диний акидалар ахлокий маъно касб этади. Достонда мухим ахлокий, фалсафий ва диний масалалар ташки жихатдан кизикарли хикоялар, латифалар, мажозий образ ва ривоятлар оркали баён этилади.

«Лисон ут-тайр» достонида Худхудга кушлардан бири шундай савол беради, «Лаънати Иблис (шайтон) мени доимо васвасга солиб, ножуя хаёлларни кунглумга келтиради, ундан кутилиш чораси нимада?»

Худхуд жавобида Иблис ташкаридаги гайри-табиий куч эмас, балки уз нафсининг ва инсон хулкининг иллатидар, холос. Чунки инсоннинг калби кибру гуру рва бошка иллатларга шу кадар тулиб кетганки, уни курган шайтоннинг узи хам куркиб, чул-биёбонга кочган булар эди, дейди. Иблисдан кутулиш чорасини Худхуд куйидагича ифодалайди:

Кайси ишдинким етар нафсингга ком,
Топар ондин комини шайтон мудом.
Нафс хукми бирлаким килсанг хар иш,
Иржаюр ул комдин шайтон тиш[3]

Шариатга доир саволлардан яна бири густохлик, яъни худога нисбатан нодонларча муомалада булиш, тортинмаслик, куполлик мумкинми, деган масала хусусидадир. Маълумки, шариат густохликка йул куймайди, уни гунох хисоблайди. «Бандага густохлик булурми раво?», деган саволга Худхуд шундай

жавоб беради: агар инсон нодонлиги, кибру гурури туфайли худога нисбатан густохлик килса, бу гунохдир, лекин узлигини йукотиб камол топган, ишк савдосида паст, ошику ошуфтаву мажнуну маст булиб юрса, у худога густохлик килиши мумкин. Чунки у мухаббати билан худога зор, унда худога нисбатан на ужарлик, на кибр, на гараз йукдир. Худхуд уз фикрига мисол сифатида Мажнун ал-хак тугрисидаги ривоятни хикоя килиб беради.

Кунлардан бирида Мажнун ал-хак деб аталмиш олий бир сифатли девона-дарвиш Байтуллох (Каъба)ни зиёрат айлаш максадида сафарга чикади.

Тун-кун ёмгир ёгади. Мажнун йул атрофида харобани куради-да, эшагини худога топшириб, айтади: «Эй тангрим, эшакдан вокиф ул!» Сунг узи вайронага кириб уйкуга кетади. Ёмгир кучайиб харобани сув босганда дарвишнинг уйкуси учади. Урнидан туриб караса, эшаги куринмади. Мажнун худодан шикоят килиб, сенга эшагимни топширсам, нега яхши карамадинг, бу канака бепарволик, гафлат ичида колибсан-ку, деб койий бошлайди. Шу оннинг узида чакмок атрофни ёритди;

Комил инсон назариясининг муайян таъсири Навоийнинг ахлокий карашларида уз аксини топган. Унинг комил инсон хакидаги ахлокий идеали Сукрат, Афлотун, Арасту, Искандар Зулкарнайн, Фарход сингари ижобий кахрамонларнинг образларида ифодаланади.

[1]Алишер Навоий, Асарлар, т 11, 66-бет

[2]Алишер Навоий, Асарлар, т 11, 19-бет

[3]Лисон ут-тайр, 121-122-бетлар

Навоий достонларида улар тарихий шахслар сифатида талкин этилмайди, улар шоирнинг ахлокий дунёкарашига монанд бадиий образлардир. Комил инсоннинг реал тимсоллари сифатида Навоий уз асарларининг алохида бобларида

Мухаммад пайгамбар, Низомий Ганжавий, Бахоуддин Накшбанд, Абдурахмон Жомийларни тилга олади. Шоирнинг таърифига кура, юкорида номлари зикр

этилган шахсларда юксак илм ва санъаткорлик ахлокий поклик ва маънавий камолот билан узвий равишда боглангандир.

Фарход Навоийнинг ахлокий идеалига мос образдир. У комил инсонга хос барча хислатларни узида мужассамлантирган: Фарход-рассом, мохир санъаткор уста, билимдон олим ва доно мутафаккир, Айни вактда у довюрак жангчи хамдир. Унда биз икки сифат – хикмат ва инсонийликнинг бир бутунлигини курамиз. Умуман,Навоийнинг ахлокий карашларида инсоннинг маънавий етуклиги масаласига катта эътибор берилади. У уз тасаввурида инсоннинг идеал маънавий киёфасини яратар экан, уни конкрет образларда, уларнинг хатти – харакатларида мужассамлантиради. Натижада ахлокий категориялар ва принциплар узининг мавхумлигини йукотиб, хиссий – конкрет шаклда жонли ва равшан ифодаланади. Бундан куринадики, Навоий учун ахлокнинг ахамияти унинг амалиётида, кишиларнинг кундалик хатти – харакатларида намоён булишидадир.

Шунинг учун ахлок Навоий ижодида турли норма, коидалар ва принципларнинг бир бутун системаси сифатида эмас, балки кишиларнинг хатти – харакатларини тартибга солувчи амалий хикмат сифатида юзага чикади. Унинг тушунчасида ахлокийликнинг маъноси идрок ва заковатга эришишни, яъни очик фикрли, хуш табиатли ва зийрак булишни, нафсни худбин ва бузук ишлардан сакланиб, хакикий баркамолликка интилишни билдиради. Инсонни яхшиликка, баркамолликка олиб келувчи илм – ахлокдир

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Уйғун, Алишер Навоий, Тошкент, 1942.
2. Навоий замондошлари хотирасида. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1985.
3. Иззат Султон, Навоийнинг қалб дафтари, Тошкент, 1969.
4.Алишер Навоий ижодий ва маънавий меросининг оламшумул аҳамияти (халқаро илмий-назарий анжуман материаллари).- Тошкент: Адабиёт ва санъат 2011. 10.

Электрон манбаалар

https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/allomalar/Alisher-navoiy-

https://www.hidoya.uz/251/maolalar/Alisher_navoiyning_izhodi_haida.html

NAVOIY IJODIYOTI YEVROPA TARJIMONLARI NIGOHIDA

Hojiyeva Gulchehra Salimovna
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Mir Alishe’r Navoiyning insoniyatni komillikka yetaklovchi boy adabiy merosi, mustaqillik yillarida Navoiy asarlarini o‘rganish borasida amalga oshirilayotgan say-harakatlar, xususan, o‘zbek tilshunoslarining fransuz olimlari bilan hamkorlikda yaratgan tarjima asarlari xususida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Navoiy ijodiyoti, komil inson g‘oyasi, g‘azal, miniatyura, doston, qit’a, ruboiy, chiston, muhammas, fard, mustahzod, aforizm.*

Аннотация: *В данной статье речь идет о богатом литературном наследии Мир Алишера Навои, которое привело человечество к совершенству, усилиях, предпринятых в годы независимости для изучения творчества Навои, в частности, трудов узбекских языковедов в сотрудничестве с французскими учеными.*

Ключевые слова: *Творчество Навои, идея совершенного человека, газель, миниатюра, дастан, китъа, рубаи, загадка (чистон), мухаммас, фард, мустахзод, афоризм.*

Annotation: *This article deals with the rich literary heritage of Mir Alishe’r Navoi, which led mankind to perfection, as well as, the efforts made during the years of independence to study the works of Navoi, in particular, the translation works of Uzbek linguists in collaboration with French scholars.*

Key words: Navoi's creativity, the idea of a perfect man, gazel, miniature, dastan (story), quitah (story), rubai (quatrain), chiston (riddle), muhammas, fard, mustahzod, aphorism.

Har bir xalqning milliy o‘zligini anglashi va millat bo‘lib shakllanishida shubhasiz, uning adabiy merosi va adabiyot darg‘alarining o‘rni beqiyosdir. O‘zbek tilining asosi bo‘lgan turkiy tilning beqiyos go‘zallagini kashf etgan, naqadar so‘zga boy ekanligini o‘zining benazir ijodi orqali ko‘rsatib bergan Mir Alishe’r Navoiy ham, o‘zbek tili va adabiyotining, qolaversa, dunyo adabiyotshunosligining ulug‘ mutafakkirlaridan sanaladi.

Ta’kidlash joizki, Navoiyning yuksak badiiyatga yo‘g‘rilgan barcha asarlari zamirida komil inson va uni tarbiyalash, komillikka yetaklash, undash g‘oyalari yotadi. Shu boisdan mustaqillik sharofati bilan izchil o‘rganila boshlangan Navoiy ijodi so‘nggi yillarda, ayniqsa yangi bosqichga ko‘tarildi. Ana shu yondashuv xorijiy tarjimonlarni o‘ziga jalb etgan asosiy mezon bo‘lib, uzoq yillardan buyon ko‘pgina olimlar tomonidan Navoiy g‘azallari va dostonlarini tadqiq etib kelinmoqda. O‘zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligida qiyosiy o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning ortgani sayin, Navoiy yarangan ijodiy me’rosni tadqiq etish barobarida uni xorijiy tillarga tarjima qilish va qiyosiy o‘rganishga ahamiyat qaratilayotganligi dunyo adabiyotshunoslarini ham bu borada tadqiqotlar olib borishga va Alishe’r Navoiyning ijodiy merosini xorijiy tillarga, jumladan, ingliz, fransuz va nemis tillariga tarjima qilinib, dunyo ahliga namoyish etilishiga sabab bo‘lmoqda.

Jumladan, “Lison-ut-tayr” asarini ingliz tiliga tarjima qilgan kanadalik Garri Dikning Alishe’r Navoiyga bag‘ishlangan “Ko‘ngil bog‘ining bog‘boni” nomli maqolasi o‘zbek tilida chop etilgan. Maqola muallifi Navoiydan shunchalik ta’sirlangan ediki, u shoirning butun ijodini tezroq o‘z yurtdoshlariga yetkazib berish istagini bildirgan holda, Navoiyni “shoirim” deb ataydi va uni ko‘ngil bog‘ining bog‘boniga qiyoslaydi. Boisi G‘arbdagi taraqqiyot bo‘hronlari kishilarning moddiy-maishiy turmushga berilib ketayotgani va oqibatda ma’naviy inqirozga yo‘l tutayotgan jarayonda kimdir ko‘zni ochishi, yoxud Garri Dik ta’biri bilan aytganda “ajriq bosib ketgan bog‘ni tozalab, parvarishlashi kerak” edi. Shunday muhim

masalada Navoiy asarlariga murojaat etilishining o‘zi-da, adib shaxsi va ijodiga bildirilgan yuksak ishonch hamda ehtiromdan dalolat demakdir.

2000 yilda Y.Parda, L.Kmetyuk va K.Ma’murovlar tomonidan ulug‘ mutafakkir asarlarining ingliz va nemis tillaridagi tarjimasi “Ummondan durlar. G‘azallar, hikmatlar va ruboiylardan namunalar” nomi bilan nashr etildi. [2.]

O‘zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo‘lib tan olgan Fransiya davlati o‘rtasidagi madaniy aloqalar, istiqlol yillarida ayniqsa mustahkamlanib borishi natijasida fransuz olimlarining ham Navoiy ijodiga qiziqishi tobora ortayotganini ta’kidlash joiz. Xususan, 1991 yilda Orphée La Différence nashriyoti tomonidan chop etilgan “Gazels et autres poèmes” kitobida keltirilgan Alishe’r Navoiy g‘azallari Hamid Ismoilov va Jan Pyer Balp tomonidan fransuz tiliga tarjima qilingan edi (traduit de l'ouzbek par Hamid Ismaïlov - Alishe’r Navoï, Adapté par Jean-Pierre Balpe. Gazels et autres poèmes, Orphée - La Différence). Kitobda tarjimonlar tomonidan Navoiy hayoti va ijodiyoti xususidagi qisqacha ma’lumot bilan birga uning asarlari bibliografiyasi, shuningdek, “g‘azal”, “qit’a”, “ruboiy”, “chiston”, “muhammas”, “fard”, “mustahzod” kabi adabiy janrlar ta’rifi hamda ularga arab va fransuz tillarida namunalar keltirilgan:

Attendant ma lune je jette mes regards de tous côtés :
tant que je ferme puis j'ouvre les yeux, les larmes restent éloignées.
Quémandeur, je suis le chien errant sur la route :
le chien devant, je vais derrière.
Si croyants et sages viennent semer le trouble en mon âme,
aux brèches de mon coeur, tristesse et douleur se dressent comme gardes.
Même si tu ne la vois pas l'eau éteint les flammes, l'une après l'autre :
larme après larme, les pleurs s'assèchent aux épines des cils.
Je sais qu'entre tes lèvres, dans ta bouche, le sel de ta langue
est comme le dard à miel de l'abeille perçant le pétale de rose.
Ermite, songeant à tous moments à cet abri qu'est la méditation,

tant que je vis, je ne quitterai pas ce monde.
Ne parle pas Navoï, emplis ton verre encore :
à toujours le remplir, tu finiras par t'y noyer.

2008 yilda Fransiyada Alishe’r Navoiyning 30 ta g‘azali tarjimonlar Murodxon Ergashev va Jan Jak Gate hamkorligi ostida “Gazel” nomi bilan “Georama” nashriyotida chop etildi (Traduction et adaptation Mourodkhon Ergashev – Jean-Jacques Gaté. Illustrations Jahongir Ashurov. Géorama.) To‘plamda Navoiy hayoti va ijodi haqida hikoya qilinib, g‘azallarining fransuzcha tarjimasi rassom Jahongir Ashurov tomonidan ishlangan miniatyuralar asosida berilgan. Shuningdek, mutafakkirning qator ruboiy, aforizm hamda hikmatli so‘zlari fransuz tiliga tarjima qilingan [1.30.]:

Odami ersang, demagil odami,

Oniki, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

Le nom d’homme, ceux-là ne le meritent point,

Qui sont durs pour le peuple et sourds à ses besoins.

Befoyda so‘zni ko‘p aytma,

Foydali so‘zni ko‘p eshiturdin qaytma.

Évite les discours superflus et frivoles,

Mais écoute cent fois une sage parole.

Oz-oz o‘rganib, dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib, daryo bo‘lur.

Comme l’eau qui remplie le fleuve goutte à goutte,

Jour par jour quelque miètte à ton savoir s’ajoute.

Bu gulshan ichra yo‘qdir baqo guliga sabot,

Ajab saodat erur qolsa yaxshilik bila ot.

Au jardin d’ici-bas, la rose n’a qu’une heure;

Heureux ceux dont le nom dans les siècles demeure.

Izzat tilasang kam de,

Sihat tilasang kam ye.

Dis moins de mots pour être respecté,

Et mange moins pour garder la santé.

2016 yilda O‘zbekiston Milliy kutubxonasi fondi Alishe’r Navoiy tavalludining 575 yilligi munosabati bilan Fransiya Milliy kutubxonasi tomonidan taqdim etilgan fransuz tilidagi kitoblar bilan to‘ldirildi. [3.]

Yuqorida keltirilgan faktlardan xulosa qilib, Navoiy ijodiy olamining turli qirralari yurtimiz olimlari va xorijiy mutaxassislar tomonidan yildan-yilga chuqurroq tahlil etilyotgani va bu yo‘lda fransuz olimlarining ham hissasi beqiyos ekanligini ta’kidlash mumkin. Zero ikki mamlakat ilm-fan fidoiylarining say-harakatlari o‘laroq, bugun Fransiyada ham “Navoiy nafasi ufurmoqda”, olti asr muqaddam yashab o‘tgan bobokalonimizning durdona asarlari XXI asrda ham fransuz-o‘zbek xalqlari o‘rtasida ma’naviy ko‘prik bo‘lib xizmat qilmoqda...

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Turniyozov. O‘., Manuel de français. Navoiy, 2005. – B.30.
2. http://uza.uz

   Odilova G., Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti.

3. https://daryo.uz
4. Русско-узбекский словарь. Том II. Ташкент, 1984. – С. 564.
5. Русско-французский словарь. Москва, АСТ-Астрель, 2005. – С. 796.
6. DICO PRATIQUE. ÉDITIONS QUEBEC/AMÉRIQUE.-LIBRAIRIE LAROUSSE. P., CEDEX 06. 1989. – P. 90.
7. Mini Dictionnaire Larousse. LA TIPOGRAFICA VARESE, Paris, 2007. –P. 624.
8. Larousse Dictionnaire Maxipoche. La Tipografica Varese S.p.A., Paris 2010. – P. 1620.
9. Littré E. Dictionnaire de la langue française. Tom 3. Paris, Hachette, 1876. 350 p.

ALISHER NAVOIYNING OILAVIY MUNOSABATLAR BORASIDAGI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QARASHLARI

Badritdinova Madina Baxromovna
NamDU psixologiya kafedrasi katta o’qituvchisi

Oila deb atalmish muqaddas dargohni mustahkam bo’lishi jamiyat rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda istiqlol yillarida oila institutini yanada takomillashtirish, onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash, yoshlarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash masalalariga davlat siyosati darajasida e’tibor berildi.

Oila – ijtimoiy institutlarning eng qadimgisidir. Oilani insonlar tashkil etgani va undagi hayot-mamotni ular o’rtasidagi o’zaro munosabatlar tashkil qilishini hisobga oladigan bo’lsak, uni sof psixologik jarayonlar maskani deb atash ham mumkin.

Inson va insoniy munosabatlar, shaxs va uning kamoloti muammolari uzoq asrlardan buyon jamiyatning eng ilg'or kishilari, olimlar, buyuk allomalar va donishmandlarning diqqat markazida asosiy masalalardan bo'lib kelgan. Sharqning buyuk allomalari hisoblangan Alisher Navoiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Kaykovus, Xotam ibn Tay, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxriddin, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Uvaysiy, Nodira, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi ko'plab mutafakkirlar bu masalalar yuzasidan o'zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirib ketganlarki, ular hozirgi zamon fani uchun ham katta ijtimoiy va mafkuraviy ahamiyatga egadir.

Sharqning buyuk mutafakkirlaridan biri Alisher Navoiyning asarlarida ham oila va oilaviy munosabatlarga alohida e'tibor berilgan, oilaviy munosabatlarni pedagogik va psixologik jihatdan yoritilgan[1].

Turmush madaniyati, odob-axloq, sevgi-muhabbat borasida o'ziga xos qaytarilmas fikrlar sohibi buyuk bobokalonimiz **Alisher Navoiy**ning “Mahbub ul-qulub” yoki “Qalblarning sevgisi” deb nom nomlangan asari juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega asarlaridan biri hisoblanadi[2]. Chunki bu asarda Navoiy insonlarga qalbidagi eng kerakli o'gitlarini bayon etib, ularni turmushdagi, oilaviy hayotdagi turli hodisalar va vaziyatlardan chiqishga imkon beruvchi yaxshi fazilatlar, ularni tarbiyalash masalalariga diqqatni qaratadi. Risolaning “Uylanish va xotinlar to'g'risida” bobida u uylanish va uning foydasi, oilaviy munosabatlar haqida durdona fikrlarni bayon etadi. Asarda asosan insoniyat dunyosida mavjud bo'lgan uch xil sevgining naqadar go'zal, tabiiy va insoniyat taraqqiyoti uchun zarurligini zikr qiladi. Insoniy sevgi, chin muhabbat, ikki xil — jinsning turmushda barkamollik kasb etishi kabi g'oyalarni tarannum etgan bu nodir asar bugungi davrimiz uchun ham g'oyat qimmatlidir. Navoiy ayol kishining oiladagi o'rniga quyidagicha to'xtaladi: “Yaxshi xotin — oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan, husnli bo'lsa — ko'ngil yozig'i, xushmuomala bo'lsa — jon ozig'idir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi, asbob-anjomlar saranjom turadi. Kishi bu kabi jufti halol bilan qovushsa, agar bunday baxtga erishsa, g'am va kulfatda sirdoshga, oshkor va pinhoniy dard-alamda hamnafas tan mahramiga ega bo'ladi. Turmushda boshingga har qanday jafo tushsa, hamdarding u. Teskari aylanuvchi falakdan har balo kelsa, ko'makdoshing u. Ko'nglingga g'am yuzlansa, u hamroh, badaningga xastalik va zaiflik kelsa, uning ham joni halak, ammo xudo ko'rsatmasin, nomuvofiq xotin uchrasa, o'z uyingda halokatli illat paydo bo'ladi. U beandisha, shallaqi bo'lsa, ko'ngil undan ozor chekadi va yomonlik axtaruvchi bo'lsa, undan ruh azob chekadi. Tili achchiq bo'lsa, barchaning dilini yaralaydi, pokiza bo'lmasa, eriga yuzi qoralik keltiradi, agar mayxo'r bo'lsa, uy odobi yo'qoladi, axloqsiz bo'lsa, oila rasvo bo'ladi”[2].

Sharqda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qadimdan jiddiy ahamiyat berilgan. Ular “Nasihatnoma”, “Pandnoma”, “Hikmatnoma” tarzida bizgacha yetib kelgan. Alisher Navoiy asarlarida ham qizlarni hayotga tayyorlashda, ularda birinchi

navbatda insoniy fazilatlar shakllangan bo'lishi, oila muqaddas, uni avaylab-asrash aynan uy bekalariga bog'liq ekanligi haqida turli tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan fikr-mulohazalar yuritilgan[3].

Alisher Navoiy asarlarida shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo'yilgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o'rni, ota-ona va yaqin kishilarning yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor berilgan[4]. Navoiy faqat oiladagina rivojlanishi mumkin bo'lgan sifatlar — halollik, poklik, mardliq, mehribonlik, haqgo'ylik kabi qator fazilatlarni barcha sifatlardan yuqori qo'yganligi bilan birga insoniy munosabatlarda namoyon bo'ladigan yuksak fazilatlar, avvalo, ota-onadan bolaga o'tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'siri kabi qimmatli fikrlar va bu boradagi amaliy ko'rsatmalarni o'z falsafiy-axloqiy, sotsiologik va psixologik qarashlarida ifodalab bergan.

Buyuk allomaning oilaviy baxt, sevgi va er-xotin munosabatlari, ularga zarur bo'lgan fazilatlar borasidagi bunday fikrlarini bilish, ularga rioya qilish har bir yoshning muqaddas burchi bo'lmog'i shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Karimova V. “Oila ma’rifati” Toshkent-2009 yil

2. SHoumarov G’.B. “Oila psixologiyasi” Toshkent “SHarq”, 2008

3. A.Q Munavvarov “Oila pedagogikasi” T: O’qituvchi, 1994

4. Shoumarov G'. B, Sog'inov N. A. Er-xotin orasidagi nizolarning etnopsixologik xususiyatlari. O'zbek oilasining etnopsixologik xususiyatlari. Ilmiy ishlar to'plami. Toshkent, 1993.

ALISHER NAVOIYNING FORSIY QASIDACHILIK MEROSIGA QO’SHGAN HISSSASI

Norova Oydin Homitovna

Buxoro viloyat Romitan tuman 19- umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya. Qasida sharq mumtoz adabiyotining she’riy janrlardan biri hisoblanadi. Qasida dastlab arab adabiyotida vujudga kelgan va o’z rivojlanish bosqichida turli mazmunga ega bo’lgan. Ushbu tezisda Alisher Navoiyning Sharq qasidachilik merosiga qo’shgan hissasi haqida mulohazalar bayon qilingan.
Kalit so’zlar: Alisher Navoiy, qasida, adabiyot, “Sittai zaruriya”, komil inson.

O‘zbek mumtoz qasidalari arab va fors qasidachiligi zaminida yuzaga kelgan bo’lib, uning ilk namunalari Mahmud Qoshg’ariyning "Devoni lug‘atit turk" asarida uchraydi. XV asrda Sakkokiy, Lutfiy, Gadoiy, Amiriylar o’z ijodida qasidani o‘zining yuqori bosqichiga ko‘tarilgan. So’z mulkining sultoni - Alisher Navoiyning original kompozitsiya va uslubga ega bo‘lgan "Hiloliya" va katta ijtimoiy mazmun tashuvchi "Tuhfat ulafkor" ("Sittai zaruriya") qasidalari Sharq adabiyoting nodir namunalaridan biri hisoblanadi. Qasidaga xos bo’lgan an’anaviy unsurlarga har bir so’z san’atkorining ijodiy yondashgani, unga o’zicha sayqal bergani shak-shubhadan xolidir. Alisher Navoiyning she’riy asarlarini chinakam ma’nolar xazinasi deya ta’riflasak mubolag’a bo’lmaydi. Navoiyning nazmiy durdonalarida majoziy va ilohiy ishq, falsafiy va ijtimoiy mazmun, madhi barralla kuylanadi. Shu sababdan shoir asarlari oradan qancha vaqt o’tibdi-ki o’z qiymatini zarracha yo’qotmagan, aksincha vaqt o’tgan sayin qimmati oshib bormoqda. So’z mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy nafaqat turkiy tilda, balki forsiyda ham mukammal ijod namunalarini dunyoga keltirgan. Ikki tilda barobar ijod qilib, benazir san`at ko`rsatish va Abdurahmon Jomiy singari ustozlar tahsiniga sazovor bo`lish Navoiy nomini yana ham mahbub va ulug`vor qilgan. Uning Foniy

taxallusi bilan yaratgan g`azal, qasida va ruboiy nafaqat badiiy so`z ustalari, shoir-u fozillar, balki tojikzabon xalq orasida ham shuhrat qozongan. Navoiy fors tilida oltita ana shunday mashhur, qasidani yozgan. Ushbu qasidalar quyidagicha nomlanadi:

1. Ruhul quds(Muqaddas ruh),
2. Aynul hayot(Hayot chashmasi),
3. Tuhfatul afkor(Fikrlar tuhfasi),
4. Qutul qulub(Qalblar quvvati),
5. Minhojun najot(Najot yo`li),
6. Nasimul xuld(Jannat shabadasi).

Bu qasidalarni jamlab “Sittai zaruriya”(Olti zaruriy qasida) deb nomlaydi. Hajmiga ko`ra qasidalar: “Ruhul quds” 132 bayt, “Aynul hayot”106 bayt, “Tuhfatul afkor” 99 bayt, “Qutul qulb” 120 bayt, “Minhojun najot” 138 bayt, “Nasimul xuld” esa 129 baytdan iborat bo`lib, jami 724 baytdir. Navoiy “Sittai zaruriya” dan tashqari forsida “Fusuli arbaa” (To`rt fasl) nomi bilan mashhur 4ta qasida bitgan. Shoir ushbu qasidasida fasllarga xos xususiyat va ularni inson ruhiyatiga ta’sirini tasvirlaydi. “Fusuli arbaa” va “Nasimul xuld” qasidalari Husayn Boyqaroga, “Tuhfatul afkor” qasidasi esa Navoiy o’ziga ustoz deb bilgan Abdurahmon Jomiyga bag`ishlab yozilgan. Shunday qilib, Navoiy-Foniy o`ndan ortiq forsiy qasida muallifidir. “Sittai zaruriya”ning muqaddimasida keltirilishicha: ushbu turkum qasidalardan “Tuhfatul afkor” qasidasi birinchi yozilgan, qolgan besh qasida 1494-1497 yillarda yozilgan. Yozma manbaalarda keltirilishicha Navoiyga “Sittai zaruriya” qasidalarini yozishga Jomiy, ul zot vafotidan keyin do’sti Sulton Husayn Boyqaro ilhom bag’ishlagan . olti qasidaning barchasining g’oyasi bir, ya’ni ilohiyat va ilohiyatga eluvchi “komil inson” tasvirlangan. Shu asosda “Sittai zaruriya” yaxlit bir turkum asar holiga kelgan. Navoiyning buni o’zining “Muhokamat ul-lug`atayn” asarida quyidagicha qayd etadi:”Bu olti qasida hamd-u na`t va sano-u mav`izatdur (nasihatdur) va ahli tasavvuf va tariqat tili bila

ma`rifat” . Qasidada har bir misraning qatiy qofiyalanish sharti ushbu nasriy asarning yozilishini o’ta murakkabligidan dalolat beradi. Ya’ni qasida 129 bayt bo`lsa, bu 130 qofiyadosh so`zlarning bayt ma`nolari va umuman asar mazmuniga muvofiq bo`lib kelishidir. Qofiya so`zlar agar takror bo`lsa ham, ammo boshqa-boshqa ma`nolarda kelishi ko`zda tutilgan. Masalan, “Tuhfatul afkor”da 100 ta qofiyadan 4 tasi takrorlangan, chunonchi “sar” 4 marta, “bar” 3 marta, “dar” va “rahbar” so’zlari 2 martadan takrorlanadi. Biroq Navoiy bu yuqoridagi asarda so’zlarning turli ma’nolarida mohirlik bilan foydalanganidan so’zlar takrorlangani sezilmaydi. Chunonchi “sar” so`zi (bosh)- bosh og`rig`i, boshida, chayonning boshi, boshdadir ma`nolarni ifodalab qofiya bo`lib kelgan. Shu sababdan bunday til gavharlaridan tizilgan murakkab shodani oddiy xalq tushuna olmagan. Va faqat so’z mulkining asl egalarigina bunday she’riy asarlar haqida mushohada yurita olganlar. Navoiy asarlaridagi tub manoni anglash uchun diqqatli nigoh va shoir asarlarida tasvirlanganidek “komil inson” ruhi kerak bo`ladi. “Sittai zaruriya” da o`rta asrlar sharqi erishgan falsafiy, ilohiy tushunchalar, Qur`on hikmati va hadislar mazmuni chuqur aks etgan. Bundan tashqari Navoiy o’z qasidalarida forsiyga tegishli qadimiy nodir so’zlardan ham foydalanganligi ularni yanada xushma’no bo’lishiga sabab bo’lgan. Alisher Navoiy asarlaridagi so`z o`yinlari va badiiy san`atlarni ilg`ab ololgan odam, shoir mahoratining naqadar baland ekaniga amin bo’ladi. Ushbu so’zimizning dalilini quyidagi misralardan ko’rishimiz mumkin:

(“Ruhul quds”)

Ba burji Aqrab ba junbish ovardi,
Chu kajdume, ki kunat xona dar qadim bino.
Farozi burji digar soxti kamonxona,
Ki charx tiri balo afkanad so`yi dunyo.
Zi zaxmi novaki o` Jaddiro ramonidy,
Ki jast chun buzi ko`hi ba avj az on paydo.

Ma’nosi (boshqa burjda Aqrab—Chayonni qimirlatding, eski imorat ostiga uya qo`ygan chayonday u qo`zg`aldi. Boshqa burj osmonini kamonxona—Kamon(Yoy) turadigan joy qilding, toki falak undan foydalanib, dunyoga balo o`qini yog`dirsin deb. Shu Yoy o`qi yarasi bilan Echki(burji)ni haydading, u esa xuddi tog` echkisiday sakrab u yerdan ko`rindi). Navoiy bu baytlarda Allohning qudratini ta`rif va tavsif etmoqda. Ammo bu ta`riflar quruq bayon emas, balki shoirona obrazli tasvirlar bilan beriladi. Burjlarning nomi bilan ularning xalq tasavvuridagi xosiyatlari va yerdagi voqealar birga olinib so`z o`yinlari, chiroyli tashbehlar hosil qilingan. Navoiy o’z asarlarini shunday durlar bilan bezadi-ki, shu paygacha bu xazinalarni so’z ummonidan boshqa hech kim olib chiqolmadi.

Xulosa. Alisher Navoiy nafaqat turkiy tilni zanjirlardan xalos qildi, balki balki forsiyda ham ko’p va barakali ijot qilgan buyuk shoir-so’z mulkining suloni. Navoiy zullisonayn ijotkor - forsiy til imkoniyatlaridan ham o’ta mohirona foydalanib nasriy va nazmiy asarlar bitdi va ushbu til xazinasini yanada boyitdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоийнинг адабий маҳорати масалалари (мақолалар тўплами)- Тошкент. Фан; 1993
2. Комилов Н. Тасаввуф. II китоб. -Тошкент: "Адабиѐт ва санъат" ҳамда "Ўзбекистон", 1999.
3. Эшонқулов Ҳ. Алишер Навоий шеъриятида самовий тимсоллар // Филол.фан.ном.дис... автореф. Самарқанд, 1999
4. FOZILOVA M. “ALISHER NAVOIYNING ”SITTAI ZARURIYA” ASARI HAQIDA” Buxoro.2015

Internet saytlari

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Alisher_Navoiy#Ilmiy-filologik_merosi
2. https://ziyouz.com/

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA KOMIL INSON TARANNUMI

O`rmonova Dilfuzaxon Mamasaliyevna

PTMA tasarrufidagi Andijon shahar Muhammad Yusuf nomli ijod maktabi o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning tafakkur va tahayyurga chorlovchi, tasavvufiy - irfoniy tushunchalarga limmo-lim “Xamsa”sining birinchi dostoni “Hayrat ul-abror” haqida fikr yuritilgan. Xususan, oltinchi - “Adab haqinda” maqolotida qalamga olingan tavoze’ va hayo, uning inson hayotidagi mavqeyi, hayo va iymon, tavoze’ shartlari va o`rni , shoirning bu mavzularni yoritishga qo`llagan lisoniy birliklar va she’riy san’atlar rang-barangligi e’tirof etilgan.

**Kalit so`zlar:** tavoze’ , takalluf, hayo, iymon, tavoze’ shartlari va o`rni, kamtarlik, karam -sahovat, qanoat, kibr, manmanlik, joh, arjumand, talmeh, tamsil, kitobat.

Аннотация: В данной работе рассматривается шестая статья ”Хайрат ул аброр"- “О воспитании”, в которой поэт выражает свои выводы представления о скромности и почтительности человека, его положение в жизни человека, условия и место почтительности. Языковые единицы и поэтические искусства используемые поэтом для освещения этих тем, признаются разнобразными.

Ключевые слова: почтительность, скромность, вера, условия и место почтительности, щедрость, гордость, терпение, притча, мастерски.

Annotation: This article discusses Alisher Navoi`s first epic” KXamsa”,” Hayrat ul-abror”, which is full of spiritual and mystica lconcepts. In particular, the sixth-humility and modesty, his position in human life,modesty and faith, the conditions and place of humility, the linguistic units and poetic arts used by the poet to cover these topics, diversity is recognized.

Keywords: humility,modesty, faith,conditions and place of humility,generosity, contentment,arrogance,pride,jealousy.

Ummon tubiga sho`ng`igan g`avvos mo`jizaviy dunyoga duch keladi. Alisher Navoiy asarlarini ham ma’nolar mavj urgan ummonga o`xshatish mumkin. Garchand shoir ijodi asrlar mobaynida she`riyat shaydolari , olim-u fuzalolar tomonidan o`rganilayotgan bo`lsa ham, bizni hayratga soluvchi mo`jizakor sir- sinoatlar, kashf etilmagan qirralari hadsiz, hisobsiz.Tafakkur va idrokka “g`avg`o “ soluvchi, dunyo charxi kabi tinmay shoshayotgan, nafs va iymon sarhadida sarosar qalblarni bir oz to`xtab, mushohada etishga chorlovchi, tasavvufiy-irfoniy tushunchalarga limo-lim, besh asrdan buyon dunyoni hayratga g`arq etgan , Jomiy ta’rifi bilan aytganda,”yuz xazinadan yaxshi, jodu nafaslilar og`zini muhrlagan , falakdan ofarinlar yog`ilgan, forsiy nazm tuzuvchilarni rom etgan “(5.10)’’Xamsa’’ning birinchi dostoni “Hayrat ul- abror’’dir.

“Xamsa “dostonlari zabardast adabiyotshunoslar Olim Sharaffutdinov,Oybek, Hamid Olimjon,Ye.E. Bertel`s, V. Zohidov, L. Qayumov, P.Shamsiyev, G’Karimov, S. Mutalllibov, A.RustamovS.Erkinov, N.Mallayev, A.Abdug’furov, S.Narzullayeva, B. Valixo’jayev,T. Ahmedov va boshqa olimlar tomonidan har taraflama tadqiq etilgan. Dostonning badiiy tasvir vositalari, lisoniy aspektlar, kompozitsion jihatlari , g`oyasi, asarda tasvirlangan turli- tuman insoniy fazilatlar atroflicha talqin etilgan.

“Hayrat ul – abror” didaktik xarakterga ega. Undagi maqolatlar “ bilki…”,”ey”kabi murojaat shakllarida boshlanadi. Odatda ” bilki ”,”ey “so`zlari ikkinchi shaxs-tinglovchiga qaratiladi . “Ey” undov so’zi ,odatda, tinglovchining e’tiborini aytilayotgan fikrga yanada tortish, masala mohiyatiga diqqatni jalb qilish uchun qo`llanadi, pand-nasihat ruhiga mos keladi.

“Hayrat ul – abror”ning bir necha bobida (5- 10) Navoiy inson uchun zarur bo`lgan muhim sifatlar: karam- saxovat, adab, qanoat, vafo, ishq yo’li, rostlik haqida so`z yuritadi . ‘‘Adab haqinda’’ deb nomlangan oltinchi maqolatda adab (odob) uchun asosiy shartlardan biri tavozu’ ekanligi bayon etiladi.

“Tavozu’(arabcha) – xoksorlik, tavoze’li bo`lmoq.(4.583) Axloq ilmida o`zini kamtar tutib, hech kimni obro` va e’tibor yuzasidan o`zidan kam deb deb bilmaslik tushuniladi. Tavozu’ning haqiqati –takabburlik va zaiflikning o`rtasida mutanosiblikni saqlamoqdir.

Kibrga berilish qanchalik zararli bo`lsa, oyoqosti bo`lib ketishga yo`l berish, insoniylik sha’ni poymol etilishiga yo`l berish ham shunchalik xatarli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Kimki tavozu’ xazinasi sohibi bo`lsa, unday kishi hamisha ichki farogatda yashaydi va xalq nazarida mahbub bo`ladi.

Chunki tavozu’g`a ham o`ldi hilol,
Bo`ldi fuzunroq anga har kun kamol.(2.142)

Yangi chiqqan oy-hilol egilib turadi, ya’ni tavoze’da. Mana shunday tavoze’li bo`lgani uchun ham uning kamoli kundan-kun ziyodalashib boradi. Fuzun arabcha so`z bo`lib ziyoda bo`lish,ko`p, ortiq ma’nolarini anglatadi. Hilol kundan kun to`lishib to`lin oyga aylanadi.Tavoze’li insonning elaro obro`- e’tiborining yuksalishi va hilolning to`lin oyga aylanishi tamsil san’atini yuzaga keltirmoqda.

Yog`a tavozu’ sifati berdi dast,
Qadri ila Mus’haf uza topti nishast. (2.142)

Arab alfavitidagi “yo” harfining yozilishiga e’tibor bersak, ي ning boshi egilib turadi. “Yo” harfi tavoze’ga rioya qildi , shuning uchun yuksak martabaga erishdi. Mus’haf - Qur’oni Karimda yozildi - qadr topdi,deyiladi. Bu baytda shoir kitobat san`ati orqali fikrini yorqin asoslaydi.

Manbalarga murojaat qilsak, “yo” harfi Mus’hafda 25919 marta ishlatilgan va eng ko`p takrorlangan harflar sirasiga kiradi. Nuktadon shoir bu jihatni ham e’tiborga olgan holda , bu haqiqatni badiiy talqin etadi:

Charx tavozu’ uza to ham durur ,
Tobi’yi amri boru olam durur. .(2.142)

Charx-osmon tavoze’bilan boshini ham qilib turadi, shuning uchun olam uning amriga tobedir.Ya’ni gumbaz ko`rinishidagi osmon butun olamni o`z og`ushida ushlab turadi, bo`ysundiradi :

Elga sharaf bo`lmadi joh –u nasab,
Lek sharaf keldi hayo-yu adab. .(2.142)

Inson uchun uning nasabi,ya’ni kelib chiqishi yoki “joh”- mansabi sharaf bo`la olmaydi. Inson hayo va odob egasi bo`lsa, bu unga sharaf keltirishi tayin. Hadisi

muborakda:” Hayo iymonning bir bo`lagidir” deyilishi bejiz emas. (Imom Muslim rivoyati) Navoiy hazratlarining mashhur shohbaytini yodga olamiz:

Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki, nishoni anga iymon erur.

Ya’ni insoniylikning birinchi sharti iymon ekan , demak, hayo inson fe`l-atvorining gultoji ekanligi ayni haqiqatdir. Ibn Umar roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda: ”Hayo va iymon ikkisi egizakdir.Qachon ulardan biri ko`tarilsa, boshqasi ham ko`tariladi ”,-deyilgan .(Imom Hokim va Imom Bayhaqiy rivoyat qilgan) . Islomda 77 sho’ba bo’lib, uning bittasi hayodir.

Darhaqiqat, nasl- nasabi, mansabi yuqori bo`lgan ayrim odamlar hayo va iymonni unutadilar: turli razilliklar, jinoyat va yaramasliklarga qo`l uradi, elaro sharmanda bo`ladilar. Bu kabi holatlarga misollar tarix zarvaraqlarida ham , kundalik hayotimizda ham yetarlicha topiladi. Hayo va odob esa insonni ana shunday tubanliklardan asraydi:

Bo`lmas adabsiz kishilar arjumand,
Past etar ul xaylni charxi baland. .(2.142)

Odobsiz kishilar arjumand –el ichida aziz,qadrli,mo`tabar, shu bilan birga,yuqori mavqega, obro`- e’tiborga ega bo`lmaydilar,chunki charx,ya’ni dunyo unday odamlarni o`z o`rniga-pastga tushirib qo`yadi. Odobsiz kishilar boy , go`zal ,o`z ishining ustasi bo`lsa ham , insonlar unday kishilarni malomat qiladi , ulardan qochadi. Ushbu baytda past va baland so`zlari tazod san`atini yuzaga keltirish bilan birga mazkur zidlik falsafiy xulosaga asos bo`lib, uni yorqin ifodalashga xizmat qilgan: Tarki adabdin biri kulgu durur,

Kulgu adab tarkida belgi durur. .(2.142)

Odobdan uzoqlashishning biri kulgidir,Kulgi (sababsiz,me`yorsiz) insonning odob doirasidan chiqishga sabab bo`ladi.To`g‘ri, kulgi insonning kayfiyatini ko`taradi,ruhiyatini tetiklashtiradi.Lekin har narsaning me’yori bo`lgani ma`qul.

Qahqahadin kabk navo kelturib,
Boshga ul kulgu balo kelturib. .(2.142)

O`rinsiz kulgi kabki, ya’ni kaklikning boshiga balo keltirdi.(Lug`atlarda kabki ba’zi o`rinda kaklik , yana bir o`rinda yovvoyi o`rdak deb beriladi. Qamishzorlarda yashaydigan yovvoyi qush, parranda) Kabki baland ovoz bilan sayraganda ovchilarga o’zining qaerdaligini oshkor qilib qo‘yadi. Mana shunday sayrashi qahqahaga-me’yordan ortiq kulishga o‘xshatilyapti. Uning kulgisi (bevaqt sayrashi) boshiga xilma-xil balolar keltiradi ,ya’ni ovchining domi-tuzog`iga tushadi.

G`uncha kulib bo`ldi ochilmog` anga,
Etdi ochilmog`da sochilmog` anga. .(2.142)

G`uncha kuldi, ya’ni ochildi. Ochildi-yu, gulbarglari sochilib, go`zalligidan ayrildi,qadri tushdi.Mumtoz adabiyotda gul ma’shuqa timsoli ekanligini eslasak, yor odobsizligi, o`rinsiz kulgisi bilan nafosati va sirliligidan mosuvo bo`ldi.

Barqni kulgu yiqibon tog` aro,
Balki qilib yer quyi tuprog` aro. .(2.142)

Chaqmoq kuldi , ya’ni osmonda yaltiradi. Yuksak osmonni makon tutgan chaqmoq o`rinsiz kulgisi tufayli tog`lararo quladi, quyi bo`ldi, tuproqqa singidi, xalqimiz ta’biri bilan aytganda, ‘‘yer bilan bitta bo`ldi.’’ Hayotda ba’zan noo`rin hazil qilgan yoki hazilda me’yordan oshganlar ham “yer bilan bitta” bo`ladilar, uyatdan yer chizadilar.Muqaddas kitoblarimizda ham ko`p kulgi qalbning halokatiga- o`lishiga sabab bo`lishi bot-bot ta’kidlangan.

Fikrimizcha, muallif uch toifa: kabki (kaklik), g`uncha, barq(chaqmoq) haqida fikr yuritishi bejiz emas.Bu jamiyatdagi uch toifa, ya’ni turli –tuman insonlardir. Demak, inson kaklikdek so`zamol, go`zal, g‘unchadek suyumli va nafis, chaqmoqdek haybatli bo`lsa ham, ularni bir xususiyat – o`rinsiz kulgi, ya’ni odobning tarki halokatga yetaklaydi.

Navoiy ‘’Mahbub ul qulub’’(Ko’ngillarning sevgani) asarida ham kulgi mavzusiga e’tibor qaratdi: ’’Katta kishilar yoshlarni masxara va kulgi qilsa, ular qoshida o`zi shunchalar obro`siz va bachkana tuyuladi . Yoshlar ham kattalarga nisbatan hazil va yengiltaklik qilsa, uning qarshisida uyatsiz va e’tiborsiz bo`ladi”.

Demak, inson jamiyatda o`z o`rni va mavqeyiga ega bo`lmoqchi ekan, har ishda me’yoriga amal qilishi zarur. Shu jumladan, tavoze’da ham me’yorga amal qilmoq kerak:

Har kishining tavrig`a loyiq kerak,
Surati holig`a muvofiq kerak .
Garchi adab sharti bag`oyat kerak
Har kishi tavrida rioyat kerak.(2.145)

Odob- axloq qoidalariga amal qilish qanchalar zarur bo`lsa ,uning muayyan shartlariga amal qilmoq ham shunchalik muhimdir.Har kishiga muomala qilganda, uning senga nisbatan yoshi , obro`- mavqeyi, qandayligi e’tiborga olinishi kerak.

Sajda gado ollida ermas karam,
Bilki, karamdir anga bermak diram. .(2.145)

Muhtoj insonning oldida tavozu’o`rinsizdir. Unga ehson qilmoq (diram bermak) yaxsiroqdur. Muhtoj odamga ham go`zal odob bilan muomala qilish kerak,lekin uning hojati chiqarish foydaliroq, albatta.

Tifl uchun qo`pmoq emasdur adab,
Pirlar ul ishni demastur adab. .(2.145)

Bola uchun o`rnidan turish ham odob hisoblanmaydi.Ustozlar (pirlar) bunday ishni adabga nisbat bermaydilar.Bu holning sababi keying baytda ochiqlanadi:

Ul takabbur bo`lur-u sen yengil,
Bu ikki ish el nega qilay degil. .(2.145)

Bolalar (tifl) o`zlariga ko`rsatilayotgan ortiqcha takallufdan takabbur bo`lib qolishlari mumkin. Takabburlik - shaytoniy sifat .Shuning uchun el (odamlar) bu ikki ishni qoralaydilar. Go`zal xulq- atvor ila muomala qilmoqqa loyiq insonlar, eng avvalo, kishining ahli ayoli va farzandlaridir:

Gar erur atfol-u iyoling sening,
Budir alarg`a dog`i holing sening.
Ulcha erur tiflg`a shoista ish,
Bilki, kichiklikta erur parvarish.(2.146)

Bolalarni kickilikda odob-axloqqa o’rgatishda hikmat ko’p.

Qatrag`a chun tarbiyat etti sadaf,

El boshig`a chiqqucha topdi sharaf. .(2.145)

Ayonki, qum zarralari (qatra) chig`anoqda o’rnashadi. Ma’lum muddat o`tgach (tarbiya topgach), qum zarrasi sadafga aylanadi.Bu jarayon qanch uzoq davom etsa, sadafning qiymati (mavqeyi) shuncha yuqori bo`ladi.Eng go`zal sadaflar el boshiga (balki ,podsho-yu beklar tojiga) bezak bo`ladi. Darhaqiqat, xalqimiz asrlar davomida ”Bola aziz,odobi undan aziz” aqidasiga doimo rioya qilib keladi.

Shoir shu o`rinda ota-onaning farzand oldidagi asosiy mas’uliyatlaridan bir nechtasini ta’kidlaydi:

Birisi qoymoqlik erur yaxshi ot -

Kim, desalar yetmagay andin uyot. .(2.146)

Farzandga ma’noli , go`zal ismlarni qo`ymoq kerakki, bola ismi tufayli uyalib qolmasin.Chunki ism insonning doimiy hamrohi, el-u yurt, tengdoshlari, yor-birodarlari uni shu ism bilan taniydilar.

Ismda ko`p keldi ta fovut padid,

Biri Husayn o`ldi, birisi Yazid. .(2.146)

Ya’ni ismda tafovutlar ko`p bo`ldi, birining ismi Husayn bo`lsa, boshqa biriniki Yazid. Zukko kitobxon Navoiy talmeh san’atiga murojaat qilganini , baytda Ali roziyallohu anhuning o`g`li Husayn va uning qotili Yazidga ishora borligini tez ilg`aydi.Bola tarbiyasidagi muhim jihatlardan yana biri ta’lim berish va adab o`rgatish uchun muallim topishdir.

Qilmoq erur biri muallim talab,

Qilg`ali ta’li manga ilm-u adab. .(2.146)

Yodingizda bo`lsa, shoir o`z asarlari qahramonlari : Farhod, Qays, Laylilarning saboq olish jarayonlarini maroq bilan mufassal tasvirlagan, chunki komillikka dastlabki qadam aynan muallim huzuridan boshlangay.

Itga taallumda chu bo`ldi kamol,

Sayd aning og’zidin o’ldi halol. .(2.146)

It ta’lim o`rganib shunday kamol topadiki, hatto og`zida keltirgan ovi halol bo`ladi.

Muallim hayotning barcha jabhalarini qamrab ta’lim berisi kerakki, toki bola halol va harom chegarasini ham aniq idrok etsin.

Bolani tarbiyalashda unga shafqat ko`rsatish, uni taqdirlab borish ham darkor, lekin bu xil ishlar: maqtash, mukofotlash haddidan oshib ketsa, faqat ziyon bo`ladi. Bolaga mehrni ham, jazo berishni ham me’yoridan oshirmaslik yaxshi odob uchun xizmat qiladi:

Garchi anga shafqat erur sudmand,
Yetkurur ifroti va lekin gazand.
Mehr ila zajriki tavaqqu’ durur,
Tiflg`a senddin bu tavozu’ durur. .(2.147)

Odobning eng muhim shartlaridan biri ota bilan ona ehtiromini bajo qilmoqdir. Bu ikki zotning xizmatlarini bir xil bajarish darkor.Zero, bu xizmatlarni imkon boricha qancha ko`p ado qilsang , shuncha oz. Boshingni ota qoshig`a fido aylab, jismingni ano boshig`a sadqa qilgil. Ikki jahoningga rohat istasang, ushbu ikki zotning rizoligini olgil. Tun-u kuningni yoritmoq uchun birini oy, birini quyosh deb anglagil. So'zlaridan salgina ham chetga chiqmay, nasihatlaridan bir qadam bo'lsin tashqari qadam qo'ymagin.2 Barcha xizmatlaring odob doirasida bo`lsin, qomatingni esa "adab" so'zidagi "dol" harfi kabi tutgil:

Bo`lsun adab birla bori xizmating,
Ham qil adab”dol”i kibi qomating. .(2.148)

Arab alfavitidagi “dol “harfining yozuvdagi ko`rinishi bukik, egik shakldadir. Harf shaklining mana shu egiklik belgisi ko`chma ma’no hosil qilishda muhim vosita vazifasini bajaradi.Mumtoz o’zbek she`riyatida ”dol”orqali egik, bukik, notavon qomat tasviri ifodalanadi.Odatda, bunday qomat egalari g’am-tashvishli, dardli insonlar oshiqlardir. Navoiy hazratlari esa ana`naviylikdan yangilik sari qadam qo`ydi: kitobat san’atini yuzaga keltiruvchi ”dol” harfi orqali ota-ona xizmatiga shay turgan , ularga tavoze’ ko`rsatayotgan farzand qiyofasini yaratdi.

Alisher Navoiy o’z asarlarida komil insonni tarannum etar ekan, avvalo, o’zi ham har jabhada purma’no hikmatlariga muvofiq umr kechirdi. ”Hayrat ul-abror”da ustozlar ining yuksak ta’riflarini yakunlar ekan , tavoze’-kamtarlik bilan yozadi:

Bo`lsa o`t-suv-u havo dilpazir,
Ul aro tufrog` ham erur noguzir.
Sarv-u gul-u lola xaridori bor,
Lek o`tinning dag`i bozori bor. (2.48)

Ya’ni ustozlari ijodini olamning muhim to`rt unsuri: olov(o`t), suv, havoga,o`zini esa tuproqqa, ularning asarlarini adabiyot gulshanidagi sarv, gul, lolaga,o`z asarlarini o`tinga mengzaydi.

Alisher Navoiy asarlari shunday tuproqki,undan asrlar davomida ezgulik urug`lari: yaxshilik,odamiylik, kamtarlik, tavozu’, elparvarlik, adolat,karam-sahovat,adab, qanoat,vafo, rostlik kabi fazilatlar gurkirab o`sadi.Uning asarlari shunday o`tinki, gurillab yonganda qalblardagi qabohat, razolat, kibr,manmanlik kabi yaramasliklar-chirkinlarni yoqib,qimmatbaho ma’dan-oltinni garddan tozalagandek ko`ngilni soflaydi. Afsonaviy qaqnusdek “Haq va xalq” g`amida yongan, o`rtangan Alisher Navoiy asarlaridan bahra olgan minglab qaqnuschalar-el-u yurt fidoyilari - ezgulik yo`lida qo`llariga qalam tutadilar!

Xulosa qilib aytganda, yoshlarimiznini milliy, ma`naviy qadriyatlarga ehtirom ruhida tarbiyalashda Alisher Navoiy asarlarining o`rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy: Qomusiy lug`at 1-2jildlar./ Mas`ul muharrir:
Sh. Sirojiddinov.- T.:”Sharq” , 2016. 2-jild.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami. 20 jildlik.7-jild. -T.: “Fan” ,1991
3. Alisher Navoiy . Hayrat ul-abror.-T.:G`afur G`ulom,2020
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati.4jildlik.-T.:”Fan”,1983-1985
5. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror (Dostonning nasriy bayoni)-T.:”Yangi asr avlodi”,2009 . Alisher Navoiy . Hayrat ul-abror.-T.:G`afur G`ulom,2020

BARKAMOL SHAXS TA’LIM –TARBIYASIDA ALISHER NAVOIY ASARLARINING O’RNI

Sultonova Dilobar Axmedovna

Jizzax shaxar MTBga qarashli 34- son Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori

Annotatsiya: Alisher Navoiyning barcha asarlari yoshlar tarbiyasi uchun muhim xazinadir. Ushbu maqolada barkamol shaxs ta’lim –tarbiyasida Alisher Navoiy asarlarining o’rni haqida so’z borgan.

Kalit so’zlar: malakali kadrlar, umuminsoniy tarbiya, ta’limot, barkamol shaxs, farzand ta’lim-tarbiyasi, ilm-ma’rifat, mehr- oqibat, insoniylik, axloqiy madaniyat.

Annotation: All the works of Alisher Navoi are an important treasure for the education of young people. This article discusses the role of Alisher Navoi's works in the education of a harmoniously developed person.

Keywords: qualified personnel, universal education, education, harmonious personality, child education, science, enlightenment, kindness, humanity, moral culture.

Аннотация: Все произведения Алишера Навои являются важным сокровищем для воспитания молодежи. В данной статье рассматривается роль произведений Алишера Навои в воспитании гармонично развитой личности.

Ключевые слова: квалифицированные кадры, всеобщее образование, воспитание, гармоничная личность, детское воспитание, наука, просвещение, доброта, человечность, нравственная культура.

Bugungi kunda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarda o’qituvchi-tarbiyachilarning mehnati naqadar yuksakligi, ular oldida barkamol avlodni tarbiyalashdek sharafli va mas’uliyatli vazifa turganligi ta’kidlanadi. O’qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma’naviy-axloqiy

madaniyati bilan atrofdagilarga o’rnak bo’lishi, shu bilan birga, pedagogik mahorat qirralarini namoyon eta olishi bilan bir qatorda yetuk o’qituvchi sifatida barkamol insonni tarbiyalashga, yuqori malakali kadrlarni tayyorlab berishga o’zining munosib hissasini qo’shishi zarur. Bunda pedagoglarimiz sharq mutafakkirlarning ta’limotlaridan, asarlaridan keng foydalanishlari muhim sanaladi. So’z mulkining sultoni Alisher Navoiy asarlari barkamol shaxs tarbiyasining asosini tashkil etadi desak mubolag’a bo’lmaydi. Sababi, Alisher Navoiy o’z asarlarida farzand ta’lim-tarbiyasiga alohida to’xtalib o’tganlar.

Besh asrkim, nazmiy saroyni
Titratadi zanjirband bir she’r.
Temur tig‘i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher.

Alisher Navoiy o’z asarlarida ilm-ma’rifatni qadrlagan va unga homiylik qilgan. Shoir bolaning ma’naviy kamolotida barkamol shaxs bo’lib voyaga yetishida avvalo, uning ilm va donish sohibi bo‘la olganlishi zarurligini ta’kidlaydi. Ilm o‘zidan o‘zi bo‘lmaydi, kishi faqat havas va ishtiyoq bilangina ilmga ega bo‘la oladi, deb hisoblaydi. Alisher Navoiy hikmatlarida olam- olam ma’no mujassamdir. Uning hikmatlarida ilm-ma’rifat, mehr- oqibat, insoniylik kabi masalalar markaziy o‘rinni egallaydi.

Navoiy barcha asarlarida o‘z hayotiy kuzatishlariga asoslangan holda fikr yuritadi. U o’zining ijtimoiy qarashlarida yoshlarga qarata -“Yaxshiga yondosh, yomondan qoch”, “yaxshi bilan yurding yetding murotga, yomon bila yurding, -qolding uyatga”, “Yaxshi odam yo‘ldoshidan bilinar”, “Do‘sting kimligini aytsang, sening kimligingni aytaman” kabi maqollarni aytib o’tadi. Bu maqollar bilan esa yoshlarni doimoyaxshilik tarafdori bo’lishga undaydi. Yaxshi insonlar davrasida bo’lish, yaxshilarda ergashish va ulardan andoza olishga o’rgatadi. Buyuk mutafakkir bola axloqliligining eng muhim mezoni odob deb hisoblaydi va quyidagi misralarda ifodalaydi: “Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u duo

barakati bilan umrbod bahramand bo'ladi. Adab, kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi”. Odobli, axloqli bo'lish insonga atrofdagi kishilar o'rtasida muayyan mavqe hamda hurmatga sazovor bo'lishga yordam beradi deydi. Navoiy nazdida yaxshi inson yoki yaxshilik tushunchasining ma’nosi nihoyatda keng bo‘lib, unda imon va etiqod, odat va hayo kabi inson zotini bezaydigan go‘zal fazilatlar jamuljam bo‘lgan. Odamiylikning mezoni bu faqat o‘zi uchun emas, balki, o‘zgalar manfaati hamda xalq g‘am-tashvishi bilan yashashdir. Binobarin, axloq targ‘ibotchisining navbatdagi tanbehi ham yaxshilik xususida shunday deydilar: “Baxlning andoqki, butun topqoni zaxira bo‘lg‘ay, tong va qabri ham bu kungi maoshi uyidek tiyra bo‘lg‘ay.Zuhdu taqvo barcha vaqtda dilpisanddur, ulug‘lar nazarida arjumandroq . Yaxshiliq va yomonliqni kim qildikim, jazo ko‘rmadi. Saloh va fasod tuxmin kim ekdikim, o‘rmadi”. Alisher Navoiyning asarlaridagi Farhod, Shirin, Layli, Dilorom, Qays, Shopur kabi ijobiy qahramonlar umuminsoniy tarbiya asosida tarbiyalanganlar, kamtarin, odobli, or-nomusli insonlar hisoblanadi. Ushbu qahramonlar orqali yoshlarni ulardan ibrat olishga chorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning barcha asarlari yoshlar tarbiyasi uchun muhim xazina hisoblanadi. U o’z asarlarida har bir so’zdan unumli va o’rinli foydalana olgan. Alisher Navoiyning hayoti va merosi yoshlarda umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalashda bizga har tomonlama namuna bo’ladi. Ulug’ shoir, so’z mulkining sultoni Alisher Navoiy o’zining ta’lim-tarbiyaga oid fikr-mulohazalari bilan barkamol avlod tarbiyasiga katta hissa qo’shdi, umuminsoniy fazilatlar to’g’risidagi fikrlari hozirgi davrimiz uchun ham muhimdir desak mubolag’a bo’lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Valixo’jayev B. Mumtoz siymolar. – T.: Meros, 2003. – B. 129-185bet.

2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami. 20 jildlik. J.17. - T.: Fan, 2001.

3. Mallayev N.M. O’zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. – T.: O’qituvchi, 1976y.

4.Vohidov R., Eshonqulov H. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -T.: O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi, 2006y.

Internet manbalari.

1.www.google.uz

2. www.ziyonet.uz

3. www.arxiv.uz

“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI USTOZ OYBEK CHIZGILARIDA

Mavlonova Mohigul Uralovna
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Alisher Navoiy qalamiga mansub “Farhod va Shirin” dostonining qiyosiy tahliliga bag‘ishlanadi. Unda o‘zbek xalqining sevimli adibi, akademik ustoz Oybekning “Farhod va Shirin” dostoni haqidagi ilmiy qarashlari, fikr-mulohazalari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: qiyosiy tahlil, obraz, doston, Farhod, Shirin, Xusrav,”Xamsa”, ustoz Oybek, ilmiy qarashlar, asar tili.

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена сравнительному анализу эпоса «Фарход и Ширин» Алишера Навои. Анализируются научные взгляды любимого писателя узбекского народа и академика Ойбека на эпос «Фарход и Ширин».

Ключевые слова: сопоставительный анализ, образ, эпос, Фарход, Ширин, Хусрав, «Хамса», учитель Ойбек, научные воззрения, язык произведения.

ANNOTATION

This article is devoted to a comparative analysis of the epic "Farhod and Shirin" by Alisher Navoi. It analyzes the scientific views of the beloved writer of the Uzbek people, academician Oybek on the epic "Farhod and Shirin".

Keywords: comparative analysis, image, epic, Farhod, Shirin, Khusrav, "KXamsa", teacher Oybek, scientific views, language of the work.

Oybek o‘z ijodiy faoliyati davomida hazrat Navoiy shaxsiyatiga, badiiyatiga, umuman, Navoiy dahosiga juda ko‘p bora murojaat qildi. Adibning “Navoiy” romani badiiy yo‘nalishdagi ijodining yuksak cho‘qqisi bo‘lsa, “Alisher Navoiy”,”Navoiyning hayoti va faoliyati”,” Navoiy g‘azaliyoti”,”Dostonlar”,” Navoiyning dunyoqarashi masalasiga doir”, ”Navoiyning adabiy merosi masalasiga doir”, “Navoiyning “Majolisun-nafois” asari haqida” kabi maqolalari ilmiy sohadagi eng sara asarlari hisoblanadi. Ularning har biri alohida ijod mahsullari, ilmiy faoliyatining betakror namunalaridir. Bu ilmiy tadqiqot asarlari adibning 1974- yilda chop etilgan o‘n tomlik “Asarlar”ining to‘qqizinchi jildida, 1979- yilda chop etilgan o‘n to‘qqiz tomlik “Asarlar”ining esa o‘n uchinchi jildida nashr qilingan. Butun turk olamining dur-u gavhari hisoblangan buyuk “Xamsa”ni sharq mumtoz adabiyoti ichidagi bir adabiyot sifatida baholash mumkin va bu Oybek tafakkurini ham hayajonga solgan, albatta. Shu nuqtayi nazardan adib “Xamsa” qahramonlari tahlili orqali Navoiy badiiyatining bo‘stonlarida sayr qiladi.

Ustoz Oybek “Farhod va Shirin” dostonining tahliliga kirishar ekan, shu dostonning barcha tadqiqotchilari kabi asarning qisqacha mazmuniga o‘rin beradi. Boshqa tadqiqotchilardan (Fitrat va Hamid Olimjondan) farqli ravishda muallif dostonning Nizomiy va Xusrav Dehlaviy variantlarini bir-biriga taqqoslamaydi, bu esa Oybekning doston tahliliga o‘zgacha yondashganligini anglatadi. Navoiy “Xamsa” yozishga kirishishar ekan o‘zidan oldingi salaflarining asarlarini hamda xalq og‘zaki ijodini sinchkovlik bilan o‘rganib chiqadi. Oybek asarning syujeti xalq adabiyoti xazinasidan olinganini va bu dostonning bir afsona ekanligini Navoiyning o‘zi ham yashirmasligini ta’kidlaydi. “Navoiy bu asarni yaratishda xalq ijodidan foydalangan. Zotan, aksar yuksak badiiy asarlarning negizida xalq ijodi yotadi. Xalq adabiyotidagi obrazlar qaytadan ishlanadi, qahramonlar boshqa yangi ideyalarni tafsil etuvchi shaxslarga aylanadi. Shoir xalqning badiiy to‘qimasiga rango-rang fikr gullarini chizib, asarning butun qismlarini ma’lum falsafiy g‘oya bilan bog‘lab, katta problematik doston yaratgan”[v].

“Farhod va Shirin”- ishqiy romantik doston. Navoiy ijodiyotining - lirik, epik asarlarining asosiy mavzusi ishqdir. Ustoz Oybek ta’biri bilan aytganda,”Hamma she’rlarida deyarli ishqiy bir uzilish, intizorlik tuyg‘ulari tarannum etiladi.Shoirning asosiy ilhom manbayi “ishq”dir.[v] Lekin maqolada Farhodning Shiringa bo‘lgan afsonaviy ishqiy inkishofida Navoiy muhim ijtimoiy, hayotiy va insoniyat taraqqiyoti uchun zarur masalalarni hal qilishga intilganligi, shu bilan birga dostondagi bosh g‘oya ma’naviy ozodlikka, axloqiy kamolotga erishish, qora kuchlarga qarshi kurash, maqsad uchun toj-taxtdan, hayot lazzatidan va hatto o‘z umridan kecha oladigan kuchli iroda sohibi bo‘lish kerakligi ilgari surilgan. Tadqiqotning diqqatga sazovor yana bir tomoni shundaki, muallif asar qahramonlariga noodatiy ta’rif beradi. Ularga oddiy insonlarga xos bo‘lgan o‘lchovlar orqali yondashish hech qanday natija bermasligini, shaxsiyatlarida buyuk g‘oyalarni ifoda qiluvchi qahramonlarning ishlari, intilishlari oddiy insoniy o‘lchovlar doirasiga sig‘masligi alohida ta’kidlanadi. Muallif bir o‘rinda dostondagi qahramonlikni “shuurli, billuriy toza va ideal” deb ta’riflaydi. (Hamid Olimjon esa Farhodni insonning billur obrazi, deb atagan edi) Farhod- kurashuvchan, faol shaxs. U tinch, shohona hayot kechirishdan ko‘ra maqsadini amalga oshirishda ming bir mashaqqatni afzal biladi. Undagi har bir harakat olijanoblikka, qahramonlikka va asil intilishlarga guvohlik beradi. O‘z sevgisi yo‘lida hatto jonidan kechishga ham tayyor. Buni biz Xusrav va Farhod o‘rtasidagi dialogda ham ko‘rishimiz mumkin. Shu o‘rinda Oybek Farhodni “Xamsa”ning yana bir obrazi - Majnunga qiyoslaydi.” Majnun kurashchan ruhga ega emas.U o‘zining qudratli irodasini maqsad yo‘lida, Layliga erishish yo‘lida harakatga keltirmaydi.Uning kuchi, irodasi taqdirning dahshatli zarbalariga ajoyib mardona tob berishga qaratilgan.Uning stixiyasi allaqanday xayoliy ishq bo‘lib qoladi. Baxtsiz ishqning dard-hasrati unga g‘ido, ayriliq azoblari unga rohat va orom bo‘lib qoladi. Majnun o‘z sevgisi yo‘lida uchragan to‘siqlarga qarshi kurashmadi. U jabr-zulmni qarg‘adi, lekin uni poymol qilish uchun qo‘l ko‘tarmadi.Ojiz va tanho oshiq shoir haqsizliklarni bartaraf qilish imkoniyatidan mahrum qolgach,o‘zining faji’ vaziyatini o‘z qismati, o‘z “yozmishi”

kabi qabul etdi”[v]. Oybek Farhod botinidagi sifatlarni juda chiroyli tasvirlaydi.”Farhodda buyuk ishq natijasida egoizm tamom yo‘qolgan. Unda digarkomlik tuyg‘ulari kuchli”[v]. Farhod shaxsiyatidagi olijanoblik uning kanal qazuvchilarga bergan beminnat yordamida, samimiyatida yaqqol ko‘rinadi. Navoiy o‘z umri davomida ilm, san’at va hunar egalarini qattiq hurmat qilgan, e’zozlagan. O‘z asarlarida ham shu masalalarga katta e’tibor qaratgan. Dostonning chuqur tahliliga kirishgan Oybek ham ulug‘ shoir asarlarida hunar va san’at odamlari juda samimiy va chuqur sevgi bilan tasvirlanganini qayd etadi. Farhod, Shopur, Qoran, Moniy, Boniy, Mehinbonu, Shirin va uning atrofidagi o‘n kanizak zimmalariga ana shunday buyuk vazifa yuklatilganini ko‘rishimiz mumkin. Ular ilmni, hunarni shunchaki o‘rganishmadi. Xalqning koriga yaraydigan, uning og‘irini yengil qiladigan, yaratuvchilik, obodonchilik ishlarini amalga oshirishda ulardan unumli foydalandi. Oybek maqolasining yana bir e’tiborli jihati shundaki, Sharq mamlakatlari, jumladan, O‘rta Osiyo xalqlari uchun hayot masalasi tog‘ qazib, tosh kesib suv keltirish – hayot yaratish ekanligi chiroyli iboralar bilan ta’kidlanadi. Shuning uchun ham Navoiy Farhodni ishqiy sarguzasht ketidan quvadigan oddiy ishq bolasi qilib qo‘ymaganligi, uning zimmasiga shoirning orzu- istaklari, ozod va obod mamlakat qurish motivlari yuklatilganligi uqtiriladi.

Shirin – faqat go‘zallik timsoli emas, balki asil ma’naviy maziyatlarga sohib bir malika. Unda go‘zallik va nazokat, iffat, pokiza qalb, jasorat va imon bor. Shirin, Mehinbonu obrazlari orqali shoir jasur, urfonli va toza kibor xonimlar siymosini ko‘rsatishga harakat qilganligi hamda ular saroy hayotidan ham allaqanday yoqimli bo‘yoqlar topganligini qayd etadi. Bu yoqimli bo‘yoqlar esa ilm, fan, san’atda tengi yo‘q kanizaklarning terilganidir.

Bu majlis ichra hozir o‘n dilorom,
Bori ham sarv qomat, ham gulandom;
Bo‘lib Shirin bisotining nadimi,
Alardin xush Mihinbonu harimi...

Maqola muallifi Shirin faqat go‘zalligi bilan emas, balki aqli, pokiza qalbi, jasorati, so‘zdagi qat’iyati va boshqa ma’naviy fazilatlari bilan yorqin siymodirki, undagi bu sifatlarning amaldagi izohi Xusravning sovchilari ketgandan so‘ng Mehinbonu va Shirin o‘rtasidagi suhbatda ham namoyon bo‘lishini aytib o‘tadi. U sevgisiga xiyonat qilgandan ko‘ra, o‘limni afzal biladi va har qanday holatda ham,avvalo, inson bo‘lib qolishni istaydi:

Menga ne yor-u, ne oshiq havasdur,

Agar men odam o‘lsam, ushbu basdur!

Oybek Navoiy ijodiyotiga oid “Layli va Majnun” dostoni tahlilida Farhod bilan Majnun, Shirin bilan Layli xarakteriga xos sifatlarni taqqoslaydi. Yuqorida Farhod va Majnun shaxsiyatidagi farqlar keltirib o‘tilgan edi. Farhodda mujassam bo‘lgan barcha xislatlar Shirinda ham aks etgan. O‘z maqsadi yo‘lidan og‘ishmaslik, hayot uchun kurash, umuman, optimistik ruhiyat aks etgan uning siymosida. Layli esa Shirindan bir qadar passivdir. “Majnunning ma’shuqasi ham husnda , sevgida, sadoqatda Shirin kabi nodir va ideal bir siymodir. Layli yoshlikdan boshlab o‘z muhitining zolimona odat va an’anasi yuki ostida qoladi. U o‘z ishqi haqida “churq” etib og‘iz ocholmaydi. Ayriliq iztiroblarida jimgina yonishdan boshqa hech qanday iloj topolmaydi. Layli o‘z nomusi haqida har nav g‘iybat va bo‘htonlarning yoyilishidan qo‘rqadi. Shuning uchun bechora qiz toza, shoirona muhabbatini o‘z qalbining qa’rida yashirishga majbur”.[v]

Sen tortibon ohu otash olur,

Men o‘t yoqibon chiqarmayin dud.

Xusrav - zolim, xudbin va insoniylikdan yiroq bir shaxs. Shuning uchun ham Navoiy salaflari yurgan yo‘ldan yurmadi. Xusravni asosiy qahramon darajasidan tushirdi. Hatto shu mavzu atrofida dostonlar yozgan Eron shoirlariga Navoiy piching ham qiladi:

Vale chekkanlar ushbu jomdin roh,

Sarosar bo‘ldilar Xusravg‘a maddoh.

Muallifning e’tiroficha, Navoiy Xusrav obrazida zulmni gavdalantiradi. Uning muz nafasi ikki sevishgan gulni so‘ldiradi. U qo‘pol shaxsiy tamoyillarini qondirmoq uchun zo‘ravonlikni ishga soladigan,shavkat ovozasi bilan mag‘rur bir podshoh. Shuningdek, u Farhodning oliy intilishlarini anglashga qodir bo‘lmagan bir shaxs ekanligini, Farhodni o‘ziga teng raqib deb ko‘rmasligini, Farhod va Shirin o‘rtasidagi muhabbatga ham ishonmasligini atroflicha yoritadi. Oybek e’tibor qaratgan yana bir jihat, Xusrav zolimligining haddan oshishi natijasida xalq undan yuz o‘girib Shiruya tomoniga o‘tadi va taqdirning Shiruya qo‘li bilan Xusravni o‘ldirishi zarur va qonuniy bir hodisa, deb ko‘rsatilishidir. Doston nihoyasida qahramonlarning o‘limi to‘g‘risidagi satrlarni o‘qigan o‘quvchi beixtiyor umidsizlik iskanjasiga tushadi. Lekin ustoz Oybek bu umidsizlikning zohiran ekanligini, asarda chuqur optimistik ruh, hayotni sevishlik kabi kayfiyatlar ufurib turganligini, doston xotimasi ham o‘zi kabi go‘zalligini ta’kidlaydi. Oybek dostonning til xususiyatlariga ham to‘xtaladi. Asar tili arab va fors unsurlarini mo‘l hazm etgan og‘ir tildir, deydi. Maqola so‘ngida muallif yana Navoiy dahosiga murojaat qiladi. Uning takrorlanmas, buyuk iste’dod, har qanday sohada kuchli bilim sohibi ekanligi, undagi hayot haqidagi fikr va ma’lumotlarning mo‘lligi, uning nafaqat shoir, balki donishmand sifatida ham ulug‘ligini e’tirof etadi. Bugungi kunda navoiyshunoslik keng qamrovli fan sifatida shakllanayotganligi barchamizga ma’lum. Chunki Alisher Navoiy fenomeni o‘zi bir alohida olam, bashariy qadriyatdir.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotshunoslik ilmida ustoz Oybekning xizmatlari cheksiz e’tirofga loyiqdir. Uning badiiy- poetik fikrlari, navoiyshunoslik haqidagi qarashlarining nufuzi bugun ham so‘ngan emas, balki katta ilmiy ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

ALISHER NAVOIY ASARLARINING YUKSAK MA`NAVIYATLI AVLOD TARBIYASIDAGI MUHIM AHAMIYATI

Xojiboyev Ahmadjon Abdulhoshim o`g`li,
Namangan Muhandislik-Qurilish instituti

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy ishda buyuk mutafakkir va alloma Alisher Navoiyning boy ilmiy me`rosidagi inson kamoloti bilan bog`liq masalalar, ko`plab dalillarga tayanib ularning shu kunlardagi tarbiyaviy ahamiyati, zamonaviylik tamoyillariga tayanib tahlil etilgan.*

Аннотация: *В данной научной работе анализируются вопросы, связанные с развитием человека в богатом научном наследии великого мыслителя и ученого Алишера Навои, их воспитательное значение сегодня, исходя из принципов современности.*

Annotation: *This scientific work analyzes the issues related to human development in the rich scientific heritage of the great thinker and scientist Alisher Navoi, their educational significance today, based on the principles of modernity.*

Kalit so‘zlar*: Ma`naviylik, Ezgulik, Falsafiylik, Barkamollik, Taraqqiyot, Tashabbuskorlik, Barqarorlik, Adolatlilik, Donishmandlik, Salohiyat.*

Ключевые слова: *Духовность, Добродетель, Философия, Совершенство, Прогресс, Инициатива, Стабильность, Справедливость, Мудрость, Потенциал.*

Keywords: *Spirituality, Kindness, Philosophy, Perfection, Progress, Initiative, Stability, Justice, Wisdom, Potential.*

Buyuk ajdodlarimizning ibratli hayot yo`llari va boy ilmiy-ma`naviy meroslarini har tomonlama chuqur o`rganib, keng xalq ommasiga yetkazish davlatimiz siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylandi. Istiqlol yillarida bu muhim va dolzarb masalalar bo’yicha e’tiborga molik ko’plab salmoqli ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.

O’zbek xalqining ma’naviy dunyosining shakllanishiga g’oyat kuchli va samarali ta’sir ko’rsatgan ulug’ zotlardan biri Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo’tabar nomi, ijodiy me’rosining boqiyligi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralirini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so’z yuritamiz. Marhum birinchi prezidentimiz I. A. Karimov o’zlarining “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch” asarlarida Alisher Navoiyga “Agar bu ulug’ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultoni” deb ta’kidlab o’tganlar.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy ma’daniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g’ururi, shonu-sharafini dunyoga tarannum qilgan o’lmas so’z san’atkoridir. Ta’bir joiz bo’lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so’zlovchi biron-bir inson yo’qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat bilan qaramasa.

Alisher Navoiy o’z asarlarida insonni ikki olamning sarvari, Allohning dunyoni yaratishdan ko’zlagan oliy maqsadi yanglig’ qalamga oldi. Shunday ekanmi, demak, inson umrini ezguliklarga intilib o’tkazishi kerak. Allohning undan kutgani – shu. Demak, shunday g’oyalarni tarannum etgan buyuk qalb egasining o’z hayotida ham mazkur aqidalarga mos ishlar qilishi tabiiy edi. Adolatli va donishmand bir davlat arbobi sifatida Navoiy o’z davrining yirik shaxsiga aylandi. XV - asr forsiy–turkiy madaniyatlar ravnaqida uning ulkan o’rni bor. Navoiy Xuroson davlatining ma’naviy homiysi edi. Fan va madaniyatning turli sohalari vakillari buyuk rahnamo Alisher Navoiy atrofida uyushgandi. Zahiriddin Muhammad Bobur ta’rifi bilan aytganda “

Har kishingkim, bir ishga mashg’ullig’i bor edi, himmati va niyati ul edikim, ul ishni kamolga tegurgay” Ilmu adab va hunar ahlining o`zini imkoni qadar yuksak darajalarda kamolga yetkazishda Navoiyning ham hissasi beqiyos bo`lgan. Inson qalbining quvonchu qayg`usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek te`ran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg`usi ham bizning ongu shiorimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Alisher Navoiy ijodining yuksak cho`qqisi “ Xamsa” asaridir (1483-1485), shoir birinchilardan bo`lib, turkiy tilda shunday ko`lamdor asar yozish mumkinligini isbotlab berdi. Ushbu to`plamni Nizomiy Ganjaviyning “Panj Ganj” (“Besh Xazina”) asariga havas sifatida yozilganligini o`quvchilarga anglatmoq maqsadida “Xamsa” ning kirish qismida: “Emas oson bu maydon ichra turmoq, Nizomiy panjasiga panja urmoq” deya ta`kid etadi.

“Xamsa” tarkibiga “Hayrat ul-abror” “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, ”Sab`ai Sayyor”, “Saddi Iskandariy” kabi dostonlari kiradi. “Hayrat ul- abror” da hamd, munojot, hayrat boblaridan keyin shoirning Yaratganga, borliqqa, tabiatga, insonga bo`lgan falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, ma`rifiy, axloqiy munosabati aks ettirilgan. Podshoh bilan ulusning insonlik nuqtai nazaridan ayirmasiz, farqsizligini, podshohning hunar, axloq, odob, insof, mantiq, taqvo yo`lida ulusdan o`ta olmaganini anglatish bilan o`zining adolatli Shoh haqidagi qarashlarini anglatadi.

“Farhod va Shirin “da qahramonlar sevgi sarguzashtlari orqali insonning tarix va kelajak oldidagi vazifasini belgilaydi, insonlik faqat muhabbatda emas, balki o`sha sharafli nomning himoyasi orqali ekanini uqtiradi. Sharq tarixidagi Xusrav va Shirin voqeasini badiiy jihatdan qayta ishlab, Farhod orqali o`zining komil inson haqidagi qarashlarini ifoda qilgan. ”Layli va Majnun” dostonida arab ertaklari orqali ma`lum syujet o`zining tugal shaklini topdi, unda ishq falsafasi betakror uslubda ifoda qilindi. Keyinroq yaratilajak Fuzuliy, Andalib, Sayqaliy dostonlari uchun ma`naviy zamin

bo`ldi “Xamsa” tarkibidagi “Sab`ai Sayyor” va “Saddi Iskandariy” da shohlik bilan bog`liq masalalarni birinchi o`zinga olib chiqdi. Bu dostonlar Xamsanavislik an`anasida o`zining ijtimoiy-siyosiy xarakteri va orginalligi bilan ajralib turadi.

Navoiyning tasavvufiy qarashlari deyarli barcha asarlarining ruhiga singigan bo`lsada, maxsus “Lisson ut tayr” dostonida (1499), “Nasoyim ul-Muhabbat” (1495-96) da, “Tarixi anbiyo va hukamo (1985-1488), “Munojot” singari asarlarida aks etgan. “Lison ut- tayr” da borliq va ilohiyot haqidagi qarashlari, inson, tabiat va hayot haqidagi qarashlarini, fikrlarini qushlar tili va sarguzashtlari orqali bayon qilgan Navoiy me`rosining salmoqli qismi nasriy asarlardan iborat. Ular ijtimoiy – siyosiy, axloqiy- ta`limiy va falsafiy yo`nalishlardir.

“Mahbub ul- qulub” (1500-1501) Navoiyning so`nggi yirik asari bo`lib, unda ulug` mutafakkir adibning hayoti davomida kuzatishlari, to`plagan boy tajribasi o`z yuqori darajasida aksini topgan. Uch qismdan iborat bu asarda “Soriun – nosning af`ol va ahvolining kayfiyati” (1), axloqiy muammolar (2) “mutafarriqa favojit va amsol surati”(3) masalalari ifodalangan.

"Xamsatul-mutahayyirin"("Besh hayrat", 1494) asarida ustozi va do'sti Abdurahmon Jomiy, uning hayoti lavhalari, tariqati, yozishmalari,asarlari haqida hayratomuz hikoyalar keltiriladi."Holoti Sayyid Hasan Ardashe’r" (1488-89), "Holoti Rahlavon Muhammad" (1493) asarlari manoqib- holot yo'nalishida bo'lib, ularda shoirga ustozlik qilgan buyuk shaxslar hayoti, faoliyati yoritilgan."Majolisun-nafois" (1490-91, 1497-98) tazkirasi turk tilidagi yozilgan dastlabki tazkira bo'lib, unda shoir sakkiz majlis doirasida 459 shoir va adib haqida ma'lumot bergan. Birinchi va ikkinchi majlisda tazkira tartib berilganda hayot bo'lmagan shoirlar, uchinchi majlisda shoirning zamondoshlari, to'rtinchi majlisda, beshinchi majlisda Xuroson, oltinchisida Movaraunnahr, Kichik Osiyo va Eron, yettinchi va sakkizinchi majlislarda temuriylar sulolasiga mansub ijodkor shoh va shahzodalar haqidagi ma'lumotlar jamlangan. Asar Fahriy Hirotiy (1521-22), Muhammad Qazviniy (1598) tomonidan uch marta fors tiliga tarjima qilingan. Navoiy "Muhokamatul- lug'atayn"

asarini o'z zamonidagi turkiy lahjalar, ziyolilar nutqi, badiiy va ilmiy asarlarning leksik-grammatik xususiyatlarini forsiy til xususiyatlari bilan qiyoslashga bag'ishladi. Jonli xalq tilida qo'llanilgan ko'plab so'zlarni asarga kiritib, adabiy tilda qo'llanilishiga sababchi bo'ldi. O'zigacha ishlatilgan so'zlarni yangi ma'no qatlamlarini ochdi. O'zbek va boshqa turkiy xalqlarning tili grammatikasini Mahmud Koshg'ariydan so'ng ilmiy asosga soldi. O'zbek va boshqa turkiy xalqlar tilining badiiy va estetik imkoniyatlari kengayishiga sababchi bo'ldi. Aruz nazariyasiga bag'ishlangan "Mezonul-avzon"(1492) asarida arab va fors aruzi qoidalarini turkiy tilda aniq va ravon tushuntirdi. Turk yozma va og'zaki she'riyati namunalarining vazn xususiyatlarini o'rgandi.Turkiy aruz tabiatini yoritish bilan birga turk she'riyati murakkab aruz tizimini boyitganini anglatdi. Bahrlar va doiralar haqidagi tasavvurni kengaytirdi. To'qqizta yangi vazn va she'riy shaklni aniqladi. Navoiyning ilmiy-filologik me'rosini muntazam tadqiq qilish XX asrning 20-yillarida yo'lga qo'yildi. Bu yo'nalishda Fitrat, Oybek, A. Sa'diy, O. Sharafiddinov, A.Hayitmetov, I.Sulton, H.Qudratullayev kabi adabiyotshunos va A.K Borovkov, O.Usmonov, A.Rustamov kabi tilshunos olimlarning ishlari e'tiborga molik.

"Vaqfiya" (1481) asarida vaqf yerlari, mulklari, ularning miqdori, ulardan foydalanish, vaqf mulki va mablag'i evaziga quriladigan bino va inshootlar, bu yo'nalishda madrasa va xonaqohlarda o'rnatilgan tartiblar haqida fikr yuritdi.

Navoiy o'z ixtiyoridagi mablag'lar hisobiga qurilgan xayriya muassasalari, ilmiy-madaniy binolar va bog'larni sanab o'tdi. Asar Navoiy va Husayn Bayqaro munosabatlarini o'rganish uchun ham muhim hujjatli manbadir. Tarix va iqtisod yo'nalishidagi asarlari N.Veselovskiy, Yakubovskiy, Y.G'ulomov V.Zohidov, B.Ahmedov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Navoiy dahosi tufayli insoniyat tarixida dunyoning turli joylarida yashayotgan turkiy xalqlar yakqalam qilindi, millat ma'naviy merosi umumjahon xazinasidan mustahkam o'rin oldi.

Dunyo ilm fanining rivojlanishiga o'zlarining yuksak ilm salohiyatlarini qo'shgan buyuk allomalar yurtida yashar ekanmiz, biz yoshlar buyuk ajdodlarimizning boy

ilmiy me'rosini o'rgangan holda ilm fanning rivojlanib, yanada taraqqiy etishi uchun o'z hissamizni qo'shmog'imiz darkor. Bizningcha yoshlar salohiyatiga mos, tarixiy haqiqatni aks ettiruvchi ilmiy ma'rifiy ishlarni chop ettirishni yanada ko'paytirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, biz yoshlar ma'naviy kamoloti bugungi globallashuv davrida barcha masalaga yagona yechimdir. Zero, ajdodlarimiz ham ilm bilan najot topdilar, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashdilar, ilmni najot bilib, barchani unga da'vat qildilar. Shunday ekan, oldimizda turgan eng asosiy vazifalardan biri- ulug' ajdodlarimizning boy ilmiy me'rosini tushunarli tarzda yozilgan kitoblar orqali aholi, xususan, yoshlarga yetkazishdir. Umuman, O'zbekiston ming yillar davomida Buyuk Ipak yo'lini muhim qismi bo'lgan.

Bu yerda savdo-sotiq, ilm- fan, madaniyat, ma'rifat markazlari hamisha taraqqiy etgan. Bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan diniy- ma'rifiy sohada shuningdek ilm-fan sohasida ham olib borilayotgan ezgu tashabbuslar ham tom ma'noda dunyo mamlakatlarida tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik hamda ma'rifat tarqatishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Islom Karimov “Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch” 2008-yil 47-48 betlar.

2.”Yangi O`zbekiston” gazetasi. 2021-yil 22- aprel.

3. “Buyuk yurt allomalari” Toshkent 2016- yil .

4. “Hurriyat” gazetasi .

5. Valitova, A.A (1974) “Alisher Navoiy” A.M Pxorov (rus), Buyuk sovet Ensiklopediyasi 17 (3 nashr) Moskva: Sovet Ensiklopediyasi 194-196 betlar

6. A.M Proxorov. muhar (1997) “ Navoi Nizomiddin Mir Alisher” (rus) Buyuk ensiklopedik lug`at (2 nashr) Sankt – Peturgburg: Buyuk rus Ensiklopediyasi 777-bet

7. Alisher Navoiy, Mukammal asarlar To`plami 3 jild Toshkent 1988

8. O. SHarofiddinov. Alisher Navoiy. Kitobda: Tanlangan asarlar. 1978

9. Ya. G`ulomov Alisher Navoiyning davrini o`rganish haqida. Kitobda “Ulug` o`zbek shoiri”. T:1948

10. Oybek. Novoiyning tarjimayi holi Kitobda: “ Navoiy gulshani“ –T: 1968

11. S. G`aniyeva. Alisher Navoiy – T: 1968

12. Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari –T: G`. G`ulom nomidagi badiiy adabiyoti nashriyoti 1969

13. A. Qayumov. Alisher Navoiy (ajoyib kishilar hayoti) –T: 1976

14. Fitrat “Farxodu SHirin” dostoni to`g`risida Tanlangan asarlar 2 jild T:1971

15. T. Jalolov “ Xamsa” talqinlari T: 1962

16. S. Erkinov. Alisher Navoiyning “Farxodu Shirin” va uning qiyosiy taxlili T: Fan 1971

17. A. Qayumov “ Xayratul – abror “ talqinlari T; 1972.

THE IMPACT OF ALISHER NAVOI AND ZAHIRRIDDIN MUHAMMAD BOBUR’S MASTERPIECES ON RENAISSANCE IN XV-CENTURY AS WELL AS THEIR ROLE IN SOCEITY

ATOBOYEVA AZIZA

The student of National university

ABSTRACT: In this article the works of Alisher Navoi and Zahiriddin Muhammad Bobur will be studied in detail. As it can be observed, both of this genius poets have written a number of books which had a huge influence on community for improving the way of their lifestyles and also it will be explained the reason why dwellers of past time have respect for these kind of scientists.

АННОТАЦИЯ: В данной статье будет подробно изучено творчество Алишера Навои и Захириддина Мухаммада Бобура. Как можно заметить, оба этих гениальных поэта написали ряд книг, которые оказали огромное влияние на общество для улучшения их образа жизни, а также будет объяснена причина, по которой жители прошлого времени уважали такого рода

Annotasiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy va Boburning jamiyatga keltirgan foydasi va shuningdek 15-asrdagi uyg'onidh davriga qo’shgan hissasi haqida gapiriladi. Shuningdek, ular jamiyat hayotidagi muammolarni qanday hal etishgani va hurmat qozonishni sababi aytiladi.

Kalit so'zlar : Uyg'onish davri ,insoniy muhabbat ,adabiy hayot, kuchli imperiya ziyoli odamlar Javohir La’l Neru

Ключевые слова: Ренессанс, человеческая любовь, литературная жизнь, сильная империя, образованные люди Джавохир Лал Неру

Evident is the fact that one of the greatest poets of the world was Alisher Navoi in the XV-th century . Not only this person wrote books about the social life of dwellers, but also tried to deal with mankind problems with the help of demonstrating their issues on his books. As it has been mentioned above Alisher Navoi as well as Bobur played a vital role in second renaissance. This article will analyse how they managed to this and provides striking data about their knowledge as well.

During the reign of Amir Timur many people who have the intention to research in science were gathered in one place such as greatest historian Sharafiddin Ali Yazdiy , Hofiz She’roziy and also the descendants of this person were also the leaders of that time. They built a great number of monuments, mosques ranging from Shohi Zinda to mausoleum of Ahmad Yassavi and created opportunites for scientists in attempt to carry out more researchs. This kind of work was continued by the heirs of Timur and Alisher Navoi also studied in the capital of Amir Timur’s country :Samarkhand .In his autobiographic books he mentioned Samarkhand as paradise. From his childhood Navoi was immersed in literature of Turkish language and during his meaningful life tried to prevent this language from being dead language like Latin. One of the main reasons why Alisher Navoi successed in his sphere is that young poet was brought up in the atmosphere of literary culture. There was an interesting fact about Navoi which shows that at the of seven he astonished ninenty nine years old poet Lutfiy with his ability to write poems. As a child , he memorized Fariddin Attar’s ‘ Mantiq ut-tayr’ and came to the attention of Sharafiddin Ali Yazdiy .

Orazin yopg’och ko’zimdin sochilur har lahza yosh,

Bo’ylakim paydo bo’lur yulduz nihon bo’lg’och quyosh.

As he grew older, he realised the main meaning of life , the mistakes of human beings and in his books called ‘ Mahbub ul-qulub’ , ‘Hayrat ul-abror’ he tried to

show and analyse them. For instance, candle is always straight as it lights up and makes everybody blissfully happy or if ruler is straight your draw will be correct as well as beautiful.(1) These sentences, if it is thought logically , were written in order to show people the right way. His life was united with Hussein Boykaro who gave the title of 'muqarrabi hazrati sultani' (the closest person to the sultan' to Navoi. Nizomiddin Mir Alisher Navoi gave a contribution to the sultan and made ready many knowledgeable person like Kamoliddin Bekhzod (Famous painter) , Xondamir (historian), Binoiy (poet) .Without any doubt it can be concluded , where are more enlightened people, there will be progress in terms of social and academic life. So Navoi had a huge influence on second renaissance.

Why did they dawn while turning flavescent its frontispiece?
Because of hidden sun was it sick more than I miss?

If it were not mad like me, showing craziness in full ,
Like Mejnun –over the hills ---would not tear its chemise.

Does the dawn have covert spots from the parting of the sun?
Otherwise –these star –like drops –would it on its face release?

Do not say the reddish clouds 're sailing now in the sky,
In fact they are the bloody cotton affected by belly's caprice.

They are not sunrays you see, but because of my mourning –
It's daybreak –with nail of stars –on its face could cause disease.

Hey cupbearer , give us now now a morning wine to take delight ,
So that when we leave this world the peep morning will increase

Be like humble, bowing flower , be like a nightingale awake,

Hey Navoi , in this garden if you want to live in peace.(2)

As regards with Zahiriddin Muhammad Bobur he was one of the knowledgeable descendants of Timur and was the founder of the Mugal Empire and the Emprorer of the Mughal dynasty. It should be noted that in addition to being emperor he was also famous poet and write. One of the important aspects of his work is the glorification of a truly human , patriot, genuine love. As a novelist he wrote ,Baburnoma' which is considered to be useful book for some wanted to learn about the history , geography of 15- th century. In spite of the fact that he could not persue his dreams in Movorounnahr , he established his empire in India and this lasted 332 years. Babur's role in indian society is that he banned burning widow and also tried to build more buildings. Now we can see Indians are immensely grateful that during his dynasty their country developed. Javohar La'l Neru once said that : Babur is a unique person with his abilities'(3)

All in all both of them have a huge impact on our society although they have already died , their works are still alive in our heart.

REFERENCES:

1. ALISHER NAVOI ' HAYRAT UL – ABROR' –65 PAGES
2. AZIM OBIDOV. POETRY.WWW.COM
3. INDIAN FACTS . JAVAHAR LA'L NERU –2019 KABUL

USE OF AUXILIARY WORDS IN ALISHER NAVOI'S WORKS

Rasbergenova Bibinazayim

Nukus State Pedagogical Institute, Faculty of Turkish Languages, Karakalpak language and literature education 2nd year student

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarinda yordamshi so'zlarning foydalanishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: yordamshi so'zlar, birikma, bog'lovchi, uyushiq bo'laklar, qo'shma gaplar, zidlov so'zlar.

Annotation: This article describes the use of auxiliary words in the works of Alisher Navoi.

Keywords: auxiliary words, compound, connecting, cohesive parts, compound sentences, contradictory words.

Аннотация: В данной статье описано использование вспомогательных слов вьпроизведениях Алишера Навои.

Ключевые слова: Вспомогательные слова,сложные, соединительные,связные части,сложносочиненные предложения,противоречащие друг другу слова.

Alisher Navoi is a great thinker, scholar and poet, who left a bright mark in the classical literature of the East, is known for his work with the work of Xamsa, and used the most words in his works in Uzbek literature. He also used manoli word series and auxiliary words in his works. The purpose of this article was to independently organize the use of auxiliary words in the old Uzbek language, in particular, in the works of Alisher Navoi, and to share our views. For ehample: Mahbub ul-qulub is written in prose, in the saj method, in which conjunctions, contradictions, conditionals are actively used. Deduction, cause, target connectors are almost never used. And the conjunctive conjunction, as in our modern language, has connected the conjunctive children, the parts of the compound sentence, and in

some places both the conjunctive children and the simple sentences in the compound sentence.

And the fact that the binder binds the cohesive children:

It is a compliment and a privilege for the people to pay homage to the mujib and to respect and honor the akobirdin asogir.

No matter how many great people sneer and sneer, he has a sense of humility and dignity.

A generous man is a musk totor without a rainless cloud and a spring.

But the people of Hilm, who belong to the weight of the garden of the period, and who are like the wind and the wind, and who are like the wind, are helpless. (From Mahbub ul-Qulub)

And the conjunction connects the parts of speech:

The lion's job is to beat the squirrel, and the mouse's sport is to weigh the diram and look for the knot.

If you eat without wasting your food, wear clothes that do not wear out.

To find trades is to eat, and to cover up faults is to wear. (From Mahbub ul-Qulub)

In the story of Mehr and Suhayl, we see the use of attachment binders. In this play, and instead of the conjunction, the conjunction -u, -yu is used. In verse 44 of the story, this situation can be seen:

At once a king is the ruler, and the ruler is the ruler.

Oti Numon-umulki oti Yaman, Adlidin mulki gulistan-uchaman. (From Sabai planet)

In the article on the truth tariff, he also acted as a link and connected the children of the union by performing the -u, -loads:

The curve of salt is true, and the curve of falsehood is true.

Let go of fear, and let me agree, and let me have a good time. (From Hayrat ul-Abrar)

Alisher Navoi's Sabai Sayyar, in the works of Mahbub ul-Qulub, came in the form of an auxiliary word and acted as a link between the children.

Toki gave food and juice, Zafl iq strength to the body.

Evrolib kom birla period sipehr, Vasl topti Suhayl birlan Mehr.

(From Sabai planet)

Dona bilasuv sari qilgoch hirom, Tortti sayyod ani on dom.

(From Hayrat ul-Abrar)

A generous person has a judgment of a pearl without a coin.

What attention is paid to the dried pearls without pearls. (From Mahbub ul-Qulub)

In the work of Mahbub ul-qulub, however, the conjunction of opposition is actively used. In some places this binder came with a conditional binder. In this case, if the connector also performed the function of loading.

But the use of the binder:

The horse burns the foot of the mountain, but how can the sun reach the ashgar?

But if the wind reaches the coke, it is light.

Man aggresses hardship with little body and soul.

But he can't imagine it.

The wind blows the tulip crown, but the net is netted. (From Mahbub ul-Qulub).

The preposition -ki is used in the old Uzbek language, in particular, in the poetic works of Alisher Navoi -ki, -kim.

Shahkim, a tooth that had touched his stomach, inspected Ayladi Mehr.

Every pair of faces melts, and if it gets blue, its clothes melt.

(From Sabai planet)

If the salt is yours, If the earth is crooked, what is your harm?

(From Hayrat ul-Abrar)

Alisher Navoi's bees used many other auxiliary words. In the works we have organized, downloads are less commonly used than other auxiliary words. In poetic works, mainly, goyo (goyiyo)

in the form of), -ki, -kim, after all. In the art of tasbeh, the word goyiya has been a means of simulation. Other types of downloads (question-surprise, denial, suspicion) are almost never used.

References:

1.S.Ayniy.Selected scientific works.T..Fan,1978

2.A.Hayitmetov."Navoi's lyrics". T.1984

3.A.Qayumov."Hayratul-abror" interpretations.T: 1972

ALISHER NAVOIYNING TO‘LIQ INSON TUSHUNCHASI

Numonov Fayzulla Nurmuhammadjon o’g’li
Qo’qon universiteti

Annotatsiya

Maqolada atoqli o‘zbek shoiri, davlat arbobi Alisher Navoiyning ijtimoiy-pedagogik qarashlari, inson va uning tarbiyasi, komil shaxs kamoloti muammosiga yondashuvi tahlil qilinadi.

В статье анализируются социально-педагогические взгляды известного узбекского поэта, государственного деятеля Алишера Навои, его подход к проблеме человека и его воспитания, развития совершенной личности.

The article analyzes the socio-pedagogical views of the famous Uzbek poet, statesman Alisher Navoi, his approach to the problem of man and his upbringing, the development of a perfect person.

Kalit so’zlar: Navoiy, inson, komil inson, insoniy kamolot, insoniylik, inson qalbi, inson tarbiyasi.

Навои, человек, совершенный человек, человеческое совершенство, человечность, человеческое сердце, человеческое воспитание.

Navoi, man, perfect man, human perfection, humanity, human heart, human upbringing.

O‘zbekistonda 2020-yilning “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e’lon qilingani yoshlarga qaratilayotgan e’tiborning yorqin dalilidir. Binobarin,

bugungi kunning vazifasi inson to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, yosh avlodni zamon talablariga javob beradigan yetuk, bilimli, yuksak ma’naviyatli, iymon-e’tiqodi mustahkam, irodali, irodali, har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash va tarbiyalashdan iborat. xalq va Vatan uchun qayg‘uradigan komil inson. Bu jarayonda ulug‘ bobomiz Alisher Navoiyning inson to‘g‘risidagi komillik haqidagi fikrlarini yoshlarga yetkazish, ularni yangi O‘zbekistonni barpo etishda fidoyilik ko‘rsatishga undashda samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Darhaqiqat, davlatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev: “Agar Alisher Navoiy “Odamiy ersang, demagil odami, Onikim yo‘q xalq g‘ami” deb yozgan bo‘lsa, Abdurahmon Jomiy ijodida “Yaxshilik bilan nom” kabi ezgu g‘oyaning ustuvorligini ko‘rishimiz mumkin. jahon chiqarda, sevib yod etsinlar barcha zamonda”.

Inson va uning tarbiyasi, komil shaxsni kamol toptirish masalasi azaldan Sharq olimlari, mutafakkirlari, donishmandlarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ular inson zotini barcha tirik mavjudotlarning eng yaxshisi deb bilgan yuksaklikka ko'tardilar.

Qadim zamonlarda yashab o‘tgan mutafakkir va ajdodlarning inson va uning hayotidan maqsadi, komil jamiyat, adolatli va ma’rifatli podshoh, komil inson haqidagi qimmatli g‘oyalari hozir ham o‘z qadrini yo‘qotmagan holda insoniyatga xizmat qilmoqda.

Buyuk mutafakkir, g‘azallar saltanatining sultoni hazrat Alisher Navoiy o‘zining nasri va she’riyati, o‘lmas dostonlarida umuminsoniy ruh bilan sug‘orilgan to‘liqlik inson, to‘liqlik jamoa va adolatli hukmdor g‘oyalarini ilgari surgan. Uning insoniylik, ilm-fan va hunar egallashi, odob-axloq qoidalari, tarbiyasi, yuksak insoniy qadriyatlari haqidagi hikmatli fikrlari o‘tmishda ham, hozir ham o‘zining tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Vatanparvarlik, o‘zlikni anglash, insonparvarlik, halollik va poklik, o‘z-o‘zini nazorat qilish, sabr-toqat va yetuklik kabi fazilatlarni egallashda, eng avvalo, Alisher

Navoiyning ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlari yuksakdir. Ma’naviyat yengilmas kuch ekanligini chuqur anglashda muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, Navoiy va boshqa mutafakkirlarning inson to‘laligi haqidagi ta’limotlari milliy g‘oya rivojiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Zero, milliy g‘oya “islom falsafasidan oziqlanadi va kengroq ma’noga ega”. Barkamollik inson haqidagi yuksak g‘oyalar, ayniqsa, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarimiz ijodida o‘z ifodasini topgan”.

Uchinchidan, bugungi kunda turli terroristik harakatlar, aqidaparastlik, diniy ekstremizm kabi buzg‘unchi va buzg‘unchi g‘oyalar yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugun atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” tahdidi kuchayib borayotganini inobatga oladigan bo‘lsak, bu so‘zlarning teran ma’nosi va ahamiyati yanada oydinlashadi. Darhaqiqat, bugungi kunda yoshlarni tarbiyalash hech qachon o‘z dolzarbligi va ahamiyatini yo‘qotmaydigan masaladir.

Bugungi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan dunyo insoniyat va yoshlar uchun yangi va katta imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, bu ularni har qachongidan ham ko'proq xavf ostiga qo'yadi. Yovuz niyatli kuchlar oddiy, nochor bolalarni ota-onasiga, yurtiga qarshi qo‘yib, joniga qasd qilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar bilan olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish zarurligi haqida shunday yozadi: “Albatta, biz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va malakaga ega, mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash borasida ulkan ishlarni amalga oshirmoqdamiz. hayotiy pozitsiya. Lekin, insof bilan aytganda, dunyo aholisi, ayniqsa, yoshlar ongi va qalbi uchun ayovsiz kurash olib borilayotgani, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik va ommaviy madaniyat tahdidlari kuchayib borayotganini, farzandlarimiz tarbiyasi borasidagi ishimizni susaytirmasligimiz kerak. bir zum ma’naviyat va ma’rifat sohasida, lekin uni yangi bosqichga olib chiqing. Bu jarayonda Hazrat Navoiy asarlaridagi komil inson g‘oyasi, insonparvarlik qadriyatlari yoshlarni yanada

kengaytirish va tarbiyalashga, yoshlar ongini yuqorida qayd etilgan zararli g‘oyalar ta’siridan asrashga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, tanlab olingan mavzuning dolzarbligi mamlakatimizda yetuk avlod tarbiyasiga ustuvor ahamiyat qaratilishi bilan belgilanadi. Yosh avlodni ma’naviyatli qilib tarbiyalamasdan turib, jamiyatimiz taraqqiyoti, muvaffaqiyatlarga erishishi qiyin.

Beshinchidan, Navoiy asarlaridagi komil inson g‘oyasi istiqlol sharoitida insonni komil inson qilib tarbiyalash, uning komil inson bo‘lib kamol topishida muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Oltinchidan, Alisher Navoiy o‘zbek xalqini dunyoga tanitgan, milliy o‘zligimizni ifoda etgan allomadir. Uning tarixiy xizmati o‘zbek adabiy tili imkoniyatlarini asoslash bilan birga, ilg‘or g‘oyalar, islom va tasavvuf ta’limotlarini o‘z asarlarida uyg‘unlashtirishdir.

Barkamollik inson – “bir tomondan, jami ma’naviy quvvat, aql-zakovat va yaxshi fazilatlar yig‘indisi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ma’lum bir yuksaklikka intiluvchi komil insonning mavhum tushunchasidir”.

Navoiy Uyg'onish davrining buyuk donishmandlari va insonparvar shoiri edi.

Navoiy yuksak xislat va qadriyatlarni egallamasdan, unda o‘zgalarga mehr-muhabbat tuyg‘usini shakllantirmasdan, odobli, odobli, insonparvar bo‘lmasdan turib, uning yetuk, komil inson bo‘lib yetishishi qiyin, deb hisoblagan.

Mutafakkirning umuminsoniy ma’noga ega bo‘lgan gumanistik qarashlari islom falsafasidan oziqlangan bo‘lib, olim o‘z asarlarida o‘zining diniy va dunyoviy, tashqi va botiniy jihatlarini rivojlantirdi.

Olimning inson va insoniylik haqidagi fikrlarini tahlil qilishdan avval uning Xudo va tabiatga bo‘lgan munosabatiga to‘xtalib o‘tishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Uning fikricha, Xudo hamma narsaning boshidir. Dunyodagi hamma narsa

vaqtinchalik, Xudo esa abadiydir va borliqda nima sodir bo'lsa, Uning irodasi bilan amalga oshiriladi. Mutafakkirning fikricha, “inson aql yordamida hamma narsaning sir-asrorlarini, dunyodagi o‘zgarishlarni, ularning mohiyatini anglay olmaydi”. Bu aqlni zaiflashtiradi. Chunki insonning bilimi va aqli cheklangan. U haqiqatni tushunmaydi”. Shunga qaramay Navoiy insonni aqldan ozgan deb tasavvur qilmaydi. Mutafakkir ijodining muhim jihati shundaki, inson nima qilsa ham, aqlga, tafakkurga, kuchga ishonish kerak.

Alisher Navoiy odamlarga mehr-muruvvat ko‘rsatishga, ezgu ishlar qilishga, xudbinlikni tiyishga, kambag‘allarga sadaqa berishga, rahm-shafqatli va rahm-shafqatli bo‘lishga, xalqni doimo to‘ydirishga harakat qilgan. Ular odamlarni o‘z tashvishlari bilan yashashga, odamiylikni hamma narsadan ustun qo‘yishga undagan.

Hazrat Navoiy saxovatni insoniylik va komillikning muhim fazilati deb biladi. Insoniylik insonni inson qiladigan, uni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turuvchi noyob xususiyatdir. Saxiylik insoniyatning ajralmas qismidir.

Mutafakkirning yana bir muhim jihati shundaki, u o‘zining g‘azal, ruboiy va dostonlarida insoniylik haqidagi o‘z qarashlarini ifoda etibgina qolmay, insoniylikda boshqalarga o‘rnak bo‘lgan buyuk insonparvar shoir unvoniga sazovor bo‘lgan. U hamisha oddiy odamlarning dardiga she’rik bo‘lib, ularga homiylik qilib kelgan.

Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlarida ham insonparvarlik g‘oyalari o‘z ifodasini topgan. Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Iskandar, Suqrot, Aflotunlar o‘zining “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Saddi Iskandariy” va boshqa dostonlarida vatanparvarlik, insonparvarlik, ezgu qadriyatlar kabi yuksak axloqiy fazilatlarni o‘zida mujassam etgan. Bu obrazlar allomaning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va gumanistik qarashlariga mos ravishda bayon etilgan. Hazrat Navoiy insonparvarlik, sadoqat, mehr-oqibat, el-yurt g‘amxo‘rligida yashash, hatto uning farovonligi, baxtu saodati yo‘lida jonini ham fido qilish, boshqalarga saxovatpeshalik kabi fazilatlarni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Shu tariqa mutafakkir insonni, uning fazilatlarini ulug‘laydi, uning boshqa mavjudotlardan ustun ekanligini ishonchli isbotlaydi. Hazrat Navoiy

hayoti, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, xalq hayotini yaxshilash, mashaqqatini yengillashtirishga qaratilgan savobli va xayrli ishlari, nasri va she’riyatining mazmun-mohiyati umuminsoniy va insonparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan. Mutafakkir insoniylik tushunchasiga ijtimoiy ma’no beradi. Uning fikricha, kamtarlik, sadoqat, o‘zini tuta bilish, halollik, saxovatlilik, donolik, muhtoj va yetimlarga yordam berish, bag‘rikenglik, mehr-oqibat, shirinso‘zlik, mardlik, mehr-oqibat, mehr-oqibat, mehr-oqibat, odamiylik – bularning barchasi insonni yetaklovchi insoniylikning bir qismidir. mukammallikka.

Alisher Navoiy komil inson haqidagi butun bir ta’limotni yaratdi. “Xamsa”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Holoti Sayyid Hasan Ardashe’r”, “Mahbub ul-qulub”, “Majlis un-nafois” kabi nasriy va she’riy asarlari, g‘azal, dostonlari, “Lison ut-tayr” va boshqalarda komil inson qanday bo‘lishi, u qanday fazilatlarga ega bo‘lishi kerakligi haqidagi fikrlarni batafsil yoritadi.

Navoiyning inson to‘laligi haqidagi ta’limoti tabiatga, insonga, Xudoga muhabbatga asoslanadi. U payg‘ambarlar, avliyolar, piru komillar, oriflar va so‘fiylar haqida gapirar ekan, o‘z g‘azal va ruboiylarida avliyolarning fazilatlarini mehr bilan yozgan. Tasavvufshunos olim Ibrohim Haqqulning ta’kidlashicha, Navoiyning komillik haqidagi qarashlari to‘rtta ustuvorlik: axloqiy go‘zallik, qalb pokligi, ma’naviy quvvat va tafakkur etukligiga asoslanadi.

Mutafakkir komillar qatoriga payg‘ambarlar, avliyolar, donishmandlar, ulug‘ payg‘ambarlar kiradi. Bunday odamlar doimo el-yurt g‘amxo‘rligida yashaydilar, boshqalarga mehr-muruvvat ko‘rsatadilar, beva-bechoralarga yordam beradilar. Komil zotlar insonlarning eng yaxshisi bo‘lib, umrining oxirigacha poklanish va haqiqat yo‘lini tanlaganlar.

Daho shoir, gumanist mutafakkir Alisher Navoiyni inson qadr-qimmatini belgilashning ibtidoiy shakli bo‘lgan jamiyat a’zolarini tasniflashda irqiy va nasl-nasabga asoslanganligi tashvishga solmoqda. Yurt ahlini bunday haqoratlarga javoban shoir o‘z asarlarida keskin munosabat bildiradi. Shaxsni tabaqaga

ajratmaydigan oliy tuyg‘u – muhabbat shoirning insonparvarlik g‘oyalarini ifodalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Lekin bu haqiqatni e’tirof etish uchun eng rivojlangan, ya’ni jismonan va ma’naviy barkamol insonlar qatoridan joy olish zarur. Yo‘qsa, jismonan, ma’naviy yetuklikdan yiroq bo‘lganlar Layli otasidek qaynog‘ini boylikka almashtirishdan charchamaydi yoki Xusrav Parvez kabilar soxta ishqini niqob qilib, o‘zgalarning ma’shuqasiga sovurishadi.

Navoiy bu ulug‘ g‘oyani ijtimoiy-siyosiy masala darajasiga ko‘taradi.

E’tiborlisi, Alisherning so‘nggi bosqichi bo‘lgan keksalik lirikasida inson zoti tengligi, jamiyat a’zolarini turli toifa va tabaqalarga bo‘lmasdan, inson sifatida ko‘rish g‘oyasi alohida o‘rin tutadi. Navoiy ijodi. ushlab turadi. Bu, albatta, tabiiy. Chunki Alisher Navoiy hayoti davomida bir qancha hukmdorlarni ko‘rgan, ularning saltanati qanday qulaganiga guvoh bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda

Navoiy o‘z asarlari orqali komil jamoa, adolatli podshoh va komil inson tushunchalari uyg‘unligini targ‘ib qilgan.

Ikkinchidan, mutafakkir komil insonni keng ma’noda tushunib, insonning komil yoki nomukammalligiga baho berishda axloq va axloq qoidalarini bosh mezon sifatida e’tirof etgan. To‘rtinchidan, Navoiy o‘zining “Hayratul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Sab’ayi Sayyor”, “Saddi Iskandariy” kabi dostonlarida komil davlat va adolatli podshohning ideal obrazini yaratibgina qolmay, balki o'sha davr hukmdorlari. To‘g‘ri yo‘lga, hayotda adolat va komillikka da’vat etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Faoliyatimizga berilgan eng oliy qadriyat millatimiz roziligidir. 2-jild – Toshkent: O‘zbekiston, 2018 yil.

2. Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - Toshkent: O'zbekiston, 2000 yil.

3. Mirziyoev SH. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini himoya qilish – mamlakat taraqqiyoti va millat farovonligining garovidir. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. Mirziyoev SH. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini himoya qilish – mamlakat taraqqiyoti va millat farovonligining garovidir. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017 y.

4. Mirziyoev SH. Biz buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017 y.

5. Komilov N. Tasavvuf. –Toshkent: Movarounnahr-O‘zbekiston, 2009 y.

6. R Botirjon, A Oybek, N Fayzulla Jahon Banki va uning tuzilishi, boshqaruv tizimi, molyaviy daromadi, pul aylanmasi islom moliyasi Archive of Conferences, 151-155

7. O'zbekiston ijtimoiy-axloqiy va gumanistik tafakkur tarixining muhim bosqichlari. (Alikulov X., Nosirov R., Sharipov A. va boshqalar). – Toshkent: Falsafa va huquq, 2007 y.

8. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. MAT. T.8. – Toshkent: Fan, 1991 yil.

9. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. Favoyid ul-kibar. Ishlar. T. 4. –Toshkent: Toshkent, 1965 yil.

10. Ibrohim Haqqul. Navoiy she’riyatida to‘liqlik inson mavzusi // Alisher Navoiy ijodiy merosi va uning jahon ahamiyati. - Toshkent-Navoiy: Fan, 2001 y.

ALISHER NAVOIYNING O‘ZBEK ADABIYOTIDAGI O‘RNI

Kalbaeva Gulchexra Polat qizi
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti,
boshlang‘ich ta'lim fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining buyuk siymosi, G‘azal mulkining sultoni Alisher Navoiyning hayoti va ijodi, uning bugungi kundagi ahamiyati, asarlarining bolalarni tarbiyaviy va Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o‘rni haqida bilib olishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: Muhokamatul-lug‘atayn, Mezonul-avzon, Majolisin-anafis, Xamsa

O‘zbek tilining naqadar go‘zal ekanligini aniq isbot qilib bera olgan shoir sifatida Alisher Navoiyni alohida ta'kidlab o‘tish kerak. U o‘z davrining eng bilimdon, g‘ayratli insonlaridan bo‘lib, turkiy tilida eng dastlab "Xamsa"ni yaratgan, so‘z boyligi jihatidan yuqori pog‘onadan joy oluvchi buyuk shaxs edi.

Alisher Navoiy yashagan davrda o‘zbek adabiyotining taraqqiy etishida nazm bilan bir qatorda nasrning ham o‘rni katta bo‘lib, hech bir ijodkor Navoiydek ko‘p turli xil nasriy asarlarni yaratmadi.

U yaratgan asarlarni har safar o‘qiganimizda yangi taassurotlarga ega bo‘lamiz. Har bir qatorida olam-olam ma'no kasb etuvchi nasriy asarlari bugungi kunda ham o‘zining bebaho qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Buning sababi sifatida uning xalqni, har bir oiladagi tinchlikni ta'minlashni o‘ylagani, bolalarga haq nasihat qilganlarini aytib o‘tishimiz mumkin. Navoiy asarlari real voqealarni tasvirlashi bilan ham ajralib turadi. U xalqga zulim qilmaslik haqida shunday deydi:

Necha bu nish bu mazlumlarga sanchilgay,

Umid ulki boshlari ajal toshi bila yanchilgay.

Shu qatorlardan ham ma'lum bo‘lganidek, Navoiy jabrlanuvchi xalq tarafida bo‘lib, xalqqa jabr qiluvchilardan nafratlangan. Ularga o‘tkir tanqidga to‘la she'riy qatorlarini bag‘ishlagan. Qanchadan-qancha qiynoqlar sababsiz xalq boshiga tushyapti, albatta zolimlar bir kuni bu isslarining javobini beradi deb ishonadi.

Navoiy bolalarni savodli qilish, o‘qitish uchun harakat qiladi. O‘zi Astrobodda surgunda yurganida podsho Husayn Boyqaroga yozgan xatida o‘g‘il va qiz bolalar uchun maktablar ochishni talab qilgani, shaxsan o‘zi madrasalar qurishda tashabbus ko‘rsatgani buning yaqqol dalilidir. Navoiyning fikricha, maktab xalqqa nur keltiradi, unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi, bolalarni bilimli qiladi. Bilim egallagan insonning xor bo‘lmasligini takror va takror aytishdan charchamaydi." Yoshligingda yig‘gil bilimni, qarigach sarf qilg‘il ani "- deya aytilgan gaplari bugungi kunda barchamizning eng ko‘p eshitadigan gapimizga aylanib ulgurdi. Oradan qancha asrlar o‘tsa ham nechog‘li donolik ila aytilgan bu fikrlari kelajak avlodlarga ham o‘rnak bo‘ladi. Yoshlik chog‘imizda, kuch-quvvatimiz borligida qariganimizda yo‘limizdi yorug‘ qiluvchi chiroq bo‘lmish ilimni egallashimiz zarur. Ayniqsa, bugungidek imkoniyatlarga to‘la zamonda, barcha yaratilgan sharoitlardan unumli foydalanib kelajagimiz haqida qayg‘urishimiz kerak.

Buyuk mutafakkir ijodida bolalar tarbiyasi alohida e'tiborga olinadi. Asarlarining ham ko‘pchiligi bolalarni egzulik yo‘lida Vataniga munosib farzandlar qilib tarbiyalashga qaratiladi. Saxiylik, kamtarinlik, ota-onaga hurmat, to‘g‘rilik haqida tushunchalar beribgina qolmasdan, ularni o‘zida jo qilgan kishilarning qanchalik katta martabaga ega bo‘lishini asarlarida misollar bilan tasdiqlagan.

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a…
Tun-kunungga aylagali nurposh,
Birisin oy angla, birisin quyosh…

Mana, yuqoridagi qatorlar ham so‘zimizning isboti. Bizni bu dunyoga keltirguvchi buyuk zotlarni e'zozlash muqaddas burchimizdir.

Bugungi kunda ham Navoiy me'rosini o‘rganish davom etib kelmoqda. Bu ishga Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mas'uliyat ila yondashganligi ham barchamizga ma'lum. Hurmatli Prezidentimiz qarori bo‘yicha Alisher Navoiyning hayoti va ijodi tasvirlangan kinofilmlar olish ishlari olib borildi. Uning shaharlarda o‘rnatilgan haykallarida ta'mirlash ishlari olib borilib, har yili 9-fevral sanasi keng nishonlanishi belgilab berildi.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta'kidlab o‘tish zarur, Navoiyning qaysi asarini olib qaramaylik unda insonlarga faqat yaxshilik qilish, saxiylik, adolatli bo‘lish singari eng ezgu fazilatlarni rivojlantirish niyati sezilib turadi. Barchamiz buyuk mutafakkirning ijodiga hurmat bilan qarab, uni kelajak avlodlarga yetkazishda o‘zlarimizning munosib hissamizni qo‘shaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vohidov R, Eshonqulov H, O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi, Toshkent, 2006.

2. Mutallibov S, Alisher Navoiy hikmatlari, Toshkent, 1968

3.Ibrohim Haqqul, Navoiyga qaytish, Toshkent, 2007.

ALISHER NAVOIY ASARLARINING BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA TUTGAN O‘RNI

Hamrayev Og’abek Ziyodullo o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2- bosqich talabasi
Kandaxorova Madina Ishratovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlari, Alisher Navoiy asarlarining jamiyatimizda, barkamol avlod tarbiyasida tutgan o‘rni haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so’zlar: Alisher Navoiy asarlari: “ Hayrat-ul abror” , “ Saddi Iskandariy “.

Аннотация . В данной статье рассматривается роль произведений Алишера Навои в нашем обществе, в воспитании гармонично развитого поколения.

Ключевые слова: Алишера Навои : “ Хайрат - ул аброр ” , “ Садди Искандарий “.

Annotation. This article discusses the role of Alisher Navoi ’s works in our society, in the upbringing of a harmoniously developed generation.

Keywords : Alisher Navoi’s works : “ Hayrat-ul abror “ , “ Saddi Iskandariy “ .

So‘z mulkining sultoni bo‘lmish Alisher Navoiy asarlarining barkamol avlod tarbiyasidagi tutgan o‘rni beqiyosdir. Jumladan, “ Xamsa” asarining 1-dostoni bo‘lmish “ Hayrat ul- abror” da u shunday yozadi:

Kimki jahon ahlida inson erur,
Balki nishoni anga iymon erur.[v]

Ya’ni, kim bu dunyoda inson deb yaralibdiki, iymonli bo‘lishi kerak, deydi. Negaki insonligimizning asosiy belgisi iymon hisoblanadi. “ Hayrat ul-abror “ dostonining 4- maqolatida shunday deyilgan:

Har kishining tavrig‘a loyiq kerak,
Surati holig‘a muvofiq kerak.
Kimki ulug‘roq anga xizmat kerak,
Ulki kichikroq, anga shafqat kerak.

Navoiy quyidagi satrlar orqali unib, o‘sib kelayotgan barkamol avlodga shunday deydi: har bir inson kattalarni hurmat qilishi, kichiklarga shafqat qilishi , o‘z ahvoliga yarasha insonlarga munosabatda bo‘lishi, insonlarning oldida o‘zini munosib tutishi, o‘rinsiz kulgudan o‘zini tiya olishi, odobini saqlashi kerak.

Yana bir maqolatda esa insonning hayotini jamiyat hayoti bilan bog‘laydi. Inson hayoti insonlar orasida kechadi. Haqiqiy inson yurt tashvishi bilan , elning g‘ami bilan yashaydi, deydi.

Odami ersang , demagil odami,
Oniki yo’q xalq g‘amidan g‘ami.

Haqiqatan ham har bir inson yurtim deb, Vatanim deb yonib yashashi kerak, uning har bir boyliklarini ko‘z qorachig‘idek asrab- avaylashi, Vatani uchun xizmat qilishi, xalqining tinchligi, osoyishtaligini o‘zining oromi, g‘amidan ustun qo‘yishi kerak.

Alisher Navoiy “ Xamsa” sining 2- dostoni bo‘lmish “ Farhod va Shirin” da ham qalbi pok, iymonli inson qiyofasini Farhod obrazida tasvirlab beradi. Alisher Navoiyning “ Saddi Iskandariy “ dostonining nasriy bayoni 40-bobida shunday deyilgan : Yigitlik chog‘idanoq mehnat va toatga bo‘ysungan kishining yulduzi naqadar qutlug‘! U avji o‘ynab-kuladigan paytida Tangri nimani buyurgan bo‘lsa, shuni qiladi.

U Tangri buyurgan ishni bajarmay, boshqa behuda ishlarga qo‘l urib, o‘z umrini o‘tkazmaydi. Axir bu kabi befoyda o‘yin-kulgilar besh-olti kunlik bo‘lib, oqibati yaxshilikka olib bormaydi. Senga Xudo tarafidan nasib qilmish ne’matlarning son-sanog‘i yo‘q. Sen ana shu ne’matlarning shukrini qilib

yashashing kerak. O‘spirinlik davri – mehnat-riyozat chog‘idir, qarilik esa u dunyoga ketish arafasidir. Baxtli va aqlli odam yosh umrini bekorga o‘tkazmaydi, qiladigan ishlarini qilib, murodiga yetmasdan – bu dunyodan ketmaydi. [v]

Ushbu bo‘limda har bir inson eng avvalo bu dunyoda yashayotganiga shukr qilishi , umrini bekorga o‘tkazmasligi, o‘qib - o‘rganish , izlanishdan hech qachon to‘xtamasligi haqida so‘z yuritilgan. Keyingi bobda bir ibodat qilmaydigan yigit haqida batafsil so‘z yuritilgan. Buni Alisher Navoiy bobomiz quyidagicha e’tirof etadi: bir ajoyib barno yigit bor bo‘lib, uning yuzi jozibali va qaddi ra’nodek go‘zal edi. U xoh qish va xoh bahorda bo‘lsin, bir lahza umrini maysiz, musiqasiz o‘tkazmas edi. U yigitning bir pok qalbli, nasihatgo‘y qo‘shnisi ham bo’lgan ekan. Ammo yigit qo‘shnisining nasihatlariga parvo qilmas, nasihatlariga javoban shunday derdi: Yigitlik chog‘i – o‘yin-kulgi, rohat qilish davri, qarilik esa -mehnat va toat-ibodat davridir. Yoshlikda qilingan hamma gunohlar kechiriladi, keyincha mehnat va ibodat qiladigan vaqt ham keladi, o‘shanda qilamiz,– derdi. Oxir-oqibat g‘ofil yigit o’z bemazmun uxlab o‘tkazgan kunlarini eslab pushaymon bo’ladi. “ Saddi Iskandariy” dostoni nasriy bayonining keyingi bobida yoshlardagi ayrim xususiyatlar to‘g‘risida so‘z yuritilgan : O‘spirinlik davrining odamlari ikki turga ajraladi: ularning birida aqlning quvvati oshsa, ikkinchisida nafs kuchlanib ketadi. Agar kishining aqli quvvatlanib – o‘sib borsa, u yaxshi ishlarga tomon yo‘l oladi. Lekin afsuski, olam kishilarida bundaylar oz, agar bo‘lsa, bunday aql egalari xalq o‘rtasida mumtoz va obro‘ egasi bo‘lardi. Agar nafsi aqlidan ustun bo‘lsa, uni tarbiya qilmoq kerak. Kimgaki, poklik ruhi madad berar ekan, uning ko‘ngliga aql shami nur sochib turadi. Bunday baxtga ega bo‘lgan kishilar juda oz bo‘lib, bori ham xalq o‘rtasida nodir hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Yo‘ldoshev Qozoqboy. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9- sinfi uchun darslik. Qayta ishlangan 3- nashri. /Qozoqboy Yo‘ldoshev, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo‘ldoshbekov; [Mas’ul muharrirlar: V.Rahmonov, K.Usmanova]. —T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2014. — 200 b.
2. **To‘xliyev, B. Adabiyot** [Matn] 11-sinf: darslik-majmua B. To‘xliyev [va boshq.], – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 200 b.

ALISHER NAVOIYNING “NAZM UL-JAVOHIR” ASARIDA NUTQ MADANIYATI VA SO‘Z HAQIDA QARASHLAR

Bekmuradova Iroda Zokir qizi
Samarqand davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” asaridagi notiqlik, nutq madaniyati va so‘z haqida qarashlar yoritib berilgan. Navoiyning so‘z qudratini eng buyuk qudrat deb hisoblashi, so‘zning muqaddasligi, uni amalda qo‘llash jarayoni bo‘lgan nutq faoliyati, notiqlik masalalari yuzasidan bildirgan mulohazalari lisoniy jihatdan tadqiq etilgan. Fikrlar shoir ruboiylari misolida dalillangan.

Kalit so‘zlar: so‘z, notiqlik, nutq madaniyati, nutqning kommunikativ sifatlari, nutq aniqligi, nutq to‘g‘riligi, obrazlilik.

Аннотация: В данной статье изложены взгляди Алишера Навои на ораторское искусство, культуру речи, речь в «Назм уль-джавахир». Лингвистически исследованы взгляди Навои на силу слова как величайшую силу, святость слова, активность речи в процессе применения слова на практике, вопросы ораторского искусство. Идеи доказываются на пример рубаи поэта.

Ключевые слова: ораторское искусство, культура речи, коммуникативные оссобенность речи, речевая точность, правилность речи, образность.

Abstract: This article describes Alisher Navoi’s views on oratory, speech culture and speech in “Nazm ul-jawahir”. Navoi’s views on the power of words as the greatest power, the sancity of the word, the procces of applying the word in practice,

and issues of public speaking have been linguistically studied. The ideas are proved by the example of the poet’s rubai.

Keywords: oratory, speech culture, communicative qualities of speech, speech accuracy, correctness of speech, imagery.

Nazm mulkining sultoni hazrat Alisher Navoiy ijodi nihoyatda boy ma’naviy xazinadir. Bu xazina so‘z qudratidan barpo bo‘lgan shunday binoki, uning har bir g‘ishtida so‘z, uning kuchi, uning jilvasi bor. Navoiy deyarli har bir asarida so‘z, so‘z qudrati, ta’rifi, so‘z odoblari, nutq madaniyati haqida o‘zining beqiyos qarashlari haqida to‘xtalib o‘tadi. Xususan, shoirning “Mahbub ul-qulub” asarining yigirma to‘rtinchi fasli “Nasihat ahli va voizlar zikrida” deb nomlanib, unda shoir voizlik san’ati, voizga qo‘yiladigan talablar borasida fikrlarini bayon etar ekan, voizning e’tiqodli, to‘g‘riso‘z, to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi bo‘lishi, tinglovchiga yangi ma’lumotlar yetkazuvchi bo‘lishi kerakligini aytib o‘tadi.

Xuddi shuningdek, “Nazm ul-javohir” asarida ham shoir o‘zining so‘z qudrati, nutq so‘zlash mahoratiga o‘z munosabatini bildirib o‘tadi. So‘zni o‘likka jon ato etguvchi, insonni hayvondan farqlab turguvchi bir ne’mat deb baholaydi:

So‘zdurki, nishon berur o‘lukka jondin,
So‘zdurki berur jong‘a xabar jonondin,
Insonni so‘z ayladi judo hayvondin
Bilkim, guhare sharifroq yo‘q andin. [1, 2-b]

Nutq madaniyati deganda, nutq so‘zlash, muomalaga kirishishning qoida va talablari nazarda tutilar ekan, agar masalaga lisoniy nuqtai nazardan qaraladigan bo‘lsa, bu eng avvalo, nutqning to‘g‘riligidir. Ikkinchidan esa, u uslubiy jihatdan silliq va ravon bo‘lishi kerak. Yaxshi nutq noaniqlikka, uzundoq-uzoq jumlalarga qarshi bo‘lishi, aniqlik va soddalik uniing o‘lchovi bo‘lishi lozim. [3, 6-b] Asarning 160 - Ayb ul-kalomi taviyluhu (Uzun gap – nuqsonli gapdir) ruboiysida nutq so‘zlash jarayonida suxandonga qo‘yiladigan talablar yoritilgan. Unga ko‘ra, suxandon gapni

cho‘zmasdan, qisqa, muxtasar bayon etishi kerakligi, aks holda tinglovchilar uchun bunday va’z ma’qul bo‘lmasligi, nuqsonli tuyulishi mumkinligi aytiladi:

Bermas tatvil chun suxandon so‘zga

Qil muxtasar ulcha bo‘lg‘ay imkon so‘zga

Ko‘p ayb topar kimsa farovon so‘zga

Chun chekti uzoqqa, yetti nuqson so‘zga[1, 36-b.]

Xuddi shu ma’nodagi 43- Javdat ul-kalomi fil-ixtisori(So‘zning yaxshisi – qisqadir) ruboiysida ham shoir nutqni gul kabi bezovchi narsa uning ma’nosidir va bu nutqning yaxshiligi qisqaligidadir deb hisoblaydi:

Har kisaki so‘z demak shiorida durur

Ma’ni guli nutqning bahorida durur

So‘zkim desun ulki ixtiyorida durur

So‘z yaxshilig‘i chu ixtisorida durur [1, 17-b.]

Har bir kishi jamiyatning qaysi qatlami vakili bo‘lishidan qat’i nazar boshqa bir kishi bilan so‘zlashadi va bevosita bunday muloqot jarayonida goh tinglovchi, goh so‘zlovchi sifatida ishtirok etadi. Suhbat qaysi mavzuda bo‘lmasin, u tinglovchining dilini og‘ritmaydigan, qo‘pollikdan holi bo‘lishi kerak. Asardan joy olgan 116-ruboiyda shoir bu masalaga to‘xtalar ekan, shirin so‘zlamoqlikka intilish, achchiq so‘zlamoqdan yiroq bo‘lish kerakligini uqtiradi:

Nutqungni ulusqa uylakim shahd ayla

So‘z talx demasga haq ila ahd ayla

Joningni mahzu xudo uchun mahd ayla

Jannat talabida jid bila jahd ayla. [1, 29-b.]

Shoir yana bir qancha ruboiylarida so‘z muloyimligi va “chuchuk”ligini a’lo ko‘rib, voizni hamisha muloyim so‘zlamoqqa chaqiradi. Chuchuk so‘z dushmanni do‘stga aylantiradi, ko‘ngilga xush yoqadi, so‘zning qattig‘i ko‘ngillarga ozor yetkazadi, deb uqtiradi:

Har kimki, chuchuk so‘z elga zohir aylar

Har nechaki ag‘yordurur, yor aylar

So‘z qattig‘i el ko‘ngliga ozor aylar

Yumshog‘i ko‘ngullarni giriftor aylar. [1, 42-b]

Achchiq so‘zni zaharga qiyoslagan holda, achchiq so‘zdan ko‘ra achchiq ovqat yaxshiroqdir, deydi:

Gar zahr bila kishiga kom o‘lsa achig‘

Yuz onchaki so‘z bila mudom o‘lsa achig‘

Har necha mazoq aro taom o‘lsa achig‘

Xushroqdurur andinki, kalom o‘lsa achig‘. [1, 18-b.]

Notiq tinglovchilarga muayyan mavzuda nutq so‘zlar ekan, u albatta, aqliy bilimlariga tayanadi. Bunda u aqliy tafakkuridan kelib chiqib fikrlaydi va so‘z boyligidan o‘rin olgan so‘zlar vositasida bu fikrni bayon etadi. Navoiy kishining so‘zlagan so‘zini uning “aqlining dalili” deb biladi va notiq nutq so‘zlash jarayoniga aqliy bilimlari doirasida yondashish kerak deb hisoblaydi:

Odamki, demak bila kiromiyduru bas,
So‘z durri ishining intizomiduru bas,
Sihhat onchaki, ahli aql komiduru bas
Aqlig‘a dalil aning kalomiduru bas. [1, 21-b.]

Ta’kidlash joizki, Navoiy hamma vaqt so‘z qudratini eng buyuk qudrat deb hisoblaydi. Shoirning so‘zning muqaddasligi, so‘zni amalda qo‘llash jarayoni bo‘lgan nutq faoliyati, notiqlik masalalari yuzasidan bildirgan mulohazalari nafaqat o‘z davri, balki hozirgi zamon uchun ham dolzarb bo‘lib, inson bilimi, ta’lim tarbiyasi kamoloti uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Nazm ul-javohir. 51 b.
2. Навоий асарлари луғати. / Тузувчилар: П. Шамсиев, С. Иброҳимов. – Тошкент, 1972, 782 b.
3. Omonturdiyev A., Abduraimova Sh. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati. – Toshkent, 2016, 95 b.
4. www.ziyouz.com

ALISHER NAVOIYNING INSON KAMOLOTIGA TA’SIR ETUVCHI TA’LIMIY-AXLOQIY QARASHLARI

Nuriddinova Azizaxon Bahromjon qizi
Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy hayot yo‘li, o‘z asarlarida tarbiyaviy-axloqiy qarashlari, komil inson tushunchasiga bergan ta'riflari bayon etilgan.

Аннотация: В данной статье рассказывается о жизни Алишера Навои, его просветительских и нравственных взглядах в его произведениях, его определениях понятия совершенного человека.

Annotation: This article describes the life of Alisher Navoi, his educational and moral views in his works, his definitions of the concept of a perfect man.

Kalit so‘zlar: hokimiyat, amir, ko‘kaldosh, devon, meros, porsolik, pokdomonlik, haqparastlik, tavoze, hunar.

Ключевые слова: авторитет, эмир, кокалдош, девон, наследство, убеждение, целомудрие, честность, смирение, профессия.

Keywords: authority, amir, kokaldosh, devon, inheritance, persuasion, chastity, honesty, humility, profession.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va taffakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g‘ururi, sha’n -u sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san’atkoridir. Ta’bir joiz bo‘lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so‘zlovchi biron bir inson yo‘qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e’tiqod bilan qaramasa. Alisher Navoiy 9-fevral 1441-yil Amir Temurning o‘gli

Shohruh Mirzo shohligi davrida Hirotda tug‘ildi. Zamondoshlari uning haqida ko‘pincha „Nizomiddin Mir Alisher“ deb yozadilar. 'Nizomiddin"-din-diyonat nizomi degani bo‘lib, donishmand mansab egalariga beriladigan sifat, „mir“ – amir demakdir. Uning otasi G‘iyosiddin Muhammad (uni G‘iyosiddin Kichkina ham der edilar) temuriylar saroyining amaldorlaridan, xonadonning ishonchli kishilaridan edi. Onasi amirzoda Shayh Abusaid Changning qizi bo‘lgan, ismi ma’lum emas. Alisherning bobosi Temurning o‘g‘li Umarshayx bilan emikdosh (ko‘kaldosh) bo‘lgan ekan.

Buyuk shoir o‘z asarlarida bu qutlug‘ dargohga yaqinligidan iftixor etishini bayon qiladi. Shuningdek, uning tarjimai holiga oid ayrim lavhalar asarlarida uchraydi. Bu tabarruk zot to‘g‘risidagi ba’zi ma’lumotlarni esa uning zamondoshlari o‘z kitoblarida beradilar. G‘arbda chig‘atoy adabiyotining buyuk vakili deb qaraladi, sharqda „nizomi millati va din“ (din va millatning nizomi) unvoni bilan ulug‘lanadi. Alisher Navoiy o‘zining donishmadnligi, tadbirkorligi bilan ko‘plab g‘alayon-u qon to‘kishlarni oldini oldi, urushlarni yarashga aylantirdi.

Uning bu fazilati, ayniqsa, 1472-1476-yillardagi vazirlik faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ldi. Husayn Bayqaro hokimiyat ishlarida Navoiyning aql va sadoqatida tayanib ish ko‘rdi. Uni, qarshiligiga qaramasdan, yuqori martabalarga tayinladi, 1472-yilda esa „amir“(vazir)likka qo‘ydi. Buyuk shoir „amiri kabir“ (ulug‘ amir), „amirul muqarrab“ (podshoga eng yaqin amir) unvonlariga musharraf bo‘ldi. Uning vazirlik yillari Hirotda obodonlik avj olgan, madaniyat gullab, yashnagan davr bo‘ldi. Ulug‘ amir o‘zi bosh bo‘lib, suvsiz yerlarga suv chiqardi, eski ariqlarni tozallatirdi, yangi kanallar qazdirdi. Eski binolarni ta’mir qildirib, yangilarini qurdirdi. Qanchadan-qancha madrasalar, xonahoqlar soldirdi. Navoiy ham davlat siyosatini ham ijodni bir jabhada olib bordi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I. Karimov ham “Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning

sultonidir” deya ta'kidlab o‘tganlar. Sharq xalqlarining adabiyoti qanchalik chuqur o‘rganilsa, bu xalqlar orasidagi adabiy aloqalar ham shunchalik ravshanroq ko‘rina boradi. Adabiy aloqalarning o‘rganilishi esa dohiy san’atkorlarning, adabiy maktab vakillarining ijodiy qudratini , ta’sir doirasini aniqlash uchun to‘laroq tasavvur beradi. Bu jihatdan Navoiy merosini o‘rganish alohida ahamiyatga egadir.

Chunki Alisher Navoiy she’rni, shoirlikni hamma narsadan baland tutdi. Vazirlik martabasida turib ham she’r yozishni to‘xtatmadi. Atrofidagilar uning bu ishiga rag‘bat va hurmat bilan qaradilar. Shoh Husayn Bayqaroning o‘zi unga rahnamolik qildi. Ulug‘ shoirning ilk she’riy devonini muxlislari tuzgan bo‘lsalar, birinchi devoni — „Badoye ul-bidoya“ („Badiiylik ibtidosi“)ni 1472-1476-yillarda shohning amri va istagiga ko‘ra o‘zi kitob qildi. 1485-1486-yillarda ikkinchi devon — „Navodir un-nihoya“(„Nihoyasiz nodirliklar“) maydonga keldi. Alisher Navoiy 1481-1482-yillarda „Vaqfiya“ asarini yozadi. Vaqf deb biror xayrli ishning sarfu xarajatini ta’min qilmoq uchun ajratilgan yer yoki mulkka aytiladi. Alisher Navoiyning eng katta orzusi doston yozish, birinchi navbatda, XII asrning buyuk shoiri Nizomiy Ganjaviy (1141-1209) dan keyin shoirlik qudtarining mezoniga aylanib qolgan „Xamsa“ yaratish edi. Nizomiyning „Panj ganj“ nomi bilan tarixga kirgan „Xamsa“si 5 masnaviydan tashkil topgan edi: „Maxzan ul — asror“(„Sirlar xazinas“), „Xusrav va Shirin“, „Layli va Majnun“, „Hayf paykar“(„Yetti go‘zal“), „Iskandarnoma“. Yuz yildan keyin unga Xusrav Dehlaviy (1253-1325) javob qildi. U o‘z dostonlarini „Matla ul-anvor“ („Nurlar boshlanishi“), „Shirin va Xusrav“, „Majnun va Layli“, „Hasht behisht“(„Sakkiz jannat“), „Oynayi Iskandariy“ (Iskandar oyinasi) deb ataladi. Lekin bular hammasi forsiy tilda yozildi. Ulardan forslar, shu tilni bilganlargina bahramand bo‘ldilar. O‘z xalqining shunday hazinadan bebahra qolishi Navoiyni qiynadi va yozishga kirishadi. besh dostonni ikki yilda tamomlaydi. 1483-yilda o‘z „Xamsa“sini yoza boshlab, 1485-yilning boshida yugatadi. Shoir ishlagan kunlar hisobga olinsa, 54 ming misralik ulkan obida 6 oyda bitkaziladi. Turkiy tilda birinchi marotaba Xamsa“ yaratiladi.

Alisher Navoiy turk dunyosi adabiyotining eng mashhur vakilidir .Chunki hech kim bu til va adabiyotning ravnaqi uchun uningdek xizmat qila olgan emas. Navoiy ijodi turkiy adabiyotning eng yuksak cho‘qqisidir. Chunki hech kim unga qadar bu tilde bunchalik ko‘p va xo‘p (Bobur) yozmagan edi. Navoiy barcha xalqlarning eng buyuk shoiridir. Chunki u o‘zini “Xito(y)dan to Xuroson” gacha yoyilgan turkiy qavmlarning o‘z shoiri, deb bildi. Ularni bir adabiy til bayrog‘i ostida birlashtirdi, “yakqalam” qildi.Bu bilan millatning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy ravnaqiga buyuk ta’sir ko‘rsatdi. Navoiy asarlarining umuminsoniy g‘oyasi - insonparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik, do‘stlik, tinchlik, mehr va sadoqat, pok sevgi va vafo, ma’rifatlilik kabi go‘zal tuyg‘ularning yuksak badiiy shaklda ifodalashi orqali o‘zbek adabiyoti shuhratini dunyo miqyosiga olib chiqdi. Buyuk alloma, shoir Alisher Navoiy umuminsoniy tarbiya sohasida bir butun asar yaratmagan bo‘lsa ham, o‘zining bu haqidagi fikrlarini turli ilmiy va adabiy asarlarida ifodalagan. Alisher Navoiy o‘zining umuminsoniy tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini badiiy asarlarida barkamol inson obrazini yaratish yo‘li bilan bayon etdi. Alisher Navoiyning ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g‘oyalari bosh o‘rinda turadi. Alisher Navoiyning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrlidir. Alisher Navoiy o‘z davridagi barcha sof vijdonli insonlarning manfaatini himoya qildi. U inson uchun zarur bo‘lgan umuminsoniy axloq qoidalarini o‘rgandi, asar qahramonlari obrazida o‘z qarashlarini aks ettirdi. Alisher Navoiy odamlarni axloqli va odobli bo‘lishga da’vat etadi hamda axloqni bunday ta’riflaydi: “ Ahloq shaxsning og‘ir baqolig‘ libosidir va libos jismning sangin debosi. Shuning bilan birga odamni bezaydigan ham axloqdir”.

Alisher Navoiyning fikricha, inson uchun toj, davlat va boshqalar emas, balki eng yaxshi fazilatlar har qanday boylikdan afzaldir. Alisher Navoiy xalqqa ish bilan ham, so‘z bilan ham foyda keltirish kerakligini aytadi. U xalq manfaati uchun ishlaydigan, xalqning baxt-saodati uchun kurashadigan kishilarni haqiqiy odam deb biladi:

Odami ersang demagil odami,
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

Xalqqa yordam berishni istamaydigan, xudbin, qora ko‘ngil odamlarni Alisher Navoiy eng yomon odam, xalqqa zarar yetkazadi deb ta’riflaydi.

El qochsa birovdin el yomoni bil oni,
Ahvolida idbor nishoni bil oni.
Fe’l ichra ulus bolam joni bil oni,
Olam elining yomoni yomon bil oni.

Insonlar bir-birlari bilan do‘st-inoq va hamjihat bo‘lib yashamas ekanlar, o‘z orzu-niyatlariga yeta olmaydilar, yakkalik, yolg‘izlik bilan hech qanday ish qilib bo‘lmaydi, shuning uchun ham u hamma insonlarni do‘st bo‘lib yashashga chorlaydi. Alisher Navoiy do‘stlikni ulug‘laydi, shu bilan birga soxta, g‘araz bilan do‘st bo‘luvchi kishilarni qoralaydi.

Navoiy ilm-ma’rifatni qadrlagan va unga homiylik qilgan. Shoir insonning ma’naviy kamolotini, avvalo, uning ilm va donish sohibi bo‘la olganligida deb biladi. Ilm o‘zidan o‘zi bo‘lmaydi, kishi faqat havas va ishtiyoq bilangina ilmga ega bo‘la oladi, deb hisoblaydi.Alisher Navoiy hikmatlarida olam- olam ma’no mujassamdir. Uning hikmatlarida ilm-ma’rifat, mehr- oqibat, insoniylik kabi masalalar markaziy o‘rinni egallaydi.

Birovkim qilsa olimlarga ta’zim,
Qilur go‘yoki payg‘ambarga ta’zim.

Shoir olim ahlini qadrlaydi, ulug‘laydi.Olimlarga ta’zim qilish- payg‘ambarga ta’zim qilsh bilan barobar ekanligini ta’kidlaydi. Jumladan:

Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur,
Qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur.

Navoiy kishi bilimga ega bo‘lishi uchun oz-ozdan o‘rganib borishi lozimligini, bilimlari yig‘ilib ma’lum ko‘nikmaga ega bo‘lishi mumkinligini yozadi va buni tomchi-tomchi sivlar yig‘ilib daryoga aylanishiga o‘xshatadi. Haq yo‘linda kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,

Aylamak bo‘lmas ado aning haqin yuz ganj ila.

Ushbu jumlalarda birinchi ustoz haqida gap boradi. Ilk ustoz tolibiga savod chiqarishida ko‘maklashadi, bu bilan uning hayot yo‘lini- to‘g‘ri yo‘lni belgilab beradi.Ustozning bu xizmatini yuzlab xazinalar bilan ham to‘lay olmaslikni Navoiy shu ikki misrada bayon qiladi.

Alisher Navoiy insonga birinchi navbatda hayotdagi amoliga qarab baho beradi. Odamiylikning mezoni bu – porsolik (taqvodorlik), pokdomonlik va haqparastlikdir. Uyg‘oq qalb sohibi nazdida har qanday holatda ham to‘g‘ri so‘zni ayta olgan, haqiqat tarafida turib harakat qilgan kishigina inson nomiga munosib. Aksincha, sharoitga qarab o‘zgaraverish, o‘z shaxsiyatini asrab, haq gapni aytishdan qo‘rqish -bu imonsizlik belgisi. Yaxshilikka davogarlik qilgan holda yomonlar hayliga ham she’rik bo‘lib ketaverish -bu munofiqlik namunasidir.

Aytish lozimki, Navoiy insonga tanbeh berar ekan, avvalo o‘z hayotiy kuzatishlariga asoslanadi. Pok e’tiqodi, ijtimoiy qarashlari taqozosiga ko‘ra mulohaza yuritadi. Ulug‘ inson tafakkurining hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan xulosaviy fikr -mulohazalari xalqning “Yaxshiga yondosh, yomondan qoch”, “yaxshi bilan yurding yetding murotga, yomon bila yurding, -qolding uyatga”, “Yaxshi odam yo‘ldoshidan

bilinar”, “Do‘sting kimligini aytsang, sening kimligingni aytaman” kabi maqollar bilan butunlay mushtarakdir. Uyg‘oq qalb sohibi nazdida yaxshi inson yoki yaxshilik tushunchasining ma’nosi nihoyatda keng bo‘lib, unda imon va etiqod, odat va hayo kabi inson zotini bezaydigan go‘zal fazilatlar jamuljam bo‘lgan. Odamiylikning mezoni bu faqat o‘zi uchun emas, balki, o‘zgalar manfaati , xalq g‘am- tashvishi bilan yashashdir. Binobarin, axloq targ‘ibotchisining navbatdagi tanbehi ham yaxshilik xususida:

Bahlning andoqki, butun topqoni zaxira bo‘lg‘ay, tong va qabri ham bu kungi maoshi uyidek tiyra bo‘lg‘ay.Zuhdu taqvo barcha vaqtda dilpisanddur, ulug‘lar nazarida arjumandroq . Yaxshiliq va yomonliqni kim qildikim, jazo ko‘rmadi. Saloh va fasod tuxmin kim ekdikim, o‘rmadi”.

Shoir insonga xos qusurlar va hislatlar haqidagi fikrini quyidagi bayt bilan yanada oydinlashtiradi va qissadan hissa chiqaradi:

Yaxshiliq tuxmin sochg‘ilkim budur dehqong‘a so‘z,
Har nekim ekding bugun borin hamon tut oning ko‘z.

Alisher Navoiy ilm o‘rganishga intilishni inson kamolotini ta'minlash uchun xizmat qiluvchi eng zarur fazilatlardan biri deb biladi. Ilmni insonni, xalqni nodonlikdan, jaholatdan qutqazuvchi omil sifatida ta'riflaydi. Asarlari mazmunida ilgari surilgan g‘oyalar yordamida kishilarni ilmli va ma'rifatli bo‘lishga undaydi. Mutafakkir ilm o‘rganishni har bir kishining insoniy burchi deya e'tirof etadi. Zero, ilm o‘rganishdan maqsad ham xalqning farovon, baxtli-saodatli hayot kechirishini, mamlakatning obod bo‘lishini ta'minlashga hissa qo‘shishdir, deya ta'kidlaydi. Bilimli va dono kishilar hamisha o‘z xalqining manfaati hamda mamlakatining ravnaqi yo‘lida faoliyat olib borishlariga ishonadi.

Mazkur o‘rinda Mirzo Ulug‘bekni ana shunday xislatga ega bo‘lgan kishilardan biri bo‘lganligiga urg‘u beradi hamda uning nomi tarix sahifalarida

abadiy saqlanib qoladi, deb hisoblaydi. Alisher Navoiy orzu qilgan komil inson faqat ilmli bo‘lish bilan qanoatlanib qolmaydi. Uni yetuk inson sifatida ta’riflash uchun unda, yana shuningdek, sabr-qanoat, saxiylik, himmat, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, tavoze, adab, vafo va hokazo sifatlarning ham mavjud bo‘lishi taqozo etiladi. Alisher Navoiy o‘zining umuminsoniy tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini badiiy
asarlarida barkamol inson obrazini yaratish yo‘li bilan bayon etdi.

O‘zbek xalqining ulug‘ mutafakkiri, ma’rifatparvari va buyuk shoiri Alisher Navoiy yoshlarni tarbiyalash ishiga alohida e’tibor berdi. U bolalarni ilm-hunarni, mehnatni sevishga undab, o‘rganilgan ilm va hunarni xalq, vatan yo‘lida sarf qilish zarurligini uqtirdi.

Alisher Navoiy ilm, ma’rifat haqida ajoyib fikrlarni olg‘a surdi. U aql, ilm insonning eng go‘zal va zaruriy fazilatlaridan biri, har bir kishining eng muhim burchi ilm olishdir, deb hisobladi. Navoiyning fikricha, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan boshlab astoydil o‘qish-o‘rganish kerak: “Yoshligingda yig‘gil bilimni, qarigach sarf qilg‘il ani”, degan shoirning o‘zi ham juda yoshligidan ta’lim oladi, o‘qishga beriladi. U yoshligidanoq ko‘p she’rlarni yod bilgan. Jumladan, Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” (“Qush nutqi”) asarini bolalik chog‘laridayoq qayta-qayta o‘qib, yod olgan. Alisher Navoiy keyinchalik maktab va maorif masalalariga katta ahamiyat berdi. U mehnatkash xalq bolalarini o‘qitish va tarbiyalash uchun maktablar ochish va madrasalar qurish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qildi. Alisher Navoiy Astrobodda surgunda yurganida podsho Husayn Boyqaroga yozgan xatida o‘g‘il va qiz bolalar uchun maktablar ochishni talab qilgani, shaxsan o‘zi madrasalar qurishda tashabbus ko‘rsatgani buning yaqqol dalilidir. Navoiyning fikricha, maktab xalqqa nur keltiradi, unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi, bolalarni bilimli qiladi. U o‘zining “Ixlosiya” madrasasi yonida maktab ochib, bolalarni o‘qitish va tarbiyalash uchun zarur sharoit yaratib, buning uchun lozim bo‘lgan mablag‘ ajratadi. Navoiy dars beruvchini quyoshga o‘xshatadi va bu quyosh o‘z atrofidagi yulduzlarga nur sochadi, ya’ni hali ilmdan bexabar bo‘lgan toliblarga ilm nurini sochadi, ma’rifat beradi, deydi.

Mutafakkir axloqlilikning eng muhim mezoni odob deb hisoblaydi. Odobli, axloqli bo‘lish insonga atrofdagi kishilar o‘rtasida muayyan mavqe hamda hurmatga sazovor bo‘lishga yordam beradi. Odobga ega bo‘lishning inson hayotidagi rolini ko‘rsatib berar ekan, Alisher Navoiy shunday fikrlarni ifoda etadi: “Adab kichik yoshdagilarni ulug‘lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod bahramand bo‘ladi. Adab, kichkinalar mehrini ulug‘lar ko‘ngliga soladi va u muhabbat ko‘ngilda abadiy qoladi”.

Alisher Navoiyning asarlaridagi Farhod, Shirin, Layli, Dilorom, Qays, Shopur kabi ijobiy qahramonlar umuminsoniy tarbiya asosida tarbiyalanganlar, kamtarin, odobli, or-nomusli insonlardir. Bu qahramonlar orqali yoshlarni ulardan ibrat olishga chorlaydi.

Alisher Navoiyning barcha asarlari yoshlar tarbiyasi uchun muhim xazina hisoblanadi. U o‘z asarlarida har bir so‘zdan unumli va o‘rinli foydalana olgan. Har bir hikmati biz uchun ibratlidir. Alisher Navoiyning hayoti va merosi yoshlarda umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalashda bizga har tomonlama namuna bo‘ladi. Ulug‘ shoir o‘zining ta’lim-tarbiyaga oid fikr-mulohazalari bilan barkamol avlod tarbiyasiga katta hissa qo‘shdi, umuminsoniy fazilatlar to‘g‘risidagi fikrlari hozirgi davrimiz uchun ham muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ALISHER NAVOIY. HIKMATLAR (BOLALAR UCHUN) –T.: A.QODIRIY NOMIDAGI XALQ MEROSI NASHRIYOTI, 1999.
2. KARIMOV I.A.YUKSAK MA’NAVIYAT – YENGILMAS KUCH. –T.: MA’NAVIYAT,2008.
3. QAYUMOV A. ALISHER NAVOIY (MASHHUR SIYMOLAR HAYOTI). –T.: KAMALAK, 1991.

4. ALISHER NAVOIY. XAMSA: HAYRATUL-ABROR, FARHOD VA SHIRIN, LAYLI VA MAJNUN, SAB’AI SAYYOR, SADDI ISKANDARIY. –T.: G‘.G‘ULOM NOMIDAGI ADABIYOT VA SAN’AT NASHRIYOTI, 1986. B.423.

FOYDALANILGAN INTERNET MA’LUMOTLARI:

1. HTTPS://HOZIR.ORG/ALISHER-NAVOIYNING-TALIMIY-AXLOQIY-QARASHLARI-GOYIBBOYEVA-RAYH.HTML
2. HTTPS://UZ.M.WIKIPEDIA.ORG/WIKI/ALISHER_NAVOIY

ALISHER NAVOIYNING TASAVVUFIY ASARLARI

Shomurodova Diloromxon Bobomurod qizi

Toshkent Pediatriya Tibbiyot instituti

Annotatsiya: Mazkur tezisda ulug’ o’zbek va boshqa turkiy xalqlarning shoiri, buyuk mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiyning tasavuffiy qarashlari aks etgan asarlari tahlil etilgan.

Annotation: This thesis analyzes the works of the great uzbek and other turkic nations poet, great thinker and statesman Alisher Navoi, reflecting his mystical views.

Аннотация: В данном тезисе анализируются мистические воззрения великого узбекского и других тюркских народов, поэта, великого мыслителя и государственного деятеля Алишера Навои.

Kalit so’zlar: Tasavvuf, asarlar, mutafakkir, shoir, muhabbat.

Keywords: Sufism, views, thinker, poet, love.

Ключевые слова: Суфизм, произведения, мыслитель, поэт, любовь.

Buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiyning barcha asarlari o’z davrida ham, hozirgi kunda ham kitobxonlar tomonidan sevib mutoala qilinadi. Barcha uning “Xamsa” asarini biladi, ammo uning tasavvufiy asarlari haqida ko’pchilik eshitmagan. Aslida Alisher Navoiyning tasavvufiy qarashlari barcha asarlarining ruhiga singigan bo’lsada, “Lison ut-tayr” dostonida, “ Nasoyim ul-muhabbat” da, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Arbain”, “Munojot” kabi asarlarida aks etgan.

Bu asarlar ham kitobxonlar tomonidan sevib mutoala qilinadi, ayniqsa “Lison ut-tayr” va “Nasoyim ul-muhabbat” asarlaridagi tasavvuf juda ham go’zal ishlatilgan.

Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarida “Parvonalar majmu’i sham’ haqiqati sharhida” degan hikoyat bor. Unda keltirilishicha, parvonalar bir kecha yig’ilishib, sham’ga tolib bo’ladilar; kelishib olib, sham’ning mohiyatini anglamoqchi bo’ladilar.

Shunda ulardan biri sham’ga yaqinlashadi, uning munavvar nurini ko’rib, qaytib kelib boshqalarga hikoya qilmoqchi bo’ladi. Ammo parvonalar uning so’zidan hech narsa anglamaydilar, chunki u sham’ nima ekanini tushuntirib bera olmaydi. Shu zaylda yana bir necha parvona sham’ atrofini aylanib kelib, ko’rganlarini so’zlaydilar. Lekin “topmadi mushkul kushod andin dog’i”, maqsad amalga oshmaydi.

Sham’ davrida qanot ko’p urdilar,
Har biri o’z bol-parin kuydurdilar.
Har biri kuygancha ondin gopdi kom,
Sharhi dushvor erdi-yu naqli harom.

Tasavvufiy asarlar ko’pincha mazmuni og’irroq bo’ladi. Lekin Alisher Navoiy masalani murakkablashtirmaydi. Aksincha, har qanday murakkablik va qiyinchiliklarni oson hal qilish usullarini ko’rsatib beradi.

Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarida eng ko’p tilga olingan kitoblardan biri Ali bin Usmon Jo’llobiy Hujviriyning “Kashf ulmahjub”idir. Bu nodir asar Sharq tasavvuf adabiyotini namoyon etishda ham alohida ahamiyatga ega. “Kashf ulmahjub”da Alisher Navoiy shunday so’zlar yozgan: “Vujud uchun ruh nima bo’lsa, vaqt uchun ham hol shudir. Vaqt mutlaqo holga muhtoj erur. Chunki vaqtning safosi hol ila bo’lur... . Hol vaqtga birlashgach, butun zamonlar vaqtga aylanur. Uning uchun zavol joiz bo’lmas”. Ba’zi manbalarda qayd etilishicha, Muhammad alayhisalom payg’ambar bo’lganlaridan so’ng har maqom sohibi uchun bir hol paydo bo’lgan. Holni Abu Nasr Sarroj “lahzada tug’ilib, qalbda rizo, tafiz va shunga o’xshash sifatlarni barqarorlashtiradigan ahvoldir”, degan.

Alisher Navoiy nazdida ham ruhning quvvatini va quvonchini aks ettiruvchi hol eng sharafli amal sanalgan. Alisher Navoiyning tasavvurida Hol va Vaqt hissiy idrokning va zavqiy mushohadaning bir me’roji bo’lgan. Shuning uchun ham buyuk shoirning she’riyatidagi ko’p fikr va tuyg’ular Hol darajalari (xavf, rajo, sidq, hayo va hokazolar) va ularni navbatma-navbat egallash natijasi o’laroq talqin qilingandir.

O`zbekiston mustaqillikka erishganidan so`ngnavoiy asarlarini diniy va so`fiylik jihatidan o`rganish kengaydi, ular ob’ektiv va ilmiy bahosini olmoqda. «arbain», «munojot» kabi asarlari chop etildi. Jomiyning «nafahotul-uns min hazarotil-quds» tazkirasini tarjima qilib va to`ldirib, so`z yuritilgan 618ta shayxlar sonini 770 taga yetkazdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I.haqqulov. Tasavvuf va she’riyat. — t.: 1991;
2. N.komilov. Tasavvuf. -t.: 1996;
3. I.haqqulov. O‘zbek tasavvuf she’riyatining shakllanishi va taraqqiyoti. Dda.-t.:1995.
4. 4. Https://uz.wikipedia.org ›

BUYUK MUTAFAKKIR ALISHER NAVOIY ASARLARIDA RANGLAR JILOSI

Xo’jamova Gulsevar Abdullajon qizi,
Andijon davlat universitetining Pedagogika institute

Annotatsiya: Men ushbu maqolamda, buyuk mutafakkir, shoir, yirik davlat arbobi Alisher Navoiy ijodining salmoqli qismini egallaydigan nasriy asarlari haqida to’xtalib o’tmoqchiman. Maqola yozish jarayonida o’z davrining buyuk shoiri va mutafakkiri sifatida Navoiy nasrning o’ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilgani, uning imkoniyatlari she’riyatga nisbatan kengroq ekanligini tushunganligi uchun ma’lum maqsadlar bilan nasrga murojaat qilingani bilan, nasriy asarlarning yozilish sabablari va unda qo’yilgan masalalarni ochib berishga harakat qildim.

Kalit so’zlar: ma’naviy hayot, nasr olami, go’zal fazilat, yuksak intilishlar, umumiy xususiyatlar, portret yaratish, ranglar timsoli, nur taratuvchi oy, qizil rang, so’z birikmalari, zulfi kofuriy, hijron, g’izolai mushkbuyi, poklik, sevgi.

Annotation: In this article, I would like to dwell on the prose works of the great thinker, poet, statesman Alisher Navoi, which occupy a significant part of his work. In the process of writing the article, Navoi, as a great poet and thinker of his time, was well aware of the peculiarities of prose, and realized that its possibilities are wider than poetry. I tried to explain the issues.

Keywords: Spiritual life, the world of prose, beautiful virtues, lofty aspirations, general features, portraiture, symbolism of colors, radiant moon, red, phrases, camphor, hijran, purity, love.

Аннотация: В данной статье хотелось бы остановиться на причинах написания прозаических произведений, которые занимают значительную

часть творчества великого мислителя, поэта, государственного деятеля Алишера Навоий. В процессе написания статьи Навоий, как великий поэт и мыслитель своего времени, хорошо осознавал особенности прозы, иосознавал, что ее возможности шире, чем поэзия, я попытался разъяснить вопросы.

Ключевое слова Духовная жизнь, мир прозы, хорошее качество, высокие устремления общие характеристики**,** создать портрет**,** символ цветов**,** сияющая луна, красный свет, фразы, любовь.

Alisher Navoiy xalqimizning ong va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g’ururi, sha’nu sharafini dunyoga tarannum qilgan o’lmas so’z san’atkoridir.

ISLOM KARIMOV

“Bugungi shiddatli davrda chinakam ma’naviyatli va ma’rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o’z milliy qadriyatlarini, milliy o’zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o’ziga munosib o’rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurasha olishi mumkin…” Bu teran fikrlar O’zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida aks etgan. Uning butun ijodi asrlar silsilasida Hazrati insonni avaylashga, asrashga, himoya qilishga qaratilgani bilan nihoyatda ahamiyatli va e’tiborli bo’lib qolaveradi. Negaki, Inson adashsa, o’zligini unutsa, kibr va nafsga berilsa, jamiyat xavf ostida qoladi. Undan adolat qochadi, razolat hukmiga o’tadi. Botinidagi gavhar - adabga dog’ tushadi. Tafakkuridagi ezgulik javohirlari - tinchlikka bo’lgan e’zoz, bag’rikenglikka nisbatan ehtirom, ogohlikka asoslangan ishonch ildizi quriydi. Oqibatda mahdudlik, vaxshiy telbalik kishini xarob qiladi. Shuning uchun Inson himoyaga muhtoj. Uni ko’z qorachig’idek asrash, munosib ta’lim-tarbiya berish, ota-onaga, yurtga cheksiz muhabbat va sadoqat tuyg’ularini singdirish, yashashi uchun qulay turmush muhitini yaratish, ahvolidan xabardorlik,

aslo unutmaslik - Navoiy fikricha, dunyoni jaholat botqog’iga botib ketishdan asraydi. Ko’rinib turibdiki, Navoiy – odamiylik nomayi a’moliga munosib bo’lishga intilishni va bu intilish to qazon muqarrargacha, aniqrog’I, yer yuzining intihosiga qadar davom etishi lozimligini uqtirgan. Shundagina, bashariyat baxt - ne’matga erishadi. Jahon balolar girdobiga tushmaydi, farovon hayot, obod turmush kafolatlanadi. Alisher Navoiyning xayr-u saxovat, mehr-u muruvvat bobidagi faoliyatini tahlil qilar ekanmiz, uni xayru tabassumi, mehru muhabbat timsoli, homiylar homiysi bo’lgan zot, deyish mumkin. Saxovatni bir bog’ tarzida tasavvur etsak, Navoiy uning sohibi, bir saltanat desak, Navoiy bu saltanatning sultoni sifatida ko’z o’ngimizda gavdalanadi.

Alisher Navoiy “… umr bo’yi yetim-yesir, beva-bechora, nogiron va muhtojlarga muruvvat ko’rsatib kelgan. El-yurt uchun o’z hisobidan maktab-madrasalar, shifoxona va hammomlar, yo’l va ko’priklar, bog’-rog’lar bunyod etgan, ilm-fan va madaniyat ahlining chinakam homiysi bo’lgan bu Benazir zotning mana shuday savobli ishlarida har birimiz uchun ibrat va saboqlar bor emasmi?” Elim, deb, yurtim, deb yonib yashash - ulug’vor maqsad. Shu ma’noda Alisher Navoiyning mana bu misralari ham ayni dilimizdagini ifodalagani bilan alohida qadrlidir:

Kim qilsa imoratki, qadr topgay,

Chun ismi tarixlarda boqiy qolgay,

Ne choqqacha ul binoki ma’mur bo’lib,

Ani ismi el tiliga mashhur bo’lgay.

Haqiqat shuki, Alisher Navoiy e’zozi, ehtiromi biz uchun abadiy an’ana, farzandlik burchi, avloddan avlodga o’tguvchi muqaddas farzimiz. Zotan, davlatimiz rahbari aytganidek, shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o’zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug’ ajdodlarimizning merosini chuqurroq o’zlashtirishi, bugungi tez o’zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab,

mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha o’zgarishlarga daxldorlik tuyg’usi bilan yashashi zarur.

So’z san’atida turli ranglarni estetik maqsadlarda ifoda qilish shoirdan alohida iste’dod va katta mahorat talab etiladi. Shu jihatdan Alisher Navoiyning she’riyati, xususan, uning “Sab’ai sayyor” dostoni o’zbek adabiyotida muhim o’rin egallagan. “Sab’ai sayyor” dostonida ranglar timsoli Bahrom, Dilorom va yetti hikoyaga kirgan obrazlarni yaratishda muhim badiiy vositalardan biri vazifasini bajargan va asar mazmunini yanada chuqurroq ifodalash uchun xizmat qiladi. Ranglarning jilolari, ayniqsa, dostonga kirgan yetti hikoyada o’zining sezilarli o’rnini egallagan. “Sab’ai sayyor”ning hikoyalar qismida birinchi iqlimdan kelgan darvesh Qora qasrda shanba kuni va Zuhal (yoki Kayvon, Saturi) sayyorasi bog’lanib, qasrning rangi, Baxromning yurish-turishi va o’sha kungi barcha voqealar qora rang bilan tasvirlanadi.

Boshig’a solib ul qora gesu,

Har yuki soy-u bir qora qayg’u

Hatto she’riyatda ijobiy ma’noda qo’llanib kelinadigan “Qora gesu” (qora soch) kabi so’z birikmalari ham salbiy mzmunda ishlatiladi. “Sab’ai sayyor” dostonining uchinchi kun, ya’ni dushanba kuni. Bu yerda endi hamma narsa yashil rangda ifodalangan. Bahromning qadamranjida qilgan joyi Yashil qasr. Alisher Navoiy “Sab’ai sayyor” dostonining keying hikoyasi chorshanba kun bilan bog’langan.

Xulosa o’rnida aytganda, ranglar timsoli asarning boshlanishidan to oxirigacha ma’lum estetik tartibda bayon etilib, maqsad badiiy vositalar orqali yanada chuqur qilib o’quvchiga taqdim etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Karimov I.A.” Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” --Toshkent.: Ma’naviyat., 2008.
2. Navoiy asarlari lug’ati. Toshkent. 1972
3. Rajabova B. “Nasoyim ul-muhabbat” da onalar obrazi. O’zbek tili va adabiyoti. 2001,1-son
4. “ Abadiyat gulshani” - Toshkent.: Sharq.,2016

ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODI-HAMISHA BARHAYOT

Ergashev Baxtiyor Abloqulovich,
Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk siymolarning ijodi hamda faoliyatining o‘zbek xalqi va adabiyotidagi o‘rni haqida fikr yuritilgan. Bu ikki ajdodimiz haqidagi turli qarashlar va fikrlardan keltirilgan namunalar maqola mazmunining oshishiga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Bobur, ijod, ma’naviyat, g‘oya, mumtoz adabiyot, asar.

Аннотация

В данной статье рассматривается роль произведений таких великих деятелей, как Алишер Навои и Захириддин Мухаммад Бабур в узбекском народе и литературе. Примеры из разных взглядов и мнений об этих двух предках служат для увеличения содержания статьи.

Ключевые слова: Алишер Навои, Бобур, творчество, духовность, идея, классическая литература, произведение.

Annotation

This article ehamines the role of the works of such great figures as Alisher Navoi and Zahiriddin Muhammad Babur in the Uzbek people and literature. Ehamples from different views and opinions about these two ancestors serve to increase the content of the article.

Key words: Alisher Navoi, Bobur, creativity, spirituality, idea, classical literature, work.

Sir emaski, bugungi globallashuv davrida yoshlarni goh ko‘ngilochar kompyuter o‘yinlari, goh qiziqarli multfilmlar yoki sarguzashtnamo kitoblar shaklida kirib kelayotgan axborotlardan, dinimiz, yashash tarzimiz, qarashlarimizga zid bo‘lgan g‘oyalardan asrash masalasi kun tartibida turgan muhim mavzulardan biridir. Inson ongini asrash esa qalbni asrashdan boshlanadi. Buyuklardan biri aytganidek, qalb aynigan joyda butun vujud xastalikka yuz tutishi tabiiy. Xo‘sh, qalbni qanday asrash mumkin?

Aytish mumkinki, mumtoz adabiyot javohirlar koni. Bu xazinaga tushganlar axloq-odob jannatiga tushadilar va haqiqiy adabiy-estetik lazzat tuyadilar, his-tuyg‘ulari, mushohadalari barkamol shaxs bo‘ladilar. Bu o‘rinda bizga boy adabiyotimiz, uning umrboqiy mavzulari, inson kamolotiga doir o‘lmas asarlar yordamga keladi. Xususan, o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixidagi ikki buyuk siymo – Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini o‘rganish orqali chinakam inson hayoti qanday bo‘lishi kerakligi haqida yetarlicha tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Navoiy va Bobur asarlarining tub mohiyatiga yetish uchun ularni tushunib o‘qish kerak bo‘ladi. .

“Navoiy va Bobur asarlarining tub mohiyatiga yetish uchun ularni tushunib o‘qish kerak”. Bu – haq gap. Biroq buning hozircha iloji, imkoni juda oz. Buning uchun Navoiy va Bobur asarlarining asosiy qismi hozirgi o‘zbek adabiy tiliga tarjima qilinishi kerak.

Bobokalonlarimiz Navoiy va Bobur ham o‘z asarlari orqali barhayotdir chunki ular quyosh yang‘lig‘ so‘nmas sehrli badiiyat yaratdi. Bu ikki zamondosh shoir o‘z asarlarida yuksak insoniy tuyg‘ularni tarannum etdi. Mana shunday o‘lmas tuyg‘ulardan biri - bu Vatan tuyg‘usidir. Har ikki ijodkor lirik she’rlarida ham, epik asarlarida ham Vatan mavzusini mahorat bilan ulug‘ladi. Hatto Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” singari ilmiy asari ham yuksak vatanparvarlik ruhida

yaratildi. O‘zini “vatanga rahnamoye” bilgan Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida shunday degan edi:

Vatan tarkini bir nafas aylama,
Yana ranji g‘urbat havas aylama...

Ajabmaski, Navoiyning bu durdona fikrlari Boburga bashorat bo‘lib tuyulgan bo‘lsa. Bobur hali yurt ilhomlarini o‘z qalbiga to‘la oshno qilmay turib, o‘spirin chog‘laridanoq qo‘liga qilich tutganligi tarixdan yaxshi ma’lum. Boburning dilida saltanat ishqi, temuriylarning yagona qudratli davlatini tiklash havasi jo‘shib, tug‘yon qilardi. U bu harakati bilan o‘zaro qirg‘in-qabohatlarga barham bermoqchi bo‘ldi, lekin tarixning shafqatsiz to‘lqini uni Vatanidan badarg‘a etdi. Mana, shoirning o‘zi hasrat, afsus va nadomatlar bilan bu haqda nima degan edi:

Tole’ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki, ayladim - xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,
Yorab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi?!

Shoir umr bo‘yi Vatanni eslab, hijron o‘tlarida yonib, g‘ussaga ko‘milib yashadi. Bobur so‘nggi nafasigacha ona-yurt xayoli bilan yashadi. Shoir olis yurtlarda vatanini qo‘msab, ko‘plab ruboiylar yozdi. Muhimi shundaki, bu she’rlarning aksariyati bevosita Alisher Navoiy ijodidan ilhomlanib yaratilgan.

Sharqshunoslikda XV-XVI asr adabiy muhiti haqida gap ketganda, albatta, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hamda mashhur sarkarda, shoir Zahiriddin Muhammad Bobur haqida mulohaza yuritiladi. Chunki bu ikki shaxsning, nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki umumbashariy madaniyat taraqqiyotiga, jahon adabiyoti xazinasiga behisob hissa qo‘shganliklarini butun dunyo ahli e’tirof etib keladi. Xususan, Alisher Navoiy ijodini o‘rganish birgina O‘zbekistonda emas, balki dunyoning ko‘plab sharqshunos olimlari tomonidan uzoq yillardan beri tadqiq etib kelinmoqda. U haqda behisob asarlar yaratilganligi ham bejiz emas. Bugungi kunimizda Navoiy haqida ko‘p yozilyapti. Ilgarilari ham yozilardi, lekin bugungisi boshqacha. Bugun Navoiy butun bo‘y-basti bilan gavdalanmoqda. Xalqimiz o‘zining

bunday buyuk farzandiga ehtiromini izhor etish, uning nomini yanada abadiylashtirish yo‘lida ko‘p amaliy ishlarni ro‘yobga chiqarmoqda. Bunga har birimiz guvoh bo‘lib turibmiz. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu ulug‘ inson haqida quyidagilargni aytadi: “Mutafakkir shoirimizning “Odamiy ersang, demagil odami, Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami”, degan satrlarida qanchalik chuqur ma’no bor. Ya’ni, bu dunyoda insonlarning dard-u tashvishlarini o‘ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir. Xalqning g‘amidan uzoq bo‘lgan insonni odam qatoriga qo‘shib bo‘lmaydi, deb uqtirmoqda ulug‘ bobomiz”. Bu fikrlar buyuk Navoiyning insonparvarlik borasidagi xislatlariga berilgan buyuk bahodir. Navoiy bizga juda katta adabiy meros qoldirdi. Uning har bir asari va g‘azalida inson, uning orzu-umidlari tarannum etildi. Navoiyning ana shunday orzu-umidlaridan biri o‘zbek tilining takomili, uning butun bo‘y-bastini, go‘zalligini ko‘rsata olishi edi. Bugun biz Navoiyni “O‘zbek adabiy tilining asoschisi” deymiz. Navoiyga berilgan bu ta’rif o‘zbek adabiy tili taraqqiyotidagi beqiyos xizmatlarining e’tirofi sifatida xalqimiz tomonidan unga bildirilgan buyuk ehtirom va minnatdorlik ramzidir. To‘g‘ri, o‘zbek adabiy tili Navoiygacha ham mavjud bo‘lgan, bu tilda ham ko‘plab ijodkorlar qalam surganlar. Navoiy o‘zigacha yashab ijod qilgan barcha turkiygo‘y ijodkorlar tomonidan adabiylashtirilgan o‘zbek tiliga yangidan jon ato etib, u tilda ijod qildi, uni har tomonlama boyitib, juda yuksak darajaga olib chiqdi. Navoiy o‘zbek adabiy tili uchun kurash bayrog‘ini baland ko‘tarib, barcha asarlarini, xususan, buyuk “Xamsa”ni aynan shu tilda yaratdi. Bu haqda dunyoning ko‘pgina yirik olimlari o‘z samimiy fikrlarini aytganlar. Xususan, akademik N.I.Konrad «Markaziy sharq uyg‘onishi va Alisher Navoiy» nomli maqolasida Navoiy “Xamsa” sining yaratilishi bilan bog‘liq ajoyib bir holatni quyidagicha tasvirlaydi: “Bilasizmi, Navoiy “Xamsa”ni yozib tugallaganidan keyin qanday hodisa sodir bo‘lgan? U mazkur asarini ustozi va yaqin do‘sti Abdurahmon Jomiyga ko‘rsatmoqchi bo‘ladi, bunday qilishi kerak ham edi. Jomiy asarga bir nazar tashladida, bu uning uchun yetarli edi, shogirdining yelkasiga qo‘lini qo‘ydi. Shu onda Navoiy xayolan ajoyib bir bog‘da ulug‘ kishilar davrasida bo‘lgandek his etdi. Ulardan biri uning yoniga

keldi, u mashhur shoir Dehlaviy edi. Dehlaviy Navoiyga davradagi ulug‘ insonlarning u bilan suhbat qurish istagida ekanliklarini aytdi. Mana, Alisher oldida uch buyuk inson: o‘rtada – Nizomiy, o‘ng tarafda - Amir Hisrav, chap tomonda – Jomiyning o‘zi. Ularning ortida esa Firdavsiy, Unsuriy, Nosir Hisrav, Anvariy, Hoqoniy, Sanoiy, Sa’diylar saf tortishgan... Navoiy yelkasiga qo‘yilgan qo‘l ustozining qo‘li edi, Ustozning o‘z shogirdiga qilishi mumkin bo‘lgan samimiy munosabati va Navoiy “Xamsa”sining e’tirofi belgisi edi bu. Demoqchiki, u yaratgan “Xamsa” Navoiyni qanday buyuklar safiga olib keldi”. Bu so‘zlar mashhur olimning Navoiy dahosiga bo‘lgan e’tirofi namunasi edi.

Jahon madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo‘shgan o‘zbek xalqining yana bir buyuk farzandlaridan biri Zahiriddin Muhammad Bobur edi. Uning o‘lmas asarlari bugun ham o‘z qadrini zarracha yo‘qotmasdan, aksincha, avvalgidan ham qadr-qimmatga ega bo‘lmoqda. Bobur davlat arbobi, lashkarboshi bo‘lishi bilan birga shoir, adib va olim ham edi. Navoiydek ardoq va obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan Zahriddin Muhammad Boburning boy ijodiy merosi uzoq yillardan buyon o‘rganib kelinmoqda. Bobur Navoiy bilan bevosita uchrashmagan bo‘lsada, ular orasida iliq munosabat bo‘lgan. Bobir o‘z asarlarida Alisher Navoiyni yigirmaga yaqin o‘rinda tilga olgan. Xususan, “Boburnoma” da o‘qiymiz: “Bu ikkinchi navbat Samarqandni olg‘onda, Alisherbek tirik edi. Bir navbat menga kitobati ham kelib edi. Men ham bir kitobat yiborib edim... Hirot va Samarqand… Samarqand va Hirot…”

Bu shaharlar shunchaki Alisher Navoiy hayot kechirgan, faoliyat yuritgan shaharlar emas, balki Navoiy olamiga, u yashagan moziyga guvohlik bera olish huquqiga ega bo‘lgan muazzam shaharlardir.

Bobur Alisher Navoiyni benihoya hurmat va ehtirom bilan tilga oladi, uni e’zozlaydi: “Alisherbek naziri yo‘q kishi edi. Turkiy til bila to she’r aytubturlar, hech kim oncha ko‘p va xo‘b aytqon emas. ... Ahli fazl va ahli hunarg‘a Alisherbekcha, murabbiy va muqavviy ma’lum emaskim, hargiz paydo bo‘lmish bo‘lg‘ay”.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, besh asrdan oshiqroq vaqtdan beri buyuk shoir Alisher Navoiy hamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning boy

ma’naviy merosi butun dunyoni hayratga solib, insonlar qalbiga, ongu shuuriga ezgulik, insonparvarlik, saxovat va mehr-muruvvat nurini taratmoqda, butun dunyo hamjamiyati va olimlari nigohini o‘ziga jalb qilib kelmoqda.

G‘azal va she’riyat sultoni, tasavvuf ilmining zargari Alisher Navoiy va ham shoir, ham sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur... Bunday daholar badiiy ijodda, ilmda, davlat boshqaruvi va harbiy san’atda obro‘ qozonishi faqatgina bu yo‘nalishlarda emas, balki millat, xalqaro hamjamiyatning ma’naviy tafakkuridagi yuksalishlarga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. — Toshkent: O‘zbekiston, 2017. — B. 112

2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. — Toshkent: Sharq, 2002. — B. 81

O’ZBEK ADABIYOTINING ENG YIRIK NAMOYONDASI-ALISHER NAVOIY ASARLARINING ILMIY SALOHIYATI

Ibrohimova Marhabo Ulug’bek qizi
O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: Shukurova Shohsanam Qaxramon qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada buyuk mutafakkir, Maqsud Shayxzoda ta’kidlaganidek, “g’azal mulkining sultoni”, turkiy tilning rivojlanishiga o’z hissasini qo’shgan Alisher Navoiy haqida fikr yuritamiz. O’zbek adabiyoti, madaniyati tarixidagi ulug’ siymolardan biri hisoblanmish Navoiy o’zining butun hayoti, iste’dodi, ijodini haq va xalq uchun bag’ishlagan zotdir. Alisher Navoiy ijodi mukammal toifadagi asarlar qatoriga kirib, bu ijod mahsullarining hali-hanuz o’rganib tugatilmagan ko’p sir-sinoatlari bor. Navoiy misli ko’rilmagan darajada buyuk insonki, u butun umri davomida o’zining egallagan mansabi orqali mamlakatning madaniy va ilmiy taraqqiyotida katta yordam ko’rsatadi. Binobarin, Alisher Navoiy barcha orzu va maqsadlarini o’z asarlarida jamladi va bu asarlarda shaklan go’zal, mazmunan teran va badiiy yuksak tarzda komil inson g’oyasini kuyladi va biz yoshlar bugungi kunda ushbu asarlar orqali yetuk inson sifatida shakllanib boryapmiz.*

Аннотация: *В этой статье мы размышляем об Алишере Навои, великом мыслителе, как выразился Максуд Шейхзаде, «султане газельского царства», внесшем свой вклад в развитие тюркского языка. Навои, один из великих деятелей в истории узбекской литературы и культуры, посвятил свою жизнь, талант и творчество правде и народу. Творчество Алишера Навои – одно из совершенных произведений, а плоды его пера таят в себе множество неизведанных тайн. Навои – беспрецедентно великий человек, внесший большой вклад в культурное и научное развитие страны на протяжении всей своей*

деятельности. Следовательно, Алишер Навои обобщил в своих произведениях все свои мечты и цели, и в них в красивой форме, глубоком содержании и художественном совершенстве воспел идею совершенного человека, а мы, молодёжь, сегодня формируемся как зрелые люди через эти работы.

Annotation: *In this article, we reflect on Alisher Navoi, a great thinker, as Maksud Sheikhzade put it, “the sultan of the ghazal kingdom”, who contributed to the development of the Turkic language. Navoi, one of the great figures in the history of Uzbek literature and culture, dedicated his life, talent and creativity to truth and people. The work of Alisher Navoi is one of the perfect works, and the fruits of his pen are fraught with many unknown secrets. Navoi is an unprecedentedly great person who has made a great contribution to the cultural and scientific development of the country throughout his entire career. Consequently, Alisher Navoi summarized in his works all his dreams and goals, and in them, in a beautiful form, deep content and artistic perfection, he sang the idea of a perfect person, and we, the youth, are being formed today as mature people through these works.*

Kalit so’zlar: *Alisher Navoiy, Maqsud Shayxzoda, zullisonayn, komillik, Xamsa, Nizomiy Ganjaviy, g’azal, turkiy til, nazira, Xamsachilik, Mahbub ul- qulub.*

Ключевые слова: *Алишер Навои, Максуд Шейхзаде, двуязычный, совершенство, Хамса, Низами Ганджеви, газель, тюркский язык, назира, хамсачилик, Махбуб ул-кулуб.*

Keywords: *Alisher Navai, Maksud Shaykhzoda, diglot, perfection, Xamsa, Nizami Ganjavi, ghazal, turkic language, nazira, Xamsachilik, Makhbub ul-kulub.*

Ulug’ o’zbek va boshqa turkiy xalqlarning shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Nizomiddin Mir Alisher o’zbek va fors-tojik tillarida bir qancha she’rlar bitib, ikki til bilimdoni (zullisonayn) sifatida shuhrat qozonadi. Alisher Navoiy o’z xalqini bilimli, savodli, madaniyatli ko’rish ruhi bilan qalam tebratgan yetuk ijodkordir. Navoiy asarlarining o’ziga xosligi shundaki, u o’zining asarlarida millat taqdiri, birligi, el-yurt qayg’usi, yurtni obodonlashtirish, ilm, san’at va adabiyotni rivojlantirishni, Vatanga muhabbat, mehnatga sadoqat, axloqiy yuksaklikga intilish, go’zallik va

muhabbat, mehr va muruvvat, shaxs erkinligi, ijtimoiy adolat uchun kurash g’oyalari bilan mujassamlashtirilganligidir. Navoiyning daholigi tufayli, insoniyat tarixida dunyoning turli joylarida yashaydigan turkiy xalqlar birlashtirildi, milliy-ma’naviy merosi umumjahon xazinasidan mustahkam o’rin oldi. Shoir ijodining yuksak cho’qqisi bo’lmish “Xamsa” asari turkiy tilda ham ko’lamdor asar yozish mumkinligini isbotlab berdi. Ushbu asar Nizomiy Ganjaviyning “Panj Ganj” asariga nazira shaklida bitilgan. Navoiy 1483-yilda bir murakkab ishga kirishib, ikki yarim yil ichida “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” dostonlaridan tashkil topgan “Xamsa” kitobini eski o’zbek tilida yaratib, jahon adabiyotini bezavol va betakror buyuk asar bilan boyitdi. Navoiyning ijodi- adabiyot osmonidagi yana bir boshqa osmon, u hali hamon o’rganilmoqda. Alisher Navoiyning har bir asari, har yozgan so’zi nafaqat o’tmish va hozirgi kun uchun balki kelajak uchun ham ibratlidir. Shoirning asarlari makon va zamon tanlamaydi, uning asarlari hamisha o’z buyukligi, ma’no nozikligi, teran mohiyati bilan dunyo ahlini lol qoldiraveradi. Alisher Navoiy asrlarda yashayotgan, asarlari esa asr oshgan asarlardir. Zero, Navoiy – turkiy tilda o’z “Xamsa”sini bitgan jasorat sohibi. [1] Ammo Navoiy o’ziga xos “Xamsa” yaratishni, asarini o’qiganida uning o’zi ham yuksak san’atkorligiga qoyil qolishni istadi. Navoiy o’z istagiga erishdi. U ikki yilda besh dostonni ajib tarzda yozdi, tengsiz nafisliklar ila bezadi.

Navoiyning nafaqat “Xamsa” asari balki uning so’nggi buyuk asarlaridan yana biri nasriy pandnoma yo’nalishida yozilgan “Mahbub ul-qulub” (“Ko’ngillarning sevgani”) asari ham biz yoshlar uchun namunadir. Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari an’anaviy mumtoz adabiyotiga xos bo’lgan Allohga va uning payg’ambariga hamd aytish bilan boshlanadi. Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari 60 yillik umri davomida hayotda ko’rgan kechirganlarini tahlil qilib, muayyan xulosalar chiqargan donishmand adibning kelgusi avlodlarga qoldirgan buyuk ma’naviy merosidir. Bu asar har bir odam umri davomida duch kelishi mumkin bo’lgan hayotiy muammolarga eng to’g’ri yechimlarni ta’sirli usulda berishi bilan yuksak daraja kasb etadi. Navoiy ushbu asarida inson uchun toj, davlat va boshqalar emas, balki eng

yaxshi fazilatlar har qanday boylikdan afzal ekanligini ta’kidlaydi. Asar uch qismdan iborat. Asarning har bir qismida mutafakkir Alisher Navoiyning yuksak ma’naviy qiyofasi, buyuk ma’rifatli porloq quyoshdek balqib turadi va o’quvchi qalbiga o’zining so’nmas ziyosini ulashadi. Alisher Navoiy insonlardagi yomon xislatlarning o’rnini qanday qilib yaxshi xislatlarga aylantirishi aniq ko’rsatib berganlar va bu yozganlariga ham o’zlari doimo amal qilganlar. “Mahbub ul-qulub”dagi har bir tanbeh, bayt yoki qit’a bu xalqning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribasida to‘plangan matal va hikmatlar mazmuniga singib ketgan hayot hikmati darajasiga ko‘tarilgan. Bu asarda insonning komillik darajasiga qanday yetishishi va bu yo’lda qanday qusurlardan xoli bo’lishi va uning o’rniga qanday yaxshi fazilatlarni egallashi zarurligi aytib o’tilgan. Navoiyning e’tirof etishicha, bu asar zamondoshlari va avlodlariga o’rnak bo’lishi, yaxshilik va yomonlikni anglashda, go’zallikni ardoqlash va ezguliklarga intilishda dastur ul- amal bo’lishini nazarda tutadi.

“Mahbub ul- qulub” asarining qisqacha bayoni. Hazrat Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asari ham an’anaviy mumtoz adabiyotiga xos bo‘lgan Allohga va uning payg‘ambarlariga hamd aytish bilan boshlanadi. [2] Asar mutafakkir shoirning hayotiy kechinmalari, kuzatishlari va xulosalari asosida yaratilgan. Ish kirish, uch qism va kirishdan iborat. Navoiy an’analariga ko‘ra, muqaddima Allohga hamd aytish bilan boshlanadi. Islom payg‘ambari koinotning hukmdori va payg‘ambarlarning eng yaxshisi, insoniyatning eng yaxshisi ekanligi aytilib, islomning o‘zagini tashkil etuvchi g‘oya shundan iboratki, barcha dinlar mohiyatan bir va barcha odamlar ularning farzandlaridir, bitta ota-ona, payg‘ambarlar bir-biriga aka-uka degan fikr ne’matlarga singib ketgan. Navoiy kitob yozishning sabab va maqsadlari haqida fikr yuritar ekan, o‘z o‘tmishini qisqa jumlalar bilan tanqidiy baholaydi. Uning fikricha, hayotning achchiq-chuchugini totgan shoir taqdirning ko‘p sinovlariga duch keladi; jannat uni goh nafrat va loqaydlik bilan, goh shon-shuhrat va mansab bilan sinadi; goh avliyolarning yaxshiliklaridan bahramand bo‘ladi, goh nokas va bezotlardan azob chekadi; goh ishq nazarida shifo topsa, gohida tejamkorlik va taqvo odatlariga mahkum bo‘lgan. Asar uch qismga bo’linadi: «Avvalgi qism -

xaloyiq ahvoli va afoli va aqvolining kayfiyati» - xaloyiqning ahvoli va fel-atvori hamda so’zlarining kayfiyati. «Ikkinchi qism-hamida afol va zamima xisol xosiyatida» - yaxshi qiliqlar va yomon xislatlar xususiyati. «Uchinchi qism - hamida natijasi va zamima xisol xosiyatida» - yaxshilikning natijasi va yomon xislatlarning oqibati. Asarning birinchi qismi turli ijtimoiy guruh va tabaqalarning tasnifi va tarifiga bag’ishlangan. 40 fasldan iborat. Birinchi fasl «Odil podsholar haqida». Shoir adolatli podshohni quyosh, bahor yomg’iridek qora tuproqqa gullar ochadigan, kambag’al va bechora odamlar rohatda, zolim amaldorlar qo’rquv va, o’g’ri va qaroqchilardan xalq omonda, ayollar tinmaydi, kampirlar duoda, olimlar uni ta`riflab risolalar bitadi, shoirlar uning go’zal sifatlarini maqtab qasidalar yozadi, xonandalar uni kuylashadi. Navoiy «zolim, johil, fosiq podsholar to’g’risida» (4 faslda) ham mulohaza yuritadi. Nohaq qon to’kishlik unga hunar, kimki joni bor, undan qo’rqar.[3. 2- bet] Asarning har bir qismida ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiyning yuksak ma’naviy qiyofasi, buyuk ma’rifati porloq quyoshdek balqib turadi va o‘quvchi qalbiga o‘zining so‘nmas ziyosini ulashadi. Ko‘rinib turibdiki, bu asarda inson qanday qilib kamolot darajasiga yetishi va bu yo‘lda inson qanday fazilatlardan xoli bo‘lishi va uning o‘rniga qanday yaxshi fazilatlarga ega bo‘lishi kerakligi haqida so‘z boradi. Asarda ilm-fan va uni o‘zlashtirish bo‘yicha ko‘plab maslahatlar berilgan. Quyida muhokama qilinganidek, amaldor qanday bo'lishi kerakligi haqida ko'plab misollar mavjud.

Xulosa qilib aytganda, o’zbek mumtoz adabiyotining XXV asrgacha bo’lgan tarixiy taraqqiyotiga yakun yasab uni yanada yuqori pog’onaga ko’targan ulug’ iste’dod sohibi buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o’z ijodiy faoliyati bilan jahon adabiyotining yirik namoyandalari safidan faxrli o’rin egallaydi. Ilm va ma’rifat kuychisi Alisher Navoiy o’rta asrdagi uyg’onish davrining boshqa ulug’ zotlari singari butun hayoti bilan haqiqiy inson qanday bo’lishi lozimligini ko’rsatdi. Sermahsul ijodkor Navoiy umrboqiy asarlar yozish qudratiga ega bo’lgan. Yuqorida ta’kidlangan “Mahbub ul-qulub” asarida ulug’ mutafakkir Alisher Navoiyning ma’naviy qiyofasi, buyuk ma’rifati porloq quyoshdek balqib turadi va o’quvchi qalbiga o’zining so’nmas

ziyosini ulashadi. Navoiyning nafaqat boy ijodi, balki sermazmun hayoti ham biz yoshlar uchun namunadir. Uning bunyodkorligi, xalqparvarligi, fidoiyligi barchamizga o’rnak bo’lishi lozim. Barcha olijanob ishlarimizda Navoiy g’oyalari, Navoiy ibratlari, Navoiy ruhi bizga hamisha hamroh bo’lsin!

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. https://fayllar.org/qozoqboy-yoldoshev-valijon-qodirov-jalolbek-yoldoshbekov.html?page=4
2. https://fayllar.org/a-navoiy-mahbub-ul-qulub-asari-pedagogik-tahlili-va-a-avloniyn.html
3. O’zMe. Birinchi jild. Toshkent. [2000. 2- bet]

ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA KOMIL INSON TUSHUNCHASI

Mirzaabdullayeva Feruzaxon Muxtorjon qizi
Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy bobomizning komil inson tushunchasi tasavvuf adabiyoti uchun tutgan o’rni va ahamiyati keng yoritilib beriladi.

Kalit so’zlar: tasavvuf, shariat, tariqat, ma’rifat, haqiqat, komil inson, nafs, poklanish.

Biz bilamizki, tasavvuf tushunchasi musulmon olamida keng tarqalgan, Islom diniga asoslanuvchi buyuk ta’limot hisoblanadi. Tasavvuf orqali biz Islomning ichki va tashqi go’zalligini, insonparvarlikka chorlovini anglab yetamiz. Tasavvufning asosiy maqsadi insonni ma’nan yuksaltirish, ruhan poklash va komil inson qilib tarbiyalashdir. Komil inson darajasiga yetishish uchun inson, avvalo, ruhini poklashi kerakdir. Poklanishning birdan-bir yo’li esa nafsni yengish sanaladi.

Insonlar nafs deganda yeyishlikni, ichishlikni, kiyishlikni tushunadi. Ammo nafs tushunchasi esa keng ma’noda qo’llanilib, ilmsizlik, johillik, mansabparastlik, baxillik, hasad, kibr va shu kabi shaytoniy illatlar hisoblanib, bular inson ruhini va qalbini bulg’aydigan, Allohdan uzoqlashtiradigan illatlardir.

Tasavvuf to’rt bosqichda amalga oshirilib, biz hammamiz shariat bosqichini ado etamiz. Tasavvufni o’rganib borganimiz sari tariqat bosqichi tomon yo’nalamiz. Taqiqatdan keyin esa ma’rifat bosqichini bosib o’tadi. Bu bosqichdan o’ta olgan insongina komil inson darajasiga yetishadi. Ya’ni haqiqatga – Alloh jamoliga erishadi. Sh. Sirojiddinov yozadi: “Inson qalbida odamzod o’z taraqqiyoti davomida asta-sekin kashf etib borishi, ya’ni tilsimlarni yechib borishi lozim bo’lgan jamiki

ilmlar joylangan va ular oxir-qibatda inson uchun ko’rinmas va yashirin bo’lgan Allohga eltadi… Uning zimmasidagi bosh vazifa ilohiy ne’mat bo’lgan ona zaminni obod qilish, yuksak sivilizatsiyaga eltish va buning garovi bo’lgan EZGULIKni asrashdir”.

Ikki olamni bog’lovchi komil insonning tipini Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida o`z ifodasini topgan. Zero, shoir Farhod, Majnun (Qays) timsollari orqali komil inson qiyofasini tasvirlagan. Farhodga ta’rif berar ekan, shunday bitadi:

Demonkim ko`ngli pok-u, ham ko`zi pok,

Tili pok-u, so`zi pok-u, o`zi pok.

Farhod ko`ngli, ko`zigina pok emas, balki tili ham, so`zi ham, demakki, butun borlig`i – jism-u joni pok. Mana shu emasmi komil inson qiyofasi?! Ishqning o’rni ko’ngildadir. Ko’ngil ishq tufayli poklanadi. Ko’ngil poklanib borgani sari ilohiy mohiyat kasb etadi. Ko’ngilni poklash bir ilm hamdir. Ilm esa ustozlardan o’rganiladi. Xoqon yolg`iz farzandining tarbiyasiga katta e’tibor bilan qaradi. Boniy, Moniy, Qoran, Mulkorolar uning tarbiyachisi edi. Boniy ko’ngilga ish binosini qurgan va qurishni o’rgatgan piri komildir. Moniy esa Alloh ishqini qalbga naqshlash sirini anglatgan ustoz. Qoran – ko’ngildagi toshdan ham qattiq hioblangan nafsoniy istaklarni parchalash ilmini bildirgan murshid. Shundoq ham, tug`ma ishq sohibi bo`lgan Farhod birdek suvrat-u siyrati bilan do`st-u g`animini rom eta oldi. Navoiy uning timsolida nafaqat oshiq yigit qiyofasini, balki el dardini o`z dardi, o`zgalar tashvishini o`z tashvishi, quvonchini o`z quvonchi deb bila oladigan inson qiyofasini yaratdi. Qasr qurilishida ustalar hunarini o`rganishdan, shahzoda sifatida, tortinmadi; Arman yurtida tog` qazuvchilarni ko`rganda tomoshabin bo`lib turmadi:

Hunarni asrabon netgumdir oxir,

Olib tufroqqamu ketgumdir oxir –

deb yeng shimarib ishga kirishdi – ariq qazidi, hovuz barpo etdi.

Farhodning oshiqligi nafs istaklari va shaytoniy intilishlarning timsollari bilan kurashga otlantirdi. Ishq Farhodga kuch, matonat, iroda ato etdi. Bundan ko’ra olamizki, nafsning asosiy quroli Ishq ekan.

Xusrav hiyla bilan asir etgan bo’lsa-da, Farhod haqiqiy ishq bilan uni yengdi. Bu esa nohaqlik haq va haqiqatni mahq eta olmasligining ifodasi. Demak, g`ayriinsoniylik, insoniylik ustidan tantana qilgandek ko`rinsa-da, albatta, mahv etilajak.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, Navoiy “Xamsa”si millat, bashariyat tarbiyasida bemisli ahamiyat kasb etadi. Shoir ijodi islom dinining muqaddas kitobi “Qur’on” oyatlari va payg`ambarimiz hadislari ila muzayyan bo`lgan. Komillik erishish - Ollohning ishqiga va jamoliga erishish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. T.: Movarounnahr, 2009. -448 b.
2. Sh. Sirojiddinov. Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. T.: Akademnashr, 2011. -326 b.
3. www.komillikningasosi-ilm.com
4. www.komilinsonkonsepsiyasi.com

NAZMIY SAROY SULTONI

Axrorov Abror

Qoraqalpog’iston qishloq xo’jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag’ishlanadi. Maqolada Navoiy asarlarining g’oyat betakrorligi haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Adabiyot, Mutafakkir, shoir, amir, “Mantiqut-Tayr”, ramali musaddasi marur, g’azal, ruboiy.

Аннотация.Эта статья посвящена жизни и творчеству Алишера Навои. В статье идет речь о неповторимых произведениях Алишера Навои**.**

Ключевые слова: Литература, мыслитель, поет, эмир,” Мантик ут- Тайр”, рамали мусаддаси марур, газели, рубоий

Annotatsion. This article is devoted Alisher Navoiy’s life and creative works. It is spoken about Navoiy’s extraordinary unique creative works in this artikcle.

Key words: Literature, intellectual, poet, emir, “Mantiq ut –Tayr , Ramali musaddasi marur, quatrain.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g’ururi, sha’nu sharafini dunyoga tarannum qilgan o’lmas so’z san’tkoridir.Ta’bir joiz bo’lsa , olamda turkiy va forsiy tilda so’zlovchi biron bir inson yo’qki u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e’tiqod bilan qaramasa.

Muhtaram prizedentimiz Islom Abdug’aniyevich Karimov o’zining “Yuksak ma’naviyat-Yengilmas kuch” asarida Navoiyga:

“Agar bu ulug’ zotni avliyo desak, avliyolarning avliyosi mutafakkir desak ,mutafakkirlarning mutafakkiri shoir desak shoirlarning sultonidir”-deya ta’rif beradilar.

Asosiy qism.Turkiy va fors-tojik tillarida ijod yuritgan adabiyot bog’ining gulshani Alisher Navoiy 1441-yilning 9-fevralida Amir Temurning o’g’li Shohruxmirzo shoxligi davrida Hirotda dunyoga keladi. Shu zamon tarixchilari shoirimizni Nizomiddin Mir Alisher deb ataganlar. “Nizomiddin”- “din” – diyonat nizomi degani bo’lib donishmand, mansab egalariga beriladigan sifat, ”mir” – amir demakdir. Uning otasi G’iyosiddin Muhammad (GiyosiddinKichkina ham der edilar) temuriylar saroyining amaldorlaridan, xonadonning ishonchli kishilaridan bo’lgan .Onasi amirzoda shayx Abusaid Changning qizi bo’lgan ,ismi ma’lum emas. She’r zavqi va iste’dodi erta uyg‘ongan Alisher yetti yoshidayoq Fariddin Attorning “Mantiqut-Tayr” asarini yod olgan, Sharafiddin Ali Yazdiy nazariga tushgan. Mavlono Lutfiy yosh shoir iste’dodiga yuqori baho bergan, Kamol Turbatiy e’tirofini qozongan. Sayyid Hasan Ardashe’r , Pahlavon Muhammad kabi ustozlardan ta’lim olgan, Abdurahmon Jomiy bilan ijodiy hamkorlikda bo‘lgan. Navoiy 1469-yilgacha temuriylar orasidagi ichki nizolar sababli Hirotdan chiqib ketishga majbur bo‘lgan. Husayn Boyqaro Xuroson taxtiga o‘tirgach (1469), Navoiy hayoti va ijodida yangi bosqich boshlanadi. Husayn Boyqaro Alisher Navoiyga “Muqarrabi hazrati sultoniy” (sulton hazratlarining eng yaqin kishisi) degan unvonni beradi. Unga ko‘ra Navoiy davlatning barcha ishlariga aralasha olardi. Navoiy ijodi ixlosmandlari uning she’rlarini yig‘ib, “Ilk devon “ (1464-65) tuzgan edilar , so‘ngra “Badoyi ul-bidoya” (Go‘zallikning boshlanishi), “Navodir un-nihoya” (Nodirliklar nihoyasi) nomli devonlar (1470-yillar) tartib berilgan. Lirik merosi umumiy hajmi 50000 misradan ortiq “Xazoyin ul-maoniy” nomli to‘rt devon (1491-1498)ga jamlangan. Alisher Navoiy ijodining yuksak cho‘qqisi “Xamsa” asari (1483-85)dir ,shoir birinchilardan bo‘lib, turkiy tilde to‘liq “Xamsa” yaratdi va turkiy tilda shunday ko‘lamdor asar yozish mumkinligini isbotlab berdi.

“Xamsa” tarkibiga “Hayrat ul-Abror”, “Farhod va Shirin “, “Layli va Majnun “, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” kabi dostonlar kiradi. Navoiyning tasavvufiy qarashlari deyarli barcha asarlarining ruhiga singgan bo‘lsa-da, maxsus “Lison ut-Tayr” dostoni(1499)da, ‘Nasoyim ul-muhabbat” manqabasi (1495-96)da, “Tarixi anbiyo va hukamo”(1485-8), “Arbain”, ‘Munojot” singari asarlarida aks etgan. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng Navoiy asarlarini diniy va

so‘fiylik jihatidan o‘rganish kengaydi, ular ob’ektiv va ilmiy bahosini olmoqda. “Arbain”, “Munojot” kabi asarlari chop etildi.Yana Navoiy haqida

Navoiy merosining salmoqli qismi nasriy asarlardan iborat.Ular ijtimoiy-siyosiy ,axloqiy ta’limiy va ilmiy-falsafiy yo‘nalishdadir . “Mahbub ul-qulub”(1500-1501) Navoiyning so‘nggi yirik asari bo‘lib, unda ulug‘ mutafakkir adibning hayoti davomidagi kuzatishlari, to‘plagan boy tajribasi o‘z yuqori darajasida aksini topgan. Uch qismdan iborat bu asarda “Soriun-nosning af’ol va ahvolining kayfiyati”(1), “ axloqiy muammolar” (2), “mutafarriqa favoyid va amsol surati”

(3) masalalari ifodalangan. “Xamsat ul-mutahayyirin” (Besh hayrat”,1494) asarida ustozi va do‘sti Abdurahmon Jomiy, uning hayoti lavhalari, tariqati, yozishmalari, asarlari haqida hayratomuz hikoyalar keltiriladi.

“Holoti Sayyid Hasan Ardashe’r” (1488-1489), “Holoti Pahlavon Muhammad’ (1493) asarlari manoqib-holot yo‘nalishida bo‘lib,ularda shoirga ustozlik qilgan buyuk shaxslar hayoti, faoliyati yoritilgan. “Munshaot” (1498-1499) Navoiyning maktublari to‘plami (jami 88 ta xat) bo‘lib, ular sog‘inchlik xatlari, navro‘z tabriklari, ta’ziyanomalar ,siyosiy o‘gitlar , sulh nomalar va boshqa yo‘nalishlardadir . Ular Husayn Boyqaro, Badiuzzamon va boshqa tarixiy shaxslarga bitilgan. “Majolis un-nafois’ (1490-1491; 1497-1498) tazkirasi turk tilidagi yozilgan dastlabki tazkira bo‘lib, unda shoir sakkiz majlis doirasida 459 shoir va adib haqida ma’lumot bergan. Birinchi va ikkinchi majlisda tazkira tartib berilganda hayot bo‘lmagan shoirlar , uchinchi majlisda shoirning zamondoshlari, to‘rtinchi majlisda beshinchi majlisda Xuroson, oltinchisidaMovaraunnahr ,Kichik Osiyo va Eron, yettinchi va

tiliga tarjima qilingan.Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarini o‘z zamonidagi turkiy lahjalar ,ziyolilar nutqi, badiiy va ilmiy asarlarning leksik-grammatik xususiyatlarini forsiy til xususiyatlari bilan qiyoslashgan .Jonli xalq tilida qo‘llanilgan ko‘plab so‘zlarni asarga kiritib, adabiy tilda qo‘llanilishiga sababchi bo‘ldi. O‘zigacha ishlatilgan so‘zlarni yangi ma’no qatlamlarini ochdi. O‘zbek tili grammatikasini Mahmud Koshg‘ariydan so‘ng ilmiy asosga soldi. O‘zbek tilining badiiy va estetik imkoniyatlari kengayishiga sababchi bo‘ldi. Fors va turk tillarida yaratilgan eng yirik va e’tiborli asarlarga murojaat qildi, shoir va olimlarni til istiqloli uchun kurashga chorladi. Aruz nazariyasiga bag‘ishlangan “Mezon ul-avzon”(1492) asarida arab va fors aruzi qoidalarini turkey tilde aniq va ravon tushuntirdi. Turk yozma va og‘zaki she’riyati namunalarining vazn xususiyatlarini o‘rgandi. Turkiy aruz tabiatini yoritish bilan birga turk she’riyati murakkab aruz tizimini boyitganini anglatdi. “Tarixi muluki Ajam” (Ajam shohlari tarixi,1488) qisqa tarix bo‘lib, Eron shohlari xronikasi bayon qilingan “Tarixi Tabariy”, “Shohnoma “ asarlarini mantiqan to‘ldiradi, ulardagi faktlarni izchil ilmiy tizimga soladi. Afsonaviy shoh Kayumarsdan sosoniylarning so‘nggi vakili Yazdi Shahriyorgacha bo‘lgan shohlar tarixini, mifologik talqinini beradi. “Tarixi anbiyo va hukamo” ('Payg‘ambarlar va hakimlar tarixi”, 1485-1498) asarining birinchi bo‘limida “Qissa sulanbiy o‘laran “ analarini davom ettirib, Odam alayhissalomdan Nuh, Iso, Muso, Ya’qub, Sulaymon, Yusuf, Dovud kabi payg‘ambarlar tarixiga oid qissalar keltiradi. Navoiy Luqmoni hakimga ham anbiyolar qatoridan joy beradi. Asarning “Hukamozikrida” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan donishmand hakimlar Fishog‘urs, Jomosp, Buqrot, Suqrot, Aflotun, Arastu, Bolinos, Jolinus, Batlimus, Buzurgmehr haqida ibratli hikoyalar keltiradi, ularningdonishmandligi, ilmiy kashfiyotlari siri qisqa satrlarda talqin qilinadi. “Vaqfiya” (1481) asarida vaqf yerlari, mulklari, ularning miqdori, ulardan foydalanish, vaqf mulki va mablag‘i evaziga quriladigan bino va inshootlar , buyo‘nalishda madrasa va xonaqohlarda o‘rnatilgan tartiblar haqida fikr yuritdi. Navoiy o‘z ixtiyoridagi mablag‘lar hisobiga qurilgan xayriya muassasalari, ilmiy-madaniy binolar va bog‘larni sanab o‘tdi. Asar

Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlarini o’rganish uchun ham muhim hujjatli manbadir.

Lisonut-Tayr (arab- “Qushlartili”) –Alisher Navoiyning dostoni o’zbek mumtoz adabiyoti va o’zbek adabiy tilning muhim yodgorliklardan. 1498-1449 –yilda fors shoiri Fariddin Attorning “Mantiqut-Tayr” asari ta’sirida yozilgan. Asar syujeti va bosh g’oya xususida Attorga izdoshlik qilgan. Asar falsafiy doston bo’lib shoir unda majoziy obrazlar , qahramonlarning sarguzashtlari orqali tasavvufiy g’oyalarni ifodalagan . Navoiy asarda Xudo tashqarida emas sening o’zingda degan fikrni olg’a suradi. Shu yo’sinda insonni ulug’laydi uning kamolotga erishish yo’lini yuksak she’riy mahorat bilan bayon etadi. Asarning barcha g’oyasi odamning tarbiyasini ko’rsatishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat- Yengilmas kuch” Toshkent. ”Ma’naviyat” .2008.
2. O.Sharafiddinov Alisher Navoiy Tanlanganasarlar .Toshkent .1978
3. Sh.Sharipov Alisher Navoiy “Lisonut-Tayr“ dostonining genezisi va g’oyaviy –badiy xususiyatlari.

TURKIYNI TANITGAN NAVOIY

Nosirova Shahlo Nodirjon qizi
Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alishe’r Navoiyning o‘zbek adabiy tili asoschisi sifatida ilm-fanga qo’shgan hissasi, turkiy tilning kelib chiqishi, fonetik va morfologik xususiyatlari, shuningdek, turkiy sheva va grammatik kategoriyalarini Navoiy asarlari talqinidagi tadqiqi xususida fikr yuritiladi.

Аннотация: В данной статье рассматривается вклад Алишера Навои в науку как основоположника узбекского литературного языка, происхождение, фонетические и морфологические особенности тюркского языка, а также изучение тюркских диалектов и грамматических категорий в интерпретации произведений Навои.

Annotation: This article discusses Alishe’r Navoi's contribution to science as the founder of the Uzbek literary language, the origin, phonetic and morphological features of the Turkic language, as well as the study of Turkic dialects and grammatical categories in the interpretation of Navoi's works.

Kalit so‘zlar: *turkiy til, o‘zbek adabiy tili, sheva, fonetika, marfologiya, so‘z yasovchi, tovush, lingvistika, sintagma, fonema, sifat, olmosh, ravish.*

Ключевые слова*: турецкий язык, узбекский литературный язык, диалект, фонетика, морфология, словообразование, звук, языкознание, синтагма, фонема, прилагательное, рифма, форма.*

Key words: *Turkish language, Uzbek literary language, dialect, phonetics, morphology, word formation, sound, linguistics, syntagma, phoneme, adjective, rhyme, form.*

O’zbek adabiy tilining rivojida XV asrning ikkinchi yarmi juda muhim davr hisoblanadi. Bu davrda Alishe’r Navoiy o’zining muborak ijodi bilan o’zbek adabiyotini yuksak darajaga ko’tarish bilan birga, o’zbek tilining taraqqiyotiga ham o’zining salmoqli hissasini qo’shdi. Navoiy o’z asarlarida, albatta «grammatika» yoki «fonetika» so’zini qo’llagan emas. Lekin tilning grammatik va fonetik qonunyatlarini yaxshi bilgan, ularni bir-birlaridan yaxshi farqlagan va o’ziga xos arabcha-forscha va turkcha-o’zbekcha atamalar bilan nomlangan: amr, harf, harakat, hamza, voze (voz-yasovchi yoki so’z yasovchi); tajnis va ihom – ko’p ma`noli so’z; alam-ism, ot; atmutakallim-so’zlovchi; lafz, kalom, alfoz kabilar haqida o’z davriga nisbatan juda muhim fikr va mulohazalar bayon qilgan. Jumladan, Navoiy turkiy (o’zbek) tilining grammatik xususiyatlari haqida yetarli darajada fikr bildirgan. U, xususan, so’z yasash yo’llari haqida maxsus to’xtalib o’tadi. O’zbek tilida fe`llardagi birgalik va orttirma darajalarini yasovchi **–sh/-ish, -t,** qo’shimchalari orqali *chopishmoq, topishmoq, ko’chishmoq, o’pishmoq, yugurt, qildurt, yashurt, chiqart* kabi so’zlar yasalganligini, sifatlarda belgining ortiq-kamligini esa **p, m,** vositasi orqali *op+oq qop+qora, qip+qizil, sap+sariq, yum+yumaloq, yap+yassi, op+ochuq, yam+yashil, bo’m+bo’sh* tarzida ifodalanishini aytadi. Shuningdek, ravishdoshning **-g’ach/-gach, -qach/-kach** affiksi orqali *tergach, borg’ach, yorg’och, topqoch, sotqoch, yopg’och* kabi fe`l formalarining yasalishini; harakatni bajarishga intilish, tayyorlanish kabi ma`nolarni ifodalashda esa **-gu/-g’u** affiksi bilan yasalgan sifatdosh formasiga **-dek** ravishdosh yasovchi qo’shimchaning qo’shilishi orqali *borg’udek, yorg’udek, qayg’udek, urg'udek, surg'udek* fe`llarning hosil qilishini misollar bilan ko’rsatadi. [1,251.]

Navoiy asos solgan adabiy til tovush imkoniyatlarining kengligini ham to’la isbot qiladi. Chunki Navoiy asarlarining tili o’z davrida mavjud bo’lgan turkiy sheva, lahja va dialektlarning deyarli hammasining vokalizmini qaryib to’liq ravishda aks ettirgan.

Alishe’r Navoiy o’zbek tiliga, ya`ni, ona tilimiz taqdiriga, rivojiga diqqat bilan qaradi. Navoiyning afsus bilan ta`kidlashicha, hatto, ko’pgina o’zbek shoirlari ham,

ona tili boyliklari va keng imkoniyatlaridan foydalanishga kam e`tibor berardilar. «Bu til dag’al til, unda yuksak san`at asarlari yaratib bo’lmaydi» degan fikrlarga uzil-kesil zarba berish, o’zbek tilining yashirin qolib kelayotgan xazinalarini ochish va uni ilm ahllariga, she`riyat muxlislariga tushintirish o’zbek xalqining buyuk farzandlari oldida muhim vazifa bo’lib turardi. Ana shu ulkan ishning uddasidan Alishe’r Navoiy chiqa oldi. Navoiy «Bu alfoz va iboratda bir nav daqoyiq ko’pdurkim, bu kunga deguncha hech kishi haqiqatig’a mulohaza qilmag’on jihatdin bu yashurun qolibdur. Va filhaqiqat agar kishi yaxshi mulohaza va taammul qilsa, chun bu lafza muncha vus`at (kenglik) va maydonida buncha fushat (ochiqlik) topilur…» deb yozdi va o’zbek shoirlarini o’z ona tilini faqatgina xalq ommasi emas, balki shoirlar ham qo’llashi, shu tilda, iloji boricha, o’z iqtidor va mahoratlarini ko’rsatishlariga chaqirdi. Masalan, Navoiy xuddi shu maqsadda quyidagicha yozadi: «…turk tilining jomliyati muncha daloil bilan sobit bo’ldi, kerak erdikim, bu xalq orasidin paydo bo’lg’on ta`b ahli salohiyat va ta`blarin o’z tillarin turg’och, o’zga til bilan zohir qilmasa erdi va ishga buyurmasalar erdi. Va agar ikala til bilan aytur qobiliyatlari bo’lsa, o’z tillari bilan ko’proq aytsalar erdi va yana biri bilan ozroq aytsalar erdi. Va agar mubolag’a qilsalar, ikala til bilan teng aytsalar erdi…». [2,152.]

Bobur tili bilan aytganda, Navoiy o’zbek tilida barchadan «ko’p» va «xo’p» yozib, qalam kuchi bilan qalblardan joy oldi. Alishe’r Navoiy til bilimiga doir «Muhokamat ul-lug’atayn» asari bilan o’zbek adabiy tilining, xususan o’zbek tilshunosligining ilmiy-nazariy asoslarini yaratib berdi. Alishe’r Navoiy «Muhokamat ul-lug’atayn»da o’zbek tilini fors tili bilan taqqoslab, ona tilidagi ustunliklarini, uning adabiyot, san`at, ilm-fan va madaniyat taraqqiyotidagi rolini ashyoviy matreallar misolida namoyish etadi. Navoiy ikki tilni – o’zbek va fors (tojik) tillarini qiyoslar ekan, birining ahamiyatini kamaytirib yoki rad etib, ikkinchisining ahamiyatini bo’rttirib ko’rsatmaydi, bu sohada hech qanday mubolag’aga yo’l qo’ymaydi, aksincha, ularning har birini o’z holicha olib qaraydi. Boy materiallarga asoslangan holda o’zbek tilining fors tili bilan teng huquqligi va go’zalligini, ayrim hollarda esa bu tomonlarning ustunligini isbotlab ko’rsatadi. Ayniqsa, bunday xarakterli

tomonlarning fonetika tarkibida, so’z yasashda, uslubshunoslikda, leksikada aniq ko’zga tashlanib turishini alohida ta`kidlab o’tadi. Navoiy o’zbek tilini yoqtirganligi va ta`biga mos kelganligi, fors tilini esa sevmaganligi uchun bunday xulosaga keldi, deb o’ylash noto’g’ri bo’lar edi. Zero, Navoiy fors tilining qimmati va ahamiyatini kamsitmaydi. Ulug’ adib fors tilidan foydalanishda yuqori pog’onaga ko’tarilgan bo’lib, bu borada Navoiy bilan bellasha oladigan kishi kam topilar edi. Ijodkorning «Foniy» taxallusi bilan yozgan asarlaridagi aniqlik va ravonlik bu boradagi fikrimizni tasdiqlaydi.

Navoiy asarlari tili XV asr o’zbek adabiy tilining yuksak namunasi bo’lib, til tarixini o’rganishda katta manba va boylik bo’lib hisoblanadi. Uzoq va mashaqqatli izlanishlar samarasi o’laroq, uning yana bir qimmatli asari borligi fanga ma’lum bo’ldi. Bu asar eski turkiy tili lug’ati bo’lib, «Sab`at abxur» (Yetti dengiz) nomi bilan mashhurdir va ayni vaqtda Turkiya olimi Ogah Sirri Lavand Alishe’r Navoiyning ana shu lug’ati ustida tadqiqot olib borayotganligi matbuot orqali bizga ma’lum. [3,78.]

Alishe’r Navoiy aniq bir dialektga asoslanib ish ko’rmagan. U o’zbek dialekt va shevalarida ko’p va keng qo’llanuvchan xarakterli xususiyatlarni tanlab olib, o’zbek adabiy tilini taraqqiy ettirish uchun qizg’in kurash olib bordi. Navoiy asarlarida qarluq-chigil-uyg’ur lahjasi va qisman qipchoq shevalari xususiyati mavjuddir.

Navoiy asarlari tilining fonetikasi hozirgi zamon o’zbek tili va X-XIII asr yodnomalari tilining fonetikasidan o’zining ba`zi xususiyatlari bilan farq qiladi. Navoiy tilining fonetik xususiyatlari bilan bog’liq bo’lgan masalalar hali to’liq-to’kis ravishda tahlilga tortilmagan. Binobarin, Navoiy nutqining fonetik bo’laklari haqida tilshunoslarimiz bir-biriga mos kelmaydigan turli fikrlarni bayon qiladilar. Xususan, professor N.Rajabov Navoiy tili va umuman, o’zbek tili ustida olib borgan kuzatishlari natijasida o’zbek tili nutqining, shu jumladan, Navoiy nutqining ham fonetik bo’laklari jumla, sintagma, takt, bo’g’in va tovushlardan iboratligini, bular orasida jumla eng yirik fonetik birlik bo’lib, uning nutqning ikki pauza orasidagi maxsus intonatsiyaga ega bo’lgan bo’lagi ekanligini, jumla odatda gapda to’g’ri

kelishi, chunki jumlaning pauzasi fikriy tugallik, intonatsiyasi esa gapning mazmuniga borg’liqligini ta’kidlab o’tgan.

Jumladan, keyingi kichik fonetik bo’lak sintagmadir. Jumla bir yoki bir necha sintagmalarga bo’linadi. Sintagma bir yoki bir necha taktdan iborat bo’lishi mumkin. Takt sintagmadan kichik fonetik bo’lak bo’lib, u bir bosh urg’u ostiga olib talaffuz qilinadigan bo’lakdir. Alishe’r Navoiy o’zining «Muhokamat ul lug’atayn» asarida taktga quyidagicha namunalar keltiradi:

1) ishq;
2) axtar-i: -dur;
3) daraxshanda;
4) bashariyat;
5) kozi;
6) nur-u;
7) ziyosi;
8) andim;
9) vagarshar-sh:-dur;
10) raxshanda;
11) insoniyat;
12) tojinin;
13) zeb-u;
14) bahosi;
15) andin; kabi taktlarga bo’ladi. [3,102.]

XV asr o’zbek adabiy tilida ham bo’g’in hosil qilish unli tovushlar asosida hisoblangan. Bo’g’in unli bilan boshlanishi, ya`ni to’siqsiz bo’lishi yoki undosh bilan boshlanib, to’siqli bo’lishi mumkin. Bo’g’in boshida ikki undosh qator kelmaydi, ya`ni bo’g’in faqat bir undosh bilan to’siladi. Yana bo’g’in unli bilan tugashi, ya`ni ochiq bo’lishi, yoxud undosh bilan tugashi, ya`ni yopiq bo’lishi mumkin.

Navoiy tilida ham singarmonizm qonunlari mavjud. Navoiy «Xamsa»sining Abdujamil nusxasi bizni singarmonizmning har uchala qonuni, ya`ni unlilardagi

tanglay uyg’unligi, lab uyg’unligi, hamda undoshlardagi jaranglilik va jarangsizlik uyg’unligi bor, degan xulosaga olib keladi. Alishe’r Navoiy chog’ishtirma (kontrastiv) lingvistikaning asoschisi hisoblanadi. Alishe’r Navoiy o’z ona tilida badiiy ijod qilish, ona tilining butun go’zalligi, tarovatini amalda ko’rsatish bilangina cheklanib qolmaydi. Ona tilini o’sha davrda badiiy adabiyot uchun an`ana bo’lib qolgan fors tiliga qiyoslab, bu tildan hech qolishmasligini, hatto ba`zi o’rinlarda ustunroq turishini ilmiy jihatdan ham isbotlab bermoqni o’z oldiga maqsad qilib qo’ydi. Ana shu maqsadda 1499-yilda ikki til muhokamasiga – ikki tilning chog’ishtirma grammatikasiga bag’ishlangan maxsus asarini – «Muhokamat ul-lug’atayn» asarini yaratadi.

Alishe’r Navoiyning bu asarining maydonga kelishi bilan dunyo tilshunosligida yangi sahifa ochildi. Tilshunoslikning hozirgi kunda chog’ishtirma (kontrastiv) lingvistika deb yurutiluvchi yangi yo’nalishiga asos solindi. Chog’ishtirma tilshunoslikning o’ziga xos xususiyatlari shundaki, ikki tizimga mansub bo’lgan tillar tilning barcha sathlari bo’yicha bir-biriga solishtiriladi.

Bundan tashqari, Navoiy tilning morfologik xususiyatlari haqida ham gapirib o’tadi. Navoiy tilidagi so’zlarni xuddi hozirgi zamon o’zbek tilidagi kabi dastlab ikki katta morfologik guruhga, ya`ni mustaqil va yordamchi so’zlarga, so’ngra mustaqil so’zlarni o’z navbatida ot, sifat, olmosh, son, fe`l, ravish turkumlariga, yordamchi so’zlarni esa ko’makchi, bog’lovchi va yuklamalarga bo’lish mumkin.

Ot. Ot turkumiga kiruvchi so’zlar kishi, hayvon, narsa, hodisa va tushunchalarninng otini bildiradi va quyidagi grammatik kategoriyalarni o’z ichida oladi.

1) Atoqlilik va turdoshlik
2) Kishilik va nokishilik
3) Holat
4) Ko’plik
5) Egalik
6) Kelishik

Navoiy tilida jins kategoriyasiga oid elementlar ham bor, ot turkumidagi so’zlar gapda ega, kesim, aniqlovchi, to’ldiruvchi va hol bo’lib kela oladi. [4, 98.]

Sifat. Navoiy tilidagi sifatlar ham xuddi hozirgi o’zbek adabiy tilidagi sifatlar singari asliy va nisbiy sifatlarga bo’linadi. Asliy sifatlar ham, nisbiy sifatlar ham predmetning belgisini bildiradi. Asliy sifatlarga *aq (oq), qara (qora) qizil, yashil* singari rang bildiruvchi; *chuchuk, achiq (achchiq*) ta`m bildiruvchi; *ulug’, kichik, past, baland* singari hajm va shakl ifodalovchi; *qari, yash* kabi jismoniy belgilarni bildiruvchi; *yaxshi, yamon*ga o’xshash mavhum belgilarni anglatuvchi*; uzaq, yaqin* singari zamon va makon belgilarini bildiruvchi so’zlar kirib, bular predmet belgisini bevosita o’zlarining leksik ma`nolari bilan bildiradi.

Olmosh. Navoiy tilida III – shaxs kishilik va ko’rsatish olmoshi *ul* bosh kelishikda ham, boshqa kelishiklardagi kabi hozirgi o’zbek tilidagidan farq qiladi. *Ul* kishilik olmoshi bo’lib kelgandagina *alar* shaklida ko’plik formasi yasaladi.

Ravish. Navoiy tilida hozirgi o’zbek tilida iste`moldan chiqqan ravishlar bor. Masalan, *base, asru, burna, tanla* kabi ravishlar shular jumlasidandir. *Base* ravishi o’zbek tiliga tojik tilidan o’tgan bo’lib, «*behad», «ko’p» va «juda»* ma`nolarida ishlatiladi.

Navoiy ijodi XV asrning ikkichi yarmi o’zbek adabiy tilining rivojlanish tarixida juda muhim o’rin tutadi. Binobarin, adib o’zining barakali ijodi bilan o’zbek klassik adabiyotni yuksak pog’onaga ko’tarib, o’zbek adabiy tilining rivoji uchun ham juda salmoqli hissa qo’shdi. Alishe’r Navoiy shoh asarlari XV asr o’zbek tili xususiyatlarini o’zida aks ettirgan bo’lib, o’zbek tili tarixini o’rganish borasidagi eng boy manba, shuningdek, yosh olim va izlanuvchilar uchun dasturulamal bo’lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurahmonov G‘., Rustamov A. Navoiy tilining grammatik xususiyatlari. –T.: «Fan», 1984.
2. Doniyorov X., Yo‘ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. – Toshkent: «Fan», 1988.
3. Karimov S., Sanaqulov U. O‘zbek tilshunosligi masalalari. – Samarqand, 2001.
4. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi – Toshkent: «O‘zbekiston» 2002.
5. Abdullayev F. Navoiy singramonizmi xususiyatlari // «O‘zbek tili va adabiyoti» jurnali, 1966, №5.
6. Doniyorov X, Sanaqulov U. O‘zbek tilshunosligining asoschisi // «O‘zbek tili va adabiyoti» jurnali, 1991, № 1.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TIL MASALALARINING YORITILISHI (“MUHOKAMAT UL-LUG’ATAYN” ASARI MISOLIDA)

Odambayeva Umida Baxtiyor qizi

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi

Ilmiy rahbar: Mo`ydinov Qodirjon Abdurasulovich

ANNOTATSIYA

Maqolada Alisher Navoiyning tilshunos olim sifatidagi qarashlari o‘z ifodasini topadi. Olim turkiy va forsiy tilni o‘zaro solishtirgan holda turkiy tilning ijodiy imkoniyati fors tiliga qaraganda ancha keng ekanligini dalilar yordamida ko‘rsatib beradi. Bu jarayonda adibimiz turkiy tildagi so’zlarning ma’no nozikliklaridan, so’zlardagi sinonimlik va omonimlik xususiyatlaridan o‘rinli foydalanadi.

Kalit so`zlar: Alisher Navoiy, turkiy til, fors tili, til imkoniyatlari, sinonimlar.

Освещение языковой проблематики в произведениях Алишера Навои (на примере “Мухокамат ул-лугаъатайн”)

АННОТАЦИЯ

В статье отражены взгляды Алишера Навои как лингвиста. В этом процессе писатель уместно использует тонкости значение слов в тюркском языке, особенности синонимов и омонимов в словах.

Ключевые слова: Алишер Навои, тюркский, персидский, языковые возможности, синонимы.

Coverage of language issues in the works of Alisher Navoi (on the ehample of “Muhokamat ul-lug’atayn”)

ABSTRACT

Alisher Navoi’s views as a linguist are reflected in the article. In this process, our writer makes good use of the subtleties of meaning of words in the Turkish language, the features of synonyms and homonyms in words.

Keywords: Alisher Navoi, Turkic , Persian, language possibilities, synonyms.

KIRISH

Ham adabiy va ilmiy asarlari, ham go`zal insoniy fazilatlari bilan barchaga o`rnak bo’lib kelayotgan Alisher Navoiyning rang-barang ijodi vaqt atalmish oliy hakamni ham o’z izmiga bo’ysundirganligi, dunyodagi eng oliy mo’jiza – so’z qudrati va uning go’zal o’zbekona ifodasi sifatida umumbashariyat mulkiga aylanganligi rad etib bo’lmas haqiqatlardan hisoblanadi. O’z ijodiy merosida 26 mingdan ortiq lug’at boyligidan foydalangan bu buyuk daho mana besh asrdan oshibdiki, asarlaridagi chuqur falsafiy mushohadakorlik, ma’no-mohiyatning keng ko’lamliligi bilan jahon ahlini hayratga solib keladi.

Husayn Boyqaroning “Risola”sida ham hazrat Navoiyning turkiy tildagi ijodi, xususan, she’riyati hamda “Xamsa” asariga yuksak baho berilib shoir “so’z mulkining kishvaristoni, sohibqironi” deb ulug’lanadi. [1]

ASOSIY QISM

Barchamizga ayonki, Alisher Navoiy yirik va hassos tilshunos olim. Uning 1498-yilda yozilgan “Muhokamat ul-lug’atayn” asari tilshunosligimiz xazinasining bebaho gavharidir. Unda alloma adib, o’z tili bilan aytganda “nazm gulistonining andalibi nag’masaroyi” sifatida eski o`zbek tilini, uning badiiy uslubini ilmiy-nazariy jihatdan har tomonlama asosladi, turkiy til imkoniyatlarini amaliy jihatdan isbotlab ko’rsata oldi.

Shoir “Muhokamat ul-lug’atayn” asarining boshlanish qismida quyidagicha yozadi: “So`z ahli xirmonining boshoqchisi va so`z qimmatbaho toshlari xazinasining poyloqchisi va nazm gulistonining sayroq bulbuli, ya’ni Navoiy deb taxalluslangan Alisher arz qiladiki, so`z bir dur bo`lib, uning daryosi ko`ngildir.

Alisher Navoiy turkiy tillarning paydo bo`lishini Nuh payg`ambar va uning o`g`illariga bog`laydi. Bu haqida “Muhokamat ul-lug’atayn” asarida : “... turkiy, forsiy va hindiy asl tillarning manbaidurki, Nuh payg`ambar... ning uch o`g`ligakim, Yofas va Som va Xomdur etishur... Yofasniki, tavorix ahli Abut-turk bitirlar, Xito mulkiga yibordi va Somniki, Abul-furs bitirlar. Eron va Turon mamolikning vasatida voliy qildi va Xomniki, Abulhind debdurlar, Hindiston bilodiga uzatti. Va bu uch payg`ambarzoda avlod va atboi mazkur bo`lg`on mamolikdan yoyildilar va qalin bo`ldilar”

Navoiy tillarning paydo bo`lishi haqida fikr yuritarkan, arab tilini yuqoridagi holatdan mustasno ekanligini ta`kidlaydi. Ya’ni u arab tilini “ kalomi ilohiydur”, hamma tillardan go`zalroq va boyroqdir, - deydi. Bilamizki, Ollohning kalomi bo`lgan “Qur`on” va payg`ambar hadisi, avliyolar so`zi shu tilda yaratilgan. Shu asoslar jihatdan Navoiy arab tilini barcha tillardan yuqori qo`yadi.

Alisher Navoiy yana asarda tilning ijtimoiy hodisa ekanligiga alohida urg`u beradi. Til insonni hayvondin ajratuvchi “guvhari sharif” deya ta’riflaydi:

So`zdurki, nishon berur o`likka jondin,
So`zdurki, berur xabar jonga jonondin,
Insonni so`z ayladi judo hayvondin,
Bilki, guhari sharifroq yo`q ondin.

Turkiy tining ijodiy imkoniyatlaridan mohirona foydalangan Alisher Navoiy har bir so`zdagi ma’no nozikliklarini juda ishonchli tarzda, mantiqiy dalillar bilan ko`rsatib beradi. U arab, fors, hindiy tillari qatorida o`zbek tilining ham eng qadimiy tillardan biri ekanligini alohida ta’kidlaydi.

Xususan, turkiy tilning o`ziga xosligini ifodalash uchun Navoiy “Muhokamat ul-lug’atayn” asarida o`zbek tilida turli ma`no nozikliklari jihatidan farqlanuvchi ma`nodosh fe’llardan 100 tasini ham eslatib o`tadi.

Masalan, biror bir suyuqlikni ichish harakatini ko`rsatuvchi **ichmoq** fe’li bor. Navoiy bu fe’lning **sipqarmoq, tomshimoq** kabi sinonimlaridan ham foydalangan:

Soqiyo, tut bodakim, bir lahza o`zimdin boray,
Shart bukim, har necha tutsang labo-lab **sipqaray.**
Soqiy, chu ichib, menga tutar qush,
Tomshiy-tomshiy oni qillay no`sh. [2]

Asarda **yig`lamoq** fe’lining eng baland va doimiy ma’nosi qayd etiladi. Uning yonidagi **yig’lamsinmoq** fe’lida esa ma’noning ozayishi hisobiga yangilanishi aks etadi. **Ingramoq** va **singramak** ham yig`lash ma’nosini beradi. Faqat ularda «dard bila yashurun ohista yig`lamoq» ma’nosi ustunroq. **Siqtamoq** esa «yig`lamoqdan mubolag’adur. Turkiylarda «biyik un bila», ya’ni qattiq tovush chiqarib yig`lash ham bor. Bunga **o`kurmak** deyiladi. Adib fikrini davom ettirib shunday yozadi:«Chun o`kurmak muqobalasida forsiy tilda lafz yo`qtur»

Olimning sinonimlar, omonimlar, atamashunoslik borasidagi fikrlari ham qadrlidir. Jumladan, **ko`k** so`zining **osmon, kuy, kuylamoq, qadoq, sabza – o`t-o`lan** ma’nolarida qo`llanilishi ko`rsatiladi. Ayrim so`zlarning to`rt, besh, olti ma’noda qo`llanishiga misollar keltiriladi.

Alisher Navoiy hassos tilshunos sifatida forsiy til amaliyotida turkiy tildan o`tgan so`zlarga ham e’tibor qaratadi. Masalan, **tubichoq, arg’umoq, yaka, yo u, totu** singari ot turlarini, **dastor, qalpoq, to`ppi, shirdog’, yog`lig’** singari bosh kiyimlarni, **qo`rchi, suvchi, qushchi, qo`ruqchi, kiyikchi, kemachi, qo`ychi** singari kasb va hunarlarning nomlarini forsiylar ham turkiycha so`zlar bilan yuritishi ko`rsatiladi. [3]

Yana ushbu asarda Navoiyning morfologik qarashlari ham qisman o`z ifodasini topgan. Olimning talqini quyidagicha:

a) so`zni uch turkumga ajratadi: fe’l, ism va harakat (yordamchi). Bunda Navoiyning fe’lga alohida e’tibor qaratgani ancha muhim ;

b) fe’lning birgalik nisbatdagi shakliga alohida e’tibor beradi (orttirma nisbat yasovchi -*t* qo`shimchasiga diqqat qiladi) ;

c) mazmuniy sintaksis bo`yicha ilk ma`lumot bergan.

Bulardan tashqari, A. Navoiy so`z yasalishi masalalari haqida ham to`xtalib, o`zbek tilining yangi so`z yasash imkoniyatlari va usullarini misollar asosida isbotlaydi, izohlaydi: o`zbek tilida -ch vositasida ko`rchi, suvchi, qushchi kabi so`zlar vujudga keladi deydi.

Olim asarida -ch qo`shimchasi vazifasida -vul qo`shimchasining ham ishlatilishini qayd etadi: yakkavul – yo`l boshlovchi, kiptavul – qo`rg`on qorovuli, yasavul-bakavul, chingovul kabilar. Hozirgi o`zbek tilida qo`llanilmaydigan va Navoiy davrida normal hol hisoblangan harakat nomi yasovchi -l qo`shimchasi ham mavjuddir: qabol, yasol, tutkal kabi.

Alisher Navoiy turkiy va forsiy tillarni qiyoslar ekan, juda ko`p turli soha so`zlarini bittama-bitta yig`adi, tahlil qiladi. Hayotning turli sohalariga tegishli istilohlarini o`z asarlariga singdirdi. [2]

XULOSA.

Har qanday ibtidoning intihosi ham bo`ladi, albatta. Ana shu ibtido va intiho orasidagi jamiki jarayonlardan xulosa chiqarish insonning fikratiga bog`liq. Ammo shunday o`rinlar bo`ladiki, inson xulosa uchun ojizdek tuyuladi, ayniqsa, bu Navoiy ijodini o`rganayotgan odam uchun xos jihat desak mubolag’a bo`lmaydi. Ze’ro, bu insonning ijodi shunchaki so`zlar jamlanmasi emas,balki butun bir turkiy til ummoni. Bu ummonda hali biz bilmagan qanchadan qancha so`zlar durdonasi yashirin...

Lekin biz shu kunga qadar Navoiy ijodi bilan shug`ullangan hamda bu yo`lda hali-hanuz davom etib kelayotgan, navoiyshunos olimlarimiz bilimi va tajribasiga tayangan holda Hazrat Navoiyning (Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta`biri bilan aytganda) mutafakkirlarning mutafakkiri, shoirlarning sultoni ekanligiga yana bir karra guvoh bo`lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Sh. Sirojiddinov, D. Yusupova, O. Davlatov. “Navoiyshunoslik” /Darslik. –T.: “Tamaddun”, 2019.
2. Nafasova Vazira. “Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug’atayn” asari va uning tilshunoslikda tutgan o`rni” mavzuidagi referati. Qarshi – 2013.
3. 10-sinf 1-qism adabiyot. “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. –T.: 2017
4. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. III tom. “Muhokamat ul-lug’atayn”.O`zbekiston Davlat nashriyoti. T. 1948 y.

ALISHER NAVOIY VA FURQAT IJODIDA USTOZ-SHOGIRDLIK AN'ANASI

Rozumova Svetlana

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institute talabasi

Ilmiy rahbar: o`qituvchi Rahmanova Nafisa

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq mumtoz adabiyotida tatabbu bog’lash an’anasi, Alisher Navoiyning “Ehtiyoj” radifli g’azaliga Furqatning tatabbusi, g’azallarning kompozitsion qurilishi, badiiy poetikasi, shoirlarning ijodiy mahorati haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются традиции связывания татаббу в классической литературе Востока, татаббу Фурката с радикальной газелью Алишера Навои «Эхтиёдж», композиционный строй газелей, художественная поэтика, творческое мастерство поэтов.

Annotation. This article discusses the tradition of tying tatabbu in classical literature of the East, Furkat's tatabbu to Alisher Navoi's radical ghazal "Ehtiyoj", the compositional structure of ghazals, artistic poetics, and the creative skills of poets.

Kalit so‘zlar: mumtoz adabiyotda an’ana va izdoshlik, g’azal**,** tatabbu, ilohiy ishq, ijtimoiy mavzu.

Ключевые слова: традиция и традиция в классической литературе, газель, татаббу, божественная любовь, социальная тема.

Keywords: tradition and tradition in classical literature, ghazal, tatabbu, divine love, social theme

Sharq mumtoz adabiyotida an’ana va izdoshlik muhim ahamiyat kasb etadi.. Ijod olamiga qadam ranjida qilayotgan har bir boshlovchiga o`tgan shoirlardan o`ttiz ming, zamondoshlaridan yigirma ming baytni yod bilish talabi qo`yilgan. “Ho`qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti, o`zi yozg`oni” asarida Furqat ham

ijod boshlashdan oldin Sharq allomalarining ijod na’munalarini yod olgani, ularni sevib mutolaa qilganligini bayon qilgan. Furqat, ayniqsa, Navoiy ijodini alohida mehr bilan o`rgangan . Furqat buyuk shoirning nazmiy an’analarini takomilga yetkazdi, rivojlantirdi. Bu takomilni tatabbu she’rlarida, muhammaslarida , poetik mazmunning yangilanishida va obrazlar takomilida ko’rish mumkin.

Furqatshunoslar Navoiyning shoir ijodiga ta’sirini quyidagicha tasniflashni taklif qiladilar:

2. Furqatning Navoiy g`azallariga tatabbulari;
3. Furqatning Navoiy g`azallariga muhammaslari;
4. Furqat ijodida Navoiyona ohanglar. [4, 14]

Alisher Navoiyning “Navodiru-sh-shabob” devoni 2-g’azalida mana bunday bayt bor:

Ibodatingg`a yangi oy bo`lub ham o`ldi musalliy,

Sipehr atlasidin solibon havo``a musallo . [3,8]

Yangi oy - hilolning Haq taolo ibodati uchun qaddi egik namozxonga qiyoslangani, tunda yulduzlar bilan ziynatlangan osmonning falak atlasiga hamda havoga solingan joynamozga tashbeh etilishi baytning ham shakl, ham mazmun jihatidan yuksak badiiyatiga dalil bo`la oladi. Ibodat-musalliy-musallo uchligi hamda oy va sipehr ikkiligi hosil etgan tanosub, oyning namoz o`qish tasviri tashxis, baytning yaxlit holda tashbeh san`atiga asoslangani poetik tasvirning navoiyona va mukammal ekani bilan izohlanadi. [2 ,208]

Nurboy Jabborovning fikriga ko’ra, Furqat obrazli tafakkur borasida ham Navoiy an’analarini munosib davom ettirdi. Ayrim poetik obrazlarni takomil darajasiga yetkazdi. Ayni mazmun Furqatning munojot g`azalida yangi poetik obraz va mazmun orqali tasvirlanadi:

Qullu ashyo junbush aylab zikrig`a mashg`uldur,

Vahshiyoni dasht, haylu-l-bahr-u mur`oni havo.

“Qullu ashyo”ning Ollohni zikr etishini ta’kidlagan shoir o`quvchiga ta’sirliroq bo`lmog’i uchun ularni detallashtirib ko`rsatadi. Bular dashtdagi vahshiy hayvonlar

(vahshiyoni dasht), dengizlardagi jonivorlar (haylu-l-bahr), havodagi qushlar (murg`oni havo)dir. Bayt tagmatnida ifodalangan ma’no yanada e’tiborga loyiqdir,ya’ni mazkur jonivorlarki Yaratganning zikrini bir nafas bo`lsin unutmas ekan, yaralmishlar afzali-Insonning bundan g`ofil bo`lishga haqqi yo`q [2,209] .

Professor Nurboy Jabborov “Navoiy va Furqat” asarida Furqat Navoiyning bir g’azalida mavjud bo`lgan *xol* poetik detalini badiiy jihatdan mahorat bilan navoiyona ohangda Munisdan ham kuchliroq mazmunda ifoda eta olgan deb ta’kidlaydi:

Navoiyda:

Nuqtayi xoling nedin shirin labing ustidadur,

Nuqta chun ostin bo’lur har qaydakim yozilsa “lab”.

Munisda:

Nuqtayi xoli g’alat tushmush labining ustida,

Bersa ruxsat olg’amen ul nuqtani ondin yalab.

Furqatda:

“Nuqta lab ustida bejodur ? ” – dedim, aydi kulub,

“Sahv qilmish kotibi qudrat magar tahrirda!”

Yuqoridagi misollardan anglash mumkinki, Furqat obrazli tafakkur borasida ham Navoiy an’analarini munosib davom ettirdi. Ayrim poetik obrazlarni takomil darajasiga yetkazdi. [2, 213-214]

Furqat Navoiyning “aylab”, “aylagach”, “aylay desam”, “bor”, “isi”, “kelmadi”, “kishi” radifli qator g`azallariga, “Chor devon”ning uchinchi kitobidan o`rin olgan “Badoe ul-vasat” asariga kiritilgan “O`ltirg`usi” radifli g’azaliga tatabbular qilgan. Furqatning “Ehtiyoj” radifli g`azali ham Navoiyning “Favoyid ul-kibar” asarining to`qson to`rtinchi “ehtiyoj” radifli g`azaliga tatabbu hisoblanadi. O`zbek adabiyotida Navoiy va Furqatdan boshqa yana Nodira va Sidqiy Xondayliqiy ijodida ham “ehtiyoj” radifli g`azallar mavjud. Navoiyning g`azali to`qqiz baytdan, Fuqatning g`azali esa an’anaviy yetti baytdan iborat. Har ikkala g`azal ham hazaji musammani maqsur vaznida yozilgan mutlaq qofiyali g`azaldir. Navoiy o`z g`azalida arabiy *“ davo, sabo, jafo” forsiy “jonfizo, to’tiyo, oshno, gado, xudo, bebaho, navo”*

so’zlari orqali ohangdorlikni yuzaga chiqargan. Furqatning tatabbu g`azalida esa arabiy “ *ag’niyo, avliyo, saxo, riyo, davo*”, forsiy “ *podsho, oshno, noraso”* kalimalaridan foydalangan.

Alisher Navoiyning “ehtiyoj” radifli g`azali ilohiy ishq haqida bo`lib, shoirning keksalik lirikasiga mansub. G`azal quyidagi matla` bilan boshlanadi:

Ishq bemorig’a eldin yo`q davog`a ehtiyoj,

Yo`q o`lukka juz visoli jonfizog`a ehtiyoj. [4,71]

Ilohiy ishq dardiga mubtalo bo`lgan bemor eldan da’vo izlamaydi. U faqat bodi sabog`a ehtiyoj sezadi. Vasl bog`ining atri uning jonidir. Bu ishq oshiqni jamiyatga begona qilib qo`yadi. Oshiqning o`zi ham begonaga oshno bo`lishga ehtiyoj sezmaydi. Solik Ollohga shunday yolvoradi:

Har ne qilsang ko’ngluma xushtur, erur sandin manga,

Ham vafog`a ehtiyoj-u ham jafog`a ehtiyoj.

Gado shohga ehtiyojmand bo`lmaganidek, ishq ko`yida shoh ham gadoga ehtiyoj sezmaydi. Faqirlik maqomiga yetgan, ulusdan hech narsa tama qilmaydigan haqiqiy oshiq xudoga ham ehtiyojmand bo`lmaydi. “Olam ahlidan vafo kutma,-deydi Navoiy, - chunki ularning o`zi bu matoyi bebahoga ehtiyoj sezadi”.

G`azalning maqta’si shohbayt hisoblanadi:

Dedim: Ey gulruh, Navoiyg`a navo yetkur, - dedi:

Kim ko`rubtur ko’rganin bulbul navog`a ehtiyoj.

Ollohning haqiqiy oshig`i ishqqa ehtiyoj sezmaydi. Unda bu ishq tug`ma bo`ladi. Bulbul navo qilish uchun yaralganiday, Navoiy ham navo qilish – ilohiy ishqni tarannum qilish uchun tug`ilgan.

Ushbu g`azaldan ta’sirlangan Furqat g`azalning vazni va qofiyasini saqlagan holda, mavzuga yangicha mazmun beradi, o`quvchining diqqatini ijtimoiy mavzuga

qaratadi. Furqat g`azal matla’si orqali ehtiyoji bor kishi dardini boylarga bildirmasin, qanoat qilib podshodan ham hech narsa kutmasin, deydi:

Aylama ma’lum hargiz ag`niyoga ehtiyoj,

Balki qoni’ bolsang, etma podshoga ehtiyoj. [1,26]

Nafaqat boylarga, balki, do`stlarga ham ehtiyojini oshkor etish kerak emas. Sababi do’stlardan vafo o’rniga g’ayrilik va jafo yetishi mumkin. Furqat bu achchiq haqiqatni tazod san’ati orqali juda chiroyli ifodalagan:

Oshnolardin sanga yetmas vafo, g’ayr az jafo,

Qilma ravshan ey birodar, oshnog’a ehtiyoj.

Agar senda Allohga tavakkul qilish sifati mavjud bo`lsa shohlardan hech narsa kutma, chunki sen ehtiyojmand bo`lgan o`sha shohlar ham aslida avliyolarga ehtiyoj sezadi:

Senda gar bo’lsa tavakkul, shohlardin uz tama’.

Chunki shohlar qilg’uchidir avliyoga ehtiyoj.

Birovlarning ehsoniga ko`ngil bog`lama, ey aqlsiz! Saxovatli kishilarning ehsoniga ehtiyoj sezdingmi, demak, xor bo`lasan, chunki saxovatli kishilar bu zamonda kamayib ketgan:

Shaxs ehsoniga ko’ngil bog’lama, ey behirad,

Xor o’lursan, aylasang ahli saxoga ehtiyoj.

Barcha ishi hiyla-yu riyo bo’lgan zohidlardan duo umid qilish aqlli odamlarning ishi emas :

Xiyladir zohid ishi, andin duo qilmang umid,

Xomlig’dir aylamoq ahli riyog’a ehtiyoj.

“Himmatim shuki, agar dard jonimni halok aylasa, dardim uchun davoga ehtiyoj sezmayman”, - deb ta’kidlaydi shoir. Davoga ehtiyoj sezmaydigan dard esa, shubhasiz, ilohiy ishqdir:

Himmatim shulkim, agar dard aylasa jonim halok,

Bo’lmagay dardim uchun menda davoga ehtiyoj

Bu dunyo fe’l-atvorining teskariligini tomosha qiling: rasolarni norasolarga ehtiyojmand qilib qo’ydi:

Aylagil, Furqat, tamosho dahr atvorinikim,

Etdilar oxir rasolar norasoga ehtiyoj.

Furqat bu g’azali orqali faqat Allohga tavakkul qilishni va do`stga ham , dushmanga ham ehtiyojsiz yashashni targ`ib qilish bilan bir qatorda, riyokor zohidlarning ustidan istehzoli kuladi. Dunyoning teskariligidan ko`ngli og’rib, rasolarning norasolar oldida xor ekanligini g`azal maqta’sida achinish bilan ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, Zokirjon Xolmuhammad o`g`li Furqat hazrat Alisher Navoiy an’analarini munosib davom ettirdi. “Ehtiyoj” radifli g`azaliga o`xshash tatabbu she’rlarida obrazlar takomiliga jiddiy e’tibor qaratdi. Mazmun mundarijasini yangilab, o`zi yashagan davrning ijtimoiy – siyosiy ahvolini haqqoniy tasvirladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Furqat. *Muhabbat yo’lida*. Toshkent ,Yangi asr avlodi , 2009 .
2. Jabborov Nurboy, *Maoniy ahlining sohibqironi*, Monografiya,T.: Adabiyot, 2021.
3. Navoiy Alisher.*Navodir ush-shabob*, MAT, 4-tom,T.: Fan, 1989.
4. Navoiy Alisher. *Favoyid ul-kibar*, MAT, 6-tom,T.: Fan, 1990.
5. Ochilov Ergash, *Furqat ijodida Navoiy an’analari*. “O’zbek tili va adabiyoti” jurnali , 2019. №6.

ALISHER NAVOIY NURBOY JABBOROV TALQINIDA

Abduqodirova Sarvinoz Qobuljon qizi
Toshkent viloyati Chirchiq Davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Maqolada adabiyotshunos olim Nurboy Jabborovning “Maoniy ahlining sohibqironi” monografiyasi asosida Alisher Navoiy asarlariga singdirilgan muallif konsepsiyasi, ya’ni shoirning insonparvarlik, xalqparvarlik g‘oyalari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: hayot falsafasi talqini, irfoniy va adabiy estetik olam, vatanparvarlik, musofirlik, insonparvarlik, ma’rifat, ishq talqini, millat, xalq, “Hayrat ul-abror”.

Аннотация: В статье анализируется авторская концепция гуманизма и национализма, заложенная в произведениях Алишера Навои, на основе монографии литературоведа Нурбоя Джабборова «Маоний ахлининг сохибкирони».

Ключевые слова: интерпретация философии жизни, суфийско-литературный эстетический мир, патриотизм, отчуждение, гуманизм, просвещение, интерпретация любви, нация, народ, «Хайрат ул-аброр».

Annotation: The article analyzes the author's concept of humanism and nationalism, embedded in the works of Alisher Navoi, based on the monograph of the literary critic Nurboy Jabborov «Maoni akhlining sohibkironi».

Keywords: interpretation of the philosophy of life, Sufi-literary aesthetic world, patriotism, alienation, humanism, enlightenment, interpretation of love, nation, people, «Khairat ul-Abror».

Vatanparvarlik – kishilarning ona yurtiga, o‘z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha xalqlar va millatlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida yangilanib kelayotgan insonning eng buyuk tuyg‘usidir. U insonni vatan taqdiriga befarq qaramasligida, vatan, millat dard-u g‘amini o‘ziniki deb baholashida, kelajagi uchun o‘z hissasini qo‘shishida namoyon bo‘ladi. Bu Alisher Navoiyga xos bir insoniy tuyg‘u ekanligi filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborovning “Maoniy ahlining sohibqironi “asarida ham o‘z ifodasini topgan. Asarda aytilishicha, “Vatandan ayri tushmoq, ulkan bir fojia. Vatanni tark etmoq, o‘zini mashaqqatlar girdobiga tashlamoqqa barobardir”. Bu fikrlarning tasdig‘i o‘laroq ulug‘ shoir Navoiy aytgan “Vatan hubbi iymon nishonidur” ta’rifini berib o‘tadi. Vatanni g‘animlardan himoya qilmoq, zarur bo‘lsa, buning uchun kurashmoq har bir farzand burchidir. Bu go‘ya “Saddi Iskandariy” dostonida:

Iloyu vatan uzra to joni bor,
Kishi xarb etar toki imkoni bor –

deya ta’riflangan. Hazrat Navoiyning ayni shu asarga kiritilgan quyidagi o‘giti ham yuqoridagi baytning mantiqiy davomi sifatida avlodlar oldida o‘z qimmatini yo‘qotmaydi:

Musofir bo‘l, ammo vatan ichra bo‘l,
Tila xilvati anjuman ichra bo‘l.

Bu baytlar naqshbandiylik ta’limotining asosi bo‘lgan “Safar dar vatan” rashnalari mohiyati nazmiy talqin etilganligi haqida professor N.Jabborov o‘z asarida aytib o‘tadi. “Musofir bo‘l, ammo vatan ichra bo‘l” – hayotiy ma’no ifodalaydi. Inson faqatgina o‘zga mamlakatlarda emas, o‘z vatanida ham musofir bo‘lishi mumkin. Musofir bo‘lmoq istagida yor-u do‘stlari, qon-qarindoshlarini unutmaslik g‘oyasi ilgari suriladi. Bu fiklarni N.Jabborov akademik Aziz Qayumov fikrlari bilan to‘ldiradi: “Mazkur tasavvufiy mohiyatni e’tirof etgan holda, ushbu misralarning yana ikki ma’nosi bor. Birinchidan, umuman vatan, uning ahamiyati, undan uzilmaslik to‘g‘risida umumiy xulosalarni bayon qiladi. Ikkinchidan, Navoiyning

behuda yurishlari, shuhratparastlik, mohiyatparastlik maqsadida qilingan turli intilishlarini qoralashi, vatanni nash’u namo qilish afzalligini takidlashidadir”. Bu fikrlar avval ham, hozir ham o‘z tasdig‘ini topgan. Inson vatandan ayro hech qachon huzur-halovatda yashay olmaydi”. Bu fikrlardan ko‘rinib turibdiki, shoir Navoiy asarlarining tub mohiyati vatanparvarlik, elparvarlik hissi bilan bog‘liq.

“Vatanparvarlik g‘oyasi o‘zi tug‘ulib o‘sgan, o‘zi mansub bo‘lgan ulug‘ elga mehr qo‘yish, g‘amini o‘z g‘ami deb bilish shaxs kamolotining muhum shartlaridandir”. Navoiy asarlarida bu g‘oya yetakchi o‘rinlarda turadi. Asarlar mazmun-mohiyati shundan dalolat beradiki, Navoiy doimo xalq g‘ami bilan yashagan, unga yengillik va hotirjamlik bera olgan. Navoiy ta’biri bilan so‘zlaydigan bo‘lsak,

Erur chin olam ichra jax foniy, yaxshi ot boqiy,
Bas el komin ravo ayla,o‘zingni kamron ko‘rgach, -

baytlariga ustoz N.Jabborov quyidagicha ta’rif beradi: “Ya’ni mansab-martaba, mol-dunyo vaqtinchalik. Yaxshi nom esa abadiy. O‘zingni kamron ko‘rgach, ya’ni baland mavqega erishgan chog‘ingda o‘zgalar holatini ravo aylamoqni odat qil. Aslida, haqiqiy elparvarlik ham shuni taqozo etadi”. Shak-shubhasiz bu fikrlar hozir ham o‘z mohiyatini saqlab kelmoqda. Ustoz bu fikrlari bilan nima demoqchi? Insonda mol-dunyo, mansab-unvon qaydarajada bo‘lmasin, u hech qachon abadiy bo‘lmasligini, yaxshi nom esa uni abadiyatga daxldor qilishini aytib o‘tmoqda. Shu bilan bir qatorda hayot doim bir tekisda ketmasligini, hayot murakkab ekanligini, Navoiy ham hammaga yaxshilik qilishni orzu qilgani va bunga bir qadar erishgani ham keltirilib o‘tiladi. Biroq uning qilgan yaxshiliklariga doim ham munosib javob qaytmagan. Tabiiyki, bundan shoir iztirob chekkan, ruhan ezilgan, qarama-qarshi tuyg‘ular girdobida qolgan. Hatto bir she’rida “Parim bo‘lsa uchib ko‘chsam, ulusdin to qanotim bor” deya aytib o‘tiladi. Faqatgina chin insoniy fazilatlarni o‘ziga odat qilgan shaxsgina ular uchun qilingan yaxshilikka munosib javob qaytarmasa-da, yaxshilik qilishdan charchamaydi. Bir so‘z bilan aytganda, Navoiy elparvarlikni o‘ziga singdira olgan. Navoiy zamonida yashab ijod etgan tarixnavis Xondamirning

“Makorim ul-axloq” asaridagi fikrlari buning yorqin isboti bo‘la oladi. “Bu ulug‘ siymo shafqat va marhamat odatlarini o‘ziga shior qilib olgan edi va hamisha uning mehribonlik va iltifot qanoti olam ahllarining ustiga yoyilib, darmondalarning kuygan dillari uning shafqat, marhamat malhamlari bilan tuzalardi”. Unda yana aytilishicha, Navoiy o‘z xususiy mulkini el-yurt manfaati yo‘lida sarf etgan. O‘z hisobidan binolar, xonaqohlar, hovuz, hammom, ko‘prik va yana bir qancha madrasa va masjidlar qurdirgan. Xalqqa solingan soliqlarni ham o‘z mablag‘idan to‘lab yuborgan. Har yili och va nochorlarga kiyim-kechak tarqatganini aytib o‘tadi. Albatta bu hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi. Tarixda qanchadan-qancha insonlar yashab o‘tmagan. Yuksak iroda va matonatli insongina vafotidan keyin ham xotiralarda abadiy yashaydi. Shoir Navoiy ham shunday insonlardan biri. U nafaqat yozgan asarlari bilan, ayni paytda, qilgan hayrli ishlari bilan barhayotdir. Bundan tashqari yana bir zamondosh yozuvchi Mu’iniddin Muhammad al-Zamjiy al-Isfiroziyning “Ravzat ul-jinnat” asarida Navoiyning Badgis viloyatining Chihil duxtaron qasabasida rabot qurdirgani, Farididdin Attor mozori ustida ravoqli imorat solgani haqidagi ma’lumot keltiriladi. Navoiy ijodi va hayot yo‘lini yana bir qator tarixchi va shoir yozuvchilar o‘rganib tadqiq qilgan. Lekin hech biri hali ham oxiriga yetgani yo‘q. Bundan ko‘rinib turibdiki, uning ijodi hamma davrlarda yangi-yangi tadqiqotchisini topib boraveradi.

Tarixchi Mirzo Haydar Do‘g‘lotning “Tarixi Rashidiy” asarida Navoiy siymosi muxtasar ta’riflab o‘tilgan. Asar asosan 1541-1545 yillar oralig‘ida yozib tugallangan. Adabiyotshunos olim Shuhrat Sirojiddinovning yozishicha, asarda Navoiyning Sulton Husayn Bayqaro bilan do‘st bo‘lgani, keyinchalik uning saroyida xizmat qilganligi, fazl-u hunar ahliga homiylik qilganligi, ko‘plab imorat va binolar qurganligi, tab’i nozikligi bilan bog‘liq fikrlari, shoirning otasi uyg‘ur baxshilaridan bo‘lganligi va oddiy insonlardan bo‘lmaganligi haqida ham fikrlar mavjud. Temuriylar sulolasidan bo‘lgan Husayn Bayqaro ham shoirlik ilmidan xabardor bo‘lib, ba’zi ma’lumotlarga qaraganda, ular ham bir-biri bilan turli she’riy yozishmalar olib borganligi ma’lum. Ular yoshlikda bir maktabda o‘qiganlari bilan,

ma’lum bir sabablarga ko‘ra, bir muddat bir-biridan uzoqda yashashga majbur bo‘lishadi. Faqatgina Husayn Bayqaro Xuroson taxtiga chiqqandagina ular yana birga saroyda yashaydi. Zamona podshosi uni avval muhrdorlik lavozimiga, keyinchalik esa vazir martabasiga ko‘taradi. Hazrat Navoiy o‘zining elparvarligi, aql zakovati va xush xulqi tufayli podshohning eng yaqin kishilaridan biriga aylanadi. Zamondosh shoirlarning yozishicha, Navoiyning mulki juda ko‘p bo‘ladi. Lekin ulardan faqatgina o‘z ehtiojiga yarasha olib qolib, qolganini esa xalq uchun sarflab yuborgan. Uning bu fidoyiligiga ishongan Husayn Bayqaro hech kimga bermagan imkoniyatlarni beradi. U shundan iborat ediki, Navoiy bir masala yuzasidan to‘qqiz marotaba murojaat qila olardi. Albatta, u bu imtiyozdan xalq farovonligi va tinchligini ta’minlashda foydalangan. Hazrat Navoiy vazir lavozimlarida ishlab yurgan vaqtlarida mamlakat hayoti farovonlashadi, zulm va haqsizliklarga chek qo‘yiladi. Ilm ahli uchun imtiyozlarni orttirib, ularga o‘zi homiylik qiladi. Bu haqida “Hayrat ul-abror” dostonida quidagicha misralar aytilgan:

Kim bore di boshima ko‘p mehnatim,
Yo‘q edi bosh qoshig‘ali fursatim.

Alisher Navoiyning bunday huquq va imtiyozlarga ega bo‘lishi, albatta, ba’zi yomon fikrli kimsalarga yoqmaydi. Buning oqibatida Navoiy ham unga qilingan tuhmat va bo‘xtonlar oqibatida vazirlik lavozimidan iste’fo olishga majbur bo‘ladi. Vaholanki, u vazirlik lavozimidan ketsa-da, Husayn Bayqaro uni o‘z oldidan uzoqlashtirmaydi. Hattoki bu ham ba’zi zamona zo‘rlariga yoqmaydi. Shunda Husayn Bayqaro shoirni Astrabodga hokim qilib yuborish bilan nizolardan chetlatishga erishadi. Tarixchi Mirxondning yozishicha, Navoiy Astrabodga hokim bo‘lib kelishi bilan uni Jurjonning sayyidlari, ulamolari, e’tiborli marhamatlari bilan faxr va quvonchda kutib olishadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Navoiy nafaqat asarlar olamida, balki hayotda ham inson qiyofasining eng yuksak darajasini o‘zida mujassam eta olgan fozil-u komil insondir. Uning asarlarini o‘rganar ekanmiz, asarlari hayotning har bir jabhasini qamrab olishi bilan e’tiborga molikdir. Hozirgi zamon navoiyshunos

olimlari shoir ijodini o‘rganar ekan, unda vatanparvarlik, xalqparvarlik, insoniylik va shu bilan bir qatorda, keksalarga hurmat, e’tiqod, e’tibor, ishq va ogohlik mavzulari yetarli darajada yoritib berilganligini aytib o‘tmoqda. Shunday olimlardan biri Nurboy Jabborov shoir hayotini o‘rganar ekan, bundan chuqur faxr tuyg‘usini his qilganini, xususan, 2021-yil 7-aprel hayotidagi hech unutilmas va yorqin xotiralarga boy kun bo‘lganini o‘z asariga kiritib o‘tgan. Buning sababi esa, nufuzli delegatsiya tarkibida hazrat Navoiy tavallud topgan, umumbashariy ahamiyatga ega asarlarini yaratgan ko‘hna Hirot shahrida “Amir Alisher Navoiy tafakkurlarini o‘rganish” mavzusidagi xalqaro seminarda ishtirok etgani Yaratganning ulug‘ in’omi, deb baholashidadir. Nurboy Jabborov asarida o‘zining bunday g‘urur va faxrini quidagicha ta’riflab o‘tadi: “Yangi O‘zbekiston buyuk mutafakkirlarning bashariat tamadduniga qo‘shgan beqiyos hissalarini dunyoga munosib darajada namoyon etayotgani bilan qudratli ekanini ko‘nglimning tub-tubidan his etdim”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jabborov N. Maoniy ahlining sohibqironi. – T.: Adabiyot, 2021.

2. Sirojiddinov Sh. Navoiyshunoslik.

3. Bertels E. Navoiy va Attor. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2005.

4. www.ziyo.uz.com kutubxonasi. Alisher Navoiy haqida.

“MUHOKAMAT – UL LUG’ATAYN” ASARI HAQIDA

Primov Sunnatillo Elmurod O’g’li

O’zbekiston milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Milliy g’oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola so’z mulkining sultoni Alisher Navoiyning “Muhokamat- ul lug’atayn” asari “Ikki til muhokamasi” ning qisqacha yoritilish tarixi haqida bo’lib arab, fors-tojik hamda turkiy tilning bir biriga o’zaro bog’liqligi va turkiy tillarning fazilatlari haqida bo’lib bugungi kungacha turkiy tilning so’zga boy til ekanligini ko’rsatadi.Shunigdek maqolada turkiy tilida mavjud she’riy san’at haqida qisqacha to’xtalib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Muttaffakkir, Turkiy til, So’z mulkining sultoni, Yuz-lavz, She’riy, Adabiyotshunoslik, Tuyuq, Xususyatlari, Fazilatlari, Tenglik.

Аннотация: Данная статья посвящена краткой истории издания книги "Мухокамат-ул лугъатайн" Алишера Навои, султана царства слов Взаимосвязь арабского, персидско-таджикского и турецкого и достоинства тюркских языков показывают, что тюркский язык и по сей день остается многословным языком.

Ключевые слова: муттаффаккир, тюрк, султан словесной собственности, Юз-лавз, Поэзия, литературоведение, Туюк, Черты, Достоинства, Равенство.

Annotation: This article is about the brief history of the publication of the book "Muhokamat-ul lug'atayn" by Alisher Navoi, the sultan of the realm of words. The interrelation of Arabic, Persian-Tajik and Turkish and the virtues of the Turkic languages show that the Turkic language is still a word-rich language to this day.

Keywords: Muttaffakkir, Turkish, Sultan of Word Property, Yuz-lavz, Poetry, Literary Studies, Tuyuk, Features, Virtues, Equality.

Muhokamat –ul lug’atayn asari ulug’ mutaffakir ,so’z mulkining sultoni hisoblanmish Alisher Navoyi qalamiga mansub asar hisoblanadi . Muhokamat- ul

lug’atayn asari ,,Ikki til muhokamasi “ deb nomlanangan asar bu asar 905 xijriy yilining dekabir oyi oxirlarida chorshanba kuni yozib tugatilgan asar hisoblanadi.

Bu nomaki ,yozdi qalamim tortib til,
Tarixni aning jumodayul- avval bil.
Kuning raqamini chorshanba qilg’il,
To’qqiz yuz yildan utib erdi besh yil
(MAT ,20 tomlik,16-tom ,40- bet)

,, Muhokamat –ul lug’atayn “da turkiy – o’zbek va fors –tojik tillarini qiyosiy o’rganish vositasida turkiy-o’zbek tilining Sharqda mashhur bo’lgan arab va fors-tojik tilidan farq qiluvchi turkiy tilini asoslab ko’rsatib o’tadi. Birgina misol tariqasida ,, yuz lafz’’(yuzta so’z) ni keltirib , talqin qilish bilan isbotlab o’tadi . Bu ma’no Alisher Navoiyining quydagicha yozganlarida ham o’z ifodasi topgan.

,, Turkiy va sort lug’ati kayfiyati va haqiqatni shaxrida bu risolani jam qilib bitdim va anga ,, Muhokamat –ul lug’atayn “ ot quydum , to turk eli tili fasoxatu diqqati va balog’atu fusati… zohir qildim . Va xayolimg’a mundoq kelurkim ,,turk ulusi fasixlariga ulug’ haq sobit qildimki , o’z alfoz va iboratlari haqiqati va o’z til va lug’atlari kayfiyatidan voqif bo’ldilar (MAT ,20 tomlik , 16-tom , 40-bet).

Shuni eslatish joizki , Alisher Navoyi turkiy tilining fazilatlari haqida so’z yuritganda o’sha davrda mashhur bo’lgan arab , fors- tojik va hind tillarini kamsitmaydi , aksincha ularning har biriga xos bo’lgan xususiyatlarni ham ehtirom etadi. Bundan ko’zlangan maqsad turkiy tilining fasoxati va balog’ati haqida ilmiy asoslangan mulohazalarini bayon etish bilan bir qatorda ,, turk nozimlari “ (shoirlari) o’z alfoslari bilan birgalikda o’zaro tillardagi so’zlarning ma’nolarini asoslash ustida munozaralar olib borgani ko’rishimiz mumkin. Demak Alisher Navoiy turkiy tilining fasoxati va lug’aviy boyligini dalilar bilan isbotlash vositasida turkiy tilidagi adabiyot- she’riyotining yanada ravnaq topishi lozimligini ham nazarda tutgan . Alisher Navoyi o’zining ,, Muhokamat –ul lug’atayn “ asarida faqat qiyosiy tilshunoslik masalalaridan so’z yuritilgan emas , balki unda til tarixi o’zbek adabiyoti tarixi , she’riy janr va badiiy sa’natlar , fors –tojik adabiyoti namoyondalari

asarlari va o’z i (Alisher Navoiyining) ijodiga doir qimmatbaho mulohazalar mavjud. ,, Muhokamat –ul lug’atayn “ da she’riy janlardan(tuyuq), badiiy sa’natlardan (iyhom , tajnis , tarse) kabi turkiy she’riyatda o’ziga xos bo’lgan xususiyatlari jihatdan ma’lumot beriladi.

Chun pariy xurdur oting , begim,
Su’rat ichra dev erur oting, begim
Har xadangekim , ulus andin qochar,
Notovon jonim sari oting,begim
(MAT, 20 tomlik,14-tom, 17-bet).

Yuqoridagi tuyuqdan ko’rinib turibdiki Alisher Navoiyi o’z asarlarida faqat turkiy tillidagi janirda emas balki yon-atrofdagi boshqa tillarda yaratilgan janirlarda ham ijod qilgani ko’rinib turibdi. Shuningdek asar asosan ikki bo’limdan iborat bo’lib. Birinchi bo’limda Navoiy turkiy tilning turli grammatik, so’z yasash imkoniyati ,juda inja va zarif holatlarni ifoda etishdagi afzaliklarni o’zga tillar, ayniqsa, forschaga nisbatan tavsifiy, qiyosiy va tahliliy yo’sinda ko’rsatgan. Yuqorida ham ta’kidlab o’tik , Navoiyi ushbu yondashishni 100 turkiy so’zni o’rnak sifatida keltirish bilan oydinlashtiradi . U so’zlarning bir qismini she’riy o’rnaklar bilan izohlab , ular ifoda etadigan tushuncha va ma’nolarning forschada yo’qligi va bu ish uchun kishining murakkab so’z yo iboralardan foydalanishga majbur bo’lishini ko’rsatib beradi. Asarning ikkinchi bo’limida Navoiy o’zi yaratgan asarlar haqida ma’lumot berib, bu bilan turkiy (o’zbek) tilining turli ilmiy , badiiy asarlar yaratish imkoniyatini ko’rsatishga intiladi. Navoiy asarida barcha turkiylar , ayniqsa zamonining shahzoda, beklar va iste’dod egalarini turkiy tilida yozishiga undaydi. Bizningcha , ulug’ adabning asosiy maqsadi ham turkiy shoirlar , yozuvchilarni o’z ona tillarida yozish va ijod etishga targ’ib etishdir. U o’zining ona tiliga nisbatan bu ezgu milliy armoni va istagini ,, Muhokamat ul- lug’atayn” da juda o’ksinib, qayg’urib va hattoki, achinib yozadi. Navoiyi turkiy tilining buyuk homiysi hamda targ’ibotchisi sifatida maydonga chiqdi. Uning bu ishi yaratgan asarlari tufayli o’sha zamondan haligacha ,qolaversa , kelgusi asrlargacha davom etishga

hech qanday shak-shubha yo’q. “Muhokamat –ul lug’atayn” aynan shu nuqtai nazardan jahon olimlari, tadqiqotchilari va tilchilarning e’tiborni o’ziga tortib kelmoqda. “Muhokamat –ul lug’atayn” birinchi marta 1841 yili “Tarixi muluki ajam” asari bilan bir muqovada fransuz olimi Katrmarning sa’y- harakatlar tufayli Parijda bosilib chiqdi . Bu asarning tuzatilgan nashri 1845-yili chop etildi . Katarmarning ushbu nashri melodiy 1842-yili Qrimning Bog’chasaroyida ham bosildi. O’zbekistonda ,, Muhokamat –ul lug’atayn “ shuningdek Navoiyi asarlari to’liq to’plami tarkibida ham, mustaqil asar sifatida ham bir necha qatla bosilib chiqqan. Asar sifatida ham bir necha qatla bosilib chiqqan . Asar birinchi qatla bosilib chiqqan. Asar birinchi marta melodiy 1917-yili Qo’qonda arab yozuvida nashr qilindi.1940-yili uning matni lotin yozuvida , 1948 va 1967-yillari Toshkentda kirill yozuvida chop etildi. So’nggi nashri esa milodiy 2000-yili Toshkentda Navoiy 20 jildli asarlar to’plamining 16 jildida bosilgan. Shunday qilib , Alisher Navoiyning ,, Muhokamat –ul lug’atayn “ ilmiy asari turkiy tilshunoslikning nodir yodgorligi bo’lib , unda turkiy tilining o’ziga xos xususiyatlari ,uning buyuk ahamiyatiga moliy badiiy yodgorliklarni yaratishga qodirligi masalasi ilmiy asosda yoritilgan. Shuning bilan birga asarning mavzu doirasi keng bo’lib , unda umuman adabiyotshunoslikning turli xildagi muhim muommalarni tilga olingan va o’sha davrdagi narsaning o’ziga xos xususiyatlari o’z ifodasini topgan.,,Muhokamat –ul lug’atayn “ning adabiyotshunoslik sohasidagi ahamiyati yuqorida qayd qilingan fazilatlar bilan cheklanmaydi . Asarda Alisher Navoiyning turkiy va forsiy tillarda yaratgan asarlari ,ularning yozilishi sabab va tarixlari, ijodiy hamkorliklari haqida ma’lumotlar uchraydiki, ular ulkan shoirning ijodiy tarjimayi holni yaratishda qimmatbaho material bo’lib xizmat qiladi. Bu jihatdan ,, Xazoyin ul- maoni”, ,, Tuxfat ul-afkor”, ,, Xamsa “va boshqalar haqida yozganlari ardoqlidir. Alisher Navoiy turkiy tilining fasoxati va lug’aviy boylikni dalillar bilan isbotlash vositasida turkiy tilidagi adabiyotni yanada ravnaq topishida beqiyos rol o’ynagan . Alisher Navoiy o’zining ,, Muhokamat –ul lug’atayn” asari orqali o’zbek tilining boyligini , qudratini , o’sha zamoning adabiy tillari qatoridan o’rin olishga qodir va haqli

ekanligini ilmiy tomondan isbotlaydi. Alisher Navoiy so’zlarining ko’p ma’noliligi , sinonimlar jihatidan ham o’zbek tilining imkoniyati kengligini , ularning she’riyatda turli nozik ma’nolarni ifodalashdagi ahamiyatni (ot, it, tush , yon , yoq , bor , sog’in ,tuz,ko’k) kabi so’zlar talqinida ko’rsatadi. Navoiy grammatik jihatdan ham o’zbek tiliga nisbatan ba’zi imkoniyatlarga ega ekanligini tahlil etadi. Alisher Navoiyning o’z asarlarida eng zarur bo’lgan turkiy tilinig fors tilidan qolaversa arab tilidan ham so’zga boy ekanligini to’laqonli ko’rsatib beradi .Shuningdek turkiy tilinig bugungi kundagi ravnaqi uchun xizmat qilganini va hozirgacha xizmat qilib kelayotganini ko’ramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. ,, Muhokamat –ul lug’atayn ‘’asari Alisher Navoiy. Toshkent:.2014
2. ,, Muhokmat –ul lug’atayn ‘’asarining turkiy adabiyotda tutgan o’rni B.Valixo’jayev .Toshkent :.2018
3. https:\\www..ziyouz .com kutubxonasi sayti
4. https\\ arxiv.uz sayti

ALISHER NAVOIYNING TURKIY TIL RIVOJIGA QO’SHGAN HISSASI

Xamdamov Temur Doniyor o’g’li
Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada dunyo tan olgan davlat arbobi, mutafakkir, buyuk alloma, so’z san’atining sultoni, xamsanavis Nizomiddin Mir Alishe’r Navoiyning turkiy til rivoji uchun qo’shgan ulkan hissasi hamda ijod yo’li haqida fikr yuritdiladi.*

Kalit so‘zlar: *hamsanavislik, turkiy til, g’azal, ruboiy, hikmat.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается большой вклад всемирно известного государственного деятеля, мыслителя, великого ученого, султана слова Низамиддина Мир Алишера Навои в развитие тюркского языка и его творческий путь.*

Ключевые слова: *Хамсанавизм, тюркский язык, газель, рубаи, мудрость.*

Annotation: *This article discusses the great contribution of the world-renowned statesman, thinker, great scholar, master of the word art, Nizamiddin Mir Alishe’r Navoi to the development of the Turkic language and his creative path.*

Key words: *Hamsanavism, Turkish language, ghazal, rubai, wisdom.*

Ma’lumki, har bir tilning so’z boyligi va salmog’i shu tilda yaratilgan asarlarning ko’lami, salmog’I bilan o’lchanadi. Adabiyot tarixida so’z darg’alaridan Pushkin 21193 ta, Shekspir 20000 dan ortiq, Migel de Servantes 18000 dan ortiq, Abdurahmon Jomiy 17600 ta, Abdulla To’qay 14000 dan ortiq va turkiy tilimiz asoschisi Alishe’r Navoiy o’z asarlarida takrorsiz ishlatgan so’zlar 26035 tani tashkil etadi. [1.] Bu shundan dalolatki, bobomiz turkiy tilning naqadar boy til ekanligini o’z ijodiyoti orqali yaqqol isbotlab bergan. Yana bir manbaga asosan Xamsa yozgan Navoigacha bo’gan adiblarning barchasi forsiy tilda Xamsa yozgan bo’lsa Alishe’r

Navoiy Xamsasini Turkiy tilda yozish orqali ona tilimiz rivojiga ulkan hissa qo’shadi. Xamsanavislik ananasini sharq adabiyotida birinchi bo’lib buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiddin Ganjaviydir boshlab beradi. U 1170-1204-yillar oralig’ida birin-ketin 5 ta doston yaratadi, bu dostonlar shoir vafotidan so’ng yaxlit bir to’plamga keltirililib “Panj Ganj” (Besh xazina) deb atala boshladi va keyinchlik “Xamsa” nomi bilan mashhur bo’di. Shu tariqa Xamsachilik an`anasi boshlandi va Nizomiy beshligi yaratilgandan keyin oradan bir asr vaqt o’tib Xusrav Dehlaviy (1253-1325) unga javob yozdi, shu bilan xamsachilik an’anasini davom ettirdi. Xamsachilik tarixida fors tojik adabiyotining yirik namoyondalaridan biri-Abdurahmon Jomiy (1414-1492) beshligi alohida o’rin tutadi. Fors adabiyotida Nizomiy beshligiga birinchi javob bitgan ijotkor Xusrav Dehlaviy bo’lsa, Navoiy bu vazifani turkiy tilda ado etadi. Navoiy beshligida xamsanavislikning barcha shartlariga qat’iy amal qilinganligini ko’ramiz. Chunki xamsanavislik an’anasidan biroz bo’lsada chekinish turkiy tilda xamsadek buyuk asarni yozib bo’lmaydi, degan fikrga olib kelishi mumkin edi [2]. Yana shuni takidlash lozimki, Alishe’r Navoiy o’z xamsasini juda qisqa muddatda yozib tugatgan kamyob yozuvchilar sirasiga kiradi, yani (1483-1485) Xamsaning kirish qismida shu baytlar bilan boshlaganligidan bu ishga Navoiyning qanchalar mas’uliyat bilan qaraganligini bilib olishimiz mumkin:

“Emas oson bu maydon ichra turmoq
Nizomiy panjasiga panja urmoq”.

Buyuk mutafakir bobomiz Alishe’r Navoiyning hayoti va ijodini qancha o’rgansak va izlansak bu buyuk shaxsning bizga qoldirgan ulkan merosidan baxramand bo’lish mumkin. Shu sabab, Alishe’r Navoiy ijodini o’rganishga nafaqat O’zbekistonda balki butun jahonda e’tibor va qiziqish kuchlidir, xususan, “Lison-ut-tayr” asarining ingliz tiliga tarjima qilgan kanadalik Garri Dikning Alishe’r Navoiyga bag’ishlangan “Ko’ngil bog’ining bog’boni“ nomli maqolasi o’zbek tilida chop etilgan. 2008-yilda Fransiyada Alishe’r Navoiyning 30 ta g’azali tarjimonlar Murodxon Ergashev va Jan Jak Gate hamkorligi ostida “Gazel” nomi bilan “Georma’’ nashryotida chop etildi. To’plamda Navoiy hayoti va ijodi haqida hikoya

qilinib, g’azallarning fransuzcha tarjimasi rassom Jaxongir Ashurov tomonidan ishlangan minaturalar asosida bezatilgan [3].

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlarimiz, ma’naviy boy merosimizni tiklash hamda ularni chuqur va mukammal o‘rganish orqali, tarixiy va nodir asarlarning mazmun-mohiyatini avlodlarga singdirish, Navoiy singari ajdodlarimizning sermahsul ijodi — yuksak manaviy merosini tarjima qilib, yosh avlod qalbida Vatanga bo‘lgan muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini yanada kuchaytirish, ularning shuurida ushbu merosga hurmat, e’zoz hissini shakllantirib, madaniy saviyasini yuksaltirish — biz yosh tarjimonlar oldida turgan eng birlamchi dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Nurmatov A., Sobirov A., Qosimova N., “Hozirgi o’zbek adabiy tili” Toshkent. Ilm-Ziyo, 2010.

2. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O., “NAVOIYSHUNOSLIK” Toshkent. Akademik nashr, 2020.

3. Hojiyeva G., Alishe’r Navoiy ijodi o’zbek va fransuz xalqlari o’rtasidagi ma’naviy ko’prik. Buxoro, 2019.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУРНИНГ МАЪРИФИЙ-АХЛОҚИЙ ҚАРАШЛАРИ

Қамбаров Мусохон Мухторжанович
НамДУ, Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD)
Тўраханов Умматали Давлатович
Катта ўқитувчи

Аннотация: мақолада Бобур давлатни асосан, илм-фан, маъданият ва маърифат кучига асосланганлиги, ўз асари қаҳрамонларининг ички психологик ҳолатини ҳам зохир этиши очиб берилган. Бобур ўз отаси мисолида шажаравий тарбиянинг муҳим томонларини акс эттирганлиги ва “Бобурнома” асарида уламоларининг илм-фанга қўшган ҳиссаларини одилона таҳлил этганлиги ёритилган.

Калит сўзлар: “Бобурнома”, “Мухтасар”, «Волидия», комиллик, астрономия, этнография, тарих, руҳий ҳолати, Шарқ тарбияси, Хатти бобурий.

Аннотация: на основе силы науки одухотворенность и прослетвенность, раскрывающая внутреннее психологическое состояние героев его произиедение. Говорят, что важные аспекты семейного отца, а в работе «Бабурнома» справедливо проанализирован вклад ученых в науку.

Ключевые слова: «Бабурнома»б «Мухтасар», «Волидия», совершенство, астрономия, этнография, история, настроение, восточное, воспитание, поведение Бабури.

Annotation: based on the power of science, revealing the inner psychological state of the heroes of his work. It is said that Babur reflected the important aspects of family upbringing in the example of his father, and in the work “Boburnoma” a feir analysis of the contribution of scholars to since.

Key words: “Boburnoma”, “ Mukhtasar”, “Volidiya”, perfection, astronomy, ethnography, history, mood, Oriental upbringing, Babur’s behavior.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур илм ва фаннинг, санъатнинг, умуман ҳаётнинг ҳамма соҳалари билан яқиндан қизиққан, ғайрат ва ташаббус, синчковлик ва истеъдод Бобурни ривожланган феодал даврнинг улуғ сиймоларидан бирига айлантирди.

Бобур Мирзо давлати ва ҳокимияти, асосан, илм-фан, маъданият ва маърифат кучига асосланган. Илмга, фанга, ақл-идрок ва тафаккурга асосланмаган давлат ва жамиятнинг истиқболи йўқлигини Бобур ҳаммадан кўра аниқ ва чуқурроқ англаган. Бобур ўзининг асарлари, рубоийлари, маънавият, одоб-ахлоққа оид ўгитлари ва таълимотида давлатни бошқариш, халқ билан муомала қилишда илм-маърифатнинг аҳамияти бебаҳо эканлигини бот-бот қайд этган.

Бобурнинг таълим назариясидаги яна бир муҳим хусусияти, ўзи билган билимларни келажак авлодга илинишидир. Авлодим билсин деб элига ўргатгиси келади. Бу ҳол уни башариятга буюк маънавий бойликлар қолдиришига муваффақ қилди. Ундан мерос бўлиб қолган: «Бобурнома», «Мухтасар», «Мубаййин», «Волидия» ва бошқа асарлари жаҳон фанида, айниқса халқ тарбия қонунларида алоҳида ўрин тутади.

Бобурнинг «Бобурнома» асари зоология, ботаника, астрономия, этнография, тарих, тилшунослик соҳасидаги қимматли ёдгорликдир. Шу билан бирга «Бобурнома»да адабиёт, дипломатия, ҳарбий санъат, молия соҳаларидан ҳам маълумотлар олиш мумкин.

Бобур маърифатпарвар сифатида ҳар қандай шароитда ҳам илм аҳли билан мулоқатда бўлишга вақт топар эди. У ўз даври илми кишиларини хурмат этар, улар ёзган асарларни чуқур таҳлил этиб, ютуқ ва камчиликларини ўрганар эди. Ўз даври илғор кишиларининг илм-фанга қўшган ҳиссаларини одилона таҳлил билан ёзди. Бир тўртликда маснавий шеърнинг суннати бўлса ҳам мен ғазалнинг фарзи айн деб биламан, дилга деб биламан деган мушоҳадача бой фикрларни илмий жиҳатдан исботлаб кўрсатди. Бу эса бобурнинг стилистика билимини ҳам маданиятга тенг маънода тушунганлигидан далолат беради.

Бобур ўғлининг юқори табақали мансабдорлар ёзма нутқига хос жарангдор ва баландпарвоз жумлалар билан тўла бўлган дабдабали бир хатини қаттиқ

танқид қилади. Хатни тушунарли, содда ва равон ёзса ўзига ҳам, ўқувчига ҳам қийин бўлмаслигини ўқтиради:

“Хатинги худ ташвиш била ўқуса бўладур, вале асру[v] муғлоқтур[v]. Насри муаммо ҳеч киши кўрган эмас. Имлонг ёмон эмас, агарчи хили рост эмас... хатингни худ ҳар тавр[v] қилиб ўқуса бўладур, вале бу муғлоқ алфоз[v] ингдин мақсуд тамом мафхум[v] бўлмайдур. Ғолибо, хат битирда қоҳилли[v]гинг ушбу жиҳатингдир. Такаллуф[v] қилай дерсан, мундан нари бе такаллуф ва равшан пок алфоз била бити, ҳам сенга ташвиш озроқ бўлур, ҳам ўқувчига”[v]

Кўринадики, Бобур ўз ўғлига қатор юзаки усул ва воситалардан, четда бўлиб, ўз фикрини аниқ, ростгўйлик билан ифода қилишга ҳаракат этиш кераклигини таъкидлайди. Бу эса унинг мураббийлик ва муаллимлик фаолиятини кўрсатади.

Бобурнинг зукко, эстетик фикрлаш доираси кенг эканлигини, ёшларни шеър санъати билимини пухта эгалламай туриб шеър ёзмасликка ва шеър билимини қунт билан ўрганишга ундаганлигидан билиш мумкин. Султон Маҳмуд Мирзо ҳақида ёзар экан, бундай дейди:

“табъи назми бор эди, девон таркиб қилиб эди. Валс шеъри бисёр паст ва бемаза эди. Андоқ шеър айтқондин айтмағон яхшироқдур”.[v]

Бобур ана шу заруриятни ҳис этган ҳолда шеърият назариясининг аруз вазни қоидаларига бағишлаб “Мухтасар” асарини ёзди. Таъкидлаш жоизки, “Мухтасар”да мисол ўрнида келтирилган шеър ёки шеърий парчалар тарбиявий жиҳатдан халқ педагогикаси тўла мослиги билан ҳозир ҳам тарбия воситаси сифатида хизмат қилаётир.

Демак, Бобур ёш авлоднинг осон савод чиқариши ҳақида қайғуриб, имлонинг осон белгиларини яратиш билан бирга ёзма ва оғзаки нутқнинг равон ва тушунарли бўлишини талаб қилиб, нутқ маданиятини ташвиқот ва тарғибот этди. Энг мураккаб ҳисобланган аруз назариясини далиллар билан шарҳлаб адабиётшунослик фанига, маълум маънода янгиликлар киритди.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўз даврининг етук психологи сифатида ўзига яқин кишиларнинггина эмас, балки атрофларидаги бошқа кишиларнинг ҳам хатти-ҳаракатларини ва ахлоқини кузатади, улар хулқини ўрганади, таҳлил қилади, маълум ҳукмга эслади, яхши фазилатларни ўзида, оила аъзоларида, яқин кишиларида тарбиялашга, ёмон хулқларни бартараф этишга ҳаракат қилади. У “Бобурнома” асарида 80 дан ортиқ шахснинг номини тилга олиб, 50

дан ортиқ замондоши хулқ-одоби, инсонийлиги, насл-насаби, мансаби, касби, ижоди ва илми-фанга қўшган ҳиссаси ҳақида тўхталади, уларга адолатли баҳолар беради, ўз муносабатини билдиради.[v]

Бобурнинг кишилар хулқига билдирган муносабати унинг тарбия назарияси ва мазмунини чуқур эгаллаган шахс эканлигини кўрсатади. Унинг бу муносабати эса катта билим тажриба талаб этувчи машаққатли изланишлар ҳосиласидир. У кишилар хулқига тўхталар экан, кўп ҳолларда хулқнинг таҳлил жараёни ва унинг тўла баёнини ёзмайди. Ўз мушоҳадаси ва ҳаётий тажрибасига қиёслаб, хулоса ҳам чиқармайди, балки мисоллар асосида шахсларнинг одоб-ахлоқига доир сифатларни баён этиш билан кифояланади. Хулоса чиқаришни ҳар кишининг ўзига ҳавола этади.

Маълумки, Шарқ халқлари тарбия назариясида шахс хулқини жамоат орасида ёши улуғ, мансабдор, илмли ва ҳурматли кишилар олдида ўзини қандай тута билишига қараб баҳолаш алоҳида ўрин тутади. Бинобарин, жамоат ичида ёши улуғ кишилар олдида ёшларнинг қандай сўзлаётганлиги, қандай ҳолда ўтирганлиги, ўзини тутиши синчиклаб кузатилади. Шунга қараб киши одобли ёки одобсиз, деб айтилади.

“Бобурнома”да келтирган Шарқ тарбия мазмунига хос қуйидаги ҳикоят тарбия воситаси сифатида қимматлидир. Ҳикоятда Хожа Аҳрор суҳбатида Султон Аҳмад Мирзонинг қандай ўтирганлиги айтилади. Хожа Аҳрор Султон Аҳмад Мирзо ўтиришда беодоблик қилганини сезади, лекин буни юзига солмайди. Мирзо туриб кетгандан кейин Хожа Аҳрор унинг ўтирган жойида суяк бор экан, шунинг учун яхши ўтирмади, деб унинг беодоблик қилганини хизматкорларига эслатади. Бобур бу билан Хожа Аҳрорнинг ўта зийрак ва талабчан инсон эканлигини кўрсатади, Султон Аҳмад Мирзонинг беодоблилига исбот талаб этмайдиган далил келтиради, энг муҳими ёшларни (китобхонни) катта ёшли, нуфузли одамлар ҳузурида одоб билан ўтиришга даъват этади:

“... дерларким, ҳаргиз Хожа мажлисда тизл бир-биртизига ёвутқаган[v] эмастур. Бир навбат ҳазрати Хожа суҳбатида бор хилофи одат оёғини ёвутқаб ўлтурубдур. Мирза қўпқондан сўнг ҳазрати Хожа буюрубдурларким, Мирзо ўтирғон ерни бойқайлар, бир сўнгак бор экандур”[v].

Бобур шоҳларнинг Хулқини таҳлил этар экан, уларнинг динга муносабати, номоз ўқиши, мазҳаби, саводи ва илмий йўналиши, касб-ҳунарини, шеъриятга қизиқиши, уларнинг тахаллуси ва шеърининг бадиий юксаклик даражасини

кўрсатувчи далилларни батафсил келтиради. Масалан, у ўз отаси Умар Шайх Мирзонинг хулқи ҳақида бундай деб ёзади:

“Равон саводи бор эди, “Хамсатайн” ва маснавий китобларни ва тарихларни ўқув эди. Аксар “Шоҳнома” ўқур эди. Таъби назми бор эди, валс шеърга парво қилмас эди.

Бисёр саховати бор эди. Хулқи дағи саховатига бор эди, хуш хулқ, ҳаарриф, фосиҳ ва ширин забон киши эди, шужоъ ва мардона киши эди”.[v]

Шунингдек, “Бобурнома”да Бойсунғур Мирзо ҳақида бундай деб ёзади: “Ахлоқ ва атвори: адолатпеша ва одми ва хуш табъ ва фазилатлик подшоҳзода эди. Устоди Сайд Маҳмуд шинний экандур. Бу жиҳатдин Бойсунғир Мирзо ҳам, матъун эди. Сўнгра дедиларким, Самарқандда ул ёмон ақидадин ёниб, пок эътиқод бўлибтур. Хили чоғирча ҳирси бор эди. Чоғир ичмас маҳалда намоз ўтар эди. Сахотати ва бахшиши эътидол била эди. Настаълиқ хатини хили хўб битар эди. Наққошликда ҳам илиги ёмон эмас эди. Шеърни ҳам тавре айтур эди. “Одилий” тахаллус қилур эди. Шеъри девон тартиб бўлмайдур эди”[v]

Бобур ўз асарида мулла Бақоийнинг ақлли ва тадбирли шахс бўлганлиги учун подшоҳ олдида ҳурматли ва иззатли эканлигини, шоирлигидан ташқари тиббиётдан ҳам хабари борлигини қайд этиб, бундай деб ёзади:

“Ва мулла Бақоийни саликаси кўп эрди ва “Маҳзанул-асрор” вазнида подшоҳ олиға маснавий айтиб эрди ва Хожа Низомиддин Али Халифа хизмат ва маҳрамият ва вазоратга ақл ва тадбири бор эдиким, кўп сўзи мақбули табъ бўлур эди ва тибдин ҳам садиқаси бор эрди”.[v]

Таъкидлаш жоизки, Бобур шахслар хулқидаги ярамас одатлар камчилик ва нуқсонларни ҳам рўй-рост санаб кўрсатади: “Зуннун арғун асарчи мардона киши эрди, вале хасис ва мол дўст ва раъй ва Ҳисобдан йироқ ва кавакроқ ва телбарак киши эди”[v]

Ёки Бобур Ҳусрав шоҳнинг ярамас одатларини, золимлигини санаб кўрсатди: у золим ва тоат-ибодат қилмайдиган, киши ҳақидан қўрмайдиган, кучсизларнинг шахсиятига тегадиган бўлганлиги учун унинг қўли остидагилар ҳам ифлос ишлар билан машғул эдилар. Ҳатто бировнинг никоҳидаги хотинини ҳам тортиб олар эдилар. Халқ унинг бек ва навкарларидан қўрқиб, ҳатто, бозор кунлари ҳам уйларидан кўчага чиқмас эдилар. Бобур “Бобурнома”да Хусравшоҳ золимлиги ва ёмонликларини юқоридаги каби баён этар экан, “**Қўлдан келгунча ҳеч бир кишига озор берма”**, деган ҳукм чиқаради. “Яна

бир буким, – деб ёзади Бобур, – ўзиким нечук золим ва фосиқ эди, бек ва бекча ва навкар ва сардори тамом золим ва фосиқ эдиларким, Хисар эди, алолхусус хусрав шоҳга тааллуқ эл ҳамиша шурб ва зинога машғул эдилар. Бир мартабабодаким, Хусрав шоҳнинг навкарларидан биров бир кишининг хотунини тортиб элтар, бу хотуннинг эри Хусрав шоҳга келиб додхоҳлик қилур, жавоб бобурким, неча йил сенинг била эди, неча кунонинг била бўлсун.

Яна бир бу ки шаҳри ва бозори, балки турк ва сипоҳининг амрод ўғлонлари чўхра қилур қўрқинчдан уйдан чиқмас эдилар.

Хазар кун зи дарди дарунхон реш,

Ки реши дарун оқибат сар кунад,

Баҳам бир мазан то тавони диле,

Ки оҳе жаҳоне баҳам барзанд”.[v]

Таржимаси:

Ички яралар дардидан ҳазар қил!

Чунки, ички яра охир юзага чиқади.

Қўлдан келгунча ҳеч бир дилга озор берма!

Дилдан чиққан бир оҳ бир жаҳонни барбод қилади.

Таъкидлаш жоизки, Бобур шарт-шароитлар ва зарурият туфайли ўз қўшинига зарур ашёларни халқдан зўрлик билан тортиб олган бўлса ҳам иккинчи томондан, ўғрилик, талаш, ўта золимлик қилган кишиларни қаттиқ қоралаган. Бобурнинг фикрича, ундай кишилар қасосга, жазога дучор бўлиб, ҳалоқ бўладилар. Улар ланъатга сазовордирлар.[v]

Бобур ўз асари қаҳрамонларининг ташқи қиёфаси, хулқи ва ғайрий инсоний сифатлари билан бирга уларнинг ички психологик, яъни руҳий ҳолатини ҳам баён этади. Масалан, Бобур ўз отаси Улуғбек Мирзони ўлдирган Абдуллатифдан ғазабланади, унинг ғайри инсоний ишни қоралайди:

“Улуғбек Мирзодин ўғли Абдуллатиф Мирзо олди. Бу боис кунлик ўтар дунё учун андоқ донишманд ва қари отасини шаҳид қилди.

Улуғбек Мирзонинг фавтининг тарихи тавре воқиъ бўлибтур. Назм:

Улуғбек баҳри улуму хирад,

Ки дунёву динро азу буд пушт.

Зи Аббос шаҳди шаҳодат чашид,

Шудош ҳарфи тарих Аббос Кушт”[v]

Таржимаси:

Илм ва ақл денгизи бўлган,

Улуғбек дунё ва диннинг таянчи эди.

Аббос қўлидан шаҳидлик болини татиди,

“Аббос кушт” ҳарфлари ўлим тарихи бўлди.

(Абжад ҳисобида 853 йил, милодий 1449-1450 йил).

Ёки:

“Агар ўзи ҳам беш-олти ой бош салтанат қилмади, бу байт ташхурдирким:

Падаркуш подшохиро нашоят,

Агар шояд ба шаш мохаш напояд”[v]

Таржимаси:

Отасини ўлдирган (падаркуш) подшо бўла олмайди.

Агар бўлса ҳам, олти ойга етмайди.

Бобур ёмон хулқи кишилар жазосини Ҳасан Яъқуб ҳаёти мисолида бундай талқин этади: “Юраксиз киши эди. Ҳаёси камроқ эди. Бир неча масхара ва бебоқ теграсида бор эди. Девон бошида ва халойиқ қошида зикит ва шаниъ ҳаракатлар қилур эди. Бод камол эди. Қоронғу кечада ўз элининг ўқув-ўқ Ҳасан Яъқубнинг қочарига тегиб, қочаридин бурундоқ ўз амалига гирифтор бўлди:

Чу бод карди мабош эмин зи офат,

Ки вожиб шуд табиатро мукофот”[v]

Таржимаси:

Ёмонлик қилганингдан кейин офатлардан эмин бўлма, чунки, табиатнинг берадиган жазоси аниқдир.

Бобур Ҳусайин Байқарорнинг вазири Мажидиддин Муҳаммаднинг чақимчи, алдамчи ва кишиларни ғийбат қилувчи белгиларини бундай кўрсатади: “Мажиддин Муҳаммад ҳозир экандур, табассум қилур. Мирзо[v] жиҳат сўрса, хилват қилиб, кўнглидагини арз қилиб дерким, Мирзо Шарт қилсаларким менинг илигимни қовий[v]қилиб, сўзимдан тажовуз қилмасалар, оз фурсатда андоқ қилайким, вилоят маъмур ва раият шаклр ва хазона мавфур[v] ва сипоҳи вофур[v]бўлгай”.

Шундай қилиб, Бобур томонидан хулқи таҳлил этилган шахслар асосан ўз ахлоқи билан халққа таъсир этиши мумкин бўлган шоҳлар, шаҳзодалар, вазирлар, беклар, мирзолар, диндорлар, шоирлар, олимлар ва ҳаказолар эди. Энг муҳим, хулқи маълум даражада юқори бўлган мансабдорларнинг ўзига хос хусусиятларидан хабардор шахсгина ҳукмдор ёки нуфузли кишиларга муносабат билдириши, баҳо бериши мумкин эди. Бобурнинг фикрича, ўз даврининг маърифатли кишиси эса одамлар хулқини ҳукмдор сифатидагина эмас, балки хулқ атворда, ахлоқда намунали киши сифатида кузатиши ва таҳли этиши, унинг натижаси асосида ўз ҳукмини бериши керак эди.

Бобурнинг оилавий тарбия ҳақидаги фикрлари ҳам қимматлидир. У оилада онгли ҳолда қаттиққўллик билан болаларини тартибли, интизомли, онгли бўлишларини талаб этди ва тарбиялади.

Бобур тарбияда синчков ва сезгир эди, катталарнинг яхши жиҳатларини ўргатиш, ўрнак олдиришига истак ҳисси унда кучли бўлган. У “Бобурнома”да ўз отаси Умар Шайх Мирзо ҳақида шундай ёзади: “Ахлоқ ва атвори: хонафий масхаблик, покиза эътиқодлик киши эди. Беш вақт номозни тарк қилмас эди, умрий қазоларини тамом қилиб эрди, суҳбатларига бисёр мушарраф бўлиб эди. Ҳазрат Хожа ҳам фарзанд деб эрдилар.”[v]

Демак, Бобурнинг намунавий – ахлоқий тарбияси фарзандлари учун илҳомбахш омил бўлиб, улар жасоратли, зийрак, халқсевар, ватанпарвар, тадбиркор, инсонпарвар, ориятли, вафодор, илмли, адолатли ҳукмдорлар бўлиб етишдилар, тарихда яхши ном қолдирган шахслар сифатида қадр-қиммат топдилар.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўзининг рубоийлари ва лирик асарлари билан ҳам, «Бобурнома» асари билан ҳам, донишманд шоҳ ва шоир сифатида ақл-заковати ва буюк тафаккури билан ҳам миллий ва умумбашарий маънавият ва маърифат тараққиётига катта ҳисса қўшди. Шунинг учун ҳам у жаҳон цивилизацияси тараққиётига унутилмас ҳисса қўшган ўзбек халқининг буюк мутафаккири сифатида дунё аҳли донишлари қалбида абадий яшайди. Ўзбек халқи Заҳириддин Муҳаммад Бобурдек беназир алломаси, буюк ўғли борлиги билан беҳад ғурурланиб, бошини баланд, қаддини тик тутиб яшашга тўла ҳақлидир. Бобурнинг тафаккур юлдузи Янги Ўзбекистоннинг буюк келажаги йўлини ёритиб, бундан буён ҳам бошимиз узра ёркин порлаб тураверишига астойдил умидвормиз.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Амир Темур ва темурийлар ҳақида. Миср кутубхоналарида сақланаётган манбаа ва қўлланмалар ФИХРИСТИ (муаллифи-Ш.Бобохонов, тайёрловчи - Н.М.ат-Термизий). Қоҳира. 1996 йил.

2.Бобур. Бобурнома. – Т.: “Фан”, 1960,

3.О.Хасанбоева ва б. “Педагогика тарихи”, Тошкент, 1998 йил.

4.Ж.Хасанбоев XIV асрнинг иккинчи ярми ва XYI асрларда Мовароуннаҳрда мактаб-мадраса ва педагогик фикрлар (ўқув қўлланма). Тошкент, 1997 йил.

5. Б.Хасанова XIV-XVI асрларда Мовароуннаҳрда таълим-тарбия ва педагогик фикрлар. Тошкент, 2000 йил.

6.К.Хошимов, ва б. “Педагогика тарихи”, Тошкент, «Ўқитувчи», 1996 йил.

7.Ўзбек педагогикаси тарихи (А.Зуннунов таҳр.ост.). Тошкент, 1997й.

Умарова М. Теория и история педагогики. Учебное пособие. – Т.: “Издательско полиграфичкский дом имени Чулпана”, 2018 г

ЁШЛАРДА ВАТАНПАРВАРЛИК ҲИССИНИ ТАРБИЯЛАШДА “БОБУРНОМА” АСАРИГА ИШЛАНГАН МИНИАТЮРАЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Ҳайдаров Сулаймон Амиркулович

Ижтимоий-маънавий тадқиқотлар институти мустақил изланувчиси

Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети катта ўқитувчиси,

педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация: Таълим муассасаларидаги энг асосий фанларидан бири Ўзбекистон тарихи дарсларидир. Ўқувчининг миллий тарихга муносабати - бу унинг ўз халқи, миллий давлатчилиги тарихини билиш эҳтиёжини ифодалайдиган кўникма ва малакалари мажмуидир.

Таянч сўзлар: дарслик, ўқувчи, ўқитувчи, кўникма, малака, билим, тажроиба, метод, услуб, тарбия, “Бобурнома”, миниатюра.

Аннотация: Одним из основных предметов в общеобразовательных учреждениях является история Узбекистана. Отношение школьника к отечественной истории представляет собой совокупность навыков и умений, выражающих его потребность в познании истории своего народа, национальной государственности.

Ключевые слова: учебник, ученик, учитель, умение, умение, знание, опыт, метод, стиль, обучение, «Бобурнома», миниатюра.

Annotation: One of the main subjects in educational institutions is the history of Uzbekistan. The student's attitude to national history is a set of skills and abilities that express his need for knowledge of the history of his people, national statehood.

Key words: textbook, student, teacher, skill, skill, knowledge, experience, method, style, training, "Boburnoma", miniature.Annotation.

Замонавий ҳаётни бугун илм-маърифат ва таълимнинг тараққиётисиз тасаввур этиб бўлмайди, инсоният фан ўқи атрофида айланаётгандек гўё. Жаҳоннинг етакчи давлатларида таълимни ривожлантириш биринчи галдаги вазифа сифатида белгиланиши ҳам бежиз эмас. Негаки, мамлакатнинг келгуси равнақи айнан шу соҳада қўлга киритган ютуқлари билан чамбарчас боғлиқдир.

Президентимиз айтганидек, ҳаммамизга аёнки, тараққиётнинг тамал тоши ҳам, мамлакатни қудратли, миллатни буюк қиладиган куч ҳам бу — илм-фан, таълим ва тарбиядир. Эртанги кунимиз, Ватанимизнинг ёруғ истиқболи, биринчи навбатда, таълим тизими ва фарзандларимизга бераётган тарбиямиз билан чамбарчас боғлиқ. [1]

Президент Шавкат Мирзиёевнинг 29 апрелдаги фармони билан Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси ва уни жорий йилда амалга ошириш учун йўл харитаси тасдиқланди. Мазкур концепция таълим тизимини ривожлантиришнинг ўқитиш методикасини такомиллаштириш, таълим-тарбия жараёнига индивидуаллаштириш тамойилларини босқичма-босқич татбиқ этиш йўналиши нафақат замонавий таълим методлари ва педагогик технологиялар ёрдамида таълим сифатини оширишга, балки тарихий қадриятлар, анъаналарнинг дидактик имкониятларидан оқилона фойдаланишни назарда тутади.

Шу йўналишда тарих фанини ўқитишда бугунги кундаги янгиликлар, ўзгаришлар ва қонунлар, замонавий манбалар, эришилаётган натижалар, бўлиб ўтаётган энг сўнгги воқеликлар билан бир қаторда тарихий манбалардан фойдаланиш технологияларини яратиш долзарб педагогик муаммолар сирасига

киради. Бу муаммолар дунё миқёсида тадқиқ этилиб, тарихчи ва педагоглар томонидан уларнинг ечимига оид янги илмий хулосалар тақдим этиб борилмоқда.

Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида «таълим олувчиларнинг юксак маънавий-эстетик ва руҳий-ахлоқий тарбиясига, энг аввало, уларнинг миллий ва умуминсоний қадриятларга, мусиқа ва санъат оламига бўлган муносабатига эътибор қаратиш» [2, 25] муҳим вазифалар этиб белгиланган.

Жумладан, Темурийлар ва Бобурийлар даври маданияти, китобат ва рангтасвир санъати, хусусан, «Бобурнома» миниатюраларидан Ўзбекистон тарихини ўқитишда назарий асос сифатида фойдаланиш дарснинг дидактик имкониятларини оширади.

Кўргазмалилик оғзаки методга, оғзаки метод кўргазмали методга асосланганидек, ўқувчиларнинг мустақил фикрлашларини шакллантиришга йўналтирилган амалий фаолияти ҳам ўқитувчининг оғзаки ва кўргазмали тасвирларига суянади.

Бу жараёнда Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг «Бобурнома» асарига ишланган миниатюралардан фойдаланиш яхши самара беради. Бобур ўзининг мазкур асарида Мовароуннаҳрнинг турли вилоятлари, шаҳарлари, туманлари ва қишлоқларини тасвирлаб, уларинг географик ҳудуди, табиати, об-ҳавоси, ўсимликлари, ҳайвонлари тўғрисида фикр юритади. Шунга мувофиқ тарзда миниатюра санъати асарларида улар тасвирий образларда тақдим этилган.

Машҳур англиялик олим, татқиқотчи ва “Бобурнома” асарини инглиз тилига таржима қилган Аннет Сусанна Беверидж бу асарни Гиббон ва Ньютон эсдаликлари билан бир қаторга қўяди. Умуман олганда,т «Бобурнома»да давр, турмуш тарзининг барча кўринишлари хаққоний тарзда тасвирланган.

Масалан, ўқитувчи Бобур Мирзо ҳаётини тушунтирар экан, Бобурнинг «Бобурнома» асаридан фойдаланса ва мавзуга оид расмларни танлаб, кўрсатиб тушунтирса, ўқувчининг шу даврни ҳис қилиши осонлашади. Чунки, айрим

ҳолларда ўқитувчининг маърузаси таъсирли, образли бўлса-да, айрим тарихий ҳодисалар, фактлар ўқувчи тасаввурида маълум даражада мавҳумлигича қолади. Айнан шунинг учун ҳам тарихий миниатюра санъати асарларининг таълимий аҳамияти катта. 8-синфдаги 1-чи «XV аср охири –XVI аср бошларида Хуросон ва Мовароуннаҳрдаги сиёсий вазият» ва 4-чи «Заҳириддин Муҳаммад Бобур –буюк давлат арбоби» мавзуларида Бобур тасвирланган миниатюра асари билан ишлаш жараёнида анализ ва синтезнинг қандай боришини кузатиб чиқайлик. Биз сурат – миниатюра санъати асари билан ишлашда мавзуни ўтаётганда фойдаланадиган миниатюранинг номини ўқувчиларга айтмасдан, суратни таҳлил этишдан бошласак, суратда тасвирланган Бобур Мирзо тимсолига қараб, ўқувчилар тасаввурида XVI аср кўз олдига келади. Ўқитувчининг кўрсатмаси билан ўқувчилар суратда тасвирланган Бобурнинг кийим-боши, хатти-ҳаракатларини кўради. Суратдаги Бобурнинг ўйчанлиги, умидсизлиги, тақдирга тан бериш ҳиссиётлари ўқувчиларда эмоционал таассурот уйғотади. Ўқувчилар юқорида кўрсатиб ўтилган ҳамма белгиларга қараб Бобур ва шу давр ҳақида маълум тасаввурга эга бўладилар ҳамда Бобурнинг аҳволини аниқлайдилар. Анализ шу билан якунлангач синтез жараёнига ўтилади. Ўқувчилар суратда тасвирланган шахс Бобур эканлигини билишди. Суратда табиат манзараси, тахтда ўтирган ҳолда Бобурнинг ватанидан узоқдалиги уни юрт соғинчини ҳис қилаётганлигини акс эттиради.

Худди шундай фикрларни Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг «Бобурнома» асари ҳамда унга ишланган миниатюраларга нисбатан ҳам билдириш мумкин. «Бобурнома»нинг 2008-йилги нашрига сўз боши ёзган таниқли бобуршунос олим Ваҳоб Раҳмонов «Бобурнома»нинг котиби Бобурнинг улуғ подшоҳларга хос саккиз шахсий фазилатини қайд этганлигини ёзади. У қудратли подшоҳнинг (яъни Бобурнинг С.Ҳ) яхшиликларини айтган билан ва ёзган билан тугатиш маҳолдир. Лекин қисқаси буни, саккиз асл сифат унинг зотига хос эди: бири бу ким – иқболи баланд эди; иккинчиси – ҳимматли инсон эди; учунчиси – вилоят олмоқ эди; тўртинчиси – вилоят сақламоқ эди; бешинчиси – маъмурлик;

олтинчиси – Аллоҳ бандаларига фаровонлик ниятли; еттинчиси – лашкар кўнглини қўлга олмоқ; саккизинчиси – адолат қилмоқ.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва унинг мемуар, ўлмас асари халқимизнинг ёрқин ва ишончли тарихининг зарварақларидан бўлиб, «Бобурнома» асари тўғрисида бир қатор тадқиқотчи ва олимлар фикр билдиришган.

«Бобурнома» асарига оид махсус асар ёзган Ансориддин Иброҳимовнинг «Бобурнома» буюк асар рисоласи «Бобурнома» тўғрисидаги асарлар орасида ўз илмийлиги билан ажралиб туради. [3, 80]Ушбу рисолада муаллиф «Бобурнома»ни Франция, Германия, Англия, Америка, Россия, Туркия, Ҳиндистон, Покистон, Япония ва Ўзбекистонда ўрганилиши ва унинг қўлёзма нашрлари, таржималари ва танқидий матнлари ҳақида илмий фикрларни баён этган. Саидбек Ҳасановнинг «Бобурнома»ни 2002 йилги нашрига ёзган сўз бошисида «Бобурнома»да [4, 3-16] 1605 нафар киши, 1151 жой, 277 қавми-қабила, насаб, 414 ҳайвон ва ўсимликлар, 40 та китоб рисола, 18 та мақол ва ҳикмат, 94 та шеърий ҳикмат берилганлигини қайд этиб ўтган.

Камолиддин Беҳзод ва Шоҳ Музаффар тўғрисида «Бобурнома»да берилган маълумотлар аҳамиятлидир. Бир ўринда «Бобурнома»да: «Устоз Беҳзод ва Шоҳ Музаффар тасвирида бекнинг сайи ва эҳтимоми била шундоқ машҳур ва маъруф бўлдилар»– дейилса, бошқа ўринда: Мусаввирлардин Беҳзод эди, Мусаввирлик ишини бисёр нозук қилди. Вале соқолсиз элнинг чеҳрасини ёмон очадир. Ғарғабини кўп улуғ тортадир. Соқоллик кишини яхши чеҳрали, кушойлик қиладур[4, 154].

Яна Шоҳ Музаффар эди, тасвирни кўп нозук қилур эди, таъширни худгузаро нозик қилур эди [4, 164].

Юқоридаги таърифлардан кўриниб турибдики, «Бобурнома» нафақат тарихий воқеликлар, балки шу воқеликларни юксак маҳорат билан тасвирлаган мусаввирлар ҳақида ҳам муҳим маълумотлар беради. Қолаверса, бундай таъриф улар яратган миниатюраларнинг ҳаққонийлиги билан ҳам изоҳланади. Шуларга асосан эътироф этиш ўринлики, миниатюра санъати асарлари замонавий

шароитдаги тарих таълими учун мукаммал ўқув-иллюстратив материал вазифасини ўтайди. Демак, «Бобурнома» асарига ишланган миниатюралар ҳам алоҳида аҳамиятга эга. Агар 1960-йилги «Бобурнома» асарига 4 та миниатюра, 2000-йилги нашрида 8 та миниатюра илова қилинган бўлса, 2008-йилги «Бобурнома» асари нашрига ишланган миниатюралар рангли китоби алоҳида жилд шаклида чоп этилди. Унда 100 дан ортиқ миниатюралар берилган. Натижада Ўзбекистон тарихи дарсларида тарихий мавзудаги миниатюра санъати асарларидан фойдаланиш имконияти сезиларли даражада ортади.

Бундай методик усулларни ушбу илмий муаммога нисбатан қўллаш мақсадга мувофиқ:

- кўрсатиш (мисоллар, далиллар келтириш ва ҳ.к воситасида намойиш этиш);

- топшириқ ва мисоллар (мантиқий, муаммоли ва ҳ.к.) бериш;

- таққослаш, тарихий экскурсия, мозийга назар ташлаш;

- ўтмишга саёҳат;

- турли жадваллар тузиш;

- жаҳон тарихи билан мавзуларни боғлаш орқали таҳлил қилиб умумлаштириш;

- янги педагогик технология асосида қўшимча манбалардан фойдаланиб, дарс ўтиш, умумлаштирувчи ва такрорлаш дарсларида ушбу алоқаларни қўллаш.

Бундай шакл ва усуллар орқали дарс ўтишдан асосий мақсад иккала тарих курсини боғлаш мумкин бўлган мавзу материаллари мазмунини узвий алоқадорликда ўраганишда ёрдам бериш билан бирга ўқувчиларнинг яхлит илмий дунёқараши, тарихий билимлар тизимини шакллантириб, таълим самарадорлигига эришишдир. «Ўзбекистон тарихи»ни ўрганишда тарихий миниатюра санъати асарларидан фойдаланишнинг дидактик имкониятлари қуйидагиларда ўз аксини топади.

1. Ўқувчиларнинг ватанимиз тарихий тараққиётидаги ўзгаришларини ҳар томонлама ва чуқур тушуниб англаб олишларига ёрдам беради. Тарихий мавзудаги миниатюра санъати асарлари тарихий факт ва воқеаларни конкретлаштиради, ўқувчилар тасаввурлари тўғри ва аниқ, ўзлаштирган билим ва малалакалари пухта, мустаҳкам ва онгли бўлишини таъминлайди.

2. Ватанимиз тарихини ўқитишда тарихий мавзудаги миниатюра санъати асарларидан фойдаланиш таълимни реал тарихий воқеликлар, тарбия ишларини ҳаёт билан алоқадорликда олиб бориш имконини беради.

3. Ўқувчиларга таниш ва тушунарли бўлган миниатюра санъати асарлари уларнинг кўз ўнгида содир бўлган ёки бўлаётган ўзгаришларни, тарихий тараққиётнинг умумий қонуниятлари, объектив ва субъектив сабабларини тушуниб олишларини осонлаштиради.

4. Ўқувчиларнинг тарих фанига қизиқишини оширади, мустақил фикрлашга ўргатади, тарихга оид материалларни ўзлаштиришга ижодий ёндашган ҳолда ишлаш жараёнини фаоллаштиради, мавжуд билим ва малакаларини қўллай олишга ўргатади, уларга эмоционал таъсир кўрсатиши натижасида ўқув материалларининг таъсирчанлигини оширади.

Хулоса қиладиган бўлсак, «Бобурнома»да тарихий илмий манба сифатида эътироф этиладиган миниатюра асарларининг тарих дарсларидаги тадбиқи ўқувчиларга комплекс таъсир этиш имкониятларини оширади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимидаги нутқи, 30.09.2020 й.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

3. Иброҳимов А. Бобурнома – буюк асар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 80 б.

4. Бобурнома. – Т.: Юлдузча, 1990. – 154 б.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ASARLARINING TARIXIY AHAMIYATI

Tojixon Sabitova

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, f.f.n. dotsent

Annotatsiya.

Buyuk bobokalonimiz, ulug` vatandoshimiz, mohir sarkarda, xassos shoir va adib Zahiriddin Muhammad Bobur bizga ulkan meros qoldirgan. Shoirning ijodi serqirradir. Asarlarining asosiy g`oyasi-inson ma`naviy sog`lom, ma`rifatli va jismoniy jihatdan pok, mukammal bo`lishi kerak. Ushbu mo`jazgina tadqiqotda uning ayrim asarlari haqidagina fikr yuritiladi va ba`zi nuqtalar tahlil etiladi.

**Kalit so`zlar:** mutafakkir, san`at, arbob, sarkarda, meros, buyuk, shariat, mezon, qomusiy asar, Movorounnahr, Xuroson

Аннотация.

Наш великий предок, великий соотечественник, умелый полководец, чуткий поэт и писатель Захириддин Мухаммад Бабур оставил нам великое наследие. Творчество поэта многогранно. Основная идея его произведений заключается в том, что человек должен быть духовно здоровым, просветленным и физически чистым и совершенным. В этом небольшом исследовании рассмотрены лишь некоторые его работы и проанализированы некоторые моменты.

Ключевые слова: мыслитель, искусство, государственный деятель, полководец, наследие, великий, шариат, критерий, энциклопедия, Мовороуннахр, Хорасан.

Abstract.

Our great ancestor, great compatriot, skillful commander, sensitive poet and writer Zahireddin Muhammad Babur left us a great legacy. The poet's creativity is multifaceted. The main idea of his works is that a person should be spiritually healthy, enlightened and physically clean and perfect. In this small study, only some of his works are considered and some points are analyzed.

Keywords: thinker, art, statesman, commander, heritage, great, shariat, criterion, encyclopedia, Movovunnahr, Khorasan.

Zahiriddin Muhammad Bobur faqat yirik davlat arbobi va mohir lashkarboshigina bo’lib qolmay, buyuk shoir, adib, tarixchi va olimdir. Boburning merosi xilma – xildir. U ham shoir, ham yozuvchi bo’lgan, u musiqa ilmi, she’riy uslub hamda harbiy san’at haqida ilmiy risolalar yozgan. Ammo uning bu asarlari hozirgacha topilmagan yoki bizgacha yetib kelmagan. Uning "Boburnoma" dan tashqari "She’rlar devoni" bo’lib, mazkur devon Boburning Lutfiy va Navoiydan qolishmaydigan darajada yetuk bir lirik shoir ekaniga dalildir. Bobur o’zining "Mubayyin" nomli asarida soliq solish tartiblari, ekin maydonlarini tayinlash, qanday yerlardan qaysi hajmda soliq olishni shariat mezoni bilan o’lchab, chiroyli nazmiy asar yaratgan. Bobur ushbu asarini o’g’li Humoyun Mirzoga atab yozgan, deb taxmin qilish mumkin. Chunki asarda u Humoyun, Komron Mirzolarning nomlarini tilga olib, ularga tilak bildiradi. Bundan tashqari, Bobur Xo’ja Ahrorning tasavvufga oid "Volidiya" nomli asarini nazmga solib, eski o’zbek tiliga tarjima qilgan. Shuningdek, Bobur aruz ilmiga mansub bo’lgan "Muxtasar" nomli qimmatli asarning ham muallifidir. Garchi umri quvg’inlik va musofirlik tashvishlari bilan o’tgan bo’lsa – da, u tahorat, tayammum bilan o’zini pok tutib, musulmonlik farzu sunnatini ado etgan. Buning ustiga kelajak avlodlar uchun da’vatnoma deb aytish mumkin bo’lgan "Kitobu – s – salot" – "Namoz Kitobi" ni yozib qoldirgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur faqat yirik davlat arbobi va mohir lashkarboshigina bo’lib qolmay, buyuk shoir, adib, tarixchi va olimdir. Boburning merosi xilma – xildir. U ham shoir, ham yozuvchi bo’lgan, u musiqa ilmi, she’riy

uslub hamda harbiy san’at haqida ilmiy risolalar yozgan. Ammo uning bu asarlari hozirgacha topilmagan yoki bizgacha yetib kelmagan. Uning "Boburnoma" dan tashqari "She’rlar devoni" bo’lib, mazkur devon Boburning Lutfiy va Navoiydan qolishmaydigan darajada yetuk bir lirik shoir ekaniga dalildir. Bobur o’zining "Mubayyin" nomli asarida soliq solish tartiblari, ekin maydonlarini tayinlash, qanday yerlardan qaysi hajmda soliq olishni shariat mezoni bilan o’lchab, chiroyli nazmiy asar yaratgan. Bobur ushbu asarini o’g’li Humoyun Mirzoga atab yozgan, deb taxmin qilish mumkin. Chunki asarda u Humoyun, Komron Mirzolarning nomlarini tilga olib, ularga tilak bildiradi. Bundan tashqari, Bobur Xo’ja Ahrorning tasavvufga oid "Volidiya" nomli asarini nazmga solib, eski o’zbek tiliga tarjima qilgan. Shuningdek, Bobur aruz ilmiga mansub bo’lgan "Muxtasar" nomli qimmatli asarning ham muallifidir.

Boburning eng yirik va ajoyib asari, uni butun dunyoga tanitgan, Yevropa Sharqshunoslari tomonidan Yuliy Sezarning kommentariyalari bilan bir qatorga qo’yilgan kitobi "Boburnoma" dir. "Boburnoma" tarixiy – badiiy asardir. "Boburnoma" tarixiy manba bo’lishi bilan birga, o’zbek prozasining qimmatli yodgorligidir. Shu bilan birga, "Boburnoma" geografiya, etnografiya, tibbiyot, xalq meditsinasi va boshqa ilmiy sohalar bo’yicha ma’lumot beruvchi asardir. U o’zbek adabiy tilining muhim yodgorligidir.

Boburning faoliyati va adabiy merosini o’rganishda turli soha olimlari – tarixchilar, filologlar, geograflar va boshqalar katta natijalarga erishdilar. Fanda bobur shunoslik deb aytish mumkin bo’lgan maxsus soha vujudga keldi. Bobur faoliyatini o’rganish bo’yicha Yevropa sharo’shunoslaridan Vitsen, Djon Leyden, V.Erskin, R.M.Kalenot, Pave de Kurteyl, Denison Ross, A.Beverij xonim, Len Pulь, E.Xolden, V.X.Moremend va boshqalar, rus olimlaridan N.I.Ilьminskiy, V.V.Vyatkin, A.Samaylovich, V.Bartolьd hamda afg’on va hind olimlari olib borgan tadqiqotlarni alohida ta’kidlab o’tish mumkin. o’zbek olimlaridan H.Yoqubov, V.Zohidov, S.Azimjonova, S.Aliev, A.Qayumov, S.Jamolov, H.Hasanov, I.Haqqulov, H.Qudratullaev va boshqalar samarali xizmat qildilar. Bobur haqidagi

tadqiqotlar chop etildi, Bobur asarlarining lug’atlari tuzildi, Bobur asarlarining qayta-qayta chop etilishga erishildi.

Zahiriddin Muhammad Boburdan qolgan ijodiy merosning eng muhim va eng yirigi O’rta Osiyo, Afg’oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma’lumotlarni o’z ichiga olgan va adabiy tilning yorqin namunasi bo’lgan "Boburnoma" asaridir.

Asarning asli nomi "Boburiya" bo’lsa – da, uni "Voqeanoma", "Tuzuku Boburiy", "Voqeoti Boburiy" deb atadilar, keyinchalik asar "Boburnoma" degan nom bilan mashhur bo’lib ketdi.

"Boburnoma" memuarlar (esdaliklar) to’plamidir. Bu tarixiy – badiiy asar 1494 –1529 yillardagi voqealarni, Movarounnahr, Xuroson, Afg’oniston va Hindistonda ro’y bergan va ko’pida Boburning o’zi ishtirok etgan o’zaro feodal urushlarni o’z ichiga oladi. Aftidan, Bobur siyosiy faoliyatining dastlabki yillaridan boshlab voqealrni xotira sifatida qayd etib borgan, keyinchalik bu qaydlar "Boburnoma"ning yaratilishiga asos bo’lgan. Boburning "Boburnoma"ni qachon yozishga kirishgani ma’lum emas. Biroq asarning ayrim o’rinlari uning ko’proq qismi Hindistonda yozilgani yoki qayta tahrir qilinganini ko’rsatadi. Masalan, adib 909 (1503-1504) yilgi Afg’oniston voqealarini bayon qilar ekan Ibrohim Lo’diy ustidan qozongan g’alabasini eslaydi. Bu esa Boburning 909 yil voqealarini Hindistonda yozganini yoki avvalgi yozganlarini tahrir qilganini ko’rsatadi. Bobur bu asarini umrining oxirlarida, 1529-1530 yillarda yozib tugatadi.

Boburning o’z so’zi va uning qizi Gulbadanbegimning "Humoyunnoma" dagi ma’lumotlariga ko’ra, "Boburnoma" dastlab "Voqeanoma" deb atalgan. "Boburnoma"dagi bir ruboiysida shoir shunday degan edi:

Bu olam aro ajab alamlar ko’rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko’rdum,
Har kim bu "Vaqoe" ni o’qur, bilgaykim,
Ne ranju ne mehnatu ne g’amlar ko’rdum.

"Boburnoma"ni ko’chirgan bir kotib uni "Boburiya" deb nomlaydi. Demak, "Boburnoma" asari o’z davrida yuqorida aytib o’tganimizdek bir qancha nomlar bilan atalgan ekan.

"Boburnoma" ning o’ndan ziyod qo’lyozma nusxalari ma’lum. Asarning Boburning hayot davridayoq ko’chirilgan ikki nusxasi haqida ma’lumotlar bo’lsa – da, ularning qaerda saqlanayotgani ma’lum emas. "Boburnoma" ning XVII – XVIII asrlarda ko’chirilgan nusxalari Sankt-Peterburg, Kalkutta, Agra, Haydarobod, Manchestr, London, Edinburg va boshqa joylarda saqlanadi.

Boburnoma" ning tarixiy manba sifatida baholashga birinchi asos – tarixiy voqealar bayoni bo’lsa, ikkinchi asos asarda tarixiy shaxslar, ularning faoliyati va sarguzashtlarining ifoda etilishidir. "Boburnoma" da bir necha yuz tarixiy shaxslar haqida ma’lumot beriladi. Ular shohlar, viloyat hokimlari, amir – amaldorlar, askarlar, ilm-fan, san’at va adabiyot ahllari, dehqonlar, hunarmandlar va boshqa kasb egalaridir. Adib ularni tasvirlayotgan voqealardagi roliga qarab birlari haqida keng va batafsil so’zlaydi, ikkinchi birlari haqida qisqacha ma’lumot beradi, ba’zilarini biror munosabat bilan tilga oladi yoki eslab o’tadi. Voqealar rivojida muhim o’rin tutgan Umarshayx mirzo, Husayn Boyqaro, Sulton Ahmad mirzo, Xisravshoh kabi tarixiy shaxslarning faoliyati va sarguzashtlarini bayon etish bilan birga, ularning shakl – shamoyili, nasl – nasabi, ma’naviy qiyofasi, xislati, xulq-atvori, kishilarga munosabati, madaniy saviyasi va boshqa jihatlarini ham tasvirlaydi, xilma – xil badiiy portretlar, xarakterlar yaratadi. Bunday personajlar bevosita tarixiy roman yoki qissalardagi qahramonlarga o’xshab ketadi. Bobur ularning ta’rifi va tavsifini bir joyga to’plab, mujassamlashtirib beradi, bu bilan kitobxonni tarixiy shaxs bilan tanishtiradi, shundan keyin voqealar bayonini davom ettiradi.

"Boburnoma" da ilm – fan, san’at va adabiyot ahllariga ham katta o’rin berilgan. Bobur Navoiy, Jomiy, Binoiy, Muhammad Solih, Hiloliy, Sayfi Buxoriy, Mir Husayn Muammoiy, Shayxim Suhayliy, Yusuf Badeiy, Ahmad Hojibek Behzod, Sulton Ali, Xoja Abdullo Marvoriy, Shoh Muzaffar, Fulom Shodiy, Husayn Udiy

kabi qator shoirlar va san’atkorlar haqida ma’lumot beradi, ularni maqtaydi, asarlardan namunalar keltiradi, ba’zan hayoti, faoliyati va shaxsiy sifatlari haqida qiziqarli faktlarni keltiradi. "Boburnoma" bu kishilarning hayoti va faoliyatini o’rganishda, ularning madaniy hayotdagi o’rnini belgilashda juda ahamiyatlidir.

Bobur peyzaj ustasidir. Mana bir misol. Bobur va uning odamlari o’z yo’llarida duch kelgan va ular kechib o’tishlari lozim bo’lgan daryoning kengligini, ulug’vorligini va sekin oqishini muallif quyidagiga qisqa va obrazli qilib ifodalaydi: "Farib ulug’ suv nazarga keldi. Ul yuzdagi dashtlar xud aslo ko’rinmaydur. Suv osmon bila payvast ko’rinadur, ul yuzdagi tog’lar va pushtalar netavrkim, Serobning ul yuzidagi tog’ va pushtalar muallaq ko’rinur..." "Boburnoma" muallifi bunday o’rinlarda iste’dodli adib va shoir sifatidagina emas, balki bilimdon va kuzatuvchan bir olim, geograf, tabiatshunos, etnograf, tilshunos, san’atshunos sifatida gavdalanadi. U ayrim kichik detallarga ham katta e’tibor beradi, realistik lavhalar yaratadi va hassos rassom sifatida tabiatning xilma-xil manzaralarini chizadi. Andijon, Marg’ilon, O’sh, Xo’jand, Qobul, Fazna, Hirot va boshqa shaharlar tasviri xuddi shunday manzaralardir. Joylar tasviri "Boburnoma" da tarixiy voqealarni, kishilarning sarguzashti, hayoti va faoliyatini bayon etishda bir ekspozitsiya vazifasini bajaradi. Masalan, 1494 yil voqealarni, Umarshayx Mirzoning halokati va o’zining taxtga chiqib amakisining qo’shinini chekinishga majbur etganini so’zlashdan avval Farg’ona viloyati va uning yetti shahrini tasvirlaydi.

Bobur tabiat manzaralari bir-biridan farq qiluvchi va o’ziga xos bo’lgan viloyat va o’lkalarda bo’ldi. U turli joylarni tasvirlar ekan, mana shu tabiat manzaralariga ham katta e’tibor beradi, ularning nozik nuo’talarini topa oladi va xuddi bir rassomday jonli polotnolar, peyzajlar chizadi. "Boburnoma"ning tarixiy manba sifatida baholashga birinchi asos – tarixiy voqealar bayoni bo’lsa, ikkinchi asos asarda tarixiy shaxslar, ularning faoliyati va sarguzashtlarining ifoda etilishidir. "Boburnoma" da bir necha yuz tarixiy shaxslar haqida ma’lumot beriladi. Bunday personajlar bevosita tarixiy roman yoki qissalardagi qahramonlarga o’xshab ketadi. Bobur ularning ta’rifi va tavsifini bir joyga to’plab, mujassamlashtirib beradi, bu

bilan kitobxonni tarixiy shaxs bilan tanishtiradi, shundan keyin voqealar bayonini davom ettiradi

"Boburnoma" da nosir Boburning san’atkorlik mahorati ham sezilib turadi.

Asarda romantik tuyg’u, yuksak badiiy vositalar – tashbeh, istiora, majoz, mubolag’a, badiiy san’atlari orqali voqea - hodisalarni tasvirlash uning jozibador va go’zal bo’lishini ta’minlaydi.

Nasrda nazm qanchalik an’ana bo’lmasin, har bir adib bu masalaga o’z o’lchovi, uslubi, tasviri bilan yondashgan. Masalan, "Boburnoma" da muallif o’z fikrini nasrda bayon etadi, boshqacha aytganda, shoir Boburdan ko’ra nosir Bobur yaqqolroq ko’ringan.

"Boburnoma" voqeaviy – ilmiy – saprguzasht asar bo’lganligi bois muallif o’zining yuksak romantik tuyg’ularini ifodalash uchun gohida shoirona tuyg’uga beriladi, realistik tasvirlariga ko’tarinkilik baxsh etish niyatida she’rga murojaat etadi. "Boburnoma"ning ana shu qismlari, ayniqsa, juda ravon o’g’iladi, o’quvchini muallif hikoya qilgan voqea - hodisalarga hamroh qiladi. Xullas, Bobur o’zining lirikasi bilan ham, "Boburnoma" asari bilan ham o’zbek adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo’shdi. Boburning "Boburnoma" sidan ilhomlangan qizi Gulbadanbegim fors – tojik tilida "Humoyunnoma" asarini yaratdi.

Boburning faoliyati va adabiy merosini o’rganishda turli soha olimlari – tarixchilar, filologlar, geograflar va boshqalar katta natijalarga erishdilar. Fanda bobur shunosli Boburning faoliyati va adabiy merosini o’rganishda turli soha olimlari – tarixchilar, filologlar, geograflar va boshqalar katta natijalarga erishdilar. Fanda bobur shunoslik deb aytish mumkin bo’lgan maxsus soha vujudga keldi. Bobur faoliyatini o’rganish bo’yicha Yevropa sharo’shunoslaridan Vitsen, Djon Leyden, V.Erskin, R.M.Kalenot, Pave de Kurteyl, Denison Ross, A.Beverij xonim, Len Pulь, E.Xolden, V.X.Moremend va boshqalar, rus olimlaridan N.I.Ilьminskiy, V.V.Vyatkin, A.Samaylovich, V.Bartolьd hamda afg’on va hind olimlari olib borgan tadqiqotlarni alohida ta’kidlab o’tish mumkin. o’zbek olimlaridan H.Yoqubov, V.Zohidov, S.Azimjonova, S.Aliev, A.Qayumov, S.Jamolov, H.Hasanov,

I.Haqqulov, H.Qudratullaev va boshqalar samarali xizmat qildilar. Bobur haqidagi tadqiqotlar chop etildi, Bobur asarlarining lug’atlari tuzildi, Bobur asarlarining qayta-qayta chop etilishga erishildi.bobur shunoslikk deb aytish mumkin bo’lgan maxsus soha vujudga keldi. Bobur faoliyatini o’rganish bo’yicha Yevropa sharo’shunoslaridan Vitsen, Djon Leyden, V.Erskin, R.M.Kalenot, Pave de Kurteyl, Denison Ross, A.Beverij xonim, Len Pul, E.Xolden, V.X.Moremend va boshqalar, rus olimlaridan N.I.Ilьminskiy, V.V.Vyatkin, A.Samaylovich, V.Bartold hamda afg’on va hind olimlari olib borgan tadqiqotlarni alohida ta’kidlab o’tish mumkin. o’zbek olimlaridan H.Yoqubov, V.Zohidov, S.Azimjonova, S.Aliev, A.Qayumov, S.Jamolov, H.Hasanov, I.Haqqulov, H.Qudratullaev va boshqalar samarali xizmat qildilar. Bobur haqidagi tadqiqotlar chop etildi, Bobur asarlarining lug’atlari tuzildi, Bobur asarlarining qayta-qayta chop etilishga erishildi.

Bobur devoni lirik turning har xil janrda yozilgan she’rlarni, jumladan, g’azal, ruboiy, tuyuq, masnaviy, qit’a, fard va boshqalarni o’z ichiga oladi. Unda oddiy g’azallar bilan bir qatorda g’azali musajja’ (markaziy ruknlari qofiyadosh bo’lgan g’azal), qit’a g’azal (birinchi bayti qofiyasiz bo’lgan g’azal), g’azali husni matla’ (matla’dagi keyingi baytning har ikkala misrasi matla’ga qofiyadosh bo’lgan g’azal), qo’shaloq vaznli va qofiyali, ruboiy tarona (to’rtala misrasi qofiyadosh bo’lgan ruboiy), oddiy tuyuqdan tashqari, qo’shaloq tajnisli tuyuq, tajnisiz tuyuq hamda tajnisli qit’a, tajnislit fard, qofiyali fard va qofiyasiz fard shakllarini ham ko’ramiz. Fazal, ruboiy va tuyuq Bobur lirikasining eng xarakterli janrlaridir.

Xullas, ulug` mutafakkir shoirimizning asarlari haqida kelgusida yanada mukammalroq tadqiqotlar izlanishda davom etadi degan umiddaman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Асарлар, уч жилдлик. 1965 – 66.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Т.:Шарқ, 2002.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. "Бобурнома", Табдил. – Т.: Ўқитувчи, 2008.
4. "Бобурнома". ФАН, Т., 1960.
5. А.Қаюмов Асарлар. 5-жилд. -Т.:Mumtoz so`z, 2009.

БОБУР ИЖОДИДА МУАЛЛИФ ШАХСИЯТИ ТАСВИРИ

Холиқулова Гулсанам Ёркуловна,
Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети докторанти (DSc),
филология фанлари номзоди

Аннотация: Заҳириддин Муҳаммад Бобур шахсияти, унинг дунёқараши, фаолияти ҳақида маълумот берувчи манба, аввало, унинг ўз асарларидир. Мақолада ана шу манба, хусусан, шоир шеърияти, “Бобурнома” асари, мактублари асосида муаллифнинг бетакрор шахси ҳақида таҳлилий фикрлар берилди. Бунинг натижасида Бобурнинг реалистик тасвирга бой адабий меросининг услубий хусусиятлари очиб берилди.

Калит сўзлар: муаллиф шахсияти, шоир шеърияти, “Бобурнома”, мактублар, ҳимматли ва маърифатли инсон, адолатли ҳукмдор, реалистик тасвир, содда ва равон услуб.

Аннотация: Источником сведений о личности Захириддина Мухаммада Бабура, его мировоззрении и деятельности являются, прежде всего, его собственные произведения. В статье приводятся аналитические суждения об уникальности личности автора на основе данного источника, в частности, поэзии поэта, произведения «Бобурнома», писем. В результате были выявлены стилистические особенности богатого реалистической образностью литературного наследия Бобура

Ключевые слова: личность автора, поэзия поэта, «бобурнома», письма, щедрый и просвещенный человек, справедливый правитель, реалистический образ, простой и беглый слог

Abstract: The source of information about the personality of Zahiriddin Muhammad Babur, his worldview and activities are, first of all, his own works. The article provides analytical judgments about the uniqueness of the author's personality based on this source, in particular, the poet's poetry, the work of "Boburnom", letters. As a result, the stylistic features of the literary heritage of Bobur, rich in realistic imagery, were revealed.

Key words: personality of the author, poetry of the poet, "beauburnoma", letters, generous and enlightened person, just ruler, realistic image, simple and fluent style.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур фазилатларга бой инсон эди. Унинг шахсияти, фазилатлари ҳақида маълумот берувчи асосий ва ишончли манба бу - унинг реалистик тасвирга тўйинган лирик ва эпик асарлари. Бобур асарларини тафаккур кўзи билан мутолаа қилган киши "Бобур Мирзо - инсонлар ичида энг ростгўйи" [5, 101] эканлигига сўзсиз амин бўлади. Муаллиф ўз асарларининг мавзуини асосан ҳаётдан олган, уларда ўз кечинмаларини тасвирлаган. Бобур меросининг ҳайратланарли даражада ҳаётийлиги, туйғуларининг табиий ва самимийлиги шундан. Бир сўз билан айтганда ҳақиқат, ростгўйлик, адолат Бобур ва унинг адабий меросининг бош мезонидир. Бобур шахсияти ўз фаолиятининг турли қирраларида, жумладан, подшоҳ, шоир, адабиётшунос, тарихчи, таржимон кабиларда намоён бўлади ва бетакрор шахсиятни кўз олдимизда гавдалантиради.

Дарҳақиқат, Бобур нажҳати баланд шахс. Яъники, унинг насл-насаби баланд - ота томондан темурийлар, она томондан мўғулхонлар авлодидан. Бу ҳақда “Бобурнома”нинг Фарғона тасвирига бағишланган қисмида алоҳида маълумот бериб, отаси Умаршайх Мирзо ва онаси Қутлуғ Нигорхоним ҳақида батафсил тўхталади [Қаранг: 1, 37-40]. Шунингдек Бобур обрў-эътибори баланд подшоҳ. Бу баландлик унинг олий мақсад сари интилишида, моҳир саркарда ва

кучли маданият хомийси эканлигидадир. У тинимсиз ўз мақсади сари интилар экан шундай ёзади:

Ғафлат уйқусидин уйғон - гар тилар бўлсанг мурод,
Ким, етар мақсадға ҳар ким бўлса ул бедорроқ.[2, 67]

Бобур табиатан юксак дидли, гўзалликни севадиган ижодкор. Айни пайтда ҳаёт зарбаларини тортавериб катта тажрибага эга бўлган донишманд. Шунинг учун ҳам унинг шеъриятида ҳикматдек жаранглайдиган байтлар кўпчиликни ташкил этади:

Ҳар кимки вафо қилса, вафо топқусидир,
Ҳар кимки жафо қилса, жафо топқусидир.
Яхши киши кўрмагай ёмонлиғ ҳаргиз,
Ҳар кимки, ёмон бўлса, жазо топқусидир.[2, 162]

Бобур табиатан “ҳиммати аржуманд” – улуғ ҳиммат соҳиби. Қуйидаги рубоий муаллифнинг ушбу фазилати хусусидаги ўз иқрорномасидек жаранглайди:

Беқайдмену хароби сийм эрмасмен,
Ҳам мол йиғиштирур лаим эрмасмен,
Кобулда иқомат этти Бобур дерсиз,
Андоқ демангизларки, муқим эрмасмен. [2, 192]

Маълумки, нафс инсон руҳиятининг кишани. Давлат, олтин-кумушга алданган, уни тўплашга муккасидан кетган шахс нафс кишани билан ўзини эрксиз этиб, гадога айланади. Бу кишан эса камолот йўлидаги асосий тўсиқ. Бу тўсиқни янчиб ўта олган инсонгина эркин бўла олади. Рубоийнинг дастлабки икки мисраси нафсни енга олган, ҳиммати баланд, эркинтабиатли кишининг қиёфасини кўз ўнгимизда гавдалантиради. Бу қиёфа том маънодаги Бобур менидир.

Бобурнинг улуғ ҳиммати унинг ғайрат-шижоатида, ҳаётга бўлган жўшқинлигида, ҳаракати, ҳафсаласи, қунтида, одамгарчилик, мурувват юзасидан қилинадиган яхшиликларида намоён бўлади. Тарихчи Муҳаммад

Ҳайдар Мирзо “Тарихий Рашидий” асарида Заҳириддин Муҳаммад Бобурни турли гўзал фазилатлар ва мақтовга лойиқ сифатларга эга подшоҳ деб тилга олар экан, унинг “шижоат ва мурувватпеша”лигини барча фазилатларидан устун қўяди ва “табиатан мурувватли инсон” дея тилга олади.

Дарҳақиқат, Бобур мурувватли подшоҳ. У ўзига ёмонлик қилганларнинг ҳам гуноҳидан ўтиб, қўлидан келганча уларга яхшилик кўрсатади. Амакиваччаси Мирзохон ва поччаси Муҳаммад Ҳусайн мирзонининг сотқинлигини, ҳатто Муҳаммад Ҳусайн мирзонинг Бобур маҳрамхонасига сўроқсиз киришидек номақбул ишларини кечирган мурувватли Бобур Хисравшоҳдек “харомнамак” кишига ҳам мурувват кўрсата оладиган ҳиммати аржуманд инсон эди.

Маълумки, 1506 йилда Бобур Қобулдан Хуросонга келганда, Қобулда турли миш-мишлар тарқалади, яъники унинг Ҳиротдан Қобулга соғ-омон қайтиш эҳтимоли йўқ. Ҳусайн Бойқаро фарзандлари Абусаид авлодидан бўлган Бобурни тирик қўймаслиги мумкин. Натижада Бобурнинг Қобулда қолган амакиваччаси Мирзохон бувиси Шоҳбегим (Юнусхоннинг хотини, Султон Нигорхонимнинг онаси, Бобурнинг ўгай бувиси) кўмагида подшоҳликка кўтарилади. Муҳаммад Ҳусайн мирзо (холаси Хўб Нигорхонимнинг турмуш ўртоғи, “Тарихий Рашидий” асарининг муаллифи Муҳаммад Ҳайдар Мирзонинг отаси) эса уларни қўллаб-қувватлайди. Бобур бу воқеадан хабар топиб, Хуросонда темурийзодаларнинг иноқлиги бўлмагач Қобулга қайтади, лекин ўзига нисбатан бевафолик қилган ўгай бувиси Шоҳбегим, амакиваччаси Мирзохон, поччаси Муҳаммад Ҳусайн мирзоларга адоват назари билан қарамайди. Бу ҳақда “Тарихи Рашидий” муаллифи шундай ёзади: “Яхшилик ва мурувват Бобур Подшоҳга хос сифатлар эди, у ҳеч бир кек сақламай, шод-хуррам ҳолда ўгай бувисининг олдига кирди. Шоҳбегим ундан юз ўгириб, ўз туғишган неварасини подшоҳ қилиб кўтарган эди. Шоҳбегим Подшоҳни кўргач, хижолат бўлиб, тилига бир сўз келмай қолди. Бобур Подшоҳ тиз чўкиб, адаб расмига риоя қилган ҳолда, мулойимлик билан “Агар муҳтарам она

ўғилларидан бирортасига меҳрибонлик кўрсатса, бошқа ўғил қандай қилиб бундан хафа бўлсин? Онанинг ҳар қандай истаги фарзандлар учун қонундир” деди-да, тағин қўшиб қўйди “Мен тун бўйи ухламай узоқ йўл босиб келдим” дея ухлаш учун бошини Шоҳбегимнинг қучоғига қўйди. Буни у Шоҳбегимга таскин бериш учун қилади”[4, 250]. Чунки унинг аёлларга бўлган ҳурмати бемисл эди. “Султон суягини хўрламайди” мақолига риоя қилган Бобур амакиваччаси Мирзохон ва поччаси Муҳаммад Ҳусайн мирзога ҳам мурувват назари билан қараб, уларнинг кетиши ёки қолишини ихтиёрларига қўйиб беради.

Амир Темурдек адолат билан иш юритиш Бобурнинг ҳам дастуруламали эди. У вилоят олишда ҳам, вилоят сақлашда ҳам, қўшин кўнглига кириб боришда ҳам, халқ фаровонлигини оширишда ҳам бу сифатни маҳкам сақлайди. Ҳатто фарзандларига ҳам буни насиҳат қилади. Бобур ўғли Хумоюнга мактуб тарзида ёзган “махфий васиятномаси”да ўз ҳаёт тажрибасидан келиб чиқиб, ҳар бир масалада улуғ бобоси Амир Темурнинг ҳукмдорлик услубидан, ҳарб соҳасидаги иқтидоридан андоза олишни, адолатли бўлишни таъкидлаб “Ҳазрат Соҳибқирон Амир Темурнинг иш юритишлари доимо ёдингда бўлсин. Шунда давлатинг маъмур ва пухта бўлади” [1, 331] дейди.

Ҳумоюннинг Ҳиндистон билан боғлиқ фаолиятини назарда тутиб, ўғлига насиҳат қилар экан, ижтимоий-сиёсий қарашлар, давлат бошқариш усуллари, диний мазҳаб ва эътиқодларга, урф-одатларга бўлган муносабатларда одиллик билан ҳукм чиқариш ҳақида қуйидагиларни баён этади: “...ҳар бир мазҳабга пок қалб билан қарагин, ҳар бир мазҳаб ва тариқатга адолатли бўл. Хусусан, сигирни қурбон қилишда сақлангинки, бу Ҳиндистон қалбининг қалб ардоғи ва бу вилоят аҳли подшога яхши назар билан боғланади. Подшоҳ фармонига бўйсунган халқни хароб қилмагин. Адолатни ихтиёр қилгин. Шунда шоҳ раиятдин, раият шоҳдин хотиржам бўлади. Турли эътиқоддаги халқларни тенг тутгинки, шунда салтанат турли ташвишлардан холи бўлади”. [1, 331]

Бобур “подшоҳ ва раият” ўртасидаги нозик жиҳат – уларнинг эътиқоди билан боғлиқ масалага алоҳида урғу беради. Бунга сабаб Бобур турли дин ва эътиқоддаги халқни демократик бошқарув орқали бирлаштириш, уларнинг иноқлигини таъминлаш мумкинлигини чуқур англайди. У инсон ҳаётига тажаввуз қилувчи турли хурофотларга масалан, хотин кишини марҳум турмуш ўртоғи жасадига қўшиб ёқишга тиш-тирноғи билан қарши бўлса-да, лекин диний эътиқод нуқтаи назаридан қадрланадиган тушунчалар масалан, ҳиндларнинг сигирни муқаддас деб билишларини инкор этмайди. Бу билан миллатлараро тотувликни таъминлайди, адолатни “подшоҳ ва раият” ўртасида кўприк деб билади.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур вилоятни ўрни келганда қаттиққўллик, ўрни келганда мурувватлилик билан сақлар экан, у ернинг аҳолисига уларнинг табиатига кўра муносабатда бўлиб, “зўр била ё сулҳ била” маҳаллий аҳолини ўз томонига қаратишга ҳаракат қиладики, бу ҳам адолат тарозисининг Бобур қўлида барқарор эканлигини кўрсатади. Масалан, Бобур Афғонистондаги бебош ҳазарийлар, афғонларга нисбатан қаттиққўллик билан муомалада бўлишни тўғри деб билади ва уларнинг мол-мулкларини ўрни келганда ўлжа сифатида қўлга киритади. Ёки аксинча. Бхира, Хушоб вилоятларининг аҳолисига заррача зиён етказмасдан, марҳамат кўрсатади. Уларнинг синиқ игнасидан тортиб, кесиб ташланган яроқсиз ипигача дахл қилмайди. Бу ҳақда Бобурнинг ўзи шундай ёзади: “Неча маҳал турк тасарруфида эди, буларни худ мулкимиздек тасарруф қилур эрдик...Бу жиҳаттин бу тоғ эли била яхши маош қилмоқ вожиб ва лозим эди. Фармон бўлдиким, ҳеч ким буларнинг гала қароларига, балки ип учи, игна синуғларига атроф ва навоҳида зарар ва нуқсон еткурмасун ”[1, 166].

Бобур давлат бошқарувида подшоҳ ёнида яхши инсонларнинг, доно амир-бекларнинг бўлмоғи кераклигини муҳим деб билади. Шунинг учун бўлса керакки, фарзандларига қилган насиҳатларида, ёзган мактубларида бу масалага қайта-қайта урғу беради. У Комрон Мирзога йўллаган “мактубида унинг

атрофида муносиб инсонлар жой олмоғи кераклигини назарда тутиб, шундай ёзади: “Элга яхши сўз айтиб, дилхоҳ бўлиб, истеъдоди мукаммал инсонлар билан ҳамдам бўлгайсен. Тағин: ножинс, зоти паст кимсаларга ҳар қанча ёқимтой ва қобилиятли бўлсалар ҳам тарбият қилиб, мамлакатни идора қилишга имдод бермагайсенким... Ҳазрати Мавлоно Жомий айтадилар ҳар ким асли нокас бўлиб яралса, уни тузатиб бўлмайди. Итчивин (сагмагас)ни ҳарчанд ўзгартирганда ҳам, унинг қалби итчивин (сагмагас) бўлиб қолаверади [1, 333].

Улуғ ҳиммат яхшиликларда намоён бўлади. Бобур дунёда инсондан фақат яхшилик қолиши керак деган ақида билан яшаб, ҳақиқий жавонмардликни амалда намойиш этган. Гарчи тақдир унинг гарданига турфа оғир юкларни юкласа-да, замон ва одамлардан кўп жабр-у ситам кўрса-да, ҳаёти зиддиятларга тўла бўлса-да, у ёмонликка яхшилик билан жавоб қайтариш ҳақиқий инсоннинг иши деб билади. Эътиборлиси, ижодкор ўзидаги барча фазилат ва сифатларни ўзининг ҳар бир сўзига –адабий меросига сингдирган. Улар хоҳ наср, хоҳ назм бўлсин барчасида Бобур мардлиги, шижоати, саховати, марҳамати, мурувваты, адолати, ватанпарварлиги, инсонпарварлиги, тўғри сўзлиги уфуриб туради. Шоир меросининг ҳайратланарли даражада ҳаётийлиги, кўнгилга яқинлиги, туйғуларнинг табиий ва самимийлиги, услубининг содда ва равонлиги ҳам шундан.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати:

1. Бобур Заҳириддин Муҳаммад . Бобурнома. - Тошкент: “Шарқ”, 2002.
2. Бобур Заҳириддин Муҳаммад Бобур.Ғарибинг андижонийдур. –Тошкент: “Шарқ”, 2008. – 288 б.
3. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. Ҳозирги ўзбек тилига В.Раҳмонов, К.Муллахўжаева тадбили.-Тошкент: “O’qituvchi, 2012.– 288 б.
4. Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихи Рашидий. – Т.: “Sharq”, 2010. – Б.720.
5. Султон Х. Бобурийнома. (Маърифий роман). - Тошкент: Шарқ, 1997.

АНДИЖОННИНГ “БОБУРНОМА”ДАГИ ТАЪРИФИ

Мамажонов Алишер

З. М. Бобур номидаги Андижон давлат университети доценти

Аннотация: *Мақолада Андижонннинг “Бобурнома”да таърифланиши, унинг Фарғона вилояти бешинчи иқлимдиндурлиги. “Бобурнома”да шаҳарлар ва уларнинг табиати тўғрисида фикр юритилиб, водий аҳолиси яшаш шароитларига қараб вилоят, ўрчин, қасаба, кент, қўрғон, маҳалла тарзида ифодаланганлиги, асарда унга жуда катта таъриф берилганлиги баён этилган.*

Калит сўзлар: *Цивилизация, қадриятлар, буюк аждодлар мероси, икки сув ораси, миллийлик, ҳунармандчилик, “читгарлик”, “кигизчилик”, “жебачи”, “дегрезлик”.*

Аннотация: *В статье рассказывается об Андижане в “Бобурноме”, его пятой климатической зоне Ферганской области. “Бобурнома” размышляет о городах и их природе и утверждает, что жители долины в зависимости от условий жизни выражаются в виде областей, орхидей, городков, деревень, замков, кварталов, и в пьесе это очень подробно описано.*

Ключевые слова: *Цивилизация, ценности, наследие великих предков, меж двух вод, народность, ремесла, “читгар”, “войлок”, “джебачи”, “дегрезлик”.*

Annotation: *The article describes Andijan in "Boburnoma", its fifth climatic zone of Fergana region. "Boburnoma" reflects on the cities and their nature, and states that the inhabitants of the valley, depending on the living conditions, are expressed in the form of regions, orchins, towns, villages, castles, neighborhoods, and in the play it is described in great detail.*

Keywords: *Sivilization, values, heritage of great ancestors, between the two waters, nationalism, crafts, "chitgar", "felt", "jebachi", "degrezlik".*

Халқимиз тақдирида бутунлай янги тарихий давр бошланди. Тарихий давр маънавият даври, маърифатчилик даври сифатида вужудга келмоқда. Биз оламни тарих орқали, инсоният тараққиётининг босқичлари, эволюцияси орқали англаймиз. У орқали бугунги кунимизнинг мазмун-моҳиятини тушуниб оламиз, эртанги кунга даҳлдор орзу-умид, мақсадларимизни белгилаймиз. Тарихнинг буюк қудрати, тарбиявий кучи, мураббийлик моҳияти мозийни ўрганиш, тадқиқ этиш орқали бугунни баҳолаш ўтган аср мутафаккирларини фикрларини мужассам эта олишимиздир.

Буюк юртдошимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома”сидир. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўзининг шоҳ асари бўлмиш “Бобурнома”ни ўн икки ёшида яъни Фарғона мулкига 1494 йили подшоҳ бўлганидан бошлайди [1,4].

“Бобурнома” деярли ҳар бир асрда бир неча маротаба номини ўзгартириб, ҳозиргача 25 номда аталгани маълум. Чунончи асли “Вақоеъ” (воқеалар) деб номланган бу асарнинг қўлёзма ва нашрдаги “Воқеанома”, “Воқеоти Бобур”, “Бобурия”, “Тузуки Бобурий”, “Бобур эсдаликлари”, “Воқеоти Қобул” кабилардир [2,153].

“Бобурнома”ни инглиз тилига биринчи таржима қилган инглиз олими Уильям Эрскиннинг “Ҳукмдорлар орасида Бобур сингари даҳо ва истеъдодли сиймоларни камдан-кам учратасиз. Унинг донолиги, истеъдоди, мардлиги, саҳийлиги жиҳатидан фанга, санъатга ва улардан моҳирона фойдалана олиш салоҳиятига кўра унга тенг келадиган подшоҳ топилмайди” [3,14],-деб берилган бу олий баҳоси буюк аждодларимиздан бўлган Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг улуғворлигининг яна бир далилидир.

“Бобурнома”ни ўқир эканмиз инсоннинг яшашдан асл мақсади-эзгу ишлар қилиб, муносиб фарзандлар тарбиялаб, яхши ном қолдириш, қадриятлар, аждодлар руҳига таяниш, аждодлар меросига ҳақиқий ворис бўлиш хислатлари шаклланиб боради.

“Бобурнома”да Андижоннинг бой, сермаҳсул табиатига жуда катта таъриф берилган.

Унда кўрсатилишича “Фарғона вилояти бешинчи иқлимдиндур. Маъмуранинг канорасида воқе бўлубтур. Шарқи Кошғар, ғарби Самарқанд, жануби Бадахшоннинг сарҳади тоғлар, шимолида агарчи бурун шаҳрлар бор экандур, мисли: Олмолиқ ва Олмоту ва Янги ким, кутубларда Тарозкент битирлар, мўғул ва ўзбек жиҳатдин бу тарихда бузулубтур, асло маъмура қолмабдур. Мухтасар вилояттур, ошлиқ ва меваси фаровон. Гирдогирди тоғ воқе бўлубтур. Ғарбий тарафидаким, Самарқанд ва Хўжанд бўлғай, тоғ йўқтур. Ушбу жонибтин ўзга ҳеч жонибтин қиш ёғий кела олмас. Сайҳун дарёсиким, Хўжанд суйиға машҳурдур, шарқ ва шимолий тарафидин келиб, бу вилоятнинг ичи бирла ўтуб, ғарб сори оқар, Хўжанднинг шимоли Фанокатнинг жанубий тарафиндинким, ҳоло Шоҳрухияға машҳурдур, ўтуб яна шимолға майл қилиб, Туркистон сори борур. Туркистондин хейли қуйироқ бу дарё тамом қумға сингар, ҳеч дарёға қотилмас” [4,7-8].

Парчадан кўриниб турибдики, Сирдарёнинг қумда йўқолиши билан бирга уни “Икки сув ораси”,(яъни Норин билан Қорадарё ўртаси “Миёнрудон” номида ҳам учрайди. Бу мавзе Норин ва Қора дарё орасида бўлиб, шарқда Учқўрғон, ғарбда Мингбулоққача, яъни ушбу дарёлар қўшилган жойгача бўлган масофани қамраб олган. Бу жойлар у даврда баҳор палласида ғоят гўзал, дов-дарахт, боғ-роғлар, оқар сувлар ниҳоятда сероб. Қир-адирлар кўкалам-зорлашиб, лолақизғалдоқлар билан қопланган. Иламиш дарёси (яъни Қорадарё) шарқдаги тоғ-адирларга ёққан қору ёмғирлар сувидан тўлиб-тошиб лойқаланиб оқади. Бундай кезларда от миниб сайр қилиш жуда яхши бўлиб, бу жойлар овбоп бўлганлиги учун, улар қишни ов билан ўтказар эди.

“Иламиш (Ирамиш) дарёсининг яқинидаги қалин чангалларда буғу, марал ва тунқуз кўп бўлур.Ушоқ-ушоқ чангалларида қирғовул ва товушқон қалин бўлур. Пуштасида тулкуси бисёр бўлур, даркамин бўлур, тулкуси ўзга ерларнинг тулкусига боқа югурик бўлур. Бу қишлоқда эканда ҳар икки-уч

кунда овға отланур эдим. Улуғ чангалларни ўртаб, буғу-марал овлар эдук” [5,65].

“Бобурнома”да шаҳарлар ва уларнинг табиати тўғрисида фикр юритилиб, водий аҳолиси яшаш шароитларига қараб вилоят, ўрчин, қасаба, кент, қўрғон, маҳалла тарзида ифодаланади. Вилоятлар сифатида Фарғона, Ўш, Исфара ва Қоратегин тилга олинади. Ўрчин атамаси вилоятдан кичик, қасабадан каттароқ ҳудудга нисбатан қўлланиб, асрда Работи Сарханг, Рабатак, Ўратепа, Хўқон, Олайлуқ сингари ўрчинлар қайд қилинган. Заҳириддин Муҳаммад Бобур Фарғона водийсидаги асосий шаҳарларни қасаба деб атаган. Қасабалар , яъни шаҳарлар еттита бўлиб, улардан бештаси: Андижон, Марғинон, Исфара, Хўжанд, Кандибодом Сирдарёнинг жануб томонида, иккитаси Ахси ва Косон дарёнинг шимол томонида жойлашган. “Бобурнома”да бу қасабаларнинг табиати, ҳавоси, сувлари, ҳайвоноти ва ўсимлик дунёси ажойиб таърифланган.

“Бобурнома”да келтирилишича “Етти пора қасабаси бор; беши Сайҳун суйининг жануб тарафида, икки шимоли жонибида. Жанубий тарафидаги қасабалар бир Андижондурким, васатта воқе бўлубтур, Фарғона вилоятининг пойтахтидур. Ошлиғи вофир, меваси фаровон, қовун ва узуми яхши бўлур, Қовун маҳалида полиз бошида қовун сотмоқ расм эмас. Андижоннинг ношпотисидан яхшироқ ношпоти бўлмас. Мовароуннаҳрда Самарқанд ва Кеш қўрғонидин сўнгра мундин улуғроқ қўрғон йўқтур. Уч дарвозаси бор. Арки жануб тарафида воқе бўлубтур. Тўққуз тарнов сув кирар. Бу ажабтурким, бир ердин ҳам чиқмас. Қалъанинг гирдо-гирди хандақнинг тош ёни сангрезалик шоҳруҳ тушубтур. Қалъанинг гирдо-гирди тамом маҳаллоттур. Бу маҳалла била қалъаға фосила ушбу хандақ ёқасидоғи шоҳруҳтур. Ови қуши доғи кўп бўлур, қирғовули беҳад семиз бўлур. Андоқ ривоят қилдиларким, бир қирғовулни ускунасини тўрт киши еб тугата олмайдур. Эли туркдур. Шаҳр ва бозорисида турки билмас киши йўқтур. Элининг лафзи қалам била росттур” [4,8].

Андижон Фарғона давлатининг пойтахтига айлангач, бу ерда ҳунар-мандчилик турлари ривожланган. Шаҳардаги маҳаллаларда “читгарлик”,

“кигизчилик”, “жебачи”, “дегрезлик” каби ҳунармандчилик номлари ҳозиргача сақланиб қолгани ҳам бунинг исботидир. Бозорларга ҳам катта эътибор берилиб, ҳунармандчилик маҳсулотлари туркуми ва хилига қараб, махсус ажратилган жойларда, фақат бир хил моллар сотиладиган дўкон-расталарда сотиш тартиби ишлаб чиқилган ва жорий этилган.

Юқорида айтганимиздек, “Бобурнома”да ёзилишича, Андижоннинг учта дарвозаси бўлган. Улар тунда ёпилиб, эрталабки намоздан сўнг очилар, махсус тайинланган дарбозабонлар томонидан қўриқланар эди. Фарғона мулкининг пойтахти ўлароқ, Андижон Мовароуннаҳрда ўз даврининг нуфузли шаҳарларидан бирига айланган.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўз асарида Фарғона водийси ва Ҳиндистон аҳолиси, шаҳарлари ва табиатини таққослаб, “Ҳиндистон элининг кўпраги кофир бўладур. Ҳинд эли кофирни ҳинду дерлар..., Ҳиндустон кам латофат ер воқе бўлубтур. Элида ҳусн йуқ ва ҳусни ихтилот ва омизиш ва омаду рафт йўқ ва табъ ва идрок ва адаб йўқ ва карам ва мурувват йўқ ва ҳунарларида ва ишларида сиёқ йўқ..., яхши от йўқ ва яхши ит йўқ ва узум ва қовун ва яхши мевалар йўқ , совуқ сув ва бозорларида яхши ош ва яхши нон йўқ ва ҳаммом йўқ ва мадраса йўқ...Дарёларидин ва қора сувларидин ўзгаким, жарлар ва чуқурларда оқадур, боғ ва иморатида оқар сувлар йўқ. Ва иморатларида сафо ва ҳаво ва сиёқ ва андом йўқ. Ёғинларда бир замонда селлар келадур, ҳеч сув йўқ ерларда дарёлар оқадур. Ёғар маҳаллида ва ёғиб турғон маҳалларида ғариб яхши ҳаволар бўладур, андоким, ҳавонинг эътидоли ва латофати андин ўтмас. Айби будирким, ҳаво кўп пурнам бўладур” [5,266-267],-деб таърифлагани бежиз эмас.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур Ҳиндистонда жуда қисқа муддатда бегона юртнинг шарт-шароитини ўрганиш, янги салтанатни мустаҳкамлаш каби ишларга катта куч-матонат ва вақт сарфлади, бу ишлар билан ҳар қанча банд бўлмасин яратувчилик ва бунёдкорлик ишларига ҳам вақт ва имконият топа олган.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур иморатлар қурдиришдан ташқари карвон йўлларини тиклаш, ҳовуз, қудуқ ва ариқлар қаздириш ишлари билан шуғулланган, ҳаммомлар барпо эттирган, Ҳиндистонда сув тегирмони қурдирган ҳам Бобурдир” [6,89]. Бундан кўриниб турибдики Заҳириддин Муҳаммад Бобур қонига гўзаллик ва санъат асарларини қадрлаш хусусияти сингган бўлиб, улар орасида меъморчилик ва боғ яратиш санъати алоҳида ўрин эгаллайди.

Хулоса қилиб айтганимизда, “Бобурнома”ни қомусий бир асар сифа-тида таърифланса ҳам ҳеч қандай муболаға бўлмайди. Зеро, унда тарих илми, жуғрофияга оид воқеалар, табиат сарчашмалари, аҳолининг этник таркиби, бадиий шоирона лавҳаларда ўз аксини топган. Шу нуқтаи назардан қараганда, бу асар ўша даврдаги Осиё тарихини тўғри ва тўла акс эттирган ягона асардир.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўзи бўлган мамлакатлар манзараси, иқлими, ишлаб чиқарадиган маҳсулоти, санъат асарлари ва саноатини шунчалик тўла ва батафсил тасвирлаб берганки, бу асар ёзилган шароитни кўз олдимизга келтирадиган бўлсак, шу мақсадда келган сайёҳлар ҳам бунчалик ёза олмасдилар.

“Бобурнома”ни ўқиган ҳар бир киши асар муаллифини ниҳоятда бақувват гавдали, жисмоний ҳаракат талаб қиладиган ўйинларни яхши кўрадиган, ўткир мерган ва моҳир қиличбоз ҳамда соғлом ва чиниққан бир йигит бўлганлигига ишонч ҳосил қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Сирожиддин Саййид. Юз оҳ, Заҳириддин Муҳаммад Бобур... - Т.: “Ўзбекистон”. 2011.

2. Сайфиддин Жалилов. Шаҳзода Бобур.-Т.: “Movarounnahr”. 2013.

3. И.Ҳошимов. Ҳиндистонда бобурийлар сулоласи салтанати.- “Ўқитувчи”.1996.

4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. -T.: “Yangi asr avlodi”. 2015.

5. Заҳирддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. -Т.: “Юлдузча”.1989. 65.

6. Рустамбек Шамсутдинов ва б. Кўҳна ва навқирон Андижон. Т.: “Шарқ”.2010.

O’TKIR QILICH VA QALAM SOHIBI: BOBUR MEROSI JAHON OLIMLARI NIGOHIDA

Rajabov Alisher Shavkatovich
Buxoro davlat universiteti Pedagogika instituti “ijtimoiy fanlar” kafedrasi tarix fani o’qituvchisi
Elibayeva Feruza Xamzayevna
Buxoro shahar 8-maktab biologiya fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Bobur — buyuk podshoh, mumtoz shoir, nazariyotchi adabiyotshunos, faqih, tilshunos, san’atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni sifatida ko‘pqirrali faoliyat va ijod sohibi edi. Birgina «Boburnoma» uning yigirmadan ortiq sohalarga qiziqqanligiga yaqqol misoldir. Ushbu maqolada Boburning ijodiy merosi jahon olimlari tomonidan naqadar o’rganilganligi haqida batafsil bayon qilingan.

Annotation: Babur was a great king, a classical poet, a theoretician, a literary critic, a jurist, a linguist, an art critic, an ethnographer, a scholar of the animal and plant kingdoms. The Boburnoma alone is a clear example of his interest in more than twenty fields. This article details how Bobur's creative legacy has been studied by world scholars.

Аннотация: Бабур был великим царем, поэтом-классиком, теоретиком, литературным критиком, юристом, лингвистом, искусствоведом, этнографом, исследователем животного и растительного царств. Одна только Бобурнома является ярким примером его интереса к более чем двадцати областям. В статье подробно рассказывается о том, как мировые ученые изучают творческое наследие Бобура.

So`nggi temuriy shahzodalardan Zahiriddin Muhammad Boburning jozibador shaxsi, jo`shqin hayoti va faoliyati, insoniy fazilatlari, jahon faniga qo`shgan hissasi

hamda avlodlariga bag`ishlab ko`plab ilmiy-tarixiy, badiiy asarlar yaratilgan. Ta’bir joiz bo`lsa, jahon tarixnavislik ilmida “Eng ko`p va xo`p” o`rganilgan vatandoshimiz ham Boburdir. Ayni kunga qadar o`zbek yozuvchilaridan tashqari Bobur haqida asar yaratgan bir necha o`nlab chet ellik mualliflarning nomlari tanish. Jumladan,

1995-yili “Cho`lpon” nashriyotida ingliz tarixchisi U.Erskinning “Bobur Hindistonda” asari, hind tarixchisi L.P.Sharmaning 1988-yili Dehlida bosilgan “Boburiylar saltanati” asari, amerikalik olim S.M.Berkning “Akbarshoh – boburiylarlarning eng buyugi” (Berk Akbarshoh shaxsiyati va faoliyati misolida Hindistonga Bobur asos solgan, jahon tarixiga, “Buyuk mo`g`ul imperiyasi” nomi bilan kirgan saltanatning mustahkam tomir yozish jarayonini tasvirlaydi) asarlarida Boburga zamondosh tarixchilarning qo`lyozmalari, Hindiston tarixiga oid tadqiqotlar, XX asrning jahonga mashhur olim va tarjimonlarining asarlarida Boburning butun hayot yo`li, bolalik, o`spirinlik, yigitlik yillari, tashvishli kunlari, hukmronlik faoliyati, diniy-falsafiy qarashlari, davlatni boshqarish usuli, madaniyat va san’atga munosabati singari masalalar tasvirlangan.

Amerikalik tadqiqotchi Berk Boburga bergan qisqa va lo`nda tavsiflarida ulug` siymoning hayot yo`li, davlatchilik tarixidagi xizmatlari va shaxsiyatidagi eng muhim jihatlarni muxtasar tarzda yoritishga erishgan. Muallif Boburning hukmronlik siyosati xususida shunday yozadi: “Bobur shohning fikricha, fotihlik va hukmdorlik ishida yuz ming usul qo`llasa ham haq va zarur hisoblanadi. Biroq bosib olingan yerlarni, ayniqsa, bu o`lkalarni o`z saltanati tarkibiga kiritish rejalashtirilgan bo`lsa-da, u g`olib askarlar mag`lublar mulkini talon-taroj qilishiga mutlaqo yo`l qoymasdi”. “Boburnoma” haqidagi fikrlar ham diqqatga sazovor: “Men bor haqiqatni yozdim”, deydi muallif va haqiqatan ham u o`zining kamchiliklari, omadsizlikka olib kelgan noto`g`ri xatti-harakatlarini o`quvchidan yashirmaydi.

Bobur hayoti va ijodi Fransiyada ham keng o`rganilgan bo`lib, Fransiya ilm ahliga Zahiriddin Muhammad Bobur va “Boburnoma” haqida dastavval ma’lumot bergan fransuz sharqshunosi Bartoleme D’Erbelo (1621-1695) hisoblanadi. D’Erbelo o`zining “Sharq kutubxonasi” (La Biblioteque orientale. Paris, 1967) qomusidagi

“Bobur yoki Bobar” nomli maqolasida Boburning hayoti, uning davlati va sarkardalik mahorati, adabiyot va san’atga qiziquvchi ilg`or fikrli kishi bo`lgani haqida ma’lumot beradi.

XIX asrga kelib Yevropa, xususan, fransuz sharqshunosligida Bobur merosini o`rganish, uning asarlarini tarjima qilish borasida yangi davr boshlandi. Ayni shu yillarda Boburning ulkan asari “Boburnoma”ni fransuz tiliga tarjima qilish, uning matn xususiyatlarini o`rganish, siyosiy-tarixiy ahamiyatini baholashda fransuz olimlari e’tiborga molik tadqiqotlarni yaratishdi.

“Boburnoma”ni fransuz tiliga tarjima va tadqiq qilishga sharqshunos Anri Jyul Klaprot (1783-1835) birinchilardan bo`lib harakatni boshlaydi. 1824-yil A.Klaprotning, “Sulton Bobur yohud “Boburnoma” tarixiga oid kuzatishlar” nomli maqolasi omma e’tiboriga havola etadi. Markaziy Osiyo va Sibirda yashagan xalqlar tarixi, madaniyati va adabiyotini yaxshi bilgan Klaprot Yevropa sharqshunosligida “Boburnoma” xususida ilk bor to`laqonli fikr yuritgan edi. Shundan so`ng 1854-yili Parijda “Hozirda va qadimda yashagan tarixiy shaxslar hayoti” nomli katta kitob chop qilinadi. Mazkur kitobdan sharqshunos M.Langle (1763-1824) ning “Zahiriddin Bobur hayoti va ijodi” nomli maqolasi ham o`rin olgan edi. Maqolada Bobur haqida avvalgi manbalarga nisbatan ancha boy ma’lumot berilgan bo`lib, o`quvchi undan adib hayoti va ijodi to`g`risida chuqurroq bilim olishga muvaffaq bo`ladi. Boburning hayoti va ijodi fransuz kitobxonini tobora qiziqtirib bormoqda edi. Fransuz olimlari so`nggi yillarda Bobur to`g`risida tez-tez maqolalar chop ettirar, kitoblar nashr qildirardi.

Zahiriddin Muhammad Bobur merosini o`rganish, “Boburnoma”ni tarjima va lisoniy tarjima qilishda fransuz turkologi Anri pave de Kurteyl (1821-1889)ning xizmatlari alohida tahsinga loyiq. Fransuz kolleji (College de France) turkiy tillar kafedrasi mudiri, fransuz akademiyasi a’zosi, Sankt-peterburg fanlar akademiyasi muxbir a’zosi bo`lgan Pave de Kurteyl vatani Fransiyada turkologiya ilmining rivojlanishiga ulkan hissa qo`shdi. Professor A.Pave de Kurteylning olimlik faoliyatida u tuzgan “Sharqiy-turkiy tillar lug`ati” (“Dictionnaire de turc orientale”. –

Paris, 1870) yohud “Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va Abulg`ozi Bahodirxon asarlarini o`qish uchun izohli lug`at” alohida ahamiyatga molikdir. Professor A.Pave de Kurteyldagi bu katta tayyorgarlik, eski o`zbek tili va adbiyotidan egallagan puxta bilim uni “Boburnoma”ni tarjima qilishga undagan edi. 1871-yilda “Boburnoma”ning Pave de Kurteyl tarjimasi ikki jildda nashrdan chiqdi (“Memoire de Baber”. Traduit pour la premiere fois sur le texte djagatai par A.Pavet de Courteille, — editions, 1871). Birinchi jildda tarjimonning o`n olti sahifalik so`zboshisi berilgan. Unda “Boburnoma”ning yozilish jarayoni, kitobda keltirilgan voqealar, Bobur shohning Afg`oniston va Hindistonda barpo etgan qudratli imperiyasi xususida ma’lumotlar berilgan.

G`arblik ayrim olimlar “Boburnoma”ning bunyod bo`lishini Bobur Hindistonda hukmron bo`lgan davr bilan bog`laydilar. Fransuz tarjimoni bu haqda quyidagi fikrni aytadi: “Agar mendan “Boburnoma” qaysi davrda yozilgan deb so`rasalar, men kitob Bobur Hindistonni zabt etgandan so`ng, ya’ni 1526-yildan boshlab yozilgan va Bobur shoh hayotining oxirigacha davom etgan, deb javob qilardim”. Professor Pave de Kurteyl bunday xulosaga kelishida, asarning dastlabki boblaridanoq Hindiston davri voqealarining uchrab turishini nazarda tutgan edi. Shunday qilib, Pave de Kurteyl Zahiriddin Muhammad Boburning merosini Fransiyada o`rganish va targ`ib qilishda o`zining yuksak xizmatlari bilan katta hissa qo`shdi. “Boburnoma”ning tarjimoni sifatida mashhur bo`ldi.

1888-yil “Osiyo jurnali” (Journal asiatique)ning ikkinchi jildida sharqshunos Jyul Darmstetye o`zining “Kobul yozuvchilari. Bobur shoh va boshqa mo`g`ul shahzodalarining qabr toshlaridagi bitiklar” nomli maqolasini e’lon qilganligi, boburiylar barpo etgan maqbaralarda bitilgan so`zlar ma’nosi bilan tanishishga yordam beradi.

Ma’lumki, Boburning “Aruz risolasi” asari o`zbek, arab va boshqa turkiy xalqlar she’riyati qonuniyatlarini o`rganishda muhim ahamiyatga ega bo`lgan qo`llanmadir. Bu asar qo`lyozmasining hozirgacha saqlanib qolganligi ilmiy jamoatchilikka ma’lum bo`lmasligi mumkin. Qo`lyozmaning bir nusxasi Parijdagi

Milliy kutubxonada saqlanib kelinayotgani haqida 1923-yil turk olimi M.F.Ko`prulizoda ilk bor ma’lumot beradi. Fransuz sharqshunosi Edgar Bloshe o`zining Parijdagi “Milliy kutubxonada saqlanayotgan qo`lyozmalar katalogi” kitobida “Aruz risolasi”ning ushbu qo`lyozmasiga alohida to`xtalib o`tadi.

XX asrda ham fransuz sharqshunoslari tarafidan Zahiriddin Muhammad Bobur merosini o`rganish, “Boburnoma”ni tarjima qilish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Fransuz adiblarining Bobur hayoti, ijodi va “Boburnoma” kitobi haqida umumiy ma’lumot beruvchi maqolalari ko`paydi. 1930-yili fransuz olimi Fernard Grenardning “Bobur. Hind imperiyasining asoschisi” (Baber. Fondateur de l’Empire des Indes. – Paris: 1930, 179 p) nomli risolasi nashr etildi. Kitob 10 bobdan iborat bo`lib, unda Boburning bolalik vaqtidan to umrining so`nggi davriga qadar boshidan kechirgan voqealar tarixiy-badiiy asnoda hikoya qilingan. Grenardning ushbu risolasi “Boburnoma”ga hamohang bo`lib, undagi voqealarga monand keluvchi ilmiy-ommabop ocherklardan, Boburning Samarqandni tashlab chiqqan, Andijonni qo`ldan chiqargan paytdagi holatini quyidagicha tasvirlaydi: “Orzu-umidlari chilparchin bo`lgan Bobur orqaga qaytadi. Bahor fasli edi, u tog`asi yurti (Toshkent-M.X) tomon yo`l oldi. U ezilgan ko`ngliga taskin berish niyatida o`zining quyidagi misra bilan boshlanuvchi g`azalini bitadi:

Jonimdan o`zga yori vafodor topmadim,
Ko`nglumdan o`zga mahrami asror topmadim.

Boburning Hirot va Kobuldagi hayoti Grenard kitobida bir muncha jonli tasvirlanadi. Bu yerda Bobur taxtu toj uchun jangtalab sohibqiron emas, balki nozikta’b va dilbar shoir qiyofasida ko`rinadi.

Shuningdek, hind olimi, Kashmir universiteti professori Muhobbul Hasan “Boburnoma” hususida fikr bildirarkan, bu asarning Bobur shoh shaxsiyati va davlat tizimini o`rganishidagina emas, balki Hindiston tarixi, geografiyasi va madaniyati, o`tmishini o`rganishda ham qimmatbaho manba ekanini, Hindistonni, uning xalqi

hayotini tasvirlashda muallif idrokining naqadar o`tkirligini ta’kidlab o`tadi. “Boburga qadar bironta musulmon tarixchisi yoki geografi (al-Beruniydan mustasno) Hindistonni bu qadar jonli va to`g`ri tasvirlagan emas”, deydi muallif. Shuningdek, shoh Boburning o`z fuqarosi – hind xalqi bilan do`stona muomalada bo`lganini, hindlar ham shoh tuzumidan mamnun yashaganliklarini ko`p bora ta’riflab o`tadi.

“Boburnoma”ning doctor Bak’e-Grammon tarjimasi fransuz o`quvchisining didiga yaqin saviyada amalga oshiraladi. Unda Bobur hukmronligi davri Movorounnahr, Afg`aniston va Hindiston yerlarining xaritalari berilgan.

“Boburnoma”ning A.J.Klaprot, A.Longper’e, M.Langle, A.Pave de Kurteyl, F.Grenard, Barye-Grammon kabi tadqiqotchi va tarjimonlari Bobur merosining tarixiy-etnografik, bibliografik hamda lingvistik jihatdan tavsif qilish bilan Yevropada boburshunoslikning rivojiga munosib hissa qo`shdilar. Qolaversa, Zahiriddin Muhammad Boburning ilm-fan, adabiyot va san’atga baxshida boy merosini to`plash, nashr etish hamda jahon miqyosida munosib baholamoq uchun yuqoridagi manbalarni e’tirof etish maqsadga muvofiqdir.

Chet ellik taniqli olimlar Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini o`rganar ekan, vatandoshimizning nechog`lik buyuk shoh, sohibdil shoir, ma’rifatli inson, ruhiy-ma’naviy jihatdan barkamol shaxs bo`lganligiga amin bo`ladilar. Bu esa Bobur shaxsiga va merosiga bo`lgan hurmatni yanada oshiradi.

Zero, ulug` vatandoshimiz Bobur hazratlarining jahon ilmiga va davlat boshqaruviga qo`shgan hissasini anglab yetish hamda o`rnak bo`larli jihatlarini o`zimizga qaul qilish uchun olimlar va adiblar yuqorida keltirilgan maqolalar hamda kitoblarni chop ettirish orqali amalga oshirishlari zarur. Buyuk shoh va shoir ijodini o`rganish bugun ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar:

1. Vohidov R., Eshonqulov H**.** O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent: Yangi asr, 2006.

2. O`zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 3-tom. - T.: Fan, 1978.

3. Valixo’jaev B., Tohirov Q. O`zbek adabiyoti tarixi. XVI asr. – Sam.: SamDU nashri, 2002.

4. Abdug’afurov A. Bobur she’riyati. Bobur. Devon. –T.: Fan, 1994, 3-14 –betlar.

5. Adizova I. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. (XVI-XIXasr I yarmi) -Toshkent, Fan, 2006. -240 b.

6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. -T.: Fan, 1994

BOBUR VA XOJA KALON DO’STLIGI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Raxmanova Nafisa Azatbekovna
Chirchiq davlat pedagogika instituti o’qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning do‘sti Xo‘ja Kalonga yozgan maktublari tahlil qilingan. Ikki shoir, ikki pok qalb do‘stligi misolida Bobur hamma narsadan do‘stlikni afzal bilganini ko‘rish mumkin. U do'stlarining mehnatini qadrlar va xatolarini kechirishni bilardi.*

Kalit so‘zlar: *do’stlik tuyg’usi, „Boburnoma“, Xoja Kalon, she’riy maktub, nasriy maktub, Bajavr qal’asi, Hindiston, G’azna.*

Аннотация: *В статье анализируются письма царя и поэта З. М. Бобура своему другу Ходже Калону. На примере дружбы двух поэтов, двух чистых душ видно, что Бобур предпочитал дружбу всему остальному. Он ценил труд своих друзей и умел прощать их ошибки.*

Ключевые слова*: чувство дружбы, «Бобурнома», Ходжа Калон, поэтическое письмо, прозаическое письмо, крепость Баджавр, Индия, Газна.*

Annotation: *The article analyzes the letters of the tsar and poet Z. M. Bobur to his friend Khodja Kalon. On the example of the friendship of two poets, two pure souls, it can be seen that Beaubourg preferred friendship to everything else. He appreciated the work of his friends and knew how to forgive their mistakes.*

Keywords*: feeling of friendship, "Boburnoma", Khoja Kalon, poetic writing, prose writing, Bajavr fortress, India, Ghazna.*

Zahiriddin Muhammad Bobur o’zining “Yoz fasli, yor vasli, do’stlarning suhbati” deb boshlanuvchi g’azalida baxtning juda oddiy formulasini yaratib berdi: tabiat go’zalligida Yaratganning jamolini ko’rib mast bo’lsang; umringning mazmuniga aylangan pok sevgiga yetishsang; she’r bahsi bilan kechadigan do’stlar suhbatida dil rozingni ayta olsang -

Gar bu uch ishni topsang ul uch vaqt ila,

Mundin ortuq bo’lmag’ay, Bobur, jahonning ishrati. [4, 581]

“She’r bahsi bilan kechadigan do’stlar suhbati” shoirning juda ko’p she’rlarida eslangan.“Negaki, odam do’st qalbida o’zini xotirjam his qiladi. Do’stga ishonilmasa, olamda hech kimga ishonch yo’q. Do’stga ishonch – dard birligi, umid va armon gurungi. Do’stga ishonch – sotqinlar, xoinlar ranjidan dillarni xalos qilish osudaligi”,- deb ta’kidlaydi Ibrohim Haqqulov [3,192] .

Buyuk insonlar atrofida xayrixoh kishilar va g’arazgo’y insonlar guruhining yig’ilishi muqarrar. Do’stlikni ulug’lashdan charchamagan Bobur ularning orasidan o’zi orzu qilgan haqiqiy do’stni topganmi? Bu savolga “Boburnoma”dagi maktublardan : “ Boburning eng yaqin do’sti, sirdoshi - Hoja Kalondir ”, - degan javobni olamiz. Bobur Mirzo umri davomida yozgan maktublarini to’plab munshaot tuzmagan. Uning maktublari bizgacha “Boburnoma”, devon va boshqa manbalar orqali yetib kelgan. “Boburnoma”ning o’zida 8 ta she’riy va 3 ta nasriy maktub bor bo’lib, she’riy maktublarning ikkitasi Boburning eng yaqin sirdoshi, maslakdoshi Xoja Kalonga, qolganlari do’stlari Mulla Alixon, Shoh Hasan, Fo’lod Sultonlarga jo’natilgan.

Hijriy 925 – yil voqealariga bag’ishlangan bobda Bajavr qo’rg’oni fathi, “Bajavr eli chun bog’iy, islom eli bila yog’iy” bo’lgani uchun qatliom o’tkazilgani, ahli ayoli tamom asir bo’lgani, uch mingdan ziyod kesilgan kallalardan minoralar yasalgani tasvirlangan. Bobur bu viloyatni do’sti Xoja Kalonga inoyat qiladi. Uning shafoati bilan qolgan asirlar va ayollar ozod etiladi. “Yakshanba kuni, oyning o’n to’rtinchisida

Xoja Kalonga tug’ inoyat qilib, Bajavr qo’rg’oniga ruxsat berildi. Xoja Kalonga ruxsat bergandan bir – ikki kun so’ng, mana bu qit’a ko’ngilga keldi. Xoja Kalonga bitib yubordik”,- deb yozadi Bobur[2,165] .

Qaroru ahd ba yor inchunun nabud maro,

Gazid hajru maro kard beqaror oxir.

Ba ishvahoi zamona chi chora sozad kas,

Bajavr kard judo yorro zi yor oxir.

Ya’ni, mening yor bilan ahd - qarorim bunday emas edi. Oxirda hajri chaqib, beqaror qildi meni. Zamona ishvalariga kishi nima chora qiladi? Oxirda Bajavr yorni yordan judo qildi.

Bu - shoh Boburning do’stiga yozgan sog’nch maktubi edi. To’rtinchi misrada so’z o’yini qilingan, ya’ni “Bajavr” so’zi “qal’a nomi” va “zulm bilan” ma’nolarida qo’llangan. Bir oy o’tmasdan azobga aylangan bu sog’inch Xoja Kalonga jo’natilgan farmonning hoshiyasiga bayt shaklida bitiladi:

Sabo, ba lutf bigo’ on g’azoli ra’noro,
Ki sar ba ko’hu biyobon tu dodai moro. [2,183]

Ya’ni, ey tong shamoli, u go’zal ohuga yumshoqlik bila aytki, bizni tog’ va sahrolarga uloqtirgan sensan.

Bobur go’zal ohuga o’xshatga Xoja Kalon kim? Xoja Kalon Xoja Ahror Valiyning nabirasi edi. Fors tilida ajoyib she’rlar bitgan. Boburni o’ziga rom etgan jihati - go’zal qalb egasi bo’lgan. Bizningcha, quyidagi ruboiy ham ana shu insonga yuborilgan she’riy maktublardan biridir:

Qosidki yibordingg, ayladi shod meni,
Doim bu yo’sunluq aylagil yod meni.
Ozodingga qul bo’layki, xatting keturub,
Hajring g’amidin ayladi ozod meni.

Do’stlarini qalbining to’rida asragan Bobur o’z ismi ham do’stlari dilida bo’lishini istaydi. Maktublarida do’stlar bir-birlaridan xabar olib turishlari zarurligini ta’kidlaydi. Samarqandlik do’sti Fo’lod Sultonga devonini yuborib, orqasiga quyidagi qit’ani yozib qo’ygani fikrimizning isbotidir:

Ul sarvning harimig’a gar yetsang, ey sabo,

Bergil bu hajr xastasidin yod ko’ngliga.

Rahm aylabon sog’inmadi Boburni, bor umid,

Solg’ay Xudoy rahmni Fo’lod ko’ngliga [1,217].

Xoja Kalon, Mullo Alixonga atalgan boshqa maktublarning yozilishiga hijriy 932-933 – yil voqealari sabab bo’lgan. Bobur shunday yozadi: “Biz Ograga kelganda issiq vaqtlari edi. Xaloyiq tavahhumdin tamom qochib edilar… Yana ul yil xeyli issiq edi. Xeyli el bodi samumning ta’siridin har zamonda yiqilib, o’la boshladilar. Bu jihatlardan aksar beklar va o’bdon-o’bdon yigitlar Hindistonda turmoqqa rozi emas edilar, balki ketarga yuz qo’yib edilar”[1,270]. Yaqinlari va navkarlari o’rtasida yuzaga kelgan bunday kayfiyatdan Bobur qattiq ranjiydi. O’tda ham, suvda ham u bilan birga bo’lgan yaqin safdoshlaridan buni kutmagan edi. Maxsus kengash chaqirib, do’stlaridan ne-ne qiyinchiliklar, ne-ne qurbonlar evaziga egallangan viloyatlarni tashlab ketmaslikka, aksincha, davlatni mustahkamlashda unga yordam berishlarini iltimos qiladi. Boburning keskin murojaatidan keyin ko’pchilik o’z niyatidan qaytadi. Ammo oilasi, farzandlarini o’ylagan eng yaqin do’sti Mir Kalon ahdidan qaytmaydi.

Panohiy taxallusi bilan she’r yozadigan Xoja Kalon Kobulga qaytib ketayotganida uyining devoriga bu baytni bitib ketadi:

Agar baxayr-u salomat guzar zi Sind kunam,

Siyahro’y shavam, gar havoi Hind kunam.

Ya’ni, agar sog’- salomat Sind daryosidan o’tib olsam, yana Hindni orzu qilsam, yuzim qaro bo’lsin.

Bu bayt Boburni juda ranjitadi. Quyidagi ruboiyni bitib, Xoja Kalonga yuboradi:

Yuz shukr de, Boburki, Karimu G’affor
Berdi senga Sind - u Hind - u mulki bisyor.
Issiqlig’ig‘a gar sanga yo’qtur toqat,
Sovuq yuzini ko’ray desang, G’azni bor! [3,220-221]

Xoja Kalon istarasi issiq kishi emas ekan. Do’stidan qattiq ranjigan Bobur iyhom san’atini qo’llab, “Sovuq yuzini ko’ray desang…” deb uning aft-angori sovuqligiga ham aniq ishora qiladi. Hasanxo’ja Nisoriyning yozishicha, Mir Kalonbek podshohning she’riy nomasidagi kesatiq va pichingdan ranjib, shunday javob yozgan ekan:

Izhor-u latofat-u zarofat qilasiz,
Har nuktada yuz tuman kinoyat qilasiz.
Gar Hind ishi teskari ermas, ne uchun
Issiq yerdin sovuq zarofat qilasiz.

Bu javob maktubining to’rtinchi misrasida ham so’z o’yini bor: 1) Hindistonda ishlaringiz yaxshi ekan, nega salqin yerlarni (G’azna va Kobulni) tilga olyapsiz? 2)She’ringizning har misrasida kinoya bor. Mendan qattiq ranjigan ekansiz, nega sovuq yuzimni ko’rishni istaysiz?

Ikkinci she’riy maktub bir yildan so’ng qalandarlikni ixtiyor etgan Turdibek orqali Mullo Alixonga yuborilgan. Mullo Alixon ham Xoja Kalon bilan birga Hindistonni tark etgan edi.” Ey alarkim, bu Hind kishvaridin / Bordingiz anglab o’zga ranj-u alam” deb boshlanuvchi she’riy maktub eng yaqin do’stlaridan ozor cheksa-da, do’stlik hissining bezavolligi uchun qayg’urayotgan insonning dil so’zlaridir. Sadoqat rishtalarini uzib, jonining rohatini ko’zlab Hindistondan ketganlarga xitoban bir yildan keyin bitilgan bu qit’ada Boburning ularni uzoq vaqt kechira olmaganini ko’rish mumkin. Oqibatsiz do’stlar tufayli qalbida unib chiqqan nafrat tikanini yulib

tashlashga kuch topgan shoh Bobur maktub oxirida “hammasi o’tib ketdi, sizlardan ham, bizlardan ham o’tdi, bir-birimizdan gina qilmaylik” deb do’stlaridan kechirim so’raydi [3,244]. Do’sti Xoja Kalonni ham kechiradi.

“Boburnoma”dagi matni to’liq keltirilgan nasriy maktublar shoirning Kobulda qolgan oilasiga, o’g’li Humoyunga va Xo’ja Kalonga atalgan. Birinchi nasriy maktub hijriy 933 – yil voqealari tasvirlangan bobda to’liq keltiriladi. Maktubni o’qir ekanmiz, ikki holat e’tiborimizni tortadi. Birinchisi, Boburning oila a’zolarini tinchlantirish uchun o’zining ovqatdan qanday zaharlanganini, chekkan azoblarini batafsil bayon qilishidir.”Tengri menga boshdin jon berdi. U dunyodin keladurmen, onadin emdi tug’dim… Jon qadrini billoh emdi bildim”,- deb iqror bo’ladi shoir Bobur. Ikkinchisi, ellik – oltmish hind oshpazlari ichidan tanlab olingan to’rt oshpazning so’roq qilinishi, qiynoqlarga dosh berolmagan oshpazlar ayblariga iqror bo’lishidir. Shoh Bobur ikki erkak oshpazning birini pora-pora qilishga, ikkinchisini tiriklayin terisini shilishga buyuradi. Ayol oshpazlardan birini fil oyoqlari ostiga tashlattiradi. Ikkinchisini qamoq jazosiga hukm etadi [2, 227-228].

Ikkinchi nasriy maktub Boburning to’ng’ich o’g’li Humoyunga farzand ko’rishi munosabati bilan yozilgan . Bu noma matni “Boburnoma”ning 935-yil voqealarida to’liq keltirilgan. Ota o’g’liga kunda ikki marta inisi Komron va beklarni (shuningdek, Xoja Kalonni) yoniga chaqirib, har ne ish bo’lsa, ular bilan kengashib, maslahatlashib ish ko’rishni, xilvatnishinlikni tark etishni maslahat beradi [2, 257-258].

Uchinchisi Xoja Kalonga atalgan bo’lib,u ham 935-yil voqealarida to’liq keltirilgan. Maktubda Bobur Hindiston ishlari sekin-asta yo’lga tushayotgani haqida yozadi. Kobulning qovun va uzumlarini sog’inganini, “… bir qovun keltirib edilar, kesib yegach, g’arib ta’sir qildi. Tamom yig’lab edim” so’zlari bilan izhor qiladi. Maktubning ikkinchi qismida Kobuldagi qurilish ishlari bilan qiziqadi, o’z taklif-mulohazalarini bildiradi. Uchinchi qismida bir yil oldin Abdulloga yo’llagan ushbu ruboiysini eslaydi:

May tarkini qilg’ali parishondurmen,

Bilmon qilur ishimni-yu hayrondurmen.

El borcha pushaymon bo’lur-u tavba qilur,

Men tavba qilibmen-u pushaymondurmen.

Ma’lumki, Bobur melodiy 1527 – yilda hind elida hokimiyatni mustahkamlash, navkarlar va beklar o’rtasida ichki intizomni tartibga solish, qo’shin ma’naviyatini ko’tarish kabi muhim rejalarni ko’zlab, Raana Sangaa bilan bo’ladigan hal qiluvchi jang arafasida may ichishni tark qiladi, tobelarini ham bunga da’vat etadi. Bu qaror ijrosi naqadar og’ir kechgani, chog’ir majlisi xumori tutganda yig’lash darajasiga yetgani, chog’ir xumoridan Xoja Ahror Valiyning “Volidiya” risolasini chin e’tiqod va ixlos bilan tarjima qilgani tufayli xalos bo’lganini yozadi. Xoja Kalonga “Siz ham tavba qiling, ichmang” deya maktubni tamomlaydi [2,264-265].

Ruhimiz har doim ikki do’stdan madad oladi: biri- Yaratganning o’zi bo’lsa, ikkinchisi – ruhiy ehtiyojlarimizni qondirishga ko’maklashadigan chin do’stdir. Buni chuqur anglagan Bobur umrining oxirigacha Xoja Kalonning hurmatini joyiga qo’ydi, eng nozik sirlarini unga ishondi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома.-Т.:Юлдузча, 1990. 368 б.

2.Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома.-Т.: Ўқитувчи, 2008.- 288 б.

3.Иброҳим Ҳаққул. Занжирбанд шер қошида: монография. Т.:Тафаккур томчилари, 2021. – 288 б.

4.Маллаев Н.М. Ўзбек адабиети тарихи. Т.: Ўқитувчи,1976.- 664 б.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ASARLARIDA PEDAGOGIK QARASHLAR

Bobomurotova Zamira Ahmadovna
Buxoro viloyati Romitan tumani XTB
Romitan tuman XTB TSMB bosh inspektor metodisti

Annotatsiya: Zahriddin Muhammad Boburning ilm-ma’rifathaqidagi g’oyalari, axloq odob,yaxshilik,vafo, insonni xalqqa yaxshilik, qiladigan qilib tarbiyalash, mehnat ahlini qadrlash,insonparvarlik, Vatandan judolik g’am,alam ekanligi,adolat haqidagi qarashlari,axloqiy-ta’limiy fikrlari hozirgi davr yoshalr tarbiyasida ham g’oyat ahamiyatlidir.

Tayanch so‘z va iboralar: *Ilm-ma’rifat masal, pedagogika, g‘azal, nazm, navo, nasr, janr. didaktika, obraz, ruboiy, metod.*

Аннотация. Идеи Захриддина Мухаммада Бабура о науке и просвещении, нравственности, добре, верности, воспитании людей на благо людям, уважении к трудовому народу, человечности, утрате родины, горе, страдании, взгляды на справедливость, нравственность, ограниченные идеи также весьма ограничены. важное значение в воспитании современной молодежи.

Опорные слова и выражения: Наука, просвещение, педагогика, поэзия, поэзия, мелодия, проза, жанр. дидактика, образ, рубой, метод.

Abstract. Zahriddin Muhammad Babur's ideas on science and enlightenment, morality, goodness, fidelity, educating people to do good to the people, respect for the working people, humanity, loss of homeland, grief, suffering, views on justice, morality limi ideas are also very important in the education of modern youth.

Ключевые слова и фразы: наука, просвещение, педагогика, поэзия, поэзия, мелодия, проза, жанр. дидактика, образ, рубой, метод.

Zahriddin Muhammad Boburning ilm-ma’rifat haqidagi g’oyalari, axloq odob,yaxshilik,vafo, insonni xalqqa yaxshilik, qiladigan qilib tarbiyalash, mehnat ahlini qadrlash,insonparvarlik, Vatandan judolik g’am,alam ekanligi,adolat haqidagi qarashlari,axloqiy-ta’limiy fikrlari hozirgi davr yoshalr tarbiyasida ham g’oyat ahamiyatlidir. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, faoliyati va merosini o’rganish XVI asrning avvalidan boshlangan edi. Boshqacha qilib aytganda, bu qutlug’ ishni Boburning o’zi «Boburnoma»da boshlab bergan edi. Shundan so’ng Movarounnahr, Afg’oniston va Hindistonda yozilgan tazkira va tarixiy asarlarda Bobur haqida ma’lumot berish kuzatiladi. Bu jihatdan Boburning qizi Gulbadanbegimning «Humoyunnoma», Muhammad Haydarning «Tarixi Rashidiy» kabi asarlari, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Chunki bu mualliflar Bobur bilan bevosita muloqotda bo’lib, uning faoliyati, shaxsiyati va fazilatlari to’g’risida qimmatli ma’lumotlarni keltirganlar. Bunday ma’lumotlar shu asrda Buxoroda Hasanxoja Nisoriy tomonidan yozilgan «Muzakkiri ahbob» da ham bor.

- Bobur ota tomonidan Amir Temurning, ona tomonidan Chingizxonning avlodidir. Uning tomirida Markaziy Osiyodagi ikki buyuk fotihning qoni oqqan.
- Zahriddin Muhammad Bobur 1483 yilda otasi Mirzo Umar Shayx hukmronlik qilgan Ôarg’onada tug’ilgan. 11 yoshida otadan yetim qolgan. U “Boburnoma” kitobining ilk satrlarida shunday yozgan: “... sarvari koinotning shafoati bilan va chahoriyori bosa-folarning himmati bilan seshanba kuni ramazon oyining boshida tarix sekkiz yuz to’qson to’qquzda, ya’ni 1494 yil iyunida Farg’ona viloyatida o’n ikki yoshda podshoh bo’ldim”.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yil 14 fevralda Farg’ona viloyatining hokimi temuriyzoda Umarshayx mirzo oilasida dunyoga keldi.Boburning onasi Qutlug’ Nigor xonim bo’lib, u Yunusxonning qizi edi. Bobur Umarshayx mirzo oilasidagi sakkizta farzandning (uch o’g’il va besh qiz) kattasi bo’lib, temuriyzodalarning o’sha davrdagi udumiga ko’ra tarbiyalandi, Andijonda tahsil oldi. 1494 yilda 12 yoshida Farg’ona viloyati taxtiga o’tirgan.Bobur umrining oxirgacha (1530) viloyatdorlik (Farg’ona), mamlakatdorlik (Kobul) hamda saltanatdorlik (Agra-Hindiston) bilan mashg’ul bo’lib, Hindistonda boburiylar saltanatiga (1526-1858) asos soldi. Boburning oilasi haqida ma’lumot beradigan bo’lsak, undan to’rtta o’g’il qolgan. 1. Muhammad Humoyun Mirzo, uning taxt vorisi, 1508-yil 5-aprelda tug’ilgan. 2. Kamron Mirzo, 3. Hindol Mirzo, 4. Askariy Mirzo. Eng kichik o’g’li Anvar bolaligidayoq vafot etgan. Boburning bir necha qizlari bo’lib, ularning tug’ilganligi haqida haqida ma’lumot saqlanib qolmagan. Ularning ba’zilari saroy amaldorlariga turmushga chiqqanligi haqida ma’lumotlar saqlangan. Zahiriddin Muhammad Boburdan bizgacha yetib kelgan ilmiy-badiiy asarlar quyidagilardan iborat: 1. Devon; 2. Boburnoma; 3. Aruz risolasi; 4. Mubayyin; 5. Volidiya; 6. Xatti Boburiy. Bobur qoldirgan ilmiy-adabiy meros o’rganilar ekan, Bobur bilim doirasining nihoyatda kengligi, o’zigacha mavjud bo’lgan va o’z zamonasidagi boy ilmiy-adabiy merosni naqadar chuqur bilganligi kishini hayratda qoldiradi. Uning she’riy va nasriy asarlari har jihatdan yetukligi hamda badiiy-ilmiy ijod tarixida o’ziga xos mavqega ega bo’lganligi bilan ajralib turadi. Bobur yoshlik chog’laridanoq juda ko’p mushkullik va qiyinchi-liklarni boshidan kechirishga majbur bo’lgan. O’zining bobo meros mulki hisoblanmish Samarqandni ikki marta zabt etgan va ikki martasida ham qo’ldan bergan. Nihoyat, u yigirma bir yoshida ota yurtini tark etib, Xindikush osha Qobulni ishg’ol qilgan. 1511 yilda Bobur Samarqandni qaytarib olishga yana bir bor uringan. Bu gal g’alaba nash’asini surgan bo’lsa ham, kelgusi yil-dayoq Samarqandni qo’lidan chiqargan. Shu tariqa Bobur Samarqand-ni uch karra zabt etib, uch karra boy bergan. Bobur Xindistonda yirik davlat tuzgan va o’zi podshoh bo’lib, Jamna Yamuna daryosi bo’yidagi Agra shahrida poytaxt qurgan. Bobur 1530 yil kuzida qattiq

xastalanib, podsholikni katta o’g’li Xumoyunga topshirgan va 26 dekabrda o’z qarorgohida vafot etgan. Bobur ajoyib sarkardaligi bilan birga ma’rifatparvar shoh va nozik didli shoir ham bo’lgan. *“Boburnoma”*,*“Mubayyan”*, *“Risolai volidiya”* , Bobur Xindistonda madaniyat va ma’rifat o’rnatdi. U juda erta hayotdan ko’z yumgan bo’lsa-da o’zining ishlari bilan “Bobur-noma” deb atalgan asari bilan tarixda unutilmas nom qozondi. “Boburnoma” asosan Xindistonda Boburiylar saltanatini barpo etgan shoh Boburning tarjimai holi bo’lib, unda muallif oddiy va jonli til bilan o’zining yo’l qo’ygan xatolarini, qozon-gan g’alabalarini, yuksak orzu-umidlarini, tushkunlik holatlarini hikoya qilgan. Asar Avliyo Avgustino va Russoning kashfiyotlari, Gibbon va Nüyutonning yodnomalari qatoridan o’rin olgan. Mazkur kitob umri davomida ko’pdan-ko’p yuksalishlar va tanazzullarni boshidan kechirgan insonning ibratli tarixidirki, uning yuksalishlari qanchalik sarbaland bo’lsa, tanazzullari shunchalik tubsizdir. Qadimiy Movarounnahr va undagi xalqlar xayoti haqida jonli guvohlik beruvchi asarlar orasida “ Boburnoma “ alohida ajralib turadi. Ajoyib lirik shoir, o’zbek adibi Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yaratilgan bu asar ijtimoiy – tarixiy, ilmiy – tabiiy va adabiy- lingvistik ma’lumotlar xazinasidir. Unda 1494-yildan 1530-yilgacha O’rta Osiyo, Afg’oniston va Hindistonda kechgan voqealar bayon etilgan. Bobur tarixiy faktlarni Shunchaki qayd etish , jangu jadallar, yurishlar haqida xronologik axborot berish bilangina kifoyalanmay, voqealarni jonli tilda qiziqarli hikoya qilad, manzara chizadi, tabiatni, etnografik xolatlarni tasvirlaydi, davrni, uning xususiyatlarini gavdalantiradi. Shu sababdan asar faqat ilmiy – tarixiy ahamiyati bilaan emas, balki o’zbek badiiy nasrining yorqin namunalaridan biri sifatida ham biz uchun qimmatlidur. Shoir o’z xotiralarini badiiy naql uslubda sodda va ravon bayon etadi. O’nlab tarixiy shaxslarning aniq xarakterini yaratadi. Tabiat manzaralarini suratini chizadi, kitobni har xil syujetlar, ishqiy sarguzashtlar, she’riy parchalar bilan bezaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she’riyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan adib, shoir, olim bo‘lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-

zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo‘lsa, serjilo o‘zbek tilida yozilgan “Boburnoma” asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy oldi. Uning nafis g‘azal va ruboiylari turkiy she’riyatining eng nodir durdonalari bo‘lib, “Mubayyin” (“Bayon etilgan”), “Xatti Boburiy”, “Harb ishi”, Aruz haqidagi risolalasi esa islom qonunshunosligi, she’riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi. Zahiriddin Muhammad Bobur umrining o`zi avlodlarga ibrat namunasidir. U 47 yoshli qisqa, ammo ijodiy barakali, barkamol hayotida yuz yil yashab ham uddalab bo`lmaydigan ishlarni ado etdi. Bobur buyuk podshoh, bobosi Amir Temurning munosib vorisi sifatida uning saltanatini barcha o`ziga tegishli hududlarda qayta tiklash, yuksak saltanatni dovruqsiz, manmanlikka berilmay barpo etish va davlatchilik ishlarini amalga oshirishni umr maqsadi etdi. U mohir sarkarda sifatida eng og’ir bo`lgan davrlari: qarindosh-urug`lari, bek va safdoshlari chap berib, bundan taxtni olishga intilib, nochor qolgan holida ham maqsad sari intildi. Boburning bu xislati, kelajakka umid bilan qarashi bugun ham ibrat namunasi bo`lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Vohidov R., Eshonqulov H**.** O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent: Yangi asr, 2006.

2. Valixo’jaev B., Tohirov Q. O`zbek adabiyoti tarixi. XVI asr. – Sam.: SamDU nashri, 2002.

3. Abdug’afurov A. Bobur she’riyati. Bobur. Devon. –T.: Fan, 1994, 3-14 –betlar.

4. Adizova I. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. (XVI-XIXasr I yarmi) -Toshkent, Fan, 2006. -240 b.

5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. -T.: Fan, 1994.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР – ЖАҲОНИЙ СИЙМО

Кенжаева Саодат Нурмуродовна

Бухоро вилояти, Ромитан тумани 5 умумтаълим мактаби ўқитувчиси

Анотатция: Бобур мирзо жаҳоний сиймо. Унинг илмий мероси жаҳон маданиятига улкан ҳисса қушган геосиёсий жиҳатдан мемуар асарларидан бири “Бобурнома” асаридир.

Калит сўз: арбоб, адабиётшунос, карвон, ранг – баранг, Бобур Мирзо, “Бобурнома”, адиб, шеършунос , адабиётшунос, донишманд, фақих, тилшунос, табиатшунос, мантиқ, риёзиёт.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур инсон ва адиб, маданият арбоби ва саркарда, эътиқоди бутун ва тақводор ва шоҳ, ростгуй адабиётшунос ва аламзада ота мақомида бағоят мураккаб, зиддиятлар тўлқини билан йўғрилган тақдир соҳиби эди. Умр бобида Бобур Мирзони “қисган” Парвардигори карим унга сахий қалб,улкан юрак, сеҳргар қаламу кескир қилич ато этди. Айни иноятлар унинг ҳаёт сахифаларини нурлантирди, теран моҳият ва маъно бағишлади. Асрлар тўфонию бухронини писанд этмай,инсониятнинг янги – янги авлодларига етиб борувчи мангуликни унинг насибасига битиб қўйди. Бобур Мирзонинг мангулик карвони ўз қўнғироғини жаранглатиб, итлар тажоввузини назарига илмай, ҳамон олға интилмоқда. Йиллар ва йўллар ўтад, безавол карвон эса поёни йўқ боқийлик манзили сари интилишда давом этади [v]....

Бобур Мирзо шоир, адиб, шеършунос – адабиётшунос, донишманд фақих, тилшунос, табиатшунос, мантиқ ва риёзиёт илмларидан пухта хабардор жамоат арбоби сифатида ўзидане бебаҳо маънақвий мерос қолдирди. Бошқа одамларникидан деярли фарқ қилмайдиган мўжазгина кўксида шеърнинг юраги ва журъатини кўтариб ўтган бу мукррам зот ақл бовар қилмайдиган

кашфиётлар Билан юзма – юз яшаб ўтди, ўзидан сара маънавий хазина ва ном қолдириш учун кўрашди. У яхшилик шайдоси эди. Охирги нафасигача эзгалик яловинит баланд тутди, фарзанди Ҳумоюн Мирзога ҳам шу ҳақда васият қилди [v].....

Кечирувчанлик Бобур Мирзога ато этилган ноёб неъматлардан эди. У ўзига жабр ўтказган, ҳатто хоинлик қилган, аммо вақти келиб ўша рўйи – рост танолиб, афв этишни утинган мусоҳибларининг гуноҳини кечиб юборган. Ўлмас “Бобурнома” ва Гулбаданбегимнинг “Ҳумоюннома”сидаги беҳисоб лавҳалар шундай қатьий мулоҳаза учун асос беради. Бобур Мирзо, ҳатто, ўшандай нокас бандаларини рағбатлантирган,уларга баъзан катта лавозимларни ишониб топширган. Дунё азоюларию суяк суягидан ўтиб кетган улуғ саркарда қолган умрини тахт ташвишларидан ҳоли, аградаги ўзи барпо эттирган боғда бадиий ижод завқи билан ўтказмоқчи эди[v].

Шу орзу ҳам руёбга чиқмади. Ҳинд саркардаси Иброҳим Лудийнинг онаси ташаббускор бўлиб ичказилган заҳар, Бобцур Мирзонининг ўз ўғли Ҳумоюн Мирзонинг ҳаста жисми атрофида ткомил сидқ билан қилагн қасами кучини кўрчсатди. Унинг тоимрида оқаётган жон жўшқинликни йўқота бошлайди. Хазон япроғи умр ғунчаларига соя ташлади. Тонгнинг қутбида шомнинг турганлиги равшаналаша бошалди. Зийрак ва синчков Бобур Мирзо жони ришталарини ўзмоққа шайланган ажалнинг серпанган қиличига ҳам мардона пешвоз чиқди.

Ҳуши борида тожу-тахтни суюкли тўнғич ўғли Муҳаммад Ҳумоюун Мирзога топширди. Улуғ шоирнинг маҳзун юраги сўнги дамларда ҳам яхшиликни қўмсади. Ўша эзгу туйғу ҳолсиз жисмнинг умид билан термулаётган жону кўзларига охирги нигоҳи бўлиб улашилди. Бор кучини тўплаган шерюрак Бобур сафдошу мулозимларига, Ҳумоюн Мирзога охирги сўзини – васиятини айтди. Унинг тарих қаватларида муҳрланиб қолган сшнги нидоаси ҳам яхшилик ҳақида эди. Бобурона шавқу шиддатли юракда бир бирига икки туйғунинг бақамьти келиши, ёнма – ён амал қилиши эркнинг

ҳамиша яхшилик тарафида бўлиб келганлиги муъжиза. Аввалам бор, Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўз даврининг фарзанди, мураккаб даврдаги ижтимоий- иқтисодий шароиталрнинг , зиддиятларнинг ғоявий мафкуравий қарашлар ҳукмрон бўлган замоннинг маҳсули.

Бинобарин,Бобур адабий меросини, унинг фаолиятини айни мезон билан кўзатиш, баҳолаш зарур. Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳурфикрли инсон, илғор ғояли ижодкор сифатида маданиятнинг, маърифат ва маънавиятнинг тараққиёти учун, эзгу мақсадалрининг тантанаси учун курашди. Шу мақсадда умр бўйи ибратли ишларни амалга оширди, Эл улусга наф, давлат –салтанатга фойда келтирди. Унинг бирдан бир мақсади инқирозга юз тутган темурийлар давлатини парчаланиб кетишидан сақлаб қолиш ва мустаҳкамлаш, маркзий Осиёда марказлашган йинрик давлат барпо этиш эди. Ушбу нияти йўлида у узоқ ва шиддатли курашлар олиб борди, аммо муҳит бунга имкон бермади. Ўзаро жангу жадаллар, омонсиз тўқнашувлар туфайли, юз берган омадсизликлар, кетма- кет мағлубиятлар унинг ўз она диёридан бош олиб кетишга сабаб бўлди. Энди у жануб сари юриш бюошлади. Афғонистон ва Ҳиндистонни эгаллаб, катта империя вужудга келтирди. Бу тарихдаги Янги бир салтанат – бобурийлар сатанати эди. Таъкидлаш жоизки, у асос солган империя Афғонистон ва Ҳиндистоннинг маданияти, иқтисодий – мафкуравий ҳаётида,
умуман бумамлкатларнинг тарихий тараққиётида ўчмас из қолдирди. Бугина эмас, Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳа томонлама етук баркамол шахс сифатида дунё халқлари маънавий оламида ҳам сезиларли из қолдирган сиймолардан биридир. Алҳол, умумбашарий фазилатлар соҳиби ва эзгу ғоялар тарғиботчиси бўлган ватандошимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобурни, биз, ҳақли равишда жаҳоний сиймо деймиз. Ва бунда аминманки, ҳеч қандай миллий маҳдудлик йўқ. Бунинг Яна бир далили шуки, бобоколонимизнинг ҳаётий чоғларидаёқ бой адабий мерослари ва серқирра фаолиятларини теран тадқиқ этиш, атрофлича ўрганиш учун кўплаб мамлакатларнинг атоқли олимлари илмий изланишлар

олиб борганлар[v].Бошқа бир олим Эдуард Холден шуендай деган эди: “Бобур соф жентелмен ва жангчи бўлган. У олийжаноблдикда қандай хосиятлар бор бўлса, уларнинг барчасини эгаллаган, Унинг манглайига юксак фазилат битиб қўйилган”[v]. асосий мақсадларидан бири ягона марказлашган давлатни барпо этиш, мамлакатни обод этиб, эзгутниятларини амалга ошириш эди. Бобур шахсиятини, бизнингча унинг ижодиёти, жумладан, “Бобурнома” асосида кўриб чиқилса ва ўрганилса янада мақсадга мувофиқ бўларди. Ҳеч шубҳа йўққи Бобур Мирзо ва бошқа тарихий шахсларни бой меросидан давримизнинг муҳим вазифаларини бажаришда фойдаланишимиз лозим, буни қилмоқдамиз ҳам. Башариятнинг мана шу биргина даҳо фарзанди ҳақида бугунга қадар юзлаб китоблар ёзилган. Чунки унинг тарихи ва тақдири халқимиз тарихи ва тақдири билан чамбарчас боғлиқ. Халқимиз тарихини ёзмоқ учун эса шоир айтганидек, “Минглаб Фирдавсий керак.” Нафақат олис – яқин кечмишларимиз балки утаётган умримизнинг ҳар лаҳзаси – тарих. Тарихнинг ҳар лаҳзаси эса тадқиқ ва таҳлилга муносиб[v]. Халқ, ҳақиқат ва нафосат улмайди, дейдилар ва буларни ардоқлаган, куйлаган улуғлар ҳам мангудир. Улар ҳамиша авлодлар дили ва тилида барҳаёт. Шу миннатдор авлодарнинг эзгу интилиш ва ишларида мададкордир, дейдилар. Бу – айни ҳақиқат. Фирдавсий, Низомий, Шерозий, Атоий, Лутфий, Навоий, Бедил қатори Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳам ҳамон халқ дилида орадан беш юз йилдан кўп вақт утган бўлсада у ўз асарларида барҳаётдир, орамиздадир, биз билан биргадир. У , шу улуғлар каби, ҳайратомуз гузал ва мўжизакор ва нафис, қуёш янглиғ сўнмас ва олтинга ўхшаб қораймас, ранг – баранг ва сеҳрли бадият обидалар яратди. Бу бадият обидалари баркамол баҳор каби иффатли, рангин ва зарриндир, шу баҳор латофати ва фусуни сингари завқли, илҳомбахш ва шавқлидир, яна шу баҳор каби суронли ҳужумкор ва ўзгарувчандир. Заҳириддин Муҳаммад Бобур йирик давлат арбоби ва моҳир

лашкарбоши бўлиши билан бирга шоир, адиб, тарихчи ва олим ҳамдир. Унинг қисқа ҳаёти уруш – юришларда, омонсиз жангу жадалларда кечди. У гоҳ хурсандчиликда, гоҳ чексиз ғам – аламлар гирдобида яшади, алал-оқибат туганмас руҳий истироблар исканжасида умр ўтказди[v].

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Зохидов.В. Узбек адабиёти тарихидан – Т, 1961
2. Нуриддинов.М . Бобурийлар сулоласи – Т : Фан, 1944
3. Неру. Ж. Открытие Индии.М, 1955
4. Отажонов. Н . «Бобурнома» жахон кезади Т: 1970
5. Орзибеков. Р Лирикада кичик жанрлар – Т: 1976
6. Шарма С.Р. Бобурийлар салтанати – Т: Маънавият, 1998
7. Хаккулов. И. Узбек адабиётида рубоий –Т: 1994
8. Хасанов. Х. Бобур – сайёх ва табиатшунос- Т: Убекистон 1983
9. Хомидов. Х .Хасаний М. Машрикзамин хикмат бустони – Т: Шарк, 1997
10. Эркин. У Бобур Хиндистонда –Т: Чулпон, 1995.

ЗАҲАРИДДИН МУҲАММАД БОБУР СИЙМОСИГА БИР НАЗАР

Садоқат Нурмуродовна Кенжаева
Бухоро вилояти Шофиркон тумани 3 МТМ тарбияловчиси

Анотатция: Заҳариддин Муҳаммад Бобур буюк ватанпарвар сиймо улкан Бобурийлар империясинг асосчиси. Маданиятнинг илм- фан, меъморчилик ва санъатнинг ривожланган,тараққий этган даври ҳисобланган XV аср, Мовороуннаҳр тарихида ўзига хос ёрқин ва аҳамиятли из қолдирди.

Калит сўз: Мовороуннаҳр, илм, фан, маданият, арбоб, рубоий, Амир Темур, XV аср, Бухорои шариф, мураббий.

Анотатция: Захариддин Мухаммад Бабур – великий патриот, основатель великой империи Бабури. XV век, период культуры, науки, архитектуры и искусства, оставил яркий и значительный след в истории Моворуннахра.

Ключевое слово: Мовороуннар, наука, наука, культура, человек, рубаи, Амир Темур, XV век, Бухара Шариф, тренер.

Annotation: Zahariddin Muhammad Babur is a great patriotic figure and the founder of the great Baburi empire. The 15th century, a period of culture, science, architecture and art, left a bright and significant mark on the history of Movorounnahr.

Keywords: Movorounnar, nauka, nauka, kultura, chelovek, rubai, Amir Temur, XV vek, Buxara Sharif, trener.

Тарихдан маълумки, Ўрта Ўсиё дунёга кўплаб мутафаккир олимларни, шоирларни ва жаҳонгашта саркардаларни етказиб берди. Маданиятнинг, илм-фан, меъморчилик ва санъатнинг ривожланган, тараққий этган даври ҳисобланган XV аср, Мовороуннаҳр тарихида ўзига хос ёрқин ва аҳамиятли из қолдирди. Мумтоз инсон, тарихимизнинг энг мураккаб, энг жозибадор, энг драматик сиймоларидан бири Заҳириддин Муҳаммад Бобур Мирзо айни мана шу даврда яшаб, ижод этди. У қисқа умр кўрди – бор – йўғи қирқ етти йил ҳаёт

кечирди. Лекин шу суронли умри мобайнида у жаҳон тарихидан шавкатли ўрин олиб улгурди[v].

Ҳали мурғак гудак экан, ота боболари уни суюб – эркалаб, яхши ниятлар билан залворли ном бериб атадилар. Исми – жисмининг бир – бирига монанд келиши кам учрайдиган ҳодисадир. Бироқ бу азамат шахс – Бобур мирзо тимсолида айни шу ҳол ўзининг ёркин ифодасини топган эди. Айтиш жоизки, эзгу дуолар ва уларнинг ижобати боис бу суврати сийратига вобаста инсон, муаззам ва қудратли салтанатнинг муносиб вориси ўлароқ вояга етди ва сўнги нафасига қадар беқиёс шиддат, азим бир шижоат уни тарк этмади. У тенгсиз фазилатлар бобида камлиги йўқ бўлиб камол топди[v]. Айтиш жоизки, бу беназир сиймо – Бобур Мирзо тимсолида олмос истеъдодини синаб кўрмаган инсоний фаолият соҳаси жуда кам топилади[v]. Аслида, унинг умр йўли бошдан – оёқ тақдир имтиҳонларидан иборат эди, десак янглишмаймиз. У ун икки ёшида отадан етим қоди. Ҳали айрилиқ аламлари, кўз ёшлари тинмай туриб, қисмат унинг бошига тожу тахт, салтанат миннатини солди. Шу тариқа тақдир кутилмаганда, уни болаликнинг завқли, суронли дамларидан бенасиб этди. Шу ёшдан умри мудом от устида, жангу жадалларда, сиёсат гирдобларида ўтди. Гарчанд маърифатга ташна қалб илму зиё сари таопиниб турса – да, тақдир унга на Бухорои шариф мадрасаларида ва на Боғдод байтулҳикмаларида таҳсил кўрмоқликни насиб этди. Аммо даҳо заковати ва илоҳий пайғоми билан у оламнинг тенгсиз адабий ва илмий мўъжизаларини яратишга мушарраф бўлди.

Зотан, муаллими устоди ҳам, мураббийи – тарбияткунандаси ҳам айни ҳаёт, унинг отасиз, шавқатсиз тарзи эди .....

Қисмат уни, бир томондан, ўн тўққиз ёшида туғилагн диёрини тарк этишга, иккинчи томондан, йигирма беш ёшида афғонистон, Покистон, Ҳиндистон, Бангладеш каби қатор мамлакатларнинг аксар қисмини забт этишга, шу билан буюк бобурийлар салтанатига асос солишаг мушарраф қилди.

Демак,бир вақтнинг ўзида, Ватандан ҳам, салтанатдан ҳам жудолик юз берди ....

Унинг мамлакатдорлик сиёсати, ҳарб илми асрлар давомида жаҳон ҳукмдорлари учун ибрат мактаби бўлиб хизмат қилди. Шу сабабли унинг бу борадаги ноёб тажрибалари Юлий Цезар, Бонапарт Напалеон, Атилла, Амир Темур сингари мумтоз давлат арбобларининг номлари билан бир қаторга қўйиб ўрганилади. Адоват ва фитналар, исён ва суиқасдлар туфайли, у умр бўйи қиличнинг дамида тургандек, беором, беҳаловат кун кечирди. Неча бор муқаррар ўлим чангалида қолиб, ҳар сафар меҳрибон ва марҳаматли оллоҳнинг қудрати ила яна ҳаётга файтди. Тириклик чоғида чархнинг жабру жафосини ҳадсиз даражада тортган бу зоти бузруг вафотидан кейин ҳам ўзоқ йиллар тақдирнинг машаққатли синовларига дуч келаверди. Заҳириддин Муҳаммад Бобур – маънавиятимиз сарвари.

Маънавият – мангу сарчашма. Бу сарчашма бевосита руҳни, инсон руҳини озиқлантиради, унга ҳаёт завқини солади. Аслида инсон фарзанди кўз очиб дунёни кўрганидан то кўз юмиб дунёни тарк этгунига қадар ҳар лаҳзада ҳаётга ташна бўлиб, маънавий рўҳий озуққа муштоқ бўлиб яшайди. Ҳаёт эса аслида,адабий гузалликдан, завқу сурурдан, демакки, мангу маънавий руҳий озуқдан иборат. Бугунги кунда эса. Ота- боболдаримизнинг асрлар давомида тўплаган ҳаётий тажрибалари, диний, ахлоқий, илмий қарашларини ўзида мужассам этган бу нодир қўлёзмаларни жиддий ўрганиш даври келди. Бугун, биз, аждодларимиз ҳақида хорижда яратилагн илмий-тарихий ва адабий асарлари билан бевосита тинишиш имконига эга бўлдик.

Биринчи Президентимиз Ислом Каримов таъкидлаганидек: “Буюк маънавият ва шарқона одоб-ахлоқ тимсоли” бўлган бобоколонимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва у асос солган сулола вакиллари салтанати тарих олдида буюк аҳамият касб этади[v]. Неча асрлар, неча минг йилларни қамраб олган улуғ тарихимизнинг инсоният ривожида катта из қоолдирганларнинг бир қисми-Заҳириддин Муҳаммад Бобур фаолиятиди мужассам бўлган. Кимки ўзбек номини, ўзбек миллатининг куч қудратини,

адолатпарварлигини, чексиз имкониятларини,унинг уммубашарият ривожига Ҳазрати Бобур Мирзо ижодини ўрганар эканмиз, бунга яна бир бор амин бўламиз. Бу улуғ инсоннинг жавоҳир хазинаси биз биз ўзбекларнинг бошимизни сарбаланд, қаддимизни тик қилиб юришга ундайди. Халқимизнинг кучига куч, ғайратига ғайрат қўшади. Аммо аждодларимизнинг, яъни Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг маънавият ва инсонийликни қайта тиклаш учун хизмат қилвадиган моддий ва маънавий ёдгорликларини қидириб топиш, уларни халқимизнинг маънавий эҳтиёжларини қондириш йўлида сафарбар қилиш бугунги куннинг энг долзарб вазифаларидан биридир. Албатта, бу йўлда ҳозирга қадар ҳам жуда ката ишлар амалга оширилди[v].

Халқда улуғ бир нақл бор: “Қатрада қуёш акс этади”.

Дарҳақиқат, шундай. Қатрада қуёшнинг, демакки, нурлар оламининг акси бор, жилваси бор. У бир қатра ! Аммо бу муъжиза шундаки, унда оламнинг гузаллиги, нафосати, биллурлиги, шаффофлиги, шу билан бирга, маъсуллиги мужассамлашган. Бани башар қанчалик мадҳ этиб, қанчалик ва қандай талқин қилинмасин бод-бод оддий ҳақиқатга – қатрага қайтаверади. Унинг ақли ва руҳи доимий равишда оддий ҳақиқатдан ҳайратлар оламига кучиб, ундан яна улуғ аслиятга – оддий ҳаёт ҳақиқатига келаверади. Бу мангуликка дахлдор ҳақиқат. Инсон ана шу ҳақиқат қаршисида – қатрадаги илоҳий мужда қошида лол ва ожиз қолаверади. Улуғ бобоколонимиз, мислсиз сўз санъаткори ва салоҳият соҳиби Заҳириддин Муҳаммад Бобур маънавиятимиз султони, сарваридир[v].

Унинг ижодий меросини, хусусан, “Бобурнома” ва ҳатто кичик шеърий мисраларнинг гуё қатрага мисол келтиришимиз мумкин. Зеро, санъткор шоир шеъриятида ҳам ўзида мунаввар оламини, унинг ҳадсиз – ҳудудсиз сир – у синоатларини мужассам этган қатрага хос хосса, мўжиза бор. Бинобарин, биз, уни қанчалик мутолааа этмайлик, унинг янги – янги қирралари инсорни ақлини ҳайратга. Руҳини туйғулар оламига тўлдирувчи фазилатлари очилаверади……

Фойдаланилган Адабиётлар рўйхати:

1. Каримов И. Маънавий юксалиш йулида (туплам) – Т: Узбекистон, 1998

2. Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йук – Т: Шарк, 1998

3. Алиев.С. Бобурнинг шеърий ижодиёти (диссертация) Т, 1948.

4. Бобур. З.М. Бобурнома – Т: юлдузча, 1990

5. Бобур. З.М. Девон – Т: Шарк, 1996

6.Ф.Набиев “Баҳрдан бир қатра”. 2002 й. 8 феврал. “Моҳият” газетаси.

7. Қаранг : Ф.Набиев “Сабр ила шукри ҳаё ”… Сиҳат саломатлик журнали. 2001,3-4 сон.

“BOBURNOMA”NING TARIXIY MANBA SIFATIDAGI O’RNI

Olimov Kozimjon Komiljon o’g’li
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Movarounnahr, Xuroson, Afg'oniston, Hindiston hududlari tavsiflangan Zahiriddin Muhammad Boburning asari bo'lmish "Boburnoma"dagi tarixiy-siyosiy jarayonlar haqida ma'lumotlar beradi. Shuningdek, asarning tarix fanida tutgan manba sifatidagi o'rnining ta'riflari berilgan.

Kalit so’zlar: "Boburnoma", "Mubayyin", Bobur Mirzo, Ibrohim Lo'diy, Qutlug' Nigorxonim, muhoraba, bog'lar, diniy erkinlik, sipohlar.

Annotation: This article provides information about the historical and political processes in "Boburnoma", the work of Zahiriddin Muhammad Babur, which describes the regions of Movarounnahr, Khorasan, Afghanistan, India. There are also descriptions of the place of the work as a source in the science of history.

Keywords: "Boburnoma", "Mubayyin", Bobur Mirzo, Ibrahim Lodiy, Kutlug Nigorkhanim, war, gardens, religious freedom, armies.

Аннотация: В данной статье представлена информация об исторических и политических процессах в «Бобурноме», произведении Захириддина Мухаммада Бабура, в котором описываются районы Мовароуннахра, Хорасан, Афганистан, Индия. Имеются также описания места произведения как источника в исторической науке.

Ключевые слова: «Бобурнома», «Мубайын», Бобур Мирзо, Ибрагим Лодий, Кутлуг Нигорханим, война, сады, свобода вероисповедания, войска.

O‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, buyuk shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste’dodli sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shahzoda Bobur

(taxallusi; to‘liq ismi Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo) 1483-yilning 14-fevralida Axsikentda shahrida tavallud topgan. Boburning otasi – Umarshayx Mirzo Farg‘ona viloyati hokimi, onasi – Qutlug‘ Nigorxonim Mo‘g‘uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Boburning yoshligi Andijonda o‘tgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozilu ulamolar ustozligida harbiy ta’lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o‘rganadi, ko‘plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she’riyatga qiziqa boshlaydi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan “Bobur” (“Sher”) taxallusini oladi. Otasi Axsida bevaqt, 39 yoshida fojiali halok bo‘lgach, oilaning katta farzandi, 12 yoshli Bobur valiahd sifatida taxtga o‘tiradi [1].

Bobur yosh bo’lishiga qaramasdan, bir qator harbiy yurishlarga rahbarlik qiladi. 1497-yil kuzida u bobo yurt Samarqand atrofidagi bir qancha joylarni va 7 oylik qamaldan so‘ng Samarqandni egallaydi [2]. 1501-yilga kelib Bobur Samarqand shahrini nizolar tufayli tark etib Toshkentga keladi. 1501 – 1504-yillarda Bobur Farg‘ona mulkini qaytarib olish uchun Sulton Ahmad Tanbal, Jahongir mirzolarga qarshi olib borgan kurashi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi va naijasda u Movarounnahrni tark etishga majbur bo’ladi. Bobur 200 – 300 navkari bilan Hisor tog‘lari orqali Afg‘onistonga o‘tadi va u yerdagi ichki nizolardan foydalanib G‘azna va Kobulni egallaydi. Bobur Kobulni egallagach, mustaqil davlat tuzishga jadal kirishadi, qo‘shinni tartibga keltiradi, qattiq ichki intizom o‘rnatadi. Kobulga, umuman Afg‘onistonga Bobur o‘z yurti kabi qaradi, qurilish, obodonlashtirish, kasbu hunar va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish ishlarini boshlab yuboradi. “Bog‘i Shahroro”, “Bog‘i Jahonoro”, “O‘rtabog‘”, “Bog‘i vafo” va “Bog‘i Bobur” kabi oromgohlar tashkil etdi [3]. Shahar ichidagi Bolo Hisor qal’asini o‘z qarorgohiga aylantirdi [4]. Yangi imoratlar qurdirdi va oilasi bilan shu qal’ada yashadi. Uning Humoyun, Gulbadanbegim, Komron va Hindol ismli farzandlari shu yerda tug‘iladi. 1519-yil bahoriga kelib Bobur Hindistonni zabt etish rejalarini amalga oshirishga kirishadi va 1526-yil aprelda Panipatda asosiy raqibi, Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyning yuz ming kishilik qo‘shinini 12 minglik askari bilan tormor qiladi hamda

Dehlini egallaydi. Bobur Hindistonda ham, xuddi Afg‘onistonda bo‘lganidek, ko‘plab ijtimoiy xayrli ishlarni amalga oshirdi, mamlakat taraqqiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Tarqoqlik va parokandalikka, o‘zaro ichki nizo, qirg‘inlarga barham berib, viloyatlarni birlashtirdi, markazlashgan davlatni mustahkamlash va yurtni obodonlashtirishga, ilmu hunar va dehqonchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratdi. Qurilish ishlariga boshchilik qildi. O‘tmish adabiyoti va tarix, musiqa va san’atdan yaxshi xabardor bo‘lgan, diniy ta’limotga chin ixlos qo‘ygan Bobur har doim olimu fozillar davrasida bo‘ldi, xususan ijod ahliga, kasbu hunar sohiblariga samimiy ehtirom ko‘rgazib homiylik qildi, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirib turdi. Ijod va san’at ahliga bunday mehrli munosabat aslo bejiz bo‘lmagan. Bobur tabiatan ijodkor edi. Yigitlik yillaridan boshlab to umrining oxirigacha samarali ijodiy ish bilan shug‘ullandi, har qanday sharoit va vaziyatlarda ham ijoddan to‘xtamadi, natijada, har jihatdan muhim boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi. Bobur 18–19 yoshlarida ruboiy va g‘azallar yoza boshlagan. Uning “Topmadim” radifli g‘azali va “Yod etmas emish kishini g‘urbatda kishi” misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysi o‘sha yillardagi hayoti bilan bog‘liq. Boburning ulkan san’atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko‘tara oladi va natijada asarlarida olg‘a surilgan g‘oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tariladi. Bobur ijodida, xususan, she’riyatida kindik qoni to‘kilgan ona yurtini dildildan qo‘msash, uning tuprog‘iga talpinish, g‘ariblik azoblaridan o‘tli hasrat, yoru diyor soginchi va visol ilinji, takdir zarbalari va turmush uqubatlari, zamona noso‘zliklaridan nola badiiy tahlil etiladi. Bobur ijodida ishq-muhabbat, sevgi-sadoqat, visol va hijron mavzusi ham salmoqli o‘rin tutadi. Uning g‘azal va ruboiylarida, tuyuq va masnaviylarida ma’shuqaning maftunkor go‘zalligi, beqiyos husnu latofati, sharqona odobu axloqi musiqiy va ravon misralarda katta mahorat bilan tarannum etiladi.

1521-yil Hindistonga yurishlari davrida Bobur “Mubayyin” asarini yaratdi. Masnaviy tarzida yozilgan, islom huquqshunosligi va shariat aqidalariga bag‘ishlangan bu asarda Movarounnahr va Hindistonga oid o‘sha davr ijtimoiy-

iqtisodiy hayoti bo‘yicha qiziqarli ma’lumotlar ham jamlangan. Valiahd Humoyun va Komron Mirzolarga dasturulamal sifatida mo‘ljallangan “Mubayyin”da, ayni zamonda, namoz, zakot va haj ziyorati to‘g‘risida ham shar’iy mezonlar bayon qilingan. Shu yillarda Bobur Sharq she’riyatining asosiy masalalaridan biri aruz vazni, uning nazariyasi va amaliyotiga oid ilmiy risolasini yakunlaydi. Shuningdek, Bobur barchaga yaxshi ma’lum bo’lgan Movarounnahr, Xuroson, Afg’oniston va Hindistonning 1493 – 1529-yillardagi tarixiga bag’ishlangan “Boburnoma” asarini ham juda yuksak mahorat bilan yaratgan [5]. Ushbu asar 1518 – 1519-yillarda yozila boshlangan va umrining so’nggi kunlarigacha bu asar ustida ish olib borgan. Hozirda uning 119 g‘azali, bir masnu she’ri, 209 ruboiysi, 10 dan optiq tuyuq va qit’alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibida umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o‘rin olgan [6]. Boburning yuqorida keltirilgan asarlaridan tashqari, “Xatti Boburiy”, shuningdek, musiqa san’ati va harb ishlariga maxsus bag‘ishlangan qator risolalari ham bo‘lgan. Ammo keyingi ikki asar matni hanuz topilgan emas. “Xatti Boburiy”da muallif arab alifbosini tahrir etib, yozuvni soddalashtirish va osonlashtirish maqsadida uni turkiy til va talaffuz mezonlariga moslashtirgan [7]. Yuksak salohiyat sohibi, barcha sohalarda avlodlarga o’rnak bo’lgan Bobur Mirzo 47 yoshida o‘zi asos solgan saltanat poytaxti Agrada vafot etdi va o‘sha yerda dafn etildi, keyinchalik, vasiyatiga muvofiq xoki Kobulga keltirilib, o‘zi bunyod ettirgan “Bog‘i Bobur”ga qo‘yildi. Bobur Mirzo hozirgi jamiyat uchun yana bir jihati sabab buyuk hisoblanadi. U nafaqat davlat arbobi balki, ota sifatida ham buyuk inson edi. Uning farzandlariga bergan tarbiyasi butun boburiylar sulolasining yuksak saviyasini belgilab bergan. Hozirgi jamiyat uchun ham yuqoridagi tarbiya yaqqol o’rnak bo’la oladi. Ulug’ siymo xotirasi uchun mustaqil O’zbekistonda salmoqli ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug’aniyevich Karimov farmoniga ko‘ra 1993-yilda Bobur tavalludining 510 yilligi tantanali nishonlandi. Andijon shahrida Bobur milliy bog‘i majmuasida “Bobur va jahon madaniyati” muzeyi, shoirning ramziy qabr maqbarasi bunyod etilgan. Shahar markazida va Bobur bog‘idagi yodgorlik

majmuida shoirga haykal o‘rnatildi. Andijondagi markaziy ko‘chalardan biriga, shuningdek, Toshkentdagi istirohat bog‘i va ko‘chaga, Andijon viloyati, Xonobod shahridagi istirohat bog‘iga Bobur nomi berildi [8]. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Bobur nomidagi medali ta’sis etildi. Sharqshunos olim Ubaydulla Karimov bu medalning birinchi sovrindori bo‘ldi. Andijonda 1993-yil 23-dekabrda Xalqaro Bobur jamg‘armasi tashkil etildi. Ushbu jamg’arma Bobur ijodini o‘rganishda katta ishlarni amalga oshirdi. Jamg‘armaning ilmiy ekspeditsiyasi 10 dan ortiq Sharq mamlakatlari bo‘ylab ilmiy safarlar uyushtirib, 200 ming km dan ortiq masofani bosib o‘tdi, Bobur va boburiylar qadamjolari, ularning ilmiy merosiga oid yangi ma’lumotlar to‘plab, ularni ilmiy iste’molga kiritdi. Mazkur ma’lumotlar asosida 10 dan ziyod ilmiy, hujjatli, badiiy asarlar yaratildi. Jamg‘armaning Lohur (Pokiston), Haydarobod (Hindiston), Abu Dabi (Birlashgan Arab Amirliklari), Moskva (Rossiya Federatsiyasi), O‘sh (Qirg‘iziston), Toshkent, Namangan (O‘zbekiston) shaharlarida bo‘limlari mavjud. 1998-yil jamg‘armaning bobur shunoslik sohasidagi xalqaro mukofoti ta’sis etildi. Xulosa qilib aytganda, Bobur Mirzo butun dunyoda dong taratgan imperiyaga asos soldi, nafaqat Movarounnahr, balki, Afg’oniston va Hindistonning madaniyati shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etdi. Barcha xalqlar uchun diniy erkinlik bergan sanoqli hukmdorlardan biriga aylandi. She’riyat dunyosida “ruboiylar sultoni” nomini oldi. O’z avlodlari va bugungi avlodlarning yuragida yuksak darajadagi shaxs, “shoh va shoir” nomining chin ma’nodagi sohibi, o’tli qalb egasi, buyuk sifatida o’rin egalladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonov U., Jo’rayev U., Norqulov N. O’zbekiston tarixi. – T., 2014. – B. 5.

2. Jo’rayeva G., Usmonov Q., Jo’rayev U., Norqulov N. O’zbekiston tarixi. – T., 2019. – B. 9.

3. https://uz.wikipedia.org/wiki/.

4. Лебедова Т. И., О неисследованних погребенях Гури Амир //Археология, история и култура Среднии Азии. 2002. – С. 68.

5. Usmonov U., Jo’rayev U., Norqulov N. O’zbekiston tarixi. – T., 2014. – B. 16.

6. O‘zME. Birinchi jild. – Toshkent, 2000.

7. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Sharafnomayi shohiy. Asos. 1983-yil.

8. Abdulahad Muhammadjonov, Abdurashid Abdug’afurov. O‘zME. Birinchi jild. 2000-yil

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR IS ONE OF THE GREAT SONS OF HUMANITY

Boltayeva Mahbuba Sharipovna

A teacher of Pedagogical institute of Bukhara State University

Annotation: this article is about Bobur’s personality, talent and how all of Babur's creative heritage has entered the golden fund of world literature and culture, also about “Baburname”

Аннотация: эта статья о личности Бабура, его таланте и о том, как все творческое наследие Бабура вошло в золотой фонд мировой литературы и культуры, а также о «Бабурнаме».

Annotatsiya: ushbu maqola Bobur shaxsi, uning iste’dodi va Boburning barcha ijodiy merosi jahon adabiyoti va madaniyatining oltin fondiga qanday kirib kelganligi hamda “Boburnoma” haqida.

Key words: a great king, importance, century, Maverannahr,Timurids, valuable, contain, to describe.

Ключевые слова: великий царь, значение, век, Мавераннахр, Тимуриды, ценный, содержать, описывать.

Tayanch so‘zlar: buyuk podshoh, ma’no, zamon, Moverannahr, Temuriylar, qimmatli, o‘z ichiga oladi, tavsif.

Bobur is a great king, a great poet, a theoretical literary critic, a faqih, linguist, an art critic, an ethnographer, a creator of animal and plant life. Only one “Boburnoma” is an example of its interest in more than twenty industries. Bobur’s personality, talent and virtues are very rare.“Kabul divans” and “Indian divans” (poetic collections), memoirs “Baburnama” and his other works had a decisive influence on the formation of the Uzbek literary and artistic thought. The scientific works of Babur

allowed creating a comprehensive view of geography, ethnography, flora and fauna of Central Asia, Afghanistan, India at the end of 15th - beginning of 16th centuries.

Among the scientific works of Babur "Treatise on aruz" is of particular importance; the work is devoted to the study of philological poetry foundations. "Baburnama" is considered rightly as the pinnacle of his creativity, a work which depicted historical events, outstanding personalities, and natural scenery. In addition, it is a kind of encyclopedia, containing scientific information on many aspects of life of that era.

The central place in the work of Babur is occupied by an invaluable literary monument of prose in the Uzbek language, the historical work "Baburname", which the orientalist V. Bartold called "the best work of Turkic prose". The book was completed in India, it is mainly autobiographical (memoir) in nature and reflects the history of the peoples of Central Asia at the end of the 15th - beginning of the 17th centuries. In terms of the totality of information and their reliability, "Babur-name" is the most important and valuable historical and prose work, unparalleled among similar works written in the Middle Ages in Central Asia, Iran, Afghanistan and India.

In terms of the richness and variety of material, in terms of language and style, "Baburname" stands above any historical chronicle compiled by the court chroniclers of that time. It is not surprising, therefore, that at different times this work attracted the close attention of scientists from their world. "Babur-name" is devoted to describing the activities of Babur, his successful and unsuccessful military campaigns, and a presentation of all the vicissitudes of his rich adventurous life. The history of the creation of "Babur-name" is unknown, according to the information of the daughter of Gulbadan-begim, in her book "Humayun-name", it is described that in India, in the city of Sikri, there was a platform in the garden and at the top of this platform Babur used to write books.

Babur-name" consists of three parts. Its first part is devoted to the description of political events in Maverannahr at the end of the 15th century. The second part covers

the events that took place on the territory of Afghanistan, which in the era of Babur was known as the "Kabul Destiny". The last part describes the political events in Northern India, the geographical data of the country, its natural features, contains interesting information about the peoples who inhabited this country.

The author of "Babur-name" with his characteristic frankness describes the struggle for power, cites the facts of the devastation of agricultural oases, the increase in land and other taxes, the collection of which became more frequent during the years of unrest in the possessions of the last Timurids in Khorasan and Maverannahr.

Thanks to “Babur-name” we learn about the terrible famine that took place in the city of Samarkand during the days of its siege by Sheibani Khan in 1501. The veracity of Babur's information is confirmed by the historians of that time: Khandemir, Muhammad Haidar, Muhammad Salih, Bennai and others.

Babur himself writes: “... everything that is written here is true, and the purpose of these words is to praise oneself - everything, in reality, was as I wrote. In this chronicle, I made it my duty to ensure that every word I wrote was true and that every deed was presented as it happened.

“Babur-name”, although it is devoted to the political history of the above-mentioned countries at the turn of the 15th-17th centuries, it also abounds with invaluable materials from the socio-economic life of peoples, touches on issues of morality, ethics, morality and aspects of the era contemporary to the author.

"Babur-name" contains numerous information about the literary environment of Babur himself. Based on this information, it is possible to recreate the biographies of many little-known poets of that time who lived in Central Asia and wrote poetry, both in Persian and Turkic. The book contains many verbal portraits of a number of the poet's contemporaries, statesmen, artists, musicians, and historians. Babur's information about the mineral resources of the cities of Central Asia is extremely valuable. The book not only provides individual information about natural resources, but at the same time notes their purpose in the economic life of the country.

With great love, Babur writes about Samarkand, the author does not lose sight of the description of Ulugbek's observatory, which he admired, noting the perfection of this structure, its amazingness. The “Babur-name” reflects the flora and fauna of the described countries. Babur, describing Hindustan in detail, admires its nature, compares it with his own: “This is an amazing country; in comparison with our lands it is a different world. Mountains, rivers, forests, cities, regions, language, plants and winds - everything there is different from ours. Although the hot regions adjacent to Kabul are in some ways similar to Hindustan, but in other respects they are not similar: one has only to cross the Sindh River, and earth and water, and trees, and stones, and people, and customs - everything becomes like that. same as in Hindustan. Describing the political life of India, Babur gives information about the history of India in the 15th - early 16th centuries.

There is a lot of factual data on ethnography in “Babur-name”: descriptions of Hindu clothing, their customs, the way of life of the common people and the nobility are interesting.

In "Babur-name" the author carries out the idea that in this transient and mortal world it is the duty of everyone to leave behind a good name.

Here is what he writes:

If I die with a good name, fine.

I need a (good) name - the body belongs to death.

The great work of Zahiriddin Muhammad Babur "Babur-name" immortalized the name of the poet for centuries.

Babur in his activities pursued the goal of improving the major cities of India subject to him. The layout and architecture of public and private buildings, their external design and interior, have much in common with the Central Asian style, orchanically combined with Indian and Central Asian. Babur seeks to strengthen trade and economic ties with neighboring countries.

At present, “Babur-name” is increasingly attracting the attention of specialists from around the world. The value of the information given in "Babur-name", the

sincerity and self-criticism of the author, the reliability of the facts received the unanimous recognition of scientists from all over the world. The data of "Babur-name" were included in the summary volumes on the history of the peoples of Central Asia.

Interest in the remarkable creations of Babur, especially in his book “Babur-name”, is growing year by year all over the world. The people of Uzbekistan can rightly be proud that among their ancestors there is an outstanding statesman, scientist, excellent poet, prose writer and translator - Zahiriddin Muhammad Babur. All of Babur's creative heritage has entered the golden fund of world literature and culture, is the property and national pride of our people.Also “Baburname” used tradition and other elements of folklore, is about descriptions of traditions and rituals.

Uzbek people are proud of the outstanding poet and brilliant scientist Babur’s masterpieces, which still are the link of cultural relations between the peoples of Central Asia, Afghanistan and India. In these countries, subject of hundreds of scientific and literary works, movies are dedicated to our ingenious countryman.

The poet’s script works are kept in museums of France, Britain, the United States and other countries. For example, a unique copy of the work “Vakoyi-i-Baburi” was discovered in Iran, which includes “Mubayin”, a treatise on Islamic jurisprudence. The manuscript, accompanied by commentary and a Persian translation, served as the object of further research as an example of calligraphy and book art. Unknown lists of Babur’s divans manuscript were previously found in the funds of Salar Jung Museum of Hyderabad (India).

As a result of Uzbek and foreign scientists’ joint scientific and practical research, copies of the principal manuscripts of our illustrious ancestor’s works were delivered to Uzbekistan, so “Paris list of Babur’s divans”, album “Miniatures for “Baburname” – a winner at international book fairs, “Treatise on aruz” and many others were published here.

Independence gave us unlimited opportunities to explore deeper and fuller precious facets of Zahiriddin Muhammad Babur’s creativity, to make his heritage a property of the international community.

Literature:

1.Samoilovich A.N. Collection of Poems of Emperor Babur Pg. 1917.

2. Samoylovich A.N. 1907. T. XVII. issue 1. p. 074–083.

3. Samoilovich A.N. Retz on Ross D.E A Collectıon of Poems by the Emperor Babur //ZVORAO. 1911. T.: XX. Issue. 1.

4. Stebleva I.V. Extracts from Babur's treatise on versification (aruz) // Written monuments of the East. M.1970.

5.Blagova G.F. From the history of Turkic textology M. 1993.

6.Blagova G.F. A.N. Samoylovich researcher "Baburname" // IAN. Lit. and language 1994.V.53 No. 1.

7. Blagova G.F. Academician Samoilovich and the study of the literary heritage of Zakhiriddin Babur // Vostok 1997 No. 6. C. 120–125

8. Blagova G.F. On the unrealized scientific plans of Academician A.N. SPb.2003, No. 10. C. 436–446

9. Blagova, G.F., Ilminsky N.I. and A.N. Samoilovich: work on "Babur-name" / G.F. Blagova // Vostok. - 2005. - N 1. - S. 134–148 6.

NEW RESEARCH ON THE WORKS OF ALISHER NAVOI AND ZAHIRUDDIN MUHAMMAD BABUR

Ahmadova Durdona Faxriddin qizi
O’zbekiston Milliy universiteti talabasi

Annotatsiya:Maqolada o’zbeklarning buyuk ajdodlari Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur haqida so’z boradi.

Аннотация:в статье рассматриваются величайшие предки узбеков Алишер Навои и Захируддин Мухаммад Бабур

Annotation: The article discusses the greatest ancestors of Uzbeks’,Alisher Navoi and Zahiruddin Muhammad Babur

Kalit so’zlar:adabiyot,yozuvchi,shoir,davlat arbobi,she’rlar,qo’lyozmalar,sulola, kitoblar,asarlar,ajdod

Ключевые слова:литература,писатель,поет,государственный деятель,стихи, рукопись,династия,книги,произведения,родоначальник.

Key words : literature, writer, poet,statesman,poems,manuscripts, dynasty, books, works,ancestor

Uzbek literature is rich in great writers and poets.The majority of written works were produced by the Uzbek people of Central Asia,most of whom lived in Uzbekistan,moreover smaller part of this in Afganistan,Tajikistan and Kyrgyzstan.Uzbek literature’s classical period lasted from the 9th to the second half of the 19th century.During that period numerous literary works were produced,especially most of them were under the patronage of Turkic emperors,kings,sultans and emirs.The best-known patrons of the Turkic literature of the historical region known as Turkistan-which includes what is today Uzbekistan as well as a number of surrounding countries-consisting of the Qarakhanids(10th-13th centuries);such Timurids(14th-16th centuries) as Timur(Tamerlane),Shahruhk,Ulugh Beg,Husayn

Baykarah,and Babur,the founder of the Mughal dynasty in India;and the Umar Khan,a 19th-century ruler of the khanate of Kokand. The great poet,thinker and statesman,Alisher Navoi was born in Herat on 9 February 1441.At that time,Herat was a capital of Khorasan,a province within the state of Maverannahr created by Amir Temur.His full name was Nizomiddin Mir Alisher.Moreover,future writer was a friend of the future ruler of Khorasan,Husayn Baykarah.Because of his interest,he started writing poetry at the age of 10-12.According to the information of Navoi's contemporary,the historian Khandamir,the famous Uzbek poet Lutfiy met a child named Navoi in his old age and highly appreciated his poetic talent.In 1469,Husayn Baykarah appoints Navoi as the administrator of the state seal(Muhrdar),and in 1472,he was appointed as a minister.During that time,he supplied great help to the cultural and scientific intellectuals of the country.And he became the owner of a large estate.

In the 1480s,Mir Alisher built at his own expense in Herat and other regions of the country several medresses,40 rabats,17 mosques,10 Sufi huts(khanakah),9 baths,9 bridges…Alisher Navoi's creative work is very magnificent.The volume of his six poems is about 60,000 lines(misra).Similarly,in 1483-1485,Navoi created "Khamsa"(including 5 different epic poems, 50,000 verses),which consists of poems such as "Hayrat al-abrar"("Confusion of the Righteous") "Farhod va Shirin"(Farkhad and Shirin),"Layli va Majnun","Sab'ai sayyar"(The Seven Planets)and "Saddi Iskandari"(The wall of Iskandar).All these five poems were based on the Khamsa tradition.Religious works of Nizomiddin Mir Alisher were also published:"Arbain"(Forty Quatrains),"Munajat"(A Plea to Allah).Alisher Navoiy died in Herat on 3 January 1501,weakened by a long illness.His works have been translated into dozens of languages as well as his manuscripts,moreover,books are kept in largest libraries in the world.

The greatest uzbek poet,philosopher,historian,statesman Zahiriddin Muhammad Babur was born in Andijan on 14 February 1483.Zahiriddin Muhammad Babur was the founder of the Baburid dynasty and empire as well as the son of the ruler of

Fergana and great-grandson of Amir Temur.Among the scientific works of Babur,the special place hold "Treatise on Aruz"(1523-25),which describes the theory of oriental metrical Aruz.In 1521,he wrote the philosophical and religious work "Mubayyin",in which he expounded the 5 foundations of Islamic Sharia.Babur's literary legacy is varied and rich.His lyrical works are gathered in the "Kabul Devani"(1519),after that in the "Hind Devani"(1529-30).He wrote poems in more than 10 genres of Oriental poetry.His poems reflect his personal life,his experience and environment,historical events.The general quantity of his poems is more than 400.119 of them are written in a style called "Ghazal"and 231 of them are "Ruboi".The well-known "Baburnoma" shows the history of the great Temurids,the struggle for the establishment of the great power(events from 1494-1529).More than 10 manuscript versions of "Baburnoma" are preserved in the Institute of Oriental Studies of the Academy Sciences.It has been translatedinto Persian(1586),Dutch(1705),English(1826),French(1871),Turkish(1940) and Russian(1942). Babur also created a book on taxation "Mubayyin-l-zakot"in the same year.His scientific works "Harb ishi"(Warfare),"Musika ilmi"(Science of music) have not been found yet.Zahiriddin Muhammad Babur wrote on the basis of the Arabic script "Khatti Boburiy" to suit Turkish phonetics.He transcribed the Koran and some works by Babur himself using this script. In the "Book of Memory"of Andijan national park named after Zahiriddin Muhammad Babur President Islam Karimov wrote:"In the name of our ancestor of Babur we have infinitely proud of.He glorified the Uzbek people all over the world,teaches to protect the historical and spiritual values in the great future with confidence and look faith.The people who gave the world the great Babur,should never be humbled and deserves to be happy"

REFERENCE:

1.http://www.britannica.com

2.http://www.turkestantravel.com

3.http://Uzbekistan.lv

“BOBURNOMA” O‘ZBEK VA JAHON ADABIY MEROSINING YETUK XAZINASI

Saydazzamova Chamangul Olimjon qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi

Annotasiya: Maqolada buyuk davlat arbobi, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy merosi, shu jumladan „Boburnoma“ asarining o‘zbek va jahon adabiy merosida tutgan o‘rni, turli sohalardagi ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, “Vaqoye”, antroponim, fitonim.

Buyuk davlat arbobi, shohlik va shoirlikni birdek olib borgan insonparvar shaxs – Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zi yaratgan bir qator bunyodkorlik ishlari, asarlari bilan jahon ilm-fani va madaniyatiga ulkan hissasini qo‘shdi. Jumladan, Bobur shoir sifatida o‘zi yaratgan g‘azallari orqali lirik she’riyatni yana bir pog‘ona yuksakka ko‘tardi. Shoirning g‘azal va ruboiylarida insonparvarlik, yurt, vatan sog‘inchi ustuvorlik qiladi. Yoki, olaylik, birgina „Boburnoma“ asarining o‘zi bir qancha sohalar uchun eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. „Boburnoma“ asarida tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganimizda ko‘plab antroponimlar (kishi nomlari, jumladan, asarda bir qator tarixiy shaxslar nomlari keltiriladi), zoonimlar (hayvon nomlari), fitonimlar (o‘simliklar nomlari) va yana bir qancha onomastika sohasiga tegishli atama va nomlarni, ularga oid qimmatli ma’lumotlarni uchratamiz. Umuman olganda, bu nodir asarning tarix, etnografiya, geografiya, lingvistika, adabiyotshunoslik va boshqa juda ko‘plab sohalardagi tutgan o‘rni beqiyosdir. Bu asarda Movarounnahr, Afg‘oniston, Hindiston kabi hududlarning tabiati, hayvonot olami, tarixi va geografik joylashuvi haqida muhim va kerakli ma’lumotlarni keltiradi. Asar hijriy 899-yil, taxminan, milodiy 1493-yilgi voqealar bayoni bilan boshlanadi. Asarda Bobur boshidan kechirgan voqealarni birma-bir yozib boradi.

Unda Farg‘ona, Andijon, Quva, Marg‘ilon, Samaqand hududi tabiati va tasviri zo‘r mahorat bilan ochib beriladi. „Boburnoma“da nafaqat yurtimizdagi joy nomlari, tarixiy shaxslar haqida ma’lumotlar beriladi, balki boshqa hududlar, mamlakatlar, jumladan, Hindiston haqida, uning noyob tabiati haqida ham qimmatli ma’lumotlarni yozib qoldiradi. Aytish kerakki, Zahiriddin Muhammad Bobur bu yurtlarga bosqinchi sifatida emas, balki ma’rifatparvar sifatida, adolatni, millartlararo tenglikni targ‘ib etuvchi shaxs sifatida borganligini uning o‘sha mamlakatlarda amalga oshirgan yaratuvchanlik salohiyati va ishlari orqali ko‘rishimiz mumkn. Shuning uchun ham bugungi kunda butunjahon olimlari, umuman, Bobur hayotiga, uning qilgan ishlariga befarq bo‘lmagan bo‘lmagan holda, katta qiziqish bilan har bir bunyodkorlik ishlari-yu asarlarini e’tirof etishmoqda. Jumladan, jahon ilm-faniga ulkan hissasini qo‘shgan insonlardan biri – Javoharla’l Neru shunday yozgan edi: „Bobur Hindistonga kelgandan keyin katta siljishlar yuz berdi va yangi rag‘batlantirishlar hayotga, san’atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi“ [1.273]. Ko‘ramizki, buyuk bobokalonimiz qilgan ishlarini jahon tan olgani, qiziqish bildirgani har bir insonda g‘urur, muhabbat hissini yanada oshiradi. Zahiriddin Muhammad Bobur boshqa yurtga borganda ham yuqorida ta’kidlandanidek, bosqinchi bo‘lib emas, xuddi o‘z yurtida amalga oshirgan obodonchilik, bunyodkorlik ishlarini boshqa o‘lkalarda ham qo‘lladi. Jumladan, „Bog‘i Shahroro“, „Bog‘i Jahonoro“, „O‘rtabog‘“, „Bog‘i vafo“ va „Bog‘i Bobur“ kabi oromgohlar tashkil etdi [4. 84]. Boburning bunday buyuk ishlari orqali qanchalar insonparvar, xalqparvar shaxs bo‘lganligining guvohi bo‘lamiz.

Zahiriddin Muhammad Boburning asarlari bugungi kunda nafaqat O‘zbekistonda, balki jahonning turli mamlakatlarida tadqiq etilib, chuqur o‘rganilmoqda. Ayniqsa, alohida ta’kidlash kerakki, „Boburnoma“ asari jahon olimlari tomonidan muhokamalarga, chuqur izlanishlarga sabab bo‘ldi. Hattoki, Bobur va uning „Boburnoma“ asari haqida jahon olimlari tomonidan bir qator asarlar yaratildi. Bu mashhur asar jahonning ko‘plab tillariga tarjima qilindi. Masalan, gollandiyalik olim Vidsen, angliyalik olimlar I. Leyden, V. Erskin, R. Koldekot, A.

Beverej, T. Albot, germaniyalik Y. Klaynrat va A. Keyzer, fransiyalik Pave de Kurteyl, hindistonlik Mirzo Nasriddin Haydar Rizvi, turkiyalik R. R. Art va N. I. Bayur va bizning davrimizdagi fransiyalik olim Bakke Gromon, afg‘onistonlik olim Abulhay Habibiy, pokistonlik olimlar Rashid Axtar, Nadvi va Shoh Olam Mavliyot [1. 275] kabi jahon olimlari qilgan ishlar e’tirofga loyiqdir.

Zahiriddin Muhammad Bobur umri davomida ko’plab qiyinchiliklarni ko’radi. Bularning barchasini u dastlab „Vaqoye“ deb atalgan „Boburnoma“ asarida birma-bir yozib qoldiradi. „Boburnoma“da keltirilishicha, Bobur va uning askarlari Qandahorda qattiq qor yog‘ib, yo‘l topolmay qiynaladi. Hatto, tavakkal qilib Sulton peshoyi ko‘rsatgan yo‘ldan ham yurib ko‘rishadi, ammo baribir yo‘lni topa olishmaydi. Asarda Bobur shu voqealarni nazarda tutib shunday yozadi: „Bir necha kun ko‘p tashvish va mashaqqatlar tortildi. Umr bo‘yi buncha mashaqqat tortmagan edik. Bu matla o‘sha fursatda aytildi:

Charxning men ko‘rmagan javr-u jafosi qoldimu?

Xasta ko‘nglim chekmagan dard-u balosi qoldimu? [3.148]

„Boburnoma“dan keltirilgan yuqoridagi misralardan ko‘ramizki, Bobur mashaqqatlar paytdagi ko‘ngil kechinmalarini, ichki tuyg‘ularini ochiq tarzda go‘zal baytlar bilan qog‘ozga tushiradi. Bunday oshkoralikni boshqa podshohlarda uchratish qiyin. Tarix kitoblarida ham ko‘rishimiz mumkinki, ko‘plab shohlar o‘zining ojiz tomonini yashirishga intilgan, o‘zlari haqida yozilgan asarlarda ham ularning ko‘proq ijobiy tomonlari yoritilgan. Ammo Bobur hech kimda uchramaydigan yangicha uslubda voqealarga yolg‘on aralshtirmay yozadi. Taniqli yozuvchi Pirimqul Qodirovning mashhur „Yulduzli tunlar“ asarida xuddi shu fikrlar o‘z tasdig‘ini topadi: „…Katta tarixiy kitoblar hukmdorlar uchun yozilar, asosiy ta’rif-u tavsif o‘shalarning ishlariga berilardi. Nazokatli o‘xshatishlar, jimjimador majozlar va shoirona ko‘tarinki uslub hukmdorlarga xush kelar va barcha mualliflar bo‘ysunadigan bir qonun hisoblanardi.

Bobur mana shu qonunni butunlay inkor etuvchi uslub bilan asar yozgani Xondamirga ortiq darajadagi bir shakkoklikday tuyuldi. Bobur o‘g‘li Humoyunga yozgan xatini ham kitobida keltirgan edi:

„...Xat bitirda takalluf qilay deysen, ul jihattin mug‘laq bo‘ladur. Betakalluf pok alfoz bila bit, senga ham tashvish oz bo‘lar va o‘qig‘uvchig‘a ham“. „Ajabo! – o’ylandi Xondamir, – betakalluf til bilan asar bitmoq Bobur Mirzo uchun pok uslub belgisi hisoblanur ekan-da!“ Xondamir o‘zining o‘n yildan beri yozayotgan „Habib us-siyar“ida nazokatli takalluflar ko‘pligini esladi-yu, o‘zini o‘ng‘aysiz sezib, o‘qishdan to‘xtadi va ayvonga chiqdi.

…Hali hech bir muzarrix qalamga olmagan g‘aroyib voqealar bu qadar ko‘p! Xondamir kitobning mazmuni yangi va maroqli ekaniga tan bermay iloji qolmadi“ [2.626-627].

Ko‘rinib turganidek, Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z asarlarini „betakalluf pok alfoz bila“ bitganini bugun butun dunyo tan olmoqda. Shuning uchun ham buyuk davlat arbobi Javoharla’l Neru ta’kidlaganidek: „Bobur – dilbar shaxs. Uyg‘onish davri hukmdorining haqiqiy namunasidir“. Buyuk ajdodimiz yaratgan asarlar jahon sivilizatsiyasiga ham o‘z hissasini qo‘shganligini inkor etib bo‘lmaydi. Aytish mumkinki, Bobur Mirzoning harbiy san’atga bag‘ishlab yozgan „Harb ishi“ asari bizga qadar yetib kelmagan bo‘lsa-da, uning boshqa asarlari, xususan, „Boburoma“ asari orqali dunyo xalqlari uning buyuk hukmdorlik salohiyatiga, harbiy san’atiga va adolatparvarligiga tan berishmoqda.

„Boburnoma“ asari voqealarning haqqoniy, badiiy to‘qimalarning yo‘qligi jihatidan ham diqqatga sazovordir. Buni birgina Hindiston tasvirida ham ko‘ramiz:

„Hinduston birinchi, ikkinchi va uchinchi iqlimda joylashgandir. U to‘rtinchi iqlimga kirmaydi. Juda ajoyib mamlakatdir. Bizning yerlarga solishtirganda mutlaqo o‘zga bir olam. Tog‘ va daryolari, o‘rmon va sahrolari, shahar va viloyatlari, hayvon va o‘simliklari, odamlari va tili, yomg‘iri va shamoli – hammasi boshqacha, biznikiga

o‘xshamaydi“ [3.204]. Asarda yana shunday tasvirlar uchraydi: „…Garchi Hindustonda shuncha ko‘p shahar va viloyatlar bo‘lsa ham, hech yerida oqar suvlar yo‘qdir“ [3.205]. Asardan olingan parchada ko‘rganimizdek, Bobur har bir hududning geografiyasi, hayvonot va nabotot olamini tasvirlashda xolislikni saqlaydi. Bu esa asarning qimmatini yanada oshiradi. Asarning juda ko‘p tillarda nashr etilishi ham Boburning naqadar dilbar shaxsligini ko‘rsatadi. Birgina Angliyada „Boburnoma“ning to‘qqiz marta nashr etilishining o‘ziyoq, bu asarning jahon miqyosidagi o‘rnini belgilaydi. Yevropadagina emas, balki jahonda birinchi to‘liq nashrini (ingliz tilida) 1826-yilda J. Leyden va V. Erskin amalga oshiradi [4.92].

„Boburnoma“ asari nafaqat Bobur yashagan davr uchun muhim manba sifatida xizmat qildi, balki bugungi kunda ham jahon manbashunosligida eng yetuk va muhim asar sifatida qadrlanib kelmoqda. Zahiriddin Muhammad Bobur qoldirgan ilmiy meros ko‘p davrlar mobaynida jahon miqyosida kerakli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma’naviyat yulduzlari. – Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2011.
2. Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
4. O’zME. 2-jild. – Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2001.

BOBUR IJODI VA SHAXSIYATINING YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN O‘RNI

Shahzod Nishonov

Jizzax davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o’rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she’riyatida o’ziga xos o’rin egallagan yirik davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning murakkab hayot yo’li va uning hayot sinovlaridagi bardoshi haqida o’ziga xos yondoshildi. Shu bilan birgalikda uning ijodiyoti va shaxsiyatining yoshlar manaviyatidagi o’rni haqida so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: Mirzo Bobur, g’azal, ruboiy, rahdillik, mustaqillik, “humoyunnoma”, “Boburnoma”, lirika.

Annotation: This article will discuss the complex life of the great statesman Zahiriddin Muhammad Babur, who played a significant role in the culture, literature and poetry of the Middle East, and his endurance in the trials of life. At the same time, the role of his creativity and personality in the spirituality of young people will be investigated.

Keywords: Mirzo Babur, ghazal, rubai, compassion, independence, "humoyunnoma", "Boburnoma", lyrics.

Аннотация: В данной статье пойдет речь о непростом жизненном пути великого государственного деятеля Захириддина Мухаммада Бабура, сыгравшего значительную роль в культуре, литературе и поэзии Ближнего Востока, и его стойкости в жизненных испытаниях. При этом будет исследована роль его творчества и личности в духовности молодежи.

Ключевые слова: Мирзо Бабур, газель, рубаи, сострадание, независимость, «гумоюннома», «бобурнома», лирика.

Bugungi globallashuv jarayonida har bir yosh avlod o‘zligini anglashi, ajdodlarining hayot yo‘lidan ibrat olmog‘i zarur. Shunday ibratga arzigulik ajdodlarimizdan biri shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburdir.

“Bobur” arabcha “arslon, yo‘lbars, sarkarda” degan ma’nolarni anglatadi. U o‘z nomiga munosib hayot yo‘lini bosib o‘tdi va bugungi kunda, shunga yarasha uning shaxsiga nisbatan munosib ehtirom ko‘rsatilmoqda. Binobarin, “Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbek va hind xalqlari tarixida buyuk lashkarboshi va davlat arbobi, ulug‘ shoir, mutafakkir olim va tarixchi sifatida munosib o‘rin olgan”. [Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O‘.Vatan tarixi (2-kitob). Toshkent-2010.19-20-betlar].

Mamlakatimizda dunyo darajasida katta e’tirofga ega bo‘lgan Zahiriddin Muhammad Boburning xotirasini abadiylashtirish va ilmiy merosini yosh avlodga yetkazishga doir bir qator ishlar amalga oshirilyapti. Jumladan, Bobur xalqaro jamoat fondi va uning tasarrufidagi so‘lim maskanda 357 gektar maydonni egallagan “Bog‘i Bobur” nomli istirohat bog‘i tashkil etildi. Bog‘da Bobur Mirzoning ramziy qabri va haykali, “Bobur va jahon madaniyati” muzeyi barpo etilgan.

Davlatimiz rahbarining bu kabi xayrli ishlarga katta e’tibor qaratayotganlari ham tahsinga loyiq. Binobarin, Shavkat Mirziyoyev bu buyuk inson haqida “Mana, ulug‘ ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Boburni olaylik. Bu buyuk zot o‘n ikki yoshidan boshlab Temuriylar davlatini saqlab qolish uchun o‘zini o‘tga ham, cho‘qqa ham urdi, hech qanday dushmandan ham, sinovdan ham qo‘rqmadi. Qirq olti yillik umri davomida bir zum ham halovat bilmasdan o‘tdi. O‘z avlodlariga Vatanga bo‘lgan buyuk muhabbatini, ezgu fazilatlarini meros qoldirdi.” – deb, e’tirof etadilar. [Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 8-9].

Zamonaviy texnologiyalar qurshovida ulg‘ayayotgan yosh avlodning ruhiy dunyosiga bu kabi asarlar ma’naviy ozuqa sifatida yetkazilishi ularning ruhan barkamol bo‘lib yetishishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari Boburning tahlikali va murakkab hayot yo‘lidagi sabr-u bardoshi, qiyinchiliklarga matonat bilan qarshi turishi bugungi yoshlarga ibrat bo‘lmog‘i darkor. Otasidan erta yetim qolgan 12 yoshli bolaning yelkasiga Farg‘ona viloyatini boshqarishdek ulkan yuk yuklatilgan edi. Bu davrda Movarounnahr va Xurosonda turli hokimlar, aka-ukalar, tog‘a-jiyanlar, amakivachchalar o‘rtasida hokimiyat, ulug‘ bobolari Amir Temur tuzgan yirik davlatga egalik qilish uchun kurash nihoyat keskinlashgan edi. Bunday paytda adabiyot va san’atga mehr qo‘ygan Bobur qalamni qilichga almashtirib Andijon taxti uchun ukasi Jahongir Mirzo, amakisi Sulton Ahmad Mirzo, tog‘asi Sulton Mahmudxon va boshqa raqiblarga qarshi kurashishga majbur bo‘ldi.

Otasidan erta yetim qolganiga qaramay Bobur o‘ziga insoniylik, sabr-matonat va sarkardalik mahoratini singdira olgani kishini hayratga soladi. Yoshlikdan ko‘p xiyonat va aldovlarning guvohi bo‘lgan Bobur Mirzo bunday illatlarga nafrat bilan qaraydigan bo‘lib yetishsa-da, uning ichki dunyosida kechirimlilik va sillayi-rahm kabi insoniy fazilatlarning yuqori darajada shakllangani alohida e’tirofga sazovordir. Binobarin, bu hislatlarni Gulbadanbegim “Humoyunnoma” asarida quyidagicha ta’riflaydi, “Oxir-oqibat, podshohning odamlari xabar topib, Mirzo Muhammad Husaynni o‘rinqopdan chiqaradilar va podshohning oldiga olib keladilar. Nihoyatki, hazrat [Bobur] xolalarining yuz-xotirini qilib, Mirzo Muhammad Husaynning gunohidan o‘tdilar. Xolalarining xotiriga kulfat g‘ubori qo‘nmasin deb, har kungiday xolalarining uylariga bordi-keldi qilar, ilgaridan ham ko‘proq ko‘nglini olardilar. Ularga yer-suv va mulk tayin qildilar”. [Gulbadanbegim. Humoyunnoma. Toshkent-2016. 8-9 betlar].

Mazkur asarda Mirzo Bobur nozik ta’b sohibi, ko‘ngli keng kishi bo‘lishi bilan birgalikda uning jismoniy va ruhiy quvvati ham mustahkam ekani qayd etiladi. “Jahongirlik bobida bizning hazratimiz [Bobur] boshidan o‘tkazgan qiyinchilik va mashaqqatlarga kam kishi duch kelgan. Janglar va xavf-xatarlar paytida ul hazrat

ko‘rsatgan dovyuraklik, mardlik va sabr-toqat kamdan-kam podshohda uchraydi”. [Gulbadanbegim. Humoyunnoma. Toshkent-2016. 4-bet].

Mirzo Bobur ham ota-bobolari kabi shariat ahkomlariga qatiiy amal qilgan. O‘zi ichkilik ichishni tark etish borasida Allohga munojat etganligini “Boburnoma”da quyidagicha keltiradi “Alqissa, “Ey rabbim, nafslarimizga zulm qildik”ni ixlos tiliga keltirib, “Sening oldinga tavba qildim va men musulmonlarning birinchisiman” degan gapni dil lavhasiga naqsh qildik. Ko‘ngil xazinasida maxfiy qolgan ichkilikdan qaytish tavbasi istagini yuzaga chiqardik”. [Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T.: “Fan”, 2018].

Shu o‘rinda uning diniy bag‘rikenglik fazilatlarini hindistonliklar ham e’tirof etishgan. Jumladan, hindistonlik tarixchi S.R.Sharma shunday yozadi: “Boburning hind ibodatxonalarini buzgani yoki hindlarni ularning diniy e’tiqodiga ko‘ra ta’qib qilinganining hech qanday ma’lumotlari ko‘rinmaydi” [Qudratullayev H. Bobur armoni. T., “Sharq”. 2005. 380-bet.]

Bobur o‘z hayot yo‘lini o‘zining asarlarida ask ettirgan adibdir. Birgina “Boburnoma” asari “turkiy nasrning eng yaxshi asari” deya e’tirof etilgan. Tarix, geografiya kabi bir qator fanlarning rivojiga hissa qo‘shgan ushbu asar bugungi kunga qadar 31 tilga tarjima qilinganligi uning qiymatini yanada oshiradi. Bundan tashqari Boburning ijodiy merosiga islom dini asoslarini bayon qiluvchi “Mubayyin’” nomli she’riy risolasi, uning o‘zi tomonidan ixtiro qilingan “Xatti Boburiy” alfavit jadvali va bir qator g‘azal, tuyuq, ruboiylari kiradi. Shu o‘rinda ta’kidlash joiz-ki, uning aruz vazni va qofiyalariga bag‘ishlangan “Mufassal” nomli asari bizgacha yetib kelmagan.

Boburning asarlarida hayotga muhabbat, yurt ishqida yongan musofirning dard-alamlari qorishiq holda uchraydi. Uning qalb sadosi yanglig‘ yozilgan g‘azallarida insonparvarlik, adolat, qazoyi-qadarga rozilik ifodalangan. Shoirning “Har kimki vafo qilsa…” deya boshlanuvchi ruboiysi ham shunday ichki kechinmalar asosida yozilgan bo‘lib, insonlarni yaxshilikka da’vat qilishlikdir.

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,

Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.

Yaxshi kishi ko‘rmag‘ay yomonlig‘ hargiz,

Har kimki yomon bo‘lsa, jazo topqusidur.

Shohlik darajasining cho‘qqisiga chiqqan Mirzo Bobur shoirlik darajasini ham cho‘qqiga olib chiqa oldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shoirning lirikasidagi joziba, undagi o‘ynoqi satrlarda yorga nisbatan vafo, yurt hajrida to‘lg‘onishlar, sarson-sargardonlikda o‘tgan umr kechinmalari aks etganligi bilan ahamiyatlidir. Uning ushbu ruboiysi ham garchi shoh bo‘lsa-da o‘z yurtidan yiroqdagi ichki kechinmalarning ifodasidir.

Yod etmas emish kishini mehnatda kishi,

Shod etmas emish ko‘ngulni g‘urbatda kishi.

Ko‘nglum bu g‘ariblikta shod o‘lmadi hech,

G‘urbatga sevunmas emish, albatta, kishi.

Mirzo Boburning mardona hayot yo‘li, dardchil va jozibali she’riyati matonat va jasorat, dard va qayg‘uga qurilgan bo‘lsa-da, qalblarni yorug‘likka yetaklovchi, Vatanga muhabbat hissini uyg‘otuvchi ruhiyati bilan qadrlidir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerak-ki, insoniylik xislatlarini o‘zida jo etgan mohir sarkarda, davlat arbobi va iste’dodli adib sifatida tarix zarvaraqlaridan munosib o‘rin egallagan bobokalonimizning ibratli hayot yo‘lini o‘rganish bugungi o‘sib kelayotgan yosh avlodni turli buzg‘unchi mafkuralardan asraydi. Yoshlar ongini rivojlantirishda va dunyoqarashi shakllanishida Mirzo Boburning hayot yo‘lini, uning asarlarini o‘qish va o‘rganish katta ahmiyatga ega ekanini unutmaslik lozim.

O‘zining hayotidagi bor voqeliklarni “Boburnoma” asariga joylaganligidan kelib chiqadigan bo‘lsak, ushbu asar asosida zamonaviy talqinda hujjatli yoki badiiy filmlar olishni yo‘lga qo‘yish va ularni namoyish etish orqali yoshlar ongiga singdirish o‘ta ahamiyatga molik masaladir. Shu ma’noda yurtimizda bobur shunoslik yo‘nalishida ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali uslub va metodologiyasini ishlab chiqish va ularni yosh avlodga yetkazishni tizimli amalga oshirish bugungi davr talabi ekanligini qayd etish lozim.

Binobarin, Mirzo Boburning hayot yo‘li va ijodi faqat adabiyotga yoki she’riyatga taalluqli emas. Bu butun millatga, ta’bir joiz bo‘lsa, uning ruhiyatiga tegishli. Bu ruhiyatning ulug‘ligi uni anglashimiz, o‘rganishimiz va ibrat olishimizga bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 8-9.

2. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O‘. Vatan tarixi (2-kitob) T.: “Sharq”, 2010.

3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T.: “Fan”, 2018.

4. Gulbadanbegim. Humoyunnoma. T.: “O‘zbekiston”, 2016.

5. Qudratullayev H. Bobur armoni. T., “Sharq”. 2005. 380-bet.

BOBUR HAYOTI VA FAOLIYATI ADABIYOTSHUNOS VA TARIXCHILAR NIGOHIDA, BOBURSHUNOSLIK

Sattarova Dildora Sunnatullo qizi

Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Temuriy shahzodalardan biri bo’lgan Zahiriddin Muhammad Boburning jozibador shaxsi , turli sinovlarga boy va jo’shqin hayoti va faoliyati , turli xil fazilatlari , yaratgan ko’plab badiiy , ilmiy-tarixiy asarlari haqida so’z yuritilib uning hayoti va ijodiga qaratilgan ko’plab olim va bobur shunoslarning o’z qarashlari , tadqiqotlari va ta’riflari keltirilgan . Z . M . Bobur shaxsiyati va ijodiy faoliyatini ochib berishda bir qator olim , bobur shunos va adabiyotshunoslarning tahlillaridan foydalanilgan .

Annotation: This article focuses on the life and work of Zahiriddin Muhammad Babur, one of the Timurid princes, his charming life and activity, his various qualities, his many artistic, scientific and historical works. The views, researches, and descriptions of the plab scholars and bobur shunas are given. Z. M. Analyzes of a number of scholars, Babur scholars and literary critics were used to reveal Babur’s personality and creative activity.

Аннотация: Эта статья посвящена жизни и творчеству Захириддина Мухаммада Бабура, одного из тимуридских князей, его очаровательной жизни и деятельности, его различным качествам, его многочисленным художественным, научным и историческим трудам.

Kalit so’zlar : *Zahiriddin Muhammad Bobur , shoh , shoir , “Boburnoma” , Javoharla’l Neru, Hasanxo‘ja Nisoriy, Monstyuart Elfinston, turk, fransuz bobur shunoslari, ,, Tarixi Rashidiy” .*

Key words: *Zahiriddin Muhammad Babur, king, poet, “Boburnoma”, Jawaharlal Nehru, Hasankhoja Nisari, Monstuart Elfinston, Turkish, French Babur scholars, “History of Rashidi”.*

Ключевые слова: *Захириддин Мухаммад Бабур, король, поэт, «Бобурнома», Джавахарлал Неру, Хасанходжа Нисари, Монстюарт Эльфинстон, турецкие, французские ученые Бабура, «История Рашиди».*

Har bir xalqning millatini , madaniyatini , adabiyotini ulug’lovchi buyuk shohlari , shoirlari bo’ladi . Zahiriddin Muhammad Bobur xalqimizning ana shunday farzandidir .

Zahiriddin Muhammad Bobur o’rta asr sharq madaniyati , adabiyoti va she’riyatida yuksak o’rin egallagan shoir , olim va adibdir . Shu bilan birgalikda yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir . Zahiriddin Muhammad Bobur turkiy adabiyotning eng yirik vakillaridan biri bo’lib , o’zining kuchli siyosati va sermahsul ijodiy faoliyati bilan o’zbek va jahon tarixida o’chmas nom qoldirgan .

O’rta asr sharq madaniyati va adabiyotining buyuk namoyandasi Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 – yil 14 – fevralda Andijonda tug’ilgan .

Zahiriddin Muhammad Bobur jahon adabiyotshunoslik va tarixnavislik ilmida juda ham ko’p va puxta o’rganilgan . Jumladan , Javoharla’l Neru Zahiriddin Muhammad Bobur haqida shunday deb aytgan edi : ,, Zahiriddin Muhammad Bobur dilbar shaxs . Uyg’onish davrining tipik hukumdori , mard va tadbirkor odam bo’lgan , u san’atni , adabiyotni sevardi , hayotda huzur qilishni yaxshi ko’rardi “.

Zahiriddin Muhammad Boburning ijodiy faoliyatiga Monstyuart Elfinston quydagicha fikr bildirgan : “ Uning uslubi oddiy va mardona , jonli va obrazli . U o’z zamondoshlarining qiyofalari , urf – odatlari va intilishlarini , qiliqlarini oynadek ravshan tasvirlaydi …”

Uning shohlik faoliyatiga esa Hasanxo’ja Nisoriy “Muzakiri ahbob “ nomli tazkirasida “Bobur chig’atoy sultonlarining eng sarasi va zo’r shijoatlisi edi. Shamshir zarbi bilan Movarounnahr mamlakatlariga ega bo’lib , uni saqlab qolishda ko’p sa’y – harakatlar va jonini ayamasdan jangu jadallar ko’rsatdi . Mardona to’qnashuvlar qildi . Ammo taqdir o’qiga tadbir qalqoni dosh bera olmadi …” desa , “Boburnoma” ni fransuz tiliga tarjima qilgan Pave de Kurteyl quydagicha haqqoniy baho beradi : “Har qanday sinovga bardosh bera oluvchi , iroda va matonatni mujassamlashtirgan bu zot o’zida harbiy hiyla va jasoratni uyg’unlashtira olar , zarur bo’lganda jazolashga ham , afv etishga ham qodir edi , u istedodli harbiy arbob va ishning ko’zini biladigan , qo’shinlarni mohirlik bilan boshqara oladigan, ularni ishonchini qozona olgan sarkarda edi “ .

Bobur haqida ko’plab asarlar yaratilgan . Masalan , hind tarixchisi L . P . Sharmaning 1988 – yil Dehlida chop etilgan “Boburiylar saltanati” asari , ingliz tarixchisi U . Ershinning ,,Bobur Hindistonda” asari , amerikalik olim S. M . Berkning “Akbarshoh – boburiylarning eng buyugi” (“Buyuk mo’g’ul imperiyasi” nomi bilan kirgan sultonning mustahkam tomir yozish jarayonini tasvirlaydi) asarlarida Boburga zamondosh tarixchilarning qo’lyozmalari , Hindiston tarixiga oid tadqiqotlar , jahonga mashhur olim va tarjimonlarning asarlarida Boburning hayot yo’li , bolalik , o’pirinlik , yigitlik yillari , tashvishli kunlari , hukumdorlik faoliyati , davlatni boshqarishi , diniy – falsafiy qarashlari , madaniyat va san’atga munosabati singari masalalar tasvirlangan . Bundan tashqari F . Ko’prulu Turkiyada bobur shunoslik ilmiga asos soladi .Bu esa bobur shunoslik tarixida ingliz sharqshunosi D . Bossning shoir she’riyati borasida amalga oshirgan ilk izlanishlaridan keyingi o’ziga xos tadqiqot hisoblanadi . F . Ko’prulu Istanbulda topilgan ,, Bobur kulliyotida “ ,,Risolai volidiya “ asari , shuningdek , o’zbek , fors tilida yozilgan sherlar to’plami , o’zbek tilida nasr va nazmda bitilgan bir maktub , fors tilida yozilgan maktubdan parcha hamda ,,Aruz risolasi” borligini qayd etadi . Ko’prulu Bobur ijodini Husayin Boyqaro ijodi bilan qiyoslash orqali ustunlik jihatini ham ko’rsatib o’tadi . Bu haqda olmoniyalik olima A . Shimmel ,,Bobushoh va oilaviy iste’dod haqida “ nomli tadqiqotida to’xtaladi . Shuningdek , F . Ko’prulu Bobur she’riyati , ,,Boburnoma” , ,,Aruz risolasi” , ,,Mubayyin” kabi asarlarning ustida ham chuqur ilmiy izlanishlar olib borgan . Ushbu tadqiqotlar keyinchalik yurtdoshlari Yu . Bilol , A . Bilkan , T . Seyhan , A . Alparslon kabi turkiyalik olimlar tomonidan davom ettirildi .

F . Ko’pruluning izdoshi bo’lgan yana bir turkiyalik olim Rizo Nur tomonidan 1925 – yilda Anqarada chop etilgan “Turk yurti” jurnalida “Bobur “nomli tadqiqot e’lon qilingan . Unda Boburning hayoti va ijodiy asarlari , xususan , ,,Boburnoma” ga oid ma’lumotlar kitobxonlar e’tiboriga havola qilindi . Bundan tashqari , turk , qozoq , turkman , ozarboyjon , uyg’ur kabi qardosh xalqlar vakillari tomonidan Boburning “Boburnoma “ , “Bobur devoni” ni turkchaga tarjima qilishgan bo’lsa , ozarbayjonlik professor Ramiz Asker “Boburnoma” va “Bobur devoni” ni ozarbayjon tiliga , turkmanistonlik olim Rahimmamat Ko’rinov “Bobur devoni” ni va “Risolai volidiya” ni turkman tiliga tarjima qildi .

Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi Fransiyada ham keng o’rganilgan . Fransiya ilm ahliga Zahiriddin Muhammad Bobur va “Boburnoma” haqida eng avval ma’lumot bergan fransuz sharqshunosi Bartoleme D’Erbelodir .

D’Erbelo o’zining “Sharq kutubxonasi” qomusidagi “Bobur yoki Bobar” nomli maqolasida Boburning hayoti , uning davlati va sarkardalik mahorati , adabiyot va

san’atga qiziquvchi ilg’or fikrli kishi bo’lgani haqida ma’lumot beradi . 1930 – yilda fransuz olimi Fernard Grenardning ,, Bobur. Hind imperiyasining asoschisi” nomli risolasi nashr etilgan . Kitob 10 bobdan iborat bo’lib , unda Boburning bolalik vaqtlaridan to umrining so’nggi davriga qadar boshidan o’tkazgan voqea - hodisalar badiiy , tarixiy asnoda hikoya qilingan .

“Boburnoma” ning A . J . Klaport , A . Longper’e , M . Langle , A . Pave de Kurteyl , F . Grenard , Barye – Grammon kabi tadqiqotchi va tarjimonlari Bobur merosining tarixiy etnografik , lingvistik hamda bibliografik jihatidan tavsif qilish bilan Yevropada bobur shunoslikning rivojiga munosib hissa qo’shganlar . Bundan tashqari , Boburning ilmiy , adabiy va tarixiy merosini o’rganish va ommalashtirishda O’zbekiston , Rossiya va Tojikiston olimlarining faoliyatlari diqqatga sazovor . XIX – XX asrlar davomida M . Salye , N . Ilminskiy , O . Senkovskiy , Georg Ker , Sodiq Mirzayev , Porso Shamsiyev , V . Zohidov , S . Azimjonova , Y . G’ulomov kabi olimlarning sa’y – harakatlari bilan ,,Boburnoma” bir necha bor rus va o’zbek tillarida chop etildi , ularga so’zboshi yozildi va keng kitobxonlar ommasining ma’naviy mulkiga aylantirildi .Boburning she’rlari ham bir necha bor nashr etildi.

1960 – yillarda Sabohat Azimjonova va Aziz Qayumov Bobur asarlarining uch jildliguni e’lon qilgan . Saidbek Hasanov Boburning ,,Mufassal” nomli aruz tadqiqotini ,,Muxtasar” nomi ostida nashrga tayyorlab chop ettirgan . Porso Shamsiyev va Sodiq Mirzayev ,,Boburnoma” ning ilmiy – tanqidiy matnga yaqinlashtirilgan mukammal nusxasini nashr etgan . (Iya Steblevaning ,,Bobur g’azallari semantikasi” tadqiqoti yaratilgan). Sabohat Azimjonovaning ,,Boburning Kobul va Hindistondagi davlati “, Salohiddin Jamolovning ,,Boburnoma” ning badiiy xususiyatlari”, G’aybulla Salomov va Ne’matulloh Otajonning ,,Boburnoma jahon kezadi” kitoblarining olam yuzini ko’rgani bobur shunoslikka o’zbek bobur shunoslarining ilmiy hissalaridir .

Shu o’rinda shuni ham ta’kidlab o’tish kerakki , Bobur va boburiylar haqida ko’plab kitoblar , yuzlab maqolalar, o’nlab risola va manografiyalar yaratilgan . Bunga misol tarzida Rahim Vohidovning ,,Biz bilgan va bilmagan Bobur”, Ansoriddin Ibrohimovning ,,Boburnoma - buyuk asar” , ,,Boburnoma” dagi hindcha so’zlar” , Hasanjon Qudratillayevning ,,Bobur armoni” , Sayfiddin Jalilovning ,,Bobur va Yuliy Sezar” , ,,Bobur haqida o’ylar” ,Qamar Raisning ,,Bobur shaxsi va she’riyati” , Pirimqul Qodirovning ,,Bobur” , ,,Avlodlar dovoni” romanlari , Xayriddin Sultonovning ,,Boburning tushlari” , ,,Boburiynoma” kabi asarlarni keltirishimiz mumkin .

Boburning hayoti va ijodiga bog’liq izlanishlar hali nihoyasiga yetgani yo’q . Jahon va o’zbek olimlari uning hayoti va ijodi ustida muntazam ravishda shug’ullanmoqdalar .

Boburning shaxsiyatiga to’xtaladigan bo’lsak uning shaxsiyatida ko’plab fazilatlarni ko’rishimiz mumkin .

Bobur – adolatli podshoh , yuksak himmatli , mard , jasur sarkarda ,davlat boshqaruvida benazir , vatanparvar inson , tinchliksevar , oqko’ngil shaxs .

“Bobur turli go’zal fazilatlar , maqtovlarga loyiq sifatlarga ega podshoh edi . Barcha sifatlari ichida shijoat va muruvadpeshaligi ustun kelardi“ , – deb Haydar Mirzo o‘zining ,, Tarixi Rashidiy “ asarida bejizga aytmagan edi .

Bobur haqida olimlar , bobur shunoslarning fikrlari biz uchun muhim . Ularni bazilarini keltirishimiz joizdir .

Boburiylar davlatidagi madaniy muhitning Hindiston uchun ahamiyati haqida Javoharla’l Neru shunday yozgan edi : “Bobur Hindistonga kelganidan keyin katta siljishlar yuz berdi va yangi rag’batlantirishlar hayotga , san’atga , arxitekturaga toza havo baxsh etdi , madaniyatning boshqa sohalari esa bir – birlariga tutashib ketdi” .

Ingliz tarixchisi Eduard Holden Boburni mashhur Yuliy Sezar bilan qiyoslashni lozim topib : “Bobur fe’l – atvoriga ko’ra Sezarga qaraganda sevishga arzigulikdir . Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo’yilgan” deb aytsa , Zahiriddin Muhammad Boburning bolalik va o’smirlik yillari haqida roman yozgan ,,Boburnoma” ning ingliz tarjimoni Uilyam Erskin Boburni Osiyo podshohlariga qiyosan shunday baholaydi : “Saxovati va mardligi , iste’dodi , ilm – fan , san’atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug’ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi” . Yuqoridagi ta’riflar Zahiriddin Muhammad Boburning qanchalar benazir inson bo’lganligini shubhasiz dalillab beradi . U serqirra shaxs bo’lgan . Zero , Bobur – buyuk podshoh , mumtoz shoir , nazariyotchi adabiyotshunos , faqih , tilshunos , san’atshunos , etnograf , hayvonot va nabotat , olamning bilimdonidir .

Xulosa qiladigan bo’lsak, Zahiriddin Muhammad Bobur adabiy merosini ham hayotiy faoliyatini ham ibratli jihatlari juda ham ko’p . Bobur merosi biz yoshlarda vatanparvalikni , ona yurt uchun fidoiylikni , millatparvarlikni , insonparvarlikni , mardlikni va jasurlikni o’rgatishga da’vat etadi . Shu bois ham biz uning ijodini o’rganishimiz , havas qilishimiz zarur . Biz yoshlar uchun Bobur shaxsi o’sib

kelayotgan yosh avlodni ajdodlarga munosib bo’lishga undab turadi . Bu esa faqatgina Bobur shaxsiyati va ijodini puxta o’rganish orqali yuzaga chiqadi .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boqijon To’xliyev , Bahodir Karimov , Komila Usmonova (Umumiy o’rtata’lim maktablarining 10 – sinf uchun darslik) I qism – Toshkent , “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti “ - 2017 y.

2. Rahim Vohidov , Husniddin Eshonqulov o’zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XVI asr oxirigacha) – O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti – Toshkent – 2006 .

3. Vahob Rahmonov . Bobur shoir va adib – “Marifat” gazetasi 2008

4. Vohidov R . Biz bilgan va bilmagan Bobur . – T. :Shaq 2007.

5. Shuhrat Hayitov .Turkiy xalqlar adabiyotida Bobur ijodi” ilmiy maqola – “Jahon adabiyoti” jurnali 2018-yil , 2-son .

6. www . uchildiz . uz .

7. ww . ziyouz . uz .

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA UNING BADIIY MEROSINING O’RTA ASR MADANIYATIDAGI O’RNI

Usanboyev Javlonbek Farxod ugli

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizning buyuk allamalaridan biri Zahiriddin Muhammmad Bobur hayoti, bunga tarixiy qarashlar hamda badiiy va adabiy merosi haqida ma’lumotlar berilgan. Xalqaro muzeylardagi saqlanib kelayotgan meroslar haqida misollar keltirilgan.

Kalit so’zlar: boburnoma, adabiyot, tarix, badiiy meros, Boburiylar sulolasi, madaniyat.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she’riyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan adib, shoir, olim bo‘lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo‘lsa, serjilo o‘zbek tilida yozilgan “Boburnoma” asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy oldi. Uning nafis g‘azal va ruboiylari turkiy she’riyatining eng nodir durdonalari bo‘lib, “Mubayyin” (“Bayon etilgan”), “Xatti Boburiy”, “Harb ishi”, Aruz haqidagi risolalasi esa islom qonunshunosligi, she’riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yilning 14 fevralida Andijonda, Farg‘ona ulusining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga keldi. Bu davrda Markaziy Osiyo va Xurosonda turli hokimlar, aka-ukalar, tog‘a-jiyanlar, amakivachchalar o‘rtasida hokimiyat ulug‘ bobolari Amir Temur tuzgan yirik davlatga egalik kilish uchun kurash nihoyat keskinlashgan edi.

Adabiyot, nafis san’at, tabiat go‘zalligiga yoshligidan mehr qo‘ygan Zahiriddin, barcha Temuriy shahzodalar kabi bu ilmlarning asosini otasi saroyida

yetuk ustozlar rahbarligida egalladi. Biroq uning betashvish yoshligi uzoqqa cho‘zilmadi. 1494 yili otadan yetim qoldi. 12 yoshida otasi o‘rniga Farg‘ona ulusining hokimi etib ko‘tarilgan Bobur qalamni qilichga almashtirib, Andijon taxti uchun ukasi Jahongir Mirzo, amakisi Sulton Ahmad Mirzo, tog‘asi Sulton Mahmudxon va boshqa raqiblarga qarshi kurashishga majbur bo‘ldi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan murosaga kelish uchun unga yon berishga Farg‘ona ulusini ikkiga taqsimlab, yarmini ukasiga topshirishga qaror qildi va o‘zi Samarqand uchun olib borilayotgan kurashga kirishib ketdi. Bir necha yil davom etgan bu kurash qirg‘inbarotdan boshqa biror natija bermadi: unda katta harbiy kuch bilan aralashgan Shayboniyxonning qo‘li baland keldi va Bobur Samarqandni tashlab ketishga majbur bo‘ldi. 1504 yili Shayboniyxon Andijonni ham qo‘lga kiritgandan so‘ng Bobur janubga qarab yo‘l oldi va Kobul ulusida o‘z hokimiyatini o‘rnatdi. 1505–1515 yillarda u Markaziy Osiyoga qaytishga bir necha bor urinib ko‘rdi. Ammo bu urinishlardan hech qanday natija chiqmadi. So‘ng o‘z mavqeini yanada mustahkamlash maqsadida, 1519–1525 yillar davomida Hindistonni qo‘lga kiritish uchun bir necha bor janglar olib bordi. 1526 yil aprel oyida Panipatda Hindiston Sultoni Ibrohim Lo‘di bilan va 1527 yili mart oyida Chitora hokimi Rano Sango bilan bo‘lgan janglarda Boburning qo‘li baland keldi. Tarixiy ma’lumotlarning bayon qilishicha, Boburning Hindistonga yurishida Dehli hukmdori Ibrohim Sulton siyosatidan norozi bo‘lgan Panjob hokimlari ham Boburni qo‘llaganlar va Sikri jangidagi bu g‘alaba Boburga Hindistonda o‘z hukmronligini uzil kesil o‘rnatish va Boburiylar sulolasini barpo etish imkoniyatini berdi. Ovro‘po tarixchiligida “Buyuk mo‘g‘ullar” nomi bilan “g‘alati mashhur” bo‘lgan, aslida “Boburiylar sulolasi” Hindistonda 300 yildan ortiq hukmronlik qildi.

Xalqimiz o‘zining buyuk tarixi va ajdodlari bilan hamisha g‘ururlanib keladi. Dunyoning qaysi burchiga bormang, ajdodlarimiz merosiga ro‘baro‘ kelasiz. Ayniqsa, 14-15 asrlarda Markaziy Osiyoda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy muhit, jahon tamaddunida alohida sahifa bo‘lib qoldi. Sohibqiron Amir Temur barpo etgan buyuk saltanatda ilm-ma’rifat, riyoziyot, astronomiya, adabiy muhit yanada ravnaq

topdi. Temuriy shahzodalarning ilm-ma’rifatga katta e’tibor qaragani tarixdan ma’lum. Astronomiya va falakiyotshunoslikda Mirzo Ulug‘bek o‘zidan katta meros qoldirgan bo‘lsa, Temuriyzoda Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbek mumtoz adabiyoti, jug‘rofiya, tarix voqeligini muhrlashda katta mavqega erishdi.

Bugungi kunda Bobur va Boburiylarga taalluqli ko‘plab moddiy boyliklar va asarlarining asl qo‘lyozmalari dunyoning turli burchaklariga tarqalib ketgan. Shuningdek, Hindistonda ham Boburga tegishli buyumlar va tarixiy manbalar juda ko‘p. Boburga tegishli noyob qilich esa Nyu-Yorkning Metropoliten muzeyidan joy olganiga nima deysiz?! Hindistonni zabt etgandan keyin Boburga in’om qilingan Ko‘hinur olmosi esa bugungi kunda Buyuk Britaniya qirollik oilasining mulkiga aylangan. Buyuk sarkarda va davlat arbobi, Boburning tarixiy ashyolari dunyo muzeylarini va kimlarningdir shaxsiy kolleksiyalarini to‘ldirib kelmoqda. Ularni qaytarish esa oson ish emas, albatta. Yurtimizda Bobur hayoti va ijodini o‘rganish va uning merosini qayta tiklash bo‘yicha qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Xalqaro “Bobur” jamoat fondining izlanishlari tahsinga loyiq. Fond mamlakatimiz mustaqillikka erishgan kunlardan boshlab ulug‘ ajdodimiz merosini tiklashga kirishdi. Aytish mumkinki, fond vakillari Temuriylar va Boburiylar o‘tgan yo‘llardan yurib katta ilmiy-madaniy boyliklarimiz bo‘yicha aniq ma’lumotlarni to‘pladi. Afg‘oniston, Eron, Hindiston, Iroq, Rossiya, Xitoy mamlakatlari hududlarida mangu qo‘nim topgan ayrim buyuk ajdodlarimizning maqbaralari qayta tiklanib obod go‘shaga aylantirildi. Ekspeditsiya a’zolari yillar mobaynida amalga oshirilgan izlanishlari natijasida Andijonda “Bobur va jahon madaniyati” muzeyi barpo etildi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev o‘zining saylovoldi dasturida xorijiy mamlakatlarda saqlanayotgan o‘zbek davlatchiligiga oid dalillar va mumtoz adabiyotimiz namunalarining asl nusxalarini qaytarish asosiy ishlarimizdan biri ekanini ta’kidlagan edi. Davlat rahbarining o‘zbek xalqining tarixiy va madaniy boyliklari namunalarini Vatanga qaytarish to‘g‘risidagi topshirig‘ini bajarish doirasida O‘zbekiston Tashqi ishlar vazirligi rahbariyati boshchiligidagi delegatsiya Hindistonga tashrifi davomida Dehli shahrida Hindiston Milliy muzeyiga tashrif buyurdi. Mazkur muzey mamlakatning asosiy tarixiy-badiiy xazinasi hisoblanib, u qadimgi yodgorliklarning boy kolleksiyasi, o‘tmishdagi sivilizatsiyalarning arxeologiya boyliklari hamda madaniyat va etnik xilma-xil eksponatlarni o‘zida

jamlagan. Hindiston milliy kutubxonasida saqlanyotgan notugal, lekin shoir ijodiy merosini aniqlashda muhim bo‘lgan bu qo‘lyozma chiroyli ta’liq xati bilan ko‘chirilgan. Sahifalarida yuqori darajada bezaklar berilgan. 22 betdan iborat. Unda “Risolai Volidiya”, 2 ta masnaviy, 24 ta ruboiy, 2 ta g‘azal, 3 ta qit’a va “Aruz” risolasidan parcha o‘rin olgan. 20a varaq hoshiyasida podshohning evarasi Shohjahon tomonidan tasdiqlangan Boburning asl dastxati mavjud. Shunga ko‘ra manba shoir vafotiga qadar o‘zi tomonidan tuzdirilgan deb hisoblanadi.

Bundan tashqari Al-abd Mumahammad Boqiy tomonidan nasta’liq xatida ko‘chirilgan “Devoni turkiy Bobur podshoh” Parij Milliy kutubxonasida, kotibi va ko‘chirilgan sanasi noma’lum “Devoni Bobur chig‘atoyi” Istanbul universiteti kutubxonasida, “Devoni Sultonul-a’zam Bobur Mirzo” Istanbuldagi To‘pqori saroyidagi Ravon kutubxonasida, “Devoni Mirzo Bobur” Istanbul shahar kutubxonasida, “Devoni Bobur podshoh”ning ikkita nusxasi Hindistonning Haydarobod shahrida joylashgan Salorjang muzeyida 4,18 raqamlari bilan joylashtirilgan. Mazkur muzeydagi birinchi devonning ko‘chirilgan sanasi va kotibi noma’lum 18-raqam bilan ro‘yxatga olingan devon esa 1774-yilda Ali Kotibiy tomonidan ko‘chirilgan. Shuningdek, 1776-yilda Boburiylardan Ajit Sing Jayd Bahodur buyrug‘i bilan Hayotali tomonidan ko‘paytirilgan “Devoni Bobur podshoh” Londondagi Britaniya muzey kutubxonasida, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi fondida “Bobur devoni”ning Toshkent nusxasi saqlanyapti.

Xulosa o‘rnida aytish kerakki, Bobur va uning ajdodlari bilan bog‘liq hali ochilmay qolayotgan masalalar, ularga tegishli tarixiy dalillar oz emas. Boburiylarning moddiy merosi sanalgan “Bobur devonining” esa qaytarilgani xalqimiz uchun ajoyib sovg‘a bo‘ldi. Boburning avlodlariga qoldirgan boy va bebaho merosi Markaziy Osiyo, hind, afg‘on xalqlari o‘rtasidagi uzviy halqa bo‘lib keldi va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J. Xo’jaqulov “Bobur merosi – xalqlar o‘rtasidagi uzviy halqa” https://saviya.uz/hayot/nigoh/bobur-merosi-xalqlar-ortasidagi-uzviy-halqa/
2. Olimjonovna, A. D. (2021). ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI, IJODI VA ADABIY MEROSI. Eurasian Journal of Academic Research, 1(9), 945-947.
3. Qo’shaqova, F. O. (2022). “BOBURNOMA” DA ISHLATILGAN MAQOLLAR TALQINI. Инновационные исследования в науке, 1(1), 1-3.
4. Dilova, N. G. (2021). Sharq allomalarining ilmiy merosi uchinchi renesans uchun katta imkoniyat. Science and Education, 2(10), 506-514.
5. Jo'rayeva, M. M. (2020). " BOBURNOMA" ASARIDA GEOGRAFIK MA’LUMOTLAR TALQINI. Интернаука, (9), 62-63.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR G‘AZALLARIDA METAFORA

Soyibjonova Mo‘tabaroy

ADU filologiya fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya

Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning badiiy mahoratini ko’rsatuvchi muhim vositalaridan biri bo‘lgan metaforaning shoir g‘azallaridagi o’rnini ta‘riflashga bag‘ishlangan.

Kalit so’zlar: metafora, istiora, tashbeh, tashxis, mahorat, g‘azal

Аннотация

Статья посвящена описанию места метафоры в стихотворениях поэта, которая является одним из важнейших средств проявления художественного мастерства Захириддина Мухаммада Бабура.

Ключевые слова: метафора, аллегория, аллегория, диагноз, мастерство, газель.

Annotation

The article is devoted to describing the place of metaphor in the poet's poems, which is one of the most important means of showing the artistic skills of Zahiriddin Muhammad Babur.

Keywords: metaphor, allegory, allegory, diagnosis, skill, ghazal

Metafora (grekcha metaphora-ko‘chirish)- biror predmet belgisining, harakatning o’xshash tomonini boshqasiga ko’chirish[1;83]. Ma‘noning o’xshashlik prinsipiga asosan ma‘no ko’chishi metaforaning asosini tashkil etadi. Metafora o’xshashlikning bu jihatidan ichki va tashqi turlarga bo’linadi. Daraxtning ko‘zi, choynakning burni, suvning yuzi, ariqning labi singari so‘z birikmalarida inson tana a’zolari tashqi ko’rinishiga nisbatan metafora usulida nom ko‘chirilgan bo‘lib, bunda tabiiy predmet(keng ma’noda)ning ma’lum qismi boshqa bir predmet(keng ma‘noda)ga tashqi pozitsiyasi o’xshashligi bilan ko‘chiriladi. Bu obrazli anglashni taqozo qiladi. Metafora badiiy adabiyotdagi obrazlilikni ta’minlaydi.

Metafora asli tilshunoslik atamasi bo‘lib, uning ichki turlari adabiyotshunoslikda alohida-alohida atamalar bilan yoritilgan. O’xshashlik predmet(keng ma’noda)ning harakati, jismoniy faoliyati asosida ko‘chirilsa, bu ichki o‘xshashlik hisoblanib, adabiyotshunoslikda tashxis she‘riy san’atini vujudga keltiradi. Quyida hassos ijodkor Zahiriddin Muhammadning g‘azallarida uchragan tashxis na‘munalari bilan tanishamiz.

Ey gul, meni zor etmaki, husnung chamanida

Ko‘zni yumub ochquncha bu gulzor topilmas[2].

Bu baytda gul ham yorni, ham predmetni ifodalaydi. Predmetni ifodalash jihatidan gulni shaxslantirgan, ya‘ni lirik qahramon o’simlik(gul)ning husni chamanida zor etilgan. Bobur ijodidagi gulning tashxislantirilishi borasida adabiyotshunos Ibrohim Haqqulovning fikrlariga to‘liq qo’shilaman: “Boburda o’ziga xos bir gulparastlik zavqi bor. Shoir ba’zan gulni shunday tashxislantiradiki, xayolingizdagi gulday nozik, gulday sehrli bir sanam jonlanib ketishini sezmay qolasiz. Bobur she‘rda gulning muattar bo‘yi, rangin bo‘yoqlari, va betakror jozibasini mujassamlashtirgan shoir[3; 32].

G‘urbatda ul oy hajri meni pir qilibtur

Hijron bila g‘urbat manga ta‘sir qilibtur[2].

Bu baytda esa Bobur bir oyning hajrida lirik qahramonni ishq dardida yonib-yonib, hijron va g‘urbat ta’siri ichra pir darajasiga yetganligini yoritgan, oyni shaxslantirib, “hajr” qilganlikda ayblaydi. Aytish kerakki, ushbu satrlarda ijodkor tashxis san‘ati imkoniyatlaridan unumli foydalangan.

Bundan tashqari, o‘zbek tilshunosligida metafora shakl tomonlama ikki turlidir: vositali va vositasiz. Adabiyotshunoslikning nazm turida vositasiz metafora istiora atamasi bilan qo’llanilsa, metaforaning vositali turi tashbeh atamasi orqali izohlanadi. Adolatli shoh, ziyrak shoir, muhtasham asarlar ijodkori Boburning g‘azallarida metaforaning har qaysi usuli, har qanday shaklini topish mumkin.

Xating[1] aro uzoring[2]- sabza ichinda lola,

Ul chashmi purxumoring[3] loladagi g‘azola [4] .

[1]Xat- lab uzra mayin tuklar.

[2]Uzor- yuz, chehra.

[3]Purxumor- xumori, mast; ko‘zi suzilgan.

[4] Kiyik turi[4;161]

Yuqoridagi baytda soddatil shoirning istiora she‘riy san’atidan foydalanganini ko’ramiz. Istiora(arab.-qarzga olish), metafora- badiiy tasvir vositasi, ko‘chim. Istiora ikkinchi narsa o’rtasidagi o‘xshashlikka asoslanadi. U o‘xshatilgan va o‘xshagan unsurlardangina tashkil topadi[5]. Bu qo‘shmisrada lola ichida joylashgan o‘simta(urug‘chi)ning yuqori qismi ohuning bosh kallasiga o‘xshashligi keltirilgan. Ijodkor asli shoh va sarkarda bo‘lgani haqida ma‘lumotlar yetarli va bular bilan bir qatorda Boburning tabiat va nabototga bee‘tibor bo‘lmagani, uning ziyrakligi butun bir ma‘noni shu ikki misra she‘r-u, bir she‘riy san’atga jo etilganidan anglash mumkin.

Vositali metafora, ya’ni tashbeh san‘ati Zahiriddin Muhammad g‘azallarida salmoqli o’rin egallagani hech kimga sir emas. Tashbehda so’zlarda ifodalangan ikki yoki undan ortiq narsa va hodisa, xususiyatlar o‘rtasida mavjud bo’lgan o‘xshashlik sifat va belgidagi umumiylik qiyoslanadi. Tasvirlanayotgan narsa-hodisaning ayrim xususiyati yorqin chuqurroq va ta‘sirliroq ochib beriladi. Tashbeh mushabbah (o‘xshatilgan narsa), mushabbahbihi (o‘xshagan narsa), vajhi shaboh (o‘xshatish sababi) va holati tashbeh (o‘xshatish vositasi)dan iborat[6].

Xazon yaprog‘i yanglig‘ gul yuzung hajrida sarg‘ordim,

Ko‘rub rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrayi zardim.

Mushabbah- xazon yaprog‘i, mushabbahbihi- gul yuz, vajhi shaboh- sarg‘aymoq, holati tashbeh- yanglig‘.

Latofat gulshanida gul kabi sen sabz-u xurram qol,

Men archi dahr bog‘idin xazon yaprog‘i kabi bordim.

Mushabbah- gul, xazon yaprog‘i; mushabbahbihi- sen, men; vajhi shaboh- xurram qolmoq, dahr bog’idan bormoq; holati tashbeh- kabi, kabi.

Xulosa

Umuman olganda, Bobur o‘z g‘azallarida metafora badiiy vositasidan juda unumli va keng qamrov asosida foydalangan. Shoirning bizgacha yetib kelgan devonining qariyb 50% ini g‘azal janri tashkil etsa, ularning deyarli hammasida metaforaning barcha turlariga asoslangan she‘riy san’atlarni uchratishimiz mumkin. Biz shunchaki, shoirning soddatil asosiga qurilgan nozik ma‘nolariga qoyil qoldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbek tilidan ma’ruzalar to’plami / N. Erkaboyeva.-T.: “YOSH KUCH”, 2019. 496 bet
2. Bobur. Har kimki vafo qilsa.-Toshkent.: “Yangi asr avlodi”, 2019. 160 bet
3. Bekmirzayeva Xosiyat. Gul va bulbul // Yoshlik. 2014. 2-son
4. Adabiyot [Matn] 11-sinf : darslik-majmua / B. To‘xtaliyev [va boshq.], - Toshkent: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.- 200b
5. https//: uz.m.wikipedia.org
6. Adabiyot [Matn]: darslik-majmua / B. To‘xtaliyev [va boshq.], - Toshkent: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.- 184 bet

"BOBURNOMA" IS A WORK OF LITERARY AND HISTORICAL HERITAGE

Khoshimova Mukhtaramkhon
Student of Pedagogical institute of Andijan State University

Annotation: This article provides information about the life and work of Zahiriddin Muhammad Babur. It also discusses the scientific heritage of Zahiriddin Muhammad Babur and the study of Babur's works. Importantly, this article gives more information about Z.M.Babur's great work " Boburnoma".

Key words: Zahiriddin Muhammad Babur, Baburis, Movorounnahr, India, Agra, sarkarda, valiahd, historical facts were described, artistic interpretation, writer's style, artistic skill.

Izoh: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi haqida ma’lumotlar berilgan. Unda Zahiriddin Muhammad Bobur ilmiy merosi, Bobur ijodini o‘rganish masalalari ham muhokama qilinadi. Muhimi, ushbu maqolada Z.M.Boburning “Boburnoma” asari haqida kengroq ma’lumotlar berilgan.

Tayanch iboralar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburiylar, Movorounnahr, Hindiston, Agra, sarkarda, valiahd, tarixiy faktlar tasvirlangan, badiiy talqin, adib uslubi, badiiy mahorat.

Примечание: В этой статье представлена информация о жизни и творчестве Захириддина Мухаммада Бабура. Также будет обсуждаться научное наследие Захириддина Мухаммада Бабура и изучение творчества Бабура. Важно отметить, что в этой статье представлена дополнительная информация о произведении З. М. Бобура «Бобурнома».

Ключевые слова: Захириддин Мухаммад Бабур, бабурисы, Моворуннахр, Индия, Агра, полководец, халиф, описание исторических фактов,

художественная интерпретация, литературный стиль, художественное мастерство.

The study of the life, activity and legacy of Zahiriddin Muhammad Babur began in the early 16th century. In other words, this commemorative work was started by Bobur himself in "Boburnoma". This is followed by information about Babur in tazkira and historical works written in Movarounnahr, Afghanistan and India. In this regard, the works of Babur's daughter Gulbadanbegim "Humoyunnoma", Muhammad Haydar "History of Rashidi" are especially noteworthy. Because these authors were in direct contact with Babur, they provided valuable information about his activities, personality and qualities. Babur was one of the most wise and charming people. He was completely free from religious bigotry, backwardness and short-sightedness. Babur was one of the supporters of art and literature. Zahiriddin Muhammad Babur did beautification work in Afghanistan and India so developed,as a result, many cozy gardens have sprung up in and around Kabul, and beautiful towers and buildings have sprung up in Agra. But he lived in India for only four years (1526-1530). When Zahiruddin Muhammad Babur died in Agra on December 26, 1530, according to his will, his body was brought to Kabul and buried in a garden he loved. Mirza Humayun, Hindol, Askari and Komron, the sons of Babur, and his daughter Gulbadanbegim continued the traditions of their wise fathers with their activities and left their poetic and prose works in the field of literature. Zahiriddin Muhammad Babur was a well-known statesman, as well as an extremely talented and prolific creator - a poet, writer, philosopher, literary critic, mature scholar of history and other sciences. Although Babur lived a total of 47 years, the scientific and literary legacy he left was so great in terms of its potential and significance that it was this greatness that ensured Babur’s world fame and eternity.

Boburnoma is a comprehensive work. It contains valuable information about kings, their lineage, lineage, marches, victories and defeats, family members, personalities, dress code, appearance, and even voice. This is what Sultan Husayn says about

Mirza: "She is survived by four sons and 11 daughters. His eldest son was Badiuzzaman. " Giving information about the ministers of Hussein Boykaro, he also described Alisher Navoi: “It was Alisherbek Navoi again. It was not Begi, but his interlocutor. Alisherbek is known for his customer subtlety. People think of decency as the pride of the state. The Boburnoma is divided into three parts according to the course of events described in it. It is divided into Babur's reigns in Movarounnahr, Afghanistan and India. In the first part, Babur's father, Umarshaykh Mirzo, the ruler of the Fergana nation, and Babur's accession to the Fergana throne, but lost his nation as a result of the struggle for the throne in the Timurid state, the events of his futility, and finally his complete detachment from the throne, and his ascension to Afghanistan through the Gissar Mountains with about 250 navkars are mentioned in detail. In the second part, Babur conquered Kabul, then established an independent state there in 1508, recaptured Samarkand with the military help of King Ismail Safavi of Iran, but was defeated by the Shaybanids Ubaydulla Sultan, Muhammad Temur Sultan and Janibek Sultan and returned to Kabul, and then the events of the beginning of preparations for the conquest of India. The third part deals with Babur's conquest of northern India by the Sultan of Delhi, Ibrahim Lodi, and the establishment of the Baburi state. The work is also significant for the author's views on a particular historical event and the behavior and nature of the hostile Timurids - Umarshaikh, Sultan Ahmad, Sultan Mahmud, Boysungur Mirzo, Sultan Hussein and others. The play deals with the social and natural sciences, history, philosophy, jurisprudence, religion, linguistics, geography, natural sciences, mining, agriculture, horticulture, etc. and has not lost its historical and scientific significance. The data are based on scientifically based conclusions. The play skillfully depicts several large and small battle scenes in which Babur himself took part as a general. According to the Boburnoma, Babur left Samarkand in the second half of 1501 out of desperation and went to Tashkent to see Mahmudkhan. Although Babur fought hard for several years to defend and preserve the Timurid kingdom, he was unable to achieve his goal in the face of severe economic crisis and political turmoil in the country. In 1503, the

khan of Tashkent Mahmudkhan, Babur and the combined army of the Kalmyks were defeated by Shaibanikhan on the banks of the Syrdarya. While Babur was fighting for the throne of Samarkand, Andijan was captured by Sultan Ahmad Tanbal. In 1501-1504, Babur's struggle against Sultan Ahmad Tanbal and Jahangir Mirza for the recapture of Fergana ended in failure. Tired of the relentless battles and heavy taxes of the Timurids, the people did not support Babur and he was forced to leave Movarounnahr in June 1504.

On his way to Afghanistan, he gives interesting information about Kabul province: “There are fourteen districts in Kabul province. Samarkand, Bukhara, and a large part of the country are called districts. Andijan, Kashgar and its islands are called Orchin, and India is called Pargana. Although Bajaur, Sawad, Pashawar, and Hashnaghar were formerly part of Kabul, some were dispersed this year due to the Afghan invasion, some joined the Afghans, leaving no province. Eleven to twelve languages are spoken in Kabul: Arabic, Persian, Turkish, Mongolian, Hindi, Afghan, Pasha, Gabri, Baraki, and Lamgani. It is not known that there are so many different ethnic groups and languages in any region. ”He also wrote about several methods of fishing: tying a net, a reed, a jax, and fishing. He even explained how to weave a jacket. He described fishing in the Amgonot area in a different way during the winter. Another interesting piece of information in the Boburnoma is how to catch a bird with a chilvir. “The banks of the Storm River are a breeding ground for birds. This is especially true on rainy and dark nights. These nights, they fly until dawn, fearing predators and birds of prey. On dark nights, the birds' path is flowing, and in the dark they appear pale. It is hunted at this time in the Chilvir method. In this way, the hurricane catches a lot of black cranes. The feathers of a black bird pierced in the hair are taken from the uranium. A mountain village northeast of Kabul writes about foxes flying in the mountains of Nijrov district: "A bow flies in an arrow." Its shape also depicts the wind. "I haven't seen it yet," writes another bird, noting that it has five or six different colors from head to tail and that there is a "musk mouse" that smells like musk. Bobur himself was a very curious, aspiring, versatile person. It is known that

in the village of Dashti Sheikh 32-33 different types of tulips came from different types of tulips. He writes that some people call the province of Ghazni a district, sometimes they call it Ghazni, and sometimes they call it Zabil. "The people are pure Muslims," he said. There are a lot of people who fast for three months. “There are many sacred tombs in Ghazni. The tomb of Sultan Mahmud is also here.” It is said that the tomb will be moved when prayers are said in a cemetery in the village of Ghazni. Babur, who had captured Kabul and Ghazni, went there and saw the tomb shaking.He discovers that this is the trick of the tomb attendants, and threatens to remove the cloth and rope from the tomb and order a dome to be erected over it. He even wrote down the names of the trees, the burning of the wood, the long-term storage of the charcoal, and the fact that it was still burning. We know that noju is a pine tree, orange is a lemon in India, and orange is a balang in India. He also described the burning of acacia and pine trees as "great to watch." We will also have some interesting information about India.

Conclusion: "Boburnoma" is a work of literary and historical significance. It contains information about the experiences of many people of their time in different situations, many mountains, rivers, forests and deserts of Asia, climate, population, social, economic and political situation. "Boburnoma" is a beautiful example of Uzbek prose. Before that, in the preface of Yusuf Khos Hajib's "Qutadgu bilig", in Rabguzi's work, there were examples of prose. Alisher Navoi took it to the next levels historical work is a large encyclopedia that provides a lot of interesting information about people, terms, climate and nature, fauna, flora, flowers, mountains, customs. This favorite work, which is also read with interest abroad, should definitely be in the personal library of every Uzbek.

References:

1. Zahiriddin Muhammad Babur Encyclopedia. –T .: “Sharq” Publishing - General Editorial Board of the printing joint-stock company. 2014.P 665.

2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. - T .: "Teacher" . 2017.

3. Bobobekov X, Karimov Sh. History of Uzbekistan. –T .: “Sharq” 2000.

4. Abdurahmonova, D. (2019). About new translation of “Baburname” into German. Scientific journal of the Fergana State University, 2(2), 145-147.

5.. Satimboyevich, X. Y. (2020). Interpretation of the image of bobur in fiction. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(5), 202-205.

6. Bobur, Z. M. (2002). Boburnoma. Toshkent: Sharq NMAK.

7. Teshaboyeva, Z. (2016). Translations of phraseological units and proverbs of “Boburnoma” into English. Paradigmata poznani, (3), 74-78.

8. Vohidov R., Eshonkulov H. History of Uzbek classical literature. -Tashkent: New Century, 2006

ЗАХРИДДИН МУХАММАД БАБУР : ИНТЕРЕСНЫЕ ФАКТЫ ИЗ ЖИЗНИ ВЕЛИКОГО ПОЭТА И ПОЛКОВОДЦА

Абулова М.А.

Студентка филологического факультета Бухарского государственного университета

Аннотация : это статья дает интересную информация о жизни и творчестве великого поэта Захриддина Бабура.

Annotatsiya: ushbu maqolada buyuk shoir Zahriddin Bobur hayoti va ijodi haqida qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan.

Annotation: This article provides interesting information about the life and work of the great poet Zahriddin Babur.

Ключевые слова : поэт, полководец, тюркоязычный, бабур-тигр, тонкая натура.

Kalit so‘zlar: shoir, sarkarda, turkiyzabon, Bobur- yolbars, nozik tabiat.

Key words: poet, commander, Turkic-speaking, Babur-tigr, subtle nature.

14 февраля узбекский народ отмечает день рождение великого тюркоязычного поэта Захриддина Мухаммада Бабура. Также Бабур является великим полководцем, основателем династии и государства Бабуридов.

Биография Захириддина Бабура (1483 – 1530) очень интересна. За свои 47 лет этот талантливый человек оставил колоссальный след в истории и литературе. Интересные факты о жизни и творчестве представлены в нашей статье.

Факт № 1. Происхождение.

Он родился 1483 году в семье правителя. Происходил по отцовской линии от Темура, а по материнской – от Чингизхана. В одиннадцать лет стал правителем Самарканда

Факт № 2. Бабур - падишах.

В 1504 году был изгнан из Самарканда, но в том же году овладел Кашгаром, Кандагаром, Кабулом. В 1519 году вторгся в Индию, но не завоевал ее. В 1525 году организовал новый поход в Индию. Индией он правил четыре года, основал легендарную империю Великих моголов – эта империя Бабуридов.

Факт № 3. «Бабур – Наме»

Бабур очень увлекался искусством и литературой, свои стихи писал на тюркском языке. Главным трудом его творчества стала его автобиография «Бабур-наме» - первый образец этого жанра. Она охватывает промежуток с 1493 по 1529 годы.

Факт № 4. Бабур – «Тигр»

Его полное имя Захириддин Мухаммед Бабур. Прозвище Бабур, что означает «тигр» или «лев», было получено за отвагу в битвах. Он был талантливым военачальником, обладал воинской доблестью и смекалкой.

Факт № 5. Незаурядный поэтический талант

Лирические произведения Бабура современная молодежь почти не читает, что совершенно напрасно. Его лирика – это песнь человеческой красоты и любви. В своих произведениях он воспевает настоящую, честную, преданную личность. Возвеличивает человека справедливого и достойного.

Свои чувства он описывает так тонко и так изящно, что вчитываясь в его любовные строки, складывается понимание о невероятно глубокой и чувственной натуры этого гения.

Где розы – там шипы, зло в радости, ну что ж!

Без горечи в вине нет сладости, ну что ж!

Вот и в моих стихах, то грустных, то веселых,

И взлеты есть порой, и слабости, ну что ж!

Факт № 6. Основатель империи Великих Моголов

Империя Великих Моголов – была образована Бабуром, когда весь правящий класс во главе с ним проник в Индию. Империя просуществовала довольно долго с середины XVI века до середины XVIII века и действовала на территории современных Индии, Пакистана, Бангладеш и юго-восточного Афганистана.

Примечателен тот факт, что ни Бабур, ни потомки Империи так себя не называли. Такое название дали английские колонизаторы. Они таким образом именовали мусульманское население в Северной Индии и Центральной Азии.

Факт № 7. Имеет прямое отношение к «Тадж-Махалу»

Знаменитый символ Индии мечеть-мавзолей «Тадж-Махал» был построен правнуком Бабура – Шах-Джаханом в XVII веке. Мало, кто знает, что этот грандиозный памятник строился потомком династии Бабуридов, который обессмертил своё имя благодаря постройки такого сооружения.

Факт № 8. Бесценный литературный памятник «Бабур-наме»

«Бабур-наме» – исторический труд Бабура. Труд по праву называют «лучшим произведением тюркской прозы». Эта книга непросто сводка исторических хроник. Произведение посвящено описанию деятельности Бабура, его удачных и неудачных военных походов, изложению всех перипетий его богатой приключенческой жизни. К настоящему времени «Бабур-наме» переведено на 31 язык мира.

Факт № 9. Вел переписку с Алишером Навои

Бабур обменивался письмами и стихами со многими именитыми поэтами и писателями своего времени. Однажды, он отправил свои стихи великому Алишеру Навои и получил одобрительные комментарии по своему творчеству. Позже в «Бабурнамэ» Бабур писал об Алишере Навои, как о человеке бесподобном, называл его покровителем людей науки и искусства.

Факт № 10. Гульбадан-Бегим – дочь Бабура

Гульбадан-Бегим – младшая дочь Бабура и единственная женщина-историк на мусульманском Востоке. Произведение «Хумаюн-наме» содержит важный материал по истории своего времени, а также воспоминания о своем знаменитом отце.

Факт № 11. Андижанский памятник и парк в Ташкенте

Бабур родился и вырос в Анджине, поэтому здесь многое связано с его именем. Здесь есть площадь имени Бабура, на которой установлен монумент из красного гранита на высоком постаменте. Кроме того, в городе можно посетить Библиотеку имени Бабура и Национальный парк.

В Ташкенте есть «Парк культуры и отдыха имени Бабура». В «зеленом» парке можно покататься на аттракционах, поиграть в настольный теннис, посидеть в кафе, покататься на лодках и просто полюбоваться озером в форме бабочки.

Факт № 12. Падишах и поэт.

Захриддин Мухаммад Бабур в литературе имеет статус падишах и поэт.А

Потому что всю жизнь он занимался государственными делами и также писал прекрасные газели и рубаи.

Факт № 13. Тонкая натура.

Второй статус Бабура в литературе это Бабур – тонкая натура.

Бабур был не только поэтом, он был полководцем, основателем династии бабуридов, также знатоком истории и географии, этнографии и культуры. Бабур – личность с утонченным вкусом, то есть всесторонный развитий человек.

Факт № 14. Дети Бабура.

Сыновья: Бабура Хумаюн, Камран мирза, Мухаммад Аскари-мирза, Абу Насир Мухаммад Хиндал Мирза. Дочери: Гулбадан – Бегим, Фахр ан – Ниса и Алтун Бишик

Факт № 15. О книгах Бабура.

В настоящее время «Бабур-Наме переведено на 31 язык мира. Также рубаи и газели его переведены на многие языки мира.

Факт № 16. Бабур и современный Узбекистан.

По инициативе Президента страны был создан музей «Бабур и мировая культура» в городе Андижане. Здесь хранятся свыше 500 уникальных рукописей и книг, а в самом центре находится мемориал памяти – символическая гробница поэта.

Захриддин Мухаммад Бабур был величайшим человеком своего времени. Создав одну из самых сильных империй Востока, в душе оставался пламенным патриотом своей Родины.

Использованная литература

1.Бабур. Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.

2.Дамье В. В. Бабур. Кругосвет

3.Азимджанова С. А. Государство Бабура в Кабуле и в Индии. — М.: Наука (ГРВЛ), 1977. — 176 с. — 4000 экз. (обл.)

4.Кор-Оглы Х. Г. Узбекская литература. — М., 1968.

5.Лэмб Гарольд. Бабур-тигр. Великий завоеватель Востока / Пер. с англ. Л. А. Игоревского. — М.: ЗАО «Центрполиграф», 2002. — 446 с. — ISBN 5-227-01337-3.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР ЛИРИКАСИНИНГ ҒОЯЛАР ОЛАМИ

Дилноза Шароф қизи Шарипова
БухДу талабаси

Аннотация: Заҳириддин Муҳаммад Бобур буюк ватанпарвар сиймо улкан Бобурийлар империсинг асосчиси. Маданиятнинг, илм- фан, меъморчилик ва санъатнинг ривожланган, тараққий этган даври ҳисобланган XV аср, Мовароуннаҳр тарихида ўзига хос ёрқин ва аҳамиятли из қолдирди.

Калит сўз: Мовароуннаҳр, илм, фан, маданият, арбоб, рубоий, Амир Темур, XV аср, Бухораи шариф, мураббий.

Халқ, ҳақиқат ва нафосат улмайди, дейдилар ва буларни ардоқлаган, куйлаган улуғлар ҳам мангудир. Улар ҳамиша авлодлар дили ва тилида барҳаёт. Шу миннатдор авлодарнинг эзгу интилиш ва ишларида мададкордир, дейдилар.

Бу – айни ҳақиқат. Фирдавсий, Низомий, Шерозий, Атоий, Лутфий, Навоий, Бедил қатори Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳам ҳамон халқ дилида орадан беш юз йилдан кўп вақт утган бўлсада у ўз асарларида барҳаётдир, орамиздадир, биз билан биргадир.У , шу улуғлар каби, ҳайратомуз гузал ва мўжизакор ва нафис, қуёш янглиғ сўнмас ва олтинега ўхшаб қораймас, ранг – баранг ва сеҳрлл бадиият обидалар яратди. Бу бадият обидалари баркамол баҳор каби иффатли, рангин ва зарриндир, шу баҳор латофати ва фусуни сингари завқли, илҳомбахш ва шавқлидир, яна шу баҳор каби суронли ҳужумкор ва ўзгарувчандир. Заҳириддин Муҳаммад Бобур йирик давлат арбоби ва моҳир лашкарбоши бўлиши билан бирга шоир, адиб, тарихчи ва олим ҳамдир. Унинг қисқа ҳаёти уруш – юришларда, омонсиз жангу жадалларда кечди. У гоҳ хурсандчиликда, гоҳ чексиз ғам – аламлар гирдобида яшади, алал-оқибат туганмас руҳий истироблар исканжасида умр утказди. Бу ҳақда

“Бобрнома” да ўқиймиз: “ўн бир ёшимдан бери икки Рамазон ийдини паё- пай бир ерда қилғон эрмас эдим”[v]. У бошидан кечирган изтиробли кунларни эслаб, кейинроқ маснавийларида ҳам шундай ёзган эди:

Кўрсатиб давлат йитмагин на эди,
Ерга урдинг, кутармагин на эди.
Гоҳ жоҳилни сарбаланд айлар,
Гоҳ оқилни пойбанд айлар.
Не вафо қилғанини билса булур,
Не жафосиға сабр қилса бўлур.
Не қилай, не кишидан истай дод?
Кимга даҳр илгидан қилай фарёд.
Арзимас ғам емакка бу дунё,
Бал отин ҳам демакка бу дунё.1

Ҳақиқатдан ҳам Бобур яшаб ижод этагн замон Мовароуннаҳр ва Хуросон тарихида ғояти зиддиятли бир давр эди. Бир томондан, улуғҳ Амир Темур асос солган, нисбатан марказлашган давлат, унинг ижтимоий – сиёсий ва маданий ҳаётга кўрсатган қатор ижобий орқибатлари билан характерланса, иккинчи томондан, ана шу қудратли империянинг инқирозга юз тутиши туфайли, турли томондан феодалларнинг ўзаро тож-тахт учун курашлари эл юртнинг иқтисодий- сиёсий ва маданий ҳаётига шубҳасиз, салбий таъсир кўрсатаётган эди. Булар охир- оқибатда буюк салтанатни емирилишига олиб келди. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ниҳоятда серташвиш, нотинч ҳаёт кечиришига қарамай, ўз даврига нисбатан етук билим олиб, бебаҳо бадиий ва чуқур мазмунли илмий асарлар ижодкори даражасига кўтарилди. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўн олти – ўн етти ёшларидан ижод қила бошлаган. У “Бобурнома”да 1499-1500 йиллар воқеаси ҳақида сўзлар экан “ул фурсатларда бирор – иккирор байт айтур эрдим, вале ғазал тугатмайдур эрдим”, - дейди. Бобур узбек мумтоз адабиётининг, айникса, Алишер Навоийнинг бой адабий меросини хамда форс-тожик тилидаги адабиётнинг

устоз санъаткорларининг адабий тажрибаларини урганди, узбек ва форс-тожик тилларида янги, узига хос шерлар яратди, узбек ва форс-тожик тилидаги шеърларини туплаб икки девон тузади. Бу девонларидаги айрим шеърлар «Бобурнома»га хам киритилган. У 20 ёшида янги бир ёзув- «Хатти Бобурий»ни нашр килади. Мусика билан шугулланиб, «Чоргох» макомига «савт»лар битади. «Бобурнома» -дек улкан тарихий-бадиий асарни яратади. Солик ишларини тартибга солувчи «Мубаййин ал-закот» («Закот баёни асарини шерий йулда ёзади. Аруз назарияси хакида рисола тузади[v].

«Мухтасар» номи билан шухрат топган бу асар Алишер Навоийнинг «Мезон ул-авзон»идан кейин аруз илмига багишланган иккинчи йирик асар эди. Унинг «Харб иши», «Мусика илми» номли асарлари хозиргача топилган эмас. Бобур таржима билан хам шугулланиб,Хужа Ахрорнинг «Волидия» асарини шеърий йул билан узбекчага таржима килади. Бу унинг араб тилини хам пухта билганлигидан далолат беради[v]. Унинг лирик мероси хажми жихатидан унча куп булмаса-да,мавзу доираси ,шаклий такомили ва бадиий томонидан гоят гузал ва мукаммаллиги билан хам алохида этиборга лойик.

Бобур лирикасини газал, рубоий, китъа, туюк, маснавий, фард,муаммо каби жанрларда битилган гоявий-бадиий жихатдан пухта – пишик булган асарлар ташкил этади. Шоирнинг лирик шеърларида хаётбахш туйгулар-хаётдан завкланиш ,ёр васли билан кувониши, эл-юрт,диёр севгиси, она-Ватандан узокда юрган лирик кахрамоннинг истиробли туйгулари, панд-насихат мавзуйидаги илм маърифат ва одоб-ахлокка чакирувчи, такдирдан нолиш каби мотивлар юксак бадиий махорат билан куйланади. Бобур поэзиясининг мухим томонларидан бири шоир шеърлари тарихий вокеа ва ходисалар билан чамбарчас богланиши ва уша даврнинг вокелигини содда ва равон тилда тараккийпарварона фикрлар билан ифодаланиши, жушкинлиги, тил бойлиги ва хаётийлигидир. Бу хусусида Узбекистон ФА нинг хакикий аъзоси, профессор В.Зохидов куйидагиларни ёзган эди:

«Узининг бадиий асарлари билан у баъзан феодаллар вакили, мафкурачиси сифатида , баъзан уз даврининг илгор кишиси сифатида куринади. У баъзан феодализим жамиятини, давлатини, феодал усулини,феодал мафкурасини ёкласа, баъзи холларда уларни фош килади, уша даврнинг тор рамкасига сигмайдиган фикрларни куплаб ифодалайди. Бобур хаммадан аввал уз ужодиётининг прогрессив фикрлари билан кадрлидир»``[v].

Бобур газалларидаги мавзу жихатидан ранг-барангликни куздан кечирар эканмиз, уларда оптимистик туйгу билан сугорилган , инсоннинг фоду хуррамлиги билан боглик кутаринки рухда битилган катор газалларга хам дуч келамиз. Хакикатдан хам хаёт неъматлари: ёз фасли, ёр васли, дустлар сухбатидан завкланиш, хаётга умид кузи билан караб, оптимистик хулосалар чикариш Бобур шеъриятининг мухим томонларидан биридир.

Куйидаги:

Ёз фасли, ёр васли, дустларнинг сухбати,

Шеър бахси, ишк дарди, боданинг кайфияти``

ёки:

Булмадим умримда бир дам хотири хуррам била,

Гар илкидан келса бир бамни кечурманг гам била```,-

каби мисраларда хаётни имкон кадар шоду хуррамлик билан хаётдан завк олишга чакиради.

Шуни алохида таъкидлаш жоизки, Бобур шеъриятида ёр –диёр , ватан мавзуси катта урин тутади. Ошуфта шоир она юртидан йирокда булса хам узи тугилиб усган элга, юртга, она-ватанига булган мухаббат, унга етишиш орзуси доим унинг калбидан изтироб туйгуларини учирмайди: Бобур узга юртларга бориб,у ерларда талон-тарожлик билан шугулланиб,мол дунё тупламади, аксинча, уша ерларда хам бог-роглар яратиш, катта ободончилик ишлари олиб бориш билан шугулланди. Айни мана шу гоялар унинг шеърларида хам уз ифодасини топди. Бобур шериятда эришган гоявий-бадий ютукларида, сузсиз, шарк адабиётининг Саъдий, Хофиз, Лутфий, Навоий каби

устозлар гоявий-бадиий махоратларидан, буюк суз ва салохият сохиблари санъатхонасидан самарали фойдалангалиги кузга яккол ташланади. Айни пайтда, Бобурнинг насру назмдаги анъаналари устида кейинги узбек адабиётининг Машраб,Мунис, Огохий, Увайсий, Нодира, Мукумий, Фуркат каби куплаб вакиллари томонидан изчил давом эттирилди. Бобур уз асарлари келажак авлод учун муносиб мерос булиб колишдан фахрланиб:

Ашъорингким шеър оти то булгай,
Таъб ахли анга волау шайдо булгай.
Хар лавзи дуру бахри маъни анга,
Ким курди дурки, онда дарё булгай.`

Асосийси, Бобур Мирзо мунаввар инсонпарвар, оловли ва туфонли гояларни тараннум эттики, улар буюк шоир бадииятига калб булди, шундай кудратли ва жозибали калб булдики, уни на омонсиз зулмат ва каттол хукумдорлар на фалокатли бурон ва конли туфонлар, на шулар билан тула асирлар урушдан тухтата олди, аксинча у хамон бархаёт.

Фойдаланилган Адабиётлар рўйхати

1. В.И.Зохидов. Бобурнинг фаолияти ва адабий-илмий мероси хакида.
(Бобур. «Бобурнома», т.,1960, 100-бет).
2. Алиев.С. Бобурнинг шеърий ижодиёти (диссертация) Т, 1948.
4. Бобур. З.М. Бобурнома – Т: юлдузча, 1990
5. Бобур. З.М. Девон – Т: Шарк, 1996

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР — ДАВЛАТ БОШҚАРУВ СОҲАСИНИНГ ЁРҚИН НАМОЁНДАСИ

Мингбоева Сакинабону Шуҳрат қизи
Тошкент давлат юридик университети Ихтисослаштирилган филиалининг
2-босқич талабаси
Илмий раҳбар: Раҳмонова Дилдора Мирзакаримовна

Аннотация: *Мазкур мақолада Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг давлат бошқарув соҳасида қўшган муносиб ҳиссаси, у томонидан Осиё қитъасининг жанубий нуқтасида барпо этилган улкан салтанатнинг ҳудудий кўлами, бугунги даврда муҳим аҳамият касб этувчи диний бағрикенглик сиёсатига Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг муносабати ва унинг мамлакатни ривожлантириш сари олиб борган сиёсатининг бугунги даврда олиб борилаётган сиёсат билан қиёсий-ҳуқуқий таҳлили ҳақида сўз юритилган.*

Калит сўзлар: *давлат бошқаруви, диний бағрикенглик, улкан салтанат, сиёсат.*

Аннотация: *Достойный вклад Захириддина Мухаммада Бабура в государственное управление, территориальные масштабы великой империи, основанной им в южной части Азии, отношение Захириддина Мухаммада Бабура к актуальной сегодня политике веротерпимости, его политика развития страна сегодня Сравнительно-правовой анализ проводимой политики.*

Ключевые слова: *государственное управление, веротерпимость, великая империя, политика.*

Abstract: *Zahiriddin Muhammad Babur's worthy contribution to public administration, the territorial scale of the great empire he established in the southern part of Asia, Zahiriddin Muhammad Babur's attitude to the policy of religious tolerance, which is important today, and his policy for the development of the country today. a comparative-legal analysis of the policy being pursued.*

Keywords: *public administration, religious tolerance, great empire, politics.*

Улкан Темурийлар салтанатига асос солган соҳибқирон Амир Темурнинг издошларидан бири бўлган Заҳириддин Муҳаммад Бобур Мовароуннаҳр ва Хуросон заминида ўзаро низолар, урушлар авж олган бир даврда дунёга келди. Мана шундай таҳликали бир даврда дунёга келган Бобурнинг ҳам онгини бошқа темурийзодалар каби бобоси асос солган мамлакат тахтини эгаллаш, Мовароуннаҳр ва Хуросон ҳудудларини бирлаштириб халқ фаровонлиги учун ҳаракат қилиш ҳис-туйғулари чулғаб олган эди. Болаликнинг беғубор оламидан кетмасдан туриб, халқнинг ғамини ўйлаш унинг жажжи елкасига юклатилди. Ёш бўлишига қарамай, онаси Қутлуғнигорхонимнинг тарбияси остида мамлакатни бошқаришга қодир шахс сифатида камолотга этди. Темурийлар салтанатининг “юраги” бўлмиш Самарқанд шаҳрини бир неча маротаба эгаллашига қарамай, ўша даврда темурийзодаларнинг ва бошқа ҳукмдорларнинг ўзбилармонлиги, бошбошдоқлиги сабабли у Шайбонийхоннинг қақшатқич зарбасига учради. Ҳаттоки, ўзининг укаси хиёнат йўлини тутди. Бу эса нозик қалбли Бобурнинг чуқур изтироблар домига туширди. Шундан сўнг, Заҳириддин Муҳаммад Бобур барча имкониятларини тўплаган ҳолда 1504 йилда Афғонистон давлатининг пойтахти Кобул шаҳрини эгаллади. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўзининг қатъий интизоми, гўзаллик шайдоси эканлиги, мамлакат ободонлиги йўлида амалга оширган ислоҳотлари ва, энг муҳими, адолати билан афғон халқининг қалбидан чуқур жой эгаллади. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўзининг тузган давлатини янада кенгайтириш,

яна темурийлар салтанатининг сарҳадларини тобора кучайтириш мақсадида Ҳиндистон сари юзлашишни лозим деб топди ва 1526 йилда Панипат жангида ўзининг саркардалик маҳоратини яна бир бор намоён этди. Ўзининг неча йиллик давлат бошқарувидаги салоҳиятини, тажрибасининг исботи ўлароқ, ушбу жангда Деҳли султони Иброҳим Лўдийга номаълум бўлган иккита янги усулни қўллади:

Биринчидан, кичик кучни олдинга, чапга, ўнгга ва марказ қисмларга бўлиниб, тулуғма усулини;

Иккинчидан, Бобур янги аравачалар деб аталган мосламалардан фойдаланди. Натижада ўзининг оз сонли қўшини билан Иброҳим Лўдийнинг улкан филлардан иборат қўшинини енгди. 1527 йилда Читора ҳокими Рано Санго билан жангда ҳам қўли баланд келди. Заҳириддин Муҳаммад Бобур томонидан Ҳиндистон сарҳадларида бунёд этилган улкан салтанати Европада “Мўғуллар империяси” номи билан юритилади [1]. “Бобурнома”да «...Қутлуғ Нигорхоним эди, Юнусхоннинг иккинчи қизи, Султон Маҳмудхон, Султон Аҳмадхоннинг эгачиси эди. Юнусхон ибн Вайс-хон ибн Шерали Ўғлон ибн Муҳаммадхон ибн Хизир Хожахон ибн Туғлуқ Темурхон ибн Эсан Бўғахон ибн Дўвахон ибн Бароқхон ибн Йесун Тува ибн Мўтугон ибн Чиғатойхон ибн Чингизхон» деган ибораларнинг келтирилиши Бобур Мирзони мўғул фарзанди дейишга асос бермайди. Чунки унинг жисм-у жонини Соҳибқирон Амир Темур қони ҳаракатга келтирган, ўша руҳ унга куч-қудрат бағишлаган. Бобур Мирзо ўзининг туркий халққа мансублиги, шу забонда асарлар яратиш неъмати ато этилганлиги билан дил-дилдан фахр этарди[2].

“Бобурийлар сулолаласи” Ҳиндистон ерларида 300 йилдан ортиқ ҳукмронлик қилди. Заҳириддин Муҳаммад Бобур Ҳиндистонда ўзининг қиса вақт давомида ҳукм юритишига қарамай, Ҳиндистондаги рожаликларни бирлаштириш, шаҳарларнинг меъморий ободончилиги, гўзал боғу роғларнинг барпо этилишига ҳомийлик қилди. Ҳиндистон заминига Бобур Мирзо билан

бир қаторда Марказий Осиё маърифати, маънавий ва руҳий муҳити кириб келди. Бу ҳақида Жавоҳарлаъл Неру шундай ёзади: “Бобур Ҳиндистонга келганидан кейин катта силжишлар юз берди ва янги рағбатлантиришлар ҳаётга, санъатга, архитектурага тоза ҳаво бахш этди, маданиятнинг бошқа соҳалари туташиб кетди” [3].

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг асос солган салтанатининг ҳудудий кўлами борасида кўплаб адабиётлардан маълумотларнинг ҳозирги давргача сақланиб қолган. Жумладан, баъзи манбаларда унинг мамлакатининг ҳудуди Ҳайбар довонидан минг чақирим жанубга чўзилганлиги ҳақида фикрлар мавжуд[4]. Бундай улкан салтанатни бошқариш учун Бобурда улкан давлат бошқарувига қодир қобилият, халқни ортидан эргаштириш лаёқати, эзгуликка бирлаштириш туйғулари бўлиши лозим эди ва Бобурда ушбу салоҳиятлар мавжуд эди. Шунингдек, азалдан маълумки, Ҳиндистонда буддавийлик дини аҳолининг асосий эътиқод масаласи бўлиб келган. Бобурийлар билан бирга келиб келган ислом дини вакиллари ва буддавийлар ўртасида, аҳолининг диний-этник таркибларида зиддиятларнинг юзага келиши табиий ҳол эди. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўзининг сиёсат юритишида диний эътиқодлар ва тасаввуф таълимотларига амал қилган. Бу орқали давлатдаги турли миллат вакиллари ўзаро тинч-тотув яшаши, ижтимоий ҳамкорлик, диний бағрикенглик, миллатлараро тотувлик таъминланган. Мазкур диний сиёсат ўзида исломий қадриятлар ва маданиятнинг устунлигини намоён қилиши билан бирга бошқа дин ва эътиқодларига ҳурмат билан муносабатда бўлишни ҳам тақозо этади. Шу сабабли у фақат ўз ҳукмдорлиги давридагина эмас, балки 300 йилдан ортиқ ҳукмронлик қилган бобурийлар сулоласи давридаги жамият, маданият, цивилизация, динлар ва диний эътиқодларга нисбатан бағрикенглик, сабр-тоқатлилик қадриятларининг тамал тошини қўйиб кетди. Ва бу келгусида бобурийзодаларнинг диний масалаларда жуда нозик сиёсат олиб боришларига туртки бўлди.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур томонидан олиб борилган сиёсатнинг бугунги даврдаги аҳамияти ҳақида сўз юритишимиз давомида мамлакатимизда олиб борилаётган сиёсат билан боғлиқ жиҳатларни кўришимиз мумкин. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги фармонининг 5 йўналишида келтирилган қуйидагиларда Заҳириддин Муҳаммад Бобур олиб борган сиёсатнинг учқунларини кўришимиз мумкин:

- суверенитети, ҳудудий яхлитлигини муҳофаза қилиш;
- давлатнинг мудофаа қобилиятини мустаҳкамлаш;
- диний бағрикенглик ва миллатлараро тотувликни таъминлаш[5].

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўзининг тинчлик сиёсати, ўз миллатининг бўлган севгисининг кучлилиги туфайли Моваройуннаҳрни қайта эгаллашга кучи етишига қарамай, она ватанида ортиқ қон тўкилишини истамагани боис бу ерга қарши қўшин тортмади.

Шуни таъкидлаш жоизки, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг бутун ҳаёти инсонларнинг фаровонлигини таъминлаш учун фидо бўлди, десак муболаға бўлмайди. Зеро, “Бобурнома”ни инглиз тилига таржима қилган инглиз тарихчи олими Уильям Эрскин айтганидек, “Саховати ва мардлиги, истеъдоди, илм-фан, санъатга муҳаббати ва улар билан муваффақиятли шуғулланиши жиҳатидан Осиёдаги подшоҳлар орасида Бобурга тенг келадиган бирорта подшоҳ топилмайди” [6]. Мазкур буюк шахсни нафақат халқимиз, балки жаҳон адабиётининг, сиёсатининг ёрқин вакиллари ҳам эътироф этганлар ва бу эътирофлар қанчалик тўғри эканлигини ўрта асрлар тарихи исботлайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Wheeler M. Thackston. Boburnoma: Boburning esdaliklari, Shahzoda va imperator , Nyu-York: Random House, 2002.

2. Воҳидов Р. Биз билмаган ва билган Бобур. — Тошкент, Маънавият, 1999.

3. Неру Дж. Открытие Индии / Джавахарлал Неру / Пер. с англ.; Переводчики: В.В. Исакович, Д.Э. Кунина, И.С. Кливанская, В.Ч. Павлов; Ред. перевода В.Н. Мачавариани. — М.: Издательство иностранной литературы, 1955. — 652, [24] с. (в пер.)

4. Alex Rutherford. Empire of the Moghul: Brothers at war. – 2010.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги фармони (рўйхат рақами 4947, 07.02.2017).

6. MEMOIRS OF ZAHIR-ED-DIN MUHAMMED BABUR EMPEROR OF HINDUSTAN WRITTEN BY HIMSELF, IN THE CHAGHATAI TURKI AND TRANSLETED BY JOHN LEYDEN AND WILLIAM ERSKINE - London: Oxford University Press, 1921

BOBUR – DILBAR SHAXS

Ravshanov Qaxramon Baxodirovich

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahri 6-umumiy o’rta ta’lim maktab 11-sinf o’quvchisi

Annotatsiya

Z. M. Bobur atoqli davlat arbobi, sarkarda, shu bilan birga, iste'dodli shoir, adib, tarixchi, olim va tarjimondir. Bobur inqirozga yuz tutgan temuriylar davlatini saqlab qolish va mustahkamlash uchun uzoq va qattiq kurash olib bordi. U asos solgan imperiya Afg'oniston va Hindistonning siyosiy - iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga progressiv rol o'ynadi. Bobur adabiyot, san'at, tarix va ilm-fanga juda qimmatli asarlar yaratdi.Boburning eng yirik asari "Boburnoma" geografiya, etnografiya, xalq meditsinasi va boshqa ilmiy sohalar bo'yicha ma'lumot beruvchi asardir.1503-1504 yillarda " Xatti Boburiy" nomli alifbo yaratdi. Bobur she'riyatida baxt, sevgi, shodlik, ilm-ma'rifat, vatanga muhabbat tuyg'ulari ifoda etilgan.

Аннотация

З. М. Бабур — известный государственный деятель, полководец, а также талантливый поэт, писатель, историк, ученый и переводчик. Бабур вел долгую и ожесточенную борьбу за сохранение и укрепление охваченного кризисом государства Тимуридов. Основанная им империя сыграла прогрессивную роль в политическом, экономическом и культурном развитии Афганистана и Индии. Бабур создал очень ценные произведения в литературе, искусстве, истории и науке. Крупнейший труд Бобура «Бобурнома» представляет собой познавательный труд по географии, этнографии, народной медицине и другим областям науки. В 1503-1504 годах он создал алфавит под названием «Хатти

Бабури». В поэзии Бабура выражены чувства счастья, любви, радости, знаний и любви к Родине.

Annotation

Z. M. Babur is a famous statesman, commander, as well as a talented poet, writer, historian, scholar and translator. Babur waged a long and fierce struggle to preserve and strengthen the crisis-ridden Timurid state. The empire he founded played a progressive role in the political, economic and cultural development of Afghanistan and India. Babur created very valuable works in literature, art, history and science. Bobur's greatest work, "Boburnoma", is an informative work on geography, ethnography, folk medicine and other scientific fields. In 1503-1504 he created an alphabet called "Khatti Baburi". Babur's poetry expresses feelings of happiness, love, joy, knowledge and love for the motherland.

Kalit so'zlar: Markazlashgan davlat, progressiv, she'riyat, adabiyot.

Ключевые слова: Централизованное государство, прогрессивный, поэзия, литература.

Keywords: The words centralized state, progressive, poetry, literature.

...Bahodirlik ichra yor sizga Humoy,

Siz ulug’ zotlarning izin bosgan er,

Nazmiy sajdagohda Sizga hoynahoy,

Imomlikka o’tgay faqat Alisher.

Zahiriddin Muhammad Bobur atoqli davlat arbobi, sarkarda va shu bilan birga, iste’dodli shoir, adib, donishmand tarixchi, zakovatli olim va tarjimondir.

Bobur juda murrakab hayot, kurash va ijodiy faoliyat yo’lini kechib o’tdi.

Bobur inqirozga yuz tutgan temuriylar davlatini saqlab qolish va mustahkamlash , O’rta Osiyoda markazlashgan yirik davlat vujudga keltirish uchun uzoq va qattiq kurash olib bordi. Biroq tarixiy sharoit bunga imkon bermadi. Shayboniyxonlar qattiq shikast yegan Bobur Afg’onistonga qarab yo’l oldi.

U Afg’onistonni keyinchalik esa Hindistonni egallab oldi va katta imperiyani vujudga keltiridi. Boburning harakatlari tarixiy taraqqiyotning ob’yektiv qonuniyati jihatidan progressiv ahamiyatga ega edi. U xo’jalik va madaniyatning taraqqiyottiuchun nisbatan qulay shart-sharoit vujudga keltiruvchi yirik va markazlashgan davlat uchun kurashdi; u asos solgan imperiya Afg’oniston va Hindistonning siyosiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti uchun birmuncha progressiv rol uynadi.

Bobur yirik madaniyat arbobidir. Bobur mamlakatdagi o’zaro feodal kurashlarga va o’zining ko’p urushlarga bo’lganiga qaramay bolalik chog’laridayoq fors va arab tillarini mukammal o’rgandi, adabiyot, tarix, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, musiqa va boshqa sohalar bilan shug’ullanadi. U har tomonlama keng va chuqur bilimga ega bo’lgan madaniyatli va ma’rifatparvar bir kishi bo’lib yetishadi. Bobur adabiyot, san’at, tarix va ilm-fanning turli sohalarida juda qimmatli asarlar yaratadi. Uning devonlari “Boburnoma”si , “Mufassal”, “Xatti Bobiriy”, “Harb ishi”, “Musiqiy ilmi” va boshqa asarlari shular jumlasidandir. Bu asarlar o’zbek adabiy tili, adabiyoti va ilm-fanning ravnaq topishiga bebaho hissa qushdi.

Bobirning ilmiy-adabiy merosi hozir ham o’zining ma’lum tarixiy-ma’rifiy, ilmiy va estetik qimatini saqlab qolmoqda. Uning “Boburnoma”si jahon madaniyatining nodir yodgorliklaridan biridir.

Bobur asos solgan “Buyuk mo’g’ul” imperiyasi Hindistonning Angliya tomonidan bosib olinishiga qadar davom etdi. Boburning vorislari – boburiy podsholar Hindistonning siyosiy hokimiyatini mustahkamlash, xo’jalik va madaniyatini rivojlantirishda katta ijobiy rol o’ynadilar. Ular mahalliy xalqlar bilan tobora yaqinlashib, chatishib ketdilar. Hindistonning xo’jaligi va madaniyati ayniqsa

mashhur podsho Akbar davrida tez o’sib rivojlandi. Akbar Boburning nabirasi bo’lib, juda tadbirkor, donishmand va ma’rifatparvar kishi edi. U hindlardan olinadigan g’ayridinlik solig’i – juz’yani bekor qiladi, ayrim qabilalarning vafot etgan erkak bilan tirik beva xotinni birga kuydirish odatini man qiladi, boshqa turdagi mahalliy din va urf-odatlarga xolis qaraydi. Dehli shahrini usha davrning obod shaharlaridan biriga aylantiradi. Bobur va boburiylar Hindiston tarixida progressiv rol o’ynaydilar. Binobarin, Hindistonning sobiq bosh ministri marhum Javoharlar Neru “Hindistonning kashf etilishi” asarida Bobur va uning nabirasi Akbar haqida shunday yozadi:

“ Bobur dilbar shaxs, uyg’onish davrining tipik hukmdori, va tadbirkor odam bo’lgan, u san’atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko’rardi. Uning nabirasi Akbar yana ham dilbarroq bo’lib, ko’p yaxshi fazilatlarga ega bo’lgan...”

Zahiriddin Muhammad Bobur faqat yirik davlat arbobi va mihir lashkarboshigina bo’lib qolmay, balki shu bilan birga buyuk shoir, adib, tarixchi va olimdir. “Boburnoma”ni ingliz tiliga tarjima qilgan Erskin Boburni bunday ta’riflagan edi: ...sahovatliligi, mardligi, talantliligi, fanga, san’atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug’ullanish jihatidan olib qaraganda, Osiyodagi podsholar ichida Boburga teng keladigan birorta ham podshoh topolmaymiz.”

Boburning eng yirik va eng ajoyib asar, uni butun dunyoga tanitgan, Yevropa sharqshunoslari, jumladan Vamberi tomonidan Yuliy Sezarning kommentariyalari bilan bir qatorga qo’yilgan kitobi “Boburnoma’dir.

“Boburnoma” tarixiy-badiiy asardir. “Boburnoma” tarixiy manba bo’lishi bilan birga o’zbek prozasining qimmatli yodgorligidir. Shu bilan birga, “Boburnoma” geografiya, etnografiya, tibiyot, xalq meditsinasi va boshqa ilmiy sohalar bo’yicha ham qimmatli ma’lumot beruvchi asardir. U o’zbek adabiy tilining muhim yodgorligidir.

Arab alifbesining o’zbek tili va talaffuzi xususiyatlariga u qadar muvofiq emasligini ko’rgan Bobur bu alifbeni isloh qilib, 1503-1504 yillarda “Xatti Boburiy”

deb atalgan alifbe yaratdi. Garchi bu alifbe hayotga tatbiq qilinmagan bo’lsa ham, uning vujudga kelishi va alifbeni tilga muvofiqlashtirish g’oyasining tug’ilishi katta progressiv hodisa va zo’r jur’at edi. “Xatti Boburiy”ning muhim bir tomoni shundaki, unda unlilar “zer-zabar’ tarzidagi belgilar bilan emas, balki maxsus harflar shaklida berilgan.

“Bobur g’azallarida, she’riyatida hayot, sevgi, shodlik haqida kuylanadi. Ilm-ma’rifat, vatanga muhabbat tuyg’usi uning she’rlarini katta qismini tashkil etadi. Uni vatanga qaytish orzusi ushalmadi, o’z yurtidan uzoqda qolib ketdi. Davlati va saltanati uni umr buyi chet elga bog’lab qo’ydi.

Binobarin u:

Keldim bu sari o’z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo’qtir...

U ustozlar ijodidan ilhomlanib ularning she’rlariga o’xshatma va naziralar yozadi.

U Lutfiyning :

“Necha jonim jafo qilursan?
Vaqt o’ldi agar vafo qilursan” g’azalidan ilhomlanib:
“G’ayrga necha vafo qilg’aysan,
Jonima nega jafo qilg’aysan”
Navoiy she’rlariga o’xshatma va nazira tarzida:
“Ko’rmagan erdim jamoli olam aro koshki,
Bulmag’ay erdim bori olamg’a rasvo koshki.”
“Charxni men ko’rmagan javru jafosi qoldimu?
Xasta ko’nglim chekmagan dardu balosi qoldimu?”
Biz ham hozirgi zamon shoirlari va muxlislari tilidan shunday deymiz:
...Ayting, ne topdingiz Siz kezib dunyo,
Hanuz boqisharlar sho’rishga to’lib,
Shoirsiz, yaxshisi qolingiz, Mirzo,
Mushfiq yurtingizda bir shoir bo’lib.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. M. Mallayev. O’zbek adabiyoti tarixi. O’qituvchi nashiriyoti. Toshkent. 1965-yil.

2. Vohid Zohidov. Boburning faoliyati va adabiy-ilmiy me’rosi. O’zSSR FA nashr. 1960-yil.

3. Bobur. “Boburnoma”

4. A. Oripov. “Yillar armoni”. G’. G’ulom nashr. 1987-yil.

5. S. Jalolov. “Boburnoma”ning badiiy qimmati haqida. Ilmiy asarlar. 1961-yil.

АКАДЕМИК САБОҲАТ АЗИМЖОНОВА-БОБУРШУНОС ОЛИМА

З.А.Шамсиева

БухДУ “ Бухоро тарихи” кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада бутун дунёда қўрқув билмас саркарда, моҳир давлат арбоби, айни пайтда истеъдодли шоир, адиб, донишманд, тарихчи, зукко олим ва таржимон сифатида танилган Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва илмий фаолиятини тарихий нуқтаи назардан ўрганган шарқшунос олима Сабоҳат Азимжонова ҳаёти ва унинг бобуршунослик илмига қўшган ҳиссаси ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: бобуршунослик, мемуар асар, “Бобурнома”, шарқшунослик, «Хатти Бобурий»,«Мубаййин»

Аннотация: В статье рассматривается жизнь востоковеда- Сабохат Азимжановой и ее вклад в изучении научной деятельности Бабура, который был бесстрашным полководцем, государственным деятелем, а также талантливым поэтом, писателем, мудрецом, историком, блестящим ученным и переводчиком.

Ключевые слова: Бабуроведение, мемуары, «Бобурнома», востоковедение, «Хатти Бобурий»,«Мубаййин»

Annotation: The article deals with the life and scientific activity of Sabohat Azimjanova and her contribution to researches on the scientific works of Zahiriddin Muhammad Babur, a fearless commander,statesman, as well as a talented poet, writer, sage, historian, brilliant scientist and translator.

***Keywords*:** Babur studies, memoirs, "Boburnoma", Oriental Studies, , “Xatti Boburiy”, "Mubayyin"

Мустақилликнинг дастлабки кунларидан бошлабоқ аждодларимиз томонидан кўп асрлар мобайнида яратилган бой ва ранг-баранг маънавий қадриятларимиз ва маданий меросимизни ўрганиш ва қайта тиклаш, унинг "инсонпарварлик ғоялари билан йўғрилган сарчашмаларидан халқимизни баҳраманд қилиш мамлакатимиз давлат сиёсатининг асосий тамойилларидан бири бўлиб қолди" [v] .

Ўзбек халқи ўтмишда ўтган кўплаб буюк даҳолари билан ҳақли равишда фахрланса арзийди. Уларнинг кўплари нафақат, ўз диёрида, балки дунёнинг кўплаб мамлакатларида маълум ва машҳурдирлар. Ана шундай мўътабар зотлардан бири Заҳириддин Муҳаммад Бобурдир. У бутун дунёда қўрқув билмас саркарда, тадбиркор подшоҳ, моҳир давлат арбоби, айни пайтда истеъдодли шоир, адиб, донишманд, тарихчи, зукко олим ва таржимон сифатида танилган. Бобур тарихда умри курашлар, урушу ғалаёнлар, нотинчликлар билан кечган шахс.У темурийлар салтанатини сақлаб қолиш учун ҳаракат қилди. Умри чет элларда кечди. Ҳаёти Афғонистон, Ҳиндистон каби давлатлар билан боғлиқ бўлди. Бобур йирик маданият арбоби сифатида ҳам маълум. У ёшлигидан илм билан шуғулланган, форс, араб тилларини ўрганганлиги, адабиёт, тарих, тилшунослик, адабиётшунослик, мусиқа ва бошқа соҳалар билан шуғулланган боис ҳам маърифатни англайдиган, маданиятли киши бўлиб етишди. У фаннинг турли соҳаларига доир кўплаб асарлар ёзди. Бобурнинг лирик девонлари, «Бобурнома», «Муфассал», «Хатти Бобурий», «Ҳарб иши», «Мусиқий илми» ислом дини асосларининг баёни бўлган «Мубаййин», «Волидия» таржимаси ва бошқа асарлари унинг шуҳратини янада оширди.

Бобур қаламига мансуб "Бобурнома" асари – жаҳонда адабиёти ва манбаашунослигидаги муҳим ва ноёб ёдгорлик, ўзбек адабиётида дастлабки насрий мемуар ва тарихий илмий асар. "Бобурия", "Воқеоти Бобур", "Воқеанома", "Тузуки Бобурий","Табақоти Бобурий", "Таворихи Бобурий"

номлари билан ҳам маълум. Бобурнинг ўзи эса "Вақое" ва "Тарих" деган номларни ҳам ишлатган.[v]

Мустақиллик йилларидан бошлаб, ўзбек халқининг буюк фарзанди, адолатли шоҳ, истеъдодли шоир, салоҳиятли муаррих Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ижодий меъросини катта қизиқиш билан ўрганишлари олиб борилди. Маълумки, Бобурнинг тарихий, илмий ва адабий меросини ўрганиш ва оммалаштиришда Ўзбекистон, Тожикистон, Россия олимларининг фаолиятлари ҳам диққатга сазовордир. XIX-XX асрлар давомида Георг Кер, Н.Ильминский, О.Сенковский, М.Салье, Порсо Шамсиев, Содиқ Мирзаев, В.Зоҳидов, Я.Ғуломов, Р.Набиев, С.Азимжонова, А. Қаюмов каби олимларнинг саъй-ҳаракатлари билан «Бобурнома» бир неча бор рус ва ўзбек тилларида чоп этилди, уларга сўзбоши ёзилди ва кенг китобхонлар оммасининг маънавий мулкига айлантирилди, унинг шеърлари ҳам бир неча бор нашр этилди.

Бобур ижодини ўрганиш, ЎзССР даврида, 1958-йилда йўлга қўйилган. Шу йили Тошкентда катта илмий анжуман ташкил қилинган. ЎзССР компартияси биринчи секретари, Шароф Рашидов Бобур ижодини ўрганиш учун алоҳида эътибор берган. Бобур асарлари нашр қилинган ва Ҳамид Сулаймонов Бобур миниатюраларининг нусхаларини хориждан олиб келиб нашр қилган. Шарқшунос Сабоҳат Азимжонова Бобур хаёти ва тарихи тўғрисида докторлик диссертациясини ҳимоя қилган ва фундаментал монография нашр қилган.

Шарқшунос олима, Ўзбекистон Фанлар Академияси академиги, тарих фанлари доктори Сабоҳат Азимжонова 1922-йил Тошкентда таваллуд топган.Тошкент педагогика институтини 1942-йилда тамомлаган олима 1949-йилдан бошлаб Ўзбекистон Фанлар Академияси Шарқшунослик институтида катта илмий ходим сифатида фаолият олиб боради.1950-1977-йиллар мобайнида мазкур институт директори,1977-1995-йилларда бўлим бошлиғи , 1995-йилдан эса етакчи илмий ходим лавозимларида ишлайди. 1953-йилда

олима “XV асрнинг иккинчи ярмидаги Фарғона тарихидан” мавзусида номзодлик, 1968-йилда эса “Кобул ва Ҳиндистондаги Бобур давлати” мавзусида докторлик диссертатсиясини ҳимоя қилди. 1971-йилда фан ва техника соҳасидаги Абу Райҳон Беруний номидаги Ўзбекистон ССР Давлат мукофоти совриндори бўлган. 1995-йилда олима Ўзбекистон ССР Фанлар академиясининг академиги бўлди. Академик Сабоҳат азимжонова Ўзбек этнографи Карим Шониёзовнинг рафиқаси эди. У 2001-йил 26 апрелда вафот этган.[v]

Заҳматкаш олима 150 дан ортиқ илмий мақола ва рисолалар муаллифидир. Асосий илмий ишлари Бобурнинг Кобул ва Ҳиндистондаги фаолияти, Ўрта Осиё халқларининг ўрта асрларда қўшни хорижий мамлакатлар билан ўзаро сиёсий ва иқтисодий муносабатларига бағишланган.

Шарқшунос олиманинг асарлари Эрон, Афғонистон, Ҳиндистон, Францияда чоп этилган. Бобурнинг қизи Гулбаданбегимнинг "Ҳумоюннома"сини форс тилидан ўзбек тилига таржима қилиб, Тошкентда (1959, 1977) ва француз тилида Парижда, (1996) нашр эттирган. Олиманинг илм-фанга қўшган беқиёс ҳиссаси Беруний номидаги Ўзбекистон Давлат мукофоти (1989), Жавоҳарлал Неру халқаро мукофоти (1993) билан муносиб тақдирланган.

Сабоҳат Азимжонова ўзининг олиб борган илмий изланишлари натижасида бобуршунос олима сифатида илм-фанга катта ҳиссасини қўшади.Бобурнинг бутун жаҳон оммасига машҳур бўлган шоҳ асари «Бобурнома» ни олима қунт билан ўрганади. Маълумки, унда Бобур яшаган давр оралиғида Мовароуннаҳр, Хуросон, Эрон ва Ҳиндистон халқлари тарихи ёритилган. Асар асосан уч қисмдан иборат бўлиб, унинг биринчи қисми — XV асрнинг иккинчи ярмида Марказий Осиёда рўй берган воқеаларни; иккинчи қисми — XV асрнинг охири ва XVI асрнинг биринчи ярмида Кобул улуси, яъни Афғонистонда рўй берган воқеаларни; учинчи қисми — XVI асрнинг биринчи

чорагидаги Шимолий Ҳиндистон халқлари тарихига бағишланган. «Бобурнома»да ўша даврнинг сиёсий воқеалари мукаммал баён қилинар экан, ўз юрти Фарғона вилоятининг сиёсий-иқтисодий аҳволи, унинг пойтахти Андижон шаҳри, Марказий Осиёнинг йирик шаҳарлари: Самарқанд, Бухоро, Қарши, Шаҳрисабз, Ўш, Урганч, Ўратепа, Термиз ва бошқа шаҳарлар ҳақида ниҳоятда нодир маълумотлар келтирилган. Унда Кобул улусининг йирик шаҳарлари Кобул, Ғазна ва улар ихтиёридаги кўпдан-кўп туманлар, вилоятлар, Шимолий Ҳиндистон ҳақида маълумотларни учратиш мумкин. «Бобурнома»ни варақлар эканмиз, кўз олдимиздан Марказий Осиё, Афғонистон ва Ҳиндистон халқларига хос бўлган фазилат ва нуқсонлар, уларнинг тафаккур оламининг кенглиги ва мураккаблиги билан бирга, ўша даврдаги ҳаёт муаммолари, Бобур давлатидаги сиёсий ва ижтимоий ҳаётнинг тўлиқ манзараси намоён бўлади. «Бобурнома»да келтирилган бу тарздаги маълумотлар Бобур даврида ёзилган бошқа тарихий манбалар: Мирхонд, Ҳондамир, Муҳаммад Солиҳ, Биноий, Муҳаммад Ҳайдар,Абул-Фазл Алломий ва бошқа тарихчиларнинг асарларида бу даражада аниқ ва мукаммал ёритилган эмас.[v]

Бобур лирик шеърлари ва тарихий «Бобурнома»сидан ташқари, ислом қонуншунослиги ва бошқа соҳаларда ҳам асарлар яратган. 1522-йилда ўғли Ҳумоюнга атаб ёзган «Мубаййин» номли асарида ўша замон солиқ тизимини, солиқ йиғишнинг қонун-қоидаларини, шариат бўйича кимдан қанча солиқ олиниши ва бошқа масалаларни назмда изоҳлаб берган. «Хатти Бобурий» деб аталган рисоласида араб алифбосини туркий тиллар, хусусан, ўзбек тили нуқтаи назаридан бирмунча соддалаштириб беришга ҳаракат қилган. У тажриба сифатида «Хатти Бобурий» алифбосида Қуръони Каримни кўчирган. Бобурнинг аруз вазни ва қофия масалаларига бағишланган «Муфассал» номли асари ҳам бўлганлиги маълум, бироқ бу асар бизгача етиб келмаган. Бобур ўзининг маълум ва машҳур асарлари билан тарихнавис адиб, лирик шоир ва ижтимоий масалалар ечимига ўз ҳиссасини қўшган олим сифатида халқимиз маънавий маданияти тарихида муносиб ўрин эгаллайди.[v]

Даврлар ўтса ҳам "Бобурнома" ўзининг илмий-амалий аҳамиятини йўқотмайди. Аксинча, ҳар бир илмий изланишлар натижасида янги билимлар,янгича ёндашувлар вужудга келаверади. Шунинг учун ҳам, "Бобурнома" тарих салтанатидаги гавҳар тождир. Инглиз тарихчиси Элфинстон таъбири билан айтганда: "Бобур хотираларда буюк туркий подшоларнинг ҳаёти батафсил тасвирланган, унингшахсий ҳис-туйғулари ҳар қандай муболаға ва пардалашлардан холи. Унинг услуби оддий ва мардона, жонли ва образли. У ўз замондошларининг қиёфалари, урфодатлари ва интилишларини, қилиқларини ойнадек равшан тасвирлайди. Шу жиҳатидан "Бобурнома" чинакам тарихий тасвир намунасидир” .[v]

Мустақил диёримизда маърифатга алоҳида эътибор қаратилиб, бу масалалар давлат дастури мақомига кўтарилди. Мамлакатимиз илм-фани ривожига буюк ҳисса қўшган аждодларимизнинг маданий мерослари халқимизнинг маънавий бойлигидир.Ундан унумли, оқилонафойдаланиш ва ушбу муқаддас меросни қадрлаш ҳар биримиз учун фарз ҳамқарздир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. – Тошкент: "Ўзбекистон", 1996, –Б.24

2..Adizova I. "Bobur boburiylarga badiiy mahorat" // Til va adabiyot ta'limi. – 2014. 3-son. – Б.41

3.https://ru.freejournal.info/8148886/1/azimdzhanova-sabokhat azimdzhanovna.html

4.Azimjonova S. Zahiriddin Muhammad Bobur (maqolalar to`plami) T.: 1995,-Б.11

5. Azimjonova S, Valiyev D.Manaviyat yulduzlari T.: 1999,-Б.33

6.Qudratullayev H. "Bobur shaxsiyati to'g'risida" // Buxoro mavjlari. – 2016-yil, 7-fevral. № 15,- B.4

BOBUR ASARLARIDA VATAN SOG`INCHI

Axmedova Ruxsora Ibragimovna

Ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk shoir, geograf va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning ijodida Vatan sog‘inchi, insoniy fazilatlarning ulug‘lanishi yoritilgan va tahlil qilingan.

Annotation: This article describes and analyzes the great poet, geographer and statesman Zahiriddin Muhammad Babur's nostalgia and glorification of human abilities.

Примечания:В трех статьях освещается и анализируется тоска по родине и прославление человеческого потенциала в творчестве великого поэта, географа и государственного деятеля Захириддина Мухаммада Бабура.

Kalit so‘zlar: masnaviy, Bobur, nasr, "Boburnoma", ilmiy asar, lirika, memuar, tarixiy, ixlosmand, sog‘inch, siyosat, ma’rifat.

Key words: masnavi, Babur, epic, "Baburnoma", scientific work, lyric, memoir, historical, devotee, nostalgia, politics, enlightenment.

Ключевые слова: маснави, Бобур, проза, «Бобурнома», научное произведение, лирика, мемуары, исторический, подвижник, ностальгия, политика, просвещение.

O`zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili,buyuk shoir,tarixchi,geograf,davlat arbobi,iste`dodli sarkarda,boburiylar sulolasi asoschisi,temuriy shahzoda Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda tug`ilgan.Otasi temuriyzoda Umarshayx Mirzo Farg`ona viloyati hukmdori bo`lgan.Onasi Toshkent hokimi Yunusxonning qizi Qutlug` Nigorxonim bo`lgan.Bobur yosh bo`lishiga qaramasdan ,davlat ishlarini yuritish uning zimmasiga tushadi.Siyosat bilan bir qatorda madaniy va ma`rifiy ishlarni ham o`z o`rnida olib boradi.

Bobur shunday yetuk shaxs ediki,davlat ishlarini boshqarishda olim-u donishmandlardan va hurfikrli insonlardan maslahat olardi.Bobur boshiga qancha

qiyinchiliklar tushsa ham o`zining iqtidori,iste`dodi va uzoqni ko`ra olish qobiliyati bilan bu qiyinchiliklarni mardonavor yengib o`tadi.Shu bilan bir qatorda samarali ijod ham qiladi.Boburning adabiyotga ixlosmandligi uning asarlarida ilgari surilgan g`oyalarda ham ko`zga tashlanadi.Bobur lirikasi nasihatlarga boy,sodda va samimiydir.Shoir nasrda ham, nazmda ham salmoqli ijod qilgan.

Boburning barcha nazmiy asarlari “Kobul devoni” va “Hind devoni” ga jamlangan.Bobur 1521-yilda islom shariatining besh ustuni,zakot solig`i va boshqa shu kabi masalalar yoritilgan falsafiy-diniy asari “Mubayyin “ masnaviysini yaratadi va “Xatti Boburiyni” ixtiro qiladi.Boburning “Harb ishi” va “Musiqa ilmi” kabi ilmiy asarlari hanuzgacha topilgani yo`q. Bundan tashqari uning lirikasida Vatan ishtiyoqi, g‘ariblikning hasrat va nadomatli dardlari o‘zining aksini topadi.Bobur qoldirgan ilmiy-adabiy meros o’rganilar ekan, Bobur bilim doirasining nihoyatda kengligi, o’zigacha mavjud bo’lgan va o’z zamonasidagi boy ilmiy-adabiy merosni naqadar chuqur bilganligi kishini hayratda qoldiradi. Uning she’riy va nasriy asarlari har jihatdan yetukligi hamda badiiy-ilmiy ijod tarixida o’ziga xos mavqega ega bo’lganligi bilan ajralib turadi.

Bobur lirikasi o‘zining hayotiyligi, taraqqiyparvar fikrlar ifodalashi, badiiy soddaligi, jo‘shqinligi va til boyligi bilan o‘zbek adabiyotining dunyoviy taraqqiyotiga hissa qo‘shib kelmoqda.“Boburnoma” jahon adabiyoti va tarixida muhim ahamiyatga molik asardir;o`zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy –ilmiy asar.Unda o`z davridagi ko`plab kishilarning turli vaziyatlardagi kechinmalari, Osiyoning ko`plab tog`lari ,daryolari,o`rmonlari va cho`llari , iqlimi,aholisi,ijtimoiy,iqtisodiy,siyosiy ahvoli haqidagi ma`lumotlar jamlangan.

Uilyam Erskin J.Layden bilan birgalikda "Boburnoma" asarini tarjima qiladi va unga shunday muqaddima yozadi: “ Biz Osiyodagi hukmdorlar ichida Bobur singari iste’dodli va talantli kishilarni kamdan kam uchratamiz. Aqliy faoliyati, xushchaqchaq va sovuqqonligi, bevafo taqdirining nayranglariga qaramay, ruhining tetikligi, podsholar orasida juda kam uchraydigan saxiyligi, mardligi, iste'dodliligi, fanga, san’atga muhabbat va ular bilan faol shug’ullanishi jihatdan Osiyo podsholari orasida Boburga teng keladigani yo’q.”

Boburning nasr va nazmdagi ijodida Vatan sog`inchi bosh mavzuga aylangan.Jumladan,uning ruboiy va g`azallaridagi har bir baytda yurtning sog`inchi ufurib turadi.

Tole` yo`qki jonimg`a balolig` bo`ldi,

Har ishniki ayladim,xatolig` bo`ldi.

O`z yerini qo`yib, Hind sori yuzlandim,

Yo Rab,netayin,ne yuz qarolig` bo`ldi.

Ushbu ruboiyda Vatandan ajralganligi tufayli o`zini dunyodagi eng baxtsiz odam deb hisoblaydi , chunki taqdir uni ona yurtini tashlab ketishga majbur qiladi.Begona yurtlarda podsholik qilsa-da,buni Bobur o`zi uchun xatolik va yuzqarolik deb hisoblaydi.Darhaqiqat,donishmandlarimiz ta`kidlaganidek, “O`zga yurtda shoh bo`lguncha,o`z yurtingda gado bo`l”.Haqiqatan ham,mana shu maqolning isbotini Boburning hayotida ko`rsak bo`ladi.O`zga yurtda butun bir saltanatni boshqarsa-da,o`z yurtining tuprog`ini qumsaydi,uning diydorini ko`rishga intiladi.Yurtidan olib borilgan har bir narsani ko`z yoshi bilan qarshi oladi.

Yod etmas emish kishini g`urbatda kishi,

Shod etmas emish ko`ngulni mehnatda kishi.

Ko`nglum bu g`ariblikda shod o`lmadi,oh,

G`urbatda sevinmas emish,albatta,kishi.

Quyidagi ruboiydagi “g`urbat” da so`zi “g`ariblik”, “Vatandan uzoqda bo`lish” kabi ma`nolarda qo`llangan.Uning g`ariblik yillarida yaqin do`stlari tashlab ketishgan va xiyonat qilishgan.O`zga yurtda shod-xurramlik va xushnud damlari ko`p bo`lsa-da,bu bilan u aslo shod bo`lmaydi va “g`urbat” da kishining ko`ngli sevinmasligini qayta-qayta takrorlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda ,Bobur go`zal fazilatlar, maqtovlarga loyiq sifatlarga ega bo`lgan podshohdir. U mard,tadbirkor, hozirjavob, muruvvatpesha, shijoatli, iqtidorli inson bo`lganligini va san`atni, adabiyotni, hayotni seva olganligi tufayli butun yurt ichida buyuk siymo bo`lib gavdalanadi.Biz Boburning asarlari orqali adibning shaxsi , uning tarjimayi holi,qiziqishlari, insonlarga bo`lgan munosabatini yaqqol ko`ramiz va uning rostgo`ylik, mardlik, adolatparvarlik, mehribonlik, qattiqqo`llik xususiyatlariga ega ekanligi bilib olamiz. Boburning boshiga tushgan qiyinchiliklarda unga ayrim bek va amaldorlar yaxshi iltifot ko`rsatmaganini aytadi. Buni quyidagi misralar orqali bilib olamiz.

Kim ko`rubtur,ey ko`ngul, ahli jahondin yaxshiliq?

Kimki ondin yaxshi yo`q, ko`z tutma ondin yaxshiliq.

Demak, Bobur ijodiga nazar tashlar ekanmiz, har bir misrasida hayotni, Vatanni sevish tuyg`ulari ufurib turganligiga guvoh bo`lamiz.Ulug‘ shoir ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari bilan barkamol avlod tarbiyasiga ulkan hissa qo‘shgan, umuminsoniy fazilatlar haqidagi qarashlari esa zamonamiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi.Bobur asarlarining umuminsoniy g‘oyasi o‘zbek adabiyoti dovrug‘ini dunyoga tanitishga qaratilgan insonparvarlik, millatparvarlik, adolat, do‘stlik, tinchlik, ezgulik va sadoqat, sof muhabbat va vafo, ma’rifat kabi go‘zal tuyg‘ularni yuksak badiiy ifoda etish orqali barkamol shaxs obrazini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik.

S.Ahmedov,B. Qosimov ,R.Qo‘chqorov,Sh.Rizayev.-T.:"Sharq" , 2015.

2.B.To‘xliyev.Toshkent: "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" .2017.

3.Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. -T.: Fan, 1994.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR – BUYUK SHOH VA SHOIR

Sulaymonova Shoxsanam Absamatovna
Chirchiq davlat pedagogika instituti, Tarix kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida va o‘zbek adabiyoti tarixida o‘ziga xos mavqeini egallaganligi haqida fikrlar bildirilgan.

Аннотация: В статье выражено мнение о том, что Заҳириддин Муҳаммад Бабур занимает особое место в общественно-политической жизни нашей страны и в истории узбекской литературы.

Abstract: The article expresses the opinion that Zahiriddin Muhammad Babur has a special place in the socio-political life of our country and in the history of Uzbek literature.

Kalit so‘zlar: mumtoz, sarkarda, hukmdor, obodonchilik, muhtasham, donishmand, mahorat.

Ключевые слова: классический, полководец, правитель, благоустройство, величественний, мудрый, мастерство.

Keywords: classic, commander, ruler, beautification, mafnificent, wise, kill.

Xalqimizning abadiyatga dahldor buyuk farzandi sifatida bu yil tavalludining 539 yilligi nishonlanayotgan Zahiriddin Muhammad Bobur mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayoti va o‘zbek adabiyoti tarixida o‘ziga xos mavqega ega. Jahon tarixida Bobur kabi shaxsiy barkamol, yuksak iqtidor va fazilatlar sohibi bo‘lgan kishilar juda kam uchraydi.

Biz Bobur timsolida – buyuk shoh, mahoratli sarkarda, mumtoz shoir, nazariyotchi adabiyotshunos, fiqhshunos, tilshunos, san’atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni kabi ko‘p qirrali faoliyat va ijod sohibini ko‘ramiz.

Birgina “Boburnoma” asarining o‘zi uning yigirmadan ortiq sohalar bilimdoni ekanligini yaqqol namoyon etadi.

Bobur birinchi navbatda, shoh, Boburiylar sulolasining asoschisidir. U podshoh sifatida lashkar tortib shohlarga xos mag‘lubiyatlarning achchiq alamlariyu zafarlarning ulug‘vor nashidalarini surishni ko‘p marotaba o‘z boshidan kechirdi. Samarqandda Shayboniyxondan yengilgach Kobulni egallaganidan so‘ng, o‘sha vaqtlarda mayda rojaliklarni birlashtirib Hindiston hukmdoriga aylandi.

Shoh Bobur Hindistonda temuriylarga xos ulug‘ bunyodkorlik ishlarini olib bordi: muhtasham qasrlar qurish va eskilarini tiklash, ariq kanallar qazish, bog‘-rog‘lar bunyod etish, adabiyot, ilm-fan rivojiga homiylik qilish, elni adolat bilan boshqarish singari fazilatlar keyinchalik Hindistonning buyuk farzandlari tomonidan haqli ravishda e’tirof etildi va ijobiy baholandi. Hindistonning buyuk donishmand farzandi, davlat arbobi Javohir-lal’ Neru o‘zining “Hindistonning kashf etilishi” va “Jahon tarixiga bir nazar” asarlarida Zahiriddin Muhammad Bobur haqida samimiyatga yo‘g‘rilgan quyidagi fikrlarni bildirgan: “Bobur dilbar shaxs. Uyg‘onish davri hukmdorining haqiqiy namunasidir. U mard va tadbirkor odam bo‘lgan”.

Buyuk tarixiy siymo sifatida Bobur shaxsi Yevropa va AQSH sharqshunos-tarixchi olimlari diqqat e’tiborini o‘ziga jalb etgan. Ingliz tarixchisi Eduard Holden avvalo Boburni mashhur Yuliy Sezar bilan qiyoslashni lozim topadi: “Bobur fe’l-atvoriga ko‘ra Sezarga qaraganda sevishga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo‘yilgan”.

Zahiriddin Muhammad Boburning o‘smirlik yillari haqida roman yozgan “Boburnoma”ning ingliz tarjimoni Uilyam Eskin Boburni Osiyo podshohlariga qiyosan shunday baholaydi: “Saxovatli va mardligi, iste’dodi, ilm-fan va san’atga muhabbati , ular bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanishi jihatdan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi”.

Bobur devon tartib bergan shoir sifatida buyuk daho shoir Alisher Navoiyning yonida turadigan mumtoz so‘z san’atkori, shoir va adibdir. Shuni alohida qayd etish

o‘rinliki, badiiy mahorat bobida biror o‘zbek shoh va shoiri Bobur bilan bellasha olmaydi.

O‘z yurtiga sodiqlik, vatanparvarlik Bobur shaxsida shunchalik kuchli namoyon bo‘ladiki, buyuk shoh Bobur endi ona yurti Andijondan yiroqlikni, garchi Hindiston taxti sohibi bo‘lsa ham, qismatdagi yuz qarolig‘, deb hisoblaydi:

Tole’ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab netayin ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Hech bir shoir Vatandan yiroqlik fojiasini Boburchalik har tomonlama va ta’sirchan ifodalay olmagan bo‘lsa kerak.

Bobur jozibali mumtoz g‘azallar ijodkorigina emas, u ruboiy janrida ham o‘z shaxsiy uslubini namoyish eta olgan ulkan san’atkordir. O‘zbek mumtoz adabiyotining ruboiy janrida Boburning o‘rni alohidadir.

Falsafiy va tasavvufiy ruboiychilikda Umar Xayyom fors adabiyotida peshvo bo‘lganidek, Bobur o‘zbek adabiyoti ruboiychiligida ikki jihatdan: ruboiylarining ko‘pligi va ruboiyga hasbi hol, ya’ni tarjimai holga doir detallarni singdirgani bilan boshqa mumtoz shoirlarimizdan ustun turadi. Shunisi e’tiborliki, Bobur ruboiylarining mavzulari g‘oyat xilma-xil. Falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy-ta’limiy, diniy-tafavvufiy, sevgi-muhabbat, do‘stlik totuvlik, hayotga muhabbat, jo‘mardlik va tantilik, yoru-diyor, nifoq va noittifoqlik , hayotdan to‘yib ketish va dalli devonalik singari talqinlar ma’naviy teranligiyu tabiiyligi bilan o‘quvchini mutolaaga moyil etadi.

Ta’bir joiz bo‘lsa, aytish mumkinki, “Vaqoe’ ” (“Boburnoma”) Bobur sarguzashtlarining voqeiy tarixiy lavhalaridan iborat bo‘lsa, uning ruboiylari ana shu qomusiy asarga o‘ziga xos ilovadir. Zotan “Boburnoma” voqealar bayoni bo‘lsa, ruboiylar o‘sha voqealar ishtirokchisi Boburning his-tuyg‘ulari g‘alayoni ifodasidir.

Bobur fiqh sohasiga doir asar ham yozgan. Fiqh musulmonchilik farz va sunnatlari haqidagi amaliy nizom ilmi, ya’ni qonunshunoslikdir. U bir umr

shariatpanoh hukmdor bo‘lib yashadi, shariatga amal qildi, sha’riy hukmlar berdi va fiqhga oid “Mubayyin” nomli asar yozdi. Ushbu kitobda muallif farzandlari bilishi zarur bo‘lgan farz asoslarini (imon, namoz, ro‘za, zakor, haj) o‘tash masalalarini she’riy usulda butun mufassalligi bilan bayon etdi.

XVI asrgacha fiqhga oid asarlarning asosan arab va fors tillarida bitilganini inobatga olsak, el ustida turgan Boburning o‘z millatdoshlari o‘zbeklar tushunadigan tilda bunday asarlar yaratgani naqadar muhim va dolzarbligini yanada aniqroq tasavvur etish mumkin.

Bobur va Boburiylar sulolasi Hindistonda buyuk davlat barpo qilish bilan bir qatorda, ushbu yurtda obodonchilik ishlarini olib borishgan va mamlakatda ilm-ma’rifatning yuksalishiga kata hissa qo‘shishgan. Shuningdek, Bobur va uning avlodlari tomonidan Toj Mahal, Shoh Akbar maqbarasi, Agra va Dehlidagi qizil qal’alar kabi mahobatli me’moriy obidalar barpo etilganki, ular hozirda ham nafaqat hindistonliklarning, balki butun dunyodan tashrif buyuradigan sayyohlarning sevimli maskanlari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z. Mashrabov, S.Shokarimov. “Asrlarni bo’ylagan Bobur”. T., 1992
2. S.Jalilov. “Bobur va Andijon” T.,1993
3. Q.Kenja. “Hind sorig’a”. T., 2000
4. H.Sultonov. “Boburiynoma” T., 1997

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР ШАХСИ ХУСУСИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР

Бекзод Нуралиевич МИРЗАЕВ

ЖДПИ Тарих ва уни ўқитиш методикаси кафедраси ўқитувчиси,

Жўмарт АҚБЎТЕВ

ЖДПИ магистранти

Аннотация

Ушбу мақолада XV асрнинг охири - XVI асрнинг биринчи ярмида Мовароуннаҳр ва Хуросоннинг сиёсий ва ҳарбий майдонида фаолият кўрсатган Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳақида манбаларга таянган ҳамда қисқача мулоҳаза юритилган.

Аннотация

Эта статья основана на источниках и кратко обсуждает Захириддина Мухаммада Бабура, работавшего на политической и военной арене Мовароуннахра и Хорасана в конце 15 - начале 16 веков.

Abstract

This article is based on sources and briefly discusses Zahiriddina Muhammada Babura, who worked on the political and military arenas of Movarounnaxra and Khorasan in the 15th - beginning of the 16th century.

Калит сўзлар: *Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Шайбонийхон, Убайдулла Султон, Мовароуннаҳр, сафавийлар.*

Ключевые слова*: Захириддин Мухаммад Бабур, Шайбанихан, Убайдулла Султан, Мовароуннар, Сефевиды.*

Keywords*: Zakhiriddin Muhammad Babur, Shaybanikhan, Ubaydulla Sultan, Movarounnar, Sefevidy.*

Маълумки, тарихда жасур саркарда, одил ҳукмдор сифатида ном қозонган Заҳириддин Муҳаммад Бобур илм-фан ва санъат ҳомийси, бой адабий ҳамда илмий мерос қолдирган бетакрор шоир, олим ҳисобланади. Зеро, Биринчи Президентимиз Ислом Каримов таъкидлаганларки: “Халқимизнинг Навоий, Улуғбек, Бобур, Машраб, Фурқат, Қодирий ва юртимизнинг бошқа буюк фарзандлари юбилейларини ўтказиш тўғрисидаги қарорини жуда руҳланиб кутиб олганлигини бежиз эмас, деб ўйлаймиз. Уларнинг мероси Ўзбекистон халқлари умуминсоний қадриятларининг равнақи ва бойишига хизмат қилиб келган эди ва бундан буён ҳам хизмат қилади. Биз уларнинг бебаҳо меросини халққа, аввало, ёшларга етказиш учун барча ишларни қиламиз" [1,4-бет].

Буюк бобокалонимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ҳаёти ва ижоди, фаолиятини ўрганиш ҳар доим ўзбек олимларини эътиборини ўзига тортган. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ижодини ўрганиш, айниқса, мамлакатимиз мустақилликка эришганидан кейин юксак поғонага кўтарилди. Хусусан, ўзбек олимлари Абдугафуров А., Қудратуллаев Ҳ., Вохидов Р., Нуриддинов М., Иброҳимов А., Нуритдинов М., Файзиев Т., Зохидов.В., Абдуллаева М., Қодиров П., Азимжонова С. ва бошқалар Бобур ҳаёти, фаолияти ва ижодининг тарихий, адабий, саргузаштлик ҳусусиятлари ҳақида изланишлар олиб борганлар. Жумладан, Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва фаолияти билан боғлиқ татқиқот ишларинии олиб борган А.Абдугафуров ўзининг “Навоий ва Бобур (Буюк бешлик сабоклари)” номли монографиясида нафакат Заҳириддин Муҳаммад Бобур балки шеърият мулкининг султон Алишер Навоийларнинг ижодлари ҳақида бўлибгина қолмай бир сўз билан айтганда темурийлар даври маданий, ижтимоий-иқтисодий ва қисман сиёсий ҳаёти тарихини ҳам ёритиб ўтган [2, 26-бет].

Захириддин Муҳаммад Бобур 1483-йилнинг 14-февралида Андижонда, Фарғона улусининг ҳокими Умар Шайх Мирзо оиласида дунёга келди. Бу даврда Марказий Осиё ва Хуросонда турли ҳокимлар, ака-укалар, тоға-жиянлар, амакиваччалар ўртасида ҳокимият улуғ боболари Амир Темур тузган

йирик давлатга эгалик қилиш учун кураш ниҳоятда кескинлашган эди. Адабиёт, нафис санъат, табиат гўзаллигига ёшлигидан меҳр қўйган Заҳириддин, барча Темурий Шаҳзодалар каби бу илмларнинг асосини отаси саройида етук устозлар раҳбарлигида эгаллади [3].

Захириддин Муҳаммад Бобур ўз даврида Шарқ маданияти, адабиёти ва шеъриятида ўзига хос ўрин эгаллаган адиб, шоир, олим, йирик давлат арбоби, географ, тарихчи бўлиши билан бир қаторда фидокор ўғил ва жонкуяр ота ҳам бўла олган. Бобур ҳаёти ички зиддиятларга тўла бўлган. XV асрда Хуросонда Қариндошлар ўртасидаги ҳокимият учун бўлган кураш Бобурни ҳам четлаб ўтмаган. Шундай таҳликали қийин даврда улкан истеъдодини намоён қила олган ва ўзидан муноси фарзандлар қолдира олган. Ўша даврда Бобур курашга шунчалар шўнғиб кетган, бу курашлар уни шу даражада қаритиб қўйга эдики, уни кўришга Қундуз шаҳрига келган Хонзодабегим укасини кўрганда уни таний олмаган экан. Уни 18-19-ёшларида охирги марта кўрган Хозодабегим елкалари туртиб чиққан, соқол мўйлови таршланган ҳолда кирган Бобурни хизматкор деб ўйлаган экан [4,371-бет]. Лекин Бобур жуда матонатли инсон эдики турмуш, салтанат ташвишларининг совуғига кўкрак кериб тура олган. Бобур фарзанд тарбиясида ҳам юқори чўққиларни забт этган отадир. У энг аввало кечиримлиликни илгари сурган. Маълумки ўша даврдаги тахт учун жангларда жигар бир-бирининг қонини тўкишгача борганлар. Лекин у ҳар қандай бўҳтон уйдурмалар олдида жиззакилик қилмаган ва вазминликни сақлай олга ҳолда муаммолар ечимини излаган. Бобур бундай ҳиёнаткор жигарлар қаршисида ҳам оқилона қарорлар чиқара олган. Бундай хислатларни давомчиси Ҳумоюн ҳаёти давомида ҳам учратиш мумкин. Бобурниг бу борадаги фикрларига эътибор қаратадиган бўлсак, “Улуғлар кўтармлилик бўлғайлар “дея эътироф этган [5,251-бет]. Хонзодабегим томонидан Ҳумоюнга эслатма қилинган Бобурнинг бу гапларининг мазмуни шундай эдики, ўзини улуғроқ ҳисоблаган киши кечиримли бўлади. Тўрт ака-ука Қобулга келиб, баланд тепалик устидаги Бобур мақбараси кўтарилиб, ота руҳи олдида аҳлликни

бузмасликка онд ичишади. Шоҳликнинг ўзига тортар дилрабоси барибир оға-инилар орасига совуқчилик солади. Орадан икки йил ўтар ўтмас Мирзо Аскарий Ҳумоюнга қарши бош кўтаради. Ҳумоюнга ота меърос вазминлик уни кечиришга мажбур қилади. Мирзо Аскарийга ҳажга бормоққа имкон берилади. Аммо Мирзо Аскарий ҳаж йўлида вафот этади. Ака-укалар орасидаги битимни биринчилардан бўлиб Камрон Мирзо бузган дейилади [5,290-бет].

Ҳумоюннинг табиати, ҳаёт ва салтанат тизгинидаги қарорлари барча-барчасида отаси Бобурнинг нафаси, Бобурнинг инсонпарварлиги, Бобурнинг ишонувчанлиги, Бобурнинг раҳмдиллиги, Бобурнинг Кечиримлилиги уфуриб туради.

Бобурнинг шоҳлик сиймосидаги босиб ўтган йўли қанчалик тақдир қийинчиликларига бой бўлмасин ота сиймосидаги йўли унданда оғирроқ кечган. Бобур салтанат ташвишларидан бош кўтара олмай фарзанд тарбиясига ўз наздидагидек вақт ажрата олмаганини ўз битикларида бир неча бор келтириб ўтган.

Бобурнинг муҳораба майдонидаги ғалабаларини таъминлаган омиллардан бири, балки энг муҳими, унинг разведка хизматидан фойдаланиш қобилиятидир. Айни шу маҳорат минглаб лашкарларни ўлим балосидан асрашда, урушни ўз фойдасига ҳал қилишда, қолаверса, атрофидаги кишилар руҳияти, шахсиятини янада яхшироқ англашида, душман нияти – сирасроридан аввалроқ воқиф бўлишда Бобурга қўл келган. Таъкидлаш жоизки, разведка хизмати тарихи узоқ ўтмишларга бориб тақалади. Ундан оқилона, тактик жиҳатдан пишиқ фойдаланган шахсгина юксак натижаларга эришган. Шоҳ ва саркарда Бобурнинг юксак мантиқий таҳлили, уруш шароитини яхши англаши, яшиндек тез хулосага келиши, разведка хизматига ўз фурсатида мурожаат этиши ва қарийб адашмаганлиги кишини ҳайратга солади [6]. «Бобурнома»дан бунга кўплаб мисоллар келтириш мумкин. 1503-1504 йилги воқеалар. Бобур Мовароуннаҳрдан ноумид бўлиб, Кобулга юз тутган, Ҳисор вилоятининг Илоқ яйловларини кезиб, тақдир бундан кейин унга не кунларни раво кўришини ўй-

хаёлларидан ўтказаётган мураккаб давр, бор-йўғи «ушбу юртта йигирма уч ёшнинг ибтидосида юзумга устара қўйдум» [7,122-123-бетлар], деб навқирон йигитлигига урғу берган пайти. Ёш Бобур бу юртларда ҳукмронлик қилаётган Ҳисор беги, кейинроқ ўзининг ашаддий душмани бўлган Хисравшоҳ ва унинг салтанати ҳақида маълумотга эга бўлиш учун Мулло Бобойи Пашоғарийни «элчиликка» юборади. Бобурнинг бундан мақсади элчи йўллашгина эмас, зарур маълумотга эга бўлиш эди. Лекин, Бобурнинг таъкидлашича, Пашоғарий «кўнгулга ёққудек сўз келтурмади» [7,125-бет]. Аслида, Пашоғарий жудаям қуруқ қайтмаган. У одамлар орасида бўлиб, айрим зарур маълумотларни етказган: «вале эл ва улусдин сўзлар келтурди» [7,125-126-бетлар].

Бобурнинг ҳарбий-стратегик режалари яъни разведкачилик ишлари борасида ҳам шуни кўрсатиб ўтиш мумкинки, «1509- 1510 йилнинг бу қиши анча кеч келиб, Бобурга черикнинг озиқ-овқати ташвиши ором бермаётган пайт. У ёзади: «Сешанба куни ойнинг еттисида бекларни ва дилазак афғонлари улуғларини тилаб, кенгашиб, сўзни мунга қўюлдиким, йил охир бўлубтур, ҳутға бир-икки кун қолибтур, туздаги ошлиқни тамом кўтарибтурлар. Бу фурсатта Саводқа борсак, черик эли ошлиқ топмай танқислиқ бўлғусидур» [7,144-145-бетлар]. Бобур ўзининг лашкарлари билан жуда машаққатли довон, адирларни кезиб охири Панкялий деган жойга тушадилар. Маҳаллий шароитни билиш, кейингина бир қарорга келиш учун Бобур «Ўғонбердини бир неча киши била тил олғали илгаррак» юборади. Бироқ, Ўғонберди ҳам бу гал «кўнгул тилагудек таҳқиқ хабар келтурмади». [7,145-бет] Албатта, бу ҳол Бобурни қаноатлантирмаган. Бобурнинг бу галги хабарчилари аниқ маълумот олиб келмаганларидан сўнг, у таваккал қилиб ҳужумга ўтади, ғанимларининг «бир пора асир ва ўй ва галаларини» қўлга киритади. Бобурнинг шу жойдаги бошқа разведка маълумотини олиши у билан кураш олиб бораётган афғон саркардаларининг умумий ҳолати ҳақида бўлиб, унинг энди, қайси йўлни танлаши учун муҳим эди. Аслини олганда, худди шу фурсатларда, афғон ерларини унча яхши тасаввур этмаган Бобур учун бундай хабарлар зарур ва

разведка хизматининг асосий вазифаларидан бўлган. Бу маълумотлар юзаки қараганда жўнроқ кўринса-да, аслида Бобур ва унинг лашкарларини ўлимдан сақлаган, озиқ-овқатли мавзеларга етаклаган, кимга қарши курашишни олдиндан белгилаб берган.

Демак, Бобур бу муҳораба жангларга киргунга қадар уч марта разведка хизматига мурожаат этган. Унинг хабарчилари бу ернинг релефи, сув заҳираси, ҳолатини «кўруб-билиб» келишлари зарур бўлган. Бунда маълумот тўлақонлилигини таъминлаш, шубҳага ўрин қолдирмаслик топширилган. Бинобарин, хатоликка йўл қўйиш урушда енгилиш билан баробар бўлган. Бобур маълумотни олиб, қаноат ҳосил қилгандан сўнг тез хулосага келади: « ...бетаваққуф келиб қўшилғайлар». Яъни захирадаги қўшинлар унга келиб қўшилишини амр қилган. Шундан кейин ҳам кўнгли тўлмаган Бобур яна разведкадан фойдаланади ва ана шу хабардин кейин ва бу ерда жанг олиб боришга оид тайёргарлик ишларини якунига етказади. Чунки хабарчиларнинг маълумотига биноан заҳира кучлари унга етиб келади, душманнинг қаерга, қайси масофада келиб тушганлигидан огоҳ бўлади ва шунга қараб керакли жойларда қоровулларни тайинлайди: «Ҳумоюннинг навкари Бек Мирак мўғулни бир неча йигит била кофирдин хабар олғали йиборилди. Кечасига бориб, хабар олиб, тонгласи хабар келтурдиларким, ғаним киши Бусовардин бир куруҳ илгаррак келиб тушган эмиш. Ҳам ушбу кун Маҳдий Хожа ва Муҳаммад Султон мирзо ва Баянадағи илғор келиб қўшулдилар. Беклар навбат била қаравуллиққа таъйин бўлдилар» [7,146-147-бетлар].

Бобурнинг бу тиришқоқлиги, мақсад сари интилиши, юксак разведка қобилияти катта натижани берган. Натижа унинг кўнглидагидан ҳам яхши бўлади. Бобур муҳорабаларда жуда катта ютуққа эришади, ўзи ташаббус кўрсатиб Уста Аликули тўпчи билан яратган тўпларини ишга солиб, Иброҳим Лўдий устидан мутлақ ғалаба қозонади. Бу натижаларни қўлга киритишда, албатта, бевосита унинг разведкага оид қобилиятининг ҳам муҳим ҳиссаси бўлган.

Аждодларимизнинг ҳарбий салоҳияти тарихини ўрганиш ёш авлод қалбида Ватанга муҳаббат туйғусини уйғотишда алоҳида аҳамиятга эга. Бинобарин, миллатимизнинг ҳарбий тарихи деярли ўрганилган эмас. Биргина Бобур ҳарбий маҳорати кўплаб тадқиқотларга етарли материал бера олади. Бу масалаларни Бобурнинг моҳир адиб, шоир, олим, энциклопедик билим соҳиби сифатлари билан ҳамоҳанг ўрганиш, айниқса, янада катта самара беради. (Ҳасан Қудратуллаев. Бобурнинг разведка маҳорати (2004) [8, 6-7-бетлар].

Бобур характерига хос хусусиятларни ўз давридаги тарихчи олимлар ҳам баҳо берган. Хусусан, «Тарихи Рашидий» асарининг муаллифи Мирзо Мухаммад Хайдар, Бобурни: «сон-саноқсиз яхши фазилатларга эга эди, довюраклик ва валоматликда ҳамманинг орасида ажралиб турарди» [9,250-бет], -деб тасвирлаган.

Дарҳақиқат, Бобур ижодини мутолаа қилган киши Бобурнинг мардлиги, ишонувчанлиги, кенг қалбли, беғубор табиатли, самимий хислатларга бой, Неру таъбири билан айтганда, «дилбар шахс...» лигининг гувоҳи бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, Заҳириддин Муҳаммад Бобур мероси, инсоний олийжаноблиги, тарихий-маърифий, шу билан бирга, жуда катта ижтимоий-тарбиявий ва эстетик аҳамияти билан бир ваторда унинг комиллик белгиси бўлган инсонпарварлик, халқлар дўстлиги, осойишталик ва биродарлик учун кураш ғояларини хормай-толмай куйлаган Бобур, мустақил Ватанимиз тараққиётига ўз ҳиссаларини қушадиган, қушаётган баркамол ёшларни тарбиялашда, тинчлик, демократик жамият қуриш учун курашаётган, бир сўз билан айтганда, салоҳиятли, қобилиятли халқимиз фарзандлари ўтмиш меросимиз ҳамда ўз тарихимизни ўрганишда дастурул амал вазифасини ўтайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998. 34-бет.

2. Абдугафуров А. Навоий ва Бобур (Буюк бешлик сабоклари)-Тошкент, 1998. 160-б.

3. https://muslimaat.uz/zahiriddin-muhammad-bobur

4. П. Қодиров “Юлдузли тунлар” Тошкент, Наврўз, 2019. 576-бет.

5. П. Қодиров, “Авлодлар давони” Тошкент, Ёшлар, 2018. 529-бет.

6. https://mbaza.uz Zahiriddin_Muhammad_Bobur_hayoti_va_ijodi

7. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Ҳозирги ўзбек тилига В.Раҳмонов ва К.Муллахўжаевалар табдил қилишган. – Т,: Ўқитувчи, 2008. 288-бет.

8. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетаси 2004 йил 44-сони.

9. Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихий Рашидий / Таржимонлар: Ваҳоб Раҳмонов, Янглиш Эгамова, Масъул муҳаррир: акад. Азиз Қаюмов // Т.: “Шарқ”, 2010.720-бет.

БОБУРНИНГ ФОРС-ТОЖИК ТИЛИДАГИ ИЖОДИГА НУҚТАЙИ НАЗАРЛАР

Ҳикматов Ҳикмат Султонович
Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти ўқитувчиси

АННОТАТСИЯ

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўрта аср Шарқ маданияти ва адабиётида муҳим ўрин тутган ҳолда идеал инсон сифатида ҳам танилган. Дарҳақиқат, Бобур ўзини кенг дунёқараш ва комил заковати билан, нафақат бир таниқли адиб, балки етук муаррих, шоир, олим, санъатшунос, табиб, таржимон, буюк шоҳ ва саркарда сифатлари билан ҳам машҳурдир.Бобурнинг ҳақиқий ошиқлигини уни форс-тожик тилида ёзган ғазал ва рубойиларидан осонгина фаҳм этиш мумкин.

Калит сўзлар: саҳли мумтанеъ, асъори мутаволи, авзон, рукн, мафоилун , фард, таржеъбанд, маснўъ, қитъа;

ABSTRACT

Zahiriddin Muhammad Babur was also known as an ideal man, playing an important role in the culture and literature of the Middle East. In fact, Babur is known not only as a well-known writer, but also as a mature historian, poet, scholar, art critic, physician, translator, great king and commander. can be easily understood from the rubai.

Keywords: beach, literature, culture, gazelle, love, kindness, will, recitation, east, medieval

АННОТАЦИЯ

Захириддин Мухаммад Бабур также был известен как идеальный мужчина, сыгравший важную роль в культуре и литературе Ближнего Востока. На самом деле Бабур известен не только как известный писатель, но и как зрелый историк, поэт, ученый, искусствовед, врач, переводчик, великий царь и полководец.

Ключевые слова: пляж, литература, культура, газель, любовь, доброта, воля, декламация, восток, средневековь.

Инсонга хос бўлган барча фазилатларни ўзида тажассум этгани унинг тўғрисида айтган олимларни сўзларидан ҳам билиб олиш мумкин. Масалан, Жавоҳирлаъл Неҳру узининг “Ҳиндустонни кашф этиш” китобида келтиради: “Бобур ўзига диққатларни жалб этувчи шахсдир. У ҳукмдор шахс, ренесанс (эҳё) даврининг типпик соҳибкори ва мардидир. Санъат, адабиёт ва ҳаётни севар эди: айнан, шу нуқтаи назардан Бобур ҳаётга ҳавас кўзи билан боқиб, адабиёт ва санъат аҳлига алоҳида эътибор қаратган”.

Юқорида Бобурни табиб деганимиз бежиз эмас. Дарҳақиқат, уни “чумчуқда ҳам безгак касаллиги бўлади” деган сўзини кўп маротаба эшитганмиз. Бу айтгани шунчаки бир оддий сўз эмас, зеро ки унинг бу сўзидан ҳали ҳанузгача кашф этилмаган башоратли қобилиятини ҳам пайқаш мумкин. Яқин йилларда бутун жаҳон бўйича кенг тарқалган “парранда гриппи” айнан шу айтганига мос келади. Буюкларни очилмаган қирралари кўп бўлади. Бобур ҳам ана шу қабилийлардандир. Унинг етук таржимон сифатида танилгани ҳам асослидир. Адабиётшунос олима Шафиқа Ёрқин Туркияни Истамбул университети кутубхонасининг туркий қўлёзмалар бўлимидан 5-ғазал, 9-қитъа, 5-рубоӣ, 40 дан кўп фард, бир қанча маснўъ шеърлари, 1 маснўъ таржеъбанд, 2-хатни ўзбек тилида, 1-ғазал, 10-рубоий, 4 қитъа, 12 фард ва 1 хатни тожик тилида топганини эълон қилган. Садри Саъдиев,Хусрав Ҳамидов, Адабиёт” (10-синфлар учун дарслик),-Тошкент,”Чўлпон” 2017 й. Буларни ажойиблиги

шунда ки, бу қўлёзмалар ҳали ҳанўз бирон бир манбаъларда Бобурнинг номига кўрсатилмаган ва нашр этилган мажмўаларида назарга тушмаган эди. Бундан ташқари, Бобур шаръий ақидалари тўғрисида “Мубаййин” асарини ёзиб, Хоҷа Аҳрорнинг “Волидия” рисоласини таржима қилган.

Шу ўринда Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг форс-тожик тилига бўлган эътибори, меҳру муҳаббати ва завқини очиб бериш ниятида, уни тожик тилида ёзган ғазаллари ва рубоийларидан намуналар келтирмоқчимиз. Шоирнинг даврида давлатчилик тили форс тили бўлган ва бу тил Ҳиндустонни Буюк Британия забт қилгунига қадар давом этган. Бу ҳақда кейинроқ яна тўхтаб ўтамиз. Бироқ бизни мақсадимиз Бобурнинг нақадар форс-тожик тилида билимдонлиги ва сўз устаси эканлигини билишдир. Шоир форс тилида ёзган рубоийларида суханбозлик усулларидан ўта моҳирлик билан фойдаланган. Агар форс тилини чуқур билмаганда суханбозлик санъатида байт ва рубоийлар яратмас эди.

Жумладан:

Шоҳам, ба ту маълум нашуд, ман чӣ кунам?

Оҳам ба ту маълум нашуд, ман чӣ кунам?

Ман абрўву рў гўяму ту бадру ҳилол,

Моҳам, ба ту маълум нашуд, ман чӣ кунам?

Мазмуни: мен шоҳман, сенга маълум бўлмаган бўлса, мен нетай ё ким оҳим сенга аён бўлмаган бўлса, айтчи мен нетай, мен сенга юз билан абрў тўғрисида сўзласам, сен эса менга бадр билан ҳилол борасида гаплашасан, моҳим (ойим) сенга маълум бўлмади, айтчи мен нетай.

Айнан ана шу рубоийда, бир ҳарфни ўзгартириш санъати билан ё уни ихтисорлаш натижасида, уч мисраъ шеърни таркиби ўзгарган. Мисраълар бошидаги “шоҳам”, “оҳам” ва “моҳам” деган қофиядош сўзларда пайдо бўлган

ўзгариш рубоийнинг ҳар бир мисрасида маъно ўзгарганини таъминлайди. Демак, Заҳириддин Муҳаммад Бобур форс тилини барча нозук жиҳатларидан мукаммал хабардор бўлган.

Агар шоирни форс тожик тилида яратган ғазалларига назар солсак, биринчидан ҳар бир мисраъни равонлигидан тез пайқаш мумкин ки дар ҳақиқат бу каби мисраъларни ўта санъат устаси ва ўта фозил кишигина ярата олади.

Масалан:

Зи нав дар дидаам маъво намудӣ,

Бар ин кошонаи дил ҷо намудӣ.

Нигоро, боз аз он савдои зулфат

Маро ошуфтаву шайдо намудӣ.

Диҳам ҷон аз ғамат ҳам, ғам надорӣ,

Ту худро аз чӣ бепарво намудӣ?

Бияндозӣ чу тирам то зи абрӯ,

Чу моҳи нав ту абрӯ ё намудӣ.

Равад аз дида ашк, эй баҳри сад лутф,

Сиришки дидаро дарё намудӣ.

Нашуд пазмони ҷаннат ҳеҷ Бобур,

Ба қалбаш то ки ту маъво намудӣ.

Мазмуни: яна сен янгитдан мени кўзларим умқидан маъво олдинг ва шу ҳаракат ила қалбим кошонасида жо олдинг, нигорим, яна ўша зулфингни савдоси билан мени ғамгин этиб, ўзинга шайдо қилдинг, агарда мен ғамингга

тан берсам ҳам ки, сен парво ҳам қилмайсан, нима сабабдан сен ўзингни бунчалик бепарво айладинг, обрўйинг ўқлари ила жонимга кора қиласан ё ким сен ҳам янги ой каби абрў топдингми, сенга юзлаб лутфлар этаман деб кўзимдан ёшлар оқади, кўзёшларимни танҳо сен дарё айладинг, Бобур жаннатни ҳеж ҳам соғинмайди, ушал дамданки сен қалбида жо айладинг.

Ушбу ғазал арўз авзонини мафоилун рукнида ёзилган бўлиб саҳли мумтанеъ (содда ва равон) сабкида услубида бўлиб уни қироатида ҳеж қандай сактани ҳис этмайди киши. Бу шундан далолат беради ки Бобур форс-тожик тилини ўта мукаммал билган ва содда усулда жуда чуқур маъноларни ярата олган. Ғазалда қофия ва радиф ва ўринли ташбеҳ санъатидан устакорлик билан фойдалангани уни форс-тожик тилини қоидаларига не чоғлик ҳурмат билан қаралгани яққол маълум бўлади.

Бобурнинг форс-тожик тилида ёзган рубоийлари ва ғазаллари кўпинча ирфоний-фалсафий маъноларни касб этади. Уларда ишқи-илоҳий мазмундаги мисралари кўпроқ эҳсос қилинади.

Дунё ҳамагӣ ба ман муяссар гардад,

Дар кори бақо Илоҳ ёвар гардад.

Аз Ҳақ бувад ин талаб маро дар ду ҷаҳон:

Ҳар чи талабам, ҳама муяссар гардад.

Мазмуни: дунёнинг ҳама нарсаси менга муяссар бўлади, охират ишида Аллоҳ ёвар-дўст бўлади, Ёлғиз ҳақдандир бу талабимки, икки жаҳонда нимаики талаб қилсам барчаси муяссар бўлади.

Бобурнинг хирмонидан бошоқдай намуна келтиришимдан мақсад, у киши форс-тожик тилида ҳам ижод қилганига ишоратдир. Сабаби шу пайтгача шахсан бирон бир манбаъдан шоирнинг форс-тожик тилида ёзган алоҳида асарга гувоҳ бўлмаганмиз ва ҳатто ушбу мақолани ёзишдан олдин,бир олим

киши “Бобур форс-тожик тилида умуман ижод қилмаган” деганига гувоҳ бўлдим.. Аммо шоирнинг форс-тожик тилида ёзган ижодини ўқиганда буюк бир ушбу тил вакилини асарини ўқигандай бўлади киши. Чунки унинг ғазалларидаги мавзунлик ва соддабаёнлик, ё ки рубоий ва байтларида оддий ва равонликларни сезиб, шахсан ўзи ёзганига гувоҳ бўлгандай бўламиз. Дар ҳақиқат, шоир ва шоҳ Бобурнинг ҳукмдорлик даврида форс-тожик тили давлат тили сифатида тан олинганлиги боис бўлиши мумкинки унинг ижодида аслилик хусусияти сезилади.

Шу ўринда покистонлик донишманд киши – Сайид Муҳаммади Акрамни афсусу надоматлар билан айтган сўзларини келтиришни раво деб биламан:” Форс тили мамлакатнинг асъори мутаволи (узоқ асрлар) расмий тили эди, уни ўрганиш ифтихор эди,муҳаббат саналар эди,мазҳабий тиллардан азизроқ эди,она тилидан ширинроқ билинар эди, шеърият ва завқ тили эди,юрак ва руҳият тили эди,ўз диёрида ғариб,ажнабий ва нотаниш тилга айланди.Бу ғамангиз ва риққатли достондир ким унга ҳатто қалам йиғлайди”. Ўзбекбой Раҳмон, “Розҳои таърих”(Таърих сирлари),Навоий, 2018, 36 – бет.

Ушбу сатрлардан ўз-ўзидан аён бўлади,модомики форс тили Бобур даврида ифтихор ва муҳаббат тили бўлган экан, унда уни бу тилга ишқу завқи баланд бўлган ва ҳеж қандай шаксиз шоир форс-тожик тилида ижод қилган.Умид қиламиз ки келажакда олимларимиз шоирнинг форс-тожик тилида ёзган шеърларини қўлёзмалар асосида исбот қилиб берадилар ва юқорида айтганимиздек турли асосиз гапларга ўрин қолмайди.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Садри Саъдиев,Хусрав Ҳамидов,”Адабиёт”, (10 синфлар учун дарслик),-Тошкент,”Чўлпон” нашриёти,2017.
2. Ўзбекбой Раҳмонов “Розҳои таърих”,(Таърих тилга кирганда) “Алишер Навоий” нашриёти, -- Навоий, 2016, 36 бет.
3. Ҳикматов, Ҳ.С.(2021). ТАФСИРИ МУХТАСАР МЕБОЯД. Academic Research in Educational Sciences, 2(10)? 1008-1013. https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-10-1008-1013
4. Ҳикматов Ҳикмат Султонович, (2021). ТАВСИЯҲО ДОИР БА ТАРЗИ ТАЪЛИМИ МАВЗЎИ “ҲАЁТ ВА ФАЪОЛИЯТИ АБЎАБДУЛЛОҲИ РЎДАКӢ” ДАР СИНФИ 7. Involta Innovatsion Scientific Journal. Vol. 1,ISSUE 1, 2021. December. www.involta.uz .
5. 48.Ҳикматов Ҳ.С. (2021). МУЛОҲИЗАҲО ПЕРОМУНИ ТАРЗИ ТАЪЛИМИ ИБОРА. Academic Research in Educational Sciences, 2 (12), 307-314. https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-12-307-314

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING IJODKORLIK MAHORATI

Nasrilloyeva Yulduz Zikrillo qizi
ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti

Anotatsiya: *Mazkur maqolada ijodiy matn yaratishda Z.M.Boburning badiiy salohiyati borasidagi fikrlar o‘rin olgan, shuningdek, ijodiy matnlarning turlari haqida ham ma’lumotlar berlgan.*

Annotation: *This article contains ideas about the artistic potential of Z.M. Bobur in the creation of creative texts, as well as information about the types of creative texts.*

Аннотация: *В данной статье содержатся представления о художественном потенциале З.М. Бобура в создании творческих текстов, а также сведения о видах творческих текстов.*

Kalit so’zlar: *lingvopoetika, matn lingvistikasi, sintagmatik, pragmatik, estetik, kommunikativ, intermatn, semantika, kreativlik, lisoniy sath.*

Key words: *lingvopoetics, text linguistics, syntagmatic, pragmatic, aesthetic, communicative, semantics, creativity, linguistic level.*

Ключевые слова: *лингвопоэтика, лингвистика текста, синтагматический, прагматический, эстетический, коммуникативный, семантический, творческий, лингвистический уровень.*

Ma’lumki, Z.M.Bobur o‘smirlik yoshlaridanoq badiiy ijod bilan shug‘ullangan. Shoir 12 yoshida taxt vorisi sifatida taqdir zarbalariga duch kelsa-da, badiiy iqtidori kengligi bois ham nasr, ham mazmda birdek qalam tebratdi. Boburning shoirlik iqtidori uning yuksak badiiy didini va salohiyatini namoyon etib boorish barobarida uning suronli hayot yo‘lini ham hasbu holi bo‘lib hisoblanadi. Bobur so‘zning

salmog‘ini, ma’no ottenkalarini his eta olgan ijodkor va favqulotda nozikta’b insondir.

Bobur g‘azallarining lingvopoetikasi borasida ham bir qator tadqiqotlar olib borilganligi uning betakror mahoratini ko‘rsatadi.

Biz bilamizki, O’zbekistonimiz mustaqillikka erishib, o‘zining taraqqiyot yo‘lidan tobora olg‘a intilmoqda. Har bir sohada yuz berayotgan islohotlar buning yorqin dalili hisoblanadi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”deb nomlangan kitoblarida ta’kidlaganlaridek, “O‘tgan davr mobaynida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va ta’sirini kuchaytirish, uni tom ma’nodagi milliy qadriyatga aylantirish yo‘lida ilgari tasavvur ham qilib bo‘lmaydigan ulkan ishlar amalga oshirildi. Istiqlol yillarida O‘zbek tilining qo‘llanilish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o’ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o‘quv qo‘llanmalari, yangi-yangi lug‘atlar ko‘plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda”.[1]

Darhaqiqat, o‘zbek tilshunosligi o‘tgan davr mobaynida sezilarli yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Buni olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda tilning barcha sathlarini keng qamrab olinishida ham ko‘rishimiz mumkin. “Lingvopoetika”, “Matn lingvistikasi” singari sohalar rivoji ham badiiy matn bilan aloqador bo‘lgan bir qator ilmiy izlanishlarga sabab bo‘ldi. Jumladan, tilshunos olim A.Mamajonovning “Tekts lingvistikasi” nomli qo‘llanmasida matn va uning o‘ziga xos xususiyatlari, matn turlari, matn qismlarini bo‘g‘lovchi vositalar haqida, E.Qilichevning “Matnning lingvistik tahlili” qo‘llanmasida matn ko‘rinishlari, badiiy matn va uni lisoniy tahlil qilish xususida, M.Hakimov “O‘zbek ilmiy matnning sintagmatik va pragmatik xususiyatlari” nomli nomzodlik ishida matn, xususan, ilmiy matnning sintagmatik va pragmatik jihatlariga, M.Yo‘ldoshev “Badiiy matn va u uni lingvopoetik tahlili asoslari” nomli qo‘llanmasida badiiy matn va uning lisoniy xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan.

Matnning tuzulishi va shakllanishi jarayonida yozuvchining maqsadi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan ana shu maqsad matn tipini, undagi lisoniy birliklar va qoliplarni belgilab beradi. M.Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek, “Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o‘zida turli uslub ko‘rinishlarini muallifning badiiy niyatiga ko‘ra erkin jamlay oladigan, tinglovchi yoki o‘quvchiga estetik zavq berish, ta’sir etish xususiyatiga ega bo‘lgan g‘oyat murakkab butunlik hisoblanadi”. [2]

Haqiqatdan ham, badiiy matnning asosiy maqsadi o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatish, estetik zavq berishdan iborat bo‘lib, unda tushinarlilik, soddalilik, qat’iy mantiqiy normalarga amal qilinmaydi. Badiiy tasvir vositalari orqali ohangdorlik, jozibadorlik oshiriladi va natijada inson hayolot dunyosini boyitish, estetik tafakkurini oshirish, qalbidagi nozik torlarini chertib to’lqinlanishiga, hayotni yanada yaxshiroq anglashiga turtki bo‘lib xizmat qiladi. Lekin bu tilning estetik vazifasini faqatgina badiiy matnlar uchun xizmat qiladigan debocha sifatida qarashga olib kelishi kerak emas. Tilshunos D.N.Shmelevning bu boradagi fikrlari ham bunga misol bo‘la oladi: “Tilning estetik vazifasi faqat badiiy asarlardagina namoyon bo‘lmaydi. Bizning diqqatimiz jumlaning shakliga, fikr qay tarzda ifodalanganligiga qaratilgan har onda biz aynan shu vazifaning harakati doirasiga kiramiz”.[3] Ya’ni biz tashqi olam bilan muloqotga kirishimiz jarayonida fikrlarimizga qaratadigan e’tiborimiz, uni bayon qilishda qanday tartibdan foydalanishni maqsad qilishimizning o‘zidayoq tilning bu vazifasidan foydalanishni boshlab yuborar ekanmiz. Bunda D.N.Shmelev: “Tilning estetik vazifasi, albatta, so‘zlashuv nutqida ham doimiy ravishda namoyon bo‘ladi. Lekin baribir bu vazifani so‘zlashuv nutqida yetakchi deb bo‘lmaydi, badiiy matnlarda esa til hamisha ayni shu alohida vazifasi bilan ishtirok etadi(bu vazifa, albatta, tilning barcha ko‘rinishlariga xos bo‘lgan kommunikativ vazifasini cheklamaydi, balki uni o‘ziga xos bir shaklda transformatsiya qiladi)”.[4]

“Ma’lumki, yozuvchi yoki so‘zlovchining badiiy matn tuzishdan bosh maqsadi o‘quvchi yoki kitobxonga estetik ta’sir qilishdan iborat bo‘ladi. Ammo ayni paytda

yozuvchi yoki so‘zlovchi mazkur maqsadi doirasida ifodaning mazmunini shakllantirishda quyidagi niyatlarni ham ko‘zda tutishi mumkin:

1) o‘zining yoki qahramonning boshidan o‘tgan biror voqea- hodisa haqida hikoya qilish, xotiralari haqida so‘zlash;
2) qahramon qiyofasi va ichki dunyosi yoki voqealar bo‘lib o‘tayotgan joy, muhitni batavsil tasvirlash;
3) biror voqea- hodisaning ishonarliligini ta’minlash uchun turli dalil va izohlar keltirish, ayrim hodisalar mohiyatini izohlash;
4) kimgadir pand-nasihat qilish, hayotiy voqea-hodisalar orqali tarbiyalash, yo‘l yo‘riq ko‘rsatish, turli tavsiyalar berish;
5) biror bir voqea-hodisa haqida xabar berish, ogohlantirish, eslatish;
6) buyruq va turli ko‘rsatmalar berish, niyat-istak bildirish;
7) qahramonning ichki kechinmalarini, emotsional holatini, voqelikka hissiy munosabatini aks ettirish va h.k.

Ana shulardan kelib chiqqan holda, badiiy matnning quyidagi mazmuniy turlarini belgilash mumkin:

1.Hikoya mazmunli matn.

2. Tasviriy matn.

3. Izoh mazmunli matn

4. Didaktik matn.

5. Xabar mazmunli matn.

6. Buyruq-istak mazmunli matn.

7.Hissiy ifoda mazmunli matn”.[5]

Lekin shuni e’tirof etib o‘tish lozimki, badiiy matn murakkab va keng qamrovli bo‘lib, u o‘z ichida ushbu matn turlarining barchasi yoki bir nechtasining tarkibiy

qismlarini jamlagan holda shakllanadi. Shuning uchun ham matnning turini aniqlagan vaqtda yozuvchining ko‘zlagan maqsadi, asarning ruhiyatiga, unda ilgari surilayotgan g‘oyaga, ushbu g‘oyaga erishishda tanlangan yo‘lga ham e’tibor qaratish lozim. Ushbu nisbiy guruhlar ajratilgan bo‘lsa-da, barcha mazmuniy turlarning bosh maqsadi baribir estetik ta’sir qilishga qaratilgan bo‘ladi. Z.M.Bobur g‘azal va ruboiylarida tasviriy matnlar ustunlik qilsa, “Boburnoma” asarida esa hikoya matni ustunlik qiladi. Bobur g‘azallarida badiiy tasvir vositalari, badiiy san’atlar o‘ta nozik did bilan ifodalansa, “Boburnoma” asarida esa yengil bayon, hikoya matnining eng nodir jihatlari ochib beriladi. Ahamiyatlisi shundaki, bu ijodkor har ikkala janrda ham birday mahorat bilan qalam tebratgan. Boburona tashbehlar, qochiriqlar, so‘z o‘yinlari adabiyotimiz, she’riyatimizning tafakkur boyligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008. -86-b
2. M.Yo‘ldoshev. Badiiy matn lingvopoetikasi. –Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2008. -88-bet.
3. Шмелев.Д.Н. Русский язык в его функционалных разновидностях.-М: Наука, 1977. С.34.
4. Шмелев.Д.Н. Русский язык в его функционалных разновидностях.-М: Наука, 1977. С.35.
5. M.Yo‘ldoshev. Badiiy matn lingvopoetikasi. –Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2008. -104-bet.
6. Тураева. З.Я. Лингвистика текстаю –М.: Просвещение,1986.С.53

“BOBURNOMA”DA HINDISTON XRONOLOGIYASI VA METROLOGIYASIGA OID MA’LUMOTLAR TASNIFI

Ashrafova Zebiniso Olimovna.
BuxDu Tarix va madaniy meros fakulteti; etnografiya, etnologiya va antropologiya bo’limi 2- kurs magistranti

Annotatsiya*: Bu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yozilgan “Boburnoma” asarida keltirilgan Hindiston xalqining xronologiyasi va metrologiyasi tahlil qilingan. Shuningdek, ba’zi vaqt o’lchov birliklari hamda og’irlik o’lchovlari haqida aytib o’tilgan.*

Kalit so’zlar*: yil fasllari,pashakaal, hafta kunlari, sanichar, vaqt birliklari, gari, pos, og’irlik o’lchovlari, ser, botmon, misqol.*

Аннотация: *В данной статье анализируются хронология и метрология индийского народа, упомянутые в работе «Бабурнаме», написсанной Захирддин Мухаммад Бабур. Есть также некоторые ссылки на единицы времены, а также веса.*

Ключевые слова*: времена года, дни недели, саничар, единицы времены, гари, пос, единицы весы, сер, батман, мискал.*

Annotation: *This article analyzes data related to chronology and metrology of Indian people which is provided in the “ Boburnoma” written by Zahiriddin Muhammad Bobur. Moreover, the names of some time units and weight meassurements are also given in the article.*

Key words: *seasons, pashakaal, weekdays, sanichar, time units, gari, pos,weight meassurements, sir, batman, miskal.*

Zahiriddin Muhammad Bobur ikkita bebaho meros qoldirdi: biri, buyuk saltanati, ikkinchisi, asarlari, xususan, shoh asari “Boburnoma”dir. “Boburnoma”ning ahamiyati to’g’risida turli davrlarda turli allomalar ajoyib fikrlar bildirgan. Biroq F.Telbotning “Boburnoma” [1909] so’zboshisidagi quyidagi fikri, bizningcha, juda e’tiborga sazovordir: “Hozirgi Hindistonni o’rganmoqchi bo’lgan odam ishni, eng yaxshisi, Bobur xotiralarini mutolaa qilishdan boshlagani ma’qul”.[v] Bobur o’z saltanati hududlarini tobora olis viloyatlar tomon kengaytirib borar ekan, tartib-intizom saqlanishiga katta e’tibor berar, barchaga, ayniqsa, musulmon bo’lmaganlarga odilona munosabatda bo’lishga harakat qilar edi.[v] Bobur xudojo’y inson, ochiqko’ngil, shirinsuhan va mard ulfat sifatida o’z mulozimlari va askarlari orasida katta obro’-e’tibor orttirdi.[v] U har bir harbiy yurishlari davomida Hindiston o’lkasiga oid qiziqarli ma’lumotlarni o’z esdaliklari qatoriga bitib borgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: “Hinduston o’lkasi yeri hamda elining o’ziga xosliklari va ahvoli haqida o’zimga ma’lum bo’lgan, aniqlagan narsalarimni eslab bayon qildim. Bundan so’ng yana yozishga arzigulik narsaga ko’zim tushsa, eshitishga arzigulik biror narsa eshitsam, bitaman”. Shotlandiyalik davlat amaldori va tarixchi olim bo’lgan Monstyuart Elfinston [1779 – 1859] aytganidek: “Uning uslubi oddiy va mardona, jonli va obrazli. U o’z zamondoshlarining qiyofalari, urf-odatlari va intilishlarini, qiliqlarini oynadek ravshan tasvirlaydi. Shu jihatdan bu asar Osiyoda yagona, chinakam tarixiy tasvir namunasidir”.[v]

U Hindistonning yil fasllarini juda chiroyli yo’sinda tasvirlab bergan: “Bizning o’lkalarda to’rt fasl bor. Hindustonda esa uch fasl bo’ladi: to’rt oyi yoz, to’rt oyi pashakaal, to’rt oyi qish. Har bir oy hilol ko’ringanda boshlanadi. Har uch yilda bir oyni pashakaal oylariga qo’shadilar. Yana uch yil o’tgach yoz oylariga bir oy qo’shadilar. Ularning kabisasi shudir”.[v]

Zahiriddin Muhammad Bobur Hindiston o’lkasiga xos bo’lgan yil fasllarini Movarounnahr iqlimiga nisbatan tahlil qilib , taqqoslab tushunarli ravishda bayon etgan:

“Yoz oylari – chayt, baysak, jet, asa’r; unga hut, hamal, savr, javzo muvofiq keladi.

Pashakaal – yomg’ir mavsumi oylari – saavan, ba’do’n, kuvar,ka’tik, unga saraton, asad, sunbula va mezon muvofiq keladi.

Qish oylari – aghan, pus, mah, pa’gun; unga aqrab, qavs, jadiy va dalv muvofiq keladi ”.

Yil fasllariga xos xususiyatlarni ham Bobur o’quvchiga tushunarli yo’sinda tasvirlab bergan: “Hinduston xalqi har faslni to’rt oydan qilib belgilagan. Har fasldan ikkitadan oyni juda issiq, seryog’in va sovuq oylar deb hisoblaydilar. Yozning so’nggi ikki oyi – jet va asa’r eng issiq oylar hisoblanadi.Pashakaal oylarining dastlabki ikki oyi – savaan va ba’do’n esa eng kuchli yomg’irlar yog’adigan oylar hisoblanadi. Qish mavsumining o’rtasidagi ikki pus va mah oylari eng sovuq oylardir. Bunday hisobda ularda yil fasllari oltita bo’ladi”.[v] Boburning qayd etishicha hafta kunlarini hind xalqi quyidagicha nomlagan:

- Shanba – sanichar;
- Yakshanba – aytvar;
- Dushanba – sumvar;
- Seshanba – mangalvar;
- Chorshanba – budvar;
- Payshanba – bripastvar;
- Juma – sukrvar.[v]

“Hinduston eli kecha kunduzni oltmish qismga bo’lib, har bir qismini “gari” deb ataydilar. Bundan tashqari,kechani to’rt, kunduzni ham to’rt qismga ajratganlar.Har bir qismni bir “pakar” deb atashadi, forsiyda “pos” bo’ladi. Bizning taraflarda “pos” va “posbon” so’zlarini eshitganman, ammo ularning bu xususiyatlari ma’lumemas edi”, - deb Mirzo Bobur hind xalqining bir kunlik vaqtini qay yo’sinda bo’lib chiqqanini sharhlab bergan.

Zahiriddin Muhammad Bobur hind og’irlik o’lchovlarini movarounnahrliklar ishlatadigan o’g’irlik o’lchovlari bilan solishtirib tushuntirishga harakat qilgan.

Xususan, “Hinduston eli o’g’irlik o’lchovlarini yaxshi belgilab olishgan. Sakkiz rattiy bir ma’shaga to’g’ri keladi. To’rt ma’sha bir taankni tashkil etadi, bu o’ttiz ikki rattiy bo’ladi. Besh ma’sha, ya’ni bir misqol qirq rattiyga teng. O’n to’’rt to’vla bir ser hisoblanadi. Qirq ser, belgilab qo’yilganidek, hamma yerda bir botmon bo’ladi, o’n ikki botmon bir ma’niyga teng. Yuz ma’niyni bir manyasa deydilar. Javohir va marvaridlarni taankda o’lchaydilar”.

Hind xalqi sanoqni quyidagicha belgilab olgan:

- Yuz ming – lak;
- Yuz lak – karo’r;
- Yuz karo’r – arb;
- Yuz arb – karb;
- Yuz karb – niyl;
- Yuz niyl – padam;
- Yuz padam – sank.

Sanoqning bunday belgilanishi Hindustonda boylikning ko’pligiga dalolatdir, deb Bobur qayd etib o’tgan.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, “Tarix – xalq ma’naviyatining asosidir. Har qanday sivilizatsiya ko’pdan – ko’p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali ta’sirining mahsulidir”.[v]

GLOSSARIY

Arb - hindcha son ma’nosini bildiradigan atama. Bir milliardga teng.

Botmon - og’irlik o’lchov birligi.Shariatga ko’ra botmon,asosan, 0, 32kg ni tashkil qilgan.Lekin turli davrlarda va mamlakatlarda uning mezoni har xil bo’lgan.

Gari - 22 minut 10 sekundga baravar keladigan vaqt o’lchovi.

Kabisa-arabcha to’liq degani. Oddiy yildan bir kun {fevral oyida} ortiq bo’lgan kalendar yili.

Karo’r – 10 millionga teng son ma’nosini bildiradigan atama.

Misqol-qadimgi og’irliko’lchov birligi.Sharq mamlakatlarida qimmatbaho buyumlarning og’irligi misqol bilan o’lchangan.1misqolning og’irligi 100 dona arpa yoki bug’doy doni og’irligiga tenglashtirilgan.

Pos – 3soat, bir kecha kunduzning sakkizdan biri.

Pashakaal – yomg’ir, yomg’irlar mavsumi.

Ser - og’irlik o’lchovi. 74,24 gr.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Karimov I.A.“Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q” .Toshkent, “Sharq” nashriyot – matbaa konserni bosh tahririyati,1998.

2.Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”.Toshkent, “Yangi kitob”nashriyoti,2019.

3.Ansoriddin Ibrohimov. “Boburiylar merosi”.Toshkent. “Mehnat” nashriyoti,1993.

4.Lyusyen Keren. “Amir Temur saltanati”.Toshkent. “O’zbekiston” nashriyoti,2020.

THE ROLE OF ZAKHIRIDDIN MUKHAMMED BABUR’S OEUVRE IN THE UPBRINGING OF THE YOUNG GENERATION

Sayitova Komila Hasanboyevna
Bukhara engineering-technological institute

Annotation: *The article states the life and creative work of Zakhiriddin Mukhammed Babur. The author tries to draw readers’ attention mainly to the spiritual, educational and enlightenmental effect of his works on the young generation. The fact that his oeuvre is considered to be a great contribution to the prosperity of the Uzbek literary language and science is separately emphasized.*

Annotatsiya: *Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi haqida so‘z boradi. Muallif kitobxonlar e’tiborini asosan Bobur asarlarining yosh avlodga ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ahamiyatiga qaratishga harakat qilgan. Uning ijodi o‘zbek adabiy tili va ilm-fanining gullab-yashnashiga qo‘shgan ulkan hissasi sifatida baholanishi alohida ta’kidlanadi.*

Аннотация: *В статье рассказывается о жизни и творчестве Захириддина Мухаммеда Бабура. Автор старается обратить внимание читателей особенно на духовно-воспитательное и просветительское влияние его произведений на подрастающее поколение. Отдельно подчеркивается, что его творчество считается большим вкладом в процветание узбекского литературного языка и науки.*

Key words: *poet, public figure, spiritual heritage, forgiveness, military and political figure, upbringing, masterpiece, spiritual and educational reforms.*

Kalit so‘zlar: *shoir, jamoat arbobi, ma’naviy meros, kechirimlilik, harbiy va siyosiy arbob, tarbiya, durdona, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar.*

Ключевые слова: *поэт, общественный деятель, духовное наследие, всепрощение, военно-политический деятель, воспитание, шедевр, духовно-просветительские реформы.*

Mirza Babur, as a poet, writer, literary poet, sage, theologian, linguist, naturalist, public figure, knowledgeable in logistics and social sciences, left an invaluable spiritual heritage behind himself. He was interested in science and art, all spheres of life. Diligence, initiative and talent turned Babur into a great image of a developed feudal period. The sane Mirza Babur learned to read and write at the age of 9. He learned the Qur'an and began to write and interpret poetry. Until his last breath he held high the banner of good deeds. Forgiveness was one of the rare values of Mirza Babur.

Babur spent most of his life in military campaigns and battles. He unsuccessfully tried to unite the disparate regions of Maverannahr and create a new great state of Timurids. His dreams were destined to come true in India, where he went with his troops in 1526. Babur managed to create the foundation for the Great Mongol Empire in India, which lasted for about 300 years. His ideas preached the establishment of harmony between peoples, as well as the introduction of education in all segments of the population.

Besides being military and political figure, Babur was a great poet whose rubais (lyrical quatrains) delight and inspire many people today. One of the most famous oriental works “Babur-name” in the world literature belongs to his pen.

"Babur-name" is Babur's personal diary, which he kept throughout his life, collected into one work by Babur himself. "Babur-name" is not only a description of the author's personal life, but also a valuable source for studying the history, culture, life of peoples, flora and fauna of those areas that Bobur visited.

As a father, Babur's deep sense of responsibility is also an instructive example. He pays great attention to the upbringing of the child. This can be seen in the excerpts from “Babur-name”, which speaks about the care for his son Mirza Humayun both as

a father and a mentor, as well as instructions up to correcting spelling errors in letters and behavior. Such rare masterpieces of literature made a great contribution to the prosperity of the Uzbek literary language and science.

The feeling of love for the Motherland, the ideas of enlightenment were uniquely reflected in Babur’s works. We, in turn, repeatedly reading his works, should pay attention to their appropriate use in the education and upbringing of the youth.

The study of the scientific heritage of Zahiriddin Muhammad Babur forms such feelings like diligence, nobility, awakening love for science, culture, art and education in young people. Babur's creativity as a perfect creative product is passed down from generation to generation

The spiritual heritage of the great thinker, poet and statesman Zahiriddin Muhammad Babur plays a huge role in raising the spirituality of young generation, instilling the feelings of patriotism, selflessness, honesty in their hearts and minds.

The upbringing of harmoniously developed youth as worthy successors of great ancestors is an important direction of the spiritual and educational reforms carried out in our country. In the course of this process, work is being carried out to deeply study the spiritual heritage of the great ancestors, its propaganda among the population, especially among the youth. The study of the creative work of Zahiriddin Muhammad Babur contributes to the expansion of knowledge and raising the cultural level of the younger generation, enriching the worldview of youngsters.

In one word, we can say that life and oeuvre of Zahiriddin Muhammad Babur can have a positive effect on the upbringing, education and personal life of the youth not only in Uzbekistan but all over the world, as his works have been translated into many languages and are widely studied. The need to study the works of national poets is one of the priority areas for the development of the spiritual component of the life of every citizen of the republic.

The list of used literature

1. Z.M.Bobur Boburnoma. Tahskent, 1960.
2. Bobur. Muxtasar. Tashkent, 1971.
3. Bobur. Asarlar. Uch jildlik. (Bobur.The works. Three volumes). Tashkent,1965.
4. Zakhiriddin Muhammad Babur’s contribution to the development of musical. e-resource. ACADEMICIA, 2021.

BABURIYLAR SULOLASINI JAHON TARIXIDAGI O'RNI

Abdupattayev Abduqaxxor Abduvoxid o`g`li
Qo`qon Universiteti Iqtisodiyot yo`nalish talabasi

Annotatsiya: Boburiylar sulolasi tarixida davlat arbobi sifatida asos solgan u o‘zbek tilida yozilgan “Boburnoma” asari bilan jahonning mashhur tarixchilaridan biriga aylandi. Uning nafis g‘azal va ruboiylari turk she’riyatining eng nodir durdonalari bo‘lib, “Mubayyin” (rivoyat qilingan), “Xatti Boburiy”, “Harb ishi”, “Aruz” haqidagi risolalari islom fiqhi, she’riyati, tilshunoslik nazariyasiga qo‘shilgan munosib hissadir.

Kalit so`zlar: tarix, meros, hukmronlik, saltanat, aholi, davrlar, mamlakatlar, e'tiqodlar, siyosat, tarixiy shaxslar.

Аннотация: Основанный как государственный деятель в истории династии Бабуридов, он стал одним из самых известных в мире историков со своим трудом «Бобурнома», написанным на узбекском языке. Его изящные газели и рубаи входят в число редких шедевров турецкой поэзии. Его трактаты о Мубайине (рассказано), Хатти Бабури, Харб иши и Арузе являются достойным вкладом в теорию исламской юриспруденции, поэзии и языкознания.

Ключевые слова: история, наследие, господство, королевство, население, периоды, страны, верования, политика, исторические личности.

Abstract: Founded as a statesman in the history of the Baburid dynasty, he became one of the world's most famous historians with his work "Boburnoma" written in Uzbek. His elegant ghazals and rubais are the rarest masterpieces of Turkish poetry His treatises on "Mubayyin" (narrated), "Khatti Baburi", "War", "Aruz", Islamic jurisprudence, poetry is a worthy contribution to the theory of linguistics.

Keywords: history, heritage, domination, kingdom, population, periods, countries, beliefs, politics, historical figures.

Boburning keyingi yillardagi hayoti tarixda o‘chmas iz qoldirgan mardonavor ishlarga boy bo‘ldi. Ulardan eng muhimi Hindistonning zabt etilishidir. Dehli va unga bog'liq hududlarni sotib olish ayniqsa muhimdir. Bu yurish Bobur Kobul va G‘azna hukmronligidan yigirma yildan ko‘proq vaqt o‘tgach sodir bo‘ldi. Ungacha Bobur Badaxshon, Qunduz va Qandahorda hukmronlik qilgan. Boburning Hindistonga yurishi tafsilotlariga to‘xtalishdan oldin bu yerda uning saltanatining shakllanishida ma’lum rol o‘ynagan holatlar, ya’ni Hindistonning Boburgacha bo‘lgan davlat tuzilishi, Dehli podsholigi va uning saltanati haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tish o‘rinlidir. voqealar. Hindistonning katta aholisi va uning tarkibiga kiruvchi mamlakatlarning taqdiri uzoq vaqtdan beri shimoldan bosqinchilar qurboni bo'lishga mahkum bo'lgan ko'rinadi. Ular qadim zamonlardan buyon o‘z mamlakatining tabiiy chegarasi bo‘lgan Himoloydan Hind okeanigacha bo‘lgan ulkan hududdan tashqarida hech qanday bosqinchilik qilmagan. Forslar va yunonlarning uzoq yurishlaridan so'ng, keyinchalik osiyolik musulmonlar tomonidan quruqlikdan, Yevropa xristianlari esa dengiz orqali bosib olindi. Musulmonlar oqimi bilan mamlakatda vaziyat tubdan o‘zgardi. Bu erda ularning hukmronligi tarixan ikki davrga bo'lingan. Birinchi davr Sulton G‘aznaviy kelishidan (1021) Bobur kelishigacha bo‘lgan davr bo‘lib, besh yuz yillik davrni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi davr Bobur Hindistonga kelgan kundan boshlab 1858 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan uch yuz yildan ortiqroq davr bo'lib, Hindistonda Boburiylar sulolasi davri deb ataladi. 1526 yilda Hindistonda yangi sulolaga asos solgan Bobur Chig‘atoy turkiy oilaga mansub edi. Shunga qaramay, Hindiston tarixida uning oilasi "mo'g'ullar" deb ataladi.

ASOSIY QISM

Bu sulola vakillari Hindistonda uzoq vaqt mohirona hukmronlik qilganlar. Ular mamlakatning juda katta qismida siyosiy birlikni saqlab, bu ulkan imperiyaning tinch-totuvlikda ravnaq topishini ta’minlay oldilar. Bu sulola mamlakatni Boburdan tortib Avrangzebgacha bo‘lgan bir qator iste’dodli hukmdorlar bilan ta’minladi. Temuriylar odatda xalifani o‘z piri deb hisoblamagan, balki davlatni o‘z qarashlari asosida mustaqil boshqargan. Ular dushman bilan urush olib borish vositalari va usullarini takomillashtirdilar. Ular Hindistonda birinchi marta artilleriyadan

foydalanganlar. Ular adabiyot va tasviriy san’atning har bir sohada o‘sishi va rivojlanishiga ham yo‘l-yo‘riq ko‘rsatdilar.

Boburiylar davrida Hindistonning xorijiy davlatlar bilan aloqalari tiklandi. Afg'onistondek davlat buyuk imperiyaning bir qismi bo'lib qolaveradi. U Hindistonni Eron, O‘rta Osiyo va ular orqali G‘arbning uzoq mamlakatlari bilan bog‘lashda vositachi bo‘lgan. Bu Hindistonning xorijiy davlatlar bilan savdo-sotiq qilish va yanada rivojlanishiga imkon beradi. G‘arbiy Osiyo davlatlari bilan madaniy aloqalarni saqlab qolishga ham yordam berdi. Qariyb uch asr davomida hindular va musulmonlar ikki xil din va ikki xil turmush tarziga ega jamoalarni birlashtirib, diniy raqobatga olib kelmay, yonma-yon yashab kelishdi. Shunday qilib, boburiylar Dehli podsholigida qo‘llanilgan ko‘pgina an’analarni saqlab qolish bilan birga, ularning ko‘pchiligini davom ettirishga ham muvaffaq bo‘ldilar. Shuning uchun ham Boburiylar sulolasi tarixi Hindiston tarixida muhim va sharafli o‘rin tutadi.

Barcha zamonaviy tarixchilar Boburning tarixda o‘ta ardoqli o‘rni borligini ta’kidlaydilar. Ingliz tarixchisi V.A.Smit shunday yozadi: “Bobur o‘sha davrdagi Osiyo shahzodalari ichida eng ulug‘i bo‘lib, uning tarixdagi o‘rni o‘tmish shahzodalari orasida katta hurmatga sazovordir”. Yevropalik tarixchi Havel Boburni “islom olami tarixidagi eng jozibali shaxslardan biri” deb ta’riflaydi. Ingliz sharqshunosi U. Erskinning yozishicha, “Osiyo knyazlari orasida Bobur bilan teng mavqega ega bo‘ladigan shahzoda yo‘q edi”. Bobur shaxsi, uning xarakteri, shubhasiz, bunday yuksak tahsinga loyiqdir. Ammo agar u Shimoliy Hindistonning ko'p qismini bosib olmaganida edi, u tarix sahifalarida bunday yuqori o'rinni egallamagan bo'lardi. Uning Osiyo mamlakatlarida olib borgan siyosati, Afg‘onistonni bosib olishga qo‘shgan hissasi unga unchalik mashhur bo‘lmagan. Faqat Hindistondagi g‘alabali yurishlari tufayli u tarixda mashhur va salmoqli o‘rin egalladi.

O'rta asrlarda faqat kuchli hukmdor yaxshi hukmdor edi. Hindiston ham faqat kuchli va nufuzli hukumat asosida gullab-yashnashi mumkin edi. Asrlar davomida rajputlar, turklar va afg‘onlar navbatma-navbat Hindistonda imperiya va kuchli monarxiya o‘rnatishga harakat qildilar. Ular Hindistonda imperiya va kuchli monarxiya o‘rnatishga harakat qildilar. Ammo ularning hech biri muvaffaqiyatga erisha olmadi. Bobur esa bu o‘lkada o‘zining tashabbuskor hukmdorlar sulolasini va ulkan saltanatini barpo eta oldi.

Bobur yangi saltanat qurish yo‘llarini ko‘rsatibgina qolmay, bu imperiyani boshqarish siyosatini ham o‘rgatdi. Hindistonda u asos solgan sulola va uning an’analarini boshqa hech bir davlatda uchratib bo‘lmaydi. Bobur davlat boshlig‘i

sifatida xalifalikka da’vo ham qilmagan, boshqaruv faoliyatida diniy ehtiyoj sezmagan. Aksincha, «shoh» unvoni bilan taqdirlanganida u davlatni temuriylar uslubida mustaqil ravishda boshqargan. Shuning uchun u Dehli qirolligida hukmronlik qilgan davlat boshqaruvini nazariy jihatdan o'zgartirdi. Bu, albatta, davlat boshqaruvida diniy betaraflik siyosatining boshlanishi edi. Bobur butun Hindistonda yagona imperiya barpo eta olmagan bo‘lsa-da, uning nomi o‘zi yaratgan shoh asarlari, xususan, avtobiografik asari tufayli xotiramizda saqlanib qolgan. Temuriylar tarixi doimo jahon tarixchilarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Sharqshunos V.Bartold ta’kidlaganidek, Temur va uning avlodlari davri tadqiqotchisi “ma’lumotlarning kamligidan emas, ko‘pligidan aziyat chekmoqda. Ular ko'plab kutubxonalar bo'ylab tarqalib ketganligi sababli, ular birinchi navbatda tanqidiy ko'rib chiqish va nashr etishni talab qiladi.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari ham tarixiy-adabiy manba sifatida ko‘plab tarixiy shaxslar, adabiyot va san’at ahli, din ahli, podshoh va beklar, beklar, beklar va amirlar haqida hikoya qilishi bilan ulug‘lanadi. H. Hasanovning yozishicha, “Boburnoma”da mingdan ortiq joy nomlari mavjud. T.Nafasov aniq raqamlarni keltirib, “Boburnoma”da 1406 nom va 1100 dan ortiq joy nomi borligini yozadi. Ko‘rinib turibdiki, “Boburnoma”dagi joy nomlari, odamlar soni to‘g‘risida mutaxassislarning fikrlari keskin farq qiladi. Yuqoridagi taxminiy raqamlarning qanchasi Movarounnahrga tegishli ekanligi haqida tadqiqotda ma’lumot yo‘q. Shuning uchun biz quyida ushbu masalalarga oydinlik kiritishga harakat qildik. “Boburnoma”da jami 1540 ta nom qayd etilgan. Ulardan 357 nafari Movarounnahrning tarixiy shaxslaridir. Qolganlari esa turli davrlarda, turli mamlakatlarda yashagan tarixiy shaxslardir. Movarounnahr turli toifadagi 357 ta tarixiy shaxslardan iborat. Shu jumladan 5 ta amir va zodagonlar; 20 ta shoh va knyazlar; 42 malika va qirollik qizlari; 52 Umaros, qo‘shin boshliqlari va beklari; 21 tasi diniy va mistik; 30 nafar fan va adabiyot ahli; 187 nafar turli kishilar - askarlar, dehqonlar, rassomlar, hunarmandlar, qullar, neftchilarning nomlari tilga olindi va sharhlandi.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida Movarounnahrning 25 ta amiri va zodagonlarining nomlari va ma’lumotlarini ko‘ramiz. Muallif Movarounnahr hukmdorlari haqida, eng avvalo, uning otasi Umarshayx Mirzo haqida ma’lumot beradi. Shu o‘rinda Bobur hukmdorlar hayoti va faoliyatini tasvirlashning o‘ziga xos uslubini ishlab chiqqanligini ta’kidlash lozim. U eng avvalo “Valodat va Nasabiy”, “Shakl va Shomoiliy”, “Odob va munosabat”, “Masofa va urushlar”, “Viloyat”, “Avlod”, “Xovatun va Sarri” kabi hukmdorlarning nomlarini tilga oldi. ", "Umarosi". quyida ular haqidagi ma'lumotlar tartibda tasvirlangan. Bobur ijodi

Umarshayx Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo, Boysung’ur Mirzo va Sulton Husayn Mirzo haqidagi ma’lumotlarni tavsiflashda yuqoridagi buyruq asosida yaratilgan. Muallif Umarshayx mirzoning “tavalludi va nasl-nasabi” haqida ma’lumot berib, shunday yozadi: “Sakkiz yuz oltmishda Samarqandda bo‘lgan.Sulton Abusaid Mirzoning to‘rtinchi o‘g‘li.Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Muhammad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzodin kichikroq. Abusaid Mirzo Sulton Muhammad Mirzoning o‘g‘li.Sulton Muhammad Mirzo Mironshoh Mirzoning o‘g‘li.Mironshoh Mirzo Temurbekning uchinchi o‘g‘li.Shuni aytish kerakki, qadimdan musulmon xalqlarida kelajak avlodlar yettilikni bilish an’anaga aylangan. ajdodlar, ya’ni “etti nihol”. Bu an’anaga sodiq qolgan holda, Bobur o‘z asarida bir qator tarixiy shaxslarga e’tibor qaratadi, ularning o‘tgan yetti ajdodi, nasl-nasabi haqida to‘g‘ri shajaraviy ma’lumotlar berishga harakat qiladi. Umarshayx mirzoning “Xovatun va sarori” asarida uning onasi Qutlug‘ Nigorxonim bobosi Yunusxonning ikkinchi o‘g‘li Chingizxon avlodi ekanligi qayd etilgan. Temurxon ibn esan Bug‘axon ibn Duvaxon Baraqan ibn Esun Tuva ibn Mutagon ibn Chig‘atoyxon ibn Chingizxon. Muallif har bir hukmdor haqida fikr bildirishda voqealarga aniq yondashgan. Ayniqsa, “Masofalar va urushlar” zikrida hukmdorlar rivoyat qilgan voqealarni yozishda uning yuksak xotirasi, ziyrak tarixchi ekanini bilish qiyin emas. Jumladan, Sulton Husayn Mirzoning masofalari va urushlari haqida gapirib, shunday deydi: Ya’ni Sulton Abu Said Mirzo Muhammad Ali Baxshiy oldindan uch ming kishi yubordi. Sulton Husayn Mirzo oltmish yigit bilan kelib, unga tegibdi. Bu yaxshi ish va Sulton Husayn Mirzoning namoyishidir ”. o‘nlab kurashlari haqida ma’lumot beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ahmadjonov, A Abdullayev, M Mamayusupov, O Umarjonov. (2021). Raqamli iqtisodiyotda boshqaruv muammolari. *Science and Education*, *2*(10), 636-642.

2. AA, Mulaydinov Farkhod Muratovich. (2021). RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI VA AMALIY AHAMIYATI. *АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА ТЕЛЕКОММУНИКАЦИЯЛАРНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ ВА ЕЧИМЛАРИ ОНЛАЙН РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-ТЕХНИК АНЖУМАНИНИНГ МАЪРУЗАЛАР ТЎПЛАМИ*, *2* (6), 794

3. A Abdullaev. (2021). RAQAMLI IQTISODIYOT - KADRLAR TAYYORLASHNING DOLZARB MASALALARI. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlari, uning …

4. Akhmadjonov, A Abdullayev, A Abdupattayev, M Sultonov. (2021). ISLAMIC BANKING MANAGEMENT, ASSETS AND LIBILITIES. *Scientific progress, 2* (6), 1525-1532.

5. M Mamadjonov, A Abdullayev, I Abdurahmonov, A Mamadaliyev. (2021). CHALLENGES OF MANAGEMENT IN THE DIGITAL ECONOMY. *Scientific progress, 2* (6), 1533-1537.

6. MMQ Tojiyeva, AAU Abdullayev. (2021). THE USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN STATISTICAL DATA COLLECTION. *Asian Journal of Multidimensional Research 10 (12), 250-254.*

7. O Akhmadjonov, A Abdullaev, B Umarjonov, M Shamsiddinov. (2021). ISLOM MOLIYASINING XUSUSIYATLARI. *Scientific progress 2 (8), 634-638.*

8. O Akhmadjonov, A Abdullaev, S Yusupuv, J Anvarov. (2021). ISLOM BANKCHILIGIDAGI XAVF. *Scientific progress 2 (8), 639-642.*

9. O Akhmadjonov, A Abdullaev, M Shamsiddinov, B Umarjonov. (2022). ISLAMIC FINANCE. *Scientific progress 3 (2), 48-50.*

10. O Akhmadjonov, A Abdullaev, J Anvarov, S Ismoilov. (2022). ISLOM MOLIYASI. *Scientific progress 3 (2), 45-47.*

11. O Akhmadjonov, A Abdullaev, S Karimova, F Solijonova. (2022). Jahon savdo tashkiloti boshqaruv tizimi. *Scientific progress 3 (2), 343-347.*

BOBUR- ADOLATLI QALAM SOHIBI

Shokirova Gulhayo
Buxoro davlat univetsiteti talabasi

Annotatsiya: Bobur- shohlik tojin kiygan, qalbidagi eng sof tuyg‘ularni qog‘ozga muhrlagan, saxovat-u shijoat bobida o‘z davrining sheri, mumtoz adabiyotimizning eng zabardast vakillaridan biri, so‘z va uning latofatini o‘z asarlarida mujassamlashtirgan ,adolat bilan qalam tebratgan benazir munaqqid.

Kalit so‘zlar: Boburnoma, shoir, she'r, fors tili, turk tili, shohlik , tanqidiy qarash, badiiy tafakkur.

Annotation: The generosity of the Boburity worshiped and the best emotions in the heart , the lion of his circle , one of our classical literature, embodied, one of the words and his grace in his works, and justice The bonazir munasakid with the pen whose.

Keywords: Boburnoma, poet, poetry, turkish, kingdom, critical look, artistic thinking.

Аннотатция: Щедрость Боберидировости носит корону , а лев его круга , одной из нашей классической литературы, воплощающую одно из слов и его благодати в его работах , и справедливости к ппатоки беназир , которые потрясли ручка.

Ключевые слово: Бобурнома, поэт, поэзия, турецкий, королевство, критический вид, художественное мышление.

Adabiyot to‘lqinlarining eng mavj urgan davri XV-XVI asrlarga to‘g‘ri keladi. Chunki bu davrda O‘rta Osiyo yurti ikkinchi Renessansni boshdan kechirmoqda,

mumtoz adabiyotning eng sara hamda benazir asarlari yaralmoqda edi. Bu davrning eng mashhur vakillari asarlari mana oradan necha asrlar o‘tsa hamki, hali -hanuz avlodlar bilimi , yuksak ma'naviyati uchun tarbiya maktabi vazifasini o‘tab kelmoqda.

Bu davrning eng zabardast vakillaridan biri, shohlik tojin boshiga qo‘ndirib maorif gulshanida bog‘bon bo‘lmish Zahiriddin Muhammad Bobur bo‘lib, davlat va jamoat ishlaridagi sermahsul faoliyati bilan birgalikda she'riyat ilmida ham ko‘p benazir asarlar yaratgan.

Aruz ilmiga bag‘ishlangan "Muxtasar" asari, zakot ishlari uchun "Mubayyin" kabi ham adabiyot oid , ham din ilmiga oid asarlar yaratgan Bobur adabiy merosining gultoji "Boburnoma" asaridir.

"Boburnoma " asari qomusiy asar bo‘lib , unda geografiya , etnografiya, tarix, adabiyot, munaqqid sohalariga oid ko‘plab asosli va ishonchli dalillarni ko‘rishimiz mumkin. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z asarida o‘nlab qalam sohiblari haqida ma'lumotlar berib , Movarounnahr-u Xuroson elining yirik adabiy muhiti haqida ma'lumot berib , "Muxtasar" kabi fanga oid asarlarining yaratilishiga aynan shu muhitning turtki bo‘lganligini aytib o‘tadi.

Bobur: "Alisherbekning mijozi nozuk bila mashhurdir. El nazokatini davlatining g‘ururidin tasavvur qilur edilar. Samarqanda ekanda ham ushmundoq nozuk mijoz ekandur....."

Ushbu misralar orqali Bobur Navoiy shaxsiyatiga to‘xtalar ekan , uning xalqparvar ekanligi, hamisha yurt farovonligini o‘zining manfaatlaridan ustun qo‘yganligini ta'kidlar ekan, nozik didli inson ekanligini aytib o‘tadi.

Navoiy - o‘z davrining barkamol insoni edi, har ilmda hamisha eng avval o‘zidan va atrofidagilardan puxta ilmni talab qilgan. Haqiqatdan ham Navoiy naziri yo‘q kishi erdi. Turkiy tilning o‘ziga xos jihatlari, fors tilidan ko‘ra bu til imkoniyatlarining kengligini Navoiy o‘z asarlaridagi so‘zlar , jumlalarning betakror tasvirlari orqali

dunyo hamjiyatiga o‘z tilining naqadar go‘zal ekanligini isbotladi. Aynan Bobur ham Navoiy haqida ushbu fikrlarni tilga olar ekan, forsiy ash'orlari unchalik ham emasligini ham aytib o‘tadi.

Bobur o‘z asarida Muhammad Solih ijodiga ham to‘xtalar ekan, uning asarlari ozgina sustligi aytib , ikki turk tilidagi misrasini go‘zal bitilgan deb ta'riflaydi.

Shuningdek, Bobur o‘z asarida shoirlar bilan birga shohlar tasviriga ham to‘xtalib, ularning ham ta'rifini haqqoniy beradi va ularga baho berishda xolisona fikr yuritganligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan:Toshkent hukmdorining badiiy didi nozik ekanligini ta'riflaydi va she'r yozishda ozgina dangasalik qiladi deb ta'kidlab o‘tadi.

"Boburnoma " asari tuzilishi jihatidan ancha sodda yozilgan bo‘lishiga qaramay , til xususiyatlariga ko‘ra ozgina uqish uchun murakkabligini ham ta'kidlab o‘tish joiz. Asarda Bobur boshidan o‘tkazgan voqealarni yozadi va o‘z o‘rnida hissiyotlarini badiiy tarzda ifodalab, asarini badiiy jihatdan to‘rtliklar, g‘azallar bilan boyitgan.

Bobur va uning lirik merosi avlodlar uchun asrlar osha yetib kelgan beqiyos tuhfadir. Bobirning orzu va armonlari, dard-alamlarini yoxud kuchli ijtimoiy siyosati haqida, Movarounnahr o‘lkasi-yu o‘zga yurtlar haqida bizga mufassal dalillar berguvchi "Boburnoma" biz echun merosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1."Boburnoma" asari . 2019.Fan nashriyoti

2. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. R. J. Vohidov va H.P. Eshonqulov Toshkent-2006

3. Biz bilgan va bilmagan Bobur. Vohidov . R Toshkent-1999

BOBUR LIRIKASI MOHIYATI. SHOIRNING RUHIYATI VA IJODI ORASIDAGI UYG‘UNLIK MASALASI

Xolmatova Barno Azizjon qizi
Farg’ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Anotatsiya: *Shoh va shoirning lirik asarlarida insoniylik, vatanparvarlik tushunchalarining o‘rni haqida. Uning ruhiyati, hayoti bilan bevosita ijodining bog‘liqlik jihatlarini ochib berish. G‘azal va ruboiylari tahlili asosida mavzuga oid xulosalar olish.*

О роли концепций гуманности и патриотизма в лирических произведениях царя и поэта. Объяснения прямую связь между его психикой и его жизнью. Сделайте выводы на основе анализа газелей и рубаев.

On the role of the concepts of humanity and patriotism in the lyrical works of the king and the poet. Explain the direct connection between his psyche and his life. Draw conclusions on the basis of the analysis of ghazals and rubais.

Kalit so‘zlar: *shoir, lirika, ruboiy, she‘riyat, maqta va matla, g‘azallar*

поэт, лирика, рубаи, поэзия, хвала и матла, газели

poet, lyric, rubai, poetry, praise and matla, ghazals

Biz bugun buyuk bobokalonimiz xotirasini yodga olish barobarida, bizga meros qilib qoldirilgan xazinalarining qay darajada qiymatli ekanligini anglashimiz lozim. O‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she‘riyatidan boxabar qiluvchi asarlar orasida shoh va shoir, davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur alohida mavqega ega. Uning hayot yo‘li o‘sha davr shoir-u yozuvchilarinikidan ancha murakkab, ziddiyatlarga boy o‘tgani barchaga ma‘lum. Bir davlatni boshqara turib, ijodiy

kamolotga yetish juda mushkul. Lekin ijodga bo‘lgan muhabbat shoirning davlat tepasida bo‘la turib ham, unga hamrohlik qildi. Uning nafis g‘azal va ruboiylari o‘rta asr she‘riyatining eng nodir durdonalari bo‘lib, “Mubayyin” (“Bayon etilgan”), “Xatti Boburiy”, “Harb ishi”, Aruz haqidagi risolalari esa islom qonunshunosligi, she’riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi. Uzoq yillar davomida G‘arb va Sharqning mashhur sharqshunos olimlari “Boburnoma” mazmunini jahon jamoatchiligiga yetkazish borasida katta faoliyat ko‘rsatdilar. Masalan, gollandiyalik olim Vitsen, angliyalik olimlar J. Leyden, V. Zrskin, R. Koldekot, A. Beverej, T. Albot germaniyalik Yu. Klaynrat va A. Keyzer, fransiyalik Pave de Kurteyl, hindistonlik Mirzo Nasriddin Haydar Rizvi, turkiyalik R. R. Art va N. I. Bayur va bizning davrimizdagi fransiyalik olim Bakke Gromon, afg‘onistonlik olim Abulhay Habibiy, pokistonlik olimlar Rashid Axtar, Nadvi va Shoh Olam Mavliyot shular jumlasidandir.

Bobur o‘zbek adabiyotida o‘zining nozik lirik asarlari bilan ham mashhurdir. Uning hayoti va adabiy faoliyati Movarounnahrda siyosiy hayot nihoyat murakkablashgan feodal guruhlarning boshboshdoqlik harakatlari avjiga chiqqan va Temuriylar davlatining inqirozi davom etayotgan bir davrga to‘g‘ri kelganligi sababli shoir ruhiyatida ushbu hodisalar qanday aks etganligi uning she’rlarida namoyon bo‘ladi. Movarounnahrni birlashtirishga urinishlari natija bermagach, Bobur ruhan qiynalgan, amaldorlarning xiyonatlari ta’sirida umidsizlikka tushgan kezlarda ham ijod bilan shug‘ullanishdan aslo to‘xtamagan. Keyinchalik o‘z yurtini tark etib, Afg‘oniston va Hindistonga ketganida uning she’riyatida Vatan tuyg‘usi, Vatan sog‘inchi, unga qaytish umidi mavj ura boshladi. Va shu ichki hissiyot asnosida ushbu ruboiy yaratildi.

Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishnikim ayladim – xatolig‘ bo‘ldi,
O‘z yerin qo‘yib Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Hayotga muhabbat va quvnoqlik, yorga bo‘lgan sevgisi, hijron va g’urbat dardi, badbinlik va tarkidunyochilik ustidan kulish, yaxshi xulq-odob va ma‘rifat targ‘ibi g‘alabalar nashidasi va mag‘lubiyat alami, taqdirdan nolish va unga tobe bo‘lish, afsus va nadomat va boshqalar she‘riyatining tematik doirasi hisoblanadi. Murakkab va ziddiyatli kurashi yo‘lini bosib o‘tgan, turli xil fazilatlarga ega bo‘lgan shoir o‘zi bu lirikaning markaziy qahramonidir. Shu bilan birga Bobur lirikasining asosiy mazmuni bo‘lgan insoniy fazilatlar, yor vasli, uning go‘zalligi, unga cheksiz muhabbat va hijron azobi, ayrilig‘ alamlari va visol quvonchlari nihoyat go‘zal va mohirona ifoda etilgan.

Xazon yaprog‘i yanglig‘ gul yuzung hajrida sarg‘ardim,
Ko‘rub rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrai zardim.
Sen ey gul, qo‘ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,
Ayog‘ingga tushub bargi xazondek muncha yolvordim.

Mumtoz adabiyotda keltirilgan sara tashbehlardan unumli foydalanilgani, xazon yaprog‘i kabi yuzning sariqligiga ishora qilib, oshiqning holati juda mahorat bilan tasvirlangan.

Bobur o‘z lirik she’rlarida har doim odamlarni yaxshilikka, adolat, insonparvarlikka, yuksak insoniy tuyg‘ularni qadrlashga chaqiradi. Kim nimani izlasa, shunga yetishlikka ishora qiladi:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.
Yaxshi kishi ko‘rmag‘ay yomonlig‘ hargiz,
Har kimki yamon bo‘lsa, jazo topqusidur.

"Boburning o’zbek tilidagi devonidan 120 ga yaqin g’azal, 210 ruboiy hamda qit’a, fard, tuyuq, masnaviy-nomalar, muammo va masnu’lar o’rin olgan. Ular orasida son jihatidan ko’pchilikni g’azal va ruboiylar tashkil etadi. Bobur g’azallarning ko’pchiligi 5-7 baytlik. Ruboiylarda taxallus ishlatish ko’proq kuzatilsa, tuyuqlarda esa ba’zan qit’a shaklida qofiyalanishlar ham uchraydi. Masalan:

Qilmasa ul oy nazar manga ne tong?

Tengri tole’ chun manga yorotmadi.
O’qi yorar erdi ko’nglum dardini,
Netayin, ko’nglum uchun, yor otmadi. (Bobur. Devon, 106-bet)"[v].

Bular Boburning an’anaviy janrlar xususiyatlarini saqlagan holda ularga ayrim yangiliklar kiritishga ham harakat qilganidan dalolat beradi. Bobur yoshligidan she’riyat olamiga kirib kelgan bo’lsa-da, o’zining birinchi tugal g’azalini 18 yoshida, ya’ni 1501-yilda yozgan. Bu g’azalning matla’si quyidagicha:
Jonimdin o’zga yori vafodor topmadim,
Ko’nglumdin o’zga mahrami asror topmadim. [Devon, 37-38].

Bu g’azalning Toshkent va Xo’jand oralig’idagi Turoq chorbog’ida yozilishi sabablari «Boburnoma»-da (907 hijriy yil voqealari) bayon etilgan. "Umrining oxirigacha turli janrlarda she’r yozgan. Bobur shunos Sabohat Azimjonovaning ma’lumotiga ko’ra, Boburning umri oxirida yozgan so’nggi to’rtligi fors tilida bo’lib, uni mazkur olima shunday tarjima qilgan
Umrim hama firoqu hijronda o’tdi g’amu g’ussa bila,
Bu qimmatbaho umr arzon o’tdi ranju alamla,
Samarqandu Hirotda o’tmagan umr ayshu ishratla,
Afsus, Agrada vayrona bo’ldi jabru sitamla".[v]

Bobur lirikasining mavzu doirasi ham xilma-xildir. Uning asarlarning barchasiga xos xususiyat shundan iboratki, ular sodda tilda, ravon uslubda yozilgan bo’lib, ma’rifiy va dunyoviy-hayotiy masalalardan bahs yuritadilar. "Boburning Shoirlik mahorati nihoyatda yaqqol namoyon bo’lganidan zamondoshi va muxlisi Mirzo Haydar o’zining «Tarixi Rashidiy» asarida shunday yozgan edi: «Turkiy she’riyatda Amir Alisher Navoiydan so’ng hech kim Boburga teng kela olmaydi». Bunday fikr boshqa mualliflar, jumladan, Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkiri ahbob» tazkirasida ham o’ziga xos tarzda bayon etilib, misollar ham keltirilgan (Muzakkiri ahbob, 53-54-betlar)"[v]. Bobur o’zining lirik merosini ikki devonga to’plagan. Ulardan birinchisi 1519- yilda Kobulda tartib berilib, bir nusxasi o’sha vaqtning o’zida Samarqandga yuborilgan. Ikkinchisi esa 1528-1529- yilda Hindistonda tuzilgan." Bu ikki devonga

kiritilgan she’rlar keyinchalik bir devon holiga keltirilgan. Bu haqda «Boburnoma»ga ilova yozgan kotib shunday xabar beradi: «(Bobur) nazm va nasr va turkiy va forsiyni bebadal aytur edi. Alalxusus turkiy devoni bordurkim, anda toza mazmunlar topib aytibdur» . Demak, Boburning turkiy-o’zbek tilida yozilgan lirik she’rlari alohida devon shakliga keltirilgan"[v]. Bu devonga kiritilgan she’rlarni ingliz sharqshunosi Denison Ross, turk olimi Fuod Kupruluzoda, rus sharqshunosi A.N. Samoylovich, o’zbek olimlari S. Azimjonova va A.Qayumov , Saidbek Hasanovlar nashr ettirdilar. 1983-yilda esa afg’onistonlik olima Shafiqa Yorqin ularni to’plab, to’ldirib, «Devoni Zahiriddin Muhammad Bobur» nomi bilan Kobulda nashr ettirdi. Ana shu nashrlar asosida Abdurashid Abdug’afurov «Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon» asarini e’lon qildi.

Uning yozganlarini kuzatish asnosida g‘azallarida ham ruboiylarida ham ichki hissiyoti yaqqol namoyon bo‘ladi. Qahramoni doimo o‘zi bo‘lishi ham, ijodining o‘ziga xosliklaridan biri sanaladi. Juda ko‘p olimlar, adabiyotshunoslar bu borada turli tadqiqotlar olib borishgan. Va shu kungacha asarlarining nihoyatda go‘zal tahlillari paydo bo‘lib ulgurgan.

Shunday qilib, Zahiriddin Muhammad Boburning takrorlanmas asarlari o’zining janriy rang-barangligi, mavzu doirasining kengligi va badiiy mahoratning namoyon etilgani bilan o’zbek she’riyati tarixida o’ziga xos mavqega ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent: Yangi asr, 2006.
2. O`zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 3-tom. - T. Fan, 1978.
3. Valixo’jaev B., Tohirov Q. O`zbek adabiyoti tarixi. XVI asr. – Sam. SamDU nashri, 2002.
4. Abdug’afurov A. Bobur she’riyati. Bobur. Devon. –T. Fan, 1994, 3-14 –betlar.
5. Advantour.com sayti
6. Stihi.ru sayti

BOBUR RUBOIYLARIDA POKLANISH MOTIVI

Sheraliyeva Zarnigor Dilshod qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ulug‘ bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi haqida so‘z boradi. Tarixiy "xato"lar, tragik holatlarning shoir ijodida aks etishi barobarida Bobur ruboiylarida uchraydigan poklanish elementlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, Mirzo Boburning badiiy adabiyotdagi buyukligi masalasiga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: badiiy mahorat, lirik qahramon, g‘urbat, "aybsiz aybdor", tragik holat, poklanish, katarsis, ulug‘vorlik.

Annotation. This article tells about the life and work of our great ancestor Zahiriddin Muhammad Babur. Historical "mistakes" are thought to reflect tragic situations in the poet's work, as well as the elements of purification found in Babur's rubai. Special attention is also paid to the greatness of Mirzo Babur in fiction.

Key words: poetic skill, lyric hero, loneliness, "guiltless guilty", tragic event, purification, catharsis, glory.

Аннотация. В данной статье рассказывается о жизни и деятельности нашего великого предка Захириддина Мухаммада Бабура. Исторические «ошибки» отражают трагические события в творчестве поэта, а также элементы очищения, встречающиеся в рубаи Бабура. Особое внимание уделяется величию Мирзо Бабура и в художественной литературе.

Ключевые слова: художественное мастерство, лирический герой, изгнание, «невиновный виновник», трагическая ситуация, очищение, катарсис, слава.

Har bir xalqning tarixiy, madaniy va milliy qiyofasini aniq belgilovchi ulug‘ mutafakkirlari, yirik adib va buyuk olimlari bo‘ladi. Insoniyatning abadiyatga mansub buyuk farzandlari safida shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur ham o‘z o‘rniga ega. Bobur buyuk imperator, mumtoz shoir, adabiyotshunos, tarixchi, faqih, san'atshunos, hayvonot-u nabotot olamining bilimdoni sifatida shuhrat qozongan ulkan ijod va faoliyat sohibi edi. Muxtasar qilib, Javoharla'l Neru ta'biri bilan aytganda, Bobur — dilbar shaxs. Shu sababdan ham u buyuk tarixiy siymo sifatida Yevropa va AQSH sharqshunos-tarixchi olimlari diqqat-e'tiborini o‘ziga jalb etgan. Xususan, ingliz tarixchisi Eduard Holden Boburni Yuliy Sezar bilan qiyoslashni lozim topadi. Zahiriddin Muhammad Boburning bolalik va o‘smirlik yillari haqida roman yozgan adib, "Boburnoma"ning ingliz tarjimoni Uilyam Erskin esa Boburni shunday baholaydi: "Saxovati va mardligi, iste'dodi, ilm-fan, san'atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi". [1;4]

Zahiriddin Muhammad Bobur badiiy mahorat bobida ham yuksak o‘rin tutuvchi shaxslardan sanaladi. She'riyat uchun xos bo‘lgan bir necha zaruratlar: nuktapardozlik, jozibali badiiy san'atlardan ustalik bilan foydalanish mahorati, ehtiros jo‘shib turgan rangin tuyg‘ular talqini Boburning samimiy she'riyatiga xos fazilatlardir. Asarlarining hasbi hol tarzda ekanligi ham uning ijodiga betakrorlik baxsh etgan. She'rlarida shoir armonlari ochiq va ro‘yirost ifoda etilgan. Shu boisdan ham ijodkor she'riyatini shoir his-tuyg‘ulari g‘alayonining ifodasi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ha, Bobur ijodi goh yor vasliga oshufta bo‘lgan oshiqi zorning yolvorishlari, goh dunyodan bezgan xasta dil iztiroblarining talqinidir. Bu ijodiy namunalarda Boburning hayot manzaralari to‘la aks etadi.

Ijodkor asarlaridagi lirik qahramon tuyg‘ulari orqali o‘z taqdirining lavhalarini chizadi. Zotan, Bobur ijodida lirik qahramon yurt hajrida devona bo‘lgan, g‘urbat, ayriliqdan ko‘ngli go‘yo "gulning g‘unchasidek tah-batah qon" bo‘lgan inson timsoli sifatida gavdalanadi. Bu ayrolik tasvirini shoir buyuk musavvir singari yuksak

mahorat bilan tasvirlaydiki, unda lirik qahramon taqdiri go‘yo ta'rifi tillarni kuydiruvchi, dillarga o‘t qalovchi bir buyuk fojia yanglig‘ namoyon bo‘ladi. Boburning lirik qahramoni — qalbida buyuk bir dard bilan yashayotgan oshiq, qismatiga g‘urbat-u yurtdan mosuvolik jazosi bitilgan jabrdiyda. Muxtasar qilib aytganda, "mehr ko‘p ko‘rguzub, mehribone topmagan", "ko‘nglidin o‘zga mahrami asrori yo‘q", taqdirning achchiq qismatini juda erta tatigan Boburning o‘zidir. Ijodkor she'rlarining har satri uning qalb qo‘ri o‘laroq vujudga kelgan, ko‘ngil evrilishlari-yu yurak o‘rtanishlari bilan qog‘ozga tushgan. Zero, bularning bari diydalarida ko‘z yoshlari qotgan, o‘z yurtining bir hovuch tuprog‘iga, bir tilim qovuniga zor bo‘lgan, taqdirning quturgan bo‘ronlarida kuz yaprog‘i yanglig‘ tentirab, yot maskan bag‘rida armon bilan o‘tgan insonning asrlarni titratguvchi buyuk dardi ifodasidir. Shubhasiz, Boburning o‘zi kabi dardi ham, armoni ham buyuk edi... Xo‘sh, bu buyuk dard nima edi, aslida? Taqdirning achchiq-tiziqlarimi yoki Vatandan judolikmi? Yoxud o‘tmishdagi xatolar uchun aybdorlik hissimi?! Darhaqiqat, Zahiriddin Muhammad beixtiyor qo‘l urgan ayrim ishlari tufayli o‘zini aybdor his etadi va bular o‘z navbatida uning asarlariga ham ko‘chib o‘tadi. Masalan, quyidagi ruboiyni olaylik:

Yotlarni, kerakki, oshno kam qilsang,

Har kimki vafo qilsa, jafo kam qilsang.

Navmid bo‘lur borcha vafodorlaring

Gar shoh nazaring birla vafo kam qilsang.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi: Bobur "yot" deganda kimni nazarda tutadi? Og‘ir vaziyatda yordam kutib, ularga ishonib xato qilgan aslida yot bo‘lgan yaqinlarinimi yoki bo‘lmasa, qiyin holda qolganida unga yordam ko‘rsatib, keyin ko‘plarning nazaridan qolishiga sababchi bo‘lgan Ismoil Safaviynimi?

Tarixdan ma’lumki, 1510-yili Shayboniyxon halok bo‘lgach, Bobur Mirzo shoh Ismoil yordamida Movarounnahrni shayboniylardan qaytarib olish uchun kurash boshlaydi va nihoyat, 1511-yilning kuzida Samarqandni uchinchi marta qo‘lga

kiritadi. Bobur Samarqandni egallagach, noilojlikdan islomning shia yo‘nalishiga e'tiqod qiluvchi shoh Ismoilni oliy hukmdor deb e’lon qiladi. Bu esa Samarqand xalqining Bobur Mirzodan yuz o‘girishiga sabab bo‘ladi. [3;14]

Ne xesh meni xushlar-u ne begona,

Ne g‘ayr rizo mendin-u ne jonona.

Har nechaki yaxshiliqta qilsam afsun,

Xalq ichra yamonlig‘ birla men afsona,

deganda ham Bobur yuqoridagi hodisotni nazarda tutgan bo‘lsa, ajab emas!

Xalqning Boburdan yuz o‘girishining boisi shundaki, Movarounnahr aholisi, Boburning o‘zi ham islomning sunniylik yo‘nalishiga e'tiqod qilgan. Shayboniylar ham shu yo‘nalishda edilar. Albatta, Bobur ilojsizlikdangina bu yo‘lni tutadi. Bunday qaror qabul qilishga undagan, uni "olam eli ichra orsiz qilgan" kuch, shubhasiz, Vatan muhabbati, ona yurt ishqi edi:

Ishqing netay, ixtiyorsiz qildi meni,

Sabrimni olib, qarorsiz qildi meni.

Olam eli ichra orsiz qildi meni,

Zuhd ahlig‘a e'tiborsiz qildi meni.

Ijodidagi shu kabi o‘rinlarda Boburning "aybsiz aybdor"lik tasviri chiziladi.

Yuqorida ko‘rganimizdek, bu kabi holatlar Zahiriddin Muhammad ijodiga sezilarli ta’sir etgan. Ayniqsa, ruboiylarini o‘qish barobarida tragik holatlarning lirik talqiniga duch kelamiz. Ba'zi o‘rinlarda fojia shu qadar avj nuqtaga borib yetadiki, undagi dard, iztirobning zo‘riga hatto o‘qirman ham dosh bera olmaydi. Fojia hazil bilan berilgan satrlarda ham ulkan dard-alam sezgilari ufurib turadi:

Hajringda bu tun ko‘ngulda qayg‘u erdi,

Vaslingg‘a yetishmadim, jihat bu erdi:

Ohim tutuni birla ko‘zumning yoshidin

Yo‘l balchiq edi, kecha qorong‘u erdi.

Tan olish kerak: hech bir shoir vatandan yiroqlik fojiasini Boburchalik ta'sirchan bo‘yoqlarda ifoda eta olmagan. Oxiri yo‘q afsus-nadomatlar shoirning "Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi" deb boshlanuvchi ruboiysida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. "Xatolig‘"larni eslash barobarida shoir Vatandan yiroqlikni qismatidagi yuzi qarolig‘ hisoblaydi:

Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,

Har ishniki ayladim xatolig‘ bo‘ldi.

O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,

Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi?!

Yurt sog‘inchiga, afsus-nadomatga to‘la qalbning sadosi o‘laroq qog‘ozga tushgan bu misralardan ma'lumki, Bobur o‘zini umri davomida kechira olmaydi. O‘tgan noxushliklar uchun har qanday jazoga rozi bo‘ladi. Lekin shuning barobarida Yaratganning marhamatidan ham umid uzmaydi, qaro yuzini oq qilishini so‘rab yolvoradi. Uning o‘tinchi shu: "qahr-u g‘azab birla" kulga aylansa ham mayli, faqat Xudo uning yuzini oq qilsa, xato-yu gunohlarini kechirsa bas! Boburning bu munojoti quyidagi ruboiyda aks etadi:

Yo qahr-u g‘azab birla meni tufroq qil!

Yo bahri inoyatingdin mustag‘raq qil!

Yo Rab, sengadur yuzum — qaro, gar oq qil,

Har nav sening rizong erur andoq qil!

Bobur ruboiylarida shoir qalbidagi iztirob olovi alanga oladi, shuning barobarida ijodkor ruhiyatida ana shu iztirob o‘tida poklanish holatlari yuz beradi. Ya'ni Bobur ruboiylarida dard-alam, iqror ko‘lamida katarsis elementlari namoyon bo‘ladi:

Zulfig‘a ko‘ngul qo‘yub, parishon bo‘ldum,

Ko‘z oldurubon yuziga hayron bo‘ldum.

Chin dey senga, Boburoki, oshig‘lig‘da,

Har neki qilib edim, pushaymon bo‘ldum.

Har qanday voqelikni o‘z holicha real shaklda bayon qilish, ifodada haqqoniylikni saqlab qolish orqali Bobur ijodiyoti adabiyotning yuksak pog‘onalarini mahv etadi. O‘zining siyosiy qudrati, imkoniyatlariga qaramay, xatolarni tan olish va afsus-nadomatlarni ochiq bayon etish, yuqorida aytib o‘tganimizdek, ruboiylardagi poklanish motivining asosi, qolaversa, Bobur shaxsiyatining buyukligidan nishonadir.

Qotingda agar gunoh gohe qildim,

Yuz qatla nadomat bila ohe qildim,

Qildim yomon-u asru tabohe qildim,

Lutfung bila sen kechur — gunohe qildim.

Nafsilamrini aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur she’riyati bu shunchaki oddiy she’riyat emas! Bu ijodiyot taqdir zarbalaridan charchagan qalbning, zahmdor ko‘ngilning afg‘onidir. Bu hayot qozonida qaynagan, murg‘ak qalbi ila saltanat-u toj-taxt og‘irliklarini gardaniga olgan buyuk insonning kelgusi avlodga qoldirgan nasihatidir. Zotan, Bobur she’riyati faqat his-tuyg‘ularning po‘rtanasi emas, balki yuqorida aytganimizdek, uni qiynagan hodisotlarning, goh ixtiyoriy, goh beixtiyor qabul qilingan qarorlarning, qolaversa, qilgan to‘g‘ri-noto‘g‘ri ishlarining iqrori hamdir. Neki bo‘lganda ham bularning bari

bizga buyuk bobomizning hayotidan so‘z ochadi, bizni mushohadaga chorlaydi. Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanida Bobur tilidan aytilganidek, bobomizning yaxshi ishlarini ko‘paytirishga, xatolarini esa takrorlamaslikka undaydi.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, Bobur faqatgina ilm sohasining bir qator tarmoqlariga yuksak hissa qo‘shganligi yoxud Hind va Kobul diyorlarida yirik davlat tuzgani-yu, shavkati olamni olgani bilan buyuk emas. Boburning ulug‘ligi shular bilan cheklanib qolmaydi. Fikri ojizimizcha, bu shaxs hayotdagi ko‘rmishlari-yu qilmishlarining haqqoniy ifodasi, qolaversa, dard-u azoblarini, o‘zining iztirob olovida poklanish holatlarini adabiyotga olib kira olgani bilan ham ulug‘vorlik kasb etadi. Zotan, shunisi aniqki, yillar, asrlar o‘tsa-da, ko‘ngil nolalari-yu ko‘z yoshlari ila sug‘orilgan bu samimiy she'riyat avlodlarga ulkan hayotiy tajriba, saboq va vasiyat tarzida yozilgan bir ibratnoma bo‘lib qolgusidir!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.M.Bobur. Boburnoma.—T.: "O‘qituvchi",2008.

2. Z.M.Bobur. Mahrami asror topmadim...—T.: Yozuvchi nashriyoti,1993.

3. Usmonov Q. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi (XVI-XIX asrning birinchi yarmi): 8-sinf o‘quvchilari uchun darslik. Qayta ishlangan 3-nashri.—T.: "O‘qituvchi",2014.

4. Ahmedov S. va boshqalar. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. II qism.—T.: "Sharq",2015.

Internet saytlari:

1. https://ziyouz.com

BOBURIY SHAHZODALARGA NASIHAT YOXUD “MUBAYYIN” ASARIGA NAZAR

Ne’matov Mirshod Dilshod o’g’li
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Maqolada Bobur Mirzoning “Mubayyin ” asari haqida so’z yuritiladi va bugungi holati o’rganiladi.

Kalit so’zlar: Fiqh ilmi**,** Islom ilmi, dasturulamal, imomlar, Eron

Zahiriddin Muhammad Bobur garchi bir qancha g’azallari,ruboiylari va dunyoga mashxur memuar asari “Boburnoma” bilan taniqli bo’lsada boshqa asarlari ham bu mashxurlikni yanada oshirsa oshiradiki aslo kamaytirmaydi.

Tarixiy kitoblarda Zahiriddin Muhammad Boburning shohlik,sarkardalik va olimlik iste’dodidan tashqari fiqh ilmini ham mukammal bilgani ham aytib o’tiladi.Jumladan,Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” (Sevimli zotlar yodnomasi) asarida shunday so’zlar bor: “Fiqh masalalarini yana bir risolada mubayyan qilganki,yozuvchisining donishmandligidan nishonadir.Turkiy va forsiyda yaxshi she’rlari bordir.O’shal fiqh risolasining nomi “Mubayyin”dir”

”Mubayyin”-Zahiriddin Muhammad Boburning islom dini asoslarini bayon etuvchi yirik asaridir.”Mubayyin” so’zi arabchada “bayon qilingan” degan ma’noni anglatadi.

Ushbu asarning yaratilishiga e’tibor qaratadigan bo’lsak,hijriy 928-yilda ya’ni milodiy 1521-yilda she’riy yo’lda tasnif etilib Hindiston yurishlari vaqtida yozib borilgan.Ushbu asar valiahd shahzodalar Humoyun va Komron Mirzolarga dasturulamal sifatida ham mo’ljallangan.Masnaviy tarzida yozilgan,islom huquqshunosligi va shariat aqidalariga bag’ishlangan bu asarda Movarounnahr va

Hindistonga oid o’sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bo’yicha qiziqarli ma’lumotlar ham jamlangan. Asar besh qismga bo’linadi:

1.E’tiqodiya

2.Kitob us-salot

3.Kitob uz-zakot

4.Kitob us-savm

5.Kitob ul-haj

Asarning kirish qismida har bir musulmon uchun amal qilinishi zarur bo’lgan shartlar ustida gap boradi.Avval besh farz –iymon,salot,zakot,savm,haj haqida qisqacha to’xtab o’tiladi.So’ngra besh farzning avvali bo’lmish iymon haqida haqida tafsilotlar bilan bayon etiladi.

Muallifning o’zi asarning hamd qismida shunday yozadi: “Insonning jismida necha tuk bo’lsa,ular sening va boshqa barcha insonlarning tanida til bo’lib,hammasi Allohning hamdini aytib,Uni zikr qilsa,oylaru yillar Unga hamdu sano aytsa,barchalarining so’zi bir bo’ladi: hammalari o’z ojizligiga iqror bo’ladi,xolos”

Bobur bu asarning “Kitob nazmining sababi” nomli bobida farzandlari Humoyun Mirzo va Komron Mirzolarga islom ilmini egallashlari uchun yozib qoldirayotganini quyidagicha bayon qiladi:

Bilgasen ey xo’jasta-e farzand,

Jigarim birla jonima payvand.

Mas’alalarki,ul zarur erdi,

Bilmasang diningga qusur erdi.

Yetti ko’nglumgakim yig’ishturmasam,

Nazm tartibida sig’ishturmasam.

To ani zabt qilgasen oson,

Ul masoyili bilgasen yakson.

Tonglaliq kundakim hisob o’lg’ay,

Manga ajru senga savob o’lg’ay.

Bobur “Ishorat imomg’akim,muqtadoyi dinu peshvoyi ahli ta’yinlar” degan bobda axli sunnat val jamoat fiqhining to’rt imomi barhaq,ergashiladigan zotlar ekanini ta’kidlaydi va imomlarning nomini sanab : Birisi Abu Xanifayi No’mon,yana biri Shofiyyi purdondir,yana biri Imom Moliku,yana Ahmad (ibn Hanbal) ekanligini ta’kidlaydi.Bularning har biriga ergashib,izidan borgan kishi yaxshi darajalar va najot topishini ta’kidlaydi.

Bobur Mirzo “Mubayyin” xotimasida:Ey Bobur,bu kitob tasnifida agarchi ranj chekkan bo’lsam-da, qo’limga shunday bir ganj-xazina kirdi,har qanday ganjni xarj etish bilan kamayadi,ammo bu ma’naviy ganj-bu ilmni xazinasi xarj etgan sari tobora ortib boradi”,deydi.Muallif asar yakunida kitob nomi haqida so’zlab: “G’ayrat,shijoat ko’rsatib jiddu jahd qilib tamomlagan bu kitobimda shariat masalalarini ochiq bayon etganim uchun uni “Mubayyin” (Ochiq bayon etuvchi) deb nomlagan bo’lsam ne ajab!” deydi.

“Mubayyin” asarining kechagi va bugungi holatini haqida ma’lumot beradigan bo’lsak,ishbu kitob Sovetlar davrida xalqdan yashirilgan ,faqatgina istiqlol yillarida izohlar bilan qayta nashr etilgan.Bundan tashqari Darakchi.uz saytining 2021 yil 26-may xabariga ko’ra O’zbekistonning Erondagi elchixonasiga Zahiriddin Muhammad Boburning “Mubayyin” asari qo’lyozmasining fotonusxasi topshirilgan.Kitob nusxasi Eron fors tili va adabiyoti akademiyasining raisining o’rinbosari Muhammad Rizo Nossiriy tomonidan o’zbek diplomatlariga taqdim etilgan.Ma’lumotlarga ko’ra,ushbu qo’lyozma bundan 400 yil oldin Hindistonda qog’ozga tushirilgan.Asar qo’lyozma

nusxasi Eron hududiga Kashmir orqali olib kelingan.Kitob so’nggi 120 yildan ortiq vaqt davomida “Guliston” saroyi muzeyi kolleksiyasida saqlanmoqda.

Bugungi kunga kelib ham Boburning ushbu asari o’z qiymatini aslo yo’qotmagan.Ko’pgina Bobur shunos olimlar,shu jumladan taniqli yozuvchi Mirzo Kenjabekning “Bobur Mirzoning “Mubayyin” asari” nomli ilmiy ishlarini ko’rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Zahiriddin Muhammad Bobur “Mubayyin” Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti,Toshkent-2000

2. www.hidoyat.uz sayti

3. darakchi.uz sayti

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDA MILLIY-MADANIY FRAZEOLOGIZMLARNING QO‘LLANISHI

Oqmamatova Muqaddas Farxodovna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur she’rlarida milliy-madaniy frazeologik birliklarning qo‘llanishi va ularning ingliz tilidagi tarjimasida e’tibor berilishi lozim bo‘lgan jihatlar borasida fikr yuritildi.*

Annotation: *This article discusses the use of national-cultural phraseological units in the poems of Zahiriddin Muhammad Babur and aspects that should be considered in their English translation.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается употребление национально-культурных фразеологизмов в стихотворениях Захириддина Мухаммада Бабура и аспекты, которые следует учитывать при их переводе на английский язык.*

Kalit so‘zlar: *frazeologik birliklar, g‘azal, ruboiy, fard, tuyuq, memuar, murabba, misra, bayt, janr, evolutsiya, arxaizm, istorizm, leksema, ijtimoiy-etnik, ottenka.*

Key words: *phraseological units, ghazal, rubai, memoir, byte, genre, evolution, archaism, historism, lexeme, socio-ethnic.*

Ключевые слова: *фразеологизмы, рубаи, мемуар, жанр, эволюция, архаизм, историзм, лексема, оттенка, социально-этнический.*

Har qanday tilning boyligini, leksik-semantik imkoniyatlarini, jozibasini shu tilning frazeologik til birliklari ko‘rsatib beradi. Shu bois biror bir ijodkorning she’rlari o‘rganilganda uning badiiy mahorati masalasi birinchi o‘rinda turadi. Chunki shoir so‘z bilan ishlaydi. Bo‘lganda ham so‘zning semantikasi, badiiy tasvir

vositalari, frazeologik birliklarni qo‘llashdagi jihatlar asosiy mezon hisoblanadi.

Bunda o‘zbek tilidan bevosita ingliz tiliga tarjimalarni amalga oshirmoqchi bo‘lgan har qanday tarjimon, eng avvalo, har ikkala tilning milliy qadriyatlari, urf-odatlarini bilishi barobarida mazkur tildagi milliy-madaniy frazeologizmlarni to‘g‘ri tushunib olmog‘i lozim.

Ayniqsa, kichik she’riy asarlar tarjimasi yirik hajmdagi doston-u romanlarning tarjimasidan farqli o‘laroq talay xususiyatlarga ega hisoblanadi.

Binobarin, kichik janrdagi ruboiy yoki tuyuqni tarjima qilayotganda asliyatdagi badiiy tasvir vositalarini inobatga olmay, o‘zga badiiy unsurlar yordamida ham asliga ruhan yaqin asarni yaratish mumkin bo‘ladi. Masalan, Zahiriddin Muhammad Boburday iste’dodli shoir she’rlari tarjimasida ham mazkur jihatlar ahamiyatlidir.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” memuar asari tarjimasida esa batamom boshqa badiiy vositalar bilan o‘girish o‘zini oqlamaydi. Buning imkoni ham yo‘q. Ruboiy va fardlar, tuyuq va murabbalar tarjima jarayonida butunligicha yangidan o‘ylanishi va bir zarbda to‘laligicha qog‘ozga tushishi mumkin.

Yirik asarlarni ayni usulda yaxlit qayta yaratib bo‘lmaydi. Agar bu asar doston bo‘lsa, baytma baytlik prinsipining o‘zidayoq bunday imkon yo‘qqa chiqadi. Yoki aksincha, ruboiy yoki g‘azal janrlari baytma-bayt yo misrama-misra tarjima qilinadigan bo‘lsa, unda yirik janrdagi asarlarni o‘girishdan ko‘ra ham murakkabroq jarayon boshlanadi. Quyida biz o‘z g‘azal va ruboiylari bilan adabiyotimiz tarixida munosib o‘rniga ega bo‘lgan dilbar shoir Zahiriddin Muhammad Bobur she’rlarida milliy-madaniy frazeologik birliklar qo‘llanishi va ularni ingliz tiliga o‘girishdagi ayrim murakkabliklar borasidagi fikrlarimizni siz bilan o‘rtoqlashamiz.

Ma’lumki, Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining barcha asarlarida turkiy tilning lisoniy imkoniyatlarini keng ochib bera olgan ijodkor.

Garchi shoir asarlarida arabiy, forsiy, mo‘g‘ul tillarining unsurlari ham uchrasa-da, u o‘z davrining turkiy tilidan unumli foydalana olgan.

Ta’bir joiz bo‘lsa, Alisher Navoiy g‘azal mulkining sutoni bo‘lsalar, Zahiriddin

Muhammad Bobur ham ruboiy janrida ana shunday shuhrat topishga loyiq ijodkor.

“Tarjimonlar ijodiy yo‘li yoritilar ekan, o‘z-o‘zidan muayyan tarjimalarning paydo bo‘lish tarixi ham o‘rganildi. Tarjimalar saviyasini belgilashda ular yaratilgan davr xususiyatlaridan kelib chiqib yondashishga, shuningdek, tarjimonlar ijodiy evolyutsiyasini ko‘rsatishga ham e’tibor berildi.”[v]

Darhaqiqat, tarjima qilinadigan har qanday badiiy asarning davri, albatta, hisobga olinadi. Holbuki, mumtoz asarlar va ularning til xususiyatlari, arxaizm, istorizmlarning bugungi kun bilan bog‘liqliklari e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Balki ayrim holatlarda bu kabi jihatlar alohida izohlar ham talab qilishi (realiyalar singari) mumkin.

To‘g‘ri, frazeologik birliklar aslida leksikologiya bo‘limidan o‘tgan asrlarda tilshunos olimlar tomonidan alohida til birligi sifatida ajratilgan.

Bu borada fransuz tilshunos olimi Ferdinand de Sossyur hamda rus olimi akademik V.V.Vinogradovning xizmatlari beqiyos.

Zahiriddin Muhammad Bobur she’riyatining asosiy qismini hasb-u hol motivlari tashkil etgani bois shoir she’rlarida qo‘llangan frazeologik birliklar (idiomatika) ko‘proq shoir ruhiyatini, uning insonlar o‘rtasidagi munosabatlarini, ijtimoiy-etnik qarashlarini ifodalaydi.

Masalan:

Har nimaga g‘am yema, g‘am ko‘p turur,

Aysh bila o‘zni ovutmoq kerak.[v]

“G‘am yemoq” iborasi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha izohlanadi: “g‘am yemoq 1) g‘am-hasratda bo‘lmoq, g‘am chekmoq; 2) tashvishda bo‘lmoq”[v]

Mohiyatan olib qaraganda shoir hayoti, asosan, jang-u jadallardan, Vatandan uzoqlik dardi va ayriliq g‘amlaridan iborat.

Yuqoridagi baytni tarjimasida ana shu jihatlarni ko‘zdan qochirmaslik lozim.

Quyida baytni ingliz tiliga tarjimasini tahlil qilib ko‘ramiz:

Grief is a lot, don’t worry about everything,

You have to indulge yourself with something.

Baytdagi “g‘am yemoq” birligini ingliz tilidagi tarjimada “don’t worry about” birligi bilan ifodaladik. Bu frazeologik birlikning ingliz tilida ko‘plab sinonimlari mavjud bo‘lib bular quyidagilar: “never mind”, “take it easy”, “forget it” va boshqalar. She’rdagi baytning hijolar soni hisobga olinib, yuqoridagi baytning tarjimasida “don’t worry about” birligidan foydalandik.

Bobur bo‘lib turur ikki ko‘zim yo‘lida to‘rt,

Kelsa ne bo‘ldi qoshima bir-bir mango manga.

Yuqoridagi baytda “ko‘zi to‘rt bo‘lmoq” frazeologik birligi qo‘llangan bo‘lib, ushbu til birligi quyidagicha izohlanadi:

“Ko‘zi to‘rt bo‘lmoq” yo‘liga intizor[v] degan ma’noni ifodalaydi va bu frazeologizmni ingliz tilida “looking forward to”, “hoping for”, “watching for” birliklar bilan ifodalash mumkin. Baytni ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida yuqoridagi baytda frazelogizmlarning sinonimlarini qofiya va hijolar soniga mos kelishini hisobga olib tanlaganimizdek tanlab tarjimada qo‘llanadi.

Xuddi shu singari “ko‘z” so‘ziga komponent sifatida yana bir frazeologik birlikning tahlilini kuzatamiz:

Ey gul, meni zor etmaki, husnung chamanida,

Ko‘zni yumub ochquncha , bu gulzor topilmas.[v]

Bu bayt hayotning o‘tkinchi ekanligini aytish barobarida “ko‘z ochib yumguncha” frazeologik birligi juda tez, bir lahzada (vaqt haqida) ma’nolarini ifodalaydi. Ingliz tilida “before you could say Jack Robinson” iborasi keng tarqalgan va bu ibora “ko‘z ochib yumguncha” ya’ni juda tez fursatda degan ma’noni anglatadi.

Gulning o‘z mavsumi bor, shoir ifodasiga ko‘ra hayot-g‘animat. Uning har bir lahzasining qadrini bilish lozim, shu jumladan yoshlikning ham.

Boburning shoirona mahorati frazeologik birliklar misolida yanada ta’sirchanlik bilan namoyo bo‘ladi. Ayniqsa, Bobur g‘azallarida badiiy san’atlarni

ustalik bilan qo‘llaydi, so‘zlarga ohang jozibasini ham yuklaydi.

Ana shunday baytlaridan biri:

Visoli lazzatidin zavq topmog‘liq erur dushvor,

Firoqi shiddatida yo‘qsa jon bermaklik osondur.[v]

Visol va firoq, dushvor-oson leksemalari orasidagi leksik antonimlik mavjud bo‘lib, bevosita “zavq topmoq” va “ jon bermoq” frazeologik antonimlari ham shu qadar badiiy ifodasi bilan bog‘lanadiki, bunday semantik mutanosiblik she’rda ma’noning o‘zaro uyg‘unligini kasb etadi.

“Jon bermoq” frazeologik birligi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha izohlanadi:

“Jon bermoq” 1) vafot etmoq, o‘lmoq;

2) *ko‘chma*. taslim bo‘lmoq, kurashni, qarshilikni to‘xtatmoq;

3) *ko‘chma.* astoydil xizmat qilmoq, fidoiylik qilmoq.

Garchi mazkur ibora izohlardagi birinchi ma’noga to‘g‘ri kelsa-da, ikkinchi ma’noda qo‘llash ham she’r ifodasiga putur yetkazmaydi, balki o‘quvchining o‘z dunyoqarashidan kelib chiqib fikrlashiga bog‘liq bo‘ladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur she’riyati o‘zining lisoniy imkoniyatlari bilan o‘ta nozik didli o‘quvchini ham e’tiborsiz qoldirmaydi.

Shoir so‘z qadrini yaxshi biladi, uning qalamidan tomgan har bir she’r san’at asari darajasida ma’no ottenkalarini jamuljam eta oladi.

Ularda xalqimizning nozik didi, dunyoqarashi milliy-madaniy iboralar orqali yorqin namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Adabiyot. II kitob. B.To‘xliyev va boshqalar. Toshkent: 2014.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V jild. Toshkent: 2008.
3. O‘zbekistonda badiiy tarjima taraqqiyoti. Toshkent: 1986.

Z.M.BOBUR G'AZALLARIDA VAZNLARNING VARIATSIYAVIYLIGI

Qo'shmamatova Saida Mamatkarim qizi
Guliston Davlat Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada aruz ilmida variatsiyaviylik hadisasini Z.M.Bobur g'azallarida tahlil qilib yoritib berilgan. Shuningdek, aruz variatsiyaviylik o'rgangan bit qator olimlarning fikrlari kiritilgan.

Annotation: In this article the phenomenon of variation in the science of aruz in analyzed and covered in Z.M.Babur's poems. It also includes the views of a number of scholars who have studied the variations of aruz.

Kalit so'zlar: Z.M.Bobur "Muxtasar",aruz,maqsur,mahzuf,vazn,afoyil.

Key words: Z.M.Bobur "Muxtasar",aruz,maqsur,mahzuf,vazni,afoyil.

Variatsiya so'zi lotincha "o'zgartirish"demakdir. Variatsiya bir biriga o'xshash hodisalarning yonma yon kelishi yoki biror hodisaning kichik o'zgarishi hisoblanadi. Variatsiya variantlashishga teng hodisa sanaladi. Variatsiyaviylik(varianddoshlik) hosisasi adabiyotda ham keng uchraydi. Xususan, aruz vaznida ham vaznlarning kichik o'zgarishi kuzatiladi. Bunda so'zlarning harakatli yoki sokinligi ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, o'bek tilida "**yer**" bilan "**yor**" so'zlari miqdor va sifat nuqtayi nazarda teng, ammo aruzda "**yer**" 2 harf, "**yor**" 3 harf hisoblanadi. Bu kabi hodisalarga adabiyotshunos va aruzshunos olim S.Tohirov quyidagicha izohlaydi: [1]" Bunday kichik tafovutlar vazndagi xatolik sifatida emas, vazn variantlari yoki variatsiyalari sifatida qaraladi".

Bunday variatsiyaviylik Z.M.Bobur ijodida ham mavjud.

Ul pari ishqida Bobur jon berib, ey ahli **ishq**

– v – – / – v – – / – v – – / – v – ~

Ishq atvorini ishq ahlig'a mushkil qilg'u**dek**

– v – – / – v – – / – v – – / – v – –

bu baytning aruz va zarb ruknidagi "**ishq**" 4 harf, "**dek**" bog'ini 3 harfdan iborat bo'lsa, bunda "**ishq**" o'ta cho'ziq, "**dek**" cho'ziq hijolardir. Shuningdak vaznning nomida ham tafovut yuzaga keladi.

Birinchi misra Ramali musammani maqsur vaznida, ikkinchi misra ramali musammani mahzuf vaznidadir. Bu haqida Z.M.Bobur "Muxtasar"asarida shunday yozadi: "Bilmak kerakkim, mahzuf bila maqsurni... aruz va zarbda jam' qilsa bo'lur. Bu shart bilakim, bayt muqaffo bo'lmag'ay..."

Yana bir shunday hodisani quyidagi baytda ham tahlil qilib ko'ramiz.

Sarv qadding borida o'z qaddini chun

– v – – / – v – – / – v – – /

qildi vasf

– v ~

O'tqa yoqti bog'bon sarvi sixisin

– v – – / – v – – / – v – – /

[1]Tohirov S.Q.Aruz vazni qoidalari.O'quv qo'llanma.Samarqand SamDU nashri, 2020. 93-bet

sindurub

– v –

bu baytning ham aruz va zarb ruknlaridagi "**vasf**" o'ta cho'ziq "**rub**" esa cho'ziq ekanligi ayondir.

Shu jumladan, misralar boshidagi ruknlarda ham shunday tafovut kuzatiladi, bunda sadr ruknida "**sarv**" so'zi o'zbek tilida bir bo'g'in bo'lib, aruzda 2 hijoni tashkil qilsa, ibtido ruknidagi "**otqa**" so'zida 2 alohida bo'ginga bo'linib, 2 hijodan iborat hisoblanadi. Bu kabi variatsiyalardan Z.M.Bobur g'zallarida mohirlik bilan foydalangan

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yaxati:

1. D.Yusupova. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari.Toshkent:"TA'LIM–MEDIA"nashriyoti, 2019.
2. Tohirov S.Q.Aruz vazni qoidalari.O'quv qo'llanma. Samarqand SamDU nashri, 2020.

BOBURIYLAR SULOLASINING MA’NAVIY-MA’RIFIY TAFAKKURIGA QO’SHGAN XISSASI

Muxtorov Rashidjon Ravshanjon o’g’ili
TDSHU talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Boburiylar sulolasiga asos solinishi va ular tomanidan amalga oshirilgan islohatlar haqida yoritilgan bo’lib, ularning mamlakat rivojidagi tasiri va Boburiylar tomonidan yaratilgan asarlar haqida keltirib o’tilgan.

Boburiylar — Hindistonda (1526—1858) hukmronlik qilgan turkiy sulola. Ma'naviy madaniyatimizning ulug' vakillari orasida Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar o'ziga xos munosib o'ringa ega. Bobur 1483 yilning 14 fevralida Andijonda, Farg‘ona ulusining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga kelgan.Temuriylar sulolasining vakili, Amir Temur avlodi, Boburiylar sulolasining asoschisi. O'zbekiston davlatchiligi taraqqiyotida Amir Temur va Temuriylar sulolasi muhim o‘rin tutadi. Bobur esa ushbu buyuk ajdodlarga munosib shohlardan biridir. Bobur Mirzo va boburiylar Afg'oniston, Hindiston, Pokiston, Kashmir va Bangladesh xalqlari tarixida ham alohida iz qoldirdilar. Zahiriddin Muhammad Bobur bu xalqlar ilm-ma'rifati va mamlakat obodonligi yo'lida ulkanishlar amalga oshirgan, ayniqsa Hindiston taraqqiyotiga ulkan hissa qoshgan. Boburiylar Hindistonda Islom dinini yoyishgan. Ayni damda ular bu e‘tiqod orqali hind diyorida yangicha boy madaniyat va san‘at barpo etganlar. Bugungi Hindiston me‘morchiligi, adabiyoti va boshqa ko’plab sohalari ham Boburiylar ta‘sirida boyigan, rivojlangan va yangi cho‘qqilarga chiqqan. Buyuk sarkarda ko’plab harbiy yurishlar bilan birga, Agra va Dehlida yirik bog‘lar, ariq va boshqa inshoatlar qurdirdi, masjid, maktablar bunyod etdi. Ilm-ma'rifatga katta e'tibor qaratdi. Shoh va shoir, uning avlodlari Hindiston ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy rivojiga munosib hissa qo‘shgan.

Hind xalqi ular bilan hamisha faxrlanib kelgan. Ma'lumotlarga ko‘ra, Bobur hayotlik chog‘ida ikkita devon tuzgan. Davlat arbobi sanalgan Bobur asarlari Sharq mumtoz lirik adabyotida ulkan xazina hisoblanadi. Dunyo qo'lyozma fondlari va kutubxonalarida Devonining 9 ta nusxasi borligi aniqlangan. Bundan tashqari, Bobur jahonga mashhur “Boburnoma” asarini yozgan. Bu asarda Movarounnahr, Xuroson, Hindiston xalqlari tarixi, urf-odat va an’analarini, tarixiy shaxslari haqida aks etirilgan. Bobur Xo’ja Ubaydullo Ahrorning “Volidiya” risolasini fors tilidan o’zbek tiliga tarjima qildi, aruz vazni va qofiya masalalariga “Mufassal” asarini yozdi. Adabiyot va san’at Boburiy hukmdorlar davrida uyg‘un holda, yuksakka ko‘tarildi. Ayniqsa, Akbar, Shoh Jahon va Jahongir Mirzolar davrida sa'natga e’tibor tufayli Hamzanoma, Nizomiy «Xamsa»si, Darabnoma kabi asarlar uchun suratlar ishlandi. Ushbu sulola vakillari tomonidan qoldirilgan bebaho ma'naviy meros hind va o‘zbek xalqlari boyligidir. Bundan tashqari, sulola vakillari davrida Hindiston sa’nati va memorchiligiga Markaziy Osiyo uslubining kirib kelishi kuzatildi, Bobur va uning hukmdor avlodlari huzurida o’sha davrning ilg’or va zehni o’tkir olimlari, shoirlari va davlatar aboblarini mujassam etgan mukammal bir ma’naviy-ruhiy muhit vujudga kelgandi. Boburiylar davlatidagi madaniy muhitning Hindiston uchun ahamiyati haqida hind xalqining mashhur arbobi Javoharla’l Neru shunday yozgan edi: “Bobur Hindistonga kelgandan keyin katta siljishlar yuz berdi va yangi rag’batlantirishlar hayotga, san’atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi”.

Bugungi kunda Bobu va Boburiylar sulolasiga taalluqli kòplab moddiy boylik va asarlar, qo'lyozmalar saqlanib qolgan bolib ular dunyo adabiyotini boyitib turibdi. Mana besh asrdan ortiq vaqt o'tdiki, Bobur Mirzo asrlari ortilgan ezgulik karvoni jahon ahlini hayratda qoldirib, mangulik sari bormoqda . Bu bizning g'ururimiz, faxrimiz.

Shunday qilib, Boburiylar sulolasi Hindistonda 332 yil hukmronlik qildilar. Shu qisqa vaqt davomida Bobur va uning avlodlari nafaqat, Hindiston va Òzbekiston

balki, butun dunyo manaviy-ma'rifiy tafakkuriga ulkan xissa qo'shdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://Uz.m.wikipediya.org
2. https://Xalqso’zi.xs.uz
3. https://dunyo.info
4. https://cyberlenika.ru
5. https://qomus.info

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR IS GREAT COMMANDER AND POET

Davlatova Sevara

Student of the National University of Uzbekistan named after Mirza Ulugbek

Annotation:This article gives information about the work,life and military campaigns of Zahiriddin Muhammad Babur.Article involves his political skills in public erection and administration process in Movorounnahr as well as scientific and artistic legacy of Zahiddin Muhammad Babur.

Key words: Zahiriddin Muhammad Babur,commander, Shaibanikhan,poet, books,lyrical works,Boburnoma, after the independence.

Zahiriddin Muhammad Babur played an essential role in medieval Eastern culture, poetry and literature with his broad outlook and excellent intellect.Babur was not only commander but also writer,scholar,poet and statesman.He made a crucial contribution to the development of world science and art.Because of his courageous,justness and having an extensive outlook Babur created a huge dynasty in India which is called “Baburies”.

The great poet and talented military was born in 1483 in Andijan. After an unexpected death of his father Babur became the ruler of Ferghana. In his life he came across different wars and tried to protect and develop his motherland from enemies ,especially Shaibanikhan.For the throne of Andijan he had to fight against his brother Jahongir Mirzo, his uncle Sultan Ahmad Mirzo, his uncle Sultan Mahmudkhan and other rivals.After a longlasted wars and revolts which lasted for several years, yielded nothing but massacres: Shaibanikhan, who had mixed with a large military force, won, and Babur was forced to leave Samarkand. After Shaibanikhan's conquest of Andijan in 1504, Babur moved south and established his rule in the Kabul nation. Between 1505 and 1515, he made several attempts to return

to Central Asia. But these attempts did not profit any results. Later, in order to consolidate his position, he fought several battles for the conquest of India between 1519 and 1525. In April 1526, Babur won the battles with the Indian Sultan Ibrahim Lodi in Panipat and in March 1527 with the governor of Chitora, Rano Sango.In India, as in Afghanistan, Babur has stepped up a lot of social assistance, which has a vital impact on the country's development. He put an end to fragmentation and internal strife, unified the provinces, focused on the quality of the centralized state and the beautification of the country, the development of science as well as agriculture. In addition to large-scale government work in India, Babur continued his literary work and created the above-mentioned works. Bobur's world-famous masterpiece is the Boburnoma. It is known that it covers the history of the peoples of Movarounnahr, Khorasan, Iran and India during the period of Babur's life. The work consists of three main parts: the first part is about the events in Central Asia in the middle of the 15th century, the first part is about the events of the end of the 15th century and the first half of the 16th century in Kabul, Afghanistan; One hundred pages are devoted to the history of the peoples of Northern India in the first quarter of the 16th century. The Boburnoma describes the political and economic situation in the Fergana region, its capital Andijan, the major cities of Central Asia: Samarkand, Bukhara, Karshi, Shakhrisabz, Osh, Urgench, Uratepa, Termez and other cities. extremely rare data. It contains information about the major cities of the Kabul nation, Kabul, Ghazna, and many of their districts, provinces, and northern India. When we turn the pages of the Boburnoma, we can see the qualities and shortcomings of the peoples of Central Asia, Afghanistan and India, as well as the breadth and complexity of their world of thought, the problems of life at that time, the political and social life of Babur. This type of information in the Boburnama is not so clear and complete in the works of other historical sources written during the reign of Babur: Mirkhand, Khandamir, Muhammad Salih, Binoi, Muhammad Haydar, Farishta, Abul-Fazl Allami and other historians. In "Boburnoma" the author expresses his highest opinions and comments about Alisher Navoi, Abdurahmon Jami, Behzod,

Ulugbek Mirzo and other scholars. Although it reflects the history of the peoples of Movarounnahr, Khorasan, India, and Iran at the end of the 15th century and the first half of the 16th century, there are also many current economic and social issues, as well as political, economic, and trade relations between the above-mentioned regions. The king's masterpiece contains very rare information about the location, climate, flora and fauna, mountains, rivers, peoples, tribes and peoples and their living conditions, customs, important historical buildings, Hindu and Muslim temples, weddings and funerals. That is why "Boburnoma" as a historical and literary heritage amazes scientists around the world. For many years, prominent orientalists of the West and the East have worked hard to bring the content of the Boburnoma to the world community. For example, the Dutch scientist Witsen, the British scientists J. Leiden, V. Zrskin, R. Koldekot, A. Beverej, T. Albot, the German Yu. Kleinrat and A. Keyzer, Pave de Courteil of France, Mirzo Nasriddin Haydar Rizvi of India, R. R. Art and N. I. Bayur of Turkey and Bakke Gromon of France, Abulhay Habibi of Afghanistan, Rashid Akhtar of Pakistan, Nadvi and Shah Alam Mawlid. Japanese scholars are among the world's leading orientalists in the study of the Boburnoma.

Babur, who was well acquainted with the literature and history of the past, music and art, and devoted himself to religious teachings, has always been in the circle of scholars and scholars, especially in the field of creativity, patronage and respect for professionals. did, encouraging them materially and spiritually. This kind attitude to the people of art and creativity has never been in vain. Bobur was creative by nature. From his youth to the end of his life, he was engaged in productive creative work, never ceasing to create under any circumstances, and as a result, left a rich scientific and literary heritage, which is important in all respects.Babur is also known in Uzbek literature for his graceful lyrical works. At the same time, in Babur's lyrics, the human qualities, which are the main content of the poem, are very beautifully and skillfully expressed. In his lyrical poems, Babur always called people to goodness, justice, humanity, and the appreciation of high human feelings. In addition to his

lyrical poems and historical "Boburnoma", Babur also wrote works in Islamic jurisprudence and other fields. In 1522 he wrote to his son Humayun. In his book Mubayyin, he describes the tax system of the time, the rules of tax collection, how much tax is collected from whom according to the Shari'a, and other issues. In his pamphlet Khatti Baburi, he tried to simplify the Arabic alphabet from the point of view of Turkic languages, especially Uzbek. As an experiment, he copied the Qur'an in the Hatti Baburi alphabet. Bobur's dream is about weight and rhyme. It is known that there was a work called "Mufassal", but this work has survived.

Babur has a worthy place in the history of the spiritual culture of our people as a historian, lyric poet and scholar who has contributed to the solution of social problems with his well-known and popular works. After the independence of Uzbekistan, Babur found real dignity in his country.The 510th anniversary of Babur's birth was celebrated in 1993. Andijan has a university, a theater, a library and a national park named after Bobur ("Bobur's Garden"). The Babur National Park Complex, the Museum of Babur and World Culture, and the symbolic tomb of the poet have been built. A statue of the poet was erected in the city center (author Ravshan Mirtojiev) and in the memorial complex in Bobur Park (author Kadyrjon Salohiddinov). One of the central streets in Andijan, as well as a park and a street in Tashkent, and a park in the city of Khanabad, Andijan region, were named after Babur. The Bobur Medal of the Academy of Sciences of Uzbekistan has been established. Orientalist Ubaydulla Karimov became the first winner of this medal. The International Bobur Foundation (1993.23.12.12), headed by Andijan naturalist Zokirjon Mashrabov, has done a great job in studying Babur's work. The Foundation's scientific expedition has traveled more than 200,000 km by car, covering more than 200,000 kilometers in more than 10 Eastern countries. entered the property. On the basis of this information more than 10 scientific, documentary, artistic works (Z. Mashrabov, S. Shokarimov: "Bobur for centuries"; S. Jalilov: "Bobur's Fergana state", "Bobur and Andijan"; Kenja: "Hind soriga"; H. Sultanov:

"Bobur's dreams", "Boburiynoma"; close documentaries, video films (F. Rasulov: "In the footsteps of Bobur", "Holy shrines"; T. Ruziev: "Salutations of Bobur", "International Scientific Expedition named after Bobur"; T. Hamidov: "Pride", etc.). The Fund has branches in Lahore (Pakistan), Hyderabad (India), Abu Dhabi (United Arab Emirates), Moscow (Russia), Osh (Kyrgyzstan), Tashkent and Namangan (Uzbekistan).

Independence gave us unlimited opportunities to explore deeper and fuller precious facets of Zahiriddin Muhammad Babur’s creativity, to make his heritage a property of the international community.

References:

1. Adizova I. History of Uzbek classical literature. (I half of XVI-XIX centuries) - Tashkent, Science, 2006.
-240 p.

2. https://www.un.int/uzbekistan/news/zakhiriddin-muhammad-babur

3. https://tafakkur.net/zahiriddin-muhammad-bobur.haqida

4. https://conferencepublication.com

З.М.БОБУР ДАВРИДА ШАРҚ МЕЪМОРЧИЛИК АНЪАНАСИ

Абдувоситова Дилнавоз Алишеровна
Андижон вилояти, Асака туманидаги 55-умумтаълим мактаби ўқитувчиси

Аннотация: *Ушбу мақолада З.М.Бобур даврида Шарқ меъморчилик анъанаси, бобурийлар сулоласи даврида меъморчилик мактабига асос солинганлиги, Бобурнинг меъморчиликка алоҳида эътибор бериб, чорбоғлар куришга киришилганлиги, чорбоғ Шарқнинг иқлим шароити билан ажралиб туриши ҳамда шарқ миниатюрасида чорбоғларнинг ўрни ҳақидаги маълумотлар баён этилган.*

Калит сўзлар: *Шарқ меъморчилиги, чорбоғ, қадриятлар, аждодлар, цивилизация, меъморий мўъжизалар.*

Аннотация: *В данной статье восточная архитектурная традиция времен З. М. Бобура, что школа архитектуры была основана во времена династии Бабури, Особое внимание Бобур уделяет архитектуре и начал строить сады, климат характеризуется климатическими условиями Востока, роль садов в восточной миниатюре.*

Ключевые слова: *Восточная архитектура, сад, ценности, предки, цивилизация, архитектурные чудеса.*

Annotation: *In this article, the Eastern architectural tradition in the time of Z.M. Bobur, the founding of the school of architecture during the Baburi dynasty, Bobur pays special attention to architecture and began to build gardens, the climate is characterized by the climatic conditions of the East, and the role of gardens in the eastern miniature.*

Keywords: *Oriental architecture, garden, values, ancestors, sivilization, architectural wonders.*

“Ҳозирги пайтда жамият ва цивилизациялар аввало ижтимоий қадриятлар... буюк аждодларимиз бўлган мутафаккирларимиз асарларини, уларнинг бутун жаҳон цивилизацияси ривожига қўшган бебаҳо ҳиссасини чуқур ўрганиш, теран англаш ва кенг оммалаштириш алоҳида аҳамиятга эгадир” [1,35].

Ана шундай асарлардан бири буюк юртдошимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома”сидир. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўзининг шоҳ асари бўлмиш “Бобурнома”ни ўн икки ёшида яъни Фарғона мулкига 1494 йили подшоҳ бўлганидан бошлайди. [2,4].

“Саодатманд шоҳ”- Заҳириддин Муҳаммад Бобурга ҳинд тупроғида беш йилгина (1525-1530 йиллар) ҳукмдорлик нашъасини суриш насиб этди, холос. Лекин Заҳириддин Муҳаммад Бобур асос солган давлат 332 йил давом этди. Жангу жадаллар, мислсиз уқубатлар, чексиз инсоний изтироблар, ватан соғинчи билан йўғрилган бу йиллар янги туркий-ҳиндий давлатнинг шаклланиш даври ҳамда ҳассос шоир Заҳириддин Муҳаммад Бобур шеърий ижодининг гуллаган бир фасли бўлди.

Гарчанд Заҳириддин Муҳаммад Бобур тарих ҳукми билан бу юртларга фотиҳ сифатида лашкар тортиб келган бўлса-да, жаннат мисол бу ўлкани тақдир тақозосига кўра ўзига ватан тутди, Гарчанд туғилган диёри-Андижон, умрининг шиддатли дамлари кечган муаззам Самарқанд соғинчи сўнгги нафасигача ёдидан чиқмаган бўлса-да, ҳинд тупроғига, ҳинд элига ҳам меҳр қўйди, уни обод ва якдил қилишга интилди, ўзаро адоватли қабилаларни бирлаштириб, марказлашган давлатга асос солди. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг тарихий хизмати шундаки, у бир томондан, Шайбонихон истилоси туфайли Туркистонда барҳам топган темурийлар сулоласининг фаолиятини ўзга юртларда шуҳрат билан давом эттирган бўлса, иккинчи томондан, ўзи ва авлодларининг мамлакатдорлик сиёсати билан Ҳиндистон давлатчилиги тарихида янги саҳифа очди. Ҳинд мулкини забт этган фотих ўлароқ у ўлканинг бойликларини юртига ташиб кетмади, аксинча, она ватанидан неки ганжу

хирож олиб келган бўлса, барини шу диёрнинг ободончилигига, тарққиётига сарф қилди. Бобурийлар сулоласининг моддий ва маънавий хазиналари эвазига дунёга келган машҳур мумтоз обидалар, меъморий мўъжизалар бугун Ҳиндистоннинг ҳуснига ҳусн, довруғига довруқ қўшибгина қолмасдан, улкан иқтисодий фойда ҳам келтирмоқда [3,275-276].

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўзининг қисқа ҳаёти давомида жуда катта адабий ва илмий мерос қолдириб кетди. Унинг машҳур шоҳ асари “Бобурнома” алоҳида аҳамиятга эга. “Бобурнома”нинг бизга маълум бўлган миниатюрали икки мўътабар қўлёзмаларидан энг тўлиғи ва миниатюралари ниҳоятда юксак маҳорат билан ишланган тенги йўқ нусхаси Британия музейиникидир. 1969 йил сентябрь ойида ЮНЕСКОнинг Темурийлар даври санъатини ўрганиш бўйича ўтказилган халқаро илмий симпозиумди муносабати билан “Бобурнома”нинг Британия музейи қўлёзмасидан танлаб олинган 32 миниатюра нашр этилди. Ана шу аснода филология фанлар доктори, профессор Ҳамид Сулаймон муаллифлигида Бобурнома расмлари альбоми тайёрланди. Альбомда мазкур қўлёзмадаги 93 миниатюра биринчи марта тўлиқ нашр этилди.

Бизга тарихдан маълумки, Ҳирот миниатюра мактабига асос солган Шарқнинг гениал рассоми Камолиддин Беҳзод Алишер Навоий ҳомийлигида тарбия топган улуғ зотлардан биридир. Беҳзод ва унинг шогирдлари (Қосим Али, Мирак Наққош, Дўст Муҳаммад, Шоҳ Музаффар ва бошқалар) ижодида юксак босқичга кўтарилган миниатюра санъати, Султон Ҳусайн Байқаро ҳукмронлиги 1506 йилда мағлубиятга учрагач, унинг кейинги эволюцияси Ўрта Осиё, Эрон ва Ҳиндистонда давом этган. XVI асрда Марказий Осиёнинг қатор шаҳарларида бадиий қўлёзма ва миниатюра санъатининг янги мактаблари пайдо бўла бошладиким, уларда Беҳзод яратган Ҳирот мактабининг энг илғор анъаналари маҳаллий санъаткорлар маҳорати билан билан бойитилган ҳолда янги мазмун, янгича сайқал касб этади” [4,10-11].

Бобурийлар, ҳақиқатдан Темурийлар сулоласининг Ҳиндистондаги давом эттирувчиларидир, деб таърифлайди тарих фанлари доктори, профессор И. М.

Мўминов “Улар айниқса Бобур билан Акбаршоҳ Ҳиндистонда, Темур даврида Ўрта Осиёдаги иқтисодий ва маданий тараққиёт натижасида пайдо бўлган энг яхши анъаналарни давом эттирдилар” [5,44].

Заҳириддин Муҳаммад Бобур меъморчиликка ҳам алоҳида эътибор бериб, чорбоғлар куришга киришади, чорбоғ Шарқнинг иқлим шароити билан боғлиқ бўлиб, ҳоким ёки подшоҳ оиласининг баҳор ойларидан ушбу боққа кўчиб чиқиб, бутун ёзни шу ерда ўтказиши одат бўлган. Бундай боғлар шаҳар четида, кўпинча оқар сув бўйларида қурилган. Боғнинг қўрғон девори атрофларига соя берувчи турли дарахтлар экилган бўлади. Ундан сўнг тартиби билан ҳар хил мевали дарахтлар ва турфа гуллар экилади. “Қурилган бинолар аксари икки қаватли, айвонли. Ўртада атрофини айвонлар ўраб олган чордара хона бўлиб, иккинчи қаватга бино буржларидаги зиналар орқали чиқилади”.

Бундай шоҳона чорбоғлар қуриш Шарқ меъморчилик анъанасининг ажралмас қисми ҳисобланган. Бу анъана темурийлар ва бобурийлар даврида, айниқса, равнақ топган. Масалан, Соҳибқирон Амир Темурнинг Самарқанд атрофида бино қилинган 14 та боғи ҳам аслида чорбоғлар эди. Улар Амир Темур оиласи ва сарой аҳлининг баҳор-ёз ойларида кўчиб чиқиб, истироҳат килишига мўлжалланган. Шунингдек, Бобур ва бобурийлар ҳам Афғонистон ва Ҳиндистонда кўплаб чорбоғлар яратгани тарихдан маълум.

Чунончи, Қобулда ўрнашиб олгач, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг севган машғулоти - турли боғлар яратиш билан шуғулланган, Заҳириддин Муҳаммад Бобур Афғонистонда қуйидаги ўнта боғлар қурдирган: 1. Боғи Шаҳри оро. 2. Чорбоғ. 3. Боғи жиловхона. 4. Ўрта боғ. 5. Сурат боғ. 6. Боғи Моҳитоб. 7. Боғи Оҳухона. 8. Боғи Вафо. 9. Боғи Наврўзий. 10. Боғи Беҳиштий. Яна бир манбада келтирилишича, айрим шаҳарларда “Бўстон-сарой” боғи, “Боғи нур”, “Боғи Хилват” каби ажойиб ва бетакрор чорбоғлар бунёд этилган.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур Ҳиндистонни эгаллаганидан сўнг ҳам, дарҳол Агра шаҳрида боғлар яратишга киришди. Шулардан бири “Боғи гули Афшан”, “Боғи Ором” (Жамна дарёси бўйига жойлашган) бўлиб, Бобур вафот

дастлаб вақтинча ушбу боққа дафн этилган эди. Боғ ўрнида “Ром боғ” номи билан ҳозир ҳам зиёратгоҳ жойдир” [2,21-22].

Заҳириддин Муҳаммад Бобур вафотидан кейин меъморчиликнинг гўзал боғлар барпо этишдек ажойиб анъанани Бобур Мирзонинг авлодлари ҳам давом эттирганлар. Бобурийлар сулоласининг энг буюк вакили бўлмиш Акбаршоҳ даври (1556-1605)да яратилган боғлар ҳақида Акбаршоҳнинг давлат маслаҳатчиси аллома Абулфазлнинг “Отини Акбарий” асарида қимматли маълумотлар берилган. Жумладан, Аградан 23 мил масофада Акбаршоҳ Фатхпур Секрида янги пойтахт барпо этиб, унинг чор атрофини гўзал боғларга буркайди. Кашмирда Сринагардаги Дал кўли бўйида “Насим боғи”ни қурдирган. Акбар барпо этган боғлар орасида Аградаги Секандарада Акбар мақбараси атрофидаги энг гўзали ва маҳобатлисидир. Бобур Мирзонинг невараси Жаҳонгир Мирзо (1605-1627) Ҳиндистон тарихида тасвирий санъат ва боғ яратишнинг буюк ҳомийси сифатида тилга олинади ” [6,71-72].

Кейинча чорбоғлар яратиш тартиби бир оз ўзгариб кетди. XIX асрда Бухорода қурилган “Ситораи моҳи хоса”, Андижоннинг Ойим қишлоғида барпо этилган “Моҳлар Ойим” чорбоғи энг сўнгги шундай қурилишлардандир.

Андижон шимолида “Қўштегирмон” мавзеидаги Эсон Давлатбегим чорбоғи ҳам ўша давр меъморчилигининг анаънавий қурилишлар қаторида туради.

Таникли инглиз адибаси Маргарет Румер Годеннинг (1907-1998) Бобур қизи Гулбаданбегимга бағишлаган асарида Эсон Давлатбегим чорбоғи тасвирланган иккита миниатюра берилган. Бирида ёш Бобурнинг катта онаси билан суҳбати тасвирланган. Миниатюрада чорбоғ ички-ташқи деворининг дарвоза қисмлари шарқона акс эттирилган. Бир неча хизматчиларнинг суратлари ҳам берилган. Уларнинг бирида ташқи девор дарвозасига пиллапоядан кўтарилиб келаётган кишини дарвоза соқчиси кутиб олмокда ва нимадир тушунтирмокда. Сўнгра чорбоғнинг ички девор қисми, эшиги ва

атрофида юрган хизматчилар акс эттирилган. Энг тепада кўшк-айвонда шаҳзода Бобур катта онаси Эсон Давлатбегим билан суҳбатлашиб ўтиришибди.

Иккинчи миниатюрада чорбоғдаги Бобурга Умаршайх Мирзонинг Ахсида юз берган ҳалокати ҳақидаги хабар етказилган пайт акс эттирилган. “Бобурнома”да ёзилганидек, бу нохуш хабар, аввало, чорбоққа келган. “Умаршайх Мирзога бу воқеа юз берганда мен Андижонда, чорбоғда эдим... изтироб ила отланиб, қошимдаги навкар ва савдар билан қўрғон азимати қилдим”, деб ёзади Бобур.

Миниатюрада, афтидан, чорбоғнинг ташқи томони акс эттирилган: мулозимлар отда келган хабарчини ҳаяжон билан кутиб олмоқдалар. Пастда туя ва унинг жиловдори, одамлар кайфиятида бесаранжомлик ҳолати...Бу икки миниатюра чорбоғ ҳакидаги тасаввуримизни анчагина кенгайтириб, бизни бу борада янги маълумотлар тўплашга ундайди” [2,29].

Годен китобидаги миниатюрада гарчи барча хоналар тасвир этилмаган бўлса ҳам, кисман кўшқ, ҳовуз ва баъзи ташқи бинолар кўриниши бор. Миниатюрадаги чорбоғ кўринишлари ёзувчи ифодаси билан қўшилиб, бу масалага оид билимимизни анча кенгайтиради.

Хулоса қилиб айтганимизда, З. М .Бобур даврида Шарқ меъмор-чилиги, “Бобурнома” миниатюраси расмларининг шарқ санъатининг ўлмас обидаларидан бирига айланганлиги ва унда Самарқанд, Ҳирот, Бухоро, Шероз, Табриз ва маҳаллий ҳинд мактабларининг энг яхши анъаналарини ўзига ижодий сингдирган ҳинд тасвирий санъатининг тенги йўқ нодир намуналари бўлиши билан бирга XVI-аср охирларидаги Акбаршоҳ даврида яратилган ҳинд миниатюра санъатининг юксак даражадаги янги услубини ҳам намойиш қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд.- Т:.“Ўзбекистон”. 2017

2. Жалилов С. Шаҳзода Бобур.-Т.: “Movarounnahr”. 2013

3. Хайриддин С. Бобурийнома. -Т. :“Шарқ”. 1997

4. Сулаймон Ҳ. Бобурнома расмлари. -Т.: “Фан”. 1970

5. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. - Т.: “Фан”. 1968

6. Шамсутдинов Р.Т. Андижон тарихидан лавҳалар.- Т.:“Шарқ”. 2013

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI SIYOSATCHILARI NIGOHIDA

Rustamaliyev Mirjalol Hayrullo o‘g‘li
Namangan davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: *Bobur Hindistonda siyosiy muhitni barqarorlashtirish, Hindiston yerlarini birlashtirish, shaharlarni obodonlashtirish, savdo-sotiq masalalarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, bog‘-rog‘lar yaratish ishlariga homiylik qildi. Bobur Hindistonga kelgandan keyin katta siljishlar yuz berdi va yangi rag‘batlantirishlar hayotga, san’atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi.*

Kalit so‘zlar: *“Buyuk mo‘g‘ullar”, sanskrit tili, “Qizil gavhar, “Hindiston brillianti”, filolog-sharqshunos, Go‘ri Amir, Rampur Raza, Chitora, “Boburiylar sulolasi”.*

Adabiyot, nafis san’at, tabiat go‘zalligiga yoshligidan mehr qo‘ygan Zahiriddin, barcha Temuriy shahzodalar kabi bu ilmlarning asosini otasi saroyida yetuk ustozlar rahbarligida egalladi. Biroq uning betashvish yoshligi uzoqqa cho‘zilmadi. 1494-yili otadan yetim qoldi. 12 yoshida otasi o‘rniga Farg‘ona ulusining hokimi etib ko‘tarilgan Bobur qalamni qilichga almashtirib, Andijon taxti uchun ukasi Jahongir Mirzo, amakisi Sulton Ahmad Mirzo, tog‘asi Sulton Mahmudxon va boshqa raqiblarga qarshi kurashishga majbur bo‘ldi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan murosaga kelish uchun unga yon berishga Farg‘ona ulusini ikkiga taqsimlab, yarmini ukasiga topshirishga qaror qildi va o‘zi Samarqand uchun olib borilayotgan kurashga kirishib ketdi. 1526-yil aprel oyida Panipatda Hindiston Sultoni Ibrohim Lo‘di bilan va 1527-yili mart oyida Chitora hokimi Rano Sango bilan bo‘lgan janglarda Boburning qo‘li baland keldi. Tarixiy ma’lumotlarning bayon

qilishicha, Boburning Hindistonga yurishida Dehli hukmdori Ibrohim Sulton siyosatidan norozi bo‘lgan Panjob hokimlari ham Boburni qo‘llaganlar va Sikri jangidagi bu g‘alaba Boburga Hindistonda o‘z hukmronligini uzil kesil o‘rnatish va Boburiylar sulolasini barpo etish imkoniyatini berdi. Yevropa tarixchiligida “Buyuk mo‘g‘ullar” nomi bilan “g‘alati mashhur” bo‘lgan, aslida “Boburiylar sulolasi” Hindistonda 300 yildan ortiq hukmronlik qildi.

Biroq qisqa bir vaqt ichida Bobur Hindistonda siyosiy muhitni barqarorlashtirish, Hindiston yerlarini birlashtirish, shaharlarni obodonlashtirish, savdo-sotiq masalalarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, bog‘-rog‘lar yaratish ishlariga homiylik qildi. Hindistonni obodonlashtirish, unda hozirgacha mashhur bo‘lgan me’moriy yodgorliklar, bog‘lar, kutubxonalar, karvonsaroylar qurdirish, ayniqsa, uning o‘g‘illari va avlodlari davrida keng miqyosga yoyildi. Hindiston san’ati va me’morchiligiga Markaziy Osiyo uslubining kirib kelishi sezila boshladi. Bobur va uning hukmdor avlodlari huzurida o‘sha davrning ilg‘or va zehni o‘tkir olimlari, shoirlari, musiqashunoslari va davlat arboblarini mujassam etgan mukammal bir ma’naviy, ruhiy muhit vujudga keldi. Boburiylar davlatidagi madaniy muhitning Hindiston uchun ahamiyati haqida Javaharla’l Neru shunday yozgan edi: “Bobur Hindistonga kelgandan keyin katta siljishlar yuz berdi va yangi rag‘batlantirishlar hayotga, san’atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi”.[v]

Neru o‘zining ham ijodiy, ham amaliy faoliyatida Hindistonning qo‘shni va do‘st mamlakatlari xalqlarining tarixi, jumladan, arablar va afg‘onlar, Eron, Xitoy, Rim va Yunoniston, Rossiya va, tabiiyki, Hindiston tarixi haqida so‘z yuritadi. Shuningdek, u O‘zbekiston bilan ko‘pqirrali munosabatlarga alohida e’tibor qaratadi.

U “Hindistonni kashf etilishi” asarida “buyuk istilochi Temurning nomi tillarda doston bo‘ldi”, ”Temur vafotidan so‘ng uning vorislari ko‘proq harbiy ishlarga emas, balki san’atga homiylik qilishga moyil ekanliklarini ko‘rsatdilar va O‘rta Osiyoda temuriylar davri boshlandi”, – deb yozadi. Neru O‘zbekiston xalqining ilmiy va madaniy merosiga yuqori baho beradi. Mashhur o‘zbek allomalari Al-Xorazmiy, Abu

Ali Ibn Sino, Al-Beruniy, Z.M.Bobur va boshqa olimlarning buyuk xizmatlarini taqdirlaydi. U buyuk qomuschi olim Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asarini ilmiy va tarixiy ahamiyatini yuksak baholaydi, bu asarni hurmat va ehtirom bilan tilga oladi. ”Beruniy, – deydi Neru, – yunon falsafasini mutolaa qilmoq uchun sanskrit tilini o‘rganadi. Beruniy hind va yunon falsafasini bir-biriga solishtirib, ularda mavjud bo‘lgan umumiylikni ko‘rib hayratda qoldi. Beruniyning kitobi daliliy ma’lumotlarni qamrab olish bilan birga, u urush, talon-taroj, ommaviy qirg‘in bo‘lishiga qaramay, fan ahllari o‘z ishlarini davom ettirganini ko‘rsatib beradi”.

Neru yana bir vatandoshimiz Bobur va uning nabirasi Akbarni ta’riflar ekan: “Bobur dilbar shaxs, Uyg‘onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo‘lgan, u san’atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko‘rardi. Uning nabirasi Akbar yana ham dilbarroq bo‘lib, ko‘p yaxshi fazilatlarga ega bo‘lgan”.

1955 yil iyunida J.Neru qizi Indira Gandi bilan O‘zbekistonga keldi. Mehmondo‘st o‘zbek xalqi ochiqko‘ngillik, bag‘rikenglik bilan Hindiston rahbarlarini olqishladilar. Neru va I.Gandi o‘lkamizdagi bir qator madaniy muassasalarga tashrif buyurishdi, respublikamizning iqtisodiyot, ilm-fan va madaniy sohalardagi yutuqlaridan xabardor bo‘lishdi.

J.Neru va I.Gandi qadimiy va navqiron Samarqandga ham borishadi. Ular Samarqand me’morchiligining ajoyib namunalarini tomosha qiladilar, undagi tarixiy obidalar – maqbara, masjidlar, Go‘ri Amir, Ulug‘bek rasadxonasini ziyorat qiladilar. Neru shahardagi me’morchilik yodgorliklaridan birini ta’mirlayotgan ustaga: “Shunday yodgorliklarni hozirda ham bajara oladigan mutaxassislar bormi?” – deb savol beradi. Usta avvaliga javob berishga shoshib qoladi, so‘ng u Neruni tabassum bilan qarab turgan yuziga ko‘zi tushib, tarjimonga: “Bizda bundan murakkab ishlarni bajaradigan mohir ustalar hozir ham mavjud. Ularning kasbidan zamonaviy binolarni badiiy jihatdan bezashda keng foydalanishayapti”, – deb javob beradi. Neru javobdan qoniqqanligini yuz ishorasi bilan tasdiqlaydi.

Neru qayerda bo‘lmasin, xalq uni xursandlik bilan sidqidildan kutib oldi. Bunday mehmondo‘stlik eng avvalo o‘zbek xalqining Neruga va u rahbar bo‘lgan hind xalqiga ko‘rsatilgan hurmat va ehtiromi belgisi edi. Neru mamlakatimizga qilgan safaridan batamom mamnun edi. U vataniga qaytar ekan, o‘z minnatdorchiligini izhor qildi: “Men o‘ylaymanki, – dedi u, – bu yerdan bir vaqtda ham badavlatroq, ham kambag‘alroq bo‘lib qaytayapman, buning sababi bizni samimiy kutib olganingiz borasida oliy darajadagi taassurotlar bilan boyidim. Men bu zaminda yuragimning bir bo‘lagini tashlab ketayotganim bois o‘zimni kambag‘alroq his qilayapman…”

Mamlakatimizga bo‘lgan kuchli ishtiyoq 1961 yili J.Neru va I.Gandini yana O‘zbekistonga yo‘lladi. Ikkala safar ham nihoyatda samarali bo‘lib, uning natijasida o‘zbek va hind xalqlarining do‘stligi yanada chuqur ildiz otdi. Neru umrining oxirigacha o‘zbek xalqining sodiq do‘sti bo‘lib qoldi.

Neru sofdil, xushfe’l, kamsuqum, ammo juda ishchan, talabchan va dovyurak inson edi. U she’riyat, adabiyot va san’atning chinakam ixlosmandi bo‘lgan. Neru bilan uchrashgan kishilarda u chuqur taassurot qoldirardi. Neruda hind xalqining donoligi, mehnatkashligi, oqko‘ngilligi mujassamlashgandi. XX asrda Hindistonda Maxatma Gandini istisno qilganda, hech kim hind xalqining hayotiga mazkur “Hindiston brillianti” (Javoharla’lning ma’nosi “Qizil gavhar”) kabi ta’sir ko‘rsatolmagan.

Neru chuqur qomusiy bilim sohibi, keng falsafiy mushohada kishisi, mutafakkir va shoir hisoblanadi. U siyosat bilan shug‘ullanmagan taqdirda ham o‘z ilmiy tadqiqotlari bilan diqqat va e’tiborga sazovor bo‘lardi. Sharq va G‘arb madaniyatini o‘zida teran mujassamlashtirgan buyuk inson Neru Yevropa, Osiyo, Afrika tarixiga bir xilda yondashdi, ularni bir-biridan past yoki yuqori qo‘ymadi, kishilik tarixini barcha insoniyat uchun baravar va umumiy deb hisoblab, G‘arb bilan Sharqni yaqinlikka da’vat etdi.

“Har bir hududga borganda o‘sha yerning tarixini o‘rganish va tiklashga e’tibor qaratmoqdamiz. Bobur Mirzo xalqimizning buyuk farzandi. Adabiyot, ilm, ma’rifat

nuqtai nazaridan u hamon yashayapti. Bu maskanni yanada obod qilib, tarbiya o‘chog‘iga aylantirish zarur. O‘zligimizni anglab, buyuk tariximizni yoshlarga tushuntirsak, ilm-ma’rifatni rivojlantirsak, hech qachon kam bo‘lmaymiz”, degan Shavkat Mirziyoyev.[v]

Yaqinda Xavfsizlik kengashi yig‘ilishida Zahiriddin Muhammad Bobur bobomiz haqida gapirdim. Bobur 12 ming askar bilan 100 ming askarni yenggan. O‘sha paytda shunday qilish mumkinmidi? Yo‘q. Bobomizga nima yordam berdi? Vatanparvarlik, g‘urur, iftixor, aql-zakovat.[v]

Zahiriddin Muhammad Bobur Hindiston tarixida alohida o‘rin olgan shaxslardan biri, – deydi ijtimoiy fanlar doktori, filolog-sharqshunos Naki Abbos Kaifi (Hindiston). – Shoh va shoir, uning avlodlari Hindiston ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy rivojiga munosib hissa qo‘shgan. Boburiylar ko‘plab inshootlar bunyod qildi. Hind xalqi ular bilan hamisha faxrlanib kelgan.

Boburiylar Hindiston taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan shaxslardir, – deydi Rampur Raza kutbxonasi mas’ul kotibi Sanam Ali Xon. – Bu tarixiy haqiqat. Boburiy podshohlar ilm-fan, bunyodkorlik sohasida boshqalarga o‘rnak hisoblanadi. Ular homiyligida qurilgan binolar bugun Hindiston, Pokiston, Bangladesh xalqlarining faxridir. Shuningdek, Boburiylar aql-zakavot, ijodiy ishlarda ko‘pchilikka o‘rnak. Ushbu sulola vakillari tomonidan qoldirilgan bebaho ma’naviy meros hind va o‘zbek xalqlari boyligi. Rampur Raza kutubxonasida saqlanayotgan Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar sulolasiga oid tarixiy ashyolar madaniy ildizlarimiz, tariximiz o‘xshashligidan dalolat.

Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Shu o‘rinda ta’kidlash joiz, Pokiston hududida Boburiylar tomonidan bunyod etilgan inshootlarning katta qismi Lahor shahrida joylashgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, ushbu shahar o‘z davrida Boburiylarning yirik ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy markazlaridan hisoblangan.

Yurtimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida tariximizni, buyuk ajdodlarimiz merosini o‘rganish va ularni yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilishga

alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu yoshlarni buyuk ajdodlar qoldirgan meros va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qilyapti.

Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari tomonidan qoldirilgan bebaho ilmiy va ma’naviy-madaniy meros esa buyuk bobokalonlarimiz bilan faxrlanish, yurtni, Vatanni sevish tuyg‘ularini yana-da jo‘sh urdiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik!. –Toshkent.: Tasvir nashriyot uyi, 2021
2. Vasudev Uma. Indira Gandhi. Revolution in Restraint. Delhi, Bombay, etc.: Vikas Publishing House Pvt Ltd, 1974, p. 257, 258.
3. Jahon adabiyoti. Temur G‘iyosov. O‘zbek xalqining sodiq do‘sti. № 9. 2009-yil. c.152
4. https://oz.sputniknews-uz.com/20170605/Shavkat-Mirziyoyev-ilm-marifatni-rivojlantirsak-hech-qachon-kam-bolmaymiz-5554485.html
5. https://kun.uz/uz/news/2020/01/20/bizga-navoiy-yoki-boburni-oqitishmagan-shavkat-mirziyoyev-milliy-tarix-haqida-gapirdi

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “BOBURNOMA” ASARI VATANIMIZ TARIXIGA OID MUHIM TARIXIY MANBA SIFATIDA

Sunnat Shavkat o‘g‘li Nasilloyev
Buxoro Davlat Universiteti o‘qituvchisi

Keywords: *Oriental culture, literature, poetry, Aksi Fortress, “Boburiya”, “Babur's story”, India, Mongolia, villages and settlements, China, Khorasan, Banoras, Delhi, Ghazni, Kabul, Khojand, Karshi, Bukhara, Bukhara Andijon*

Kalit so’zlar: *Sharq madaniyati, adabiyot, she‘riyat, Axsi qo‘rg‘oni, “Boburiya”, “Voqeoti Bobur”, Hindiston, Mo‘g‘uliston, qishloq va kentlar, Xitoy, Xuroson, Banoras, Dehli, G‘azna, Qobul, Xo‘jand, Qarshi, Buxoro, Andijon*.

Ключевые слова: *восточная культура, литература, поэзия, крепость Акси, «Бобурия», «История Бабура», Индия, Монголия, села и поселения, Китай, Хорасан, Банорас, Дели, Газни, Кабул, Ходжент, Карши, Бухара, Бухара Андижан.*

Annotatsiya. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she‘riyatida o‘ziga xos jilo bag‘ishlagan shoir, balki mohir jangchi va sarkarda hamdir. Bobur- dilbar shaxsᵛ. Uyg‘onish davri hukmdorining haqiqiy namunasidir. Uning o‘zbek tilida yozgan “Boburnoma” asari butun jahonning nigohidan joy olgan va muallifning o‘zi esa tarixnafis olimlar qatoridan o‘rin egallagan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda, Farg‘ona ulusining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga kelgan. Yoshligidan adabiyot, she‘riyat hamda san‘atning nafis ser jilosiga oshno bo‘lganligi bois saroydagi ustozlaridan ilm fanni chuqur va mukammal o‘rganishga kirishgan.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Umarshayx Mirzoning o‘z saltanatining hududlarini kengaytirish maqsadida qilgan harakatlaridan tahlikaga tushgan akasi Sulton Ahmad Mirzo Toshkent hukmdori Yunusxon bilan o‘zaro ittifoq tuzib 1494-yili Andijonga qo‘shin tortadilar. Biroq shu yilning 9-iyunida shunday tahlikali paytda Umarshayx Mirzo Axsi shahridagi qarorgohida elchi kaptarlarni uchirish vaqtida kaptarxona bilan birga jarga qulab halok bo‘ladi. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida otasining o‘limi haqida quyidagicha ma‘lumot beradi: “Bu asnoda g‘arib voqea dast berdi, mazkur bo‘lib edikim, Axsi qo‘rg‘oni baland jar ustida voqe bo‘lubtur, imoratlar jar yoqasida erdi. Ushbu tarixda dushanba kuni ramazon oyining to‘rtida Umarshayx Mirzo jardin kabutar va kabutarxona bila uchub shunqor bo‘ldi. O‘ttuz to‘qquz yashar erdi”[v] . Zahiriddin Muhammad Boburning mashhur “Boburnoma” asari turkiy tilda yaratilgan badiiy, ilmiy nasr javohiri sifatida bugungi kunda dunyodagi yuzlab yirik fan tadqiqotchilari diqqatini o‘ziga tortib kelmoqda. “Boburnoma”ning XVI asrdayoq adabiyotchilar, tarixchilar, umuman, ilm ahli e‘tiboriga sazovor bo‘lgani ma‘lum. Ushbu qomusiy asar hozirgacha dunyoning o‘ttizga yaqin tiliga tarjima bo‘lgan. Yaratilgan davrida forsiyga, XVII asrda golland tiliga, keyinchalik ingliz, fransuz, nemis, ispan, xitoy, hind, yapon, turk, rus, qozoq va boshqa tillarga o‘girilgan. Boburnoma- jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik, o‘zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar. Bu asar “Boburiya”, “Voqeoti Bobur”, “Voqeanoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Tabaqoti Boburiy”, “Tavorixi Boburiy” kabi nomlar bilan ham ma‘lum. Boburning o‘zi esa “Vaqoye”va “Tarix” degan nomlarni ishlatgan. Boburnomada Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda sodir bo‘lgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma-yil o‘ta aniqlik bilan bayon qilingan bo‘lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog‘liqlikdir. “Boburnoma” o‘zida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko‘ra 3 qismga: Boburning Movaraunnahr (1494-1504), Afg‘oniston (1504-1526) va Hindiston (15261529)dagi hukmronlik davriga bo‘linadi. “Boburnoma”da joy nomlari toponimikasi haqida so‘z yuritar ekanmiz, asarda uchraydigan toponimlar

ular ifodalagan obyektlarning turiga ko‘ra bir necha guruhga bo‘linishini ta‘kidlab o‘tamiz. Bularning bir qismini aholi maskanlari nomlari – oykonimlar tashkil etadi. Oykonimlar:

1) mamlakatlar nomlari — Hindiston, Mo‘g‘uliston, Afg‘oniston, Arabiston, Iroq, Xitoy, Xuroson, Ozarbayjon, Misr;

2) shaharlar nomlari — Banoras, Dehli, G‘azna, Qobul, Mashhad, Urganch, Kesh, Sayram, Xo‘jand, Qarshi, Buxoro, Toshkand, Andijon,;

3) qishloq va kentlar nomlari — Yorkand, Navkand, Muhammad og‘a kenti, Ho‘dak kenti, Beshkent, Qulba kenti, Archakent, Dehi G‘ulomon, Yettikent, Dehi Afg‘on;

4) qal’a va qo‘rg‘onlar nomlari: Toshqo‘rg‘on, Qal’ai Dabusi, Qal’ai Zafar, Olaqo‘rg‘on, Asfidak qo‘rg‘oni;

5) rabotlar nomlari — Surhrabot, Raboti Ro‘zak, Raboti Sarhang, Raboti Zavraq kabilarni o‘z tarkibiga birlashtiradi. ―Boburnoma‖da qayd etilgan toponimlar tizimida yer sathidan balandda turuvchi obyektlarni atoqli otlar-oronimlar alohida o‘rinni egallaydi.

Temuriy shaxzoda Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining yuksak mavqe‘ga ega bo‘lgan “Boburnoma” asarida Kopgina tarixiy shaharlar ta’rifi ham keltirilgan. “Samarqand shahri – ajoyib orasta bir shahardir. Bu shaharning bir hususiyati borki, bunaqasi kamdan- kam shaharda bo‘ladi, ya‘ni har hunarmandning alohida bozori bor, bir-biriga aralashgan emas, bu qiziq rasmdir. Yaxshi novvoyliklari va oshpazliklari bordir. Olamda yaxshi qog‘oz Samarqanddan chiqadi. Qog‘oz juvozlariga suv butkul Konigildan keladi. Konigil- Siyohob yoqasidadirki, bu Qorasuvni Obirahmat ham deydilar”[v].

“Boburnoma”da, Zahiriddin Muhammad Bobur Samarqand taxtiga o‘tirganligi haqida shunday yozilgan : “Samaqand taxtiga o‘lturg‘och, Samarqand beklarini burungudek o‘q rrioyat va inoyat qildim. Bizning bila bo‘lg‘on beklarni ham faroxo‘ri hollariga yarasha tarbiyat va shafkat qildim. Sulton Ahmad Tanbalning borasig‘a rioyat ko‘prak voqe bo‘ldi. Ichki beklar chargasiga edi, ulug‘ beklar

chargasida rioyat qildim. Samarqandikim, yetti oy muhozara qilib, tashvishlar bila olduk, avval kelganda cherik eliga o‘lja- mo‘ljadek nima tushub edi. Bir Samarqanddin o‘zga jami viloyatlar mahga kirib edi , yo Sulton Ali mirzog‘a bu kirgan viloyatlarni topib bo‘lmas edi. Muncha talon-taroj tortg‘on viloyatlardin nima olmaq xud nechuk muyassar bo‘lg‘ay edi”. Shuningdek muallif asarda Andijon shahri haqidagi ma’lumotlarni ham keltirib o’tgan. “Andijondurkim, vasatta voqe bo‘lubdur, Farg‘ona viloyatining poytaxtidir. Oshlig‘i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo‘lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas. Andijonning noshpotisidin yaxshiroq noshpoti bo‘lmas”. Asar bobomizning kundalik daftari hisoblangani uchun u turli mubolag‘alardan xoli bo‘lgan va undagi har bir narsa boricha aks ettirilgan. “Boburnoma” da qo‘llangan sodda va ravon uslub Pirimqul Qodirov qalamiga mansub bo‘lgan, Boburning hayoti yoritilgan “Yulduzli tunlar” asarida Xondamir nutqi bilan quyidagicha keltiriladi: “Bobur qalamga olgan voqealar juda murakkab bo‘lsa-da, muallif ularni og‘zaki hikoyaga yaqin bir tarzda xiyla oddiy uslubda yozgan edi”. Voqealar Andijon, Samarqand, Xo‘jand, Hirotdan boshlab Kobul va Agragacha bo‘lgan qamrovga ega. Ya’ni unda O‘rta Osiyodan boshlab Hindistongacha bo‘lgan masofadagi deyarli 50 yillik voqealar haqqoniy ifoda va bahosini topgan.

Boburnomada go‘zal va maftunkor Farg‘ona vodiysi mahorat bilan tasvirlangan. “Farg‘ona viloyati beshinchi iqlimdindur… Sharqi Qashqar, g‘arbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi tog‘lar, shimolida agarchi burun shaharlar bor ekandur… Muhtasar viloyatdur, oshliq va mevasi farovon”. Darhaqiqat, O‘rta osiyo javohiri deb nom olgan Farg‘ona vodiysi Sirdaryo yuqori oqimida joylashgan yirik dehqonchilik va sanoat rayonlaridan biri hisoblanadi. Vodiy jug‘rofiy jihatdan tog‘lar orasida joylashgan havzadir. Shimol, shimoli-g‘arb tomonlardan Qurama, Chotqol. Janubdan Turkiston, Oloy tog‘ tizmalari o‘rab turadi. Garbda esa havza torayib Mirzacho‘l bilan tutashib ketadi. Vodiy ma‘muriy jihatdan uch jumhuriyat: O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston o‘rtasida bo‘lingan. Asosan o‘zbeklar, tojiklar, qirg‘izlar yashaydi. Farg‘ona mulkiga kirgan 8 ta shahar: Andijon, Axsi, Koson,

O‘sh, Konibodom, Isfara, Marg‘ilon, Xo‘jand Bobur Miro ixtiyoriga o‘tgan. Farg‘ona hukmdorining yozgi qarorgohi bo‘lmish Axsi shahri (Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumaniga qarashli xozirgi Axsi vayronalari) Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘ida edi. Farg‘onaning poytaxti Andijon o‘sha paytda vodiyning asosiy shahri bo‘lib, mustahkam qal‘a devorlari bilan o‘ralgan edi. Bobur tarifida shaharning uchta darvozasi bo‘lib, asosiy darvozasi janubdagi hokan darvozasi edi.

Xulosa qilib ayatdigan bo'lsak, Zahiriddin Muhammad Boburning mashhur Boburnoma asari o‘lkamiz va undan tashqaridagi hududlar, joy nomlarini o‘rganishda boy material beruvchi muhim asar hisoblanadi. Unda keltirilgan toponimlarning turlari, ma’nosi, kelib chiqishiga oid fikr-mulohazalar g‘oyat qimmatli ahamiyatga ega. Qisqacha qilib aytadigan bo’lsak “Boburnoma” har tomonlama mukammal asarlar sirasidandir. Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ko‘plab yozuvchilarimiz asarlar yaratgan. H.Sultonovning “Saodat sohibi”, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar”, Q.Kenjaning “Hind sorig‘a” nomli asarlari, Z.Muhitdinovning “Zahiriddin Muhammad Bobur” nomli dramatik asarlarida Bobur hayoti yorqin aks ettirilgan.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Zahiriddin Muhammad Bobur " Boburnoma " 1989 - yil

2. Aziz Qayumov: “Zahiriddin Muhammad Bobur”4-bet. -T.: “FAN”n-2008y 2.

3. Sayfiddin Jalilov: “Bobur haqida o`ylar” 7-8bet-T.: “ShARQ”n – 2006 y

4. I.M.Mo’minov “Samarqand Tarixi 1-qism”-T.:“FAN” nashriyoti,1971 2.

5. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi-T.: “SHARQ” n,2017

6. Hasan Qudratullayev: “Bobur Armoni”-T.: “SHARQ”n-2009y 2) Bobur

7. Xalqaro Fondi:”Zahiriddin Muhammad Bobur”-T.:”SHARQ”n-2008y

BOBUR SHAXSIYATINING YORQIN JIHATLARIGA NAZAR

Mehruz Mahmudov Bahodir o’g’li,
Andijon Davlat Universiteti Pedagogika Instituti talabasi

Annotatsiya: Bobur o’zbek adabiyotida o’zining nozik lirik asarlari bilan ham mashhurdir.Uning hayoti va adabiy faoliyati Movarounnahrda siyosiy hayot nihoyat murakkablashgan feodal guruhlarning boshboshdoqlik harakatlari avjiga chiqqan va Temuriylar davlatning inqirozi davom etayotgan bir davrga to’g’ri kelgan edi.Ana shu voqealar “Boburnoma”da aks etga bo’lsa,ularning shoir ruhiyatida qanday aks etgani uning she’rlarida aks etadi.Movarounnahrni birlashtirishga urinishlari natija bermagach,Bobur ruhan qiynalgan,amaldorlarning xiyonatlari ta’sirida umidsizlikka tushgan kezlardagi kayfiyati she’rlarida aks etgan.Keyinchalik o’z yurtini tark etib,Afg’oniston va Hindistonga yuz tutganda Bobur she’riyatida Vatan tuyg’usi,Vatan sog’inchi,unga qaytish umidi mavj ura boshlagan.

Бабур также известен в узбекской литературе своими тонкими лирическими произведениями.Его жизнь и литературная деятельность в Мовароуннахре завершились хаотическими движениями феодальных групп, политическая жизнь которых окончательно осложнилась и Тимуриды были в то время, когда государство переживало кризис.Если эти события найдут отражение в «Бобурноме»,то, как они отражаются в психике поэта, отражается в его стихах. Когда попытки объединить Мовароуннахр потерпели неудачу,Стихи Бабура отражают его настроение, когда он был душевно огорчен и разочарован предательствами чиновников.Позже, когда он покинул родину и отправился в Афганистан и Индию, в поэзии Бабура стало ощущаться чувство родины, тоска по родине, надежда вернуться на нее.

Babur is also famous in Uzbek literature for his delicate lyrical works and his literary activity culminated in the chaotic movements of feudal groups whose political life in Movarounnahr was finally complicated and the Timurids were at a time when the

state was in crisis.While these events are reflected in the Boburnoma, how they are reflected in the poet's psyche is reflected in his poems.When attempts to unify Movarounnahr failed,Babur's poems reflect his mood when he was mentally distressed and frustrated by the betrayals of officials.Later, when he left his homeland and went to Afghanistan and India, Babur's poetry began to feel a sense of homeland, a longing for the homeland, and the hope of returning to it.

Kalit so’zlar: ichki ziddiyatlar,boburning amaliy faoliyati,davr adabiyoti,”Boburnoma”,Bobur ijodi jahon olimlari nigohida, Bobur lirikasi

Ключевые слова: внутренние противоречия, практическая деятельность Бабура, литература периода, «Бобурнома», творчество Бабура глазами мировых ученых, лирика Бабура.

Keywords: internal contradictions, Babur's practical activity, period literature, "Boburnoma", Babur's work in the eyes of world scholars, Babur's lyrics

O’zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, davlat arbobi, buyuk shoir,tarixchi,geograf, iste’dodli sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shahzoda Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijonda, Farg’ona ulusining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida tavallud topgan. Asl ismi-Zahiriddin Muhammad Bobur ibn Umarshayx Mirzo. Bobur uning taxallusi. Jangdagi mardligi va dovyurakligi uchun “Bobur”(Sher) laqabini olgan. Rivoyatga ko’ra, bir kuni tongda chodirda yotgan Bobur yo’qolib qoladi. Hamma yerni qidirishadi va yakunda Boburni sherning uyasida, sherning bolalari bilan o’ynab yurgan holatda topishadi. Ba’zi manbalarga ko’ra, shu voqeadan so’ng kichik shahzodaga “Bobur” laqabi berilgan ekan. Amir Temurga 5-avlod hisoblanuvchi Bobur 12yoshida,otasi baxtsiz hodisa tufayli olamdan o’tgach, 1494-yilning iyun oyida Farg’ona taxtiga o’tiradi. Bu davrda Markaziy Osiyo va Xurosonda turli hokimlar,aka-ukalar,tog’a-jiyanlar,amakivachchalar o’rtasida hokimiyat uchun,ulug’ bobolari Amir Temur tuzgan yirik saltanatga egalik qilish uchun kurash nihoyatda keskinlashgan edi. Uning onasi (Qutlug’ Nigorxonim) o’qimishli,dono va oqila ayol bo’lgan. Onasi

Boburga hokimiyatni boshqarish ishlariga yordam berar, hatto harbiy yurishlarda unga hamrohlik qilar edi. Boburning dastlabki siyosiy maqsadi bobokaloni Amir Temur davlatining poytaxti,strategik va geografik jihatdan muhim bo’lgan Samarqandni egallash va Movarounnahrda markazlashgan saltanatni qayta tiklash edi. 1495-1496-yillarda Bobur Samarqandga ikki bor yurish qiladi. Ammo muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.Samarqand 7 oylik qamal qilingan vaqtda, Bobur qo’shinni ta’minlashda katta qiyinchiliklarga duch keladi. Navkarlarining ko’pchilik qismi Andijon va Axsi tomonga qochib ketadi. Aynan shu vaqtda, Andijonda qolgan ayrim beklar xiyonat yo’liga kiradi va ukasi Jahongir Mirzo tomonga o’tadi.

Afg’onistondagi amaliy faoliyatiga ko’ra, Bobur butun Xuroson va Movarounnahrda qudratli davlat boshlig’i va dovyurak sarkarda sifatida katta obro’ orttiradi, mintaqadagi siyosiy vaziyat yaxshilanib boradi. Tobora kuchayib borayotgan shayboniylarga qarshi birgalikda kurashish masalasida Husayn Boyqaro barcha temuriy hukmdorlar qatorida Boburni ham maslahat yig’iniga taklif qilishi ana shunday yuksak nufuzini ko’rsatib beruvchi asl dalildir. Husayn Mirzoning kutilmaganda vafot etishiga qaramay, u Hirotga boradi va temuriy hukmdorlar bilan muzokara o’tkazadi. Biroq temuriy hukmdorlarnng Shayboniyxon qo’shinlariga qarshi tuzgan rejalari amalga oshmaydi. Ular birin-ketin mag’lubiyatga uchrab,saltanatni batamom qo’ldan chiqaradilar.

Bobur Hindistonda katta hajmdagi davlat ishlari bilan bir qatorda o’zining adabiy-badiiy faoliyatini ham davom ettiradi va buyuk asarlar yaratdi. Boburning shoh asari “Boburnoma’’dir.U bu asar ustidagi ijodiy ishni 1518-1519-yillarda boshlagan.Ma’lumki,unda Bobur yashagan davr voqealari yoritib berilgan. Shuningdek,asarda Movarounnahr,Xuroson,Eron,Hindiston xalqlari tarixi yoritilgan. Asar uch qismdan iborat bo’lib,uning birinchi qismi - XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda sodir bo’lgan voqealarni,ikkinchi qismi – XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Afg’onistonda ro’y bergan voqealarni; uchinchi qismi esa XVI asrning birinchi choragidagi Shimoliy Hindiston xalqlari tarixiga

bag’ishlangan. “Boburnoma”da o’sha davr siyosiy voqealari, shu jumladan, o’z yurti Farg’ona viloyatining siyosiy-iqtisodiy ahvoli,uning poytaxti Andijon shahri,Samarqand,Buxoro,Qarshi,Shahrisabz,O’sh,Urganch,O’ratepa,Termiz va boshqa shaharlar haqida nihoyatda muhim ma’lumotlar keltirilganligi e’tiborga loyiq.Shuningdek,Kobul,G’azna va ular ixtiyoridagi ko’pdan ko’p tumanlar,viloyatlar hamda Shimoliy Hindiston haqida ma’lumotlarni uchratish mumkin. Asarda ulusdagi xalqlarga xos bo’lgan fazilat va nuqsonlar,o’sha davrdagi hayot muammolari,Bobur davlatidagi siyosiy va ijtimoiy hayotning to’liq manzarasi namayon bo’ladi.Mirxond, Xondamir, Binoiy, Muhammad Solih,Muhammad Haydar, Farishta, Abul-Fazl Allomiy va boshqa tarixchilarning asarlarida bu darajada aniq va mukammal yoritilgan emas. Hattoki, Navoiy, Ulug’bek, Behzod, Jomiy kabi allomalar haqida ham muhim ma’lumotlar keltirib o’tilgan. Tarixiy manbalarda, Bobur Alisher Navoiyga o’z she’rlarini yuborganligi va uning ijodi haqidagi ma’qullagan sharhlarini olganligi,shuningdek, Bobur o’z asarida Navoiyni tengi yo’q shaxs sifatda tilga olib,uni ilm va san’at insonlarining homiysi deb atagani haqida ma’lumotlar uchraydi. “Boburnoma” haqli ravishda “turkiy nasrning eng yaxshi asari” deb nomlangani ham bu asarni nechog’liq muhim ekanini ko’rsatadi.Asarda Boburning faoliyati,uning muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz harbiy yurishlari,boy sarguzasht hayotining barcha voqealari tasvirlangan.E’tiborli jihati shuki,”Boburnoma” bugungi kunga qadar dunyoning 31 tiliga tarjima qilingan.

Uzoq yillar davomida G’arb va Sharqning mashhur sharqshunos olimlari “Boburnoma” mazmunini jahon jamoatchligiga yetkazish borasida katta faoliyat ko’rsatdilar.Masalan,gollandiyalik olim Vitsen,angliyalik olimlar J.Leyden,V.Erskin,R.Koldekot,A.Beverej,T.Albot,germaniyalik Y.Klaynrat va A.Keyzer,fransiyalik Pave de Kurteyl,hindistonlik Mirzo Nasriddin Haydar Rizvi,turkiyalik R.R.Art va N.I.Bayur va bizning davrimizdagi fransiyalik olim Bakke Gromon,afg’onistonlik olim Abulhay Habibiy,pokistonlik olimlar Rashid Axtar,Nadvi va Shoh Olam Mavliyot shular jumlasidandir.”Boburnoma”ni o’rganish

sohasida jahonning mashhur sharqshunoslari qatoridan yaponiyalik olimlar ham joy olayotgani e’tiborga loyiq.

Bobur lirikasida she’riyatning asosiy mazmuni bo’lgan insoniy fazilatlar,yor vasli,uning go’zalligi,unga cheksiz muhabbat va hijron azobi,ayriliq alamlari va visol quvonchlari nihoyat go’zal va mohirona ifoda etilgan. Hozirda uning 119 g’azali,bir masnu she’ri,209 ruboiysi,10 dan ortiq tuyuq va qit’alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlanagan. Devoni tarkibida umumiy hajmi 270 baytdan iborat masnaviy ham o’rin olgan.

Hindiston yurishlari davri (1521)da Bobur masnaviy tarzda yozilgan “Mubayyin” asarini yaratdi. Bu asar islom huquqshunosligi va shariat aqidalariga bag’ishlangan.Asar valiahd Humoyun va Komron Mirzolarga dasturulamal sifatida mo’ljallangan. Zakot,namoz,haj ziyorati to’g’risida ham to’xtalib o’tgan. Shunngdek,musiqa san’ati va harb ishlariga bag’ishlangan risolalari ham bo’lgan,ammo bu asarlarning matni hali hamon topilmagan. Bobur tajriba sifatida “Xatti Boburiy” alifbosida Qur’oni Karimni ko’chirgan. Shuningdek, uning aruz vazni va qofiya masalalariga ba’g’ishlangan “Mufassal” nomli asari ham yozilgani ma’lum. Biroq bu asar bizgacha yetib kelmagan. Bobur davrida forsiy va turkiyni davlat tiliga ko’targan. Keyinchalik fors,turk va arab tillari qorishmasidan urdu tili paydo bo’lgan.

1526-yil 21-dekabrda Boburga qarshi suiqasd uyushtiriladi. Oshpazlar bilan til biriktirgan Ibrohim Lo’diyning onasi,Boburning ovqatiga zahar qo’shtiradi. Shuning asoratimi yoki ko’p yillik mashaqqatli va qo’nimsiz hayot ta’siri tufaylimi,har holda keying yillarda Bobur tez tez kasalga chalinib turadi. 1527-yilda Bobur yana xastalikka uchragach, Xoja Ahror Valiyning “Volidiya” asarini she’riy tarjma qilishni boshlaydi. 243 baytli bu asarni tugatgach,Bobur batamom tuzalib ketganini qayd etadi.

XIX-XX asrlar davomida Georg Ker,N.Ilminskiy,M.Salye,P.Shamsiyev, S.Mirzayev,V.Zohidov,Y.G’ulomov,S.Azimjonova,R.Nabiyev kabi olimlarning

sa’y-harakatlari bilan “Boburnoma” bir necha bor o’zbek va rus tillarida nashrdan chiqdi va kitobxonlarning sevimli ma’naviy mulkiga aylandi.

Bobur O’zbekiston mustaqillikka erishgandan so’ng o’z yurtida haqiqiy qadr-qimmat topdi. O’zbekiston Respublikasi 1-Prezidenti Islom Karimov farmoniga ko’ra,1993-yilda Bobur tavalludining 510 yilligi keng nishonlandi. Andijon shahrida Bobur nomida universitet,teatr,kutubxona,milliy bog’lar tashkil etildi. “Bobur va jahon madaniyati” muzeyi o’z faoliyatini boshladi. Andijon shahrida R.Mirtojiyev muallifligida hamda Bobur bog’idagi yodgorlik majmuida Q.Salohiddinov muallifligida haykallar o’rnatilganligi, Andijon viloyati Xonobod shahridagi istirohat bog’iga Bobur nomi berilishi,uning asarlari keng ko’lamda nashr qilinganligi yosh avlod tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Bobur nomidagi me’dal ta’sis etildi va uning ilk sovrindori sharqshunos olim Ubaydulla Karimov bo’ldi.

Bobur ijodini o’rganishda andijonlik olim Z.Mashrabov rahbarlik qiladigan Xalqaro Bobur jamg’armasi muhim ahamiyat kasb etadi. Jamg’armaning ilmiy ekspeditsiyasi 10 dan ortiq Sharq mamlakatlarida ilmiy safarlar uyushtirildi. Ana shu ilmiy safarlar davomida Bobur haqida muhim ilmiy ma’lomotlar to’plandi. Jumladan, Boburning davlat bayrog’i haqida ham qiziqarli ma’lumotlar aniq bo’ldi. Ma’lum bo’lishicha, Bobur bayrog’ida sher va quyosh tasviri mavjud bo’lgan. “Bobur fe’li-saviyasiga ko’ra,Sezarga qaraganda sevishga arzigulikdir”,-degan edi Eduard Xolden.

Bobur o’zining ma’lum va mashhur asarlari bilan tarixnafis adib,lirik shoir va ijtimoiy masalalar yechimiga o’z hissasini qo’shgan olim sifatida xalqimiz ma’naviy madaniyati tarixida munosib o’rin egallaydi.

Turkiyada bobur shunoslik izlanishlarga Mustafo Kamol Otaturk davrida katta e’tibor berilgan. Uning tashabbusi bilan Anqaradagi Til,tarix va geografiya fakulteti tarkibida Indologiya kafedrasining ta’sis etilishining asosiy maqsadlaridan biri ham Bobur va Boburiylar davlatini chuqur tadqiq etish bo’lgan. “Bobur - Osiyoning yulduzi. U o’zi olib borgan harbiy yurishlar jihatidan marshal unvoniga sazovor qo’mondonidir”,-degan edi turk olimi Ilber O’rtayli.

1605-1615-yillar oralig`ida yaratilgan Bobur portreti bugungi kunda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanadi. Bobur haqida ingliz olimi Uilyam Erksin shunday degandi: “Saxovati va mardligi,iste’dodi,ilm-fan,san’atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug’ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

6. “Ma’naviyat yulduzlari”.A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.Toshkent.1999
7. Ilber O’rtayli “Bobur shoh va Hindiston” maqolasi
8. Internet ma’lumotlaridan foydalanildi

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

Kimsanova Zilolaxon O‘ktamjon qizi

Farg‘ona Politexnika Instituti

Anatatsiya: Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi tasvirlangan.

Kalit so‘zlar: Adolatli shoh, shoir, Amir Temur, Umarshayx Mirzo, Qutlug‘ Nigorxonim, Yunusxon.

Bobur ayni paytda adabiyotimizning Navoiydan keyingi zabardast vakili hisoblanadi. U adolatli shoh va shoir. Bobur taxallusi bo‘lib to‘liq ismi Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo (1483.14.02, Andijonda tug‘ilib 1530.26.12, Agrada vafot etgan).

U shoir sifatida o‘zbek xalqi tarixida muhim o‘rin tutadi. Uning otasi Umarshayx Mirzo Amir Temurning nevarasi, Farg‘ona viloyatini hukmdori bo‘lgan, onasi – Qutluq Nigorxonim esa Toshkent hokimi Yunusxonning qizi bo‘lgan. Zahiriddin Muhammad Bobur qo‘rqmas, dovyurak hamda jasur bo‘lganligi uchun yoshligidan ‘‘Bobur’’- ya'ni arabchada “sher" laqabini olgan.Bobur barcha temuriylar shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozilu ulamolar ustozligida harbiy ta'lim, fiqx ilmi, arab va fors tillarini o‘rganadi, ko‘plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she’riyatga qiziqa boshlaydi. Ko‘rinadiki, Bobur insoniyat tarixidagi ikki buyuk sulola tutashgan nuqtada dunyoga kelgan jahonning eng mashhur shaxslaridan biridir. Murakkab va ziddiyatli hayoti o‘spirinlikdan to umrining oxirigacha jang-u jadallar, sarson-sargashtalik, zafar va mag‘lubiyat, ijod-u bunyodkorlik ichida kechdi.

1494-yilda Umarshayx Mirzoga qarshi uning o‘z akasi – Samarqand hokimi Sultin Ahmad Mirzo hamda qayg‘asi Toshkent hokimi Mahmudxon o‘zaro til biriktirga holda qo‘shin tortib, Farg‘onaga yurish qiladilar. Nihoyatda qaltis vaziyat vujudga

keladi. Buning ustiga kutilmagan falokat yuz beradi: Andijonning g‘arb tomonidagi jar yoqasida bino bo‘lgan Axsi qo‘rg‘onida turgan Umarshayx Mirzo kabutarxonasi bilan jarga qulab tushadi va halok bo‘ladi. Otasini o‘limidan so‘ng Bobur taomil bo‘yicha 12 yoshida taxtga o‘tiradi. O‘ratepa, Xo‘jand va Marg‘ilonni qo‘lga olib Quvaga kirgan Sulton Ahmad qo‘shinini shaharni kesib o‘tuvchi Qorasuv ko‘prigida toshqinga uchrab, tuya va otlari botqoq suvga cho‘kib, ko‘pi nobud bo‘ladi. Ustiga-ustak o‘lat tarqaladi. Qo‘shin vahimaga tushadi. Sulton Ahmad sulh tuzib ortga qaytadi va yo‘lda vafot etadi. Sulton Mahmud ham Axsini bir muddat qamal qilib ololmay, ketishga majbur bo‘ladi. Sharoitdan foydalanib qolmoqchi bo‘lgan Koshg‘ar va Xo‘tan hokimi Abobakr Do‘g‘latning ham O‘zgand yaqinidagi harakatlariga chek qo‘yiladi. ‘‘Boburnoma"ning aynan shu voqealarga ishora qilib ‘‘Tengri taoloning inoyati…’’ so‘zlari bilan boshlashi bejiz emas edi. Zahiriddin Muhammad Bobur 1497-yili 15 yoshida bobokaloni Amir Temur davlati poytaxti Samarqand shahrini egallab Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlatni saqlab qolish va mustahkamlash, Temur saltanatini qayta tiklash niyatida mashaqqatli kurashga otlanadi. Afsuski, u bu ulug‘ niyatiga erisha olmaydi, mahalliy hukmdorlar orasidagi o‘zaro nizo va boshboshdoqlik bunga imkon bermaydi. Bobur noiloj o‘z yurtini tashlab ketishga majbur bo‘ladi. Avval AAfgonistonni, so‘ng Hindistonnizabt etib, u yerlarda o‘z saltanatini tiklaydi. Hindistonda tarixda mashhur Boburiylar imperiyasiga asos soladi.

Bobur xalqimizning yetuk hamda g‘oyat iste'dodli farzandi edi. Uning hayoti faqat janglarda emas, balki ilhomiy onlar bilan to‘la edi. U o‘ta notinch, sargardonlikda kechgan umrini zo‘r salohiyati tufayli jozibali qila oladi. U yoshligidanoq she'rlar yozgan, uning g‘azal va ruboiylari o‘ta hayotiyligi, samimiyligi bilan ajralib turadi. Ularda shoirning o‘zligini, hayotini shundoqqina ko‘rib, his etib turasiz. U yigirma yoshida yangi bir yozuv - ‘‘Xatti Boburiy"ni kashf qildi. Umr bo‘yi ajoyib she'rlar yozdi,devon tartib qildim. Hatto musiqa bilan ham shug‘ullanib, ‘‘Chorgoh" maqomiga ‘‘savt’’lar bitdi. Bundan tashqari uning aruz qoidalariga oid ‘‘Risolai aruz" , ‘‘Boburnoma’’kabi asarlari ham bor. Ayniqsa ‘‘Boburnoma" o‘zbek mumtoz

adabiyotining tengi yo‘q nodir durdonasi sanaladi. Bu asar jahonning ko‘plab tillariga tarjima etilgan va yuksak baholangan. Boburning hayoti juda ham ulkan va bardavom bo‘lganki buni qancha yozsak ham adog‘iga yetib bo‘lmaydi. Bu maqolamda Boburning ulkan hayotidan qisqacha parcha keltirganman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Q.Yo‘ldoshev, V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov ‘‘Adabiyot’’

2.N. Karimov, U.Normatov ‘‘Adabiyot’’

“BOBURNOMA” ASARIDA SAN`AT VA SAN`ATKORLAR TALQINI

Usmonova Dilafruz Madaminjon qizi

O`zbekiston Davlat Konservatoriyasi Magistratura bosqichi Xalq cholg`u ijroligi bo`limi 1-kurs

Annotatsiya*: ushbu maqolada “Boburnoma” asarida san`atshunoslik haqida nimalar yozilgani, Bobur qanday san`at turlariga qiziqgani haqida bayon etilgan San`atkorlarga nisbatan qanday muomalada bo`lgani, san`atga bo`lgan qiziqishi, san`atkorlarga atab yozgan ruboiylari haqida bayon etilgan.*

Kalit so`zlar*: ”Boburnoma”, Ruhdam, Hofiz, Binoyi, xonish, Nuhrang, Rost, Marv, tarabxona, naqsh.*

Аннотация: В данной статье рассказывается о том, что написано об искусствоведении в произведении «Бобурнома», каким искусством интересовался Бобур.

Он описывает, как относился к художникам, свой интерес к искусству и рубаи, которые он писал для художников.

Ключевые слова: «Бобурнома», Рухдам, Хафиз, Бинойи, ханиш, Нухранг, Рост, Марв, ресторан, узор.

Annotation: This article describes that it is written about art historian in the work of "Boburn", which art was interested in Bobur.

He describes how it belonged to artists, his interest in art and the roaring, which he wrote for artists.

Keywords: "Boburn", Ruchdam, Hafiz, Binao, Hanish, Nukhrang, height, marv, restaurant, pattern.

“Boburnoma”ni san`atshunoslik asari, deyish ham mumkin. Chunki unda san`atning juda ko`p xillari: raqs, kuy, ashula va tasviriy san`atga doir ma`lumotlar berilgan.Kitobxon Bobur zamonining mashxur hofizlari: Ruhdam, Hofiz, Hoji,

raqqoslari: Tengriquli, Ramazon, Mir Badr; sozandalari: Qulmuhammad Udiy, Shayxiy Noiy, Shohquli G`ijjakiy, Xoja Abdulloh Marvoriy; bastakorlari: G`ulom shodiy, Mir Azu, Kamoliddin Binoyi, Pahlavon Muhammad Busa`id; rassomlari: Kamoliddin Behzod, Shohmuzaffar haqida, ualrning kuy, qo`shiq, raqs, suvratlari xususida muayyan tasavvurga ega bo`ladi.

San`atkorlar hamma zamonlarda ham bo`lgan. Biroq san`atdagi an`anaviylikdan ixtirokorligi bilan ajralib turgan ijodkorlarninggina nomlari el og`ziga tushib, shuhrat qozongan. Bobur Hirotda ekanida Muzaffar mirzoning bazmi tasvirida Mir Badrning raqqoslik san`atiga qoyil qoladi (matn tabdili): “Muzaffar mirzoning bazmiga ham bir navbat bordim. U bazmda Husayn Ali Jaloyir va Mir Badr Muzaffar mirzo ham bor edi. Bazm ahlining kayfi zo`rayganda Mir Badr raqsga tushdi, yaxshi raqs tushdi. Mir Badrning o`z ixtirosidir”.

Qo`shiqchi hofizlarning sarasi, ayniqsa, Bobur shoh bazmlarining xushxon bulbuli Ruhdam edi. “Ruhdam” so`zining lug`aviy ma`nosi “nafasi jon bag`ishlaydigan” demakdir. Bunday ulug` maqtov so`zi birgina Iso alayhissalomga nisbatangina ishlatilgan edi.

Bobur bu hofizni shunchalik qadrlaydiki, uningcha, go`yo Ruhdam qatnashgan bazmlar ruhli, oromijon bo`ladi. Usiz, yo tasodifan u ketib qolsa, bazmda ruh qolmaydi. Ruhdamning qadri shunchalikki, Bobur u haqida quyidagi ruboiyni yozgan;

Gar Ruhdam etsa erdi ohangi nag`am,
Majlisda ne huzn qolur erdi, ne g`am,
To borg`ali Ruhdam, bizing majlisdin,
Majlis elig`a ne ruh qoldi-yu, ne dam.

Xushxonlarni shunchalik yuksak baholagan Bobur ashulani yaxshi, yoqimli aytolmaydigan, saviyasi pastroq hofizlar haqida ham yozishni lozim topgan. Quyidagi matnda Hirot ahlining baqiroq, ammo ovozi shirali va ta`sirchan bo`lmagan samarqandlik Mirjon hofiz xonishini qanday tinlaganliklarini juda qiziqarli bayon etadi. Muzaffar mirzoning Tarabxonadagi bazmidan bir lavha (matn tabdili):

“Majlisda musiqachi va hofizlardan Hofiz Hoji, Jaloliddin Mahmud Noyi, G`ulom Shodiyning inisi Shodibacha bir edi. U chang chalar, Hofiz Hoji yaxshi xonish qilar edi. Hirot eli past, nozik va tekis xonish qiladi. Jahongir mirzoning samarqandlik Mirjon ismli bir hofizi bor edi. Baland, xunuk va notekis xonish qilardi. Jahongir mirzo kayf ustida unga qo`shiq aytishni buyurdi. U ajabtovur baland ovozda qo`pol va bemaza xonish qildi. Xuroson eli hazil-huzul bilan tirik el. Hojining bu xonishidan birisi qulog`ini berkitadimi-ey, yana biri yuzini bujmaytiradimi-ey, ammo mirzo tufayli hech kim uni man qila olmaydi…”

Yana biri Sayyid Yusuf o`g`loqchi edi. Uning katta otasi mo`g`uldan kelgan ekan. Otasini Ulug`bek mirzo qadrlagan edi. Sayyid Yusuf uquvli va tadbirli kishi edi. Mardonaligi ham bor; qo`bizni yaxshi chalardi.

Yana biri Xoja Husaynbek, odmi, va faqir kishi edi. O`sha payt rasmiga ko`ra, bazmlarda qo`shiqlarni yaxshi aytar ekan. Shoir Binoyi Hirotlikdir. Sulton Husayn mirzo Marvga qishlash uchun borganida Alisherbek ham birga ketadi. Binoiy Hirotda qoladi. O`sha qish musiqani mashq qiladi. Yozgacha shunchalik harakat qiladiki, ohanglar ham ixtiro etadi. Yozda sulton Husayn mirzo Hirotga kelganida unga o`zi ijod qilgan kuy va naqshini ijro etadi. Alisherbek taajjublanib, tahsinlar qiladi. Binoyi musiqada yaxshi ishlar ijod qilgan. Jumladan, uning “Nuhrang” deb atalgan bir naqshi bor. Bu to`qqiz rangning yakuni va naqshning yali-yalisi “Rost” ohangidadir.

Yana, Shoh Muzaffar edi. Rang tasvirni ko`p nozik qilar edi. Soqolni ham o`ta nozik chizardi. Ko`p umr ko`rmadi. Uning tasavvufga oid bir asari bor, yomon emas. Aftidan ayrim fikrlar o`ziniki emas. Ayni o`sayatgan davrida olamdan o`tdi.

Musiqachilardan hech kim Xoja Abdullo Marvoriycha cholmas edi.

Yana, Qulmuhammad Udiy edi. G`ijjakni ham yaxshi chalar edi. U g`ijjakka uch qil taqdi. Cholg`uchilardan va soz ahlidan hech kim uncha ko`p peshrav bog`lagan emasdir. Peshravdan o`zga kuylari unchalik emasdir.

Yana, Shayxiy Noiy edi. Udni, g`ijjakni ham yaxshi chalar ekan. O`n ikki- o`n uch yoshidan beri nayni yaxshi chalarkan. Bir navbat Badiuzzamon mirzoning suhbatida bir kuyni naydan yaxshi chiqaradi. Qulmuhammad g`ijjakda u kuyni chala

olmaydi va: “G`ijjak nomukammal sozdir”, deydi. Shayxiy darhol Qulmuhammadning qo`lidan g`ijjakni olib u kuyni g`ijjakda yaxshi va tiniq qilib chaladi.

Shayxiydan yana bir narsani rivoyat qiladilar: ohang idrokida shu darajada mohir ekanki, falonining falon pardasi bunga ohangdir, deb aytarkan. Lekin ko`p kuy ijod etmaydi. Bir ikki naqshni uniki, deydilar, xolos.

Yana, Shohquli G`ijjakiy edi. Iroqdandir. Xurosonga kelib soz mashq qilib o`sdi. Anchagina naqsh, peshrav va ohanglar yaratgan.

Yana, bastakorlardan G`ulom Shodiy edi. Shodiy Hofizning o`g`li edi. U soz chalar, lekin bu sozandalar davrasida chalmasdi. Yaxshi kuylari va naqshlari bor. U zamonda uningdek ko`p naqsh va kuy bog`lagan kishi yo`q edi. Oxiri Shayboniyxon uni Qozon xoni Muhammad Aminxon qoshiga yubordi. Undan boshqa xabar kelmadi.

Yana, Mirazu edi. Soz chalmasdi, bastakor edi. Garchi ozgina ohang yaratgan bo`lsa-da, yaxshi ishlari bor.

Binoyi ham bastakor edi. Yaxshi kuy va naqshlari bordir.

Bobur o`zining “Boburnoma” asari orqali o`z davrining buyuk tarixchi, etnografi, geografi, shoiri, va mohir san`atshunosi sifatida namoyon bo`ladi. Agar bu asarni sinchiklab o`qiydigan bo`lsak, san`at ahli va san`atkorlar siymosi naqadar mahorat bilan aks etganini ko`ramiz. Demak, Bobur o`ta madaniyatli va jozibali insonlar orasida eng yetuk inson ekanligini yana bir bor e`tirof etishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1.”Boburnoma” asari. “O`qituvchi” nashriyot- matbaa ijodiy uyi. Toshkent 2017.
2.”Shoh, adib va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur”.
Tahrir hay`ati: Aziz Qayumov, Xayriddin Sultonov, Bobur Alimov, Zokirjon Mashrabov, Pirimqul Qodirov, Hasan Qudratillayev, Rustam Mirzayev, Saidbek Husanov, Abdulla Hasanov, Pokiza A`zamova.

BOBUR VA BOBURIYLAR SULOLASINING JAHON SIVILIZATSIYASINING YANGILANISHIGA QO‘SHGAN HISSASI

Abdullayev Axrorjon Axadjon o‘g‘li
Qo‘qon universiteti iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Bobur Hindiston xalqlari tarixida mamlakat davlatchiligi asoslarini mustahkamlab, uch asrdan ortiq davom etgan Buyuk Boburiylar saltanatiga asos solganligi diqqatga sazovor ekanligi, Boburiylar sulolasidan olti kishi, bular:*

Bobur, Humoyun, Akbar, Jahongir, Shoh Jahon, Avrangzeblar Hindistonda uzoq vaqt hukmronlik qilib, hind madaniyatining gullab-yashnashiga va iqtisodiyotiga hissa qo‘shganliklari haqida to‘liq ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Bobur, Boburiylar sulolasi, Amir Temur, taraqqiyot, davlat, iqtisodiyot, Boburnoma, Akbarshoh, taraqqiyot.*

Abstract: *In this article, it is noteworthy that Babur strengthened the foundations of the statehood of the country in the history of the peoples of India and founded the Great Baburid Empire, which lasted more than three centuries.*

Babur, Humayun, Akbar, Jahangir, Shah Jahan, and Avrangzeb provide detailed information about their long rule in India and their contribution to the prosperity and economy of Indian culture.

Keywords*: Babur, Baburi dynasty, Amir Temur, development, state, economy, Boburnoma, Akbarshah, development.*

Аннотация: *В данной статье отмечается, что Бабур укрепил основы государственности страны в истории народов Индии и основал Великую империю Бабуридов, просуществовавшую более трех столетий.*

Бабур, Хумаюн, Акбар, Джахангир, Шах Жахан и Авранзеб предоставляют подробную информацию о своем долгом правлении в Индии и их вкладе в процветание и экономику индийской культуры.

Ключевые слова: Бабур, династия Бабури, Амир Темур, развитие, государство, экономика, Бобурнома, Акбаршах, развитие.

Bobur va Boburiylar sulolasi tomonidan amalga oshirilgan islohotlar dunyo xalqlarining ma’naviy yuksalishi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va yuksalishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bobur jahon madaniyati sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk shoh va shoir, olim va buyuk ijodkor edi. U o‘zining go‘zal fe’l-atvori, mardligi, halolligi, sadoqatliligi, sabr-toqati, insonparvarligi, adolatparvarligi bilan tarixda chuqur iz qoldirdi.

Uning boy hayotiy tajribasi, amaliy ijodiy faoliyati yosh avlod qalbida “Yangi O‘zbekiston – yangi dunyoqarash”ni shakllantirishda muhim namuna bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda: “Umuman olganda, har qanday jamiyat taraqqiyotida o‘sib kelayotgan yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi hal qiluvchi rol o‘ynaydi, bu jamiyatning kelajagi unga bog‘liqdir. Shu bois islohotlarimiz samaradorligini yanada kengaytirish va yanada oshirish masalalarida g‘ayratli, tashabbuskor, har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va ko‘nikmaga ega yoshlarimizni tayanchimiz, tayanchimiz, deb bilamiz. Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda yangi Uyg‘onish davri poydevorini yaratishni buyuk maqsad qilib qo‘yganmiz va buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiylar, Boburiylarni tarbiyalash uchun sharoit va sharoit yaratishimiz kerak. Milliy g‘oyamizning ajralmas qismi bo‘lgan ushbu tarixiy jarayonda ta’lim va ma’rifat, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish hal qiluvchi omil bo‘lmoqda. Bizning eng ustuvor vazifamiz yoshlarga ulkan maqsadlarni qo‘yish va ularga erishish uchun imkoniyatlar yaratish bo‘lishi kerak. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning azaliy orzu-umidlarini ro‘yobga chiqara oladigan haqiqiy kuchga

aylanadi”.Zero, buyuk ajdodlarimizning hayot yo‘li bugungi taraqqiyotimizga poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bu borada Bobur Hindiston xalqlari tarixida mamlakat davlatchiligi asoslarini mustahkamlab, uch asrdan ortiq davom etgan Buyuk Boburiylar saltanatiga asos solganligi diqqatga sazovordir.Boburlar sulolasidan olti kishi, ya’ni. Bobur, Humoyun, Akbar, Jahongir, Shoh Shahriy, Aurangzeblar Hindistonda uzoq vaqt hukmronlik qilib, hind madaniyatining gullab-yashnashiga hissa qo‘shdilar.

Bu yillar Hindistonning madaniy hayotida katta yangilanish davri bo‘ldi.Boburning farzandlariga bergan maslahatlarida uning kuchli yetakchiligi, ularning davlatdagi o‘rni, xalq manfaati yo‘lida kimga tayanishi kabi shaxsiy fazilatlari haqidagi g‘ayrioddiy qarashlari. mamlakat, ishonch va xiyonat diqqatga sazovordir.

Bobur harbiy sohada qanchalik mohir bo‘lsa, ijodida ham benazir bo‘lib, katta-kichik har bir muammoni aql va tafakkur, donishmandlik, chuqur ilmiy salohiyat va buyuk tafakkur vositalari asosida amalga oshirgan. , sodir bo‘ladigan voqealarning yo‘nalishi va mohiyatini chuqur anglash.

Ingliz tarjimoni Uilyam Erskin buyuk davlat arbobi, mohir lashkarboshi Boburni buyuk madaniyat va siyosiy arbob sifatida ta’riflaydi: “Bobur Sharq mamlakatlari taxtiga o‘tirgan hukmdorlarning yorqin namoyandalaridan biridir. Uning shaxsiyati olijanob inson va buyuk podshohga xos fazilatlardan iborat edi. U mard va tashabbuskor sarkarda, odamlarga ergashadigan uyushgan lashkarboshi edi. U sofdil va ishonchli inson edi, yoshlikdagi g‘ayrat va jasorati hech qachon tark etmasdi. uni.Ayni paytda u yuksak e’tiqodli inson sifatida ulug‘vorlik va go‘zallikni yuksak qadrlar va uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga intilardi.U buyuk qudrat va shon-shuhrat egasi bo‘lgan, har qanday ko‘rinishdagi shon-shuhrat uning tasavvurini kengaytirar, va u hech kimning shon-shuhratini bo‘lishishni xohlamaydi va o‘zinikiga ega bo‘lishni afzal ko‘radi.

Darhaqiqat, Bobur davlati va qudrati asosan ilm-fan, madaniyat va ma’rifat qudratiga tayangan edi.Bobur ilm-fan, aql va tafakkurga asoslanmagan davlat va jamiyatning kelajagi yo‘qligini hammadan ko‘ra aniqroq va chuqurroq tushundi.

Bobur va boburiylar sulolasining jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan ulkan hissasini madaniy yangilanish sohasidagi quyidagi islohotlar asosida bog‘lash maqsadga muvofiqdir. Bular:

Birinchidan, shaharsozlik, arxitektura, ko‘kalamzorlashtirish, ta’mirlash, davlat boshqaruvi va mamlakatni obodonlashtirish sohasidagi ulkan xizmatlari;

Ikkinchidan, ularning xalq orasidagi madaniy-ma’rifiy ishlari: kutubxonalar, rasadxonalar kabi ilmiy-madaniy inshootlar, tasviriy san’at, xattotlik, naqqoshlik sohasidagi sa’y-harakatlari va badiiy ijodini rivojlantirish.

Uchinchidan, bu ijodiy va madaniy-ma’rifiy merosni yaratishda boburiylar tomonidan avaylab asrab-avaylangan va rivojlantirgan baynalmilallik ruhi, ular bilan hamkasb, safdosh, yelkadosh bo‘lgan oddiy ijod ahlining ijodiy harakati ko‘zda tutilgan.

Umuman olganda, butun temuriylar ichida faqat Bobur o‘zining bobosi bo‘lgan Amir Temurning yagona saltanatini tiklash, kuchli saltanat barpo etish uchun kurashgan.Agar Amir Temur jahon hamjamiyati tarixida o‘zining yetakchiligi bilan alohida obro‘-e’tibor qozongan bo‘lsa. Bobur va uning avlodlari jamiyatning mamlakatda adolat va tenglikni qaror toptirish, xalq farovonligi, bunyodkorlik va shaharsozlik, bunyodkorlik, me’moriy va ma’naviy taraqqiyoti bilan tarixda unutilmas iz qoldirdi.

Amir Temur davrida mintaqa xalqlari hayotida ijtimoiy-madaniy taraqqiyot, ma’naviy-ma’rifiy yuksalish, bunyodkorlik, shaharsozlik va xalq amaliy san’ati sohalarida o‘zgarishlar ro‘y berib, Bobur va Boburiylar davrida Hindistonda o‘zining yuksak cho‘qqisiga chiqdi. tubiga yetdi. Uni ana shu ulug‘ maqsad sari yetaklovchi yuksak axloqiy fazilatlardan – insonparvarlik, o‘zgalarga mehr-oqibat, odamlarga

mehr va saxovat eshigini ochib berish uning hayotining mazmuniga aylandi.Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining 47 yillik qisqa umrida o‘zining boyligini qoldirdi. Uning g‘azallari, ruboiylari, tovuqlari, buyuk va mukammal yodgorlik asari “Boburnoma” bugungi kunda ham jahon adabiyoti muxlislari tomonidan sevilib o‘qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Bobur davlatchiligida jamiyatning madaniy taraqqiyotiga alohida e’tibor qaratilgan.Bugun o‘zbek xalqi Boburdek betakror alloma, buyuk farzandi borligidan g‘oyat faxrlanadi. 2008-yil 14-fevralda uning 525 yilligi munosabati bilan mamlakatda uning nomidagi markalar chiqarildi. Shunday qilib, Boburning hayoti va ijodiy faoliyati bilan O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi yo‘lini yoritib borar ekan, bundan keyin ham Vatanimiz taraqqiyotiga hissa qo‘shishiga shubha yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmadjonov, A Abdullayev, M Mamayusupov, O Umarjonov. (2021). Raqamli iqtisodiyotda boshqaruv muammolari. *Science and Education, 2*(10), 636-642.

2. AA, Mulaydinov Farkhod Muratovich. (2021). RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI VA AMALIY AHAMIYATI. *АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА ТЕЛЕКОММУНИКАЦИЯЛАРНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ ВА ЕЧИМЛАРИ ОНЛАЙН РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-ТЕХНИК АНЖУМАНИНИНГ МАЪРУЗАЛАР ТЎПЛАМИ, 2 (6), 794*

3. A Abdullaev. (2021). RAQAMLI IQTISODIYOT - KADRLAR TAYYORLASHNING DOLZARB MASALALARI. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlari, uning …

4. Akhmadjonov, A Abdullayev, A Abdupattayev, M Sultonov. (2021). ISLAMIC BANKING MANAGEMENT, ASSETS AND LIBILITIES. *Scientific progress, 2* (6), 1525-1532.

5. M Mamadjonov, A Abdullayev, I Abdurahmonov, A Mamadaliyev. (2021). CHALLENGES OF MANAGEMENT IN THE DIGITAL ECONOMY. *Scientific progress, 2* (6), 1533-1537.

6. MMQ Tojiyeva, AAU Abdullayev. (2021). THE USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN STATISTICAL DATA COLLECTION. *Asian Journal of Multidimensional Research 10 (12), 250-254.*

7. O Akhmadjonov, A Abdullaev, B Umarjonov, M Shamsiddinov. (2021). ISLOM MOLIYASINING XUSUSIYATLARI. *Scientific progress 2 (8), 634-638.*

8. O Akhmadjonov, A Abdullaev, S Yusupuv, J Anvarov. (2021). ISLOM BANKCHILIGIDAGI XAVF. *Scientific progress 2 (8), 639-642.*

9. O Akhmadjonov, A Abdullaev, M Shamsiddinov, B Umarjonov. (2022). ISLAMIC FINANCE. *Scientific progress 3 (2), 48-50.*

10. O Akhmadjonov, A Abdullaev, J Anvarov, S Ismoilov. (2022). ISLOM MOLIYASI. *Scientific progress 3 (2), 45-47.*

11. O Akhmadjonov, A Abdullaev, S Karimova, F Solijonova. (2022). Jahon savdo tashkiloti boshqaruv tizimi. *Scientific progress 3 (2), 343-347.*

ALISHER NAVOIY IJODIDA PEDAGOGIK MAHORATNING O’RNI

Tursunboyeva Jamila Erkinovna
Jizzax shahar 21-sonli Davlat MTT direktori

Annotatsiya: Pedagog-o’qituvchi barkamol avlod ta’lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodida pedagogik mahoratning o’rni va axamiyati haqida so’z borgan.

Kalit so’zlar: Ta’lim sektorini rivojlantirish , barkamol inson, o’qitish shakllar, jamiyat taraqqiyoti, ilmiy bilishga doir g’oyalar, nazariyalar, qonuniyatlar, qizg’in faoliyat.

Аннотация: Учитель – лицо, ответственное за воспитание гармонично развитого поколения. В данной статье Алишер Навои рассуждает о роли и значении педагогического мастерства в своей работе.

Ключевые слова: развитие сферы образования, гармонично развитая личность, формы обучения, развитие общества, представления о научном познании, теории, законы, деятельность.

Annotation: A teacher is a person responsible for the education of a harmoniously developed generation. This article discusses the role and importance of pedagogical skills in the work of Alisher Navoi.

Keywords: Development of the education sector, harmonious human being, forms of teaching, development of society, ideas, theories, laws, active work on scientific knowledge.

Barchamizga ma’lumki, shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon hisoblanib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning etuk kishilari jalb etilgan. Yosh avlod tarbiyasi, uning

tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. O’tkazilgan tajribalar o’qitish shakllarida foydalaniladigan o’qitish qonuniyatlari, prinsiplarini ijodiy qo’llashda, ilmiy bilishga doir g’oyalar, nazariyalar, hamda qonuniyatlarni amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi paytda Respublikamizda bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy mahorati, bilim va ko’nikmalarini muntazam oshirib borish maqsadida qizg’in faoliyat olib borilmoqda. Xususan, O’zbekiston xalq ta’limi vazirligi hamda Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan “Ta’lim sektorini rivojlantirish dasturi” loyihasi doirasida respublika hududlarida masofadan o’qitishning “Ta’lim-resurs” Markazlari tashkil etilgan. Ushbu faoliyat natijasida yosh o’qituvchilarning xorijiy mamlakatlarda kasbiy malakalarini oshirish imkoniyati tug’ildi. Maktablarga yosh o’qituvchilarni jalb etish va ularga har tomonlama amaliy yordam berish, ta’lim-tarbiya jarayoniga ilg’or va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga ko’maklashish maqsadida 2009 yildan boshlab “Respublika yosh o’qituvchilar assosiasiyasi” o’z faoliyatini boshlashi ta’lim sohasida pedagog kadrlarni muvaffaqiyatli tayyorlashga qaratilgandir.

Pedagog-o’qituvchi barkamol avlod ta’lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo’lib, nafaqat ma’naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o’rnak bo’lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, etuk o’qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlashga o’zining munosib hissasini qo’shishi muhim hisoblanadi.

Pedagogik jarayon, ta’lim va tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, uning rivojlanishi, yillar davomida shakllanib borishi ustoz va shogird faoliyatiga bog’liqligining guvohi bo’lamiz. Eng qadimgi davrlardayoq mudarrislar (o’qituvchilar) ta’lim va tarbiyaning samarali ta’sir usullarini qidirib topib, hayotga tatbiq eta boshlaganlar. Buning natijasida esa eramizdan oldingi davrlardayoq ta’lim-tarbiyaning samaradorligiga erishilishi uchun o’qituvchiga bo’lgan talablar kuchayib

borgan. O’qituvchi mahoratini takomillashtirish yuzasidan turli g’oyalar, nazariya va tavsiyalar paydo bo’la boshlagan. O’qituvchining pedagogik mahoratini oshirish yo’lida izlanishlar olib borishda sharq mutafakkirlarimiz xam o’z hissalarini qo’shganlar. Jumladan, buyuk mutafakkirlarimizdan biri, so’z mulkining sultoni Alisher Navoiy ijodida muallimlarga munosabat alohida o’rin egallagan. Uning fikricha, har bir inson o’ziga ta’lim va tarbiya bergan ustozini, o’qituvchisini umrbod hurmat qilishi va uni e’zozlashi kerak. O’qituvchi mehnatini hech qanday xazina bilan o’lchab bo’lmaydi. Zero:

Haq yo’linda kim senga, bir harf o’qitmish ranj ila,

Aylamak bo’lmas ado, oning haqqin yuz ganj ila.

Haqiqatdan ham Alisher Navoiy ushbu bitiklarida yosh avlod tarbiyasini har qanday tasodifiy murabbiyga ishonib topshirib bo’lmasligini aytib, o’qituvchiga yuksak talablarni qo’yadi. Bolani tarbiyalash va unga bilim berish, uning qobiliyatini o’stirish uchun nihoyatda savodli o’qituvchi va mahoratli tarbiyachi bo’lish kerak deya ta’kidlaydi. Alisher Navoiy o’qituvchini faqat dars beruvchi, bilim beruvchi deb bilmaydi, balki mahoratli tarbiyachi bo’lishi lozim deb ilm va odobni birga olib borilishini, bu ikki jarayon hech qachon ajralmasligi lozimligini aytadi.

Buyuk alloma o’zining *“*Mahbub-ul qulub*”* didaktik asarida o’qituvchi xalq oldida obro’ga, hurmat va izzatga sazovor bo’lishi kerakligini, u xalq g’ami bilan yashashini, xalqqa yordam beruvchi, xalq bilan birga bo’lishi lozimligini ta’kidlaydi. Nodon, mutaasib, johil mudarrislarni tanqid qilib, mudarris olimlar orasidagi eng sara **“malak qiyofali”** kishi bo’lishi lozimligi, ya’ni sof ko’ngilli, pok qalbli, insofli, karam-muruvvatli, odobli, vafoli, kishilikning eng yaxshi va oliyjanob hislatlarini o’zida aks ettiruvchi bo’lishi kerak deydi. Ayniqsa, Navoiy madrasalarda ta’lim-tarbiya bilan shug’ullanuvchi mudarrislarga jiddiy talablarni qo’yadi. Uning fikricha *«*Mudarris kerakki, g’arazi mansab bo’lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko’rgazmasa va

olg’irlik uchun gap-so’z va g’avg’o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo’lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni unga bosh o’rin bo’lmasa, yaramasliklardan qo’rqsa va nopoklikdan qochsa... nainki, o’zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni qilish mumkin, balki halol desa, qilmas ishlarni qilmoq undan sodir bo’lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo’lib qolsa, bu mudarris emas, yomon odatni tarqatguvchidir».

bundan ko’rinib turibdiki, mudarris bilimli, fozil va donishmand bo’lishi, kishilikning eng yaxshi fazilatlarini o’zida mujassamlashtirgan oliyjanob va kamtarin bo’lishi, har qanday yaramas ishlardan holi va pok bo’lishi, o’z xulqi va odobi bilan boshqalarga namuna bo’lishi lozimdir. Shu o’rinda o’qituvchi mehnatini eng murakkab va mashaqqatli ish ekanligini xolisona baholaydi: “Uning ishi odam qo’lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashdan ojizlik qilardi. U esa bir to’da bolaga ilm va adab o’rgatadi, ko’rkim bunga nima etsin. Shunisi ham borkim, u to’dada fahm-farosati ozlar ham bo’ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat qilsa qanday bo’ladi. Har qanday bo’lsa ham, yosh bolalarda uning haqqi ko’pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa unga (muallimga) qulluq qilsa arziydir”.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni tavsiya qilishimiz mumkinki, o’qituchilarmiz kasbiy mahoratni oshirishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratishlari muhimdir:

- pedagogik jarayonda nazariy va amaliy harakatlarni to’g’ri tashkil etish;
- pedagogik faoliyatda yo’l qo’yilgan yoki qo’yilayotgan xatolardan holi bo’lish;
- o’quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish;
- amaliyot va nazariyani birligini ta’minlash va h.;

Xulosa qilib aytganda, pedagogik mahoratga ega bo’lish, bo’lajak o’qituvchilar uchun ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlovchi muhim omil bo’libgina

qolmasdan, ayni vaqtda uning jamiyatdagi obro’-e’tiborini ham oshiradi, o’quvchilarga unga nisbatan hurmat yuzaga keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.

1. Umumiy pedagogika (1-qism). Abdullayeva B.S., Xoliqov A.A., Sodiqov H.M., Primov Sh.Q., Zarmasov Sh.R. - **O’zbekiston Respublikasi** Oliy **va** o’rta maxsus ta’lim vazirligi - **T.:** «», 2019.-496 bet. ISBN: 978-9943-05-691-6
2. Hasanboev J., va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug’at. T.: “Fan va texnologiya”, 2009. – 672 b.
3. B. Husanov, V. G’ulomov. Muomala madaniyati. Darslik. – T.: “Iqtisod – moliya” 2009.- 156 b.

НРАВСТВЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ ВЕЛИКОГО ПОЭТА И МЫСЛИТЕЛЯ УЗБЕКСКОГО НАРОДА АЛИШЕРА НАВОИ

Буранова Шохноза Абдуразаковна

преподаватель Узбекистан, Джизакский Государственный Педагогический Институт

Аннотация: В статье рассматривается нравственные взгляды великого поэта и мыслителя узбекского народа Алишера Навои, главными среди которых является духовное развитие раскрывающие смысл таких проблем человеческих отношений как любовь, дружба, красота, стремление к прекрасному и как человек в себе должен воспитывать лучшие моральные качества.

Ключевые слова: мораль, разум, развитие, обучение, воспитание, знания, мыслитель, духовность, нравственность.

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek xalqining ulug‘ shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning axloqiy qarashlari haqida so‘z yuritilib, ularning asosiysi ma’naviy yuksalish bo‘lib, inson munosabatlaridagi sevgi, do‘stlik, go‘zallik, go‘zallikka intilish kabi muammolarning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Inson o'zida eng yaxshi axloqiy fazilatlarni tarbiyalashi kerakligi ta’kidlangan.

Kalit so'zlar: axloq, aql, rivojlanish, tarbiya, tarbiya, bilim, mutafakki, axloq, ma'naviyat.

Annotation: The article discusses the moral views of the great poet and thinker of the Uzbek people Alisher Navoi, the main among which is spiritual development, revealing the meaning of such problems of human relations as love, friendship,

beauty, striving for beauty and how a person should cultivate the best moral qualities in himself.

Key words: morality, mind, development, training, education, knowledge, thinker, spirituality.

Каждый год 9 февраля по всему Узбекистану отмечается день рождения славного сына нашего народа Алишера Навои. По традиции в Ташкенте в этот день у подножия величественного памятника, что находится в Национальном парке Узбекистана, носящем его имя, соберутся многочисленные почитатели несравненного таланта, чтобы отдать дань уважения великому поэту и мыслителю.

Великий узбекский поэт Алишер Навои - гуманист, мыслитель, основатель узбекской классической литературы и узбекского литературного языка, учёный, художник, музыкант, государственный деятель, оставивший потомкам богатое литературное наследие. Его имя является символом прогресса своей эпохи для народов всего мира. Алишер Навои писал стихи, поэмы, прозаические произведения, научные трактаты, всесторонне раскрывающие духовную жизнь Средней Азии XV в. В своей воистину художественной энциклопедии “Хамса” (пятерица), которая состоит из пяти поэм: “Смятение праведных”, “Фархад и Ширин”, “Лейли и Меджнун”, “Семь планет”, “Стена Искандера”, с глубокой философской основой поднимает важнейшие вопросы того времени: о государственной власти, о нравах, воспитании, о высоких идеалах любви и дружбы, о науке и т.д. Поэмы Алишера Навои впитаны наставлениями, призывом, обращенные не только к молодежи, но и правителям, народу, к миру. В “Пятерице” Навои бичует несправедливость и вероломство, хищничество и взяточничество, осуждает праздность, поучает правителей, призывает к активной борьбе за счастье и справедливость. Величественна третья поэма “Пятерицы” — “Фархад и

Ширин”, повествующая о любви богатыря Фархада к красавице Ширин. Фархад, сын царя, потрясенный тяжелейшим трудом каменотесов, сам берётся за кирку, чтобы помочь им. Он совершает титанический подвиг во имя освобождения народа, во имя народного счастья: «Теперь звучал не горя — счастья крик: “Да он один прорoет весь арык!”. “Фархад и Ширин” — это гимн борцу за правду и справедливость, гимн свободному человеческому чувству, не закрепощённому религиозными догмами. В образе Фархада Навои воплощает лучшие черты своего народа.

Алишер Навои уделял особое внимание актуальным вопросам и проблемам, связанным с разумной организацией власти, защитой прав и интересов людей, обеспечением в государстве верховенства права, законности, порядка и дисциплины, благоустройства общества и его дальнейшего процветания. В произведениях великого предка воспеваются такие высокодуховные человеческие ценности, как нравственность, правдивость, милосердие. Любовь к человеку - идейная основа гуманизма Навои. В связи с этим изучение творчества Алишера Навои особенно актуально в Новом Узбекистане, где происходит переосмысление ценностей, а также поиск наиболее оптимальных путей общественного развития, базирующихся на сочетании достижений мировой практики и национально-культурных традиций.

Наследие выдающегося узбекского поэта, мыслителя Алишера Навои, жившего и творившего шесть веков назад, и сегодня не потеряло своей актуальности. Как не странно, сегодня поднимается проблема, в XXI веке не только наша молодёжь или подрастающее поколение, всё человечество нуждается в разностороннем развитии, чему более 600 лет назад Алишер Навои уделял пристальное внимание, в частности овладению наукой и ремеслом, в которых постоянно надо совершенствоваться, и призывал к этому окружающих.

“Знание и мудрость – украшение человека”. Эта истина, произнесённая устами выдающегося поэта и мыслителя узбекского народа Алишера Навои, и сегодня не потеряла своей актуальности. Он мечтал о разностороннем развитии человека, о воплощении в нём лучших качеств. Поэт уделял пристальное внимание овладению наукой и ремеслом, в которых постоянно надо совершенствоваться, и призывал к этому окружающих.

Навои как высокоинтеллектуальный человек своего времени высоко ценил человеческий разум и науку. А как истинный гуманист поэт в своих произведениях широко представлял вопросы воспитания и обучения. Большое внимание он уделял вопросам формирования и воспитания ребёнка, которого считал светилом в доме, приносящим в семью радость и счастье. «Ребёнку, – писал Навои, – с малых лет необходимо дать правильное воспитание, сообразуясь с возрастом, а к изучению наук надо приступать как можно раньше. Овладение науками и ремеслами должны быть полезны народу, ибо тот, кто получил знания и не сумел их применить, похож на крестьянина, вспахавшего поле, но не засеявшего его». Поэт писал: “Воспитывайте детей, не делая им замечаний. Охраняйте детство от замечаний и упреков”. Воспитание без замечаний — лучшее, что вы можете дать своим детям. Воспитывать детей надо так, чтобы, когда вы состаритесь, они бы вас не воспитывали, а любили. По мнению Алишера Навои ребёнок — это Божий дар каждой семье, в котором заключается смысл жизни любой семьи. Ребёнок в семье — это стимул жизни, который заставляет жить и радоваться всех — без исключения, брата, сестру и родителей. Педагогические идеи восточного лирика отличаются гуманизмом. Алишер Навои считал человека самым высшим и благородным существом в мире, а ребёнка — светилом, которое озаряет дом и приносит в семью радость и счастье. Поэт писал, что дети не могут отличать хорошее от плохого, поэтому с ранних лет должны находиться под благотворным влиянием воспитателей. Педагог — человек, который знает, как воспитывать чужих детей, лучше чем своих.

Основную задачу воспитания и обучения он видел в нравственной подготовке человека. С его точки зрения, человека нужно воспитывать в духе гуманизма, патриотизма, бескорыстия, честности и порядочности. Особенным для нас педагогов является то, что изучение научных, культурных и литературных произведений великих мыслителей-классиков еще раз свидетельствует, что отношения этих двух личностей являются ярким примером верной дружбы. В основе нравственного воспитания подрастающего поколения лежат как общечеловеческие ценности, непреходящие моральные нормы, выработанные людьми в процессе исторического развития общества, так и новые принципы и нормы, возникшие на современном этапе развития общества. Непреходящие нравственные качества — честность, справедливость, долг, порядочность, ответственность, честь, совесть, достоинство, гуманизм, бескорыстие, трудолюбие, уважение к старшим. «Щедр только тот, что в трудную минуту, последний хлеб с другим делить привык» Это фраза, заметьте, высказанная более шестисот лет назад об узбекском народе. Как видно, вдобавок ко всем своим достоинствам Алишер Навои обладал еще одним ярчайшим талантом — быть человеком. Вот уже почти шесть столетий его строки призывают нас, читателей ценить и воспитывать в себе такие качества, как доброта, отзывчивость, щедрость, умение протянуть руку тому, кто нуждается в помощи. Он писал: “Самым лучшим человеком признай того, от кого будет наибольшая польза для народа”. Именно столь передовое гуманистическое мировоззрение Навои и высокие художественные достоинства его произведений обеспечили их широчайшую популярность не только в своем отечестве, но и во всем мире. Созданные в далеком XV веке, его книги по сей день продолжают служить нравственному воспитанию подрастающего поколения и духовному обогащению общества в целом.

Навои осуждал принуждающие методы воспитания как в школе, так и дома, выступал за светское образование, был против телесных наказаний: “Главное – это любовь к детям. Невежественные учителя – большой бич для школы”,

“Учитель должен не только в совершенстве знать свой предмет и обладать глубокими знаниями, но и понимать нужды народа, показывать во всем пример”. Говоря о роли и значении учителя в обществе, Навои подчёркивал, что учителя необходимо уважать, а также призывал прививать молодому поколению любовь к Родине, уважение к человеку – самому высокому и ценному дару Вселенной. Значительное место в произведениях Навои занимают вопросы нравственного и трудового воспитания.

Дела великого предка нашего народа, без сомнения, будут жить в веках! Его мысли, идеи, надежды о построении гармоничного общества, в котором человек будет счастлив, воплощаются в жизнь, служат источником духовной силы.

Литература

1. Салиева, Н. С. / Педагогические идеи Алишера Навои и их влияние на воспитание подрастающего поколения /

2. Мухаммад Али. / Статья. Алишер Навои: Духовный подвиг во имя Родины/ (Источник: газета «Правда Востока»)

ВОСПИТАНИЕ И ОБУЧЕНИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ ИДЕЯМ АЛИШЕРА НАВОИ

Нигматуллина Дилнора Мухторовна

магистр 1 курса, Узбекистан, Джизакский Государственный Педагогический Институт

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогические идеи из жизни и творчества великого узбекского деятеля, выдающегося поэта, мыслителя Алишера Навои. В его созданных более шести веков назад произведениях подчёркиваются ценнейшие идеи и мысли для воспитания детей дошкольного возраста, молодёжи и нашего будущего поколения. Его педагогические идеи, взгляды и произведения служат основной методикой в воспитании для всех воспитателей и учителей, а также родителей.

Ключевые слова: разум, развитие, семья, воспитание, знания, учитель, мыслитель, духовность, гуманизм, нравственность.

Annotation: This article examines pedagogical ideas from the life and work of the great Uzbek figure, outstanding poet, thinker Alisher Navoi. It is emphasized that the works created by him more than six centuries ago have very valuable ideas for educating today's youth and the next generation. His creations serve as the main methodology in education for all educators and teachers, as well as parents.

Key words: mind, development, family, training, education, teacher, knowledge, thinker, spirituality.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ulug‘ o‘zbek arbobi, buyuk shoir, mutafakkir Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid pedagogik g‘oyalar muhokama qilinadi. Uning olti asrdan ko‘proq vaqt muqaddam yaratilgan asarlarida maktabgacha yoshdagi bolalar, yoshlar va kelajagimiz avlodini tarbiyalash borasidagi bebaho g‘oya va fikrlar alohida ta’kidlangan. Uning pedagogik g‘oyalari, qarashlari va asarlari barcha pedagog va o‘qituvchilar, shuningdek, ota-onalar uchun ta’lim-tarbiyada asosiy metodika bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: aql, taraqqiyot, oila, ta'lim, bilim, o'qituvchi, mutafakkir, ma'naviyat, insonparvarlik, axloq

В современной педагогике и в воспитании детей предполагается постоянный пересмотр и коррекция воспитательного процесса в изменяющемся потоке знания о человеке. Если обратиться к восточной и западной истории, в ней можно увидеть различные течения и направления, имеющие важнейшие задачи воспитания личности. Одним из способов воспитания и передачи знания является метод разрешения ситуации – обучение через легенды и притчи, в которых содержится мудрость веков, учат находить решения проблем, развивают мышление. Одни легенды и притчи несут мотивацию, воодушевление и вдохновение, другие – побуждают смеяться или плакать, а третьи – задуматься. Педагогика на Востоке предполагает самые различные способы постижения знания и воспитания детей. Она содержит объёмный материал по нравственному и умственному воспитанию человека.

Рассмотрим идеи и взгляды воспитания детей дошкольного возраста, нашего будущего одного из великого узбекского поэта и мыслителя узбекского народа Алишера Навои.

Алишер Навои родился 9 февраля 1441 г., в афганском городе Герат. Он был сыном крупного чиновника, из монгольского племени Барлас. Юноша получил хорошее всестороннее образование не только в Герате, но и в Самарканде. Стихи Навои начал писать уже в 15 лет, причём одинаково как на фарси, так и на тюркском языках.

Когда к власти пришёл поэт и приверженец искусств Хусейн Байкара, Навои стал мулазимом (с араб. «дружинник»,приближённым правителя). В дальнейшем в 1472 г. поэт стал визирем. На своём посту Навои оказывал большую помощь музыкантам, поэтам, каллиграфам, за что пользовался огромной популярностью среди народа. Являясь приверженцем суфийского

ордена Накшбанди, Алишер Навои вёл аскетический образ жизни, никогда не был женат и не имел наложниц.

Литературное наследие Алишера Навои составляет около 30 сборников стихов, поэм и, научных работ и поэтических трактатов. Они полностью раскрывают духовную жизнь в Средней Азии, переживавшей расцвет искусств и наук в конце XV века. Объём шести его поэм составляет около 60 000 строк (мисра). Он писал на персидском, тюркском, а также на староузбекском языках. Среди его произведений, которое много раз переписывалось является «Хамса», состоящее из пяти поэм: «Хайрат ул -абрар» («Смятение праведных»), «Фархад ва Ширин» («Фархад и Ширин»), «Лайли ва Мажнун» («Лайли и Мажнун»), «Сабъаи сайёр» («Семь планет»), «Садди Искандари» («Стена Искандара»). Они были созданы на основе традиции хамса – создания пятерицы (пяти поэм). Его последним произведением Навои является «Махбуб ал-кулуб». Именно в этом произведении Навои выражены его самые последние взгляды на общество, воспитание молодого поколения и политику. Как ни странно, Навои живший 6 веков назад написал такие произведения и выражал такие мысли, что его произведения являлись и являются объектом для подражания и воодушевления в современном мире и обществе.

Навои высоко ценил человеческий разум и науку. «Знание и мудрость – украшение человека» – писал он. В его поэтических и прозаических произведениях широко представлены вопросы воспитания и обучения. Педагогические взгляды Навои глубоко гуманистичны. Большое внимание он уделял вопросам формирования и воспитания ребенка, которого считал светилом в доме, приносящим в семью радость и счастье. Навои осуждал принуждающие методы воспитания как в школе, так и дома, выступал против телесных наказаний. По словам Алишера Навои ребёнок — это Божий дар каждой семье, в котором заключается смысл жизни любой семьи. Ребёнок в семье — это стимул жизни, который заставляет жить и радоваться всех — без исключения, брата, сестру и родителей. Алишер Навои считал человека самым

высшим и благородным существом в мире, а ребёнка — светилом, которое озаряет дом и приносит в семью радость и счастье. Поэт писал, что дети не могут отличать хорошее от плохого, поэтому с ранних лет должны находиться под благотворным влиянием воспитателей. А также Навои считал, что дети это отражение нашего будущего и поэтому мы должны дать всестороннее воспитание будущему поколению. Кроме этого он высоко ценил человеческий разум и науку: «знание и мудрость – украшение человека». Алишер Навои подчёркивает, что старание получения знаний является самым необходимым достоинством при воспитании всесторонне развитого человека. По его мнению, является фактором спасения человечества и народа от невежества и гнева. В своих произведениях мыслитель призывает людей быть умными, образованными и всегда стремиться получать знания. К примеру, в произведении «Махбуб ул -кулуб» («Возлюбленный сердец») посвящается наилучшему устройству общества. Поэт в произведении разделяет людей на достойных и недостойных, призывая хороших людей к осторожностью при общении с плохими. Это показывает о том, что поэт опираясь на свои жизненные опыты, призывает молодое поколение к всесторонней развитости и образованности.

Поймите, люди всей земли: вражда – плохое дело,
Живите в дружбе меж собой – нет лучшего удела...

Навои был против принуждающих методов воспитания как в школе, так и дома и телесных наказаний:» Невежественные учителя – большой бич для школы. Учитель должен не только в совершенстве знать свой предмет и обладать глубокими знаниями, но и понимать нужды народа, показывать во всем пример.» Навои призывал прививать детям любовь к родине, уважение к человеку. Огромное место в произведениях Навои занимают вопросы нравственного и трудового воспитания. По его мнению, что воспитанность является самым главным фактором нравственности. Воспитанность помогает человеку найти свое место в обществе, стать уважаемым и иметь более высокий

чин среди других. Он писал: «Самым лучшим человеком признай того, от кого будет наибольшая польза для народа». Именно столь гуманистическое мировоззрение Навои и духовно высокие достоинства его произведений обеспечили их большую популярность не только на своей Родине, но и во всем мире. Этот светлый образ гуманиста, мыслителя, просветителя, патриота Алишера Навои будет вечно жить в памяти многих поколений.

«И честь семьи, во первых честь,
Коль у тебя семья и дети есть.
Ты породил детей, но должен знать,
Как с малых лет им воспитанье дать,
Ты должен хорошо детей наречь,
Чтоб их потом насмешками не обречь.
Вторая цель твоя на пути –
Достойного учителя найти.
Все выше те, кто доброе творят,
Но за дела добра не ждут наград…
Всем жертвуют для страждущих людей,
Не думая о выгоде свое».
Алишер Навои.

Литература:

1. Абдуль – Кадыр И. Истина суфизма. М: ИД Ансар, 2004. -288 с.
2. С.Айни.Алишер Навои/ - Сталинабад, 1948.с. 48-49
3. К.Хошимов, С.Нишонова. История педагогики.
4. www.arboblar.uz
5. www.citaty.su
6. www.sufism.ru

Дилноза Шароф қизи Шарипова

БухДу талабаси

Анотатция: Заҳариддин Муҳаммад Бобур буюк ватанпарвар сиймо улкан Бобурийлар империсинг асосчиси. Маданиятнинг, илм- фан, меъморчилик ва санъатнинг ривожланган,тараққий этган даври ҳисобланган XV аср, Мовороуннаҳр тарихида ўзига хос ёрқин ва аҳамиятли из қолдирди.

Калит сўз: Мовороуннаҳр, илм, фан, маданият, арбоб, рубоий, Амир Темур, XV аср, Бухораи шариф, мураббий.

Халқ, ҳақиқат ва нафосат улмайди, дейдилар ва буларни ардоқлаган, куйлаган улуғлар ҳам мангудир. Улар ҳамиша авлодлар дили ва тилида барҳаёт. Шу миннатдор авлодарнинг эзгу интилиш ва ишларида мададкордир, дейдилар.

Бу – айни ҳақиқат. Фирдавсий, Низомий, Шерозий, Атоий, Лутфий, Навоий, Бедил қатори Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳам ҳамон халқ дилида орадан беш юз йилдан кўп вақт утган бўлсада у ўз асарларида барҳаётдир, орамиздадир, биз билан биргадир.У , шу улуғлар каби, ҳайратомуз гузал ва мўжизакор ва нафис, қуёш янглиғ сўнмас ва олтинега ўхшаб қораймас, ранг – баранг ва сеҳрлл бадиият обидалар яратди. Бу бадият обидалари баркамол баҳор каби иффатли, рангин ва зарриндир, шу баҳор латофати ва фусуни сингари завқли, илҳомбахш ва шавқлидир, яна шу баҳор каби суронли ҳужумкор ва ўзгарувчандир. Заҳириддин Муҳаммад Бобур йирик давлат арбоби ва моҳир лашкарбоши бўлиши билан бирга шоир, адиб, тарихчи ва олим ҳамдир. Унинг қисқа ҳаёти уруш – юришларда, омонсиз жангу жадалларда кечди. У гоҳ хурсандчиликда, гоҳ чексиз ғам – аламлар гирдобида яшади, алал-оқибат туганмас руҳий истироблар исканжасида умр утказди. Бу ҳақда “Бобрнома” да ўқиймиз: “ўн бир ёшимдан бери икки Рамазон ийдини паё- пай бир ерда қилғон эрмас эдим”[v]. У бошидан кечирган изтиробли кунларни эслаб, кейинроқ маснавийларида ҳам шундай ёзган эди:

Кўрсатиб давлат йитмагин на эди,

Ерга урдинг, кутармагин на эди.
Гоҳ жоҳилни сарбаланд айлар,
Гоҳ оқилни пойбанд айлар.
Не вафо қилғанини билса булур,
Не жафосиға сабр қилса бўлур.
Не қилай, не кишидан истай дод?
Кимга даҳр илгидан қилай фарёд.
Арзимас ғам емакка бу дунё,
Бал отин ҳам демакка бу дунё.1

Ҳақиқатдан ҳам Бобур яшаб ижод этагн замон Мовароуннаҳр ва Хуросон тарихида ғояти зиддиятли бир давр эди. Бир томондан, улуғҳ Амир Темур асос солган, нисбатан марказлашган давлат, унинг ижтимоий – сиёсий ва маданий ҳаётга кўрсатган қатор ижобий орқибатлари билан характерланса, иккинчи томондан, ана шу қудратли империянинг инқирозга юз тутиши туфайли, турли томондан феодалларнинг ўзаро тож-тахт учун курашлари эл юртнинг иқтисодий- сиёсий ва маданий ҳаётига шубҳасиз, салбий таъсир кўрсатаётган эди. Булар охир- оқибатда буюк салтанатни емирилишига олиб келди. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ниҳоятда серташвиш, нотинч ҳаёт кечиришига қарамай, ўз даврига нисбатан етук билим олиб, бебаҳо бадиий ва чуқур мазмунли илмий асарлар ижодкори даражасига кўтарилди. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўн олти – ўн етти ёшларидан ижод қила бошлаган. У “Бобурнома”да 1499-1500 йиллар воқеаси ҳақида сўзлар экан “ул фурсатларда бирор – иккирор байт айтур эрдим, вале ғазал тугатмайдур эрдим”, - дейди. Бобур узбек мумтоз адабиётининг, айникса, Алишер Навоийнинг бой адабий меросини хамда форс-тожик тилидаги адабиётнинг устоз санъаткорларининг адабий тажрибаларини урганди, узбек ва форс-тожик тилларида янги, узига хос шерлар яратди, узбек ва форс-тожик тилидаги шеърларини туплаб икки девон тузади. Бу девонларидаги айрим шеърлар «Бобурнома»га хам киритилган. У 20 ёшида янги бир ёзув- «Хатти

Бобурий»ни нашр килади. Мусика билан шугулланиб, «Чоргох» макомига «савт»лар битади. «Бобурнома» -дек улкан тарихий-бадиий асарни яратади. Солик ишларини тартибга солувчи «Мубаййин ал-закот» («Закот баёни асарини шерий йулда ёзади. Аруз назарияси хакида рисола тузади[v].

«Мухтасар» номи билан шухрат топган бу асар Алишер Навоийнинг «Мезон ул-авзон»идан кейин аруз илмига багишланган иккинчи йирик асар эди. Унинг «Харб иши», «Мусика илми» номли асарлари хозиргача топилган эмас. Бобур таржима билан хам шугулланиб,Хужа Ахрорнинг «Волидия» асарини шеърий йул билан узбекчага таржима килади. Бу унинг араб тилини хам пухта билганлигидан далолат беради[v]. Унинг лирик мероси хажми жихатидан унча куп булмаса-да,мавзу доираси ,шаклий такомили ва бадиий томонидан гоят гузал ва мукаммаллиги билан хам алохида этиборга лойик.

Бобур лирикасини газал, рубоий, китъа, туюк, маснавий, фард,муаммо каби жанрларда битилган гоявий-бадиий жихатдан пухта – пишик булган асарлар ташкил этади. Шоирнинг лирик шеърларида хаётбахш туйгулар-хаётдан завкланиш ,ёр васли билан кувониши, эл-юрт,диёр севгиси, она-Ватандан узокда юрган лирик кахрамоннинг истиробли туйгулари, панд-насихат мавзуйидаги илм маърифат ва одоб-ахлокка чакирувчи, такдирдан нолиш каби мотивлар юксак бадиий махорат билан куйланади. Бобур поэзиясининг мухим томонларидан бири шоир шеърлари тарихий вокеа ва ходисалар билан чамбарчас богланиши ва уша даврнинг вокелигини содда ва равон тилда тараккийпарварона фикрлар билан ифодаланиши, жушкинлиги, тил бойлиги ва хаётийлигидир. Бу хусусида Узбекистон ФА нинг хакикий аъзоси, профессор В.Зохидов куйидагиларни ёзган эди:

«Узининг бадиий асарлари билан у баъзан феодаллар вакили, мафкурачиси сифатида , баъзан уз даврининг илгор кишиси сифатида куринади. У баъзан феодализим жамиятини, давлатини, феодал усулини,феодал мафкурасини ёкласа, баъзи холларда уларни фош килади, уша даврнинг тор

рамкасига сигмайдиган фикрларни куплаб ифодалайди. Бобур хаммадан аввал уз ужодиётининг прогрессив фикрлари билан кадрлидир»`[v].

Бобур газалларидаги мавзу жихатидан ранг-барангликни куздан кечирар эканмиз, уларда оптимистик туйгу билан сугорилган , инсоннинг фоду хуррамлиги билан боглик кутаринки рухда битилган катор газалларга хам дуч келамиз. Хакикатдан хам хаёт неъматлари: ёз фасли, ёр васли, дустлар сухбатидан завкланиш, хаётга умид кузи билан караб, оптимистик хулосалар чикариш Бобур шеъриятининг мухим томонларидан биридир.

Куйидаги:

Ёз фасли, ёр васли, дустларнинг сухбати,

Шеър бахси, ишк дарди, боданинг кайфияти``

ёки:

Булмадим умримда бир дам хотири хуррам била,

Гар илкидан келса бир бамни кечурманг гам била```,-

каби мисраларда хаётни имкон кадар шоду хуррамлик билан хаётдан завк олишга чакиради.

Шуни алохида таъкидлаш жоизки, Бобур шеъриятида ёр –диёр , ватан мавзуси катта урин тутади. Ошуфта шоир она юртидан йирокда булса хам узи тугилиб усган элга, юртга, она-ватанига булган мухаббат, унга етишиш орзуси доим унинг калбидан изтироб туйгуларини учирмайди: Бобур узга юртларга бориб,у ерларда талон-тарожлик билан шугулланиб,мол дунё тупламади, аксинча, уша ерларда хам бог-роглар яратиш, катта ободончилик ишлари олиб бориш билан шугулланди. Айни мана шу гоялар унинг шеърларида хам уз ифодасини топди. Бобур шериятда эришган гоявий-бадий ютукларида, сузсиз, шарк адабиётининг Саъдий, Хофиз, Лутфий, Навоий каби устозлар гоявий-бадиий махоратларидан, буюк суз ва салохият сохиблари санъатхонасидан самарали фойдалангалиги кузга яккол ташланади. Айни пайтда, Бобурнинг насру назмдаги анъаналари устида кейинги узбек адабиётининг Машраб,Мунис, Огохий, Увайсий, Нодира, Мукумий, Фуркат

каби куплаб вакиллари томонидан изчил давом эттирилди. Бобур уз асарлари келажак авлод учун муносиб мерос булиб колишдан
фахрланиб:

Ашъорингким шеър оти то булгай,
Таъб ахли анга волау шайдо булгай.
Хар лавзи дуру бахри маъни анга,
Ким курди дурки, онда дарё булгай.`

Асосийси, Бобур Мирзо мунаввар инсонпарвар, оловли ва туфонли гояларни тараннум эттики, улар буюк шоир бадииятига калб булди, шундай кудратли ва жозибали калб булдики, уни на омонсиз зулмат ва каттол хукумдорлар на фалокатли бурон ва конли туфонлар, на шулар билан тула асирлар урушдан тухтата олди, аксинча у хамон бархаёт.

1. В. И. Зохидов Бобурнинг фаолияти ва адабий-илмий мероси хакида.
(Бобур. «Бобурнома», т.,1960, 100-бет).
2. Алиев.С. Бобурнинг шеърий ижодиёти (диссертация) Т, 1948.
4. Бобур. З.М. Бобурнома – Т: юлдузча, 1990
5. Бобур. З.М. Девон – Т: Шарк, 1996

Alimqulova Ma’rifat Baxtiyorovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Bobur va Furqat ijodidagi hijron va g’urbat motivlari talqini xususida fikrlar berildi. Asosan shoirlar janrlari orasida g’azallari hamda ruboiylari tahlilga tortildi. Bu ikki ijodkorning she’riyatida Vatan sog’inchi, unga bo’lgan cheksiz muhabbat tuyg’ulari bilan birga “yor” va “diyor” ikkiligi tahlil qilindi.*

Kalit so’zlar: *Bobur, Furqat, Hijron qafasi, g’urbat, yor, diyor, vatan sog’inchi, g’azal, ruboiy.*

Annotation:

This article discusses the interpretation of the motives of hijran and gurbat in the works of Babur and Furkat. Among the genres of poets, ghazals and rubais are mainly analyzed. In the poetry of these two artists, the duality of "yor" and "diyor" is analyzed, along with the feelings of nostalgia and boundless love for him.

Keywords*: Babur, Furkat, Hijran cage, gurbat, yor, diyor, nostalgia, ghazal, rubai.*

Аннотация:

В данной статье рассматривается трактовка мотивов хиджран и гурбат в произведениях Бабура и Фурката. Среди жанров поэтов анализируются преимущественно газели и рубаи. Сочетание «ёр» и «диёр» в поэзии этих двух творцов анализирует чувство ностальгии и безграничной любви к нему.

Ключевые слова: *Бабур, Фуркат, Хиджранская клетка, гурбат, ёр, диёр, ностальгия, газель, рубай.*

Tariximizda shunday shaxslar o’tganki, garchi ular o’zlarining jondan aziz ona Vatanlarini astoydil sevsada, biroq umrining oxiriga qadar undan judo bo’lib yurmoq va g’urbatda o’lmoqqa mahkum bo’lganlar. Bu esa ular hayotining og’ir fojeasi edi. Shubhasizki, bu ikki buyuk ijodkor go’zal Farg’ona diyorining farzandlari-Zahiriddin

Muhammad Bobur va Zokirjon Xolmuhammad o’gli Furqat. Darhaqiqat, Bobur va Furqat orasidagi masofalar asrlarni tashkil etsada, ammo ularning taqdiri va ijodi o’rtasida o’xshashliklar bisyordir. Jumladan, iste’dodli adibimiz Maqsud Shayxzoda Furqat haqidagi maqolalarining birida shunday yozadi: “Bu nuqtayi nazardan qaraganimizda, bizning o’tmish adabiyotimizda Furqat bilan Bobur o’rtasida, har ikkalasining uzoq musofirchilikda Farg’onaga bo’lgan hasrati , intizori, ishtiyoqi va qumsashlari o’rtasida mushtaraklik bor.”[v] Z.M. Bobur yuksak bilim sohibi, shoh, davlat arbobi bo’lib qolmasdan iste’dodli shoir ham edi. Bobur devonidagi she’rlarning asosiy qismini g’azal va ruboiylardan iborat bo’lib, ular samimiy, ravon, usluban tugal va qalbga yaqindir. She’rlarini mavzu jihatidan oshiqona, ta’limiy, tasavvufiy, hasbi hol kabi turlarga ajratish mumkin. Xususan, Bobur ruboiy janrini turk adabiyotida yuksaklikka olib chiqqan shoirdir. Bobur devonidagi she’rlarning asosiy qismini g’azal va ruboiylar tashkil etadi. Jumladan, she’rlarining umumiy hajmi 400 dan ortadi. Shundan 119 g‘azal, 231 ruboiy va tuyuq, qit’a, fard, masnaviy kabi janrlarda asarlar yaratgan.

Bobur lirikasida Vatan va ma’shuqaga bo’lgan muhabbat va ulardan ayriliq tuyg’ulari go’yoki birlashib ketgan. “Uning ko‘nglida yordan judolik hislari bilan elu yurtdan ayriliq his tuyg‘ulari uyg‘unlashib ketgan. Shuning uchun uning g‘azal va ruboiylarda Hijron poetik obraz darajasiga ko‘tarilgan”[v].

Vatandan ayrilib, g’urbatda yurish albatta og’ir. Ammo hijronning eng og’riqlisi o’zi tug’ilib voyaga yetgan Vatandan olisda bo’lmoqlikdir. Vatanni sog’inish esa aziz umrni g’urbat iskanjasiga mahkum etadi. O’zga yurtda turib ayriliq azobini tortayotgan shoirning “jon qushi” hijron qafasida bo’giladi:

Hijron qafasida jon qushi ram qiladur,
G’urbat bu aziz umrni kam qiladur.
Ne nav’ bitay firoqu g’urbat sharhin —
Kim, ko‘z yoshi nomaning yuzin nam qiladur.

Vatanni sog’inish, ona yurtga intilish, g’ariblikdan nolish mavzui shoir Furqatning ham ijodida markaziy o’rinda turadi. Furqat tug’ilib o’sgan ona Vatanidan

33 yoshida chiqib ketishga majbur bo’ladi hamda 18 yil vatandan yiroqda, olis Yorkentda umrguzaronlik qiladi. Shoirning vatanjudolikda yashashga majbur bo’lishi sabablarini furqatshunos N. Jabborov quyidagi ikki omil bilan izohlaydi: “1. Furqatning Chor Rossiasi mustamlaka siyosatini ochiqdan ochiq qoralab asarlar yozganligi, 2. Shoirning Vatan va millat manfaatiga asoslangan ma’rifatparvarlik faoliyati mustamlaka ma’muriyatiga xush kelmaganligi”[v] .

Shoirning xorijda yozilgan she’rlarining barchasida yurtga bo’lgan samimiy va tengsiz muhabbat tasvirlanadi. Quyidagi baytda vatanga bo’lgan muhabbati cheksiz biroq unga qaytish yo’lida *g’ussau ranju inolardin qutula olmayotgan* shoirning qalb iztiroblari ta’sirli ifodalangan:

Vatanning ishtiyoqin tortgan g’urbat g’ami birla,
Turibdurman qutulmay g’ussai ranju inolardin.

Darhaqiqat, Bobur she’riyatida “yor” va “diyor” ikkilligi mushtarak, mujassam holatlarda uchraydi. Ijodkor Vatan va yor ishqini bir-biridan ayro etmagan holda tarannum etadi. Ayrim g’azal va ruboiylarida qofiya sifatida ishlatadi. Yozuvchimiz M. Shayxzodaning mana bu fikrlari ham buni tasdiqlaydi: “Boburning eng ko’p suygan qofiyasi yor-diyor ikkiligi juda zo’r badiiy ham g’oyaviy mazmunga ega! Bu ikkilik bir butunni –inson va yurt, shaxsiy saodat va xalq, sevgi ham burch problemalarini o’z ichiga oladi”.[v]

Ko‘pdin berikim, yor-u diyorim yo‘qtur,
Bir lahza-u bir nafas qarorim yo‘qtur.
Keldim bu sori o‘z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo‘qtur.

Bu an’ana ya’ni yor va diyor ikkiligi Furqat ijodida yangi tashbehlar, yangi dunyoqarash, yangi haqqoniy fikrlar bilan yangilandi hamda boyidi. O’zga yurtda umrguzaronlik qilgan shoir hayoti davomida yaxshi va yomon insonlarni uchratadi. Ularning bevafoligi-yu, sadoqatsizligini ko’rib ko’ngli ranjigan shoir yor va diyorning bir vujudda bo’lishini orzu qiladi:

Kechibdurman, seni yor o’lsa shoyad deb, diyorimdin,

Ketay yor o’lmasang emdi, diyoring ham diyor o’lmas.

Bobur nafaqat an’anaviy oshiqlikda balki, inson va shohlikda ham hijronni kuylagan shoirdir. Uning ko‘nglida yordan judolik hislari bilan elu yurtdan ayriliq his tuyg‘ulari uyg‘unlashib ketgan. Shuning uchun uning g‘azal va ruboiylarda Hijron motivi poetik obraz darajasiga ko‘tarilgan. Xususan, bu obraz shoirning g’urbatdagi she’riyatida bosh yo’nalishni tashkil etadi desak mubolag’a bo’lmaydi. Quyidagi g’azal ham shunga ishora qilgan:

G‘urbatda ul oy hajri meni pir qilibtur,
Hijron bila g‘urbat menga ta’sir qilibtur.
Maqdur boricha qiluram sa’yi visoling,
To tengri bil manki, ne taqdir qilibtur.
Taqdirdur ul yonu bu yon solguchi, yo‘qsa,
Kimga havosi Sanbalu, tatyir qilibtur.
Bu Hind yeri hosilidin ko‘p ko‘ngul oldim,
Ne sudki, bu yer meni dilgir qilibtur.
Sendin bu qadar qoldi yiroq o‘lmadi Bobur,
Ma’zur tut, ey yorki, taqsir qilibtur.

Furqatning quyidagi misralarida betakror badiiyat bilan ifodalangan iztirob, Vatan sog’inchi, so’ngsiz hissiyotlar to’lqini kitobxon qalbini larzaga keltiradi. Musofirchilikda yurgan shoir moddiy ta’minotdan shikoyat qilmaydi. Aksincha, “maishat bobida bil-kulli masrur” yurgan shoirni so’ngsiz sog’inch dardi qiynaydi.

Bor ekan Furqat otlig’ bir g’aribing,
Visoling davlatidan benasibing.
O’zi Xo’qandiy, ammo ismi Zokir,
Qazoro Rum aro bo’lmish musofir.
Maishat bobida bil-kulli masrur,
Jamolingdan g’ami shuldurki: mahjur.
G’amingdin kecha tong otquncha yig’lar,
Tong otqoch dog’i kun botquncha yig’lar…

Ne sudki, bu yer meni dilgir qilibtur.
Sendin bu qadar qoldi yiroq o‘lmadi Bobur,
Ma’zur tut, ey yorki, taqsir qilibtur.

Bobur haqida ingliz olimi Uilyam Erskin shunday degan edi: *“Saxovati va mardligi, iste’dodi, ilm-fan, san’atga muhabbati va ular bilan muvaffaqqiyatli shug’ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi”.* Darhaqiqat, Zahiriddin Muhammad Bobur o’zining hayoti davomida yorqin siyosiy faoliyatidan tashqari, yuksak she’riy istedodi bilan ham mashhur bo’ldi. Uning g’azallari, ruboiylari umuman she’riyati o’zining chiroyi va yenggil bo’g’ini bilan o’quvchini maftun qiladi. Ammo bir umrlik adadsiz Vatan sog’inchi shoirni qaritdi, rangini za’faron sarg’aytdi. Buni umrining nihoyasida anglagan shoir quyidagi misralarni bitdi:

Qayg’ungni cheka-cheka qaribdur Bobur,
Rahm aylaki, o‘zidin boribdur Bobur.
Noranj yubordi sangakim, bilmagaysen,
Ya’niki, bu nav’ sarg’oribdur Bobur.

Xulosa o’rnida aytish joizki, Bobur hamda Furqat siymolari o’zbek adabiyotining doimo porlab, nur taratib turguvchi so’nmas yulduzlaridir. Garchi falak ularga vatanjudolikni, g’urbat she’riyatini taqdir etgan bo’lsada, biroq yuksak iste’dod bilan buyuk ilmiy salohiyatni-da taqdim ayladi. Ular qoldirgan ulkan meros biz yoshlarga ma’naviyatimizni yuksaltirishda dasturulamal mezon bo’lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdug’afurov A. Bobur she’riyati. Bobur. Devon. -T., 1994.

2. Furqat. Tanlangan asarlar. (nashrga tayyorlovchi X. Rasul) – T.: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1975. – 106-b.
3. Hasanov s. Zahiriddin Muhammad Bobur. –T., O’zbekiston, 2011
4. Hojiahmedov. A., Furqat aruzi. – T.: Fan, 1990. – 84-b.
5. " Ishqingda kuyib, jono... (nashrga tayyorlovchi N. Jabborov) T.: Adabiyot 2021. – 17-b
6. Jabborov. N. Furqatning xorijdagi hayoti va ijodiy merosi: manbalari, matniy tadqiqi, poetikasi. Filo.fan. d-ri…diss. – T .,2004. – 158-b.
7. M. Shayxzoda. Furqat va Muqimiy haqida maqolalar. T;.1958.
8. Nazarova X. Bobur va o’zbek adabiy tili. –T . 1983.
9. Qosimov. B., Yusupov. Sh., Dolimov. U. va b. Milliy uyg’onish davri o‘zbek adabiyoti Universitetelar va pedogogika oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlari uchun darslik. – T.: Ma’naviyat, 2004. – 120-b.
10. Vohidov.H., Furqat va Muqimiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. – T: O‘zSSR, 1959. – 24-b.
11. Xosiyat Bekmirzayeva. Bobur she’riyatida hijron timsoli. T;. 2017
12. 13. Zohidov. I., Furqat ijodi va zamonamiz. – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1959. – 6-b.
13.. http.WWW. uza.uz

THE USE OF POETIC IMAGERY IN THE INTRODUCTION TO ALISHER NAVOI’S EPIC "HAYRAT-UL ABROR"

Siddikova Umidahon Sohibjon qizi

1st year master's degree in Uzbek language and literature

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostoni muqaddimasida ma’naviy san’atlarning qo’llanishi haqida so'z borgan. Ulardan ayrimlari misollar yordamida ochib berilgan, badiiy san’atlarda shoir mahorati yoritib berilgan.

Annotation: This article discusses the use of spiritual arts in the introduction to Alisher Navoi's epic Hayrat ul-abror. Some of them are explained with examples, and the poet's skill in the arts is highlighted.

Аннотация: Данная статья знакомит с использованием духовных искусств во введении к эпосу Алишера Навои «Хайрат ул-аброр». Некоторые из них поясняются примерами, подчеркивается мастерство поэта в искусстве.

Kalit so’zlar: hurufiy san'at, tashbeh, tanosub, tazod, ishtiqoq, anafora, talmeh.

Keywords: literal art, metaphor, metaphor, contrast, passion, anaphora, talmeh.

Ключевые слова: литературное искусство, метафора, метафора, контраст, страсть, анафора, талмех.

In our millennial literature, the issue of art has always been in the center of attention of poets. When it comes to the potential of an artist, the focus is not on what he or she portrays, but on how he or she portrays them. In particular, the ability to use poetry in literary works has always been considered one of the main aspects of art. the verses, the bytes, served to provide the verbal elegance, musicality, charm of the bands. When evaluating the work of this or that poet, this or that work, the idea expressed by the artist is reflected in the essence and scope of socio-political,

philosophical-moral, enlightenment-educational problems, at the same time with the brilliance of artistic symbols. Special attention was paid to such issues as the diversity of the applied poetic arts, their logical substantiation, their role and importance in revealing the content of the work. The history of our literature also shows that the poetic arts have not been a demonstration of the poet's artistic talent, but an expression of the scale of the genius of creative artistic thinking, the art of polishing high socio-moral ideas.

The introductory part of Hayrat ul-abror consists of several introductory chapters. In other words, several chapters in the beginning of the epic form its introductory part. In this first chapter, Navoi gives a poetic interpretation of the famous main sentence of the first surah of the Qur'an, the main book of Islam - "Bismillahir rahmanir rahim" ("In the name of God, Most Gracious, Most Merciful"). In this, great importance is attached to the letter of each word in this Arabic sentence. According to Navoi, Allah and His name are closely connected with the whole universe and beings. In Eastern poetry as well as in mysticism, the meaning of letters has sometimes risen to the level of a special philosophical line, and the proponents of this line have been called "hurufis." In this regard, Navoi used the art of writing more as an artistic means of expressing his religious and philosophical views. Alisher Navoi skillfully used a variety of arts. In particular, he used the art of lettering in the preface of Hayrat ul-abror. In the first chapter of the epic, the main divine sentence in the Qur'an is devoted to the poetic interpretation of "Bismillahir Rahmanir Rahim" (I begin with the name of Allah, the Merciful, the Compassionate). In this way, Hazrat Navoi completes a byte for each letter of this sentence, creating a unique example of the art of book (letter). Bismillahir Rahmanir compares the verse of the Prophet (peace and blessings of Allaah be upon him) to a stake made of thread and recognizes it as the ring of the soul. He skillfully uses the art of lipstick throughout the painting.

Ruju (return) is a way of returning from the original figurative expression of the object of the image (as if dissatisfied with this expression) and moving from it to a more meaningful, effective, powerful, figurative expression. Example:

The ring is the ring of the world,

Dema is the ring of the world, the ring of the soul.

In this verse, he says that the earth, the whole universe (the sky and the stars, the planets) is held by a rope, but the ring that is called dur is the ring of the soul that is better than the ring of the world.

Rishta emas, turfa kamandedur ul,

He is a gangster of the state and religion.

This is a return to the byte, and the basis for the stop is not the soul ring, but the kamand (a rope thrown to hunt animals). He says that the state and religion are united by this command.

Bol arigedurki aqar jan suyi,

No, I mean soul water, animal water.

This byte contains 2 ruju '. In this case, the foundation is not a ring of life, nor a bow, but a stream of living water, and in the next verse, he turns away from the idea that neither life, but the water of eternal life flows.

No, that's the price of pearls,

Ganji divine erur dragon

Or does it all just happen,

The chandelier melts between the throne.

In these verses, Navoi denies everything he says, likens the ring to a dragon guarding a divine treasure, and then interprets the idea that it is a dragon and likens it to a chandelier that illuminates the whole throne.

gives a general description: the verse in its form and essence

according to

like a rope, a stream of water, a chandelier that illuminates the Throne. In the following verses, for each letter in the Bismillah, which is described as the path to the treasury of oneness (Oneness, the Oneness of Allah), there are two categories for those who accept it and those who reject it. a separate meaning is loaded. Turning first to the denials, we see that each letter in the sentence is used to punish this category.

In particular, when it comes to the letter “sin”, its shape

Like a saw in the backbone of a nahang fish, like a calamity to those who reject it; The letter "mim" is used to describe a snake breathing like a snake and lying at the beginning of the road with its mouth open. Thus, Alisher Navoi serves all this purpose in this sentence, expressing it in a wonderful way. The second chapter of the epic is dedicated to the Creator, Allah. In this chapter, the poet describes with boundless amazement the fact that the Creator of all things, from the heavens and the sun, moves every particle, all the flora and fauna, and human society. Alisher

Navoi's assertion that "His essence consists of grace and purity, but the matter of fidelity is foreign to him" shows that he is thinking on the basis of mystical teachings.

Chapters 3-6 of the epic (four chapters) contain prayers. The prayers state that all beings in the world must always worship their creation, and that when God's wrath comes, it will be like a "blue skirt of ashes."

Gulshani turquoise smoked high,

Gullaridin mehrni guldastaband.

The art of passion was created through the words gulshan, gul, guldastaband. Ishtiqaq (Arabic word for word) is to make a word game by using cognate words in a poem.

Binding love to the bond of life,

Vasl inoculated the heart.

The words love, soul ring, vasl, and heart created the art of tanosub.

Chun ochubon subh uzori gulin,

Zulf etip ul yuz uza tun sunbulin.

The words Zulf, tun, sunbul mean black in the context, which is another form of the art of tanosub.

Sealed day and night,

Loyalty to the board and the assembly.

In the byte, the word night and day came together to form a playful tone. Contradiction is a method of using words (for a specific purpose) to express conflicting concepts.

White and black pride,

Mushk ila kofurini layl-u nahor.

In this verse, the use of contradictory words such as white and black, layl and nahor created the art of tazad. In the beginning of the chapter, which is called the previous prayer, the word "ne" is repeated in parallel, forming an anaphora.

What's the matter, first of all,

What finally came to mind.

What is the current literary language? This word, which is synonymous with the interrogative pronoun, is used again in the following verses, which further enhances the playfulness and melody of the verses.

What a beautiful day,

What a nightmare Musk Hotan.

What dawn tulips in the open sky,

It's raining cats and dogs.

No man on earth or earth,

Neither blue nor unjust earthly work.

Talmeh (look, point) is a way of pointing to a famous story, a famous verse, or a famous article in a poem. This art is widely used in our classical literature, especially in the works of Navoi. When talking about the loss of the Day of Judgment, the names of such planets as Saturn, Jupiter, Mars, and Venus are mentioned. Example:

Mayhal wandered into the desert

Par butub egnida nechukkim jual.

Kat is a life customer

The pulpit is a wooden coffin.

Bahrom tig for a quick shot,

Tortibon is a little tired.

Zuhra sniffed and dusted,

Navha coke composed tone.

Alisher Navoi's artistic skills can also be seen in his use of the arts. Because Navoi does not see art as a simple tool. On the contrary, the arts are part of the work,

and its skillful use ensures that the bytes are musical and understandable to the reader. In conclusion, it can be said that the arts in the works of our great thinker and poet Alisher Navoi are perfect in all respects, with their artistic subtlety, presented in different ways of expression - the great richness of our Uzbek language and

shows its beauty, as well as its subtlety and depth, expressed in bright and vibrant plates. In-depth study of these is extremely important for young professionals in the new Uzbekistan.

Alisher Navoi makes good use of all types of art, spiritual and verbal. Alisher Navoi also emphasizes the need to follow the rules in the use of art. Excessive use of art warns that it can make a work of art rough and incomprehensible.

List of used literature:

1. Literary Theory / Izzat Sultan, "Teacher, -T: 2005
2. Hayrat ul-abror / Alisher Navoi, Ghafur Ghulam, 2018
3. Mumtoz badiiyat malohati / A.Hojiahmedov, -T: Sharq, 1999
4. Navoi's artistic skill / Rustamov A, T: Literature and art, 1979
5. Poetic arts and classical rhyme / A.Khojiahmedov, Sharq, -T: 1998.
6. Www.ziyouz.com
7. Www.kh.davron.uz

“HAYRAT UL-ABROR" DOSTONIDAGI HIKOYATLARNING DIDAKTIK TAHLILI

Jumanazarova Umidaxon Rustambek qizi,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidagi hikoyatlar va axloqiy mazmundagi fikrlar tahlili bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: "Hayrat ul-abror", didaktika, hamd, na’t, komil inson,nafs.

Аннотация: В данной статье анализируются сюжеты и нравственные идеи в эпосе Алишера Навои «Хайрат ул-аброр».

Ключевые слова: «Хайрат ул-аброр», дидактика, восхваление, на’т, совершенный человек, нафс.

Alisher Navoiy ijodiy merosini o‘rganish o‘zi yashagan davrda boshlangan bo‘lsa ham, hali hamon bu sohadagi qiziqishlar to‘xtagani yo'q. Chunki she'riyatning ulkan sarhadlarini zabt etgan shoir ijodi hamon ijodkorlar uchun sirli bir olam va ilhom manbai bo'lib kelmoqda.

Alisher Navoiy o‘zbek tilida birinchi «Xamsa» yozgan shoir sifatida mashhurdir. Bu besh dostondan iborat majmuaning birinchi dostoni falsafiy-didaktik mazmundagi «Hayrat ul-abror»dir. «Muhokamat ul-lug`atayn» asarida shaxsan Navoiy o‘zi ta`kidlagan «Hayrat ul-abror» Sharqda birinchi bo`lib fors tilida «Xamsa» yozgan ulug‘ ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviyning (1141—1203) «Maxzan ul-asror» dostoniga javoban yozilgan.

Hayrat ul-abror (Yaxshi kishilarning hayratlanishi) — Alisher Navoiy qalamiga mansub "Xamsa"ning birinchi dostoni (1483) bo‘lib, didaktik ruhdagi ta’limiy-axloqiy, falsafiy doston. 3988 baytdan iborat bo‘lib, 64 bob, 20 maqolatdan tashkil

topgan. Aruzning sare’ bahrida yozilgan. Asar an’anaviy muqaddima — hamd va na’t bilan boshlanadi. Navoiyning dunyo haqidagi qarashlari mana shu muqaddimada o‘z aksini topgan. Uningcha, dunyoning boshi ham, oxiri ham, yaratuvchi ham, kuzatuvchi ham barchasi Allohdir.

Alisher Navoiy “Xamsa”sining birinchi dostoni “Hayrat ul-abror”da didaktik ruhning ustuvorligi, obrazlar rang-barangligi, o‘sha davr jamiyatidagi bir qator dolzarb muammolar va turli chirkinliklarni ro‘y-rost ochib berilishi bilan “Xamsa”ning keyingi dostonlaridan ajralib turadi.Asarning asosiy g‘oyasi komil insonni tarbiyalash. Komil insonni har kim o‘zicha tasvirlaydi, ammo Navoiyda esa boshqalardan ajralib turuvchi tushunchalar mavjud.“Komil inson” tushunchasi borasida Navoiyning o‘z mezoni bor. Navoiy idealidagi komil inson – iymonli, xalqqa nafi tegadigan, xalq g‘ami bilan yashaydigan, hunarli, kamtarin, vafoli, qanoatli,nafsni yenga olgan, bir so‘z bilan aytganda, barcha insoniy xislatlarni o‘zida mujassamlashtirgan shaxs. Haqiqiy insonga xos bo‘lgan fazilatlardan yana biri bu – rostlik, to‘g‘rilikdir. Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida mazkur mavzuga alohida maqolat bag‘ishlaydi; rostlik, to‘g‘rilik hamda yolg‘onchilik, egrilik masalalariga keng to‘xtaladi.

Qadimdan xalqimizda “qo‘li egri” iborasi o‘g‘ri kishilarga nisbatan qo‘llanilib, xalqning ularga nafrati ko‘p bo‘lgan. Shuningdek, “O‘g‘ri qo‘li kesilmaguncha, o‘g‘riligini qo‘ymas” maqolida xalqda biror shaxs o‘g‘rilik qilganida unga qo‘lini kesib tashlash orqali jazo berilganiga ko’pchilik asarlarda ishora keltirilgan. Shu an’anani Navoiy ham o‘z dostonida tilga oladi:

Bo‘lsa ilik egrilik ichra samar,

El ani kesmakda tuz etgay magar.

Til to‘g‘riligi, rostgo‘ylik – komil shaxs uchun muhim xususiyat. Bu xususiyatni o‘zida aks ettirolmagan inson – yolg‘onchi. Navoiy ularni hattoki musulmon sanamaslik kerakligini aytadi:

Ulki shior ayladi yolg‘on demak,

Bo‘lmas ani eru musulmon demak.

Bundan anglashiladiki, kishi o‘ziga to‘g‘rilikni kasb qilmaguncha komillik darajasiga erisha olmaydi. Ushbu keltirgan fikrlar va misollardan kelib chiqib, yuqoridagi misralarning mazmuniy davomi sifatida axloqiy ahamiyatga ega bo’lgan bir nechta hikoyatlar tahlili bilan tanishib chiqamiz.

Qanoatli juvonmard bilan tamagir jahongashtaning hamroh bo‘lgani, birining qanoat azobini chekish tufayli farog‘at boyligiga erishgani, ikkinchisining farog‘at boyligiga berilganidan xorlik azobiga qolgani

Fors o‘lkasidan ikki o‘rtoq Chin mamlakati tomon yo‘l oldilar. Biri azaldan berilganiga qanoat qilardi; ikkinchisi esa undan ortiqni tama’ etardi. Ular qanchadan-qancha yo‘llarni bosib borarkanlar, yo‘l bo‘yida bir oddiy tosh uchrab qoldi. Uning yarmi yerga kirgan, yarmi tashqarida bo‘lib, tashqaridagi qismiga ajoyib bir gap o‘yib yozilgan edi. Yozilgan xatni ular o‘qishdi:

- Kimki qiyinchilikka bardosh berib, toshning orqa tomonini ag‘darsa, unda bir afsona yozilgan. O‘sha afsonaga ko‘ra, shu atrofda bir vayrona bor. Vayronaning tagida esa ajoyib bir xazina bor. Mashaqqatiga chidagan o‘sha xazinaga ega bo‘ladi. Kimki bu mashaqqatdan yiroqlik istasa, sabru qanoat hammadan yaxshiroqdir.

Tamagir buni o‘qigach, besaranjom bo‘lib, tamagirlik tomirlari qattiq ura boshladi. Xazina havasida tishlari g‘ijirlab, toshning tagini qazishga tushib ketdi. Qanoat qiluvchi uning bu ishini ko‘rib, parvo qilmasdan o‘tib ketdi. U dedi:

- Bu naqadar mashaqqatli mehnat! Qanoat xazinasi mening hamrohimdir. Kimga Tangri ehson bermoqchi bo‘lsa, tosh o‘z-o‘zidan yorilib, uning ostidagi ehson o‘z egasini topishi mumkin. U yo‘lga tushib, tong otguncha yurdi, ertalab qarasa, bir shaharning chetiga kelib qolibdi.Shaharga kiradigan yo‘l ko‘p ekan. Lekinu shu shaharga birinchi bo‘lib kirdi. U darvozaga yaqinlashib borganida, har tomondan

odamlar chopib kela boshladi. Bu yer aholisining rasmi bo‘yicha, podshoh mangulik yurtiga safar qilgan bo‘lsa (o‘lsa), shahar xalqidan buni sir tutishar ekan. Sahar vaqtida kim shaharga oldin kirsa, uni taxtga o‘tqazib, boshiga toj kiydirib, qo‘liga uzuk taqishar ekan. O‘sha rasm bo‘yicha, uni ham davlat kishilari va askarlari mamlakat va sipoh ustidan podshoh qilib ko‘tardilar.

Boshiga mashaqqatni ortib olgan do‘sti bo‘lsa, boylik havasiga berilib, mehnat bilan o‘z jonini rosa qiynadi, toshni boshqa tomoniga aylantirdi. U yerda yozilgan xatga qarab, uni o‘qidi: «Kim xomtama bo‘lsa, u dunyoda doim azobda», deb yozilgan ekan.

Uni qanoat mamlakatga podshoh qildi; buni tamagirlik azobi xor-zor etdi.

Qanoat bu- o‘z ixtiyori bilan nafsni tiyish;.Sabrli va qanoatli bo‘lish musulmonlarning asosiy fazilatlaridan. Qur’onning bir necha oyatlarida musulmonlarning sabr-qanoatli bo‘lishiga da’vat bor. Hadislarda inson uchun sabr-qanoatdan yaxshiroq va ulug‘roq ne’mat ato etilmagani bayon qilingan. Sabr bilan inson o‘z hayoti uchun poydevor yaratadi.Ushbu hikoyatdan shuni anglashimiz mumkinki, komilllik darajasiga yetish uchun avvalo qanoatli bo’lmoq lozim. Qanoatli insongina komillikka erisha oladi, chunki u qanoat ila nafsni yenga oladi.Navoiy fikricha, kimki qanoatni o’ziga kasb qilgan bo’lsa, u eng boy va eng baxtli insondir.Oltin-u kumushlarni haqiqiy boylik deb bilish bu juda katta xato. Xalqimizda ham “Eng katta boylik-qanoat” degan naql bekorga emas. Bu haqida Navoiy ham hikoyat ohirida shunday fikr bildiradi:

“Ey Navoiy, birovdan uch pul tama’ qilma: o‘zingda bor bo‘lsa, uni boshqaga bersang, shu - karamdir. Ey soqiy, men sening bodangdan tama’ qilaman, xolos. Bu ozod odamdagi ochko‘zlik va tama’ni yo‘qotadi. Uning bir qultumi bilan meni yo‘lga boshla; qanoat mulkiga shoh qil!”

Boriga qanoat qilmay dunyo molini sevmoqlik ikki dunyo saodatidan mahrum etadi. Zero, “Nafsini tiygan kishi sulton bo'lur, Nafsini tiymagan kishi ulton bo'lur.” deydi

dono xalqimiz. Bunga yaqqol misol qilib yuqoridagi hikoyatni keltira olamiz.Qanoat bilan birga vafo ham axloqiy tamoyillardan biri hisoblanadi. Navoiy ta’kidlashicha, vafo olamdagi eng noyob gavhar, inson umrini bezovchi va unga mazmun bag’ishlovchi xislat. Vafoli kishi- shamdek yonib, o’zgalarga nur sochishi va buning evaziga hech narsa talab qilmasligi lozim:

Yorki, oyini vafo yo’q anga,

Sham’ kibidurki, ziyo yo’q anga.

Quyidagi hikoyatda esa shoir ikki vafodor do’st sadoqatini ibrat qilib ko’rsatadi.

Ikki vafodor yor bir-biriga vafo qilib, boshlaridan kechgani, ularning sharofati bilan yuz ming bosh qilichdan va qilich qindan qutulgani, hatto qayta qingaga kirgani

Eshittimkim, baxtli podshoh, to‘rt ulusning xoni Temur Ko‘ragon iqlimlarni fath etishga kirishganda, Hindistonda qattiq jang bo‘ldi. Unga g‘alaba yuz ko‘rsatib, taqdir dushman lashkariga shikast soldi. Dushmanlarning hammasi dinsiz bo‘lgani uchun (Temur) bek: «Hammasini qilichdan o‘tkazinglar!» - dedi. O‘liklarning ko‘pligidan dashtlar to‘lib ketdi. Qizil qon Nil bo‘lib oqdi. O‘sha soy toshicha kallalar uchdi; har kishi o‘zboshimchalik bilan bosh oldi. O‘tkir tig‘lar har tomonda qon to‘kib, butun olamga g‘avg‘o soldi. Shu payt ikkita bechora sevishgan nogoh ushbu qotillarga duch keldi. Shohning jazosidan omon qolish uchun askarlardan biri ularning birini chopmoqchi bo‘lib otidan tushdi. Uni o‘ldirish uchun askar yonidan tig‘ini chiqargan edi, unisi o‘z sherigini tig‘ ostida ko‘rib, uni ximoya qilish uchun qotilga o‘z boshini tutdi.

- Agar sening maqsading bosh olish bo‘lsa, uni qo‘y, uning o‘rniga bu boshni ola qol! -dedi u.

Askar uning boshini olmoqchi bo‘lgan edi, unisi ham xuddi shu so‘zni aytdi. U qaysiga o‘z zulmini ko‘rsatmoqchi bo‘lsa, boshqa biri o‘sha gap bilan oyog‘iga yiqilar edi. Burgut panjali qotilning jahli chiqib:

- Paysalga solmay ikkalangizni ham chopaman! - dedi.

U qaysi birini o‘ldirishga oshiqsa, ikkinchisi toqatsizlik bilan der edi:

- Tez bo‘l, oldin meni o‘ldira qol, to men o‘lguncha loaqal u tirik tursin!

Ular bir-birlariga o‘z boshlarini in’om qilardilar. Boshlarini kesdirish uchun tig‘ni

talashar edilar. Shu munosabat bilan orada birpas xayallash yuz bergan edi, birdan xalq orasida omon-omon bo‘lgani haqida nido ko‘tarildi. Chunki bu ikki yor bir-biri uchun jonidan kechgan edi, shoh ham xalqning gunohidan o‘tdi. Bu ikki yor do‘stlik, sadoqat tuyg‘ularini namoyish qilib, elni ham, o‘zlarini ham xalos qildilar.

Do‘stlik tushunchasining mazmun mohiyati haqida donishmand kishilar, olim-u fozillar “Do‘stlik bir shahardirki, kaliti vafo, aholisi esa vafodorlardir” deya fikr bildirishgan.

Anas ibn Molik (r.a)dan rivoyat qilingan bir hadisda Nabiy alayhissalom shunday marhamat qiladilar: **“to o‘ziga yaxshi ko‘rgan narsani do‘sti uchun ham yaxshi ko‘rmaguncha birortangiz (komil) mo‘min bo‘lolmaysiz!”,** (Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyatlari).

Bundan ko’rinib turibdiki, do‘stini sevgan va unga vafosini saqlagan kishigina komil mo‘min bo‘lishga haqli degan xulosaga kelamiz. Zero, vafo har bir shaxs uchun kerak bo’lgan xislatlardan biridir. Hikoyat so‘ngida esa Navoiy shunday fikrlar bildiradi:

“Ey Navoiy, Xudo senga ham yor bersa, sen ham unga boshingni va joningni fido et. Ey soqiy, mehr-u vafo shartlariga sodiq bosang, chin do‘st bo‘lsang, bir qadah keltir. Jonim xalqumimga keldi, menga davo qil, qachongacha va’da berasan, endi va’dangga vafo qil!”

Keyingi hikoyatda esa mol-dunyoga qancha berilsang ham, ularning hisobini qanchalik bisyor qilsang ham bu dunyodan yolg‘iz o‘zing ketasan, hech qanday narsani hatto bir dona ignani ham olib ketolmaysan. Shuning uchun ko‘p ham dunyo molini sevma degan haqiqat anglashiladi.

Iskandarning yetti iqlim mamlakatlarini o‘z qo‘liga kiritgani va bo‘sh qo‘l bilan bu dunyodan ketish otini ilgari surgani

Hamma iqlimlarni qo‘lga kiritgan shoh Iskandar jahon mamlakatining taxtiga ega bo‘ldi. U borib olmagan biron yer qolmadi. Biron yer qolmadiki, u bormagan bo‘lsin. Dunyodagi hamma yer va suv uning hukmiga o‘tib, xo‘lu quruq buyrug‘ining qavzasiga tushdi. Osmonning ko‘k gumbazi ustida xutba o‘qib, adolat tamg‘alarini (oltin, kumushga emas), yulduzlarga urdi. Shohlar o‘z ixtiyorlari bilan unga qul bo‘lishdi; unga qul boiish bilan ular faxrlandilar. U ham shoh edi, ham valiy, ham payg‘ambar. Uning tabiati esa donishmandlik bilan rostlangan edi. Uning asl zotida Jamshidlik odatlari bor edi. Oddiy ko‘zgu unga jahonni ko‘rsatadigan jom bo‘lib xizmat qilardi. Etti qavat osmon hukmronligi unga muyassar, yetti iqlim unga bo‘ysungan edii Shunday yuksai martabali baxtiyor podshoh bu o‘tkinchi dunyodan kp’chim ko‘tarmoqchi bo‘lib qolganda qiziq bir ojizlik va bechoralik xolatini boshidan kechirdi. Oldida qiziq bir ovoralik yuz berdi. Unga na xakimlari yordam qila oldi; na xizmatkorlari, na qullari uning farmonini bajara oldi. Ular barchasi bu yashil bog‘da qolib, u bir o‘zi qora tuprog‘ning ichiga yo‘l oldi. Bunday xalokat uning ichini o‘rtagach, shunday so‘zlar bilan u ichini bo‘shatdi;

- Shu nafasda men pastga qarab borayapman; shohlik nog‘orasi safarga chorlamoqda. Kim o‘z or-nomus shartini saqlamoqchi bo‘lsa, mening unga shunday vasiyatim bor: vaqtiki pok bo‘ston qushi men tomon uchib kelib, poklik ayvoniga borishimni eslatgan chog‘da, oh tortib, olamni qorong‘i qilib, tobutdan menga uxlash uchun joy hozirlab, yo‘limni qabr tomon boshlar ekansizlar, bir qo‘limni tobutning yonidan chiqarib qo‘yinglar. Kishilar tobutga nazar solar ekanlar, ibrat yuzasidan shu qo‘lga qarasinlar. Bilsinlarkim, yetti o‘lka podshosi, yetti osmon mushkullaridan xabardor

odam, endi jismida jon yo‘q, bu makondan, bu jahondan bo‘sh qo‘l bilan ketmoqda. Kimki jahon mamlakatini havas qilsa, ushbu qo‘l unga yetarli tajribadir.

Ey Navoiy, bu jahondan, jahondangina emas, jonning javharidan ham qo‘lingni tort. Ey soqiy, dilim orzusi - mastlikdir. Lekin qo‘limning quruqligi bunga mone’lik qilmoqda. Marhamat qilib, qo‘limga may javharidan ber! May nimasi? Iskandar oinasini ber!

Hikoyatdan fikr qiladigan bo’lsak, dunyo molini tog‘ qilib yig‘gani bilan uni orqalab keta olmaydi. O‘sha siym-u oltinlar narigi dunyoda unga yordam bera olmaydi. Aksincha qilgan yaxshiliklari va savobli amallari unga ko‘makchi bo‘ladi. Hikoyada ko’rinadiki, mol-dunyoga berilma, uning ortidan quvma, hatto yetti iqlim podshohi, kuch-qudrat sohibi ham qo‘li ochiq ketdi, ya’ni mol dunyo undan ham qolib ketdi sendan ham qoladi.. Muhabbat qo‘yishga bu narsalar yaramaydi, nafsingga erk berma deyiladi. Xalqimizda ham shunday naql bor "Dunyo moli — qo'lning kiri". Ya’nikim qo‘lni yuvsang kiri ketganidek, mol-dunyo ham vafo qilmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, "Hayrat ul-abror" dostonida odamiylik, to‘g‘rilik, qanoatlilik, vafo, do‘stlik kabi xislatlarga keng o‘rin berilgan. Ushbu dostonga qayta-qayta murojaat qilsak ham yanada yangi ma’nolarni topa olamiz. Komil insonni tarbiyalash g‘oyasi asarga juda ustalik bilan singdirilganki, har bir satrida bunga guvoh bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror"
2. Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov. Navoiyshunoslik.(1-kitob). T.:"Tamaddun" 2019
3. M.Rajabova, Z.Amonova. Navoiyshunoslik. "Asian Book House" 2020
4. Р. Расулова, Инсонлар садафи ҳимматидандур
Academic Research in Educational Sciences volume 2 | issue 1 | 2021 issn: 2181-1385 scientific journal impact factor (sjif) 2021: 5.723
INTERNET SAHIFALARI
1. www.ziyouz.com

ALISHER NAVOIY BUYUK MUTAFAKKIR, DAVLAT ARBOBI

Ibraimova Jayna Kumisbek qizi
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
Gumanitar fanlar fakulteti

Annotasiya: Alisher Navoiy nafaqat o'z davrining balkiy hozirgi o'zbek adabiyotining ham baland cho'qqilarga chiqishining sababchisi bo'lgan so'z sa'natining sultonidir.
Kalit so'zi:mutafakkir,adolat tantanasi,shoir,ma'daniyat.
Annotation: Alisher Navoi is not only the sultan of the word art of his time, but also the cause of the rise of modern Uzbek literature.
Keywords: thinker, justice, poet, culture.
Аннотация: Алишер Навои является не только султаном словесного искусства своего времени, но и причиной подъема современной узбекской литературы.
Ключевые слова: мыслитель, справедливость, поэт, культура.

Biz barchamiz bilamiz buyuk Alisher Navoiy mutafakkir, davlat arbobi. To‘liq ismi Nizomiddin Mir Alisher. Nizomiddin"-din—diyonat nizomi degani bo‘lib, donishmand mansab egalariga beriladigan sifat, „mir“ — amir demakdir. Uning otasi G‘iyosiddin Muhammad (uni G‘iyosiddin Kichkina ham der edilar) temuriylar saroyining amaldorlaridan, xonadonning ishonchli kishilaridan edi. Onasi amirzoda Shayh Abusaid Changning qizi bo‘lgan, ismi ma’lum emas. Alisherning bobosi Temurning o‘g‘li Umarshayx bilan emikdosh (ko‘kaldosh) bo‘lgan ekan. Navoiy tahallusi ostida chig‘atoy (eski o‘zbek tili) hamda forsiyda (fors tilidagi asarlarida) ijod qilgan. G‘arbda chig‘atoy adabiyoti hisoblanmish o‘zbek adabiyotining eng yirik namoyondasi ejanligidan biz faxrlanamiz. Umuman olganda, butun turkiy xalqlari orasida u kabi yirik shaxs yo‘qdir deb adshmastan ayta olamiz.Navoiy yoshligidan Xurosonning bo‘lajak hukmdori Husayn Boyqaro bilan (1469-1506) do‘st bo‘lgan va 10-12 yoshidan she’rlar yozishni boshlagan. Navoiyning zamondoshi bo‘lmish tarixchi Xondamir (1473(76) -1534) qoldirgan ma’lumotlarga ko‘ra, mashhur o‘zbek shoiri Lutfiy (1369-1465) qarigan chog‘larida bolakay Navoiy bilan ko‘rishadi va uning she’riy iqtidorini yuqori baholaydi.Alisher

saroy muhitida yashaganligi uchun alohida tarbiya va nazoratda o‘sdi. Kichiklik chog‘idan she’r va musiqaga ishqi tushdi. Olimu fozillar davrasida bo‘ldi. Uch-to‘rt yoshlarida davrining mashhur shoiri Qosim Anvorning bir she’rini yod aytib, mehmonlarni hayratga soldi. Bir yildan so‘ng uni maktabga berdilar. U bo‘lajak sulton Husayn Bayqaro bilan birga o‘qidi. Uning zehni va iqtidori haqidagi gaplar esa el orasida tarqalib bordi.1469 yilgacha temuriylar o‘rtasidagi o‘zaro ichki nizolar tufayli Navoiy o‘zining ona shahri Hirotdan uzoqda yashashga majbur bo‘lgan. 1447-yilda Shohruh Mirzo vafot etib, temuriy shahzodalar o‘rtasida taxt uchun kurash boshlanadi. Taqdir Alisher Navoiyni zamonaning ulug‘ va sharafli kishilariga yaqin qildi, ustoz-murabbiylik etuvchi zotlar bilan oshno etdi. 1466–1468 yillar Alisherning umri asosan Hirot notinch bo‘lib qoladi. Alisherlar oilasi Iroqqa yo‘l oladi. Yo‘lda, Taft shahrida Alisher zamonasining mashhur tarixchisi, „Zafarnoma“ning muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashdi. Alisher xonadoni 1451-yilda Hirotga qaytadi. Tarixchi Xondamir bu bilan bog‘liq shunday bir hikoyani keltiradi: Karvon Yazd cho‘li bilan Hirotga borarkan, tungi yurishlardan birida ot-ulov ustida hammani uyqu bosadi. Alisher mingan ot, ittifoqo, yo‘ldan chiqib, bo‘lajak shoir egardan tushib qoladi, uyqu zo‘rlik qilib, uyg‘onmaydi. Horigan ot ham egasi yonidan ketmay,to‘xtab qoladi.

Alisher tong otib, quyosh qiziganda uyg‘onadi. Qarasa, poyonsiz sahro, atrofida hech kim yo‘q. Yolg‘iz otigina yovshan ildizlarini chimtib turibdi. O‘n yoshli bola o‘zini qo‘lga oladi. Otini minib, zehn bilan yo‘lni topib ilgari yuradi. Kun qizib, chanqoqlik boshlanadi. Shu payt uzoqdan bir narsa qorayib ko‘rinadi. U suv to‘la mesh ekan, Ollohga shukuronalar aytib, Alisher yo‘lini davom ettiradi. Uning ota-onasi manzilga yetgach, o‘g‘illlarini yo‘qligini biladilar va mulozimni shoshilinch orqaga qaytaradilar. Mulozim ko‘p yurmay, Alisherga duch keladi. Alisherni, go‘yo u qayta tug‘ilganday, quvonch bilan kutib oladilar.

1469 yil temuriy Husayn Boyqaro Hirotni egallaydi va Xuroson hukmdori bo‘ladi. Shu vaqtdan e’tiboran, Navoiy hayotining yangi bosqichi boshlanadi. U mamlakatning siyosiy hayotida faol ishtirok etadi. Husayn Boyqaro Alisherni muhrdor qilib tayinlaydi va shu paytdan shoirning el xizmatidagi faol jiddu jahdi boshlanadi, ko‘p o‘tmay Navoiy muhrdorlikni o‘zining yaqin do‘sti va fikrdoshi, shoir Amir Shayxim Suxayliyga topshiradi. “Bu nozikta’b va zukko Amir 20 yildan ortiq Boyqarog‘a mulozim bo‘ldi”. Lekin Boyqaro do‘stining noroziligiga ham qaramay, 1472 yil fevralida uni vazir lavozimiga tayinlaydi va “Amiri Kabir” (“Ulug‘ Amir”) unvonini beradi. Bu lavozimda Navoiy el-ulus manfaati, shahar va mamlakat obodonchiligi, madaniyat ravnaqi, adolat tantanasi uchun foydalanadiki, bularning barchasi oqibat natijada Sulton Husayn davlatining barqarorligi va nufuzini

ta’minlaydi.U mamlakatning madaniy va ilmiy taraqqiyotida katta yordam ko‘rsatadi. Katta mulk egasiga aylanadi.

Hirot bu davrda nihoyatda ko‘rkamlashdi, xalq turmushi yaxshilandi, she’riyat, nafis san’atlar rivoj oldi. Talabalar uchun “Ixlosiya” madrasasi, darveshlar uchun “Xalosiya” xonaqohi, bemorlar uchun “Shifoiya” shifoxonasi, masjidi Jome yoniga Qorixona (“Dor ul-huffoz”) qurildi. Ulug‘ amirning kutubxonasida 70 dan ortiq xattot va musavvirlar qo‘lyozmalarni oqqa ko‘chirish, ularni badiiy bezash bilan band edilar. Hirotda yana “Nizomiya”, Marvda “Xusraviya” va boshqa madrasalar bino etildi. Navoiy madrasa, shifoxonalar qurdirib qo‘ya qolmasdan, ularni kerakli darajada jihozlash, o‘z-o‘zini ta’minlash uchun vaqf yerlar ajratib berish, mudarrislar, tabiblar va boshqa xodimlar bilan ta’minlash, ularga oylik maosh, ozuqa, kiyim-bosh belgilashgacha, talabalar nafaqasi va kitoblarigacha – barcha-barchasini mukammal boshqarib, tashkil etib berar edi va o‘zi doimo xabar olib, nazorat qilib turishni ham unutmasdi. Binolar qurilishi tarhi bilan bevosita shug‘ullanar, usta va shogirdlar mehnatidan boxabar bo‘lib turardi. Shoir o‘z huzuriga tez-tez she’r, ilm va san’at ahlini chorlab, ma’rifiy suhbatlar uyushtirib turar, yosh iste’dodlarni tarbiyat qilib, ularga sharoit yaratardi. Xondamir, Behzod, Vosifiy va o‘nlab ushbu tarbiyatga noil bo‘lgan iste’dod egalari shular jumlasidandir. Biroq, saroy amaldorlariga Navoiyning bu kabi faoliyati yoqmaydi va turli fitnalar orqali Husayn Boyqaro bilan munosabatlarini buzishadi.
Shunday qilib, Navoiy egallab turgan mansabidan ozod etilib, 1487 yil Astrobod shahriga hukmdor sifatida yuboriladi. Bu yerda u ikki yil xizmat qiladi. Mazkur muddat nihoyasiga yetgachgina, X. Boyqaro unga Hirotga qaytib, hokimiyatda mansabga ega bo‘lishiga ruhsat beradi. Lekin Navoiy bu taklifni rad etadi. Rad javobiga qaramay, Boyqaro sultonning yaqin kishisi lavozimini (“mukarrabi xazrati sultani”) taklif etadi. Bunday lavozimda Navoiy barcha davlat ishlari bilan bog‘liq ishlarda qaror qabul qilish huquqiga ega edi.

Navoiy shundan boshlab o'z vaqtini ijad qilish bilan shug'ullanish uchun urdi. U yaratgan asarlarining katta qismi aynan shu davrga tegishli. Navoiy temuriylarning so‘nggi hukmronlik yillarida (1370-1506) yashab ijod qilgan. Shuning uchun uning asarlarida jamoat ruhi, davrga xos muhim muammolar ustundir. 1490-1501 yillar Navoiy eng nafis, ijtimoiy-falsafiy va ilmiy asarlarini yaratgan.
Alisher Navoiyning ijodi ulkan. 1483-1485 yillar Navoiy o‘z ichiga besh dostonni olgan “Hamsa” asarini yaratgan: “Hayrat ul-Abror” (“Yaxshi kishilariing hayratlanishi”), “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor” (“Yetti sayyora”), “Saddi Iskandariy” (“Iskandar devori”).Navoiyning “Hamsa”si mazkur janrda yaratilgan turkiy tildagi birinchi asar hisoblanadi. U - turkiy tilida ham bu kabi

yirik ko‘lamdagi asar yaratilishi mumkinligini isbotlab berdi. Haqiqatan ham, Navoiy chig‘atoy tilida (eski o‘zbek tili) ham fors-tojik adabiyoti bilan bir darajada turuvchi asar yaratish mumkinligini isbotlashga harakat qilgan. Va u o‘zining besh xazinasi orqali buning uddasidan chiqqan. Sharq adabiyotida “Layli va Majnun” mavzusida 120 dan ziyod doston yaratilgan. Navoiy ham shaxsiy yondashuvi ila ushbu mavzuda doston yozadi. Dostonda Layli va Majnun o‘rtasidagi sevgi bayon qilinadi. O‘z ifodasida Navoiy odamiylik va so‘fiylik sevgisini sharhlashga harakat qilgan. O‘zining so‘fiylik qarashlarini Navoiy, shuningdek, “Farxod va Shirin”, “Hayrat ul-Abror” dostonlarida ham ifodalagan. Uning dostonlarida so‘fiylik mavzusi umumfalsafiy darajaga ko‘tarilgan. Bundan tashqari, u tarixiy mavzularda risolalar yaratgan: “Tarixi muluki Adjam” (“Eron shohlari tarixi”), “Tarixi anbiya va xukama” (“Payg‘ambarlar va donolar tarixi”). Badiiy maktublarini “Munshaat” to‘plamiga jamlagan. Uning shoh asarlari: Abd Ar-Rahmon Jomiy hayoti haqida - “Xamsat al-mutaxayyirin”, 1494, “Xalati Sayyid Xasan Ardasher” (“Sayyid Xasan Ardasher hayoti”), “Xalati Pahlavon Muhammad” (“Pahlavon Muhammad hayoti”)lardan iborat.

Alisher Navoiyning so‘nggi asari “Mahbub ul-qulub” (1500). Unda shoirning so‘nggi ijtimoiy va siyosiy qarashlari yoritilgan.

Navoiyning “Layli va Majnun “asariga to'xtaladigan bo'lsak biz ikta bir-birini sevguchi ikki yoshning muxabbatini ko'rishga sazovor bo'lamiz . Qays ibn al-Mulavvo ismli arab yigitining Layli ismli qiz bilan ishqiy munosabatlari yoritiladi. O‘g‘lining bu qizga uylanishiga qarshi chiqqan otasining tazyiqlari va ayriliq tufayli Qays aqldan ozib, devona bo‘ladi ("majnun" va "jinni" "dali" so‘zlarining o‘zagi bir). Majnun va Layli komillikda vahdatni-yagona- yaxlitlikni tashkil etadi. Bu esa nihoyatda baland darajadagi ishqning-xos ishqning ko‘rinishi bo‘lib, unda jismoniylik emas, balki ma’naviylik yetakchi mavqyeni egallaydi. Bunday yuksak darajadagi xos ishqni tushinmaydiganlar Majnun va Layli ishqi mohiyatini ham tushinmaydilar. Bular qatorida Laylining otasi ham bor, ibn Salomlar ham bor.

Shuning bilan bir qatorda Alisher Navoiy dostonda Majnun va Laylilar ishqi mohiyatini tushunuvchi va ularga yordam qo‘lini cho‘zganlar ham borligini Navfal obrazi misolida ko‘rsatadi. Chunki:

Navfalki Arabda erdi nodir,
Tig’iga qadar, o’qig’a qodir.
Yaxshiliq ila Arabda mavsum,
Oromgahi bu marz ila bum…
Navfal dag’i ishq ko’rgan erdi,
G’am dashti aro yugurgan erdi.Shu jihatdan Navfal qizi va uning sevgilisi taqdirining

ijobiy hal qilingani tushinarlidir. Ammo Navfal qizi va uning sevgilisining muhabbati Majnun va Laylilar o‘rtasidagi ishq-xavos ishqi darajasiga ko‘tarilgan emas. Navfal qizi va sevgilisining o‘zaro ishqi Alisher Navoiy ta’riflagan "avom ishqidurkim, …derlar: «falon falonga oshiq bo‘lubdur… va bu qismning (avom ishqining) biyikrak martabasi shar’iy nikohdurkim, bari xaloyiqqa sunnat…» Alisher Navoiy dostonida bu ikki xil ishqning talqinida shoir majoziy ishq martabasiga Majnun va Laylilar ishqi misolida alohida urg‘u beradi, chunki bu martaba komillik martabasi bo‘lib, unda «pok ko‘zni pok nazar bila pok yuzga solmoqdur va pok ko‘ngul ul pok yuz oshubidin ko‘zg‘olmoq va bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz mahbubi haqiqiy jamolidin bahra olmoq»dir.

Alisher Navoiy butun hayoti davomida adabiy asarlarni siyosat bilan birlashtirgan. Yuqori mansabga ega shaxs bo‘la turib, u mamlakat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy takomillashishiga katta hissa qo‘shgan; ilm, fan, san’at rivojiga homiylik qilgan; tinchlik va totuvlik hukmron surishiga doim harakat qilgan. Ko‘rib turganimizdek, Navoiy merosi mavzu va janrlari bo‘yicha turlidir. Uning asarlari XV asrdan hozirgi kungacha o‘zbek adabiyoti rivoji uchun xizmat qilib kelmoqda. Asrlar davomida uning asarlari biz uchun ilhom bag'ishlab shundayin buyuk siymoliy,Vatanparvar ,oddiy xalqning ijtimoiy hayotini tushunib ular bilan ham nafas yashashimiz uchun turtki bo'ladigan darajada o'z mexnatini bizlarning yuragimizga singdirib ulgurgan bobomizga aytadigan raxmat so'zlarimiz ko'p.

Foydalanilgan adabiyotlar tizimi:

- O.Sharafiddinov. Alisher Navoiy. Kitobda: Tanlangan asarlar.-T.: Fan,1978:
- Ya. G‘ulomov. Alisher Navoiyning davrini o‘rganish haqida. Kitobda: „Ulug‘ o‘zbek shoiri“. -T.:1948;
- Bertels E.E. Navoiy. Opit tvorcheskoy biografii. -M,L.: 1948;
- Oybek. Navoiyning tarjimayi holi. Kitobda: „Navoiy gulshani“. -T.:1967;
- S.G‘anieva. Alisher Navoiy. -T.:1968;
- V.Abdullaev. Navoiy Samarqandda. -T.: 1968;
- Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari. -T.: G‘. G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969;
- V. Zohidov. Ulug‘ shoir ijodining qalbi. -T.: O‘zbekiston, 1970;

Ma’naviyat yulduzlari” *(Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999)* kitobidan olindi.

NAVOIY G’AZALLARIDA QIYOSLASH USULI

To’rayeva Ferangiz
BuxDUPI 1-1 O’zTA guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Alisher Navoiyning “Yordin ayru ko’ngul...” deb boshlanuvchi g’azali tahliliga bag’ishlangan bo’lib, undagi o’xshatish va qiyoslashlarning uslubiyati va mazmun- mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: Navoiy ijodi, ishq, majoziy ishq, haqiqiy ishq.

O’zbek adabiyoti shohsupasida yuqori darg’alarni egallagan hazrati Alisher Navoiyning asarlari mana necha yillar o’tibdiki, o’zining nozik ma’no qirralari va takrorlanmas uslubiyati bilan hali-hanuz e’tiborimiz markazidadir. Uning yaratgan har har bir asari, undagi mohiyat, ohori to’kilmagan baytlar - bularning hech biri ikkinchisini takrorlamaydi. Shunday bo’lsa ham shoirning ijod namunalarida ishq yuqori o’rinni egallaydi. Navoiyning ishq-muhabbat masalalari, yordan ayrilgan oshiqning dil iztiroblari aks etgan qaysi asarini olmaylik, bu ishqni majoziy, ya’ni bir yigitning qizga bo’lgan va haqiqiy- bandaning Allohga bo’lgan sevgisi deb tushunishimiz mumkin. Bu ikki mazmun-mohiyat bir-birini inkor etmaydi. Buyuk shoirning “Yordin ayru ko’ngul...” deb boshlanuvchi g’azalida ham xuddi shunday majoziy va haqiqiy ishqning tasvirlanganiga guvoh bo’lamiz.

Yordin ayru ko’ngul mulkedurur sultoni yo’q,

Mulkkim sultoni yo’q, jismedururkim joni yo’q.

Ushbu g’azalda yoridan ayro bo’lgan oshiqning dil iztiroblari aks etgan. Bu oshiq butun g’azal davomida o’zining dard to’la ko’nglini qator narsalarga mengzaydi va shu bilan birga uning ta’sir darajasi ham baytdan baytga o’tgan sari kuchayib boraveradi. G’azalning birinchi baytida ishqsiz, yorsiz ko’ngil sultoni yo’q mamlakatga, boshsiz davlat esa o’lik tanaga, ya’ni jonsiz jismga o’xshatilmoqda.

Shoir oshiq qalbini podshosi yo’q mamlakatga o’xshatish bilan bir qatorda ijtimoiylikka ham ishora qilyapti. Ammo Navoiy bu qiyoslashlar bilan qoniqmaydi va buni keyingi baytlarda ham davom ettiradi:

Jismsiz jondin ne hosil, ey musulmonlarkim, ul,

Bir qaro tufroqdekdurkim, gul-u rayhoni yo’q.

2-baytda jismsiz jon unumsiz yerga o’xshatilmoqda. Shunday unumsiz yerki, hech bir narsa unmaydi.

Bir qaro tufroqkim, yo’qtur gul-u rayhoni anga,

Ul qarong’u kechadekdurkim mohi toboni yo’q.

Navbatdagi baytda ham bir-biridan yangi qiyoslarga guvoh bo’lamiz. Iste’dodli shoir tuproqda gul-u rayhonning mavjud emasligini, ya’ni hech bir giyoh yo’qligini oyi bo’lmagan zulmat kechasiga o’xshatadi. Bu qiyoslash juda o’rinli qo’llangan: tuproqning ham, tunning ham qora rangda bo’lishi hamda gullar va oyning esa yorqin tusda bo’lishi bir-biriga muvofiq.

Ul qarong’i kechakim, yo’qtur mohi toboni anga,

Zulmatedurkim, aning sarchashmayi hayvoni yo’q.

“Chashma” so’zi fors-tojikcha “chashm” so’zidan olingan bo’lib, “teshik” degan ma’noni anglatadi. Ba’zi manbaalarda esa bu atama “ko’z” degan tushunchani ifodalaydi, degan ma’lumot ham mavjud(1). Ya’ni, ushbu baytda oysiz kecha zulmatga o’xshatilyapti. Bu zulmatdan chiqishning iloji yo’q. Unda qorong’ulikdan chiqish uchun hatto hayvonning ko’zidek ham ko’z yo’q.

Zulmatekim , chashmayi hayvoni oning bo’lmag’ay,

Do’zaxedurkim, yonida chashmayi rizvoni yo’q.

Zulmatdan chiqadigan yo’lning bo’lmasligi jannatsiz do’zaxga o’xshaydi. Ya’ni oshiq uchun butun dunyo do’zax. Unda rohat yo’q, visol yo’q. Faqat iztirob va yorsizlik bordek go’yo.

Do’zaxekim, ravzaye rizvondin o’lg’ay noumid,

Bir xumoredurki, anda mastliq imkoni yo’q.

Do’zaxdagi odamning jannatdan noumid bo’lish holati telba oshiq holiga o’xshaydi. U yorining vaslini qumsamoqda, uni ko’rishni istaydi. Ammo bu shunday bir xumordirki, uni qondirib bo’lmaydi(2).

Ey, Navoiy, bor anga mundoq uqubatlarki bor,

Hajrdin dardi va lekin vasldin darmoni yo’q.

Maqta’da lirik qahramon shoirga murojaat qilar ekan, uning noroziligi yuqori cho’qqiga chiqadi: hajr bor, dard bor, ammo visol yo’q(3).

Ushbu g’azalning o’ziga xos xususiyati shundaki, bir baytdagi o’xshatilmish keyingi baytda o’xshamishga aylanadi.

Yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, ushbu g’azaldagi ishqni ham Navoiyning boshqa g’azallarida bo’lgani kabi Allohga bo’lgan muhabbat deb tahlil qilishimiz mumkin. Bundagi yoridan ayrilgan ko’ngil egasini imonsiz, e’tiqodsiz insonga o’xshatishimiz mumkin. Allohga bo’lgan ishq bu- sevgining eng yuqori va haqiqiysidir. Bunga faqat komil insongina erisha oladi va shu sevgi yo’lida har qanday to’siqlarni (nafs, imonsizlik, jaholat) kabilarni yengib o'ta oladi.

Bu g’azaldan so’ng Alisher Navoiyning ijodiga yana bir bor tasanno aytmay ilojimiz yo’q. Uning ijodining chek-chegarasi yo’q. Makon va zamon tanlamaydi. Go’yo dengiz kabidir. Unda qancha ko’p va chuqur sho’ng’isang, shuncha ko’p gavhar-u sadaflarni kashf etaverasan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Internet ma’lumotlari

2. N.Komilov “Bir g’azal ta’rifi”

3. E. Vohidov “Navoiy g’azallariga sharhlar”

ADOLATLI SHOH VA SHOIR

ABDULLAYEVA GO’ZAL AMRULLO QIZI

BUXORO DAVLAT UNIVERSETETI TALABASI

Annotatsiya. Moziyning ko‘hna sahifalari shundan dalolat beradiki, ona yurtimizda ko‘plab so‘z san’atkorlari, ma’rifat darg‘alari kamol topdi. Ular avlodlar xotirasida mangu yashaydigan o‘lmas siymolarga aylandi. Zamonlar o‘zgaradi, insonlarning yashash tarzida ro‘y bergani kabi dunyoqarashida ham evrilishlar sodir bo‘ladi, ammo bu zotlarning nomi barhayot qolaveradi. Alisher Navoiy, Mavlono Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Ogahiy, So‘fi Allohyor… Bu ro‘yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin. Ana shu muborak nomlar bilan bir qatorda shubhasiz Zahiriddin Muhammad Bobur nomi ham tilga olinadi.

Kalit so’zlari: Moziyning,ona yurtimizda, mangu yashaydi, siymolar, Navoiy, Lutfiy, Ogohiy, Bobur, so’fi ollayor, muborak nomlar.

Аннотация: Древние страницы Мази свидетельствуют о том, что на нашей Родине сложилось множество художников слова и просветительских центров. Они стали бессмертными фигурами, которые будут жить вечно в памяти поколений. Времена изменятся, и мировоззрение людей изменится, как и их образ жизни, но их имена будут жить. Алишер Навои, Мавлана Лутфи, Атои, Саккоки, Огахи, Суфи Аллах или Этот список можно продолжать и продолжать. Наряду с этими благословенными именами, несомненно, упоминается имя Захириддина Мухаммада Бабура.

Ключевые слова :Мази, на нашей Родине живет вечно, символы, Навои, Лютфи, Агаи, Бабур Суфи Аллояр, благословенные имена.

]

Annotation:The ancient pages of Mazi testify to the fact that in our native land many word artists and enlightenment centers have been developed. They have become immortal figures who will live forever in the memory of generations. Times will change, and people's worldviews will change, as will their way of life, but their names will live on. Alisher Navoi, Mawlana Lutfi, Atoi, Sakkoki, Ogahi, Sufi Allah or This list could go on and on. Along with these blessed names, the name of Zahiriddin Muhammad Babur is undoubtedly mentioned.

Key words: Mazi, in our homeland, will live forever, symbols, Navoi, Lutfi, Aware, Babur, Sufi olayor, blessed names.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Bobur Mirzo xalqimizning buyuk farzandi. Adabiyot, ilm, ma’rifat nuqtai nazaridan u hamon yashayapti”!

Qadrli tolibi ilmlar, hurmatli ustoz-murabbiylar!

Ma’lumki, har yili fevral oyida yurtimizda ikki buyuk siymo – Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludi keng nishonlanishi an’anaga aylangan. Shu ma’noda, kuni kecha so‘z mulkining sultoni hazrat Mir Alisher Navoiy tavalludining 581-yilligi mamlakatimiz bo‘ylab keng nishonlandi. Xususan, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida ham mazkur sana katta tantana, o‘zgacha shukuhda kutib olindi. Bugun esa yana bir ulug‘ bobokalonimiz, shoh va shoir, davlat va jamoat arbobi, dilbar shaxs Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 539-yilligini nishonlayapmiz.Nafaqat yurtimiz, balki xorijda ham buyuk siymo — Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilayotir

Ulug‘ ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur garchi Hindistonda salkam uch yuz yil hukmronlik qilgan Boburiylar imperiyasigan asos solgan bo‘lsa-da, kindik qoni to‘kilgan Vatani – Andijonni bir lahza ham unutgani yo‘q. U ona diyorini haddan

ziyod sevib, Vatanidan olisdaligi uchun ko‘p g‘am-alam chekardi. Bu uning ijodida o‘ziga xos iz qoldirdi Xususan, ulug‘ vatandoshimiz bir ruboyisida shunday yozadi:

Toli yo‘qi jonimga balolig‘ bo‘ldi,

Har ishniki ayladim xatolig‘ bo‘ldi.

O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,

Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Ammo o‘z navbatida hind xalqining ulug‘ farzandi, davlat arbobi Javoharla’l Neru Bobur Mirzo va boburiylarning Hindistondagi faoliyati haqida quyidagi fikrlarni aytib o‘tgan: “Bobur dilbar shaxs, Uyg‘onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo‘lgan. U san’atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko‘rardi”.Bobur Mirzoning buyukligi shundaki, u qaysi yurtga hukumdor bo‘lmasin, eng avvalo, jaholatga emas, ezgulikka, adolatga xizmat qildi. Mahalliy aholining farovonligi, ma’naviy-ma’rifiy yuksalishiga hissa qo‘shdi. Yurtni obod qilishga kirishdi, muhtasham obida va bog‘lar bunyod etdi. Uning oqilona siyosatini davom ettirgan vorislari esa bugun ham dunyoning yetti mo‘jizasi sifatida e’tirof etib kelinayotgan Tojmahal, Qizil qal’a kabi noyob, muhtasham arxitektura yodgorliklari, masjidu madrasalar bunyod ettirdi. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining hukmronlik davrida ilm-ma’rifatni davlat siyosati darajasiga olib chiqqan. Bobur va uning avlodlari hamisha ilg‘or fikrli ilm-ma’rifat ahli, ijodkorlar, kosib-u hunarmand, bog‘bon-u ziroatchiga katta hurmat-ehtirom ko‘rsatib kelgani bois mamlakat taraqqiy etib, el farovon yashashgan. Adabiyot, nafis san’at, tabiat go‘zalligiga yoshligidan mehr qo‘ygan Zahiriddin, barcha Temuriy shahzodalar kabi bu ilmlarning asosini otasi saroyida yetuk ustozlar rahbarligida egalladi. Biroq uning betashvish yoshligi uzoqqa cho‘zilmadi. 1494 yili otadan yetim qoldi. 12 yoshida otasi o‘rniga Farg‘ona ulusining hokimi etib ko‘tarilgan Bobur qalamni qilichga almashtirib, Andijon taxti uchun ukasi Jahongir Mirzo, amakisi Sulton Ahmad Mirzo, tog‘asi Sulton Mahmudxon va boshqa raqiblarga qarshi kurashishga majbur bo‘ldi. Bobur ukasi

Jahongir Mirzo bilan murosaga kelish uchun unga yon berishga Farg‘ona ulusini ikkiga taqsimlab, yarmini ukasiga topshirishga qaror qildi va o‘zi Samarqand uchun olib borilayotgan kurashga kirishib ketdi. Bir necha yil davom etgan bu kurash qirg‘inbarotdan boshqa biror natija bermadi: unda katta harbiy kuch bilan aralashgan Shayboniyxonning qo‘li baland keldi va Bobur Samarqandni tashlab ketishga majbur bo‘ldi. 1504 yili Shayboniyxon Andijonni ham qo‘lga kiritgandan so‘ng Bobur janubga qarab yo‘l oldi va Kobul ulusida o‘z hokimiyatini o‘rnatdi. 1505–1515 yillarda u Markaziy Osiyoga qaytishga bir necha bor urinib ko‘rdi.

XULOSA QILIB AYTADIGAN BO’LSAK Bobur Mirzoning buyukligi shundaki, u qaysi yurtga hukumdor bo‘lmasin, eng avvalo, jaholatga emas, ezgulikka, adolatga xizmat qildi. Mahalliy aholining farovonligi, ma’naviy-ma’rifiy yuksalishiga hissa qo‘shdi. Yurtni obod qilishga kirishdi, muhtasham obida va bog‘lar bunyod etdi. Uning oqilona siyosatini davom ettirgan vorislari esa bugun ham dunyoning yetti mo‘jizasi sifatida e’tirof etib kelinayotgan Tojmahal, Qizil qal’a kabi noyob, muhtasham arxitektura yodgorliklari, masjidu madrasalar bunyod ettirdi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1 Qiyomiddin Nazirov (tuzuvchi). Falsafa qomusiy lug’at. –T: “Sharq” nashriyoti. 2004-yil, 496 bet.

2 Turg’unov Q., Ruscha-o’zbekcha psixologiya terminlarining izohli lug’ati. –T.: “O’qituvchi” nashriyoti, 1975-yil, 195 b.

3 O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4 tom. Toshkent.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2002-yil. 704-bet.

4 “O’quvchilarning milliy ma’naviyatini shakllantirishda boshlang’ich ta’limning o’rni” mavzusuga bag’ishlangan ilmiy maqolalar to’plami. Nizomiy nomidagi TDPU. Toshkent. 2010-yil.

V. Internet saytlari.

www. tdpu. uz

www.Ziyonet. Uz

w.w.w.google.uz

MILLAT QUYOSHI – ALISHER NAVOIYNING BIZ, YOSHLARGA QOLDIRGAN BUYUK MA`NAVIY MEROSI

Muhammadqodirova Feruzabonu Otabek qizi
Qo`qon DPI O`zbek tili va adabiyot yo`nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada so`z mulkining sultoni, ulug`mutafakkir-Mir Alisher Navoiyning bizga va kelgusi avlodga qoldirgan ma`naviy, axloqiy va adabiy merosi nimalardan iborat ekanligi haqida fikr yuritiladi. Biz-yoshlar ushbu xazinadan olgan xulosalarimizni hayotga to`g`ri tatbiq eta olishimiz zarurligi uqtiriladi.

**Kalit so`zlar:** Alisher Navoiy, shams-ul millat, zullisonayn, amiri kabir, amir ul – muqarrab, Foniy, tazkira, sort, Hirot, ma`naviy meros.

Aziz yurtdoshim, siz buyuk bobokalonimiz hazrat Alisher Navoiy haqida ko`p eshitgansiz va uning asarlarini sevib mutolaa qilgansiz. Har yili 9-fevral sanasida shoirning tavallud ayyomiga bag`ishlab yurtimizning har bir go`shasida turli madaniy tadbirlar, g`azalxonlik kechalari o`tkaziladi, ul zot xotirasini yod etish uchun haykallari poyiga gullar qo`yish an`anaga aylangan.

Bejiz bu ulug` zotni “shams ul-millat”(millat quyoshi) deb atamaymiz. Nima uchun shoir bobomizga shunday ehtirom va e`zoz bildiramiz? Nega asarlarini qayta-qayta mutolaa qilib keng targ`ib qilamiz? Bu savollarning barchasiga maqolani o`qib chiqqaningizda javob topasiz va o`zingizga kerakli xulosalarni chiqarasiz degan umiddaman.

Mir Alisher Navoiy butun umrini turkiy til mavqeyini ko`tarish, turkiy adabiyot imkoniyatlarini dunyoga tan oldirish, turkiy davlatchilik asoslarini mustahkamlash, jamiyatda haqiqat va adolat mezonlarini qaror toptirishga bag`ishlagan. Alisher

Navoiy g`azal mulkining sultoni. Butun turkiy adabiyotda hech kim ungacha ham, undan keyin ham u yaratganchali ko`p va xo`p asarlar yozmagan[2].

Navoiy - avvalo, lirik shoir. U bolalik chog`laridan umrining oxirigacha she`rlar ijod qildi. She`rlarga mehr qo`yishi Alisherni ijodga undadi. U 7, 8 yoshlaridan she`r yoza boshladi. Shoir eski o`zbek va fors-tojik tillarda o`zidan boy meros qoldirdi, o`zbek adabiyotini tamoman yangi bir pog`onaga olib chiqdi. Uning lirik she`rlari jami sakkiz devonga jamlangan. Shundan yettitasi turkiy, bittasi forsiy lirikadan tashkil topgan. 1465-1466-yillari shoirning muxlislari tomonidan yangi “Devon” yaratildi, keyinchalik bu asar naviyshunoslikda “Ilk devon” nomi bilan mashhur bo`ldi. Husayn Boyqaro Navoiyning aql va sadoqatiga tayanib ish ko`rdi. Buyuk shoir “amiri kabir” (ulug` amir), “amir ul-muqarrab” ( podshohga eng yaqin amir) unvonlariga musharraf bo`ldi. “ Ilgimdan kelganicha, - deb yozadi “Vaqfiya” asarida Navoiy, - zulm tig`in ushotib (sindirib), mazlum jarohatig`a intiqom marhamini (qasos malhamini) qo`ydum. Va ilgimdan kelmaganni ul Hazrat arzig`a yetkuzdim”.

1472-1476- yillar oralig`ida esa bevosita zamona shohi Husayn Boyqaroning iltimosi bilan Navoiy o`zining birinchi devoni – “Badoye ul-bidoya” (“Badiiylik ibtidosi”)ni tuzdi. Bu devonga maxsus “Debocha” yozib, o`zining she`riyatga, xususan, g`azalga nisbatan qarashlarini, ijodiy qat`iyatlarini bayon etdi. “Debocha” Navoiyning turkiy she`riyatga o`ta yuksak mezonlar bilan yodashadigan qalam sohibi sifatida bo`y ko`rsata boshlaganidan dalolat beradi. 1476-1483-yillarda “Navodir un-nihoya” (“Tuganmas nodirliklar”) nomli ikkinchi devonini tuzadi.

---

[1]Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida Navoiyni shunday ta`riflab o`tgan.

1483-yilda turkiy tilda birinchi bo`lib “Xamsa” asarini yozishga kirishdi va misli ko`rilmagan qisqa muddat – ikki yil (1483-1485)da 51 ming misradan ortiq besh yirik dostondan iborat asarini yozib tugatdi. U 1483-yilda “Hayrat ul-abror” falsafiy-ta`limiy dostonini, 1484-yilda uch dostonni: “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sabbayi sayyor” ishqiy-sarguzasht dostonlarini , 1485-yilda esa “Saddi Iskandariy” qahramonlik dostonini yaratdi. Buyuk shoir bu dostonlarda zamonasining barcha dolzarb masalalarini qalamga oladi. Masalan, “Hayrat ul-abror” dostonida shoir umr, uning mazmuni, tabiat, jamiyat va inson munosabatlariga doir savollarni qo`yadi, keyingi dostonlarda muayyan taqdirlar, voqealar misolida ularga javob berishga harakat qiladi [2:16].

Navoiy fanning barcha sohalarida qalam tebratib, zabardast olim ekanini ham isbot etdi. O`tmish mavzusida “Tarixi mulki Ajam” (“Ajam, ya`ni arab bo`lmagan mamlakatlar podshohlari tarixi”), “Tarixi anbiyo va hukamo” (“Payg`ambarlar va donishmandlar tarixi”) asarlarini yozdi. Turkiy adabiyotshunoslikda uning alohida o`rni bor, adabiyotimiz tarixida birinchi bo`lib “Zullisonayn” (ikki tilda ijod qilish) an`anasini boshlab berdi. Turkiy tilda “Navoiy”, fors-tojik tilida esa “Foniy” taxalluslari bilan ijod qilgan. U aruzga doir “Mezon ul-avzon” (“Vaznlar o`lchovi”), tazkirachilikka[1] oid “Majolis un-nafois” (“Nafis majlislar”) kabi asarlar yaratdi.

Bular o`zbek (turk) tilida shu sohalardagi birinchi asar edi. U Lug`atshunoslikka oid “Sab`at-u abhor” (“Yetti dengiz”) nomli kitob yozdi. Ayniqsa, “Muhokamat ul-lug`tayin” (“Ikki til muhokamasi”) asarida turk (o`zbek) va sort (fors) tillarini solishtirib, o`z ona tilining tuganmas imkoniyatlarini ilmiy asoslab berdi.

Navoiy 1490-yillarda adabiyotimiz tarixida yana bir katta hodisa – “Xazoyin ul-maoniy” (“Ma`nolar xazinalarini”) majmuasini tuzdi. Bu ulkan she`riy to`plam shoirning turkiy tilda yozgan deyarli barcha lirik sherlarini qamrab olgan edi.

Tazkira – ijodkorlar haqida ixcham ma`lumotlardan namuna keltirilgan to`plam.

Bu asar to`rt devondan iborat: “G`aroyib us-sig`ar”, “Navodir ush-shabob”, “Badoye ul-vasat”, “Favoyid ul-kibar”. Bu devonlarda jami 16 ta lirik janrga oid asarlar o`rin olgan. Majmuada g`azal eng asosiy janr hisoblanadi. Har bir devonga 650 tadan, jami 2ming 600 ta g`azal kiritilgan [1:29].

Buyuk adib umrining oxiriga qadar ilm-u ijod bilan qizg`in va samarali shug`ullandi. Boshqalar bilan olib brogan yozishmalarini to`plab “Munshaot”(“Xatlar”)ni tuzdi. 1500-yilda buyuk mutafakkirning yaxshilik va yomonlik haqidgi qarashlarini o`zida ifodalagan “Mahbub ul-qulub” (“Ko`ngillarning sevgani”) asari donyoga keldi. Bu asar oltmish yillik umri davomida ko`rgan – kuzatganlarini teran tahlildan o`tkazib, muayyan xulosalar chiqargan donishmand adibning kelgusi avlodlarga qoldirgan buyuk ma`naviy merosidir. Bu asarda shoir insonga xos eng ezgu fazilatlar, uni ma`naviy barkamol etadigan, o`zgalar qarshisida go`zal va oliyjanob ko`rsatadigan xislatlarni jamlagan.

Bu ulug` zot 1501-yil 3-yanvarda Hirot shahrida vafot etdi. O`sha kuni butun mamlakat motam tutdi. 1991-yilning 26-sentabrida mamlakatimiz poytaxtidagi O`zbekiston milliy bo`g`ida Alisher Navoiyning ulug`vor haykali qad rostladi. Haykal ustida bino qilingan baland toq girdiga uning bir g`azalidan olingan:

Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig`,

Yor o`lung bir-biringizgaki, erur yorlig` ish, -

degan misralari yozib qo`yilgan. U butun bashariyatga qarata aytilgan shior kabi jaranglaydi. Keyingi yillarda ulug` mutafakkir bobomizni butun dunyo tan oldi va asarlariga muhabbati ortdi. O`zbekiston Qahramoni unvoni sohibi, shoiramiz – Enaxon Siddiqova Alisher Navoiyga atab shunday go`zal misralar bitgan:

Buyuk ibodatga chog`langan kabi

Xalqim piri tomon kelmoqda oqib.

Bu kular ilohiy, bu kunlar nabiy

Ko`ngillarning borgohidir Navoiy.

Navoiyni o`qi, yorishar olam,

Ulus dardi, orzulari unda jam,

Navoiydan madad so`ragil, bolam,

El bosh urar dargohidir Navoiy.

Ulug` mutafakkir bobomizning qay bir asarini olmaylik, unda insonning ma`naviy tarbiyasi bilan bog`liq biron fikr, hikmat uchramasdan qolmaydi. Aziz o`quvchi , xulosa qilib shuni aytish joizki, biz Alisher Navoiyni qanchalik ko`p o`rgansak, shunchalik ko`p ibrat va hayotiy saboq olamiz. Bular, o`z navbatida, hayotimiz davomida asqatadigan, bizni to`g`ri yo`ldan borib, yaxshi inson bo`lib yetishishimiz, obro`- e`tibor qozonishimizga ko`maklashadigan saboqlardir. Bu ma`naviy saboqlardan to`g`ri xulosa chiqarib, hayotga tatbiq etish har birimizning o`z qo`limizdadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Alisher Navoiy , Xazoin ul-maoniy. – T. : Yangi asr avlodi, 2016. 29-bet.

2. Alishr Navoiy, Xamsa. – T. : Yangi asr avlodi, 2019. 16-bet.

3. Enaxon Siddiqova, So`z ustidagi dunyo. – T. : Yangi asr avlodi, 2014. 187-bet.

THE GLORIFICATION OF HUMAN QUALITIES IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI

Bakhronova Matluba Akhmedovna
teacher of Pedagogical institute of Bukhara state university
Bakhshullayeva Shakhnoza, student

Abstract

This article describes and analysis of the glorification of human qualities in the works of the great turkish poet and philosopher Alisher Navoiy.

Keywords:humanity,proverb,moral,narration,generosity,character,epic,image,sipiritual, Turkic language,qualities.

Linguist,literary critic and statesman Mir Alisher Navoi was born on February 9,1441 in Hirat which capital of Khurasan province.From an early age, he loved literature and never tired of reading poetry.During his lifetime, he wrote a work of 20 volumes.From a young age, Navoi loved to read Farididdin Attar's "Mantiq ut-tayr"and in response to it he wrote "Lison ut-tayr" (bird's tongue).Navoi arranged two devons:"Badoe ul-bidoya” and "Navodir un-nihoya”."Hamsa” is the flower of Navoi`s works.It contains five epics such as "Hayrat ul-abror”, "Farhod and Shirin”, "Layli and Majnun”, "Sab`ai Sayyor” and "Saddi Iskandariy”.Navoi's "Hamsa" is the first work written in Turkish in this genre.Navoi reveals the peculiarities of the Turkic language and proves that it is possible to write a large-scale work in this language as well.Describing the four seasons of his life,in 1990 he wrote a work consisting of four devons.They are "G`aroyib us-sig`ar”,’’Navodir ush-shabob”, “Badoye ul-vasat” and “Favoyid ul-kibar”.All of Navoi`s works contain exemplary stories,wise sayings,comparisons and interesting adventures related to the spiritual upbringing of man.Navoi continued the tradition of oriental literature and raised the literature of the Turkic peoples to a new height.In addition to shaking the pen, Navoi is actively involved in public affairs.King Hussein Boykaro always consulted with

Navoi before making a decision.Hussein Boykaro appoints Navoi as sealer and minister.Navoi wrote all his literary works in combination with politics.Navoi made a significant contribution to the socio-economic development of the country.He sponsored the development of science, art and culture, as well as peace and harmony in the country.

If we analyze the work of “Mahbub ul-Qulub”created by Alisher Navoi at the end of his life , moral views and admonition became the main topic.The word “Mahbub ul-Qulub” means love of hearts.The play explores the poet's latest social and political views.This work is highly regarded as it provides the most effective solutions to the problems of life that everyone will inevitably face throughout their lives.In the introductory part of the work,the following masnavi describes the difficulties he faced in life,serving the good and the bad and enjoying the conservation of the elder and the younger.

“Gahi topdim falakdin notavonlig`,

Gahi ko`rdum zamondin komronlig`,

Base issig`,sovug` ko`rdum zamonda,

Base achchig`,chuchuk totdim jahonda.”

Indeed,Navoi`s works are a great spiritual treasure left to future generations ,as they detail generosity,kindness,greed,suffering and hardship,humility and decency,good and evil,the benefits of travel and the consequences of lying.

Folk proverbs were widely used in this play, and also Navoi's wise sayings became proverbs."Tilga ixtiyorsiz- elga e`tiborsiz” especially in this wise word there is a deep and profound meaning.No matter where a person is respected for his sweet words and kindness.A person with a bad language always hurts the hearts of his interlocutors.”Alisher Navoi likens an ugly person with a nonsense,an ugly voice like a frog and a sweet person with a sweet tongue as a wise and intelligent person".

Man is distinguished from other living beings by language.Therefore, one must know where to say which word.

,,Saxiy bulutdir ,xirmon-xirmon don hosili,balki xazina beradi;baxil chumolidir,don-dun ,mashoq teradi.Oliyhimmat odam-balandparvoz lochindir;behimmat- sichqon ovlovchi kalxatdir”.In his views on generosity ,Navoi sought to reveal the characteristics of greedy and generous people.Generous person is also kind , compassionate who has the highest qualities of helping others.He wants to share everything with the people.A greedy person does not want to share his wealth with anyone,but tries to take it from others.

"Mahbub ul - Qulub"'s work is divided into three parts.

Part 1. The state and character of the people and the mood of their words;

Part 2. Character of good deeds and bad qualities;

Part 3. The result of good and the consequence of bad qualities.

In short,in the poet`s gazals, rubai,muhammas,qita and epics, human qualities always prevail.His writings about his 60 years of life serve as an example for us and light our way like a torch.As we read Navoi`s works, we learn useful advice on how to be humble,not to lie,not to be honest and encourages us to be generous to people,to be scientific and to be quick to respond to every action.Navoi`s works are loved and read not only by Uzbeks,but also by people all over the world and receive spiritual nourishment.These works take place in their hearts and ingrained in their mind.Probably for this reason ,statues are erected in Moscow,Baku and Tokyo in honor of this great man.

As the first President of the Republic of Uzbekistan I.A.Karimov said, not only in our country, but also in foreign countries, there is no one who does not know Navoi and has not read his works.

CONCLUSION

The great poet made a great contribution to the upbringing of a harmoniously developed generation with his views on education, and his views on universal qualities are important for our time.The universal idea of Navoi's works is to recognize the fame of Uzbek literature to the world through the high artistic expression of such beautiful feelings as humanity, nationalism, justice, friendship, peace, kindness and loyalty, pure love and fidelity, enlightenment.In his works, Alisher Navoi expresses his views on universal education by creating the image of a harmonious human being.

REFERENCES

1.Textbook set for secondary schools. S.Ahmedov, R.Kochkarov, Shu.Rizayev. 2013, p.38, p.41, p.45.

2."High spirituality is an invincible force". Islam Karimov.2008. Page 47.

3. Bakhronova, M. A. (2020). Representation of disease names in the literature. ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (86), 141-144.

4.https://arboblar.uz/uz/people/alisher-navoi.

5. Depiction of diseases in literature BM Akhmedovna, TN Nosirovna - International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020

TURKIY XALQLARNING MA’NAVIY SIYMOSINI YARATGAN BENAZIR DAHO - ALISHER NAVOIY

Nilufarxon Yaxyopo’latova
O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Yoshlar ma’naviyatini, dunyoqarashini milliylik, va insonparvarlik g’oyalari zamirida shakllanishida g’oyat kuchli, ijobiy ta’sir ko’rsata oladigan, ayni paytda o’zbek mumtoz adabiyoti va o’zbek milliy ma’naviyatining shakllanish va rivojlanish asoslarini anglash yo’lida “maxsus kalit” vazifasini bajaradigan Navoiy ijodini o’rganish orqali yoshlarga sog’lom tafakkur tarzini shakllantirish, adabiyot, ma’naviyatni chuqurroq anglashga turtki bo’ladi.

Understanding the basics of the formation and development of Uzbek classical literature and Uzbek national spirituality, which can have a very strong and positive impact on the formation of youth spirituality, world outlook on the basis of national and humanitarian ideas Through the study of Navoi's work, which serves as a "special key" in the world, it will help young people to form a suitable way of thinking, a deeper understanding of literature and spirituality.

Понимание основ становления и развития узбекской классической литературы и узбекской национальной духовности, что может оказать очень сильное и положительное влияние на формирование у молодежи духовности, мировоззрения на основе национальных и гуманитарных идей Через изучение творчества Навои, который служит «особым ключом» в мир, поможет сформировать у молодежи подходящий образ мышления, более глубокое понимание литературы и духовности.

Hayoti va ijodi, asarlari, shaxsiyati, Munshaot, Majolis un-nafois, Hamsa, Muhokamat ul-lug’atayin, Holoti Sayyid Hasan Ardasher, tarixi, murabbiylari, Jomiy, ilmiy mezon, izohli lug’at, sharq kutubxonasi, Silvestre de Sasi.

Life and work, works, personality, Munshaot, Majlis un-nafais, Hamsa, Muhokamat ul-lug'atayin, Holoti Sayyid Hasan Ardasher, history, mentors, Jami, scientific criteria, explanatory dictionary, oriental library, Sylvester de Sasi.

Жизнь и творчество, творчество, личность, Муншаот, Маджлис ун-нафаис, Хамса, Мухокамат ул-луг'атайин, Холоти Сайид Хасан Ардашер, история, наставники, Джами, научные критерии, толковый словарь, восточная библиотека, Сильвестр де Саси.

Alisher Navoiy o’z asarlari orqali turkiy xalqlarning ma’naviy siymosini yaratib berdi va turkiy tilni ham boshqa tillar bilan bemalol raqobat qila olishini va hatto ustun jihatlarini ham ko’rsatib bera oldi. Uning qalamiga mansub barcha asarlarida turkiy adabiyotning yorqin timsolini, o’zi haqidagi qimmatli ma’lumotlarni va albatta, ulkan lirik merosni ko’rish mumkin.butun dunyo Navoiy ijodi va uning benazir turkiy asarlariga hamisha yuksak qiziqish bilan qaramoqda.

O’zbek va jahon adabiyoti haqida so’z borar ekan, Navoiydek asarlari keng tarqalgan, dunyoning deyarli har bir burchagida kitoblarning nusxalari saqlanayotgan yana bir shunday ijodkorni topish qiyin. Buning asosiy sabablaridan biri, “Shams ul-millat” atalmish Nizomiddin Mir Alisher Navoiy jahon adabiyoti xazinasini o’zining betakror lutfga burkangan she’riyati, buyuk “Xamsa”si, fan sohalarining turli tarmoqlariga bag’ishlangan mufassil, boy ilmiy merosi bilan boyitgan so’z san’atkoridir. Birga quyidagi misol uning ijodi dengiz-u ummonlar qadar boy ekaniga yaqqol dalil bo’ladi, u o’z ijodiy merosida 26 mingdan ortiq lug’at boyligidan mohirona foydalangan bu buyuk daho mana besh asrdan oshgan bo’lsa ham, asarlaridagi chuqur falsafiy mushohadakorlik, ma’no-mohiyatning keng ko’lamligi va nazmiy merosidagi fasohat dengizining bepoyonligi bilan jahon ahlini hali hamon hayratga solib kelmoqda. Navoiyning hayoti va ijodi haqida ma’lumot beruvchi asosiy, ishonchli, ilk manba bu, albatta ushbu ulug’ shoirning o’z qalamiga mansub asarlaridir. Garchi u o’zi haqida maxsus tarjimayi hol yozmagan bo’lsa ham, uning

shaxsiyati , ijodiy va ijtimoiy faoliyati haqida muayyan fikrlar albatta, uning asarlarida yaqqol sezilib turadi. Xususan, “Vaqfiya” , “Munshaot” asarlarida ulug‘ shoirning ijtimoiy faoliyati aks etsa, “Majolis un-nafois” , “Xamsa” , “Munojot” , “Xazoyin ul-maoniy” kabi asarlarida shaxsiy hayoti, “Muhokamat ul-lug‘atayn” , “Xamsat ul-mutahayyirin” , “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” kabi asarlarida shoir qalamiga mansub ba’zi asarlarning yozilish tarixi bilan bog'liq ma’lumotlarni uchratamiz. Ushbu ma’ lumotlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Shoirning yoshlik davri.
2. Murabbiylari.
3. Tutingan farzandlari.
4. Suhbatdoshlari.
5. Navoiy va Jomiy hamkorligi.
6. Navoiy va saroy.

Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” , “Haft avrang” , “Nafahot ul-uns” asarlarida ham Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog'liq ko'plab malumotlar keltiriladi. Xususan, Sa’diy Sheroziyning “Guliston”i ta’sirida yaratilgan “Bahoriston” asari 8 ravza (bob) dan iborat bo‘lib, 7-ravzada 39 shoirdan biri sifatida Alisher Navoiyga to'xtalib o'tiladi va uning komil axloqi ijodidan ham yuksakroq ekanligi ta’kidlanadi. Hayotining ko’p qismi birga o’tgan Husayn Boyqaro o’zining “Risola” asarida ham Navoiyning turkiy tildagi ijodi, xususan, she’riyati hamda “ Xamsa” asariga yuksak baho berib, Mir Alisherni “So’z mulkining kishvaristoni, sohibqironi “ deya ulug’laydi. Zayniddin Vosifiy qalamiga mansub “Badoye’ ul-vaqoye” xotiralar to'plamining to‘ rt bobi Alisher Navoiy shaxsiyatiga bag'ishlangan. Unda hazratning fe’li-sajiyasi, zamondoshlari bilan ijodiy muloqotlari, Navoiy hayoti bilan bog’liq turfa xil qiziqarli, e’tiborga molik voqealar haqida ma’lumot beriladi. 1697-yilda fransuz olimi Artoleme d’Erbelo “Sharq kutubxonasi” nomli ensiklopediyada Navoiy tarjimai holi va asarlari nomini keltirsa, sharqshunos

Silvestre de Sasi (1758-1838) o‘z tadqiqotlarida Alisher Navoiyning shoir va davlat arbobi sifatidagi faoliyatiga to‘xtalib o'tadi. Navoiy shaxsiyatini ochish berishga harakat qilgan yana ko’plab shoirlar, ijodkorlar va ularning asarlarini misol keltirish mumkin. 1450-yillarda Xuroson taxti uchun kurash ketayotgan bir paytda Navoiy ikki tilda she’rlar bituvchi zullisonayn shoir sifatida ancha tanilib qolgan edi. Xondamirning ma’lumot berishicha, bir kuni Alisher Navoiy Lutfiy huzuriga borganida, “malik ul-kalom” undan yangi yozilgan bir G‘azalini o‘qib berishni so‘raydi. Navoiy o‘zining

Orazin yopqoch, ko'zimdin sochilur har lahza yosh,

Bo'ylakim, paydo bo‘lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh

matla’si bilan boshlanuvchi g ‘azalini o'qiydi. Shunda Lutfiy agar imkoni bo‘lganida, o‘zining 10-12 ming forsiy va turkiy tilda bitilgan baytlarini shu g‘azalga almashtirishini aytib, shoirning iste’dodiga yuksak baho beradi. Alisher Navoiyning ijodi ulkan. Uning 1483-1485-yillarda yozgan, besh dostonni o’z ichiga olgan “Xamsasi” “Hayrat ul-abror” (Yaxshi kishilarning hayrati), “Farhod va Shirin “ , Layli va Majnun” , “Sab’ai Sayyor (Yetti sayyora) , “Saddi Iskandariy” (Iskandar devori) mazkur janrda yaratilgan turkiy tildagi ilk asar hisoblanadi. U turkiy tilda ahm bu kabi yirik ko’lamdagi asarlar yaratilishi mumkinligini isbotlab berdi. Alisher Navoiy butun hayoti davomida adabiy asarlarni siyosat bilan birlashtirgan. Yuqori mansabga ega shaxs bo‘la turib, u mamlakat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy takomillashishiga katta hissa qo‘shgan; ilm, fan, san’at rivojiga homiylik qilgan; tinchlik va totuvlik hukmron surishiga doim harakat qilgan. Navoiy merosi cheksiz ummonda qiyoslanadi, mavzu va janrlari bo’yicha turlichadir va bu bilan birga turkiy tillar uchun eng muhim tamal toshi ham bo’la oldi. Uning asarlari XV asrdan to hozirgi kunga qadar turkiy, jumladan, o’zbek adabiyoti rivoji uchun xizmat qilib kelmoqda.

KOMIL SHAXS TARBIYASI : ALISHER NAVOIYNING “NAZM UL – JAVOHIR” ASARI MISOLIDA

Sharopov Abdunazar Murod o‘g‘li

Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hazrat Alisher Navoiyning " Nazm ul - javohir " asarida bayon etilgan pand va o‘gitlarning bugungi kundagi o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Annotation : This article discusses the role and significance of the teachings and teachings of Hazrat Alisher Navoi in his book "Nazm ul-javohir" today.

Аннотация : В данной статье рассматривается роль и значение учений и поучений Хазрата Алишера Навои в его книге «Назм уль-джавохир» на сегодняшний день.

Kalit so‘zlar : " Nazm ul - javohir" , Alisher Navoiy, " Nasr ul - laoliy " ,komil shaxs tarbiyasi, nafs jilovi.

Keywords: "Nazm ul - jewel", Alisher Navoi, "Nasr ul - laoliy", perfect personality education, self-control.

Ключевые слова: «Назм ул - драгоценность», Алишер Навои, «Наср ул - лаолий», совершенное воспитание личности, самообладание,

Kim egri esa , tuzluk emas poyasi ham,
Bor o‘zidek egri sudu sarmoyasi ham,
Tuzluk ermas shifosiyu voyasi ham,
Kim, egri kishining egridur soyasi ham.

(Alisher Navoiy)

Sharq mumtoz adabiyotida pand - nasihat ruhidagi asarlar bitish an'anaga aylangani va bu yo‘nalishda salmoqli asarlar yozilgani hech kimga sir emas. Nizomiddin Mir Alisher Navoiy asarlarining ham tub mohiyatida komil shaxs tarbiyasi, inson kamoloti yo‘llari xalq uchun sodda qilib beriladi. Jumladan , " Nazm ul - javohir " pandnomasi ham ayni shu yo‘nalishdagi asar desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu asar yaratilishiga asos Hazrat Ali (r. a) bo‘lib 266 ta hikmatlarini Navoiy oddiy xalq uchun badiiy talqinda taqdim etadi .

Hikmatlari mavzusi turli xil bo‘lib , inson hayoti davomida, kundalik turmushda duch keladigan holatlar va vaziyatlar , insonlararo munosabatlar yoritib boriladi . " Alisher Navoiyning “Nazmu-l-javohir” asari O’zbekistonda chuqur va har tomonlama o’rganilgan emas. “Nazmu-l-javohir”ning matni Navoiy asarlarining o’n besh tomlik to’plamida (1968) va yigirma tomlik mukammal asarlarida (1999) Toshkentda nashr etilgan. Ma’mura Rashidova “Nazmu-l-javohir”ning ilmiy-tanqidiy matnini tuzib chiqdi va uni filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun dissertatsiya sifatida muvaffaqiyat bilan yoqladi (1991).

“Nazmu-l-javohir” haqida S.G’anieva, M.Mahmudov, T.G’afurjonovaning yozgan maqolalari ham diqqatga sazovordir. Hijriy 1387 yili Tehronda “Nazmu-l-javohir” sarlavhasida Hazrati Alining hikmatlari va ularning o’zbek, rus, ingliz tillariga tarjimalari alohida risola sifatida chop etildi (Tuzuvchilar Bahman Akbariy, Suyima G’anieva).

Bu aslida hazrati Alining “Nasru-l-la’oliy” (“La’lilar nasri”) asaridir. " [1]

Mazkur asar qadr va qimmati bugungi kunda ham oshsa oshdiki, kamaygani yo‘q. Aksincha , kundan - kunga dolzarblik kasb etmoqda.

Ruboiylar qatiga singdirilgan vafo, sadoqat , ota - onaga g‘amxo‘rlik, muloyimlik, har doim ilm istagida bo‘lish, ulug‘lar xizmatida bo‘lish, dunyo va oxirat va boshqa juda ko‘plar eskirmadigan mavzular o‘z ifodasini topgani bilan ham ahamiyatlidir. Inson ana shunday axloqiy sifatlarga ega bo‘lsagina hayoti go‘zal kechadi, insonlarga

yordami tegadi va bundan o‘zining ham ko‘ngli yorishadi. Asarda nafs tarbiyasiga alohida e’tibor qaratiladi. Umuman tasavvuf adabiyotining bosh g‘oyasi ham nafs jilovidir. Ahmad Yassaviy, Boborahim Mashrab va boshqa ko‘plab ulug‘ zotlar ham o‘z asarlarida nafs insonning asosiy dushmani ekanligini qayta va qayta uqtirib o‘tganlilari zamirida ham inson o‘z nafsiga qarshi bora olmas ekan hech qachon komillikka qadam qo‘ya olmasligini bilamiz.

Gavhar kerak ersa benavoliq ayla,
Ehsoni bila komravoliq ayla,
Bahri kafidin aning gadolik ayla,
Daryoyi karamg‘a oshnoliq ayla.

Daryoyi karam kimgaki ogohdurur,
Bildikki ,valoyat ahlig‘a shohdurur,
Gumrahlarg‘a barandai rohdurur,
Bu beshada ya'ni Asadulloh durur.

" Hotifi farxundanafas chun ishoratin bildim - Hazrati Amir " Nasr ul - laoliy " si tarjimasi azimati qildim ". [2] deya " Nazm ul - javohir " asarini yozish istagi va sababi haqida. Alisher Navoiy cheksiz daryodan bahra olishlik uchun ulkan xazinani turkiy tilda bayon etgan.

Bir so‘z bilan aytganda ushbu asar inson ma'naviy jamoalari ,o‘zligini tanish yo‘lida bebaho boylikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1. " Nazm ul - javohir " . A. Navoiy. - T:Akademnashr .2019
2 .kh.davron.uz

BOBURNING HAYOT YO'LLARI

Sayfiddinov Osimxon Obiddin o'g'li
Namangan muhandislik-qurulish instituti talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada O'zbek shoh va shoiri Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiga hamda hayotiga nazar tashlangan. Uning hayot yo'llari va ijodi o'rganib chiqilgan. Shoirning hayotida davomida ko'rgan qiyinchiliklariga va hayotiy yozilgan ijodiga alohida e'tibor berilgan.

Kalit so'zlar: Bobur, Umarshayx Mirzo, ruboiy, g'azal, Axsi, juz'ya, Boburnoma.

Аннотация: В данной статье рассматривается жизнь и творчество узбекского царя и поэта Захириддина Мухаммада Бабура. Его жизненный путь и творчество были исследованы. Особое внимание уделено трудностям, с которыми поэт столкнулся на протяжении всей своей жизни, и его жизненно важному письменному творчеству.

Ключевые слова: Бобур, Умаршайх Мирзо, рубаи, газель, Акси, джузья, Бобурнома.

Annotation: This article looks at the life and work of the Uzbek king and poet Zahiriddin Muhammad Babur. His life paths and creativity have been explored. Particular attention is paid to the difficulties the poet saw throughout his life and to his vital written work.

Keywords: Bobur, Umarshaykh Mirzo, rubai, ghazal, Axsi, juz'ya, Boburnoma.

Bobur adabiyotimizning Navoiydan keyingi eng e'tiborli va buyuk vakilidir. U 1483 yilning 14-fevralida Farg'ona viloyatining poytaxti Andijonda tug'ildi. Otasi ushbu viloyat hokimi Umarshayx Mirzo (1455-1494) Temurbekka evara to'rtinchi (Abusaid Mirzo Sulton Muhammad Mirzo Mironshoh Amir Temur) avlod edi. Onasi

Kutlug' Nigorxonimning otasi Toshkent hokimi Yunusxon esa o'zbeklashgan mo'g'ul urug'idan bo'lib, Chingizxonga tutashgan. Bobur uni «Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxon naslidandur» deb tanishtiradi.

Arabchadagi ma'nosi sherdir. Keyinroq ulug'larga, shohu shahzodalarga qushilib aytiladigan ismi sharif sifatida «Zahiriddin» ilova etildi. «Zahir»ning ma'nosi kup, shulardan biri homiy yana biri esa sergul daraxt ekan.

Umarshayx Mirzoning uch o'g'li (Zahiriddin Muhammad Bobur, Jahongir Mirzo, Nosir Mirzo), besh qizi (Xonzodabegim, Mehrbonubegim, Shahrbonubegim, Yodgor Sultonbegim, Ruqiya Sultonbegim) bo'lib, Bobur o'g'illarining eng kattasi edi. Opasi o'zidan besh yosh katta Xonzodabegim bilan bir onadan edilar.

Umarshayx Andijonning g'arbida joylashgan Axsi (Axsikat, deb ham aytilgan, Sirdaryoning o'ng sohilida, hozirda Namangan viloyati, Shaxand qishlog'i hududida xarobalari saqlanadi) shahrini poytaxt qilgan edi.

1494 yilda Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon (Boburning tog'asi), Samarkand podshohi Sulton Ahmad Mirzo (amakisi) ittifoq tuzib, biri Sirdaryoning janubidan, ikkinchisi shimolidan Axsi ustiga qo'shin tortadilar. Shu orada falokat yuz beradi. 899-yil ramazon oyining to'rtida, dushanba kuni (1494 yil 9 iyun) Axsi qo'rg'onida jar yoqasida turgan Umarshayx Mirzo xobxona-yu xosxonasi bilan birga qulab, halok bo'ladi. Ertasi kuni bu xabar Andijonga yetib boradi. Taomil bo'yicha, to'ng'ich o'g'il Zahiriddin Bobur otasi o'rniga hokim bo'lib, shoshilinch Axsiga yo'l oladi. Yaqinlari, beklar yordamida yurt himoyasini tashkil qiladi. Omad yosh hukmdorga kulib boqadi. O'ratepa, Xo'jand, Marg'ilonni qo'lga olib, qubo (quva)ga kirgan Sulton Ahmad qo'shini shaharni kesib o'tuvchi qorasuv ko'prigida toshqinga uchrab, kup ot va tuya botqoqsuvga cho'kib nobo'd bo'ladi. Ustiga-ustak, ot o'lati tarqaydi va qo'shin vahimaga tushadi. Sulton Ahmad o'rtaga odam qo'yadi. Sulh tuzib, orqaga qaytadi va yo'lda vafot etadi. Shimoldan kelgan Sulton Mahmudxon Axsini bir muddat qamal qilsada, egallay olmaydi. qaytib ketishga majbur bo'ladi. Sharoitdan foydalanib qolmoqchi bo'lgan Koshg'ar va Xo'tan hokimi Abobakr

Dug'latning ham O'zgand yaqinidagi harakatlariga chek qo'yiladi. qo'ldan chiqqan yerlarning kupi qaytib olinadi. Dushman bartaraf qilingach, Umarshayx Mirzoning azasi barcha rasm-rusumi bilan o'tkaziladi.

Shu orada Boburning ukasi Jahongir Mirzoni shoh qilish niyati bilan yurgan Hasan Ya'qub boshliq fitnachilar fot etiladi. Akasi Sulton Ahmad o'lgach, unga tobe Samarkand va Buxoroni o'z qo'liga olgan Sulton Mahmud ham vafot etadi. 12 yoshli Boburdastlab Shayx Mazidbek, so'ng Boboquli Boboalibek, qosim qavchin kabi beklar yordamida hokimiyatni idora qilishga kirishadi.

1495 yilda Sulton Mahmudning o'g'illari Boburning amakivachchalari Sulton Mas'ud va Boysung'ur Mirzolar Samarkand uchun qurash boshlaydilar. Samarkand ukalari Sulton Ali qulida edi. Bobur ham baxtini sinab ko'rgani Samarqandga yo'l oladi. Samarqand buyuk Temurbekning poytaxti edi. Uni egallash har bir temuriyzodaning eng ulug' orzusi edi. Xullas, yosh Bobur qo'shin tortib Samarqandni qamal qiladi. Biroq, Sulton Ali o'rtaga do'stlik, ittifoqlikni qo'yib, odam yuboradi. Bobur mardlik, tantilik qilib orqaga qaytadi. Shunga qaramay, shahar Boysung'ur qo'liga o'tadi.

1497 yilda Bobur mingga yaqin kishi bilan yana Samarqandga otlanadi. Boysung'ur Mirzo Turkistondan Shayboniyxondan yordam so'raydi. Yordam natija ber.maydi. qamal yetti oy davom etadi. Boysung'ur Mirzo ikki-uch yuz odami bilan shaharni tashlab, Qunduzga, Xisravshoh panohiga qochadi. Bobur shaharga kiradi. Shahar ulug'lari, beklar uning istiqboliga chiqadilar. Bu voqea hijriy 903 yilning rabbiul avvali oxirlarida (1497 yil noyabr) yuz beradi.

Bobur Samarqandda ko'p bo'lganidan ulug' bobosining bu shahrini yaxshi bilardi. Bir kelganida amakisi Sulton Ahmadning-Oysha Sultonbegim degan qizini «beshikkerti» qilishgan edi. O'shanda Bobur besh yoshda edi. So'nggi kelishida mashhur shoirlar Kamoliddin Binoiy va Muhammad Solihni Sulton Alining elchilari xizmatida kurgan edi. Navoiy bilan Binoiy munosabatlari haqida xilma-xil latifalar to'qilgan. Binoiy keyinroq Bobur huzurida martaba ham toddi. Biroq, Muhammad Solihni boshqa ko'rmadi.

15 yoshida buyuk poytaxtni egallagan Boburning xursandchiligi uzoq davom etmadi. Azim shahar bosqin va talonlardan nochor holga tushgan, elning sabru bardoshi tugagan edi.

Bobur askarlarining g'izo-ozig'i tamom bo'ldi. Tanqislik uylarini sog'inish boshlandi. Bitta-ikkita bo'lib qochishga tushdilar. Bobur bilan birga borgan Sulton Ahmad Tanbal ham qochdi. Axsida qoldirilgan Uzun Hasan hiyonat qildi. Ikki bek bir bo'lib, Boburning ukasi Jahongir Mirzoni Andijonga hokim qilmoqchi bo'ldilar. Andijon qamal qilindi. Bu xabar shu kunlarda betob bo'lib qolgan yosh hukmdorni qayg'uga soldi. «To'rt kungacha tilim tutildi, og'zimg'a paxta bila suv tomizurlar erdi», deb yozadi Bobur.

Yuzinchi kun Samarqandni tashlab chiqishga majbur bo'ladilar. Rajab oyining bir shanbasi (1498 yil fevral, mart oylari) Andijonga qarab yo'l oladilar. Keyingi shanbada Xo'jandga yetib keladilar. Andijondan kelgan chopar esa, bir hafta burun, Bobur Samarqanddan chiqqan kuni shaharni ishonib qoldirgan Ali Do'st Tag'oyi xiyonatchilarga topshirgani xabarini keltiradi. Andijonni yana qo'lga olish maqsadida qilingan xatti-harakatlar, Toshkentga borib tog'asidan yordam kutishlar natija bermaydi. Ko'ch-ko'ronlari Andijonda qolgan yigitlar umidsizlikka tushib, Boburdan ajrala boshlaydilar. Mingga yaqin kishidan ikki yuzdan sal ko'p odam qoladi. Boburning onasi qutlug' Nigorxonim o'g'li bilan birga qolgan yaqin beklarning ichkilari bilan Xo'jandga yetib keladi. Og'ir kunlar boshlanadi. Anidjon qo'ldan ketgan, Samarqand tashlab chiqilgan, Bobur ishongan beklari xiyonat qilishmoqda edi. qishni Samarqand atrofidagi qishloqlardan birida o'tkazib, yozda uni olishga bo'lgan urinishlar bekor ketadi. Andijon safari ham muvaffaqiyatsiz tugaydi. Shunday sargardon kunlarning birida O'ratepa atrofida andijonlik Ali Dust Tag'oyining tavba-tazarrusini olib kelgan navkar paydo buladi.

Ali Do'st Tag'oyi Bobur Mirzo uning gunohini kechira olsa, ixtiyoridagi Marg'ilonni topshirib, xizmatini qilish istagini bildirgan edi. Shu tariqa, Bobur 904 yilning zulqa'da (1499 yil iyun-iyul) oyida salkam ikki yildan keyin Andijonga qaytib,

qo'ldan chiqqan yurtini qayta egallashga muvaffaq bo'ldi. Biroq Ahmad Tanbal bilan chakana janglar uzoq davom etdi. Ahmad Tanbal atrofiga odam to'plab, Boburning ukasi Jahongir Mirzoni xon ko'tarish bahonasi bilan urushni davom ettiraverdi. Oxir-oqibat sulhga kelishildi. Sirdaryoning Axsi taraf viloyatlari Jahongir Mirzoga, Andijon tomoni Boburga bo'ysunadigan bo'ldi.

1500 yilda Oysha Sultonbegim Xo'jandga keladi. Bobur uni to'y qilib, nikohiga oladi. Shu yildan Boburning she'r mashq qila boshlagani ma'lum. Dastlabki she'rlari fors tilmda edi. Boburni saltanat uchun kurash yana o'z bag'riga oladi. Samarqandda Sulton Ali Mirzo bilan Muhammad Mazid Tarxon boshliq beklar orasida ixtilof chiqadi. Turkistondagi o'zbeklar xoni Shayboniyxon Buxoro va uning atroflarini egallab, Samarqandga tahdid solib kelar edi. Sulton Ali Boburga murojaat qiladi. Bobur shoshilinch Samarkand tomonga yuradi. Sangzor bo'yiga yetganda, shahar Xoja Yahyo qo'lida ekani ma'lum bo'ladi va u Samarqandni Boburga jangsiz topshiradi. Chopar Shayboniyxonning katta kuch bilan Samarqandga yo'l olgani haqida xabar keltiradi. Bobur kuch to'plash uchun Shaxrisabzga jo'naydi. Hafta o'n kun o'tmay, Shayboniyxon Samarqandni qo'lga kiritadi. Ma'lum bo'lishicha, Sulton Ali Mirzoning onasi Zuhrabegim Shayboniyxonga oshiqona xat yozib, unga uylansa, Samarqandni o'g'lidan olib berajagini bildirgan ekan. Shayboniyxon bundan ustalik.bilan foydalanadi. Shaharni jangsiz oladi. Zuhrabegimni navkarlaridan biriga in'om kilib yuboradi. Sulton Alini gumdon qidadi. Xoja Yahyoni ham ikki o'g'li bilan o'ldirib yuboradi.

Samarqdnd qo'ldan ketgach, 240 yigiti bilan yurish-turish joyi noma'lum qolgan Bobur bir muddat Kesh-Hisor oralig'ida sarson kezadi. Axiyri, tavakkal qilib, Samarqandga kirishga ahd qiladi. Kech kuz kunlarining birida Boburning 70-80 yigiti tun yarmidan oshganda qal'aga narvon qo'yib Feruza darvozasini ishg'ol etadilar. Tong otmay, Bobur shaharga kirib keladi. Shahar xalqi uni olqish bilan kutib oladi. Ikki da'vogar Ohanin darvozasi (hozirgi shahar bozori oldi) yonida yuzma-yuz bo'ladilar. Vaziyatnnig Bobur foydasiga ko'chganini sezgan Shayboniyxon shaharni

tashlab chiqib ketadi. Shu tariqa 19 yoshida Bobur yetti mingga yaqin qo'shinga ega bo'lgan tajribali podshoh Shayboniyxon qo'lidan Samarqandni, bor-yo'g'i 240 kishisi bilan tortib oladi. Temuriylarning salkam 140 yildan buyon poytaxti bo'lib kelgan shaharni Bobur ushbu sulolaning vakili sifatida saqlab qoladi. Shuning uchun ham u nihoyatda shod edi, Darhol onasi va qarindoshlarini Samarqandga keltiradi. Xudo unga Faxrunniso ismli qiz beradi. Alisher Navoiydan xat oladi. Darhol unga javob yozadi. Orqasiga she'r bitib yuboradi. Shayboniyga mulozimlik qilib yurgan Kamoliddin Binoiy Bobur xizmatiga keladi.

Afsuski, xursandchiliklar uzoq cho'zilmaydi. Faxrunniso chillasi chiqmay qazo qiladi. Shayboniy qo'shini bilan to'qnashuv tobora yaqinlashar, yon-atrof temuriy beklardan yordam ko'rinmasdi. Tog'asi tomonidan kelgan mo'g'ul askarlariga ishonch yo'q edi. Nihoyat, Saripulda jang bo'ldi. Tengsiz olishuvda Bobur yengilib, Samarqandga qochib bekindi. qamal boshlandi. Bobur Ulug'bek madrasasi tomiga oq uy tikib, qo'rg'on devori ustida yurib, shahar mudofaasini tashkil qildi.

Bobur Qabulni olgach, bobolari temuriylar rusumini o'zgartiradi, o'zini xon emas, shoh deb e'lon qiladi va Hindistonni egallash rejasini tuza boshlaydi. Bu boradagi birinchi harakat 1507 yilning yanvariga to'g'ri keladi.

1507 yilda temuriylarning ikkinchi poytaxti, Xurosonning markazi Hirot ham Shayboniyxon qo'liga o'tadi. Bu hol Boburning Hindistonga ishtiyoqini yanada kuchaytiradi. Shunga qaramasdan, u Hindistonni 1526 yildagina olishga muvaffaq bo'ldi.

O'sha yili 21 aprelda Panipatda Boburning 12 ming kishilik qo'shini Hind sultoni Ibrohim Lo'diyning 100 ming kishilik askari bilan to'qnashadi. Sulton Ibrohimda minglab jangovar fillar ham bor edi. Bobur askarlari bir lahza vahima va qo'rquv ichida qoladilar. Bobur qo'shini oldida nutq so'zlaydi, uning ruhini ko'taradi. U qadim turk jang usulidan, buyuk bobosi Temur tajribalaridan mohirona foydalanadi. Ovro'poda yangi joriy bo'layotgan poroxli zambaraklarni ishga soladi va yengadi. Shu tariqa Hindistonda Bobur nomi bilan bog'langan yangi mustahkam bir davlat

maydonga keladi. Ovro'poda u «Buyuk mo'g'ul imperiyasi» nomi bilan shuhrat topadi. Bobur avlodlari XIX asrning o'rtalari inglizlar istilosiga qadar Hindistonda hokimiyatni boshqardilar.

Hindiston katta-kichik hokimlar rojalardan, turli din va mazhabga mansub millat-elatlardan tarkib topgan ulkan mamlakat edi. Bobur u yerdagi din-mazhab janjallarining oldini olishga, mamlakatda osoyishtalik va adolatni qaror toptirishga urindi. Ddolatli qonunlar chiqardi, g'ayridinlik solig'i (juz'ya)ni bekor qildi, vafot etgan erni tirik xotini bilan birga kuydirishni taqiqladi. Mamlakatda obodonlik ishlarini yo'lga quydi. Kanallar qazdirdi, binolar qurdirdi. Atrofiga olimu fozillarni to'pladi. O'zi borgan mamlakatining tarixi, ilm-fani, urf-udumlariga katta hurmat bilan qaradi, mahalliy aholi vakillari bilan maslahatlashib ish yuritdi.

Bobur bog'lar bino qildi, Movarounnahrning shirin-sharbat mevalarini Hind yerida ekib, undirdi.

Lekin jangu jadallar, saltanat tashvishlari, ayniqsa, Vatan sog'inchi nozik qalb egasi bo'lgan shoirning sog'lig'iga salbiy ta'sir qildi. Avvalo, begona bir yurtni zabt etish hech qachon oson kechmagan. Bobur bu boradagi mavjud tartib-qoidalariga binoan, o'rni kelganda, qattiqqo'llik bilan saltanat qurgan. Bular bejiz ketmadi. 1526 yilning 21 dekabrida Bobur dushmanlari tomonidan zag'arlanib, tasodif tufayligina omon qoladi. Keyin tarqoq hind va afg'on feodallarining Rano Sango boshchiligidagi ko'p sonli qo'shini bilan yuzma-yuz bo'ladi. Bu gal ham Boburning qo'li baland keladi.

Biroq Boburning sog'lig'i yomonlashib boradi. 1527 yilning 13 oktabrida og'ir yotib qoladi.

Ushbu davrda:

Jismimda isitma kunda mahkam bo'ladur,
Ko'zdin o'chadur uyqu, chu oqshom bo'ladur.
Har ikkalasi g'amim bila sabrimdek,
Borg'on sayi bu ortadur, ul kam bo'ladur,

deb yozadi shoir.

Isitma g'am, uyqu - sabr. Isitma kuchaygandan kuchayadi, uyqu tutqich bermaydi, g'am tobora ortib boradi, sabr esa kamaygandan kamayib boradi. Bu axvol 25-26 kun davom etadi. Tashvish izidan tashvish keladi. Boburning to'ng'ich o'g'li Muhammad Humoyun og'ir kasal bo'lib qoladi. Dori-darmonlar foyda bermaydi. Mehribon ota o'g'li boshidan uch marta aylanib, «Men ko'tardim har ne darding bor!» deya o'zini tasadduq qiladi.

Bobur 1530 yilning 26 dekabrida Agrada vafot etadi. Keyin uning xoki vasiyatiga muvofiq Kobulga ko'chiriladi. Bobur xalqimizning har jihatdan yetuk, g'oyat iste'dodli bir farzandi edi. «Bobur fe'li- sajiyasiga ko'ra Sezarga qaraganda sevishga arzigulikdur»,- deb yozadi uning tarjimonlaridan Eduard Xolden.

U o'ta notinch, sarson-sargardonlikda kechgan umrini zo'r salohiyati tufayli jozibali qila oldi. Uning hayoti faqat qahramonliklar ila emas, ijodkorlik, bunyodkorlik bilan ham to'la edi. U 20 yoshida yangi bir yozuv «Xatti Boburiy»ni kashf qildi. Ajoyib she'rlar yozdi, devon tartib qildi. «Boburnoma»day ulkan tarixiy-badiiy asarni yaratdi. Musiqa bilan shug'ullandi. «Chorgoh» maqomiga «savt» lar bitdi. 1521 yilda soliq ishlarini tartibga soluvchi «Mubayyin al-zakot» (Zakot bayoni) asarini she'riy yo'lda yozdi. 1523-1525 yillarda aruz vazni haqida risola tuzdi. «Muxtasar» (qisqa qo'llanma) nomi bilan shuhrat topgan bu asar Alisher Navoiining «Mezon ul-avzon»idan keyin aruz ilmiga bag'ishlangan ikkinchi asar edi. Boburning «Harb ishi», «Musiqa ilmi» nomli asarlari hozirgacha topilgan emas. U tarjima bilan ham shug'ullandi. Xo'ja Ahrorning «Volidiya» asarini o'zbekchaga ag'dardi.

Bobur ikki tilda o'zbek va tojik tillarida erkin ijod etdi. U o'zbekcha she'rlarini to'plab, 1519 yilda Kobulda, 1528- 1529 yilda Hindistonda devonlar tuzdi. Bu ikki devon o'sha joylar nomlari bilan «Qobul devoni», «Hind devoni» deb ataladi. Qobul devoni topilgan emas. Bizgacha yetib kelgan she'rlarining umumiy soni 400 dan ortadi. Shundan 119 tasi g'azal, 231 tasi ruboyi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.R.Sharma. Boburiylar saltanati (Ingliz tilidan G‘.Sotimov tar.).. -T.: 1999.

2.V.Zohidov. Bobirning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida. Kitobda: Bobir. Bobirnoma. -T.:1960;

3.H.Qudratullaev. Boburning adabiy-estetik qarashlari. -T.: Fan, 1983;

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR— LIRIK QAHRAMON

Muxammadsodiq Lapasov Akramjon o‘g‘li
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Islomshunoslik yo‘nalishi 2 –bosqichi talabasi

Annotatsiya: *Bobur o‘zining ma’lum va mashhur asarlari bilan tarixnavis adib, lirik shoir va ijgimoiy masalalar yechimiga o‘z hissasini qo‘shgan olim sifatida xalqimiz ma’naviy madaniyati tarixida munosib o‘rin egallaydi.*

Kalit so'zlar: *mafkura, fan va texnika, lirika, tarixiy shaxs, She’riyat, Lirik obraz, lirik qahramon, so‘z erkinligi*

Аннотация: *Бабур занимает достойное место в истории духовной культуры нашего народа как историк, лирик и ученый, внесший вклад в решение социальных проблем своими известными и популярными произведениями.*

Ключевые слова: *идеология, наука и техника, лирика, историческая личность, поэзия, лирический образ, лирический герой, свобода слова*

Annotation: *Babur has a worthy place in the history of the spiritual culture of our people as a historian, lyric poet and scholar who has contributed to the solution of social problems with his well-known and popular works.*

Keywords: *ideology, science and technology, lyrics, historical figure, poetry, lyrical image, lyrical hero, freedom of speech*

Milliy o’zlikni anglash porloq kelajak qurishga poydevordir. Birinchi Prezidentimiz aytganlaridek, “Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q”. O’z tarixini unutish kishini ma’naviy manqurtga aylantiradi. “Kecha kim edigu, bugun kim bo’ldik,” - degan savol har bir o’zbekning hayolidan bot-bot o’taverishi kerak deb o’ylayman. Kechagi kun o’tib ketdi, ammo ertamiz porloq bo’lishi uchun biz bugun nimadir qilishimiz kerak. Ayni shu jarayonda biz o’tmishimizni yodga olamiz. Axir o‘zbek

xalqi o‘tmishi bilan, buyuk siymolari bilan, ular yaratgan shoh asarlar bilan har qancha faxrlansa arziydi. Har bir davr ertangi kunni yaratishda tarix saboqlariga tayanadi. O‘zbek xalqi azaliy orzusi istiqlolga erishgunga qadar ne-ne qora kunlarni boshdan o‘tkazmsadi. Shunday davrlar o‘tdiki, kuch-qudrati, ilm-ma’rifati, aql-u zakovati bilan olam ahlini lol etgan daholarimizga johil, xudosiz deya tuhmatlar yog‘dirildi. Bir so‘z bilan aytganda tariximizga qora libos kiydirildi. Eng achinarli tomoni shundaki, “besavod” olomon mana shunday yolg‘on siyosat izmiga yurdi. Shundan vaziyatda o‘zlarini el-yurt oldida burchliman degan erksevar yozuvchi-shoirlarimiz yuqorida ta’kidlaganimiz, tarixga murojaat qildilar. Hazrat Navoiy, Ulug’bek, Ibn Sino, shoh va shoir Bobur mirzolarning g‘avg‘olarga to‘la, ammo ibratli bo‘lgan hayot va ijod yo‘llaridan hikoya qiluvchi asarlar yaratildi. Ammo bu asarlar hukmron mafkura tazyiqi ostida yaratilgani ushbu asarlarning ayrim o‘rinlarida ko‘zga yaqqol tashlanadi. Ko‘plab asarlarimizda tarixiy haqiqat buzib ko‘rsatilgan, ammo bu asarlarning nashrdan chiqishi uchun yolg‘on tarix to‘qilishi shart edi. Millatimiz istiqlolga erishgach jamiyatning turli sohalarida, shu jumladan, badiiy adabiyotimizda tub o‘zgarishlar davri boshlandi. Avvalo so‘z erkinligi yozuvchi-shoirlarimizga tarixni ro‘y-rost tasvirlash imkonini berdi. Ushbu bitiruv malakaviy ishimda xalqimiz tarixida, mumtoz adabiyotimizda zalvorli o‘rin tutgan Andijonimiz farzandi bo’lgan Zahiriddin Muhammad Boburning hozirgi zamon shoirlari ijodida yaratilgan obrazlari xususida fikr yuritmoqchiman.

Har bir yangi davr bosib o‘tilgan yo‘l – moziyni anglash ehtiyojini paydo qiladi, chunki bugun va ertaning ildizlari hamisha kechaning bag‘rida qoimdir. So‘ngi asrlar mobaynidagi fan va texnika yutuqlari natijasida hayotning anchayin turg‘un va o‘ta sekin maromi shiddatli tus oldi. Va inson o‘zgardi: uning tushunchalari, dunyoqarashi, qadriyatlari yangilandi. Albatta, bu yangilanishlar o‘z navbatida adabiyotga ta’sirlarini o‘tkazdi. Inson degan hilqatning yangi- yangi qirralari asta namoyon bo‘lish bilan birga ruhiy dunyosini ham o‘rganib bordi. She’riyatimizda Hazrati insonning murakkab shuurini ifoda etuvchi beqiyos usullar ham ko`zga tashlana boshladi. Bugungi kunda o‘zbek she’riyatining o‘ziga xos

qarashlari, yo‘nalishlari bor. Bu yo‘nalishlarda yozilayotgan har bir asar yoxud ikki misra she’r, o‘zining tom ma’nodagi muxlisini topib bormoqda.

Istiqlol davriga kelib badiiy estetik tafakkur jahon ahamiyatiga molik bosqichga ko‘tarila boshladi, binobarin, milliy adabiyotimiz o‘zligini anglash yo‘liga tushib oldi, yo‘l ko‘rsatish muayyan bir dastur bo‘lishini nazarda tutmaydi, buni da’vo ham qilmaydi. Zamanaviy asarlar ko‘proq sezish, tuyg‘u hosil qilishga yo‘naltirilgan bo‘lib asosan o‘quvchida munosabat va kayfiyat uyg‘otadi. O‘zbek she’riyatining ma’naviy miqyosi, badiiy salohiyati o‘zining taraqqiyotida davom etmoqda. Shu o‘rinda hozirgi o‘zbek adabiyotida lirika alohida o‘zining o‘rniga ega. U zamonamiz kishilarining qalbida kechayotgan his- tuyg‘ularni o‘zida aks ettirish barobarida jamiyatimizning har bir a’zosida mustaqillikka shukronalar keltirish, porloq kelajakka bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan zamonaviy o‘zbek she’riyati yangi obrazlar bilan boyidi. Lirik obraz she’riyatning qalbi, uning dardi va davosidir. Bu dardni va shu dard davosini anglamasdan turib biron bir fikr bildirish yoki she’riyatning falsafiy mazmunini anglash bizningcha xato fikrdir. Badiiy adabiyotda obrazning tutgan o‘rni muhim hisoblanadi. Ma’lumki, lirikada voqelik tasvirlanmaydi, uning uchun voqelik lirik subyekt ruhiy kechinmalarining asosi, ularga turtki beradigan omil sifatidagina ahamiyatlidir. Lirik qahramon lirikadagi subyekt ko’rinishlaridan biri bo’lib, muallifning qalb kechinmalarini, o‘y-tuyg‘ularini ifodalash shaklidir. Lirik qahramon ko‘plab o‘quvchilar nazdida shoirning o‘zi. Ammo bu yanglish xulosadir. Bu masala adabiyotshunosligimizda hanuzgacha baxslidir. Lirik qahramon va shoir bitta inson emas, ammo lirik qahramon shoir shaxsi bilan bog‘liqlikda idrok etiladi. To‘g‘ri, zamonaviy she’riyatda an’analarni butunlay inkor etib, yangicha she’riyat da’vosi bilan chiqayotganlar ham yo’q emas. Biroq an’analarni davom ettirib, o‘zidan avvalgi shoirlar ijodiga yuzlanayotgan, tarixiy shaxslar obrazi orqali bugunini mushohada qilayotgan ijodkorlar ham talaygina. Tarixiy shaxsni lirik qahramon etib tanlagan ijodkor tarixiy shaxs ruhiga kirib, uning tilidan gapirib, moziyni jonlantirish orqli bugunning dolzarb muammolarini tadqiq etadi, bu muammolarni bartaraf etish chora-

tadbirlarini o‘tmishdan qidiradi. Tariximizning muhim nuqtalarida o‘zining yuksak iste’dodi-yu salohiyati bilan xalqimiz ong-u shuurida o‘chmas iz qoldirgan tarixiy qahramon bu jarayonda bugungi kun ijodkoriga ko‘maklashadi. Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon, Muhammad Ali, Muhammad Yusuf, Xurshid Davron kabi ko‘plab shoirlarimiz ijodida tarixiy shaxslar haqida yaratilgan yorqin ijod namunalarini uchratishimiz mumkin. Har bir ijodkor qanday mavzuda yozmasin o‘z dunyoqarashini va uslubini ifodalashga intiladi. Shuning uchun ham biz yuqorida sanagan ijodkorlarning she’rlari bir-biriga o‘xshamagan, betakror, qayta-qayta o’qisangiz ham estetik zavq bera oladigan asarlardir.

Insoniyat qalbida hamisha ruhiy ozuqaga ehtiyoj seziladi. U o‘z qalbini tiklash, tafakkurini kamolotga yetkazish uchun kuch-quvvat manbalarini izlaydi. Tarix, xotira ana shunday qudratli manba sarchashmasi hisoblanadi. Kishi faqat ma’lumot olish uchungina tarixni o‘qimaydi. Bu unga o‘tmish haqida tasavvurga ega bo‘lish va xulosalar chiqarish uchun ham zarurdir. Istiqlol tufayli Vatan, ajdodlar, o’tmish, qadriyat va meros haqida baralla so‘zlash imkoniyati tug‘ildi. Adabiyot tarixga katta umr beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Shu tinch jamiyatda tarixga qiziqish uyg‘otish, xalqni o‘zligini anglashga urinish mas’uliyatini ham adabiyot birinchilardan bo‘lib o‘z zimmasiga oladi. She’riyatga tarixiy shaxslar kirib kelib, kitobxon ko‘z o‘ngida buyuk ajdodlarimizning qiyofasi gavdalandi. Shoirlar ijodidagi tarixiy mavzuni o‘rganish, tadqiq etish va baholash bugungi adabiyothsunoslik ilmi zimmasidagi dolzarb vazifalardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиети тарихи. - Т.: Ўқитувчи, 1976.
2. Normatov U. Ijod sehri. – T.: Sharq, 2007.
3. Quronov.D, Mamajonov.Z, Sheraliyeva.M. Adabiyotshunoslik lug’ati. –T.: Akademnashr, 2010.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR IS GREAT COMMANDER AND POET

Davlatova Sevara
Student of the National University of Uzbekistan named after Mirza Ulugbek

Annotation:This article gives information about the work,life and military campaigns of Zahiriddin Muhammad Babur.Article involves his political skills in public erection and administration process in Movorounnahr as well as scientific and artistic legacy of Zahiddin Muhammad Babur.
Key words:Zahiriddin Muhammad Babur,commander, Shaibanikhan,poet, books,lyrical works,Boburnoma, after the independence.

Zahiriddin Muhammad Babur played an essential role in medieval Eastern culture, poetry and literature with his broad outlook and excellent intellect.Babur was not only commander but also writer,scholar,poet and statesman.He made a crucial contribution to the development of world science and art.Because of his courageous,justness and having an extensive outlook Babur created a huge dynasty in India which is called “Baburies”.

The great poet and talented military was born in 1483 in Andijan. After an unexpected death of his father Babur became the ruler of Ferghana. In his life he came across different wars and tried to protect and develop his motherland from enemies ,especially Shaibanikhan.For the throne of Andijan he had to fight against his brother Jahongir Mirzo, his uncle Sultan Ahmad Mirzo, his uncle Sultan Mahmudkhan and other rivals.After a longlasted wars and revolts which lasted for several years, yielded nothing but massacres: Shaibanikhan, who had mixed with a large military force, won, and Babur was forced to leave Samarkand. After Shaibanikhan's conquest of Andijan in 1504, Babur moved south and established his rule in the Kabul nation. Between 1505 and 1515, he made several attempts to return to Central Asia. But these attempts did not profit any results. Later, in order to consolidate his position, he fought several battles for the conquest of India between 1519 and 1525. In April 1526, Babur won the battles with the Indian Sultan Ibrahim Lodi in Panipat and in March 1527 with the governor of Chitora, Rano Sango.In India, as in Afghanistan, Babur has stepped up a lot of social assistance, which has a vital impact on the country's development. He put an end to fragmentation and internal strife, unified the provinces, focused on the quality of the centralized state

and the beautification of the country, the development of science as well as agriculture. In addition to large-scale government work in India, Babur continued his literary work and created the above-mentioned works. Bobur's world-famous masterpiece is the Boburnoma. It is known that it covers the history of the peoples of Movarounnahr, Khorasan, Iran and India during the period of Babur's life. The work consists of three main parts: the first part is about the events in Central Asia in the middle of the 15th century, the first part is about the events of the end of the 15th century and the first half of the 16th century in Kabul, Afghanistan; One hundred pages are devoted to the history of the peoples of Northern India in the first quarter of the 16th century. The Boburnoma describes the political and economic situation in the Fergana region, its capital Andijan, the major cities of Central Asia: Samarkand, Bukhara, Karshi, Shakhrisabz, Osh, Urgench, Uratepa, Termez and other cities. extremely rare data. It contains information about the major cities of the Kabul nation, Kabul, Ghazna, and many of their districts, provinces, and northern India. When we turn the pages of the Boburnoma, we can see the qualities and shortcomings of the peoples of Central Asia, Afghanistan and India, as well as the breadth and complexity of their world of thought, the problems of life at that time, the political and social life of Babur. This type of information in the Boburnama is not so clear and complete in the works of other historical sources written during the reign of Babur: Mirkhand, Khandamir, Muhammad Salih, Binoi, Muhammad Haydar, Farishta, Abul-Fazl Allami and other historians. In "Boburnoma" the author expresses his highest opinions and comments about Alisher Navoi, Abdurahmon Jami, Behzod, Ulugbek Mirzo and other scholars. Although it reflects the history of the peoples of Movarounnahr, Khorasan, India, and Iran at the end of the 15th century and the first half of the 16th century, there are also many current economic and social issues, as well as political, economic, and trade relations between the above-mentioned regions. The king's masterpiece contains very rare information about the location, climate, flora and fauna, mountains, rivers, peoples, tribes and peoples and their living conditions, customs, important historical buildings, Hindu and Muslim temples, weddings and funerals. That is why "Boburnoma" as a historical and literary heritage amazes scientists around the world. For many years, prominent orientalists of the West and the East have worked hard to bring the content of the Boburnoma to the world community. For example, the Dutch scientist Witsen, the British scientists J. Leiden, V. Zrskin, R. Koldekot, A. Beverej, T. Albot, the German Yu. Kleinrat and A. Keyzer, Pave de Courteil of France, Mirzo Nasriddin Haydar Rizvi of India, R. R. Art and N. I. Bayur of Turkey and Bakke Gromon of France, Abulhay Habibi of Afghanistan, Rashid Akhtar of Pakistan, Nadvi and Shah Alam Mawlid. Japanese scholars are among the world's leading orientalists in the study of the Boburnoma.

Babur, who was well acquainted with the literature and history of the past, music and art, and devoted himself to religious teachings, has always been in the circle of scholars and scholars, especially in the field of creativity, patronage and respect for professionals. did, encouraging them materially and spiritually. This kind attitude to the people of art and creativity has never been in vain. Bobur was creative by nature. From his youth to the end of his life, he was engaged in productive creative work, never ceasing to create under any circumstances, and as a result, left a rich scientific and literary heritage, which is important in all respects.Babur is also known in Uzbek literature for his graceful lyrical works. At the same time, in Babur's lyrics, the human qualities, which are the main content of the poem, are very beautifully and skillfully expressed. In his lyrical poems, Babur always called people to goodness, justice, humanity, and the appreciation of high human feelings. In addition to his lyrical poems and historical "Boburnoma", Babur also wrote works in Islamic jurisprudence and other fields. In 1522 he wrote to his son Humayun. In his book Mubayyin, he describes the tax system of the time, the rules of tax collection, how much tax is collected from whom according to the Shari'a, and other issues. In his pamphlet Khatti Baburi, he tried to simplify the Arabic alphabet from the point of view of Turkic languages, especially Uzbek. As an experiment, he copied the Qur'an in the Hatti Baburi alphabet. Bobur's dream is about weight and rhyme. It is known that there was a work called "Mufassal", but this work has survived.

Babur has a worthy place in the history of the spiritual culture of our people as a historian, lyric poet and scholar who has contributed to the solution of social problems with his well-known and popular works. After the independence of Uzbekistan, Babur found real dignity in his country.The 510th anniversary of Babur's birth was celebrated in 1993. Andijan has a university, a theater, a library and a national park named after Bobur ("Bobur's Garden"). The Babur National Park Complex, the Museum of Babur and World Culture, and the symbolic tomb of the poet have been built. A statue of the poet was erected in the city center (author Ravshan Mirtojiev) and in the memorial complex in Bobur Park (author Kadyrjon Salohiddinov). One of the central streets in Andijan, as well as a park and a street in Tashkent, and a park in the city of Khanabad, Andijan region, were named after Babur. The Bobur Medal of the Academy of Sciences of Uzbekistan has been established. Orientalist Ubaydulla Karimov became the first winner of this medal. The International Bobur Foundation (1993.23.12.12), headed by Andijan naturalist Zokirjon Mashrabov, has done a great job in studying Babur's work. The Foundation's scientific expedition has traveled more than 200,000 km by car, covering more than 200,000 kilometers in more than 10 Eastern countries. entered the property. On the basis of this information more than 10 scientific, documentary,

artistic works (Z. Mashrabov, S. Shokarimov: "Bobur for centuries"; S. Jalilov: "Bobur's Fergana state", "Bobur and Andijan"; Kenja: "Hind soriga"; H. Sultanov: "Bobur's dreams", "Boburiynoma"; close documentaries, video films (F. Rasulov: "In the footsteps of Bobur", "Holy shrines"; T. Ruziev: "Salutations of Bobur", "International Scientific Expedition named after Bobur"; T. Hamidov: "Pride", etc.). The Fund has branches in Lahore (Pakistan), Hyderabad (India), Abu Dhabi (United Arab Emirates), Moscow (Russia), Osh (Kyrgyzstan), Tashkent and Namangan (Uzbekistan).

Independence gave us unlimited opportunities to explore deeper and fuller precious facets of Zahiriddin Muhammad Babur’s creativity, to make his heritage a property of the international community.

References:

1. Adizova I. History of Uzbek classical literature. (I half of XVI-XIX centuries) - Tashkent, Science, 2006.
-240 p.
2. https://www.un.int/uzbekistan/news/zakhiriddin-muhammad-babur

3. https://tafakkur.net/zahiriddin-muhammad-bobur.haqida
4. https://conferencepublication.com

АЛИШЕР НАВОИЙ ВА ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУРНИНГ АСАРЛАРИДА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯГА ОИД ҚАРАШЛАР

Рахматуллаева Гавҳар Илҳомовна

Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳузуридаги “Маънавият ва маърифат маркази” мутахассиси

Аннотация. Мақолада Алишер Навоий ва Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг инсон камолотига бағишланган ва панднасиҳатларга бой дидактик асарлар хус усидаги ёндашувлари тадқиқ этилган.

Шунингдек, мақолада ўзбек мумтоз адабиёти тарихидаги икки буюк сиймо – Алишер Навоий ҳамда Заҳириддин Муҳаммад Бобур ижодини ўрганиш орқали чинакам инсон ҳаёти ва комил инсон қандай бўлиши кераклиги ҳақида етарлича маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: *Ҳазажи мусаммани маҳзуф, ҳазажи мусаммани маҳзуфи мақсур, мафоийлун, фаувлун, аризи мусаммани солим.*

Ўзбек мумтоз адабиёти тарихидаги икки буюк сиймо – Алишер Навоий ҳамда Заҳириддин Муҳаммад Бобур ижодини ўрганиш орқали чинакам инсон ҳаёти қандай бўлиши кераклиги ҳақида етарлича тасаввурга эга бўлиш мумкин.

Давлатимиз раҳбарининг 2020 йил 19 октябрда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Буюк шоир ва мутафаккир Алишер Навоий таваллудининг 580 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида”ги қарори қабул қилингани айни дамда шоир илмий ва ижодий меросини янада чуқур ўрганиш ва оммалаштириш, асарларини нашр қилишда муҳим ҳужжатдир. Ўтган қисқа вақт ичида бу йўналишда бир қатор ишлар амалга оширилди. Жумладан, Алишер Навоий орденини таъсис этилгани мамлакатимизда Учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этишда мутафаккир шоирнинг ўлмас меросига қай

даражада юксак эътибор қаратилаётганининг яққол далили бўлди. Айниқса, юртимизда Алишер Навоий номидаги халқаро жамоат фонди ташкил этилгани – бу улуғ зот қолдирган маънавий хазинани мамлакатимиз ва халқаро миқёсда кенг ўрганиш ҳамда тарғиб қилишда улкан имкониятлар эшигини очди. Ҳозирда фонд, Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси ва аъзолари томонидан Алишер Навоий асарларини чет тилларга ўгирилмоқда ва навоийшунослик соҳасида хорижий тилларда яратилган асарлар ўзбек тилига таржима қилинмоқда, шоир ҳаёти ва ижодига бағишланган илмий, бадиий асарлар ёзилмоқда. Навоий арузи бўйича чуқур изланишлар олиб борган олимларимиз С. Мирзаев ва А. Ҳожиаҳмедов бу вазнни *ҳазажи мусаммани маҳзуф* ёки *ҳазажи мусаммани маҳзуфи мақсур* деб аташган [1].

Шарқ мутафаккирлари томонидан инсон камолотига бағишланган ва панд насихатларга бой дидактик асарлар яратилган. «Махобхорат», «Халила ва Дим на», «Кобуснома», «Кутадгу билиг», «Махзанул асрор», «Матлаул анвор», «Ах локи Мухсиний» ана шулар жумласидандир.

Ана шу анъанага кўра яратилган«Махбубул кулуб» асарида Навоий уз замо насидаги баркамол инсонга хос фазилатларни акс эттирган.

У 39 хил ижтимоий гурухга мансуб кишиларнинг ахлоқ одоби ҳақида сўз ю ритган. Лекин бирор гурухни бошқасидан ортиқ деб ҳисобламаган.

Тарихчи олим Мирхонд «Равзатус сафо» номли асарини ёзишга киришар эк ан, Навоий унга «асарингиз шоҳга ҳам, гадога ҳам тушунарли бўлсин», дея мас лаҳат берган.

Навоий «Махбубулқулуб» асарида инсонга хос бўлган юксак фазилатларни нг мақсад ва моҳиятини асослаб берди.

Китобнинг II қисми, яъни «Хамида афъол ва замима хисол хосияти»да қано ат, сабр, одоб иши, каби инсонни руҳий холатига боғлик бўлган иродавий си фатларнинг моҳиятини очган.

Қаноат чашмадурким, суви олмоқ била курмас.

Қаноат қилган одамни кунгли очиқ,

Кўзи равшан бўлиб, обру-эътиборга сазовордир:

Хар кимки каноат тарафи нисбати бор,

Барча эл аро тавозуу иззати бор,

Улким тамау хирс бирла улфати бор,

Яхшиёмон ичра заллату накбати бор.

Қаноатга куч бағишловчи юксак инсоний фазилат сабрдир.

Сабр қилиш инсонни муродга етаклайди.

Кимки бир жиддат аро сабру тахаммул айлади,

Бахт анинг нишини нушу хорини гул айлади.

Китобнинг III қисми «Мутафаррика фавойид ва амсол сурати» бир неча тан беҳлар баёнида аҳлоқий сифатлар саодатмандлик худписандлик, такаббур, эхсо н, мурувват, вафо, чин суз, нодонлик ва бошка инсонлар табиатида учрайдиган сифатлар мохияти асослаб берилади.

Вафо зайлида ва ҳаё зикридаги 17 танбехда шундай дейилади:

Кагам ва мурувват ота ва онадурлар,

Вафо ва хаё ики хамзод фарзанд.

Хар неча ул иковга нур Била сародур.

Ву иковга иттисол била пайванд хар кунгулниким, вафо маскан килур, хаё хм килур ва хар маскандаким, ул топилур бу хам топилур.

Вафосизда хаё йуқ, хаёсизда вафо йук.

Дар кимда бу ики йук — имон йук ва хар кимда имон йук — андин одамийлик келмак имони йук.

Навоий инсоннинг сифатларини бири-бири билан нақадар туташганини кўрсатиб имони бор инсонда ҳамма юксак фа зилатлар бўлмоғи лозим деб ҳисоблади.Навоий мактабдорлик ёки мударислик қилмаган бўлса хам таълим ва тарбия борасида жуда катта ишларни амалга ош ирган. У жуда кўп фозил кишиларни тарбиялаб етиштирган.

Машҳур тарихчи Хондамир Навоийнинг ёшларга билим ва тарбия бериш у чун имкониятлар яратгани ҳақида жумладан шундай ёзган: «Атоқли олимлар в

а хурматга лойик санъат аҳлининг даражаларини кўтаришда ва мартабаларини оширишда қўлидан келган қадар ҳаракат қилиб, бундай ишларга катта аҳамият берди. Ўқувчилар факат ўқиш билан машғул булишлари учун уларга нафақала р тайин этиб, мадрасалар бино килди».

Навоий фаннинг турли тармоқларини — адабиёт, тарих, тил билимларинисанъатнинг ҳар хил соҳаларини мусиқа, расм, ҳаттотлик, меъморлик ва ҳкх.ни ривожлантиришга ҳаракат қилиш билан бирга, ана шу соҳаларнинг ижодкорларига ёрдамлашган, қимматли маслаҳатлар берг ан, уларни рағбатлантирган.Навоий илмий ва адабий асарларни яратишда уз да вридаги олимлар, адиблар ва шогирдларига намуна булган. Унинг деярли барч а асарлари тарбиявий-маърифий аҳамиятга эга.

Шоирнинг беш достондан иборат шоҳ асари «Хамса»да инсон камолотинин г барча масалалари қамраб олинган. Хусусан, 2021 йилда шоирнинг “Маҳбуб ул-қулуб” асари Дмитрий Радкевич томонидан белорус тилига таржима қилиниб, Минск шаҳрида, “Маҳбуб ул-қулуб” асари Рамиз Аскер томонидан озарбайжон тилига ўгирилиб, Боку шаҳрида, “Маҳбуб ул-қулуб” асари Ўрозбой Абдураҳмонов томонидан қорақалпоқ тилига таржима қилиниб, нашр этилди. Шунингдек, Қозоғистон давлат мукофоти лауреати Несипбек Айтули Навоийнинг “Лисон ут-тайр” достонини қозоқ тилига ўгирди. “Қаро кўзим” – “Meine schwarzaugige” китоби Ҳуррам Раҳимов томонидан немис тилида, “Назм ул-жавоҳир” асари таржимон Тўхтамурод Тўхтаев томонидан тожик тилида чоп этилди. “Мезон ул-авзон”дан бир оз илгарироқ яратилган Жомийнинг “Рисолаи аруз” асарида ҳам бу баҳр алоҳида келтирилмайди. “Мезон ул-авзон” учун Жомий асарини таянч манба сифатида олган Алишер Навоий устози Жомий изидан бориб, мазкур баҳрга алоҳида тўхталиб ўтмаган[2].

Алишер Навоийнинг “Маҳбуб ул-қулуб”, “Муҳокамат ул-луғатайн” асарлари Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси Баҳодир Қобул томонидан ҳозирги жонли тилимизга ўгирилди. Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси, филология фанлари номзоди Абдумурод Тиловов Алишер Навоийнинг

“Маҳбуб ул-қулуб” асари ўсмир ёшлар ва болалар тушунадиган услубда насрий баёнини тузди. “Сўз чамани” рукнида “Алишер Навоий” ихчам китоби нашр этилди. Шунингдек, уюшма аъзоси, адабиётшунос олим Олимжон Давлатов томонидан Алишер Навоийнинг “Хамса” асарига киритилган достонларининг насрий баёни нашр этилди. Ариз баҳри *мафоийлун* асл рукни ва унинг *фаувлун* тармоғига таркиб жиҳатдан ўхшаш рукнлардан тузилган. Шундан келиб чиқиб, мумтоз арузшуносликда мазкур баҳрга алоҳида баҳр сифатида эмас, балки ҳазаж таркибидаги вазнлардан бири сифатида қараш ҳам мавжуд бўлган[3].

Бугунги кунга қадар юртимиз ва қатор хорижий давлатларда Алишер Навоий ҳаёти ва ижодига бағишланган китоблар чоп этилмоқда. Хусусан, Ўзбекистон халқ ёзувчиси Исажон Султоннинг “Алишер Навоий” романи бунга мисол бўла олади. Ўзбекистон халқ ёзувчиси, Давлат мукофоти лауреати Муҳаммад Али “Навоий ва Бойқаро” номли драматик асарини яратди. Озарбайжон Миллий Фанлар академиясининг Низомий Ганжавий номидаги Адабиёт институти бўлими мудири Алмаз Улви Биннатованинг озар тилидаги “Алишер Навоийнинг асри ва насри” китоби Бокуда нашр қилинди. Китоб тақдимоти Ўзбекистон Республикасининг Озарбайжондаги элчихонаси кўмагида ўтказилди. Лондон шаҳрида инглиз шоири Эндрю Станиланд Алишер Навоий асарларини ўрганиш ва ўзининг шоир асарларидан олган таассуротлари асосида ёзган “Янги девон. Ҳазрат Алишер Навоий” китобини нашр эттирди. Китоб тақдимоти Буюк Британия, АҚШ, Канада ва бошқа мамлакатларнинг маданий, гуманитар, сиёсий, дипломатик ва ишбилармон доиралари иштирокидаги буюк мутафаккир шоир ҳаёти ва ижодига бағишланган онлайн форматдаги тантанали тадбирда ўтказилди. Серикбой Назарули Усенов томонидан “Алишер Навоий. Тандамалы шығармалары” китоби қозоқ тилида чоп этилди. Тўпловчилар – уюшма аъзолари Ошиқ Эркин, Янгибой Қўчқоров томонидан “Алишер Навоий ғазалларига мухаммаслар” китоби нашр этилди. Шунингдек, филология фанлари доктори Нурбой Жабборовнинг “Маоний аҳлининг соҳибқирони” номли Алишер Навоий асарлари ҳақида монографияси

нашрдан чиқди. Таниқли навоийшунос олимлар ва мутахассислар томонидан “Алишер Навоий асарлари изоҳли луғати”, “Алишер Навоий қомуси”, унинг 20 жилдлик мукаммал асарлари тўплами чоп этилди. “Лайли ва Мажнун” достонини марҳум шоир Жонибек Қувноқ томонидан қилинган тожик тилидаги таржима китоби ўқувчиларга тақдим этилди. Навоий ва Бобур ижодини чуқур англаш ҳақида гап борар экан, бу масалага галдаги долзарб масала бу таълим муассасаларида шоирларимиз ҳаёти ва ижодини ёшларга ўқитиш ва XXI аср ахборот асрида қандай бир таъсирчан йўл ва усуллар орқали бўлса-да тарғиб этишга доирдир. Шу пайтга қадар биз буюк аждодларимизни ёшлар қалбига сингдиришда бадиий адабиётларнинг ўрни ва таъсирини катта деб биламиз. Хўш шундай экан бугун Навоий ҳақида ёки Бобур ҳақида (албатта, П.Қодиров, Ҳ.Султонов, Қ.Кенжа, С.Саййид каби адиб ва шоирларимизнинг асарларини айтмаганда) бадиий адабиётларда етарли даражада акс этаяптими? Ойбекнинг “Навоий” романи ёзилганига 80 йил бўлганини ва шу кунларда ниҳоят ёзувчимиз Исажон Султонов томонидан “Алишер Навоий” романи ёзилганини мамнуният билан тилга олсак ва бир иккита шоирларимиз томонидан битилган айрим шеърларни демасак, миллатимиз фахри бўлган Алишер Навоийга бағишланган каттароқ бир асарни айтиш қийин. Навоий ва Бобур ижодини тарғиб этишда яна бир жиҳат, XXI аср – интеллектуал авлод асри, деб аталаётган бир даврда наҳотки интернет имкониятларидан шу йўлда ижобий фойдаланишнинг имкони бўлмаса, шу кунга қадар Алишер Навоий ва Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва ижодини ёритишга ихтисослашган махсус интернет сайтнинг ташкил этилмагани, этилган бўлса-да, кичик доираларда эканлиги, бугун бу борада интернет ва ижтимоий тармоқлардан унумли фойдаланилмаётгани ҳар қанча ўйлашимизга сабаб бўлмайдими?

Жорий йилда, Буюк шоир ва мутафаккир Алишер Навоий таваллудининг 581 йиллиги муносабати билан Адиблар хиёбонида адабий-маърифий тадбир ўтказилди. Жумладан, 9 февраль куни Адиблар хиёбонидаги шоир ҳайкали пойида адабий-маърифий тадбир бўлиб ўтди. Ёдгорлик олдидаги майдонда

давлат ва жамоат арбоблари, шоиру ёзувчилар, адабиётшунос-у тилшунослар, олий ўқув юрти ўқитувчи-ю талабалари, ижодий ташкилотлар, кенг жамоатчилик вакиллари ҳамда хорижлик меҳмонлар жам бўлди. Тадбир аввалидан улар Навоий ҳаёти ва ижоди ҳақидаги ўз билимларини бошқалар билан ўртоқлашди. Хиёбонда шоир ғазаллари билан айтиладиган мумтоз ашулалар ва мақом куйлари янграб турди. Тадбир Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси раиси, Ўзбекистон халқ шоири Сирожиддин Саййид сўзи билан очилди.

– Бугун мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотлар ва янгиланишлар силсиласида маҳалла, кўча ва гузарларни обод этиш, маҳаллаларни ҳақиқий маърифат ва маънавият маъвосига айлантириш, кутубхоналар ташкил этиш, ёшлар китобхонлиги ва таълим-тарбияни айнан маҳаллалардан бошлаш зарурлиги алоҳида мазмун ва аҳамият касб этмоқда, – дейди Ўзбекистон халқ шоири Сирожиддин Саййид.

– Алишер Навоий ижодида ҳам маҳаллот ва эл-юрт ободлиги мавзуси алоҳида ўрин тутади. Маҳалла-кўйнинг обод ва сариштaлиги – элу юрт ободлиги, эл-юрт ободлиги ва фаровонлиги эса бевосита ҳар бир хонадон, ҳар бир кўча ва гузарнинг маъмур ва фаровонлиги сифатида талқин этиладики, бу масалага бугунги кунда ҳам юртимизда катта эътибор қаратилмоқда.

Топғали таъйини маҳаллот баҳр,
Аҳли маҳаллот ойириб, шаҳр-шаҳр.
Шаҳрлар отини маҳаллот этиб,
Бўлди чу юз шаҳр Ҳири от этиб.
Оллаҳ-оллаҳ, не Ҳири, бу Ҳири,
Бир-биридин турфа анинг ҳар бири.

Демакким, обод ва саришта маҳаллаларнинг сони юзга яқинлашганда – катта шаҳарга айланади. Бу ўринда ҳар жиҳатдан илму маърифат, фазлу камол маркази бўлган Ҳирот шаҳри шундай мақомга эришгани айтилмоқда.

Тадбирда филология фанлари номзоди Олимжон Давлатов, навоийшунослар Буробия Ражабованинг нутқи тингланди. Шунингдек, хорижлик меҳмонлар – АҚШлик олим Азизулло Орол, туркиялик олим Воҳид Туркнинг табриги эшитилди. Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзолари Раҳимбой Жуманиёзов Навоий ғазалларидан, Кумушбиби Абдусаломова эса шоирга бағишланган шеърини ўқиб берди. Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист Моҳичеҳра Шомуродова “Муножот”ни ижро қилди. Шундан сўнг йиғилганлар Навоий ҳайкали пойига гулчамбарлар қўйди.

Адиблар хиёбонида Алишер Навоий ижодига оид китоблар кўргазмаси, бадиий адабиётлар ярмаркаси ташкил этилди. Шу билан бирга, шоир номидаги давлат адабиёт музейи ҳамда Ўзбек тили ва адабиёти университети ҳовлисидаги Алишер Навоий ҳайкали пойида адабий-маърифий тадбирлар ва гул қўйиш маросимлари ўтказилди. Ижодкорлар, жамоат вакиллари, ўқитувчи-педагоглар, талабалар иштирокидаги тадбирларда шоир буюк шеъриятига назар ташланди, ғазаллари, рубойилари жаранг сочди.

Шу куни Адиблар хиёбонидаги 25 нафар адибга ўрнатилган ҳайкаллар пойида ҳам навоийхонлик тадбирлари давом этди.

Шунингдек, барча бўғиндаги таълим муассасалари, ҳарбий қисмлар ва маҳаллаларда мунтазам ўтказилаётган навоийхонлик, “Назм ва наво” кечалари, ғазалхонлик ва мақом анжуманлари юртдошларимизни улуғ шоир ижоди билан янада яқинроқ таништириш имконини бермоқда.

Бу ўринда бизга бой адабиётимиз, унинг умрбоқий мавзулари, инсон камолотига доир ўлмас асарлар ёрдамга келади. Хусусан, ўзбек мумтоз адабиёти тарихидаги икки буюк сиймо – Алишер Навоий ҳамда Заҳириддин Муҳаммад Бобур ижодини ўрганиш орқали чинакам инсон ҳаёти қандай бўлиши кераклиги ҳақида етарлича тасаввурга эга бўлиш мумкин. Навоий ва Бобур асарларининг туб моҳиятига етиш учун уларни тушуниб ўқиш керак бўлади. Кўриниб турибдики, жараён ўз-ўзидан мумтоз адабиётни ўқитиш масаласига бориб тақалади.

Бобурнинг таълим назариясидаги бир мухим хусусияти, ўзи билган билимларни келажак авлодга илинишидир. Авлодим билсин деб элига ўргатгиси келади. Бу хол уни башариятга буюк маънавий бойликлар қолдиришига муваффақ қилди. Ундан мерос бўлиб колган лирик шеҳрий асарлар; «Бобурнома», «Мухтасар», «Мубаййин», «Волидия» ва бошка асарлари жахон фанида, айниқса халқ тарбия конунларида алохида ўрин тутади. «Бобурнома»да эса шу даражада кўп ва турли-туман Маълумотлар борки, улардан хозирги даврдаги мавжуд фанларнинг деярли барча сохаларига тегишли Маълумотларни олиш мумкин. Шу жихатдан қараганда, «Бобурнома» болалар ва ёшлар китобхонлигида катта ахамиятга моликдир.

Бобурнинг ярим аср давомида китобдан китобга ўтиб келаётган қуйидаги рубоийси,

Гар руҳ дам этса оҳанги на ғам,
Мажлиста не ҳузн қолур эрдию не ғам,
То борғали руҳ дам беринг мажлисдин,
Мажлис элига не руҳ қолдию, не дам.

(“Шоҳ ва шоир Заҳириддин Муҳаммад Бобур» “Шарқ”, 1996, 93- бет)

Бобур ўз рисоласида *ариз* баҳри ҳақида маълумот келтирар экан, бу баҳрнинг араб арузида мавжуд эмаслигини, балки форс шоирларининг ихтироси эканлигини алоҳида таъкидлайди: “Бу вазнда тозий (арабча – Д. Ю.) шеър топмайдурлар. Бу баҳрни ажам шуъароси пайдо қилиб мақлуби тавил (тавилнинг зидди – Д. Ю.) дебтурлар, ариз ҳам дерлар”[4].

“Бобурнома”да уч-тўрт ўринда Бобур базмларининг гули – хушовоз ҳофиз Руҳдам ҳақида сўз боради.

Гар Руҳдам этса оҳанги нағам,
Мажлиста на ҳузн қолур эрдию на ғам.

Мазмуни: базмда Руҳдам ашула бошласа, базмдагиларда ғаму ҳазинлик деган нарса қолмайди. Навоий ва Бобур асарларининг туб моҳиятига етиш учун уларни тушуниб ўқиш керак.

– Алишер Навоий ҳамда Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўзбек мумтоз адабиётини ёритиб турган икки ёруғ юлдуздир. Бобур ҳаётидаги доимий ҳарбий сафарлар, қўнимсизлик, вақт имкони билан боғлиқ ҳолатларга кўра Бобур ғазалларининг байтлари – 5-7 байтли бўлган бўлса ажабмас. Навоий бу томондан ҳамма имкониятга эга эди. Ҳатто девонни барча ҳарфларга тегишли қофияли қилиш ғамини ҳам ер эди у…

Бобур рисоланинг баҳрлар таҳлилига доир қисмида ариз баҳридан ҳосил бўлувчи тўрт мустаъмал (истеъмолдаги) вазн ҳақида маълумот бериб, бу вазнларнинг иккитаси мустаъмали матбуъ (истеъмолдаги ёқимли) эканлигини таъкидлайди. Улардан бири – *аризи мусаммани солим* вазнига ўзининг

Лабинг маржон, тишинг дур, хатинг райҳон, хадинг гул,
Сочинг анбар, юзунг ҳур, менгинг мўлтон, юзунг мул

байтини мисол қилиб келтиради. Бу байт шоирнинг “Девон”ида учрамайди, мазкур ҳолат Бобурнинг юқоридаги байтни шунчаки тажриба учун, таҳлил қилинаётган вазнга мисол сифатида ёзганлигини кўрсатади.

Бобур келтирган ушбу байт қуйидагича:

Санойи зотинг ичра топиб ажз, аҳли идрок,
Гаҳи лоуҳси айтиб замоне “мо арафнок” [5].

Мазкур матлаъ “Наводир уш-шабоб” девонига 322-рақам билан киритилган бўлиб, мавзусига кўра ҳамд ғазал ҳисобланади:

Демак, хулоса ўрнида айтиш мумкинки, Навоий ёш авлодни тарбиялаш ўқитиш ишини ҳар қандай тасодифий кишига топширишни қоралаган. У ўқиту вчига энг юксак талаблар қўйган.

Болани тарбиялаш ва унга илм бериш, унинг қобилиятини ўстириш учун ни ҳоятда билимдон ва уста тарбиячи бўлиши кераклигини, болаларга таълим-тарбия берадиган ўқитувчилар ёшларга илм, одоб ўргатиш маҳоратига эга були ши, ўқитиш йўлларини яхши билиши лозим ва зарурлигини ўқтирган.

Давлатимиз мустақилликка эришган ҳозирги даврда буюк бобомиз Навоий меросини ёш авлодга чуқур ўргатишимиз зарур.

Зероки, у ўз асарларида миллий ифтихор, халқда, она тилига, Ватанга мехр-муҳаббат билан қараш ғояларини тарғиб қилган. Бугунги кунда ўзбек адабиётида ижоди энг кўп ўрганилган адабий сиймо бу Навоий ва Бобур бўлишига қарамасдан ва бугунда ҳар иккиси ҳақида юзлаб китоблар чоп этилгани ва тахминан шу миқдорда диссертациялар ёзилганига қарамасдан ҳали-ҳамон муаммолар кўп. Келгусида бу икки буюк ижодкор ҳаёти ва ижоди борасида энг саҳиҳ ва мукаммал илмий асарлар яратилиши ва халқимиз, айниқса, ёшлар ўртасида шоир асарларини кенг тарғиб этишнинг энг замонавий усул ва воситалари ишлаб чиқилиши, айниқса, бунда интернет тизимидан, ижтимоий тармоқлардан ўринли фойдаланиш лозим деб ҳисоблаймиз. Навоийшунослик ва Бобуршуносликдаги энг катта ўз ечимини кутаётган масала Навоий ва Бобур асарларининг мавжуд қўлёзмалари асосида саҳиҳ, муаллиф дасхатига мос келадиган илмий академик тўплам нашрини эълон қилишдир. Шу ўринда олимларимиз томонидан олиб борилаётган илмий тадқиқот ишлари таҳсинга сазовор эканини ҳам айтиб ўтсак бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика (X-XV вв.) – М.: Наука, 1989. – 240 с.
2. Насируддини Туси. Меъёр-ул-ашъор. – Душанбе: Ориёно, 1992. – 150 с.
3. Навоий Алишер. Мезон ул-авзон. МАТ. 20 томлик. – Т.: Фан, 2000. Т. 16. – Б. 43-98.
4. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадоеъ-ус-саноеъ / Форсчадан А. Рустамов таржимаси. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981.
5. Навоий Алишер. Наводир уш-шабоб. МАТ. 20 томлик. – Т.: Фан, 1989. Т. 4. – 560 б.

АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИ “КАРРА ЖАДВАЛИ ЭМАС...”

Долиева Дилнура Алишер қизи

Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат техника университети талабаси

Аннотация: Мақолада Алишер Навоий бобомизнинг ижодини қалбдан ҳис эттира олиш, ҳар бир ўқилган асарни тушуна олиш ва анализ қилишдаги муаммоларни бартараф этиш, китоб ўқишнинг сони эмас балким сифати энг олий даражада туриши яққол тасвирланган. Алишер Навоий ижодини ўрганишдаги бир қанча қийинчиликларни енгиб ўтиш мумкин бўлган тавсиялар кўрсатилган. Бундан ташқари китоб ўқиш инсон ҳаётидаги энг мухим ва фойдали эканлиги ёритилган.

Аннотация: В статье наглядно описано, как прочувствовать творчество нашего дедушки Алишера Навои от души, понять и проанализировать каждое произведение, преодолеть проблемы чтения, причем не количества прочитанного, а качества самого высокого уровня. Есть ряд рекомендаций, которые можно преодолеть при изучении творчества Алишера Навои. Кроме того, учат, что чтение – это самое важное и полезное дело в жизни человека.

Abstract: The article clearly describes how to feel the work of our grandfather Alisher Navoi from the heart, to understand and analyze each work, to overcome the problems of reading, not the quantity of reading, but the quality of the highest level. There are a number of recommendations that can be overcome in the study of Alisher Navoi's work. In addition, it is taught that reading is the most important and useful thing in human life.

Калит сўзлар: Алишер Навоий, Заҳириддин Бобур, асарлар, Бобурнома, Фарход ва Ширин, Юлдузли тунлар, Авлодлар довони.

Ключевые слова: Алишер Навои, Захириддин Бобур, произведения, Бобурнома, Фарход и Ширин, Звездные ночи, Перевал поколений.

Keywords: Alisher Navoi, Zahiriddin Bobur, works, Boburnoma, Farkhod and Shirin, Starry Nights, Generation Pass.

Алишер Навоий қалбда муҳаббат уйготувчи ғазал-у асарлари билан бутун дунёни қалбини забт этди. Бутун дунё тан олган шоир бизнинг она ватанимиз фарзанди эканлиги бизга ғурур ва фахр беради. Биз Алишер Навоийнинг ижодини ўрганишда жуда катта муаммоларга учраймиз. Чунки ўтган асрларда гапириш услублари хамда шеваси ҳозирги XXI асрнинг авлодларида кузатилмайди. Ҳозирги кунда ёшларимиз жуда катта иштиёқ билан Хамсани ўз қўлларига оладилар. Аммо бир неча вароқ ўқийдилар-у охирига қадар етиб боришмайди. Охирига етганларидан эса сўрасангиз айнан у китобдан ўзлари учун нима хулоса олганликларини аксарият ҳолларда ифодалай олишмайди. Китобхонлар танлови ташкил этилиб ёшларимиз автомобиллар билан тақдирлана бошлангандан сўнг ҳаммада китоб ўқиб машина ютиб олиш истаги уйгонди. Аммо китоб ўқиб ўша биргина китобнинг чуқур маъносини англаб етиш уйгондимикин..?! Узоқдан қаралганда бу рағбатлантириш жудаям ажойиб кўринади.

Бир ўйлаб кўринг ёш фарзандларни ота-оналари дарсларни ўрганишда шоколад олиб бераман, “мана шу дарсни қилсанг” ёки “беш баҳо олсанг паркка олиб бораман” дейишади. Болалар баъзан билим олиши кераклигини унутиб фақатгина бахо ҳаётларида муҳим ўринни эгаллай бошлайди. Болалар билим олиш учун эмас балким баҳо учун талашадиган, баҳо учун ўқийдиган бўлишади. Ёдлаб олиниши керак бўлмаган вазифаларни ёдлаб оладилар ва бир ҳафтадан сўнг унутиб юборадилар. Ўйлаб кўринг кимдир бегона бир инсон Алишер Навоий ким эди, Заҳириддин бошидан нималарни ўтказган эди деб чет эллик ёки бошқа бир қизиққан инсон савол бериб қолса нима дер эдингиз?! Ёдлаб олинган, қалбининг энг тубига етиб бормаган асарлар умри қаергача деб

ўйлайсиз?! Алишер Навоий асарларининг умри боқийдир. Аммо уни чин юракдан тушуниш орқалигини бунга эриша оламиз. Ваҳоланки инсон қалбан ҳис қилиб, тасаввур қилган нарсаларинигина унутмайдилар. Тасаввур инсон онгида жуда муҳимлигини англамайдилар. Ҳаётимиз давомида яхшилаб эътибор берсангиз ҳамма фанини 5 бахога ёдлаш орқали битирган, аксарият ҳолларда ёдлаб олинган нарсалар ҳаёлидан унутилиб кетган, онги, дунёқараши ўсишига фойда бермаган ҳолатлар кўп учрайди. Бу дунёда идеал инсоннинг ўзи йўқ. Лекин маълум бир соҳаларда инсон ютуқларга эришиб ўз соҳаларида идеалликларини исботлай оладилар.

Навоий ижодини ўрганишда ёндашув тўғри эмас. У “карра жадвали бўлса экан ҳис қилмасдан ёдлаб олсак”...Навоий асарларига меҳр-муҳаббат қўя олиш муҳим. Уни ёдлаб ўрганиб бўлмайди. Юракдан ҳис қилиш керак. Ҳар бир мисраларни ўқиганимизда баъзи бир сўзлар нотаниш бўлиши, ёшларнинг ҳар бир вилоятда шевалари ҳар-хиллиги, ҳар бир маълумотнинг инсон онгига ҳар хил етиб боришлиги сабаб бўлади. Мен сизларга Заҳириддин Мухаммад Бобур қаламига мансуб “Бобурнома” орқали бир энг қизиқ жиҳатни айтиб ўтмоқчиман. “Бобурнома” ни ҳам қўлимизга олиб ўқишни бошлаганимизда бироз тушунишга қийналамиз. Аммо Пиримқул Қодировнинг “Юлдузли тунлар” хамда “Авлодлар довони” романини ўқиганимизда кўз ўнгимизда айнан тасаввур уйгонади. Чунки бизга таниш бўлган бадиий услубда ёзилганлиги боис тасаввуримизда ҳар бир қаҳрамон намоён бўлади. Бундай тўсиқлар ва муаммолар бўлиши табиий. Ҳаммасига сабаб вақтнинг олий ҳакамлигидир.

Аллохимга шукрлар бўлсинким, бизнинг давлатимизда шоир ва адибларимиз бор. Уларга ҳамма услублар таниш. Пиримқул Қодиров каби қалами ўткир, тасаввур олами кенг ва тасаввур эттира олиш қобилияти кучли шоир ва ёзувчиларимиз орқали бу катта муаммо ва тўсиқни ёриб ўтишимиз мумкин. Бу жуда катта ёрдам. Шахсан менинг ўзим ҳам китобларни қанча севиб ўқувчи бўлишимга қарамай, “Бобурнома” ва “Фарход ва Ширин”ни

тушунишда бироз қийинчиликларга учраганман. Аммо Пиримқул Қодировнинг “Юлдузли тунлар” ҳамда “Авлодлар довонини ўқиганимда янаям яхшироқ аниқроқ тушунганман. Бу билан мен фақатгина аввалига тушунишга қийналаётган ёшларимиз шу каби романларни ўқиб ана ундан сўнг Буюкларимиз ёзган манбаларни ўқишда қийинчиликларга учрамаслигини, кўп вазиятлар уларга танишлиги оқибатида янаям яхшироқ тушунишларини ҳис этмоқдаман.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки аввал ёшларимиз тушуниши, онгига тезроқ сингишида қулайликлар яратиб, дунёқараши кенг шоир-у ёзувчиларимиздан кўмак сўрашимиз лозим. Чунки улар ёшлардан кўра кўпроқ кўйлак йиртган, ўз дунёқараши ва ўз фалсафасига эга кучли шахслардир. Алишер Навоийнинг ижоди орқали жуда кўп маълумотларга эга бўлиш мумкин. Албатта мактаб дастурларида ҳам кучли педагогларимиз бунга амалий ёрдам бера олади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Пиримқул Қодиров “ Юлдузли тунлар” 1978 й
2. Пиримқул Қодиров “ Авлодлар товони” 2019 й

“RESEARCH AND EDUCATION”
Scientific Research Center



“NEW RESEARCH ON THE WORKS OF ALISHER NAVOI AND ZAHIRUDDIN MUHAMMAD BABUR”

www.researchedu.uz

Languages of publication: o’zbek, english, русский

TASHKENT, UZBEKISTAN
2022/ FEBRUARY 25